

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG`ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI



ONA TILI VA ADABIYOT

fanidan

o'quv-uslubiy majmua

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111700 - BT va STI

GULISTON -2017

Ushbu o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi OO'MTV tomonidan 5111700 – “Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi uchun 2017 yil “10” 11. dagi 430-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ona tili va adabiyot” namunaviy fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Mualliflar: f.f.n. J. Abdullayev.
o'qituvchi G. Dushayeva.

Taqrizchilar: f.f.n. O. Fayzullayeva
p.f.n., dots. A. Bolibekov

O'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashi tomonidan 2017 yil “28” dekabrda -sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
Nazariy materiallar (Ma’ruzalar kursi).....	9
Amaliy ishlarning bajarilishi bo’yich uslubiy ko’rsatmalar.....	37
Mustaqil ta’lim bo’yicha materiallar.....	45
Glossariy.....	50
Test savollari.....	53

Ilovalar:

Fan dasturi

Ishchi fan dasturi

Ingliz va rus tilidagi xorijiy o’quv materiallari (elektron shaklda)

Taqdimot va multimediya vositalari (elektron shaklda)

Qo’shimcha didaktik materiallar

Kirish

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Ona tili va adabiyot fanidan Pedagogika fakultetining boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi uchun mo'ljallangan bo'lib, zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tayyorlangan.

Majmua Ona tili va adabiyot fanidan bo'yicha: a) ishchi dastur; b)fan bo'yicha reyting ishlanmasi; v) baholash mezonlari; g) ma'ruza matnlari; d) amaliy mashg'ulotlar (mashqlar va ularni bajarish tartibi); e)mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar; yo) OB va YaBlarni o'tkazish uchun nazorat savollari; Z) asosiy mavzular,masalalar bo'yicha yakuniy xulosalar;j) fan bo'yicha echimini kutayotgan, yangicha yondashuvlar asosida yanada chuqurroq o'rganishni talab qiladigan ilmiy muammolar; i)mavzularni o'rganish bo'yicha tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Pedagogik texnologiya tamoyillaridan kelib chiqib, majmuada har bir mavzu bo'yicha asosiy savollar, har bir asosiy savol bo'yicha dars maqsadi, identiv o'quv maqsadlari ishlab chiqilgan,mavzuga oid muammoli savollar belgilangan, iqtidorli talabalar uchun o'z echimini kutayotgan ilmiy muammolar ko'rsatilgan.

“Ona tili va adabiyot”dan maqsad milliy tilimiz so'z shakllarini, so'z turkumlaridagi grammatik shakllarini tavsiflab berish, ulardan har birining o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatish, amaliy nutq sharoitida ularning mazkur so'z shakllaridan o'rinli, maqsadli foydalana bilish mahorati va ko'nikmasini hosil qilishga odatlantirish, o'zbekona fikrlab, o'zbekona yozma bayonga o'rgatishdir.

O'quv-uslubiy majmua 5111700 boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bakalavriat bosqichi uchun Namunaviy o'quv dasturi (tuzuvchilar: filologiya fanlari nomzodlari, professorlar D.SHODMONQULOVA,D.A.MUHAMEDOVA, filologiya fanlari nomzodi, dots.M.A. HAMROYEV) asosida yozilgan bo'lib, unda hozirgi o'zbek adabiy tilining morfologiyasi hamda bu tizimning nutqiy voqelanishi yoritildi.

Qo'llanmaning yaratilishida filologiya fanlari doktorlari, professorlar Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiev, I. Rasulov, X. Doniyorovlar muallifligidagi “Hozirgi o'zbek adabiy tili” (1-qism. Pedagogika institutlarining filologiya fakulteti studentlari uchun darslik. T.: O'qituvchi. 1980),shuningdek, “O'zbek tili grammatikasi” (t.l.-T.: Fan, 1975) kabi o'zbek an'anaviy tilshunosligining nodir ilmiy va o'quv manbalaridagi materiallar, daliliy misollardan keng foydalanildi.

Mualliflar majmuani yaxshilashga,mukammallashtirishga ko'maklashadigan barcha fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladi.

Guliston shahri, 4-mavze, GulDU bosh binosi Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim kafedراسi.

I SEMESTR

ONA TILI VA ADABIYOT(FONETIKA) MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

TILSHUNOSLIK VA TIL HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Ajratilgan soat 8 soat

1. Umumiy tilshunoslikdan ma'lumot. Til-ijtimoiy hodisa.
2. O'zbek tili – O'zbekiston Respublikasining davlat tili. Hozirgi ona tilining tuzilish uzvlari: tovushlar tizimi, leksikasi, grammatik qurilishi. Tilshunoslik bo'limlari.
3. Milliy til va uning tarkibiy qismlari. Milliy va adabiy til. Ona tili va uning tayanch dialekti.
4. Tilning paydo bo'lishi, tillarning taraqqiyoti. Lingvistik va ekstralingvistik omillar. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari. Tillarning tasnifi.

Mavzu rejasi:

1. Tilshunoslik va uning turlari.
2. Til ijtimoiy hodisa sifatida.
3. Milliy til va uning tarkibi.
4. Tilning tuzilishi va tilshunoslik bo'limlari.
5. Tillarning tasnifi.

1-masala bayoni

Tilshunoslik va uning turlari

Ma'lumki, hozirgi zamon fanlari tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlardan tarkib topgan:

1. Tabiiy fanlar.
2. Texnika fanlari.
3. Ijtimoiy-gumanitar fanlar.
4. Matematika fanlari.¹

Tilshunoslik fani kishilar tili haqidagi fan sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar guruhiga kiradi. "Tilshunoslik til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi haqidagi; muayyan tillarning ish ko'rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyoti haqidagi fan"². Tilshunoslik fani hozirgi zamon fanining barcha asosiy turlari bilan bog'liq.

Tilshunoslik – ko'p qirrali fan. U fan sifatida umumiy va xususiy, nazariy va amaliy tilshunoslikka ajratiladi.

Umumiy tilshunoslik barcha tillar bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni umumlashtiradi va turli tillarga tatbiq etiladigan nazariyani yaratadi. Umumiy tilshunoslikning maqsadi: 1) tilning tabiatini, mohiyatini aniqlash; 2) til haqidagi fanning sathlarini va ularni o'rganuvchi sohalarni belgilash; 3) tillarning tasnifini yaratish; 4) lingvistik tahlil metodikasini ishlab chiqish va boshqalar.

Xususiy tilshunoslik – alohida, ayrim til haqidagi fan; jumladan, o'zbek tilshunosligi - o'zbek tili haqidagi fan, qozoq tilshunosligi - qozoq tili haqidagi fan, rus tilshunosligi – rus tili haqidagi fan va h.k.

O'z-o'zidan ayonki, har bir xususiy tilshunoslik ma'lum bir konkret tilga xos bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Nazariy tilshunoslik til haqidagi nazariyani o'rgansa, **amaliy tilshunoslik** lingvistik bilimlarni amalda qo'llash bilan shug'ullanadi.

2-masala bayoni

¹ 1. A.Nurmonov, B. Yo'ldoshev. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –T.: 2001, 11-bet.

² A.Hojjiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2002, 107-bet.

Til ijtimoiy hodisa sifatida

Til kishilarning o'zaro muloqotga kirishuvi va fikr almashuviga bo'lgan ehtiyoj natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy hodisadir.

Til paydo bo'lgandan keyin (bu, olimlarning taxminicha, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yuz bergan) jamiyat tez rivojlana boshlagan. Til jamiyat uchun, uning a'zolari bo'lmish insonlar uchun xizmat qiladi, shuning uchun til ijtimoiy hodisa hisoblanadi, ya'ni til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo'lib, shu jamiyat a'zolari yordamida shakllantirilib, rivojlanib boradi.

Shu tufayli ham tilning taqdiri jamiyatning taqdiri bilan chambarchas bog'liq. Til bo'lmasa, jamiyatning bo'lishi mumkin emas, ya'ni til odamlarni jamiyat sifatida jipslashtirib turuvchi buyuk ne'matdir. Jamiyatsiz tilning mavjud bo'lishi mumkin emas. Jamiyat a'zolari ham tilning yashashi, rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shadi. Shu munosabat bilan o'tgan asrning 80-90-yillaridagi o'zbek tilining ahvolini eslash o'rinlidir. Bu davrda o'zbek tilining faoliyat ko'rsatish doirasi juda torayib, uning yo'q bo'lib ketish xavfi paydo bo'ldi.

Ana shunda jamiyatimizning ilg'or vakillari ona tilimizni himoya qilib, uning taqdiri uchun qayg'urib, amaliy harakatlarni boshlashdi va buning natijasida 1989 yil 21-oktyabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi Qonun qabul qilindi. Aytish mumkinki, bu Qonunning qabul qilinishi istiqbol tomon qo'yilgan dastlabki qadamlardan biridir.

Til tafakkur bilan, kishining fikrlash faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Har qanday fikr til materiallari asosida shakllanadi.

Til ijtimoiy hodisa sifatida til to'xtovsiz ravishda o'zgarib turuvchi, taraqqiy etib boradi. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Tilning taraqqiyoti birinchi navbatda uning lug'at boyligida o'z aksini topadi. Kishilar hayotidagi o'zgarishlar, ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti leksikani boyitib boradi. Tilning tovushlar tizimi va grammatik qurilishi esa juda sekinlik bilan o'zgaradi. Buni til tarixini o'rganish orqaligina sezish mumkin.

O'zbek tili - o'zbek millatining tili, o'zbek tili - O'zbekiston Respublikasining davlat tili. Davlat tili sifatida o'zbek adabiy tilining mavqei beqiyos darajada o'sdi, xizmat doirasi kengaydi, lug'at tarkibi boyidi, fonetik tizimi, grammatik qurilishning takomillashuvida katta o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbek milliy tili hozirgi o'zbek millatiga mansub bo'lgan barcha kishilarning umumiy va yagona tilidir. U o'zbek millatining shakllanishi bilan bevosita bog'liq. O'zbek millati shakllangunga qadar u urug' tili, qabila tili va xalq (elat) tili tarzida yashab, rivojlanib keldi.

O'zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasining kengayishi natijasida uning lug'at tarkibida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tilning leksikasi ichki imkoniyatlar bilan yangi yasalgan so'zlar va boshqa tillardan qabul qilingan so'zlar hisobiga boyib borishi ko'zga tashlanmoqda. Kishilar ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi, xalq xo'jaligidagi, madaniyat, fan-texnika sohasidagi ko'pgina o'zgarishlar yangi tushunchalarni, yangicha munosabatlarni keltirib chiqardi. Bularning hammasi o'zbek tili leksikasining ko'pgina yangi so'zlar hisobiga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar hisobiga boyishiga sabab bo'ldi. Masalan: *broker, diler, makler, kompyuter, menejer, fermer, biznes* va h. Ayrim o'zbekcha so'zlarning ma'nosida o'zgarishlar ro'y berib, ular boshqa ma'nolarda qo'llana boshladi. Masalan: *ishbilarmon* va *tadbirkor* so'zlari ilgari sifat turkumiga mansub bo'lib, belgi ifodalagan bo'lsa, hozirgi paytda bu so'zlar ot turkumiga o'tdi va shaxs ma'nosini ifodalaydigan bo'ldi. Bu jarayonlarning barchasi o'zbek tili lug'at boyligini yangi pog'onaga ko'tardi.

O'zbek tilining fonetik tizimida, grammatik qurilishida ham ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Jumladan, fonetik tizimda, o'zlashma so'zlarda o'zbek tiliga xos bo'lmagan bo'g'inning yangi turlari (so'z boshida va so'z oxirida ikki yoki undan ortiq undoshning qator kelishi) paydo bo'ldi: *sport, stol, traktor, shkaf, magistr, kongress* kabi. Shuningdek, o'zlashma so'zlarda ikki unlining o'zbek tili uchun xos bo'lmagan ketma-ket kelish holatlari kuzatiladi: *aeroport, bionika, geologiya, teatr, poema* kabi.

Grammatik qurilishda kelishik shakllari, ayrim ko'makchilarning ma'nosi va vazifasi kengaydi, kelishikli boshqaruv va ko'makchili boshqaruv me'yorlari belgilandi. Ot boshqaruvi asosida tuzilgan so'z birikmalari ko'proq qo'llana boshladi.

O'zbek tilining bundan keyingi taraqqiyoti leksikaning yana ham boyishi, grammatik qurilishning ichki qonuniyatlar asosida takomillasha borishi bilan bog'liq ravishda davom etadi.

3-masala bayoni

Milliy til va uning tarkibiy qismlari

Ma'lumki, o'zbek xalqi Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri bo'lib, uning tili XI-XII asrlarda ma'lum ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga ko'ra xalq tili sifatida shakllana boshladi va asta-sekinlik bilan rivojlanib keldi.

Qayerda yashashidan qat'i nazar o'zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til **milliy (umumxalq) o'zbek** tili deb yuritiladi. Milliy til o'z tarkibiga adabiy til, sheva, so'zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so'kish, qarq'ish so'zlari), varvarizm (tilda o'rinsiz ishlatilgan chet so'zlar) kabi guruh so'zlarni qamrab oladi.

Jamiyatning muayyan tarixiy rivojlanish sharoitida xalqlar (elatlar) taraqqiy qilib, millatga, xalq tillari esa milliy tillarga aylandi. Demak, milliy til millatning paydo bo'lishi bilan birga yuzaga keladi.

Milliy til millat uchun umumiy bo'lgan tildir. Milliy til tushunchasi juda keng bo'lib, u mahalliy dialektlarni (lahja)larni va barcha shevalarni o'z ichiga oladi. **Sheva** bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Sheva adabiy tildan quyidagi xususiyatlariga ko'ra farq qiladi:

1. Fonetik (ya'ni tovush) jihatdan: *yo'q (ad.) – jo'q (sheva), keldi (ad.) – galdi (sheva), bahor(ad.) – bohor(sheva).*

2. Leksik (ya'ni so'z) jihatdan: *ota (ad.) - ada(sheva), chumchuq(ad.) – secha(sheva), sigir(ad.) – inak(sheva).*

3. Grammatik (ya'ni, qo'shimchalar va gap qurilishi) jihatdan: *kelyapti (ad.) – kevotti – kelopti – kelutti.*

Xalq shevalarining ¹faqat **og'zaki** shakli mavjud.

Shevalarning bir-biriga yaqin bo'lgan guruhleri **lahja** deb ataladi (**dialekt** so'zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi.). Jumladan, o'zbek milliy tilining uchta lahjalar (dialektlar) guruhi mavjud:

1. Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).
2. Qipchoq lahjasi (janubiy-g'arbiy guruh).
3. O'g'uz lahjasi (shimoliy-g'arbiy guruh).

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini o'z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro). Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

1) so'z oxiridagi **k** tovushi **y** tarzida aytiladi: *elak* - *elay*, *terak* - *teray*

2) **o** lashish yuz beradi: *aka* - *oka*, *nahor* – *nohor*.

3) Bu lahjada qaratqich kelishigining qo'shimchasi yo'q bo'lib, uning o'rniga ham tushum kelishigi qo'shimchasi *-ni* ishlatiladi: *ukamni(ng) daftari*.

Qipchoq lahjasi shevalari O'zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog'iston, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari). Belgilari quyidagilar:

1) **y** o'rnida **j** ishlatiladi: *yo'l* - *jo'l*, *yo'q* - *jo'q*.

2) **g'** o'rnida **v** ishlatiladi: *tog'* - *to'v*, *sog'* - *so'v* va b.

3) so'z oxirida **k**, **q** tovushlari tushiriladi: *quru(q)*, *sari(q)*.

O'g'uz lahjasi Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo'shko'pir, Shovot tumanlari) bir qancha shevalarni o'z ichiga oladi. Belgilari:

1) unlilar qisqa va cho'ziq aytiladi: *at (hayvon)*, *aad (ism)*.

2) **t** tovushi **d**, **k** esa **g** tarzida aytiladi: *tog'* - *dog'*, *keldi* - *galdi*.

3) **-ning** qo'shimchasi **-ing** tarzida, **-ga** qo'shimchasi esa **-a**, **-na** tarzida aytiladi: *yoringa* – *yorima*, *alina* (*qo'liga*).

¹ Бодуэн де Куртене И. А. Избранные труды по общему языкознанию.-М. 1963 г.

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg'ona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi **fonetik** jihatdan, Farg'ona shevasi **morfologik** jihatdan adabiy tilga asos bo'lgan. Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi.

Milliy til va adabiy til tushunchalari bir xil emas. Milliy til millatning maydonga kelishi bilan paydo bo'lsa, adabiy til milliy tildan oldin, xalq tili mavjud bo'lganda ham yuzaga keladi.

Milliy tilning ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, san'atkorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqlashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli **adabiy til** deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'lishi kerak. Umuman, millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo'lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo'lgan. Milliy o'zbek tilida shevalarning ko'pligi adabiy tilga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam bo'lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo'q.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko'radi. Adabiy tilning **og'zaki** va **yozma** shakllari mavjud.

Adabiy tilning og'zaki shakli nisbatan qadimiy bo'lib, u nutq tovushlari, urg'u, ohang (ohang) kabi fonetik vositalarga asoslanadi. Talaffuzga oid qoida va me'yorlarni orfoepiya belgilab beradi.

Adabiy tilning yozma shakli grafik vositalarga asoslanadi. Yozuvga doir qoida va me'yorlarni orfografiya (imlo) va punktuatsiya (ishorat) belgilaydi.

4-masala bayoni

Tilning tuzilishi va tilshunoslik bo'limlari

Til tuzilishiga ko'ra murakkab hodisa bo'lib, u bir-biri bilan uzviy bog'langan quyidagi qismlardan iborat:

1. Tovushlar tizimi.
2. Lug'at boyligi yoki leksika.
3. Grammatik qurilishi.

Ma'lumki, inson tili tovush tilidir. Har bir tilning o'z tovushlar tizimi mavjud. Tovushlar so'zlarni, iboralarni, grammatik shakl va ko'rsatkichlarni shakllantiradi.

Tovushlardan iborat bo'lgan so'z va iboralar yig'indisi tilning **lug'at boyligini** tashkil qiladi.

Lug'at boyligidagi so'z va iboralar fikrni ifodalovchi gap uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Gap, uni qurish qonun-qoidalarini tilning **grammatik qurilishi** belgilaydi.

Demak, tilning tarkibiy qismlari sanalmish tovushlar tizimi, lug'at boyligi, grammatik qurilishi o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, biri ikkinchisining bo'lishini talab qiladi. Har bir konkret til o'zining ana shu uzvlari bilan bir butun tizimni, sistemani, til tizimini tashkil etadi. Tilning tuzilishi sath tushunchasi bilan ham yuritiladi. Har bir sathning o'z birligi va ularni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limlari bor. Tilshunoslikning fonetika, leksikologiya, frazeologiya, morfemika, morfologiya, sintaksis kabi bo'limlari ana shu birliklarni alohida o'rganish natijasida yuzaga kelgan.

5-masala bayoni

Tillarning tasnifi

Olimlarning taxmin qilishlaricha, hozirgi kunda yer yuzida 5000 dan ortiq til bor. Bu tillar tarqalishi va ijtimoiy vazifalariga ko'ra ham, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra ham o'zaro farq qiladi. Jahon tillarining ko'pchiligini milliy tillar va xalq tillari tashkil qiladi, tillarning ayrimlari esa qabila tillari, hatto urug' tillari hisoblanadi.

Milliy tillar o'zining tarqalish hududi jihatidan hamda ulardan foydalanuvchi aholining miqdori, soni jihatdan bir xil emas: ayrim tillarda kichik hududdagi oz miqdorli aholi gaplashadi, ba'zi tillar esa juda katta hududlardagi ko'p sonli aholi orasida tarqalgan. Bunday tillarga ingliz, fransuz, nemis, ispan, xitoy, hind, arab, rus va shu kabi tillar kiradi.

Jahon tillarini tasniflash, ularning psixologiyasini ishlab chiqish umumiy tilshunoslikning vazifasiga kiradi.

Yer yuzidagi tillarni o'rganish XVIII asrdan boshlandi. XIX asrning birinchi yarmida tillarni bir-biriga qiyoslab tekshirish keng tus oldi. Natijada tillarni tekshirishda qiyosiy usul vujudga keldi;

bunda tillarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari bir-biriga solishtiriladi. Bu usul bilan tillarning faqat hozirgi holatigina emas, balki ularning tarixiy holati ham o'rganiladi. Shuning uchun ham o'rganishning bu yo'li **qiyosiy-tarixiy usul** deb yuritiladi. Tillarni shu yo'l bilan o'rgangan va o'zlarining ilmiy asoslari bilan jahonga tanilgan tilshunoslar sifatida daniyalik Rasmus Rask (1787-1832), olmoniyalik Frans Bopp (1791-1967) va Yakob Grimm (1785-1863), rus olimi Aleksandr Vostokov (1781-1864) kabi buyuk tilshunoslarni ko'rsatish lozim.

Tilshunoslikda tillarning qator tasniflari mavjud:

- 1) tillarning geneologik tasnifi; 2) tillarning morfologik tasnifi;
- 3) tillarning areal (geografik) tasnifi; 4) tillarning funktsional tasnifi.

Tillarning geneologik tasnifi tilshunoslikda tillarni tarixiy-qiyosiy usul bilan tekshirishning mahsuli bo'lib maydonga keldi. Bu tasnifga ko'ra, tillar bir umumiy manbadan kelib chiqqanligi, materiali (so'z, undagi tovushlar, o'zak va qo'shimchalar) jihatidan yaqinligi, o'xshashligiga asoslanib guruhlariga ajratiladi. Bir umumiy manbadan kelib chiqqan tillar qarindosh tillar oilasini tashkil qiladi.

Tillar oilasi qarindosh tillarning juda yirik guruhi hisoblanadi. Tilshunoslik tomonidan tekshirib aniqlangan til oilalari quyidagilardan iborat: 1) hind-evropa tillari; 2) semit tillar; 3) xamit tillar; 4) dravid tillari; 5) ugor-fin tillari; 6) xitoy-tibet tillari; 7) iberiy-kavkaz tillari; 8) oltoy tillari; 9) avstroneziya tillari; 10) yapon tili; 11) koreys tili va boshqalar.

Bular o'z navbatida yana shoxobchalarga bo'linadi.

Masalan, eng yirik tillar oilasi sanalmish **hind-yevropa** tillar oilasi quyidagi tillar guruhlariga ajratiladi:

1. Hind tillari. 2. Eron tillari. 3. German tillari. 4. Roman tillari. 5. Slavyan tillari. 6. Kelt tillari. 7. Boltiq tillari. 8. Grek tili. 9. Alban tili. 10. Arman tili.

1. Hind tillariga qadimiy hind yoki sanskrit tili (o'lik til), o'rta hind tili, hozirgi hind tillari (panjob tili, gujarat tili, bengal tili) kiradi.

2. Eron tillariga tojik tili, afg'on (yoki pushtu) tili, osetin tili, kurd tili, so'g'd tili (o'lik til), qadimgi fors tili, o'rta fors (yoki pahlaviy) tili, yangi fors tili kiradi.

3. German tillariga got tili (o'lik til), shved, daniya, norveg, island tillari (shimoliy german tillari), ingliz, nemis, golland, flamand, friz tillari (g'arbiy german tillari) kiradi.

4. Roman tillariga italyan, frantsuz, ispan, portugal, rumin, moldavan, provansal, katalan, sardiniya tillari kiradi. Roman tillari tarixan lotin tilidan kelib chiqqan. Bundan ikki ming yilcha oldin jonli til bo'lgan lotin tili hozir o'lik tilga aylangan.

5. Slavyan tillariga rus, belorus, ukrain tillari (sharqiy slavyan tillari), polyak, slovak, chex, lujik tillari (g'arbiy slavyan tillari), bolgar, makedon, serb, xorvat, sloven tillari (janubiy slavyan tillari) kiradi.

6. Kelt tillariga irland, shotland, uels, breton tillari kiradi.

7. Boltiq tillariga qadimgi prus tili (o'lik til), litva tili, latish tili, latgal tili kiradi.

Grek, alban, arman tillari biror guruhga kiritilmaydi, ularning har biri yakka-yakka holda olinadi.

O'zbek tili oltoy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning turkiy tillar guruhiga kiradi. Oltoy tillar oilasi quyidagi tillar guruhlariga bo'linadi:

1. Turkiy tillar. 2. Mo'g'ul tillari. 3. Tungus-manchjur tillari.

Turkiy tillar oltoy tillar oilasining ko'p sonli va rang-barang guruhidir. Turkiy tillar ikki guruhga ajratiladi: 1) g'arbiy turkiy tillari; 2) sharqiy turkiy tillari.

G'arbiy turkiy tillari tarmog'i o'z navbatida yana to'rt guruhga bo'linadi: a) bulg'or tillari (chuvash tili), b) o'g'uz tillari (gagauz, turkman, turk, ozarbayjon tillari), v) qipchoq tillari (tatar, boshqird, qumiq, no'g'ay, qoraqalpoq, qozoq tillari), g) qorluq tillari (o'zbek, uyg'ur tillari).

Sharqiy turkiy tillari tarmog'i ikki guruhga bo'linadi: a) uyg'ur-to'kyuy tillari (tuva, yoqut, shor, xakas tillari), b) qirg'iz-qipchoq tillari (qirg'iz, oltoy tillari).

Mo'g'ul tillariga mo'g'ul, buryat, qalmaq tillari (shimoliy mo'g'ul tillari guruhi), dagur, dunsyan, mengir tillari (janubiy-sharqiy mo'g'ul tillari guruhi) kiradi.

Tungus-manchjur tillariga evenk, even, negidal tillari (tungus guruhi) va manchjur, nanay, udegey, ulch, oroch tillari (manchjur guruhi) kiradi.

Tillarning morfologik tasnifi nisbatan keng tus olgan, chunki morfologik tizim tilning eng barqaror sathi hisoblanadi. Morfologik tasnif soʻzning tuzilishidagi oʻzak va qoʻshimchalarni bir-biriga qarama-qarshi qoʻyishga asoslanadi.

Bu tasnifga koʻra tillarning qarindoshligidan qatʼi nazar, soʻzlarning tuzilish turi asos qilib olinadi.

Morfologik tasnifga muvofiq jahon tillari toʻrt guruhga boʻlinadi:

1) amorf (soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchasiz) tillar; 2) agglyutinativ tillar; 3) flektiv tillar; 4) polisintetik tillar.

Amorf tillarning oʻziga xos xususiyati shundaki, ularda gap tarkibidagi soʻzlar hech qanday soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalarsiz, toʻgʻ ridan-toʻgʻ ri birikib, bogʻlanib keladi. Bunday tillarda grammatik maʼno yordamchi soʻzlar, soʻz tarkibi, muzikal urgʻu va ohang (ohang) orqali ifodalanadi. Mazkur vositalar soʻzlar orasidagi sintaktik munosabatni oʻrnatish uchun xizmat qiladi. Amorf tillarga xitoy, tibet, birma, vetnam va xitoy-tibet oilasiga mansub boʻlgan boshqa tillar misol boʻla oladi.

Agglyutinativ tillarda har bir grammatik maʼno odatda alohida affiks bilan, maʼlum bir grammatik koʻrsatkich bilan ifodalanadi. Masalan, *maktablarga* soʻz shakli tarkibidagi *-lar* qoʻshimchasi koʻplik koʻrsatkichi, *-ga* affiksi joʻnalish kelishigi koʻrsatkichidir. *Bormadilar* soʻz shakli *bor* - oʻzak, *-ma* - boʻlishsizlik shaklini yasovchi affiks, *-di* - yaqin oʻtgan zamon shaklini yasovchi affiks, *-lar* - III shaxs koʻplikni ifodalovchi affiksidir. Bunda biror affiks oʻzakka yoki maʼlum bir affiksga qoʻshiladi.

Agglyutinativ tillarga turkiy tillar, shu jumladan, oʻzbek tili, fin-ugor tillari, dravid, indonez, hindu tillari va boshqalar, shuningdek, alohida tillar hisoblanmish yapon va koreys tillari kiradi.

Flektiv tillarda birdan ortiq grammatik maʼno odatda birgina grammatik koʻrsatkich orqali ifodalanadi. Masalan, rus tilidagi *kniga* soʻzshakli tarkibidagi *-a* affiksi (tugallanmasi) uch grammatik maʼnoni: 1) jinsni (jenskiy rod), 2) bosh kelishikni (imenitelniy padej), 3) birlik sonni (yedinstvennoye chislo) bildirib kelgan; rus tilidagi *uchu* soʻz shakli tarkibidagi *-u* affiksi ham uch grammatik maʼnoni: 1) aniqlik (xabar) maylini; 2) hozirgi zamoni; 3) 3-shaxs birlikni koʻrsatish uchun xizmat qilgan.

Flektiv tillardagi bunday grammatik koʻrsatkich (tugallanma) **fleksiya** deb yuritiladi. Fleksiya ikki xil boʻladi: **tashqi fleksiya** va **ichki fleksiya**.

Tashqi fleksiya soʻz oxiriga qoʻshilib kelsa, ichki fleksiya soʻzning oʻzagida boʻladi. Fleksiyaning ikkala turi ham soʻzni grammatik jihatdan oʻzgartiradi. Tashqi fleksiyali tilga **rus** tili misol boʻla oladi: *zemi-ya, vod-a, pol-e, oblak-o, lyud-i* soʻzlari oxiridagi unlilar, tugallanmalar soʻzning grammatik maʼnosini koʻrsatib turadi.

Soʻz oʻzagi ichidagi tovushni, unli tovushni oʻzgartirish yoʻli bilan grammatik maʼnoni ifodalash ichki fleksiya sanaladi. Masalan, inglizcha *woman* (ayol) soʻzshakli tarkibidagi **a** unlisi birlik sonni, *women* (ayollar) soʻzshaklidagi **e** unlisi koʻplik sonni koʻrsatuvchi fleksiyadir.

Flektiv tillarga hind-yevropa, semit, xamit tillari kiradi.

Polisintetik tillarning xususiyati shundan iboratki, ularda butun bir gap bir soʻz holida yoziladi. Polisintetik tillarga **chukot** tili kiradi.

Takrorlash va mavzuning oʻzlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Tilshunoslik fani nimalarni oʻrganadi?
2. Tilshunoslik fanining qanday turlari bor va ular oʻzaro qanday farqlanadi?
3. Nima uchun til ijtimoiy hodisa sanaladi?
4. “Jamiyatsiz til, tilsiz jamiyat boʻlishi mumkin emas”, degan fikrni qanday izohlaysiz?
5. Tilning tarkibiy qismlari deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Tilda yuz beradigan oʻzgarishlar birinchi navbatda uning qaysi boʻlimida (sathida) yuz beradi va nima uchun?
7. Keyingi paytlarda oʻzbek tili sathlarida (leksika, fonetika, grammatikasida) qanday oʻzgarishlar yuz berdi?
8. Milliy til nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
9. Shevalar adabiy tildan qaysi jihatlariga koʻra farqlanadi?
10. Oʻzbek tilida qanday lahjalar mavjud va ular qanday belgilarga ega?

11. Tilshunoslikda tillarning qanday tasniflari mavjud?
12. Tillarning geneologik tasniflanishiga ko'ra yer yuzida qanday til oilalari bor?
13. Oltoy tillar oilasi va turkiy tillar guruhi haqida nimalarni bilasiz?
14. Morfologik tasnif bo'yicha bo'lingan amorf va agglyutinativ tillar guruhlari haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
15. Flektiv va polisintetik tillar haqida nimalarni bilasiz?

F O N E T I K A HAQIDA MA'LUMOT

Ajratilgan soat 10 soat

1. Fonetika haqida ma'lumot. Hozirgi zamon ona tilining fonetik va fonologik tizimi
2. Ona tilining fonetik vositalari: Nutq tovushlari, urg'u, ohang, bo'gin. Hozirgi ona tilining fonetik tizimi. Segment va supersegment birliklar.
3. Fonema, uning so'z ma'nolarini farqlashdagi roli. Hozirgi ona tilining fonemalari. Tovush, fonema va harf.
4. Nutq a'zolari va ularning vazifalari. Nutq apparati.
5. Artikulyatsiya o'rni va artikulyatsiya usuli. Fonetik акустика. Tovushning fizik tabiati: tovushning balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi

Mavzu rejasi

- 1. Fonetika va fonologiya haqida umumiy ma'lumot.**
- 2. Tovush va fonema.**
- 3. Fonetik akustika.**
- 4. Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi.**
- 5. Fonetik vositalar.**

1-masala bayoni

Fonetika va fonologiya haqida umumiy ma'lumot.

Fikr gap orqali ifoda qilinadi. Gap, odatda so'zlardan tashkil topadi. Gap tarkibida so'zlar va shu so'zlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi grammatik vositalar (qo'shimchalar, yordamchi so'zlar) ma'lum nutq tovushlari orqali shakllanadi. Masalan: *Biz ulug'ayyomni mana shu cho'lda kutib olyapmiz (Y. Shamsharov)*. Bu gapni tuzishda *biz, ulug', ayyom, mana, shu, cho'l, kutib, olmoq* so'zlari, ularning o'zaro bog'lanishini ta'minlovchi *-ni* (tushim kelishigi qo'shimchasi), *-yap* (zamon ma'nosini ifodalovchi qo'shimcha), *-miz* (shaxs-son qo'shimchasi) qo'shimchalari qatnashgan; har bir so'z va qo'shimcha esa nutq tovushlari vositasida (masalan, *biz - b, i, z; ulug' - u, l, u, g'; -ni - n, i; -da - d, a* kabi) shakllandi.

Ko'rinadiki, nutq tovushlari so'z va gaplarni tuzishda moddiy baza hisoblanadi, chunki inson tili tovush tilidir.

Fonetika tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, unda nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, turlari, o'zgarishi, urg'u, bo'g'in, ohang kabilar o'rganiladi. **Fonetika** grekcha *phone* so'zidan olingan bo'lib lug'aviy ma'nosi *tovush* demakdir.

Fonologiya so'zi tarjima qilinganda "tovush haqidagi ta'limot" degan ma'noni bildiradi (*phone* – tovush, *logos* - ta'limot). Bu bo'limda tovushlarning so'z va morfemalar ma'nolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar fonetika bo'limida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada, ta'bir joiz bo'lsa, tovushning ijtimoiy mohiyati o'rganiladi.

2-masala bayoni

Tovush va fonema

Tovush bilan fonemani o'zaro farqlash zarur. **Tovush** nutqning fonetik jihatdan bo'linmaydigan eng kichik birligidir, u ma'no ifodalamaydi, lekin har qanday so'z tovushlar vositasida shakllanadi. Masalan, *a, d, m, o* tovushlarini ma'lum bir tartibda talaffuz qilish orqali *odam, omad, moda* singari boshqa-boshqa ma'nodagi so'zlar hosil qilinadi. So'zlar tovush tarkibiga ko'ra turlicha bo'ladi.

1. Bir tovush bilan farq qiladigan soʻzlar: *ot – ol, ol – oq, oq – osh, osh – ov, ov – oz, oz – on, on – or, or – os, os – och, och – ogʻ, ogʻ – ox; oz – iz, iz – uz, uz – ez, davlat – savlat, koʻza – gʻoʻza* kabi.

2. Tovushlarning joylashish tartibiga koʻra farq qiladigan soʻzlar. Masalan: *qoʻy – yoʻq* (birinchi soʻz tarkibidagi birinchi tovush ikkinchi soʻzning oxirida qoʻllanadi.)

3. Biror tovushning ortiqligi bilan farq qiladigan soʻzlar: *oʻlka – yoʻlka, et-bet, sava – savat, tana – tashna, taxt – taxta, oʻroq – soʻroq* kabi.

Demak, soʻzlar tovushlardan tuziladi, ular bir, ikki, uch, toʻrt va hokazo miqdordagi tovushlarning tartiblashishidan hosil boʻladi.

Fonema soʻz maʼnosini farqlash uchun xizmat qiladigan tovush turidir. Masalan: *bal - bel –bil –bol – boʻl* soʻzlari tarkibidagi *a, e, i, o, oʻ* tovushlari soʻz maʼnolarini belgilash (ajratish)ga xizmat qiluvchi fonemalardir: *bor, dor, zor, kor, nor, tor, xor, chor, qor* soʻzlari tarkibidagi birinchi tovushlar (*b, d, z, k, n, t, x, ch, q*) ham shunday vazifa bajargan.

Fonemalarning uch belgisi bor: 1. Akustikasi (eshitilishi). 2. Artikulyatsiyasi (aytilishi yoki talaffuzi). 3. Maʼno farqlashi (baʼzi darsliklarda “lingvistik tomoni” deyiladi)¹.

Bular ichida fonemaning maʼno ajratish belgisi muhim hisoblanadi. Aks holda tovush fonema sanalmaydi.

3-masala bayoni

Fonetik akustika

Fonetik akustika nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini tekshiradigan sohadir. Akustik jihatdan har qanday tovush havo oqimining tebranishi va bu tebranishning quloqqa eshutilishidir. Nutq tovushlari esa oʻpkadan kelayotgan havo oqimining un paychalari tebranishidan hosil boʻladigan ovoz va nutq organlarida hosil boʻladigan shovqinning quloqqa eshutilishidir. Nutq tovushlari akustikasida koʻyidagilar farqlanadi:

1. Nutq tovushlarining balandligi yoki pastligi maʼlum vaqt ichida un paychalarining tebranish miqdoriga koʻra har xil chiqishidir: un paychalari koʻp tebransa, tovush baland boʻladi, aksincha, un paychalari kam tebransa, tovush past chiqadi.

2. Nutq tovushlarining kuchi maʼlum kenglikdagi maydondan maʼlum vaqtda oʻtadigan energiya miqdoridir. Bu haqda tilshunos olim H.Jamolxonov shunday yozadi: “Tovushning kuchi (intensivligi) - 1 sm² maydondan 1 sekundda oʻtadigan energiya miqdoridir”² Demak, nutq tovushlarining kuchi un paychalari tebranishi kengligiga bogʻliq: tebranish kengligi katta boʻlsa, tovush kuchli chiqadi, bu kenglik kichik boʻlsa, tovush ham kuchsiz chiqadi.

3. Nutq tovushlarining tembri (sifati) – asosiy ton bilan hosil boʻladi. Tovushlarning tembri ogʻiz boʻshligʻi va burun boʻshligʻining hajmi, shakliga, tovush paychalarida shovqinning qanday hosil boʻlishiga bogʻliq.

4. Tovushning choʻziqlik darajasi un paychalarining tebranishi davom etgan vaqt bilan oʻlchanadi. Tebranish uzoq davom etsa, tovush choʻziq; tebranish qisqa davom etsa tovush qisqa boʻladi.

4-masala bayoni

Nutq tovushlarining artikulyatsiyasi

Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan organlar **nutq aʼzolari** deb yuritiladi. **Artikulyatsiya** deganda esa nutq aʼzolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi faoliyati anglashiladi.

Nutq aʼzolariga quyidagilar kiradi:

1. Nafas apparati: oʻpka, bronxlar (bir juft), nafas yoʻli (traxeya).

2. Boʻgʻiz boʻshligʻida xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon togʻaylar hamda un paychalari joylashgan.

3. Ogʻiz boʻshligʻida til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar joylashgan.

4. Burun boʻshligʻi.

5. Markaziy nerv sistemasi.

¹ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.: “Oʻzbekiston” nashriyoti. 1992, 15-bet.

² Jamolxonov H.A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. - T.: “Talqin” nashriyoti. 2005, 25-bet.

Nutq a'zolarining jami **nutq apparati** deyiladi. Endi har bir nutq a'zosining vazifasi xususida to'xtalib o'tamiz.

O'pka inson organizmini kislorod bilan ta'minlovchi a'zo ekanligi hammaga ma'lum. Nutq a'zosi sifatida esa o'pka nutq tovushlarining hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan havo oqimini yetkazib beradi, ya'ni inson nafas olganida o'pka va undagi bronxlar havoga to'ladi va bu havo oqimi tashqariga qaytib chiqish jarayonida tovush hosil qiluvchilik vazifasini ham bajaradi. Havo oqimi **nafas yo'li** orqali **bo'g'izga** tomon harakatlanadi. Bo'g'izdagi **cho'michsimon, uzuksimon, shoxsimon, xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog'aylar** un paychalarini ushlab turuvchi a'zolardir. **Un paychalari** esa ovoz manbai hisoblanadi, chunki ular dutor yoki soz torlariga o'xshab havo urilishi natijasida ovoz chiqaradi (simyog' ochga tortilgan simlarning shamol kelib urilishi natijasida chiyillab ovoz chiqarishini ko'z oldingizga keltiring). **Og'iz bo'shlig'i** tovushni kuchaytirib berishga yordam beradigan a'zodir. **Til** juda ko'p tovushlarni hosil qilishda ishtirok etadigan a'zodir. Tilning turlicha harakati va holati natijasida unli va undosh tovushlar hosil bo'ladi. **Kichik til** ham ayrim tovushlarning (**q, g', x**) hosil bo'lishida qatnashadi. **Lablarning** keng ochilishi, cho'chchayishi, jiplashishi yoki pastki labning ustki tishlarga tegishi natijasida turli tovushlar hosil bo'ladi. Ayrim tovushlar havo oqimining **tishlar** orasidan sirg'alib chiqishi natijasida hosil bo'ladi. **M, n, ng** tovushlari hosil bo'lishida havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'i orqali o'tib, tashqariga chiqadi. **Markaziy nerv sistemasi** nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi, bu harakatni bevosita boshqarib turadi. Ana shu tariqa har bir nutq a'zosining tovushlarni hosil qilishda o'z vazifasi bor.

5-masala bayoni

Fonetik vositalar

So'z ma'nolarini ajratish, chegaralash uchun xizmat qiladigan vositalar **fonetik vositalar** sanaladi. Bunday vositalar qatoriga **nutq tovushlari, urg'u, ohang (ohang)** kiradi. So'z ma'nolarini farqlashga xizmat qiladigan fonemalar xususida yuqorida fikr yuritildi. Lug'at tarkibidagi barcha so'zlar, grammatik shakllar ana shu fonemalarining ma'lum tartibda ketma-ket joylashishi orqali shakllanadi. Ayrim hollarda o'xshash bo'lgan (omonim) so'zlarning ma'no va grammatik shakllarini farqlashda **urg'u** (leksik urg'u) fonetik vosita bo'lishi mumkin. Masalan: *olma* (predmet, mevaning bir turi), *olma* (harakat, *olmoq* fe'lining bo'lishsiz shakli, *-ma* qo'shimchasini ajratish mumkin); *akademik* (predmet, ot), *akademik* (belgi, sifat); *gullar* (ot, "ko'p gul" ma'nosida), *gullar* (fe'l, "gullamoq").

Gapning maqsadga ko'ra turini ajratishda esa **ohang** (ohang) fonetik vosita bo'lishi mumkin. Masalan: *Dars boshlandi. (darak gap) Dars boshlandi? (so'roq gap).*

Takrorlash va mavzuni o'zlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Fonetika nimani o'rganadi?
2. Tovush va fonemaning farqini ayting.
3. Fonologiya haqida nimalarni bilasiz?
4. Fonema qanday belgilarga ega?
5. Fonetik akustika haqida qanday ma'lumotga egasiz?
6. Nutq tovushlari artikulyatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Nutq a'zolarining vazifalari nimalardan iborat?
8. O'zbek tilining fonetik vositalariga nimalar kiradi?

Tayanch tushunchalar lug'ati

Fonema – so'zlar, morfemalar va grammatik shakllarning tovush qobig'ini, binobarin, ma'nolarini ham farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik segment birlik.

Fonemalarning differentsial belgilari - o'zaro qarama-qarshi qo'yilayotgan ikki fonemaning farqlanadigan belgilari.

Fonemalarning integral belgilari - o'zaro qarama- qarshi qo'yilayotgan ikki fonemaning farqlanmaydigan belgilari.

Artikulyatsiya o'rni - talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a'zosi yoki shu a'zoning faol ishtirok etayotgan qismi.

Artikulyatsiya usuli – nutq a'zolari hosil qilgan to'siqdan havo oqimining portlab, sirg'alib yoki titrab o'tishi.

Jaranglilik-jarangsizlik belgilariga asoslangan oppozitsiyalar - undosh tovushlarning jaranglilik va jarangsizlik belgilari asosida zidlanish hosil qilishi.

Lablanish va lablanmaslik oppozitsiyasi - unli fonemalarning lablar ishtirokiga ko'ra zidlanishi.

Tilning uch darajali ko'tarilishi - unli fonemalarning hosil bo'lishida tilning tanglay tomon ko'tarilish darajasi: quyi ko'tarilish, o'rta ko'tarilish, yuqori ko'tarilish kabi.

Fonema ottenkalari - fonemalarning talaffuzdagi real ko'rinishlari.

Kombinator ottenka(variant) - fonemaning so'z tarkibidagi tovushlar ta'sirida yuzaga kelgan ko'rinishi.

Pozitsion ottenka(variant) - fonemaning so'z yoki bo'g'indagi pozitsiya talabiga moslashgan ko'rinishi.

Transkripsiya - fonemalarning turli ottenkalarini, shuningdek, lahja va shevalarga xos fonetik xususiyatlarni yozuvda aniq ifodalash uchun shakllantirilgan maxsus grafik belgilar tizimi.

ONA TILINING VOKALIZMI VA KONSONANTIZMI

Nutq tovushlari.

Unli tovushlar va ularning tasnifi

Mavzu rejasi:

1. Nutq tovushlari va ularning tasnifi.
2. Unli tovushlar va ularning tasnifi.

1-masala bayoni

Nutq tovushlari va ularning tasnifi.

Inson nutqining ifoda jixatini shakllantiradigan tovushlar nutq tovushlari hisoblanadi. Nutq tovushlari boshqa tovushlardan inson nutqidagi mustaqil va yordamchi so'zlar, qo'shimchalar va boshqa til birliklarini shakllantirish va shaklan farqlash vazifasini bajarishi bilan farqlanadi. Nutq tovushlari ikki xil: **unli tovushlar, undosh tovushlar**. Bular quyidagicha farqlanadi: 1) unli tovushlar hosil bo'lishida o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasdan o'tadi, undosh tovushlarni hosil qilishda esa o'pkadan chiqayotgan havo og'iz bo'shlig'ida turli to'siqlarga uchraydi va buning natijasida shovqin hosil bo'ladi; 2) unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish mumkin, undoshlarni esa cho'zib talaffuz qilib bo'lmaydi; 3) unli tovushlar talaffuzida tovush paychalari albatta titraydi, undoshlar talaffuzida esa tovush paychalari titrashi ham (jarangli va sonorlarda), titramasligi ham (jarangsizlarda) mumkin.

2-masala bayoni

Unli tovushlar va ularning tasnifi

Har bir til o'zining unli tovushlar tizimiga ega. Bu tizim **vokalizm** deb ataladi. O'zbek tilidagi unli tovushlar (**a, i, o, u, o', e**) uch tomondan tasnif qilinadi:

1. Tilning gorizontal (yotiq) harakatiga ko'ra.

Og'iz bo'shlig'ida eng faol organ tildir. U unli tovushlarni talaffuz qilishda oldinga (tish yoki milkka tomon) va orqaga qarab harakat qiladi. Tilning bu harakati **gorizontal** harakat hisoblanadi. Shuning uchun unlilar tilning gorizontal harakatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

- 1) old qator unlilar: **a, e, i;**
- 2) orqa qator unlilar: **o, o', u.**

2. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra.

Unli tovushlar talaffuzida tilning tanglayga tomon ko'tarilishi va tushishi **vertikal** harakatdir. Bu harakat tufayli og'izning ochilish darajasi har xil bo'ladi. Chunonchi, **i, u** unli tovushlarini hosil qilishda til tanglayga yaqin turadi, shuning uchun ham og'izning ochilish darajasi tor bo'ladi; aksincha, **a, o** tovushlarini hosil qilishda til tanglaydan ancha uzoqlashadi (quyida turadi), shuning uchun til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq keng bo'ladi; **e, o'** tovushlarini hosil qilishda esa til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq o'rtacha (tor ham emas, keng ham emas) bo'ladi. Ko'rinadiki, tilning vertikal harakati og'izning ochilish darajasini (tor, keng, o'rta keng) belgilaydi.

SHuning uchun unlilar tilning vertikal harakati (yoki og'izning ochilish darajasi)ga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- 1) yuqori tor unlilar: *i, u*;
- 2) o'rta keng unlilar: *e, o'*;
- 3) quyi keng unlilar: *a, o*.

3. Lablarning ishtirokiga ko'ra.

Unlilar talaffuzida lablarning roli ham kattadir. Ayrim unlilar talaffuzida lablar albatta qimirlaydi, ya'ni ular doira shaklini oladi, ayrimlarida esa nisbatan kam qimirlaydi. Shunga ko'ra unlilar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) lablangan unlilar: *u, o', o*;
- 2) lablanmagan unlilar: *i, e, a*.

Unli tovushlar tasnifini quyidagi jaldvalda aks ettirish mumkin:

Lablarning ishtirokiga ko'ra	Tilning gorizontal harakatiga ko'ra		Tilning vertikal harakatiga ko'ra
	Old qator	Orqa qator	
Lablanmagan	<i>I</i>		Yuqori tor unlilar
Lablangan		<i>u</i>	
Lablanmagan	<i>E</i>		O'rta (keng) unlilar
Lablangan		<i>o'</i>	
Lablanmagan	<i>A</i>		Quyi (keng) unlilar
Lablangan		<i>O</i>	

Ayrim unli tovushlar tavsifi

I unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*ipak*), so'z o'rtasida (*tilak*) va so'z oxirida (*tulki*) keladi.
- 2) so'z ichida ikki jarangsiz undosh orasida nihoyatda qisqa aytiladi: *bilan, sira*.
- 3) *k, g, x* undoshlaridan keyin kelganda orqa qator unli kabi aytiladi: *qir, G'iro't, oxir*.
- 4) cho'ziq varianti bor: *muhim, musiqa*.
- 5) *e* tovushiga moyil varianti bor: *mix-mex*.

U unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*urmoq*), so'z o'rtasida (*tugun*) va so'z oxirida (*urg'u*) keladi.
- 2) til oldi varianti ham uchraydi: *kuch, gul*;
- 3) *qulf, g'ulg'ula, tuxum* so'zlarida esa til orqa varianti qo'llangan.
- 4) *i* tovushi kabi kuchsizlanishi, ya'ni qisqarishi ham mumkin: *tuxum, bulbul, tutun* kabi.

E unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida, so'zning birinchi bo'g'inida keladi: *eshik, elak, e'tibor, kel, bet* kabi.
- 2) jonli nutqda sheva ta'sirida *i* tovushiga moyillashadi: *deydi – diydi*.
- 3) o'g'uz shevalarida *a* tovushiga o'tish holati ham mavjud: *eshik – ashik, deb – dab, kel – gal* kabi. Lekin adabiy tilda *e* tarzida talaffuz etiladi.

A unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*ari*), o'rtasida (*daftar*) va so'z oxirida (*qora*) keladi.
- 2) *q, x, g'* tovushlaridan keyin kelganda til orqaroq - orqa qator unlisi kabi talaffuz qilinadi: *g'azab, xabar*.
- 3) ba'zi so'zlarda sheva ta'sirida *o* tovush kabi aytiladi: *baho – boho, shavla – shovla*. Adabiy tilda *a* tarzida talaffuz etiladi.

O unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*olim*), o'rtasida (*toza*) va so'z oxirida (*bobo*) keladi.

O' unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) sodda so'zlarning asosan birinchi bo'g'inida uchraydi: *o'g'il, bo'ri, to'g'ri, o'rin, bo'yin*.
- 2) o'zlashma so'zlarning oxirgi bo'g'inida ham keladi: *ro'baro', xushro'y, gulro', kubok, (kubo'k)*.
- 3) til oldi varianti ham bor: *o'rik, ko'l, cho'l*.

Undosh tovushlar va ularning tasnifi

1. Undosh tovushlar va ularning tasnifi.

2. Ayrim undoshlar tavsifi.
3. Qo'sh tovushlar va ularning qo'llanilishi.

1-masala bayoni

Undosh tovushlar tizimi tilda **konsonantizm** deb yuritiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida 24 ta undosh tovush mavjud: *b, v, g, d, j* (jurnal so'zidagi birinchi tovush), *j* (joy, jiyda kabi so'zlardagi birinchi tovush), *z, y, k, l, m, n, ng* (tong so'zidagi oxirgi tovush), *p, r, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h*. Sirg'aluvchi *j, f* tojik va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarda keladi: *foyda, oftob, fabrika, tafakkur, jurnal, ajdar*. Undoshlar ham uch tomondan tasnif qilinadi:

1. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undosh tovushlar uch asosiy guruhga bo'linadi:

1) lab undoshlari bevosita lablar ishtirokida hosil bo'luvchi tovushlar bo'lib, ularga *b, p, m, v, f* undoshlari kiradi.

Lab undoshlarining ba'zilar ikki lab orasida paydo bo'ladi: ba'zilar esa (masalan, *avtobus, avtor, vagon, virus, passiv* kabi so'zlardagi *v*; *telefon, kefir, fabrika, fakt, fazo, farmon, fason* kabi so'zlardagi *f*) pastki lab bilan ustki tishlar orasida hosil bo'ladi. Shunga ko'ra lab undoshlarini ikki turga bo'lish mumkin:

- a) lab-lab undoshlari: *b, m, p*;
- b) lab-tish undoshi: *v, f*.

2) til undoshlari bevosita til ishtirokida hosil qilinuvchi tovushlar bo'lib, ularga quyidagi undoshlar kiradi: *g, d, j* (*gijda* so'zidagi kabi), *j* (*jiyda* so'zidagi kabi), *z, y, k, l, n, ng* (*ong*), *r, s, t, x, ch, sh, q, g'* (jami 18 ta).

Undoshlar tilning qaysi qismida hosil bo'lishiga ko'ra ham bir-biridan farq qiladi: *t, d, n* kabi tovushlar tilning old qismi bilan tish va milk orasida; *k, g* kabi undoshlar tilning orqa qismi bilan qattiq tanglayning orqa qismi orasida; *y* undoshi tilning o'rta qismi bilan qattiq tanglayning orqa qismi orasida; *q, g'* tovushlari esa til ildizi bilan yumshoq tanglayning orqa qismi orasida (bo'g'izga yaqin joydi) hosil bo'ladi. Shunga ko'ra, til undoshlari o'z navbatida 4 guruhga bo'linadi.

- a) til oldi undoshlari: *d, j* (*jurnal*), *j* (*jahon*), *z, l, n, r, s, t, ch, sh* (jami 11 ta);
- b) til o'rta undoshi: *y*;
- d) til orqa undoshlari: *k, g, ng* (*jang*);
- e) chuqur til orqa undoshlari: *q, g', x*.

3) bo'g'iz undoshi. Bo'g'iz undoshi faqat bitta *h* tovushidan iborat bo'lib, u bo'g'iz bo'shlig'ida un paychalari orasidagi tor oraliqda hosil bo'ladi (jadvalga qarang).

E s l a t m a : Shuni aytish kerakki, *v* tovushining lab-lab varianti ham mavjud: *ov, qovun, bevosita, birov*. Shuningdek *f* tovushining ham lab-lab varianti bor: *vafu, puf, tufurmoq, juft*. Tilshunos H.A. Jamolxonov "lab-tish *v* ni lab-lab *v* ning fakultativ varianti deb qarash to'g'riroq bo'ladi" degan fikrni bildirgan.¹

2. Hosil bo'lish usuliga ko'ra undosh tovushlar uch turga bo'linadi:

1) portlovchi undoshlar (jami 9 ta) ikki nutq a'zosining o'zaro jipslashuvi va o'pkadan chiqayotgan havo oqimining ana shu nutq a'zolariga ma'lum zarb bilan urilib, portlab o'tishidan hosil bo'ladigan tovushlar bo'lib, ularga: *b, g, d, j* (*jo'ja* so'zidagi), *k, p, t, ch, q* undoshlari kiradi. Portlovchi tovushlardan *b, p* undoshlarini hosil qilishda havo oqimi ikki lab orasidagi to'siqdan, *d, j* (*qajji* so'zidagi), *t, ch* undoshlarini hosil qilishda tilning old qismi bilan tishlar va milk orasidagi to'siqdan, *k, g* undoshlarini hosil qilishda esa tilning orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi orasidagi to'siqdan portlab o'tadi. Bu undoshlardan *ch, j* (*jadval* so'zidagi) o'ziga xos murakkab artikulyatsiyasi bilan boshqalardan ajralib turadi. Masalan, *ch* undoshining hosil bo'lishida tilning old qismi milkka taqaladi, lekin odatdagi portlash yuz bermay, og'iz bo'shlig'iga kelgan havo, asosan, sirg'alib chiqadi. Natijada, to'la bo'lmagan portlash (*t Q sh q ch* kabi) qorishiq (**affrikativ portlovchi** ham deyiladi) portlovchini vujudga keltiradi. Qorishiq *j* tovushi esa portlovchi *d* va sirg'aluvchi *j* tovushlari oralig'idagi tovushdir, shuning uchun *Juma, Jahongir* so'zlari rus tilida

¹ 1. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - T.: "Talqin" nashriyoti. 2005, 59-bet.

Djuma, *Djaxongir* shaklida yoziladi va shunday talaffuz qilinadi. Shu jihatdan portlovchilar ikki turga ajratiladi.

a) sof portlovchilar: **b, g, d, k, p, t, q;**

b) qorishiq portlovchilar: **ch, j** (*jahon*)

2) sirg'aluvchi undoshlar (jami 9 ta) ikki nutq a'zosining o'zaro yaqinlashishi va havo oqimining ana shu nutq a'zolari orasidan sirg'alib chiqishi bilan hosil bo'ladigan tovushlar bo'lib, ularga **v, j** (*jurnal, vijdon*), **z, y, s, f, x, sh, g', h** undoshlari kiradi.

Havo oqimining ikki lab o'rtasidagi yoki pastki lab bilan yuqori tishlar orasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi **j** (*jirafa*), **z, s, sh** undoshlarini; til o'rta qismi bilan qattiq tanglayning o'rta qismi orasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi **y** undoshini; tilning orqa qismi bilan tanglayning orqa qismi o'rtasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi **g', x** undoshlarini; bo'g'izdagi un paychalari orasidagi tor oraliqdan sirg'alib o'tishi esa **h** undoshini vujudga keltiradi.

3) portlovchi-sirg'aluvchi undoshlar (jami 5 ta) bir vaqtning o'zida ham portlash, ham sirg'alish jarayonlarining ro'y berishi natijasida hosil bo'ladi. Ularga **m, n, ng, l, r** undoshlari kiradi. Bunday undoshlar hosil bo'lish usuliga ko'ra boshqa undoshlar (portlovchilar, sirg'aluvchilar)dangina emas, o'zaro ham farq qiladi va uch guruhga bo'linadi:

a) burun tovushlari: m, n, ng. Bulardan **m** undoshining hosil bo'lishida o'pkadan kelayotgan havo oqimining bir qismi og'iz bo'shlig'idan lablarning to'sqinligiga uchrab, qisman portlab, havo oqimining qolgan qismi burun bo'shlig'idan sirg'alib chiqadi, **n** undoshining hosil bo'lishida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib, yarim portlash ro'y beradi, burun yo'li ochiq bo'lgani uchun, havo oqimining qolgan qismi burun bo'shlig'i orqali sirg'alib chiqadi. Tilning orqa qismi qattiq tanglayning orqa qismiga tegib, havo oqimining qisman portlashi va havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'i orqali sirg'alib chiqishi **ng** tovushini vujudga keltiradi.

b) yon tovush l undoshini hosil qilishda til uchi yuqoriga tomon bukilib, milkka tegadi, ammo havo oqimining tilning ikki yonidan sirg'alib o'tishi uning og'iz bo'shlig'idan qisman portlab, qisman sirg'alib chiqishiga sabab bo'ladi.

d) titroq tovush r undoshini hosil qilishda o'pkadan chiqayotgan havo to'lqini tilning uchiga zarb bilan kuchli uriladi va uni titratadi, tilning titrab turishi esa havo oqimining og'iz bo'shlig'idan portlab-sirg'alib chiqishiga olib keladi.

Demak, portlovchi-sirg'aluvchi undoshlarning hosil bo'lishida ham portlovchilarga xos bo'lgan ikki a'zoning jipslashuvi, ham sirg'aluvchilarga xos bo'lgan ikki nutq a'zosi orasidagi tor oraliqdan (yoki burun bo'shlig'idan) sirg'alib o'tishi sodir bo'ladi.

3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undosh tovushlar dastlab ikki turga bo'linadi:

1) shovqinli undoshlar (jami 19 ta) tarkibida shovqinning miqdori ovozga nisbatan ko'p yoki ovoz mutlaqo qatnashmagan tovushlar bo'lib, bu guruhga **b, v, g, d, j** (*ajdar*), **j** (*jiyan*), **z, y, k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, g', h** undoshlari kiradi. Shuning uchun ham shovqinli undoshlar un paychalarining ishtirokiga, tarkibida ovozning ishtirok etish-etmasligiga ko'ra, ikkiga bo'linadi:

a) jarangli undoshlarni (jami 9 ta) talaffuz qilish paytida un paychalari titraydi, shuning uchun uning tarkibida ovoz qatnashadi, lekin ovoz miqdori shovqinga nisbatan ozroqdir. Jaranglilar shu bilan sonorlardan farq qiladi: **v, b, g, d, j** (*garaj*), **j** (*jo'xori*), **z, y, g'**.

b) jarangsiz undoshlar (jami 10 ta) talaffuzida un paychalari qatnashmaydi, bu undoshlar faqat shovqinning o'zidan iborat bo'lgan, tarkibida ovoz mutlaqo ishtirok etmaydigan tovushlardir: **k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, h**. Ba'zi jarangli va jarangsiz undosh tovushlar hosil bo'lish o'rni jihatdan juftlik (8 ta) hosil qiladi: **b - p, v - f, g - k, d - t, j(qorishiq) - ch, j(sirg'aluvchi) - sh, z - s, g' - x**.

2) sonor (yoki shovqin ishtirok etgan ovozdor) undoshlar (jami 5 ta) tarkibida ovozning miqdori shovqinga nisbatan ortiq bo'lib, ularga **m, n, ng, l, r** undoshlari kiradi. Bunday ovozdor undoshlarning hosil bo'lishida un (ovoz) paychalari faol ishtirok etadi - bu tovushlar un paychalarining titrashidan hosil bo'ladi, shuning uchun ham ular unli tovushlarga birmuncha yaqin turadi. Ammo bu undoshlar o'pkadan chiqib kelayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchrab, qisman shovqin hosil qilishi natijasida hosil bo'ladi.

Undosh tovushlarning tasnifini quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

Ovoz va	Hosil	Hosil bo'lish o'rniga ko'ra
---------	-------	-----------------------------

shovqinning ishtirokiga ko'ra		bo'lish usuliga ko'ra		Lab undoshlari		Til undoshlari				Bo'g'iz undoshi
				lab-lab	lab-tish	til oldi	til o'rta	til orqa	chuqur til orqa	
Shovqinlar	Jarangli	Portlovchilar	Sof portlovchilar	b		d		g		
	jarangsiz			p		t		k	q	
	jarangli		Qori-shiq portlovchilar			j				
	jarangsiz					Ch				
	jarangli		Sirg'aluvchilar	v	v ^l	j ^l , z	y		g'	
	jarangsiz			f	f ^l	s, sh			x	h
Ovozlar (sonor)lar	jarangli	Portlovchi-Sirg'aluvchi-lar	Burun tovushlari	m		N		ng		
			Yon tovush			L				
			Titroq tovush			r				

2-masala bayoni

Ayrim undosh tovushlar tavsifi

B tovushi - lab-lab, sof portlovchi, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*bahor*), o'rtasida (*abadiy*) va oxirida (*kitob*) uchraydi. Bu tovush so'z oxirida kelganda jarangsizlashadi va **p** tovushi bilan almashadi: *maktab – maktap, odob- odop*. Bu tovush ko'pincha ikki unli orasida kelganda yoki ikki fe'l birikib talaffuz qilinganda, **v** tovushi kabi aytiladi va ba'zan shunday yoziladi: *kabob – kavob, qobirg'a - qovurg'a, sabil – savil, qurbaqa – qurvaqa, ko'ra ber – ko'raver* kabi.

So'z boshida kelgan **b** tovushi ayrim shevalarda talaffuz paytida **m** tovushiga o'tadi: *murch > burch* (garmdori – Xorazm shevasida). Tarixan **b** va **m** tovushlarining almashuvi turkiy tillarda kuzatiladi: *ben – men, bunga – munga* va h.

V tovushi – lab-lab va lab-tish, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush. So'zning boshida (*vazifa, vafo*), o'rtasida (*sovun, lavlagi, taqvim*) va oxirida (*o'tov, birov*) kela oladi. Sof o'zbekcha so'zlarda bu tovush so'z boshida deyarli qo'llanmaydi.

M tovushi - lab-lab, portlovchi-sirg'aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*mehr, mo'ylov, mulk*), o'rtasida (*omon, umr*) va oxirida (*tom, bodom, qadam*) kela oladi.

P tovushi – lab-lab, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*pilla, po'choq, parda*), o'rtasida (*opa, qipiq, to'piq*) va oxirida (*cho'p, top, sop*) kela oladi. Ko'p bo'g'inli so'zlarning oxirida bu tovush deyarli uchramaydi.

F tovushi - lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, faqat o'zbek tiliga arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan so'zlarning boshida (*faqir, oftob, fabrika*), o'rtasida (*qofiya, iffat, kofe*) va oxirida (*sarf, urf*) kela oladi. Ba'zi so'zlarda talaffuzda p tovushi bilan almashadi: *foyda > poyda, Farida > Parida*. Bunday o'zgarishlar hozirgi orfografiyada aks ettirilmaydi.

Til undoshlari

T tovushi til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'zning boshida (*to'ti, tuxum*), o'rtasi (*katta, vatan*) va oxirida (*savat, qavat, harakat*) kela oladi. O'zbek milliy tilining o'g'uz lahjasiga mansub shevalarda **t** ba'zan **d** ga o'tadi: *tuz > duz, o't > o'd* kabi. Bu o'tishlar adabiy orfografiyada ifodalanmaydi.

Arab, rus yoki fors-tojik tillaridan o'zlashtirgan so'zlardagi qo'sh undoshlar tarkibidagi t tovushi talaffuzda ko'pincha tushib qoladi: *g'isht > g'ish, pastqam > pasqam, taksist > taksis* kabi. Bu o'zgarish yozma nutqda aks etmaydi.

D tovushi til oldi, portlovchi, jarangli undosh ¹tovush bo‘lib, so‘zning boshida (devor, do‘kon, dala), o‘rtasida (shabada, sodda, to‘da) va oxirida (qasd, hudud, gard) kela oladi. So‘z oxirida kelgan **d** tovushi talaffuzda hamma vaqt jarangsizlashadi va **t** tovushiga o‘tadi: *Asad>Asat, Samarqand>Samarqant, Xo‘jand>Xo‘jant* kabi. Bu tovush ham o‘zlashma so‘zlar tarkibidagi qo‘sh undoshlar ichida kelganda tushib qolishi mumkin: *farzand>farzan, baland>balan*.

N tovushi til oldi, portlovchi-sirg‘aluvchi, burun, sonor, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘zning boshida (nom, nima, nusxa), o‘rtasida (aniq, tiniq) va oxirida (un, to‘n, son) kela oladi. Bu tovush ayrim so‘zlar tarkibida **b** yoki **m** tovushlaridan oldin kelganda, shu tovushlar ta‘sirida talaffuzda (yozuvda aslicha yoziladi) **m** tovushiga o‘tadi: *manba>mamba, tanbal>tambal, ko‘nmadi >ko‘mmadi* kabi.

S tovushi til oldi, sirg‘aluvchi, shoqinli, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘zning boshida (*soat, semiz, sabr*), o‘rtasida (*asar, mustaqil, osma*) va oxirida (*tus, mos, tovus*) kela oladi. Bu tovush o‘zbek tilidagi eng faol qo‘llanadigan tovushlardan biridir.

Z tovushi til oldi, sirg‘aluvchi, shovqinli, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*zahar, zehn, zina*), o‘rtasida (*Aziza, andoza, qiziq*) va so‘z oxirida (*tig‘iz, qarz, yulduz*) kela oladi; bu tovush sof o‘zbekcha so‘zlarda so‘z boshida deyarli qo‘llanmaydi. Ayrim so‘zlar tarkibida yonidagi jarangsiz tovushlar ta‘sirida ko‘pincha **s** tovushiga o‘tadi: *rizq > risq, tuzsiz>tussis*. Bu tovush ba‘zi so‘zlarda **y** tovushiga **mos** kelishi mumkin: *sizlamoq>siylamoq, so‘zlamog > so‘ylamoq, yozmoq > yoymoq*, kabi.

Sh tovushi til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*shar, shahar, sholi*), o‘rtasida (*hashar, o‘sha*) va oxirida (*qish, yosh, tashvish*) keladi. Bu tovush so‘zlarning turli o‘rinlarida ko‘p qo‘llanadi.

J til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovushi arab, fors-tojik va rus tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarning boshida (janr), o‘rtasida (*viydon, sajda, furajka*) oxirida (*garaj*) uchraydi.

Ж til oldi, qorishiq portlovchi, jarangli undosh tovushi so‘zning boshida (*jamalak, jabr, jilov*), o‘rtasida (*kajava, ojiz, o‘jar*) va oxirida (*xorij, xiroj, saj*) keladi. Bu tovush o‘zbekcha so‘zlar oxirida deyarli qo‘llanmaydi. O‘zlashma so‘zlar oxirida qo‘sh undoshlar tarkibida kelgan **ж** tovushi **ch** tovushiga o‘xshab talaffuz qilinadi: *mavj>mavch, avj>avch*.

Ch tovushi til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘zning boshida (*chaqa, chigit, chuqur*), o‘rtasida (*achchiq, ochiq, ko‘cha*) va oxirida (*och, uch, kech*) keladi. Ayrim so‘zlarda o‘zidan keyingi jarangsiz undoshlar ta‘sirida talaffuzda **sh** tovushiga o‘tadi: *kechdi>keshti, qochdi>qoshti, sochdi>soshti*.

L tovushi til oldi, portlovchi-sirg‘aluvchi, jarangli (sonor) undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*lagan, latifa, lof*), o‘rtasida (*olis, uloq, belgi*) va oxirida (*kasal, kel, yo‘l*) keladi. Bu tovush so‘z o‘rtasida kelganda so‘zlashuv nutqida ko‘pincha tushib qoladi: *olsa>osa, kelsa>kesa, bo‘lsa>bo‘sa, kelgan>kegan*.

R tovushi til oldi, portlovchi-sirg‘aluvchi, titroq, sonor, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*randa, rang, ruh*), o‘rtasida (*arra, mo‘ri, baraka*) va oxirida (*bozor, hozir, huzur*) keladi. Bu tovush sof o‘zbekcha (turkiycha) so‘zlar boshida qo‘llanmaydi.

Y tovushi til o‘rta, sirg‘aluvchi va jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*yigit, yo‘l, yil*), o‘rtasida (*sayr, qayir*) va oxirida (*to‘y, uy, oy*) keladi.

K tovushi til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*katta, kim, ko‘p*), o‘rtasida (*ikki, aka, uka*) va oxirida (*tilak, yuk, to‘k*) keladi. Bu tovush bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga unli bilan boshlanuvchi qo‘shimcha qo‘shilganda, **k** tovushi **g** tovushiga o‘tadi va bu holat yozuvda ham aks etadi: *malak>malagi, ko‘ylak>ko‘ylagim*.

G tovushi til orqa, sof portlovchi, jarangli undosh tovush bo‘lib, so‘z boshida (*gulxan, gilam, go‘zal*), o‘rtasida (*tugun, agar, egri*) va oxirida (*barg, biolog, pedagog*) keladi. Bu tovush sof o‘zbekcha so‘zlar oxirida deyarli qo‘llanmaydi. **G** tovushi bilan boshlanadigan qo‘shimchalar **k** tovushi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda **k** tovushiga aylanadi: *ko‘kQga > ko‘kka, boqQgan >boqqan*. O‘zlashma so‘zlarda bunday o‘zgarish bo‘lmaydi: *geologga, biologga*.

¹ Ф.де Соссюр. Труды по языкознанию, 120-бет.

Ng tovushi til orqa, portlovchi-sirg'aluvchi, burun, jarangli, sonor undosh tovush bo'lib, so'z boshida mutlaqo uchramaydi. So'z o'rtasida (*yangi, bangi*) va oxirida (*bodring, ong*) keladi.

Q tovushi chuqur til orqa, sof portlovchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*qadr, qovoq, qo'l*), o'rtasida (*oqil, baqir, chuqur*) va oxirida (*o'roq, yo'q,*) keladi. Bu tovush ayrim ko'p bo'g'inli so'zlar oxirida kelganida unli bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilsa, **g'** tovushiga almashadi: *quloqQim>qulog'im, to'yoqQi >tuyog'i. To'qson, maqtov, maqsad* kabi so'zlarda esa **x** tovushiga o'xshab talaffuz qilinadi.

G' tovushi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*g'azab, g'ildirak, g'o'za*), o'rtasida (*dag'al, og'ir, o'g'ri*) va oxirida (*tog', bug', tig'*) keladi.

X tovushi chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovush bo'lib, so'z boshida (*xabar, xurjun, xol*), o'rtasida (*paxta, axir*) va oxirida (*six, mix*) qo'llanadi.

H tovushi bo'g'izda hosil qilinadigan, sirg'aluvchi, jarangsiz tovush bo'lib, so'z boshida (*halol, hikoya, hukumat*), o'rtasida (*sayohat, ohu*) va oxirida (*sayyoh, eh*) qo'llanadi. Bu tovush asosan arab, fors tillaridan o'zlashgan so'zlarda uchraydi.

3-masala bayoni

Qo'sh tovushlar va ularning qo'llanilishi

Ma'lumki, unli tovushlar so'zlarni shakllantirishda yakka holda, qo'sh holatda va ketma-ket holda qo'llanadi. Unlilarning yakka holatda kelishi o'zbek tili tabiatiga xos bo'lib, turli tipdagi ikki unli ketma-ket bir o'rinda kelishi yoki bir xil unlining bir o'rinda qo'sh holda qo'llanishi (*poema, doim, sanoat, taajjub, matbaa*) turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida boshqa tillarning ta'siri, xalqlarning o'zaro aloqasi tufayli paydo bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *ao, oa, oi, ia, io* kabi turli unlilarning ketma-ket bir o'rinda kelish hollari mavjud: *jamoat, faol, doira, ...*

Bir xil unlilarning *aa, uu, ii, oo* kabi qo'sh kelish hollari uchraydi: *taalluqli, shuur, badiiy, inshoot*. Deyarli barcha undoshlar qo'sh holatda (*g, x, h, g'* undoshlari bundan mustasno) qo'llanadi: *qubba, avval, sodda, mijja, lazzat, tayyor, ikki, alla, omma, anneksiya, oppoq, burro, issiq, o'ttiz, iffat, achchiq, ishshaymoq, to'qqiz*. Bu undoshlar talaffuzda ham qo'sh tarzda aytiladi. Bu hodisa aloqalarning kengayishi tufayli yangi so'zlar hisobiga boyimoqda: *musson, Anna, Emma, milliard, affiks*. Qo'sh unlilar so'zning o'rtasida (*manfaat*), so'z oxirida (*mutolaa*), qo'sh undoshlar esa so'z boshida (*ssenariy*), o'rtasida (*qattiq*) va oxirida (*kongress*) qo'llanadi.

Turkiy tilga turli tipdagi undoshlarning so'z oxirida ketma-ket (qator) kelishi qo'sh undoshlarga nisbatan ancha ilgari o'zlashdi: *daraxt, g'isht, payvand, Samarqand, baxt, xursand* kabi.

O'zbek tilida oldin so'z boshida undoshlarning ketma-ket kelish hollari yo'q edi, rus tili va boshqa tillarning ta'sirida adabiy tilimizda bu holat ham paydo bo'ldi: *brom, drezina, ftor, grek, krem, stol, traktor, xrom, shkaf* kabi.

Takrorlash va mavzuning o'zlashtirilganini tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Vokalizm nima?
2. O'zbek adabiy tili vokalizmi qaysi fonemalarni o'z ichiga oladi?
3. Unli fonemalar undoshlardan qanday farqlanadi?
4. Unli fonemalar tasnifi nimalarga asoslanadi?
5. Lablarning ishtirokiga ko'ra unlilarning turlari?
6. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra unlilarning turlari?
7. Tilning gorizontaal harakatiga ko'ra unlilarning turlari?
8. Tasnifga asos bo'lgan qaysi belgilar fonologik xarakterda?
9. qaysi belgi o'z holicha fonologik xususiyatga ega emas?
10. O'zbek tilshunosligida hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmiga oid qanday masalalar munozarali bo'lib qolmoqda?
11. Unli fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari qanday farqlanadi? Ularning har biri alohida fonema deb qaraladimi?
 1. Konsonantizm nima?
 2. Hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmi qanday undoshlardan tarkib topgan? Ularning soni nechta?

3. Tovush fokusi nima? Uning ahamiyati?
4. O'zbek tilining qaysi tovushlari ikki fokusli? Sababi?
5. Undosh fonemalar qaysi belgilar asosida tasnif qilinadi?
6. Artikulyatsiya o'rniga ko'ra undoshlar tasnifi?
7. Artikulyatsiya usuliga ko'ra undoshlar tasnifi?
8. Un paychalari ishtirokiga ko'ra undoshlar tasnifi?
9. Ovoz va shovqin munosabatiga ko'ra undoshlar tasnifi?
10. O'zbek tili konsonantizmidagi munozarali masalalar?

Tayanch tushunchalar lug'ati

Vokalizm- unli fonemalar tizimi.

Fokus - talaffuzda faol va nafaol nutq a'zolari orasida hosil qilingan to'siq. O'pkadan kelayotgan havo oqimining portlab yoki sirg'alib o'tishidan shovqinning yuzaga kelishi ana shu fokusda sodir bo'ladi.

Bo'g'in cho'qqisi - bo'g'in markazi, yadrosi. Odatda unli tovush bo'g'in cho'qqisi sanaladi.

Lablar ishtiroki - unli tovushning hosil qilinishida lablarning faol yoki nafaol ishtiroki.

Tilning vertikal (tik) harakati - tilning uch darajali ko'tarilishida yuzaga keladigan belgilar.

Tilning gorizontal (yotiq) harakati - fonemalar artikulyatsiyasida tilning pastki tishlar tomon cho'zilishi yoki orqaga tortilishi.

Konsonantizm - undosh fonemalar tizimi.

Labial undoshlar - lab-lab va lab-tish undoshlari.

Til-tish undoshlari (dorsal va alveolyar undoshlar)- tilning uchki qismi bilan pastki yoki yuqori tishlarning milki orasidagi to'siqda hosil bo'ladigan undoshlar.

Til oldi- tanglay undoshlari - til oldi qismining qattiq tanglay tomon ko'tarilishidan hosil bo'lgan to'siqda yuzaga keladigan undoshlar.

Til o'rta undoshi - tilning o'rta qismi bilan tanglay orasidagi to'siqda hosil bo'lgan "y" undoshi.

Sayoz til orqa undoshlari - k,g,n fonemalari. Ular velyar (qattiq)undoshlar sanaladi.

Chuqur til orqa undoshlari -q,g',x fonemalari. Ular uvulyar (kichik til ishtirokida hosil bo'lgan) undoshlar sanaladi.

Bo'g'iz undoshi - "h" fonemasi. U faringal undosh deb ham ataladi.

Yumuq fokusli burun tovushlari (nazal tovushlar) - m,n,n sonantlari.

NUTQNING ASOSIY FONETIK BIRLIKLARI

Mavzu rejasi

1. Frazanutqning eng katta fonetik-intonatsion birligi.
2. Takt va sintagma.
3. Fonetik so'z.
4. Bo'g'in.
5. Tovush.
6. Urg'u.

Mavzu bayoni

Inson nutqi uzluksiz va to'xtovsiz davom etadigan tovushlar oqimidan iborat emas. U turlicha hajmdagi intonatsion birliklarni o'z ichiga oladi. Frazanutq, takt, fonetik so'z, bo'g'in, tovush ana shunday fonetik birliklardir.

1. Frazanutq nutq oqimida kattaroq pauza bilan ajratib aytiladigan nutq birligidir. U ohang va fikriy tugallikka ega bo'lganligi uchun ko'pincha gapga teng keladi. Masalan: *Dunyoda boladan aziz narsa yo'q G'G' Bo'lmaydi G'G' Bolalar – kelajagimiz G'G' (O'. Hakimali)*. Bu nutqiy parchada uchta frazanutq bor. Frazalarni hajm jihatidan har xil bo'lib, ular bir, ikki, uch va undan ortiq so'zdan tashkil topishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan misoldagi birinchi frazanutq beshta,

ikkinchisi bitta, uchinchisi ikkita soʻzdan tashkil topgan. Yana qiyoslang: *Ularning uyi qishloqning eng chekkasida, hovlilari baland togʻning shundoqqina etagida. GʻGʻ Bahavo. GʻGʻ Bogʻlarining ortidan shovullab soy oʻtadi. (Toʻlqin).*

2. Takt frazaning bir qismi boʻlib, qisqa pauza bilan ajratib aytiladi. Buning tarkibidagi soʻz yoki soʻzlar bir bosh urgʻu (bir havo oqimi) bilan talaffuz qilinadi. Masalan: *Dunyoda Gʻ xushfeʼl, Gʻ olijanob, Gʻ hamisha ezgu niyat bilan ish qiladigan odamlar Gʻ juda koʻp (O.Husanov).* Bu fraza tarkibida 6 ta takt boʻlib, birinchi, ikkinchi, uchinchi, beshinchi taktlar bir soʻzdan, toʻrtinchi takt olti, oltinchi takt esa ikki soʻzdan tashkil topgan.

Fraza baʼzan bir taktga teng boʻladi. Masalan, *Kech kuz edi. GʻGʻ Qoʻqqisdan qorasovuq boshlanib, Gʻ choʻponlarni tashvishga solib qoʻydi (M.Qoriyev).* Bunda birinchi fraza – *Kech kuz edi* bir taktga tengdir.

3. Fonetik soʻz oʻz urgʻusiga ega boʻlgan soʻz yoki bir urgʻuga birlashadigan (bir urgʻu bilan talaffuz etiladigan), ikki va undan ortiq soʻzshakldir. Takt tarkibidagi fonetik soʻzlar soni undagi soʻzlarning umumiy miqdori bilan emas, urgʻuli soʻzlar miqdori bilan belgilanadi, yaʼni takt ichida urgʻuli soʻz qancha boʻlsa, fonetik soʻz ham shuncha boʻladi: *Dashtda Gʻ odam aqli shoshadigan Gʻ buyuk ishlar Gʻ qilinadi GʻGʻ (Y.Shamsharov).* Bu fraza tarkibida toʻrtta takt boʻlib, birinchi taktda bitta, ikkinchi taktda uchta, uchinchi taktda ikkita, toʻrtinchi taktda esa bitta fonetik soʻz qatnashgan. Bu frazadagi soʻzlarning umumiy soni fonetik soʻzlarning umumiy soniga teng.

Mustaqil urgʻuga ega boʻlmagan yordamchi soʻzlar oʻzlari tobe boʻlgan mustaqil soʻz bilan birga bir urgʻuga ega boʻladi va bir fonetik soʻzni tashkil etadi: *Dilda saqlangan adovat temir zangiga oʻxshaydi, zang temirni yegani kabi, adovat qalbni azob va iztirob bilan yemiradi (Oz-oz oʻrganib dono boʻlur).* Bunda 14 ta fonetik soʻz boʻlib, bularning ikkitasi (*yegani kabi, iztirob bilan*) ning tarkibida koʻmakchi soʻzlar qatnashgan.

Bir tushunchani ifodalaydigan qoʻshma soʻzlar ham, tarkibidagi soʻzlarning umumiy miqdoridan qatʼi nazar, bir fonetik soʻz sanaladi: *Qoʻpol va dagʻal barmoqlar torlarni shunday chertar ediki, oddiygina qildan taralayotgan bu ohang dillarni rom qilib olgandi. (Toʻlqin)* Fraza tarkibidagi *rom qilib olgandi* boʻlagi bitta fonetik soʻz deb qaraladi.

4. Boʻgʻin oʻpkadan chiqib kelayotgan havo oqimiga berilgan bir zarb bilan aytiladigan tovushlar yoki ayrim bir tovushdir. Unli tovush boʻgʻin hosil qiluvchi tovushdir. Shuning uchun soʻzda nechta unli tovush boʻlsa, boʻgʻinlar soni ham shuncha boʻladi. Masalan, *adolat* soʻzida uch boʻgʻin bor: *a-do-lat*. Birinchi boʻgʻin bir tovushdan, ikkinchi boʻgʻin ikki tovushdan, uchinchi boʻgʻin uch tovushdan iborat. Demak, boʻgʻinlar bir tovushli, ikki tovushli va koʻp tovushli boʻlishi mumkin. Chunonchi: *o-ta, o-na, a-ka* soʻzlarining birinchi boʻgʻini bir tovushdan, ikkinchi boʻgʻini ikki tovushdan, *a-dir, o-qil, e-shit, i-dish* soʻzlarining ikkinchi boʻgʻini uch tovushdan, *a-van-gard, ak-sent, e-le-ment, an-ti-fa-shist, ar-tist, ge-o-graf* soʻzlarining oxirgi boʻgʻini toʻrt tovushdan, *a-le-bastr, a-git-punkt* soʻzlarining oxirgi boʻgʻini besh tovushdan iborat. Boʻgʻinning tuzilishi quyidagicha ifodalanadi: *ona: V – C*. Bunda **V** belgisi lotincha **vokalis** soʻzidan olingan boʻlib, aslida **unli** (ovoz) degan maʼnoni bildiradi. **C** belgisi esa inglizcha **constant** soʻzidan olingan boʻlib, **undosh** degan maʼnoni bildiradi. Bir tovushli boʻgʻinlar unli tovushdangina iborat boʻlsa, ikki tovushli va koʻp tovushli boʻgʻinlar unli va undosh tovushlardan tuziladi. Boʻgʻinlar qanday tovushlar bilan boshlanishi va qanday tovushlar bilan tugashiga qarab turlarga ajratiladi. Qanday tovush bilan tugashiga koʻra ikki xil: **1) ochiq boʻgʻin** – bir tovushli yoki oxiri unli tovush bilan tugagan boʻgʻin: *o-vo-za, o-i-la, ba-ho, bi-no, de-le-ga-tsi-ya, ja-zi-ra-ma, Ra-hi-ma; 2) yopiq boʻgʻin* undosh tovush bilan tugagan boʻgʻin: *zARB-dor, zum-rad, id-rok*. Boʻgʻinlari qanday tovush bilan boshlanishiga koʻra ham ikki xil boʻladi: **1) berkitilgan boʻgʻin** undosh bilan boshlanadi: *ta-lab, tinch-lik. 2) berkitilmagan boʻgʻin* unli bilan boshlanadi: *oʻ-qish, aʻ-lo*.

Tarkibidagi boʻgʻinlar soniga koʻra soʻzlar bir boʻgʻinli (*ish, koʻk, kam, oz, besh, yuz, sen, pisht, ol, yoz*); ikki boʻgʻinli (*da-la, qush-cha, yax-shi, shar-bat, qi-zil, ik-ki, ol-ti, oʻt-tiz, ni-ma, ham-ma, oʻ-qi, ish-la, bor-di, bu-gun, se-kin, bi-lan, xud-di, ...*); koʻp boʻgʻinli (qoʻ-gʻir-choq, a-ra-va-cha, pla-ne-ta-riy, ...) boʻladi.

Soʻzlarni boʻgʻinlarga toʻgʻri ajrata bilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi: 1) yozuvda soʻzning bir qatorga sigʻmay qolgan qismi ikkinchi qatorga boʻgʻin asosida koʻchiriladi; 2) barmoq vaznida yoziladigan sheʼr misralari boʻgʻin sonining teng boʻlishiga asoslanadi; 3) birinchi

sinf o'quvchilarini savodga o'rgatish davrida ham asosiy diqqat so'zlarni bo'g'inlab o'qish va yozishga qaratiladi.

5. Tovush nutqning bo'g'in (yoki so'z) tarkibidagi eng kichik, fonetik jihatdan bo'linmaydigan birligidir: **bola** so'zi 4 ta tovushdan (*b,o,l,a*) iborat.

Urg'u. So'z bo'g'inlaridan birining yoki gap tarkibidagi so'zlardan birining bosh-qalariga nisbatan kuchliroq yoki cho'ziqroq talaffuz qilinishi **urg'u** deb ataladi.

Urg'u, odatda, bo'g'indagi unli tovushga tushadi. So'z nechta bo'g'indan tuzilganligidan qat'i nazar, unda bitta urg'u bo'ladi (gap bo'laklaridan birini ajratib ko'rsatish ham xuddi shunday xususiyatga ega). So'z tarkibidagi urg'u olgan bo'g'in **urg'uli bo'g'in**, urg'u olmagan bo'g'inlar esa **urg'usiz bo'g'in** deyiladi. Masalan: *Sizlarning matonatli mehnatlaringiz Ulug' Vatan urushi yillaridagi muqaddas g'alabamizni yaqinlashtirdi. (S. Karomatov)* Bu gapdagi har bir so'z o'z urg'usiga ega (chunonchi, «*sizlarning*» so'zida uchta bo'g'in bo'lib, oxirgi bo'g'in (-ning) urg'u olgan; «*matonatli*» so'zida to'rtta bo'g'in bo'lib, oxirgi bo'g'in (-li) urg'u olgan va hokazo). Bundan tashqari, shu gap tarkibidagi *sizlarning* so'zi boshqa so'zlarga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinadi. Demak, har xil obyektga – so'z tarkibidagi biror bo'g'inga ham, gap tarkibidagi ayrim so'zga ham urg'u tushishi mumkin. Shunga ko'ra, urg'u ikki turga ajratiladi:

1) so'z urg'usi (yoki leksik urg'u) so'z bo'g'inlaridan biriga tushadigan urg'udir. Yozuvda urg'u bo'g'indagi unli ustiga qo'yiladigan maxsus belgi (') orqali ko'rsatiladi. Masalan: *Áslida insón tabiatníng oltindán hámbabahó mo'jizasi -ku! Dunyodá insondán azíz, insondán qimmatlí narsá bórmí o'zi?* (O.Husanov). Leksik urg'u so'zning qaysi bo'g'iniga tushishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: **a) bog'liq urg'u;** **b) erkin urg'u.**

O'zbek tilida so'z urg'usi asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga (masalan, *daftár, ovóz, sariq, burún* kabi) tushadi. Shuning uchun so'zlarga qo'shimchalar qo'shila borishi bilan urg'u ham so'z oxiridagi bo'g'inga ko'cha boradi. Masalan: *imzó-imzolá- imzolásq, paxtá -paxtakór-paxtakorlar.* So'zning biror bo'g'ini (masalan, oxirgi) bilan bog'liq bo'lgan urg'u **bog'liq urg'u** deyiladi.

O'zbek tilining so'z urg'usi, asosan, bog'liq urg'u hisoblanadi. So'zning turli bo'g'inlariga tushishi mumkin bo'lgan urg'u esa **erkin urg'u** deyiladi. Bu asosan ruscha-internatsional so'zlarga xos. Masalan, *vitámín, abzás, avangárd, batón, operatív, bufét, gigánt* (oxirgi bo'g'inida), *avantyúra, aviátsiya, proféssor, akrobátika, geólog* (o'rtadagi bo'g'inda), *áriya, vánna, nóta, máksimum, váxta, sintaksis, áksiya* (birinchi bo'g'inda).

Bundan tashqari, o'zbek tilida urg'usi birinchi bo'g'inga (*bárcha, hámma, dóim, áslo, lékin* kabi, o'rtadagi bo'g'inga (*hamísha, afsúski, albátta*) tushadigan so'zlar ham bor. Demak, o'zbek tilida bog'liq urg'u bilan bir qatorda, qisman erkin urg'u ham mavjud.

Shuni ham aytish kerakki, o'zbek tilida urg'u olmaydigan elementlar ham bor. Masalan: *-ku, -u, -yu, -da, -mi, -chi, -dir, gina, -oq(-yoq)* yuklamalari; o'xshatish ma'nosini ifodalaydigan *-day (-dek); -cha* shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar; *-dir, -man, -san, -miz, -siz* kabi kesimlik qo'shimchalari; bo'lishsizlik ma'nosini ifodalovchi *-ma* qo'shimchasi shular jumlasiga kiradi. Leksik urg'u muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki u, birinchidan, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish normalarini belgilaydi; ikkinchidan, so'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qiladi: *órgan* - organizmning bir qismi, *orgán* – cholg'u asbobi; uchinchidan, so'z shakllarini ajratishga yordam beradi: *qushchá* – kichraytish oti, *qúshcha* – “qushdek” ma'nosini ifodalovchi ravish; *tarbiyachimíz* (bizning tarbiyachi) – *tarbiyachímiz* (biz – tarbiyachi).

Demak, leksik urg'u adabiy talaffuz (orfoepiya) bilan bog'liq. Chunki so'zning urg'uli bo'g'ini buzilsa, so'zni tushunish qiyinlashadi.

2) gap urg'usi (yoki mantiqiy urg'u, ma'no urg'usi) gap bo'laklaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishidir. Bu urg'u, odatda, individual xarakterga ega bo'lib, so'zlovchi o'zicha muhim sanagan so'zni mantiqiy urg'u bilan talaffuz qiladi va bu bilan tinglovchining e'tiborini shu bo'lak bilan ifodalangan ma'noga tortadi, yoki o'sha bo'lakning ma'nosini bo'rttirib, kuchaytirib ko'rsatadi. Masalan: *Ilmda ko'p narsani bilish – olimlik fazilati.* (S.Karomatov) gapida mantiqiy urg'u quyidagicha tus olishi mumkin: 1) *Ilmda* (boshqa narsada emas) *ko'p narsani bilish – olimlik fazilati.* 2) *Ilmda ko'p narsani* (oz narsani emas) *bilish – olimlik fazilati.* 3) *Ilmda ko'p narsani bilish* (bilmaslik emas) – *olimlik fazilati.* 4) *Ilmda ko'p*

narsani bilish – olimlik fazilati (boshqalarning fazilati emas). Yozuvda mantiqiy urg‘u olgan bo‘lak kesim oldida keladi.

Urg‘u sifatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) **dinamik urg‘u** so‘z bo‘g‘inlaridan birining kuchli aytilishi: o‘zbek va rus tili urg‘usi kiradi; 2) **musiqail urg‘u** so‘z bo‘g‘inlaridan birining balandroq aytilishidir. yapon, xitoy tillari urg‘usi shunday xususiyatga ega.

Takrorlash va mavzuni o‘zlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Urg‘u nima? Uning qanday turlari bor?
2. Leksik urg‘u nima? Uning qanday turlari bor? Ular o‘zaro qanday farq qiladi?
3. Leksik urg‘uning qanday amaliy ahamiyati bor?
4. Mantiqiy urg‘u nima? U leksik urg‘udan qanday farq qiladi?

FONETIK HODISALAR. NUTQ TOVUSHLARINING O‘ZGARISHI

Mavzu rejasi

1. Nutq tovushlarining o‘zgarishi va ularning tasnifi haqida ma‘lumot.

2. Kombinator o‘zgarishlar.

3. Pozitsion o‘zgarishlar.

1-masala bayoni

Har qanday tilda ham tovushlar yozuvda yozilganidek talaffuz qilinavermaydi. Tovushlar kompleksini (tizimini) birga talaffuz qilish natijasida ayrim tovushlar o‘zaro bir-biriga ta‘sir qiladi va bu ta‘sir tovush o‘zgarishiga olib keladi. Masalan, *yurt* so‘ziga o‘rin-payt kelishigi affiksi *-da*, chiqish kelishigi affiksi *-dan* qo‘shilganda, so‘z oxiridagi *t* tovushi affiksdagi *d* undoshiga ta‘sir qilib, uni *t* tovushiga aylantiradi: *yurtQdaqyurtta*, *yurtQdanqyurttan* kabi (yozilishi: *yurtda*, *yurtdan*). Bir sanoq soniga dona son affiksi *-ta* qo‘shilganda, affiksdagi *t* undoshning ta‘siri bilan so‘zning oxiridagi *r* tovushi *t* ga o‘tadi: *birQtaqbitta* kabi.

So‘z tarkibidagi tovushlar nutq jarayonida bir-biriga ta‘sir qilmagan holda ham o‘zgarishga uchrashi mumkin. Bunda tovushning so‘z tarkibidagi o‘rni (qanday tartibda joylashganligi); so‘zning boshida yoki oxirida, urg‘uli yo urg‘usiz bo‘g‘inda kelishi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *odob*, *javob*, *niqob*, *maktab* so‘zlari oxirida kelgan *b* jarangli undosh talaffuzda jarangsiz *p* tarzida talaffuz qilinadi; *negativ*, *normativ* *pozitiv*, *operativ* kabi ruscha-internatsional so‘zlarning oxirida kelgan *v* jarangli undosh jarangsiz *f* tarzida; *voleybol*, *olimpiada* kabi ruscha-internatsional so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inida kelgan *o* unlisi esa *a* tarzida talaffuz qilinadi: *valeybol*, *alimpiada*. Bunday hodisalarning sodir bo‘lishiga nutqda ixchamlikka intilish, bo‘g‘inda urg‘uning tushishi yoki tushmay qolishi, shoshilib talaffuz qilish, boshqa tillardan o‘tgan so‘zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar sabab bo‘lishi mumkin.

Demak, nutq tovushlarining o‘zgarishi ikki turga bo‘linadi.

2-masala banoni

Kombinator o‘zgarishlar

So‘z tarkibidagi tovushlarning bir-biriga o‘zaro ta‘siri natijasida ro‘y beradigan tovush o‘zgarishi (fonetik o‘zgarish) **kombinator o‘zgarish** deyiladi. Bunga **assimilyatsiya**, **dissimilyatsiya**, **metateza** kabi hodisalar kiradi.

1. Assimilyatsiyada tovushlardan biri ikkinchi bir tovushni o‘ziga aynan yoki qisman o‘xshatib oladi. Masalan, *xat-ni* – *xatti* (o‘zakdagi *t* tovushi affiks tarkibidagi *n* ni aynan o‘ziga o‘xshash tovush – *t* ga aylantiradi (yozilishi: *xatni*); *ishQga* – *ishka* (bunda o‘zakdagi jarangsiz undosh *sh* affiks tarkibidagi jarangli undosh *g* ni o‘ziga qisman o‘xshatadi, ya‘ni jarangsiz *k* ga aylantiradi (yozilishi *ishga*). Shunga ko‘ra assimilyatsiya ikki xil bo‘ladi: **a) to‘liq assimilyatsiya**

soʻz tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni aynan oʻzi kabi tovushga aylantirishidir: *toʻkQgan qtoʻkkan, yetQdiqyetti, chiqQgan q chiqqan, tuzQsizqtussiz, oʻrisQchaqoʻrichcha* (yozilishi: *yetdi, sizni, chiqqan, tuzsiz oʻrischa*). Bunda tovushlar oʻzaro moslashadi; **2) toʻliqsiz assimilyatsiya** soʻz tarkibidagi bir tovushning ikkinchi bir tovushni oʻziga qisman oʻxshatib olishidir: *oʻchQganqoʻchkan, shoshQdiqshoshti, tushQgaqtushka ...* (bulara jarangsiz *ch, sh* undoshlari affiks tarkibidagi jarangli *g* ni jarangsiz *k* ga, *d* ni esa *t* ga aylantirgan; yozilishi: *oʻchgan, shoshdi, tushga*). Toʻliqsiz assimilyatsiyada baʼzan tovushlar oʻr>niga koʻra ham moslashadi: *shanba > shamba*. Bunda *b* lab tovushining taʼsirida *n* til tovushi lab-lab *m* tovushiga aylanadi. Demak, toʻliqsiz assimilyatsiyada tovushlar hosil boʻlish usuliga koʻra qisman moslashish holatiga oʻtmaydi. Bunda yonma-yon kelayotgan tovushlar ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra va hosil boʻlish oʻrniga koʻra moslashadi. Oldin kelgan tovush oʻzidan keyin kelgan tovushni (masalan, *oʻtQdiqoʻtti*), shuningdek, keyin kelgan tovush oʻzidan oldin kelgan tovushni (*oʻn bir - oʻmbir*) oʻziga oʻxshatishi mumkin. Shunga koʻra assimilyatsiya yana ikki turga boʻlinadi: **1) progressiv assimilyatsiyada** oldingi tovush oʻzidan keyingi tovushni oʻziga oʻxshatadi: *otQda q otta* (yozilishi *otda*), *bilakQga – bilakka* (yozilishi: *bilakka*). **2) regressiv assimilyatsiyada** keyingi tovush oʻzidan oldingi tovushni oʻziga oʻxshatadi: *tanbur – tambur, yigitQcha q yigichcha, nonQvoy q novvoy*, (yozilishi: *tanbur, yigitcha, nonvoy*).

2. Dissimilyatsiyada ikkita aynan yoki qisman oʻxshash tovushdan biri yoki har ikkalasi talaffuzda oʻzgarib, nooʻxshash tovushga aylanib qoladi. Masalan, *zarur – zaril* (*zarar* soʻzi tarkibidagi ikkita bir xil *r* undoshining biri talaffuzda *l* ga aylangan). Yana qiyoslang: *koridor>kalidor, devor>devol, nodon>lodon, biror>biron* (yozilishi: *zarur, koridor, devor, biror* yoki *biror, nodon*).

3. Metateza soʻz tarkibidagi ayrim tovushlarning talaffuzda oʻrin almashuvidir. Masalan: *daryo – dayro* (bunda *r* va *y* undoshlarining oʻzaro oʻrin almashuvi yuz bergan); *ahvol – avhol* (hv-vh), *aylanay – aynalay* (ln-nl), *tuproq-turpoq* (pr-rp); *yogʻmir-yomgʻir* (gʻm- mgʻ); yozilishi: *daryo, ahvol, aylanay, tuproq, yomgʻir*.

3-masala bayoni

Pozitsion oʻzgarishlar

Tovushning soʻz tarkibidagi oʻrni (joylashish tarkibi) uning **pozitsiyasini** tashkil qiladi. Tovush soʻzning turli oʻrinlarida kela oladi. Masalan, *d* undoshi *dono, dehqon, doston* soʻzlarining boshida; *abadiy, aerodrom, badiiy, bayroqdor* soʻzlarining oʻrtasida; *taqlid, obod* soʻzlarining esa oxirida kelgan. Shu soʻzlarni talaffuz qilganimizda, ularning ayrimlari (masalan, *dono, dehqon, doston, abadiy, aerodrom, badiiy, bayroqdor...*) tarkibidagi *d* undoshi hech qanday oʻzgarishga uchramaydi, ammo *taqlid, obod* soʻzlari tarkibidagi bu undosh jarangsiz *t* tarzida (*taqlit, obot*) aytiladi. Demak, mazkur undoshning talaffuzda oʻzgarishi – jarangli tovushning jarangsizlanishi uning maʼlum bir pozitsiyada – soʻz oxirida kelishi bilan bogʻliq. *Kosmonavt, kosmodrom, limonad, mikrofon, orkestr* soʻzlarining urgʻusiz boʻgʻinida kelgan *o* unlisi *a* tarzida (*kasmanavt, kasmadrom, limanad, arkestr, mikrafon* kabi) talaffuz qilinsa, *kartoshka, direktor, lektor, diktir, agressor* soʻzlarining urgʻusiz boʻgʻinida kelgan *o* unlisi qisqa *i* tarzida (*kartishka, direktir, lektir, diktir, agressir* kabi) talaffuz qilinadi. Bu tipdagi ruscha-internatsional soʻzlar tarkibidagi *o* tovushining goh *a*, goh *i* kabi aytilishi ularning urgʻusiz boʻgʻinda kelishi bilan bogʻliqdir.

Tovushning soʻzdagi oʻrni, urgʻuli yoki urgʻusiz boʻgʻinda kelishi bilan bogʻliq holda yuz beradigan oʻzgarishlar **pozitsion oʻzgarishlar** deyiladi. Pozitsion oʻzgarishlarning quyidagi turlari bor:

1) proteza soʻz boshida bitta unlining orttirilishidir. Odatda, aksariyat sonor *r* tovushidan oldin *oʻ* unlisi orttiriladi: *roʻmol - oʻramol, roʻza - oʻraza*. Ayrim holatda soʻz boshida sirgʻaluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda *i* yoki *u* unlisi orttirilishi mumkin: *shkaf-ishkaf, stol-ustol, stul-ustul*.

2) epenteza soʻz boshida, oʻrtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, unli tovushning orttirilishidir: *fikr - fikir, hukm - hukum, uzr - uzur*.

3) epiteza soʻz oxirida bir oʻrinda kelgan ikki undoshdan soʻng *a* tovushining qoʻshilish hodisasidir: *disk - diska, bank - banka, tank - tanka, kiosk - kioska* kabi.

4) prokopa soʻz boshida unli yoki undosh tovushning tushib qolish hodisasidir: *yigna - igna, yogʻoch - ogʻoch, yirik - iri*.

5) sinkopa hodisasiga binoan soʻz oʻrtasidagi va oxiridagi keng unlilar tor unlilar kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatlarda tushib qoladi: *traktor - traktir, direktor - direktir, generator - generatir* kabi.

6) apakopa soʻz oʻzigidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: *doʻst - doʻs, xursand - xursan* va hokazo.

7) sinerezis hodisasiga koʻra soʻz oʻrtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi, ikkinchi unli fonema esa choʻziq talaffuz qilinadi: *maorif - mo:rif, saodat - so:dat, qiroat - qiro:t, jamoat - jamo:t*.

8) reduksiya soʻzning birinchi boʻgʻinida biror unlining (odatda tor unlining) kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, *bir, bil, til* soʻzlari bir boʻgʻinli boʻlganligi va urgʻu shu soʻzdagi *i* unlisiga tushganligi tufayli bu soʻzlardagi *i* unlisi normal holda talaffuz qilinadi va normal holda eshitiladi. Lekin shu soʻzlarning oxiriga ikkinchi bir boʻgʻin qoʻshilishi bilan, urgʻu ham ikkinchi boʻgʻinga koʻchadi. Natijada birinchi boʻgʻindagi *i* unlisi kuchsizlanadi va eshitar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: *bilak, tilak, biroq*. Reduksiyaning ikkinchi boʻgʻinda kelish hollari ham uchrab turadi. Bu hodisa soʻzga uchinchi boʻgʻin qoʻshilganda sodir boʻladi – ikkinchi boʻgʻindagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, *burun - burni, boʻyin - boʻyni, egin - egni* singari.

9) eliziya unli bilan tugaydigan va unli bilan boshlanadigan ikki soʻzning qoʻshilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasidir. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi soʻz oxiridagi unli tushib qoladi: *yoza oladi – yozoladi, bora oladi – boroladi*; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi soʻzning bosh unlisi tushib qoladi: *borar ekan – borarkan, borar emish – borarmish, yozgan ekan – yozgankan* kabi; d) *Abdusalom* soʻzining *Absalom, Abdujabbor* soʻzining *Abjabbor, olib kel* soʻzining *opke* tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib qolishi hodisasi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan shakli hisoblanadi. Bunday hollarda eliziyaning murakkablashishi natijasida soʻzlarning qisqargan shakllari hosil boʻladi.

Takrorlash va mavzuni oʻzlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Nutqdagi tovush oʻzgarishlari nima? Nima uchun nutqda tovush oʻzgarishi roʻy beradi?
2. Tovush oʻzgarishlarining qanday turlarini bilasiz?
3. Kombinator oʻzgarish nima? Uning qanday turlari bor?
4. Assimilyatsiya nima va uning qanday koʻrinishlarini bilasiz?
5. Dissimilyatsiya nima?
6. Metateza haqida nimalarni bilasiz?
7. Pozitsion oʻzgarishlar deganda nimani tushunasiz?
8. Tasnif va tavsif qanday farqlanadi?
9. Labial undoshlardan qaysilarining qanday fonetik pozitsiyada asosiy boʻlmagan ottenkalari qatnashadi?
10. Portlovchi tovushlarning qaysilari intervokal holatda sirgʻaluvchiga oʻtadi?
11. Jarangli undoshlarning qaysilari qanday pozitsiyada jarangsizlashadi?
12. Lab-lab "v^o" va lab-tish "v" qanday farqlanadi?
13. Qanday pozitsiyada lab-tish "f" ning lab-lab ottenkasi shakllanadi? Bu hodisa tilshunoslikda nima deb ataladi?
14. Qanday soʻzlar oxiridagi "t" talaffuz etilmaydi?
15. Qanday holatlarda "l" undoshi tushib qolishi mumkin?
16. Qanday pozitsiyada til oldi "n" lab-lab "m" ga oʻtadi? Sababi?
17. J va j undoshlari qanday farqlanadi? qanday pozitsiyalarda bu fonemalarning allofonlari yuzaga keladi?
18. Qanday holatda "ch"ning "sh"ga oʻtishi uchraydi? Bu hodisa nima deb ataladi?
19. Sayoz til orqa "k", "g" undoshlari qanday pozitsiyada oʻzgaradi? Chuqur til orqa undoshlari-chi?
20. "H" undoshi talaffuzida qanday oʻzgarishlar kuzatiladi?
21. "Ts" undoshining qaysi jihatlari oʻzbek tilshunosligida munozaraga sabab boʻlmoqda?

21. Divergent nima?

Tayanch tushunchalar

Assimilyatsiya- bir xil kategoriyadagi tovushlarning soʻz tarkibida oʻzaro moslashuvi.

Akkomodatsiya – turli kategoriyalardagi tovushlarning, masalan, unli bilan undoshning oʻzaro taʼsiri tufayli yuzaga keladigan moslashuv. Masalan: *kisht* (kʼsht: "i"ning old qator ottenkasi, u sayoz til orqa "k" undoshiga moslashgan)- *qish* (qoʻsh: "i"ning orqa qator ottenkasi, u chuqur til orqa "q" undoshiga moslashgan). Baʼzan unli undoshga emas, aksincha, undosh unliga moslashadi. Masalan, lab-tish (labio-dental) "f" undoshi lablashgan "u" unlisi taʼsirida lab-lab "f"ga aylanishi mumkin. qiyos qiling: *faqat* ("f"- lab-tish), *nufuz*("f" –lab-lab), *aft* ("f"- lab-tish)- *ufq* ("f"- lab-lab), *saf* ("f" –lab-tish)- *tuf* ("f"- lab-lab) kabi.

Nazalizatsiya- unli tovushlarning soʻz tarkibidagi burun sonantlari taʼsirida rezonator ton bilan aytilishi.

Reduktsiya- urgʻusiz boʻgʻindagi unlining kuchsizlanishi.

Spirantizatsiya- portlovchi undoshning intervokal holatda sirgʻaluvchi undoshga oʻtishi.(boraver)

Proteza- soʻz boshida tovush orttirilishi.

Epenteza- soʻz oʻrtasida tovush orttirilishi.

Epiteza- soʻz oxirida tovush orttirilishi.

Prokopa – soʻz boshidagi tovushning tushib qolishi.

Sinkopa- soʻz oʻrtasidagi tovushlardan birining tushib qolishi.

Apokopa- soʻz oxirida tovush tushish hodisa.

Eliziya – unli tovush bilan tugagan soʻzga unli bilan boshlangan soʻzning qoʻshilishi natijasida bir unli tovushning tushishi (112, 133). Masalan, *ayta oldi>aytoldi*, *Dili orom> Dilorom* kabi.

Sandxi hodisasi - analitik shakllarning ixchamlashuvi natijasida sodir boʻladigan fonetik oʻzgarishlar. Masalan: *ishlar edi>ishlardi*, *borgan emish>borganmish* kabi.

Aferezis - oldingi soʻzning soʻnggi tovushi (yoki tovushlari) taʼsirida keyingi soʻz boshidagi tovushning (yoki tovushlarning) tushishi: *ne uchun>nechun*, *mulla aka>mullaka* kabi (14, 85-86). Bu hodisa sandxining bir koʻrinishi, xolos;

Gaplogiya - yasama soʻz tarkibida birin-ketin kelgan ikkita bir xil boʻgʻindan birining tushirib qoldirilishi. Bu hodisa ham koʻproq ixchamlashtirish, energiyani tejash asosida sodir boʻladi. Masalan, *tragikomediya<tragikokomediya*: Bu soʻzning tarkibida ikkita bir xil boʻgʻin ("ko"- uchinchi boʻgʻin va "ko"-toʻrtinchi boʻgʻin)birin-ketin kelganligidan talaffuzda ulardan biri tushirib qoldirilgan va soʻzning ana shu ixchamlashtirilgan shakli adabiy til uchun meʼyor boʻlib qolgan. Bunday hodisa *mineralogiya<mineralologiya*, *morfonologiya<morfofonologiya* soʻzlarida ham kuzatiladi.

Metateza- soʻz tarkibidagi ayrim tovushlarning oʻrin almashinuvi.

Dissimilyatsiya- soʻz tarkibidagi ikkita bir xil (yoki oʻxshash) tovushlardan birining nooʻxshash tovushga koʻchishi.

Geminatsiya- soʻz tarkibida bir xil undoshlarning qavatlanishi.

Degeminatsiya- soʻz tarkibidagi geminatsiyaning yoʻqolishi(mening-mening)

Sinerezis- soʻz tarkibidagi ikki unlining diftonglashuvi. *mutolaa>mutola: matbaa>matba: saodat>so:dat* kabi. Bu hodisa ikki unli orasidagi undoshning tushib qolishi hisobiga yuz berishi ham mumkin: *zahar>za:r, shahar>sha:r* kabi.

Kuchli pozitsiya - fonemaning asosiy ottenkasi saqlanadigan pozitsiya.

Kuchsiz pozitsiya- fonemaning asosiy ottenkasi oʻzgarishiga olib keladigan pozitsiya.

Intervokal holat - undosh fonemaning ikki unli orasidagi holati.

Assimilyativ holat - nutq oqimida fonemalar assimilyatsiyasiga olib keluvchi vaziyat.

Dissimilyativ holat - nutq oqimida fonemalar dissimilyatsiyasiga olib keluvchi vaziyat.

Divergent - divergentsiya yoʻli bilan bir fonemaning ottenkalaridan oʻsib chiqqan yangi fonema.

GRAFIKA

Mavzu rejasi:

1. Grafika haqida umumiy maʼlumot
2. Til va yozuv.
3. Kirill grafikasi asosidagi oʻzbek yozuvi.
4. Lotin alifbosi asosidagi oʻzbek yozuvi.

1-masala bayoni

Tilshunoslik lugʻatlarida grafika tushunchasiga ikki xil taʼrif berishadi:

“1. Grafika (*yun. graphike* - yozma). 1. Nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan tizimi. 2. Tilshunoslikning alifbodagi harflar tarkibini, shaklini, harf va nutq tovushlari orasidagi munosabatni belgilash bilan shugʻullanuvchi amaliy sohasi”¹.

Grafika grekcha *grafikos* soʻzidan olingan boʻlib, yozuv degan maʼnoni bildiradi.

Grafika ogʻzaki nutqni turli shakllar, belgilar, raqamlar va chiziqlar yordamida aks ettiruvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Grafik vositalarga harflar, belgilar va tinish belgilari kiradi. Harf – tovush ifoda etuvchi shakl.

2-masala bayoni

Til va yozuv

Til va yozuv oʻzaro uzviy bogʻliq va aloqador hodisadir. Til jamiyat bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. U jamiyatning boʻlishida muhim omillardan biridir. Tilsiz jamiyat boʻlmaydi.

Yozuv – jamiyatning madaniy yutuqlaridan biri. U jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida hayotiy zarurat natijasi sifatida yuzaga keldi, yaratildi. Yozuv ham til kabi jamiyat aʼzolarining aloqa-aralashuvida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Koʻp hollarda yozuv tilning oʻrnini bosadi. Lekin til va yozuvning oʻziga xos ahamiyatli tomonlari bor. Yozuv fikrni yetkazishda masofa jihatidan chegara bilmaydi. Til esa vaqt va makon jihatdan chegaralangan. U yaqin masofada turgan suhbatdoshiga eshitiladi.

Yozuv madaniy, maʼrifiy va adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga meros sifatida qoldirish imkoniyatiga ega. Ogʻzaki nutq esa aytilayotgan paytdagina qabul qilinadi. Biroq yozuv maxsus yozuv qurollari, sharoit, vaqt va shartli belgi shakllarni talab etadi. U tilni barcha nozikliklari bilan aks ettira olmaydi. Shunga qaramay, jamiyatda yozuvning oʻz oʻrni bor; yozuv masofa bilan ajralgan odamlar orasida aloqa munosabatini taʼminlashda, barcha uchun tushunarli boʻlgan adabiy tilning yuzaga kelishida, madaniy-adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga yetkazishda katta imkoniyatlarga ega.

Tarixchilarning aniqlashicha, yozuv dastlab Messopotamiya degan joyda paydo boʻlgan va bu yozuv tarixga **mixxat** nomi bilan kirgan. Bu xat eramizdan oldingi V–IV asrlarda Oʻrta Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida ishlatilgan. Hozirgi eramizdan boshlab taxminan VI asrgacha **soʻgʻd** yozuvi ishlatilgan. V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar **runik**

¹ A.Hojjiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. T.: “Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 33-bet.

yozuvidan foydalanishgan. Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari dastlab Janubiy Sibirning Enasoy daryosi havzalarida va Mo'g'ulistonning O'rxun vodiysida topilgan. Shunga nisbatan qadimgi turkiy yozuv O'rxun-Enasoy obidalarining yozuvi deb ham yuritiladi. 1893-yili daniyalik olim N. Tomsen va rus olimi V. V. Radlov qadimgi turkiy yozuvni o'qishga muvaffaq bo'ldilar. O'rxun-enasoy yozuvlari Rim yozuvlariga o'xshab ketganligi uchun **run (runik)** yozuvlari yoki **dulbarchin** deb ham yuritiladi.

O'rta Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi mahalliy xalqi sak va massaget urug'lari bo'lib, ularning ham o'z yozuvlari mavjud edi. Ana shu yozuvdan qadimiy **xorazmiy** va **so'g'd** yozuvlari yaratilgan. **Xorazmiy** yozuvi ham o'zbek xalqi ajdodlari tomonidan qo'llanilgan yozuv bo'lib, bu yozuv II asrning oxiri III asrning boshlarida xorazmshoh chiqargan pullarda uchraydi.

1970-yillargacha turkiy yozuv eramizning VI-VII asrlarida shakllangan degan fikr yetakchi edi. Keyingi topilmalar turkiy yozuvning ildizlarini ikki yarim ming yillik o'tmishdan izlamoq kerak, degan xulosani chiqarishga asos bo'ldi. 1988-

yilda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Lo'mbitepa yodgorligidan ko'za topildi. Uning bandi sirtiga qadimiy turkiy bitik o'yib tushirilgan ekan. Bu bitik VII-VIII asrlarga oid turkiy obidalardan yosh jihatidan qariyb I-II asrcha qadimiyroqdir.

VI-VII asrlardan to XV asrlargacha turkiylar va mo'g'ullar uyg'ur yozuvidan foydalanishgan. Bu yozuvda bitilgan yodgorliklarning eng qadimgisi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Vena kutubxonasidagi nusxasidir. Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni"), Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Lutfiy va boshqa shoirlarning ayrim she'rlari **uyg'ur** yozuvida yozilgan. Uyg'ur yozuvi X-XV asrlarda mavjud bo'lib, arab yozuvi bilan ma'lum davrgacha baravar ishlatilgan.

720-yildan boshlab **arab** yozuvi tarqala boshlagan. Arab yozuvida bitilgan eng qadimgi turkiy yodgorliklar XI asrga taalluqlidir. Bular Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Namangan va Qohira nusxalaridir. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu-lug'otit-turk" nomli asari ham arab yozuvida yozilgan. Xalqlarimiz taxminan 1200 yildan ko'proq vaqt davomida arab alifbosidan foydalangan. 1929-yildan **lotin** alifbosi asosidagi yangi yozuvga o'tilgan edi. 1940-yildan boshlab esa **rus (kirill)** grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga o'tildi.

Bizning davrimizda jahondagi xalqlar 220 xil yozuvdan foydalanadilar. Shu yozuvlardan juda keng tarqalgani **lotin** yozuvi bo'lib, jahon xalqlarining 30 foizidan ziyodi shu yozuvni qo'llaydilar. 1993 yil 2-3 sentyabrda bo'lib o'tgan Oliy Kengash yig'ilishida o'zbek yozuvini lotin alifbosiga o'tkazish to'g'risida qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-maydagi Oliy Majlis sessiyasida bu alifboga ayrim o'zgarishlar kiritildi va bu yozuvga to'liq o'tish muddati 2005-yil sentabr oyi deb belgilandi. 2004-yilda chiqarilgan qonunga ko'ra esa lotin yozuviga to'liq o'tish muddati 2010-yil sentabriga qadar cho'zildi¹. Isloh qilingan yangi o'zbek alifbosida 29 ta harf bor. Shulardan 3 tasi harfiy birikma: sh, ch, ng:

Aa(1) Bb(2) Dd(3) Ee(4) Ff(5) Gg(6) Hh(7) Ii(8) Jj(9) Kk(10) Ll(11) Mm(12) Nn(13) Oo(14) Pp(15) Qq(16) Rr(17) Ss(18) Tt(19) Uu(20) Vv(21) Xx(22) Yy(23) Zz(24) O'o' (25) G'g' (26) Sh sh(27) Ch ch(28) Ng ng(29).

Muayyan tartibda joylashtirilgan shakllar yig'indisi **alfavit** deyiladi.

3-masala bayoni

Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi

Kirill yozuviga asoslangan alfavitda 35 ta shakl bo'lib, bu shakllardan 33 tasi harf, 2 tasi belgidir. Har bir harfning bosh va kichik shakli (Aa), bosma va yozma shakllari bor. Har bir harf o'z nomiga ega. Harf nomini bilish va uni to'g'ri talaffuz qilish muhim amaliy orfoepik ahamiyat kasb etadi, chunki tildagi qisqartma so'zlarni to'g'ri o'qish uchun harf nomlarini bilish zarur. Masalan: *BMT – be – em – te.*

Kirill grafikasi asosidagi alifbo quyidagicha tartiblashtirilgan:

Aa, Bb, Vv, Gg, Dd, Ee, Yoyo, Jj, Zz, Ii, Yy, Kk, Ll, Mm, Nn, Oo, Pp, Rr, Ss, Tt, Uu, Ff, Xx, Tsts, Chch, Shsh, ‘, , Ee, Yuyu, Yaya, O'o', Qq, G'g', Hh.

¹ "Qalqon" jurnali, 2004-yil, 7-son.

Bu alifboda 10 ta unli harf (*a, o, i, u, o', e, e, yo, yu, ya*) bo'lib, ular 6 ta unli tovushni ifodalaydi. Bulardan to'rttasi (*e, yo, yu, ya*) yolashgan (grafema) tovushlar bo'lib, ularning 2 holati farqlanadi:

1. Ba'zi so'zlarda undoshdan keyin kelib, u bilan birga bitta bo'g'inni hosil qiladigan va bir tovushni (*a, u, e, o*) ifoda etadigan holati: *ter-ter, syujet-sujet, sentyabr-sentabr, rejissyor-rejissor* kabi.

2. So'z boshida va bo'g'in boshida kelib, ikki tovushni (*ye, yu, ya, yo*) ifoda etadigan holati: *yostiq - yostiq, yurak - yurak, quyosh - quyosh, yanvar - yanvar* va hokazo.

Yuqoridagi alfavitga o'zbek tilining tovushlari tabiatidan kelib chiqib, 4 ta harf (*o', q, g', h.*) qo'shilgan. Kirill yozuvida 2 ta belgi (*'*) bo'lib, ular tovush bildirmaydi. Ayirish belgisi (*'*) unidan keyin kelganda o'sha unlining cho'ziq aytilishi (*ma'no, e'lon* kabi), undoshdan keyin kelganda bo'g'inlarni ajratib aytilishini (*sur'at, jur'at* kabi); yumshatish (*'*) belgisi esa ruscha-internatsional so'zlarda o'zidan oldingi undoshning yumshoq aytilishi uchun (*albom, tsirkul*) xizmat qiladi.

Alfavitdagi *j* harfi 2 tovushni, portlovchi *j* (*jayron*) va sirg'aluvchi *j* (*jurnal*) tovushini ifodalaydi. Alfavitdagi *n* va¹ *g* harflari alohida *n* va *g* tovushlarini yozuvda ifodalash bilan birga, birikma shaklida sayoz til orqa burun tovushini (*ng*) ifodalash uchun ham xizmat qiladi (*tong, bodring* kabi).

Amaldagi (kirillcha) o'zbek yozuvining grafik tavsifi bo'yicha xulosalar: yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi fonografik (harf-tovush) yozuv tipiga mansub bo'lsa-da, amalda u ideografik (semasiografik) yozuv elementlari bilan qorishgan holda qo'llanib kelmoqda. Bu tabiiy bir holdir, chunki yozuvning funktsional-uslubiy xususiyatlari, yozma matnning grammatik va kompozitsion qurilishi fonografik va semasiografik yozuv birliklaridan kompleks holda foydalanishni taqozo qiladi. bu hol yozuvning grafik "to'qima"sida *fonografema, prosodemografema va logografema* kabi grafema tiplarining hamda *signalizatorlik* funktsiyasida qo'llanadigan qator maxsus belgilarning shakllanishiga sabab bo'lgan.

Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvining o'ziga xos xusu-siyatlaridan yana biri shuki, unda *grafik polisemiya (bifonemalilik, polifonemalilik)* va *grafik sinonimiya* hodisalariga keng o'rin berilgan, bu sistemada grafemalarning sintetik va analitik tiplari ham mavjud. Bularning barchasi o'zbek yozuvi grafikasining nihoyatda murakkab sistema ekanligidan dalolat beradi. Uning shu qadar murakkab bo'lishiga olib kelgan omillar ichida bittasi - o'zbek alifbosi va grafikasiga rus alifbosi va yozuvining struktural-funktsional xususiyatlarini maksimal singdirishga bo'lgan intilish alohida o'rin tutadi: ayni shu intilish o'zbek yozuvining ortiq darajada ruschalashtirilishiga olib kelgan: o'zbek yozuvi grafemalariga bir yo'la ikki til - o'zbek va rus tillari fonemalarini ifodalash funktsiyasi yuklatilgan, rus grafikasining rus tili konsonantizmiga xos qattiqlik va yumshoqlik oppozitsiyasini ifodalashga moslashtirilgan xususiyatlari o'zbek yozuviga mexanik ravishda ko'chirilgan, natijada o'zbek yozuvida o'zbek tilining fonologik tabiatiga mos bo'lmagan grafik birliklar (*ti, te, ty, li, lyu, le* kabi murakkab funktsiyali grafemalar) yuzaga kelgan, a va ya, u va yu, e va e, o va yo kabi sinonimik qatorlar shakllangan. O'zbek yozuvining bunday baynalmilal xarakteri O'zbekistonda o'zbek-rus ikki tilliligini (bilingvizmni) rivojlantirishga, shuningdek rus tilining millatlararo til sifatidagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilganligi aniq, ammo uning o'zbek yozuvi milliy jihatlarini ancha cheklab qo'yganligi ham shubhasiz: unda o'zbek tilining ayrim milliy tovushlari, masalan, "j", "n", " " fonemalari uchun maxsus harf belgilanmagan, bu tovushlarni ifodalash funktsiyalari rus grafikasidagi "j", "ng", "o" grafemalarining o'zlariga yuklab qo'ya qolingan, oqibatda, o'zbek tilidagi yozma matnlarda omograflarning –tok ("uzum o'simligi") va tok ("elektr toki"), tort ("tortmoq"ning ikkinchi shaxs, buyruq maylidagi shakli) va tort ("konditer mahsuloti"ning bir turi) kabi bir xil yoziladigan, ammo har xil o'qiladigan so'zlar va so'z formalarining yuzaga kelishiga yo'l ochilgan, bu hol, o'z navbatida, shu tipdagi so'zlar tarkibida qo'llangan "o" (o'rta keng) va "o" (quyi keng) unllarining differentsial belgilarini yozuvda ilg'ab

¹ Вильгельм фон Гумбольдт. Инсон тили тузилишининг ҳар хиллиги ва унинг иссон наслининг маънавий тараққиётига таъсири. 1959.

olish imkoniyatlarini cheklab qoʻygan. Bunday qiyinchiliklar *jurnal va juda, vijdon va majlis* soʻzlarining oʻqilishida ham uchraydi: "j" grafemasining polisemantik xarakteri qorishiq "j" va sirgʻaluvchi "j" undoshlarining differentsial xususiyatlarini yozuvda farqlab bera olmaydi. Oʻzbek grafikasidagi bunday cheklanishlar, ayniqsa, oʻzbek tilining boshqa millat vakillari tomonidan oʻrganilishiga salbiy taʼsir qilmoqda: oʻzbek tilining fonetik-fonologik sistemalaridan etarli xabardor boʻlmagan bunday kishilar *jurnal va juda* soʻzlarini, tort(1) va tort(2) tipidagi omograflarni ruscha koʻnikmalar asosida oʻqishga majbur boʻlmoqda.

Oʻzbek yozuvining grafik tizimida sintetik va analitik grafemalarning borligi ham koʻpchilik mutaxassislar tomonidan salbiy hodisa sifatida baholanib kelingan. Darhaqiqat, bu tipdagi grafemalarning mavjudligi soʻz va morfemalarning akustik va grafik obrazlarida asimmetriya hodisasini yuzaga keltirmoqda: *yoshlik* (6 ta fonema, 5 ta grafema, 5 ta harf), *ong* (2 ta fonema, 2 ta grafema, ammo 3 ta harf) kabi. Bunday asimmetriyaning mavjudligi soʻzning fonetik va morfemik tarkibini yozuvda toʻgʻri ifodalashga, ayniqsa, harf bilan tovush oʻrtasidagi aloqani ilgʻab olishga xalaqit bermoqda. Bularning barchasi turli munozara-bahslarning yuzaga kelishiga, oxir oqibatda oʻzbek milliy yozuvining butunlay boshqa grafik sistemaga koʻchirilishiga sabab boʻlgan.

Takrorlash va mavzuning oʻzlashtirilganini tekshirish uchun savollar

1. Amaldagi (kirillcha) oʻzbek yozuvining fonografik xarakterini qanday tushunasiz?
2. Harfiy va noharfiy belgilar tizimiga nimalar kiradi?
3. Grafema nima?
4. Nima uchun grafemalar bilateral hodisa sanaladi?
5. Grafemaning ifoda va mazmun planlarini (ifodalovchi va ifodalanuvchilarini) nimalar tashkil etadi?
6. Grafemaning qanday tiplari bor?
7. Fonografema, prosodemografema va logografemalar qanday farqlanadi?
8. Monograf, digraf va trigraflar nima?
9. Monosemantik va polisemantik grafemalar qanday farqlanadi?
10. Analitik, sintetik va sinonim grafemalarni qanday tushunasiz?
11. Orfografik belgilar va signalizatorlar nima? Ular yozuvda qanday vazifalarni bajaradi?

Tayanch tushunchalar

Grafika – yozuv tizimining birinchi (etakchi) komponenti. U harfiy va noharfiy belgilar vositasida yozuvning tovush tili bilan aloqasini taʼminlaydi.

Grafema – grafik tizimning eng asosiy birligi, ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlari bor boʻlgan semiotik belgi.

Fonografema – grafemalarning fonemalarni ifodalashga asoslangan tipi.

Monograf - shaklan bir harfga teng grafema.

Poligraf - shaklan ikki yoki undan ortiq harflar qoʻshilmasiga teng boʻlgan analitik grafema.

Monosemantik grafema – mazmun planida faqat bitta fonema kodlashtirilgan fonografema.

Polisemantik grafema – mazmun planida ikki va undan ortiq fonema kodlashtirilgan fonografema.

Sintetik grafema – nutq oqimida bir yoʻla ikki fonemani ifodalaydigan monograf.

Grafik simmetriya (fonetik-grafik simmetriya) – soʻz tarkibidagi tovush va harflarning miqdoran teng boʻlishi ("bir tovushga bir harf" munosabatining taʼminlanishi).

Grafik asimmetriya (fonetik-grafik asimmetriya) – soʻz tarkibida oʻzaro munosabatga kirishayotgan harf va tovushlar oʻrtasidagi miqdoriy tenglikning buzilishi.

Grafik sinonimiya – shakli har xil boʻlgan ikki grafemaning maʼlum fonetik-grafik pozitsiyalarda bitta fonemani ifodalashi.

Prosodemografemalar – yozuv tizimining noharfiy belgilari (urg‘u belgisi va tinish belgilari).

Logografemalar – tushunchalarni yoki tushuncha nomi bo‘lgan so‘zlarni yozuvda ifodalaydigan grafemalar (raqamlar, simvollar).

Orfografik

belgi – to‘g‘ri yozish normalarini ta‘minlashda qo‘llanadigan maxsus noharfiy belgilar (mas., defis).

Signalizatorlar - o‘z referentiga ega bo‘lmagan, ammo nutq oqimida o‘zidan oldin kelgan harf bilan birikib, bitta qo‘shma grafema (digraf) hosil qiladigan belgilar (ayirish, yumshatish belgilari).

4-masala bayoni

Lotin alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvi

Yangi (lotincha) o‘zbek yozuvi ham fonografik xarakterdagi sistema bo‘lib, uning grafik tizimi, kirillcha o‘zbek yozuvida bo‘lganidek, harfiy va noharfiy belgilardan tarkib topgan.

1996-yildan boshlab lotin alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvi joriy etildi. Bu alifboda 29 ta shakl bo‘lib, ular 30 ta tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Hozirgi o‘zbek yozuvidagi undosh harflar bir tovushni ifoda etadi. (**Jj** harfi bundan mustasno). Ikkita tovushni ifodalash uchun **Jj** ishlatiladi: 1) qorishiq, portlovchi **j** (**dQj**) tovushini (*jo‘ja, jayron, avj* kabi) va 2) sirg‘aluvchi **j** tovushini (*jurnal, jirafa*) bildiradi.

Mazkur yozuvda uchta harf birikmasi mavjud: *ng, sh, ch*. Ular so‘z tarkibida ajratilmaydi va bo‘linmas bir tovushni ifoda etadi: **ng** sayoz til orqa, portlovchi-sirg‘aluvchi, sonor undosh tovushini (*tong, ohang, chang, manglay*), **ch** til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovushni (*charos, tinch, sinch, choynak*), **sh** til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz undoshni (*shabada, shar, shahar, toshqin, bosh*) ifodalaydi.

Tovushlar ikki turga bo‘linadi: 1) unli tovushlar, 2) undosh tovushlar. Ular unli va undosh harflar bilan belgilanadi. Hozirgi o‘zbek alifbosida 6 unli tovush va 6 ta unli harf bor (*a, o, u, i, o‘, e*). 24 ta undosh tovush 23 ta undosh harf bilan belgilab ko‘rsatiladi (*b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, r, s, t, v, x, y, z, sh, ch, ng*). Har bir harfning bosh va kichik, bosma va yozma shakllari bor.

Harflarning alfavit tartibini bilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki turli lug‘atlar, davlat idora organlarida, arxivlarda saqlanadigan hujjatlar, ro‘yxatlar alfavit tartibida tuziladi.

Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilar: (.) (,) (?) (!) (:) (;) (...) («») (-) (‘) ham qo‘llanadi. Urg‘u (‘) belgisi so‘z bo‘g‘inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilish uchun unli harf ustiga qo‘yiladi. Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilarning ham roli katta. Tinish belgilari yordamida fikr yozuvda aniq, ravshan va tushunarli qilib beriladi. Og‘zaki nutqning fikrini to‘liq ifodalash uchun xizmat qiladigan ohang va pauzalari yozuvda tinish belgilari orqali ifoda etiladi.

Tutuq belgisi (‘) ham grafik vositalardan biri sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) so‘zda unli tovushdan keyin kelib, uning cho‘ziq aytilishini (*a‘lo, e‘tibor, iste‘mol*); 2) so‘zda undoshdan keyin kelib, oldingi bo‘g‘in bilan keyingi bo‘g‘inning ajratib aytilishini bildiradi; 3) so‘z ma‘nolarini farqlab beradi (*ta‘na – malomat, tana – organism*); 4) s va h tovushlarini sh tovushidan farqlaydi: *Is‘hoq*.

Takrorlash va mavzuning o‘zlashtirilganini tekshirish uchun savollar

1. Yangi (lotincha) o‘zbek yozuvining fonografik xususiyatini qanday tushunasiz?
2. Yangi (lotincha) o‘zbek yozuvining alifbosi qachon qabul qilingan? Unda nechta harf bor?
3. Yangi (lotincha) o‘zbek yozuvining qaysi jihatlari kirillcha o‘zbek yozuviga o‘xshaydi?
4. Yangi (lotincha) va amaldagi (kirillcha) o‘zbek yozuvlarining grafik tizimlarida qanday tafovutlar bor?
5. Har

ikkala yozuv tizimlarining optik-grafik, pedagogik imkoniyatlari va estetik jihatlari siz qanday baholaysiz?

Tayanch tushunchalar

Optik-grafik tasvir – 1) so‘z yoki grammatik formalarning yozma shakli; 2) grafemaning ifoda plani.

Pedagogik aspekt – yozuv tizimining yozish va o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi imkoniyatlari.

Estetik aspekt – yozma matnning estetik (go‘zallik, nafislik) jihatlari.

Tutuq belgisi (‘) – signalizatorlik funksiyasida (ayirish belgisi o‘rnida) qo‘llanadigan maxsus belgi: a‘lo, e‘lon, Nu‘mon, mo‘tabar kabi.

ORFOGRAFIYA. O‘ZBEK IMLOSI.

Mavzu rejasi:

1. Orfografiya-imlo haqida umumiy ma‘lumot
2. Orfografiya tamoyillari.
3. Imlo qoidalari.

1-masala bayoni

Orfografiya grekcha **orphos** (to‘g‘ri) va **grapho** (yozaman) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, «to‘g‘ri yozaman» degan ma‘noni bildiradi.

Jamiyatning har bir a‘zosidan to‘g‘ri so‘zlay olish va savodli yoza bilish talab etiladi. O‘quv muassasalari oldida turgan asosiy vazifa ham shu talab asosida kelib chiqadi. Adabiy tilning ikki shakli bo‘lib, ulardan biri yozma nutqdir. Bu nutq orfografiya qonun-qoidalariga asoslanadi. Demak, **orfografiya** adabiy tilning yozma shakliga xos bo‘lib, u tildagi o‘zak-negiz va qo‘shimchalarni yagona tarzda to‘g‘ri yozish haqidagi qoidalar yig‘indisidir. Kirill grafikasi asosidagi imlo qoidalari 1956-yilda tasdiqlangan. Bu imlo qoidalari quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga olgan:

1. Ayrim harflar imlosi;
2. O‘zak-negiz va qo‘shimchalar imlosi;
3. Qo‘shma so‘z va so‘z birikmalari imlosi;
4. Bo‘g‘in ko‘chirilishi;
5. Bosh harflarning yozilishi.

1995-yil 24-avgustda lotin grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvining imlosiga doir qoidalari tasdiqlandi. Bu imlo qoidalari quyidagi bo‘limlardan iborat:

1. Ayrim harflar imlosi: unlilar imlosi, undoshlar imlosi.
2. Asos va qo‘shimchalar imlosi.
3. Qo‘shib yozish.
4. Ajratib yozish.
5. Chiziqcha bilan yozish.
6. Bosh harflar bilan yozish.
7. Ko‘chirish qoidalari.

Oldingi imlo qoidalari bilan hozirgi imlo qoidalari o‘rtasida quyidagi ayrim o‘zgarishlar mavjud:

1) juft so‘zlar orasida bog‘lovchi bo‘lib kelgan yuklamalar o‘zi bog‘langan so‘zdan chiziqcha bilan ajratiladi: *dost-u dushman, kecha-yu kunduz;*

2) yil, oyni ko‘rsatuvchi raqamlardan keyin ham chiziqcha qo‘yiladi: *1995-yil 24-avgust, 1993-yil 2-sentabr;*

3) kirilchadagi **ts** harfi so‘z boshida va oxirida **s** harfi bilan beriladi: *tsirk – sirk, abzats – abzas.* So‘z o‘rtasida unidan keyin **ts** harfiy birikmasi, undoshdan keyin esa **s** harfi bilan beriladi: *litsey – litsey, aktsiya – aksiya.*

4) **-ga** qo‘shimchasi **g‘** tovushi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda morfologik yozuv bo‘yicha asliga muvofiq yoziladi: *bog‘Qgaq bog‘ga, tog‘Qgaq tog‘ga.*

5) oldin shakliy yozuv qoidasiga muvofiq yozib kelingan juda ko‘p chet tili so‘zlari endilikda fonetik yozuv bo‘yicha yoziladigan bo‘ldi (bu o‘zgarish asosan tarkibida **yo, yu, ya** harflari qatnashgan so‘zlarga tegishlidir) : *sentabr (sentyabr), oktabr (oktyabr), budjet (byudjet), rejissor(rejissyor), likor (likyor).*

6) ayrim so‘zlar esa oldin fonetik yozuv bo‘yicha yozilgan bo‘lsa, yangi alifboda morfologik yozuvga ko‘ra yoziladigan bo‘ldi: *ertalabki emas ertalabgi.*

2-masala bayoni

Orfografiya tamoyillari

Imlo qoidalari orfografiyaning fonetik, morfologik, shakliy, an'anaviy va differenziatsiya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan. Fonetik va morfologik tamoyillar o'zbek orfografiyasining asosiy tamoyillaridir.

Fonetik tamoyil (fonetik usul). Bu tamoyil bo'yicha so'zlar, so'z tarkibidagi qo'shimchalar qanday talaffuz etilsa, xuddi o'shanday yoziladi. Bu tamoyil asosida ayrim harflar imlosi, asos va qo'shimchalar imlosidagi ayrim qoidalar ishlab chiqilgan. Masalan, 1) *son* so'ziga fe'l yasovchi **-a** qo'shimchasi qo'shish bilan yasalgan so'z *sona* emas, *sana* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. *Yosh*, *ot* so'zlariga fe'l yasovchi **-a** qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasalgan *yosha*, *ota* so'zlari *yasha*, *ata* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi. *Ong* so'ziga fe'l yasovchi **-la** qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan so'z *ongla* emas, *angla* tarzida talaffuz qilinadi va yoziladi. 2) *o'yin* so'ziga **-a** fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilishi bilan yasalgan so'z *o'yna* tarzida (**i** tovushi tushirilib) aytiladi va shunday yoziladi; 3) *sariq*, *ulug'* so'zlariga fe'l yasovchi **-ay** qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasalgan so'z *sarg'ay*, *ulg'ay* tarzida aytiladi va shunday yoziladi; 4) *o'qi*, *tani*, *tashi* kabi fe'l formalariga **-v** qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan so'z *tashuv*, *o'quv*, *tanuv* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 5) *tara*, *bo'ya* so'zlariga ot yasovchi **-q** qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan so'z *taroq*, *bo'yoq* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 6) *q* va *k* tovushi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda *q* tovushi *g'*, *k* tovushi *g* tovushiga almashadi va shunday yoziladi: *taroqQiq* *tarog'i*, *kurakQiqkuragi*, *istakQiqistagi*, *o'rtoqQiqo'rtog'i*.

I z o h: *q* va *k* undoshi bilan tugagan ayrim so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda *q* va *k* tovushlari asliga muvofiq aytiladi va yoziladi: *ishtiroki*, *ishtiyiqi*, *zavqi*, *shavqi*, *choki*, *cheki*.

7) *og'iz*, *qorin*, *o'rin*, *singil*, *ko'ngil*, *burun*, *shahar* kabi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi *i*, *u*, *a* unilari talaffuzda tushib qoladi va shunday yoziladi: *og'izQimqog'zim*, *qorinQimqqornim*, *o'rinQimqo'rnim*, *singilQimqsinglim*, *ko'ngilQimqko'nglim*, *burunQimqburnim*, *shaharQimqshahrim* (bu so'z *shaharim* tarzida aytilishi va yozilishi ham mumkin. Bu ikki holat tilda parallel ishlatiladi.);

8) adabiy tilda jo'nalish kelishigining **-ga** qo'shimchasi shakli qabul qilingan. Ba'zan bu shakl **-ka**, **-qa** tarzida eshitiladi. Masalan: *bilakka*, *go'dakka*, *qishloqqa*, *toqqa* kabi. Ko'rinib turibdiki, so'z *q* yoki *k* undoshi bilan tugaganda jo'nalish kelishigi **-qa**, **-ka** shaklini olyapti. Og'zaki talaffuzda so'z qanday tovushlardan tashkil topgan bo'lsa, bu tovushlar yozuvda ham shu tovushlarga mos harflar bilan aks ettirilyapti.

9) *q* va *k* undoshi bilan tugagan fe'l shakllariga ravishdosh hosil qiluvchi **-gach** qo'shimchasining **-qach** va **-kach** variantlari qo'shib, *chiqqach*, *ekkach* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

10) rus tilidan o'zlashgan *kiosk*, *disk* so'zlari o'zbek tilida *kioska*, *diska* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi;

11) o'zlashma *rama*, *para*, *minuta*, *sekunda*, *konfeta* kabi so'zlarning oxiridagi **a** unlisi o'zbek tili og'zaki nutqida talaffuz etilmaydi va yozuvda ham aks ettirilmaydi (*rom*, *par*, *sekund*, *minut*, *konfet* kabi).

12) o'zlashma *shyotka*, *podnos* so'zlari esa *cho'tka*, *patnis* tarzida aytiladi va yoziladi.

13) *u*, *bu*, *shu*, *o'sha* olmoshlariga **-da**, **-dan**, **-ga**, **-gacha**, **-cha** qo'shimchalari qo'shilganda *i* tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *unda*, *undan*, *ungacha* va hokazo.

14) *zachyot*, *syujet*, *sentyabr* so'zlari og'zaki nutqda *zachot*, *sujet*, *sentabr* tarzida talaffuz qilinadi va talaffuzga mos shaklda yoziladi.

Fonetik tamoyil yozuvni jonli talaffuzga yaqinlashtiradi, ular o'rtasida umumiylikni vujudga keltiradi.

Demak, fonetik tamoyilga ko'ra yozuvda talaffuzdagi tovushga muvofiq keladigan, aynan mos tushadigan harf qo'llanadi.

Morfologik tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra so'zlarning tarkibiy qismlari: o'zak-negiz va qo'shimchalari og'zaki nutqda qanday talaffuz qilinishidan qat'i nazar, ya'ni og'zaki talaffuz shakliga qarab emas, asliga muvofiq yoziladi. Bu tamoyil so'z o'zagini, unga qo'shiladigan qo'shimchalarni muayyan bir sistema asosida aks ettiradi, tildagi variantlilikka, har xillikka barham beradi. Bu tamoyilga ko'ra variantlardan biri tanlanib, yozuvda tanlangan variant asos qilib olinadi. O'zbek orfografiyasining asosiy imlo qoidalari, ya'ni ayrim unli harflar imlosi, ayrim undosh

harflar imlosi hamda asos va qo‘shimchalar imlosi shu tamoyilga tayanadi. Masalan: 1) *uzum, uzuk, tugun, turmush* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida **u** kelsa, keyingi bo‘g‘inida **u** unlisi **i** tarzida aytilsa ham, **u** yoziladi. 2) jarangsiz jufti bor jarangli undoshlar (*b, d, v, g, j(jim), j(juri), g‘, z*) so‘z oxirida jarangsiz (*p, t, f, k, ch, sh, s*) tarzida talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq yoziladi: *maktab, ozod*; 3) *shanba, sunbul, manba, vatanparvar* kabi so‘zlar o‘rtasida kelgan **n** undoshi o‘zidan keyin kelgan **b, n, m** undoshlari bilan yonma-yon kelganda, og‘zaki talaffuzda *shamba, sunbul, mamba* kabi **m** tarzida aytilsa ham, **n** shaklida yoziladi. 4) *do‘st, go‘sht, to‘rt, Toshkent* kabi so‘zlarda so‘z oxirida yonma-yon kelgan undoshlarning oxirgisi talaffuz qilinmaydi, ammo yozuvda saqlanadi; 5) *pastqam* so‘zi o‘rtasida ketma-ket kelgan ikki undoshning (*st*) keyingisi talaffuz qilinmaydi, lekin yozuvda saqlanadi; 6) *–lar* ko‘plik qo‘shimchasi so‘z oxirida kelganda, og‘zaki nutqda *–la* tarzida aytilsa ham, yozuvda *–lar* shaklida yoziladi. 7) *uch, to‘rt* sonlariga *–ta, –ala* qo‘shimchalari qo‘shilganda, *ushta, uchchala, to‘rttala* tarzida aytiladi, lekin yozuv uchun tanlangan varianti yoziladi: *uchta, uchala, to‘rtala* kabi.

Shuningdek, qo‘shimchalarning asosiy qismi morfologik tamoyil asosida yoziladi, ya’ni kelishik qo‘shimchalari og‘zaki nutqda *maktabta, ishtan* tarzida aytilsa ham, *maktabda, ishdan*; fe’llardagi *–di* shaxs-son hamda yaqin o‘tgan zamon qo‘shimchasi *–ti* tarzida (*aytipti, aytti*) aytilsa ham, *aytibdi, aytdi* kabi yoziladi.

Morfologik tamoyil o‘zbek orfografiyasining asosiy va yetakchi tamoyili sanaladi va yozuvda bir xillikni ta’minlaydi.

Demak, morfologik tamoyilga ko‘ra so‘zning tovush tarkibi og‘zaki nutqda qanday aytilishidan qat’i nazar o‘zining morfologik shaklini o‘zgartirmagan holda yoziladi.

Shakliy an’anaviy tamoyil (tarixiy-an’anaviy tamoyil deb ham yuritiladi). Bu tamoyilga ko‘ra boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar hozir ham o‘tmishdagi shakliga muvofiq yoki o‘zi mansub bo‘lgan tildagi shaklini o‘zbek imlosida ham saqlagan holda yoziladi. Bu tamoyil asosida quyidagi kabi imlo qoidalari ishlab chiqilgan:

1. *Manfaat, matbaa, mutolaa, taajjub, taassurot* kabi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarda bitta cho‘ziq a talaffuz qilinsa ham, arab imlosini saqlagan holda yozuvda ikkita **a** yoziladi.
2. *Mubolag‘a, muzokara, munosabat, muhokama* kabi arabcha so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inida **a** og‘zaki nutqda qisqa **i** tarzida aytilsa ham, an’anaga ko‘ra **a** yoziladi.
3. *Tadbir, tatbiq* so‘zlarining birinchi bo‘g‘ini oxiridagi **d** va **t** undoshlari bir xil **t** tovushi tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda **d** va **t** undosh harflari saqlanadi.
4. *Dorboz, torozibon* kabi so‘zlardagi fors-tojik tilidan o‘zlashgan *–boz, –bon* qo‘shimchalari og‘zaki nutqda *–voz, –von* tarzida aytilsa ham, uning an’anaviy shakli yozuvda saqlanadi.
5. An’anaviy tamoyil *taqozo, hokazo* kabi so‘zlarning tovush tarkibiga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bu so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘inidagi **o** va **a** unililari ba’zan **a**, ba’zan **o** unlisi kabi talaffuz qilinadi. Tarixan *o (taqozo), a (hokazo)* yozib kelingani uchun hozir ham yoziladi.
6. *Ocherk, tonna* kabi so‘zlarining urg‘uli bo‘g‘inida **o** unlisi o‘zbek tilidagi **o‘** unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi shakliga muvofiq yoziladi.
7. *Direktor, traktor, ekspeditor* kabi so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inidagi **o** unlisi og‘zaki nutqda qisqa **i** unlisi tarzida aytilsa ham, rus tilidagi shakli saqlanadi.
8. *Motor, otryad, limonad, konsert, konspekt* kabi so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inida kelgan **o** unlisi talaffuzda **a** unlisi kabi aytilsa ham, rus tilidagi kabi **o** unlisi bilan yoziladi.
9. *Zachyot, syujet, rejissyor, sentyabr* so‘zlari og‘zaki nutqda *zachot, sujet, rejissor, sentabr* tarzida talaffuz qilinsa ham, kirill alifbosida rus tilidagi shakli saqlanadi.
10. *Rayon, mayor, Nyu-York* so‘zlaridagi *yo* harfiy birikmasi og‘zaki nutqda *yo‘* tarzida talaffuz qilinsa ham, yozuvda o‘sha tildagi an’ana saqlanadi.

Bu tamoyil mumtoz adabiyot tiliga ham tatbiq etiladi. Qadimda hozirgi-kelasi zamon qo‘shimchasi *–r (–ar)* ning *–ur* shakli ishlatilgan. Bu shakl ba’zan hozirgi she’riyatda ham saqlanadi.

*Ba’zan tirnoqlar bezagi uchun
Sahardan shomgacha qilursiz toqat,
Ammo eringizni kutgali nechun
Topilmas tirnoqcha sabr-u qanoat. (A.Oripov)*

Mazkur she'rda maqsad ma'nosini ifodalovchi –*gani* qo'shimchasi –*gali* tarzida qo'llangan. Eski o'zbek tilida chiqish kelishi –*din* ba'zan hozirgi o'zbek adabiy tilidagi –*dan* o'rnida qo'llaniladi: *Sendin* o'zgani desam...

So'roq ma'nosini ifodalash uchun –*mi* yuklamasi ba'zan –*mu* tarzida, ya'ni qadimgi shaklda qo'llanadi. Masalan:

Demak, bu tamoyilga ko'ra so'zlar talaffuzidagi hozirgi holatiga qarab emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan shaklini saqlagan holda yoziladi.

Differenziatsiya tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, shakli yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar yozuvda turli shartli belgilar vositasida (yoki ba'zan ma'noga ko'ra) farqlanadi. Masalan:

1. Urg'u vositasida farqlash: *atlás* - mato, material. *Átlas* - geografik atlas, xarita. *Akadémik* - ot, *akademík* - sifat (masalan, *akademík litsey*).

2. Unlining cho'ziq-qisqaligi orqali farqlash (bunday so'zlarda unlining cho'ziqligini tutuq belgisi ta'minlaydi, demak bunday so'zlarning shakli va ma'nosi tutuq belgisiga ko'ra farqlanadi): *tana* – *ta'na*, *surat* – *sur'at*, *qala* – *qal'a* kabi.

3. Boshqa-boshqa tovush ifodalovchi harflar vositasida so'z ma'nosini farqlash: *xol* (yuzdagi xol) – *hol* (ahvol, holat).

Grafik tamoyil. Bu tamoyil asosidagi imlo qoidalari tovush bilan uning yozuvdagi shakli o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashga asoslanadi. Masalan, sirg'aluvchi *j* tovushi bilan qorishiq portlovchi *j* tovushlari yozuvda bitta shakl – harf bilan berilishi (*jo'ja-gijda* kabi), sayoz til orqa – *ng* tovushini ifodalovchi harflar birikmasi *ng* hamda *n* va *g* tovushlarini ifodalovchi *n* va *g* harflari yonma-yon kelganda ham *n* va *g* talaffuz etilishi grafik tamoyil asosida belgilangan: *ko'ngil* – bitta tovush, *senga* - ikkita tovush.

3-masala bayoni

Imlo qoidalari

63-§. Kirillcha o'zbek yozuvining imlo qoidalari dastlab 1940 yilning 4 iyulida yangi alifbe hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan² va shu yilning o'zida "Birlashgan o'zbek alfaviti va orfografiyasi" nomli to'plamda e'lon qilingan. Keyinchalik bu qoidalar yana bir necha marta qayta ishlandi, shular asosida 1952,1953,1955 yillarda "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" loyiha tarzida besh marta qayta nashr qilindi, nihoyat, uning 5-nashri 1956 yilning 4 aprelida O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan tasdiqlandi. Hozirgi (kirillcha) o'zbek yozuvining imlosi ana shu "... qoidalar"ga asoslangan. U quyidagi 5 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Ayrim harflar imlosi (1-30-§ qoidalari)
2. O'zak-negiz va qo'shimchalar imlosi (31-55-§ qoidalari).
3. qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi (56-58-§ qoidalari).
4. Bo'g'in ko'chirilishi (59-62-§ qoidalari)
5. Bosh harflarning yozilishi (63-72-§ qoidalari).

64-§. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari 1995 yilning 24 avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va shu yilning o'zida "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan. U quyidagi 7 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:

Unlilar imlosi (1-7-qoidalar)

² Јаранг: Јаңи орғифрајја пројекти тасдиқланди // Qzil Ozbekiston, 1940, 9 ijul. Бу сана Фаҳри Камоловнинг ю³оридаги асарида (5-бетда) «1940 йилнинг 10 июлида» деб к'рсатилган.

Undoshlar imlosi (8-32-qoidalar)

2.Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-qoidalar).

3.qo'shib yozish (38-50-qoidalar).

4.Chiziqcha bilan yozish (51-56-qoidalar)

5.Ajratib yozish (57-65-qoidalar)

6 Bosh harflar imlosi (66-74-qoidalar).

7.Ko'chirish qoidalari (75-82-qoidalar).

Amaldagi (kirillcha) va yangi (lotincha) o'zbek

yozuvlarining imlo qoidalaridagi

tafovutlar

65-§. Amaldagi "...qoidalarining" ayrim paragraflari yangi "...qoidalar"ga kiritilmagan. Masalan: 2-paragraf (3-moddasi); 6-paragraf (2 va 3-moddalari); 8-paragraf (1-moddasi); 9-paragraf ("yo" harfi), 10 paragraf ("yu" harfi), 11-paragraf ("ya"harfi), 12-paragraf (2-moddasi), 13-paragraf (v>b kabi holatlar), 21-paragraf, 22-paragraf (2-moddasi), 26-paragraf (1-moddasi), 27-paragraf, 28-paragraf, 31-paragraf, 40-paragraf, 41-paragraf, 48-paragraf, 49-paragraf, 50-paragraf (2-moddasidagi "uG'yu" ga aloqador qism), 52-paragraf, 58-paragraf va boshqalar. Yuqorida berilgan qoidalarining yangi qoidalar to'plamiga kiritilmaganligi bir qator omillarga asoslanadi: "e" harfining yangi yozuvda faqat "e" unlisini ifodalashi ("y"Qe"ni emas), yo,yu,ya harflarining yangi alifboda yo'qligi, ayrim qoidalarining o'zini oqlamaganligi kabi sabablar shular jumlasidandir. Faktlar tahliliga murojaat etaylik:

1. 1956 yil "...qoidalari"ning 2- paragrafida "u" harfining yozilishiga oid 3 ta qoida berilgan bo'lib, shulardan bittasi (2-qoida) *qovun, sovun, tarvuz, tasavvur, quvur* kabi so'zlar imlosiga taalluqlidir. Bu qoidaga ko'ra so'zlarning oldingi bo'g'inlarida o,a,u unllaridan biri bo'lsa va shu unlidan keyingi yopiq bo'g'in boshida "v" undoshi kelsa, "v"dan so'ng "u" yoziladi. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvi imlosida bu qoida faqat "o" unlisidan keyingi yopiq bo'g'inga (*qovun,sovun,tovush* so'zlaridagi "v"dan so'ng "u" yozilishiga) nisbatan saqlangan, oldingi bo'g'inda "a" (masalan,*tarvuz* so'zida) yoki "u" (masalan *quvur* so'zida) bo'lgan holatlar yangi "qoidalar"dan tushirib qoldirilgan.

1956 yil "...qoidalari"ning 31-§ da *osh-oshla, bosh-boshla, sog'-sog'ay, yosh-yoshla* kabi so'zlarda talaffuziga ko'ra o yoki yo yozilishi, ammo *son, ong, yosh, ot* kabi bir bo'g'inli ba'zi so'zlarda yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda, "o" tovushi "a" ga, "yo" tovushi "ya" ga aylanishi aytilgan: *son>sanamoq, sanoq; ong>angla, anglatmoq, anglashiladigan; yosh>yasha, yashamoq, yashasin; ot>ata, atamoq, ataladi* kabi. 1995 yil imlo qoidalari to'plamida bu qoida berilmagan.

1956 yil "...qoidalari"ning 40-§da *isimoq, achimoq, qotmoq* kabi fe'llardan sifat yasalganda, ba'zan o'zakdagi s,ch va t undoshi takrorlanadi va shunga muvofiq yoziladi",- deyilgan: *isimoq-issiq, achimoq-achchiq, qotmoq-qattiq* kabi. Shuningdek, *fan* so'ziga -iy qo'shib yasalgan sifat ham ikki n bilan yozilishi aytilgan: *fanniy* kabi. 1995 yil to'plamida bu qoida yo'q.

1956 yil to'plamida bor bo'lgan quyidagi qoidalar ham 1995 yil to'plamida yo'q: *yoq, kel, ter, kuzat, keltir* kabi undosh bilan tugagan fe'l o'zak-negizlariga -uvQchi, -uvQchilik, -

uvQchan qo'shimchalari qo'shib, yangi so'z yasalganda, bu qo'shimchalar *-uvchi*, *-uvchilik*, *-uvchan* shaklida *v* bilan yoziladi: *yoz-yozuvchi*, *yozuvchilik*, *kel-keluvchi*, *ter-teruvchi*, *kuzat-kuzatuvchilik*, *keltir-keltiruvchi*, *kul-kuluvchi*, *kuzatuvchan* kabi" (41-§.).

"Sifat va otlarni bir-biridan farq qilish uchun ishlatiladigan *-li* va *-lik* qo'shimchalari quyidagi o'rinlarda yoziladi..." (48-§).

"Familiyani bildiruvchi qo'shimchalar undosh bilan tugagan kishi otlarga *-ov*, *-ova* shaklida: *Sodiqov*, *Sodiqova*... kabi; unli bilan tugagan otlarga esa *-ev*, *-eva* shaklida: Xayrullaev, Xayrullaeva... kabi qo'shib yoziladi" (49-§).

66-§ Yangi to'plamda yangicha talqinda, ba'zan jiddiy o'zgarishlar bilan berilgan qoidalar:

1. Rus grafikasi asosidagi o'zbek orfografiyasida *"-uq"* (*-iq*) qo'shimchasining imlosi qoidalashtirilmagan, lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi orfografiyasida esa bu qo'shimchani imlosiga oid maxsus eslatma bor, unda shunday deyiladi: "Undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe'lga *uq* qo'shiladi: *uz-uzuq*, *yut-yutuq* kabi. Lekin uyushiq, burushiq, uchiriq (shuningdek, bulduriq) kabi so'zlarning uchinchi bo'g'inida *"i"* aytiladi va shunday yoziladi. (q.: 33- qoidaning eslatma qismi);

2. Ma'lumki, otlarga egalik qo'shimchalarining qo'shilishida har xil holatlar uchray turadi. Masalan, *bobo* va *avzo* so'zlariga egalik qo'shimchasi ikki xil tarzda – *bobo* so'ziga *"-m"* va *"-ng"* shakllarida (*bobom*, *bobong* kabi), *avzo* so'ziga esa *"yQim"*, *"yQing"* shakllarida (*"o"*dan so'ng bir *"y"* orttirilib) qo'shiladi: *avzoQyQim*, *avzoQyQing* kabi. Bunday holatni *"u"* bilan tugagan ayrim so'zlarda ham uchramiz: *uyquQm*, *uyquQng*, ammo *mavzuQyQim*, *mavzuQyQing* kabi. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvining imlosida bunday holatlarni me'yorlashtiruvchi qoidalar yo'q. Bu hol ayrim grammatik formalarning yozuv amaliyotida turlicha ifodalanishiga (*orzum* va *orzuyim*, *inshong* va *inshoying* shakllarida yozilishiga) sabab bo'layotir. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvining imlo tizimida esa yuqoridagi kabi holatlar hisobga olingan. Unda, xususan, shunday qoida berilgan: *"o,o',u,e"* unililari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi:

a) ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchalari *-m*, *-ng*, *-si*; *-miz*, *-ngiz* (yoki-lari) shaklida tovush orttirmay qo'shiladi: *bobom*, *bobong*, *bobosi*; *bobomiz*, *bobongiz*, *bobosi* (yoki bobolari); *orzum*, *orzung*, *orzusi*; *orzumiz* *orzungiz*, *orzusi* kabi;

b) *parvo*, *obro'*, *mavqe*, *mavzu*, *avzo* so'zlariga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir *"u"* tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim*, *parvoying*; *parvoyimiz*, *parvoyingiz*; *obro'yim*, *obro'ying*; *obro'yimiz*, *obro'yingiz* kabi; III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo*, *avzo*, *obro'*, *mavqe* so'zlariga *-yi* shaklida, *xudo*, *mavzu* so'zlariga esa *"-si"* shaklida qo'shiladi: *avzoyi*, *mavzusi* kabi (dohiy kabi *"u"* undoshi bilan tugagan so'zga ham III shaxsda *"-si"* qo'shiladi: *dohiysi* kabi). (qarang: 35-qoidaning 3-bandi).

3. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra *shovul*, *ovul*, *quvur* so'zlarida *"v"*dan so'ng *"u"*, *shovillamoq*, *lovillamoq*, *guvillamoq* kabi so'zlarda (taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llarda) esa *"v"*dan so'ng *"i"* yoziladi. (q.: 2- va 50-paragraf qoidalari). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvida yuqoridagi ot va fe'llar uchun bitta umumiy qoida berilgan, bu qoidagi ko'ra taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llarda ham *"v"*dan so'ng *"i"* emas, *"u"* yoziladi: *shovullamoq*, *lovullamoq*, *gurullamoq* kabi. (qarang: 37-qoidaning 1-bandi).

4. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ("*...*qoida"ning 42-paragrafida) fe'llarning orttirma daraja yasovchi *"-dir"* qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zlarga *"-tir"* shaklida qo'shilishi aytilgan, aslida esa jarangli *"z"*dan so'ng *"-tir"* emas, *"-dir"* qo'shiladi. qiyos qiling: *cho'miltirmoq*, *sevintirmoq*, ammo *tomizdirmoq*, *oqizdirmoq* kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida bu kamchilikka barham berilgan. Unda shunday qoida bor: "nisbat shaklini yasovchi *-dir* qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarga (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek *z* undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchidan keyin qo'shiladi: *quvdir*, *egdir*, *kuldir*, *yondir*; o'tkazdir, *tomizdir* kabi". (qarang: 37-qoidaning 2-bandi).

5. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ("*...*qoidalar"ning 34-paragrafida) *"g"* yoki *"g"* bilan tugagan so'zlarga *"g"* bilan boshlangan qo'shimchalar qo'shilganda, so'z oxiri va qo'shimcha boshidagi undoshlar, aytilishiga mos holda yozilishi qoidalashtirilgan: *bog'-boqqa*, *tog'-toqqa*, *barg-barkka*, *teg-tekkkan* kabi. Lotin grafikasi asoslangan yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra esa bunday so'zlar talaffuziga (fonetik printsiptga) ko'ra emas, morfemalarning asl

holiga mos ravishda (morfologik printsiplarda) yoziladi: bog`ga, tog`ga, sog`ga, og`gan, sig`guncha, bargga, teggan kabi (qarang: 37- qoidaning "d" bandi).

6.1956 yil "qoidalari"ning 43-paragrafiga ko`ra "-gin", "-gir", "-giz", "-gaz" qo`shimchalari jarangsiz undosh bilan tugagan so`zlarga qo`shilganda aytilishiga muvofiq "-kin", "-qin", "-kir", "-qir", "-kiz", "-qiz", "-kaz", "-qaz" shakllarida yoziladi: *tortkin*, *topkin*, *tushkin*, *tortqiz*, *o`tkaz*, *o`tkir*, *chopqir* kabi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra "-gin" qo`shimchasi "-k" yoki "-q" bilan tugagan so`zlardan boshqa so`zlarga qo`shilganda, so`z qanday tovush bilan tugashidan va qo`shimchalarning bosh tovushi k yoki g aytilishidan qat`i nazar, "g" bilan yozilishi aytilgan. qiyos qiling: *tortkin* (1956 yil qoidasiga ko`ra), *tortgin* (1995 yil qoidasiga ko`ra), *topkin* (1956 yil qoidasiga ko`ra), *topgin* (1995 yil qoidasiga ko`ra). Biroq, "-gir", "-giz", "-gaz" qo`shimchalari bu qoida doirasiga kiritilmagan.

7.Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvining "...asosiy qoidalari"da ikki otdan tuzilgan qo`shma sifatlarning ajratib yozilishi aytilgan: *dutor bo`yin* (otQotqqo`shma sifat), *havo rang* (otQotqqo`shma sifat), *bodom qovoq* (otQotqqo`shma sifat), *qo`y ko`z* (otQotqqo`shma sifat), *g`o`za po`choq* (otQotqqo`shma sifat) kabi (58-paragraf, 3-qoida). qo`shma sifatlarning imlosiga oid bu qoida amalda o`zini oqlagani yo`q: *orombaxsh*, *bug`doyrang*, *ilhombaxsh* so`zlari "otQotqqo`shma sifat" qolipida tuzilgan bo`lishiga qaramay, deyarli barcha imlo lug`atlarida qo`shib yozilgan, *devsifat*, *odamsifat* so`zlari esa (ular ham "otQotqqo`shma sifat" qolipida shakllangan) lug`atlarda har xil berilmoqda. Lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek yozuvi "qoidalari"da bu tipdagi qo`shma sifatlarning imlosi bir qadar tartibga solingan: "qoidalar"ning 38-bandida, xona, noma, baxsh, rang, mijoz, sifat kabi so`zlar yordamida yasalgan qo`shma ot va qo`shma sifatlarning qo`shib yozilishi qayd etilgan: qabulxona, tabriknoma, orombaxsh, kamquvvat, bug`doyrang, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab kabi. (qarang: 38-qoida). Shu qoida talablaridan kelib chiqqan holda, *havo rang*, *jigar rang*, *bodom qovoq*, *qo`y ko`z* kabi qo`shma sifatlarning komponentlari ham lotincha o`zbek yozuvida qo`shib yozilishi kerak: havorang, bodomqovoq, qo`yko`z, jigarrang kabi.

8.Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlo qoidalariga ko`ra *ming boshi*, *o`n boshi*, *so`z boshi* kabilar "birikmalik xususiyatini saqlagan so`zlar (?)" sifatida ajratib yoziladi (qarang: 58-paragraf, 12-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra esa "qaratuvchili birikmaning bir so`zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo`shma otlar qo`shilib yoziladi: mingboshi, so`zboshi, olmaqoqi"(qarang: 46-qoida).

9.1956 yil "qoidalari"da ikkinchi komponenti "yo"lashgan tovush bilan boshlangan *sher yurak*, *muz yorar*, *ish yoqmas*, *qo`l yozma* tipidagi so`zlarning ajratib yozilishi aytilgan (qarang: 58-paragraf, 14-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi yozuvda bunday so`zlar qo`shilib yoziladi: sheryurak, muzyorar, ishyoqmas kabi (qarang: 39-qoida).

10.Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra *eru osmon*, *oru nomus*, *tunu kun*, *kechayu kunduz*, *yoshu qari*, *qo`yu qo`zi* kabi juft so`zlarda defis (chiziqcha) qo`yilmaydi (58-paragraf, eslatma). Lotin grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra ham bunday so`zlar ajratib yoziladi, ammo ularning qismlari orasida -u(-yu) bog`lovchisi kelsa, shu elementlardan oldin chiziqcha qo`yiladi: dost-u dushman, kecha-yu kunduz kabi (51-qoidadagi eslatmaning 2-band).

11.Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra yil va oylarni (chislolarni) ko`rsatuvchi arabcha raqamdan so`ng chiziqcha (defis) yozilmaydi: *1956 yil 22 sentyabr* kabi (47-paragraf qoidasi). Lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra bunday o`rinlarda chiziqcha qo`yiladi: 1991-yilning 1-sentabri, 60-yillar kabi (56-qoida).

12.Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra *alla*, *qay* elementlari so`zga qo`shib yoziladi: *allakim*, *allaqanday*, *qaybir*, *qayvaqt* kabi (58-qoida, 13-band). Lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra *qay* so`zi o`zidan keyingi yoki oldingi so`zdan ajratib yoziladi: qay kuni. Agar qay so`zi *yoq*, *yer* so`zlari bilan ishlatilganda, bir "u" tovushi tushsa, bu so`zlar qo`shilib yoziladi: qayoqqa, qayerga kabi(60-qoida).

Izoh: lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek imlosida *alla* (*alla*) komponentli so`zlarga qoida berilmagan, ularga munosabat ham bildirilmagan.

13.Rus grafikasi asosidagi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra *bir oz* ravishi komponentlari ajratib yoziladi. Lotin grafikasi asosidagi yangi o`zbek yozuvi imlosiga ko`ra biroz so`zining komponentlari qo`shib yoziladi (60-qoida).

14. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida *ko'pdan-ko'p* tipidagi birliklar juft so'zlar doirasida qaralgan, shu bois ularning komponentlari orasida chiziqchanning (defining) yozilishi qoidalashtirilgan (57-paragraf, 1-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosiga ko'ra birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalarning komponentlari, shuningdek, belgining ortiq darajasini bildiruvchi kopdan kop, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizigan kabilar ajratib (chiziqsiz) yoziladi (64-qoida).

15. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida izofali so'zlarning (*nuqtai nazar, oynai jahon, dardi bedavo* kabilarning) ajratib yozilishi nazarda tutilgan (58-paragraf, 7-qoida). Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida bu qoidagi bitta o'zgarish kiritilgan: endilikda (yangi yozuvda) izofa undosh bilan tugagan so'zlarga "i" shaklida (masalan dardi bedavo kabi), unli bilan tugagan so'zlarga esa "yi" shaklida (masalan, nuqtayi nazar kabi) qo'shiladi (65-qoida).

16. Rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi "qoidalari"ning 69- va 71-paragraflari bir xil hodisaning birikmali nomlarini ikki xil yozishga yo'l ochadi: birikma muhim yig'ilish nomi bo'lganda, undagi har bir so'z bosh harf bilan, birikma muhim tarixiy voqea nomi bo'lganda esa undagi birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari kichik harf bilan boshlanadi, *grim Konferentsiyasi* (69-paragraf qoidasiga mos) - *grim konferentsiyasi* (71-paragraf qoidasiga mos).

Izoh: birinchi misolda *grim Konferentsiyasining* muhim yig'ilish nomi ekanligi, ikkinchi misolda esa shu birikmaning muhim tarixiy voqea nomi hisoblanishi nazarda tutilgan.

Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida shu ikki qoidadan faqat bittasi saqlangan, unga ko'ra "Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami kabi" (70-qoida). Demak, lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosida yuqoridagi ikki qoidaning parallel yashashiga chek qo'yilgan, shu bilan mazkur qoidaning izchil bo'lishi ta'minlangan.

17. Lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek yozuvi imlosining "Ko'chirish qoidalari"da rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida berilmagan quyidagi qoidalar bor:

77- qoida: o'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:

1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: dia-gramma, mono-grafiya kabi;

2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: silin-drik kabi.

79-qoida: ...bo'g'inga teng qism va bosh harflardan iborat qisqartmalar satrdan satrga bo'lib ko'chirilmaydi: ToshDU kabi.

Izoh: 79-qoidaning bosh harflardan tuzilgan qisqartmalarga (AQSh, BMT kabilarga), shuningdek, ko'p xonali raqamlarga (16,245, 1994, XIX kabilarga) aloqador qismi rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi imlosida ham bor.

80-qoida: Harflardan iborat shartli belgi o'zi tegishli raqamdan ajratib ko'chirilmaydi: 5-"A" sinf, V "B" guruh, 110kg, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm kabi.

81-qoida: Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: "Navroz-92" (festival), "Oqituvchi-91" (ko'rik tanlov), "Andijon-9", "Termiz-16" (g'o'za navlari), "Boing-767" (samolyot), "Foton-774" (televizor) kabi.

82- qoida: A.J. Jabborov, A.D. Abduvaliyev kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, v.b (va boshqalar), sh.k. (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

Nazorat savollari

1. Orfografiya nima? U grafikadan qanday farqlanadi?
2. Orfografiya qoidalarining tuzilishi qanday printsiplarga asoslanadi?
3. Amaldagi (kirillcha) o'zbek yozuvi imlo qoidalari qachon tasdiqlangan? Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari-chi?
4. Amaldagi "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalari" qanday bo'limlardan tarkib topgan? (Bo'limlarning nomlanishi, paragraflari...).

5. Yangi (lotincha) o'zbek yozuvining imlo qoidalari qanday bo'limlardan tarkib topgan? (Bo'limlarning nomlanishi, modda va bandlari).
6. Amaldagi (kirillcha) o'zbek yozuvi imlosidagi qaysi qoidalar yangi (lotincha) o'zbek yozuvi imlo qoidalari sirasiga kiritilmagan? Sabablari?
7. Har ikkala "...qoidalar" to'plamida harflar imlosiga oid qanday farqlar bor?
8. Har ikkala "...qoidalar" to'plamida asos va qo'shimchalar imlosiga oid qanday tafovutlar bor?
9. Har ikkala "...qoidalar" to'plamida qo'shma so'zlar imlosiga oid qanday tafovutlar bor?
10. Har ikkala "...qoidalar" to'plamida chiziqchanning qo'llanishiga oid imlodagi qanday tafovutlar bor?
11. Har ikkala "...qoidalar" to'plamida bosh harflar imlosiga oid qanday tafovutlar bor?

Tayanch tushunchalar

Orfografiya - muayan til yozuv sistemasining to'g'ri yozish me'yorlarini belgilaydigan imlo qoidalari. Tilshunoslikning imlo qoidalari xususida bahs yurituvchi bo'limi ham orfografiya deyiladi.

Orfogramma - so'zning yoki so'z formasining imlo qoidasiga mos ravishda yozilgan shakli.

Orfografiya prinsiplari - imlo qoidalarining tuzilishiga asos bo'lgan tamoyillar: fonetik prinsip, fonematik prinsip, morfologik yoki fonematik-morfologik prinsip, grafik prinsip, tarixiy-an'anaviy prinsip, shakliy- an'anaviy yozuv prinsipi, semantik-uslubiy prinsip kabi.

Fonetik tahlil namunasi:	
<ol style="list-style-type: none"> 1. So'zda nechta tovush va nechta harf bor? 2. Unli va undosh tovushlar aniqlanib, ular tavsiflanadi. 3. Tovush o'zgarishlari aniqlanadi. 	<ol style="list-style-type: none"> 4. So'z bo'g'inlarga ajratilib, bo'g'in turlari aniqlanadi. 5. So'zning urg'usi aniqlanadi. 6. So'z qaysi yozuv qoidasi bo'yicha yozilgan?

Savol va topshiriqlar

1. Yozuv nima?
2. Kishilik tarixida qanday yozuvlar qo'llanilgan?
3. O'zbek xalqi ajdodlari qaysi yozuvlardan foydalangan?
4. Orfografiya nima? Orfografiyaning asosiy imlo qoidalarini ayting.
5. Imlo qoidalari qanday tamoyillar asosida ishlab chiqiladi?
6. Harf va belgining farqini ayting. O'zbek alifbosida nechta harf va nechta belgi bor?
7. Alfavit nima? Uning ahamiyatini ayting. O'zbek yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
8. Fonetik tamoyil asosida ishlab chiqilgan asosiy imlo qoidalarini va ularni imlo qoidalarining qaysi turiga kirishini ayting.
9. Morfologik tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
10. Shakliy an'anaviy (tarixiy an'anaviy) tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
11. Grafik tamoyil nimani belgilab beradi?
12. Bosh harflar qanday hollarda qo'llanadi?
13. Qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar imlosini tushuntiring.

ORFOEPIYA

Orfoepiya haqida ma'lumot

1. Orfoepiya haqida ma'lumot.
2. Unli tovushlar orfoepiyasi.
3. Undosh tovushlar orfoepiyasi.

4. Soʻz qismlari talaffuzi

5. Boshqa tillardan oʻzlashtirilgan ayrim soʻzlar orfoepiyasi.

Adabiyotlar: 3[45-48], 4[49-50], 10[116-124], 20[35-41].

1-masala bayoni

Orfoepiya soʻzlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, oʻzak va qoʻshimchalardan iborat soʻz formalarini toʻgʻri talaffuz qilish meʼyorlari tizimidir. Tilshunoslikning bu tizim haqidagi boʻlimi ham *orfoepiya* deyiladi.

Orfoepik meʼyorlar aslida xalq jonli tili faktlari asosida yaratiladi – jonli tildagi turlicha talaffuz koʻrinishlaridan adabiy til anʼanalariga, taraqqiyot tradi-tsiyalariga mos keladiganlari tanlanadi. Masalan, oʻzbek shevalarida bir soʻz turlicha talaffuz qilinadi: *yoʻq-joʻq, koʻz-goʻz, ota-ata, aka-oka, anor-onar* kabi. Hozirgi zamon davom feʼli qoʻshimchasi shevalarda – yap(ti), -op(ti), -utti, -vot(ti) shakllarida qoʻllanadi: *boryapti, boropti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yoʻq, koʻz, ota, aka, anor boryapti* variantlari adabiy talaffuz meʼyori (orfoepik norma) sifatida saralangan.

Toʻgʻri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda toʻgʻri yozish qanchalik muhim boʻlsa, toʻgʻri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shuning uchun ham oʻquvchi va talabalar toʻgʻri talaffuz koʻnikmalarining shakllantirilishiga taʼlimning barcha bosqichlarida jiddiy eʼtibor beriladi.

2-masala bayoni

Unli tovushlar orfoepiyasi.

I *unlisi*: 1) bir boʻgʻinli soʻzlarda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: *til, tish, bil, sir* kabi; 2) q, gʻ, x undoshlari bilan yondosh qoʻllanganda yoʻgʻon (orqa qator unli tarzida) talaffuz etiladi: *qish, gʻisht, xil* kabi; 3) y, ng undoshlaridan oldin ingichka va bir oz choʻziq talaffuz etiladi: *chiy, kiy, ming* kabi; 4) h bilan yondosh boʻlganda ham bir oz choʻziq va ingichka talaffuz qilinadi: *hid, hind, his* kabi; 5) koʻp boʻgʻinli soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinida kuchsiz va qisqa (*bilan, biroq, sira, tilak, gilam, gilos, viqor* kabi), urgʻuli boʻgʻinida esa kuchliroq va choʻziqroq (*nozik, alik, rostlik* kabi) talaffuz etiladi; b) soʻz oxiridagi ochiq boʻgʻinida bir oz kengayadi ("i"dan kengroq, "e"dan torroq unli tarzda talaffuz qilinadi): *tepki, bordi, oftobi, xuddi, rozi* kabi.

U *unlisi*: 1) bir boʻgʻinli soʻzlarda va koʻp boʻgʻinli soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinida qisqa (*tush, tus, pul, buloq, bugʻdoy* kabi), urgʻuli boʻgʻinida esa kuchliroq va choʻziqroq (*bulut, etuk, popuk* kabi) talaffuz etiladi; 2) k, g, y undoshlaridan keyin ingichka (old qator unli tarzida), q, gʻ, x undoshlaridan soʻng esa yoʻgʻon (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. qiyos qiling: *kul* va *qul, atirgul* va *norgʻul, yuk(yuk)* va *xulq* kabi; 3) –*uvchi, -uv* affikslari tarkibida choʻziqroq aytiladi: *yozuvchi, oʻquvchi, toʻquvchi, oluv, qoʻshuv* kabi.

Oʻ *unlisi*: 1) bir boʻgʻinli soʻzlarda, shuningdek koʻp boʻgʻinli soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinida qisqa talaffuz etiladi: *boʻr, toʻr, roʻmol, soʻroq* kabi; 2) takroriy formalarning birinchi komponentida (urgʻuli boʻgʻinida) choʻziq talaffuz qilinadi: *koʻp-koʻp, zoʻr-zoʻr, moʻl-moʻl* kabi; 3) sayoz til orqa k, g, til oʻrta y va boʻgʻiz undoshi (h) dan soʻng yumshoq (old qator) unli tarzida, chuqur til orqa q, gʻ, x undoshlaridan soʻng qattiq va yoʻgʻon (orqa qator) unli tarzda talaffuz etiladi. qiyos qiling: *koʻl va qoʻl, goʻr va gʻoʻr, hoʻl va xoʻr, yoʻl va qoʻr* kabi.

E *unlisi*: 1) soʻz va boʻgʻin boshida kengroq (*erkin, ekin, eslamoq* kabi), boʻgʻin ichida bir oz torroq (*kecha, beda, tekin, sekin* kabi) talaffuz qilinadi.

A *unlisi*: 1) sayoz til orqa k, g undoshlari bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka unli tarzida (*kam, katta, gap, gal, gazlama, kayfiyat* kabi), chuqur til orqa q, gʻ, x undoshlari bilan yondosh qoʻllanganda esa yoʻgʻon unli tarzida (*qalam, qargʻa, qasida, gʻam, gʻalvir, xalq, xabar, xat* kabi) talaffuz etiladi.

O *unlisi*: 1) quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi: *tosh, bahor, somon, shamol* kabi. Shevalarda va jonli tilda bu unlining urgʻusiz boʻgʻinida "a"ga yaqin talaffuz qilinish hollari ham uchraydi: *samon, davon* kabi, ammo bu hol adabiy talaffuz (orfoepik meʼyor) hisoblanmaydi; 2) sayoz til orqa k, g undoshlaridan soʻng yumshoq, chuqur til orqa q, gʻ, x undoshlaridan soʻng esa yoʻgʻon unli tarzida talaffuz qilinadi. qiyos qiling: *kosib* va *qoshiq, kotib* va *qolip, komil va qobil, gov* va *gʻov, govmish* va *gʻovlamoq* kabi; 3) urgʻuli boʻgʻinida kuchliroq va bir oz choʻziq talaffuz etiladi: *bogʻbon, obod* soʻzlarining birinchi va oxirgi boʻgʻinlaridagi o unlisi

talaffuzini qiyoslang; 4) y va h undoshlari bilan yondosh qo'llanganda ham o unlisi bir oz yumshoq, ingichka unli holida talaffuz etiladi. qiyos qiling: *yor (yor) va qor, hokim va xolis* kabi.

3-masala bayoni

Undosh tovushlar orfoepiyasi.

Undosh tovushlar orfoepiyasi ko'proq kombinator va pozitsion omillar ta'sirida yuz beradigan fonetik hodisalarga bog'liq bo'ladi. Xususan: 1)b,d jarangli undoshlari so'z oxirida jarangsiz p,t tarzida talaffuz etiladi, bu hol o'zbek adabiy talaffuzi uchun me'yor hisoblanadi: *kitob>kitop, borib>borip, yozib>yozip, savod>savot, obod>obot* kabi; 2)b,d undoshlari jarangsiz undoshlar bilan yonma-yon qo'llanganda assimilyatsiyaga uchrab, p,t holida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi: *ibtidoiy>iptidoiy, ketdi>ketti*; 3)j,z undoshlarining jarangsiz undoshlar ta'sirida sh,s deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun me'yordir: *ijtimoiy> ishtimoiy, mazkur>maskur* kabi; 4)b,q undoshlarining intervokal holatda (ikki unli orasida) sirg'aluvchi v,g' undoshlariga o'tishi ham adabiy talaffuz me'yoriga xilof emas: *bora ber>boraver, keta ber>ketaver* kabi.

4-masala bayoni

So'z qismlari talaffuzi

1.q,K bilan tugagan otlarning egalik affikslari bilan turlangan shakllari quyidagicha talaffuz etiladi: a) ko'p bo'g'inli so'zlarda *qishloq> qishlog'imiz, qishlog'ingiz, qishlog'i; telpak> telpagim, telpaging, telpagi* kabi. Bir bo'g'inli so'zlarda bunday o'zgarish bo'lmaydi: *o'q>o'qi, tok>toki* kabi (*yoq, yo'q* so'zlari bundan mustasno).

2.q,K,G,ǵ bilan tugagan otlarning jo'nalish kelishigidagi shakllari quyidagicha talaffuz qilinadi: *qishloqQga>qishloqqa, chelakQga>chelakka, tog'Qga>toqqa, pedagogQga>pedagogka* kabi. Boshqa barcha holatlarda: a) jarangsiz undoshlardan so'ng –ka, jarangli undoshdan va unlikdan so'ng –ga talaffuz etiladi: *otka, oshka, qopka, ammo uyga, ovga, tolga, tomga, bolaga, akaga* kabi.

3.Fe'llarda: a)*ongQla>angla, sonQa>sana, yoshQa>yasha* kabi; b)*ekQgan > ekkan, ketQgan > ketkan, oqQgan > oqqan, tushQgan>tushkan* kabi.

4. Olmoshlarda: *uQnQda>unda, buQnQda>bunda, shuQnQda>shunda* (bir "n" orttiriladi), *menQning>mening, senQning>sening* (bir "n" tushirib qoldiriladi).

5.*Bir* so'zidan dona son yasalganda, o'zakdagi "r" undoshi "t"ga o'tadi: *birQta>bitta* kabi.

5-masala bayoni

Boshqa tillardan o'zlashtirilgan ayrim so'zlar orfoepiyasi.

1.Turkiy tillarda, ma'lumki, f undoshi bo'lmagan, shuning uchun jonli so'zlashuvda arab, fors va rus tillaridan o'zlashgan so'zlardagi "f"ni "p" deb talaffuz qilish hollari uchraydi: *ulfat>ulpat, faner>paner, ferma>perma* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ularni "f" bilan talaffuz qilish me'yor holiga kelgan.

2.So'z yoki bo'g'in boshida undosh tovushlarning qatorlashib kelishi turkiy tillarga xos bo'lmagan. Bu hodisa keyinchalik boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar talaffuziga ham ta'sir qilgan – jonli so'zlashuvda so'z yoki bo'g'in boshida yoxud bo'g'indagi ikki undosh orasida bir unlining orttirilishiga olib kelgan: *shkaf>ishkop, stakan>istakon, plan>pilon, traktor>tiraktir* kabi. Bunday holat so'z oxirida ham uchraydi: *aql>aqil, fikr>fikir, ilm>ilim, hukm>hukum* kabi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday so'zlarni asl holicha (unli orttirmay) talaffuz qilish orfoepik me'yor sanaladi. Bunday me'yor shu tipdagi so'zlarning yozuvdagi shaklini (imlosini) to'g'ri belgilashga ham yordam beradi.

3.Umumturkiy so'zlarda ikki unli yonma-yon qo'llanmaydi, bu hol arab tilidan o'zlashgan *oila, doir, rais, maorif, saodat, mutolaa* kabi so'zlar talaffuziga ta'sir qilgan: *oila, doir, rais* so'zlarida bitta "y" orttirilgan (*oyila, doyir, rayis* kabi), *maorif, saodat, mutolaa* so'zlari esa unliklarning diftonglashuviga – *mo:rip, so:dat, mutola:* kabi talaffuz qilinishiga olib kelgan. Keyingi bir asr ichida rus tilidan so'z o'zlashtirishning faollashganligi, ruscha o'zlashmalarning rus tilidagi talaffuz va imlo me'yorlarini o'zbek tiliga aynan singdirish tendentsiyasining ustun bo'lganligi o'zbek tilida ikki unlining so'z tarkibida yonma-yon kelishini orfoepik va orfografik me'yorga aylantirdi: *biologiya, geometriya, geologiya, geodeziya* va boshqalar. Bu hol arabcha

o'zlashmalarda (*oila, doir, rais, maorif, saodat, matbaa, mutolaa* kabilarda) ham ikki unlining yonma-yon talaffuz qilinishi va yozilishini me'yor darajasiga ko'tardi.

4. Arab tilidan o'zlashtirilgan *ta'na, da'vo, ma'no, e'lon, me'mor, mo'tabar* kabi so'zlarning birinchi bo'g'inidagi unlilar bo'g'iz artikulyatsiyasi bilan cho'ziqroq talaffuz etiladi.

5. Rus tilidan o'zlashgan so'zlarda "i" unlisi o'zbek tilining "i" unlisidan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *tish* (o'zb.) – *tip>ti:p* (rus.), *til* (o'zb.) – *tir>ti:r* (rus.) kabi.

6. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz ochiq bo'g'indagi "i" o'zbekcha "i"dan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *bilan* (o'zb.) – *bilet* (rus.), *kinoya* (o'zb.) – *kino* (rus.) kabi.

7. Rus tili orqali o'zlashtirilgan so'zlarning so'nggi ochiq, urg'uli bo'g'inida "i" unlisi o'zbekcha "i"dan tor va cho'ziq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *maxsi*(o'zb.) – *taksi*(rus.), *tepki*(o'zb.)-*konki*(rus.) kabi. Urg'uli bo'g'inning boshqa tiplarida (yopiq, to'la yopiq bo'g'inlarda) ham ruscha "i" o'zbekcha "i"dan cho'ziqroq va torroq talaffuz qilinadi. qiyos qiling: *metin* (o'zb.) – *nikotin>nikoti:n* (rus.), *ovsin* (o'zb.) – *apelsin>apelsi:n* (rus) kabi.

8. Rus tilidan o'zlashtirilgan bir bo'g'inli so'zlarda "u" unlisi o'zbek tilidagi "u"dan cho'ziqroq va kuchliroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *dud*(o'zb.) – *dub>du:b*(rus), *pul*(o'zb.) – *puls>pu:ls*(rus.), *tush*(o'zb.) – *tush>tu:sh*(rus.) kabi.

9. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'uli bo'g'inida "u" unlisi o'zbek tilidagi "u"dan ancha cho'ziq va bir oz yo'g'onroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *bu-da*(o'zb.) – *budka* (rus.), *mangu* (o'zb.) – *mangusta* (rus.), *mavzu* (o'zb.<arab.)-*meduza* (rus.) kabi.

10. Rus tilidan o'zlashtirilgan ko'p bo'g'inli so'zlarning urg'usiz bo'g'inidagi "u" qisqa talaffuz qilinadi, ammo o'zbek tilidagi "u" ayni shu fonetik pozitsiyada ruscha "u"dan ham qisqaroq bo'ladi. qiyos qiling: *dushman>d'shmen*(o'zb.)- *turbina*(rus.), *muzday>m'zdey*(o'zb.)-*muzey*(rus) kabi.

11. So'z boshidagi berkitilmagan, urg'usiz bo'g'inda "u" unlisi ruscha so'zlarda yo'g'onroq, o'zbekcha so'zlarda ingichkaroq (yumshoqroq) talaffuz etiladi. qiyos qiling: *uklad*(rus.) – *uxlamoq* (o'zb.), *uzual* (rus.)-*uzum* (o'zb.) kabi.

12. Ruscha leksik o'zlashmalarda "u" unlisi yumshoq undoshdan so'ng o'ta ingichka (old qator unli tarzida), qattiq undoshdan so'ng esa yo'g'on (orqa qator unli tarzida) talaffuz qilinadi. Imloda ingichka "u" tovushi "yu" harfi bilan ifodalanadi. qiyos qiling: *abajur va manikyur*(*manik'yur*), *ultimatum va kostyum* (*kast'yum*), *plug va salyut*(*sal'yut*) kabi. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarda yumshoq undoshdan keyin kelgan "u" o'zbekcha "u"dan ham ingichkaroq va yumshoqroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *gul* (o'zb.)-*tyul>t'yul* (rus.) kabi.

13. Ruscha leksik o'zlashmalarning urg'usiz bo'g'inidagi "e" unlisi o'zbekcha "e"dan ancha tor ("i"ga yaqin) talaffuz etiladi: *telefon>tilifon.*, *televizor>tiliviz'r*, *adres>adris* kabi.

14. Rus tili orqali o'zlashgan so'zlarda "a" unlisi o'zbekcha "a"dan yo'g'onroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *kana*(o'zb.)-*kanal* (rus.) kabi.

15. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlardagi o'rta keng, lablangan "o" unlisi urg'uli bo'g'inda o'zbek tilidagi o'rta keng, lablangan "o"dan kengroq talaffuz etiladi. qiyos qiling: *ton* (rus.) – *to'n* (o'zb.), *tok* (rus.) – *to'q* (o'zb.), *tort* (rus.) – *to'rt* (o'zb.) kabi. Urg'usiz bo'g'inda esa ruscha "o" reduksiyaga uchrab, o'ta kuchsizlanadi va "qisqa "i" yoki "a" tarzida talaffuz qilinadi: *traktor>t'rakt'r*, *samolyot>samal'ot* kabi.

16. Jonli tilda "r" bilan boshlangan arabcha, forsha va ruscha so'zlarning boshida bir "o'" tovushining orttirilishi ancha keng tarqalgan: *ro'za>o'raza*, *rus>o'ris*, *ro'mol>o'ramol* kabi. Adabiy talaffuz me'yori sifatida *ro'za*, *rus*, *ro'mol* shakllari saralangan.

17. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning oxirida lab-tish "v" undoshi jarangsiz "f" tarzida talaffuz qilinadi: *aktiv>aktif*, *passiv>passif*, *ustav>ustaf*, *kursiv>kursif* kabi; "v"ning jarangsizlanishi so'z ichidagi assimilyativ holatda ham yuz beradi: *avtomat>aftomat*, *stavka>stafka* kabi. Bunday talaffuz adabiy til uchun me'yor sanaladi, ammo o'zbek tilining o'z so'zlarida qo'llanadigan lab-lab "v" undoshi so'z oxirida ham, jarangsiz undosh ta'sirida ham "f" ga o'tmaydi: *ov*, *birov*, *ovqat*, *shavkat* kabi. (Bu holat ham orfoepik me'yori sanaladi).

18. Rus tilidan o'zlashtirilgan so'zlarning ko'pchiligida urg'u erkin bo'ladi, bu hol o'zbek adabiy tili va talaffuziga ham singib bormoqda: *atlás*, *trolléybus*, *tramváy* kabi.

19. O'zbek tilidagi urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo ayrim o'zlashgan so'zlarda urg'u so'zning oldingi bo'g'inlarida bo'lishi ham mumkin: *hámma*, *jámi*, *hamúsha*, *afsýski* kabi. Bunday holatlardan xabardor bo'lish adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilish imkonini beradi.

Tekshirish savollari

1. Orfoepiya nima?
2. Orfoepiyaning adabiy tildagi ahamiyati?
3. Unli tovushlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?
4. Unlilar qanday pozitsiyada ingichka talaffuz qilinadi?
5. Unlilar qanday undoshlar ta'sirida yo'g'on talaffuz etiladi?
6. B, d undoshlari qanday pozitsiyada jarangsiz p, t tarzida talaffuz etiladi?
7. J, z undoshlari qanday o'rinlarda jarangsizlanadi?
8. B, q undoshlarining sirg'aluvchi "v" va "g'"ga o'tishi qanday holatda yuz beradi?
9. Qanday paytlarda o'zak oxiridagi "k" undoshi "g"ga, "q" undoshi "g'"ga o'tadi?
10. "G" undoshi bilan boshlangan affikslar qanday so'zlarga qo'shilganda "--ka", "-kan", "-qa", "-qan" tarzida talaffuz qilinadi?
11. Qanday so'zlar o'zagidagi "o" fe'l yasovchilar qo'shilganda "a" ga o'tadi?
12. Boshqa tillardan olingan o'zlashma so'zlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?

Tayanch tushunchalar

Orfoepiya – to'g'ri (adabiy) talaffuz me'yorlari tizimi.

Qisqa talaffuz – urg'usiz bo'g'indagi unlining qisqa va kuchsiz (bilinar-bilinmas) talaffuz etilishi.

Cho'ziq talaffuz – urg'uli bo'g'indagi unlining urg'usiz bo'g'indagi unlidan cho'ziqroq bo'lishi. Bu xususiyat ruscha leksik o'zdashmalarda, ayniqsa, sezilarli bo'ladi.

Ingichka talaffuz – unli tovushlarning sayoz til orqa "k", "g", "ng", til o'rta "y" va bo'g'iz undoshi "h" bilan yondosh bo'lganda old qator fonema tarzida ingichka talaffuz etilishi.

Yo'g'on talaffuz – unli tovushlarning chuqur til orqa "q", "g'", "x" undoshlari ta'sirida orqa qator fonema tarzida yo'g'onlashuvi.

Jarangsizlanish – ayrim jarangli undoshlarning so'z oxirida yoki assimilyativ holatlarda jarangsiz undosh tarzida talaffuz etilishi.

Intervokal holat – undosh fonemaning ikki unli orasida qo'llanishi. Bunday pozitsiyada (ko'p bo'g'inli so'zlarda) portlovchi "q" undoshi sirg'aluvi "g'" tarzida (*qishloq* > *qishlog'imiz* kabi), jarangsiz "k" undoshi jarangli "g" tarzida (*telpak* > *telpagim* kabi) talaffuz qilinadi.

Fonetika, grafika va orfografiya bo'limlari yuzasidan nazorat savollari va topshiriqlar

1. Grafika-yozuv haqida umumiy tushuncha.
2. Tarixiy-an'anaviy tamoyilning qo'llanish doirasi.
3. Ko'pnuqtaning ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
 1. Yozuv va til.
 2. Differentsiatsiya va grafik tamoyil haqida tushuncha.
 3. Nuqtaning vazifalari va ishlatilishi.
 1. Qadimiy yozuvlar.
 2. Differentsiatsiya va grafik tamoyilning qo'llanish doirasi.
 3. Vergulning vazifalari va ishlatilishi.
 1. O'rta Osiyo xalqlari yozuvlari. Turkiy yozuvlar.
 2. Tovush va harf.
 3. Asos va qo'shimchalar imlosi: jo'nalish kelishigi.
 1. Zamonaviy o'zbek yozuvlari.
 2. Transkripsiya-nutq tovushlarining barcha xususiyatlarini yozuvda aniq ifodalash vositasi.
 3. Qo'shib yozish.
 1. Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi va unda nutq tovushlarining ifodalanishi.
 2. Ayrim harflar imlosi.

1. Tarixiy-an'anaviy tamoyil haqida tushuncha.
2. Nuqta qanday o'rinlarda ishlatiladi?
3. Qavs qanday vazifalarni bajaradi?
 1. Ikki nuqta qanday vazifalarni bajaradi?
 2. Qo'shma so'z va so'z birikmalari imlosi;
 3. Ko'chirish qoidalari.
1. Orfografik va orfoepik qoidalarning o'zaro bog'liqligi.
2. Orfografik tamoyillar va ularning ahamiyati..
3. Punktatsion belgilar qanday sharoitda va qachon paydo bo'lgan?
 1. Grafika-yozuv haqida umumiy tushuncha .
 2. Nuqtali vergulning ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
 3. Ko'pnuqta qanday vazifalarni bajaradi?
 1. Nuqtali vergul qanday vazifalarni bajaradi?
 2. Yozuv va til.
 3. Ko'pnuqta qanday vazifalarni bajaradi?
 1. Yozuvning tadrijiy taraqqiyoti.
 2. Tovush va harf.
 3. Punktatsiya paydo bo'lishining yozuv taraqqiyoti bilan bog'liqligini bayon qiling.
 1. O'rta Osiyo xalqlari yozuvlari. Turkiy yozuvlar.
 2. Nima uchun morfologik tamoyil etakchi hisoblanadi?
 3. Asos va qo'shimchalar imlosi: -tir, -b, -ub, -qi affikslari misolida
 1. Zamonaviy o'zbek yozuvlari.
 2. Nuqtaning ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
 3. Qo'shib yozish.
 1. Lotin grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi va unda nutq tovushlarining ifodalanishi.
 2. Nuqtaning ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
 3. Ajratib yozish
 1. Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi va unda nutq tovushlarining ifodalanishi.
 2. Alifbo va uning ahamiyati
 3. Chiziqcha bilan yozish.

Fonetika, grafika va orfografiya bo'limlari yuzasidan test savollari:

- 1. Fonetika o'rganadigan masalalar noto'g'ri berilgan javobni toping.**
A) nutq tovushlarining hosil bo'lishi B) urg'u, bo'g'in, ohang C) nutq tovushlarining turlari, o'zgarishi D) nutq tovushlarining so'z ma'nolarini ajratishdagi roli.
- 2. Fonetika bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?**
A) lingvistik xususiyatlari B) ijtimoiy mohiyati C) fizik-akustik xususiyatlari D) ma'no farqlash xususiyatlari
- 3. Fonologiya bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?**
A) qay tarzda hosil bo'lishi B) sifat tomonlari C) kuchi va cho'ziqligi D) ma'no farqlash xususiyatlari.
- 4. Tovushning xususiyatlari noto'g'ri berilgan javobni toping.**
A) so'z va qo'shimchalar bir-birlaridan tovushlari bilan farq qiladi B) har qanday so'z tovushlardan tashkil topadi C) nutqning eng kichik bo'linmas ma'noli qismi D) birchasi to'g'ri.
- 5. Bir xil tovushlarning turlicha joylashuvidan hosil bo'lgan so'zlar qaysi javobda berilgan?**
A) kitob, maktub, maktab B) suvrat, tasvir, tasavvur, musavvir C) uchqur, chuqur, urchuq D) ahabob, habib, muhib.
- 6. Bir tovushi bilan farq qiladigan so'zlar berilgan javobni toping.**
A) kalom, qalam, malak V) borlik, borliq, torlik S) jodu, jodi, juda D) sohib, hisob, solib
- 7. Tovushlarning ortiqligi bilan farqlanadigan so'zlar berilgan javobni toping.**
A) adab, abad, odob V) alam, qalam, a'lam S) stol, ustol, ustul D) mulk, molik, komil.

8. Fonemaning belgilari noto‘g‘ ri berilgan javobni toping.

A) eshitalishi V) aytilishi S) ma‘no farqlashi D) tuzilishi.

9. Fonemaning eng muhim belgisi ko‘rsatilgan javobni toping.

A) ma‘no ajratishi V) akustikasi S) artikulyatsiyasi D) aytilishi va eshitalishi.

10. Nutq tovushlarining balandligi nima bilan ta‘minlanadi?

A) un paychalarining ko‘p tebranishi bilan V) un paychalarining kuchli tebranishi bilan S) un paychalarining past tebranishi bilan D) un paychalarining kam tebranishi bilan

11. Nutq tovushlarining kuchi nimaga bog‘liq?

A) un paychalarining tebranish vaqtiga V) un paychalarining tebranish o‘rniga S) un paychalarining tebranish amplitudasiga D) un paychalarining tebranish joyiga

12. Nutq a‘zolaridan qaysi birining hajmi va shakli nutq tovushlarining tembriga ta‘sir qilmaydi?

A) og‘iz bo‘shlig‘ining shakli V) burun bo‘shlig‘ining hajmi S) bo‘g‘iz bo‘shlig‘ining shakli D) tovush paychalarida shovqinning qanday hosil bo‘lishi.

13. Nutq tovushlarining un paychalari tebranadigan vaqt bilan o‘lchanadigan xususiyati qaysi javobda berilgan?

A) tembri V) cho‘ziqligi S) kuchi D) balandligi

14. Qaysi javobda nutq a‘zosi nomi noto‘g‘ ri berilgan?

A) o‘pka, bronxlar, nafas yo‘li V) xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon va nayzasimon tog‘aylar, un paychalari S) burun bo‘shlig‘i, markaziy nerv sistemasi. D) til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar

15. Qaysi nutq a‘zosi tovushni kuchaytirib berishga yordam beradi?

A) til V) un paychalari S) og‘iz bo‘shlig‘i D) bo‘g‘iz bo‘shlig‘i

3. Qaysi nutq a‘zosi ovoz manbasi hisoblanadi?

A) til V) un paychalari S) og‘iz bo‘shlig‘i D) bo‘g‘iz bo‘shlig‘i

16. Qaysi javobda markaziy nerv sistemasining vazifasi to‘g‘ ri ko‘rsatilgan?

A) nutq a‘zolari harakatini yuzaga keltiradi V) nutq a‘zolarining harakatini boshqarib turadi S) markaziy nerv sistemasi nutq a‘zolari sirasiga kirmaydi D) A, V

17. Qaysi tovushlar talaffuzida havo oqimining yo‘nalishi o‘zgaradi

A) y, z, s V) m, n, ng S) v, f, r D) sh, j, g‘

18. Fonetik vositalar to‘g‘ ri ko‘rsatilgan javobni toping.

A) urg‘u, bo‘g‘in, tovush V) nutq tovushlari vergul, nuqta S) ohang, nutq a‘zolari, pauza D) fonemalar, urg‘u, ohang

19. Urg‘uning vazifasi noto‘g‘ ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.

A) hozir (ravish) - hozir (sifat) V) qo‘llar (a‘zo) - qyillar (fe‘l) S) nufuz (obro‘) - nyfus (aholi) D) ko‘zlár (a‘zo) - kyzlar (fe‘l)

20. So‘z ma‘nosini farqlashda urg‘uning qaysi turi ishtirok etadi?

A) logik urg‘u B) leksik urg‘u S) gap urg‘usi D) ma‘no urg‘usi

21. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra b hamda p undosh tovushlariga to‘g‘ri tavsif berilgan qatorni toping.

A) b – lab undoshi, lab-lab; p – lab undoshi, lab-lab B) b – jarangli undosh; p – jarangsiz undosh C) b jarangli undoshining jarangsiz jufti p undoshidir D) B va C javoblar

22. Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra q hamda g‘ undosh tovushlariga to‘g‘ri tavsif berilgan qatorni toping.

A) q – til undoshi, chuqur til orqa; g‘ – til undoshi, chuqur til orqa B) q va g‘ – bo‘g‘iz undoshlari C) g‘ – jarangli undosh; q – jarangsiz undosh D) q portlovchi undosh; g‘ – sirg‘aluvchi undosh.

23. Qorishiq undosh tovushlar berilgan qatorni toping.

A) m, n, ng B) j, sh, f C) ch, j(dj) D) ng, r, l

24. X undoshiga to‘g‘ri tavsif berilgan javobni toping.

A) chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush B) bo‘g‘iz, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush C) chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangli undosh tovush D) chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovush

25. Tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra sh hamda j undosh tovushlariga to‘g‘ri tavsif berilgan qatorni toping.

- A) *sh* – til undoshi, til oldi; *j* – til undoshi, til oldi
 B) *j* jarangli undoshning jarangsiz jufti *sh* undoshi C) A, B
 D) *sh* – jarangsiz undosh; *j* – jarangli.
- 26. Javoblarning qaysi birida unli tovushlar ko'rsatilgan?**
 A) *b, f, k, p, t* B) *a, u, o', i, o, e*
 C) *i, e, a, o, u, o', y* D) *m, n, ng, r, l*
- 27. Nutq tovushlarining yozuvda ifodalanish usullarini qaysi bo'lim o'rgatadi?**
 A) orfoepiya B) orfografiya C) grafika D) fonetika
- 28. Arab yozuvida bitilgan eng eski turkiy yodgorliklar nechanchi asrga taalluqli va ular qaysilar?**
 A) VII asrlarga, O'rxun–Enasoy yodgorliklari B) XXV asrlarga, A.Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlari C) XI – XIII asrlarga, Sakkokiy va Atoiyning ba'zi she'rlari D) XI asrga, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarining Namangan va Kohira nusxalari, Maxmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari
- 29. Lotin yozuvi asosidagi harflar tartibidan foydalanib, yurtimning so'zi keltirib chiqarilgan qatorni toping.**
 A) 23,20,17,19,8,12,13,8,13. B) 23,20,17,19,8,12,13,8,29
 C) 23,17,19,8,12,13,8,29 D) 22,19,17,18,8,12,13,8,29
- 30. Qaysi qatordagi so'zlarda «ng» harfi bir tovushni ifodalamoqda?**
 A) *tanga, jang, menga* B) *zang, ko'ndalang, ingramoq*
 C) *durang, onangiz, nonga* D) *kongress, menga, singil*
- 31. Baland boloxonali uy. Ushbu birlikda qanday holatda uyning balandligi anglashiladi?**
 A) *baland* so'zidan so'ng pauza bo'lsa B) *boloxonali* so'zidan keyin pauza bo'lsa C) *uchala* so'z orasida pauza mavjud bo'lmasa D) har qanday holatda ham uyning balandligi anglashiladi
- 32. Qaysi qatordagi so'zlarning ikkinchisi noto'g'ri yozilgan?**
 A) *ajdaho va ajdarho* B) *bekik va berkik* C) *bema'nilik va bema'nolik* D) barcha javoblarda ikkinchi so'zlar to'g'ri yozilgan
- 33. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini belgilang.**
 A) *tasavuf, tasaruf, tasavur* B) *xohish, mavhum, aqalli* C) *avf, ayuhannos, mone'* D) A, C.
- 34. Qaysi qatorda tutuq belgisining qo'llanish o'rniga ko'ra xatoga yo'l qo'yilgan?**
 A) *ma'zur, ma'bud, ma'yus* B) *ma'shum, ma'suliyat, ma'sud*
 C) *ma'mur, ma'sum, ma'shuq* D) *mal'un, minba'd*
- 35. Fonetik prinsip(tamoyil) asosida yozilgan so'zlarni belgilang.**
 1) *yasha*; 2) *yayra*; 3) *yashna*; 4) *o'yna*; 5) *ikkala*; 6) *uchala*;
 7) *yamoq*; 8) *yong'oq*; 9) *yig'loq*; 10) *o'yinchoq*.
 A) 1,4,5,7,9 B) 1,2,3,5,6 C) 5,7,9 D) 1,5,7,9,10
- 36. O'zak va qo'shimchalarning yozilishida bir xillikni ta'minlaydigan prinsip (yozuv, tamoyil)ga...**
 A) morfologik prinsip deyiladi B) fonetik prinsip deyiladi
 C) an'anaviy prinsip deyiladi D) shakliy prinsip deyiladi

АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИ БАЖАРИШ БЎЙИЧА УСЛУБИЙ КЎРСАТМАЛАР

1- amaliy mashg`ulot

MAVZU: TIL VA TILSHUNOSLIK DAN UMUMIY MA'LUMOT. TIL IJTIMOIIY HODISA

Dars maqsadi: Talabalarda tilshunoslikning o`rganish ob'yektlari, turlari to`g`risida umumiy tushuncha hosil qilish.

Tayanch tushunchalar: geniologik tasnif, morfologik tasnif, areal tasnif, funksional tasnif, amorf tillar, aglutinativ tillar, felektiv tillar, polisintetik tillar.

Kerakli jihoz va materiallar: ruchka, qalam, o`chirg`ich

Takrorlash va mavzuning o`zlashtirilganini tekshirish uchun savollar

1. Tilshunoslik fani nimalarni o`rganadi?
2. Tilshunoslik fanining qanday turlari bor va ular o`zaro qanday farqlanadi?
3. Nima uchun til ijtimoiy hodisa sanaladi?
4. "Jamiyatsiz til, tilsiz jamiyat bo`lishi mumkin emas", degan fikrni qanday izohlaysiz?
5. Tilning tarkibiy qismlari deganda nimalar nazarda tutiladi?
8. Milliy til nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
9. Shevalar adabiy tildan qaysi jihatlariga ko`ra farqlanadi?
10. O`zbek tilida qanday lahjalar mavjud va ular qanday belgilarga ega?
11. Tilshunoslikda tillarning qanday tasniflari mavjud?
12. Tillarning geneologik tasniflanishiga ko`ra yer yuzida qanday til oilalari bor?
13. Oltoy tillar oilasi va turkiy tillar guruhi haqida nimalarni bilasiz?
14. Morfologik tasnif bo`yicha bo`lingan amorf va agglutinativ tillar guruhlari haqida qanday ma`lumotlarni bilasiz?
15. Flektiv va polisintetik tillar haqida nimalarni bilasiz?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Shevalar adabiy tildan qaysi jihatlar bilan farq qiladi?

A) fonetik B) leksik C) grammatik D) fonetik, leksik va grammatik

2. Adabiy tilning qanday shakli bor?

A) xalq shevalari va adabiy til B) og`zaki adabiy til va yozma adabiy til C) so`zlashuv uslubi va kitobiy uslub D) so`zlashuv, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar

3. Tilshunoslikda lahja atamasi qanday tushunchani anglatadi?

A) ma`lum shevaning kichik bir qismi B) bir-biriga yaqin bo`lgan shevalar yig`indisi C) sheva atamasining sinonimi sifatida ishlatiladi D) xalq tilining ma`lum bir me`yorlarga keltirilgan shakli

4. Qaysi qatorda adabiy tilning yozma shakliga xos xususiyat noto`g`ri ifodalangan?

A) Yozma nutq kishilar orasidagi bevosita aloqa vositasi hisoblanadi B) yozma shaklda orfografik va tinish belgilariga oid qonun-qoidalarga amal qilinadi C) yozma shakl og`zaki shaklga qaraganda til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida joriy qilingan D) yozma shakl uchun masofa va zamonning ahamiyati yo`q

5. Hozirgi o`zbek adabiy tili uchun qaysi lahjaga kiradigan shevalar asos qilib olingan?

A) qarluq lahjasi B) qipchoq lahjasi C) o`g`uz lahjasi
D) qarluq va qipchoq lahjalari

2- amaliy mashg`ulot:

FONETIKA HAQIDA MA'LUMOT.

FONETIKA VA UNING MAQSAD VA VAZIFALARI, TURLARI.

Dars maqsadi: Talabalarda fonetikaning o`rganish ob'yektlari, turlari to`g`risida umumiy tushuncha hosil qilish.

Tayanch tushunchalar: fonetika, fonologiya, akustika, artikulyatsiya, segment birlik, supersegment birlik, fonetik birlik.

Kerakli jihoz va materiallar: ruchka, qalam, o'chirg'ich

IShNI BAJARISH TARTIBI:

1. Nutq tovushlari va ular bilan bog'liq hodisalarning ko'p qirrali murakkab xususiyatlar ekanligini izohlaydi.
2. Tovushlarning tildagi funktsional (vazifa) tomonlarini o'rganish bo'limi- segmental fonologiya yoki fonemika, fonematika haqida ma'lumot beradi.
- Bo'g'in, urg'u va intonatsiyaning funktsional alomatlarining xususiyatlarini o'rganish sohasi supersegmental fonologiya yoki prosodika haqida ma'lumot beradi.
4. Fonetikaning turlarga bo'linib ketishi sababini ilmiy asoslab beradi.
5. Fonologiya haqida tushuncha beradi.
6. Sub'yektiv va ob'yektiv metodlar haqida tushuncha beradi.

Takrorlash va mavzuni o'zlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Fonetika nimani o'rganadi?
2. Tovush va fonemaning farqini ayting.
3. Fonologiya haqida nimalarni bilasiz?
4. Fonema qanday belgilarga ega?
5. Fonetik akustika haqida qanday ma'lumotga egasiz?
6. Nutq tovushlari artikulyatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Nutq a'zolarining vazifalari nimalardan iborat?
8. O'zbek tilining fonetik vositalariga nimalar kiradi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Fonetika o'rganadigan masalalar noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) nutq tovushlarining hosil bo'lishi B) urg'u, bo'g'in, ohang C) nutq tovushlarining turlari, o'zgarishi D) nutq tovushlarining so'z ma'nolarini ajratishdagi roli.

2. Fonetika bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?

A) lingvistik xususiyatlari B) ijtimoiy mohiyati C) fizik-akustik xususiyatlari D) ma'no farqlash xususiyatlari

3. Fonologiya bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?

A) qay tarzda hosil bo'lishi B) sifat tomonlari C) kuchi va cho'ziqligi D) ma'no farqlash xususiyatlari.

4. Tovushning xususiyatlari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) so'z va qo'shimchalar bir-birlaridan tovushlari bilan farq qiladi B) har qanday so'z tovushlardan tashkil topadi C) nutqning eng kichik bo'linmas ma'noli qismi D) birchasi to'g'ri.

Kerakli adabiyotlar:

1. A. A. Abduazizov. Tilshunoslikka kirish. 1-qism. Fonetika va fonologiya. Toshkent. Universitet, 1999 yil. 6-8-betlar
2. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev, Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'zbekiston 1992 yil. 12-34 betlar.
3. A. Sodiqov. A. Abduazizov, M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1981 yil, 72-92 betlar.

3- Amaliy mashg'ulot

ONA TILINING FONETIK VOSITALARI.

Dars maqsadi: Talabalarda nutq tovushlarining talaffuz xususiyatlari, bunda nutq a'zolarining ishtiroki to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish.

Tayanch tushunchalar:

Fonema – so'zlar, morfemalar va grammatik shakllarning tovush qobig'ini, binobarin, ma'nolarini ham farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik segment birlik.

Fonemalarning differentsial belgilari - o'zaro qarama-qarshi qo'yilayotgan ikki fonemaning farqlanadigan belgilari.

Fonemalarning integral belgilari - o'zaro qarama- qarshi qo'yilayotgan ikki fonemaning farqlanmaydigan belgilari.

Artikulyatsiya o'rne - talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a'zosi yoki shu a'zoning faol ishtirok etayotgan qismi.

Artikulyatsiya usuli – nutq a'zolari hosil qilgan to'siqdan havo oqimining portlab, sirg'alib yoki titrab o't

Kerakli jihoz va materiallar: ruchka, qalam, o'chirg'ich

ISHNI BAJARISH TARTIBI:

1. Artikulyatsion fonetika haqida umumiy tushuncha beradi.
2. Nutq tovushlari va nutq tovushlarining talaffuzi bilan bog'liq hodisalarni tavsiflaydi.

Takrorlash va mavzuni o'zlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Товушнинг физик-акустик табиатига нималар киради?
2. Товушнинг баландлиги нима?
3. Товушнинг баландлиги нима билан ўлчанади?
4. Товушнинг баланд-паст тарзда тўлқинланиши нимани ҳосил қилади?
5. Мелодика нима? Унинг нутқда қандай аҳамияти бор?
6. Мураккаб товушни қандай тушунасиз?
7. Товуш кучи нима? У қандай ўлчов бирлиги билан белгиланади?
8. Товуш кучининг тил ва нутқда қандай аҳамияти бор?
9. Товуш тембрини қандай тушунасиз?
10. Формант нима? У қандай аниқланади?
11. Нутқ аппаратларидан қайсилари резонаторлик (акустик филтрлик) функциясини бажаради?
12. Товуш тембри воситасида нималар фарқланади?
13. Товуш чўзиқлиги нима? Унинг қандай турлари бор?
14. Фонологик ва фонетик чўзиқликлар нимаси билан фарқланади?
15. Товушнинг сифат ва миқдор белгиларига нималар киради?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Fonemaning belgilari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) eshinishi B) aytilishi C) ma'no farqlashi D) tuzilishi.

2. Fonemaning eng muhim belgisi ko'rsatilgan javobni toping.

A) ma'no ajratishi B) akustikasi C) artikulyatsiyasi D) aytilishi va eshinishi.

3. Nutq tovushlarining balandligi nima bilan ta'minlanadi?

A) un paychalarining ko'p tebranishi bilan B) un paychalarining kuchli tebranishi bilan C) un paychalarining past tebranishi bilan D) un paychalarining kam tebranishi bilan

Kerakli adabiyotlar:

1. A. Abduazizov. Tilshunoslikka kirish. 1-qism. Fonetika va fonologiya. Toshkent. Universitet, 1999 yil. 6-8-betlar
2. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev, Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'zbekiston 1992 yil. 12-34 betlar.
3. Sodiqov. A. Abduazizov, M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1981 yil, 72-92 betlar.
4. Jamolxonov X. Fonetika, fonologiya va orfoepiya. Ma'ruzalar matni. 1999, 20-23-betlar
5. Mirtojdiyev M. O'zbek tili fonetikasi. Toshkent, 1998, 3-4-betlar

4-amaliy mashg'ulot:

FONEMA UNING SO'ZA MA'NOLARINI FARQLASHDAGI ROLI.

TOVUSH, HARF, FONEMA.

Dars maqsadi: talabalarga fonema va fonologik tushunchalar to'g'risida aniq tushuncha hosil qildirish.

Takrorlash va mavzuni o`zlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Fonologiya nimani o`rganadi?
2. Tovush va fonemaning farqini ayting.
3. Fonologiya haqida nimalarni bilasiz?
4. Fonema qanday belgilarga ega?
5. Fonetik akustika haqida qanday ma'lumotga egasiz?
6. Nutq tovushlari artikulyatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Nutq a'zolarining vazifalari nimalardan iborat?
8. O`zbek tilining fonetik vositalariga nimalar kiradi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Fonologiya o`rganadigan masalalar noto`g`ri berilgan javobni toping.

A) nutq tovushlarining hosil bo`lishi B) urg`u, bo`g`in, ohang C) nutq tovushlarining turlari, o`zgarishi D) nutq tovushlarining so`z ma`nolarini ajratishdagi roli.

2. Fonologiya bo`limida tovushlarning qaysi tomoni o`rganiladi?

A) lingvistik xususiyatlari B) ijtimoiy mohiyati C) fizik-akustik xususiyatlari D) ma`no farqlash xususiyatlari

3. Fonologiya bo`limida tovushlarning qaysi tomoni o`rganiladi?

A) qay tarzda hosil bo`lishi B) sifat tomonlari C) kuchi va cho`ziqligi D) ma`no farqlash xususiyatlari.

4. Tovushning xususiyatlari noto`g`ri berilgan javobni toping.

A) so`z va qo`shimchalar bir-birlaridan tovushlari bilan farq qiladi B) har qanday so`z tovushlardan tashkil topadi C) nutqning eng kichik bo`linmas ma`noli qismi D) birchasi to`g`ri.

5. Bir xil tovushlarning turlicha joylashuvidan hosil bo`lgan so`zlar qaysi javobda berilgan?

A) kitob, maktub, maktab B) suvrat, tasvir, tasavvur, musavvir C) uchqur, chuqur, urchuq D) ahhob, habib, muhib.

6. Bir tovushi bilan farq qiladigan so`zlar berilgan javobni toping.

A) kalom, qalam, malak B) borlik, borliq, torlik C) jodu, jodi, juda D) sohib, hisob, solib

7. Tovushlarning ortiqligi bilan farqlanadigan so`zlar berilgan javobni toping.

A) adab, abad, odob B) alam, qalam, a`lam C) stol, ustol, ustul D) mulk, molik, komil.

8. Fonemaning belgilari noto`g`ri berilgan javobni toping.

A) eshinishi B) aytilishi C) ma`no farqlashi D) tuzilishi.

9. Fonemaning eng muhim belgisi ko`rsatilgan javobni toping.

A) ma`no ajratishi B) akustikasi C) artikulyatsiyasi D) aytilishi va eshinishi.

A d a b i y o t l a r :

1. A. A. Abduazizov. Tilshunoslikka kirish. 1-qism. Fonetika va fonologiya. Toshkent. Universitet, 1999 yil.
2. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev, Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent. O`zbekiston 1992 yil. 12-34 betlar.
3. A. Sodiqov. A. Abduazizov, M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1981 yil, 72-92 betlar.

5- Amaliy mashg`ulot

MAVZU: ARTIKULYATSIYA O`RNI VA USULI.

Artikulyatsion va akustik fonetika.

Dars maqsadi: Talabalarda nutq tovushlarining talaffuz xususiyatlari, bunda nutq a'zolarining ishtiroki to`g`risida aniq tushuncha hosil qilish.

Tayanch tushunchalar:

Fonema – so`zlar, morfemalar va grammatik shakllarning tovush qobig`ini, binobarin, ma`nolarini ham farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik segment birlik.

Fonemalarning differentsial belgilari - o'zaro qarama-qarshi qo'yilayotgan ikki fonemaning farqlanadigan belgilari.

Fonemalarning integral belgilari - o'zaro qarama- qarshi qo'yilayotgan ikki fonemaning farqlanmaydigan belgilari.

Artikulyatsiya o'rni - talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a'zosi yoki shu a'zoning faol ishtirok etayotgan qismi.

Artikulyatsiya usuli – nutq a'zolari hosil qilgan to'siqdan havo oqimining portlab, sirg'alib yoki titrab o't

Kerakli jihoz va materiallar: ruchka,qalam,o'chirg'ich

ISHNI BAJARISH TARTIBI:

1. Artikulyatsion fonetika haqida umumiy tushuncha beradi.
2. Nutq tovushlari va nutq tovushlarining talaffuzi bilan bog'liq hodisalarni tavsiflaydi.

Takrorlash va mavzuni o'zlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Товушнинг физик-акустик табиатига нималар киради?
2. Товушнинг баландлиги нима?
3. Товушнинг баландлиги нима билан ўлчанади?
4. Товушнинг баланд-паст тарзда тўлқинланиши нимани ҳосил қилади?
5. Мелодика нима? Унинг нутқда қандай аҳамияти бор?
6. Мураккаб товушни қандай тушунасиз?
7. Товуш кучи нима? У қандай ўлчов бирлиги билан белгиланади?
8. Товуш кучининг тил ва нутқда қандай аҳамияти бор?
9. Товуш тембрини қандай тушунасиз?
10. Формант нима? У қандай аниқланади?
11. Нутқ аппаратларидан қайсилари резонаторлик (акустик филтрлик) функциясини бажаради?
12. Товуш тембри воситасида нималар фарқланади?
13. Товуш чўзиқлиги нима? Унинг қандай турлари бор?
14. Фонологик ва фонетик чўзиқликлар нимаси билан фарқланади?
15. Товушнинг сифат ва микдор белгиларига нималар киради?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Fonemaning belgilari noto'g' ri berilgan javobni toping.

A) eshitilishi B) aytilishi C) ma'no farqlashi D) tuzilishi.

2. Fonemaning eng muhim belgisi ko'rsatilgan javobni toping.

A) ma'no ajratishi B) akustikasi C) artikulyatsiyasi D) aytilishi va eshitilishi.

3. Nutq tovushlarining balandligi nima bilan ta'minlanadi?

A) un paychalarining ko'p tebranishi bilan B) un paychalarining kuchli tebranishi bilan C) un paychalarining past tebranishi bilan D) un paychalarining kam tebranishi bilan

Kerakli adabiyotlar:

1. A. Abduazizov. Tilshunoslikka kirish. 1-qism. Fonetika va fonologiya. Toshkent. Universitet, 1999 yil. 6-8-betlar
2. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev, Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'zbekiston 1992 yil. 12-34 betlar.
3. Sodiqov. A. Abduazizov, M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1981 yil, 72-92 betlar.
4. Jamolxonov X. Fonetika, fonologiya va orfoepiya. Ma'ruzalar matni. 1999,20-23-betlar
5. Mirtojdiyev M. O'zbek tili fonetikasi. Toshkent, 1998,3-4-betlar

6-amaliy mashg'ulot
ONA TILINING VOKALIZMI VA KONSONANTIZMI.

Nutq tovushlarining tasnifi. Unli tovushlar.

Dars maqsadi: Talabalarga nutq tovushining tasnifini, shuningdek unli tovushlar tasnifi haqida tushuncha hosil qilish.

Ishni bajarish tartibi:

1. Nutq tovushlarining tasnifiy belgilarini bajaradi.
2. Unli tovushlarining tasnifini qiladi.
3. Unli tovushlarning tavsifini qiladi.

Takrorlash va mavzuni o'zlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Vokalizm nima?
2. O'zbek adabiy tili vokalizmi qaysi fonemalarni o'z ichiga oladi?
3. Unli fonemalar undoshlardan qanday farqlanadi?
4. Unli fonemalar tasnifi nimalarga asoslanadi?
5. Lablarning ishtirokiga ko'ra unli larining turlari?
6. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra unli larining turlari?
7. Tilning gorizontal harakatiga ko'ra unli larining turlari?
8. Tasnifga asos bo'lgan qaysi belgilar fonologik xarakterda?
9. qaysi belgi o'z holicha fonologik xususiyatga ega emas?
10. O'zbek tilshunosligida hozirgi o'zbek adabiy tili vokalizmiga oid qanday masalalar munozarali bo'lib qolmoqda?
11. Unli fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari qanday farqlanadi? Ularning har biri alohida fonema deb qaraladimi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Nutq tovushlarining balandligi nima bilan ta'minlanadi?

A) un paychalarining ko'p tebranishi bilan B) un paychalarining kuchli tebranishi bilan C) un paychalarining past tebranishi bilan D) un paychalarining kam tebranishi bilan

2. Bir xil tovushlarning turlicha joylashuvidan hosil bo'lgan so'zlar qaysi javobda berilgan?

A) kitob, maktub, maktab B) suvrat, tasvir, tasavvur, musavvir C) uchqur, chuqur, urchuq D) ahbob, habib, muhib.

3. Qaysi javobda markaziy nerv sistemasining vazifasi to'g'ri ko'rsatilgan?

A) nutq a'zolari harakatini yuzaga keltiradi B) nutq a'zolarining harakatini boshqarib turadi C) markaziy nerv sistemasi nutq a'zolari sirasiga kirmaydi D) A,B

5. Qaysi tovushlar talaffuzida havo oqimining yo'nalishi o'zgaradi

A) y, z, s B) m,n,ng C) v, f, r D) sh, j, g'

6. Fonetik vositalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) urg'u, bo'g'in, tovush B) nutq tovushlari vergul, nuqta C) ohang, nutq a'zolari, pauza D) fonemalar, urg'u, ohang

7. Urg'uning vazifasi noto'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.

A) hózir (ravish) - hozír (sifat) V) qo'llár (a'zo) – qýllar (fe'l) C) nufýz (obro') – nýfus (aholi) D) ko'zlár(a'zo)- kýzlar(fe'l)

8. So'z ma'nosini farqlashda urg'uning qaysi turi ishtirok etadi?

A) logik urg'u B) leksik urg'u C) gap urg'usi D) ma'no urg'usi

7-amaliy mashg'ulot:

Undosh tovushlar tasnifi.

Dars maqsadi: Talabalarga nutq tovushlarining tasnifini o'rgatish.

Ishni bajarish tartibi:

1. Undosh tovushlarning akustik-artikulyatsion xususiyatlariga oid mashq bajaradi.

2. Undosh tovushlarining tasnifini bajaradi.

Takrorlash va mavzuni o'zlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Konsonantizm nima?
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili konsonantizmi qanday undoshlardan tarkib topgan?
3. Tovush fokusi nima? Uning ahamiyati?
4. O'zbek tilining qaysi tovushlari ikki fokusli? Sababi?
5. Undosh fonemalar qaysi belgilar asosida tasnif qilinadi?
6. Artikulyatsiya o'rniga ko'ra undoshlar tasnifi?
7. Artikulyatsiya usuliga ko'ra undoshlar tasnifi?
8. Un paychalari ishtirokiga ko'ra undoshlar tasnifi?
9. Ovoz va shovqin munosabatiga ko'ra undoshlar tasnifi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Nutq tovushlarining kuchi nimaga bog'liq?

A) un paychalarining tebranish vaqtiga B) un paychalarining tebranish o'rniga C) un paychalarining tebranish amplitudasiga D) un paychalarining tebranish joyiga

2. Nutq a'zolaridan qaysi birining hajmi va shakli nutq tovushlarining tembriga ta'sir qilmaydi?

A) og'iz bo'shlig'ining shakli B) burun bo'shlig'ining hajmi C) bo'g'iz bo'shlig'ining shakli D) tovush paychalarida shovqinning qanday hosil bo'lishi.

3. Nutq tovushlarining un paychalari tebranadigan vaqt bilan o'lchanadigan xususiyati qaysi javobda berilgan?

A) tembri B) cho'ziqligi C) kuchi D) balandligi

4. Qaysi javobda nutq a'zosi nomi noto'g'ri berilgan?

A) o'pka, bronxlar, nafas yo'li B) xalqasimon, piramidasimon, qalqonsimon va nayzasimon tog'aylar, un paychalari C) burun bo'shlig'i, markaziy nerv sistemasi. D) til, tanglay (qattiq va yumshoq), kichik til, lab va tishlar

5. Qaysi nutq a'zosi tovushni kuchaytirib berishga yordam beradi?

A) til B) un paychalari C) og'iz bo'shlig'i D) bo'g'iz bo'shlig'i

3. Qaysi nutq a'zosi ovoz manbasi hisoblanadi?

A) til B) un paychalari C) og'iz bo'shlig'i D) bo'g'iz bo'shlig'i

8-amaliy mashg'ulot:

NUTQNING ASOSIY BIRLIKLARI.

Nutqning fonetik bo'linishi.

Dars maqsadi: Talabalarga nutqning fonetik bo'linishini tushuntiradi.

Takrorlash va mavzuni o'zlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Urg'u nima? Uning qanday turlari bor?
2. Leksik urg'u nima? Uning qanday turlari bor? Ular o'zaro qanday farq qiladi?
3. Leksik urg'uning qanday amaliy ahamiyati bor?
4. Mantiqiy urg'u nima? U leksik urg'udan qanday farq qiladi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Bir tovushi bilan farq qiladigan so'zlar berilgan javobni toping.

A) kalom, qalam, malak B) borlik, borliq, torlik C) jodu, jodi, juda D) sohib, hisob, solib

2. Tovushlarning ortiqligi bilan farqlanadigan so'zlar berilgan javobni toping.

A) adab, abad, odob B) alam, qalam, a'lam C) stol, ustol, ustul D) mulk, molik, komil.

3. Fonemaning belgilari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) eshinishi B) aytilishi C) ma'no farqlashi D) tuzilishi.

4. Fonemaning eng muhim belgisi ko'rsatilgan javobni toping.

A) ma'no ajratishi B) akustikasi C) artikulyatsiyasi D) aytilishi va eshitilishi.

5. Nutq tovushlarining balandligi nima bilan ta'minlanadi?

A) un paychalarining ko'p tebranishi bilan B) un paychalarining kuchli tebranishi bilan C) un paychalarining past tebranishi bilan D) un paychalarining kam tebranishi bilan

Kerakli adabiyotlar :

1.A. A. Abduazizov. Tilshunoslikka kirish. 1-qism. Fonetika va fonologiya. Toshkent. Universitet, 1999 yil. 5-7

2.U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev, Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'zbekiston 1992 yil. 8-12 betlar.

3.A. Sodiqov. A. Abduazizov, M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1981 yil, 12-14 betlar.

9-amaliy mashg'ulot:

FONOLOGIYA. ASOSIY FONOLOGIK TUSHUNCHALAR. FONOLOGIYA NAZARIYALARI.

Dars maqsadi: talabalarga fonema va fonologik tushunchalar to'g'risida aniq tushuncha hosil qildirish.

Takrorlash va mavzuni o'zlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Fonologiya nimani o'rganadi?
2. Tovush va fonemaning farqini ayting.
3. Fonologiya haqida nimalarni bilasiz?
4. Fonema qanday belgilarga ega?
5. Fonetik akustika haqida qanday ma'lumotga egasiz?
6. Nutq tovushlari artikulyatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Nutq a'zolarining vazifalari nimalardan iborat?
8. O'zbek tilining fonetik vositalariga nimalar kiradi?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Fonologiya o'rganadigan masalalar noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) nutq tovushlarining hosil bo'lishi B) urg'u, bo'g'in, ohang C) nutq tovushlarining turlari, o'zgarishi D) nutq tovushlarining so'z ma'nolarini ajratishdagi roli.

2. Fonologiya bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?

A) lingvistik xususiyatlari B) ijtimoiy mohiyati C) fizik-akustik xususiyatlari D) ma'no farqlash xususiyatlari

3. Fonologiya bo'limida tovushlarning qaysi tomoni o'rganiladi?

A) qay tarzda hosil bo'lishi B) sifat tomonlari C) kuchi va cho'ziqligi D) ma'no farqlash xususiyatlari.

4. Tovushning xususiyatlari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) so'z va qo'shimchalar bir-birlaridan tovushlari bilan farq qiladi B) har qanday so'z tovushlardan tashkil topadi C) nutqning eng kichik bo'linmas ma'noli qismi D) birchasi to'g'ri.

5. Bir xil tovushlarning turlicha joylashuvidan hosil bo'lgan so'zlar qaysi javobda berilgan?

A) kitob, maktub, maktab B) suvrat, tasvir, tasavvur, musavvir C) uchqur, chuqur, urchuq D) ahhob, habib, muhib.

6. Bir tovushi bilan farq qiladigan so'zlar berilgan javobni toping.

A) kalom, qalam, malak B) borlik, borliq, torlik C) jodu, jodi, juda D) sohib, hisob, solib

7. Tovushlarning ortiqligi bilan farqlanadigan so'zlar berilgan javobni toping.

A) adab, abad, odob B) alam, qalam, a'lam C) stol, ustol, ustul D) mulk, molik, komil.

8. Fonemaning belgilari noto'g'ri berilgan javobni toping.

A) eshitilishi B) aytilishi C) ma'no farqlashi D) tuzilishi.

9. Fonemaning eng muhim belgisi ko'rsatilgan javobni toping.

A) ma'no ajratishi B) akustikasi C) artikulyatsiyasi D) aytilishi va eshinishi.

A d a b i y o t l a r :

- 1.A. A. Abduazizov. Tilshunoslikka kirish. 1-qism. Fonetika va fonologiya. Toshkent. Universitet, 1999 yil.
2. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Raxmatullayev, Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'zbekiston 1992 yil. 12-34 betlar.
3. A. Sodiqov. A. Abduazizov, M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 1981 yil, 72-92 betlar.

10-amaliy mashg'ulot:

ORFOEPIYA

Mavzu rejasi

1. Orfoepiya- to'g'ri talaffuz qonun-qoidalarini o'rganuvchi soha.
2. Orfoepiya yaqida umumiy ma'lumot.

Dars maqsadi: Talabalarga orfografiya va orfoepiya, grafika haqida ma'lumot berish.

Takrorlash va mavzuni o'zlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

- 1.Orfoepiya nima?
- 2.Orfoepiyaning adabiy tildagi ahamiyati?
- 3.Unli tovushlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?
- 4.Unlilar qanday pozitsiyada ingichka talaffuz qilinadi?
- 5.Unlilar qanday undoshlar ta'sirida yo'g'on talaffuz etiladi?
- 6.B,d undoshlari qanday pozitsiyada jarangsiz p,t tarzida talaffuz etiladi?
- 7.J,z undoshlari qanday o'rinlarda jarangsizlanadi?
- 8.B,q undoshlarining sirg'aluvchi "v" va "g"ga o'tishi qanday holatda yuz beradi?
- 9.qanday paytlarda o'zak oxiridagi "k" undoshi "g"ga, "q" undoshi "g"ga o'tadi?
- 10."G" undoshi bilan boshlangan affikslar qanday so'zlarga qo'shilganda "--ka", "-kan", "-qa", "-qan" tarzida talaffuz qilinadi?
- 11.qanday so'zlar o'zagidagi "o" fe'l yasovchilar qo'shilganda "a" ga o'tadi?
- 12.Boshqa tillardan olingan o'zlashma so'zlar orfoepiyasi haqida nimalarni bilasiz?

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Nutq tovushlarining yozuvda ifodalanish usullarini qaysi bo'lim o'rgatadi?

A) orfoepiya B) orfografiya C) grafika D) fonetika

2. Arab yozuvida bitilgan eng eski turkiy yodgorliklar nechanchi asrga taalluqli va ular qaysilar?

A) VII asrlarga, O'rxun-Enasoy yodgorliklari B) XXV asrlarga, A.Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asarlari C) XI - XIII asrlarga, Sakkokiy va Atoiyning ba'zi she'rlari D) XI asrga, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Namangan va Kohira nusxalari, Maxmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari

3. Lotin yozuvi asosidagi harflar tartibidan foydalanib, yurtimning so'zi keltirib chiqarilgan qatorni toping.

A) 23,20,17,19,8,12,13,8,13. B)23,20,17,19,8,12,13,8,29

C) 23,17,19,8,12,13,8,29 D)22,19,17,18,8,12,13,8,29

4. Qaysi qatordagi so'zlarda «ng» harfi bir tovushni ifodalamoqda?

A) tanga, jang, menga B) zang, ko'ndalang, ingramoq

C) durang, onangiz, nonga D) kongress, menga, singil

5. Baland boloxonali uy. Ushbu birlikda qanday holatda uying balandligi anglashiladi?

A) baland soʻzidan soʻng pauza boʻlsa B) boloxonali soʻzidan keyin pauza boʻlsa C) uchala soʻz orasida pauza mavjud boʻlmasa D) har qanday holatda ham uying balandligi anglashiladi

6. Qaysi qatordagi soʻzlarning ikkinchisi notoʻgʻri yozilgan?

A) ajdaho va ajdarho B) bekik va berkik C) bemaʼnilik va bemaʼnolik D) barcha javoblarda ikkinchi soʻzlar toʻgʻri yozilgan

7. Notoʻgʻri yozilgan soʻzlar qatorini belgilang.

A) tasavuf, tasaruf, tasavur B) xohish, mavhum, aqalli C) avf, ayuhannos, moneʼ D) A, C.

8. Qaysi qatorda tutuq belgisining qoʻllanish oʻrniga koʻra xatoga yoʻl qoʻyilgan?

A) maʼzur, maʼbud, maʼyus B) maʼshum, maʼsuliyat, maʼsud
C) maʼmur, maʼsum, maʼshuq D) malʼun, minbaʼd

9. Fonetik prinsip(tamoyil) asosida yozilgan soʻzlarni belgilang.

1) yasha; 2) yayra; 3) yashna; 4) oʻyna; 5) ikkala; 6) uchala;

7) yamoq; 8) yongʻoq; 9) yigʻloq; 10) oʻyinchoq.

A) 1,4,5,7,9 B) 1,2,3,5,6 C) 5,7,9 D) 1,5,7,9,10

10. Oʻzak va qoʻshimchalarning yozilishida bir xillikni taʼminlaydigan prinsip (yozuv, tamoyil)ga...

A) morfologik prinsip deyiladi B) fonetik prinsip deyiladi
C) anʼanaviy prinsip deyiladi D) shakliy prinsip deyiladi

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Jamoa. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. T.1992.

2.Y.Abdullayev "Sovgʻa" yangi alifbo va imlodan qoʻllanma. "Oʻqituvchi",Toshkent,1996 yil.

3.Y.Abdullayev "Hamrohimi" yangi alifbo va imlodan qoʻllanma. "Oʻqituvchi",Toshkent,1996 yil.

4.S.Rizayev "Yangi alifboni oʻrganamiz","Xadis"dan 70 namuna. «Kamalak" 1996 yil.

5. R.Jamonov "Lotin alifbosi" oʻquv qoʻllanma. Toshkent. 1996 y.

6. M. Mukarramov,Yu.Toshbekovlar "Imlo qoidalari yuzasidan mashqlar toʻplami" Toshkent. 1996 y.

11-amaliy mashgʻulot:

GRAFIKA.

Mavzu rejasi

1. Grafika - toʻgʻri yozish qonun-qoidalarini oʻrganuvchi soha.

2. Grafika- harf bilan tovush oʻrtasidagi munosabatlarni ifodalovchi qoidalar tizimidir.

Dars maqsadi: Talabalarga orfografiya va orfoepiya, grafika haqida maʼlumot berish.

Takrorlash va mavzuni oʻzlashtirilganini tekshirish uchun savollar:

1. Yozuv nima?

2. Kishilik tarixida qanday yozuvlar qoʻllanilgan?

3. Oʻzbek xalqi ajdodlari qaysi yozuvlardan foydalangan?

4. Orfografiya nima? Orfografiyaning asosiy imlo qoidalarini ayting.

5. Imlo qoidalari qanday tamoyillar asosida ishlab chiqiladi?

6. Harf va belgining farqini ayting. Oʻzbek alifbosida nechta harf va nechta belgi bor?

7. Alfavit nima? Oʻzbek yozuvining oʻziga xos xususiyatlarini ayting.

8. Fonetik tamoyil asosida ishlab chiqilgan asosiy imlo qoidalarini

9. Morfologik tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.

10. Shakliy anʼanaviy tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.

11. Grafik tamoyil nimani belgilab beradi?

12. Bosh harflar qanday hollarda qoʻllanadi?

13. Qoʻshib, ajratib, chiziqcha bilan yoziladigan soʻzlar imlosini tushuntiring

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Nutq tovushlarining yozuvda ifodalanish usullarini qaysi boʻlim oʻrgatadi?

A) orfoepiya B) orfografiya C) grafika D) fonetika

2. Arab yozuvida bitilgan eng eski turkiy yodgorliklar nechanchi asrga taalluqli va ular qaysilar?

A) VII asrlarga, O'rxun–Enasoy yodgorliklari B) XXV asrlarga, A.Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlari C) XI – XIII asrlarga, Sakkokiy va Atoiyning ba'zi she'rlari D) XI asrga, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarining Namangan va Kohira nusxalari, Maxmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari

3. Lotin yozuvi asosidagi harflar tartibidan foydalanib, yurtimning so'zi keltirib chiqarilgan qatorni toping.

A) 23,20,17,19,8,12,13,8,13. B)23,20,17,19,8,12,13,8,29

C) 23,17,19,8,12,13,8,29 D)22,19,17,18,8,12,13,8,29

4. Qaysi qatordagi so'zlarda «ng» harfi bir tovushni ifodalamoqda?

A) tanga, jang, menga B) zang, ko'ndalang, ingramoq

C) durang, onangiz, nonga D) kongress, menga, singil

5. Baland boloxonali uy. Ushbu birlikda qanday holatda uying balandligi anglashiladi?

A) baland so'zidan so'ng pauza bo'lsa B) boloxonali so'zidan keyin pauza bo'lsa C) uchala so'z orasida pauza mavjud bo'lmasa D) har qanday holatda ham uying balandligi anglashiladi

6. Qaysi qatordagi so'zlarning ikkinchisi noto'g'ri yozilgan?

A) ajdaho va ajdarho B) bekik va berkik C) bema'nilik va bema'nolik D) barcha javoblarda ikkinchi so'zlar to'g'ri yozilgan

7. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini belgilang.

A) tasavuf, tasaruf, tasavur B) xohish, mavhum, aqalli C) avf, ayuhannos, mone' D) A, C.

8. Qaysi qatorda tutuq belgisining qo'llanish o'rniga ko'ra xatoga yo'l qo'yilgan?

A) ma'zur, ma'bud, ma'yus B) ma'shum, ma'suliyat, ma'sud

C) ma'mur, ma'sum, ma'shuq D) mal'un, minba'd

9. Fonetik prinsip(tamoyil) asosida yozilgan so'zlarni belgilang.

1) yasha; 2) yayra; 3) yashna; 4) o'yna; 5) ikkala; 6) uchala;

7) yamoq; 8) yong'oq; 9) yig'loq; 10) o'yinchoq.

A) 1,4,5,7,9 B) 1,2,3,5,6 C) 5,7,9 D) 1,5,7,9,10

10. O'zak va qo'shimchalarning yozilishida bir xillikni ta'minlaydigan prinsip (yozuv, tamoyil)ga...

A) morfologik prinsip deyiladi B) fonetik prinsip deyiladi

C) an'anaviy prinsip deyiladi D) shakliy prinsip deyiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jamolhonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.1992.

2.Y.Abdullayev "Sovg'a" yangi alifbo va imlodan qo'llanma. "O'qituvchi",Toshkent,1996 yil.

3.Y.Abdullayev "Hamrohim" yangi alifbo va imlodan qo'llanma. "O'qituvchi",Toshkent,1996 yil.

4.S.Rizayev "Yangi alifboni o'rganamiz","Xadis"dan 70 namuna. «Kamalak" 1996 yil.

5. R.Jamonov "Lotin alifbosi" o'quv qo'llanma. Toshkent. 1996 y.

6. M. Mukarramov, Yu.Toshbekovlar "Imlo qoidalari yuzasidan mashqlar to'plami" Toshkent. 1996 y.

12-amaliy mashg'ulot:

ORFOGRAFIYA

Mavzu rejasi

1. Orfografiya- to'g'ri yozish qonun-qoidalarini o'rganuvchi soha.

2. Orfografiya prinsiplari

3. Grafika- harf bilan tovush o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi qoidalar tizimidir.

Dars maqsadi: Talabalarga orfografiya va orfoepiya, grafika haqida ma'lumot berish.

Takrorlash va mavzuni o'zlashtirilganini tekshirish uchun savollar

1. Yozuv nima?
2. Kishilik tarixida qanday yozuvlar qo'llanilgan?
3. O'zbek xalqi ajdodlari qaysi yozuvlardan foydalangan?
4. Orfografiya nima? Orfografiyaning asosiy imlo qoidalarini ayting.
5. Imlo qoidalarini qanday tamoyillar asosida ishlab chiqiladi?
6. Harf va belgining farqini ayting. O'zbek alifbosida nechta harf va nechta belgi bor?
7. Alfavit nima? Uning ahamiyatini ayting. O'zbek yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
8. Fonetik tamoyil asosida ishlab chiqilgan asosiy imlo qoidalarini va ularni imlo qoidalarining qaysi turiga kirishini ayting.
9. Morfologik tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
10. Shakliy an'anaviy (tarixiy an'anaviy) tamoyilga asoslanadigan imlo qoidalarini ayting.
11. Grafik tamoyil nimani belgilab beradi?
12. Bosh harflar qanday hollarda qo'llanadi?
13. Qo'shib, ajratib, chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar imlosini tushuntiring

Mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:

1. Nutq tovushlarining yozuvda ifodalanish usullarini qaysi bo'lim o'rgatadi?

orfoepiya B) orfografiya C) grafika D) fonetika

2. Arab yozuvida bitilgan eng eski turkiy yodgorliklar nechanchi asrga taalluqli va ular qaysilar?

A) VII asrlarga, O'rxun–Enasoy yodgorliklari

B) XXV asrlarga, A. Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlari

C) XI – XIII asrlarga, Sakkokiy va Atoiyning ba'zi she'rlari

D) XI asrga, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarining Namangan va Kohira nusxalari, Maxmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari

Lotin yozuvi asosidagi harflar tartibidan foydalanib, yurtimning so'zi keltirib 3. chiqarilgan qatorni toping.

A) 23,20,17,19,8,12,13,8,13. B) 23,20,17,19,8,12,13,8,29

C) 23,17,19,8,12,13,8,29 D) 22,19,17,18,8,12,13,8,29

4. Qaysi qatordagi so'zlarda «ng» harfi bir tovushni ifodalamoqda?

A) tanga, jang, menga B) zang, ko'ndalang, ingramoq

C) durang, onangiz, nonga D) kongress, menga, singil

Baland boloxonali uy. Ushbu birlikda qanday holatda uyning balandligi anglashiladi?

5. A) baland so'zidan so'ng pauza bo'lsa B) boloxonali so'zidan keyin pauza bo'lsa C) uchala so'z orasida pauza mavjud bo'lmasa D) har qanday holatda ham uyning balandligi anglashiladi

6. Qaysi qatordagi so'zlarning ikkinchisi noto'g'ri yozilgan?

ajdaho va ajdarho B) bekik va berkik C) bema'nilik va bema'nolik D) barcha javoblarda ikkinchi so'zlar to'g'ri yozilgan

7. Noto'g'ri yozilgan so'zlar qatorini belgilang.

A) tasavuf, tasaruf, tasavur B) xohish, mavhum, aqalli C) avf, ayuhannos, mone' D) A, C.

8. Qaysi qatorda tutuq belgisining qo'llanish o'rniga ko'ra xatoga yo'l qo'yilgan?

ma'zur, ma'bud, ma'yus B) ma'shum, ma'suliyat, ma'sud

ma'mur, ma'sum, ma'shuq D) mal'un, minba'd

9. Fonetik prinsip (tamoyil) asosida yozilgan so'zlarni belgilang.

yasha; 2) yayra; 3) yashna; 4) o'yna; 5) ikkala; 6) uchala;

7) yamoq; 8) yong'oq; 9) yig'loq; 10) o'yinchoq.

1,4,5,7,9 B) 1,2,3,5,6 C) 5,7,9 D) 1,5,7,9,10

10. O'zak va qo'shimchalarning yozilishida bir xillikni ta'minlaydigan prinsip (yozuv, tamoyil)ga...

A) morfologik prinsip deyiladi B) fonetik prinsip deyiladi

C) an'anaviy prinsip deyiladi D) shakliy prinsip deyiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Jamolhonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T.1992.
2. Y. Abdullayev "Sovg`a" yangi alifbo va imlodan qo`llanma. "O`qituvchi", Toshkent, 1996 yil.
3. Y. Abdullayev "Hamrohim" yangi alifbo va imlodan qo`llanma. "O`qituvchi", Toshkent, 1996 yil.
4. S. Rizayev "Yangi alifboni o`rganamiz", "Xadis" dan 70 namuna. «Kamalak» 1996 yil.
5. R. Jamonov "Lotin alifbosi" o`quv qo`llanma. Toshkent. 1996 y.
6. M. Mukarramov, Yu. Toshbekovlar "Imlo qoidalari yuzasidan mashqlar to`plami" Toshkent. 1996 y.

II SEMESTR
ONA TILI VA ADABIYOT (LEKSIKOLOGIYA) FANIDAN MA'RUZA
MASHG'ULOTLARI
MAVZU: LEKSIKOLOGIYA-TILNING LUG'AT BOYLIгинINI O'RGANUVCHI SOHASI.

Reja:

1. Leksikologiyaning ob'ekti, predmeti, vazifalari.
2. So'zning leksik birlik sifatidagi mohiyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar :

Leksika, leksikologiya, so'z, leksema, dialektal leksika, ilmiy leksika, vulgar leksika, kasb-hunar leksikasi, umumiy leksikologiya, xususiy leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, frazeologiya.

1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga tilning lug'at sathini o'rganuvchi sohasi "Leksikologiya" haqida, uning predmeti, maqsad va vazifalari haqida ma'lumot berish.

1 – savolning bayoni:

Leksikologiyaning ob'ekti tilning lug'at boyligidir. Bu boyluk tilshunoslikda leksika deb ataladi, u muayyan tildagi barcha so'zlarni va shu so'zlar bog'lanishidan tarkib topgan ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'z ichiga oladi. Leksika atamasi ba'zan tor ma'noda ham qo'llanadi: dialektal leksika, kasb-hunar leksikasi, ilmiy leksika, vulgar leksika, Tohir Malik asarlari leksikasi kabi.

Leksikologiyaning predmeti – lug'at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini tilning boshqa satxlari (fonetik satx, grammatik sath) bilan aloqasini tadqiq qilish.

Leksikologiyaning vazifalari:

a) muayyan til lug'at boyligidagi eskirish va yangilanish jarayonlarini, bu jarayonlarda lisoniy va nolisoniy (lingvistik va ekstralingvistik) omillarning ishtirokini o'rganish;

b) lug'aviy birliklarning funksional semantik tavsifini berish, eskirgan va yangi zamonaviy qatlamlarni tematik guruhlari vva mikrosistemalarni aniqlash, lisoniy va uslubiy xususiyatlarni yoritish;

v) talabalarni leksikaga oid nazariy bilimlar bilan qurollantirish, ularda leksik-isemantik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish.

Leksikologiyaning turlari. Leksikologiya barcha tillarning lug'at boyligi taraqqiyotiga xos masalalar bilan birga ayrim olingan bir tilning lug'at boyligi masalalari bilan ham shug'ullanadi. Shunga ko'ra u dastlab 2 turga – umumiy va xususiy leksikologiyaga bo'linadi.

Umumiy leksikologiyada barcha tillarning lug'at boyligi masalalar bilan ham shug'ullanadi. Til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlarining lug'at tarkibiga ta'siri, buning lug'at tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib kelishi, lug'aviy birliklarning zamoniylig, tarixiylik, ekspressiv-stilistik jihatdan qatlamlanishi, ma'lum tematik va leksik-semantik guruhlarga uyushishi kabi jarayonlar barcha tillarga xosdir.

Xususiy leksikologiyada muayyan bir tilning lug'at boyligi o'rganiladi: O'zbek tili leksikologiyasi, rus tili leksikologiyasi, nemis tili leksikologiyasi kabi.

Xususiy leksikologiya muayyan bir tilning lug'at boyligini tadqiq qilishda umumiy leksikologiya tajribalari va xulosalariga tayanadi. U o'z navbatida sinxron va diaxron leksikologiya kabi turlarga bo'linadi.:

A) tavsifiy leksikologiyada ayrim olingan bir tilning, masalan o'zbek tilining leksikasi, statik holatda shu til leksikasining avvalgi taraqqiyot dinamikasiga bog'lanmay o'rganiladi.

B) tarixiy leksikologiyada ayrim olingan bir tilning leksikasi dinamik holatda-tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog'lab o'rganiladi, shunga ko'ra u diaxron leksikologiya deb yuritiladi.

Hozirgi o'zbek tili leksikologiyasi asosan tavsifiy leksikologiyadir, ammo unda tarixiy leksikologiyaga murojaat etish hollari ham bo'lib turadi.

Nazorat savollari:

1. Leksika nima ?
2. Leksikologiya qanday fan ?
3. Vulgar leksika nima ?
4. Ilmiy leksika deganda nimani tushunasiz ?

5. Xususiy leksikologiya nimani o'rganadi ?
6. Umumiy leksikologiya nimani o'rganadi ?
7. Leksikologiyaning vazifalarini ayting.
8. Sinxron leksikologiya nimani o'rganadi ?
9. Diaxron leksikologiya nimani o'rganadi ?
10. Dialektal leksika nima ?

2-savolning bayoni:

So'z tilning eng muhim nominativ birligidir, chunki u borliqdagi narsa-buyumlarni, predmet sifatida tasavvur qilinadigan mavhum tushunchalarni, harakat-holatni, rang-tus, maza-ta'm, hajm-miqdor, xislat kabi belgi-xususiyatlarni nomlaydi: *daraxt* (predmet nomi), *ong* (mavhum tushuncha nomi), *ishlamoq* (harakat nomi), *oq* (rang-tus nomi), *shirin* (maza-ta'm nomi), *katta* (hajm nomi), *bash* (miqdor nomi) kabi. Tilning lug'at boyligidagi bunday so'zlar leksik birliklar sanaladi.

Tilda nomlash xususiyatiga ega bo'lmagan, binobarin, leksik birlik sanalmaydigan so'zlar ham bor, ular faqat grammatik yoki modal ma'nolarni ifodalaydi, shunga ko'ra grammatik so'zlar yoki morfema-so'zlar hisoblanadi: yordamchi so'zlar, modal so'zlar, taqlidiy so'zlar, undovlar, olmoshlar shular jumlasidandir. Bular tilshunoslikda ifodalovchi so'zlar (undovlar, modal so'zlar, yuklamalar), ko'rsatuvchi so'zlar (bog'lovchilar, ko'makchilar), olmoshlovchi so'zlar (olmoshlar) va atovchi so'zlar (atoqli otlarning ma'lum turlari) kabi guruhlariga ajratiladi. Leksik mazmunli so'zlar leksikologiyada, grammatik mazmunli so'zlar esa grammatikada (so'z turkumlari bilan bog'lab) o'rganiladi.

Tilshunoslikda leksik mazmunli so'zlarning strukturasi har xil ta'riflanmoqda: ayrim manbalarda leksik mazmunli so'zlarning ifoda plani (tovushlardan tarkib topgan moddiy tomoni) *leksema* deb, mazmun plani (ifodalanuvchisi) esa *semema* deb ta'riflanadi. Demak, leksema va semema leksik birlikning (so'zning) o'zaro aloqada bo'lgan ikki tomoni ekanligi aytiladi.¹ Boshqa manbalarda esa leksema so'zning ifoda planigina emas, balki uning ifoda va mazmun planlari birligidan iborat yaxlit butunlik ekanligi ta'kidlanadi. Bu butunlik nominativ funktsiyadagi so'z yoki so'z birikmasi shaklida bo'ladi. U onomasiologiyada tilning lug'at tarkibidagi bir komponent (*vokabula*) sifatida, semasiologiyada esa ma'lum ma'nolar tarkibidan iborat birlik (*semantema*) sifatida o'rganiladi.¹

O'zbek tilshunosligida leksemaning ifoda va mazmun planlari birligidan iborat bir butun leksik birlik sifatida qaralishi keng tarqalgan, bunda uning ifoda plani (tovush tomoni) **nomema** termini bilan, mazmun plani esa **semema** atamasi bilan nomlanmoqda. Mazkur darslikda ham shu an'anaga amal qilindi.

Leksemalarning leksik birlik sifatidagi tavsifida quyidagi belgi-xususiyatlarning alohida o'rni bor:

1. Har qanday leksema ikki tomonning - ifoda va mazmun planlarining (nomema va sememaning) birligidan tarkib topadi:

a) leksemaning ifoda plani uning fonetik qobig'idir (fonemalar, bo'g'inlar va so'z urg'usidan iborat moddiy-material shakli). Masalan, *quloq* leksemasining ifoda planida 5 ta fonema (q,u,l,o,q), 2 ta bo'g'in (qu-loq) va 1 ta so'z urg'usi (qulóq) bor.

b) leksemaning mazmun plani deyilganda uning ma'nosi (yoki ma'nolari) va uslubiy bo'yoqlari (ma'no qirralari) nazarda tutiladi. Masalan, *quloq* leksemasining mazmun planida quyidagi leksik ma'nolar bor: «eshitish a'zosi» (*odamning qulog'i*), «dutor, tanbur torlarini sozlash uchun o'rnatilgan muruvvatlar» (*dutorning qulog'i*), «qozonning yon tomonlaridan chiqarilgan tutqich-dastalar» (*qozonning qulog'i*) kabi. *Chehra* leksemasining mazmun planida esa leksik ma'no qo'shimcha ottenka – uslubiy bo'yoq bilan qoplangan. Bu bo'yoq kishi kayfiyati, ruhiy holati yoki xulq-atvorining yuzdagi aksini ifodalaydi: *chehra degan ko'ngilning oynasidir*. (Hamza).

2. Leksemalarga xos muhim belgilardan yana biri shuki, ularning har biri u yoki bu leksik-grammatik guruhlariga mansub bo'ladi: **predmet nomlari** ot turkumiga, **belgi-xususiyat**

nomlari sifat turkumiga, **miqdor** anglatuvchi soʻzlar son turkumiga, **harakat-holat mazmunli** soʻzlar esa feʼl turkumiga kiradi. Bunday mansublik leksemalarning nutqdagi grammatik shakllarini belgilaydi: otlar egalik, kelishik, koʻplik yoki birlik shakllarida, sifatlar oddiy, orttirma yoki qiyosiy daraja shakllarida, feʼllar shaxs-son, zamon, mayl, boʻlishli yoki boʻlishsizlik oʻrtasidagi aloqadorlikdan kelib chiqadi.

3. Leksemalar albatta yaxlitlangan, bir butun birlik boʻladi, shu xususiyati bilan grammatik shakllardan, soʻzlar birikmasi va gapdan farq qiladi. Chunonchi, *maktab* leksemasi leksik birlik sifatida oʻzgarmasdir, ammo uning grammatik shakllari nutqda oʻzgarib turadi: *maktabning*, *maktabni*, *maktabga*, *maktabda*, *maktabdan* kabi. Shuningdek, «beshta olma» birikmasini «beshta qizil olma» deb qoʻllash (birikma tarkibiga «qizil» soʻzini qoʻshish) mumkin, ammo *maktab* leksemasi tarkibiga boshqa boʻgʻin yoki soʻz kiritilmaydi.

4. Leksemada bitta bosh (asosiy) urgʻu boʻladi, u shu leksemaning yaxlitligini, bir butun birlik boʻlishini taʼminlovchi muhim supersegment birlikdir: *qovóq*, *oshqovóq*, *temúr*, *temúrbetón* (soʻnggi soʻzning ikkinchi boʻgʻinida ikkinchi darajali urgʻu, oxirgi boʻgʻinda esa bosh urgʻu qoʻllangan) kabi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkin: har qanday leksema shakl va maʼno butunligiga ega. Leksemaning shakli uning tashqi formasi, mazmun plani esa shu leksemaning ichki formasi boʻladi. Shakl maʼnoni borliq tusiga kiritadi, shu orqali maʼnoning tilda va inson ongida yashashini taʼminlaydi.

Nazorat savollari:

1. Nima uchun soʻz nominativ birlik sanaladi?
2. Leksik soʻzlar va grammatik soʻzlar qanday farqlanadi?
3. Leksik va grammatik mazmunli soʻzlar tilshunoslikning qaysi boʻlimlarida oʻrganiladi?
4. *Leksema*, *nomema*, *semema* atamalarini tushuntiring.
5. Leksemaning ifoda va mazmun planlari haqida maʼlumot bering.
6. Tub va yasama soʻzlarning ifoda planlari qanday farqlanadi?
7. Leksemaning tashqi va ichki formalari haqida maʼlumot bering.
8. Leksemaning ifoda va mazmun planlari dialektikaning qaysi kategoriyalariga mos?
9. Leksemaning yaxlit bir butun birlik ekanligi nimalarda namoyon boʻladi?
10. Leksemaning leksik birlik sifatidagi asosiy belgilarini tushuntiring.

MAVZU: BIR MAʼNOLI VA KOʻP MAʼNOLI SOʻZLAR. Soʻzlarning semantik tuzilishi, oʻzgarishi va taraqqiyoti

Reja:

1. Leksik maʼno va tushuncha. Uslubiy boʻyoq.
2. Leksik qoʻllash. Soʻzning uzual va okkazional maʼnolari.
3. Soʻz maʼnosining oʻzgarishi va koʻchma maʼnoning hosil boʻlishi.
4. Soʻz maʼnosini torayishi va kengayishi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Soʻz. Tushuncha. Soʻzning semantik tuzilishi. Soʻz maʼnolarining turlari. Leksik maʼno. Soʻzning uzual va okkazional maʼnolari. Termin. Uslubiy baho. Leksik qoʻllash. Maʼno koʻchishi. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Vazifadoshlik. Maʼnoning torayishi va kengayishi.

1-asosiy savolning bayoni:

Soʻzning tovush tomoni fonetikada, grammatik tomoni grammatikada tekshiriladi, tasvirlanadi; maʼno xususiyatlari esa leksikologiyada oʻrganiladi.

LEKSIK MAʼNO. Lugʻaviy birlikning mazmun plani ikki hodisadan-lugʻaviy maʼno va stilistik (emotsional-ekspressiv) bahodan tarkib topadi. Lugʻaviy maʼno leksemaga nisbatan *leksik maʼno* deb, *frazemaga* nisbatan **frazeologik maʼno** deb yuritiladi.

Leksemani gavdalantirgan tovushlar tizimining voqelikka nisbatan beriladigan lugʻaviy mazmuniga (nimadir nomlashiga, ifodalashiga) *leksik maʼno* deyiladi. Masalan, *kuz* leksemasi **yoʻz** bilan qish orasidagi faslni nomlaydi, **oq** leksemasi qoraning ziddi boʻlgan rangni bildiradi, **toʻrt** leksemasi **uch** bilan **besh** orasidagi butun miqdorning nomi boʻlib xizmat qiladi: **soʻzlamoq**, **uxlamoq** leksemalari maʼlum harakat va holatni anglatadi.

Tovush o'zicha leksik mazmunga ega bo'lmaydi. Buning uchun tovushlarning ma'lum tuzumi voqelikdagi biror narsa, belgi yoki ularning munosabati haqidagi tushuncha bilan bog'lanishi, nimanidir nomlashi, ifodalashi shart. Leksik ma'no ma'lum tovushlar tuzumi bilan voqelik orasidagi bog'lanishdan kelib chiqadi. Bunday bog'lanish esa, o'z navbatida, shu tilda so'zlashuvchilar tomonidan e'tirof etilgan bo'lishi shart.

Leksik ma'no va tushuncha. Leksik ma'no bilan u bildiradigan voqelik boshqa-boshqa hodisalardir. Leksik ma'noda voqelikdagi narsa, belgi yoki shular orasidagi munosabatning o'zi emas, balki shular haqidagi tushuncha aks etadi. Shunga ko'ra leksik ma'no deb, odatda, tushuncha ta'kidlanadi.

Leksik ma'no bilan tushuncha o'zaro uzviy bog'liq. Ammo shu asosda ularni tenglashtirish yaramaydi. Leksik ma'no- til qurilishiga xos hodisa, tushuncha-tafakkurga xos hodisa. Bularning har ikkisi umumlashirish, abstraktsiya asosida tug'iladi. Lekin tushuncha fikrlash qobiliyatining natijasi sifatida insonga nisbatan belgilansa, leksik ma'noga xos umumlashirish har bir tilning o'z doirasida voqe bo'ladi. Shunga ko'ra leksik ma'no har bir til uchun, odatda, xususiy bo'ladi. Masalan, bir tushuncha-“ko'rish a'zosi” tushunchasi rus tilida glaz leksemasi bilan, o'zbek tilida ko'z leksemasi bilan anglatiladi. Shu jihatdan teng keluvchi bu ikki leksema o'z leksik ma'nolari sistemasi bilan keskin farq qiladi.

Uslubiy bo'yoq. Leksemaning mazmun planida, leksik ma'nodan tashqari, uslubiy buyog'i ham hisobga olinadi. Buni misollar asosida tushuntirib bersak. Masalan, ota va otajon so'zlari leksik ma'no anglatishi jihatidan bir xil. Bu so'zlar o'zaro uslubiy baxolariga ko'ra farqlanib turadi. Bo'lardan ota so'zining semantik tuzilishi uslubiy baxo nuqtai nazaridan betarafdir: predmetga shaxsning munosabati ifodalanmaydi. Ammo otajon so'zida bunday munosabat yakkol syozilib turadi. Otajon so'zining semantik tuzilishi ota so'zining semantik tuzilishidan ma'no va mazmunan boy va murakkabdir: predmet atalibgina kolmay, balki unga munosabat ham ifodalangan. Aniqrog'i, xurmat qilish, erkalash munosabatlari o'z ifodasini topgan. Demak, uslubiy bo'yoq so'zning leksik ma'nosiga suyanib, ekspressiv-emotsional ma'nolar beradigan hodisa sanalar ekan.

Masalan, **qush** va **qushcha** so'zlari leksik ma'no anglatishi jihatidan bir xil. Bu so'zlar o'zaro stilistik bo'yoqlariga ko'ra farqlanib turadi.

Nazorat savollari:

1. So'z nima? Tushuncha nima?
2. Tushuncha va so'zning uzviy bog'liqligini misollar asosida izohlab bering .
3. So'zning semantik tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
4. Termin nima? So'zdan terminning farqini tushuntiring.
5. So'z tushunchadan tashqari qanday harakterlarga ega? Misollar asosida isbotlang.
6. Tushuncha va so'zning mohiyatini qanday sharhlaysiz?
7. So'zning semantik tuzilishi haqida gapiring.
8. Leksik ma'no nima?
9. So'zning uzual ma'nosi nima?
10. So'zning okkazional ma'nosi deganda nimani tushunasiz?
11. Leksik ma'no qachon anglashiladi?
12. Nomlovchi so'zlar, ko'rsatuvchi so'zlar va ifodalovchi so'zlarning bir-biridan farqini isbotlang.

2- savolning bayoni:

Leksik qo'llash. So'zning semantik tuzilishiga bog'liq holda so'zning qo'llanishi ham ta'kidlanadi. So'zning qo'llanishi ma'lum darajada leksik ma'noning taraqqiyoti bilan bog'liq. Shunga ko'ra so'zning qo'llanishini leksik qo'llash deb yuritish to'g'ri bo'ladi. Leksik ma'no va leksik qo'llash bir-biridan quyidagilari bilan farqlanadi:

1. Leksik ma'no til birligidir: shu tilda gapiruvchilar tomonidan tanilgan, qabul qilingan bo'ladi. Leksik qo'llash esa individual nutq hodisasidir: shu tilda gapiruvchilar orasida umumlashmagan, faqat ayrim muallif (kishi) nutqigagina xos bo'ladi.

2. Leksik ma'no lug'at boyligiga kiradi, u lug'atda beriladi. Leksik qo'llash esa lug'at boyligiga kirishi mumkin bo'lgan potentsial imkoniyatdir, shunga ko'ra u lug'atda berilmaydi.

3. Leksik qo'llash shu so'zga xos leksik ma'nolardan birining ayrim muallif (kishi) nutqida yangicha berilishi, yangicha baxolanishidir. Leksik qo'llash shu tilda gapiruvchi jamoa tomonidan tanilsa, ko'pchilik nutqida ishlatilsa, shundagina leksik ma'noga aylanadi.

4. Leksik ma'no kontekstda reallashadi: kontekst ko'p ma'noli so'zning bir leksik ma'nosini reallashtiradi. Leksik ma'no har galgi konkret bog'lanishlar tufayli yuzaga kelmaydi, balki shu kontekstgacha shakllangan bo'ladi, kontekst shu ma'noni yuzaga chikarib beradi, xolos. Leksik qo'llash esa kontekstning o'zida sodir bo'ladi: uni individual, konkret bir muallif to'zgan kontekst yuzaga keltiradi, leksik qo'llash shu kontekstning o'zi tufayli tugiladi va shu kontekst doirasidagina mavjud bo'ladi.

So'zning uzual va okkazional ma'nolari. So'zning semantik tuzilishida bor (shakllangan) ma'no, kabul etilgan, umumqo'llanishdagi ma'no so'zning o'zual (lot. usus –odat, koida) ma'nosi deyiladi. Masalan, bosh so'zining «tananing buyindan yukori qismi», «boshlik, raxbar» ma'nolari, katta so'zining «xajm-ulchami nisbatan ortiq», «yosh jihatdan ortiq» ma'nolari o'zual ma'nolardir.

So'zning semantik strukturasi shakllanib etmagan, ma'lum individual qo'llashda reallashadigan ma'no so'zning okkazional (lot. occasionalis – tasodifiy) ma'nosi deyiladi. Masalan, Fan, san'atning gullari butun, to'plangandi suxbati uchun. (Oybek).

Nazorat savollari:

1. Uslubiy bo'yoq qanday hodisa?
2. Uslubiy bo'yoqning morfema yordamida va so'z negizining o'zi bilan ifodalanishini misollar asosida tahlil qiling.
3. Leksik qo'llash qanday hodisa sanaladi?
4. Uslubiy bo'yoq bilan leksik qo'llashning farqini ayting va tahlil qiling.
Leksik qo'llashni nima uchun individual nutq hodisasi deymiz?
5. So'zning uzual va okkazional ma'nolarini misollar asosida sharhlang.

3- savolning bayoni:

So'zning o'z va ko'chma ma'nolari. So'zlar asl-real ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'no ham anglatadi. So'zlar ko'chma ma'noda qo'llanganda, predmet va Hodisalarni atabgina kolmay, usha predmet va hodisalarni tasvirlash funktsiyasini Ham bajaradi. ko'chma ma'no tildagi so'zlarning to'g'ri ma'nosi negizida vujudga keladi. Ko'chma ma'noli so'zlar ilmiy va rasmiy ish uslublarida qo'llanilmaydi. So'zlarning ko'chma ma'nosi fakat kontekstda anlatiladi. Ko'chma ma'noli so'zlar tasviriy vositalar hisoblanadi. Ayniksa, badiiy matndan bunday so'zlarni ko'plab keltirish mumkin. Bunday so'zlar ekspressivlik va emotsionallikni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi. So'zlar bir ma'nosi (to'g'ri, nominativ ma'nosi) bilan neytral, yana bir ma'nosi (figural-ko'chma ma'nosi) esa ekspressiv –hissiy fikr ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu ma'no yukorida ta'kidlaganimizdek, fakat matnda reallashadi. Bu degani, so'zlarning semantik o'zgarishga uchragani demakdir. «Biror predmet yoki voqea-hodisa Haqida aniq, erkin tasavvur Hosil qilish uchun unga boshqa predmet yoki voqea-hodisaning belgisi kuchiriladi, uxshatiladi». Bunda so'zlar o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarni, xatto o'z ma'nosiga karama-karshi ma'nolarni ham ifodalash mumkin.

Ma'noning ko'chishi – bir predmet (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo'lishi. Bunday ko'chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet (hodisa) o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, nafas leksemasining bosh (to'g'ri) ma'nosi “o'pkaga olinadigan va undan chiqariladigan havo”dir, ammo *nafasingizni iliq qiling* deganda nafas leksemasi «havo»ni emas, «gap»ni va «niyat»ni ifodalamoqda, chunki nafas olish va nafas chiqarishsiz gap shakllanmaydi, gapsiz esa fikr-niyat ifodalanmaydi: nafas, gap, fikr-niyat o'rtasidagi ana shu aloqa va bog'lanish nafas leksemasining mazmun mundarijasidagi ma'no ko'chishlariga sabab bo'lgan.

1. Metafora yo'li bilan ma'no ko'chirilishi:

a) ifodalanayotgan predmetlar (hodisalar) o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida: burun («odamning burni»-bosh leksik ma'no) - burun («choynakning burni»-hosila ma'no);

b) ikkita belgi-xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: tez («oz vaqt ichida, darrov»-bosh leksik ma'no: majlis tez tugadi) – tez («darrov achchiqlanadigan, jizzaki»- hosila ma'no: tez odam); cho'qqi («tik narsalarning eng yuqori nuqtasi»- bosh leksik ma'no: tog' cho'qqisi)- cho'qqi

(«erishilgan yoki erishilishi mumkin bo'lgan eng yuqori pog'ona, daraja, ko'rsatkich»-hosila ma'no: ilm-fan cho'qqisi; baxt cho'qqisi);

v) narsa-predmetlarning u yoki bu qismlarini o'rin nuqtai nazaridan o'xshatish asosida: bosh («tananing bo'yindan yuqoridagi qismi»- bosh leksik ma'no: odamning boshi) – bosh («tik narsalarning tepa qismi»-hosila ma'no: shamol bo'lmasa, daraxtning boshi qimirlamaydi);

g) bajarilgan yoki bajariladigan ish-harakatlar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: urmoq («qo'l yoki biror predmet vositasida zarba bermoq»-bosh leksik ma'no: Bektemir miltiq qo'ndog'i bilan uning peshanasiga bir urdi) – urmoq («tanqid qilmoq»-hosila ma'no; Ota-buvamni kavlab, gazetaga urib chiqishdi).

2. Vazifadagi o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi (funktional ko'chirish): **tomir** (*anat.* «qon tomirlari»-bosh leksik ma'no) – **tomir** (*biol.* «o'simlik tanasida suyuqlik va undagi erigan moddalar oqadigan to'qima naychalar»-hosila ma'no). **Tomir** leksemasining semantik tarkibidagi bu ikki ma'no shu leksema bilan atalayotgan «qon tomirlari» va «o'simlik tanasidagi to'qima naychalar» bajarayotgan vazifadagi o'xshashlikka asoslangan: har ikki holatda ham ular (tomir va naychalar) tirik organizm uchun kerakli moddalarning butun tana va to'qimalar bo'ylab tarqalishi uchun xizmat qiladi.

Vazifadoshlik asosida ma'noning ko'chirilishi o'q (nayzaning o'qi) - o'q (miltiqning o'qi)-o'q (zambarakning o'qi) kabi nomlanishlarda ham bor;

3. Metonimiya yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi (yunoncha: metonimia –«qayta nomlash»). Bunday ko'chirilish predmetlar yoki hodisalarning o'zaro aloqadorligiga asoslanadi. Buning quyidagi ko'rinishlari bor:

a) o'simlikning nomi shu o'simlik mevasidan yoki boshqa biror qismidan tayyorlangan mahsulotga ko'chiriladi: muskat (uzumning bir navi) – muskat (shu uzum navidan tayyorlangan vino), choy (o'simlikning bir turi) – choy (shu o'simlikning barglaridan tayyorlangan ichimlik), qahva (qahva daraxti) - qahva (shu daraxt mevasidan tayyorlangan ichimlik, kofe);

b) zamon va makonda bir-birining bo'lishini taqozo qilgan hamda birga qo'llanadigan ikki (yoki bir necha) predmetdan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi: bir piyola choy ichmoq (piyola o'z ma'nosida) – bir piyola ichmoq (piyola-ko'chma ma'noda);

v) bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmet-voqelikka ko'chiriladi: sinf («o'quv xonasi») – sinf («o'quvchilar guruhi»), shahar («yirik aholi punkti») – shahar («shahar aholisi») kabi. Masalan: «Yangi yilni kutish bahonasida tunni bedor o'tkazgan shahar tongni ko'zda uyqu bilan kutib oldi» (T.M.);

g) narsa nomi shu narsaga asoslangan o'lchov birligiga nom bo'lib ko'chadi: kun («quyosh»)- kun («sutkaning yoru'l qismi»), oy («planeta»)-oy («yilning o'n ikkidan bir qismi»). Ba'zan buning aksi ham bo'ladi: vaqt o'lchovi nomi vaqtni o'lchaydigan asbobga nom bo'lib ko'chadi: soat («sutkaning yigirma to'rt dan biriga teng vaqt»)-soat («vaqtni sutka davomida o'lchab boradigan asbob»);

d) belgining nomi shunday belgisi bor bo'lgan narsaga (predmetga) ko'chiriladi: ko'k (rang nomi)-ko'k («ko'kat») – ko'k («osmon»); yupqa («qalinning aksi»)- yupqa (taom nomi) (12,84-b.) Bunday ko'chirilish leksik-semantik yo'l bilan yangi so'zning yasalishiga ham olib keladi. Eiyos qiling: ko'k (1)-sifat, ko'k (2)-ot, ko'k (3)-ot; yupqa (1)-sifat, yupqa (2)-ot kabi. Demak, ko'k (1), yupqa (1) sifatlaridan ko'k (2), ko'k (3) va yupqa (2) otlari yasalgan. Bu hol polisemiya bilan so'z yasalishi va omonimiya hodisalari o'rtasida o'ta murakkab munosabatlar borligidan dalolat beradi. (12,202-203). Ularni maxsus tadqiq qilish o'zbek tilshunosligining navbatdagi vazifalaridan biridir

4. Sinekdoxa yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi (yunoncha: synekdoche – “birga anglamoq”, “qo'shib anglamoq”). Bunday ko'chirilish nomlanayotgan predmet yoki hodisalarning miqdor belgilariga tayanadi:

a) butunning nomi qismga ko'chiriladi: **qo'l** (butun) - **qo'l** (qism – «barmoq» ma'nosida: Besh qo'l barobar emas), **bosh** (butun)- **bosh** (qism-«miya», «aql-xush» ma'nolarida: Tolning ko'rki tosh bilan, odamning ko'rki **bosh** bilan);

b) qismning nomi butunga ko'chiriladi: **olma** (qism-«meva»)- **olma** (butun – daraxt: olma gulladi), **eshik** (qism – «uyning eshigi», «hovlining eshigi») – **eshik** (butun – «uy», «hovli»: Eshigimda juda ko'p odamlar ishlagan. O.), **tirnoq** (qism) – **tirnoq** (butun – «bola», «farzand»: Sizga o'lib

Peshanangizga tirnoq bitmadi. Ko'nglingiz yarim. R.F.), **tuyoq** (qism) – **tuyoq** (butun – "uy hayvoni", "mol": Nikolay zamonida ostonam tuyoq ko'rmagan. O.).

Nazorat savollari:

1. Leksik polisemiya nima?
2. Leksik monosemiya nima?
3. Ma'no taraqqiyotining qanday yo'llari bor?
4. Metofora usulida ma'no ko'chishi nima?
5. Metonimiya usulida ma'no ko'chishini tushuntiring?
6. Vazifadoshlik asosida so'z ma'nosining ko'chishi nima?
7. Sinekdoxa hodisasi nima?

4-savolning bayoni:

Ma'noning kengayishi – leksemaning ma'no hajmida tor ma'nodan keng ma'noga qarab siljishning yuz berishi. Masalan, *yaylov* so'zi dastlab "to'lning tepasidagi o'tloq"ni ifodalagan: qadimgi turkiy tilda *yay* (*yay*) so'zi "yoz"ni, *yaylag'* so'zi esa "yozlaydigan joy"ni anglatgan (45,226-227). Chorvadorlar yoz payti molni to'lning tepasidagi o'tloqlarda ("yaylag'"da) boqishgan, qishda esa "yaylal"dan "qishlal"ga tushib yashashgan. Hozirgi paytda *yaylov* so'zi faqat to'lning tepasidagi "mol boqiladigan o'tloq"ni emas, balki umuman "mol boqiladigan maydon"ni anglatadi, bunday maydon to'lning tepasida ham, dasht-adirlarda va hatto pasttekisliklarda ham bo'lishi mumkin. Bunday ma'no kengayishi *qishloq* so'zining semantikasida ham sodir bo'lgan: u dastlab "qish faslida yashaydigan joyni"ni anglatgan, hozir esa umuman "aholi yashaydigan punktning bir turi" ma'nosini ifodalaydi

Ma'noning torayishi – leksemaning ma'no hajmida keng ma'nodan tor ma'noga qarab siljishning yuz berishi. Masalan: *vatan* (keng ma'noda: "kishi tulilib o'sgan mamlakat, ona-yurt") – *vatan* (tor ma'noda: "kishi tulilib o'sgan shahar yoki qishloq").

Turdosh otning atoqli otga o'tishi ham tilshunoslikda ma'no torayishi deb qaraladi. Masalan: *bolta* (turdosh ot) – *Bolta* (atoqli ot), *lola* (turdosh ot) – *Lola* (atoqli ot) kabi.

Nazorat savollari:

1. So'z ma'nosining kengayishi deganda nima tushuniladi?
2. So'z ma'nosining torayishi nima?
3. Leksik ma'no miqdorining ortishi deganda nima tushuniladi?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2004.

**MAVZU: O'ZBEK TILIDA SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO
MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI**

Lug'aviy sinonimiya, lug'aviy omonimiya va lug'aviy antonimiya

Reja:

1. Leksik sinonimiya
2. Leksik antonimiya
3. Leksik omonimiya

Tayanch tushuncha va iboralar:

Sinonim, sinonimiya, sinonimik qator, dominant, ma'no sinonimiyalari, uslubiy sinonimlar, nutqiy sinonimlar, kontekstual sinonimlar, leksik antonimiya, antonimik juftlik, antonim, sof antonimlar, kontekstual antonimlar, leksik omonimiya, omonimlar, omoformalar, omograflar.

1-savolning bayoni:

Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: *in, uya, oshyon; nur, shu'la, yog'du, ziyo* va b.lar. Bunday guruhlar tilshunoslikda *sinonimik qatorlar* deb nomlanadi.

Har bir sinonimik qatorda:

a)leksemalarning denotativ ma'nosi bir xil, ifoda semalari (ma'no qirralari, uslubiy bo'yoqlari, sub'ektiv baho, qo'llanish doirasi) har xil bo'ladi. Masalan, *ozod, erkin, hur, sarbast* leksemalari bitta denotatni – "o'z erki, haq-huquqiga egalik"ni ataydi, biroq ularda o'zaro farqlanuvchi ifoda semalari ham bir: Xususan, **erkin** leksemasi bir qadar betaraf ma'noli bo'lsa, **ozod**, leksemasida ko'tarinki ruhni ifodalash, **hur** leksemasida badiiy uslubga xoslik sezilib turadi, **sarbast** leksemasi esa eskirgan, kitobiydir

b)ifoda semalari ba'zan darajalanadi: *yuz, bet, aft, bashara, turq* leksemalarining barchasida ("yuz"dan boshqalarida) salbiy bo'yoqli semalar bor, biroq bu semalarda salbiy bo'yoqning ifodalanish darajasi har xil: u "bet"dan "turq"qa tomon ortib, kuchayib boradi. Qiyos qiling: *U betlari yumdalangan, oppoq sochlari yulingan bu telba xotinni o'zining qirq yillik umr yo'ldoshiga o'xshata olmadi*

v)ifoda semalari bo'lmagan, betaraf ma'noli leksemalar sinonimik qatorning **dominantasi** sanaladi. Chunonchi, *yuz, bet, aft, bashara, turq* (dominanta - **yuz**); *nur, shu'la, yog'du, ziyo* (dominanta - **nur**); *yolg'iz, yakka, tanho* (dominanta - **yolg'iz**) kabi. Bulardan **yuz** (birinchi qatorda), **nur** (ikkinchi qatorda) va **yolg'iz** (uchinchi qatorda) betaraf ma'nolidir;

g)leksemalarning turkum semalari bir xil bo'ladi, bu hol sinonimlarning bir so'z turkumiga birlashishini taqozo qiladi: *bahor* va *ko'klam* (ot), *chiroyli* va *go'zal* (sifat), *so'zlamog* va *gapirmog* (fe'l) kabi.

Yuqoridagi xususiyatlardan, ayniqsa, ifoda semalarining har xilligidan kelib chiqib, leksik sinonimlar quyidagi turlarga ajratiladi:

1.Ma'no sinonimlari (ideografik sinonimlar). Bunday sinonimlar ma'no qirralari bilan farqlanadi. Masalan, *achchiqlanmoq, g'azablanmoq, qahrlanmoq* leksemalari "g'azabi kelmoq" ma'nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma'noni ifodalash darajasi bir xil emas, u "achchiqlanmoq"dan "g'azablanmog"qa, "g'azablanmoq"dan esa "qahrlanmoq"qa qarab kuchayib boradi

2.Uslubiy sinonimlar (stilistik sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma'nosi ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar (uslubiy semalar) bilan qoplangan bo'ladi, ayni shu uslubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, *jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq* va *irshaymoq* leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no – "ovoz chiqarmay miyig'ida kulish" hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no **jilmaymoq** leksemasida bir oz ijobiy, *iljaymoq* leksemasida esa bir oz salbiy bo'yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo'yoq *irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq* va *irshaymoq* leksemalarida yana-da ortib boradi.

Nutqiy sinonimlar – nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, *ozgina, picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha* qatoridagi *ozgina* leksemasi nutqning barcha ko'rinishlarida (adabiy nutqda ham, so'zlashuv nutqida ham) qo'llana olgani holda, *picha, xiyol, jinday, qittay, jichcha* leksemalari faqat so'zlashuv nutqiga xoslangandir.

Kontekstual sinonimiya – til birligi sifatida o'zaro sinonim bo'lmagan leksemalarning ma'lum kontekst doirasida (demak, nutq ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi. Masalan, **chinni** va **kosa** so'zlarining leksik ma'nolari bir xil emas: **chinni** «idish-oyoq, izolyatsion materiallar yasash uchun ishlatiladigan oq loy»ni, **kosa** esa «piyoladan kattaroq idish»ni ataydi. Demak, biri «material»ni, ikkinchisi esa shu materialdan yasalgan «idish»ni anglatadi, shunga ko'ra ular sinonim hisoblanmaydi, ammo ayrim shevalarda **chinni** leksemasi «kosa» ma'nosida ham qo'llanadi, binobarin, shu shevaga xos kontekst ichida u **kosa** leksemasining sinonimiga aylanadi. Masalan, *Xoljonbika... xitoyi ch i n n i d a moy olib keldi* (J.Sh.)

Quyidagi holatlarda leksemalar o'zaro sinonim bo'la olmaydi:

1. Turli turkum leksemalari: ot bilan sifat, sifat bilan fe'l va b.lar.

2. Bir turkum leksemalarida keng tushuncha nomlari bilan tor tushuncha nomlari. Bunday holat ko'proq terminologiyaga xosdir. Masalan, botanikada **tur** va **xil** terminlarining tushuncha doirasi teng emas: **tur** termini urug'dosh bo'lgan bir necha *xil* va *navlarni* o'z ichiga olgan takson

tushunchasini ifodalaydi, ayni paytda **turlar turkumlarga, turkumlar** esa **oilalarga** birlashadi. Shunga ko'ra **tur** va **xil**, **tur** va **turkum** kabi sinonimik qatorlar bo'lishi mumkin emas.

Nazorat savollari:

1. Sinonimiya nima?
2. Sinonimik qator deganda nima tushuniladi?
3. Dominanta nima?
4. Ma'no sinonimlari haqida gapiring.
5. Uslubiy sinonimlar nima?
6. Nutqiy sinonimlar haqida ma'lumot bering.

2-savolning bayoni:

Leksik antonimiya leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishidir: *oq* va *qora*, *qalin* va *yupqa* kabi.

Antonimiya hodisasi, asosan, bir so'z turkumi leksemalari doirasida yuz beradi.

Sifatlarda: a) hajm belgisiga ko'ra: *katta* va *kichik*, *baland* va *past*; b) harorat belgisiga ko'ra: *issiq* va *sovuq*; v) yosh belgisiga ko'ra: *yosh* va *qari*; g) xarakter-xususiyat belgisiga ko'ra: *saxiy* va *xasis*, *botir* va *qo'rqqoq*, *aqlli* va *ahmoq*; d) shakl belgisiga ko'ra: *to'g'ri* va *egri*; e) maza-ta'm belgisiga ko'ra: *achchiq* va *shirin* kabi.

Payt, holat, miqdor ma'noli leksemalar doirasida ham antonimiya hodisasi keng tarqalgan: a) *kecha* va *ertaga*, *avval* va *keyin* (payt belgisiga ko'ra), b) *tez* va *sekin*, *arang* va *bemalol* (holat belgisiga khra), v) *ko'p* va *oz*, *mo'l* va *kam* (miqdor belgisiga ko'ra) va b.lar. Bunday leksemalarning sifat va ravish turkumiga mansubligi keyingi yillarda bir qadar munozarali bo'lib qolmoqda.

Kontekstual antonimiya: o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksemalarning ma'lum kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritilishidir. Buni quyidagi she'riy misralar tahlilida ko'rish mumkin:

Aytur so'zni **ayt**,

Aytmas so'zdan **qayt!**

(A..Navoiy)

Sichqonlarga nisbatan

Poyloqqchiman **to'g'riman**.

Ko'rsam tekin go'sht ba'zan

Chidolmayman - o'g'riman. (O.Q)

Nazorat savollari:

1. Antonimiya nima?
2. Antonimik juftlik deganda nima tushuniladi?
3. Kontekstual antonimiya haqida ma'lumot bering.
4. Antonimiya hodisasining so'z turkumlariga munosabati qanday?
5. Antonimiya va polisemiya munosabatini tushuntiring.
6. Antonimlardan qanday uslubiy vosita sifatida foydalaniladi?

3- savolning bayoni:

Leksik omonimiya leksemalarning ifoda planidagi (talaffuzi va yozilishidagi) tenglik hodisasi. Masalan, *o't* («olov») -*o't* («maysa»), *kamar* («qayish, belbog'»)–*kamar* («daryo, tog'larda suv o'yib ketgan chuqur joy») kabi.

Leksik omonimiyada ikki xil hodisa mavjud: omonimlar va omoformalar.

1.**Omonimlar** shakli bir xil, ma'nolari har xil (o'zaro bog'lanmagan) leksemalardir (yuqoridagi misollar). ular *omonim omoleksemalar* deb ham ataladi. (24,128-b.). Bunday omonimlarning ko'pchiligi bir so'z turkumiga mansubdir, shu sababli ularning nutqdagi grammatik shakllari ham bir xil bo'ladi. Qiyos qiling: *ot* («ism») – *otim*, *oting*, *oti*; *otni*, *otning*, *otga...*kabi, *ot* («hayvon») – *otim*, *oting*, *oti*; *otni*, *otning*, *otga...* kabi. Yana: *bo'sh* (sifat) – «ichiga hech narsa solinmagan»: *bo'sh chelak* kabi; *bo'sh* (sifat) – «tarang tortilmagan»: *arqonni bo'sh tortib bog'lamoq* kabi.

2.**Omoformalar** ayrim grammatik shakllaridagina teng keladigan leksemalardir. Ular *omoforma omoleksemalar* deb ham nomlanadi. Masalan, *sur* (ot: «qorako'l teri navi») va *sur* (sifat:

«och kulrang») leksemalari ayni shu shaklda lug'atga kiritiladi, biroq ot turkumidagi *sur* leksemasi turlanganda (*surni, surning, surga...* kabi) *sur* (ot) va *sur* (sifat) o'rtasidagi shakliy tenglik yo'qoladi. Demak, bu ikki leksema o'rtasidagi shakliy tenglik ot turkumidagi *sur* so'zi bosh kelishik shaklida bo'lgandagina siqlanib, boshqa shakllarida yo'qoladi, shu xususiyati bilan omoforma omoleksemalar omonim omoleksemadan farq qiladi.

Omonimiya va polisemiya hodisalari o'rtasida ma'lum o'xshashlik va tafovutlar bor. **O'xshashligi:** omonimiyada ham, polisemiya ham ifoda plani (shakli) bir xil bo'ladi, har ikki holatda birdan ortiq ma'no ifodalanadi.

Farqlari: omonimiyada shakli bir xil bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'z (leksema) nazarda tutiladi; polisemiya esa bir necha ma'nosi bor bo'lgan bitta leksema haqida gap boradi. Omonim leksemalarning ma'nolari har xil bo'ladi, bu ma'nolar o'rtasida bog'lanish yo'q. Ko'p ma'noli so'zning ma'nolari ham har xildir, ammo ular o'rtasida bog'lanish bor: ular ma'no ko'chishi asosida yuzaga kelgan bo'ladi. Qiyos qiling:

bo'z (1) – «gazlamaning bir turi».

bo'z (2) – «o'simlikning bir turi».

Bular shakli bir xil, ammo ma'nolari har xil bo'lgan ikkita leksema (omoleksemalar) hisoblanadi.

Leksik omonimiyaga yondosh hodisalar:

1. **Omofonlar** – talaffuzi bir xil, yozilishi har xil bo'lgan leksemalar: *to'rt* (son turkumidagi so'z) – *tort* (ot turkumidagi so'z: «konditer mahsuloti»), *to'n* («kiyim») – *ton* («tovush toni»), *bob* (talaffuzda: **bop**) va *bop* kabi.

2. **Omograflar** – yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo'lgan leksemalar: *soya* («quyosh nuri tushmaydigan salqin joy») – *soya* («dukkakli o'simlikning bir turi va uning doni»), rom (oyna o'rnatilmagan deraza)- *rom* (spirtli ichimlikning bir turi) kabi.

Tilda urg'usining o'rni bilan farq qiladigan, ammo bir xil yoziladigan leksemalar ham bor: **atlas** («material») – **atlas** («geogr. atlas»), **fizik** («fizik hodisa») – **fizik** (fizika mutaxassisi) kabi. Bular urg'u belgisisiz yozilganda omograflar sanaladi, urg'u belgisi qo'yilganda (*atlás va átlas, fúzik va fizúk* kabi grafik shakllarga kirganda) esa omograf bo'lmaydi. Biroq bunday holatlar tilshunoslikda maxsus nomga ega emas.

Paronimiya (yun.para – “yonida”Q onyma – “nom”) – ikki yoki undan ortiq leksemalarning talaffuzda o'zaro o'xshash, ohangdosh bo'lishi. Bunday o'xshashlik, odatda, har ikki (yoki uch) leksema tarkibidagi tovushlarning fizik-akustik yaqinligidan kelib chiqadi. Masalan, *arqon* va *arkon*. Bu ikki so'z tarkibidagi 5 ta tovushdan 4 tasi ayni bir xil fonemalardir, ammo ulardan birinchisida «q», ikkinchisida esa «k» fonemalari qatnashgan. Bu ikki fonemaning biri («q») chuqur til orqa, ikkinchisi («k») esa sayoz til orqa, ikkalasi ham jarangsiz, portlovchi undoshlardir, demak, ulardagi fizik-akustik va artikulyatsion belgilar bir-biriga juda yaqin, shuning uchun *arqon* va *arkon* leksemalari talaffuzida bir-biriga o'xshashlik bor.

Nazorat savollari:

1. Omonimiya nima?
2. Lug'aviy omonimiyaning qanday turlari bor?
3. Leksik omonimiyaning turlari haqida ma'lumot bering.
4. Omonimlarning so'z turkumlariga munosabati qanday?
5. Omonimlar qanday yuzaga keladi?
6. Omonimiya va polisemiya qanday farqlanadi?
7. Omonimlarga yondosh hodisalar haqida nimalar bilasiz?

MAVZU: O'zbek tili leksikasi va uning tarixiy taraqqiyoti. O'z qatlam va o'zlashgan qatlam

Reja:

1. **O'z qatlam** (mugulcha-turkiycha so'zlar, umumturkiy so'zlar, o'zbekcha so'zlar).

2. **O'zlashgan qatlam** (forscha-tojikcha so'zlar, arabcha so'zlar va chet tillardan kirib kelgan so'zlar).

Tayanch tushuncha va iboralar:

Leksik qatlam, lugʻat tarkibi. oʻz qatlam. Sof turkiycha soʻzlar. Umumturkiy soʻzlar. oʻzbekcha soʻzlar. Fors-tojikcha soʻzlar. Xitoycha soʻzlar. Arabcha soʻzlar. Soʻz oʻzlashtirish. Soʻz oʻzlashtirish yoʻllari. Jonli soʻzlashuv tili. Bosma manbalar. oʻzicha olish. Kalkalash. Toʻliq kalka. Yarim kalka. Iborat oʻzlashtirish.

1-asosiy savolning bayoni:

Sof turkiycha soʻzlar asosan bir boʻgʻinli va ikki boʻgʻinli soʻzlardan iborat boʻladi: osh, bosh, kul, tosh, ish kabi. Turkiycha soʻzlar turkiy xalqlarning kadimdan kullab kelayotgan oʻz soʻzlari hisoblanadi. M.Koshgariy oʻzining «Devonu lugʻotit turk» asarida sof turkiy soʻzlarni keltirgan va tahlil qilgan.

UMUMTURKIY SOʻZLAR. Turkiy tillarda kadimdan qoʻllanib kelayotgan shu kabi soʻzlar umumturkiy soʻzlar deb ataladi. Demak, oʻzbek tili leksikasi, birinchidan, kadimdan mavjud boʻlgan umumturkiy soʻzlar xisobiga shakllangan. Koʻpchilik turkiy tillarda hozir ham ishlatiladigan :barcha turkiy tillar uchun umumiy boʻlgan koʻpgina soʻzlar borki, ular azaldan turkiy kabilalar tilida mavjud edi, ular xozir ham ishlatiladi. Masalan: kishi, ot, kul, oek, koʻz, bir, ikki... , un, kel, ol, ur, yaxshi, toʻgʻri.

Xozir oʻzbek, qozoq, uygʻur, qirgʻiz, korakalpoq, turkman, ozarbayjon, noʻgʻay, tatar, boshqird, chuvash, yoqut, tuva, deb nomlanadigan bir kator karindosh xalqlar turkiy kabilalarning gox kushilishi, gox ajralishi natijasida maydonga keldi. Shuning uchun Ham yukoridagi millatlar va xalqlarning tillari bir-birlariga juda yakindir.

Hozirgi oʻzbek tili lugʻat sostavining asosida ana shu umumturkiy soʻzlar etadi. Umumturkiy soʻzlar lugʻat sostavining taxminan yarimini tashkil qiladi.

OʻZBEKCHA SOʻZLAR. Keyinchalik shu soʻzlarga yoki boshqa tillardan utgan soʻzlarga turli affikslarning qoʻshilishidan yangi soʻzlar yasalgan: boshla (boshqla), ishchi (ishqchi), ishchan (ishqchan) kabi. Bunday soʻzlar oʻzbek tilining oʻzida yasalganidan oʻzbekcha soʻzlar deb ataladi. Oʻzbekcha soʻzlar asosan ikki xil yoʻl bilan yasaladi:

1) morfologik yoʻl bilan. Bunda oʻzakka soʻz yasovchi affikslar kushiladi: yonqilqgi (yonilgi), okQlaQmok (oklamok), saQmoQvarQchi (samovarchi);

2) sintaktik usul bilan. Bunda ikki yoki undan ortiq soʻzning kushilishidan kushma va juft soʻzlar yasaladi: gulbogʻ, gultojixuroz; Havo rang, bora kol; kozon-tovok, u-bu, besh-un. oʻzbek tili ichki imkoniyatlari sharoitida oʻzbek tili yoki boshqa til elementlari yordamida koʻpgina soʻzlar yaratilgan. Masalan: ishxona, ayacha, surok, ulfatchilik, bogʻdorchilik, undalma, xushbichim, Harakatchan, ekskovorchi, chinakam kabilalar.

Nazorat savollari:

1. Oʻz qatlam qanday qatlamchalarga boʻlinadi?
2. Sof turkiycha soʻzlarning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
3. Umumturkiy soʻzlar boshqa tillardagi soʻzlardan qanday farq qiladi?
Misollar asosida farqini asoslang.
4. Oʻzbekcha soʻzlar qanday soʻzlar hisoblanadmi?
5. Oʻzbekcha soʻzlar qanday yasalishini misollar asosida tahlil qiling.

2-ASOSIY SAVOL BAYONI:

Boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish asosida oʻzbek tili leksikasida quyidagi qatlamlar yuzaga kelgan:

- 1) forscha-tojikcha soʻzlar; 2) arabcha soʻzlar; 3) chet elcha soʻzlar.

FORS-TOJIK TILLARIDAN OʻZLASHGAN SOʻZLAR. Marvarid, zarbob, dog, charm, movut, chit, taxta, gisht, guva. Hozirgi oʻzbek tilida tubandagi kabi tojikcha-forscha soʻzlar bor: dasturxon, dazmol, xokandoz, barkash, obdasta, xum, chirok, parda, gugurt, gilam, choyshab, poyandoz, paypok, poshna, paytava, chok, astar, marjon, la, sarrov, sinch, Hari, panjara, ustun, poydevor, paxsa, xoda, chup, toki, gumbaz, oxak, daxliz, dasta, reja, ship, rang, daricha, darvoza, deraza, zina, narvon, oxang, dutor, tanbur, nay, surnay, karnay, chang, gijjak, rubob, doston, bazm va boshqalar.

Bular koʻproq kundalik xayotga, uy-roʻzgʻor ishlariga, dexkonchilik, bogʻdorchilik va Hunarmandchilik ishlariga doir tushunchalarni ifodalaydi.

ARAB TILIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLAR . Arab so'zlari o'zbek tiliga VII – VIII asrlardan boshlab kiradi. Bu xol arablarning shu davrda Urta Osiyoni zabt etishlari bilan bog'liq. Arablar o'zlari bosib olgan xududda maxalliy yozuvlarni yo'q qilib, o'z alifbelari asosidagi yozuvni joriy qiladilar. Davlat va sud ishlarini arab tilida olib boradilar, ilmiy, kisman badiiy asarlar arab tilida yoziladi. Shu munosabat bilan o'zbek tiliga birmuncha arabcha so'zlar kirib qolgan.

Ammo somoniylar dinastiyasi davrida (XII – X asrlar) arab xalifaligining xukmronligi bushashib, MUSTAQILikka intilish kuchaygan sari, arab tilining ishlatilishi cheklanadi.

Hozirgi o'zbek tilida arab tilidan kirgan tubandagi kabi so'zlar mavjud: kasb, kosib, kassob, san'at, sanoat, muassasa, asbob, xizmat, mexnat, bino, imorat, xovli, ovkat, galla, asal, xayvon. Fil, parranda, xasharot, odam. Inson. Ael, oila. A'zo, amma, xola, avlod, sherik, dimog, me'da, Ra'no, xujum, marra, jasur, xavf, askar, idora va boshqalar.

Arab so'zlari birinchidan, kitob, madrasa, din, davlat to'zumi orqali kirgan (maktab, kitob, dars, kalam, mutolaa, davlat, xak, xukuk, maorif va boshqalar), ikkinchidan, eroniy tillar orqali kirgan. Buni, masalan, arab so'zlariga tojikcha morfemalar qo'shib yasalgan darxakikat, darxol, bakuvvat, badavlat, gamxur, xavaskor, Har nav, mansabdor, mulkdor, karzdor, noxak kabi so'zlardan bilsa bo'ladi. Bunday dar-, ba-, -xur, -kor, -dor, no- morfemalari va Har so'zi tojikchadir.

ChET ELChA SO'ZLAR. O'zbek tiliga rus tilidan yoki rus tili orqali Evropa xalqlari (frantso'z, italyan, nemis, ingliz va boshqalar) tillaridan so'z kirishi ikki tarixiy davrni o'z ichiga oladi:

XIX asrning ikkinchi yarmida Urta Osiyoning rossiya tomonidan bosib olinishidan 1920 yillarigacha bo'lgan davr. 1920 yillar va undan keyingi davrlar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus tili va rus tili orqali boshqa Evropa xalqlari tillariga oid so'zlar o'zbek tiliga asosan ikki yo'l bilan kirdi:

Mahalliy aholi va rus ishchilari, ustalari, soldatlari, chinovniklari orasida kundalik ishlab chikarish bilan, savdo-sotik bilan, pochta va bank bilan bog'liq xolda ishlatiladigan so'zlar va iboralar o'zbek tiliga Og'zaki nutq orqali ko'plab kirib keldi. Misollar: chilon (chlen), pristup (pristav), marsh, duma, samovar (samovar) kabi.

Matbuot orqali ham juda ko'p ruscha va chet so'zlar Ham o'zbek tiliga kirib keldi: zavod, veksel, dumaxona, bank, uyozd kabi.

Hozirgi o'zbek tilidagi ruscha va chet so'zlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansubdir:

Rus tiliga mansub: sud, stol, ruchka, samolet, tok kabi.

Latin tiliga mansub: respublika, nota, general, kapital, konstitutsiya, direktor, kanal, radio kabi.

Grek tiliga mansub: grammatika, pedagog, talant, tyozis, kafedra, poema, metr, neft, parallel, tema va boshqalar.

Nemis tiliga mansub: raketa, kran, front, shaxta, oberton, platskarta, rolik, politsiya, galstuk, tantsa va boshqalar.

Ingliz tiliga mansub: miting, chek, chempion, futbol, pioner, doker, pijama, dollar, tank va boshqalar.

Frantsuz tiliga mansub: roman, evolyutsiya, pedal, palto, kostyum, shapka, marshal, ministr, bak, marshrut, serjant va boshqalar.

Nazorat savollari:

1. So'z va iboralar qanday o'zlashadi?
2. o'zbek tiliga kaysi tillardan ko'proq so'zlar o'zlashgan deb uylaysiz?
3. Til kaysi yo'llar bilan boyiydi?
4. o'zlashgan so'zlarni bir-biridan ajratishda nimalar asos bo'ladi?
5. Jonli so'zlashuv orqali o'zlashgan so'zlar Haqida ma'lumot bering.
6. Bosma manbalar orqali qanday so'zlar o'zlashgan?
7. Tarjima yo'li bilan o'zlashgan so'z va iboralar qanday o'zlashishi mumkin?
8. Kalkalash nima?
9. So'z va iboralarni boshqa tillardan kalkalab olishda tilning kaysi jixatlari xisobga olinadi?
10. So'z yasash nima-yu, kalkalash nima? Isbotlang.
11. Iboralarni kalkalab olish mumkinmi? Misollar asosida isbotlang.
12. o'zlashma nima-yu, o'zlashtirma nima? Farqini misollar asosida isbot qiling.

**MAVZU: HOZIRGI O'ZBEK LEKSIKASINING IJTIMOIIY-DIALEKTAL TARKIBI:
UMUMXALQ LEKSIKASI, DIALEKTIZMLAR, KASB-HUNAR LEKSIKASI,
NEOLOGIZMLAR.**

Reja:

1. Ishlatilish xududiga ko'ra chegaralangan lug'aviy birliklar (dialektizmlar).
2. Ishlatilish kasb-koriga ko'ra chegaralangan lug'aviy birliklar (professionalizm).
3. Eskirgan so'zlar. Neologizmlar.

MAVZUGA OID TAYANCh TUSHUNChA VA IBORALAR:

Chegaralangan qatlam, dialektizm, lug'aviy dialektizm, grammatik dialektizm, fonetik dialektizm, frazeologik dialektizm, dialektizm-so'z, dialektizm-ma'no, kasb-hunarga oid so'zlar, professionalizm, leksik istorizmlar, leksik arxaizmlar, neologizmlar.

1-asosiy savolning bayoni:

Dialektizm umumtilga emas, balki shu umumtilning maxalliy ko'rinishlari bo'lgan dialektlarga xos hodisalardir. Shunga ko'ra, bular odatda biror dialektning vakillari nutqida ishlatiladi, ko'pincha boshqa dialektning vakillariga, shuningdek, adabiy nutqqa ham xos bo'lmaydi.

Dialektizm asosan 3 turli bo'ladi:

1. Lug'aviy dialektizm – lug'aviy birliklardagi turi.

2. Grammatik dialektizm – grammatik hodisalardagi turi (masalan, ba'zi dialektlarda o'rin ma'nosi uchun ...ga affiksining va, aksincha jo'nalish ma'nosi uchun ...da affiksining ishlatilishi kabi).

3. Fonetik dialektizm – tovush talaffuzi va tovush o'zgarishiga bog'liq turi (masalan, unlilarning ba'zi dialektlarda boshqalarnikidan cho'ziqrok va yumshokrok aytilishi; ayrim dialektlardagi bir tovush o'rniga boshqasida ikkinchi bir tovushning kelishi va boshqalar).

Nazorat savollari:

1. Dialektal so'zlar deb nimaga aytiladi?
2. Dialektal so'zlar qanday turlarga bo'linadi?
3. Leksik dialektizmlarga misollar keltiring va tahlil qiling.
4. Fonetik dialektizmlar nima? Misollar asosida tahlil qiling.
5. Frazeologik dialektizmlarga misollar keltiring va tahlil qiling.
6. Shevalar adabiy tildan qanday farq qiladi?
7. Shevalarning qanday shakli bor?

2-asosiy savolning bayoni:

Kasb-hunarga doir bo'lgan so'zlar professionalizm, professionalizmlar yig'indisi esa professional leksika deyiladi.

Hozirgi o'zbek tili o'zbek xalqi hayotida qadimdan mavjud bo'lgan dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, suvoqchilik, ipakchilik, etikdo'zlik, temirchilik, misgarlik, duradgorlik va boshqa hunarlarga doir bo'lgan maxsus so'zlarga juda boy. Masalan, kulolchilik kasbida dog'chil (xum yasashda ishlatiladigan yog'och asboblardan biri), aspak yoki ot yog'och, bandak yoki bog'ich (yasalgan xom idishning labini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi), bugiz, dasmol loy (tekislash uchun ishlatiladi) kabi so'zlar, suvokchilik sohasida bozi (tokchanning yonlari, ikki tokchanning oraligi), andava (loy suvaydigan asbob), loykash (loy tayerlovchi kishi), mola gazcho'p (chaplangan loyni u yok-bu yoqqa surish uchun ishlatiladigan reykasimon asbob), ipakchilik sohasida tutchi, bargchi, pillakash, naychakash (nayga ipak o'rovchi), moshpora (ipak o'raladigan yog'och asbob), charxtoblik (charxda ipak pishitish), davrakash (davra quyuvchi), taxpilchi (ipakchilikda bir vazifa) kabi maxsus so'zlar bor. Bu so'zlar, odatda, shu kasb sohasida ishlaydigan kishilar uchungina tushunarli bo'lib, juda tor doirada qo'llanadi.

Professionalizmning asosiy qismini har bir kasb-korda shu sohaning terminlari tashkil etadi. Masalan, paxtachilik terminlari, ipakchilik terminlarikabi. Professionalizmlar turli fan-texnika, maktab-maorif sohalorida, ma'muriy-ho'jalik ishlari va boshqa sohalarda ham mavjud.

Nazorat savollari:

1. Professionalizm nima?
2. Kasb-hunarga oid so'zlarga misollar keltiring va tahlil qiling.
3. Termin nima?
4. Termin bilan so'zning qanday farqi bor? Misollar asosida isbotlang.
5. Professionalizmlik nisbiy tushuncha. Isbot qiling.

3-asosiy savolning bayoni:

“Eskirgan so'zlar”ning bir turi arxaizm bo'lib, unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Hozirgi davrda mavjud bo'lgan tushunchalarni anglatib kelgan, biroq sinonimlari tomonidan siqib chiqarilgan va faol ravishda qo'llanmaydigan eskirgan lug'aviy birliklar. Misollar: abr «bulut» (Zor-zor chun abri navbahor yig'lab... G'.G'ulom), partav «nur, shu'la» (Uning ko'z o'ngida joy olgan qoraliklar shu yoqila boshlagan najot shamlari partavi bilan o'z-o'zlaridan yuqolgandek ko'rinarlar edi, A.Qodiriy. O'tgan kunlar).

«Eskirgan so'zlar»ning ikkinchi turi bo'lmish tarixizmlarga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Hozirgi kundagi turmush-hayotdan chiqib ketgan narsa-predmetlar va hodisalarni anglatuvchi eskirgan lug'aviy birliklar. Misollar: - Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaka ho'kiz edi? -Ola xukiz... -Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi. -Qo'sh mahali (A.Qahhor.O'g'ri). Bu so'zlar qo'rboshiga masxara bo'lib tuyildi (A.Kahhor. Kur ko'zning ochilishi).U ma'lum karorga kelmasdan turib kerosinka oldiga borgan edi, Munisxon fahmlab rahmat dedi... (A.Qahhor.Sarob).

NEOLOGIZMLAR. Kundalik turmushdagi yangicha munosabatlarni, yangi narsalar va ularning belgilarini, yangi hodisalar va tushunchalarni ifoda qilish uchun vujudga kelgan so'zlar yoki yangi ma'noda qo'llangan eski so'zlar neologizmlar (grekcha «neos» – «yangi», «logos» – “so'z” ma'nosini anglatadi) deyiladi. Masalan, biznes, valyuta, marketing, menejment, sammit kabi so'zlar neologizmlar sanaladi.

Nazorat savollari:

1. Arxaizmlarda nimalar o'rganiladi?
2. Arxaizmlarning turlari haqida ma'lumot bering.
3. Leksik arxaizmlarni misollar asosida tushuntiring.
4. Fonetik arxaizmlarni misollar asosida tahlil qiling.
5. Semantik arxaizmlarni misollar asosida asoslang.
6. Istorizmlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring?
7. Tarixizmning sinonimi bo'lmaydi. Nima uchun?
8. Neologizm deb nimaga aytiladi?
9. Neologizmlarning qanday turlaribor?
10. Lug'aviy neologizmlar haqida ma'lumot bering.
11. Qanday so'zlarni neologizm -ma'no deb atash mumkin?
12. Neologizmlarni o'zlashgan so'zlar qatoriga kiritsa bo'ladimi? Isbotlang.

MAVZU: LUG'AVIY BIRLIKLARNING NUTQ KO'RINISHIGA XOSLANISHI

Reja:

1. Adabiy nutq va so'zlashuv nutqi .
2. So'zlarning fonetik tarkibida, grammatik shakllarda nutq ko'rinishlariga xoslanish.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Til, nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, adabiy nutq, so'zlashuv nutqi, xoslanganlik, rasmiy nutq, badiiy nutq.

1-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarda til va nutq, adabiy nutq va so'zlashuv nutqi to'g'risida tushuncha hosil qilish.

1-asosiy savolning bayoni:

Nutq va uning ko'rinishlari. Nutq so'zlovchining til birliklari vositasida fikrni shakllantirishi (ichki nutq) va ifodalashi (tashqi nutq) jarayonidir. U adabiy nutq va so'zlashuv

nutqi ko'rinishlarida namoyon bo'ladi: Adabiy nutq adabiy til me'yorlariga bo'ysundirilgan, demak, ishlov berilgan bo'ladi.

So'zlashuv nutqi nutqning ma'lum me'yorlarga kiritilmagan, ishlov berilmagan ko'rinishidir. U ko'proq erkin muloqot paytida ishlatiladi.

Nutq ko'rinishlariga xoslangan leksik qatlamlar. Nutqning yuqoridagi ikki ko'rinishiga munosabat jihatidan lug'at boyligidagi so'zlar ikki xil qatlamga birlashadi:

I. U m u m n u t q q a t l a m s o' z l a r i. Bunday so'zlar adabiy nutqda ham, so'zlashuv nutqida ham bir xil darajada ishlatiladi. Lug'at boyligidagi so'zlarning ko'pchiligi shu qatlamga mansubdir: zamonaviy qatlam so'zlari, ishlatilish chegaralanmagan leksikaning aksariyati, shuningdek sinonimik qatordagi dominantalar, uslubiy bo'yog'i bo'lmagan betaraf ma'noli so'zlar umumnutq qatlam birliklari sanaladi.

II. N u t q n i n g m a ' l u m k o' r i n i s h i g a x o s l a n g a n s o' z l a r. Bunday so'zlar nutqning faqat bir ko'rinishiga (mas., adabiy nutqqa) xoslangan bo'lib, boshqa ko'rinishida (mas., so'zlashuv nutqida) ishlatilmaydi yoki, aksincha, so'zlashuv nutqida qo'llanib, adabiy nutqda ishlatilmaydi.

1. A d a b i y n u t q n i n g o'z i ham ikki xildir: rasmiy nutq va badiiy nutq.

- *rasmiy nutqda* fikrning ifodalanishi isbotlarga, faktlarga ta'kidlanishiga tayanadi, shuning uchun unda tasviriy vositalar, uslubiy bo'yoqdor so'zlar ishlatilmaydi: to'g'ri ma'nodagi so'zlarning va soha terminlarining qo'llanishi ko'proq adabiy nutqning shu ko'rinishiga xosdir;

- *badiiy nutqda* ko'chma ma'noli so'zlar, ijobiy baho semalari bo'lgan leksemalar (*tabassum, mardonavor, chehra* kabilar) faol qatnashadi.

2. S o' z l a s h u v n u t q i d a fikr ma'nosi ancha erkin bo'ladi, unda adabiy nutqqa xos bo'lmagan oddiy so'zlar (*qittay, ketvorgan...*) dialektizmlar (*opoqi, opog'oyi, kallapo'sh...*) jargonizmlar (*loy, yakan, satil...*), salbiy emotsiya ifodalovchi so'zlar (*bashara, tirjaymoq...*), vulgarizmlar (*go'rso'xta, to'nka, so'tak, qizig'ar...*) laqablar (*Bo'tqa, Burun, Qilich...*), ba'zan, hatto o'zbek tiliga o'zlashmagan, demak, o'zbek tili birligi darajasiga etmagan boshqa til so'zlari (*alkash, bratan, molodets* kabi varvarizmlar) ham keng qo'llaniladi.

Nutq ko'rinishlariga xoslangan leksemalarning badiiy asar tilida qo'llanilishi. Leksemalarning nutq ko'rinishlariga xoslanishi haqida gap ketganda, ularning badiiy asar tilida qo'llanilishini alohida baholash kerak, chunki badiiy nutq bilan badiiy asar tili bir hodisa emas: badiiy nutq adabiy nutqning bir ko'rinishi, u albatta adabiy til me'yorlariga bo'ysundiriladi: adabiy asar tilida esa adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi: badiiy asardagi obraz va personajlar tilining tipiklashtirilishi shuni taqozo qiladi, demak, badiiy nutq badiiy asar tilining etakchi komponenti, ammo yagona komponent emas. Unda badiiy nutq bilan parallel ravishda, asardagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib, so'zlashuv nutqi qoliplari va elementlaridan, umumnutq qatlam so'zlaridan ham foydalaniladi: muallif nutqi, muallif tili shaklida berilayotgan bayon va izohlar, asosan, adabiy nutq me'yorlariga tayanadi (so'zlarning tanlanishi ham shunga asoslanadi), obraz va personajlar tilida esa funktsional uslubning barcha turlaridan foydalaniladi.

Nazorat savollari:

1. Til nima? Nutq nima? Ular orasidagi umumiy va farqiy jihatlarni tushuntiring.
2. Og'zaki nutqning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.
3. Yozma nutqning o'ziga xos tomonlarini tushuntiring.
5. Adabiy nutq nima?
6. Adabiy nutqning o'zi qanday turlarga bo'linadi?
7. Grammatik shakllarda nutq ko'rinishlariga xoslanish qanday ro'y beradi?

2-asosiy savol bayoni:

So'zlarning fonetik tarkibida, grammatik shakllarida nutq ko'rinishlariga xoslanish:

1. So'zlashuv nutqida, ayniqsa, oddiy (jonli) so'zlashuvda:

a) so'z, so'z formalari va so'z birikmalari tarkibidagi ayrim tovushlar (ba'zan bir necha tovush) tushib qoladi: *obor* (<olib bor), *aytvor* (<aytib yubor), *pasqam* (pastqam), *bolla* (bolalar), *mashu* (<mana shu) kabi;

- b) ba'zi tovushlarning so'z tarkibidagi o'rni almashadi (so'zning metagezaga uchragan shakli qo'llanadi): *tuproq* (<tuproq), *tervat* (tebrat), *to'rg'amoq* (<to'g'ramoq) kabi;
- v) bir tovush o'rnida boshqa tovush (fonemaning fakultativ varianti) qo'llanadi: *kegin* (<keyin), *shoyi* (<shohi), *ko'ynak* (<ko'yak), *qalmoq* (<qarmoq) kabi;
- g) so'z boshida, o'rtasida yoki oxirida tovush orttiriladi: *o'ris* (<rus), *ishkop* (<shkaf), *tanka* (<tank), *banka* (<bank) kabi;
- d) so'z tarkibidagi ayrim unlilar uslubiy maqsadda cho'ziladi: *ho-o-zir*, *ka-a-a-atta*, *ayta qo-o-l*, *jo-o-nim* kabi;
- e) so'z tarkibida bir xil undoshlar qavatlantiriladi, bunda so'z urg'usining o'rni ham ko'pincha o'zgartiriladi, shu tariqa leksemaning ma'nosida ta'kidlash, erkalatish, yalinish, ma'noni kuchaytirish kabi ottenkalar ifodalanadi: *maza-mazza*, *yasha-yashsha* kabi;
- j) so'zlashuv nutqida kishi nomlarining, so'z yoki so'z birikmalarining qisqartirib talaffuz qilinishi ham uchrab turadi: *Dilor* (<Dilorom), *Muqad* (<Muqaddas), *Guli* (<Gulnora), *Dilfuz* (<Dilfuza), *kilo* (kilogramm), *marshrutka* (<marshrutli taksi), *metro* (<metropolitan) kabi;
- z) so'zlashuv nutqida intonatsiyaning ham o'ziga xos o'rni bor: nutqiy vaziyatga qarab u tez-tez o'zgarib turishi, bunda xabar-darak, so'roq, buyruq mazmuni, taajjub, gumon, qat'iylilik kabi ma'nolar ifodalanishi mumkin;
- i) fe'lining *-b (-ib)* affiksi bilan yasalgan ravishdosh shakli hamda "-gan" affiksi bilan yasalgan sifatdosh shakli *edi* to'liqsiz fe'li bilan birga kelganda "-uvdi", "-ovdi", "-gandi" shakllarida qo'llanadi: *aytuvdi* (<aytib edi), *boruvdi* (<borib edi), *yozuvidi* (<yozib edi), *aytgandi* (<aytgan edi), *borgandi* (<borgan edi), *yozgandi* (<yozgan edi) kabi.

Nazorat savollari:

1. So'zlarning fonetik tarkibida bo'ladigan o'zgarishlarni ayting.
2. Grammatik shakllarda nutq ko'rinishlariga xoslanish deganda nimani tushunasiz?
3. Metateza hodisasi nima?
4. So'z boshida tovush orttirilishi qanday hodisa?

MAVZU: FRAZELOGIYA-KO'CHMA MA'NOLI TURG'UN KONSTRUKSIYA

Reja:

1. O'zbek frazeologiyasining shakllanishi.
2. Frazeologiya haqida umumiy ma'lumot.
3. Frazemalarning semantik turlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar :

1. Frazeologiya, frazema, turg'un birikma, frazemaning ifoda plani, frazemaning mazmun plani, frazeologiya butunlik, frazeologik chatishma.

1-savolning bayoni:

Frazeologiya tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida XX asrning 50-yillarida leksikologiyaning bag'ridan ajralib chiqdi.

Frazeologiyaning fan sifatida shakllanishi rus tilshunosi V.V Vinogradov nomi bilan bog'liq.

O'zbek frazeologiyasining shakllanishi tilshunos olimlar Ya.Pinxasov, M.Xusainov, Sh.Rahmatullaevlarning nomlari bilan bog'liq.

O'zbek frazeologiyasining bugungi taraqqiyotida tilshunos olimlar Abdug'ofur va Abdumurod Mamatovlarning xizmati kattadir.

Abdug'ofur Mamatov 1999 yilda «O'zbek frazeologiyasining shakllanishi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Jizzax Davlat Pedagogika institutining dotsenti Almamatova Shahnoza 2008 yilda «O'zbek tili frazemalarning komponent tahlili» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Nazorat savollari:

1. Frazeologiya nima uchun Leksikologiya bilan chambarchas bog'liq?
2. "Ibora"termini qaysi tildan olingan va qanday ma'noni bildiradi.
3. Kundalik hayotda iboralarning tutgan o'rni qanday?

2 – savolning bayoni:

Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi.

Frazema ko'chma ma'noli turg'un qonstruktivdir. Masalan, zo'raymoq (leksema)- avj olmoq (frazema), qiynalmoq (leksema)-azob chekmoq (frazema) kabi. Demak, frazema ham leksema kabi lug'aviy birlik sanaladi. Ammo o'zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemadan farqlanadi.

Frazemaning ifoda plani deganda uning tovush tomoni, leksik tarkibi, birikmaga yoki gapga teng konstruktiviyasi nazarda tutiladi.

Frazemaning ifoda plani

Tovush tomoni, leksik tarkibi

Masalan: ko'nglini olmoq (birikmaga teng), qo'zlari qinidan chiqib ketdi (gapga teng), boshi qotdi (gapga teng), ensasi qotdi (gapga teng) kabi. Frazemalar orasida qo'shma gapga teng qurilishli turg'un konstruktiviyalar ham uchraydi: «Qor yog'ib, izlar bosildi» kabi.

Frazemalar tarkibidagi so'zlarning bog'lanishi erkin birikma yoki gap tarkibidagi so'zlarning bog'lanishidan farq qilmaydi: ularning barchasida so'zlar tobelanish asosida bog'lanadi: biroq: a) erkin birikmadagi yoki gapdagi bog'lanish nutq jarayonida, nutq bilan bir paytda sodir bo'ladi; frazema bog'lanish esa nutq paytidan ancha avval yuzaga kelib, turg'unlashib qoladi, inson xotirasida va tilda yaxlitligicha saqlanadi; b) erkin birikmadagi yoki gapdagi so'zlarni so'zlovchi o'z ixtiyori bilan almashtira oladi: «keng ko'cha» birikmasi o'rnida «tor ko'cha» birikmasini, «men o'qiyman» gapi o'rnida «men ishlayman» gapini qo'llash mumkin, ammo «yulduzni benarvon urmoq» birikmasi o'rnida «yulduzni narvonsiz urmoq», «yulduzni shotisiz urmoq», «yulduzni beshoti urmoq» birikmalari qo'llanmaydi.

Frazemaning mazmun plani uning nimanidir nomlashi, ifodalashi, anglatishidir. Masalan, og'zi qulog'ida frazemasining mazmun planida «Xursand» ma'nosi ifodalangan

Nazorat savollari:

1. Frazeologiya nimani o'rganadi ?
2. Turg'un birikma nima ?
3. Frazemaga ta'rif bering.
4. Frazeologik ma'no nima ?
5. Frazemaning ifoda plani nimaligini tushuntiring.
6. Frazemaning mazmun plani nima ?
7. Frazemalarning turkumlanishini qanday tushunasiz ?

Frazemalarning semantik turlari. Frazema ma'nosi bilan uning tarkibida qo'llangan leksemalar ma'nosi o'rtasidagi munosabat asosida frazemaning ikki semantik turi farqlanadi:

1. Frazeologik butunlik. Bunday frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosi frazema tarkibidagi leksemalar ma'nosi bilan izohlanadi. Masalan, «tepa sochi tikka bo'lmoq» frazemasini yaxlit holda «g'azablanmoq» ma'nosini – umumlashgan ko'chma ma'noni anglatadi. Bunday ko'chma ma'noga esa kishi darg'azab bo'lganida uning badanidagi tuklarning sezilar - sezilmas harakatga kelishi (psixo – fiziologik holat) asos bo'lgan, demak, frazemaning ko'chma ma'nosini frazema tarkibidagi so'zlarning o'z ma'nolari bilan izohlash mumkin. Ya n a: «Ona suti og'zida» frazemasini yaxlit holda «hali yosh», «tajribasiz» ma'nosini anglatadi. Bunday ko'chma ma'noni esa frazema tarkibidagi so'zlar ma'nosi bilan izohlash mumkin: «Mahmadona, shumsan-da. Ona suting og'zingda – yu, soqolimning oqiga qaramay aql o'rgataman deysan». (O.)

2. Frazeologik chatishma. Bunday frazema ifodalagan ko'chma ma'no frazema tarkibidagi so'zlar anglatgan leksik ma'nolar bilan izohlanmaydi. Masalan, «ikki qo'lini burniga tikib» frazemasini «quruqdan quruq, evaziga hech narsa olmay» ma'nosini ifodalaydi, bu ma'noni frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan izohlab bo'lmaydi: «Kelmagandan keyin, domlaga «ozodlik» olib kelish kerak-da. Bu bo'lsa shumshayib, ikki qo'lini burniga tikib keldi». (P.T.) «...Senga ish yo'q!» – deb, bizni quvib yubordi. Katta o'g'lim bilan ikki qo'limizni burnimizga suqib o'z uyimizga bordik». (S.A.)

Frazeologik butunlik bilan frazeologik chatishma orasida ma'lum umumiylik va tafovutlar bor. Ularni quyidagicha izohlash mumkin:

1. Ikkalasi xam turg'un konstruktiviyasi sanaladi.

2. Ikkalasida xam umumlashgan yaxlit bir ma'no ifodalanadi.
3. Ikkalasida ham uslubiy bo'yoq (uslubiy sema) bo'ladi, chunki frazemalarning barchasi voqelikni nomlash bilan cheklanmaydi.
4. Ikkalasi ham yaxlit holda bitta sintaktik vazifada qo'llanadi

Farqlari:

Frazeologik butunlik tarkibidagi so'zlarning ma'nolari, frazemaning ko'chma ma'nosini izohlaydi. Frazeologik chatishmada esa so'zlar ma'nosi bilan frazema ma'nosi o'rtasidabunday aloqa yo'q.

2. Frazeologik butunlikning ma'nosida ichki obraz saqlanadi: tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar sezilib turganligidan frazemaning ma'nosi ko'p qirrali, boy bo'ladi. frazeologik chatishma ma'nosining gavdalanishida esa frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nolari ishtirok etmaydi, shuning uchun unda ichki obraz so'ngan bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Frazemaning semantik tarkibiga nimalar kiradi?
2. Frazemalarning qanday semantik turlari bor?
3. Frazeologik chatishma nima?
4. Frazeologik birikma nima?
5. Frazeologik monosemiya deganda nimani tushunasiz?
6. Frazeologik polisemiya nima?

Mavzuni mustahkamlash testlari

1. Honning yog'ini yalagan, qo'li egri, terisi qalin iboralari qaysi so'z turkumiga xos?

- A) fe'l
- V) ot
- S) ravish
- D) sifat

2. Qaysi gapda ibora qo'llangan?

- A) U charchaganidan qo'ltig'idagi tarvuzi tushib ketdi.
- V) Bolalar to'y oldidan nog'ora chalib o'tirishardi
- S) Og'ir ishdan zo'riqib, yuragi yorilib o'ldi.
- D) Ro'paradan kelayotgan odamga uning ko'zi tushdi.

3. "Bo'yniga olmoq" iborasi quyidagi birliklarning qaysi biri bilan sinonim bo'la olmaydi?

- A) tan olmoq
- V) zimmasiga olmoq
- S) itoat qilmoq
- D) e'tirof etmoq

4. Iborani aniqlang.

- A) It bolaning barmog'ini tishlab olibdi.
- V) Otaxonning avaylab olib ketayotgan tarvuzi qo'ltig'idan tushib ketdi.
- S) Xabarni eshitib, tarvuzi qo'ltig'idan tushib ketdi.
- D) Xotin erining cho'ntagini tozalab qo'ydi.

5. Turg'un birikma (frazema) berilgan qatorni toping.

- A) ko'ngli og'rimoq
- V) ko'ngli ozmoq
- S) ko'nglini o'rtamoq
- D) A, V, S

6. Qaysi iboraning ma'nosi beparvo, beg'am so'zlariga sinonim bo'ladi?

- A) qum kabi engil tortmoq
- V) do'ppisi yarimta
- S) chuchvarani xom sanamoq
- D) kayfi xush

7. "Laganbardorlik" ma'nosini bildiruvchi iboralar qaysi qatorda berilgan?

- A) soyasiga salom bermoq
- V) soyasiga ko'rpacha solmoq

- S) ko'ngliga qaramoq
- D) A,V

8. "Po'stagini qoqmoq" iborasining sinonimini belgilang.

- A) po'stakning changini qoqmoq.
- V) ozor etkazmoq
- S) talabchan bo'lmoq
- D) qattiq jazolamoq

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tursunov U., J.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: "O'zbekiston", 1992.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T., 2005.
3. Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Universitet.-T., 2006
4. Sayfullaeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T., 2009

MAVZU: LEKSIKOGRAFIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. LUG'ATLAR VA ULARNING TURLARI.

Reja:

1. Entsiklopedik lug'atlar.
2. Lisoniy lug'atlar.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Leksikografiya, entsiklopedik lug'atlar, lisoniy lug'atlar, universal entsiklopediyalar, soha entsiklopediyalari, bir tilli lug'atlar, ikki tilli lug'atlar, ko'p tilli lug'atlar, terminologik lug'atlar, orfografik lug'atlar, chastotali lug'atlar, etimologik lug'atlar.

1- savolning bayoni:

Entsiklopedik lug'atlarda tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalar, tarixiy voqea- jarayonlar, buyuk shaxslar, ilm-fandagi kashfiyotlar, davlatlar, shaharlar haqida ma'lumot beriladi.

Demak, bu tipdagi lug'atlarda asosiy e'tibor tildagi so'zlarga emas, balki shu so'zlar yoki so'z birikmalari vositasida nomlangan xodisalarsha qaratiladi. Entsiklopedik lug'atlar o'z navbatida ikki turga bo'linadi: 1. Universal entsiklopediyalar. Bunday lug'atlarda ishlab chiqarishning, fan, adabiyot, tabiat, jamiyat va hokazolarning barchasiga oid muhim tushunchalar, predmetlar, xodisalar va shu soxolarda tanilgan buyuk shaxslar haqida ma'lumot beriladi. 2. Soxa entsiklopediyalari. Bunday entsiklopediyalarda faqat bir soxaga oid materiallar beriladi: "zoologiya entsiklopediyasi" (T.Zoxidov, 1960-1969), "Botanikadan ruscha- o'zbekcha entsiklopedik lug'at" (Q.Zohidov, X.Jamolxonov, 1973.) shular jumlasidandir.

Nazorat savollari:

1. Leksikografiya qanday fan?
2. Lug'atlar necha turli bo'ladi?
3. Entsiklopedik lug'atlar haqida gapiring?
4. Universal entsiklopediyalar haqida ma'lumot bering?
5. Soha entsiklopediyalari haqida gapiring.

2 -savolning bayoni:

Lisoniy lug'atlarda so'z ma'nolari, imlosi, talaffuzi, iboralar, xalq maqollari, xullas, til birliklari va filologik tushunchaga oid ma'lumotlar beriladi.

Lisoniy lug'atlar ham ikki turga bo'linadi: umumiy lug'atlar. xususiy lug'atlar.

1. Umumiy lug'atlarda umumtil birliklari, ularning ma'nolari va qo'llanish hususiyatlari izohlanadi. Bunday lug'atlar bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli, izohli, izohsiz bo'lishi mumkin. "O'zbek tilining izohli lug'ati" (Moskva, 1981.), "O'zbekcha-ruscha lug'at" (1959).
2. Xususiy lug'atlarda tilning lug'at boyligidagi birliklar ma'lum sohalar bo'yicha yoki shu tildagi ma'lum mikrosistemalar, guruhlar bo'yicha tanlab izohlanadi. "Lingvistiik teminlarning izohli lug'ati" (A.Xojiev, 1985) "O'zbek tilining izohlo frazeologik lug'ati" (Sh.Raxmatullaev, 1978).

Nazorat savollari:

1. Lisoniy lug'atlar haqida gapiring.
2. Qanday orfografik lug'atlarni bilasiz?
3. Etimologik lug'atlar qanday lug'atlar?
4. Chastotoli lug'at deganda nimani tushunasiz?
5. O'zbek tilining chappa lug'atini kim yaratgan?

10.Glossariy

1.Leksikologiya- tilning lug'at boyligini o'rganuvchi fan.

2.Leksik sath-til ierarxiasining lug'at boyligidan iborat yuqori pog'onasi: so'zlar, iboralar, ularning turli qatlamlari.

3.Lug'aviy birliklar-so'z va iboralar (leksema va frazemalar).

4.Leksika- tilning lug'at boyligi.

5. Lisoniy omillar (lingvistik faktorlar) – tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar.

6.Nolisoniy omillar (ekstralingvistik faktorlar) – til taraqqiyotiga (shu jumladan,leksik tizim rivojiga) tashqaridan ta'sir o'tkazuvchi omillar: ijtimoiy-siyosiy tuzum, psixologiya, urf-odatlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, adabiyot-san'at va boshqalar.

7.Umumiy leksikologiya – leksikologiyaning barcha (yoki ko'pchilik) tillar lug'at boyligi taraqqiyotiga xos umumiy qonuniyatlarni aniqlash va yoritish bilan shu'ullanuvchi turi

8.Xususiy leksikologiya – leksikologiyaning muayyan bir til lug'at boyligi haqida ma'lumot beruvchi turi.

9.Tavsifiy leksikologiya – ayrim olingan bir tilning lug'at boyligini shu til leksikasining avvalgi taraqqiyoti bilan bog'lamay o'rganadigan leksikologiya.

10.Tarixiy leksikologiya – ayrim olingan bir tilning lug'at boyligini tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan boG'lab o'rganadigan leksikologiya.

11.Semasiologiya – leksik birliklarning semantik tarkibi va u bilan boG'liq masalalarni o'rganuvchi soha.

12. Onomasiologiya – leksik birliklarni nomlash va tushuncha anglatish printsiplari hamda qonuniyatlari haqida ma'lumot beruvchi soha.

13.Etimologiya – tilshunoslikning so'z va morfemalarning kelib chiqishini o'rganuvchi bo'limi.

14.Nominativ birlik – nomlash xususiyatiga ega birlik.

15.Leksik so'z – leksik mazmunli so'z (leksema).

16.Grammatik so'z – leksik ma'nosi bo'lmagan, grammatik mazmunli so'z (morfema-so'z).

17.Semema – leksik ma'no.

18.Nomema – so'zning (leksemaning) nomi.

19.Leksik ma'no – leksemaning nimanidir nomlashi, atashi, anglatishi.

20.Fonetik so'z – leksemaning fonetik qiyofasi, nomi.

21.Denotat - leksema tomonidan nomlangan narsa-predmet, voqelik.

22.Referent – til birligi ifodalaydigan tushuncha, fikr predmeti.

23.Signifikat – til birligi ifodalaydigan ma'no.

24.Valentlik – leksemaning birikma yoki gap tarkibida boshqa leksemalar bilan aloqaga kirisha olish xususiyatlari.

25.Tushuncha – ob'ektiv borliqdagi predmet yoki hodisalarning inson miyasida aks etgan umumiy tasavvuri.

26.Turkumlik semalari – leksik ma'noga tayangan holda leksemalarning grammatik ma'nolarini belgilaydigan, shu asosda leksemalarning so'z turkumlariga uyushishini ta'minlaydigan semalar.

27.Sema – leksik ma'no (semema)ni tashkil toptiruvchi komponent va ma'no qirralari.

28.Atash semalari – leksemaning leksik ma'nosidagi ideografik semalar (atash, nomlash ma'nosini shakllantiruvchi semalar).

29.Ifoda semalari – semema tarkibidagi uslubiy ma'no qirralari.

- 30. Vazifa semalari** – atash, ifodalash bilan birga leksemalarning nutqda o'zaro birika olishini (valentligini) belgilaydigan semalar.
- 31. Terminlar** – fan, texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan tushuncha nomlari.
- 32. Ixtisoslashish, chegaralanish** - terminlarning ma'nosi va qo'llanishidagi o'ziga xoslik, ma'lum soha tushunchasini nomlash bilan cheklanish.
- 33. Determinlashish** – terminlarning ommalashib, umumnutq birligiga aylanishi.
- 34. Uzual ma'no** – leksemaning semantik tarkibida bor bo'lgan leksik ma'no.
- 35. Okkazional ma'no** – leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'lmagan, ayrim shaxsning leksik qo'llashi natijasida yuzaga keltirilgan sun'iy ma'nosi.
- 36. Leksik qo'llash** – leksemaning okkazional (nutqiy) ma'noda qo'llanishi.
- 37. Monosemiya** – bir ma'nolilik hodisasi.
- 38. Polisemiya** – ko'p ma'nolilik hodisasi.
- 39. Metafora yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi** – predmetlar, hodisalar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi.
- 40. Vazifadagi o'xshashlik asosida ma'noning ko'chirilishi** – predmetlarning bajaradigan vazifasidagi o'xshashlik asosida ulardan birining nomini ikkinchisiga nisbatan qo'llash.
- 41. Metonimiya yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi** – narsa-hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik asosida ma'noning ko'chirilishi.
- 42. Sinekdoxa yo'li bilan ma'noning ko'chirilishi** – butunning nomi bilan qismning yoki, aksincha, qismning nomi bilan butunning atalishi orqali yuz beradigan ma'no ko'chirilishi.
- 43. Hozirgi leksik ma'no** – leksemaning hozirgi o'zbek tilidagi ma'nosi.
- 44. Avvalgi leksik ma'no** – leksemaning o'tmishdagi leksik ma'nosi.
- 45. Bosh ma'no** – leksemaning semantik tarkibidagi hosila ma'nolarning o'sib chiqishiga asos bo'lgan ma'no.
- 46. Hosila ma'no** – bosh ma'nodan taraqqiy etib chiqqan ma'no.
- 47. Eski leksik ma'no** – leksemaning hozirgi paytda arxaiklashib qolgan ma'nosi.
- 48. Etimologik leksik ma'no** – leksemaning kelib chiqishida uning mazmun planiga asos bo'lgan dastlabki ma'no. U ma'no etimoni deb ham ataladi.
- 49. Shakl etimoni** – leksemaning yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qilgan dastlabki shakl.
- 50. Sinonimiya** – leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishi.
- 51. Sinonimik qator** (sinonimik uya) – bir ma'no anglatishiga ko'ra guruhlangan sinonim so'zlar yiG'indisi.
- 52. Dominanta** – sinonimik qatordagi betaraf ma'noli so'z.
- 53. Ma'no sinonimlari** – bir umumiy ma'noga ega bo'lsa-da, ma'no qirralari bilan farqlanuvchi sinonimlar.
- 54. Uslubiy sinonimlar** – leksik ma'nolari ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalovchi semalar bilan qoplangan sinonimlar.
- 55. Nutqiy sinonimlar** – nutqning u yoki bu turiga xoslanganligi bilan farqlanadigan sinonimlar.
- 56. Antonimiya** – leksemalarning bir-biriga zid ma'no anglatishi asosida guruhlanishi.
- 57. Antonimik juftlik** - o'zaro qarama-qarshi ma'noli ikki so'z.

- 58. Kontekstual antonimiya** – tilda antonimik munosabatda bo'lgan so'zlarning ma'lum kontekst doirasida antonimik munosabatga kiritilishi.
- 59. Enantiosemiya** – bitta leksema ma'nosida nutqiy muhit taqozosi bilan zidlanishning ifodalanishi.
- 60. Mantiqiy markaz** – ikki ma'no o'rtasidagi oraliq tushuncha.
- 61. Omonimiya** – til birliklarining ifoda planidagi tenglik hodisasi.
- 62. Leksik omonimiya** – omonimiya hodisasining leksemalar doirasidagi ko'rinishi.
- 63. Omoformalar** – ayrim grammatik shakllari o'zaro teng bo'lgan leksemalar.
- 64. Omofonlar** – talaffuzi bir xil, yozilishi har xil bo'lgan leksemalar.
- 65. Omograflar** – yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo'lgan leksemalar.
- 66. Paronimiya** – ikki yoki undan ortiq leksemaning talaffuzda o'zaro o'xshash, ohangdosh bo'lishi.
- 67. Kvaziomonimlar** – bir fonemasi bilan farqlanadigan ikkita so'z (minimal juftlik).
- 68. So'z variantlari** – bir leksemaning tildagi turli ko'rinishlari.
- 69. Paronomaziya** – jonli so'zlashuvda paronim so'zlarni qorishtirish hodisasidan badiiy nutqda uslubiy maqsadlarda foydalanish.
- 70. Giponimiya** – luG'at boyligidagi leksemalarning poG'onali aloqasidan kelib chiqadigan ma'no munosabatlari.
- 71. Giponim** – tur tushunchasini ifodalaydigan leksema.
- 72. Giperonim** – jins (turkum) tushunchasini ifodalaydigan leksema.
- 73. Graduonimiya** – leksemalarning ma'no guruhlarida a'zolarida u yoki bu belgining darajalanishi.
- 74. Partonimiya** – leksemalarning ma'no guruhlarida butun-bo'lak munosabatlarining ifodalanishi.
- 75. O'z qatlam** - o'zbek tili leksikasining umumturkiy va sof o'zbekcha so'zlardan iborat qismi.
- 76. O'zlashgan qatlam** – boshqa tillardan olingan leksik o'zlashmalar qatlami.
- 77. Umumturkiy so'zlar** - o'zbek tili lu²at boyligidagi eng qadimgi lu²aviy birliklar.
- 78. Sof o'zbekcha so'zlar** - o'zbek tilining o'zida yasalgan (nisbatan yangi) leksemalar.
- 79. Arabcha o'zlashmalar** – arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar.
- 80. Fors-tojik so'zlari** – fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar.
- 81. Ruscha-baynalmilal o'zlashmalar** – rus tilidan va u orqali boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'z va terminlar.
- 82. So'z o'zlashtirish** – boshqa til so'zlarining o'zbek tiliga olinishi.
- 83. O'zicha olish** – boshqa til leksemasining o'zgarishsiz yoki juz'iy o'zgarish bilan o'zlashtirilishi.
- 84. Kalkalab olish** – boshqa tildagi so'zning morfemik tarkibidan qismma-qism nusxa ko'chirish orqali so'z yasalishi, bu so'zda boshqa til leksemasi ma'nosining ifodalanishi.
- 85. Semantik kalka** – tilda azaldan mavjud bo'lgan so'zga boshqa til leksemasining ma'nosini yuklash.
- 86. Umumxalq lu²aviy birliklar** – ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'z va iboralar.
- 87. Dialektizmlar** - qo'llanishi territoriyaga ko'ra chegaralangan til birliklari.
- 88. Dialektizm-so'z** – shevaga xos so'z.

- 89.Dialektizm-ma'no** – so'zning shevadagi ma'nosi.
- 90.Fonetik dialektizmlar** – dialekt yoki shevaga xos fonetik birliklar tizimi.
- 91.Leksik-fonetik dialektizm** – adabiy tilda bor bo'lgan so'zning biror shevadagi fonetik tarkibi.
- 92.Grammatik dialektizmlar** – biror shevaning o'zigagina xos (adabiy tildagidan o'zgacha) grammatik shakllari.
- 93.Kasb-hunar leksikasi** – ijtimoiy mehnatning, ilm-fan yoki san'atning, ishlab chiqarishning u yoki bu turiga mansub maxsus tushunchalarning nomlari.
- 94.Professionalizmlar** – kasb-hunar leksikasining o'zi.
- 95.Terminlar** - professional leksikaning ilm-fanga, texnikaga, adabiyot yoki san'atga oid bir turi.
- 96.Argotizmlar** – yashirin ma'noli so'zlar.
- 97.Jargonizmlar** – yashirin ma'no bilan birga tinglovchini yoki o'zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatini bo'rttirib baholash xususiyatiga ega so'zlar.
- 98.Vulgarizmlar** - haqorat ma'nosida qo'llanadigan so'zlar.
- 99.Leksik istorizmlar** - o'tmish voqeligining nomlari.
- 100.Leksik arxaizmlar** - hozirgi paytda bor bo'lgan voqelikning eskirgan nomi yoki hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi.
- 101.Arxaizm-leksema** – leksik arxaizmning bir turi. Unda leksema yaxlit holda eskirgan bo'ladi.
- 102.Arxaizm-semema** – leksik arxaizmning ikkinchi turi. Bunda leksema yaxlit holda emas, qisman (semantik tarkibidagi ma'nolaridan biri) eskiradi.
- 103.Leksik-fonetik arxaizm** – talaffuz arxaizmi. Bunda leksemaning tovush tarkibida qisman eskirish yuz beradi.
- 104.Leksik neologizm** – yangilik bo'yo'i bor bo'lgan leksemalar.
- 105.Individual nutq neologizmi** – ayrim shaxs nutqida voqe bo'lgan neologizm.
- 106.Umumtil neologizmi** – nutqiy hodisadan til hodisasiga aylangan neologizm.
- 107.Neologizm-leksema** – yangilik bo'yo'iga ega bo'lgan leksema.
- 108.Neologizm-semema** – tilda azaldan mavjud bo'lgan leksemaning semantik tarkibida yangi paydo bo'lgan ma'no (semema).
- 109.Uslubiy bo'yoq** - so'zning leksik ma'nosiga qo'shimcha tarzda orttirilgan uslubiy ottenka, ifoda semasi.
- 110.Emotsional-ekspressivlik** – ekspressiyaga (ta'sir-chanlikka) egalik.
- 111.Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning leksik usuli**- nutqda uslubiy bo'yog'i bor bo'lgan so'zning qo'llanishi hisobiga ta'sirchanlikning ifodalanishi.

112.Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning affik-syatsiya usuli-

betaraf ma'noli so'zlarga sub'ektiv baho ifodalovchi affikslarni qo'shish orqali nutqda ta'sirchanlikka erishish.

113.Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning kon-tekstual usuli -

uslubiy bo'yog'i bo'lmagan so'zning ma'lum kontekst ta'sirida uslubiy bo'yoqdor so'zga aylantirilishi orqali nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

114.Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning fonetik usuli- turli fonetik hodisalar (geminatsiya, unililarni cho'zish, urg'uning o'rmini o'zgartirish) hisobiga nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

115.So'zni metaforik qo'llash - so'zning metafora usulida ko'chirilgan ma'nosi hisobiga nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

116.Frazeologiya – tilshunoslikning frazemalar bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

117.Frazema – ko'chma ma'noli turg'un konstruktsiya.

118.Frazemaning ifoda plani – frazemaning moddiy-material tomoni: shakli, tuzilishi, leksik va fonetik tarkibi.

119.Frazemaning mazmun plani – frazemaning frazeologik ma'no va uslubiy bo'yoqdan iborat semantik tarkibi.

120.Frazeologik monosemiya – frazemalarda bir ma'nolilik hodisasi.

121.Frazeologik polisemiya – frazemalarda ko'p ma'nolilik hodisasi.

122.Frazeologik butunlik – frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosini shu frazema tarkibidagi so'zlar ma'nolari bilan izohlash mumkin bo'lgan ibora.

123.Frazeologik chatishma – frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosini shu frazema tarkibidagi so'zlar ma'nolari bilan izohlanmaydigan ibora.

124.Frazeologik omonimiya – omonimlar doirasidagi shakliy tenglik hodisasi.

125.Frazeologik paronimiya – tarkibidagi birorta leksema bilangina farqlanuvchi frazemalar.

126.Omofrazemalar – shaklan teng bo'lgan frazemalar.

127.Parafrazemalar – paronimik munosabatda bo'lgan frazemalar.

128.Frazeologik sinonimlar –bir ma'no asosida birlashgan sinonimlar.

129.Uslubiy bo'yoq - frazemalarning ijobiy yoki salbiy baho ifodalovchi semalari.

130.Frazeologik variatsiya – bitta frazemaning ikki xil ko'rinishi.

131.Leksik-frazeologik sinonimlar – so'z va frazemalar o'rtasidagi asoslangan sinonimlar. ma'no birligiga

132.Leksik-frazeologik antonimlar – so'z va frazema orasidagi ma'no ziddiyatiga asoslangan antonimlar.

133.Leksikografiya – tilshunoslikning lu'atchilik bilan shug'ullanuvchi sohasi.

134. Entsiklopedik lug'atlar – tabiat va jamiyatdagi muhim hodisalar, tarixiy-ilmiy voqeliklar, buyuk shaxslar haqida ma'lumot beruvchi lug'at tiplari.

135. Lisoniy lug'atlar – til birliklari, til tizimiga xos kategoriyalar haqida ma'lumot beruvchi lug'atlar.

136. Universal entsiklopediyalar – tabiat va jamiyatning barcha sohalariga oid muhim voqelik-hodisalar haqida ma'lumot beruvchi qomusiy lug'atlar.

137. Soha entsiklopediyalari – faqat bir sohaga oid ma'lumotlar beriladigan qomusiy lug'atlar.

138. Bir tilli lug'atlar – bir til materialiga asoslangan lug'atlar.

139. Ko'p tilli lug'atlar – bir necha til materiallariga asoslangan lug'atlar.

140. Izohli lug'atlar – so'z ma'nolari izohlangan, sharhlangan lug'atlar.

141. Izohsiz lug'atlar – so'z yoki termin ma'nolari izohlanmagan lug'atlar.

142. Terminologik lug'atlar – u yoki bu sohaga oid terminlar haqida ma'lumot beruvchi lug'atlar.

ONA TILI VA ADABIYOT (LEKSIKOLOGIYA) BOLIMI BOYICHA AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-amaliy mashg'ulot LESIKA VA LEKSIKOLOGIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. Ajratilgan vaqt – 2 soat.

Darsning maqsadi : talabalarga leksikologiyaning ob'ekti, maqsad va vazifalari, uning turlari xususida tushuncha berish.

Ishni bajarish tartibi :

1. Tilning lug'aviy tomoniga nimalar kiradi ?
2. Leksemaning semantiq tarkibini belgilash.

Kerakli adabiyotlar ro'yxati :

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 1992.
2. Sayfullaeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.
3. Ne'matov X., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. –T., 1995.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.

Mustaqil ish topshiriqlari :

1 – topshiriq

1. Tilning lug'at sathi nima ?
2. Leksika terminini izohlang.
3. Leksikologiya qanday fan ?

2 – topshiriq

1. Ilmiy leksika nima ?
2. Leksikologiyaning vazifalarini ayting.
3. Leksikologiyaning qanday turlari bor ?

3 – topshiriq

1. Vulgar leksika nima ?
2. Xususiy leksikologiya nimani o'rganadi ?
3. Leksema nima ?

4 – topshiriq

1. Umumiy leksikologiya nimani o'rganadi ?
2. Dialektal leksika nima ?
3. Sememaga ta'rif bering.

5 –topshiriq

1. Sinxron leksikologiya nimani o'rganadi ?
2. Nomema nima ?
3. Nomlovchi so'zlarga nimalar kiradi ?

6 – topshiriq

1. Ko'rsatuvchi so'zlarga nimalar kiradi ?
2. Sema nima ?
3. Ifodalovchi so'zlar haqida gapiring.

7- topshiriq

1. Leksik ma'no nima ?
2. Turkumlik semalari haqida gapiring.
3. Ifoda semalarini bilasizmi?

8 – topshiriq

1. Integral semalar haqida gapiring.
2. Differentsial semalarga misollar keltiring.
3. Valentlik nima ?

2-amaliy mashg'ulot :

LEKSEMA, SEMEMA, SEMA.LEKSEMA VA SO'Z, UNING O'ZARO FARQLARI.

Ajratilgan vaqt – 2 soat.

Darsning maqsadi : talabalarga leksema, sema, semema, leksik ma'no, ma'no taraqqiyoti, so'zning uzual va okkazional ma'nolari, so'z ma'nosining torayishi va kengayishi xususida tushuncha berish.

Ishni bajarish tartibi :

1. Leksema va so'z, uning o'zaro farqini aniqlash

- 2.Nomlovchi so'zlarga qanday so'zlar kiradi ?
- 3.Leksemaning semantik tarkibini belgilash.

Kerakli adabiyotlar ro'yxati :

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 1992.
- 2.Sayfullaeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.,2005.
- 3.Ne'matov X., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. –T. , 1995.
- 4.Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.

Mustaqil ish topshiriqlari :

1 – topshiriq

- 1.Tilning lug'at sathi nima ?
- 2.So'zning semantik tarkibi deganda nima tushuniladi?
- 3.Leksik ma'no nima?

2 – topshiriq

- 1.Leksik ma'no va tushuncha.
- 2.So'zning uzual ma'nosi nima?
- 3.So'zning okkazional ma'nosi.

3 – topshiriq

- 1.Leksik ma'noni qaysi fan o'rganadi?
- 2.Monosemantizmlar haqida gapiring.
- 3.Leksema nima ?

4 – topshiriq

- 1.Uslubiy bo'yoq nima?
- 2.Polisemiya hodisasi haqida gapiring.
- 3.Semasiologiya nimani o'rganadi?

5 –topshiriq

- 1.Metafora usulida ma'no ko'chishi.
- 2.So'z ma'nosining torayishini tushuntiring.
- 3.Leksik qo'llash nima?

6 – topshiriq

- 1.Sinekdoxa nima?
- 2.Sema nima ?
- 3.So'z ma'nosining kengayishini ayting.

7- topshiriq

- 1.Til hodisasi deganda nimani tushunasiz?
- 2.Nutq hodisasi nima?
- 3.Ifoda semalarini bilasizmi?

8 – topshiriq

- 1.Integral semalar haqida gapiring.
- 2.Differentsial semalarga misollar keltiring.

3.Valentlik nima ?

3-amaliy mashg'ulot :

LEKSIK MA'NO. BIR MA'NOLI VA KO'P MA'NOLI SO'ZLAR.

Ma'no ko'chirishning asosiy turlari:Ma'no taraqqiyoti.So'z ma'nosining torayishi va kengayishi.

Ajratilgan vaqt – 2 soat.

Darsning maqsadi : talabalarga leksik ma'no, ma'no taraqqiyoti, so'zning uzual va okkazional ma'nolari, so'z ma'nosining torayishi va kengayishi xususida tushuncha berish.

Ishni bajarish tartibi :

- 1.Nomlovchi so'zlarga qanday so'zlar kiradi ?
- 2.Leksemaning semantiq tarkibini belgilash.

Kerakli adabiyotlar ro'yxati :

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 1992.
- 2.Sayfullaeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.,2005.
- 3.Ne'matov X., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. –T. , 1995.
- 4.Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.

Mustaqil ish topshiriqlari :

1 – topshiriq

1. Tilning lug'at sathi nima ?
2. So'zning semantik tarkibi deganda nima tushuniladi?
3. Leksik ma'no nima?

2 – topshiriq

1. Leksik ma'no va tushuncha.
2. So'zning uzual ma'nosi nima?
3. So'zning okkazional ma'nosi.

3 – topshiriq

1. Leksik ma'noni qaysi fan o'rganadi?
2. Monosemantizmlar haqida gapiring.
3. Leksema nima ?

4 – topshiriq

1. Uslubiy bo'yoq nima?
2. Polisemiya hodisasi haqida gapiring.
3. Semasiologiya nimani o'rganadi?

5 –topshiriq

1. Metafora usulida ma'no ko'chishi.
2. So'z ma'nosining torayishini tushuntiring.
3. Leksik qo'llash nima?

6 – topshiriq

1. Sinekdoxa nima?
2. Sema nima ?
3. So'z ma'nosining kengayishini ayting.

7- topshiriq

1. Til hodisasi deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq hodisasi nima?
3. Ifoda semalarini bilasizmi?

8 – topshiriq

1. Integral semalar haqida gapiring.
2. Differentsial semalarga misollar keltiring.

4-amaliy mashg'ulot :
O'ZBEK TILIDA SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA
TURLARI.

Lug'aviy sinonimiya, omonimiya va antonimiya.

Ajratilgan vaqt – 2 soat.

Darsning maqsadi : talabalarga lug'aviy sinonimiya, omonimiya va antonimiya haqida ma'lumot berish.

Ishni bajarish tartibi :

1. Lug'aviy sinonimlar qanday sinonimlar?
2. Lug'aviy omonimlar nima?
3. Lug'aviy antonimlar deganda nima tushuniladi?

Kerakli adabiyotlar ro'yxati :

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 1992.
2. Sayfullaeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.
3. Ne'matov X., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. –T., 1995.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.

Mustaqil ish topshiriqlari :

1 – topshiriq

1. Sinonimiya hodisasi nima?
2. Sinonimlar deb nimaga aytiladi?
3. Dominanta nima?

2 – topshiriq

1. Uslubiy sinonimlarni tushuntiring.
2. Kontekstual sinonimlarga misollar keltiring.
3. Sinonimiyaga munosabatingiz qanday?

3 – topshiriq

1. Omonimiya hodisasi nima?
2. Omonimlarga misollar keltiring.
3. Omoforma nima?

4 – topshiriq

1. Omofonlar haqida gapiring.
2. Omograflar nima?
3. Omonimiya va polisemiya munosabati.

5 –topshiriq

1. Antonimiya hodisasi nima?
2. Antonimik juftlik deganda nima tushuniladi?
3. Asliy antonimlarni tushuntiring.

6 – topshiriq

1. Antonimlardan badiiy adabiyotda qanday figura sifatida foydalaniladi?
2. Antonimlarning so'z turkumlariga munosabati qanday?
3. Matniy antonimlarga misollar keltiring.

4-amaliy mashg'ulot :

O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA O'Z VA O'ZLASHGAN QATLAM.

Ajratilgan vaqt – 2 soat.

Darsning maqsadi : talabalarga o'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlam haqida ma'lumot berish.

Ishni bajarish tartibi :

1. O'z qatlam so'zlari- sof o'zbekcha va umumturkiy so'zlarning belgilari.
2. O'zlashgan qatlam so'zlari.

Kerakli adabiyotlar ro'yxati :

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 1992.

- 2.Sayfullaeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.,2005.
- 3.Ne'matov X., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. –T. , 1995.
- 4.Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.

Mustaqil ish topshiriqlari :

1 – topshiriq

- 1.O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti deganda nimani tushunasiz?
- 2.O'z qatlam deganda nimani tushunasiz?
- 3.O'zlashgan qatlam deganda nima tushuniladi?

2 – topshiriq

- 1.Umumturkiy so'zlar haqida gapiring.
- 2.Umumturkiy so'zlarning fonetik belgilarini ayting.
3. Umumturkiy so'zlarning semantik belgilarini ayting.

3 – topshiriq

1. Umumturkiy so'zlarning semantik belgilarini ayting.
- 2.Fors- tojikcha o'zlashmalar
- 3.Arabcha o'zlashmalar

4 – topshiriq

- 1.Ruscha o'zlashmalar
- 2.So'z o'zlashtirish nima?
- 3.So'z o'zlashtirishning usullarini tushuntiring.

5 –topshiriq

- 1.Kalka nima?
- 2.To'liq kalka nima?
- 3.Yarim kalkaga misollar keltiring.

5-amaliy mashg'ulot :

**IJTIMOIIY TARKIBIGA KO'RA O'ZBEK TILI LEKSIKASI
Umumxalq leksikasi, dialektizmlar, kasb-hunar leksikasi, neologizmlar
Ajratilgan vaqt – 2 soat.**

Darsning maqsadi : talabalarga hozirgi o'zbek tili leksikasining ijtimoiy-dialektal tarkibi: umumxalq leksikasi, dialektizmlar, kasb-hunar leksikasi, neologizmlar haqida ma'lumot berish.

Ishni bajarish tartibi :

- 1.Iste'mol doirasi chegaralangan leksika.
2. Iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika.

Kerakli adabiyotlar ro'yxati :

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 1992.
- 2.Sayfullaeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.,2005.
- 3.Ne'matov X., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. –T. , 1995.
- 4.Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.

Mustaqil ish topshiriqlari :

1 – topshiriq

1. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika.
2. Iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika.
- 3.Sheva nima?

2 – topshiriq

- 1.Dialekt nima?
- 2.Dialektologiya qanday fan?
3. Shevalar adabiy tildan qanday farq qiladi?

3 – topshiriq

1. Kasb-hunar leksikasi deganda nima tushuniladi?

2. Duradgorlik leksikasiga misollar keltiring.
3. Zargarlik leksikasiga misollar keltiring

4 – topshiriq

1. To'quvchilik leksikasiga misollar keltiring.
2. Termin nima?
3. Adabiyotshunoslik terminlariga misollar keltiring.

5 –topshiriq

1. Tilshunoslik terminlarini sanang.
2. Neologizmlar haqida gapiring.
3. Pedagogikaga oid neologizmlarni sanang.

6-amaliy mashg'ulot :

LUG'AVIY BIRLIKLARNING NUTQ KO'RINISHIGA XOSLANISHI.

Ajratilgan vaqt – 2 soat.

Darsning maqsadi : talabalarga lug'aviy birliklarning nutq ko'rinishlariga xoslanganligi haqida ma'lumot berish.

Ishni bajarish tartibi :

1. Adabiy nutq va uning ko'rinishlari.
2. So'zlashuv nutqi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

Kerakli adabiyotlar ro'yxati :

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 1992.
2. Sayfullaeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.
3. Ne'matov X., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. –T. , 1995.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.

Mustaqil ish topshiriqlari :

1 – topshiriq

1. Til va nutq munosabati
2. Nutq nima?
3. Nutqning qanday ko'rinishlari bor?

2 – topshiriq

1. Adabiy nutq nima?
2. Adabiy nutqning qanday ko'rinishlari bor?
3. Shevalar adabiy tildan qanday farq qiladi?

3 – topshiriq

1. Rasmiy nutq nima?
2. Badiiy nutqqa misollar keltiring.
3. So'zlashuv nutqi haqida gapiring.

4 – topshiriq

1. So'zlashuv nutqida yuz beradigan fonetik o'zgarishlarni tushuntiring.
2. Yozma nutqning o'ziga xosligi nimada?
3. Og'zaki nutqning o'ziga xosligi nimada?

7-Amaliy mashg'ulot :

FRAZELOGIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. FRAZEMA TIL VA NUTQ BIRLIGI SIFATIDA

Ajratilgan vaqt – 2 soat.

Dars maqsadi : Frazeologiya qanday fan, uning o'rganish ob'ekti haqida talabalarga ma'lumot berish.

Ishning bajarish tartibi:

1. Frazemaning til birligi ekanligini asoslash.
2. Turg'un birima nima ekanligini izohlash.
3. Frazemalarning semantiq turlarini belgilash.

Kerakli adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T., 1992.
- 2.Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – T., 1996.
- 3.Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.
- 4.Sayfullaeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.
- 5.Asqarova M. Va boshqalar. O'zbek tili praqtIKumi. –T., 2006.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1 – topshiriq

- 1.Frazeologiya nimani o'rganadi ?
- 2.Turg'un birikma nima ?
- 3.Frazemaga ta'rif bering.

2 – topshiriq

- 1.Frazeologik ma'no nima ?
- 2.Frazemaning ifoda planini izohlang.
- 3.Frazemaning mazmun planini tushuntiring.

3 – topshiriq

- 1.Frazeologik monosemiya deganda nima tushuniladi ?
- 2.Frazeologik polisemiya nima ?
- 3.Frazemaning semantiq tarkibiga nimalar kiradi ?

4 – topshiriq

- 1.Frazemaning qanday semantiq turlari bor ?
- 2.Frazeologik bbutunlik nima ?
- 3.Frazeologik chatishama nimaligini tushuntiring.

8-Amaliy mashg'ulot

LEKSIKOGRAFIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. LUG'ATLAR VA ULARNING TURLARI.

Ajratilgan vaqt – 2 soat.

Dars maqsadi : Talabalarga o'zbek lug'atchilik fani haqida to'liq ma'lumot berish.

Ishni bajarish tartibi:

- 1.Lug'atchilik tarixini o'rganish.
- 2.Lug'atchilik haqidagi adabiyotlarni o'rganish.
- 3.Lug'at maqolalari bilan ishlashni o'rganish.

Kerakli adabiyotlar ro'yxati :

- 1.Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T., 1992.
- 2.Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – T., 1996., 82-89-betlar.
- 3.Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T., 2005.
- 4.Sayfullaeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.,2005.

Mustaqil ish topshiriqlari :

1 – topshiriq.

- 1.Leksikografiya nimani o'rganadi ?
- 2.Lug'atchilik deganda nimani tushunasiz ?
- 3.Leksikografiyaning vazifalari nimadan iborat

2 – topshiriq.

- 1.Lug'atlarning qanday turlari bor ?
- 2.Entsiklopedik lug'atlarda nima aks etadi ?
- 3.Soha ensiklopediyalari haqida gapiring.

3 – topshiriq.

- 1.Lisoniy lug'atlar qanday lug'atlar ?
- 2.Lisoniy lug'atlarning qanday turlari bor ?
- 3.umumiy lug'atlarning xususiy lug'atlardan farqi nimada ?

4 – topshiriq.

1. Bir tili va ko'p tili lug'atlar haqida nimalar bilasiz ?
2. Izohli lug'atlarni bilasizmi ?
3. Terminologik lug'atlarga misollar qeltiring.

5 – topshiriq.

1. Etimologik lug'at nima ?
2. Chappa lug'at deganda nimani tushunasiz ?
3. O'zbek lug'atchiligi tarixi qaysi davrga borib taqaladi.

“ONA TILI VA ADBIYOT”
(Leksikologiya) dan test savollari

1. Asr-asir soʻzlari shakl va maʼno munosabatiga koʻra qanday soʻzlar hisoblanadi?

- 1) paronimlar
- 2) sinonimlar
- 3) antonimlar
- 4) omonimlar

2. Metafora yoʻli bilan maʼnosi koʻchgan soʻzni aniqlang?

- 1) oltin kuz keldi
- 2) oʻchoq ogʻzida oʻtga qoʻyilgan qora qumgʻon varaqlab qaynomoqda edi.
- 3) oltin kuz keldi
- 4) tuyogʻimiz koʻpaysa koʻpaydiki, kamaygani yoʻq.

3. Bitta shu tuyoq bilan oltita bolani boqdim. Ushbu gapdagi maʼno koʻchish yoʻlini toping?

- 1) sinekdoxa yoʻli bilan maʼno koʻchgan
- 2) soʻzlar oʻz maʼnosi bilan qoʻllangan
- 3) metafora yoʻli bilan maʼno koʻchgan
- 4) metonimiya yoʻli bilan maʼno koʻchgan

4. Xaq yoʻlida kim senga bir harf oʻqitmish ranj ila,

Aylamak oson emas, xaqqin ado ming ganch ila. Navoiyning ushbu misralarida qoʻllangan ranj va ganj soʻzlarining sinonimlari qaysi javobda berilgan?

- 1) qiyinchilik va minnatdorchilik
- 2) mashaqqat va boyluk
- 3) mehnat va qarz
- 4) alam va xazina

5. Qaysi gapda “engil” soʻzi koʻchma maʼnoda ishlatilgan?

- 1) Yoʻlchi engil eshikchani ochib kirdi.
- 2) es -hushingni yigʻ, unaqa engil boʻlma
- 3) Davlatbekov radiodan aytilayotgan engil kuydan, hususan, uning oʻzlaridan zavqlanib tebrandi.
- 4) yigirma minut oʻtgandan keyin engil taʼzim bilan Gulandom kirib keldi.

6. Birdan ortiq soʻzning bir xil talaffuz etilishi va yozilishi natijasida qanday soʻzlar hosil boʻladi?

- 1) omonimlar
- 2) koʻp maʼnoli soʻzlar
- 3) sinonimlar
- 4) antonimlar

7. Tilda bir maʼnoni ifodalash uchun qoʻllanuvchi bir-nechta soʻz qanday nomlanadi?

- 1) sinonimlar
- 2) koʻp maʼnoli soʻzlar
- 3) omonimlar
- 4) antonimlar

8. Qaysi soʻzlar leksik (lugʻaviy) maʼnoga ega?

- 1) mustaqil soʻzlar
- 2) yordamchi soʻzlar
- 3) undov va taqlid soʻzlar
- 4) mustaqil, undov va taqlid soʻzlar

9. Yoz (qalamda yozmoq), yoz (dasturxonni yozmoq), yoz (yoz fasli). Uchala oʻrinda qoʻllangan yoz soʻzining xususiyati toʻgʻri izohlangan qatorni toping.

- 1) bir xil shaklga ega boʻlgan uchta soʻz
- 2) bir xil shaklga ega boʻlgan yagona soʻz
- 3) bir shaklga ega boʻlgan koʻp maʼnoli soʻz
- 4) bir xil shaklga va maʼnoga ega boʻlgan bir soʻz

10. So'zlarni qaysi jihatiga ko'ra sinonim, omonim, antonimlarga ajratamiz?

- 1) shakl va ma'no munosabatiga ko'ra
- 2) bir yoki birdan ortiq ma'noga ega bo'lishiga ko'ra
- 3) tuzilishiga ko'ra
- 4) shakl va talaffuziga o'ra

11.1. Picha un topib kelsam qozon ossak nima bo'lar ekan?

2. Bola rangi bo'zarib ketsa ham, un chiqarmas edi. Ushbu gaplardagi "un" so'zi ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'z hisoblanadi?

- 1) omonim
- 2) ko'p ma'noli
- 3) sinonim
- 4) antonim

12. Quyidagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qay biri metonimik ma'no ifodalaydi?

- 1) qishloq markazida samovar ochildi
- 2) u tarvuzning bir pallasini paqqos tushirdi
- 3) derazaning singan ko'ziga esa plyonka tortib qo'yilgan
- 4) maktabning biqinida kasalxonaning bo'lishi gigienaga xilofdir

13. Qaysi qatorda sinekdoxa asosida ma'no ko'chgan?

- 1) osmonga tikilar million juft ko'zlar
- 2) majlis qaror qildi
- 3) bor, lochinim, bor, shunqorim, yaxshi bor
- 4) kalning nimasi bor- temirdan tarog'i bor

14. Qaysi qatorda paronim bor?

- 1) yuvindi-yuvundi
- 2) gado-gadoy
- 3) asta- ohista
- 4) battar -badtar

15. Berilgan sinonimlardan asosiy so'zni aniqlang.

- 1) avval
- 2) ilgari
- 3) burun
- 4) qadim

16. Leksik ma'no bildirmaydigan so'zlar turkumini toping.

- 1) ko'makchi, bog'lovchi, yuklama
- 2) son, olmosh, ravish
- 3) ko'makchi, undov so'z, taqlid so'z, son
- 4) undov so'z, modal so'z, ravish

17. Qaysi so'zlar o'zaro sinonim emas?

- 1) nafis, nozik
- 2) zeb, ziynat
- 3) mustahkam, mahkam
- 4) puxta, pishiq

18. Qanday ma'no so'zning bosh ma'nosi hisoblanadi?

- 1) so'zning nutq tarkibidan tashqarida ifodalaydigan ma'nosi
- 2) so'zning nutq tarkibidagi boshqa so'zlar yordamida anglatiladigan ma'nosi
- 3) so'zning ko'cha ma'nolaridan biri
- 4) so'zning gap tarkibidagi anglatgan ma'nosi

19. Qanday so'zlar bosh ma'no va ko'chma ma'nolarga ega?

- 1) mustaqil so'zlar
- 2) bir ma'noli so'zlar
- 3) atamalar
- 4) tildagi barcha so'zlar

20. Gaplarda ajratilgan so'zlarning qaysi biri metaforik ma'noga ega?

- a) sizlar litseyimizning birinchi qaldirg'ochlari bo'lasiz

- v) u ikki bor turmushga chiqdi, biroq tirnoq yuzini ko'rmadi
- s) uning elkasiga tushgan sochlariga pilik taqilgan edi
- d) men kelsam, direktsiyada bo'lim boshliqlari yig'ilgan ekan

21. Bir ma'noli so'zlar qaysi qatorda?

- a) chumchuq, ravish
- v) ko'z, qosh
- s) og'iz, bosh
- d) etak, oyoq

22. Ko'p ma'noli so'zlarni toping?

- a) tomir, yoqa
- v) men, sen
- s) besh, o'n
- d) ota, ona

23. Omonim so'zlar qaysi qatorda?

- a) yosh, zang, to'p
- v) sovuq, bosh, oltin
- s) yordam, ko'mak, madad
- d) yosh, zang, to'p

24. Sinonimlar qatorini toping.

- a) belgi, nishon, alomat
- v) yoz, o't, kech
- s) kumush, mayin, o'tkir
- d) tur, uch, hayr

25. Antonimlar qaysi qatorda?

- a) kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l
- b) Mirzakarimboy ilonning yog'ini yalagan odim: xamma boylar kabi ayyor, mug'ombir.
- s) tok zangi qayishga o'xshaydi, egilaberadi. Boboqul otaning zangi eshitilmaydigan bo'ldi.
- d) Nuri onasini yolg'iz uchratib, sekingina maqsadini aytdi. Yo'lchi Mirzakarimboyning darvozasi oldida tanho o'tirar edi.

26. Uxlamoq, talamoq fe'llarining sinonimlari qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

- a) tunamoq-uxlamoq, to'namoq-talamoq: bu o'rinda tunamoq, to'namoq so'zlari omonim so'zlar
- v) tunamoq-uxlamoq, to'namoq-talamoq: bu o'rinda tunamoq so'zining ikki ma'nosi berilgan

- s) tunamoq-uxlamoq, to'namoq- talamoq: bu o'rinda tunamoq va to'namoq so'zlari paronim so'zlar
- d) tunamoq so'zi uxlamoq va talamoq so'zlariga sinonim bo'lib, bu so'z ba'zan ikki xil variantda: tunamoq yoki to'namoq tarzida yoziladi

27. Qanday so'zlar badiiy nutqda qo'llanilib, tazod yaratishga xizmat qiladi?

- A) antonimlar
- v) omonimlar
- s) sinonimlar
- d) paronimlar

28. O'roq (ot)-qo'rqqoq (sifat), tepki (ot)- kechki (sifat) so'zlaridagi qo'shimchalarni shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday qo'shimchalar deb ataymiz?

- a) ko'p ma'noli qo'shimchalar
- v) bir ma'noli qo'shimchalar
- s) antonim qo'shimchalar
- d) omonim qo'shimchalar

29. O'zaro antonim qo'shimchalar qaysi qatorda berilgan?

- a) – li, -siz, -be, -ba
- v) –ning, -ni, -da
- s) –cha, -chak, -choq, -chiq
- d) –m, -im, -um, -ma

30. Berilgan sinonimlardan bosh so'zni aniqlang.

- a) qaramoq
- v) termilmoq
- s) nazar solmoq
- d) boqmoq

31. Paronim so'zlarni toping.

- a) otalik-otaliq
- v) vafo-jafo
- s) shabada-shabboda
- d) ko'ylak-ko'ynak

32. So'z ma'nosi ko'chishining qaysi turida ko'chma ma'nodagi so'z ko'pincha qo'shtirnoqqa olinadi?

- a) kinoyada
- v) metonimiyada
- s) metaforada
- d) sinekdoxada

33. Leksik sinonimlar qatorini toping.

- A) yonmoq, kuymoq
- V) ozg'in, eti suyagiga yopishgan
- S) qaynoq, jo'shqin, qizg'in
- D) qisqarmoq-uzaymoq, kirim-chiqim

34. Frazologik sinonimlar qatorini toping.

- A) og'ziga talqon solmoq, mum tishlamoq
- V) solishtirmoq, taqqoslamoq, qiyoslamoq
- S) qizg'anchiq, qo'li ochiq
- D) burnini ko'tarmoq, gerdaymoq

35. Ot sinonimlar qatorini belgilang.

- A) ovoz, tovush, un, sado
- V) rohat, azob, kulgi, yig'i
- S) nur, shu'la, yorug', ziyo
- D) uy, dala, tog', dar

36. O'rinsiz, noo'rin, g'ayratli, serg'ayrat so'zlaridagi qo'shimchalarni qanday qo'shimchalar deb ataymiz?

- a) sinonim qo'shimchalar
- v) antonim qo'shimchalar
- s) ko'p ma'noli qo'shimchalar
- d) omonim qo'shimchalar

37. O'zaro sinonim bo'lgan quyidagi so'zlardan qaysi biri yaqin so'zi bilan sinonim bo'la oladi?

- a) berilgan so'zlarning hech biri yaqin so'zi bilan sinonim qator hosil qilmaydi
- v) jadal
- s) darrov
- d) shahdam

38. Daryoning cheti, chet mamlakat, chetdan tomosha qilib turmoq kabi birikmalardagi chet so'zi ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'z xisoblandi?

- a) ko'p ma'noli so'zlar
- v) antonim so'z
- s) omonim so'z
- d) sinonim so'z
- e) ko'p ma'noli so'z

39. O'zaro sinonim bo'lmagan so'zlardan xosil bo'lgan juft so'zni toping.

- a) ur-yiqit
- v) o'y-hayol
- s) or-nomus
- d) kuch-quvvat

40. Qaro ko'zim, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,

Ko'zim qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Navoiyning ushbu mashhur baytida qo'llangan fan so'zining sinonimi berilgan qatorni belgilang.

- a) ilm, bilim
- v) rasm, odat
- s) bog', chaman
- d) chidam, toqat

41. Ot (hayvon), ot (ism), ot (fe'l). Uchala o'rinda qo'llangan so'zining mohiyati to'g'ri izohlangan qatorni aniqlang.

- a) bir xil shaklga ega bo'lgan uchta so'z
- v) bir xil shaklga ega bo'lgan yagona so'z
- s) bir xil shaklga ega bo'lgan ko'p ma'noli so'z
- d) bir so'zning uch o'rinda qo'llanishi

42. Fuzuliyning oldim qo'limga, Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi baytida Fuzuliy so'zi o'z ma'nosidan qaysi yo'l bilan ko'chgan?

- a) metonimiya yo'li bilan
- v) sinekdoxa yo'li bilan
- s) metafora yo'li bilan
- d) aks ma'noda qo'llangan

43. Bir so'zning matn mazmunidan kelib chiqib, bir necha ma'no ifodalashi qanday nomlanadi?

- a) ko'p ma'nolilik
- v) omonimiya
- s) sinonimiya
- d) frazeologiya

44. Quyidagi gaplarning qay birida tomoq so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan?

- a) xo'ra oshdan o'lar, to'ra -tomoqdan
- v) bemorning tomog'idan suv ham o'tmay qo'ydi
- s) yigit kelganini bildirib, tomoq qirib qo'ydi
- d) kechga borib tomog'im og'rib qoldi

45. Quyidagi sinonimik qatordagi so'zlardan qaysi biri ko'chma ma'noda?

- a) shayton
- v) mug'ombir
- s) hiylagar
- d) ayyor

46. Quyidagi gapda nozik so'zining qaysi ma'noda ifodalangan? Bu juda nozik ish, ehtiyotkorlik lozim.

- a) qaltis
- v) mo'rt
- s) nazokatli
- d) ingichka

47. Quyidagi gapda yo'l so'zining qaysi ma'noda ifodalangan? Bu masala qaysi yo'l bilan echiladi?

- a) usul
- v) yo'nalish
- s) safar
- d) tadbir

48. Quyida ish so'zining qaysi ma'noda ifodalangan? Ishga berilib ketganidan kirganimni sezmay qoldi.

- a) mehnat
- v) masala
- s) tashvish
- d) zarurat

49. Quyidagi gapda er so'zining qaysi ma'noda ifodalangan? Er yuzining to'rtidan uch qismi suvlikdan iborat.

- a) planeta
- v) joy
- s) yuza
- d) masofa

50. Quyidagi gapla daraja so'zi qaysi ma'noda kelgan? Anvar bosh munshiylik darajasini oldi.

- a) rahbar
- v) aql
- s) birinchi
- d) boshliq

51. Neologizmga berilgan ta'rifni toping.

- A) yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan lug'aviy birliklar.
- V) boshqa tildan kirgan so'zlar
- S) yozma nutqda tez-tez ishlatiladigan terminlar.
- D) faqat tilshunoslikka oid yangi lug'aviy birliklar.

52. Leksemaga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.

- a) leksik ma'noga ega bo'lgan so'z.
- v) ifodalash xususiyatiga ega so'z.
- s) ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan birlik
- d) shevaga xos birlik

53. Quyidagi sinonim so'zlarning qaysi biri keng qo'llaniladi?

- a) iflos
- v) isqirt
- s) irqit
- d) ivirsiq

54. Frazemaga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?

- a) ko'chma ma'noli turg'un birikma
- v) ko'p ma'noli erkin birikma
- s) har qanday turg'un birikma
- d) ikki va undan ortiq erkin birikma

55. Leksikologiyaning qanday turlari bor?

- a) umumiy va xususiy
- v) nazariy va qiyosiy
- s) uslubiy va nazariy
- d) chog'ishtirma va amaliy

56. Semalar ma'no xususiyatiga ko'ra necha xil?

- a) 2 xil
- v) 4 xil
- s) 5 xil
- d) 3 xil

57. Quyidagi antonimik juftliklarning qaysi birida salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan so'z bor?

- a) barcha antonimik juftliklarning ikkinchisi salbiy bo'yoqdorlikka ega.
- v) yaxshi-yomon
- s) shirin-bemaza
- d) xursand-xafa

58. Gulnor so'zining asl ma'nosi qaysi javobda berilgan?

- a) anor guli
- v) binafsha
- s) gulga o'xshash dog'
- d) go'zal chiroyli

59. Qaysi qatorda faqat sinonim so'zlar berilgan?

- a) sabab, vaj, bahona, bois

v) xayrlashmoq, xabarlashmoq, xushlashmoq, vidolashmoq

s) xavfli,xavotirli,qo'rqinchli,barakatli

d) ruxsat, javob, izn, haq

60. Omonim so'zlar qatorining aniqlang?

a) yara,son,kul,soz,shim

v) bosh, katta kam, sog', tez

s) do'st,o'rtoq,birodar,og'ayni

d) yig'lamoq, shirin, go'zal, nam

61. So'zning ko'chma ma'nosi deyilganda nima nazarda tutiladi?

a) so'zning nutq tarkibidan tashqarida ifodalaydigan ma'no

v) nutq tarkibidagi boshqa so'zlar yordamida anglashiladigan ma'nosi

s) morfologik yo'l bilan yasalgan so'zlar ma'nosi

d) sintaktik yo'l bilan yasalgan so'zlar ma'nosi

62. Qaysi so'zlar leksik ma'nosini saqlagan holda shaklan o'zgargan?

a) barcha javoblarda

v) qo'zi, qo'zichoq

s) qisqa, qisqaroq

d) tara, taranmoq

63. Quyidagi hodisalarning qaysi biri faqat bir so'z turkumi doirasida vujudga keladi?

a) antonimlik

v) ko'p ma'nolilik

s) paronimlik

d) omonimlik

64. Semema nma?

a) leksemaning mazmun plani

v) leksemaning ifoda plani

s) leksemaning ko'p ma'noliligi

d) leksemaning bir ma'noliligi

65. Valentlik nima?

a) leksemalarning boshqa leksemalar bilan birika olish xususiyati

v) leksemaning nomlash xususiyatiga ega ekaniligi

s) leksemaning ifoda va mazmun plani

d) leksemaning nimanidir nomlashi

66.Leksikologiya nimani o'rgatadi?

a) so'zlarni,ularning lug'aviy ma'nolarini

v) gapni, lug'atlarning turlarini

s) so'z birikmalarini, bir ma'noli so'zlarni

d) so'z turkumlarini,antonimlarni

67.Qanday so'zlarga paronim deyiladi?

a) aytilishi bir-biriga yaqin,ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar

v) qarama-qarshi ma'noli so'zlar

s) aytilishi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar

d) shakli bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar

68.Vulgar so'zlar berilgan qatorni toping.

a) xunasa,so'tak

v) dangasa,ishyoqmas

s) taqsir,janov

d) oqsoqol,qariya

69. Yuz –bet –aft –bashara –turq –chehra –jamol sinonimik qatorida hissiy-ta'siriy

bo'yoqdor so'zlar qaysi bir javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) chehra,jamol

v) bet, bashara

s) yuz,bet

d) bashara, jamol

70. Odam –kishi –inson –bashar; ko’krak-ko’ks-bag’ir-to’sh-siyina sinonimik qatorlaridagi poetik (badiiy) uslubga xos so’zlar berilgan qatorni toping.

- a) bashar, siyna
- v) inson, bag’ir
- s) odam, ko’krak
- d) kishi, bag’ir

71. Neologizmlar berilgan qatorni toping.

- a) marketing, biznes
- v) audit, do’kon
- s) viloyat, tuman
- d) reyting, vazir

72. Metonomiya asosida ma’no ko’chgan so’z bor gapni toping.

- a) mehmon kirishi bilan zal oyoqqa turdi
- v) Bahor kelinchakdek yasanib keldi
- s) besh qo’l barobar emas
- d) ma’naviy barkamol inson komil inson bo’ladi

73. Dog’ so’zi qaysi qatorda ko’chma ma’noda qo’llanilgan?

- a) berilgan barcha gaplarda dog’ so’zi ko’chma ma’noda qo’llaniladi
- v) toza qalbdagi dog’ yo’q
- s) yomondan dog’ qoladi, yaxshidan bog’ qoladi
- d) sevgiga tushgan dog’ni daryo qadar yosh to’kish bilan tozalab bo’larmishmi?

74. Bularning barchasi, albatta, pul bilan bo’ladi. Bunday vaqtlarda yo’g’on cho’ziladi, ingichka uziladi... parcha A. Qahhorning qaysi hikoyasidan olingan? Gaplar tarkibida so’zlarning shakli va ma’no munosabatiga ko’ra qanday turi ishtirok etgan?

- a) “Bemor”; antonimlar
- v) “O’g’ri”; bir ma’noli so’zlar
- s) “Anor”; paronimlar
- d) “Dahshat”; omonimlar

75. Qaysi qatorda integral semali misollar keltirilgan?

- a) amaki, amma, tog’a
- v) aft, bashara, gavda
- s) Mayin, ohista, jamol
- d) suhbat, notiq, tinglovchi

76. Faqat fors-tojikcha o’zlashmalar berilgan qatorni toping.

- a) sartarosh, baxt
- v) e’lon, jur’at
- s) bosh, o’rtoq
- d) tog’, dala

77. Frazologiyada nima o’rganiladi?

- a) ko’chma ma’noli turg’un birikmalar
- v) to’g’ri ma’noli erkin birikmalar
- s) har qanday ikki va undan ortiq birikma
- d) ko’chma ma’noli lug’aviy birliklar

78. Qaysi ta’rif sinonimlarga xos?

- a) bir tushuncha doirasidagi turli ma’no qirralarini anglatuvchi so’zlar
- v) shakli bir xil, ma’nosi har xil so’zlar
- s) zid ma’noli so’zlar
- d) aytilishi va ma’nosi bir xil so’zlar

79. Differentsial semali misollar qaysi qatorda berilgan?

- a) tog’a, amaki
- v) aka-uka
- s) chiroy, husn
- d) kata, bahaybat

80. Antonimlikni yuzaga keltiruvchi belgilar to’g’ri ko’rsatilgan javobni toping.

a) V,S,D

v) shakliy jihatdan har xillik

s) ma'noviy jihatdan har xillik

d) ma'nodagi o'zaro zidlik

81. Metonimiya asosida ma'no ko'chish qoidasi qaysi javobda berilgan?

a) shaxs –predmetni unga bog'liq bo'lgan boshqa nom bilan ifodalash

v) shahs yo predmetning nomi o'rnida biror bo'lak orqali o'sha tushunchani berilish

s) so'zni aks ma'noda qo'llash

d) biror predmet belgisining, harakatning o'xshash tomonini boshqasiga ko'chirish

82. Kinoyaviy ma'no ifodalovchi so'z yozuvda qanday beriladi?

a) so'z qo'shtirnoqqa olinadi

v) so'z ostiga chiziq qo'yiladi

s) so'z bosh harf bilan yoziladi

d) so'z qavs ichida izohlanadi

83. Quyidagi qatorlarning qaysi birida salbiy bo'yoqdor so'zlar berilgan?

a) badburush, naynov, qiltiriq, bashara, sata

v) yomon, xunuk, bemaza, xafa

s) ko'rk, chehra, jilmaymoq, kamolot

d) yaxshi, chiroyli, shirin, hursand

84. Quyidagi gapda bor- yo'q juft so'zi qaysi ma'noda qo'llangan? Kutubxonadan bor-yo'g'i bitta kitob olib o'qigan.

a) faqat

v) boylik

s) bisot

d) barch

85. Leksikografiya nimani o'rganadi?

a) Lug'atchilik haqidagi fan

v) so'z turkumlarini

s) to'g'ri talaffuz qoidalarini

d) tildagi iboralarni

86. Frazeologiyada nima o'rganiladi?

a) ko'chma ma'noli turg'un birikmalar

v) to'g'ri ma'noli erkin birikmalar

s) har qanday ikki va undan ortiq birikma

d) ko'chma ma'noli lug'aviy birliklar

87. Adashgan it kabi Furqat qayon borgum bilolmasman. Mazkur gapda ma'no ko'chishning qaysi turi qo'llangan?

a) kinoya

v) metonimiya

s) funktsiyadoshlik

d) sinekdoxa

88. Metafora usulida ma'nosi ko'chgan qatorni toping?

a) fan cho'qqilarini egallaymiz

v) o'rik qiyg'os gulladi

s) ko'chalarimizda chiroq porladi

d) zal gurullab kulib yubordi

89. Quyida solmoq so'zining qaysi ma'nosi ifodalangan? Yaqinda uy solib, o'rtancha o'g'limizni ham chiqarib yubordik

a) qurmoq

v) bog'lamoq

s) joylamoq

d) chizmoq

90. Leksik ma'noli birliklar berilgan qatorni ko'rsating

a) asal, mayiz

- v) ko'ra, chidam
- s) yostiq, tomon
- d) orqali, tomosha

91. So'zlarning bir va ko'p ma'noligi tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

- a) leksikologiyada
- v) frazeologiya
- s) fonetikada
- d) morfologiyada

92. Odat-udum- taomil- urf- rasm so'zlari shakl va ma'no munosabatiga ko'ra qanday so'zlar?

- a) sinonim so'zlar
- v) omonim so'zlar
- s) zid ma'noli so'zlar
- d) ko'p ma'noli so'zlar

93. Manglaying oq bo'lsin, yarqiroq bo'lsin (A.O) misrasi birinchi so'zining doimiy sinonimini toping.

- a) peshonang
- v) iqboling
- s) yo'llaring
- d) toleing

94. O'n qo'li o'n hunar iborasida ma'no ko'chishining qaysi turi bor?

- a) sinekdoxa
- v) metonimiya
- s) metafora
- d) vazifadoshlik

95. Bahor-ko'klam sinonimk qatordagi asl turkiy so'zni toping?

- a) ko'klam asl turkiy so'z
- v) ikkalasi ham asl turkiy so'z emas
- s) bahor asl turkiy so'z
- d) ikkalasi ham asl turkiy so'z

96. Ko'lanka so'zining asl ma'nosi nima?

- a) soya
- v) sharpa
- s) haykal
- d) ko'lماك

97. Metonimiya yo'li bilan ma'no ko'chish nimaga asoslanadi?

- a) aloqadorlikka
- v) o'xshashlikka
- s) vazifadoshlikka
- d) butun va qism munosabatiga

98. Sinonimlar ichidan asl turkiy so'zni toping.

- a) ko'k
- v) osmon
- s) samo
- d) falak

99. Omonimi bor so'zni toping.

- a) tuman
- v) tugal
- s) tuyuq
- d) turoq

100. Urush ko'p odamlarning yostig'ini quritdi. Ushbu gapda qo'llangan ma'no ko'chish yo'lini belgilang.

- a) metonimiya
- v) metafora
- s) sinekdoxa

10. Glossariy

1. **Leksikologiya**- tilning lug'at boyligini o'rganuvchi fan.
2. **Leksik sath**-til ierarxiyasining lug'at boyligidan iborat yuqori pog'onasi: so'zlar, iboralar, ularning turli qatlamlari.
3. **Lug'aviy birliklar**-so'z va iboralar (leksema va frazemalar).
4. **Leksika**- tilning lug'at boyligi.
5. **Lisoniy omillar** (lingvistik faktorlar) – tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar.
6. **Nolisoniy omillar** (ekstralingvistik faktorlar) – til taraqqiyotiga (shu jumladan,leksik tizim rivojiga) tashqaridan ta'sir o'tkazuvchi omillar: ijtimoiy-siyosiy tuzum, psixologiya, urf-odatlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, adabiyot-san'at va boshqalar.
7. **Umumiy leksikologiya** – leksikologiyaning barcha (yoki ko'pchilik) tillar lug'at boyligi taraqqiyotiga xos umumiy qonuniyatlarni aniqlash va yoritish bilan shu'ullanuvchi turi
8. **Xususiy leksikologiya** – leksikologiyaning muayyan bir til lug'at boyligi haqida ma'lumot beruvchi turi.
9. **Tavsifiy leksikologiya** – ayrim olingan bir tilning lug'at boyligini shu til leksikasining avvalgi taraqqiyoti bilan bog'lamay o'rganadigan leksikologiya.
10. **Tarixiy leksikologiya** – ayrim olingan bir tilning lug'at boyligini tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan boG'lab o'rganadigan leksikologiya.
11. **Semasiologiya** – leksik birliklarning semantik tarkibi va u bilan boG'liq masalalarni o'rganuvchi soha.
12. **Onomasiologiya** – leksik birliklarni nomlash va tushuncha anglatish printsiplari hamda qonuniyatlari haqida ma'lumot beruvchi soha.
13. **Etimologiya** – tilshunoslikning so'z va morfemalarning kelib chiqishini o'rganuvchi bo'limi.
14. **Nominativ birlik** – nomlash xususiyatiga ega birlik.
15. **Leksik so'z** – leksik mazmunli so'z (leksema).
16. **Grammatik so'z** – leksik ma'nosi bo'lmagan, grammatik mazmunli so'z (morfema-so'z).
17. **Semema** – leksik ma'no.
18. **Nomema** – so'zning (leksemaning) nomi.
19. **Leksik ma'no** – leksemaning nimanidir nomlashi, atashi, anglatishi.
20. **Fonetik so'z** – leksemaning fonetik qiyofasi, nomi.
21. **Denotat** - leksema tomonidan nomlangan narsa-predmet, voqelik.
22. **Referent** – til birligi ifodalaydigan tushuncha, fikr predmeti.
23. **Signifikat** – til birligi ifodalaydigan ma'no.
24. **Valentlik** – leksemaning birikma yoki gap tarkibida boshqa leksemalar bilan aloqaga kirisha olish xususiyatlari.
25. **Tushuncha** – ob'ektiv borliqdagi predmet yoki hodisalarning inson miyasida aks etgan umumiy tasavvuri.
26. **Turkumlik semalari** – leksik ma'noga tayangan holda leksemalarning grammatik ma'nolarini belgilaydigan, shu asosda leksemalarning so'z turkumlariga uyushishini ta'minlaydigan semalar.
27. **Sema** – leksik ma'no (semema)ni tashkil toptiruvchi komponent va ma'no qirralari.
28. **Atash semalari** – leksemaning leksik ma'nosidagi ideografik semalar (atash, nomlash ma'nosini shakllantiruvchi semalar).
29. **Ifoda semalari** – semema tarkibidagi uslubiy ma'no qirralari.
30. **Vazifa semalari** – atash, ifodalash bilan birga leksemalarning nutqda o'zaro birika olishini (valentligini) belgilaydigan semalar.
31. **Terminlar** – fan, texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan tushuncha nomlari.
32. **Ixtisoslashish, chegaralanish** - terminlarning ma'nosi va qo'llanishidagi o'ziga xoslik, ma'lum soha tushunchasini nomlash bilan cheklanish.

- 33.Determinlashish** – terminlarning ommalashib, umumnutq birligiga aylanishi.
- 34.Uzual ma’no** – leksemaning semantik tarkibida bor bo’lgan leksik ma’no.
- 35.Okkazional ma’no** – leksemaning tildagi ma’nosiga xos bo’lmagan, ayrim shaxsning leksik qo’llashi natijasida yuzaga keltirilgan sun’iy ma’nosi.
- 36.Leksik qo’llash** – leksemaning okkazional (nutqiy) ma’noda qo’llanishi.
- 37.Monosemiya** – bir ma’nolilik hodisasi.
- 38.Polisemiya** – ko’p ma’nolilik hodisasi.
- 39.Metafora yo’li bilan ma’noning ko’chirilishi** – predmetlar, hodisalar o’rtasidagi nisbiy o’xshashlik asosida ma’noning ko’chirilishi.
- 40.Vazifadagi o’xshashlik asosida ma’noning ko’chirilishi** – predmetlarning bajaradigan vazifasidagi o’xshashlik asosida ulardan birining nomini ikkinchisiga nisbatan qo’llash.
- 41.Metonimiya yo’li bilan ma’noning ko’chirilishi** – narsa-hodisalar o’rtasidagi aloqadorlik asosida ma’noning ko’chirilishi.
- 42.Sinekdoxa yo’li bilan ma’noning ko’chirilishi** – butunning nomi bilan qismning yoki, aksincha, qismning nomi bilan butunning atalishi orqali yuz beradigan ma’no ko’chirilishi.
- 43.Hozirgi leksik ma’no** – leksemaning hozirgi o’zbek tilidagi ma’nosi.
- 44.Avvalgi leksik ma’no** – leksemaning o’tmishdagi leksik ma’nosi.
- 45.Bosh ma’no** – leksemaning semantik tarkibidagi hosila ma’nolarning o’sib chiqishiga asos bo’lgan ma’no.
- 46.Hosila ma’no** – bosh ma’nodan taraqqiy etib chiqqan ma’no.
- 47.Eski leksik ma’no** – leksemaning hozirgi paytda arxaiklashib qolgan ma’nosi.
- 48.Etimologik leksik ma’no** – leksemaning kelib chiqishida uning mazmun planiga asos bo’lgan dastlabki ma’no. U ma’no etimoni deb ham ataladi.
- 49.Shakl etimoni** – leksemaning yuzaga kelishida asos bo’lib xizmat qilgan dastlabki shakl.
- 50.Sinonimiya** – leksemalarning bir xil ma’no anglatishiga ko’ra guruhlanishi.
- 51.Sinonimik qator** (sinonimik uya) – bir ma’no anglatishiga ko’ra guruhlangan sinonim so’zlar yiG’indisi.
- 52.Dominanta** – sinonimik qatordagi betaraf ma’noli so’z.
- 53.Ma’no sinonimlari** – bir umumiy ma’noga ega bo’lsa-da, ma’no qirralari bilan farqlanuvchi sinonimlar.
- 54.Uslubiy sinonimlar** – leksik ma’nolari ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalovchi semalar bilan qoplangan sinonimlar.
- 55.Nutqiy sinonimlar** – nutqning u yoki bu turiga xoslanganligi bilan farqlanadigan sinonimlar.
- 56.Antonimiya** – leksemalarning bir-biriga zid ma’no anglatishi asosida guruhlanishi.
- 57.Antonimik juftlik** - o’zaro qarama-qarshi ma’noli ikki so’z.
- 58.Kontekstual antonimiya** – tilda antonimik munosabatda bo’lmagan so’zlarning ma’lum kontekst doirasida antonimik munosabatga kiritilishi.
- 59.Enantiosemiya** – bitta leksema ma’nosida nutqiy muhit taqozosi bilan zidlanishning ifodalanishi.
- 60.Mantiqiy markaz** – ikki ma’no o’rtasidagi oraliq tushuncha.
- 61.Omonimiya** – til birliklarining ifoda planidagi tenglik hodisasi.

- 62.Leksik omonimiya** – omonimiya hodisasining leksemalar doirasidagi ko'rinishi.
- 63.Omoformalar** – ayrim grammatik shakllari o'zaro teng bo'lgan leksemalar.
- 64.Omofonlar** – talaffuzi bir xil , yozilishi har xil bo'lgan leksemalar.
- 65.Omograflar** – yozilishi bir xil , talaffuzi har xil bo'lgan leksemalar.
- 66.Paronimiya** – ikki yoki undan ortiq leksemaning talaffuzda o'zaro o'xshash, ohangdosh bo'lishi.
- 67.Kvaziomonimlar** – bir fonemasi bilan farqlanadigan ikkita so'z (minimal juftlik).
- 68.So'z variantlari** – bir leksemaning tildagi turli ko'rinishlari.
- 69.Paronomaziya** – jonli so'zlashuvda paronim so'zlarni qorishtirish hodisasidan badiiy nutqda uslubiy maqsadlarda foydalanish.
- 70.Giponimiya** – luG'at boyligidagi leksemalarning poG'onali aloqasidan kelib chiqadigan ma'no munosabatlari.
- 71.Giponim** – tur tushunchasini ifodalaydigan leksema.
- 72.Giperonim** – jins (turkum) tushunchasini ifodalaydigan leksema.
- 73.Graduonimiya** – leksemalarning ma'no guruhlari a'zolarida u yoki bu belgining darajalanishi.
- 74.Partonimiya** – leksemalarning ma'no guruhlari butun-bo'lak munosabatlarining ifodalanishi.
- 75.O'z qatlam** - o'zbek tili leksikasining umumturkiy va sof o'zbekcha so'zlardan iborat qismi.
- 76.O'zlashgan qatlam** – boshqa tillardan olingan leksik o'zlashmalar qatlami.
- 77.Umumturkiy so'zlar** - o'zbek tili lu²at boyligidagi eng qadimgi lu²aviy birliklar.
- 78.Sof o'zbekcha so'zlar** - o'zbek tilining o'zida yasalgan (nisbatan yangi) leksemalar.
- 79.Arabcha o'zlashmalar** – arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar.
- 80.Fors-tojik so'zlari** – fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar.
- 81.Ruscha-baynalmilal o'zlashmalar** – rus tilidan va u orqali boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'z va terminlar.
- 82.So'z o'zlashtirish** – boshqa til so'zlarining o'zbek tiliga olinishi.
- 83. O'zicha olish** – boshqa til leksemasining o'zgarishsiz yoki juz'iy o'zgarish bilan o'zlashtirilishi.
- 84.Kalkalab olish** – boshqa tildagi so'zning morfemik tarkibidan qismma-qism nusxa ko'chirish orqali so'z yasalishi, bu so'zda boshqa til leksemasi ma'nosining ifodalanishi.
- 85.Semantik kalka** – tilda azaldan mavjud bo'lgan so'zga boshqa til leksemasining ma'nosini yuklash.
- 86.Umumxalq lu²aviy birliklar** – ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'z va iboralar.
- 87.Dialektizmlar** - qo'llanishi territoriyaga ko'ra chegaralangan til birliklari.
- 88.Dialektizm-so'z** – shevaga xos so'z.
- 89.Dialektizm-ma'no** – so'zning shevadagi ma'nosi.
- 90.Fonetik dialektizmlar** – dialekt yoki shevaga xos fonetik birliklar tizimi.
- 91.Leksik-fonetik dialektizm** – adabiy tilda bor bo'lgan so'zning biror shevadagi fonetik tarkibi.

- 92. Grammatik dialektizmlar** – biror shevaning o'zigagina xos (adabiy tildagidan o'zgacha) grammatik shakllari.
- 93. Kasb-hunar leksikasi** – ijtimoiy mehnatning, ilm-fan yoki san'atning, ishlab chiqarishning u yoki bu turiga mansub maxsus tushunchalarning nomlari.
- 94. Professionalizmlar** – kasb-hunar leksikasining o'zi.
- 95. Terminlar** - professional leksikaning ilm-fanga, texnikaga, adabiyot yoki san'atga oid bir turi.
- 96. Argotizmlar** – yashirin ma'noli so'zlar.
- 97. Jargonizmlar** – yashirin ma'no bilan birga tinglovchini yoki o'zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatini bo'rttirib baholash xususiyatiga ega so'zlar.
- 98. Vulgarizmlar** - haqorat ma'nosida qo'llanadigan so'zlar.
- 99. Leksik istorizmlar** - o'tmish voqeligining nomlari.
- 100. Leksik arxaizmlar** - hozirgi paytda bor bo'lgan voqelikning eskirgan nomi yoki hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi.
- 101. Arxaizm-leksema** – leksik arxaizmning bir turi. Unda leksema yaxlit holda eskirgan bo'ladi.
- 102. Arxaizm-semema** – leksik arxaizmning ikkinchi turi. Bunda leksema yaxlit holda emas, qisman (semantik tarkibidagi ma'nolaridan biri) eskiradi.
- 103. Leksik-fonetik arxaizm** – talaffuz arxaizmi. Bunda leksemaning tovush tarkibida qisman eskirish yuz beradi.
- 104. Leksik neologizm** – yangilik bo'yo'i bor bo'lgan leksemalar.
- 105. Individual nutq neologizmi** – ayrim shaxs nutqida voqe bo'lgan neologizm.
- 106. Umumtil neologizmi** – nutqiy hodisadan til hodisasiga aylangan neologizm.
- 107. Neologizm-leksema** – yangilik bo'yo'iga ega bo'lgan leksema.
- 108. Neologizm-semema** – tilda azaldan mavjud bo'lgan leksemaning seman-tik tarkibida yangi paydo bo'lgan ma'no (semema).
- 109. Uslubiy bo'yoq** - so'zning leksik ma'nosiga qo'shimcha tarzda orttirilgan uslubiy ottenka, ifoda semasi.
- 110. Emotsional-ekspressivlik** – ekspressiyaga (ta'sir-chanlikka) egalik.
- 111. Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning leksik usuli**- nutqda uslubiy bo'yog'i bor bo'lgan so'zning qo'llanishi hisobiga ta'sirchanlikning ifodalanishi.
- 112. Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning affik-syatsiya usuli**- betaraf ma'noli so'zlarga sub'ektiv baho ifodalovchi affikslarni qo'shish orqali nutqda ta'sirchanlikka erishish.
- 113. Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning kon-tekstual usuli** - uslubiy bo'yog'i bo'lmagan so'zning ma'lum kontekst ta'sirida uslubiy

bo'yoqdor so'zga aylantirilishi orqali nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

114.Emotsional-ekspressivlikni ifodalashning fonetik usuli- turli fonetik hodisalar (geminatsiya, unililarni cho'zish, urg'uning o'rnini o'zgartirish) hisobiga nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

115.So'zni metaforik qo'llash - so'zning metafora usulida ko'chirilgan ma'nosi hisobiga nutqiy ta'sirchanlikning ta'minlanishi.

116.Frazeologiya – tilshunoslikning frazemalar bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

117.Frazema – ko'chma ma'noli turg'un konstruktsiya.

118.Frazemaning ifoda plani – frazemaning moddiy-material tomoni: shakli, tuzilishi, leksik va fonetik tarkibi.

119.Frazemaning mazmun plani – frazemaning frazeologik ma'no va uslubiy bo'yoqdan iborat semantik tarkibi.

120.Frazeologik monosemiya – frazemalarda bir ma'nolilik hodisasi.

121.Frazeologik polisemiya – frazemalarda ko'p ma'nolilik hodisasi.

122.Frazeologik butunlik – frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosini shu frazema tarkibidagi so'zlar ma'nolari bilan izohlash mumkin bo'lgan ibora.

123.Frazeologik chatishma – frazemaning umumlashgan ko'chma ma'nosi shu frazema tarkibidagi so'zlar ma'nolari bilan izohlanmaydigan ibora.

124.Frazeologik omonimiya – omonimlar doirasidagi shakliy tenglik hodisasi.

125.Frazeologik paronimiya – tarkibidagi birorta leksema bilangina farqlanuvchi frazemalar.

126.Omofrazemalar – shaklan teng bo'lgan frazemalar.

127.Parafrazemalar – paronimik munosabatda bo'lgan frazemalar.

128.Frazeologik sinonimlar –bir ma'no asosida birlashgan sinonimlar.

129.Uslubiy bo'yoq - frazemalarning ijobiy yoki salbiy baho ifodalovchi semalari.

130.Frazeologik variatsiya – bitta frazemaning ikki xil ko'rinishi.

131.Leksik-frazeologik sinonimlar – so'z va frazemalar o'rtasidagi asoslangan sinonimlar. ma'no birligiga

132.Leksik-frazeologik antonimlar – so'z va frazema orasidagi ma'no ziddiyatiga asoslangan antonimlar.

133.Leksikografiya – tilshunoslikning lu'atchilik bilan shug'ullanuvchi sohasi.

134.Entsiklopedik lug'atlar – tabiat va jamiyatdagi muhim hodisalar, buyuk shaxslar haqida ma'lumot beruvchi lug'at tiplari. tarixiy-ilmiy voqeliklar,

135.Lisoniy lug'atlar – til birliklari, til tizimiga xos kategoriyalar haqida ma'lumot beruvchi lug'atlar.

- 136. Universal entsiklopediyalar** – tabiat va jamiyatning barcha sohalariga oid muhim voqelik-hodisalar haqida ma'lumot beruvchi qomusiy lug'atlar.
- 137. Soha entsiklopediyalari** – faqat bir sohaga oid ma'lumotlar beriladigan qomusiy lug'atlar.
- 138. Bir tilli lug'atlar** – bir til materialiga asoslangan lug'atlar.
- 139. Ko'p tilli lug'atlar** – bir necha til materiallariga asoslangan lug'atlar.
- 140. Izohli lug'atlar** – so'z ma'nolari izohlangan, sharhlangan lug'atlar.
- 141. Izohsiz lug'atlar** – so'z yoki termin ma'nolari izohlanmagan lug'atlar.
- 142. Terminologik lug'atlar** – u yoki bu sohaga oid terminlar haqida ma'lumot beruvchi lug'atlar.

III SEMESTR
ONA TILI VA ADABIYOT (MORFEMIKA) BO'LIMIDAN MA'RUZA
MASHG'ULOTLARI
1-MAVZU: MORFEMIKA - SO'ZNING MORFEM STRUKTURASI
HAQIDAGI TA'LIMOT.

Reja:

1. Morfema va uning chegarasi.
2. O'zak va affiksial morfemalar munosabati.

MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHI VA IBORALAR: 1. Morfema. 2. Morf. O'zak (asosiy) morfema. 4. Affiksial (ergash) morfema. 5. Morfema - invariant birlik. 6. Morf – nutq birligi. 7. Allamorfi. 8. Kategorial forma yasovchi aff.morfemalar. 9. Nokategorial forma yasovchi aff.morfemalar. 10. Aff. polisemiya. 11. Aff. omonimiya. 12. Aff. sinonimiya. 13. Aff. antonimiya.

Morfema va uning chegarasi.

1-savol bayoni:

Morfemika - tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u so'zning ma'noli qismlari haqida ta'limot beradi. So'zning ma'noli qismlari morfema deb yuritiladi. Masalan, *temirchilik* so'zi temir-chi-lik kabi morfemalardan, *paxtakorlarning* so'zi esa paxta-kor-lar-ning morfemalaridan tuzilgan.

Bu so'zlardagi har bir morfema shu so'zlar to'qimasida o'ziga xos maxsus ma'no va vazifa bilan qatnashmoqda. Misollardagi morfemalar yana bo'linadigan bo'lsa, ularning ma'nosi yo'qoladi. Demak, morfema so'zning bo'linmas, eng kichik ma'noli qismidir.

So'z tarkibidagi eng kichik ma'noli ana shu qism - morfema tilshunoslikda turli qirralariga ko'ra tavsiflanadi.

Avvalo, morfema til birligi sifatida invariant xususiyatga ega: ya'ni morfema morflardan tarkib topgan bo'ladi. Morflar morfemaning semantik tarkibiga ko'ra ham, semantik-fonetik shakliga ko'ra ham tarmoqlanishi mumkin. Masalan, hozirgi o'zbek tilida ko'plikning (otlarda) ko'rsatkichi -lar affiksi bo'lib, u morfema sifatida invariant (til) birlikka teng keladi. Uning nutqdagi *dadamlar* (hurmat ma'nosi), *soat o'nlar* (noaniqlik), *boshlarim* (ma'noni kuchaytiruv), *suvlar, unlar, yog'lar* (tur), *professorlar* (kesatq) kabi ko'plab modal ottenkalarni ifodalash uchun qo'llangan holati "sema"ga, ya'ni morflarga teng shaklidir. Shuningdek, -lar morfemasi nutqda -ar (bizar) -la (adamla), -a (biza); -nar (odamnar) kabi shakllarda qo'llanadiki, bu shakllar allamorflar deb yuritiladi.

Morfemika – tilning morfema - morflar tarkibi haqida ta'lim berishdan tashqari, morfemaning ma'no ifodalash zanjiridagi xususiyati: o'zak yoki affiksial morfemaligi (lug'aviy ma'no yoki grammatik ma'no tashishi), affiksial morfemalarning vazifasiga ko'ra turlari: so'z yasovchi yoki forma yasovchi affiksial morfemalarga bo'linishi, shuningdek so'zning morfem strukturasi bo'ladigan ayrim o'zgarishlar haqida ta'limot beruvchi soha hamdir.

Shuni ham aytilish o'rinliki, so'zda ana shunday minimal ma'noli qismlar bo'lishi va ular morfema deb atalishi haqidagi ilk ta'limotni tilshunoslik faniga qozon tilshunoslik maktabining asoschisi Boduen de Kurtene olib kirdi.

So'zning tarkibini grammatik tahlil qilganimizda, unda ma'no anglatadigan qismlari borligini va bu qismlar bir-biri bilan o'zaro bog'langanini sezamiz. Jumladan, o'zak morfema ham, so'z ham leksik ma'no anglatadi. Lekin ularni bir narsa deb hisoblab bo'lmaydi, ya'ni morfema va so'z bir hodisa emas.

Ular orasida quyidagicha farqlar mavjud:

1. So'z morfemalarga bo'linadi.
2. So'z nutqda boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishadi.
3. So'z gap bo'lagi bo'lib keladi.
4. Morfema nutqda mustaqil qo'llanmaydi.
5. Morfema so'z ichidagina mavjud bo'ladi.
6. Morfema ma'noli qismlarga bo'linmaydi. So'z birgina morfemadan iborat bo'lishi mumkin: tosh, bosh, qosh, ish kabi. Bir morfemali bunday so'zlar faqat o'zakdangina iborat bo'ladi va ular tub so'zlar sanaladi. Yasama so'zlar esa ikki va undan ortiq morfemali bo'ladi.

Soʻzning forma yasalishi strukturasi shartli va erkin oʻzak tushunchasi haqida gapirilganda, bu hodisaning asosan oʻzlashma soʻzlarga xosligi eʼtiborga olinadi. Nutqda faqat (har doim) affikslar bilan ishlatiladigan oʻzaklar bogʻli (shartli): fash-izm, ate-ist kabi va affiks morfemalarsiz, oʻzlari mustaqil ishlatiladigan mashina, vagon kabilar erkin oʻzaklar deb qaraladi. Chunki vagon-soz, vagon-chi, vagon-li; mashina-li, mashina-soz kabi qoʻllana oladi.

Soʻzlarning morfem tahlilida tarixiylik va hozirgi holat masalasi aniq chegaralanishi zarurligi yuqorida aytilgan edi. Chunki qismlarga ajraladigan soʻzlar davrlar oʻtishi bilan ajratilmaydigan holga kelib qoladi va bu hodisa tilshunoslikda soddalaish (oproshenie) deyiladi. M: ichak (ich-ak, kichraytish), yurak (yur-ak, ot yasovchi), boʻyin (boʻy-in, kichraytish), bugun, sakson, toʻqson, intizor kabi.

Soʻzning morfematik tarkibida oʻzgarish sodir etuvchi ikkinchi xil koʻrinish qayta boʻlinishdir. Qayta boʻlinishda ilgari bir xil boʻlinishga ega boʻlgan soʻz keyinchalik yoki hozir boshqacharoq boʻlinish shakliga ega boʻladi: ular – ul-ar - u-lar, bitik – biti-k - bit-ik kabi.

Nazorat savol(topshiriq)lari:

1. Morfema - soʻzning boʻlinmas, eng kichik maʼnoli qismi ekanligi haqidagi taʼrifni ayting.
2. Morfemika tilshunoslikning morfema haqida taʼlimot beruvchi tarmogʻi ekanligini aytib bering.
3. Morfemaning morflardan tarkib topganligini, yaʼni morfemani morflarga ajrating.
4. Morfemani semantik-fonetik tarmoqqa ajrating.

Oʻzak va affiks morfemalar munosabati.

2-savol bayoni:

Morfemaning maʼno ifodalashida ikki holat: lugʻaviy maʼno va grammatik maʼno ifodalay olish xususiyatiga koʻra: 1) oʻzak morfema va 2) affiks morfemaga boʻlinishi muhim belgisi sanaladi.

Oʻzak morfema soʻz tarkibining doimiy elementi boʻlib, u lugʻaviy maʼno tashiydi hamda soʻz yasash uchun ham, forma yasash uchun ham asos boʻla oladi. Masalan: ish-chi, ish-chan, ish-siz, ish-la soʻzlarida leksema yasalyapti; ish-ga, ish-dan, ish-da, ish-ning kabilarda soʻzshakl hosil qilinyapti.

Affiks morfema mustaqil olinganda lugʻaviy maʼno anglatmaydi. U soʻzning leksik yoki grammatik maʼnosini hosil qilishga xizmat qiladi. M: ish-la, soʻz-la, soz-la - soʻz yasayapti; uylar, qush-lar, odam-lar - otning koʻplik formasi hosil qilinmoqda. Demak, soʻzning leksik yoki grammatik maʼnosini hosil qiladigan, mustaqil qoʻllanmaydigan morfemalar affiks morfemalar sanaladi.

Soʻz tarkibida affiks morfemalar hamma vaqt ham qatnashavermaydi. M: uy, havo, shamol, suv, oʻt, qush kabi.

Tilimizda shunday soʻzlar borki, ular goʻyo morfemalarga ajraladigandek koʻrinadi, lekin bu soʻzlardagi qismlar hozir maʼno anglatmaydi. Masalan, gʻovla, emakla, tarashla, oʻdagʻayla soʻzlarida -la affiksining feʼl yasovchi affiks morfemaligi aniq. Ammo ularning yasovchi asosi (oʻzak morfema) maʼnosi hozirda oʻqilmaydi. Shuningdek, maishiy, siyosiy, shaxsiyat soʻzlarini ham morfemalarga ajratib boʻlmaydi. Shuningdek, leksikalizatsiyalashib, toʻligʻicha qotgan va ravishga aylangan chindan, kunda, zoʻrgʻa kabi soʻzlarni ham morfemalarga ajratib tahlil qilish noilmiy xulosaga olib keladi. Chunki bu soʻzlardagi oʻzak va affiks deb tasavvur qilinayotgan qismlar oʻz maʼno va vazifasida ishlatilmayapti, ular maʼno va vazifasini yoʻqotib, toʻligʻicha ravishga aylangan.

Oʻzak morfema soʻzdagi lugʻaviy maʼnoni ifodalovchi yadroga (asos) teng keladi. Affikslarning maʼnosi esa yordamchi maʼno - grammatik maʼno boʻlib, u oʻzak morfema ifodalagan maʼnoga nisbatan ancha umumiyliigi bilan farqlanib turadi.

Masalan, ishchi, suvchi, sportchi, dutorchi, traktorchi soʻzlarida har bir oʻzak morfema (ish, suv, sport, dutor, traktor) bitta predmetni ataydi, -chi affiksi esa umumlashtiruvchi maʼnoni - bajaruvchi shaxs, shugʻullanuvchi kishi maʼnosini yasashga xizmat qilayapti.

Oʻzak morfemalar affiks morfemalarga aylanishi mumkin. Masalan, ishxona, choyxona, bosmaxona, yotoqxona, duxtirxona soʻzlaridagi "xona" elementi lugʻaviy maʼnosida emas, oʻrinjoy yasovchi affiks morfema vazifasida kelmoqda.

Tilimizdagi -noma, -xo'r, -goh, -bon kabi elementlar ham "xona" kabi vazifa bajarib keladi.

So'zning semantik va fonetik strukturasi bo'lgani kabi uning morfem strukturasi ham o'zgarishlar bo'lib turadi:

- 1) ikki o'zak morfema bir o'zak morfemaga aylanadi: bugun, intizor, quloch;
- 2) o'zak va affiks morfema uqilmas holga kelib qoladi: yuksal, yuksak;
- 3) o'zak mustaqil ma'no anglatib tursa-da, unga qo'shilgan qism affiksga xos ma'no va vazifa bajarmaydi: biron, biror, birov;
- 4) har biri mustaqil hisoblangan ikki affiks morfema bir morfema holiga kelgan bo'ladi: ukam-niki (ning-ki) kabi.

Affiks morfemalar bajaradigan vazifasiga ko'ra ikkiga:

- 1) so'z yasovchi affiks morfemalar (SYaAM) va 2) forma yasovchi affiks morfemalar (FYaAM) ga bo'linadi.

SYaAM - yangi so'z hosil qiladi - so'zning leksik ma'nosini hosil qilishda ishtirok etadi: ishla, so'zla, suvla, moyla so'zlarida ish, so'z, suv, moy predmet ma'nosini anglatuvchi so'zlardan -la qo'shimchasi vositasida harakat ma'nosini anglatuvchi yangi so'z (fe'l) yasayapti.

FYaAM - so'zning grammatik ma'no ifodalovchi yoki biror grammatik vazifaga xoslangan shaklini yasashda ishtirok etadi. M: kelmayapti so'zidagi -ma inkor ma'nosini, -yap hozirgi zamoni, -ti shaxs ma'nosini ifodalovchi shaklini yasayapti.

Affiks morfemalar tarkibiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sodda va qo'shma. Birgina ma'noli qismdan iborat bo'lgan morfema sodda affiks morfemadir: -chi, -zor, -dosh, -cha, -roq, -dan kabi; birdan ortiq affiks morfemalarning birikuvidan hosil bo'lgan -chilik, -garchilik, -moqda, -ganda kabilar qo'shma affiks morfemalar sanaladi.

Shu o'rinda affikslarning so'zga qo'shilish tartibida ma'lum qonuniyat borligini ham aytib o'tish o'rinli bo'ladi. Chunki so'z yasovchi affikslar so'zning lug'aviy ma'no ifodalaydigan (material ma'no ifodalash bilan bog'langan) qismiga aloqador bo'lganligi uchun ular so'zga forma yasovchi affikslardan oldin qo'shiladi: ish-chi-lar, chiroy-li-roq kabi.

Forma yasovchilar vazifasiga ko'ra ikkiga: sof forma yasovchilar (sintaktik vazifa bajarmaydigan) va so'z o'zgartiruvchilar (sintaktik munosabat ifodalaydigan) ga bo'linadi. So'zda forma yasaydigan qo'shimcha-

larning tartibi: sintaktik munosabat ifodalaydigan turi sintaktik munosabat ifodalaydigan turidan oldin qo'shiladi: suvoq-chi-lar-ga kabi. Demak, so'zda: "o'zak - so'z yasovchi - sof forma yasovchi - so'z o'zgartiruvchi" modelidagi qo'shilish odatdagi tartib sanaladi.

So'zning morfema tarkibida bir-biridan farqlanuvchi uchta struktural (paradigmatik) tip mavjudligini ham e'tibordan soqit qilmaslik lozim. Ya'ni, so'zda morfem, so'z yasaliş, forma yasaliş (morfologik) strukturalari mavjud bo'ladi:

1) So'zning morfema strukturasi - so'zning nechta ma'noli qism - morfemadan iborat ekanligidir: ish-chi-lar, o'lka-shunos-lik kabi,

2) So'zning yasaliş strukturasi - so'zning yasaliş asosi va yasovchi vositadan iborat ekanligi: suvoq-chi, suv-chi, qarindosh kabi,

3) So'zning forma yasaliş strukturasi forma yasaliş asosi va forma yasovchi vositadan iboratligidir: ish-chi-lar, ish-ga kabi.

Keltirganlardan so'zning yasaliş strukturasi va forma yasaliş strukturasi binarlikka: yasovchi asos - yasovchi vosita - yasalma modelida ish ko'rishligi, shunga asoslanishi ravshanlashadi.

So'zlarda bo'lgani kabi affikslarda ham shakl va ma'no munosabatlari sistemalashib, grammatik polisemiya, omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalari amal qiladi.

Affiks polisemiya

So'z yasovchi affiks morfemalarning bir turkumga xos bo'lgan turli ma'noli so'zlar yasay olish hodisasi affiks polisemiya hisoblanadi. Masalan, suzma, qatlama, qovurma (taom nomlari), surma, ko'chirma, qaytarma (em, davolash otlari), tortma, bo'lma, bostirma (o'rin-joy otlari) isitma, terlama, qichima (kasallik otlari) kabi so'zlarda -ma qo'shimchasi bir turkumga tegishli har-xil ma'noli so'zlar (fe'ldan ot yasayapti) yasashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, -chilik qo'shimchasi ham polisemantik tabiatga ega: 1) asosdan anglashilgan narsa etishtiriladigan soha otini yasaydi: paxtachilik, uzumchilik, chorvachilik, urug'chilik kabi; 2) asosdan anglashilgan

tushuncha bilan bog'liq ish (holat) oti yasaydi: ulfatchilik, qiziqchilik kabi; 3) asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borligi oti yasaydi: pishiqchilik, mo'lchilik, arzonchilik, qimmatchilik kabi.

Affiksial omonimiya

Shaklan bir xil, ma'no jihatidan turli turkumlarga xos so'zlar yasovchi yoki shakl hosil qiluvchi affiksial morfemalar omonim affiksial morfemalar deb yuritiladi. Bu affikslar shaklan teng kelsa ham, lekin ma'no jihatidan bir-biriga bog'liq bo'lmagan boshqa-boshqa affikslararo omonimiya hodisasi hisoblanadi.

Affikslararo omonimiyaning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. So'z yasovchi affikslar o'zaro omonimik munosabatda bo'ladi: -qi: -chop-qi, tepki, turtki (ot); kuzgi, kechki, sirtqi, qishki (sifat); -g'in: qirg'in, toshqin, to'lqin (ot); ozg'in, so'lg'in, yorqin, jo'shqin (sifat).

2. Forma yasovchi affikslar omonimik munosabatda bo'ladi: -(i)sh affiksi:

1) harakat nomi formasini yasaydi: o'qish (o'qimoq), so'zlash (so'zlamog);

2) fe'lining birgalik daraja formasini yasaydi: yuvish, ko'rish, ortish.

3. So'z yasovchi va forma yasovchi affikslar omonimik holatda bo'ladi:

-ma affiksi:

1) ot yasaydi: suzma, ko'rgazma, gazlama (ot),

2) fe'ning bo'lishsiz formasi: aytma, so'zlama kabi.

4. Affiksial omonimiya murakkabroq shakllarda ham bo'ladi:

-chi affiksi:

1) ishchi, suvchi (shaxs oti),

2) ninachi, baliqchi (hasharot va qush oti),

3) ayt-chi, sen-chi, qolganlar-chi (so'roq yuklamasi). Misollardan shu narsa sezilyaptiki, omonimik holat bir so'z turkumi doirasidagi affikslarda ham uchraydi.

Affiksial sinonimiya

Affikslarning shaklan har xil, umumiy ma'nosi bir xil bo'lish hodisasi affiksial sinonimiyadir. Affiksial sinonimiya asosan, bir so'z turkumi doirasida yuz beradi. Ayni choqda, u vazifasi bir xil affikslar doirasida, ya'ni so'z yasovchilararo, forma yasovchilararo yuz beradi: o'rin-siz va no-o'rin, g'ayrat-li va ser-g'ayrat (so'z yasovchilararo); o'zgar-t va o'zgar-tir kabi (forma yasovchilararo).

Sinonimik affikslarning turli asoslarga qo'shilib, yangi so'zlar yasash darajasi ma'no ottenkalariga ko'ra ham, qo'llanish doirasining keng - torligiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, mahsuldor sanalgan shaxs oti yasovchi -chi affiksi bilan shunday ma'noli shaxs oti yasovchi -shunos qo'shimchasini qiyoslaganimizda bu yaqqol ko'zga tashlanadi: adabiyotchi - adabiyotshunos, tilchi - tilshunos tarzida qo'llansa-da, lekin xizmatchi, bo'yoqchi so'zlarini "xizmatshunos", "bo'yoqshunos" deb, sharqshunos, tuproqshunos so'zlarini "sharqchi", "tuproqchi" deb ham qo'llab bo'lmaydi.

Affiksial antonimiya

qarama-qarshi ma'no anglatuvchi affikslar affiksial antonimiyani keltirib chiqaradi. Tilimizda affiksial antonimiya, asosan, so'z yasovchi affikslar doirasida uchraydi: -li - siz: aqlli-aqlsiz; -li - be-: sabrli - besabr; be- ba-: bedavlat - badavlat. Keltirilgan affiksial juftliklar har doim ham, barcha holatlarda antonim bo'lib kelavermaydi. M: boshli - bebosh deb ishlatmaymiz.

Forma yasovchi affiksial morfemalar so'zlarning umumkategorial va kategorial belgi-xususiyatlariga munosabatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1) kategorial forma yasovchi affiksial morfemalar;

2) nokategorial forma yasovchi affiksial morfemalar.

Kategorial forma yasovchi affiksial morfemalar ma'lum so'z turkumining biror grammatik kategoriyasiga xos formadir. M: ot turkumining egalik, ko'plik, kelishik kategoriyalari formasini yasovchi affikslar.

Biror grammatik kategoriyaga qarashli bo'lmagan ma'noni ifodalovchi, ma'lum sintaktik vazifa bajarishga xoslangan so'z formasini hosil qiluvchi affiksial morfemalar nokategorial (funktsional) forma yasovchi affiksial morfemalar deb yuritiladi. Bunday affiksial morfemalarga ot turkumining

funksional (kichraytish, erkalash, o'xshatish, xoslik, hurmat, qarashlilik, o'rin belgisi, chegara) formalari; fe'ning harakat takroriyliigi (turtkila, tepkila), kuchsizligi (kulimsira) formalari, shuningdek, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi kabi funksional formalari ko'rsatkichlari nokategorial forma yasovchi affiksial morfemalaridir (m: -gan, -ar, -agan; -v, -uv, -moq, -sh, -ish; -b, -ib, -a, -y kabilar).

Nazorat savol(topshiriq)lari:

1-topshiriq.Keltirilgan misollardan so'z yasovchi affiksial morfemalar polisemiyasini(ma'no guruhlarini)tavsiflang.

Suvchi, traktorchi, ashulachi, o'yinchi, yolg'onchi, g'iybatchi, kamonchi, futbolchi, hasharchi, jangchi, vagonchi, dalachi, sayohatchi va boshqalar.

2-topshiriq.O'zingiz -chilik, -ma affiksial morfemalarining polisemantik holatiga misollar keltiring.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
- 3.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
4. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,"Universitet" nashriyoti.
- 5.R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
- 6.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil.
7. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.

Mavzu: So'zning grammatik strukturasi

Reja:

1. So'zning forma yasalish (morfologik) strukturasi.
2. So'zning yasalish va morfem strukturasi.

Mavzuga oid tayanch atama (birikma)lar:

1. So'zning umumiy strukturasi (SUS).
2. So'zning grammatik strukturasi (SGS).
3. So'zning yasalish strukturasi (SYaS).
4. So'zning morfem strukturasi (SMS).
5. So'zning forma yasalish strukturasi (SFYaS).
6. So'z yasalish asosi (SYaA).
7. So'z yasovchi vosita (SYaV).
8. O'zak va affiksial morfema.

Mavzu rejasi muammolari:

1. So'zning forma yasalish (morfologik) strukturasi muammolari.
2. So'zning yasalish strukturasi muammolari.
3. So'zning morfem strukturasi muammolari.

So'zning forma yasalish (morfologik)strukturasi. 1-savol bayoni:

So'zning grammatik strukturasi bayoniga o'tishdan oldin umumiy tasavvur hosil qilish uchun so'zning umumiy stukturasi (fonetik, semantik, grammatik strukturalar) aks etgan jadval bilan qisqacha tanishish maqsadga muvofiqdir (qarang: 32-sahifa).

So'zning morfologik strukturasi so'z formasining yasalişida qatnashadigan komponentlardan iborat. Masalan, ishlarimizni so'zining morfologik strukturasi ish-lar-imiz-ni dan iborat. Bunda ish - forma yasaliş asosi, -lar - ko'plik formasini yasovchi, - imiz - egalik formasini yasovchi, - ni - kelishik formasini yasovchi; keldik fe'lida kel - forma yasaliş asosi, - di - zamon formasini yasovchi, - k - shaxs-son formasini yasovchi. Ishchilarimizni va ishladik so'zlarida esa ishchi va ishla forma yasaliş asosi, undan so'nggi qismlari esa forma yasovchi affiks lar hisoblanadi.

Demak, so'zning morfologik (forma yasaliş) strukturasi forma yasalişida asos bo'ladigan qism bilan forma yasovchi qism (affiks yoki yordamchi so'z)dan iborat bo'ladi.

Forma yasalişiga asos bo'ladigan qism qo'shma so'z yoki sodda yasama so'z bo'lishi mumkin. Lekin so'z yasovchi qismlar (so'z yasashda ishtirok etadigan qismlar) so'zning morfologik strukturasi g a kirmaydi. Shunga ko'ra terimchilarni so'zi morfologik strukturasi nuqtai nazardan, terimchi-lar-ni kabi qismlarga ajraladi.

So'z formasining asosi so'z birikmasiga teng bo'lishi ham mumkin: O'zbekiston Respublikasi-da kabi.

So'zning morfologik strukturasi murakkab ko'rinishli bo'lishi mumkin, ya'ni bir so'z tarkibida birdan ortiq forma yasovchi qismlar (affiks yoki yordamchi so'zlar) ishtirok etishi mumkin. Lekin so'zning har bir (konkret bir) formasi ikki qismdan iborat bo'ladi:

1) shu formaning yasalişiga asos bo'layotgan qism, 2) shu formani yasovchi qism (affiks yoki yordamchi so'z). Masalan, terimchilarni so'zida tushum kelishigi formasining yasaliş uchun asos bo'layotgan qism «terimchilar», - ni tushum kelishigi formasini yasovchi vosita (affiks). Demak, terimchilarimizni otining tushum kelishigi formasi ana shu ikki qismdan iborat: 1) kelishik formasining yasaliş asosi - terimchilarimiz, 2) kelishik formasini yasovchi affiks - ni. Bu so'zda ko'plik formasi uchun asos bo'layotgan qism «terimchi», -lar esa ko'plik formasini yasovchi vosita (affiks). Demak, bu otning son formasining yasalişida ham ikki komponent ishtirok etmoqda: 1) son formasining yasalişida ishtirok etadigan asos («terimchi»), 2) son formasini yasovchi vosita (-lar affiksi). Shuningdek, ishlatdik so'zida shaxs-son formasining yasaliş asosi ishlatdi, shaxs-son formasini yasovchi vosita esa -k affiksi; zamon formasining yasaliş asosi ishlat, -di zamon formasini yasovchi vosita (affiks); daraja formasining yasaliş asosi ishla, -t daraja formasini yasovchi vosita (affiks).

So'zning yasaliş strukturasi.

2-savol bayoni:

So'zning so'z yasaliş strukturasi morfem strukturasi dan ham, morfologik strukturadan ham farqlanadi. So'zning so'z yasaliş strukturasi shu so'zning yasovchi qismlaridan iborat bo'ladi. So'z yasaliş tahlilida yasama so'zning qanday yasovchi qismlardan tashkil topgani va shu komponentlar asosida yasama so'z ma'nosining ifodalanish usuli o'rganiladi. Masalan, terim: ter – yasovchi asos, -im – yasovchi affiks; terimchi: terim – yasovchi asos, -chi - yasovchi affiks.

Demak, so'z yasaliş tahlilida, birinchidan, faqat so'z yasovchi vositalar o'rganiladi. Bunda (morfologik tahlil tekshiradigan) forma yasovchi vositalar e'tibordan chetda qoladi. Ikkinchidan, bu tahlilda yasama so'z tarkibida nechta o'zak va nechta yasovchi affiks borligi o'rganilmaydi (so'z shu nuqtai nazardan tahlil etilmaydi), balki yasama so'zni yuzaga keltirgan komponentlar belgilanadi. Masalan, terimchi so'zi morfema tarkibiga ko'ra uch qismga bo'linsa (ter-im-chi), shu so'zning yasovchi komponentlari nuqtai nazardan u (terimchi so'zi) ikkiga bo'linadi (terimchi). Chunki terimchi so'zi ter so'zidan yasalayotgani yo'q, balki terim va -chi yasovchi komponentlari yordamida yasalgan. Paxtakorlik so'zining ham morfema strukturasi bilan so'z yasaliş strukturasi o'zaro farqlanadi. Morfema strukturasi: paxta-kor-lik, so'z yasaliş strukturasi: paxtakor-lik.

Yasama so'zning asosi (so'z yasaliş asosi) qo'shma so'z yoki so'z birikmasiga teng bo'lishi ham mumkin: belbog'li (belbog'-li), temir yo'lchi (temir yo'l-chi), bash yillik (bash yil-lik) kabi.

Ko'rinadiki, so'zning morfema tahlilida uning tarkibidagi har bir morfema (so'zning ma'no bildiruvchi eng kichik bo'lagi) tekshiri

ladi va aniqlanadi. Bunday morfemalar soʻzda bir nechta boʻlishi mumkin: ter-im-chi-lar-imiz-niki-da. Soʻz yasaliş tahlilida yasama soʻzning yasovchi komponentlari belgilanadi. Bunday komponent har bir yasama soʻzda ikkitadan oshmaydi (garchi soʻz tarkibida birdan ortiq oʻzak va soʻz yasaydigan birdan ortiq affiks boʻlsa-da). Masalan, bichiq: bich – yasovchi asos, -iq – yasovchi affiks; bichiqchi: bichiq – yasovchi asos, -chi – yasovchi affiks; unum: un – yasovchi asos, -um – yasovchi affiks; unumdor: unum – yasovchi asos, -dor – yasovchi affiks; unumdorlik: unumdor – yasovchi asos, -lik – yasovchi affiks va b.

Nutqning kichik birligi soʻzshakl boʻlib, leksik maʼnodan tashqari, grammatik maʼno ham anglatadi. Soʻzshakl ana shu xususiyatiga qarab maʼnoli qismlarga boʻlinadi.

Soʻzshakllarda maʼnoli qismlarning chegarasi soʻzshakllarni oʻzaro chogʻishtirish orqali aniqlanadi. Masalan, izlanish, izlanmoq va izlandi kabi soʻzshakllarni oʻzaro qiyoslash asosida bitta umumiy maʼnoli qism – izlan boʻlakchasi hamda uni saylanish, saylanmoq, saylandi; boshlanish, boshlanmoq, boshlandi kabi soʻzshakllar bilan chogʻishtirish orqali yana -n, -moq, -di singari maʼnoli qismlar ajratiladi. Ayni zamonda bu soʻzshaklning soʻzla, ishla kabi soʻzshakllar bilan qiyoslash asosida iz-la

(shuningdek, soʻz-la, ish-la) maʼnoli qismlari aniqlanadi. Shunday qilib, izlandi soʻzshakli iz-la-n-di tarzida toʻrtta maʼnoli qismlarga ajratiladi. Bu qismlar bundan boshqa maʼnoli qismlarga boʻlinmaydi. Soʻzshakllar tarkibida ajratiladigan bunday eng kichik maʼnoli qismlar morf deyiladi (yunoncha morphe – “shakl”).

Morflar ikki turga boʻlinadi: 1) oʻzak morflar, 2) affiksial morflar. Masalan, ishchilar, paxtazorda, koʻkardi, kuylagan kabi soʻzshakllarning har birida uchtdan morf boʻlib, birinchisi (ish, paxta, koʻk, kuy) oʻzak morfga, keyingilari esa (-chi, -lar, -zor, -da, -ar, -di, -la, -gan) affiksial morfga kiradi. Oʻzak morflar har bir soʻzshaklda muqarrar ishtirok etib, leksik maʼnosini ifodalovchi qism hisoblanadi. Soʻzshakl bir morfdan iborat boʻlsa, u oʻzak morf hisoblanadi. Soʻzga turlicha affikslar qoʻshilib kelganda ham, oʻzak morfning maʼnosi yoʻqolmaydi. Undan yasalgan yangi soʻzlarning – yasalmalarning maʼnosi har vaqt oʻzak morfning maʼnosi bilan bogʻlangan, shu maʼnoga asoslangan boʻladi. Jumladan, bil, ogʻir, bosh, mehnat, asl oʻzak morflardan yasalgan bilim, bilimdon, ogʻirlik, boshliq, boshlamoq, mehnatkash, asalchi, asalchilik kabi yasama soʻzlarning maʼnosi yuqoridagi oʻzak morflarning maʼnosiga asoslanadi.

Affiksial morflar (lotincha affixus – “bogʻlangan”, “biriktirilgan”) oʻzak morfning mazmuniga har xil qoʻshimcha maʼnolar beradi. Affiksial morf mustaqil ravishda ishlatilmaydi, faqat soʻzshakl tarkibidagina maʼlum maʼno anglatishga xizmat qiladi. Yangi yasalmaning maʼnosi oʻzak morf bilan affiksial morf maʼnolari birligidan kelib chiqadi. Shuning uchun soʻzshaklning oʻzak morf va affiksial morfga ajratishda oʻzak morfning mustaqil leksik maʼno anglatishi, yasama soʻz maʼnosining u bilan bogʻlanganligi, affiksial morf esa bundan boshqa oʻzak morflarga ham qoʻshila olishi kabilar asos qilib olinadi. Jumladan, ishchi, ishchan, ishdan, paxtazor, oʻrtogʻim kabi soʻzshakllar oʻzak morf va affiksga ajratiladi, chunki ish, paxta, oʻrtoq qismlari ham, -chi, -chan, -dan, -zor, -im affikslari ham boshqa soʻzshakl tarkibida mustaqil qism sifatida qatnasha oladi.

Affiksial morflar suffiksial va prefiksial morflarga boʻlinadi. Soʻzshakl tarkibida oʻzak morfdan keyin qoʻshilib kelgan morflar suffiksial morf, oʻzak morf oldidan qoʻshilib keladigan morflar prefiksial morf boʻladi. Jumladan, begʻarazlik, noaniqroq soʻzshakllari tarkibida –lik, -roq suffiksial morflar, be- no- esa prefiksial morflar sifatida qatnashyapti.

Turli soʻzshakllar tarkibida kelib, tovush va maʼno jihati bir xil oʻxshash boʻlgan morflar bitta morfemani tashkil qiladi. Masalan, son, sonsiz, sanamoq soʻz shakllarida son, san kabi morflar bir umumiy oʻzak morfemaga birlashadi; sezgi, turtki, yoqilgʻi, chopqi, cholgʻu, kabi soʻz shakllarda esa -gi, -ki, -gʻi, -ki, -gu kabi morflar bir affiksial morfemani tashkil qiladi. Morfemalar haqidagi taʼlimotga morfemika deyiladi. Yuqoridagilardan koʻrinadiki, morf tilning butunlik tarkibidagi eng mayda birligi boʻlsa, morfema tilning umumlashgan birligi.

Nazorat savol(topshiriqlari):

1. Soʻzning yasaliş strukturasi haqidagi taʼrifni ayting.

1-topshiriq. Soʻzning yasash strukturasi ikki qismdan – SYaA va SYaV dan iborat boʻlishi, yaʼni binarlik printsipti asosiga qurilishiga koʻra soʻzlarni ajrating: suvchilar, traktorchilik, nonxoʻr, bemaza, paxtakordagi, suvoqchilikka, yogʻingarchilik.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.Gʻulomova, Sh.Yoʻldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar toʻplami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
3. H.Jamolxonov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
4. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti.
5. R.Yunusov. Oʻzbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
6. U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. «Oʻzbekiston», Toshkent. 1992-yil.
7. Z. Masharipova. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi. T., 2008.

MAVZU:OʻZBEK TILI SOʻZ YASALISHI SISTEMASI, KATEGORIYALARI.

Reja:

1. Soʻz yasashini tilshunoslikning mustaqil tarmogʻi - mustaqil fan sifatida tilshunoslikning boshqa tarmoqlariga munosabati.
2. Hozirgi va tarixiy soʻz yasashini.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

- | | | |
|-----------------------|-------------------------|---------------------------|
| 1. Yasalma. | 7. Affiksatsiya | 13. Yasalish tipi. |
| 2. Yasalish asosi. | 8. Kompozitsiya. | 14. Binarlik. |
| 3. Yasovchi vosita. | 9. Transpozitsiya. | 15. Yasalganlik maʼnosi. |
| 4. Sinxroniya. | 10. Fonetik usul. | 16. Affiks. |
| 5. Diaxroniya. | 11. Semantik usul. | 17. Soʻz yasovchi affiks. |
| 6. Soʻz yasash usuli. | 12. Soʻz yasash modeli. | 18. Soʻz yasash qolipi. |

Soʻz yasashining tilshunoslikning mustaqil tarmogʻi - mustaqil fan sifatida tilshunoslikning boshqa tarmoqlariga munosabati.

1-savol bayoni:

Har bir tilning soʻzlari, leksikasi doim harakatda boʻlib, natijada uning sostavi turli tipdagi oʻzgarishlarga uchraydi: baʼzi soʻzlar eskirib, aktiv qoʻllanishdan chiqadi - qoʻllanishi chegaralanib, bora-bora umumisteʼmoldan qoladi; yangi soʻzlar paydo boʻlib, ular leksikani toʻldiradi, boyitadi; ayrim soʻzlarning maʼnolarida oʻzgarish yuz beradi va b. Leksikadagi taraqqiyotning eng asosiy yoʻllari boshqa tillardan soʻz olish va soʻz yasashdir. Leksik olinmalar - boshqa tillardan soʻz olish (bunday olinma shevalardan adabiy tilga soʻz olish tusida boʻlishi ham mumkin) ikki tillilik sharoitida, ayniqsa, katta ahamiyatga ega boʻladi, tillarni, shuningdek xalqlarni yaqinlashtirishning vositasi boʻladi.

Soʻz yasash, umuman, qanday usul, qanday vosita bilan boʻlmasin, yangi soʻz hosil qilishdir. Masalan, betonchi (-chi affiksi orqali yasalgan); gulbeor (ikki soʻzning qoʻshilishidan yasalgan); kattani hurmat qil (bir leksik-grammatik kategoriyadagi soʻzni boshqa kategoriyaga oʻtkazish yoʻli bilan sifatdan ot hosil boʻlgan: kattani -katta yoshdagi odamni); ishda burilish yasadi (burilish soʻzi bu oʻrinda oʻzgarish maʼnosida boʻlib, dastlabki maʼnosidan ancha farqlanadi: unga nisbatan boshqa soʻz sanaladi); yangi soʻzi ikki xil: urgʻusi oxirgi boʻgʻinga tushganda, ruscha "novoʻy" maʼnosini bildiradi (yangi kitob kabi), urgʻusi bosh boʻgʻinga tushganda, ruscha "tolko-chto" degan maʼnoni bildiradi (u yangi ketdi, hozirgina ketdi) va b.

Misollar koʻrsatadiki, soʻz yasash leksikaning oʻsishida muhim rol oʻynaydigan omillardan biri boʻlib (uning mahsuli tilda soʻzlarni koʻpaytiradi, leksikaga xizmat qiladi), yoʻllari ham, vositalari ham har xil (affiks yordami bilan yasash: affiksatsiya, soʻzlarni qoʻshib yasash: kompozitsiya va b.), ular butun bir sistemani tashkil qiladi.

Soʻz yasashini tilshunoslik fanining ayrim bir boʻlimi, mustaqil lingvistik soha, tarmoq boʻlib, u soʻzlarning yasashini, yangi soʻz hosil

qilishning qonun-qoidalarini, modellarini, vositalarini, shu bilan bog'liq holda, so'zlarning strukturasi tekshiradi. Demak, bu sohaning ob'ekti so'zdir. So'zni leksikologiya ham, grammatika ham tekshiradi, lekin bu ikki xil tekshirish bir-biridan ma'lum belgilari bilan ajralib turadi, shuningdek, so'zning yasalishi - hosil bo'lish tomondan tekshirilishi ham o'z xususiyatlariga ega. Lekin bu tekshirishlar o'zaro bog'liq; tilning fikrlarni ifodalashi, his-tuyg'ularni bildirishi, fikr ifodalaydigan eng kichik birlik bo'lgan gapning so'zlardan tashkil topishi, bu so'zlarning materiali tovush ekanligi, so'zlarning ham, tovush hodisalarining ham, so'z formalarining ham, so'zlarni biriktirib so'z birikmasi va gap hosil qilishning ham o'z ma'lum qoidalari borligi bularning hammasi - tilda mundarija, forma va funktsiyaning o'zaro bog'liqligini, tildagi qonun-qoidalarining shu uch tomonga asoslanganligini, demak, fonetik, leksik va grammatik sistemalarning organik aloqasini - tilning qismlari bir-biri bilan bog'langan yaxlit, bir butun hodisa - sistema ekanligini ko'rsatadi.

Tilshunoslikning bu bo'limida, birinchidan, yangi so'zlarning qanday hosil qilinishi, ikkinchidan, mavjud yasalmalarning qanday paydo bo'lganligi tekshiriladi. Tekshirishning bu ikki tomoni o'zaro bog'liq hodisalardir. Yangi so'z mavjud modelga qarab, shu asosda hosil qilinadi. So'z yasashning turli yo'llar bilan hosil qilingan so'zlarni o'z ichiga olishi hodisasining asosiy, etakchi xususiyatlari grammatika va leksikologiyaga yaqin turishidan dalolat beradi. Shu xususiyatlariga ko'ra so'z yasalishi ilgari tilshunoslikning ayrim bir sohasi sifatida emas, morfologiyada tekshirilib kelingan. Bunday o'rganish eng asosiy usulda so'z yasashning ham, forma yasashning ham bir tipda bo'lishi va ular orasidagi o'zaro ko'chish hodisalari, ko'pgina yasovchilarning so'z turkumlari bilan ham bog'liq bo'lishi - shu yasama so'zning qaysi turkumga kirishini ham ko'rsatishi, affiksatsiyadagi fonetik o'zgarishlarning hamma tipdagi affikslarda uchrashi mumkinligi kabi xususiyatlariga asoslanadi. Chog'ishtiring: reduplikatsiya - so'zlarni takrorlash, asosan, morfologik funktsiyani bajaradi; so'zning formasini hosil qiladi, ayrim hollarda leksik funktsiyani ham bajaradi - yangi so'z yasash vositasi bo'lib xizmat qiladi. So'z yasashining grammatikaning morfologiya va sintaksis kabi ayrim bir qismi deb qarash grammatik so'z yasashini ko'zda tutadi.

Ko'rinadiki, so'z yasashining morfologiya yoki leksikologiyaga, sintaksisga yoki fonetikaga kiritilishi uning bir tomoninigina o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra u keyingi vaqtlarda ayrim soha sifatida ajratiladi. Odatda, so'z yasalishi hodisalari so'z turkumlari doirasida qaralar edi. So'z yasashining alohida tarmoq, bo'lim sifatida ajratilishi munosabati bilan, so'z yasashiga oid barcha hodisalar endilikda shu qismda o'rganilmoqda.

Nazorat savol (topshiriqlari):

1. So'z yasalishi - tilshunoslikning fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, uslubi va h. kabi mustaqil tarmog'i ekanligini asoslang.
2. So'z yasalishi - tilning yangi so'zlarga (atama) bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi sath ekanligini tushuntiring.
3. So'z yasash leksik ma'noning o'zgarishini izohlang.

Hozirgi va tarixiy so'z yasalishi.

2-savol bayoni:

So'z yasalishi sinxronik aspektga asoslanadi. Sinxroniyada til taraqqiyotining ma'lum bir davri nazarda tutiladi. Til hodisalarini tekshirishda sinxroniya (bir vaqtlilik) va diaxroniya (har vaqtlilik) o'zaro munosabatda, aloqada bo'ladi. Ular biri ikkinchisini tamoman rad etmaydi: sinxroniya til taraqqiyotidagi bir zveno, xolos. Sinxron aspektdagi tahlilda ham diaxroniyaning elementlari bo'ladi, chunki sof sinxroniya bilangina chegaralanilsa, davrlarga ko'ra bo'lgan o'zgarish - taraqqiyot hisobga olinmay qolishi mumkin. Vaholanki, til taraqqiyotidagi ma'lum bir davr (zveno) bundan oldingi taraqqiyotning qonuniy natijasidir: o'tgan hodisalarining izlari hozirgidan ham seziladi, hozirgi hodisa o'z tarixi bilangina to'liq anglashiladi. Sinxroniya va diaxroniya til mavjudligi va taraqqiyotining ikki shaklidir: "Hodisalaridagi statika ulardagi dinamikaning xususiy ko'rinishidir" (Boduen de Kurtene).

Lekin tildagi ma'lum davrning qonun-qoidalarini, ma'lum izchillikka ega bo'lgan qonuniyatlarni aniqlashda: adabiy til normalarini belgilashda, ta'limda, so'z yasashda, biror hodisaning unumli - unumsizligini aniqlashda sinxroniyaga amal qilinadi. Bunday sharoitda diaxroniyaning amal qilishi normalar belgilash imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Masalan, o'tloq, toshloq, qumloq, qishloq, ovloq so'zlari struktura jihatidan o'xshash, ular o'rin ma'noli ot yasovchi - loq qo'shimchasi bilan yasalgan. Lekin hozirgi tilimizda ulardan dastlabki uch so'z yasalma, qolgan ikkitasi esa (qishloq va ovloq) hozirgi tilda yasama so'z bo'la olmaydi, chunki bularda qismlarning semantik munosabati sezilmaydigan holatga kelgan.

Hozirgi tilimizda qishloq so'zi fe'l bildiruvchi qish so'zi bilan bog'lanmaydi. Hozirda qishloqda faqat qishda yashaydi degan tushuncha yo'q. Xuddi shunga o'xshash fikrni ovloq so'zi haqida ham gapirish mumkin. Hozirgi tilimizda "ovloq" so'zi "ov qiladigan joy, ov joyi" ma'nosida emas, balki "ovloq joy" (xilvat joy) ma'nosida tushuniladi.

Tilimizdagi sholcha (shol va sholcha so'zlari orasidagi semantik bog'lanish sezilmaydi), yuksak, yuksal, iyak, inda, unda, undov, undalma, buyrak kabi so'zlar ham kelib chiqishiga ko'ra yasama bo'lsa-da, sinxron aspektda ularni yasamaga kiritib bo'lmaydi. Ularning yasamaligini diaxron aspektdagina tahlil qilish va asoslash mumkin bo'ladi.

Har bir yasalmaning asosida boshqa so'z yotadi va bu yasash ma'lum modelga ko'ra, biror yo'l, usul bilan yuzaga keladi. Demak, har bir yasashda ikki elementning munosabati bor: yasashga asos bo'lgan so'z va yasalib chiqqan so'z. Yasalmadagi bu ikki element tashqi va ichki tomonlardan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu munosabatning xususiyatlari:

So'z yasashining, yasama so'zning binarlik holati, binar oppozitsiya tusida bo'lishi, unda ikki elementning aloqador ekanligini ko'rsatadi: yasama so'z (mahsul) va uning yasovchisi. Masalan, sutchi (sutchi so'zi sut so'zidan yasalgan, -chi morfemasi yasovchi affiksi bo'lib, yasashning vositasi bo'lib kelgan). Binar konstruksiyadagi bu qismlar bir xil o'zakli - bir xil o'zakdan bo'ladi. Demak, o'zak o'sha elementlarning umumiy qismi sanaladi: qiyoslanayotgan elementlarning umumiy o'xshash qismi. Yasalmadagi ikki element semantik jihatdan ham, formal jihatdan ham aloqador: shu tomonlar yasalganlikning ko'rsatkichidir: a) so'zning formal strukturasi murakkablashadi (kengayadi: yasovchi element yasalmaga nisbatan sodda bo'ladi: ish - ishchi): bu yasalganlikning tashqi tomoni; b) ma'nosi ham murakkablashadi. Masalan: o'roq yasalmasi o'r so'ziga nisbatan ikki tomonlama murakkabdir. Lekin konversiyada shakliy murakkablashish tashqi - material ko'rsatkich orqali kengayish - uzayish tusida emas, balki kategorial o'zgarish tusida bo'ladi.

Ko'rinadiki, yasalgan so'z bilan yasovchi so'z o'zaro yasalmalik munosabati bilan bog'langan bo'ladi: bularning aloqasi so'z yasash munosabati sanaladi. Bu elementlar orasidagi semantik aloqa sezilmas holga kelsa, orada so'z yasash munosabati bo'lmaydi, yasama so'z tub so'zga aylanadi. So'z yasash strukturasi deganda, shu ikki element orasidagi formal va semantik munosabatlarning birgaligini, yig'indisini tushunamiz. Yasama so'zning ma'nosi yasovchi so'zning ma'nosiga asoslanadi: yasalma o'zakning ma'nosini rivojlantiradi: o'roq yasalmasining ma'nosi o'rish harakati bilan asoslanadi. Shunga ko'ra: birinchi element asoslovchi, ikkinchi element asoslanuvchi, ikkala element orasidagi munosabat motivatsiya munosabati sanaladi. Demak, "motivlangan" so'zi "yasalgan" degan ma'noni ifodalaydi. Shuning uchun ham yasama so'zning ma'nosi, kelib chiqishi aniq sezilib turadi. (Motivlovchi orqali: ko'chgan ma'nodagi so'zning asl ma'nodagi so'z orqali sezilib turganligi. Masalan, "mard" ma'nosidagi xo'roz so'zi "petux" ma'nosidagi xo'roz so'zidan - (shuning yasalmasi), lekin tub so'zning ma'nosi bunday emas: yasama so'zlardagi motiv sostavidagi qismlarni va qarindosh so'zlarni chog'ishtirib aniqlash bunda yo'q. Shuning uchun tub so'zlarning juda kami genetik jihatdan (tarixiy etimologik tekshirishlar orqali) aniqlangan bo'ladi: yasalmaligi belgilanadi.

Har bir til, jumladan o'zbek tilining so'z fondi boyib boradi. Unda boshqa tillardan so'z olish va tilning o'z ichki imkoniyatlari - so'z yasash mexanizmi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

So'z yasash esa turli vositalar, har xil qoliplar orqali yangi so'z yaratishdir, bu esa tilning leksikasi bilan, morfologik, fonetik, sintaktik strukturasi va semasiologik aspekti bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ham o'zbek tilida so'z hosil qilishning - leksema yaratishning: semantik, fonetik, leksik-sintaktik (transpozitsion), morfologik (affiksatsiya),

sintaktik (kompozitsiya) kabi usullari mavjud. Bu aytilganlardan yangi leksema tildagi mavjud materiallardan hosil qilinadi degan ma'noni bildirish bilan tengdir. Masalan, eritma so'zi erit – (eri-t) va – ma elementlaridan so'z yasashning ma'lum usuli asosida kelib chiqqan. Demak, bu so'zning yangi so'zligi ma'lum ma'noda nisbiydir. Ya'ni uning materiali eski, ma'nosi yangi.

Semantik usul bilan so'z yasashda tilning lug'at fondida mavjud bo'lgan so'z (so'z formasi)ning ma'nosi o'zgarishi natijasida yangi so'z(ma'no) hosil bo'ladi. Bu usul ba'zi adabiyotlarda leksik-semantik usul deb ham yuritiladi. Masalan, tosh (biror narsaning sirti) – ot va ichdan tashqariga toshib chiqish - fe'l va tosh - o'lehov birligi - ot, tosh - fizik jism - ot. Yoki ish - ot, mehnat turining nomi; ish - jazo - ot.

Fonetik usul bilan so'z yasalganda so'z tarkibidagi ba'zi tovushlarning o'zgarishi va urg'uning o'rni ko'chishi natijasida tug'iladigan yangi ma'nolar (yasalmalar) nazarda tutiladi: ko'r-ko'z, bo'r-bo'z, buva-buvi, olma-olma, yangi-yangi va b.

Grammatik usul bilan so'z yasash o'zbek tilida uch xil ko'rinishga ega:

a) kompozitsiya usuli, b) affiksatsiya usuli, v) transpozitsiya usuli.

Transpozitsion usul bilan so'z yasalganda asosan konversiya nazarda tutiladi. Ya'ni bir turkumdagi so'z nutqda ikkinchi turkum so'zi ishlatiladigan sintaktik qurshov va vazifada ishlatiladi. Ya'ni turkumlararo ko'chish yuz beradi. Bu yo'l bilan substantivatsiya (qo'rqqoq, o'g'ri, to'g'ri kabi), ad'ektivatsiya (po'lat tesha, tilla soat, pronominalizatsiya (olmoshlashish), kon'yunktionalizatsiya (yordamchi so'zlarga aylanish), adverbializatsiya (ravishlashish), verbalizatsiya (fe'l o'rnida kelish) kabi jarayonlar natijasida yangi ma'no tug'iladi.

Affiksatsiya usulida so'z yasash asosiga so'z yasovchi vosita - affikslar qo'shilishi orqali yangi so'z hosil qilinadi. Masalan, suvchi, paxtakor, ketmonchi, o'yla, aqlli kabilar.

Kompozitsiya usulida birdan ortiq o'zak (mustaqil ma'noli morfema) qo'shilishidan yangi so'z hosil bo'ladi. Bu usul bilan qo'shma so'zlar hosil qilinadi: ko'rsichqon, oybolta, tuyaqush, sotib olmoq, kelib ketmoq, kirib chiqmoq va b. So'z hosil qilishda bu usullarning amalda qo'llanishi turlicha bo'lib kelgan.

Nazorat savol(topshiriq)lari:

3.1.

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni tahlil etib, yasovchi asos (o'zak), yasovchi vosita(affiks)ga ajrating. Himoyachilarimiz, a'lochilardan, gulzorlarda, paxtakorlarning, sinfdoshlarga.

2-topshiriq. Berilgan so'zlardagi yasovchi qo'shimchalarning o'zakka, tub yoki yasama so'zga, so'zning lug'aviy shakliga qo'shib kelayotganini aniqlang.

Bog', bog'bon, bog'dor, bog'dorchilik, bog'li, bog'liq, bog'siz, bog'bonlik, bog'bonchilik.

3.2.

1-topshiriq. O'zakdosh yasalmalarda o'zakning umumiy, affiksning xususiy, maxsus ma'no ifodalashini tushuntiring.

suv-chi > suvchi; sut-chi > sutchi; sinf-dosh > sinfdosh; ish-chan > ishchan; ish-li > ishli; aravakash > aravakash; chuqur-lashtirish > chuqurlashtirish; ish-la > ishla.

2-topshiriq. Berilgan so'zlarni "yasovchi > yasalma"lik munosabatidagi umumlashiruvchi qism ("yasovchi asos")ini aniqlang. qishloqi, eroni, multoni, panjobi.

Namuna: qishloq-i > qishloqi: "qishloq" - yasovchi asos, "- i" yasovchi vosita, "qishloqi" - yasalma. Yasalmada ma'no xususiylashgan, ya'ni toraygan - "qishloqlik" kabi o'rin - joyga xoslik ma'nosini ifodalayapti. Vaholanki, "qishloq" asosidan yana qator ma'nolarni ifodalovchi so'zlar yasash mumkin bo'ladi: qishloq-dosh > qishloqdosh.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
- 3.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
4. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti.
- 5.R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.

6.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil.

7. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.

4-MAVZU: SO'Z TURKUMLARIDA SO'Z YASALISHI.

Reja:

1. So'z turkumlarida, jumladan, ot turkumida so'z yasalihi.
2. Sifatlarining yasalihi.
3. Fe'l so'zlarning yasalihi.
4. Ravish so'zlarning yasalihi.

Mavzuga oid asosiy atama va iboralar:

- | | |
|---------------------------|-------------------|
| 1.Substantivatsiya. | 7.Affiksatsiya. |
| 2.Ad'ektivatsiya. | 8.Kompozitsiya. |
| 3.Adverbializatsiya. | 9.Transpozitsiya. |
| 4.Verbalizatsiya. | 10.Semantik usul. |
| 5.Pronominalizatsiya. | 11.Fonetik usul. |
| 6.Kon'yunksionalizatsiya. | 12.Grammatik usul |

So'z turkumlarida - ot turkumida so'z yasalihi.

1- savol bayoni:

So'z yasalihi hodisasi mustaqil so'z turkumlarida kengroq tarqalgan bo'lib, yasalihi usuliga ko'ra ulardan so'zlar hosil qilish birdek emas. Masalan, hozirgi tilimizda eng mahsuldor usul - affiksatsiya va kompozitsiya usullari deb qaralsa, bu usul bilan ko'proq ot, sifat, fe'l va ravishlar yasalihi, xolos. Son va olmoshlardan affiksatsiya usuli bilan birorta ham yangi son va olmosh leksema yasalmaydi.

Son so'zlardagi -(i)nchi, - ta kabi affiksalar yangi miqdor bildiruvchi son hosil qilmaydi, balki miqdor tushunchasini o'zgartmagan holda, unga tartib, donalik kabi grammatik ma'nolar qo'shadi, xolos.

Shu o'rinda, boshqa ayrim so'z turkumlarida (olmosh, bog'lovchi, ko'makchi) tarixan ham, hozir ham yangi so'zlar umuman yasalmagan ekan, degan noto'g'ri xulosaga kelmaslik kerakligini aytish joiz. Agar shunday bo'lganda edi, bu so'z turkumlaridagi leksik fond bitta yoki bir necha so'z (leksema)dangina iborat bo'lib qolaverar edi. Bu so'z turkumlarida yasalihi usuli boshqacharoq bo'lgan, xolos. Masalan, transpozitsiya usuli bilan o'z to'dalarini to'ldirgan. Shu sababli bo'lsa kerak, pronominalizatsiya usuli bilan olmoshlar, konyunksionalizatsiya usuli bilan yordamchi so'zlar, ad'ektivatsiya usuli bilan sifatlar va boshqa so'z turkumlari ham shunga o'xshash usullar vositasida o'z to'dalarini to'ldirganlar.

Hozirgi o'zbek adabiy tili bo'yicha chiqqan darslik va qo'llanmalarda, ilmiy ishlarda ot so'zlar yasalihi bo'yicha affiksatsiya va kompozitsiya usullari eng mahsuldorligi haqida deyarli bir xil fikrni uchratamiz. «Ot leksemalar o'z tuzilishiga ko'ra tub, yasama, qo'shma, juft bo'ladi», deyiladi, «O'zbek tili grammatikasi»da (T.,1975). Leksema yolg'iz morfemaga teng kelsa, tub leksema bo'ladi: ko'z, kitob, hosil, san'at kabi.

Leksik morfemaga so'z yasash morfemasini qo'shib hosil qilingan leksema yasama leksema: jangchi, terim, terimchi, ozodlik kabi. Leksemalar agar so'z bilan leksemani (yoki so'z bilan so'zni) tobelik asosida o'zaro bog'lash usuli bilan tuzilgan bo'lsa, qo'shma leksema bo'ladi: tog'olcha, oqsoqol, yalangoyoq kabi. Shu o'rinda bu grammatikada eslatma berilgan: oq soqol, to'rt burchak kabi aytish va yozish sintagmaga xos, leksema esa qo'shib aytiladi va yoziladi, deyiladi.

Leksema bir xil grammatik formada kelgan ikki leksemani tenglik asosida o'zaro birlashtirish usuli bilan tuzilgan bo'lsa juft leksema bo'ladi: baxt-saodat, non-nasiba, egachi-singil kabi (252-bet), deb tushuntiriladi.

Akademik A.N.Kononovning «Grammatika sovr.uzb. literaturnogo yazo'ka» asarida ot yasalihi besh xil yo'li haqida gapiriladi.

O'zbek tilida otlar asosan affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan ko'plab yasaladi. Quyida ot yasovchi affikslar – otlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi bilan qisqacha tanishamiz.

-chi. Bu affiks shaxs bildiruvchi otlar yasaydi:

1. Biror kasb, mutaxassislik bilan shug'ullanuvchi shaxs oti: suvchi, traktorchi, ishchi kabi.
2. Biror oqim, maslak tarafdori bo'lgan shaxs oti yasaydi: respublikachi, petlyurachi, vaxobchi kabi.

3. Asosdan anglashilgan xarakterga ega shaxs otlari yasaydi: to'polonchi, yolg'onchi, qo'shmachi, gap etalovchi kabi.

4. Ma'lum joyga aloqadorlik, mansublik tomonidan shaxs oti yasaydi: dalachi, shaharchi kabi.

- shunos: tilshunos, adabiyotshunos, tarixshunos.

- kor: g'allakor, paxtakor, sholikor.

- kash: aravakash, pillakash, suratkash.

- xon: kitobxon, jurnalxon, duoxon kabi.

- do'z: etikdo'z, mahsido'z kabi.

- gar: zargar, savdogar kabi.

- dosh: sinfdosh, sifatdosh, ohangdosh kabi

- lik: bu affiks fe'ldan boshqa deyarli barcha so'z turkumlaridan ot yasaydi. Lekin ko'proq ot va sifat so'zdan ot yasaydi: yoshlik, bema'nilik, mardlik, xatolik kabi belgi otlari, oliftalik, ezmalik kabi xususiyat otlari yasaydi. Otlarga qo'shilganda: otalik, akalik, tog'alik, qizlik kabi holat otlari; o'qituvchilik, shofyorlik, mudirlik kabi kasb, ish-faoliyat, unvon kabi nomlarni yasaydi: a) joyga aloqadorlik: qishloqlik, shaharlik, tog'lik; b) mo'ljal: urug'lik, kiyimlik; v) payt: tushlik, kechlik, saharlik kabi; g) relef: jarlik, tepalik, soylik; d) mavjudlik: botqoqlik, qumlik, muzlik kabi belgi otlarni yasaydi.

- chilik: a) soha otlari: paxtachilik, sholichilik, pillachilik kabi; b) borlik, mavjudlik otlari: pishiqchilik, to'kinchilik, qimmatchilik kabi; v) holat oti: ulfatchilik, maynavozchilik kabi; g) shaxs oti: ko'pchilik, ozchilik kabi.

- garchilik: odamgarchilik, yog'ingarchilik kabi.

- loq: o'rin-joy otlari yasaydi: toshloq, o'tloq, qumloq kabi.

- k (-ik, -ak), -q(-iq, -aq, -o'q, -oq): bu affikslar fe'llardan ot yasaydi: a) mavhum otlar: tilak, istak, chaqiriq; b) aniq otlar: chiziq, chopiq, butoq; v) predmet otlari: to'shak, qayroq, elak kabi.

- gi(-ki, -qi): bu affiks -k,-q affiksi yasaydigan otlarga ma'nodosh sinonim otlar yasaydi: kulgi, tepki, chopqi, supurgi kabi.

- m(-im, -um): chidam, to'plam, tuzum, kechirim, qo'nim kabilar.

- ma: a) narsa, predmet otlari yasaydi: qotishma, suzma, cho'kma; b) kasallik nomlari: isitma, terlama, bo'g'ma; v) mo'ljal nomlari: ko'rgazma, qo'llanma.

- qin,- g'in: chopqin, yong'in, quvg'in kabi.

- indi: qirindi, chirindi, yig'indi, cho'kindi kabilar.

- gich(-g'ich,-kich,-qich). Bu affiks asosdan anglashgan harakatni bajarishga mo'ljallangan qurol otlari yasaydi: qirg'ich, o'lchagich, o'chirgich, elpigich.

- ch, - inch: harakat va holat bilan bog'liq belgi otlari yasaydi: sevinch, quvonch, o'kinch va b.

O'zbek tilida -machoq, -(i)gi, -u kabi affikslar vositasida ham otlar yasaladi. Shuningdek, bir yoki bir necha so'zlardagina uchraydigan qo'shimchalar ham anchagina: o'simta, bosqon, o'limtik kabi. Yoki faqat taqlid so'zlardagina ot yasaydigan qo'shimchalar ham anchagina:

- ak(-oq) : qarsak, varrak, qaltiroq kabilar.

- ildoq: shaqildoq, hiqildoq kabilar.

- a: g'arg'ara, sharshara kabi.

Tilimizda fors-tojik tilidan kirib kelgan anchagina o'rin-joy, predmet oti yasaydigan affikslar ham borki, ular tilda aktiv qo'llaniladi:

- iston: O'zbekiston, Guliston, qabriston.

- zor: paxtazor, lolazor kabi.

- goh: saylgoh, oromgoh kabi.

- don: kuldon, siyohdon kabi.

- xona: ishxona, choyxona kabi.

Kompozitsion usul bilan ot yasash:

I. Qo'shma otlar: ikki yoki undan ortiq leksemalar birikishidan yasaladi:

1. «ot - ot»: qo'lqop, belbog' va b.
2. «sifat - ot»: oqsoqol, ko'kqarg'a, qizilishton kabi.
3. «ot - fe'l»: beshiktervatar, o'rinbosar kabi.
4. «son - ot»: qirqquloq, uchburchak kabi.

II. Juft otlar: idish-tovoq, gap-so'z, asbob-uskuna kabi.

Transpozitsiya usuli bilan ot yasash (Substantivatsiya)

Boshqa turkum (ko'proq sifat)ga oid so'zlar o'rni bilan nutqda (matnda) ot turkumiga o'tib, otlik vazifasini bajarib keladi. Lekin bu so'zlar batamom turkumini o'zgartirib yubormaydi, faqat shu sintaktik qurshovdagina yasaliş jarayoni ta'sirida bo'lib, yangi sema hosil qiladi.

Tilimizda quyidagi turkumlarga oid so'zlar otlashadi:

1. Sifat otlashadi: Mol olasi tashida, odam olasi ichida. qizili qirda qoldi, sarig'i soyda. Kar eshitganini, ko'r tutganini qo'ymas; Go'zal, Dono, qoraboy, Nozik, Malla; Cho'loq, ko'r, kal, naynov, qiyshiq, semiz, tajang.
2. Son so'zlar otlashadi: Birniki mingga, mingniki tumanga. To'rt ikkiga kasrsiz bo'linadi. Oltovlan ola bo'lsa, og'zidagini oldirar.
3. Ravish otlashadi: Ko'pi ketib, ozi qoldi. Ko'p so'zning ozi, oz so'zning o'zi yaxshi.
4. Sifatdosh otlashadi: Suymaganga suykalma. Uqmasga o'rgatma.
5. Modal so'zlar otlashadi: Bor so'zlaydi, yo'q o'ylaydi.
6. Taqlid so'zlar otlashadi: Qars ikki qo'ldan chiqadi. Onaning g'idi - bidisi jonga tegdi.

Shuningdek, fe'l, yordamchi so'zlar ham otlashishi mumkin. Lekin otlashgan har qanday holatda ham yangi sema - demak yangi ma'no tug'ilaveradi deb tushunilmasligi kerak.

2-asosiy savol: Sifat yasalishi.

Ot so'zlar yasalişidagi singari sifatlar ham affiksatsiya usuli bilan ko'plab yasaladi. Bunda sifat yasovchi vazifasida quyidagi affikslar keladi:

-li: eng sermahsul sifat yasovchi bo'lib, u otlardan ko'plab turli-tuman ma'nolardagi sifatlar yasaydi: diyonatli, do'ppili, maslahatli, uyli, joyli va b.

- dor: yarador, qarzdor, unumdor.
- mand: kasalmand, davlatmand, orzumand.
- kor: ehtiyotkor, fidokor.
- siz: aqlsiz, rangsiz.
- chan: ishchan, o'ychan.
- choq(-chik, -chak): o'yinchoq, erinchak, maqtanchoq.
- qoq(-g'oq): qochqoq, yopishqoq, urishqoq, toyg'oq.
- gir(-kir,-qir,-g'ir): sezgir, keskir, olg'ir, topqir.
- ag'on: bilag'on, topag'on, chopag'on kabi.
- mon: bilarmon, o'larmon kabi.
- ki(-qi): sayroqi, yig'loqi, o'ynoqi, chillaki.
- k(-q,-g'): chirik, o'lik, yumshoq kabi.
- kin, -qin, -g'in: keskin, toshqin, qizg'in kabi.
- ma: qo'shma, ko'chma, sayratma.
- ildoq: shaqildoq, liqildoq.

Bulardan tashqari -bon, xush-, ba-, be-, no- kabi affikslar ko'plab sifat so'zlar yasashda ishtirok etadi.

Kompozitsiya usuli bilan yasalgan sifatlar

Bu usul bilan: qimmatbaho, shalpanquuloq, xomxayol, sheryurak, qo'yko'z, umumxalq, tinchliksevar, soddadil, kamgap kabi qo'shma sifatlar yasaladi kabi.

Ad'ektivatsiya

Boshqa soʻz turkumlarida boʻlgani kabi sifatlarda ham oʻzga turkumlarga oid leksemalarning sifatlashishi mavjud: olov qiz (ot soʻz sifat kabi anglashilyapti).

3-asosiy savol: Fe'l yasalishi.

3-savol bayoni:

Fe'l soʻzlarning yasalishi haqida, boshqa turkumlardagi yasalishlar haqida boʻlgani kabi tilshunos olimlar qarashlarida qarama-qarshi nuqtai nazarlar bayon etilgan.

Jumladan, ulardan bir gruppasi etakchi va koʻmakchi fe'llarning birikuvidan tarkib topgan "oʻqib chiqmoq", "kela boshlamoq" kabi analitik formalarni qoʻshma fe'llar deb hisoblasa, ikkinchi gruppada olimlar bu kabi birikuvdan tarkib topgan formalarni qoʻshma fe'llarga kiritmaydi.

Darhaqiqat, prof. A.Hojiev aytmochi, ravishdosh va koʻmakchi fe'l birikuvlaridan "oʻz xususiyatlariga koʻra qoʻshma fe'llardan ham, soʻz birikmalaridan ham farq qiladigan" oʻziga xos leksik formalar maydonga keladi - soʻzning analitik formalari maydonga keladi. Bu tip birikuvlardan yangi leksik birlik maydonga kelmaydi. Qoʻshma fe'lda esa fe'l boʻlmagan soʻzlarning fe'l bilan yoki birdan ortiq fe'lining oʻzaro birikuvidan hosil boʻluvchi yangi ma'noli yangi leksik birlik nazarda tutiladi.

Shuningdek, fe'llar yasalishining semantik va transpozitsion usullari haqida adabiyotlarda deyarli ma'lumotlar uchramaydi. Vaholanki, semantik usul bilan yangi ma'nolar tug'ilishi o'zbek tilida affikslar vositasida fe'llar yasashdan keyin(mahsuldorligiga ko'ra)gi o'rinda, kompozitsion usul bilan fe'l yasashdan oldingi o'rinda turadi. M: o'zbek tilidagi istagan mustaqil fe'lni olib uni ikkinchi ko'chma ma'noda qo'llash mumkin. M: "ber" va "ket" fe'llarini olib ko'raylik. Ma'lumki, bu ikkala so'z ham fe'lining harakat ma'nosini ifodalovchi semantik to'dasiga mansubdir. Biz bu fe'llarni fe'lining boshqa semantik to'dalari maydoniga kiritib qo'llab ko'ramiz: qarzini bermoq (uzmoq, to'lamoq ma'nosida), ko'ngil bermoq (ko'ngil qo'ymoq, sevmuq - holat fe'li funksiyasida), suv berdi (suv uzatdi ma'nosida) va boshqalar. Yoki ket fe'li ham ko'makchi fe'l sifatidagi funksiyasidan tashqari ko'plab ko'chgan ma'nolarda kela oladi: uyiga ketdi (o'z ma'nosida, harakat fe'li), ichi ketdi (ko'chma ma'noda - "o'tdi" holat fe'li) kabi.

Xullas, shu keltirilgan ikkitagina mustaqil fe'lining bir necha birikuvlaridagi ko'chgan ma'nolari ham fe'l turkumida semantik usul eng mahsuldor ko'rinishlardan biri ekanligidan dalolat berib turibdi.

Transpozitsion usul bilan, ya'ni verbalizatsiya usuli bilan deyarli yangi fe'llar o'zbek tilida yasalmaydi. Bu xususiyat esa o'zbek tili fe'l yasash usulining o'ziga xos tomonlaridan biridir.

O'zbek tilidagi fe'llar tub yoki yasama bo'ladi. Harakatni protsess holida ifodalovchi, so'z yasovchi qo'shimchalarsiz fe'llar tub fe'llar sanaladi. M: yoz, o'qi, kel, ol kabi.

Turli fe'l yasovchi affikslar qo'shilishi bilan yoki birdan ortiq mustaqil ma'noli morfemalarning birikishidan hosil bo'lgan fe'llar yasama fe'l deyiladi. M: so'zla, ishla, oqla, ko'kar, qabul et kabilar. Misollardan ko'rinadiki, yasama fe'llar o'z navbatida sodda va qo'shma fe'llarga bo'linadi.

Sodda yasama fe'llar fe'l yasovchi affikslar (morfologik usul) bilan, qo'shma fe'llar esa kompozitsion usul bilan yasaladi.

Affiksatsiya usuli bilan o'zbek tilida fe'l bo'lmagan so'zlardangina fe'l yasaladi. Bunda fe'l yasovchi sifatida -la, -lan, -lash, -illa,-a,-(a)y, -(a)r, -sira,-(i)k, -i, -t kabi qo'shimchalar ishtirok etadi. Keltirilgan affikslarning yangi ma'noli fe'llar yasash darajasi bir xil emas, ulardan -la affiksi va boshqa ayrimlarining fe'l yasash darajasi juda kengdir. M: -la. Bu affiks vositasida otdan fe'l yasalganda harakatni o'zakda ifodalagan predmet orqali bajarish, unga ega qilish, shu predmetni hosil qilish, yuzaga keltirish kabi ma'nolarni ifodalaydi: so'zla, ishla, gulla, qo'lla, quvvatla, varaqla va b. Umuman, biror qo'shimcha bilan otlardan fe'l yasalayotganda har bir holatda "yasalish asosi" va "yasovchi vosita"ning individual semantik xususiyatidan kelib chiqib izohlash lozim bo'ladi. M: o't-la, ko'z-la, bog'la, joy-la kabilar. -La affiksi vositasida sifat va ravishlardan yasalgan fe'llarda asosdan anglashilgan holatga ega qilish, shu holatga kiritish ma'nolari anglatiladi: tekis-la, silliq-la, tez-la, toza-la va b. - La affiksi undov asosdan fe'l yasaganda shu undovga xos his-hayajon yoki buyruq-istak, murojaat kabi ma'nolar bajarilishi ifodalanadi: M: dod-la, chuh-la, kish-la va b. -La affiksi vositasida taqlid so'zlardan fe'llar yasalganda, taqlid so'z anglatgan tovush yoki holatning yuz berishi ma'nosi anglashiladi:

lapanglamoq, shitirlamoq, gumburlamoq.-Lan va -lash affikslari ot, sifat va ravishlardan fe'l yasaydi: jonlanmoq, achchiqlanmoq, afsuslanmoq, suhbatlashmoq, fikrlashmoq va b. -a affiksi ot, sifat va taqlid so'zlardan fe'l yasaydi: qonamoq, bo'shamoq, gulduramoq. -(a)y sifat va ravishlardan sanoqli fe'l yasaydi: pasaymoq, qoraymoq, toraymoq, kengaymoq kabilar. -(a)r affiksi ayrim sifatlardan fe'l yasaydi: oqarmoq, eskirmoq kabi. -sira affiksi otlar va sen, siz olmoshlaridan fe'l yasaydi: suvsira, tuzsira, sensira, sizsira kabilar.

Hozirgi o'zbek tilida kelib chiqishi yasama fe'l (etimologik yasalmalar N. Mamatov) bo'lgan, lekin sinxronik planda morfemalarga ajratib bo'lmaydigan (motivi topilmaydigan) leksemalar ham borki, ularni yasama fe'llar qatoriga kiritib bo'lmaydi. M: baqirmoq, qichqirmoq, yumshamoq, qaynamoq, izg'imoq kabilar.

Hozirgi o'zbek tilidagi harakatning takroriyligini, kuchli yoki kuchsiz darajasini ko'rsatuvchi -kila, -gila, -qila, -g'ila, -inqira kabi affikslar yangi ma'noli fe'llar yasamay, balki fe'lning modal ma'noli formalarini yasashga xizmat qiladi.

Kompozitsiya usuli bilan fe'l yasash

O'zbek tilida bu usul bilan qo'shma fe'llar yasaladi. qo'shma fe'llar esa materialiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1) otQfe'l; 2) fe'lQfe'l tipidagi qo'shiluvdan hosil bo'ladigan qo'shma fe'llar. Hurmat qilmoq, sotib olmoq, kelib ketmoq kabi.

"OtQfe'l" qolipidagi qo'shma fe'llarning asosiy qismini qilmoq, etmoq, aylamoq fe'llarining so'z yasash vazifasida kelgan va ot so'zlarga birikuvidan hosil bo'lgan qo'shma fe'llar tashkil etadi: bayon qilmoq, kashf etmoq, kasal bo'lmoq kabi.

Bu bilan boshqa mustaqil fe'ldan shu qolipda qo'shma fe'l yasalmas ekan degan noto'g'ri xulosaga kelmaslik kerak. Boshqa fe'llar ham fe'l yasashda ishtirok etadi, lekin ular bir yoki bir nechta fe'l leksemani yasashdagina ishtirok etadi xolos. M: do'q urmoq, do'qlamoq, lof urmoq.

Tilimizda ikki fe'lning birikishidan yasalgan fe'l leksemalar unchalik ko'p emas. Ular faqatgina bir holatda shunday yangi leksemani keltirib chiqaradi, xolos. Ya'ni zid ma'noli fe'llar qo'shilgandagina yangi fe'l leksema tug'iladi. M: kelib-ketdi, borib-keldi, olib sotdi, sotib oldi kabi.

Ravish yasalishi.

4-savol bayoni:

Ravishlar asosan ikki xil: 1) affiksatsiya, 2) kompozitsiya yo'li bilan yasaladi.

Affiksatsiya yo'li bilan ravish yasalishi tilimizda qadimdan mavjud bo'lib, ayniqsa, keyingi vaqtlarda unumli usulga aylangan. Ravish yasovchilar ham o'z navbatida unumli va unumsiz affikslarga ajraladi: -cha, -larcha, -chasiga, -iga, -siga, -lab, -ona unumli yasovchilardir; -an, -n(-in), -lay, -simon kabilar unumsiz yasovchilardir.

-cha affiksi ot, sifat, olmosh, sifatdosh va ravishlarga qo'shilib ravish yasaydi. Bu affiks yordamida otlardan ravish yasalishi birmuncha rivojlangan bo'lib, qolgan turkumlardan ravish yasalishi ancha chegaralangan.

-cha yordami bilan yasalgan ravishlar ish-harakatning bajarilish usuli, darajasi, belgining o'xshashligi kabi ma'nolarni bildiradi: do'stcha, ruscha, qiyomatcha, avvalgicha, yangicha, o'g'rincha, shuncha, sizcha, yugurgancha, hozircha kabi.

Ravish yasovchi -cha affiksi to'g'ridan-to'g'ri o'zak-negizga (harbiy-cha, biz-cha) qo'shilib kela olganidek, egalik va kelishik affikslaridan keyin ham qo'shila oladi (o'z-i-cha, bizning-cha).

-larcha yordami bilan yasalgan ravishlar ma'no tomonidan -cha orqali yasalgan ravishlardan asosan farq qilmaydi, -larcha affiksi bilan yasalgan ravishda o'xshatish ma'nosi bir oz kuchaygan bo'ladi: mardlarcha - mardcha, do'stlarcha - do'stcha. -larcha affiksi odatda ot yoki otlashgan sifatlardan ravish yasaydi: akalarcha, bolalarcha, otalarcha, asrlarcha, vahshiylarcha.

-chasiga affiksi bilan asosan ot va ba'zan sifatlardan ravish yasaladi. Bu ravishlar ma'no jihatidan harakat belgisining to'liq o'xshashligini bildiradi: qahramonchasiga, harbiychasiga, toshkentchasiga, mardchasiga kabi.

Ravish yasovchi -chasiga va -larcha affikslari tarkib jihatdan murakkab bo'lib, har ikkisinin vujudga kelishida -cha ravish yasovchi baza bo'lib xizmat qiladi.

-iga, -siga affikslari yordami bilan yasalgan ravishlar ma'no jihatdan harakat belgisining qay tarzda bajarilishini, o'xshashligini bildiradi: uzunasiga, yalpisiga, qatorasiga, yoppasiga, rostakamiga kabi.

-iga,-siga affikslari odatda ot, sifat, olmosh, ravish va ravishdoshlarga qo'shilib ravish hosil qiladi: unli bilan bitgan so'zlarga –siga, undosh bilan bitgan so'zlarga –iga shaklida qo'shiladi: ko'ndalangiga, uzunasiga kabi.

-lab affiksi yordamida ot yoki boshqa turkumdagi so'zlardan holat, payt, miqdor-daraja ma'nosini bildiradigan ravishlar hosil qilinadi: yillab, oylab, tonnalab, ko'plab kabi.

Ravish yasovchi -lab ikki qismdan (fe'l yasovchi -la va ravish yasovchi -b dan) tashkil topgan murakkab affiksidir.

-ona affiksi yordami bilan yasalgan ravishlar taqlid va o'xshatish ma'nolarini anglatadi: do'stona, kamtarona, holisona, mag'rurona kabi.

-ona affiksi fors-tojik tilidan kirib kelgan bo'lib, yasovchi sifatida -larcha,

-chasiga affikslariga teng keladi; keyingisida yasovchilik rolining o'sishi, kengayishi -ona affiksini unumsizga aylantirgan.

-an affiksi arab tilida tushum kelishigi formasi bo'lib, o'sha tildan kirgan so'zlarda ravish yasovchilik vazifasini o'taydi. Bu affiks bilan harakatning bajarilish holatini bildirgan ravishlar yasalgan: qisman, haqiqatan, fikran, tamoman, javoban, majburan kabi.

-gacha affiksi yordami bilan ot, sifat, olmosh va ravishlardan payt-chegara ma'nosini bildirgan ravish yasaladi: kechgacha, yaqingacha, ertadan - kechgacha, bungacha kabi.

-simon affiksi mavhum ot va sifatdoshlarga qo'shilib, o'xshatish ma'nosini bildirgan ravishlar yasaydi: qizargansimon, hazilsimon, xafasimon, uyalgansimon, jilovlangansimon kabi.

-namo affiksi yordami bilan taqlid, o'xshatish ma'nosidagi ravishlar yasaladi: oliftanamo, hazilnamo, olimnamo kabi.

-lay,-layin affiksi yordami bilan yasalgan ravishlar harakat belgisini bildiradi: tiriklayin, butunlay, qoqlay, yoshlay, xomlay kabi.

-n(-in,-un) affiksi yordami bilan harakatning qay tarzda bajarilishini, paytini bildirgan ravish yasaladi: ertan, kechin, oldin, kechqurun, yozin - qishin kabi.

Ravish yasalishining ikkinchi asosiy usuli kompozitsiyadir. Kompozitsiya yo'li bilan so'zlar o'zaro qo'shiladi, tiziladi, takrorlanadi, natijada ravish hosil bo'ladi. Bu yo'l bilan ravish yasalishini boshqa turkumdagi shu xil yasalish bilan tamoman tenglashtirib bo'lmaydi. So'z qo'shish bilan yasalishda birmuncha ravishlar tarkibida morfologik formalarning ham mavjudligini kuzatamiz: bu erda, bu yoqqa, shu erdan, kundan-kunga, bekordan-bekor, ketma-ket, nomma-nom kabi. Bu formalar qo'shma ravish yasashda muhim ahamiyatga ega.

Ma'lum sinonimik qatorni tashkil etgan ba'zi qo'shma ravishlar ayni so'zlarning ishtirokida vujudga kelishiga qaramay, morfologik shakllanishida farq bo'ladi: bir yo'l, bir yo'la, bir yo'li, bir yo'lasi; nari-beri, naridan-beri kabi.

So'z qo'shish bilan yasalgan ravishlar tarkibida turli so'z turkumlari qatnashishi mumkin:

1. u, bu, shu, o'sha ko'rsatish olmoshlaridan so'ng o'rin kelishiklari formasidagi er, yoq, ora, o'rta so'zlarini keltirish orqali: u erga, bu erda, shu erdan, o'sha yoqdan, bu oraga, shu o'rtada kabi. Ko'rsatish olmoshlari ba'zan bosh yoki o'rin kelishiklari formasidagi payt ma'nosini bildirgan otlar bilan birikib ravish hosil qiladi: shu kuni, o'sha zamon, shu on, shu onda, shu asnoda kabi.

2. Belgilash olmoshi "har" so'zi bilan bosh yoki o'rin kelishiklari formasidagi so'zlarning qo'shilishidan: har yoqqa, har erda, har yon, har yonda, har on, har onda, har lahza, har lahzada kabi.

3. «Bir» so'zining bosh yoki o'rin kelishiklaridagi so'zlar bilan qo'shilishi orqali: bir yo'la, bir kuni, bir kun, bir yili, birdan, bir damda, bir pas, birpasda, bir gal kabi.

So'zlarning takrorlanishi bilan ravish yasalishi unumli sanaladi. Umuman, takrorlanish(reduplikatsiya)da so'zning asosiy semantik funktsiyasi umumlashishidir. Takrorlangan so'zlar o'z turkumi doirasida qolsa, haqiqatdan umumlashtirish ma'nosi ustun turadi; takrorlanish orqali so'zlar o'z doirasidan chiqsa, odatda yangi so'z hosil bo'ladi.

Ravish turkumi doirasidagi takrorlanish (juftlashish) umumlashish bilan birga yangi ma'no berishga ham moyildir. So'zlarning takrorlanishi orqali yasalgan ravishlarni morfologik shakllanishiga ko'ra uch turga bo'lish mumkin:

a) so'zlar bosh formada takrorlanadi: mo'l-ko'l, eson-omon, chor-nochor, erta-indin kabi; b) so'zlar takrorlanganda, juft ravishlar tarkibida ularni bir-biriga bog'lash uchun morfologik forma - kelishik affikslari ishlatiladi: kundan-kunga, kamdan-kam, yildan-yil kabi; v) takrorlanish orqali yasalgan ravishlarni tutashtirish uchun – ma (-ba) elementi orttiriladi: ketma-ket, qatma-qat, kundan-kun, dam-badam, zo'r-bazo'r, zinhor-bazinhor kabi.

Takrorlangan so'zlarning ravishga aylanishidagi asosiy belgi ularda yuz bergan leksik-semantik va grammatik o'zgarishdir. Shu tufayli juft-juft so'zlar o'z turkumi doirasidan chiqib, ravishga aylanadi. So'zlarni takrorlash bilan ravish yasashda mustaqil so'z turkumlarining deyarli barchasi ishtirok etadi, biroq yasaliş darajasi birdek emas. Takrorlanish bilan otlardan ravish yasaliş boshqa turkumlarga nisbatan ko'proq uchraydi.

Takrorlanish orqali yasalgan ravishlarning material jihatdan turlari quyidagicha:

1. Ot bilan ot. Otlarning takrorlanishi bilan ravish yasaliş ko'rsatib o'tilgan morfologik shakllanishning har uch turi orqali bo'lishi mumkin: takror-takror, qator-qator, tun-kun, bosh-boshga, uchma-uch kabi.

2. Sifat bilan sifat. Sifatlarning takrorlanishi bilan yasalgan ravishlar ham morfologik shakllanishi jihatdan uch turda bo'lishi mumkin: eson-omon, biyron-biyron, ochiqdan-ochiq, zo'rma-zo'raki kabi.

3. Fe'l formalari takrorlanishi bilan ravish yasaladi: uzil-kesil, ag'dar-to'ntar, qotib-qotib, ura-sura, qo'sha-qo'sha, ozib-yozib kabi.

4. Ravish bilan ravish. Takrorlangan ravishlar yangi ma'no bildirib, yangi so'z xarakteriga ega bo'ladi: nari-beri, naridan-beri, oldin-keyin, oldinma-keyin, unda-bunda kabi.

5. Olmosh, son, undov va aralash holda so'zlarning takrorlanishi orqali ravish yasaladi: o'z-o'zidan, o'zidan-o'zi, yakkama-yakka, yo'l-yo'lakay, apil-tapil, chor-nochor kabi.

Yasama ravishlarning ma'lum qismini morfologik-sintaktik yo'l bilan hosil bo'lgan ravishlar tashkil etadi. Bu tip yasalişda o'rin kelishiklari (jo'nalish, o'rin-payt, chiqish)ning birida ot, sifat, olmosh ba'zan son va fe'l formalari ravishga aylanadi. Kelishik formasi orqali ravishga aylangan so'zlarning leksik-grammatik belgilariga diqqat qilsak, so'z formasi hosil qiluvchi qo'shimchani so'zga qo'shib yaxlitlanayotganini kuzatishimiz mumkin: yangidan, yoddan, qaytadan, to'g'riga, birdan va b. Bu ravishlarda "morfologizatsiya" va "leksikalizatsiya" hodisasi ro'y berganki, muayyan sintaktik holatda formalarni fikriy jihatdan yakkalash bilan ularning ravishligini belgilashga ehtiyoj qolmaydi.

Kelishik formasi yordami bilan ravishga aylanish, odatda, so'zlarning ma'lum kelishikda "qotib qolishi" natijasida yuzaga keladi. Endi bu ravishlashgan so'zlar turlanish sistemasidan chiqib, maxsus ma'noga - belgini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. So'zda vujudga kelgan semantik siljish morfologik formaga ham ega bo'ladi.

Biroq har qanday so'z chiqish, o'rin-payt, jo'nalish kelishiklari formasida ravishga aylanmaydi, balki ravishlashishga moyil muayyan so'zlar mavjuddir. Ular so'z turkumlariga nisbatan quyidagicha:

1. Tomon va zamon ma'nosini bildirgan ayrim otlar o'rin kelishiklarining birida ravishga aylanadi va ular predmet tushunchasini bildirmaydi, balki o'rin-payt va holat ravishlari hosil bo'ladi: oraga, oradan, chetga, chetdan kabi.

2. O'rin kelishiklari formasidagi sifatdan yuzaga kelgan ravishlar holat, o'rin ma'nosini bildiradi: uzoqqa, uzoqda, uzoqdan, chindan kabi.

3. Ko'rsatish olmoshlari ko'pincha o'rin-payt, ba'zan chiqish kelishiklari formasida ravishga aylanib, payt va o'rin ma'nosini bildiradi: unda, bunda, shunda, o'shanda, shundan kabi.

4. Bo'lishsiz formadagi sifatdoshlar chiqish kelishigida ravishga aylanadi: shoshmasdan, indamasdan, qaramasdan kabi.

5. Kelishik formasida ravishga aylangan bir so'zi orqali vujudga kelgan: Shunda birdan zavod kuchli tovush-la, alangali qahqaha-la kuladi.

Hozirgi o'zbek tilidagi ravishlarning ma'lum qismini boshqa turkumdan ravishga ko'chgan so'zlar tashkil etadi. Ravishlashgan so'zlar zaruriyat tug'ilishi natijasida vaqtincha ravish vazifasini bajarib kelgan bo'lib, aslida ular boshqa turkumga mansub bo'lgan so'zlardir. Masalan: Chigitlar tekis unib chiqib, ikki quloq bo'ldi.

Ravishlashishning ikkinchi etapi ko'chish bo'lib, bunda boshqa turkumdagi so'z tamomila ravishga aylanadi va uning leksik sostavini to'ldiradi. Ravishga ko'chish birdan va tasodifan bo'lmaydi, balki yangi sifat elementlarning asta-sekin va uzoq vaqt davomida to'plab borishi bilan so'zda yangi leksik-grammatik xususiyatlarning voqe' bo'lishi natijasida yuzaga keladi. Bunday so'zlarda ravishga xos xususiyat turg'un va doimiydir.

Ravishga ko'chish so'z turkumlarining ko'pida sodir bo'ladi. Ularning asosiy ko'rinishlari:

- 1) ravishga ko'chgan otlar: erta, indin, kecha, kech, kechqurun, burun kabi;
- 2) ravishga ko'chgan sifatlar: yaqqol, baralla, tugal, bafurja, muttasil, vaqtli, rosa, baravar, uzluksiz, omonsiz, beomon kabi;
- 3) ravishga ko'chgan ravishdoshlar: osha, o'ta, qiya, qiyo, qo'sha, qayta kabi.

Ot, sifatlarda bo'lgani kabi mimemalarda ham ravishga ko'chish jarayonini kechirayotgan so'zlar uchraydi: shartta, taqqa, shig'a, tappa, chippa kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
3. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
4. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti.
5. R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
6. U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil.
7. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.

Glossariy

Derivatsion morfemalar- so'zlarga qo'shib, yangi so'z hosil qiladi

Lug'aviy SHAKL hosil qiluvchi morfemalar- leksema lug'aviy ma'nosini nutqqa moslashtirish vazifasini bajaradi.

Lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar- lug'aviy ma'noni muayyanlashtirish, nutqqa xoslash bilan birga (*kelgan, kelgach*) so'zlarni sintaktik aloqaga ham kiritadi

Sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar- so'zlarning sintaktik qurilmalardagi o'rnini belgilaydi

Sodda morfemalar tarixan qanday bo'lganligidan qat'iy nazar ajralmas, yaxlit, bir tarkibli morfemalardir

Murakkab morfemalar aslida mustaqil morfemalarning ma'lum funktsiya bajarish maqsadida birlashgan holda qo'llanishidir

Morfemik polisemiya keng tarqalgan. Bu morfemalarning polifunksionalligiga bog'liqdir

Morfemik omonimiya. Shakldosh morfemalar

Morfemik sinonimiya. Barcha tur morfemalar ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi

Derivatsion morfemalarniig bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalashi

Morfemik antonimiya derivatsion morfemalar orasidagina mavjuddir

Morfema variantlari. Morfema nutqda turli variantlarga ega bo'ladi

Ixtisoslashgai leksemalar nutqiy yasama soʻzlar lisoniy lashuvining eng quyi darajasidir
Soddalashgan leksemalar- yasama soʻzlar lisoniy lashuvining yanada yuqoriroq bosqichidir
Tublashgan leksemalar- shunday leksema soʻzlarki, ularning yasalishini, tarkibini etimologik maʼlumotga boʻlmasdan aniqlab boʻlmaydi

Grammatika deganda -tor maʼnoda morfologiya va sintaksis yaxlitligi keng maʼnoda tilning qurilish sathlari tushuniladi

Grammatik maʼno - deganda til (fonetik, **leksik, morfologik va sintaktik**) birliklarining bevosita **nutqni shakllantiruvchi umumlashma** abstrakt maʼnolari tushuniladi.

XGM -*xususiy grammatik maʼno*

UGM - *umimiy grammatik maʼno*

OGM -*oraliq grammatik maʼno.*

Affiksatsiya tilimizda grammatik maʼno ifodalashning eng keng tarqalgan turi

Soʻz yasovchi affikslar soʻzga qoʻshilib, yangi lugʻaviy maʼno hosil qiladi

Shakl yasovchi qoʻshimchalar grammatik maʼno ifodalashning affiksali vositalari

Soʻz tartibi grammatik maʼno ifodalashning maxsus vositasi

Pleonazm aksariyat hollarda til evolyutsiyasi bilan bogʻliq hodisadir

Mustaqil lugʻaviy maʼnoli soʻzlar - feʼl, ot, sifat, son, ravish, taqlid

Nomustaqil lugʻaviy maʼnoli soʻzlar - olmosh va soʻz-gaplar

Lugʻaviy manosiz soʻzlar koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama

Morfemika.Morfemika va morfema haqida umumiy ma'lumot.

Morfema va uning turlari: o'zak morfema va affiksial (qo'shimcha) morfema

Dars maqsadi: talabalarda morfologiya va uning kategoriyalarini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1.1.

1-topshiriq. Morfema haqidagi to'g'ri va to'liq ta'rifni toping.

A. So'zning ma'noli qismlari morfema deyiladi.

V. Morfema so'zning bo'linmas, eng kichik ma'noli qismidir.

S. So'zning o'zak va affikslariga morfema deymiz.

D. So'z yasovchi, forma yasovchi, so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarga morfema deyiladi.

E. Kategorial va nokategorial morflarga morfema deyiladi.

1.2.

1-topshiriq. Morfemika - tilshunoslikning bir tarmog'i, uning morfem sathi haqida ta'limot beruvchi sohasi ekanligi haqidagi to'g'ri javobni toping.

A. Morfemika - morflar haqidagi ta'limotdir.

V. Morfemika - o'zak va affiksial morfemalar haqidagi ta'limotdir.

S. Morfemika - tilshunoslikning asosiy va affiksial morfemalar haqida ta'limot beruvchi sohasidir.

D. Morfemika - tilshunoslikning so'zning morfem tarkibi, ma'nosi va vazifasi, tarkibi va tartibiga ko'ra turlari haqida ta'limot beruvchi sohasidir.

E. Morfemika - so'zning morfem, morfologik va yasaliş strukturasi haqidagi fandır.

1.3.

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni ma'noli qismlarga - morfemalarga ajrating.

kitobcha, kitobxon, kitoblar; mevali, mevasiz, mevadan; ish, ishli, ishchan, ishlar, ishda, ishim, ishsiz.

2-topshiriq. Berilgan gapdagi so'zlarni morfemalarga ajrating.

O'zbek tilida to'g'ri, ravon so'zlash davlatimizning kelajagi va istiqboli bo'lgan siz - yoshlarning burchingizdir.

1.4.

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni morfemaning til birligi - invariantlardan tarkib topganligini ko'rsatuvchi guruhlariga ajrating: kitoblar, qalamlar, oyimlar, dadamlar, soat birlar, boshlarim, bellarim, gaz suvlar, unlar, professorlar.

Namuna: kitoblar, qalamlar - lar o'z vazifasida, otning ko'plik ko'rsatkichi, invariant birlik; oyimlar, dadamlar -lar hurmat formasi, nutq elementi, morf; invariant birlik bo'lolmaydi.

2-topshiriq. Jo'nalish va tushum kelishigi allamorflarini ayting: -ga, -ka, -qa, -g'a, -a kabilar.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-topshiriq. Morfemalarning o'zak va affiksial morfemalarga bo'linishi to'g'ri qayd qilingan javobni toping.

A. So'zning ma'no ifodalagan har qanday bo'lagi o'zak va affiksial morfema bo'la oladi.

V. So'zning lug'aviy ma'no ifodalagan qismi o'zak va affiksial morfema sanaladi.

S. So'zning grammatik ma'no tashigan qismi o'zak va affiksial morfema sanaladi.

D. So'zning kategorial va nokategorial shakllarini yasovchi qo'shimchalar o'zak va affiksial morfemalar hisoblanadi.

E. So'z lug'aviy va grammatik ma'no ifodalay olish xususiyatiga ko'ra o'zak va affiksial morfemaga bo'linadi.

2-topshiriq: Berilgan so'zlarni lug'aviy va grammatik ma'no tashuvchi morfemalarga ajrating: vatandoshlar, asalchilardan, birdan, zo'rg'a, gazlashtirish, mo'lhilik, yog'ingarchilik.

2.2.

1-topshiriq. So'zlarni ma'noli qismlar - o'zak va qo'shimchalarga ajrating. qo'shimchalar o'zaklarga qanday ma'no berayotganini aniqlang: paxtasiz, oyoqlamoq, paxtalamoq, ko'zli, paxtachilik, ko'zsiz, ko'zlamoq, paxtali, oyoqli.

2-topshiriq. Yuqorida keltirilgan so'zlar to'pida nechta o'zak, nechta qo'shimcha borligini aniqlang, ularni sanab bering.

2.3.

1-topshiriq. So'zlarni morfemalarga ajrating, ularning ma'nosini aniqlab, o'zak yoki affiksial morfema ekanligini, affiksial morfemalar ifodalagan ma'nolarni tushuntiring: ishchi, aqlli, mevasiz, kitoblar, aqlsiz, a'lochi, ishsiz, noto'g'ri, noinsol, to'g'rilik.

2-topshiriq. 1-topshiriqda keltirilgan so'zlarni o'zakdosh(lug'aviy ma'no tashuvchi) va qo'shimchadoshligiga ko'ra guruhlang.

2.4.

1-topshiriq. So'zlarni morfemalarga ajratib bo'lmasligi sababini tushuntiring: astoydil, gultojxo'roz, Sirdaryo, qishloq, sovchi, yuksak, yuksal, to'satdan, birdan, zo'rg'a kabilar.

2-topshiriq. O'zingiz hozir tushunilishi(sinxron aspekt)ga ko'ra morfemalarga ajratib bo'lmaydigan o'nta misol toping.

2.5.

1-topshiriq. So'zlarni tub(morfemalarga bo'linmaydigan) va morfem tarkibli guruhlarga ajrating. Ish, ishchi, ishchilar, ishlar, ishga; suv, suvchi, suvchilar, suvga; toza, tozala, tozalik; oq, oqla, oqlik.

2-topshiriq. So'zlarni so'z yasalishi va forma yasalishi tarkibiga ko'ra ikki guruhga ajrating: ishga, ishchi, ishda, ishning, ishdan, ishli, ishsiz, ishchan, ishim, ishimiz, ishingiz, ishlari.

3-topshiriq. So'zlar(2-topshiriq)dagi affiksial morfemalarning ma'nolari o'zak morfemalar ifodalagan ma'noga nisbatan umumiylikni tavsiflang (tushuntiring).

2.6.

1-topshiriq. -xona, -noma, -xo'r, -goh, -bon qo'shimchalarining affiksial morfema va lug'aviy ma'nosini saqlagan holatiga misollar toping va tushuntiring.

2-topshiriq. Tilimizdagi yana qaysi qo'shimchalar qanday mustaqil so'zlardan kelib chiqqanligiga misollar keltiring.

2.7.

1-topshiriq. So'zlarning morfem strukturasi yuz bergan o'zgarishlarning turini aniqlang va tushuntiring.

- a) intizor, quloq, quloq, yanoq, qovoq, bugun;
- v) yuksak, yuksal, bo'yin, bo'g'in, biqin, burun, bilan;
- s) biron, biror, birov, birga;
- d) ukamniki, o'yna, qiyna, chaqna.

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1.

1-topshiriq. Berilgan o'zakdosh so'zlarni aniqlang. qo'shimchalar o'zakka qanday yangi ma'no berayotganini tushuntiring: go'zal – go'zallik – go'zallashmoq; ish – ishchan – ishsiz – ishla – ishdan; uch – uchuvchi - uchqun - uchqur.

2-topshiriq. Berilgan so'zlardagi qo'shimchalar so'zga qanday ma'no qo'shayotganini va ular qanday morfemalar deyilishini ayting: kitobim – kitobing - kitobi; kitobimiz - kitobingiz - kitoblari; qalam - qalamlar, dadam - dadamlar; keldim –kelding - keldi; keldik – keldingiz - keldilar.

3-topshiriq. qatorlarda keltirilgan qo'shimchalarning turini va ular so'zlarga qanday ma'no qo'shayotganini tushuntiring: qiz - qizaloq - qizcha - qizgina; besh –beshta – beshinchi - beshtacha; yuv – yuvintir – yuvintiramiz.

3.2.

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni morfemalarga ajrating: affiksial morfemaning tarkibiga ko'ra sodda va qo'shmaga ajrating: yordamlash, fikrlash, sizlash, yog'ingarchilik, ko'pchilik, mo'lchilik, odamgarchilik, o'yna, o'tlan, yollan, gazlashtirish, elektrlashtirish.

2-topshiriq. Sodda va qo'shma affiksial morfemalarga o'ntadan misol keltiring: («O'zbek tili morfem lug'ati»dan foydalaning).

4-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

4.1.

1- topshiriq. So'z va o'zak morfemaning farqini tushuntiring.

1. Suv-suvchi, kel-keldi, quvna-quvnoq, mard-mardona, tez-tezla, bos-bosqin, aql-aqlli kabi o'zakdosh so'zlarning morfemalarga ajralish-ajralmaslik sababini tushuntiring.

2. Biz, kino, bor, -miz, -ga kabi o'zak va affiksial morfemalarni aloqa-munosabatga kirisha olish va -sh, -ma, -chi morfemalarining aloqa-munosabatga kirisha olmaslik sababini ayting.

3. So'zning gap bo'lagi bo'lishi, morfemaning gap bo'lagi bo'la olmaslik sababi to'g'ri ta'kidlangan javobni ko'rsating.

A) So'z gapda ma'noli qismlarga bo'linganligi sababli gap bo'lagi bo'lib keladi, morfema esa gapda ma'noli qismlarga bo'linmaydi, shuning uchun gap bo'lagi bo'lolmaydi.

B) So'z gapda mustaqil ma'noga ega bo'lganligi, morfema esa gapda ma'noli qismlarga egamasligi sababli gap bo'lagi bo'lib kelmaydi.

V) So'z til(nutq)birliqi, morfema morfologik sath birligi bo'lganligi sababli so'z gap bo'lagi bo'lib keladi, morfema gap bo'lagi bo'lib kelolmaydi.

4.2.

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni ikkiga: bog'li va erkin o'zakli morfemalarga guruhlang: kapitalizm, kapitalist, fashizm, ateist, traktorchi, vagonsoz, vagonli, traktorli, ommaviy, qabilaviy, ruhiy, tarbiyaviy, shar'iy, nokas, buyuk, moviy, badaviy, salbiy, ijobiy, sun'iy, madaniy.

2-topshiriq. Bog'li va erkin o'zak morfemalar asosan qanday birliklar (qatlam)ga xosligini ayting va sababini tushuntiring: A) o'z qatlamga oid birlik(leksema)lar uchun xos; V) o'zlashgan qatlam birliklari uchun xos; S) umumturkiy qatlam uchun xos; D) sodda yasama so'zlar uchun xos hodisa; E) qatlamga xos va yasama bo'lishi shart emas.

4.3.

1-topshiriq. Art, arch, qopqon, qovurg'a, og'riq, ilgari, uvoq, baqir, chaqir, o'kir, bo'kir, o'shqir, qiyqir, qichqir, inda, unda, bo'rdoqi, bo'rla, tog'olcha, sakson, to'qson so'zlarining morfemalarga ajralmas holga kelishi - soddalashuvi sababini tushuntiring.

4.4.

1-topshiriq. Qayta bo'linish hodisasiga misollar keltiring.

2-topshiriq. Ular, bitish, yurish so'zlaridagi morfologik qayta bo'linish mexanizmini tushuntiring.

4.5.

1-topshiriq. -lar(ko'plik) morfemasining morflarga bo'linishini misollar vositasida tushuntirib bering.

4.6.

1-topshiriq. Jo'nalish kelishigi (-ga), ko'plik (-lar) ko'rsatkichi, chiqish kelishigi (-dan) allamorflarini topib, tushuntiring.

5-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

5.1.

1-topshiriq. Matndagi morfem tarkibli so'zlarni kategorial va nokategorial morfemalarga ajrating.

Davlat tili

Jahondagi juda ko'p milliy davlatlar o'z davlat tiliga egalar. "Davlat tili" deganda shu davlat hududida asosiy aloqa - aralashuv vositasi bo'lgan til tushuniladi. Barcha davlat hujjatlari davlat tilida yoziladi; yig'inlar, anjumanlar, qurultoylar shu tilda olib boriladi.

5.2.

1-topshiriq. Kategorial forma yasovchi affiksial morfemalar deb:

a) predmetlik tushuncha (ma'no)sini ifodalaydigan affiksial morfemalarga aytamiz;

v) belgi ifodalaydigan so'zlar yasovchi affiksial morfemalarga aytiladi;

s) belgi ifodalaydigan so'z yasovchi, forma yasovchi affiksial morfemalarga aytiladi.

d) predmetlik ma'nosini ifodalaydigan forma yasovchi affiksial morfemalarga aytiladi;

e) kategorial forma yasovchi affiksial morfema deb bir so'z turkumining grammatik kategoriyasiga xos shakliga aytiladi.

2-topshiriq. Toycha, qopchiq, toychoq, maqtanchoq, qo'zichoq, qizilcha (lavlagi), qorachiq, chug'urchiq so'zlarini ikki guruhga: kategorial forma va nokategorial (funktSIONAL) forma yasovchi affiksial morfemali so'zlarga ajrating.

5.3.

1-topshiriq. Nokategorial forma yasovchi affiksial morfemalar (FYaAM) deb:

a)so'zning lug'aviy ma'nosini o'zgartiradigan (FYaAM)ga aytiladi;

v)so'zlararo sintaktik aloqa - munosabatni ko'rsatadigan FYaAMga aytiladi;

s)grammatik kategoriyaga qarashli bo'lmagan ma'no, ya'ni so'zlarning ma'lum bir modal ma'nosini ifodalab, ularni biror sintaktik vazifa bajarishiga xoslangan shakllarini yasovchi morfemalarga aytiladi;

d)so'zlarni o'zgartiruvchi - turlovchi va tuslovchi FYaAM ga aytiladi.

2-topshiriq. Ot va fe'llarga qo'shilib ularning nokategorial shakllarini yasaydigan forma yasovchi affiksial morfemalarning turlarini sanab keltiring.

6-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

6.1.

1-topshiriq. Keltirilgan misollardan so'z yasovchi affiksial morfemalar polisemiyasini (ma'no guruhlarini) tavsiflang.

Suvchi, traktorchi, ashulachi, o'yinchi, yolg'onchi, g'iybatchi, kamonchi, futbolchi, hasharchi, jangchi, vagonchi, dalachi, sayohatchi va boshqalar.

2-topshiriq. O'zingiz -chilik, -ma affiksial morfemalarining polisemantik holatiga misollar keltiring.

6.2.

1-topshiriq. Affiksial omonim morfemalarga berilgan to'g'ri ta'rifni toping (aniqlang).

a)shaklan bir xil, ma'nosi turli turkumlarga oid so'zlar yasovchi qo'shimchalar affiksial omonim morfemalar deyiladi.

v)turli so'z turkumlariga xos grammatik kategoriyalar shakllarini hosil qiluvchi qo'shimchalar affiksial omonim morfemalar deyiladi.

s)turli so'zlar orasidagi aloqa-munosabat uchun ishlatiladigan qo'shimchalar affiksial omonim morfemalar deyiladi.

d)shaklan bir xil, ma'nosi jihatidan turli so'z turkumiga xos so'z yasovchi va shakl yasovchi affiksial morfemalar omonim affiksial morfemalardir.

2-topshiriq. Matndagi affiksial omonimlarni topib, ularning omonimik munosabatini tavsiflang.

Adabiyot nihoyatda murakkab bir ijodiy jarayondir. U tinimsiz mehnat, tajriba, izlanish, soatlarcha xayol surish, odamlar ichiga borish, o'ylash, qidirish demakdir. Adabiyotimizning katta avlodi go'yo qora ish deb atalgan mehnatdan hech qachon qochgan emas. Oqsoqollarga hurmat, yoshlarga mehribonlik o'zbek yozuvchilariga xos fazilatlardan biridir. (Mirtemir)

6.3.

1-topshiriq. Berilgan so'zlar tarkibidagi affiksial morfemalarning vazifasiga ko'ra turini aniqlab, ularni sinonimik darajasiga muvofiq guruhlariga ajrating. Yoqimli-yoqimtoy, betoqat-toqatsiz, unumli-unumdor, o'rinli-noo'rin, chopqir-chopog'on, olmalik-olmazor, tuguncha-tugunchak, toychoq-toycha.

6.4.

1-topshiriq. Affiksial morfemalarning antonimik holatiga misollar topishni davom ettiring. kuchli-kuchsiz, o'rinli-noo'rin, foydali-befoyda, nuqsonli-benuqson, insofli-insofsiz.

Mustaqil ishlar:

1. O'zak va affiksial morfemalar uchun har birini xarakterlaydigan chizma tayyorlang.

2. Keltirilgan so'zlarni o'zak va affiksial morfemalarga ajrating.

Kitobxonlardan, qo'zichoqlarimizdan, xurmachalarning, belkuraklarimizning, asalarichilik.

3. Morfemalarni vazifasi, tarkibi va shakliga ko'ra tavsiflang.

gazlashtirilganlardan, paxtalarimizning, mustaqilliklardan.

4. Morfemalardagi polisemantik, omonimik, sinonimik va antonimik hodisalarni "O'zbek tili morfem lug'ati" yordamida (2-ilova, 399-417- betlar) izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
- 3.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
4. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,"Universitet" nashriyoti.
- 5.R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
- 6.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil.
7. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.

2-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Affiksial morfemalarning turlari:

so'z yasovchi, lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi affikslar. Affiksialmorfemalariing tuzilishiga ko'ra turlari: sodda affikslar va murakkab affikslar

Dars maqsadi: talabalarda morfologiya va uning kategoriyalarini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1.1

1-topshiriq. SFYaS to'g'ri ta'rifini toping:

- A. SFYaS so'zda qatnashayotgan barcha morfemalardan iborat.
- V. SFYaS ikki qismdan: asosiy va yordamchi morfemadan iborat.
- S. SFYaS forma yasash asosi va forma yasovchi vositadan iborat.
- D. SFYaS o'zak va affiksial morfemadan iborat.

2-topshiriq. SFYaS to'g'ri ajratilgan javobni belgilang.

A.ishchi-arga V.ish-chilarga S.ish-chi-lar-ga D.ishchilar-ga E.ishchi-lar-ga.

1.2

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni FYaS ga ko'ra qismlarga ajrating.

Ishlar, ishdan, ishning, ishga,ishim, ishingiz, ishi;

Keldi, kelgan, kelgach, kelib, keluv, kelsa.

2-topshiriq. Chap tomonda berilgan FYaA ga o'ngda keltirilgan FYaV lardan mosini qo'ying.

Ish... -roq hosil... -roq

Yaxshi... -dik hosildor... -gan

O'yna... -dan hosillan... -dan

1.3.

1-topshiriq. So'z formasini yasovchi vosita (qo'shimcha)lar turi to'g'ri berilgan javobni toping.

- A. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar.
- V. So'zning lug'aviy ma'nosini o'zgartuvchi qo'shimchalar.
- S. Sof forma yasovchi va so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar.
- D. So'zning sintaktik aloqasini ko'rsatuvchi qo'shimchalar.

2-topshiriq. Chap tomonda berilgan forma yasalish asosiga o'ng tomonda keltirilgan forma yasovchi vositalardan mosini qo'yib chiqing.

Ish...	-roq.	Namuna:
Osh...	-dan. ish	- dan
Xiyobon...	-imiz.	- imiz
Yaxshi...	-dir.	- ga
Katta...	-di.	- lar
Uzun...	-tir. yaxshi	- roq
O'yna...	-sa	- dan
qo'l...	-ga	- ga
Tur...	-lar	- lar

1-eslatma: Nazarimizda, ilmiy – ijodkorlik darajasida topshiriqlar talaba identiv maqsadining barchasi uchun umumlashtiruvchi etap sifatida berilsa etarli. Chunki SFYaS, SFYaA, SFYaV so'zning yasalish asosi so'zdan yirik birliklarda: qo'shma so'z, so'z birikmasi, yirik sintaktik komplekslar (leksosintagmalar)da, shuningdek, SFYaS murakkab ko'rinishli shakllarini birlashtiruvchi tugun sifatida tahlil etilsa samaraliroq bo'ladi.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-topshiriq. So'zning forma yasalish asosiga to'g'ri ta'rif berilgan javobni toping.

A. So'zning biror grammatik kategoriyasi yoki funktsional shakli yasalishiga asos bo'lgan qism SFYaA deyiladi.

V. So'zning kategorial formalari yasalishiga asos bo'lgan qism SFYaA deyiladi.

D. So'zning nokategorial grammatik ma'nosini hosil qilishga asos bo'lgan qism SFYaA deyiladi.

2-topshiriq. SFYaVga to'g'ri ta'rif berilgan javobni aniqlang.

A. FYaAga qo'shilib, so'zning relyatsion ma'no yasovchi qo'shimcha SFYaV deyiladi.

V. Forma yasalish asosiga qo'shilib, so'zning grammatik ma'nosini hosil qiluvchi qo'shimcha SFYaV deyiladi.

S. Forma yasalish asosidan so'zning kategorial va nokategorial formalarini yasovchi vositalar SFYaV deyiladi.

D. Forma yasalish asosidan so'zning kategorial formasini yasovchi qo'shimchalar SFYaV deyiladi.

E. Forma yasalish asosidan so'zning funktsional formasini yasovchi vositalar SFYaV deyiladi

Chizmadagi bo'sh katakchalar o'rnini quyidagilardan mos so'zlarni qo'yib to'ldiring :

1. Сўзнинг умумий структураси

2. Семантик

структура

3. Фонетик

структура

4. Фонематик структура


5. Морфем структура

6. Тўғри (лексик) маъно

7. Фонемаларни ўринлашиш ва бириктириш структураси

8. Акцентологик структура
9. Грамматик структура
10. Морфологик структура
11. Кўчма(лексик) маъно
12. Бирикиш структураси
- 13. Генетик маъно**
14. Иккиламчи номинация
15. Лексикализация
16. Лексик бўёқ (эшак, хўроз)
- 17. Асосий маъно**
18. Транспозиция
19. Эмоционал-стилистик оттенка

20. Фонетик экспрессия (товуш, урғу)
21. Унли фонемалар структураси
22. Ундош фонемалар структураси
23. Бош маъно
24. Урғу структураси
25. Сўз ясалиш структураси
26. Ўринлашиш структураси
27. Силлабик структура
28. Форма ясалиш структураси



3-topshiriq. Otning funktsional (nokategorial) formalari yasalishiga asos bo'lgan qism va yasovchi vositani ajrating.

A. hovuzcha, kapalakcha, toychoq, qo'zichoq (kichraytirish formalari).

B. onajon, akajon, Saidaxon, Kumushoy (erkalash formalari).

V. itlari, uylari, dadalari, opamlar (hurmat formasi).

4-topshiriq. So'zlarni kategorial forma yasalish asosi va forma yasovchi vositalarga ajrating.

A. keldim, kelding, keldi - fe'lning shaxs-son kategoriyasi.

V. uyim, uying, uyi - otning 1 shaxs, egalik kategoriyasi.

2-savol bo'yicha topshiriqlar

2.2.

1-topshiriq. Qo'shma so'zlarni SFYaS ga ko'ra binarlik printsipi asosida qismlarga ajrating.

A. temiryo'lni, temiryo'lning, temiryo'lga, temiryo'lda, temiryo'lda;

B. ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishning, ishlab chiqarishga, ishlab chiqarishdan, ishlab chiqarishda.

2-topshiriq. qo'shma so'z formalari SFYaS ga ko'ra shartli chiziqlar (____. - asos, _____ - forma yasovchi vosita) bilan belgilab chiqing.

A. Oliy Kengashni, Oliy Kengashning, Oliy Kengashga, Oliy Kengashdan, Oliy Kengashda,

B. belbog'ni, belbog'ning, belbog'ga, belbog'dan, belbog'da.

2.3.

1-topshiriq. So'z birikmalarini SFYaS ga ko'ra, binarlik printsipi asosida qismlarga ajrating.

A. O'zbekiston Respublikasida, O'zbekiston Respublikasining, O'zbekiston Respublikasini, O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasidan;

B. xo'jalik sudini, xo'jalik sudining, xo'jalik sudiga, xo'jalik sudidan, xo'jalik sudida.

2.4.

1-topshiriq. Leksosintagmalarga misollar topib, FYaA va FYaV ga ko'ra qismlarga namunada keltirilganidek ajrating.

Bir ming to'qqiz yuz to'qson to'qqizinchi yil -ga .

-da.

-ni.

-dan.

-ning.

Guliston Davlat universiteti -ning

-ni

-ga

-da

-dan

2.5.

1-topshiriq. Birdan ortiq forma yasovchi vositalar qo'shilishidan tarkib topgan so'zlarni FYaA va forma yasovchi vosita (FYaV)ga ajrating.

A. terimchilarga	terimchilarimizga	talabalarimizga
terimchilar-ga	terimchilarimiz-ga	talabalarimiz-ga
terimchi-lar	terimchilar-imiz	talabalar-imiz
	terimchi-lar	talaba-lar.

B. ishladik	keltirgandik	keltirildim
ishladi – k	keltirgandi - k	keltirildi - m
ishla - di	keltirgan - di	keltiril - di
	keltir - gan	keltir - il
	kel - tir	kel - tir.

2-topshiriq. Murakkab ko'rinish (tarkib)li so'zlarni FYaS ga ko'ra shartli chiziq (« ___ » - asos, « ___ » . ___ . forma yasovchi vosita) lar bilan belgilang.

maktabdoshlaridan,	o'quvchilarimizning,
gultojixo'rozlariningdan	Kumushoylarning
kelishayotibdi	kelishmoqchi

2.6.

1-topshiriq. So'zlarni forma yasash va so'z yasash strukturasi ko'ra qismlarga ajrating. Aqlli, yurtboshimiz, ishlatildi, odamning. Misollarni jadvalda davom ettiring.

Forma yasash strukturasi	So'z yasash strukturasi
Yurtboshi - miz	Aql - li
Ishlatil - di	Yurt - boshi

Odam – ning --	Ish - la --
-------------------	----------------

2-topshiriq. «Aqlli» va «odamning» soʻzlarini birinchi topshiriqdagi jadval kataklari shartiga mos kelmaslik sabablarini tushuntiring.

A. Ular tub soʻzlar boʻlgani uchun joylashmadi (qismlarga ajratib boʻlmadi).

V. «Odamning» tub soʻz, «aqlli»da forma yasovchi vosita (qoʻshimcha) yoʻqligi sababli qismlarga ajralmadi.

S. «Aqlli» faqat yasalish strukturasi, «odamning» faqatgina forma yasalish strukturasi tarkib topganligi sababli ajratilmadi.

D. A,B javob toʻgʻri.

E. V,D javob toʻgʻri.

2.7.

1-topshiriq. Soʻzlarni forma yasalish va soʻz yasalish strukturasi koʻra ikki ustunga ajrating.


Ishda, ishning, ishlar, ishchi, ishsiz, ishla;

Suvchi, suvsiz, suvla, suvda, suvlar, suvni;

Suzsa, suzay, suzsiz, suzgich, suzagʻon;

Oqla, oqlat, oqsa, oqtir, oqti, oqshom.

2-topshiriq. Soʻzlarni FYaS va SYaS ga koʻra qismlarga shartli chiziqchalar

___ asos,  FYaV, ---- SYaV) bilan ajrating.

kelgindi, qirindi, yuvindi, kuyindi, yuvindi, kelindi, olqindi, koʻrindi, kiyildi, yupandi.

2.8.

1-topshiriq. 4 ta soʻz tanlab, ularni namunadagidek SYaS va FYaS ga koʻra qismlarga ajrating.

tilshunoslikdan

tilshunoslik - dan - forma yasalish strukturasi;

tilshunos - lik - soʻz yasalish strukturasi;

til - shunos - soʻz yasalish strukturasi;

ishchilarimizdan

ishchilarimiz - dan - chiqish kelishigi formasi;

ishchilar - imiz - egalik formasi;

ishchi - lar - koʻplik formasi;

ish - chi - shaxs oti yasovchi forma.

2-topshiriq. Gapdagi soʻzlarni forma yasalish strukturasi koʻra tahlil qiling. Baxt havoda esmaydi, mehnatdan keladi. (Roʻdakiy)

3-topshiriq. Gapdagi yasama soʻzlarni topib, ularni yasalish strukturasi koʻra tahlil qiling.

Koʻcha boshida qatigʻini pullab, idishlarini orqalagan ayol koʻrindi.

2-savol boʻyicha savol va topshiriqlar

2.9.

1-topshiriq. Soʻzning yasaliş strukturasi haqidagi toʻgʻri taʻrifni ayting.

- A. SYaS deb oʻzak, soʻz yasovchi va soʻz oʻzgartiruvchi qoʻshimchalarga aytiladi.
- V. SYaS deb shu soʻzning yasovchi qismlariga aytiladi.
- S. SYaS deb yasaliş asosi va yasovchi elementga aytiladi.
- D. SYaS deb etakchi va koʻmakchi feʻl birikuvlariga aytiladi.
- E. SYaS deb ot va toʻliqsiz feʻlli birikuvlarga aytiladi.

2.10.

1-topshiriq. Soʻzning yasaliş strukturasi ikki qismdan – SYaA va SYaV dan iborat boʻlishi, yaʻni binarlik printsipi asosiga qurilishiga koʻra soʻzlarni ajrating: suvchilar, traktorçilik, nonxoʻr, bemaza, paxtakordagi, suvoqçilikka, yogʻingarchilik.

2.11.

1-topshiriq. Soʻz yasaliş asosiga berilgan toʻgʻri taʻrifni toping.

- A. Soʻzning maʼnosini oʻzgartiradigan qism SYaA deyiladi.
- V. Soʻzdagi har qanday maʼnoli boʻlak SYaA deyiladi.
- S. Soʻzning mustaqil lugʻaviy maʼnoga ega boʻlgan va yasalma maʼnosining asosini tashkil qilgan qism SYaA deyiladi.
- D. Soʻz maʼnosini yangilaydigan qism SYaA deyiladi.

2.12.

1-topshiriq. Soʻz yasovchi vositaga toʻgʻri taʻrif berilgan javobni ayting.

- A. Soʻzning maʼno bildiradigan eng kichik boʻlagi SYaV deyiladi.
- V. Soʻzning formasini hosil qiladigan qoʻshimcha SYaV deyiladi.
- S. Soʻzning grammatik maʼnosini oʻzgartiradigan qoʻshimcha SYaV deyiladi.
- D. Soʻzning lugʻaviy maʼnosini oʻzgartiradigan qoʻshimcha SYaV deyiladi.

2.13.

1-topshiriq. Berilgan yasalmalarni soʻz yasaliş asosi va soʻz yasovchi vositalarga ajrating: koʻpqavatli, koʻpchilikning, odamgarchilikning, sovchi, suvchi, quloqçin, bizdan, yordamlash.

2.14.

1-topshiriq. Soʻzning YaS FYaS va morfem struktura (MS) dan farqlanishini tushuntiring: berilgan soʻzlarni 3 stunga, ularning strukturasi farqlangan holda boʻlib yozing. Aqlli, yurtboshimiz, ishlatildi, odamning.

2.15.

1-topshiriq. Berilgan soʻzlarni YaA va YaV ligiga koʻra shartli chiziqlar bilan belgilang. iz, izchi, izquvarlik, izchil, izchilik; gʻaraz, begʻaraz, gʻarazgoʻy, gʻarazli, gʻarazsiz; uy, uyda, uydagi, uyni, uydan kabi.

2.16.

1-topshiriq. Yasaliş strukturasi koʻra sinxron planda tahlil qilish mumkin boʻlgan yasalmalarni aniqlang. Suvchi, sovchi, yoʻriqçin, quloqçin, Barchin, birdan, zoʻrgʻa, yuksak, yuksal, bilan, Sirdaryo.

3-savol boʻyicha savol va topshiriqlar

3.1.

1-topshiriq. Tub va morfem strukturali so'zlarni ikkiga ajrating:

kitobcha, qizilcha, ishchi, aqlli, mevasiz, uy, mard, kitoblar, boshliq, go'zal, uch, o'tir.

3.2.

1-topshiriq. So'z shakldagi ma'noli qism – morfema chegarasini qiyoslash orqali aniqlang (o'zakkodoshlik va qo'shimchadoshlik belgisiga ko'ra): paxta, paxtakor, paxtazor, paxtachilik; sholikor, shifokor, g'allakor.

3.3.

1-topshiriq. Berilgan bandlardan qaysi birida morf haqida to'g'ri va to'liq ta'rif berilgan:

A. So'z yasovchi va forma yasovchi qo'shimchalardan tarkib topgan har qanday so'z shakl morf deyiladi.

V. So'zshaklning asosiy va qo'shimcha ma'no anglatadigan qismlariga morf deyiladi.

S. So'zshakl tarkibida ajratiladigan eng kichik ma'noli qism morf deyiladi.

D. So'zshaklning yasalish asosi va yasovchi vosita sifatida ajratiladigan qismlari morf deyiladi.

3.4.

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni o'zak va affiksial morflarga ajrating: paxtasiz, oyoqla, paxtala, paxtachilik, yurtboshimiz, prezidentlikka, temiryo'lchilarning, odamgarchilikdan.

3.5

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni o'zak va affiksial morflarga ajrating va ularni ma'nosiga, vazifasiga ko'ra munosabatini tushuntiring:

gul - gulzor, choy - choydan, bo'yoq - bo'yoqli, qiz - qizcha, toy - toychoq, opa - opajon, qalam - qalamim, uy - uylar.

3.6.

1-topshiriq. Berilgan so'zshakllarni morflarga ajrating va o'zak morflar ma'nosi hamda vazifasini aytib bering:

1) qiz – qizaloq – qizcha; besh – beshinchi – beshtacha;

2) yuv – yuvin – yuvintir;

3) bog' – bog'bon – bog'dorchilik.

3.7.

1-topshiriq. Keltirilgan affiksial morflarning ma'nosi va vazifasiga ko'ra turini ayting (aniqlang):

A. -chi, -dosh, -m, -ma, -iy, -viy, -siz;

B. -m, -ing, -dik, -ingiz; -man, -san, -di;

V. -gan, -r -ar, -gach, -kach, -guncha, -kuncha, -lar, -dagi, -dek, -day, -xon, -jon, -gina, -kina, -dir, -giz, -sat.

3.8.

1-topshiriq. Berilgan so'zlardagi affikslarning joylashish o'rniga ko'ra qanday nomlanishini ayting:

Baquvvat, boqql, betuz, serharakat: izma-iz, rangba-rang; kulolchilik, undan, bildik.

3.9.

1-topshiriq. So'zlar tarkibini asos, qo'shimcha va allamorfligiga ko'ra ajrating:

Maktabxonalardan, bog'bonlarimiz, vatandoshlardan, aqlli; maktabga, toqqa, bilakka, boqqa.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
- 3.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
4. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,"Universitet" nashriyoti.
- 5.R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
- 6.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», 7. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.

3-amaliy mashg'ulot

Mavzu: So'z yasalishi. (derivatsiya) haqida umumiy ma'lumot.

Tub va yasama so'zlar

Dars maqsadi: talabalarda morfologiya va uning kategoriyalarini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1.1.

1-topshiriq. So'z yasalishiga nega tilshunoslikning mustaqil tarmog'i, sohasi sifatida qaraladi?

A. Affiksial morfemalar vositasida yangi ma'noli so'zlar yasaydi.

V. So'z yasash usullarini belgilaydi.

S. So'z yasash tiplarini tekshiradi.

D. So'zlarning yasalishini, yangi so'z hosil qilishning qonun-qoidalarini, model va tiplarini, vositalarini, so'zning yasalish strukturasi tekshiradi.

E. So'zning yasalish strukturasi aniqlaydi.

2-topshiriq. So'z yasalishining asosiy birligi va kategoriyalari nomlari to'g'ri qayd etilgan javobni toping.

A. Yasalma, yasalish asosi, yasovchi vosita.

V. Affiksatsiya, kompozitsiya, transpozitsiya, fonetik - semantik usullar.

S. Yasalish usuli, tipi, qolipi, modeli.

D. So'z yasalishi aspektlari: sinxroniya va diaxroniya, binarlik, so'zning yasalganlik ma'nosi, so'z yasovchi affiks.

E. A.V.S.D.

1.2.

1-topshiriq. So'z hayotning talabi bilan tug'ilishini asoslab bering.

A. Tilda yangi tushunchalarni atash uchun yangi so'z yaratish talab etiladi.

V. Tilda yangi predmetni atash uchun yangi so'z yaratishga ehtiyoj bor.

S. Hayotdagi yangilikni - yangi predmet, hodisa va hokazolarni nomlash uchun yangi so'z yaratiladi.

D. Hayotdagi yangiliklar - narsa-predmet, voqea-hodisa va h. nomlashga, atashga bo'lgan ehtiyoj sababli yangi so'zlar yaratiladi.

2-topshiriq. So'z yasash nega tilshunoslikning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, semasiologik sathlaridan ajratilib mustaqil soha, tarmoq deb qaraladi?

A. So'z yasalishi tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida o'z tema va remalariga ega bo'lganligi uchun ham mustaqil soha deb qaraladi.

V. So'z yasalishi mustaqil fan sifatida o'z birligi, so'z yasash usullari, umumkategorial va ichki kategorial birliklariga ega sath sifatida butun (yaxlit) bir sistema bo'lganligi uchun mustaqil soha sifatida qaraladi.

S. So'z yasalishi hodisasi o'zining asosiy, etakchi xususiyatlari bilan grammatika va leksikologiyaga yaqin turgani uchun ham mustaqil soha sifatida ajratiladi.

D. So'z yasalishida fonetik vositalar ham, morfologik birlik (morfema)lar ham, so'zlarni qo'shish (sintaktik) yo'li ham qatnashgani tufayli u mustaqil soha, tarmoq sifatida o'rganiladi.

E. So'zlarning yasalishini, yangi so'z hosil qilishning qonun-qoidalarini, modellarini, vositalarini, so'zlarning yasalish strukturasi sistemasi sifatida olib tekshirgani uchun ham mustaqil soha sifatida ajratiladi.

1.3.

1-topshiriq. So'z yasash nega leksik ma'noning yangidan tug'ilishini nazarda tutishini berilgan so'zlar vositasida tushuntirib bering: o'tloq, toshloq, qishloq, qumloq, ovloq, o'roq, pichoq, quloq, yanoq, dudoq, qoboq.

2-topshiriq. Berilgan yasalmalarni "yasalish asosi - yasovchi vosita - yasalma"ga ajratib, "yasalma"ning lug'aviy ma'nosi nimadan kelib chiqqanini tushuntiring.

Sinf-dosh, yurtdosh, maktabdosh, yo'ldosh, kursdosh; yong'in, quvg'in, qirg'in, to'lqin, chopqin; sersuv, serunum, serhosil, sergo'sht, sershovqin; qo'qongul, qashqargul, toshkan suv, chinnigul.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-topshiriq. So'zlarning yasalishini tekshirishda sinxroniya nimaga asoslanadi? To'g'ri javobni ayting.

A. So'zlarning tarixan qanday yasalganligini tekshirib, aniqlaydi.

V. So'zning etimologik ma'nosini tekshiradi.

S. So'zning genetik ma'nosini aniqlaydi.

D. So'zning ko'chma ma'nolarini tekshiradi.

E. So'zning yasalganligi tahlili zamonaviylik (bir vaqtlilik)ka – hozirda "yasovchi asos - yasovchi vosita -> yasalma" tarzida o'qilishini aniqlashga asoslanadi.

2-topshiriq. Keltirilgan so'zlarni sinxron va diaxron aspektda yasalgan so'zlar guruhiga ajrating. Ovloq, toshloq, ovul, qishloq, qumloq, dudoq, yanoq, chanoq, tirnoq, quvnoq, saboq, kurak, yurak, ichak, biqin, buyrak, bo'yin, tiqin, chopqin, qirg'in, so'lg'in, to'lqin.

2.2.

1-topshiriq. Sinxron tahlil printsiplari to'liq va to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A. Sinxronik tahlil adabiy til normalarini belgilaydi.

V. Sinxronik tahlil ta'lim tizimining talabidan kelib chiqib ish ko'radi.

S. So'z yasalishida yasalganmi-yo'qmi ekanligini aniqlashda mezon vazifasini bajaradi.

D. Biror hodisa, qonun-qoidaning unumli-unumsizligini tez aniqlashda ishlatiladi.

E. A,V,S,D.

2-topshiriq. Sinxron aspekt talabiga muvofiq yasalgan javobni toping.

A. Birdan, zo'rg'a, to'satdan

V. Sirdaryo, Amudaryo, Surxondaryo

S. Tekin, chekin, sekin

D. Astoydil, intizor, gultojixo'roz

E. Sinxron aspekt asosida yasalgan (tahlil qilish mumkin bo'lgan) so'zlar berilmagan.

3-topshiriq. Hozirgi davr nuqtai nazaridan yasalmaligiga ko'ra tahlil qilish mumkin bo'lgan so'zlar qatori berilgan javobni aniqlang.

A. Archi, art, qurt, yurt, surt, chert.

V. quloqchin, g'unajin, chilparchin, Barchin.

S. qirindi, yig'indi, suprindi, yuvindi, chiqindi.

D. Chuvrindi, qirindi, bekindi, bo'shandi.

E. qashi, to'zi, seni, uni, gapi.

2.3.

1-topshiriq. Sinxroniya va diaxroniyani nega til mavjudligi va taraqqiyotining ikki shakli deymiz (to'g'ri va to'liq javobni toping).

A. Hodisa - narsalardagi shakl va mazmun birligining ustivorligi uchun.

V. Mazmunning etakchi (birlamchi), shaklning ikkilamchi (yordamchi) ekanligi uchun.

S. So'z yasalishida sinxroniya diaxroniyaning muayyan bir zvenosi (bo'g'ini) bo'lgani uchun.

D. Hodisalardagi statika ulardagi dinamikaning xususiy ko'rinishi bo'lgani uchun.

E. Til hodisalari tahlilida sinxroniya va diaxroniya har doim o'zaro munosabatda bo'lgani uchun.

2-topshiriq. Berilgan misollarni tahlil qiling va sinxroniya bilan diaxroniya munosabatidagi dinamika va statika aloqasini o'z so'zlaringiz bilan tushuntirib bering: yanoq, quloq, dudoq, tamoq, qaboq, taloq, chanoq, tuyoq, dimoq, buqoq; iyak, bilak, kurak, suyak, tirsak, yurak, buyrak, ichak, milk, kanak, kiprik; bo'yin, biqin, bo'g'in, burun, qo'yin; qo'ltiq, kindik; manglay, tanglay.

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1.

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni tahlil etib, yasovchi asos (o'zak), yasovchi vosita(affiks)ga ajrating. Himoyachilarimiz, a'lochilardan, gulzorlarda, paxtakorlarning, sinfdoshlarga.

2-topshiriq. Berilgan so'zlardagi yasovchi qo'shimchalarning o'zakka, tub yoki yasama so'zga, so'zning lug'aviy shakliga qo'shilib kelayotganini aniqlang.

Bog', bog'bon, bog'dor, bog'dorchilik, bog'li, bog'liq, bog'siz, bog'bonlik, bog'bonchilik.

3.2.

1-topshiriq. O'zakdosh yasalmalarda o'zakning umumiy, affiksning xususiy, maxsus ma'no ifodalashini tushuntiring.

suv-chi > suvchi; sut-chi > sutchi; sinf-dosh > sinfdosh; ish-chan > ishchan; ish-li > ishli; aravakash > aravakash; chuqur-lashtirish > chuqurlashtirish; ish-la > ishla.

2-topshiriq. Berilgan so'zlarni "yasovchi > yasalma"lik munosabatidagi umumlashtiruvchi qism ("yasovchi asos")ini aniqlang. qishloqi, eroni, multoni, panjobi.

Namuna: qishloq-i > qishloqi: "qishloq" - yasovchi asos, "- i" yasovchi vosita, "qishloqi" - yasalma. Yasalmada ma'no xususiylashgan, ya'ni toraygan - "qishloqlik" kabi o'rin - joyga xoslik ma'nosini ifodalayapti. Vaholanki, "qishloq" asosidan yana qator ma'nolarni ifodalovchi so'zlar yasash mumkin bo'ladi: qishloq-dosh > qishloqdosh.

3.3.

1-topshiriq. Yasovchi bilan yasalmaning ma'no jihatidan bog'lanishi nimaga asoslanishini tushuntirib bering. Aqli - aqlsiz - beaql - boaql; sabrli - besabr - sabrsiz - bosabr; sovungar - sovunchi, bedapoya - bedazor.

2-topshiriq. Yasovchi bilan yasalmaning ma'no jihatdan bog'lanib, yasalmalikni ifodalashida yasovchi affiks(vosita)ning vazifasini aniqlang.

- li	paxta -	-(to'n)
-siz	tikan-	-(sim)
ish - chan	soya-	-(daraxt)
-chi	suv-	-(er)
-la	meva-	-(daraxt)
	shira-	-(qovun)

3.4.

1-topshiriq. Berilgan so'zlarda yasovchilar ma'nosiga asoslangan yasalmaning ma'nosi qanday rivojlantirilganini tushuntiring.

Suva-q-chi -> suvoqchi, yama-q-chi -> yamoqchi.

2-topshiriq. Berilgan yasalmalarni tarkibiga ko'ra tahlil qilib, ularda yasovchi vazifasini nima bajarayotganligini aniqlang. Birdan, zo'rg'a, to'satdan, maqtanganning to'yini, kerilganning uyini ko'r, iskabtopar, qashqargul, gulxayri, chinnigul, ko'kkaptar.

3.5.

1-topshiriq. Asoslovchi va asoslanuvchi munosabati nima deb ataladi?

- A. yasalma
- V. yasovchi
- S. motivatsiya
- D. asoslovchi
- E. asoslanuvchi

2-topshiriq. So'zlarni motivatsiya (motivlovchi-motivlanuvchi) talabidan kelib chiqib tahlil qiling. Uzum - uzumchi, uzum - uzumzor, o'r - o'roq.

4-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

4.1.

1-topshiriq. Soʻz yasash usullari tasnifi toʻgʻri ajratilgan va nomlangan javobni aniqlang.

A. semantik

V. fonetik

S. grammatik:transpozitsiya,affiksatsiya, kompozitsiya

D. kalka va abbreviatura

E. A,V,S

2-topshiriq. "Soʻz yasalishi" predmeti kategoriyalari toʻgʻri sanalgan javobni ayting.

A. Yasalish asosi, yasovchi vosita, yasalma.

V. Yasovchi, yasalma, soʻz yasash usullari.

S. Affiksatsiya, kompozitsiya, transpozitsiya.

D. Soʻz yasash modeli, soʻz yasash tipi, soʻz yasash qolipi.

E. Binarlik, fonetik usul, semantik usul.

J. Barcha javoblar toʻgʻri.

3-topshiriq. "Soʻz yasalishi" birligi qaysi javobda qayd etilgan?

A. Leksema.

V. Semema.

S. Yasalma.

D. Yasama.

E. Tagmema.

4.2.

1-topshiriq. Semantik usul bilan yasalgan soʻzlarni maʼno koʻchirishning qaysi yoʻli bilan koʻchganligini ayting. Oʻq(kamonning), oʻq(aravaning), oʻq(miltiqning); eshak(bola), eshak (oʻjar odam); qoʻy(hayvon), qoʻy(yuvosh odam): tulki(hayvon), tulki (ayyor odam).

2-topshiriq. Keltirilgan soʻzlardagi yangi semalar maʼno koʻchirishning qaysi usullariga mansubligini aniqlab, ularni turlarga ajrating.

Ish - mehnat(ot) / ish - jazo (ot); nok - daraxt(ot) - nok - meva(ot), oʻq - kamon oʻqi (ot) - oʻq - arava oʻqi (ot), oʻq - kamon oʻqi (ot)/oʻq - miltiqning oʻqi (ot), samovar - buyum oti (ot) - samovar - choyxona (ot).

3-topshiriq. Maʼno koʻchirish usullari toʻgʻri berilgan javobni ayting.

A. Oʻxshatish, sifatlash, istiora.

V. Metonimiya, metafora, sinekdoxa, vazifadoshlik.

S. Alletratsiya, transkripsiya.

D. Substantivatsiya, adʼektivatsiya, adverbializatsiya.

E. Konversiya, transpozitsiya.

4.3.

1-topshiriq. Misollarda qanday fonetik vosita yordamida yangi soʻz yasalayotganini tushuntirib bering.

a) yangi(sifat) - yangi(ravish), olma(ot) - olma(feʼl), oldi(feʼl) - oldi(ravish);

b) bobo - bibi, buva - buvi, koʻr - koʻz.

4.4.

1-topshiriq. Asosga affikslar qoʻshilishidan hosil boʻlgan soʻzlar toʻgʻri nomlangan javobni ayting.

A. Tub soʻz.

V. Sodda yasama soʻz.

S. Sodda soʻz.

D. qoʻshma soʻz.

E. Juft soʻz.

J. Takroriy soʻz.

2-topshiriq. Yasalmalarni "yasalish asosi", "yasovchi vosita"ga ajrating.

temiryoʻlchi, koʻp qavatli, gazlashtirish, chuqurlashtirish,

moʻlchilik, oʻqituvchi, oʻquvchi, sihat-salomatlik, aravasoʻz.

3-topshiriq. qoʻshimchalarni qaysi turkumga oid soʻzlar yasay olishiga koʻra ajrating. -chi, -dosh, -lik, -loq, -soz, -kor, -zor, -ma, -la,-li, -lan, -lash, -ona, -larcha, -iy, -viy, -simon, -shunos, -xon, -xona, -bon, -bin.

4.5.

1-topshiriq. Qo'shma so'z yasashning atamasi berilgan to'g'ri javobni toping.

- A. Kompozitsiya.
- V. Kompozita.
- S. Qo'shilma.
- D. Birikma.
- E. Sintagma.

2-topshiriq. Yasalmalarni qo'shma so'zning yasash tiplariga muvofiq ajrating.

Okrug, qoraqand, loviya qovun, bo'rikalla, karnaygul, qashqargul, tuyaqush, er yong'oq, unib-o'smoq, unda-munda, orzu-umid, unar-unmas, unaqa-bunaqa, uzun-uzun borib-borib, kelib-kelib, yura-yura, chopachopa, bir-bir, asta-asta, Oliy Majlis, Oliy Kengash, ish xaqi, yil boshi, yurtboshi, mehnat kuni, bir yuz o'n, o'n to'qqiz, bir ming to'qqiz yuz to'qson to'qqiz, aytdi-qo'ydi, sotib oldi, kirib-chiqdi, borib-keldi.

4.6.

1-topshiriq. Quyida berilgan atamalarning qaysi turkumlarni yasash uchun xoslanganini izohlang. Substantivatsiya, ad'ektivatsiya, adverbializatsiya, verbalizatsiya, pronominalizatsiya, kon'yunksionalizatsiya.

2-topshiriq. Transpozitsiya usuli bilan yasalgan so'zlarni turkumlarga oidligiga ko'ra guruhlang. Yaxshidan ot, yomondan dod qoladi. Ahmoq oyog'idan qariydi. Gunohi ne edi bu tilla boshning. Oq oltinni oltin qo'llar yaratadi. Sevarxon uyiga qaytmoqchi. Naziraxon qudalarni yaxshi kutib oldi. Ali bilan Vali qishloqqa ketdi. «Va» teng bog'lovchi. Saodat student, u GDUDA o'qiydi. Bir kuladi, bir yig'laydi.

4.7.

1-topshiriq. Berilgan so'zlar tarkibida kelgan so'z yasovchi qo'shimchani aniqlang va ularning yasovchilik darajasi(dinamikasi)ni hozirgi til nuqtai nazaridan ajratib chiqing: o'roq, yotoq, qoloq, yanoq, dudoq, qovoq, quloq, tomoq, qaroq, chanoq.

2-topshiriq. 1-topshiriqdagi -oq qo'shimchasi bilan yasalgan so'zlar dinamikasi qanday natija(statika)ga olib kelganini aytib bering.

- A. -oq qo'shimchasi hozir sermahsul.
- V. -oq qo'shimchasi til taraqqiyotining ma'lum davrida mahsuldor bo'lgan.
- S. -oq qo'shimchasi yangi so'z yasamagan.
- D. -oq qo'shimchasining mahsuldorligi tilda o'z izi(statikasi)ni qoldirgan.

Mustaqil ishlar:

1-topshiriq. Matndagi yasama so'zlarni toping va ularni sinxron, diaxron aspektga bo'lib, guruhlab, yasamalik sababini izohlang.

Quloqchin telpak kiygan kishi birpas jim turdi va to'satdan gap boshladi. - Bugun xotirjam, qo'l qovushtirib o'tirsak, kelajak avlod bizni kechirmaydi. Qadriyatlarimizga qaytish va kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni ana shu qadriyatlar, bobolarimiz an'analari ruhida tarbiyalash dolzarb bo'lib turibdi.

2-topshiriq. Mustaqil so'zlarning so'z yasovchi qo'shimchalarga aylanish jarayoniga misollar keltiring va tushuntirib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
3. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
4. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti.
5. R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
6. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», 7. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.

4-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Ona tilida so'z yasash usullari

Dars maqsadi: talabalarda morfologiya va uning kategoriyalarini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1.1.

1-topshiriq. So'z yasash usullarining turlari amal qilishi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A. Affiksatsiya va kompozitsiya

V. Affiksatsiya, kompozitsiya, transpozitsiya.

S. Affiksatsiya, kompozitsiya, transpozitsiya, semantik va fonetik usullar.

D. Sintaktik-leksik, kalka, so'z qisqartirish.

E. Leksikalizatsiya, transpozitsiya, konversiya.

2-topshiriq. Sifat turkumida amal qiladigan so'z yasash usullari qaysi javobda to'g'ri berilgan.

A. Kompozitsiya, transpozitsiya, affiksatsiya.

V. Semantik, fonetik, leksikalizatsiya.

S. Kompozitsiya, adverbializatsiya, ad'ektivatsiya.

D. Affiksatsiya, pronominalizatsiya.

E. Ad'ektivatsiya, kompozitsiya, affiksatsiya.

3-topshiriq. Son turkumida amal qiladigan usullar to'g'ri berilgan javobni ayting.

A. Affiksatsiya, kompozitsiya, kon'yunksionalizatsiya.

V. Affiksatsiya, kompozitsiya, transpozitsiya.

S. Semantik, fonetik, konversiya.

D. Kompozitsiya, transpozitsiya.

4-topshiriq. Fe'l turkumida so'z yasashning qaysi usullari amal qiladi.

A. Affiksatsiya, verbalizatsiya, abbreviatura.

V. Affiksatsiya, kompozitsiya, transpozitsiya.

S. Kompozitsiya, konversiya, affiksatsiya.

D. Transpozitsiya, affiksatsiya, kompozitsiya, semantik va fonetik usullari.

E. Semantik, fonetik, affiksatsiya, kompozitsiya.

5-topshiriq. Ravish turkumida amal qiladigan so'z yasash usullarini ayting.

A. Affiksatsiya, adverbializatsiya, kompozitsiya, fonetik, leksikalizatsiya.

V. Semantik, fonetik, implitsid, grammatik.

S. Sintaktik, morfologik, leksik, semantik.

D. Kalka, abbreviatura, kompozitsiya.

E. Leksikalizatsiya va kompozitsiya.

6-topshiriq. Yordamchi so'zlarda amal qiladigan so'z yasash usullarini aniqlang.

A. Affiksatsiya

V. Kompozitsiya.

S. Kon'yunksionalizatsiya.

D. Semantik.

E. Fonetik

J. V,S.

7-topshiriq. Modal, undov va taqlid so'zlarda amal qiladigan so'z yasash usullarini aniqlang.

A. Affiksatsiya, kompozitsiya.

V. Kompozitsiya, transpozitsiya.

S. Semantik, leksikalizatsiya.

E. Leksikalizatsiya, fonetik.

1.2.

1-topshiriq. Matnda semantik usul bilan yasalgan so'zlarni aniqlab, ularning ma'no ko'chirish usulini tushuntiring. Oltin so'zlarni aytdingiz. O'zbekiston o'z istiqloq yo'lidan olg'a bormoqda. U masala qo'ygan, u signal bergan (A.Q.). Ko'z – qo'rqqoq, qo'l - botir (Maqol). Rahbar ishning

ko'zini bilishi lozim. Rustam dehqonchilikning tilini yaxshigina o'rgangan.(O.) Dasturxonga boqqan do'st emas.(Maqol) Nikolay zamonida oilam tuyoq ko'rmagan. (O.) Jamila, sen uy ichining cho'risi bo'lma, guli bo'l, guli. (H.H.)

1.3.

1-topshiriq. Misollarda fonetik usul bilan so'z yasayotgan vositani izohlang.

Talabalar bilan akademik Sirojiddinov uchrashuvi bo'ldi. Nihoyat, o'zbek tilining akademik grammatikasi nashr etiladi. Olma temir moddasiga boy meva. Dasturxondagi taomlardan e, lekin shirinliklar-

dan olma, Buvam bilan buvim Toshkentga jo'nab ketdi. Ko'z – ko'r.

1.4.

1-topshiriq. Berilgan yasalmalardagi so'z yasovchi qo'shimchalarni aniqlab, qanday so'z turkumiga oid so'z yasayotganini ayting.

Suzma, qatlama, qaynatma, bostirma, qo'llanma, yasama, burama, ag'darma, buklama; boshliq, otliq, ayriqliq, borliq, tuzliq, Olmaliq, osig'liq, yopig'liq.

2-topshiriq. Keltirilgan qo'shimchalar vositasida so'zlar yasang va bunda so'z yasalish asosi qaysi turkumga oidligiga e'tibor bering: -chi,-gich,

-g'ich,- ak,- oq, - lik, - loq, -zor, -ma, -dosh, -don, -bon,-qi, -gin.

1.5

1-topshiriq. quyida keltirilgan qo'shma so'zlarning yasalish (birikish) tipini aniqlang.

qo'lqop, belbog', Uchtom, Beshariq, Galatepa, Kattaqo'rg'on, Oqqo'rg'on, qoradaryo, Balandchaqir, quyimozor, Buloqboshi, tuyaqush, sassiqpopushak, so'fito'rg'ay, qashqargul, karnaygul, gulibeor.

2-topshiriq. Berilgan so'zlarni kompozitsiya usulining qaysi turi bilan yasalganini ayting.

Eru xotin, o'g'il-qiz, katta-kichik, bordi-keldi, o'yin-kulgu, to'y-ma'raka; xotin-xalaj, etim-esir, boy-kambag'al; Guliston Davlat universiteti, xalq boyligi, ish xaqi, yurtboshi, davlat qushi; non-pon, osh-posh, meva-cheva; BMT, SVT kabilar.

3-topshiriq. Gaplarda transpozitsiya usuli bilan yasalgan so'zlarni topib, qaysi turkumdan yasalayotganini aniqlang.

Gapning berdisini aytguncha shoshilasan. Birovini senga, boshqasini o'zimga mo'ljallayapman. To'yning bo'ladi-bo'ladisi yaxshi. Yaxshi topib gapirar, yomon qopib. Qo'rqqoq burun musht ko'tarar.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-topshiriq. Matndagi affiksatsiya usuli bilan yasalgan sifatlarni aniqlang, ularni «yasalish asosi» va «yasovchi vosita»ga ajrating.

Ijodiy faoliyat, unumli mehnat, turkiy g'azal, hosildor er, qarovsiz bog', yozgi ta'til, tarbiyaviy soat, kasalmand kishi, badavlat odam, noo'rin so'z, serdaromad tarmoq.

2-topshiriq. Berilgan sifat yasovchi qo'shimchalarni qaysi til qo'shimchalari ekanligiga ko'ra ro'yxatini tuzing.

-li, -siz,- lik,- gil, -qir, -g'in, -ag'on, -choq, -gi, -chan, ba-, bo-, no-, ser-, be-, -parvar, -bon, -namo, -dor, -iy, -viy, -simon, -gin, -gun, -ma.

3-topshiriq. Keltirilgan sifat yasovchi qo'shimchalar (2-topshiriqdagi) vositasida sifat so'zlar yasang. Yasalmalarning «yasovchi asos» ma'nosiga munosabati va qaysi turkumga oid so'z (o'zak)dan sifat yasayotganini izohlang.

2.2.

1-topshiriq. Berilgan qo'shma sifat so'zlar qaysi turkum so'zlarining qo'shilishidan yasalayotganini aniqlang.

Muzyorar, kunbotar, osmono'par, beshotar, bodomqovoq, sheryurak, sarvqomat, qo'yko'z; oqbadan, oqbilak, ko'kko'z, qorasoch, oqko'ngil; kulrang, kamgap; uch qavatli (bino), qora sochli (qiz), duxoba do'ppili (yigit).

2-topshiriq. Berilgan qo'shma sifatlarni yasash usuliga ko'ra tahlil qilib o'z xulosangizni ayting.

A) bodomqovoq (qiz), oqbilak (oyim);

V) to'g'ri burchakli (parallelopiped), ko'p qavatli (bino);

S) beshotar (miltiq), tezyurar (poezd).

2.3

topshiriq. Sifatga ko'chgan so'zlarning qaysi turkumga oidligini aniqlang.

Zahar odam, tilla bola, shakar qizim, oltin kuz, kumush qish, yog'och oyoq; yarashmagan qiliq, kelishgan qiz, o'tar dunyo, tez odam, oqilona maslahatchi, ruscha kitob, o'zbekcha rasm-rusum.

2-topshiriq. Sifatga ko'chgan (ad'ektivatsiyalashayotgan) so'zlarga 10 ta misol toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1

1-topshiriq. Fe'l so'zlarning yasashi haqida o'zbek va umumtilshunoslikda, jumladan, turkologiyada mavjud qarashlar haqida gapirib bering. ("Adabiyot"larda 7-8 –banddagi asarlardagi ma'lumotlar asosida)

2-topshiriq. Berilgan qo'shma fe'larning qaysi birida so'z(leksema)yasalyapti deb hisoblaysiz. Ularning ma'nosini tushuntiring: kirib keldi, o'qib chiqdi, tamom qildi, borib keldi, sotib oldi, tushib chiqdi, chiqib tushdi, kulib gapirdi, vafo qilmoq, qazo qilmoq, kelib ketdi, gapirib yubordi, aytib qo'ydi, o'ynab yuribdi.

3.2

1-topshiriq. Fe'l so'zlarning semantik guruh(to'da)lari to'liq va to'g'ri sanalgan javobni toping.

A.Ish-harakat fe'llari.

V.Ish, sof harakat, nutq, holat fe'llari.

S.Bo'lishsizlik harakatini ifodalovchi fe'llar.

D.Xususiyat, xarakter harakatini ifodalovchi fe'llar.

E.Fe'llarning bunday semantik to'dalari yo'q.

2-topshiriq. Berilgan gaplardagi fe'l so'zlarning semantik to'dasiga ko'ra qanday ma'no ifodalayotganini aniqlang.

Dildoraxon uyiga ketdi. Bolaning ichi ketdi. Dildoraxonning anor suviga ko'ngli ketdi. Dorulfanodan dorulbaqoga ketdi.Poezd o'z yo'nalishi bo'ylab ketdi. Dildora shaharga ketdi. Abdulla bobo yaxshi yuribdilarmi, qulog'imga ketdi-ketdi degan gaplar chalindi? Mashina yurib ketdi. qushlar janubga tomon ketdi.

3.3

1-topshiriq. Verballashuv(fe'l vazifasida kelish)dan qanday semantik-sintaktik hodisa yuz berganligini izohlang.

Salima - talaba.Osmon - tiniq, havo - musaffo. Barcha illatlarning sababchisi - sen. Ikki o'n besh - bir o'ttiz.

2-topshiriq.Fe'l vazifasida kelayotgan so'zlar ishtirok etgan beshta misol toping va ulardagi verballashayotgan so'zdan yangi sema tug'ilmasligi sababini tushuntiring. (Inkorni inkormi yoki neyrallashuvmi?)

3.4

1-topshiriq. Berilgan fe'llarni tub, sodda va yasama fe'llarga ajrating. Fe'l yasovchi qo'shimchani aniqlang. Olmoq, boshlamoq, qaratmoq, so'ramoq, tashlamoq, ko'karmoq, quchmoq, quchoqlamoq, yurmoq, odimlamoq.

2-topshirish: Berilgan yasama fe'llar tarkibida fe'l yasash asosi, fe'l yasovchi qo'shimchani aniqlang.

Pachaqlamoq, ushlamoq, yoshlamoq, saralamoq, sizlamoq, tezlamoq.

3-topshiriq.Berilgan fe'l yasovchi qo'shimchalar vositasida sodda yasama fe'llar qatorini to'ldiring:

-la: arrala, ...

-la: tekisla, ...

-la: lapangla, ...

-la: senla, ...
-lan,-lash: jonlan, suhbatlash, ...
-a: kona, ...
-ay: pasay, ...
-sira: suvsira, ...
-illa,-ira: yiltira, chirqilla, ...
-ar,-ir: oqar, ...
-k: ko'zik, ...

3.5.

1-topshiriq. Gaplardagi qo'shma fe'llarni toping, tarkibini aniqlang.

Ahmad salom berdi. Durдона javob berdi. Shirin salom-alik qilsang, shirin duo olasan. Sinf rahbari qo'l qo'yilgan arizani o'qituvchiga berdi.

2-topshiriq. Juftliklar orasidagi farqni tushuntiring, ularga ma'nodoshlar toping. Fe'llar ishtirokida gaplar tuzing.

- 1) obod qilmoq-obod bo'lmoq; 2) baland qilmoq-baland bo'lmoq; 3) bog' qilmoq - bog' bo'lmoq; 4) tog'-tog' qilmoq – tog'-tog' bo'lmoq; 5) juft qilmoq - juft bo'lmoq; 6) xursand qilmoq – xursand bo'lmoq; 7) rozi qilmoq – rozi bo'lmoq.

3-topshiriq. qilmoq, bo'lmoq, bermoq, olmoq, qo'ymoq, chekmoq kabi fe'llar ot, sifat, son so'zlar bilan qo'shilib yaxlit ma'no ifodalaydi va qo'shma fe'l yasashga xizmat qiladi. Ular ishtirokida qo'shma fe'llar yasang.

4-topshiriq. Keltirilgan qo'shma fe'llarning tarkibidagi farqlarni tushuntiring va sababini ayting.

- 1) sotib oldi, olib sotdi, kirib chiqdi, borib keldi, chiqib tushdi, kelib ketdi.
- 2) kirib keldi, borib yuribdi, tushib keldi, ketib qoldi.
- 3) ma'qul bo'lmoq, rohat ko'rmoq, hordiq chiqarmoq, azob chekmoq, huzur ko'rmoq.

4-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

4.1.

1-topshiriq. Berilgan ravishlarni tub va yasama ravish guruhlariga ajrating.

Endi, ertalab, mardona, hamisha, taxminan, yillab, yuzlarcha, sidirg'asiga, lutfan, yoppasiga, vatanparvarlarcha, dehqonchasiga, haftalab, batamom, uzil-kesil, do'stona, ataylab, birdan, zo'rg'a.

2-topshiriq. Matndagi yasama ravishlarni topib, ularni o'zak va qo'shimchalarga ajrating.

Bitiruv kechamiz shodiyonasiga sizlarni lutfan va qalban taklif etamiz. Mastura ko'zlarini makkorona o'ynatib, javob berdi.(O.) Mardona ishladik, zafarlar quchdik. Mardlarcha kurashmoq mardlarning ishi.

3-topshiriq. Ravish yasovchi qo'shimchalar vositasida yangi yasama ravishlar qatorini davom ettiring.

-cha: yangicha, ...
-larcha: mardlarcha, ...
-chasiga: toshkentchasiga, ...
-iga, -siga: uzunasiga, yonginasiga, barobariga, ...
-lab: ertalab, gektarlab, ...
-ona: shoirona, ...
-an: majburan, ...
-gacha: haligacha, ...
-simon: hazilsimon, ...
-namo: uyalgannamo, ...
-lay: xomlay, ...
-n(-in, -un): ertan, oldin, ...

4.2.

1-topshiriq. So'zlarning qo'shilishi bilan yasalgan qo'shma ravishlarning turkumiga ko'ra tarkibini ayting, ma'no guruhlariga ajrating.

a) har vaqt, har lahza, har gal, har er, har yoq, har yon, har mahal, har on.

b) shu erga, shu erda, shu erdan, shu er, bir oz, bir erga, bu erdan, bu erda, o'sha yoqqa, o'sha yoqda, o'sha yoqdan, u erdan.

v) tez fursatda, yaqin orada, har zamon, ertadan-kechgacha.

g) bir vaqt, bir payt, bir mahal, bir zamon, bir onda, bir zumda, bir lahzada, bir oz, bir yo'la, bir vaqtlar.

2-topshiriq. Ravishlarning juftlashuvidan paydo bo'lgan ma'no ifodalanishini tushuntiring.

oldin-keyin, asta-sekin, sekin-asta, nari-beri, birin-ketin, bugun-erta, erta-kech.

3-topshiriq. So'zlar takroridan yasalgan ravishlar tarkibini, turkumini aniqlang.

a) ahyon-ahyonda, huda-behuda, basma-bas, kamdan-kam, zo'rg'a-zo'rg'a, o'qtin - o'qtin, galma-gal, sal-pal, oz-moz, ora-sira, chala-chulpa;

b) uzundan-uzun, zo'rma-zo'raki, quruqdan-quruq, yakkama-yakka, lo'nda-lo'nda;

v) yuzma-yuz, so'zma-so'z, yonma-yon, tarafma-taraf, uchma-uch, betma-bet, qo'lma-qo'l, elkama-elka, kundan-kunga, dam-badam, yildan-yilga;

g) qayta-qayta, qo'yarda-qo'ymay, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kelar-kelmas;

d) bir-bir, birma-bir, bitta-bitta, o'z-o'zidan, qancha-qancha, apil-tapil.

4.3.

1-topshiriq. Berilgan yasalmalarni "leksikalizatsiyalashgan" ravishlar, "ravishga ko'chgan" va "batamom ravishga ko'chgan" guruhlariga ajrating.

yoddan, qaytadan, to'g'riga, birdan, yangidan, bundan, shoshmasdan, charchamasdan, tekis, tinmas, bir(kes); erta-indin, kech, kecha, burun, rosa, beto'xtov, o'ta, qo'sha, qayta, shartta, taqqa, shig'a, chippa.

2-topshiriq. Gaplardagi transpozitsiya(adverbializatsiya) usulida yasalayotgan ravishlarga xarakteristika bering.

Yaxshigul yaxshi qiz, u har doim yaxshi gapiradi. Chigitlar tekis unib chiqdi. Bog'da bulbullar tinmay sayramoqda.

Mustaqil ishlar:

1.Otlarning affiksatsiya usulida yasalishi yuzasidan:

a)o'rin-joy otlari;

b)narsa-qurol otlari;

v)shaxs otlari;

g) mavhum ot yasovchi qo'shimchalar vositasida yasalgan to'dalari aks etgan ko'rgazmali qurollar tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili.

Toshkent, 2007-yil. -300 bet.

2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.

3.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti

4. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,"Universitet" nashriyoti.

5.R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.

6.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», 7. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.

Informatsion ta'minot:

Asosiy adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. T., 1994.

2. Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. T., 1990.

3. Nurmonov A., Shoxobiddinova Sh va b. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. T., «XXI asr avlodi», 2001.

4. Tursunov U va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992.

5. Hojiev A. O'zbek tilida forma yasalishi. T.,1990.

6. O'zbek tili grammatikasi. I tom, T., 1975.

V SEMESTR
**ONA TILI VA ADABIYOT(Grammatika) FANIDAN MA'RUZA
MASHG'ULOTLARI**

**Mavzu: Grammatika. Grammatikaning o`rganish ob`yektlari.
Morfologiya.**

Mavzu rejasi:

1. Grammatika haqida umumiy ma`lumot.
2. Hozirgi o`zbek adabiy tilining grammatik kategoriyalari.
3. So`zning grammatik ma'nosi va grammatik shakli, ularning o`zaro aloqadorligi
4. Morfologiya haqida umumiy ma`lumot.
5. So`z turkumlari va ularning tasnifi, me'zonlari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

1. Grammatika, so`zning grammatik formasi, morfologiya, so`zning sintaktik formasi, sintaksis, so`zning analitik formasi, grammatik ma'no, so`zning aralash formasi, grammatik forma, so`zning nolga teng formasi, grammatik kategoria, so`zning juft va takroriy formalari, so`z turkumlari, kategoria va nakategorial formalar, mustaqil so`zlar, nomlovchi so`zlar, yordamchi so`zlar, ko`rsatuvchi so`zlar, alohida so`zlar, ifodalovchi so`zlar.

1-reja bayoni

Grammatika (grekcha: gramma - harf o`qish va yozish san'ati) tilshunoslik fanining eng muhim bo`g`ini bo`lib, u alohida olingan har bir tilda mavjud bo`lgan o`ziga xos grammatik qurilishni tekshiradigan sohadir. Tilning grammatik qurilishi ancha barkaror qonun- qoidalar va shakllar tizimidan iborat ekanligi bilan tilning boshqa sathlaridan, jumladan uning leksikasidan, fonetik-fonologik qurilishidan farq qiladi.

Grammatika -ikki qismdan: morfologiya va sintaksisdan tarkib topgan.

Shu tufayli ham u so`z turkumlarini ularning muayyan ma'nolari va grammatik me'zonlari muayyan ma'nolari va grammatik tuzilishi jihatidan tekshiradi, so`z birikmalari hamda gaplarning bir-biriga bog`lanishini mazmun munosabatiga ko`ra (grammatik tuzilishini asos qilib olib) tekshiradi.

Ma'lumki, tildagi so`zlar alohida olinganda fikr ifodalamaydi: faqat atash xususiyatiga yoki grammatik ma'noga (yordamchi so`zlar) ega bo`ladi. Ular grammatik qonun-qoidalar asosida qo`shimchalar, yordamchi so`zlar, so`z tartibi va boshqa yordamchi vositalar ko`magida ma'lum sintaktik qonuniyatlar doirasida birikib - bog`lanib kelgandagina fikr shakllanadi. Masalan, Men maktabga boraman gapida uchta so`z bo`lib, bu gap olmosh, ot va fe'ldan tarkib topgan. Bu so`zlarga jo`nalish kelishigi qo`shimchasiga, tuslovchi bo-raman qo`shilib kelib, ularni bog`lagandagina gap shaklini oladi va fikr ifodalash xususiyatiga ega bo`ladi. Demak, so`zlarning birikib gap bo`lishida grammatik qonun - qoidalarning vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Morfologiya grammatikaning bir qismi bo`lib, (grekcha morphe - "shakl", logos- "ta'limot") u so`zlarning grammatik turkumlari, morfologik kategoriyalarini, so`zlarning tuzilishi va tarkibini, so`zning formalar sistemasini va u formalarning hosil bo`lish yo`llari hamda hosil qiluvchi vositalarini urganadi. Demak, morfologiya so`zni grammatik birlik sifatida tekshiradi. Grammatik birlik sifatida so`z grammatik ma'no va grammatik formaga ega bo`ladi.

Grammatik ma'no. So`zning biror turkumga mansubligini ko`rsatuvchi, ma'lum bir grammatik kategoriyaga xos formasini ifodalaydigan ma'no grammatik ma'no hisoblanadi. Demak, grammatik ma'no asosiy belgisiga ko`ra ikki xil: umumiy kategorial ma'no va ichki (maxsus) kategorial ma'noga bo`linadi. Masalan, qalam, kitob, uy, tosh, bog`, daraxt so`zlarining har birining o`ziga xos lug`aviy ma'nosidan tashqari ularning barchasi uchun umumiy bo`lgan ma'no - ya'ni predmetlik ma'nosi bor. Bu ma'no shu tipli 10 minglab so`zlar uchun xosdir va u umumiy kategorial ma'no deb yuritiladi.

Umumiy kategorial ma'nolar o`z ichki sistemasiga ega bo`ladi. Masalan, ot turkumiga xos grammatik ma'nolar: egalik, kelishik, son kabi ichki kategorial grammatik ma'nolarga egaligi

bilan boshqa soʻz turkumlaridan farqlanib turadi. Demak, soʻzning leksik maʼnosiga qoʻshimcha maʼno (yoki maʼnolar) qoʻshuvchi maʼnolar ichki kategorial maʼnolar deb yuritiladi.

Grammatik forma (Soʻz formasi). Soʻzning muayyan grammatik maʼno ifodalovchi shakli soʻzning grammatik formasi deyiladi. Masalan, kitoblar soʻzida predmet (lugʻaviy) maʼnosidan tashqari, predmetning koʻpligi ham ifodalanyapti. Bu maʼno kitob soʻziga -lar qoʻshimchasini qoʻshish orqali yuzaga chiqmoqda. Demak, kitob soʻzining koʻplik formasi hisoblanuvchi k i t o b l a r soʻzi grammatik koʻplik maʼnosini anglatadi.

Oʻzbek tilida soʻz bir grammatik koʻrsatgichli yoki birdan ortiq grammatik koʻrsatgichli boʻladi. Masalan, kitob - bosh kelishik, birlik formasi; kitoblar - bosh kelishik, koʻplik formasi; kitoblarim - bosh kelishik, koʻplik, birinchi shaxs formasi; kitoblarimni - bosh kelishik, koʻplik, birinchi shaxs, tushum kelishigi formasi.

Hozirgi oʻzbek tilida soʻz formasining 3 tipi mavjud:

1) affikslar yordamida hosil boʻluvchi forma: uyni, uydan, uyga, uyda, uying; oʻqiyapman, oʻqiyapsan, oʻqiyapti kabi affikslar yordamida hosil boʻluvchi sintetik forma;

2) yordamchi soʻzlar, koʻmakchi feʼllar va toʻliqsiz feʼl qoʻshilishidan hosil boʻluvchi forma: ukam uchun, uy tomon, oʻqib chik, koʻrib qoʻy kabi analitik formalar;

3) Juft va takroriy forma. Bu tipli formalar maʼlum grammatik maʼno ifodalash uchun xoslangan. Masalan, qozon – tovoq, bola – chaqa, yaxshi - yomon kabi formalar umumlashtirish maʼnosini, baland - baland (imorat), qator-qator (mashina), kula-kula (gapirmoq) kabilar koʻplik va takror maʼnosini ifodalaydi.

Soʻzning juft va takroriy formalari oʻzlariga xos bir qator xususiyatlarga ega.

Oʻzbek tilida soʻzning maxsus koʻrsatgichga ega boʻlmagan formalari ham bor. Masalan, otning koʻplik formasi -lar affiksi yordamida yozilgan xolda, birlikning maxsus koʻrsatkichi yoʻq: kitob - birlik (koʻrsatgichsiz). Feʼllarda boʻlishsizlikning maxsus koʻrsatkichi boʻlgani xolda, boʻlishsizlikning maxsus koʻrsatkichi yoʻq: ishla (boʻlishli, koʻrsatgichsiz) - ishlama (boʻlishsiz, -ma koʻrsatgichli).

Soʻzning formalari sistemasida formasiz koʻrinish - nol koʻrsatgichli forma deb yuritiladi: oʻqidi-m, oʻqidi-ng, oʻqidi kabi.

Soʻz formasi biror turkumdagi ichki grammatik kategoriyaga xos formada boʻlishi yoki grammatik kategoriya hosil qilmaydigan formada boʻlishi mumkin.

Shunga koʻra soʻz formalari oʻzbek tilida ikki asosiy turga boʻlinadi:

1) kategorial formalar, 2) nokategorial yoki funktsional formalar. Kategorial formalar maʼlum grammatik kategoriyaga xos maʼnolarni ifodalovchi, shu formalar bilan birlikda grammatik kategoriya hosil qiluvchi formalardir. Masalan, otlardagi son, egalik, kelishik, feʼldagi mayl, zamon, shaxs-son formalari.

Funktsional (nokategorial) formalar maʼlum grammatik maʼnoni ifodalovchi (grammatik kategoriyaga ega boʻlmagan maʼnoni) yoki soʻzni shu soʻz mansub boʻlgan turkumga xos boʻlmagan sintaktik vazifaga moslash uchun xizmat qiluvchi formalardir. Masalan, otlardagi xoslik, oʻxshatish, kichraytish-erkalash; sifatdagi daraja, feʼlning sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi formalari nokategorial formalar hisoblanadi.

Grammatik kategoriya. Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik maʼno va shu maʼnolarni ifodalovchi grammatik shakllar sistemasi grammatik kategoriya deyiladi. Masalan, otlarda birlik va koʻplik maʼnosi va shu maʼnoni yuzaga keltiruvchi grammatik forma birgalikda otning son kategoriyasini tashkil etadi: kitob (birlik) - nol forma, kitoblar - koʻplik. Yoki harakatning hozirgi, oʻtgan, kelasi zamonga oidligi maʼnosi va shu maʼnoni ifodalovchi formalar birgalikda feʼlning zamon kategoriyasini hosil qiladi. Masalan, keldi - oʻtgan zamon, kelyapti - hozirgi, kelmoqda - kelasi zamon.

Maʼlum bir soʻz umumiy lugʻaviy maʼnosiga qoʻshimcha maʼno ifodalangan formada boʻlishi mumkin. Lekin bu forma va maʼno boshqa biror maʼno va forma bilan munosabatda bulmasligi mumkin (birlik hosil qilmasligi mumkin). Bunday soʻz shakllari toʻgʻrisida gapirganda grammatik kategoriya haqida soʻz boʻlishi mumkin emas. Masalan, -niki qoʻshimchasi ot soʻzlarga yoki otlashgan olmoshlarga qoʻshiladi va xoslik maʼnosini ifodalaydi: oʻzimmniki, doʻstimniki, maktabniki kabi. Misollardan shu narsa seziladiki, ularda xoslik maʼnosi va shu maʼnoni ifodalovchi forma

butunligi bor. Lekin shu forma va ma'noga zid qo'yilib, u bilan birlik hosil qiluvchi boshqa ma'no va shakl yo'q.

Demak, bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi (opozitsiya hosil qiluvchi) mumkin bo'lgan ikki va undan ortiq grammatik ma'no va shu ma'nolarga xos formalargina grammatik kategoriyani hosil qiladi.

Nazorat topshiriqlari:

1. So'zning biror turkumga mansubligini ko'rsatuvchi, ma'lum bir grammatik kategoriyaga xosligini ifodalovchi ma'noni izohlang

2. So'z turkumlarini ikkiga umumiy kategorial ma'noga ega va umumiy kategorial ma'no ifodalaydigan so'z turkumiga ajrating.

Ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, undov, taqlid va madal so'zlar.

3. So'z turkumlari ichki kategorial grammatik ma'nolarini ifodalovchi paradigmalarni sanab ko'rsating.

Ot;	Yordamchi so'zlar;
Sifat;	Undov so'zlar;
Son;	Madal so'zlar;
Olmosh;	Taqlid so'zlar;
Fe'l;	
Ravish;	

2-reja bayoni

So'z turkumlari tildagi so'zlar ma'nolari, morfologik bilgilari va gapda bajaradigan vazifalariga ko'ra ma'lum to'ralarga guruhlanadi. So'zlarning ma'lum grammatik ma'no, morfologik belgi va sintaktik vazifasiga qarab guruhlarga bo'linishi so'z turkumi deyiladi.

Har bir turkum o'ziga xos grammatik ma'no anglatadi va shu grammatik ma'nolarni ifodalovchi grammatik shakllarga ega bo'ladi. Jumladan, ot turkumi "predmetlik" ma'nosini (uy, bino, inson, do'stlik, sevgi, istiqloq kabi) fe'l turkumi "harakat"ni (yoz, o'qi, ishla, boshla, ichir kabi), sifat "belgi"ni (qizil, oq, yaxshi, odobli kabi), ravish holatni (tez, sekin, mo'l, oz kabi) anglatadi. So'z turkumlari ifodalayotgan bunday mavhum grammatik ma'nolar so'zlarni turkumlarga ajratishda asosiy belgi hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek tilida so'zlar umumiy kategorial ma'nosidan tashqari konkret narsa, belgi, harakat kabilarni ataydi, ya'ni mustaqil leksik ma'no tashiydi va gapda mustaqil gap bo'lagi vazifasida kela oladi. Bunday so'zlar mustaqil so'zlar deyiladi. Mustaqil so'zlarga xos bosh belgi biror voqea- hodisa (predmet, belgi, harakat, miqdor) haqidagi tushunchalarni ifodalaydi, demak, lug'aviy ma'no anglatadi. Ikkinchi, umumiy belgi gap bo'lagi vazifasida kelishdir. Uchinchi juz'iy, lekin muhim belgi - so'z yasash va shakl yasash va forma o'zgartish xususiyatining mavjudligidir. Morfologik belgi (kategoriya)ga ega bo'lishi barcha so'z turkumlari uchun birdek xos emas. Masalan, ot va fe'l turkumidagi so'zlar uchun har uchala hodisa - so'z yasash, shakl yasash va so'z o'zgartish (turlanish va tuslanish) mavjud bo'lsa, sifatlar uchun esa ikkitasi so'z yasash va shakl yasash xos, ravishda asosan so'z yasash qisman shakl yasash (daraja yasalishi) bor.

Xullas, mustaqil so'zlar umumiy kategorial ma'nolariga ko'ra quyidagi turkumlarga bo'linadi: ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish.

O'zbek tilida umumiy kategorial ma'noga ega bo'lmagan so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar kiradi. Bu guruhdagi so'zlar mustaqil lug'aviy ma'noga ega emasligi, gapda mustaqil gap bo'lagi vazifasida kela olmasligi bilan xarakterlanadi. Ular gapda turli xil grammatik ma'nolarni ifodalaydi, xolos. Shunga ko'ra bu so'zlar yordamchi so'zlar deb yuritiladi.

Yordamchi so'zlarni umumiy vazifalariga ko'ra 3 ga: ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarga bo'lib qaraladi.

Ko'makchi - maqsad, sabab, vaqt, makon, vosita kabi modal ma'nolarni anglatadi: uchun tomon, orqali, maqsadida kabilar.

Bog'lovchi - gaplar va gap bo'laklarini bog'lovchi, ular orasidagi turli grammatik aloqa munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi: va chunki, shuning uchun kabilar.

Yuklama - so'zga va gapga qo'shimcha ma'no beruvchi so'zlardir: axir, xuddi, -u, -yu, -ku, -mi, -chi kabilar.

Tilimizda soʻzlovchining gapda ifodalnayotgan fikrga, fikrning borliqqa munosabatini koʻrsatadigan: balki, albatta, soʻzsiz, chamamda kabi soʻzlar guruhi borki, ularni bir guruhga jamlab modal soʻzlar deb yuritamiz. Modal soʻzlar tasdiq, ishonch, gumon, taxmin kabi modal ottenkalarni ifodalaydi.

Shuningdek, oʻzbek tilida turli - tuman xis-tuygʻularni, xitob, chaqiriq, undash kabi maʼnolarni ifodalovchi soʻzlar guruhi ham bor boʻlib, ular undov soʻzlar deb yuritiladi. Undov soʻzlar lugʻaviy maʼno (nominativ maʼno)ga ega emasligi va yordamchi soʻzlarga xos vazifada kelmasligi bilan alohida guruh tashkil qiladi: ofarin, barakallo, eh, oh kabilar.

Borliqdagi jonli va jonsiz predmetlarning ixtiyoriy_ixtiyorsiz ravishda chiqargan tovushlari va ularning koʻrinishi hamda holatiga taqlidni bildirgan taq -tuq, yilt - yilt, lov -lov, lip-lip kabi soʻzlar guruhi borki, ular taqlid soʻzlar deb yuritiladi.

Shunday qilib tilimizda quyidagi soʻz turkumlari : ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish (mustaqil soʻzlar), koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama (yordamchi soʻzlar), modal, undov, taqlid soʻzlar (alohida soʻzlar)ga boʻlinadi.

Quyida ularning har biri haqida alohida - alohida toʻxtalamiz.

Soʻzlarni turkumlarga ajratishning boshqa meʼzonlari ham bor. Bunda soʻzlar maʼnosiga koʻra quyidagilarga :

nomlovchi (atovchi) soʻzlar,

yordamchi soʻzlar,

3) ifodalovchi soʻzlar,

4) koʻrsatuvchi soʻzlarga boʻlinadi. Nomlovchi soʻzlarga mustaqil soʻzlar; yordamchi soʻzlarga bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklamalar kiradi; ifodalovchi soʻzlarga undov, taqlid va modal soʻzlar kiradi. Koʻrsatuvchi soʻzlarga olmoshlar kiradi.

2. Morfologik jihatdan oʻzgaradigan va oʻzgarmaydigan soʻzlarga boʻlish mumkin. Oʻzgaradigan soʻzlarga: ot, sifat, son, olmosh, fe'l soʻzlar, oʻzgarmaydigan soʻzlarga ravishlar kiradi.

3. Sintaktik jihatdan gapda vazifa boshqaradigan va vazifa boshqarmaydigan soʻzlarga boʻlish mumkin: vazifa bajaruvchilarga ot, sifat, olmosh, fe'l, ravish, taqlid va modal soʻzlar kirsa, bajararmaydiganlarga koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama va undov soʻzlar kiradi.

Demak, soʻzlarni turkumlarga ajratishda ularning turli tomonlari, xususiyatlari hisobga olinmogʻi lozim.

Nazorat savollari:

1. Hozirgi tilimizdagi soʻzlar asosan qanday belgi (meʼzon)larga koʻra turkumlarga guruhlanishini tushuntiring

2. Mustaqil soʻz turkumiga xos boʻlgan umumiy katigorial grammatik maʼnolarni tushuntiring.

3. Yordamchi soʻzlar qanday belgilarga koʻra turkumlarga guruhlanishini toping.

4. Qaysi bandedagi javoblar lugʻaviy maʼnosini yoʻqotib, koʻmakchi, bogʻlovchi yuklamaga aylangan? Toʻgʻri va toʻliq javobni ayting.

A. Bilan, uchun, kabi, sari, sayin, oʻzga, chunki.

V. Tomon, tashqari, beri, koʻra, shuning uchun.

S. Bilan, uchun, kabi, sari, sari, sayin, yanglig, singari, doir, oid, chunki, va, goh, goʻyo, -mi, -chi, dir.

D. Bilan, uchun, kabi, sari, sayin, kadar, oʻzga, tufayli, boshqa, sababli, orqali, faqat, shuning uchun.

Adabiyotlar:

1. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1980, 206-212.

2. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1966, 189-194.

3. Oʻzbek tili grammatikasi. Toshkent, 1975, 53-124.

4. M. Mirzaev va boshqalar. Oʻzbek tili. Toshkent, 1978, 76-82.

5. U. Tursunov va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1992,

6. A. Xojiev. Oʻzbek tilida forma yasalishi. Toshkent, 1979.

7. " Hozirgi o`zbek adabiy tili"dan metodik ko`rsatmalar va konspektiv kurs. 3qism (Morfemika, so`z yasalishi, morfologiya) Toshkent, 1989.
8. E.Tojiev. O`zbek tili morfemikasi. Toshkent, 1992.
9. A.G`ulomov va boshqalar. O`zbek tili morfem lug`ati.Toshkent. 1977.

Mavzu: Ot. Otning leksik- grammatik xususiyatlari

Mavzu rejasi

1. Ot va uning ma'no turlari.
2. Otning egalik kategoriyasi.
3. Otning kelishik ketegoriyasi.
4. Otning funktsional formalari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar; ot, predmetlik ma'nosi, otning sintaktik vazifasi, otning predmetlik- grammatik ma'nosi, otning ma'no turlari, atoqli va turdosh otlar, kishi va narsa otlari, sanaladigan va sanalmaydigan otlar, aniq va mavhum otlar, yakka va to`da otlar, modda otlari, otlarda son kategoriyasi, grammatik va logik son, birlik va ko`plik shaklga ega otlar, faqat birlik shaklga ega otlar, otning egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi, otning funktsional shakllari.

Predmetlik ma'nosini anglatib, son, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalarga, turli ma'no va vazifa uchun qo`llanuvchi funktsional formalarga, shuningdek, o`ziga xos so`z yasalishi sistemasiga ega so`zlar ot deb yuritiladi.

Ot morfologiyada katta o`rin tutadi, chunki boshqa so`z turkumlari otning belgi xususiyatlarini ko`rsatadi. Jumladan, sifat otning belgisini, son miqdori va tartibini, fe'l harakatini bildiradi: katta bino, 3 – kurs, unta kitob, kitobni o`qimoq kabi.

Ot so`zning kim, nima, qae olmoshlari balan munosabatdor bo`lishi, ya'ni gapda mutloq bosh bo`lak vazifasida kelishi ham uning muhim grammatik xususiyati hisoblanadi.

Predmetlik grammatik ma'nosini ifodalash bu logik tushuncha bo`lmay, grammatik hodisadir. Chunki bir-biridan ancha uzoq bo`lgan bir qancha tushunchani ifodalovchi so`zlar, masalan, inson, sigir, chumoli kabi tirik mavjudotlarni ifodalovchi , quyosh, osmon, tog`, suv kabi ob'ektiv borliqqa xos hodisalarni: paxta, sholi, bugdoy kabi usimliklarni, haratat, bilim kabi fikrda predmetdek tasavvur qilinadigan hodisa, xususiyat, munosabatlarni ifodalovchi tushunchalar, shuningdek, tepalik, pastlik, Guliston, Sirdaryo kabi o`rin-joy otlarining barchasi predmetlik grammatik ma'nosini ifodalab, xilma-xil logik tushunchalarni bitta grammatik ma'no atrofida umumlashtirib turadi. Demak, grammatik umumlashtirish logik umumlashtirishdan kengdir.

Otlarning ma'noga ko`ra turlari. Otlarni ma'nosiga ko`ra turlicha tasnif qilish mumkin: bunda otlarning grammatik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi semantik belgilar asosga olinadi: bir turdagi predmetlarning umumiy nomini yoki birinchi nomini bildirishga ko`ra (atoqli va turdosh otlar),

kim yoki nima olmoshlariga bo`lgan munosabatiga ko`ra (atoqli va turdosh otlar) sanalish va sanalmasligiga ko`ra (sanaladigan: daftar, qalam; sanalmaydigan: havo, bulut, un, qum, tuproq kabi).

Atoqli otlar. Bu xildagi predmet yoki hodisalarning birini ajratib ko`rsatuvchi otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlarga:

kishilarning ismi, nasl nomi, otasining ismi (familiya va otchestva), taxallusi: Alisher, Akram Valiev, Oybek, Navoiy kabi.

Geografik nomlar: Sirdaryo, O`zbekiston, Samarqand, Xovos kabi.

Turli tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari: Guliston Davlat universiteti, «Kashteks».

Planeta va yulduzlarning nomlari: Zuxro, Yupiter kabi.

Tarixiy hodisalar, asarlar, gazeta, jurnallar va ilmiy muassasalarning nomlari: Mustaqillik kuni, «Qutlug` qon» romani kabi.

Hayvonlarga atab qo`yilgan nomlar: Boychibor, Olako`z kabi.

Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi otlar turdosh ot deyiladi: ishchi, kitob, daraxt, gul kabi. Otlarning asosiy qismini turdosh otlar tashkil qiladi. Turdosh va atoqli otlar

ma'nosiga ko'ra farq qilib qolmay, ularning har biri o'zigagina xos ba'zi grammatik xususiyatlarga ham ega. Masalan, atoqli otlar faqat birlik formada qo'llanadi. Agar ko'plik formasini olsa, grammatik ko'plik emas, balki boshqa ma'no ottenkalariga ega bo'ladi: Umidalar kelishdi kabi.

Atoqli otlarning deyarli ko'pchiligi turdosh otlardan, bir qismi boshqa so'z guruhlaridan kelib chiqqan: Rayxon, Anora, Go'zal, Sotib oldi kabi. Ba'zi atoqli otlar turdosh otlarga aylangan: rentgen, xosiyatxon, bo'ston kabi. Bu otlar atoqli otlar safidan chiqib, leksik ma'no ifodalashga ko'chgan.

Turdosh otlar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra aniq va mavhum otlarga bo'linadi. To'g'ridan-to'g'ri predmetni anglatadigan otlar aniq otlar deyiladi. Aniq otlar anglatgan predmetlarni bevosita sanash va ko'rish mumkin. Shu sababli bunday otlar sanoq sonlar bilan, masalan, beshta daftar, minglab odamlar kabi, sintaktik aloqaga kirisha oladi. Shuningdek aniq otlar sub'ektiv baho formalari va ko'plik qo'shimchalarini olishi mumkin: uycha, tuynik, bolagina, kitoblar kabi.

Mavhum tushunchalarni ifodalovchi otlar mavhum otlar deyiladi. Bu otlar odatda mavhum belgi va xususiyatlarni ataydi: sevgi, oqim, tuyg'u, yaxshilik kabi. Mavhum otlar ko'plik ko'rsatgichi –lar qo'shimchasini ham oladi. Agar bu qo'shimcha bilan kelsa ko'plikni ifodalamay, boshqa ottenkalarni anglatadi.

2. Otlar birlik shaklda bir turdagi predmetning o'zini yoki ularning to'dasi (jami)ni bildirishiga ko'ra yakka va to'da otlariga ajratiladi.

Bir turdagi predmetning o'zini bildiruvchi kitob, uy, daraxt kabi so'zlar yakka ot, bir xil predmetlarning jamini ifodalovchi armiya, xalq, qo'shin kabi otlar to'da otlari deb yuritiladi.

3. Kim yoki nima so'zlariga bo'lgan munosabatiga ko'ra otlar kishi va narsa otlariga bo'linadi. Kishi otlari kim? so'rog'ini, narsa otlari nima? so'rog'ini qabul qilib, ular atoqli va turdosh otlardan bo'lishi mumkin.

Otlarni kishi otlari va narsa otlariga ajratish ularda son kategoriyasining ifodalanishinigina emas, balki turlana olish darajasini belgilashda ham muhim rol uynaydi.

4. Sanalish – sanalmasligiga ko'ra otlar, yuqorida aytganimizday ikkiga, sanaladigan va sanalmaydigan otlarga bo'linadi. Sanaladigan otlar asosan aniq otlar, sanalmaydigan otlar asosan modda otlarini tashkil qiladi: beshta daftar, unta kalam; xavo, bulut, shamol kabi. Atoqli otlarning ham aksariyati sanalmaydigan otlardir: Tinch okean, Qora dengiz, Amudaryo, Dilbar G'ulomova, Oybek kabi.

Otning grammatik kategoriyalari.

Ot uchta grammatik kategoriyaga ega: son, egalik va kelishik kategoriyalari. Ot nutqda doimo son va kelishik kategoriyasi formasida bo'ladi. Bu otning nutqdagi ko'rinishidir. Egalik kategoriyasi esa otning grammatik shakllanishida doim ham qatnashavermaydi. Otning nol ko'rsatgichligi formasi ham bor. Birlik formadagi otlar bir jinsdagi predmetlarning bittasini anglatadi. Nol ko'rsatgichli forma birlikdadir. Masalan, shahar, odam, daftar, bur. Lekin ba'zi otlar birlik formada bo'lib, ayrim predmetlarning to'dasini anglatadi; xalq, armiya, olomon. Bu ko'plikning semantik usul bilan ifodalanishi deb yuritiladi. Bu otlar grammatik jihatdan birlik deb karaladi. Otlarning ko'plik formasi ikki va undan ortiq predmetlarning noaniq miqdorini bildiradi. Bu forma –lar affiksi orqali hosil bo'ladi; shaharlar, kitoblar, odamlar. Ko'plikning bunday ifodalanishi morfologik usul bilan ifodalanish deyiladi. O'zbek tilida otning son formasi (birlik va ko'plik) sintaktik munosabat ko'rsatmaydi. Son formalarida kelish jihatidan otlar ikki turga bo'linadi:

1). Birlik va ko'plik formaga ega bo'lgan otlar.

2). Faqat birlik formaga ega bo'lgan otlar. Sanash mumkin bo'lgan predmetlarning hammasi birlik va ko'plik formada kela oladilar. Otlar faqat birlik formada qo'llanishi asosan donalab sanash mumkin bo'lmagan predmetlarga xosdir. Bular quyidagilar:

Abstrakt otlar ko'plik affiksini olmaydi: muhabbat, mardlik, o'qituvchilik.

Sanash mumkin bo'lmay, faqat o'lganadigan jismlarni anglatadigan otlar: to'z, yog, asal, neft, uzum, choy. Bunday otlarga -lar qo'shilganda ularning turi anglashiladi.

Organizmdagi juft organlarni, shuningdek juft predmetlarni bildiruvchi otlar: qo'l, ko'z, etik, kalish. Bu otlarga -lar affiksi qo'shilganda, bo'lingan ko'plikni bildiradi: ung va chap kullar.

Aslida bittadan ortiq bo`lmaydigan predmetlarning nomi ham faqat birlikda ishlatiladi: yurak, til kabi.

Atoqli otlar ichida –lar affiksining oladiganlari ham bor. Atoqli otlardan planeta va yulduz nomlari: Quyosh, Mars kabilar -lar olmaydi. Farxodlar - Farxod bir necha kishi ma'nosini ifodalaydi.

O`xshash otenkali ko`plik. Bulardan tashqari – lar ko`plikni emas,xurmat (dadamlar),chama (uch kilolar), kuchaytirish (balolarga qoldim),kengroq joy tushunchasini (Mirzacho`llar) va boshqa ma'nolarni bildiradi. Son kategoryasi otdan boshqa turkumdlarga ham xos. Olmoshlarda: nima-nimalar?,kim- kimlar?, sizlar. Sifatlar otlashganda: kattalar , qizillar. Son otlashganda: soat to`qqizlar. Sifatdoshlar otlashganda: o`qiganlar hurmatda. Tuslovchi tarkibida –lar . ikki ma'noni ifodalaydi:

1). Ko`plik ma'nosi: odamlar, bir –birlariga kumak beradilar,

2). Hurmat,(sizlash) ma'nosida : Sizni Xursand, akam so`rab keldilar. Bu ayol onangiz bo`ladilarmi? (J, Abdullaxonov.)

Nazorat savollari

1. Ot va uning tarifini ayting
- 2.Otning ma'nosiga ko`ra tasnif mezonlarini ajratib va aytib bera oladi.
3. Otlarning atoqli va turdosh otga bo`linishini tushuntiring .
4. Otning birlik va ko`plik son shakllarining ta'rifini ayting.
5. Otlarning shaxs (kishi) va narsa otlariga bo`linishini tushuntiring.
6. Otlarning sanaladigan va sanalmaydigan turlari haqida tushuncha bering.

1.

2- reja bayoni

Predmetning uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini anglatuvchi umumiy ma'nolar va ularni ifodalovchi qo`shimchalar paradigmasi egalik kategoriyasidir.

Ma'lumki, predmetning uch shaxsdan biriga qarashlilik ma'nosini muayyan shakllar, ya'ni qo`shimchalar yuzaga chiqaradi: xuddi ana shu qo`shimchalar egalik qo`shimchalari deb yuritiladi va ularning umumlashgan ma'nolari yig`indisini ifodalovchi qo`shimchalar tizimi - egalik qo`shimchalari paradigmasi ayni paytda egalik kategoriyasi deb ataladi.

Egalik qo`shimchalari tilimizda ikki ma'nolidir: ya'ni ham shaxs, ham son ma'nosini ifoda etadi. Masalan: maktabim-birlik, 1 shaxs; maktabimiz-ko`plik, 1 shaxs.

Egalik kategoriyasining asosiy qo`shimchalari quyidagicha:

Shaxs	Birlik	Ko`plik
1	- m	- miz
11	- ing	- ingiz
111	- i	- i

Egalik qo`shimchalarining I va II shaxs qo`shimchalari unli bilan tugagan so`zlarga, III shaxs ko`rsatgichi undosh bilan tugagan so`zlarga qo`shilganda fonetik variant hosil qilmaydi: ona Q m, tog`a Q ng, jiyan Q i kabi. Boshqa holatlarda esa fonetik variantlarga ega bo`ladi: ya'ni I va II shaxsda undosh bilan tugagan so`zlarga egalik qo`shimchalari qo`shilganda «I» tovushi, unli bilan tugagan so`zlarga III shaxs egalik qo`shimchalari qo`shilganda «S» tovushi orttiriladi: uyQiQm, uyQiQmiz, ukaQsQi, akaQsQi kabi. Bunda «i» va «s» tovushlari fonetik talabga ko`ra orttirilgan bo`lib, ular tutashtiruvchilik vazifasini bajaradi.

Demak, egalik ko`rsatgichlarining adabiy nutqdagi fonetik variantlanishi bunda affiks qo`shiladigan negizning unli yoki undosh tovush bilan tugashiga bog`liq xolda yuzaga keladi. Bunda tutashtiruvchi tovush vazifasini undoshlar orasida «I» unlisi, unli orasida esa «S» undoshi bajaradi. Demak, bu ikki tovush egalik ko`rsatgichlarining fonematik tarkibiga kirmaydi.

Egalik qo`shimchalarining qo`shilishidan tug`ilgan yana bir qator fonetik hodisalar ham mavjud:

Ikkinchi bo`g`inda I va U tor unlisi qatnashadigan ikki bo`g`inli so`zlarga egalik qo`shimchasi qo`shilsa, ikkinchi bo`g`indagi tor unli reduktsiyaga uchraydi(tushib qoladi): ogg`z-og`zim, og`zing, og`zi; burun- burnim, burning, burni kabi.

Egalik qo`shimchasi qo`shilishi ta'sirida so`z ohiridagi Q,K jarangsiz undosh tovushlar jaranglashadi: o`rtog-o`rtog`im, istak-istagim, maslak-maslagimiz kabi.

I va II shaxs egalik qo`shimchalarining semantik jihatdan ham o`ziga xos xususiyatlari bor: I va II shaxsning birligi monosemantik xarakterli: ukam, ukang kabi. Ularning adabiy tildaigi ko`plik formasi polisemantik xarakterga ega: uyimiz-bizning uyimiz; uyimiz-mening uyim; uyingiz-sizning uyingiz; uyingiz-sening uying kabi. Bu misollardan birinchisi ko`plik ma'noli, ikkinchisi modal ma'noli ko`rinishdir.

Egalik qo`shimchalarining joylashishida ham ma'lum tartib bor: avvalo, egalik qo`shimchalarining tartibi haqida gapiradigan bo`lsak, odatda, shaxs ko`rsatgich, -ngQiz kabi.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida egalik qo`shimchalarining morfologik variantlari deyarli yo`q. Egalik qo`shimchalari ichida II shaxsning ko`plik formasigina variantlarga ega: kitobingiz-kitoblaring.

Egalik qo`shimchalari ma'lum ma'noda polisemantik tabiatga ega:

Egalik qo`shimchasini olgan so`z bosh kelishik formasidagi so`z bilan birikib, ya'ni to`g`ri ma'noli turg`un uyushmalarni yuzaga keltirishi mumkin: yog` – moy kombinati, pedagogika instituti, dil rozi, vatan ishq, , Volga daryosi kabi holatlarda birinchi qism qaratqich kelishigi qo`shimchasini ola olmaydi. Shu sababli ularni bosh kelishik formasida deb qarash to`g`ri bo`ladi.

Egalik qo`shimchasi ba'zan chiqish kelishigidagi ot bilan bog`lanib, mansublik ma'nosini ifodalab kelishi ham mumkin: Majlisda talabalardan biri ma'ro`za kildi, gapida qarashlilik ma'nosini yuzaga chiqaradigan qaratqich kelishigi ishtirok etmayotganligi sababli unda qarashlilik ma'nosi yo`q.

Egalik qo`shimchasining 111 shaxs formasi birlik va ko`plik uchun umumiydir: uning uyi, ularning uyi. 1 va 11 shaxs egalik formasidan anglashilgan grammatik son ma'nosi shu affiks qo`shiladigan otdan anglashiladigan predmetning sonini emas, qaratuvchi shaxs va predmetning grammatik sonini ifoda qiladi: bizning vakolatimiz tugadi, gapida «vakolat» ko`pchilikka taalluqli. Otning son formasi shu predmetning birligi yoki ko`pligini bildiradi: daftarlarimiz – daftar ham ko`p va u ayni paytda ko`pchilikka tegishli.

Egalik qo`shimchalarining ishlatilishida ikki holat kuzatiladi:

Egalik qo`shimchasi o`zi qo`shilgan so`zning boshqa so`z bilan boglanilishida ishlatiladi. Bunda egalikni qabul qilgan so`z qaratqich kelishigidagi so`z bilan sintaktik aloqaga kirishadi. qaratqich kelishigi kishilik olmoshlariga qo`shiladi va bunda qaratqich bilan qaralmish shaxsda moslashadi. Mening maktabim. Bizning maktabimiz. Sening maktabing. Sizning maktabingiz. Uning maktabi. Ularning maktabi. Bu misollarda qaratqich bilan qaralmish shaxsda moslashgan bo`lib, ularning 1 va 11 shaxs ko`plik formalari ham ko`plik, ham birlik (sizlash) ma'nosida qo`llana oladi.

Biz, siz kishilik olmoshlari ham ko`plik, ham birlik ma'nosida qo`llangani uchun ko`plik ma'nosi ifodalanganda ba'zan -lar qo`shimchasini ham oladi: Bizlarning kitobimiz, sizlarning kitobingiz.

Egalik qo`shimchasini olgan so`z ba'zan chiqish kelishigidagi so`zlar bilan bog`lanishi ham mumkin. Bunda qaralmish miqdor yoki belgi anglatadigan so`zlardan bo`lib, qaratqich esa ko`plik formadagi so`z yoki bittadan ortiq miqdorni ifodalovchi sifatlovchi bo`lishi mumkin: Talabalardan biri, o`quvchilarning barchasi kabi.

Egalik qo`shimchasi o`zi qo`shilgan o`zak doirasida ishlatiladi va bunda ikki holat kuzatiladi:

a) egalik affiksi vazifasida kelib, grammatik mohiyatini – ma'nosini saqlaydi: bu vazifada kelganda egalik qo`shimchasi ot, olmosh, harakat nomi va otlashgan so`zlarga qo`shilaveradi: o`zim, uyalishing, o`qishing kabi va b.

b) egalik qo`shimchasi o`zining grammatik ma'nosini yo`qotib, o`zi qo`shilgan so`zning o`zagi bilan birgalikda leksemlashib, boshqa so`z turkumiga –ravishga utadi: ertasi, kundzi, kechasi; modal so`zga o`tadi: chamasi, yaxshisi, chog`i, mazmuni kabi.

Egalik qo`shimchasi oddiy gap bo`lgi vazifasidagi so`zlarga qo`shiladi. Ayni chogda, bir butun xolda qo`llanadigan konstruktsyalarga ham qo`shilib kelishi mumkin: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, nohiya ijroiya qo`mitasi, Sirdaryo muallimlik oligohi va boshqalar.

Nazorat soavollari

1. Egalik kategoriyasi va uning smenatik grammatik tabiati haqida tushuntiring.
2. Egalik qo`shimchalarining shaxs-son ma'nosini ifodalashini tushuntirib bering.
3. Egalik qo`shimchalarining joylashishi o`rnini aytib bering.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida otning boshqa so`zlar bilan sintaktik munosabatini ko`rsatuvchi ma'nolari va bu ma'nolarini ifodalovchi formalar sistemasi kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi olti grammatik ma'no yoki olti kelishikni birlashtiradi: bosh kelishik, qaratqich kelishik, tushum kelishigi, chiqish kelishigi, jo`nalish kelishigi, o`rin kelishigi.

Kelishiklar ifoda qiladigan munosabatlarning umumlashgan ma'nolari so`zlar paradigmasida emas, so`z birikmasida shakllanadi, ya'ni bunday ma'nolar sintagmatik xarakterda bo`ladi.

Otlarning kelishik formalar bilan o`zgarishi turlanish, kelishik affiksining o`zi esa turlovchi deyiladi.

Kelishiklar	So`roqlar	Turlanish
Bosh kelishik	Kim?, nima?, kaer?	Go`zal,kitob,Samarqand
qaratqich kelishik	Kimning?, nimaning?, kaerning?	Go`zalning,kitobning, Samarqandning
Tushum kelishik	Kimni?, nimani?, kaerni?	Go`zalni,kitobni,Samar-kandni
Jo`nalish kelishik	Kimga?, nimaga?, kaerga?	Go`zalga,kitobga, Samar-qandga
O`rin-payt kelishik	Kimda?, nimada?, qaerda?	Go`zalda,kitobda,Samar-qandda
Chiqish kelishik	Kimdan?,nimadan?, qaerdan?	Go`zaldan, kitobdan, Samarqanddan

Har bir kelishikning o`z formasi, ma'nosi va sintaktik vazifasi bor. Masalan, jo`nalish kelishigi ot, olmosh, son va otlashgan so`zlarga qo`shilib, ot bilan fe'l orasidagi sintaktik munosabatni ko`rsatadi. Uning asosiy ma'nosi harakatni yunalishi o`rnini bildirishdir. Bundan tashqari payt, atash, sabab, maqsad ma'nolarini ham ifoda qiladi.

Kelishik formasidagi so`zlar gapda boshqa so`zlar bilan quyidagicha munosabatda bo`ladi: qaratqich kelishigi ot bilan otni grammatik aloqaga kiradi: jurnalning varagi, odamning gavdasi. Tushum, jo`nalish, o`rin, chiqish kelishiklari otni fe'l bilan aloqaga kiritadi: xatni o`qidi, klubga bordim, institutga kirdim, uydan keldim. Kelishik formasidagi otlar ot va fe'ldan boshqa turkumdagi so`zlar bilan ham munosabatga kirishadi: Otdan baland, itdan past.(Topishmoq)Uyat o`limdan qattiq. (Maqol).

Bosh kelishik.

Bosh kelishikdagi so`z kim?, nima?, qaer? Degan so`roqlarning biriga javob bo`ladi. Bosh kelishik formasi maxsus morfologik ko`rsatgichga ega emas. Shuning uchun ham u nol ko`rsatgichli forma hisoblanadi.

Bosh kelishik vositasiz va vositali kelishiklar funktsiyasida keladi. Bu vaqtda bunday kelishiklar ba'zan belgisiz qo`llanadi. Bu xol ko`proq qaratqich, tushum kelishigida kuzatiladi. qisman jo`nalish, o`rin, chiqish kelishiklarida kuzatiladi.

Bosh kelishikda kelgan otlar gapda quyidagi vazifada keladi:

Ega vazifasida: Kimsan akam koraygan o`zum boshlari guj bo`lib turgan tok oldiga kelib tuxtadi.

Kesim vazifasida. Bunda ikki holat bor:

A) o`zi kesim bo`lib keladi: kishi va jamiyatni shakllantirgan narsa-mehnat. Aytilgan so`z-otilgan o`q.

B) kesimning ot qismi bo`lib keladi. Qo`rqa pisa boshimni ko`tarsam, tepamda iljayib turgan Abduvali edi.

Izohlovchi vazifasida: Leytenant xotin hovli ichkarisiga (kirib) pildirab ketdi. Bosh kelishikdagi ot ko`makchi so`zlar bilan kelib, gapda hol, to`ldiruvchi vazifasida keladi: Abduvali bilan endi o`ynamayman. (U.X.) Zulfiya bilan sayohatga bordim.

Sifatlovchi vazifasida: Shu payt elektr qung`iroq asta jiringladi.

Nominativ gap vazifasida: Bu vaqtda bosh kelishikdagi ot aniqlovchilari bilan kengayib kelishi ham mumkin: ko`m-ko`k dala.

Undalma vazifasida: Olimjon aka, siz xalq uchun juda ko`p xizmat qildingiz.

Qaratqich kelishigi. Qaratqich kelishigi biror predmetning shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmetga qarashlilikini ifodalaydi.

Qaratqich kelishigi –ning affiksi orqali shakllanadi: Dilfuzaning kitobi, daraxtning bargi.

Qaratqich kelishigi affiks jonli nutqda, shevalarda –ing formasidagi varianti ham mavjud. Bu 1 va 11 shaxs kishilik olmoshlarining birlik formasiga qo`shiladi: menQing-maning, senQing-sening.

Qaratqich kelishigi ikki ko`rinishda – belgili va belgisiz qo`llanadi. Belgili qaratqich kelishigi –ning affiksi bilan shakllanib, real qarashlilikni ifodalaydi: Gulchehraning butun vjudi muz bo`lib ketdi. (U.Umarov). Bunda predmetni konkret bir shaxsga qarashlilikni anglashildi.

Qaratqich kelishigi affiks tushib qolsa, qaratqich kelishigi belgisiz bo`ladi. Cho`l qushlari beozorgina chug`urlashadi.

Qaratqich kelishigining belgili-belgisiz qo`llanilishi o`z qonun-qoidalariga ega.

Qaratqich kelishigi quyidagi xollarda albatta belgili qo`llanadi:

Qaratqich kelishigidagi so`z shaxs otlari bo`lganda: Dilfuza opamning shifokori bemehr bo`lsa kerak. (X.G.)

Butunning qismi anglashilganda: Ko`p o`tmay bedazorning har chekkasida bedanalar sayray boshladi. (O.Umarbekov).

Qaratqich kelishigidagi so`z bilan qaralmish o`rtasida boshqa so`zlar qo`llanganda: Cho`lning daydi shamollari o`t-o`lanlarni silkib yugurur. (S.axmad.).

Qaratqich kelishigi quyidagi xollarda belgisiz bo`ladi:

Qaratqich kelishigida ot abstrakt otlardan bo`lganda: Yaxshi haqiqat yo`lini tutudi.

Qaralmish payt ma'nosini ifoda qiluvchi so`zlardan bo`lganda: go`yoira-shira yorishib kelayotgan cho`l tongida bu alangga juda g`alati bo`lib ko`rinadi. (S.Axmad.).

Qaratqich kelishigidagi so`zlar bir-biriga tobe xolda birin-ketin kelganda, eng so`nggisidan oldingilari belgisiz bo`ladi: Toshkent Davlat universiteti filologiya fakulteti 111 kursning studentlari musobaqada g`olib chiqdilar.

Qaratqich kelishigida kelgan so`z oy, kun, payt, fasl nomlarini ifoda qiluvchi so`zlardan bo`lganda: Kechkurungi bahor havosi kishiga orom bag`ishlar edi. (O).

Qaratqich tur ma'nosini ifoda qilganda: Chul qovunlari pishay-pishay deb turibdi. (S.Axmad).

Qaratqich kelishigidagi so`z ot ko`makchilari bilan ham munosabatga kirishadi. Bunda qaratqich kelishigidagi so`z belgili yoki belgisiz holatda bo`lib, ko`makchi so`z bilan analitik forma hosil qiladi va gapda bitta sintaktik vazifa bajaradi: Bugubor osmonda burgut yangi uchishga urgangan bolasining goh oldiga, goh orkasiga utib uchardi. (S.A.).

Tushum kelishigi. Tushum kelishigidagi ot gapdagi ish-harakatning o`ziga qabul qilgan predmetni anglatadi. Bu so`z gapda hamma vaqt fe'l bilan birikadi. Tushum kelishigi formasi –ni affiks orqali yasaladi: daftarni, Nargizani. Tushum kelishigidagi ot vositasiz bo`lib keladi: Brigada qizlari Karimni kayta kuzatib qo`ydilar.

Tushum kelishigi formasi belgili va belgisiz qo`llanishi mumkin. Kelishik affiksi –ni saqlansa, belgili, -ni affiksi tushirilib qoldirilsa belgisiz hisoblanadi. quyidagi xollarda belgili qo`llaniladi.

Tushum kelishigidagi so`z atoqli otlardan bo`lganda: Oqsoqolning qo`lidan Muzaffarni olarkan, yarq etib menga qaradi. (U.Xoshimov.).

Ko`rsatish olmoshi, sifat va sifatdosh bilan ifodalangan aniqlovchiga ega bo`lganda: Egilgan boshni qilich kesmas. (maqol.).

Tushum kelishigidagi so`z otlashgan so`z bo`lganda: Yaxshini maqtagan yaxshidir, yomonni maqtagan adashur. (Maqol.).

Tushum kelishigidagi so`z harakat nomi bo`lganda: Yaxshisi, bu uchrashuvni tezlashtirish kerak.

Kesim o`z leksik-simantik xususiyatiga ko`ra tushum kelishigining belgili formasini talab qilganda: Sel na odamni ayadi, na dov-daraxtni! (U.Umarbekov.).

Tushum kelishigidagi so`z asosan bir turdagi predmetni ifoda qilib, uni ta'kidlash lozim topilmaganda belgisiz qo`llanadi: Albatta, millionlab odamning hammasiga qasr qurib bo`lmaydi. (U.Xoshimov.).

Ko`rinadiki, tushum kelishigidagi so`zning belgili yoki belgisiz kelishida tushum kelishigi formasiga kirayotgan so`zning atoqli yoki turdosh bo`lishi, egalik affiksini olish-olmasligi, sifatlovchi yoki sifatlovchisiz qo`llanilishi boshqaruvchi bo`lak bilan distant yoki kontakt holatda bo`lishi, boshqaruvchini talab qilishi yoki kelmasligi kabi hodisalar asosiy faktorlar hisoblanadi.

Chiqish kelishigi. Chiqish kelishigi ish-harakatning chiqish nuqtasini, shuningdek, ob'ekt, manba, payt, sabab, qiyoslash ma'nolarini ifoda qiladi. Bu kelishik -dan affiksi orqali shakllanadi: Endi uxlagan ekanman, birov divandan uloqtirib yuborganday bo'ldi. (U.Xoshimov.).

Chiqish kelishigi affiksi shevalarda, yozma yodgorliklar, klassik adabiyotda, folklor asarlarda -din, -tin, -tan, -tan shaklida uchraydi:

Chiqish kelishigida so'z mustaqil so'zga tobe holatda bo'ladi: Maqsadi aniq kishi yo'ldan adashmaydi. (L.Bat.).

Chiqish kelishigi formasidagi ot gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

Chiqish kelishigi formasida kelib, kimdan? nimadan? so'roqlariga javob bo'ladi. Bunda butunning qismi ifoda qilinadi: Xofizlar Navoiy gazallaridan o'qishdi. (S.Axmad.).

Chiqish kelishigi qaratqich kelishigi vazifasida kelib, kimdan? nimadan? so'roqlariga javob bo'lib to'dadan birini ifoda qiladi: Kechqurun Sidiqjonni ko'rgani bolaligidagi o'rtoqlaridan biri keldi. (A.Q.).

D. Ish-harakatdagi vosita bo'lgan predmetni bildiradi:

2). Qaerda? so'rog'iga javob bo'lib ish-harakatning manbai, gapda o'rin holi bo'lib keladi: Ko'p o'tmay ichkari xonadan professor chiqdi. (O'.Umarbekov.).

3). Kimdan?, nimadan? so'roqlariga javob bo'lib, ish-harakatning bajarilish sababini anglatadi va gapda sabab holi bo'lib keladi: Biz bir ota-bir onadan ikki o'g'il edik.

4). Nimadan? yoki nima sababdan? so'roqlariga javob bo'lib, ish-harakatning bajarilish sababini anglatadi va gapda sabab holi bo'lib keladi: Yodgor cholning soddaligidan xuzur qilib kuldi. (O'.Xoshimov.).

Chiqish kelishigidagi so'zlar kesim bo'lib kelganda, -mi yuklamali tuslovchi affikslar olib kelishi ham mumkin: Bolam qurilishdanmisizlar, deyman?

Jo'nalish kelishigi. Jo'nalish kelishigi formasi -ga affiksi orqali yasaladi. Bu kelishikdagi ot ish-harakat yunalgan predmetni anglatadi: MaktabQga - maktabga, ishQga -ishga, zavodQga zavodga, fabrikaQga -fabrikaga.

Jo'nalish kelishigi affiks qo'shilayotgan so'z ohiridagi tovushga qarab, -ka shakllariga ham ega bo'ladi: k yoki -g tovushi bilan tugagan so'zlarga -ka shaklida qo'shiladi. StanokQga - stanokka, ko'raqQga -ko'rakka, bargQga -barkka, qishloqQga -qishloqqa.

Jo'nalish kelishigi affiksi ot, olmosh, son, harakat nomi, otlashgan so'zlar (sifat, sifatdosh, undov) va taqlid so'zlarga qo'shiladi: Akamga, hammaga, beshoviga, o'qishga, yaxshiga.

Jo'nalish kelishigida kelgan ot yoki otlashgan so'zlar gapda (vositali to'ldiruvchi) sintaktik vazifa bajaradi:

kimga? yoki nimaga? so'rog'iga javob bo'lib keladi. Bu vaqtda jo'nalish kelishigidagi so'zlar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

a) hokim so'z ifodalagan harakat yunalgan ob'ekt: Nigora kinoga borishga shishildi.

b) biron narsaga erishish ma'nosi: Mehnat - rohatga etkazar. (Maqol).

2. Qaerga? so'rog'iga javob bo'lib, gapda o'rin holi bo'lib keladi. Bu vaqtda jo'nalish kelishigidagi so'z harakatning yunalish o'rnini anglatadi: Oqqan suv aslo ortiga qaytmaydi. (U.Xoshimov.)

3. Vaqt ma'nosini anglatadigan otlar jo'nalish kelishigi formasida bo'lib, qachon? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda payt vazifasida keladi: Stort musobaqalari bahorga qoldirildi.

4. Nimaga? yoki nima sababli? so'roqlariga javob bo'lib sabab holi bo'lib keladi: O'z vaqtda davolanmaganimga afsuslanaman.

O'rin-payt kelishigi. O'rin kelishigidagi ot ish-harakatning bajarilish uchun, vaqti, sharoiti, holati, sababini, maqsadini ifodalaydi. O'rin kelishigi -da formasi orqali shakllanadi: Shaharda, bogda, qishloqda. Payt ma'nosini ifodalaganda ba'zan o'rin kelishigi affiksi qo'llanmaydi: Dexqon bo'lsang kuz xayda, kuz xaydamasang yuz xayda. (maqol). O'rin kelishigidagi otlar gapda quyidagi vazifalarda keladi.

Kimda? yoki nimada? so'rog'iga javob bo'lib, vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: a) ish-harakatning bajarilish urnini: insonga xos barcha xislatlar Zulfiyada mavjud edi; b) ish-harakatning bajarilishida vosita bo'lgan ob'ektni: Yodgor tezgina kiyindi-da, burchakdagi umivalnikda yuvindi. (U.Xoshimov).

Qaerda? so'rog'iga javob bo'lib, ish-harakatning bajarilish urnini bildiradi va gapda o'rin holi bo'lib keladi: Ehtimol, boshqa bir planetada ham yangi yil kirgandir. (U.Xoshimov).

Qachon? so`rog`iga javob bo`lib payt ma'nosini anglatadi. Gapda payt holi bo`lib keladi. Masalan: Nahotki, odam ikki yilda shunchalik o`zgarib ketsa. (O`Umarbekov).

Qay tarzda? so`rog`iga javob bo`lib, ish-harakatning bajarilish o`rnini, ya'ni holatini ifodalaydi va ravish holi bo`lib keladi: Qiz xorgin, parishon xolda uyiga qaytdi. (Oybek).

Tushum, chiqish, jo`nalish kelishiklari hokim so`z bilan boshqaruv munosabatini yuzaga keltiradi. Bunda qaratqich kelishigi o`ziga xos xususiyatla ega: qaratqich-qaralmish birikmasining munosabati boshqaruv hamda moslashuv munosabatini ifodalaydi: qaralmish o`ziga aloqador bo`lgan so`zning ma'lum formada –qaratqich kelishigi formasida kelishini talab qiladi: Zulfiyaning kitobi. qaratqich vazifasidagi so`z olmosh bilan ifodalanganda, qaralmish bilan shaxs va sonda moslashadi: Mening daftaram, sizning kitobingiz.

Nazorat savollari

1. Kelishik kategoriyasi va uning ma'no ifodalash xususiyatiga ko`ra turlarini ayting.
2. Bosh kelishikdagi otlar va ularning ma'nolari, sintaktik vazifalarini tushuntiring.
3. Qaratqich kelishigi va uning sematik-grammatik xususiyatlarini aytib bering.
4. Tushum kelishigida kelgan otlarning grammatik ma'no-vazifalarini aytib bering.
5. Jo`nalish kelishigi ma'nosi, qo`shimchasi, so`rog`i va vazifasini aytib bering.
6. Chiqish kelishigi ma'nosi, qo`shimchasi, so`rog`i, vazifasini so`zlab bering.
7. O`rin-payt kelishigi ma'nosi, qo`shimchasi, so`rog`i va vazifasini tushuntiring.

1.

Otning funktsional formalari.

Ot so`z turkumi son, egali va kelishik kabi kategorial formalardan tashqari bir qator (nokategorial) funktsional formalarga ham ega.

Hozirgi o`zbek tilida, otga xos funktsional formaning yasashiga ko`ra uch tipi bor: Sintetik forma. Analitik forma. Juft va takroriy forma.

Otlarning sintetik funktsional formasi o`z ma'no va vazifalariga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi: Kichraytish formasi. Erkalash formasi. Xurmat formasi. qarashlilik formasi . Chegara formasi. O`rin belgisi formasi. O`xshatish formasi

Kichraytish formasi. Otlarnin kichraytish formasi –cha, -choq, (chak) affiksari formasida yasaladi.

–cha affiksi. Bu affiks orqali yasaluvchi forma asosan kichraytish formasini ifodalaydi: yulduzcha, ayvoncha, o`g`ilcha va xokozolar. Yo`q, unday emas, nohaqlik bo`lgan, -dedi yigitcha qizishib. –cha affiksi shaxs bildiruvchi otlardan erkalash formasi yasaganda, kichraytish bilan birga xurmatlash, erkalash yoki kamsitish ma'nolari ifodalanishi mumkin. Lekin bu ma'nolar kichraytish ma'nosiga qo`shimcha tarzda so`zning leksik ma'nosi va boshqa faktorlar ta'sirida kelib chiqadigan ottenkalar bo`ladi. –cha affiksi bilan yasalgan kichraytish formasi yangi leksik ma'no kasb etishi, yangi so`zga aylanishi mumkin. Natijada kichraytish ma'nosi yo`qolib ketadi. Qizilcha – lavlagi va kasallik nomi. –cha affiksi yoshi va jussasi kichik bo`lgan shaxslarning ismiga qo`shib aytiladi. Karimcha, Bolbekcha kabi.

Erkalash formasi. Otning bu funktsional formasi –jon, -xon, -oy affikslari yordamida yasaladi. –jon affiksi shaxs bildiruvchi turdosh otlarga yoki shaxslarning nomini bildiruvchi otlarga qo`shilib erkalash, suyish kabi ijobiy munosabat ifodalovchi forma yasaydi: Erkalash ma'nosi –jon bilan yasalgan formaning asosiy modal ma'nosi bo`lib, erkalash ma'nosining bo`rttirilishida egalik affikslarining roli muhimdir: Buvijon, allani kim chiqargan! Qachon! – Chugurlab so`rashdi nevaralar. –jon affiksi shaxs bildiruvsi turdosh otlarga qo`shilib erkalash, suyish kabi ijobiy munosabat ifodalovchi forma yasaydi: Nasimjon, oyijon, ukajon kabi. Shuningdek, turdosh va atoqli jonsiz predmetlar nomlariga qo`shilib ham erkalash, suyish ma'nosini ifodalaydi:

Dadajonim och quchoq,
Paxta teray etaklab,
Keltiray dur terгани,
Quyoshjonim etaklab.

–xon, –oy affikslari ham kishi ismini bildiruvchi otlarga qo`shilib erkalash, hurmatlash ma'nosini bildiradi.

Otning xurmat formasi. Otning xurmat formasi –lar affiksi yordamida yasaladi: dadamlar, amakimlar kabi: Davdam akamlarni kuzatib uyga kirganlarida soat birga yaqinlashib qolgandi.

Hozirgi o`zbek tilida –lar ko`plik ifodalovchi affiks sifatida son kategoriyasining birlik formasiga qarama-qarshi bo`lgan ko`plik formasini yasaydi. Xurmat ifodalovchi affiks sifatida esa funktsional forma hosil qiladi. Xurmat ifodalovchi affiks sifatida esa funktsional forma hosil qiladi. Mustaqil forma sifatida –lar affiksi yordamida yasaluvchi xurmat formasi ko`plik formasidan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: Bizga ma'lumki, ot turkumiga oid so`z nutqimizda doim son va kelishik formasida bo`ladi: Delegatlarni kutib oldik, gapida delegat so`zi ko`plik va tushum kelishigi formasida. Ammo egalik formasiga ega emas. Xurmat formasidagi ot esa hamma vaqt egalik formasida bo`ladi.

Kiyoslaymiz: kitoblar kitobning ko`pligi (xurmat ifodalanmagan), kitoblar – ko`plik yoki xurmat: a) o`quvchilarning kitoblari (ko`plik); b) akamning kitoblari (xurmat). Xurmat bildiruvchi –lar so`zga egalik affiksidan so`ng, ko`plik ko`rsatgichi –lar esa undan oldin qo`shiladi: ukamlar (xurmat), ukalarim (ko`plik). Faqat uchinchi shaxsda egalik affiksi xurmat bildiruchi –lar affiksidan so`ng qo`shiladi.

Qarashlilik formasi. Bu forma –niki affiksi bilan yasaladi. –niki affiksi qo`shilgan so`z bildirgan ma'no predmetning shaxs yoki narsaga qarashlilikini, unga tegishlilikini bildiradi: Bu ilmiy ishlar studentlarniki. qaratqich kelishigi ko`rsatkichi –ning va –ki affikslarining birikishidan –niki affiksi hosil bo`ladi. Bu affiks hozirgi kunda qo`shma affikslik xususiyatini yo`qotib, sodda affiksga aylanib kolgan: institutniki, bizlarniki va xokozolar. Bizga ma'lumki, otning egalik formasi ham qarashlilik, ya'ni predmetning uch shaxsdan biriga karatilganligini bildiradi. Ammo qarashlilik formasiga egalik formasidan ma'no jihatidan farq qiladi.

Egalik formasi uch shaxsdan birini va shaxsni, sonini ko`rsatadi. qarashlilik formasida esa bu xususiyat bo`lmaydi. Masalan: kitobim (1 shaxs birlik), institutniki (shaxs va shaxsning soni aniq emas).

Egalik formasi shu formadagi so`z bildirgan narsaning biror shaxs yoki predmetga qarashlilikini bildiradi. qarashlilik formasi esa boshqa biror narsaning –niki affiksli so`z bildirgan shaxs yoki predmetga xosligini bildiradi: Balki Yodgor shularnikiga ketgandir.

qarashlilik formasidagi so`z qarashli bo`lgan narsani bildiruvchi so`z bilan kullansa, hamma vaqt kesim vazifasida bo`ladi. qarashlilik formasini yasovchi –niki affiksi so`zga ko`plik, egalik, shuningdek, xurmat formasidan keyin, kelishik formasidan oldin qo`shiladi.

O`rin belgisi formasi.

O`rin belgisi formasi –dagi affiksi yordamida yasaladi va narsa hodisaning urniga ko`ra belgisini bildiradi: kishlokdagi o`quvchilarimiz, osmondagi bulutlar kabi. Agar –dagi affiksi qo`shiladigan so`z vaqt ma'nosiga ega bo`lsa, bu forma narsaning paytga nisbatan urnini bildiradi: bahordagi, ko`zdagi kabi. Bu affiks o`rin kelishigi –da affiksi bilan –gi affikslarining birikishidan hosil bo`lgan qo`shma affiksidir. –gi, (ki) affiksi o`rin yoki payt bildiruvchi so`zlarga qo`shilib, shu o`rin yoki paytga oid ma'nolarni ifodalaydi: nargi, ichki, tashqi, yozgi kabi.

Chegara formasi. Otning funktsional chegara formasi –gacha (-kacha) affiksi yordamida yasaladi: shahargacha, institutgacha kabi. U chimzor sohilida kechgacha qolib ketdi. –gacha affiksi jo`nalish ko`rsatgichi –ga va chegara ma'nosini bildiruvchi –chi affikslarining birikishidan hosil bo`ladi. –gacha affiksli forma ifodalaydigan chegara makondagi chegara; zamondagi chegara yoki konkret narsadagi chegara bo`lishi mumkin:

Makonda: O`sha kuni ancha ergacha hamma alla aytib bordi.

Zamonda: Alla o`shandan beri kuylanib, tillardan-tillarga utib bizgacha etib kelibdi.

Zamon va zamondagi boshqa narsalarda: Xatto ignagacha onasinikidan olib ketadi.

O`xshatish formasi.

O`xshatish formasi –dek (-day) affiksi yordamida yasaladi. U narsa yoki shaxsning o`zi birikkan so`z ifodalagan belgi, harakat kabilarga uxshashligini bildiradi: shamoldek uchdi, sherdek tashlandi kabi. O`xshatishni ifodalovchi –dek affiksi asosan otlarga, bundan tashqari olmosh, sifat va fe'ning sifatdash, harakat nomi va –moqchi affiksi formalariga ham qo`shiladi: Darvoqe: bu erlarning kechalari hamisha sutdek oydin. Ushbu funktsional formani yasovchi –dek affiksi har qanday forma yasovchilardan keyin qo`shiladi. Sababi bu affiks so`z yasovchi affiks emas: ukalardek, ukalarimdek, unikidek kabi: Amakilarimdek ulkan bo`rini miltiklari ustiga qo`yib kelishyapdi. Biz ogzaki nutqimizda –dek affiksini ba'zan bir olmoshlarga qo`shib –nak, –dok singari ko`rinishlarda ishlatamiz. Bir yilda-ya, bunaqasini tog`da ham uchratmagandim, kabi.

Otning funktsional analitik formalari.

Hozirgi o'zbek tilidagi otning analitik formasi ko'makchi so'z yordamida vujudga keladi. Funktsional formalarning ikkinchi turi analitik formadir.. Bular esa vosita, makon, vaqt, sabab, maqsad kabi ma'nolarni anglatadi. Analitik formani hosil qiluvchi ko'makchilar otning ma'lum bir kelishik formasiga birikadi. Qaychi bilan (qirqmoq), dugonasi uchun(bermoq), tushga yaqin (bormoq) kabilar bunga misol bo'ladi.

Otning funktsional juft va takroriy formalari.

Navbatdagi funktsional formalardan biri, juft va takroriy formalar sanaladi. Bu forma otning umumlashtirish ma'nolarini bildiradi. Otning takroriy formasi ko'plik ma'nosini ifodalay oladi, ma'noni kuchaytiradi. Shu topda u o'zini hamda do'sti Mirvali va uning serzavq-sershovqin jo'ralarini eslab ich-ichidan yonmoqda edi.

Nazorat savollari

1. Otning kategorial va nokategorial formalarini tushuntiring.
2. Otning funktsional sintaktik formalari turlarini aytib bering.
3. Otning funktsional analitik formalarini tushuntiring.
4. Otning juft va takroriy formalarini ayti bering.

3-mavzu: Sifat. Sifatning leksi- grammatik xususiyatlari.

Mavzu rejasi

1. Sifatning ma'no guruhlari.
2. Asliy va nisbiy sifatlar.
3. Sifat darajalari.
4. Sifatlarda belgining ortiq-kamligini ifodalovchi va sub'ektiv baho formalari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: asliy sifatlar, nisbiy sifatlar, intensiv forma, sifat darajalari, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, sifat ma'no guruhlari, ma'za-ta'm sifatleri va x.

1- reja bayoni

Predmetning belgisini bildirgan mustaqil so'zlar sifat deyiladi. O'zbek tilidagi sifat so'zlar esa belgi to'dalariga ko'ra 9 turga bo'linadi:

1. Xususiyat bildiruvchi sifatlar. Bu to'daga mansub sifatlar insonlarning turli harakter - xususiyatlarni, shuningdek, predmetlarni belgilarini bildiradi: Kamtarin, mugombir, sodda, shux, zikna, ayyor va x. bu xil sifatlardan ba'zilari insonlarga, ham xayvonlarga, shuningdek, predmetlarga ham ishlatiladi: Yuvosh odam, yuvosh ot kabi.

Xususiyat bildiruvchi sifatlardan ayrimlari harakat belgisini ifodalashi ham mumkin: Mayin gapirmoq, yaxshi ishlamoq kabi.

2. Holat bildiruvchi sifatlar. Bu to'daga mansub sifatlar inson, xayvon va predmetlarning turli holat belgisini ifodalaydi: Xursand, badavlat, ma'yus, keksa va x. Bu to'daga oid sifatlar ko'proq harakat belgisini ifodalashga moyilroq bo'ladi: Iliq qarshiladi, ma'yus so'zladi.

3. Shakl - ko'rinish bildiruvchi siflar turli tashqi qiyofa va tuzilishlarni predmetlarning shakliy ko'rinishlarni bildiradi: Gavdali, novcha, uzunroq, yassi kabilar.

4. Rang- tus bildiruvchi sifatlar. Bu gruppaga tegishli sifatlar predmet belgisini ifodalashgagina xoslangan: oq, qora, qizil, sariq, ko'k, pushti.

Xajm - o'lchov bildiruvchi sifatlar. Keng, tor, uzun, yaqin, katta.

Maza- ta'm bildiruvchi sifatlar: Shirin, nordon, achchik, chuchuk, ta'msiz.

Xid bildiruvchi sifatlar: Xushbo'y, badbo'y, qo'lansa, sassiq va b.

Predmetning o'rin va vaqtiga nisbatan belgisini bildiruvchi sifatlar: Yozgi, qishki, kuzgi, ichki, sirtqi kabi.

Tabiiy holatni ifodalovchi sifatlar: Yosh, qari, keksa, o'rta yosh.

Sifatlarning ma'no to'dalari va ularning ma'no ifodalash xususiyatlarida ko'rinib turibdiki, sifat so'zlar nafaqat predmet belgisini, balki ularning ayrim to'dalriga mansublari harakat belgisini ifodalash xususiyatlariga ham ega bo'lar ekan. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki, sifat turkumiga oid so'zlarning asosiy xususiyati predmetga xos belgini ifodalashdir. Demak, sifat uchun umumkategorial predmet belgisini ifodalashdir. Sifatlar boshqa so'z turkumlaridan o'ziga xos

ma'nosi, maxsus forma yasovchi va soʻz yasovchi qoʻshimchalariga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi.

Ot bilan bogʻlanib kelganda hech qanday oʻzgarishga uchramaslik, yaʼni oʻzgarmaslik ham sifatning oʻziga xos morfologik xususiyatlaridan biridir: Oq devor, oq devorni, oq devorda, oq devordan, oq devorning kabi.

Sifat turkumiga xos yana bir morfologik belgi uning daraja kategoriyasiga va darajani koʻrsatuvchi grammatik formalar sistemasiga egaligidir: Chiroyli - chiroylirok kabi.

Sifat soʻzlarning juda koʻp qismini yasama sifatlar tashkil etadi, yaʼni sifatning ancha qismi maxsus sifat yasovchi qoʻshimchalar vositasida yasalganki, bu ham sifat soʻzlarning asosiy belgilarida biri boʻlib hisoblanadi: Aqlqli.

Sifat soʻzlarning gapdagi asosiy sintaktik vazifasi aniqlovchi va xol boʻlib kelishdir. Masalan, Nadya pishiq va toʻqri qiz edi (O.).

Yoki: Oppoq qordir togʻlarning toshi, daryo tiniq, osmon begʻubor. (X. O.)

Nazorat savollari:

1. Oʻzbek tilidagi sifat soʻzlarning belgi ifodalash toʻdalari (maʼno guruhlariga) koʻra turlarini aytib bering.

2. Sifatning umumkategorial maʼnosini izohlang.

3. Sifat soʻzga xos belgilarni ajrating.

savol boʻyicha dars maqsadlari: talabalarning asliy va nisbiy sifatlar boʻyicha bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish;

identiv oʻquv maqsadlari:

Asliy va nisbiy sifatlarini farqlay oladi.

Nisbiy sifatning ifodalanish yoʻllarini aytib bera oladi.

Asliy va nisbiy sifatlariga xos grammatik belgilarini sanab bera oladi.

Sifat soʻzlarining belgi anglatishi turlicha boʻladi: Baʼzilari predmet belgisini toʻgʻridan-toʻgʻri ifodalasa, baʼzilari belgi maʼnosini bir predmetning boshqa predmetga boʻlgan munosabatiga koʻra anglatadi. Ana shu xususiyati hisobga olinib sifat soʻzlar ikkiga: Asliy va nisbiy sifatlariga boʻlinadi.

Predmet belgisini shu predmet oʻziga bogʻlab, toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatsa, asliy sifatdir: qizil, koʻk, sariq kabi.

Predmet belgisini boshqa predmet belgisiga koʻra ifodalanadigan sifatlar nisbiy sifatlardir: bilimli, chiroyli suvsiz kabi.

Nisbiy sifat belgini uch xil yoʻl bilan ifodalaydi:

Predmetga nisbat berish yoʻli orqali: harbiy unvon, bolali ayol.

Vaqtga nisbat berish bilan: hozirgi kun, bahorgi ekin.

Oʻringa nisbat berish bilan: Sirdaryolik qiz, qishloqi yigit.

Asliy va nisbiy sifatlar bir-biri bilan quyidagilar bilan farq qiladi:

Asliy sifatlar predmet belgisini darajalab koʻrsata oladi.

Asliy sifatlarda intensiv forma yasalishi mavjud: sap-sariq, toʻppa-toʻgʻri kabi.

Nisbiy sifatlarda bunday forma yasalish yoʻq.

Asliy sifatlarda belgining kamligini ifodalovchi forma yasalishi bor: oq-oqish, koʻk-koʻkimtir kabi.

Nisbiy sifatlar bunday xususiyatga ega emas.

Asliy sifatlar feʼlga bogʻlanib kelganda gapda koʻpincha xol vazifasini bajaradi.

Nazorat savollari:

1. Berilgan misollarda nisbiy sifatning qanday yoʻl bilan ifodalanganini aniqlang, tushuntirib bering.

Ishchan, juda ishchan odam (A. K.).

Koʻkni qoplab olgan sanoqsiz yulduzlar, qozonga yopishgan uchqunlardek yaltirab turibdi. (I. R.)

Oppok qizning koʻkish koʻzlari jiqqa koʻz yoshga toʻldi (X. G.)

Ertalabki jismoniy tarbiya salomatlik garovidir.

2. Berilgan sifatlariga –roq qoʻshimchasini qoʻshib koʻring. Bu qoʻshimcha bilan qoʻshila oladigan va qoʻshila olmaydigan sifatlar guruhiga ajrating.

Tinch, olmossimon, paxtali, oq, shoʻh, tuzli, chuchuk, doʻppili, nam, badavlat, serfarzand, omilkor, zararsiz, baland.

Sifat darajalari predmetlardagi bir xil belgilarni bir-biridan farqlash uchun qo'llaniladi. Bunday holatlarda birdan ortiq predmetlarning belgilari bir-birlari bilan chog'ishtiriladi: qizil-qizilroq, sariq-sariqroq kabi. Belgi ko'rsatishdagi turli xususiyatlari hisobga olinib, sifatlar uch darajaga bo'linadi.

Oddiy daraja. Bu darajadagi sifat predmetning belgisini to'g'ridan to'g'ri ifodalaydi. Asliy sifatlar asosan oddiy darajada bo'ladi va ular boshqa darajalarni hosil qilishda asos bo'ladi: uzun arqon.

Qiyosiy daraja. Qiyosiy daraja bir predmetdagi belgining ikkinchi predmet belgisiga nisbatan ortiq yoki kamligini qiyos yo'li bilan ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu darajaning morfologik ko'rsatkichi **-roq** affiksidir: shirin-shirinroq, katta-kattaroq kabi. **-roq** affiksi qo'shib kelgan sifatlar qiyoslanayotgan belgining daraja miqdorini turlicha me'yorda ko'rsatadi. Bu belgi oddiy daraja holatiga etmaganligini, undan biroz kamligini, kuchsiz ekanligini, ortiqligini ko'rsatishi mumkin.

Kiyosiy daraja ba'zan chiqish, jo'nalish kelishiklar formasini olgan ot so'z va ko'ra, qaraganda, nisbatan, ham kabi ko'makchilarning birikish shaklida ham ifodalanishi mumkin: Alisher boshqa bolalarga ko'ra o'tkir zehni, mehnatsevar chiqdi.

Orttirma daraja. Sifatlarning orttirma darajasi bir predmetdagi belgi ikkinchi predmetga nisbatan ortiq ekanligini chog'ishtirib ko'rsatiladi. Orttirma daraja oddiy darajadagi sifat oldida «eng» so'zini keltirish orqali hosil qilinadi: eng yaxshi, eng go'zal kabi. Ba'zan orttirma daraja ma'nosi oddiy darajadagi sifatlar oldidan chiqish kelishigi va III shaxs egalik affiksini olgan barcha, hamma, bari kabi olmoshlarni keltirish bilan ham ifodalanadi: barchasidan buyuk, hammasidan go'zal kabi. Ayrim holatlarda ko'plik qo'shimchasi va qaratqich kelishigi affiksini olgan ot va otlashgan sifatlar bilan III shaxs egalik affiksini olgan sifatlarini qator keltirish orqali sifatlarning orttirma darajasi ma'nosi ifodalanadi: yaxshilardan yaxshisi, odamlarning kattasi.

Nazorat savollari:

1. Sifat so'zlarning predmet belgisini darajalab ko'rsatishiga ko'ra turlarni aytib bering.
2. Sifatning oddiy, qiyosiy, orttirma darajalari va ularning yasaliş tiplarini tushuntirib bering.
3. Sifat so'zlar darajalanishining sintaktik usullari haqida tushuncha bering.

1- topshiriq. Sifatlarni topib darajalarini aniqlang.

Do'stlik o'rtoqchilikning eng oliy darajasidir.

Do'stlik sevgidan ko'ra bardoshliroq bo'lmog'i lozim.

Samimiy do'stlari bo'lmagan odam haqiqatdan ham yolg'izdir.

Jimjimador gapirishdan saqlan. Til oddiy va go'zal bo'lsin.

Do'l ofati kuchli, lekin xalq undan ham kuchliroq.

Uning bexat chiroyli ko'zlari iffat va xayoy bilan ma'sum boqardi.

Menimcha, Hamrooyning o'g'lidan yaxshiroq, ham boyroq kuyov topolmaysan?

2- topshiriq. Berilgan so'z birikmalarida sifatlarning ma'nolari orasidagi farqlarni, bu farqlarni yasovchi vositalarni aniqlang va tushuntiring.

Shirin qovun – shirinroq qovun - eng shirin qovun;

Katta bino - kattaroq bino - eng katta bino;

Qizil mato – qizilroq mato - eng qizil mato;

Bema'ni savol – bema'niroq savol - o'ta bema'ni savol;

Belgining ortiq - kamligini ifodalovchi formalar.

Sifatlarda darajalardan tashqari, belgining ortiq-kamligini ifodalovchi formalar bo'lib, ular bir predmetdagi belgini ikkinchi predmetdagi belgiga chog'ishtirib emas, balki belgining ortiq-kamligi bir predmetning o'zida ifodalanadi. Bular: sifatlarda intensiv forma, belgining ortiqligi formasi, belgining kamligi formasi deb yuritiladi.

Sifatlarning intensiv formasi predmetning belgisini uta ortiqligini ko'rsatib, ular sintetik-fonetik hamda analitik yo'llar bilan hosil qilinadi. Sintetik-fonetik yo'l bilan intensiv forma hosil kilinganda, sifat so'zning dastlabki yopiq bo'g'ini shu so'z oldidan qo'shib takrorlanishi shaklida (pak-pakana, but-butun kabi), sifat so'zning unli bilan tugagan bosh qismi olinib bu bosh qismga p yoki m hamda s kabi tovushlardan birini qo'shib va hosil bo'lgan ochiq bo'g'inni shu sifat so'z oldidan qaytariqlash tarzida (qip-qizil, bo'm-bo'sh, top-toza, kabi), sifat so'zlarning ochiq unli

bilan tugagan qismi olinadi va unda p a tovushlari qo`shiladi va hosil qo`shilgan qism shu sifat so`z oldidan qo`shib takrorlanishi (m: soppa-sog`, tuppa-tuzuk) ko`rinishlarida hosil qilinadi.

Analitik yo`l bilan sifatning intensiv formasi hosil qilinadi. Bunda oddiy darajadagi sifat so`z oldidan maxsus so`zlar: liq, tim, jiqqa, g`irt kabilar keltiriladi: liq to`la, jiqqa xo`l kabi.

Belgining kamligi formasi. Predmet belgisining kuchsizligini, kamligini ko`rsatuvchi sifatlar rang -tus bildiruvchi sifatlariga : -sh, -imtir, -mtir affikslarini qo`shish bilan yasaladi: oq-oqish, qora-qoramtir, kabi.

Belgining ortiqqligi formasi. Sifat so`z oldidan juda, g`oyat, cheksiz, bexat, nixoyatda, xaddan tashqari kabi maxsus kuchaytiruv so`zlarini keltirish bilan belgining ortiqqligi formasi hosil qilinadi: Ona oq kuylakda, oq doka ro`molda cheksiz, aziz, shavkatli, bexat go`zal tuyuldi O`ktamga.

Sifatlarda sub'ektiv baho formasi. Sifatlarda ham ot so`zlardagi singari maxsus morfologik formalar bo`lib, bu formani olgan sifat so`zlovchining shu belgi orqali predmetga ijobiy munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. M: To`tiqiz ko`zi bilan shiringina kuldi. (M. I.) -gina (-kina, -kina) qo`shimchalar ravishlarga qo`shilganda ham xuddi shunday ma'no anglashiladi: Xuddi kechagina bo`lganiday, vaxolanki oradan 35 yil utib ketibdi. (S. B.)

Nazorat savollari:

1- topshiriq. Berilgan sifat so`zlardan belgining ortiqqligini, kamligini va o`sha ortiqqligini namunaga qarab hosil qiling va ularning ma'nosidagi farqni so`zlab bering.

Tayyor, uzun, cho`ziq, yaqin, qiziq, silliq-, toza, yangi, eski, teskari, dumaloq, ko`k, qora, jigar, pakana.

Qizil - qip-qizil - qizg`ish; qora - qoramtir - qop-qora; pakana - pakangina - pak-pakana.

2- topshiriq. Berilgan qatorlardagi sifatlar oddiy, qiyosiy, orttirma darajadagi sifatlar bilan belgining kamligi va ortiqqligi, o`ta ortiqqligini ifodalovchi shakllar o`rtasida qanday semantik - grammatik farq borligini aytib tushuntiring.

qora-qoraroq,- eng qora- qoramtir- qop-qora:

sariq- sariqroq- eng sariq- sarg`ish- sap-sariq:

katta- kattaroq- eng katta -kattagina - kap-katta.

3- topshiriq. Berilgan juftliklarda -gina, -ning, -kina; -mitr, -imtir; -sh, -ish, qo`shimchalari sifatning ma'no jihatidan qanday farq qilishini ayting.

Yap-yangi kitob - yangigina kitob.

Tuppa-tuzuk bola - tuzukkina bola.

Pak-pakana odam - pakanagina odam.

Sap-sariq xotin – sariqqina xotin.

Kip-kizil baxmal - kizgish baxmal.

Oq surp – oqish surp.

Qora tun - qoramtir tun.

Ko`k tovoq - ko`kimtir tovoq.

Adabiyotlar:

1. O`zbek tili grammatikasi. 1 tom, Toshkent, 1975, 271-306.
2. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 1 qism. Toshkent, 1980, 251-256.
3. U. Tursunov va boshq. Hozirgi zamon o`zbek adabiy tili. Toshkent, 1992. 280-287.
4. Sodikova M. Hozirgi o`zbek tilida sifat. Toshkent, 1974.

Mavzu: Son.Son leksik - grammatik xususiyatlari.

Mavzu rejasi

1. Son so`z turkumi haqida umumiy tushuncha.
2. Sonning ma'no turlari va hisob so`zlar bilan birikib kelishi.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: son,sonda forma yasalishi, numerativ so`zlar, otlashuv, sodda sonlar, juft sonlar,tarkibli sonlar, grammatik son, miqdor sonlar, tartib sonlar, sannoq sonlar, chama sonlar, taqsim sonlar, kasr sonlar, donalik sonlar.

- 1.

1- savol bayoni:

Predmetning miqdori va tartibini bildiruvchi soʻzlar son deyiladi. Son soʻzlar qancha? Necha? Nechta? Nechanchi? soʻroqlaridan biriga javob boʻladi. Oʻzbek tilida matematik son tushunchasi bilan grammatik son tushunchasi farqlanadi.

Sanaladigan ot bilan qoʻllanmay (un, uch, uchtan ikki) mavhum ma'noni ifodalaydigan va faqat son soʻzning nomini anglatadigan (m: ikki karra ikki toʻrt) soʻzlar matematik sonlar deyiladi va hozirgi taraqqiyotida uchta sistemani tashkil etadi.

Sonning 8 lik, 10, 16- lik sistemalarida EXM larda foydalaniladi. Son sanaladigan predmetlar nomini anglatuvchi soʻzlar bilan qoʻllanganda grammatik son tushunchasiga doirasiga kiradi va son turkumini tashkil qiladi.

Son soʻzlar predmetning m i q d o r i, s a n o g` i va t a r t i b i ni ifodalagani sababli sifat va ravish turkumlariga yaqin turadi. Son soʻzlar harflar bilan yoziladi. shuningdek, arab (1, 2, 3, 4, 5) va rim (I, II, X) raqamlari bilan yoziladi.

Oʻzbek tilida sanash sistemasida katta raqamli sonlar oldin, kichik sonlar keyin aytiladi: 1992 yil, 135 kabi. Tilimiz tarixida esa sanash kichikdan kattaga qarab borgan. M: Urxun -Enisey yodgorliklarida «oʻn bir» soni «bir yigirma», «oʻn uch» soni esa «uch yigirma» deyiladi. Shuningdek xalq jonli soʻzlashuvida «ikki kam ellik» «bir kam qirq» kabi sanash ham yoʻli ham mavjud.

Tilimizda, oz, koʻp, ancha, moʻl, biroz kabi miqdor bildiruvchi soʻzlar ham borki, ularni son turkumiga kiritib boʻlmaydi. Chunki bu soʻzlarni raqamlar bilan ifodalab boʻlmaydi.

Oʻzbek tilida miqdor tushunchasi 22 ta soʻz bilan ifodalanadi ulardan 9 tasi birlik 9 tasi oʻnlik (10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90) 4 tasi yirik miqdorni bildiradi. Eski oʻzbek tilida tuman (10000) lak (100000) sonlari ham boʻlgan.

Son soʻzlar quyidagi oʻziga xos grammatik xususiyatlari bilan boshqa turkumidan frqlanib turadi.

Son turkumi oʻzigagina tegishli boʻlgan forma yasovchi qoʻshimchalariga ega: -nchi, -ala, -ta, -tacha, -tadan kabi.

Son soʻzlar metr, tonna, kilo, bosh kabi numerativ soʻzlar bilan birikib keladi.

Boshqa turkumlardan son soʻzi yasalmaydi.

Son gapda asosan aniqlovchi boʻlib keladi.

Son otlashadi va ot kabi sintaktik vazifani bajaradi.

Son soʻzlarining tuzilishiga koʻra turlari.

Tuzilishiga koʻra son turkumdagi soʻzlar 3 xil boʻladi: sodda, tarkibli, juft. Bir, uch, besh, ming, yuz kabi sonlar bir oʻzakdan boʻlgani uchun sodda sonlarga kiradi. Shuningdek, tarixan qoʻshma boʻlgan sakson, toʻqson kabi sonlar ham sinxronik jihatdan sodda sonlarga kiradi. Tilimizda bir, ikki kabi sodda son tushunchasini bera oladigan sinonimlari ham mavjud. M: bir-yakka, yagona, yolgʻiz, juft kabi miqdor tushunchali leksemaga teng keladigan ikki va undan ortiq sonlar deyiladi: un besh, bir yuz ellik besh, undan besh, uchdan bir kabi. Tarkibli sonlarning oʻzaro ichki munosabati, bir xil emas. Oʻnlik xonasi doirasidagi tarkibli sonlar bir-biri bilan oʻzaro teng boglanish asosida birikadi va shu sababli ular bir-birini aniqlamaydi, izohlamaydi. Ammo ikki yuz, uch ming kabi tarkibli sonlarda ikki va uch soʻzlari aniqlovchilik vazifasini bajaradi. Chunki yuz, ming, million sonlari yaxlit va tugal sonlar hisoblanadi.

Olti-etti, besh-olti kabi ketma-ket keladigan ikki son tizmasidan iborat birikuvlarga juft sonlar deyiladi. Odatda juftlashayotgan sonlarda birinchi qismdagi miqdor oz, ikkinchi qismdagi miqdor koʻp boʻladi. Un-un besh, uch-toʻrt kabi. Juftlashish ikki xil boʻladi:

Bir oʻzak aynan takrorlanadi: oʻnta-oʻnta, uchta-uchta;

Har xil oʻzaklar takrorlanib keladi: ikki-uch, toʻrt-besh kabi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Miqdor va tartib ma'noli soʻzlarni tushintiring.
2. Son soʻzlarni izohlang va tushuntiring.
3. Hisob soʻzlarni tushintiring.

2-reja bayoni

Son soʻzlar ma'nosi va grammatik xususiyatlariga koʻra dastlab ikkiga boʻlinadi.

Miqdor sonlar.

Tartib sonlar.

Miqdor predmetni sanash, donalash, taqsimlash va taxminlab ko'rsatish kabi ma'nolarni ifodalaydi va quyidagi turlarga bo'linadi: 1.sanoq sonlar. 2.chama sonlar.3. jamlovchi sonlar. 4.donalik sonlar. 5.taqsim sonlar.6 .kasr sonlar.

1980 yilda chiqqan darslikda («Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili», Toshkent, 1980) miqdor sonlar to'rtga bo'lib ko'rsatgan. Dona va taqsim sonlar sanoq sonlar qatoriga kiritib yuborilgan. Xolbo'qi, dona va taqsim sonlar ham o'ziga xos semantik xususiyatlariga ega. M: «Besh metr chit»ni «beshta metr chit» deb yoki «o'n chaqirim yo'l» birikuvini «o'nta chaqirim yo'l» deb bo'lmaydi, shuningdek dona sonlardan keyin ko'plik qo'shimchasini kullab bo'lmaydi, masalan, oltitalar, beshtalar deb bo'lmaydi. (Bundalar qo'shimchasining taxmin, noaniqlik kabi ma'nolari bilan uning ko'plik vazifasi aralashmasligi lozim). Taqsim son ham xususiyatlarga ega.

Sanoq sonlar. Sanoq sonlar mustaqil xolda qo'llana oladi, ya'ni boshqa so'zlar bilan bog'lanishi shart emas. Sanoq sonlar ana shu xususiyati bilan ot turkumiga yaqinlashadi. Lekin sanoq son predmet tushunchasi emas, uning miqdorini bildiradi, xolos. Sanoq sonlar bog'langan ot tushib qolganda son so'z otlashadi: O'n to'qqizdan oshmay tur, go'zal. (X. O.)

Sanoq sonlar sonning boshqa turlari uchun asosdir. Sanoq sonning o'zida esa maxsus morfologik belgi yo'q: bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti va x. Sanoq son aniq miqdorni ko'rsatganligi sababli sanaluvchi predmetning atamasi bo'lgan so'z ko'plik qo'shimchasi - lar ni olmaydi, ya'ni: un kishi (un kishilar emas). Ammo gumon, taxmin ma'nosidagi sanoq sonlar ko'plik ko'rsatkichi -lar ni qabul qiladi. m: Sen kelganda soat uchlar edi.

Sanoq son o'zidan oldin aniqlovchi,ayniksa sifatlovchi aniqlovchi olmaydi :yaxshi beshta kitob emas,beshta yaxshi kitob-deyiladi.

Sanoq sonlar otlashganda egalik,kelishik qo'shimchalarini olib turlanishi mumkin. M: Uchga kirdi, uchdan to'rtga o'tdi, uchni to'ldirdi kabi.

Sanoq sonlardan **bir** so'zi va uning ma'nolari. Sanoq sonlardan «bir» soni turli ma'no va vazifalarda kela olishi mumkin Ular quyidagichadir:

1. O'lchov ma'nosida keladi: Bir metr atlas, bir karich er, bir gaz buyin bor kabi.

2. Og'irlik miqdorini ifodalaydi: Bir kilo uzum, bir pud bug'doy kabi.

3. Ayiruv chegaralov yuklamasi ma'nosida: Mening mexribonim, ishonganim bir sensan, Oллоh.

4. Uxshashlik ma'nosini anglatadi: Otasi ham, o'g'li ham bir go'r. Ona bolaning xarakteri bir.

5. Noaniqlik, mavhum ma'noni anglatadi: Sizni bir qiz kutayapti.

6. Kuchaytiruv yuklamasi ma'nosida qo'llanadi: Navro'zda Gulnoza bir o'ynaydi, bir o'ynadi hamma xayron qoldi.

7. Ravish ma'nosida keladi: Bir-bir bosib kelar sanam, kelar salona-salona.

8. Ayiruv bog'lovchisi vazifasida keladi: Bir kuladi, bir yig'laydi, o'zini yo'qotib qo'yibdi.

Sanoq sonlarning qo'llanishida numerativlarning ishtiroki. Sanoq sonlar numerativlar bilan ham qo'llanadi. Sanoq son predmet atamasi bo'lgan ot so'z o'rtasida keladigan numerativ (numerativ lotincha hisob degani) so'zlar predmetlarning turi va xususiyatiga qarab qo'shiladi. Numerativlar sanlayotgan predmetlarni ko'rsatmay, o'sha predmetni hisoblashda uni qaysi kategoriyaga, guruhga, turga oid ekanligini aniqlash uchun qo'shiladi.

O'zbek tilida numerativ so'zlar qo'llanishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Predmetni donalab yakkalab ko'rsatish uchun ishlatiladigan numerativ so'zlar: dona, nusxa, bosh, tub, nafar kabilar

Butunning, guruhning, to'daning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan numerativ so'zlar: burda, parcha, varak, og'iz, luqma, qultum, siqim, tilim, chimdim, tomchi kabilar.

To'dalab guruhlab ko'rsatuvchi hisob so'zlar: tub, gala, to'da, guruh, dasta,bog', shoda va boshqalar.

Juft predmetlar hisobida qo'llanuvchi numerativlar: juft, para kabi.

Og'irlikni o'lchash uchun ishlatiladigan hisob so'zlar: Qadoq, kilo, pud, tonna, qoshiq, piyola, chelak, xovuz, botmon, sentner kabilar.

Uzunlik o'lchovi uchun ishlatiladigan hisob so'zlar: metr, karich, chakirim, odim, quloch, gaz va boshqalar.

Vaqt o'lchovini ifodalash uchun ishlatiladigan numerativlar: kun, oy, yil, xafta, soat, daqiqa kabilar.

Qiyamat hisobini ifodalovchi numerativ soʻzlar: sum, tiyin, tanga, chervon, selkovoy kabilar.
Xajm ma'nosini ifodalovchi numerativlar: kub, kvadrat, doira kabilar.

Xullas, sanoq sonlar turkumi doirasiga koʻra ham miqdoriga koʻra ham oʻziga xos oʻrinni egallaydi.

Chama sonlar. Predmetning shaklini, miqdorini bildirgan sonlar chama sonlardir. Tilimizda chama sonlar quyidagi qoʻshimchalar vositasida hosil boʻladi:

Sanoq sonlarga -tacha qoʻshimchasini qoʻshish bilan: untacha, beshtacha, yuztacha kabi.

sanoq sonlarga -lab affiksini qoʻshish bilan: unlab minglab yuzlab kabi.

Sanoq sonlarga -lar qoʻshimchasini qoʻshish bilan: soat uchlar bor edi.

Sanoq sonlarga -larcha qoʻshimchasini qoʻshish bilan: chama -jamlash ma'nosi hosil boʻladi: yuzlarcha, minglarcha kabi.

Ikki sanoq sonni juftlab ham chama son hosil qilinadi: besh-olti bola, un-unbesh jangari bor edi, kabi. Lekin har qanday juftlik chama ma'nosini beravermaydi: m: men 1962 - 1967 yillarda dorilfununda oʻqidim - bunda -dan... gacha aniq son ma'nosi ifodalanadi.

Dona sonlar takrorlanib kelganda chama ma'nosi anglashladi: xayol utmay davraga yana uchta-toʻrtta mexmon kushildi. Boʻlardan tashqari bir qator maxsus soʻzlar borki, ular vositasida ham chama ma'nosi anglashilib turadi m: xotinning yonida ikki bola -biri un, ikkinchisi un ikki yashar chamasi bor edi.

Jamlovchi sonlar. Bir turdagi predmetlarni jamlab koʻrsatadigan son soʻz jamlovchi son deyiladi. Jamlovchi son sanoq songa -ov, -ovlon, -ala.

ovlab -ovlashib; qoʻshimchalarini qoʻshish bilan hosil boʻladi.

ov: -ikov uchov beshov oltov kabi -ovlon: oltiovlon ola boʻlsa, ogzidagini oldirar (maqol)

ala; ikala uchala toʻrtala beshala kabi

Unli bilan tugagan sanoq soʻzlarga -ov -ala qoʻshimchalari qoʻshilganda ohirgi unli tushib koladi: ikala, oltala, etala; ikkov, oltov, etov kabi.

ovlab, -ovlashib: Bu vazifani ikovlab bajardik Uchovlashib ichkariga kirishdi.

Dona son. Donalab sanaldigan son soʻzlar dona sonlardir. Dona sonlar sanoq sonlarga -ta qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilinadi: ikkita, unta, yuzta kabi. -ta qoʻshimchasi numerativ soʻzlardan oldin kushilmaydi: beshta tub daraxt emas, besh tub darax kabi.

Taqsim son. Predmet miqdorining teng boʻlinishi ma'noga -tadan qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilinadi: bittadan, uchtadan, untadan kabi.

Taqsim ma'nosi sonning boshqa turlarini takrorlash bilan ham hosil boʻladi: uchta - uchta boʻlib, un-un boʻlib kelishdi kabi.

Kasr son. Butunning qismi, boʻlagini ifodalaydigan. Oʻzbek tilida kasr ma'nosini ifodalaydigan maxsus soʻzlar ham bor: yarim, chorak, nimchorak kabi. Oʻzbek tilida kasr va butun sonlar aralash ishlatilishi ham mumkin: besh butun ikkidan bir (5, 1goʻyo2) kabi. Tuzilish jihatdan kasr sonlar sostavli sanaladi.

Tartib sonlar. Predmet miqdorining sanoq tartibini bildirgan son soʻzlar tartib sonlardir. Tartib sonlar sifat soʻzlarga yaqin boʻlib, ulardek predmet belgisini bildiradi.

Tartib sonlar sanoq sonlarga -nchi goʻyo -inchi qoʻshimchalarni qoʻshish bilan hosil qilinadi: toʻrtinchi boskich kabi. Sostavli sonlardan tartib son yasalganda -nchi goʻyo -inchi qoʻshimchasi eng soʻnggi soʻzga qoʻshiladi: bir ming tukkiz yuz tukson uchinchi yil kabi.

Baʼzan -lamchi qoʻshimchasi ham tartib son hosil qilishda ishtirok etadi. Bunda predmetning tartibiga koʻra belgisi emas, balki sanaladigan voqea hodisalarning tartibi, sirasini ifodalaydi. Uning ikkita aybi bor: birlamchi jussadan bergan emas, ikkilamchi xotinidan koʻp urush eshitadi (A. K.)

-nchi, -inchi qoʻshimchalari soʻz yasash ham mumkin, buni uning tartib son hosil qilishdagi vazifasidan farqlash lozim boʻladi. M: gulning birinchi gunchasi kuttirib ochildi (S. A.) Bu shubhasiz, bizning yutugimiz, lekin ikkinchi tomoni ham bor, esdan chikarmaslik kerak (A. K.) Bunda «ilk», «oldingi», «avvalgi», «boshqa» kabi modal ma'nolar yasaladi.

Tartib sonlar otlar bilan grammatik munosabatga kirishganda, ikki holat seziladi:

sonni ifodalovchi tartib son: 4 boskich, 10 sinf kabi, mazmunan sifatga yaqin turgan belgi ma'nosini bildiradi. Bunda predmet tartibi emas, uning xususiyati, belgisi e'tiborga olinadi M: birinchi sort paxta, ikkinchi nav urug kabi.

Tartib son arab rakamlari bilan yozilganda chizikcha kuyiladi (sana bunga kirmaydi). Rim rakamlari va sana bildiruvchi arab rakamlaridan so`ng chizikcha kuyilmaydi. 5-uy, 5 may kabi.

Sonlarning otlashuvi

Son so`zning ot turkumi vazifasini bajarishga xoslangani uning otlashuvi (substantivatsiya) deyiladi. Son so`z mavhum tushuncha ifodalasa , u ko`pincha otga yaqinlashadi, uning vazifasini bajaradi. Aniq predmet tushunchasini ifodalagan so`z bilan biriksa, belgini ko`rsatadi- aniqlovchi bo`lib keladi. Son so`z otlashib, ot turkumi uchun xos bo`lgan egalik , ko`plik, kelishik qo`shimchalarini olib, gapda ega, to`ldiruvchi va qaratqichli aniqlovchi bo`lib keladi. M ; Besh unning yarmi. Olti ikkiga koldiksiz bo`linadi kabi. son so`zlar otlashib aniqlanmish olganda ot sondan oldin kelishi mumkin: olmadan to`rttasini oldim deb qo`llash mumkin (to`rtta olma oldim urnida). Son gapda aniqlovchi, otlashganda ot kabi sintaktik vazifalarni bajarib keladi. Son so`z hech kachon o`ziga aniqlovchi olmaydi.

Son turkumining tahlil namunasi.

Turkumiga ko`ra (son)

Tuzulishiga ko`ra (sodda, qo`shma, juft tarkibli)

Ma'nosiga ko`ra (miqdor yoki tartib son)

Miqdor sonning turiga ko`ra (sanoq, chama, jamlovchi, dona, taqsim, kasr son)

Numerativning ma'nosi

Son so`zning gapdagi vazifasi.

Nazorat savollari

1. O`lchov so`zlarni tushuntiring.

2 Berilgan rakamlarni so`zlar bilan yozib ularning sanoq sonlarning qaysi turiga mansubligini tushuntiring. 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,20,30,40,50,60,70,80,90.

3. Gaplardagi son so`zlarni ajratib, ularning sonning qaysi ma'no guruhiga oidligini aniqlang.

Bolalarning uchalasi ham sportchi edi.

Salima va Raximalarning ikkalasi ham a'lochi.

Uchala komanda ham faxrli o`rin olishdi.

O`quvchilarning to`rtalasi masalani o`z vaqtida echib bo`ldilar.

Beshala dastgoh birdan guvullab ishlab ketdi.

Adabiyotlar:

1. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent, 1980, 256-290.

2. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent, 1966, 241-252.

3. U. Tursunov va boshqalar. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent, 1965, 39-46.

4. O`zbek tili grammatikasi. Toshkent, 1975, 307-331.

5. M. Mirzaev va boshqalar. O`zbek tili. Toshkent, 1978, 101-111.

6. Nizomiddinova S. Hozirgi o`zbek tilida son. Toshkent, 1970.

7. Hamdamov P. O`zbek tilida numerativ so`zlar. «Sovet maktabi» jurnali, 1967, 2- son.

8. «Hozirgi o`zbek adabiy tili»dan metodik ko`rsatmalar va konspektiv kurs (Morfemika, so`z yasalishi, morfologiya), Toshkent, 1989, 54-62. Tuzuvchi: E. Qilichev.

Mavzu: Olmosh. Olmoshning lek-grammatik xususiyatlari.

Mavzu rejasi

1. Olmosh va uning oot, sifat, son, ravish urnida olmoshishi, grammatik xususiyatlari.

2. Olmoshning ma'no turlari va olmoshlashish.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Olmosh so`z turkumi, umumlashagan predmet bildiruvchi olmoshlar, umumlashgan belgi bildiruvchi olmoshlar, umumlashgan miqdor bildiruvchi olmoshlar, kishilik olmoshlari, o`zlik olmoshlari, gumon olmoshi, ko`rsatish olmoshi, so`roq olmoshi, belgilash-jonlash olmoshi, bo`lishsizlik olmoshi.

1-savol bayoni:

Olmosh mustaqil ma'noli so`zlar - ot, sifat son, ravish kabi shaxs, predmet, belgi yoki miqdori bildirmay, ular urnida almashinib qo`llanuvchi, ularga ishora qiluvchi, ularning o`rinbosari hisoblanuvchi so`z turkumidir. Olmoshlarning asosiy ma'nosi va qaysi so`z turkumi urnida qo`llanishi kontekstda reallashadi. Chunki olmoshlarning ma'nosi noaniq va umumiy bo`ladi. Ma'no

va grammatik xususiyatlariga ko`ra olmoshlar umumlashgan predmet (olmosh-ot), umumlashgan belgi (olmosh-sifat), umumlashgan miqdor (olmosh-son) bildiruvchi olmoshlarga bo`linadi.

Umumlashgan predmet bildiruvchi olmoshlar, predmetlikni ko`rsatadi. Egallik, kelishik affiksleri bilan turlanadi. Gapda ot bajargan vazifalarni bajaradi: Men, sen, u, kim, nima, hech kim, hech nima.

Umumlashgan belgi bildiruvchi olmoshlar sifat va ravishlar kabi formal o`zgarishligi, asosan aniqlovchi va xol vazifasida kelishi bilan harakterlanadi. Bu, shu, o`sha, qaysi, allaqanday, hech qanday.

Umumlashgan miqdor bildiruvchi olmoshlarga: kancha, necha shuncha, o`shancha kabilar kiradi.

Olmoshlar quyidagi grammatik xususiyatlari bilan boshqa so`z turkumlaridan farq qiladi. Ma'no jihatdan olmoshlar abstrakt xarakterga ega bo`ladi. Chogishtiring: tosh, non, to`z, kizil, ok, achchik deganda konkret predmet yoki belgi anglashiladi. Hamma, u, o`sha, shuncha deganda narsa yoki belgi ifodalanmaydi.

Olmoshlar so`z yasalishi yo`q. Olmoshlar boshqa so`z turkumlaridan yasalmaydi. Olmoshlardan boshqa so`z turkumlarining yasalishi ham kuchsiz: manmanlik, sensiramoq, mensiramoq. Kamtarlikning kamoli bor, manmanlikning zavoli bor. (Maqol)

Olmoshlar otlarga xos so`z o`zgartiruvchilar bilan o`zgaradi. Olmoshlar kelishik affikslerini oladi va ular bilan belgisi qo`llanadi: Men uni ko`rdim, (Men u ko`rdim emas).

Olmoshlarni gaplarda bajargan vazifasiga ko`ra to`rt gruppaga ajratish mumkin: a) ot xarakteridagi olmoshlar; b) sifat xarakteridagi olmoshlar; v) son xarakteridagi olmoshlar; g) ravish xarakteridagi olmoshlar. Biz shonli yo`lni bosib o`tdik.(Gazetadan). Namanganning qaysi qishlog`idan, qanday Urug`lari borligini surishtirdim. (Asqad Muxtor). Nechanchi uyda turasiz? Nega javob bermaysiz? (A. Qodiriy).

Nazorat savollari:

1. Olmoshlarning leksik-semantik xususiyati va morfologik belgilarini tushuntirib bering.
2. Matnda kelgan olmoshlarning gapdagi vazifalarini aniqlangan.

Muxabbat shunday bir kudratli, kuchli, kimning qalbiga yo`l topgan bo`lsa, uni ham o`z yo`liga boshlaydi. (S. Axmad)

Mening yuragimda chug yo`q. Hech kim ut solmagan. (S. Axmad)

Tabiat allaqanday xidga tulg'an. (S. Axmad)

Skameykada o`tirgan xotin nimadir dedi. (S. Axmad)

Xu ana u tepaning tagida salqin bir skameyka bor. (P. Qodirov)

3. Olmoshlarning gapda bajargan vazifasiga ko`ra turlarni ayting.

A. Ot, sifat, son, ravish xarakteridagi olmoshlar.

V. Ot, sifat ravish xarakteridagi olmoshlar.

S. Ot, sifat, son xarakteridagi olmoshlar.

D. Ot, son, ravish xarakteridagi olmoshlar.

4. Olmoshlarni topib, gapdagi vazifasini aniqlang, ularning qaysi so`z o`rnida kelganini aytib bering.

Shabboda ko`zg`aldi. U jonga orom berdi.

Gerasim kuchukchasini juda yaxshi ko`rar edi, unga Mumu deb ot qo`ydi.

Po`lat Kamolov botir yigit, uni hamma hurmat qiladi.

O`tgan yig`ilishimizga 80 ota-ona kelgan edi, biz yig`ilishimizga ham shuncha keldi.

1.

2-savol bayoni.

Olmoshlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Kishilik olmoshlari. 2. O`zlik. 3. Ko`rsatish. 4. So`roq. 5. Belgilash jamlash. 6. Bo`lishsizlik. 7. Gumon.

Kishilik olmoshlari. Kishilik olmoshlari shaxsni ko`rsatish uchun ishlatiladi. Ba'zi kishilik olmoshlari shaxslarni ifodalash bilan birga ko`rsatish ma'nosini ham bildiradi. Shunga ko`ra kishilik olmoshlarini ikkiga bo`lish mumkin:

1. Sof kishilik olmoshlari. 2. Kishilik ko`rsatish olmoshlari. Sof kishilik olmoshlariga I va II olmoshlarining birligi va ko`pligi men, sen, biz, siz olmoshlarini, kishilik ko`rsatish olmoshlariga III shaxs kishilik olmoshining birligi va ko`pligi: u, ular olmoshlarini ko`rsatish mumkin.

Tarixiy jihatdan kishilik olmoshlari I shaxsda b i, II shaxsda s i, III shaxsda u l shakllarda qo`llangan.

Kishilik olmoshlari ikki son: birlik va ko`plikni; uch shaxsni ko`rsatadi. I va II shaxsda birlik va ko`plik ayrim-ayrim so`zlar bilan, uchinchi shaxsning ko`pligi u olmoshiga - lar qo`shimchasini qo`shish bilan hosil qilinadi va u jadvalda quyidagi tartibda joylashadi:

Shaxs	Birlik	Ko`plik	ma'nosi
1	Men	Biz	sof kishilik
2	Sen	Siz	sof kishilik
3	U	Ular	kishilik ko`rsatish

Kishilik olmoshlari so`zlash jarayonida uch shaxsdan birini:

I shaxs men - so`zlovchini, II shaxs sen - tinglovchini, III shaxs u - o`zgani anglatadi.

Kishilik olmoshlari ot singari kelishiliklar bilan turlanadi: Men, mening, meni, menda, menga, mendan. Ko`rinyaptiki tushim va qaratqich kelishiliklari bilan turlanganda bir «n» tushib koladi.

III shaxs (u) kelishiliklar bilan turlanganda bir «n» orttiriladi: unga, unda, undan.

Egalik affikslari kishilik olmoshlariga, odattda qo`shilib kelmaydi. Ba'zan III shaxs kishilik olmoshlari ko`rsatish ma'nosida kelganda otlashib egalik affiksni qabul qilishi mumkin: unisi 3 yoshga kirdi. Bunisi kattasidan aklli.

Kishilik olmoshlariga -niki affiksni qo`shish bilan aniq bo`lmagan, mavhum egalikni bildiradi: meniki, seniki, uniki ba'zi kitoblarda - niki bilan yasalgan olmoshlarni «egalik olmoshi» deb yozilgan (karang: hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent 1966. 259.)

I va II shaxs kishilik olmoshlari predikativlik affiksi vazifasida ham keladi: studentsan, o`qimoqdaman, o`qimoqdasan.

Kishilik olmoshlari gapda ega, kesim, aniqlovchi, to`ldiruvchi bo`lib keladi.

KO`RSATISH OLMOSH LARI. Predmet va uning belgilarini ko`rsatish uchun qo`llanuvchi so`zlar ko`rsatish olmolari deyiladi: bu, shu, o`sha, u.

Ko`rsatish olmoshlari bu, shu, o`sha, u kishilik olmoshlariga karaganda yanada mavhumligi bilan ajralib turadi. Kishilik olmoshlari shaxs oti urnida ham qo`llanaveradi. Ko`rsatish olmoshlari sintaktik jihatdan sifatlarning ekvivalenti bo`ladi, ya'ni gapda aniqlovchi vazifasida keladi: u vodiya cho`rilar qullar kerak bo`ldi (A. Q.).

O`z xususiyatiga ko`ra ko`rsatish olmoshlarini uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ot o`rnida qo`llanuvchi olmoshlar. Shaxs va predmetlarni ko`rsatish orqali nomlaydi: bu, shu, kabi.

Sifat xarakteridagi ko`rsatish olmoshlari predmetning belgisini ifodalaydi: biz o`sha do`konga boramiz (O.).

Takror xolda qo`llanib haraktning belgisini bildiradi: shu-shu, o`sha-o`sha. Shu-shu boshqa arz qilganini bilmayman (A. Q.)

Ko`rsatish olmoshlari kelishiliklar bilan turlanadi: jo`nalish, o`rin, chiqish, kelishiga affikslarni qabul qilganda bir «n» tovushi orttiriladi: Bunda, bundan, shunga.

Ko`rsatish olmoshlari otlashganda egalik affikslarni qabul kila oladi: shuni, shuning, shunisi. Egalik affiksi ikki marta (pleonastik) qo`shiladi: bunisi.

Ko`rsatish olmoshlari to`zilishiga ko`ra ikki xil bo`ladi: 1. Sodda ko`rsatish olmoshlari: u, bu, shu, o`sha.

qo`shma ko`rsatish olmoshlari: mana, mana shu, ana shu, mana bu.

Shu ko`rsatish olmoshi bu olmoshdan oldin kelib so`z ma'nosini kuchaytiradi lekin hech vaqt bu olmoshi shu olmoshdan oldin kelmaydi: shu bu yil, shu bugun. Ammo bu olmoshlar qo`shma sanalmaydi.

Ko`rsatish olmoshlari gapda turli vazifalarda keladi. Klassik adabiyotda ba'zan hozirgi tilimizdagi she'riy parchalarda ko`rsatish olmoshlari: ul, shul, o`shal, bul formalarida uchraydi: Ul parivash xajrida kim yig`ladim devonalar (A. N.).

O`ZLIK OLMOSH. O`zlik olmoshi «o`z» predmetni aniqlab, uning ma'nosini kuchaytirib keladi. Bu olmosh gapda asosan aniqlovchi vazifasini bajarib keladi. O`zlik olmoshi quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

Predmetni o`zlik olmoshi bilan ifodalangan shaxsga karashli ekanligini bildiradi: Juraxon kishlokni o`z ko`zi bilan kurgan

O`zlik olmoshi egalik affiksini olib har uchchala shaxni ko`rsata oladi: o`zim, o`zing, o`zi.

O`zlik olmoshi kelishiliklar bilan turlanish uchun avval egalik qo`shimchalarini oladi: o`zimning o`zimga.

O`zlik olmoshi gapda turli gap bo`laklari vazifasida keladi.

O`zlik olmoshi takrorlanib juft xolda ham qo`llanishi mumkin: bu gaplar o`z-o`zidan bosilib ketadi. (A. K.).

O`zlik olmoshi ham (-yam) yordamchisini olib ma'lum darajada modallik ottenkasiga ega bo`ladi: Asl shaftoli! Arzon o`ziyam. (O.).

SO`ROQ OLMOSH LARI. Predmet, belgi, son haqida so`roq bildiruvchi olmoshlari deyiladi: Kim? Nima? Kancha? kabilar. So`roq olmoshlari yordamida so`roq gaplar to`ziladi. So`roq olmoshlaridan kim? Shaxslar uchun, nima? Ne? Umuman predmetlar uchun qo`llaniladi. So`roq olmoshlari birlik va ko`plik formada ishlatiladi. Kim?, - kimlar?, nima?, - nimalar? Har bir so`roq olmoshi o`ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Kim? 1. Faqat shaxs haqida so`roqni bildiradi. Egalik, kelishiliklar bilan turlana oladi: Kimning? Kimda? Kimim? Kimingiz?

Ko`plik affiksini oladi. Bunda shaxslarni ajratib ko`rsatadi, yoki yolgiz shaxsga xurmatni bildiradi: Kimlar keldi? (qanday odamlar ma'nosida) bu kishi kimlar?

Aniqlovchi bo`lib kelmaydi va o`zidan oldin sifatlovchi - aniqlovchi olmaydi.

Kim olmoshiga - sa, qo`shilganda, so`roqlikdan chikadi, otga aylanadi. Kimsa bormikan anga kurganda kulgu kelmadi (A. N.).

Ayrim vaqtda juftlashib kelib shaxslarning kimligini aniqlash uchun qo`llanadi: Kim-kim keldi? Kim-kimlar so`zlar?

Kim olmoshi gapda ko`pincha ega, kesin, to`ldiruvchi bo`lib keladi: Kim keldi? Nima olmoshi predmet yoki voqealarga nisbatan so`roqni bildiradi: Sizning nima dardingiz bor? (A. K.)

Nima olmoshi takrorlanib kelishi mumkin: nima-nima olding? Nima olmoshi so`roq so`z - gap bo`lib keladi: Men ertaga ketaman.

Nima?

Men ertaga ketaman deyapman.

JAMLASH - BELGILASH OLMOSH LARI. Predmetning yig`disini, to`dasini bildirib ularni ayirib ta'kidlab ko`rsatadi. Shunga ko`ra ularni ikki kichik gruppaga: jamlash va belgilash olmoshlarga ajratish mumkin. Birinchi gruppaga kiruvchi olmoshlar jamlashnigina ifodalasa, ikkinchi gruppaga kiruvchi olmoshlar esa predmetni kiman jamlash bilan birga ta'kidlab, aniqlab ham ko`rsatadi.

1. Jamlash olmoshlariga hamma, bari, barcha, butun, yalpi so`zlari kiradi.

Hamma olmoshi predmet va shaxslar to`dasini ko`rsatadi: Hammaning eti jimirlab ketdi (A. K.)

Hamma olmoshi predmetlar belgisining jamini ko`rsatib, gapda sifat xarakterida keladi: Bahorda o`tkazilgan hamma nihollar ko`karibdi.

X a m m a olmoshi uyushiq bo`lakli gaplarda umumlashtiruvchi so`z vazifasida keladi: Onam, opam, akam va men - h a m m a m i z dasturxon atrofida davra kurganmiz (O.).

B a r i , j a m i olmoshlari ham predmet va shaxslarning yigindisini ifodalaydi: Kizlarning b a r i s i shu erda. Kelganlarning j a m i s i un sakkizta.

B a r c h a olmoshi ko`prok sifat xarakterida qo`llanib predmetning miqdoriga ko`ra belgisini ifodalaydi: B a r c h a odamlar maydonga chiqdi.

B u t u n olmoshi ham miqdor ifodalaydi, lekin bu olmosh ifodalagan miqdor tushunchasi predmetga aloqador bo`lmay, u haraktning miqdoriga ko`ra belgisidir: Xali b u t u n qishloq uyquda. (U.).

Belgilash olmoshlaridan har so`zi va uning bir qator so`roq olmoshlari, shuningdek, narsa, bir kabi so`zlar bilan qo`shilishidan ham hosil bo`ladi. Har olmoshi o`zi yakka xolda qo`llanib, predmetni sanab ko`rsatish orqali uning belgisini ifodalaydi: Har qanaqa masala ko`pchilikning rayiga xal etishi kerak. (A. K.)

Belgilash-jamlash olmoshlari tuzilishiga ko`ra ikki xil: tub (har, hamma, bari, butun, yalpi kabilar) va qo`shma so`z xoldia (har qancha, har nima, har bir kabilar) bo`ladi.

Belgilash-jamlash olmoshlari gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi xol bo'lib keladi.

BO'LISHSIZLIK OLMOSHLARI. Bo'lishsizlik olmoshlari so'roq olmoshlariga yoki bir narsa so'zlariga inkor ma'noli hech so'zini qo'shish bilan hosil bo'ladi va olmosh so'z ifodalagan umumiy ma'noni inkor etadi: Hech, hech kim, hech nima, hech qaysi, hech bir, hech kachon, hech narsa va boshqalar. Misollarda ko'rinyaptiki, bo'lishsizlik olmoshlari tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma bo'lar ekan. Bo'lishsizlik olmoshlari qatnashgan gaplarda kesim har doim bo'lishsiz formada bo'ladi: Hech kim bormadi, hech kim gapirmadi.

Hech so'zi vaqt, maxal so'zlari bilan birikkanda paytga nisbatan inkorni ifodalaydi. Bitta gapda bir necha inkor ma'noli qo'shma so'z qatnashishi mumkin.

Bo'lishsizlik olmoshlari gapda turli vazifada kela oladi.

GUMON OLMOSHLARI. Noaniq predmetlar, belgilar va so'zlovchisi noma'lum shaxslarga ishora qiluvchi olmoshlar gumon olmoshlari deb yuritiladi. Gumon olmoshlari, asosan, ot va sifat harakterida qo'llanadi: Muxiddin allakimdan xursand bo'lib chikib ketdi. (A. K.)

Gumon olmoshlari quyidagicha tuziladi:

So'roq olmoshlariga alla- elementini qo'shish bilan: allakim.

So'roq olmoshlariga -dir morfemasini qo'shishi bilan.

So'roq olmoshlari oldidan bir so'zini keltirish bilan: Bir nima dedingmi?

Jumlada ba'zan biror, biron, bir kun, ba'zi bir, birov, ba'zi so'zlariga gumon olmoshi ma'nosini ifodalab keladi: Birov eshikni kokdi.

Gumon olmoshlaridan allaqanday, qandaydir so'zlari shaxs ma'noli otlar oldidan kelganda nopisandlik, e'tiborsizlik, ahamiyat bermaslik kabi ma'nolarni ifodalashi mumkin: qandaydir bir Karimov degan vakil kelibdi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Kishilik olmoshlarini tushuntiring.
2. O'zlik olmoshlarini tushuntirib bering.
3. Ko'rsatish olmoshlarining ma'nosini tushuntiring.
4. So'roq olmoshlarining ma'nosini tushuntiring
5. Matndagi belgilash-jamlash olmoshlari va ularning ma'nosini tushuntiring.

Biz istaymiz: barcha ellar, elatlar, Bir-biriga bo'lsin yana yaqinroq.

Sizning taklifingiz go'yo hammaning nomidan bo'ladi. (O.)

Har bir qishloq shiringina shaharcha bo'lishi lozim. (O.)

Bog'chamizdagi gullarning bari ochildi.

Xadicha xola qishloqning hamma qariyalaridek tetik kampir edi.

ADABIYOTLAR.

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1980, 290-325.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1966, Toshkent, 252-264.
3. U. Tursunov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1965, 46-56.
4. O'zbek tili grammatikasi. 1 tom, Toshkent, 1975, 332-364.
5. M. Mirzaev va boshqalar. O'zbek tili. Tokent, 1978, 113-118.
6. M. Askarova. Olmoshlar haqida ba'zi mulohazalar.. UTA., 1969, 4- son.
7. S. Ibrohimov. Ayrim olmoshlarning evolyutsiyasiga doir. -UTA, 1960, 5-son.

Mavzu: Fe'l. Fe'lning leksik-sematik-grammatik xususiyatlari

Mavzu rejasi

1. Fe'lning ma'nosi, semantik guruhlari, morfologik belgilari.
2. Fe'lning daraja (nisbat) kategoriyasi.
3. Fe'lning bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi.
4. Fe'lning mayl kategoriyasi.
5. Fe'lning zamon kategoriyasi.
6. Fe'lning funktsional formalari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: fe'lning umum kategorial ma'nosi, mustaqil fe'llar, yordamchi fe'llar, ko'makchi fe'llar, to'liqsiz fe'l, boqlama, tuslanishli fe'llar, tuslanishsiz fe'llar,

fe'ning kategorial formalari, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, fe'l nisbatlari, fe'l mayllari, bo'lishli – bo'lishsizlik, fe'l zamonlari, shaxs – son kategoriyasi, o'tgan zamon fe'llari, hozirgi zamon fe'llari, kelsi zamon fe'llari.

1-savolning bayoni:

Harakat ma'nosini ifodalovchi mustaqil so'zlar fe'l so'zlardir. Harakat ma'nosi juda keng bo'lib, tilimizdagi fe'l so'zlar shaxs va predmetlarning harakatini ifodalashdan tashqari, ular shaxs va predmetning turli holatini, ulardagi ruxiy o'zgarishlarni, turli biologik jarayonlarni, xatto belgining o'zgarishini ham harakat tarzida anglatadi.

Shunga ko'ra tilimizdagi fe'l so'zlarni (shartli ravishda) quyidagi semantik guruhlariga ajratish mumkin:

- 1.Sof harakat fe'llari: yur, yugur, kel, ket, bor, chop kabilar.
- 2.Holat fe'llari: kiyshay, uxla, o'tir kabi.
- 3.Nutq fe'llari: ayt, gapir, so'zla, g'udran kabilar.
- 4.Ruxiy holat va o'zgarishlarni ifodalovchi fe'llar: zavqlan, shodlan, kurk kabilar.
- 5.Biologik o'zgarishlarni ifodalovchi fe'llar: o's, gulla, yashna kabilar.
- 6.Ish fe'llari: chop, kes, arrala, so'y, qirq kabilar.

Fe'l turkumiga oid so'zlarning barchasi uchun xos ma'no zamon bilan bog'liq xolda yuz beradigan hodisani ifodalashdir. Shuning uchun ham barcha fe'l so'zlar umumiy bir so'roqqa – nima qilmoq? so'rog'iga javob bo'ladi. Fe'l turkumi boshqa turkum so'zlariga nisbatan leksik, semantik va grammatik sistemalashish jihatidan nixoyatda murakkab.

O'zbek tilidagi fe'llarni leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra dastlab ikki asosiy guruhga bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi:

Mustaqil fe'llar.

Yordamchi fe'llar.

Mustaqil fe'llar quyidagi xususiyatlarga ega:

Mustaqil lug'aviy ma'no anglatib, harakatni ifodalaydi va gapning biror bo'lagi vazifasida keladi: O'qishni a'lo baholar bilan bitirdi.(kesim).

Boshqarish xususiyatiga ega bo'lib, ergash so'z fe'lining talabiga ko'ra biror kelishikda yoki shu kelishik vazifasini bajara oladigan so'zni talab qiladi: Uy topshirigini bajarmok, sayoxatga junamok kabi.

Ob'ektga munosabatda bo'ladi va shunga ko'ra ikkiga: ob'ektli, ob'ektsiz fe'llarga bo'linadi.

Ob'ektli fe'llar ob'ekt tushunchasi bilan (harakat yoki harakat ta'sirini o'ziga olganlik tushunchasi bilan) boglangan bo'ladi va ular tushum kelishigidagi so'zni boshqaradi, chinni ayt, arikni kaz, xatni yoz kabi. Ob'ektsiz fe'llar bunday xususiyatga ega emas: seskan, kul, yugur kabilar bunga misol bo'ladi.

4. Mustaqil fe'llar fe'lga xos grammatik kategoriyalarga, shuningdek, funktsional formalarga ega va shu formalarga xos vazifada qo'llanadi: keldim-aniq nisbat, bo'lishli forma, aniqlik mayli, o'tgan zamon, birinchi shaxs, birlik (demak, mustaqil fe'l, fe'lga xos barcha kategoriyalar va shu kategoriyalar ifodalaydigan ma'nolarni ifodalovchi shakllarga ega); kelgan-sifatdosh, kelgach-ravishdosh, kelish-harakat nomi(fe'ning funktsional formalari).

Yordamchi fe'llar mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmaydi va harakatni ifodalamaydi. Ular turli grammatik ma'nolar ifodalash uchun yoki boshqa vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Yordamchi fe'llar asosiy xususiyatlariga ko'ra uch turga bo'linadi:

So'z yasashga va boglama vazifasini bajarishga moslashgan yordamchi fe'llar. Masalan: bo'l, qil kabilar: xabar qil, xursand bo'l kabilar.

Ko'makchi fe'llar. Bu fe'llar fe'l so'zlarga birikib, turli qo'shimcha modal yoki grammatik ma'nolarni ifodalovchi yordamchi fe'llardir: chik, kol kabi: o'qib chikdi, uxlab koldi kabi. Bu xil yordamchi fe'llar fe'ning analitik formalarni hosil qiladi.

To'liqsiz fe'l. Bu yordamchi fe'ning edi, ekan, emish kabi va boshqa shakllari fe'l va fe'l bo'lmagan so'zlar bilan birikib, turli ma'nolar ifodalovchi, yordamchi vazifalarda qo'llanuvchi shakllar hisoblanadi. ularning birikishidan ko'pincha fe'ning perifrastik formalari hosil bo'ladi.

Fe'ning tuslanishli va tuslanishsiz shakllari. Fe'l so'zning shaxs-son, zamon va mayl formasida o'zgarishi uning tuslanishi deb karaladi. Fe'l so'zning ana shu tabiatidan kelib chikib, ularni ikki guruhga:

tuslanishli fe'llar.

tuslanishsiz fe'llarga bo'lamiz. Tuslanishli fe'l tuslanish sistemasi doirasida bo'lib, mayl yoki zamon kategoriyasiga mansub forma hisoblanadi.

Ma'lum bir fe'l formasi birorta mayl yoki zamon ma'nosini ifodalasa, u tuslanishli fe'l sanaladi: o'qi, ishlasin(buyruk istak mayli), bormoqchiman(maqсад mayli), so'zlayapti(aniqlik mayli, hozirgi zamon) kabi.

Fe'lning mayl yoki zamon shakllarini hosil kilmaydigan turlari ham mavjud bo'lib, ular tuslanish sistemasida bo'lmaganligi sababli tuslanishsiz fe'l(forma) deb hisoblanadi. Va bo'lar sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi formalari bo'lib, sifatdosh fe'lning sifatga xos vazifasiga moslashgan shakli(o'qigan bola), ravishdosh ravishga xos vazifaga moslashgan shakli(kulib gapirdik), harakat nomi otga xos vazifaga moslashgan shakli(o'qishni sevadi)dir.

Fe'lning kategorial va funktsional formalari. Fe'l so'zlar biror grammatik kategoriyaga xos formalar sistemasini hosil qilish xususiyatiga ega yoki ega emasligiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1. Kategorial formalar; 2. Funktsional(nokategorial) formalar.

Kategorial formalar fe'lning ma'lum bir grammatik kategoriyaga xos grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Masalan: daraja, mayl, zamon va shaxs-son kategoriyasiga xos formalar kategorial formalaridir: ishlayapman, ishlayapsan, ishlayapti; ishlay, ishla, ishlasin; ishlasam, ishlasang, ishlasak kabi.

Harakatning bajaruvchi shaxsga va bu shaxsning son miqdoriga munosabati shaxs-son kategoriyasi deyiladi. Bu ma'nolarni ifodalovchi formalar shaxs-son formalari deyiladi. Harakatning bajaruvchisi, so'zlovchi, tinglovchi yoki o'zga bo'lishi mumkin. Fe'lning shaxs-sonda o'zgarishi tuslanish deyiladi. Shunga ko'ra shaxs-son affikslari tuslovchilar deb yuritiladi. Bajaruvchi shaxs bilan harakat orasidagi munosabat predikativlik munosabati deyiladi. Ega va kesimning munosabati predikativ munosabatdir.

Demak, shaxs ko'rsatish yoki ko'rsatmaslik jihatidan fe'llar ikkiga bo'linadi. Shaxsli fe'llar va shaxssiz fe'llar. Birinchi turdagi fe'llarda ishning bajaruvchisi bilinib turadi. Bo'larda xuddi kishilik olmoshlaridagi kabi shaxs bor: boraman, borasan, boradi. Ikkinchi turdagi fe'llarda harakatni bajaruvchi shaxs bilinmaydi. Harakat o'z bajaruvchisiga ega emas. Bunday fe'llar ham ma'lum shaxs(111 shaxs) formasida bo'ladi, lekin bu forma bajaruvchi shaxs ma'nosiga ega bo'lmaydi. Bunda grammatik shaxs bo'lsa ham, bajaruvchi shaxs yo'q. Masalan: Xorazmga Amudaryo orqali boriladi.

Fe'llarda shaxs uch xil yo'l bilan ifodalanadi: 1. Sintetik yo'l: bordim, bording. 2. Analitik yo'l: u borgan. 3. Analitik sintetik yo'l: men bordim, sen borgansan.

Hozirgi o'zbek tilida shaxs-son ko'rsatkichlarining quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Aniqlik maylining hozirgi zamon formalari va sifatdosh hamda ravishdoshning o'tgan zamon formalardan keyin qo'shiladigan shaxs-son formalari.

Birlik	Ko'plik
1. shaxs – man	-miz
2. shaxs – san	-siz
3. shaxs – di yoki nol	-dilar yoki nol (-lar)

2. Aniqlik maylining -di edi bilan yasalgan o'tgan zamon formalari va shart mayli formasidan so'ng qo'shiladigan shaxs-son formalari:

Birlik	Ko'plik
1. shaxs – m	-k
2. shaxs – ng	-ngiz
3. shaxs – nol	- (-lar)

3. Buyruk – istak maylidan so'ng qo'shiladigan shaxs-son ko'rsatkichlari:

Birlik	Ko'plik
1. shaxs – ay	-aylik
2. shaxs – nol yoki gin	-ing, ingiz
3. shaxs – sin	- sin(-lar), ishsin

Ikkinchi tuslanish affikslari shaklan egalik affiksilariga o'xshaydi: oldim, olding; bolam, bolang kabi. Lekin bularning biri fe'lga qo'shilib, bajaruvchi shaxsga munosabatini bildirsa, ikkinchisi otga qo'shilib predmetning tegishli, qarashli ekanligini ko'rsatadi.

Nazorat savollari

1. Harakatning bajaruvchi shaxsga va uning son miqdoriga munosabati haqida ayting.
2. Fe'llarning shaxs ko'rsatgichga bo'lgan munosabatiga ko'ra turlarini ajrating.
3. Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan ifodalanish usullarini tushuntiring .
4. Fe'lning umumkategorial va ichki kategorial grammatik ma'nolari, funktsional formalarini aytib bering.
5. Fe'llarni semantik guruhlarga ajrating.
6. Fe'lning leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra turlarini tushuntirib bering.

2 – savol bayoni.

Fe'lning daraja kategoriyasi. Fe'ldagi daraja kategoriyasi harakatning sub'ekti va ob'ekti orasidagi munosabatini ko'rsatadi. Bu munosabat maxsus grammatik shakllar orqali ifodalanib, bir sistemani hosil qiladi va bir paradigmaga ulanadi. Tilimizda harakat va uning bajaruvchisi (sub'ekt) hamda ob'ekt (tushum kelishigidagi ot) orasidagi harakat turli-tumandir. Masalan: Salima ko'ylakni yuvdi gapida ega (Salima) kesimdan anglashilgan (yuvdi) harakatni bajaruvchi shaxsni – sub'ektni ko'rsatadi; shuning harakatini qabul qilgan predmet (ko'ylak) –ob'ekt tushum kelishigidagi ot orqali ifodalangan. Bu holatda harakat ifodalovchi so'z (fe'l) –yuvdi aniq daraja bo'ladi.

Salima yuvindi gapidan anglashilgan harakatning bajaruvchisi (sub'ekt) ham va harakatni o'ziga olgan predmet (ob'ekt) ham bitta Salima (ega) ekanligi sababli misoldagi fe'l so'z o'zlik darajada deb qaraladi. Shuningdek Salima ko'ylakni yuvdirdi gapida «Salima» ega, ammo harakatning bajaruvchisi emas. Chunki, bu misolda harakat ko'ylakni yuvgan shaxs, ya'ni orttirilgan shaxs tomonidan bajarilyapti. (orttirma daraja). Shuningdek harakat vosita bilan, birgalashib bajarilgan bo'lishi mumkin. Masalan Salima Xalimaga qarashli (birgalik daraja).

Hozir o'zbek tilida fe'lning besh xil daraja shakli bor: aniq daraja (bosh daraja), o'zlik, orttirma, birgalik va majhul darajalar.

Aniq daraja (bosh daraja). Fe'lning aniq daraja shakli harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi: bildi, kurdi, so'zladi kabi. Bu darajaning maxsus ko'rsatkicha yo'q. Aniq daraja ba'zi adabiyotlarda bosh daraja deb yuritiladi. Bu esa boshqa daraja formalariga nisbatandir.

O'zlik daraja . O'zlik daraja asosiy –i (n), ba'zan -i(l) affiksi yordamida ob'ektli fe'llardan hosil qilinadi, tarandi, tashlandi kabi. Tilimizda ba'zan o'zlik nisbat ma'nosi –k, -k, -gan, -lan affikslari bilan ham ifodalanadi; shodlan, o'tlan, kunikdi, yutokdi kabi.

O'zlik daraja utimli fe'ldan hosil bo'ladi. utimsiz fe'llar o'zlik darajaga ega bo'la olmaydi. (Masalan: keldi fe'lining o'zlik formasi yo'q). Bu asosiy koida bo'lib, shunga karamay ba'zan utimsiz fe'lning ham o'zlik darajada qo'llanishi uchraib koladi. Bunday holat albatta fe'l ma'nosida o'zgarish bo'lganda yuz beradi. Masalan: U etildi(semirdi ma'nosida).

O'zlik darajadagi fe'lning ma'nosi «o'z, o'zni» formulasining ma'nosiga teng kelsada (m: bezandi, o'zini –o'zi bezadi kabi), ayrim xollarda bu paradigmadan ajraladi.

O'zlik darajadagi fe'l quyidagi ma'no attemkalarini ifodalaydi. Sof o'zlik, ya'ni harakat bajaruvchining o'ziga o'tgan sub'ekti ham ob'ekt ham shu bajaruvchining o'zi ekanligi ma'nosi anglashilib turadi: Kumushbibi qizarindi (A.K.) «o'zi-o'zini»; O'zlik belgisi o'timsizlikni ko'rsatish uchungina qo'llanadi: suv to'lqinlandi kabi; Harakatning sub'ektning o'zi uchun bajarilganligi (kitobdan foydalan) kabi.

O'zlik daraja formasi har qanday ob'ektli fe'ldan yasalavermaydi: o'qi, xayda, ek, min, kes, tik, sug'or kabilardan o'zlik daraja formasini hosil qilib bo'lmaydi, chunki bu fe'llar anglatgan harakat doim ob'ekt tushunchasi bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, o'zlik daraja formasi ob'ektli fe'llardan hosil qilinsada, lekin orttirma daraja orqali hosil qilingan ob'ektli fe'ldan yasalmaydi. O'zlik darajada esa uning aksi yuz beradi. Bu holat orttirma daraja formasidan o'zlik daraja hosil qilishga yo'l bermaydi.

Xullas, «Daraja kategoriyasi harakatning sub'ekt va ob'ektga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi» degan tarifdan kelib chiqsak o'zlik daraja harakatning ob'ektga munosabatini ko'rsatuvchi formla.

Orttirma daraja . Fe'ning orttirma darajasi quyidagi affikslar bilan yasaladi: -dir(-tir): yozdir, keltir, kuldir, choptir.

-gaz(-giz, -g`iz. -kaz, -qaz, -kiz, -qiz): ko`rgaz, kirg`iz, turg`iz, yurgaz, ketgaz, ketgiz, o`tgaz, tutqiz.

-t: o`qit, ishlat, surat, qurit.

-iz: oqiz, tomiz, emiz, tegiz.

-ir: ichir, pishir, botir, qotir, qochir.

-ar: chiqar, qaytar.

-sat: ko`rsat. Orttirma daraja ob'ektli fe'llardan ham, ob'ektsiz fe'llardan ham yasaladi: uxla, uxlat, o`qi, o`qit kabi.

Orttirma daraja formasi ob'ektsiz fe'llardan yasalganda ob'ektli fe'l hosil qiladi: ko`kar, ko`kartir, uch, uchir, yur, yurgiz.

Orttirma darajada harakat boshqaruvchisi ema, balki harakat ob'ekti ortadi. –bu orttirma darajaning asosiy grammatik vazifasidir: -kiydi, -kiydirdi, -keldi, -keltirdi. Orttirma daraja ko`rsatkichi birdan ortiq qo`shilganda ham xuddi shunday bo`ladi: kiygizdirdi, keltirgizdi. Demak, orttirma daraja formasi yasalishi bilan harakat ob'ektida o`zgarish bo`ladi.

Shu tariqa, o`zlik daraja ham, orttirma daraja ham harakatni ob'ekt nuqtai nazaridan xarakteristikasini ko`rsatadi. Ulardagi farq shundaki, o`zlik daraja ob'ektli fe'lni ob'ektsiz fe'lga, orttirma daraja uning aksini bajaradi.

Majhul daraja. Majhul darajada harakat ob'ekt bosh kelishik shaklida kelib, u ega vazifasini o`taydi, harakat sub'ekti esa to`ldiruvchi vazifasida keladi. Bu darajada asosiy diqqat, ya'ni logik urg`u sub'ektga emas, balki ob'ektga qaratilgan, tushgan bo`ladi. Masalan: Boboho`ja domla ishdan bo`shatildi. Bola kitobni keltirdi (aniq nisbat). Kitob bola tomonidan keltirildi.(majhul)nisbat-gapida harakatning «kitob emas, bola» bajargan, lekin gapda «bola» so`zi ega emas to`ldiruvchi, «kitob» ega vazifasida kelmoqda.

Majhul daraja asosan –(i)l, ba'zan –(i)n affiksi yordamida yasaladi: aytildi, so`raldi, tozalandi, olindi kabi.

Majhul daraja asosan ob'ektli fe'llardan, ba'zan ob'ektsiz fe'llardan yasaladi.

Ob'ektli fe'llardan yasalganda asosiy etibor bajaruvchiga emas, balki ob'ekt bilan harakatning o`ziga karatilgan bo`ladi, aslida esa, yukoridagi misolda kurganimizdek, grammatik ob'ektni bildirgan so`z ega vazifasida bo`ladi.

Majhul daraja ob'ektsiz fe'llardan bo`lganda, shaxssiz fe'llar (shaxssizlik ma'nosi ifodalanadi): bu ko`cha bilan ikki uch yuz odim yurilgan, qishloq guzariga etiladi. (X.Sh.).

Aytilganlardan ma'lum bo`ladiki, majhul daraja harakatni bajaruvchisiga bo`lgan munosabati nuqtai nazaridan harakatlaydi, ya'ni bunda harakatning bajaruvchisiga etibor qaratilmaydi va u grammatik sub'ekt tarzida ifodalanmaydi ham.

Birgalik daraja. Harakatning birdan ortiq shaxs tomonidan bajarilishini bildirgan daraja birgalik daraja deyiladi. Birgalik daraja formasi –(i)sh affiksi yordamida o`timli-o`timsiz fe'llardan birdek yasalaveradi: yozishdi, ortishdi, tushurishdi, keltirishdi kabi.

Birgalik daraja quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

Birga bajarish, birdek ishtirk etish: Gulnor va Unsin chuqur samimiy va do`stli bilan quchoqlashdi, o`pishdi.

Yordam, hamkorlik ma'nosi: er xaydashdi, ekin ekishdi. (ko`maklashish).

Harakatning birdan ortiq shaxs tomonidan, ko`plashib bajarilganligi ma'nosi: Kattalar o`sha erda. Arz qil, yordam berishadi, yo`l-yo`riq ko`rsatishadi.(P.T.).

O`zaro, galma-gal bajarilgan harakat: urishdi, kuvishdi kabi. Ular bir-biridan xol-axvol so`rashdi.

Xullas, birgalik daraja harakatning bajaruvchi shaxs nuqtai nazaridan bo`lgan xarakteristikasini bildiradi.

Demak, orttirma va o`zlik daraja harakatning ob'ektga bo`lgan munosabatini, majhul va birgalik daraja sub'ektga bo`lgan munosabatini ko`rsatadi. Shunga ko`ra daraja kategoriyasi harakatning ob'ektga va sub'ektga munosabatini ko`rsatuvchi kategoriya sifatida ta'riflanadi.

Nazorat savollari

1. Harakatning sub'ekt va ob'ekt o`rtasidagi munosabatni ifodalash daraja ko`rsatkichlari orqali amalga oshishni aytib bering.

2. Hozirgi o`zbek tilida fe'l so`zlarni besh xil: bosh, o`zlik, majhul, birgalik va orttirma daraja shakllarini ajratib, farqlab gapirib bering.

3. Nisbat formasidagi fe'llarni topib, ularning turi, ma'nosi va yasovchi qo`shimchalarini ayting.

Fe'lning bo`lishli-bo`lishsiz kategoriyasi. Har qanday fe'lning bo`lishli-bo`lishsiz shaklda bo`lishi uning asosiy fe'llik belgilaridan biridir. Bo`lishli shakl harakatning tasdig`ini: bo`lishsiz shakl inkorni: harakatning bajarilmasligini yoki holatning tug`ilmasligi ko`rsatadi: oldi-olmadi, yozdi-yozmadi, muzladi-muzlamadi kabi.

Tilimizda bo`lishli fe'lning maxsus grammatik ko`rsatkichi yo`q. Bo`lishsizlik ma'nosi esa bir qator maxsus vositalar yordamida ifodalanadi:

-ma affiksi: bu qo`shimcha fe'lning deyarli barcha shakllarida inkor ifodalash uchun qo`llana oladi: yozmayapdi, yozmaydigan, yozmagan kabi. Bu ravishdosh anglatgan harakat ikki yo`l bilan inkor etiladi. 1). Asosiy fe'lning bo`lishsizlik shakli orqali: ko`rgani kelmadi, bilgani keldi; 2). «emas» to`liqsiz fe'li orqali: toqqa o`ynagani emas, ish bilan chiqdik.(S.A.).

Harakat nomining bo`lishsiz shakli – maslik affiksi orqali hosil bo`ladi: Aytmaslik, bormaslik kabi.(Demak, bu shakl tarkibida ham – ma elementi bor.)

EtakchiQko`makchi fe'l birikuvida –m affiksi uch xil qo`llanadi:

Etakchi fe'lga qo`shiladi: yozmay tur;

Ko`makchi fe'lga qo`shiladi: ayta ko`rma;

Har ikkala qismga qo`shiladi: yozmay ko`yma.

Bo`lishsizlik ko`rsatkichining etakchi yoki ko`makchi fe'lga qo`shilishi. Ma'no talabi bilan bo`ladi: M:kelmay koldi, aytmay kuydi, ishlamay kurdi birikuvlarida –ma elementni etakchi fe'lga qo`shilsa, harakat (kel, ayt, ishla fe'llari bildirgan harakat) inkor etiladi, ko`makchi fe'llarga oid harakat inkor etilmaydi.

Bo`lishsizlik elementni ko`makchi qismga qo`shilsa, bu fe'l bildirgun ma'nodagi harakatning inkori ifodalanadi. Masalan, kelib qolmadi birikuvida tasoddiy, kutilmagan harakatning yuz bermaganligi ifodalanyapdi. Qiyoslang: aytmay qo`ymadi – aytib qo`ymadi, aytmay turdi – aytib turmadi, aymay ko`rdi – aytib ko`rmadi va b.

Inkor formasi etkachi va ko`makchi fe'lga qo`shilganda, alohida ta'kidlangan, qat'iy qilib aytilgan bo`lishlilik ifodalanadi: aytmay qo`maydi, bilmay qo`yaydi, bilmay qolmaydi kabi. Bunday takroriy (har ikkala qismga qo`lishdi) xollarda bo`lishlilik, tasdiq ma'nosi kelib chiqdi.

«Emas» to`liqsiz fe'li. Bo`lishsizlik ifodalovchi emas. Aslida to`liqsiz fe'lning inkor ma'no ifodalashda boshqa vazifasi yo`q. Shuning uchun buni bo`lishsizlik ifodalovchi yordamchi so`z deb hisoblash mumkin. Bu fe'lning qisqargan shakli ham –mas tarzida (aytganmas) yoki «m» tovushi «a» tarzida talaffuz etilishi mumkin: aytganmas. Harkatning inkorini bildiruvchi –ma affiksiga nisbatan (emas) yordamchiga narsa – predmet, belgi va harakatning inkorini ifodalay olishi bilan, ya'ni qo`llanish doirasining kengligi bilan ham farqlanadi. M: Daraxt emas, katta emas, unta emas, kelgan emas kabi.

Shuni alohida uqtirish lozim: «emas» yordamchisining ikki vazifasi –fe'lning inkor formasi va ma'nosida (ketgan emas, ketmoqchi emas) kelishi emas hamda turli modal ma'no ifodalovchi so`zlar, yuklamalar, undovlar bilan kelib, umuman inkor ma'nosini ifodalashini farqlash lozim bo`ladi:... mumkingina emas, ... Shunday qilmoqchigini emas, qilayotibdi kabi.

Demak, emas to`liqsiz fe'li inkor ma'noni ifodalovchi yordamchi so`z sifatida juda keng qo`llanadi, fe'lning inkor formasini yasovchi sifatida esa ma'lum fe'l formalari (-ga va –moqchi formalari) doirasi bilan chegaralanadi.

Yo`q yordamchisi. Inkor ifodalovchi yo`q yordamchisi faqat –gan va –yotgan yordamida yasaluvchi o`tgan va hozirgi zamon fe'llarining inkor formasini hosil qilish uchungina qo`llanadi: yozgani yo`q, yozayotgani yo`q kabi.

Tilimizda inkor yoki tasdik ma'nosini ifodalashda so`roq bildiruvchi so`z, yuklamalar va ohangning ham roli bor. Yani inkor shaklidan tasdiq, tasdiq formasidan inkor mazmuni anglashilishi mumkin: Qayoqqa ketasiz, ... Sizni bu erdan ketkizarmidik (P.T.). Bu bosh, ... bevafo dunyoda nimalrani ko`rmadi, deysiz. (tasdiq).

Nazorat savollari

1. Fe'llarning bo`lishli-bo`lishsiz shakllarda ishlatilishini aytib bering.

2. Fe'llarda bo`lishsizlik ma'nosini keltirib chikaruvchi vositalar va ularning turlarini ajrating.

1.

4 reja bayoni

Mayl kategoriyasi harakt bilan sub'ekt orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ko'rsatadi. Bu aloqa va munosabatning shakllari turlicha bo'lganligi uchun maylning ham bir necha turi mavjud bo'lib, ularga xos ma'nolar maxsus formalar orqali yuzaga chiqadi. Hozirgi o'zbek tilida maylning quyidagi turlari bor:

Buyruk-istak mayli;

Shart mayli;

Shartli mayli;

Maqsad mayli;

Ijro mayli.

Buyruk-istak mayli. Buyruk-istak maylidagi fe'l quyidagicha tuslanadi:

Birlik	Ko'plik
1. Yozay, ishlay	1. Yozaylik, ishlaylik
2. yoz(gin), isha(gin)	2. Yozing, ishlang, ishlangiz
3. yozsin,ishlasin	3. Yozsin(lar), ishlasin(lar) yozishsin, ishlashsin

Bu mayldagi fe'l shaklidan so'zlovchining istagi bilan bog'liq xoldagi harakatga undash, shu harakatga davat etish, o'zgatish kabi ma'no ifodalanadi. Harakat bajaruvchisining qaysi shaxs ekani va boshqa jihatlar bir qator o'ziga xos ma'nolarni keltirib chiqaradi: sof istak yoki buyruq ma'nosini, shuningdek, boshqa ma'nolarni konkretlashtiradi.

Birinci shaxs birligining –(a) y, -(a) yil formalari:

So'zlovchining harakatni bararish istagi, harakatga bo'lgan rag'bat ifodalanadi: quloq sol, chiroq, ota bobomizdan qolgan bir ilm bor, aytay. (S.An.).siz shiyponga borib bir zum dam oling. Men mana bu kitoblarni qizlarga etkazay. (S.Z.).

O'zgaga bo'lgan murojatda istak bilan birga iltimos ham ifodalanadi: Siz bilan boray. Bir gapim bor, aytay kabi.

Birinci shaxs formasi o'zgaga qarata so'zlangan xollarda buyruk, duk ham ifodalanishi mumkin: bu shaharda boshqa korangni kurmay.

Birinci shaxs formasi so'roq gap kesimi vazifasida kelganda, so'zlovchining shu harakat bajarilishi haqida so'roq bilan murojaat qilish ma'nosi anglashiladi: qachon boray?, kimga beray? kabi.

Birinci shaxsning ko'pligi –(a) ylik, ba'zan –ylik affiksi vositasida ifodalanadi: boraylik, uxlaylik kabi.

Birinci shaxsning ko'pligi faqat istakni emas, harakatga davat, iltios kabi ma'nolarni ham ifodalaydi: Quadratning ishini ohiriga etkazaylik! (N.S.).

Buyruq suhbatdoshga qaratilganligi sababli haqiqiy buyruk ma'nosi ikkinchi shaxs formasi orqali ifodalanadi. Chunki bunday gaplarda nutq qaratilgan shaxsning o'zi qatnashadi: ayt, o'qi, yoz kabi. Lekin bu formada hamma vaqt ham buyruq ifodalanavermaydi. Bu formada kelgan fe'llarda ham harakatga davat etish, undash asosiy o'rinda bo'ladi. Bu forma sof buyruqni, do'q qilishni, iltimosni, xatto yalinish kabi ma'no munosabatlarni ifodalashi mumkin. M: Siz shu tongdayoq yaylovga jo'nang. Salim qoriga ayting, fermada hisob-kitobni to'g'rilab qo'ysin. (X.G.). Yo'qoling, dedim! Ko'zimga ko'rinmang, abrax odam...(A.S.). Buni ko'p sog'intirma bolam.(P.K.).

Bu maylning –gin affiksi bilan yasaluvchi shakllari iltimos(jon uka, kuldirmagin), yalinish (bo'ldi kilgin) kabi ma'nolarni, -sin affiksi bilan yasalgan shakllari 111 shaxs formasida kelganda istak, iltimosni (M: Raisdan suramokchiman, kmida ikki yuz xasharchi bersin.) (K.G.).

111 shaxsda harakatga undash, buyruq ma'noalri 11 shaxs (tinglovchi) orqali ifodalanadi: Korxonalar bilan, odamlar bilan yaxshi tanishsin, keyin menga uchrashsin.(K.G.)

111 shaxsning sof buyruq uchun qo'llanishi asosan mashg'ul daraja formasida uchraydi: Granatalar tayyorlansin! Tuyaning dumiga bog'lab sazoi qilinsin. (As.M.).

Xullas buyruq-istak maylining uchchala shaxs formasida ham istak, iltimos, harakatga undash ma'nolari ifodalanadi. Sof ma'nodagi buyruq asosan ikkinchi shaxs formasi uchun xosdir. Buyruq-istak mayli formasining yana boshqa bir qator grammatik ma'no va modal ottenkalar ifodalash xususiyati borki, bo'lar: so'roq, taxmin, o'ylash kabi ma'nolarni ifodalovchi vositalar

bilan kelganda yuzaga chiqadi: ertaga kelaymi, ertaga kelsinmi, ertaga kelsinmikan kabi qo`llanishlar ko`p uchraydi.

Shart mayli. Shart mayli formasi –sa affiksi va shaxs-son qo`shimchalarining qo`shilishidan hosil bo`ladi: 1 – borsam, borsak; 11-borsang, borsangiz(borsanglar, borsangizlar, borsalaringiz); 111 – borsa, borsalar yoki borishsa. Bu forma quyidagi ma'nolarni ifodalash uchun qo`llanadi:

Biror harakatning bajarilishi uchun shart bo`lgan harakat ma'nosini ifodalaydi: Mana bu kanal bitsa, ya'ni er ochilsa, paxta ham ko`payadi. (A.K.). Xuddi shu ma'no –ganda formasi bilan ham ifodalanadi: Men qishloqda turganimda, mashinani o`rganib oldim. (X.N.). Bunday kunga erishganimizni otamiz ko`rganda, qanday quvonar edi...

Payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, payt ma'nosini ifodalaydi: Ertalab derazadan qarasam, hamma yoq oppoq... (O.).-sa qo`shimchasi hozirgi zamon ko`rsatkichi –yot bilan qo`llansa, (kelayotsa, ishlayotsa kabi) doim payt ma'nosi ifodalanadi. M: Bir kunda ko`chada ketayotsa, Qumri bir bosh uzum ko`tarib kelayoyapdi. (A.K.). Shart ma'nosi yuzaga kelishi uchun, albatta bo`l yordamchi fe'li qo`llanadi: Qiyoslang: borayotsa(payt) –borayotgan bo`lsa (shart) , ishlayotsa(payt) – ishlayotgan bo`lsa(shart).

Istak ma'nosini bildirib, sodda gapning kesimi yoki qo`shma gap tarkibidagi bosh gapning kesimi vazifasida qo`llanadi: Sizning eshigingizdan kirsam, beodoblik bo`lsa-da, oynadan qarasam. Sekin po`stini archsang, og`zingga solib, tiling bilan tanglayingga bossang –u, suvini qult-qult yutsang. (A.Q.).

Iltimos, maslaxat ma'nolari ifodalanadi. (Bunday xollarda ham istak ma'nosi saklanib koladi, lekin istikka nisbatan maslaxat, iltimos asosiy o`rinda turadi: Agar bemalol bo`lsa, o`sha kishini chaqirib bersangiz). (B.R.).

Sabab va sababga yaqin ma'nolarni ifodalaydi, sodda va qo`shma gaplarda ishlatiladi: qaerdan bilmay, men boshqa erda ishlasam. (gazetadan). Sabab ma'nosi –gan, -kan, -r, -ena formalari yordamida ham ifodalanadi: Kechani – kecha, kunduzni-kunduz demay, ter to`kar ekanmiz, turmushimiz ham faravon bo`luvi shart. (Sh.R.).

Harakatning bajarilishi yoki bajarilmasligi manfaatiga (istakka) zidligi ma'nosi ifodalanadi: Yo`q deb aytsam, ishonmasanglar.(N.Ism.). Nima kilay, Niyoz aka. Kulib-kulolmasam, yig`lab-yig`lolmasam. (B.R.).

–sa affiksli fe'l ham yoki –da yuklamasi bilan qo`llanganda to`siqsizlik ma'nosini bildirib, to`siqsiz ergash gapning kesimi vazifasida keladi: Sho`rlilik qilsalar ham, Juda to`ydirib sug`oryapdilar.(O.).

Gumon, gumonga yaqin ma'no ifodalanadi: Ehtimol, kelib qolsa-Ehtimol kelib qolar.Ehtimol, kelgan bo`lsa-ehtimol, kelgandir.

–chi yuklamasi bilan qo`llanganda, buyruq-istak ma'nolari ifodalanadi: Bu yoqqa kelsangiz-chi, quda, biroz chaq-chaqlashaylik.(A.K.).

Qiyoslash, o`rin, maqsadni anglatib, qo`shma gaplarda ergash gapni bosh gapga boglashga xizmat qiladi: qaerdan o`t ochilsa, o`sha tomonga granata yog`dirildi.(N.S.).

–sa affiksi fe'l –ch yuklamasi yoki qani (qani endi) so`zi bilan birikib, inkor ma'nosini ifodalaydi: Qani endi bu maslaxatga ko`nsa! ... Qani endi. Yurt kani parvoiga kelsa-chi. (N.I.).

–sa affiksi fe'l bir necha turdagi analitik formaning yasalishida qatnashadi: Kunsu kerak, olsa kerak, olsa bo`ladi, olmasang bo`lmaydi, ketsa-ketsin, olsa-olsin kabi. Bu analitik formalarning ma'nosi etakchi va ko`makchi (qismlarning) so`zning ma'nolari yig`indisidan kelib chiqadi.

Shartli mayl. Shartli mayl formasi –(a) r affiksli sifatdosh va «edi» tulksiz fe'lining birikuvidan hosil bo`ladi: ishlar edi, kelar edi, so`zlar edi kabi. Bu mayl bajarilish – bajarilmasligi biror shart bilan bog`langan harakatni ifodalaydi: Meni invalidlar uyiga oborib bera qolsangiz, shunchalik qiynalmas edingiz.(S.A.).

Shart mayli bilan shartli mayl ifodalagan ma'noni farqlash lozim. Misralarga murojaat qilamiz: ertaroq kelsa, kinoga borar edik va ertaroq kelsa, kinoga boramiz gaplarining ikkalasida ham bosh gapdagi harakatning yuzaga kelishi ergash gapdagi harakatining ruyobga chiqishiga bog`liq. Lekin ertaork kelsa, kinoga boramiz gapida shart borligi ma'nosi bevosita shart mayli formasi orqali ifodalanadi, boramiz fe'lining o`zi shunday shart borligini ko`rsata olmaydi. Ikkinchi gapdagi «borar edik» formasi esa shart mayli formasi kullanmasa ham, harakatning bajarilishi biror shart bilan bog`langanligini ifodalay oladi.

Shart mayli formasining bo'lishsiz shakli qo'llanganda mantiqan harakatning bajarilanligi ma'nosi kelib chiqadi.(inkorni inkor etish bilan tasdiq ma'nosi kelib chiqadi): Agar siz yaxshi odam bo'lsangiz, uydagi sirni ko'chaga chiqarmasdingiz.(Z.F.).

Maqsad mayli. Maqsad mayli –moqchi affiksi yordamida yasalib, u sub'ektni harakatni bajarish maqsadida, niyatini, mo'ljali bildiradi: bormoqchiman, bormoqchisan, bormoqchi; bormoqchimiz, bormoqchisiz, bormoqchi(lar).

Maqsad maylidagi fe'l mo'ljali ma'nosini bildirib, zamon ma'nosiga daxli bo'lmaydi. Bu forma zamoni ko'rsatuvchi birorta vosita bilan qo'llanmaganda u bildirgan maqsad hozirgi vaqtga oid bo'ladi.Qiyoslang: U... shum xabarni hech o'ylamayapdi, yoki bu gapning menga sira dahli yo'q deb ko'rsatmoqchi. (A.M.).

–moqchi affiksli fe'l «edi» to'liqsiz fe'li bilan qo'llanganda ham, «bo'l» fe'lining o'tgan va hozirgi zamon formalari bilan qo'llanganda ham harakatning emas, balki maqsad (niyat)ning hozirgi yoki o'tgan zamonga oidligi ifodalanadi: Domlaning er olgani rost, buni Saidiga bildirmoqchi ham emas edi. (A.Q.).

Ijro mayli. Ijro mayli harakat-holatni uning bajarilish vaqti bilan bog'liq xolda ifodalaydi. Bu mayldagi fe'l harakatning bajarilishi tushunchasini ifodalaydi. Shu sababli bu mayldagi fe'l albatta biror zamon formasida bo'ladi: keldi, kelyapdi, keladi.

Bu maylning maxsus grammatik ko'rsatgichi yo'q. U fe'lga zamon va shaxs-son qo'shimchalarini qo'shilishi orqali shakllanadi. Bu mayldagi fe'lning asosiy sintaktik vazifasi gapda kesim bo'lib kelishdir.

Nazorat savollari

1. Hozirgi o'zbek tilida fe'lning mayl kategoriyasining semantik va grammatik kategoriyasini aytib bering.
2. Ma'no ifodalash xususiyatlariga ko'ra mayl turlari va ularni yasovchi vositalarni aytib bering.
3. Buyruk-istak maylidagi fe'llarning hosil bo'lishini misollar bilan tushuntiring.
4. Shart va shartli maylidagi fe'llar ma'nosidagi farqni aytib bering.

5 – savol bayoni:

Fe'lning zamon kategoriyasi. Harakatning nutq momentiga munosabatini ko'rsatuvchi kategoriya zamon kateoriyasi deyiladi. Harakat bajarilish vaqtining nutq momentiga munosabatiga qarab fe'lning uch zamoni farqlanadi: 1). Nutq momentiga bo'lgan harakat-o'tgan zamon; 2). Nutq momentida davom etayotgan harakat-xozigi zamon; 3). Nutq momentidan keyin bo'ladigan harakat-kelasi zamon.

Zamon ma'nosi ikki xil ifodalanishi mumkin: 1). Sinteti yo'l bilan fe'lning o'z formasi orqali ifodalash: bordim, boraman kabi; 2). Analitik yo'l bilan ifodalash to'liqsiz fe'l, ko'makchi fe'l yordami bilan: borar edi, kelar bo'ldim kabi.

O'tgan zamon.

O'tgan zamon fe'li harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan-bajarilmaganligini ifodalaydi. O'tgan zamon fe'lini bir necha formalari bo'lib, ular o'zlariga xos ma'no va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi. Shunday qilib, o'tgan zamon fe'li quyidagi formalar yordamida yasaladi.

–di affiksi yordamida yasaluvchi fe'l formalari: yozdim, yozding, yozdi.

–gan affiksi yordamida yasaluvchi formalar: yozganman, yozgansan, yozgan.

–i(b) affiksi ravishdoshni shaxs-son bilan tushlash orqali: yozibman, yozibsan, yozibdi.

–gan(yotgan), –i(b), –ar formalariga edi to'liqsiz fe'lini qo'shish yordamida hosil kilinuvchi formalari: yozgan edim, yozgan eding, yozgan edi.

O'tgan zamon fe'l formalarida –guvchi edi shakli ogzaki va yozma nutqda kam ishlatiladi. Hozirgi zamon.

Hozirgi zamon fe'li harakatning nutq so'zlanib turgan paytida sodir bo'layotganini yoki bulmayotganini ifodalaydi. Hozirgi zamon fe'lining sinteti formasi quyidagi affikslar yordamida yasaladi: –yap, –yotir, –yotib, –mokda kabi. Analitik formasi esa yot, tur, utir, yur ko'makchi fe'llari yordamida yasaladi: yozib yotibdi, yozib turibdi, yozib utiribdi, yozib yuribdi kabi.

Kelasi zamon.

Harakatning nutq momentidan keyin bajarilish-bajarmasligini bildirgan fe'llar kelasi zamon fe'llari deyiladi. Kelasi zamon fe'llari sinteti yo'l bilan quyidagi forma yasovchilar yordamida hosil qilinadi: 1.-ajak, -yajak affiksi va tegishli shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish bilan: borajakman, o'qiyajakman. 2. –moqchi affiksi va tegishli shaxs-son formalarini qo'shish orqali: kirmoqchiman, o'qimoqchiman. 3. –r, -ar bilan yasalgan sifatdoshlarga tegishli shaxs-son qo'shimchalari qo'shish bilan: kelarman, o'qirman, kelmasman. 4. –a, -y bilan yasalgan ravishdoshlarga –digan sifatdosh yasovchi qo'shimchani qo'shish bilan: keladiganman, ishlaydiganman. 5. –a, -y bilan yasalgan ravishdoshlarga tegishli shaxs-son qo'shimchalari qo'shish bilan: boraman, o'qiyman.

Bu tip fe'llar kelsi zamoni boshqa formalariga nisbatan ma'no jihatdan turiligi, zamon jihatdan umumiyliigi bilan ajralib turadi:

Hozirgi zamon ma'nosini bildiradi: Onam fabrikada ishlaydi.

Kelasi zamon ma'nosini bildiradi: Bu kitobni Karim oladi.

Umumzamon ma'nosini bildiradi: Balik suvda yashaydi.

Nazorat savollari

1. Fe'l so'zlar ifodalangan zamon grammatik zamon tushunchasi va uning uch zamonga bo'linishini aytib bering.
2. O'tgan zamon fe'llarini yasovchi qo'shimchalar, ularning ma'nolari va har bir shaklining qanday atalishini tushuntiring.
3. Xozir zamon fe'llarini yasovchi vositalar, ularning ma'nolari va har bir shaklning qanday atalishini tushuntirib bering.
4. Kelasi zamon fe'llarini yasovchi vositalar, ularning ma'nolari va atalishini so'zlab bering.

6 – reja bayoni

Fe'ning ma'lum bir vazifa uchun xoslangan formalari funktsional formalar deyiladi, ya'ni fe'ning ot, sifat va ravishga xos vazifada qo'llanish uchun xoslangan formalar. Bular uchta: harakat nomi, sifatdosh va ravishdosh.

Harakat nomi. Harakat nomi harakat va holatning nomini bildiradi. Harakat nomi fe'ning otga qarab siljigan formasi bo'lganligidan, u, tabiiy, ham fe'llik, ham otlik xususiyatlariga ega. Harakat nomining fe'llik xususiyatlari: mazmunan harakat bildiradi, daraja kategoriyasiga ega, boshqa fe'l formalari kabi kelishiklarni boshqarib kela oladi.

Otlik xususiyatlari: 1. Egalik, kelishik affiksini olib turlanadi; 2. Gapda ot bajargan vazifalarni bajaradi.

Harakat nomi quyidagicha yasaladi:

Fe'l negiziga –i(sh) affiksi qo'shish bilan: kelish, yozish, borish.

Fe'l negiziga –u(v) affiksini kushmish bilan: keluv, boruv.

Fe'l negiziga –moq affiksini qo'shish bilan: kelmok, bormok, ishlamok.

Sifatdosh.

Sifatdosh ham fe'llik, ham sifatlik belgilariga ega bo'lgan fe'l formasidir. Haraktni asosan predmetlarni belgisi, xususiyati qilib ko'rsatadigan fe'ning funktsional formasiga sifatdosh deyiladi. Sifatdoshning fe'llik xususiyatlari quyidagilar:

Mazmunan harakat bildiradi.

Zamon, daraja, bo'lishli bo'lishsizlik ma'nolarini ifodalaydi.

Boshqa so'zlarni boshqarib kela oladi.

Sifatlik belgilari: 1. Leksik xususiyati jihatidan belgi bildiradi; 2. Gapda aniqlovchi bo'lib keladi.

Sifatdosh asosan quyidagi affikslar bilan yasaladi: -gan (-kan, -kan): kelgan, ekan, chikkan; -digan, -etgan: keladigan, o'qiyotgan; -r(-ar): okar; -ajak: bo'lajak, kelajak.

Ravishdosh.

Gapda fe'l va ravish kabi semantik grammatik xususiyatlarga ega bo'lgan fe'ning funktsional formalaridan biriga ravishdosh deyiladi: o'qib, yozib, ayta, kula kabi. Ravishdoshning fe'llik belgilari quyidagilar: 1) harakat tushunchasini anglatadi; 2) daraja, bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nolarini ifodalaydi; 3) boshqa so'zlarni boshqarib kela oladi; 4) qo'shma fe'l sostavida etakchi komponent bo'lib keladi.

Ravishlik belgilari: 1) fe'lga bog`lanib harakatni ikkinchi bir harakatning belgisi sifatida anglatadi; 2) gapda xol bo`lib keladi; 3) sifatlik belgisi ham mavjud. Ya'ni sifatlar kabi –rok, -gina affikslari bilan ham qo`llanadi.

Ravishdosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

i(b): uylab, so`zlab

a, -y affiksi orqali: kula, ushlay

Bu formal ravishdoshlar shaxs-son bilan tuslanib, hozirgi-kelasi zamon fe'lini yasash uchun xizmat qiladi: kelaman, keladi, o`qiyman, o`qiysan kabi.

-gach(-kach, kach) affiksi: kelgach, ekkach, chikkach kabi. Bo`lishsiz formasi –ma bilan yasaladi: ochilavermagach, chikavermagach .

-guncha(-kuncha, -kuncha): affiksi bilan: borguncha, ekkuncha, chikkuncha kabi.

-gani(-kani, -kani) affiksi bilan: olgani, ekkani, bokkani

Nazorat (topshiriqlari):

1.-topshiriq:Fe'lning funktsional formalarini toping.Ularni asosiy xususiyatlariga ko`ra guruhlariga ajrating.

1.Podshoning marhamatidan bahramand bo`lmoq ,ajdarning og`zidan taom emog bilan barobardir.

2.Ko`zim chiksin seni kurguncha mundok,Kesilsin til seni surguncha mundok.

3.Agar istar esa boshimni olsun, Tapnamni burdalab, utlarga solsun.

4.San'at osmonida nur sochuvchi ulug` yulduzga aslo zavol yo`q!(Uygun va I.Sulton.)

5.Bir necha qiz raqsga tushib ketdi.

-topshiriq.Matindagi harakat nomi,sifatdosh va ravishdoshlarni topib,ularning qanday affiks bilan yasalganligini guruhlariga ajrating va shu formaning ma'nosini aniqlang.

1.O`qish-tafakkur va aqliy kamolat manbalaridan biri.(V.A.S)

3.Ishning o`zini bilguncha ,ko`zini bil.(maqol)

4.Kim buyuk maqsadga intilsa o`zini o`ylamasligi zarur.(I.S.Tur)

5.Kishi badan tarbiya qilgan singari aql va xarakterini ham mashq orqali toblashi mumkin.(D.I.P)

6.Yaxshi kitob ko`tarib olgan odam hech qachon yolg`iz emas.(K.G)

7.Nodonlar davrasida o`tirgandan ko`ra kitobdan taskin topgan afzal.(P.Buay)

9.Odamni yo`lga soladigan va yo`ldan ozdiradigan kitoblar bor,shuning uchun kitob tanlay bilish nihoyatda muhimdir.(N.K.K.)

Mavzu: Ravish. Ravishning semantik -grammatik xususiyatlari. Ravishlarda daraja.

Reja:

1.Ravish haqida umumiy tushuncha.

2.Ravishning ma'no turlari.

3.Ravishlarning darajalanishi.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar.

Ravish o`zgarmasligi, sabab ravishlari, tarz ravishlari, maqsad ravishlari, payt ravishlari, ravishlarda forma yasalishi, o`rin ravishlari, miqdor ravishlari, ravish bo`lib kotish, daraja ravishlari.

1-savol bayoni.

Ravish harakat, holat belgisini bildiruvchi so`z turkumidir. Shu xususiyatga ko`ra ravish turkumiga oid so`zlar asosan fe'lga bog`lanib keladi.

Ravishlar fe'l bildirgan harakat-holatni bajarish tarzi, payti, o`rni, maqsadi va shu kabilarni bildiradi. Bektemir ayrilgisi kelmay, soldatlarcha qadam otib ketayotgan kizga ergashdi. (O). Yana toyib-poyib ketmasin deb, ehtiyotdan oyog`i tagiga g`ish tirab ham qo`ydi. (Sh.Sa'dulla).Ertasi ertalab hokimxonaga borishga karor berdilar. (Sh.S.). Olisdan tungi smenadagi ekskavatir va o`zga mashinalarning qudratli narasi baralla eshitilar edi.(O.).

Ravish turkumiga oid ayrim soʻzlar sifat yoki otga bogʻlanib kelishi mumkin. Lekin bunday xollarda ravish belgining belgisini yoki predmetning belgisini emas, oʻzi bogʻlanib kelgan sifat yoki otdan anglashilgan harakat – holatning belgisini bildiradi: kecha xavo juda sovuk edi. (Sh.S.) Uning muomilasi hamisha shunday. Biz mustaqillikning batamom va oʻzil-kesil tantanasiga kattik ishonamiz.(X.)

Eslatma: sifat yoki ravishlar bilan qoʻllanib belgining kuchli yoki kuchsiz darajasini bildiruvchi juda, eng, kok, lang, girt, goyat, sal kabi soʻzlar ravish hisoblanmaydi, chunki ravishlar mustaqil ma'noli leksik birliklardir. Keltirilgan soʻzlar esa leksik ma'noga ega emas, ular belgining turli darajasini koʻrsatish uchun xizmat qiladi.

Ravishlar mustaqil soʻz turkumi sifatida, oʻziga xos morfologik belgilarga ega. Bunday belgilardan biri ravishlarning oʻzgarmasligidir: ravishlar biror soʻzga bogʻlanganda formasi oʻzgarmaydi. Ular tarkibida uchraydigan koʻplik, egalik va kelishik affikslari ham forma yasovchi sifatida qatnashmaydi. Bu affikslar ravishning oʻzak qismiga kiradi, ya'ni shu affiks bilangina u ravish hisoblanadi yoki bu affiks forma yasovchilardan boshqa vazifada qatnashadi: birdan, birga, kunda, chalkanchasiga, birdaniga, yonlamasi(ga), qatorasi(ga) kabi ravishlardagi kelishik va egalik affikslari oʻz asl ma'no va vazifasini yoʻqotgan. Bu soʻzlar xuddi shu koʻrinishda ravishga aylangan: Azimjon ham qarindoshini boshqacha tasavvur etgani uchun, xozir uni kurib birdan gap topolmadi. (As.M.). Yangi shpindel nusxasidan uchta yasadik... Yakinda sinab koʻramiz.(M.K.). Avvalari, ilarilari kabi ravishlar tarkibidagi –lar va –i koʻplik va egalik ifodalovchi affikslar emas. Bunda –lar affiksi ilgariga oid noaniq, davomli vaqtni koʻrsatsa, -i affiksi egalik ifodalash (shaxs koʻrsatish) xususiyatini butunlay yoʻqotgan: Okshomlari latifalar aytib ruslarni kuldirardi. (O.).

Nazorat savollari

1. Ravish soʻzlarning harakat va holat belgisini bildiruvchi soʻz turkumi ekanligini tushuntirib bering.
2. Ravish soʻzlar predmet va belgining belgisini bildiruvchi soʻzlar bilan bogʻlanib kelishini, lekin oʻzgarmasligini aytib bering.
3. Ravishlarning mustaqil soʻz turkumi sanaladigan morfologik belgilarini tushuntirib bering.

2-savol bayoni : ravish soʻzlarning ma'no turlari.

Ravishlar ma'no jihatidan toʻrt guruhga boʻlinadi: holat ravishi, miqdor daraja ravishi, oʻrin ravishi, payt ravishi.

Holat ravishi. Holat ravishlari ish-harakatning qay tarzda bajarilishini koʻrsatadi va qanday?, qanday qilib?, qay tarzda? kabi soʻroqlarga javob boʻladi: tez, sekin, piyoda, yayov, bekorga, toʻsatdan, qoʻqqisdan, astoydil, doʻstona, qahramonlarcha, ochiqdan-ochiq, yuzma-yuz, zoʻrga kabilar. Masalan: Moskvadan yoʻl olgan poezd sharqqa tomon tobora yaqinlashib kelmoqda.(G.). Vodiylarni yayov kechganda, Bir ajib xis bor edi menda.

Holat ravishlari harakatning qay tarzda bajarilishini, uni boshqa predmet, hodisa va protseslarga oʻxshatib, qiyos etib ham anglatadi: Lolaning katta-katta koʻzlari oʻtday chaqnaydi. (R.). Gulchehra atlas koʻylagini olovday yondirib, daraxtlar orasidan goʻyo oʻyinga tushmoqchiday, engil, nozik yoʻrgalar... (O.).

Holat ravishi gapda :

Ravish holi vazifasida keladi: Ishni yigitchasiga tashkil qilamiz.(O.). Kunduzlari quyosh saratondagiday qizdirib turdi. (M.I.).

Gapning ot bilan ifodalangan boʻlaklariga bogʻlanib, aniqlovchi vazifasida keladi: salqin shabadasi kelib olqishlar bizning gʻolibona bayrogʻimizni. (A.M.).

Gapning kesimi vazifasida keladi: Kuch etmaganligi toʻgʻrisida ogiz koʻpirtirish oson. (Sh.R.).

Miqdor – daraja ravishi. Miqdor-daraja ravishi harakat va holatning miqdor belgisini yoki belgining ortiqligini bildirishga xizmat qiladi va qancha? , qanday? soʻroqlarga javob boʻladi. Hozir shu boʻlimingizga mumkin qadar tezroq va koʻproq odam tanlashni oʻylang. (V.A.). Oʻktamning qovini qizga juda yoqdi, ikki tilikni maqtay-maqtay edi. (O.).

Miqdor – daraja ravishlari anglatgan ma'nosiga qarab harakatning miqdor jihatidan belgisini koʻrsatuvchi va harakat yoki belgining ortiqligini koʻrsatuvchi ravishlarga boʻlinadi: koʻp, moʻl, ancha, kam, biroz, picha, xiyla, sal, sal-pal kabilar. Masalan: Uning yuragi siqilganday tuyuldi,

salgina jahli chiqdi. (Sh.R.). Ozigina tuproqni til uchi bilan yalab ko`rdida, tupurdi. Bahorda paxtakor uchun vaqt oz, mehnat esa cheksiz mo`l. (O.).

Harakt yoki belgining ortiqqligini ko`rsatuvchi ravishlar: juda, eng, g`oyat, nihoyat, yana, tag`in, o`ta kabilar. Masalan: Olimjon qarddon erlarini ancha oylar kurmay o`ta sog`ingan edi. (Sh.R.). –Erni obdon pishitish kerak, -takidladi Mirxaydar.(O.).

Miqdor-daraja ravishlari gapda asosan ravish holi va kesim vazifasida keladi: Sharofatbibi ro`molini salgina to`zitib, so`ri tomon asta yurib bordi. (O.). Siz ham qo`shichma oziqni ko`proq bersangiz, hosilingiz mo`l bo`ladi. (Sh.R.). Ota salgina burilib, qizini ko`rdi va mehribonlik bilan salomlashdi. (Sh.R.). Afsuski, bunaka odamlar kam. (V.A.). Qatrtol soyining suvi hamisha oz.

Ba'zan otlarga bog`lanib aniqlovchi vazifasida ham keladi.

Yangi er ochishni harajati oz, daromadi ko`p qo`rik va bo`z erlardan boshlash kerak. (Sh.R.). Ular ancha ergacha asta borib, gaplashib ketdilar. (O.).

O`rin ravishi. O`rin ravishi harakat yoki holatning bajarilish o`rnini yo predmet harakatining yo`nalish tomonini bildiradi. O`rin ravishlari qaerga?, qaerdan?, qaergacha? so`roqlariga javob bo`la oladi: uzoqda, chapda, ungda, pastda, tubanda, oldinda, unda-bunda, shu erda, bu erda, u erda, quyidan, yuqoridan, u yoqdan, yaqindan, orqadan, to`g`riga, to`g`ridan kabilar. Masalan: Murodali ikki ko`zani ko`tarib, yuqoriga qaradi.(Sh.R.). Olisdan tungi smenadagi ekskovator va o`zga mashinalarning qudratli narasi baralla eshitilar edi. (O.). go`yulomjon orqadan qarab qoldi, ammo qiz uzoq ketmadi. (Sh.R.).

O`rin ravishlari gapda o`rin holi bo`lib keladi: har yondan ariklarning jonli jonli nayi okar, nozik nixol daraxtlarning ko`k qatorlari o`zoklardan tevarakni kurshagan edi. (O.). Galya xayolan uzoqlarga qarab gapida davom etdi. (O.).

O`rin ravishi ba'zan gapning kesimi vazifasida ham keladi: Kolxoz paxta dalalari qatortoldan ancha uzoqda.(Sh.R.). Obodonchilik sohasidagi katta ishlar oldinda.(O.).

Payt ravishi. Payt ravishi harakat yoki holatning bajarilish vaqtini, paytini bildirishga xizmat qiladi va qachon?, qachongacha?, qachondan?, qachondan beri? kabi so`roqlarga javob bo`ladi: xozir, boya, bugun, kecha, avval, oldin, endi, erta, indin, kech, so`ng, keyin, dastlab, saharlab, ertalab, doim, kundan-kunga, bugun-erta, erta-indin, erta-kech, xali-beri kabilar. Misollar: U erta-kech o`zini-o`zi koyidi, o`zini soddaligi, ishonuvchanligidan achchiqlandi. (O.). So`rab ko`ring avval siz. Men xozircha panarokda tura-turay.(I.). Ziyofat va keldi-ketdi kechasi alla – pallagacha davom etdi. (O.). Agar u har kuni ertalab, kechqurun soyga tushmaganda edi, ... o`rik allaqachon xazon bo`ladi. (Sh.R.). Yoshlar uning ko`zida yosh, yuzida onalarcha, mehribon, nuroniy jilmayishini endi ko`rishdi. (A.M.). To`rt tomoni osmon bilan o`ralgan vodiy kundan-kunga xusni ortgan oydek tuyuladi. (X.O.).

Payt ravishlari ko`pincha payt holi, ba'zan kesim vazifasida keladi: u peshona teri to`qilgan bu ekinzorga tikilganda, hamisha jim qolardi, dili iftixor bilan to`lardi. Bu yozma doklad oldiniga idorada, so`ngra boshqarmada muhokama qilindi. (Sh.R.). Do`stona oilaning uchchala a'zosi ham – Umirzoq ota ham, Oyqiz va Olimjon ham hamisha ishdan kech qaytardilar. (Sh.R.). Bugun sening tug`ilgan kuning, bugun uying to`ladi gulga. (X.O.).

Nazorat savollari

1. Ravishlarni ma'no guruhlariga ajrating.
2. Holat va payt ravishlari ularning so`roqlarini, gapdagi vazifalarini aytib va tushuntirib bering.
3. O`rin va daraja miqdor ravishlarini gapirib bering.

3 – savol bayoni

Ravish o`ziga xos grammatik xususiyatlarga ega:

1) ravish boshqa so`z bilan bog`lanib kelganda morfologik jihatdan o`zgarmaydi (so`z o`zgartiruvchi affikslarni olmaydi). Lekin ma`lum kelishik yoki egalik kelishik shaklida (qotib qolgan holda) ravishga ko`chgan so`zlar mavjud: kunda, yiliga, kunduzi, chindan, rostdan, yaqinda, birdan, birga kabi.

2) ravish belgi bildiruvchi so`z bo`lgani uchun sifat kabi belgini (harakatning belgisini) darajalab, chog`ishtirib ko`rsatish xususiyatiga ega. Biroq ravishlarda daraja anglatish sifatlardagi kabi taraqqiy qilgan emas. Ravish ham uch daraja ko`rinishiga ega: oddiy daraja, qiyosiy daraja,

orttirma daraja. Daraja ma'nosi sifat darajalaridagi vositalarning o'zi bilan ifodalanadi. Belgini darajalab ifodalash, asosan, holat ravishlari (ayrim payt va miqdor)ga xos.

Oddiy daraja. Oddiy darajada ravish ish-harakat belgining normal holatda (chog'ishtirilmagan holatda) ekanligini bildiradi va o'ziga xos morfologik ko'rsatkichga emas: Usmonjon gunoxkorona jilmaydi (S.Z.).

Qiyosiy daraja. Qiyosiy darajadagi ravish harakat belgisining boshqa belgi bilan chog'ishtirish orqali belgining kamligi, kuchsizligi, ko'pligi, ya'ni kuchaytirish ma'nosini ko'rsatadi va ravishlarga -roq affiksini qo'shish bilan hosil qilinadi: astaroq, ozroq, barvaqtroq, keyinroq kabi: Zaynab ilgariroq, Kumush keyinroq ichkariga kirishdi (A.Qodiriy). Ba'zan qiyosiy darajadagi ravishdan oldin sal, yana, tobora kabi ravishlar keladi. Bunday holda kuchaytiruv va kuchsizlantiruv ekspressiv yo'l bilan yanada orttirilgan bo'ladi: Sal burunroq o'tkazilsa, ancha bo'y bergan bo'ladi (SH.Rashidov).

Orttirma daraja esa ravishdan oldin juda, nihoyatda, eng, hammadan kabi so'zlarni keltirish bilan hosil qilinadi va harakat belgisining normal holatdan o'ta ortiqligini, kuchaytirilganligini ifodalaydi: Bu yurtda eng avval senda tong otar, Eng keyin tark etar seni quyoshing (E.Vohidov). Imon bilan amal bir-biriga juda yaqindir. Ular bir-birisiz durust emas (Hadisidan).

3) ravishning fe'lga bog'lanib, gapda ko'pincha hol vazifasida kelishi, uning asosiy grammatik xususiyatlaridan biri sanaladi: Ogahiy yaratgan she'riy misralar o'zining serjiloligi bilan kishilarni hamon o'ziga rom qilib kelmoqda (Kaykovus).

4) ravish sifat va ravishga, ba'zan otga bog'lanib kelib, belgini belgisini bildiradi, gapda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasi bajaradi: Tog' day og'ir bilak berdim... (H.O.).

Ba'zi ravishlar otga ham bog'lanib, uning belgisini ko'rsatadi va sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildirgan sifatlar ravish so'z turkumiga o'tib ketmagani kabi, otga bog'langan ravishlar ham sifat turkumiga o'tmaydi: U ancha jo'yaklarni oraladi, ancha qovunlarni ushlab, qay birini uzishni bilmadi (O.). Etti qizning onasi haligacha kelinchak (Topishmoq).

5) ravish otlashish xususiyatiga ega, ya'ni ravish bog'lanib kelgan ot gapda qo'llanmasligi mumkin. Bunday holda ravig otga xos egalik, kelishik, ko'plik affikslarini qabul qiladi va gapda ot kabi ega, qaratuvchi-aniqlovchi, to'ldiruvchi vazifalarida keladi: Ko'pni ko'rgan ko'hna dunyoda Baxt axtarib ko'plar o'tdilar (H.O.). Ilm ko'pga etkazar, hunar esa ko'kka (Maqol). Har bir ishimizdan ertaning shabadasi kelib turibdi, o'g'lim (O.).

Ravishlarda otlashish hodisasi, asosan, holat, miqdor belgisini (ba'zan payt belgisi) bildiruvchi ravishlarga xos.

6) ravish gapda hukm tushunchasini anglatib bosh bo'lak ot kesim vazifasida ham keladi: Odam har qancha olim bo'lsa ham, uning o'zi sezmagani kamchiliklari ko'p («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

7) ravish so'z yasaliş xususiyatiga ega. Ravish yasovchi maxsus so'z yasovchi affikslar mavjud: do'stona, yangicha, tasodifan, butunlay kabi. Bunday usul bilan ravish yasaliş morfologik usul sanaladi. Ravish sintaktik usul bilan ham yasaladi: bir oz, har gal, bir yo'la, dam-badam kabi.

8) ravishlarda modal ma'no yasaliş ham mavjud. Bunday shaklda kelgan ravishlar harakat belgisining kuchsizligi, ta'kid, noaniqlik kabi ma'nolar anglatadi. Bu modal ma'no sintetik shakl orqali hosil qilinadi, ya'ni ravishga -roq, -gina (-kina, -qina) affikslarini qo'shish orqali: ko'proq, endigina, sekingina, kechagina kabi hamda ravishlarni aynan takrorlash yo'li bilan hosil qilinadi: asta-asta, tez-tez, sal-pal kabi.

Men ko'proq uni ko'rish niyatida yurar edim, lekin o'ylaganim bo'lmadi (P.Qodirov). Hasanali sekingina daricha ostig'a yotib hujra ichiga quloq soldi (A.Qodiriy). CHiqsak ham Sul-ton amaki bilan chiqardik. Sekin-sekin unga o'rgana boshlagandik (H.Nazir).

Ravishlar ma'no jihatdan olti guruhga bo'linadi: 1) holat ravishi, 2) payt ravishi, 3) o'rin ravishi, 4) miqdor-daraja ravishi, 5) sabab ravishi, 6) maqsad ravishi.

Mavzu: Ravishning yasalishi, tuzilish jihatdan turlari va sintaktik vazifalari.

Reja:

1. Ravishlarning yasalish usullari:
 - a) affiksatsiya usuli bilan yasalishi;
 - b) kompozitsiya usuli bilan yasalishi.
2. Tub, yasama, juft va takroriy ravishlar.
3. Ravishlarning sintaktik vazifalari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar.

Affiksatsiya, kompozitsiya, transpozitsiya, sintetik forma, analitik forma, aralash forma, juft va takroriy, ravishlarda forma yasalishi.

1-savol bayoni.

O'zbek tilida ravishlar, asosan, 2 xil usul, affiksatsiya va kompozitsiya¹ usuli bilan yasaladi.

Affiksatsiya usuli bilan ravish yasashda so'z negiziga maxsus ravish yasovchi affikslarni qo'shish bilan ravish yasaladi. Ravishning bu usul bilan yasalishida ko'pincha ot, ba'zan sifat, son, olmosh, fe'lning sifat-dosh va harakat nomi shakllari, shuningdek ravishning o'zi asos bo'ladi.

Ravish yasovchi affikslar quyidagilar:

-an: taxminan, rasman, tasodifan, majburan kabi. Bu affiks ot, sifat asosidan ravish yasaydi.
-cha: o'zbekcha, yangicha, boshqacha, o'zicha, istagancha, hozircha kabi. Bu affiks ot, sifat, olmosh, sifat-dosh, ravish asosidan ravish yasaydi.

-incha: ko'pincha, aksincha kabi. Bu affiks ravish, sifat asosiga qo'shib ravish yasaydi.

-larcha: o'rtoqlarcha, qarindoshlarcha, aybdorlarcha, vahshiylarcha kabi. Bu affiks ot, sifat asosiga qo'shib ravish yasaydi.

-ligicha: tirikligicha, xomligicha, ozligicha, xo'lligicha kabi. Bu affiks sifat, ravish asosiga qo'shib ravish yasaydi.

-lay: tiriklay, butunlay kabi. Bu affiks sifat va olmosh asosidan ravish yasaydi.

-ona: do'stona, fidokorona, g'olibona, qadimona kabi. Bu affiks ot, sifat, ravish asosidan ravish yasaydi.

-lab: haftalab, yaxshilab, bitalab, ko'plab kabi. Bu affiks ot, sifat, son, ravish asosiga qo'shib ravish yasaydi.

-chasiga: dehqonchasiga, eskichasiga kabi. Bu affiks ot, sifat asosiga qo'shiladi.

-siga: tikkasiga, yappisiga kabi. Bu affiks sifat, olmosh asosiga qo'shib ravish yasaydi.

-n (-in): ertan, kechin, yashirin kabi. Bu affiks ravish, fe'l asosiga qo'shib ravish yasaydi.

-siz, be-: tinimsiz, to'xtovsiz, beto'xtov kabi. Bu affikslar omonim affiks sifatida sifatdan tashqari ot, harakat nomi asosidan ravish yasaydi.

-day (-dek): toshdek, gulday kabi. Bu affikslar ot asosiga qo'shib ravish yasaydi.

Kompozitsiya usuliga ko'ra ikki so'z asosini ma'lum bir qolipda birikishi, tizilishi orqali harakatning bitta belgisini ifodalaydigan ravish yasaladi. Bu usul bilan qo'shma va juft ravishlar yasaladi.

Qo'shma ravish quyidagicha yasaladi:

1) har olmoshi bilan o'rin yoki payt ma'nosini bildiruvchi so'zlarni biriktirish bilan: har vaqt, har lahza, har on, har gal, har yoq, har zamon kabi;

2) ko'rsatish olmoshlariga yon, er, yoq so'zlarini qo'shish bilan: shu er, shu yoqqa, shu yonda, bu erda, bu yoqqa, o'sha yoqda, o'sha yoqqa, u erdan kabi;

3) bir soniga o'rin, payt, miqdor ma'nosini bildiruvchi so'zlarni yoki mustaqil ishlatilmaydigan so'zlarni qo'shish bilan: bir zum, bir lahza, bir zamon, bir yo'la, birmuncha, birvarakay, bir yoqqa, birato'la, bir oz kabi;

4) turli so'z turkumiga oid ikki so'z shaklining (o'z leksik ma'nosini saqlagan, ba'zan mustaqil ishlatilmaydigan so'z bilan) birikishi bilan: tez orada, hali zamon, shu zahoti, tunov kun, kuni kecha, qadim zamon, ozmuncha kabi.

¹ Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. 1969, 235-с.

Juft ravish ikki soʻzning teng bogʻlanishi bilan yasaladi.

Juft ravish quyidagicha yasaladi:

1) maʼnosi bir-biriga yaqin (sinonim) soʻzlarning teng bogʻlanishi bilan: asta-sekin, ochiq-oydin, eson-omon kabi;

2) qarama-qarshi maʼnoli (antonim) soʻzlarning teng bogʻlanishi bilan: bugun-erta, yozin-qishin, nari-beri kabi;

3) –ma (-ba) elementlari, shuningdek, chiqish va joʻnalish (baʼzan bosh) kelishigi shaklini olgan soʻzlarni takrorlash bilan: yuzma-yuz, yonma-yon, dam-badam, kundan-kunga, naridan-beri, kamdan-kam kabi;

4) turli feʼl shakllarining takrorlanishi hamda ularni boʻlishli va boʻlishsiz shaklda takrorlash bilan: qayta-qayta, sezilar-sezilmas, qoʻyarda-qoʻymay, bilinar-bilinmas kabi.

2-savol bayoni.

Ravish tuzilishiga koʻra: 1) sodda, 2) qoʻshma, 3) juft, 4) takroriy ravishlarga boʻlinadi.

Sodda ravishlar bir oʻzak morfemadan tuziladi: yaqqol, koʻp, hozir, vijdonan, kamtarona kabi.

Qoʻshma ravishlar ikki soʻz asosining birikishi orqali tuziladi: har gal, bir vaqt, tez fursatda, shu yoqqa kabi.

Juft ravishlar ikki soʻz asosining teng bogʻlanishidan tuziladi: hali-beri, erta-kech, eson-omon kabi.

Takroriy ravishlar esa bir soʻz asosini aynan takrorlash bilan yoki ikkinchi takrorlangan ravishda tovush oʻzgarishi yuz bergan holda tuziladi: endi-endi, asta-asta, oz-moz, sal-pal, zoʻrgʻa-zoʻrgʻa kabi.

Takroriy ravishlar soʻzning leksik maʼnosini oʻzgartirmay, balki ortiqligi, kamligi, noaniqlik, taʼkid kabi qoʻshimcha maʼnolarni ifodalab keladi.

3-savol bayoni

Ravish soʻzlar ham -roq qoʻshimchasini olib va eng, juda, gʻoyat, nihoyat kabi daraja ifodalovchi soʻzlar bilan birikib, belgining turlicha darajasini ifodalaydi.

Ravishlarga -roq qoʻshimchasi qoʻshilganda asosan harakat va belgiga xos belgining kamligi, kuchsizligi, biroz etishmasligi maʼnolarini; eng soʻzi bilan kelganda esa belgining ortiqligini (eng keyin, eng avval, eng yuqori, eng oldin) bildiradi.

Ravishlar juda, gʻoyat, nihoyat soʻzlari bilan birikib, harakat belgisining koʻpligi, kuchaytirilganligi maʼnosini bildiradi: juda ilgari, juda kech, juda uzoqdan, gʻoyat tez, gʻoyat sekin, nihoyatda sekin, nihoyatda uzoqdan.

Ravishlarga -gina (-kina, -qina) qoʻshilganda harakat – holat belgisining kuchsizlanganligini, taʼkidlanganligi maʼnosi anglashiladi: ozgina, sekingina, hozirgina, endigina, haligina, boyagina, kechagina, salgina kabilar.

Nazorat topshiriqlari:

1-topshiriq. Harakat belgisini darajalab koʻrsatuvchi ravish formalarini toping.

1.Raʼno ohistagina Anvarning yoniga kelib, supaga suyandi. (A.Q.)

2.Kampir bilan Mavlon aka Botiralini ohistagina koʻtarib aravaga oldilar. (H.Gʻ.)

3.Ol, oʻgʻlim, haqingni ertaroq ol. (O.)

4.Ular juda sekin yurishdi. (O.)

5.Saida shuni bilgisi, tezroq bilgisi kelardi. (A.Q.)

6.Togʻda qorongʻi tezroq tushadi. (H.N.)

7.Majlis juda tez tugadi. (A.Q.)

8.Tabiat ehsoniga qaraganda kishilar koʻproq mashq tufayli fozil odamga aylanadilar. (Demokrit)

2-topshiriq. Gaplardagi juft va takroriy ravish formalarini topib, ularning maʼno xususiyatlarini, gapdagi vazifasini aniqlang va tushuntiring.

1.Ziyobek oʻqtin-oʻqtin orqaga qaraydi. (N.Fozilov)

2.Ishchilar birin-ketin soʻzga chiqishdi. (Sh.R.)

3. Men ham erta-indin jo'nab qolarman. (S.Z.)
4. Oyoqiz qalbiga jo bo'lgan fikrlarning hammasini birma-bir aytdi. (Sh.R.)
5. Ertalab qo'shnilar ketma-ket kela boshladi. (S.Z.)
6. Asta-sekin boshlangan chapak tobora avj olib soz ovozi bosib ketdi. (A.Q.)
7. Bu erlar yozin-qishin chorva mollariga yaylov bo'lgan. (Sh.R.)
8. Umida Saidadan tez-tez xabar olib turdi. (A.Q.)

Ravishlarning juft formasi umumlashtirish, taxmin kabi ma'nolarni bildiradi, belgini kuchli ottenka bilan ifodalaydi; kecha-kunduz, erta –indin, asta-sekin.

Ravishlarning takroriy formasi shu ravishlar bildirgan belgi ma'nosiga turli qo'shimcha ma'nolar qo'shish uchun xizmat qiladi.

Takroriy ravishlar, avvalo, harakatning takroriyligini, davomiyligini bildiradi; qayta-qayta, keyin-keyin va boshqalar.

Ravishlarning takroriy formasi shu ravishga xos belgini kuchaytiradi. Bunda takroriylik bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin: Bu yo'ldan zinhor-zinhor toyma.

Takroriy ravishlarning ma'noni, belgini kuchaytirish xususiyatiga ega ekanligini ular o'rnida ma'noni kuchaytiruvchi boshqa formalarni qo'llash mumkinligi ham aniq ko'rsatiladi. O'tirib qolgan jamoa endi-endi oyoqqa turayapti.

Sifatlar bildiradigan belgilar kabi, ravishlar bildiradigan belgilar ham turli darajaga ega bo'lishi yoki darajalanmasligi mumkin. Masalan, harakat belgisining darajasi har xil bo'lishi mumkin.

Ravishlar bildirgan belgi darajasining ortiq-kamligi xudi sifatlardagi kabi usul bilan ifodalanadi. Masalan, belgining ortiq yoki kamligi xudi sifatlardagi kabi usul bilan ifodalanadi.

Ravish so'zlar ham –roq qo'shimchasini olib va eng, juda, g'oyat, nixoyat kabi daraja ifodalovchi so'zlar bilan birikib, belgining turlicha darajasini ifodalaydi.

Ravishlarga –roq qo'shimchasi qo'shilganda asosan harakat va belgiga xos belgining kamligi, kuchsizligi biroz etishmasligi ma'nolarini; eng so'zi bilan kelganda esa belgining ortiqqligini (eng keyin, eng avval, eng yukori, eng oldin) bildiradi.

Ravishlar juda, g'oyat, nixoyat so'zlari bilan birikib, harakat belgisining ko'pligi, kuchaytirilganligi ma'nosini bildiradi: juda ilgari, juda kech, juda uzoqdan, g'oyat tez, g'oyat sekin, nixoyatda sekin, nixoyatda uzoqdan.

Ravishlarga –gina (-kina, -kina) qo'shilganda harakat – holat belgisining kuchsizlanganligini, ta'kidlanganligi ma'nosi anglashiladi: ozgina, sekingina, hozirgina, endigina, xaligina, boyagina, kechagina, salgina kabilar.

Nazorat topshiriqlari

1. Ravishlarda belgining darajasini ko'rsatuvchi shakl yasalishi mavjudligini aytib, tushuntirib bering.
2. Ravishning forma yasovchi vositalari va usullarini aytib bering.
3. Ravishlar qanday sintaktik vazifalarni bajaradi?
4. Otlashgan ravishlarning vazifalarini ayting.

Adabiyotlar.

1. Hamroyev M. va b. ona tili. T., 2007.
2. O'zbek tili grammatikasi. 1 qism. T. 1975.
3. U. Tursunov va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T. 1992.
4. Boduen de Kurtene I. A. Izbranno'e trudo' po obshemu yazo'koznaniyu. -M. 1963 g.
5. Ferdinand de Sossyur. Kurs obshey lingvistiki. -Moskva. 1916 g.
6. Baskakov N. A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazo'kov. 1969.
7. V. M. Solntsev Yazo'k kak sistemno-strukturnoe obrazovanie, - M., 1971, 11-bet.
8. F. de Sossyur. Trudo' po yazo'koznaniyu, 120-bet.
9. Vilgelm fon Gumbol'dt. Inson tili tuzilishining har xilligi va uning iison naslining ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri. 1959.

Mavzu: Yordamchi soʻz turkumlari: Koʻmakchilar, Ularning grammatik xususiyatlari, turlari

Reja:

1. Yordamchi soʻzlar va ularning tasnifi.
2. Koʻmakchi va uning maʼnosi, turlari.
3. Asl koʻmakchilar, vazifadosh koʻmakchilar.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Koʻmakchi, bogʻlovchi, sof koʻmakchi, yakka va takror qoʻl. bogʻlovchilar, funktsional koʻmakchi, teng bogʻlovchilar, modal maʼno, ergashtiruvchi bogʻlovchilar, koʻmakchi va kelishik, biriktruv bogʻlovchilar, ot koʻmakchilar, ayiruv bogʻlovchilar, koʻmakchilar, zidlov bogʻlovchilar, feʼl koʻmakchilar, aniqlov bogʻlovchilari, ravish koʻmakchilar, sabab bogʻlovchilar, shart bogʻlovchilar, kuchaytiruv yuklamalari, chogʻishtiruv bogʻlovchilar, taʼkid yuklamalar, yuklama, ayiruv yuklamalari, affiks va soʻz yuklamalari, chegaralov yuklamalari, soʻroq yuklamalari, gumon yuklamalari, taajjub yuklamalari, inkor yuklamasi.

1-savol bayoni: Yordamchi soʻzlar va ularning tasnifi.

Yordamchi soʻz turkumlari mustaqil soʻz turkumlaridan farqlanadi. Ular lugʻaviy maʼnoga ega emas, morfologik jihatdan oʻzgar olmaydi, gapda sintaktik vazifa bajarmaydi, yasaliş xususiyatiga ega emas.

Mustaqil lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmay, gap boʻlaklari va gaplarni oʻzaro bogʻlash, xilma-xil munosabatlarni koʻrsatish yoki ularga qandaydir qoʻshimcha maʼno qoʻshishga xizmat qiladigan soʻz turkumlari yordamchi soʻz turkumlari deyiladi. Yordamchi soʻz turkumlariga bogʻlovchi, koʻmakchi va yuklama kiradi.

Yordamchi soʻzlar grammatik maʼno vazifa bajaruvchi til birliklaridir. Ular lugʻaviy maʼnoga ega emas, biroq soʻzlar kabi ayrimlik, ajralganlik xususiyati bilan lugʻaviy maʼnoli soʻzlar qatorida turadi. Yordamchi soʻzlar mustaqil soʻzlarni, soʻz birikmalarini, gaplarni oʻzaro munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Grammatik maʼno-vazifasiga koʻra yordamchi soʻzlar 3ga boʻlinadi.

- a. Koʻmakchi.
- b. Bogʻlovchi.
- c. Yuklama.

2-savol bayoni: Koʻmakchi va uning maʼnosi, turlari.

Ot, olmosh va otlashgan soʻzlar, harakat nomi va sifat doshlardan keyin kelib, ularning boshqa soʻzlarga munosabatini bildirgan yordamchi soʻzlar koʻmakchi deb ataladi: Masalan: Xadicha xola Bahorobod qishlogʻida kichik oʻgʻli Obidjon bilan turar edi. Sen uchun kitob olib keldim.

Koʻmakchilar quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Sof koʻmakchilar lugʻaviy maʼnolarini butunlay yoʻqotib, vazifa jihatidan kelishik qoʻshimchalariga yaqin turadigan soʻzlardir: *bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yangligʻ*. Bunday koʻmakchilar urgʻu olmaydi, urgʻu koʻmakchidan oldingi soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi (22; 61).

2. Koʻmakchi vazifasida qoʻllanuvchi soʻzlar (vazifadosh koʻmakchilar (22; 63) gapda oʻrni bilan mustaqil soʻz, oʻrni bilan koʻmakchi boʻlib keladi. Bular quyidagi turkumlardan koʻmakchilarga koʻchadi:

- 1) ot** turkumidan: *tomon, tashqari, boʻyi, chamasi, holda, yoʻsinda;*
- 2) sifatdan:** *sababli, tufayli, qarshi, chogʻli, doir, muvofiq, oʻzga, boshqa;*
- 3) feʼldan:** *qarab, qaraganda, koʻra, tortib, degan, deydigan, osha, boʻylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata;*
- 4) ravishdan:** *avval, soʻng, keyin, burun, ilgari, beri, beri, buyon, asosan, binoan.*

3. Ko'makchi-bog'lovchilar bog'lovchi vazifasini ham bajaradigan ko'makchilar: *bilan, deb, deya*. Masalan: *daftar bilan qalam; Umrim shirin o'tsin deb(deya), u ko'p mehnat qildi*.

4. Ko'makchi otlar o'z lug'aviy ma'nolarini saqlagan holda ko'makchi o'rnida kelib, harakat bilan predmet o'rtasidagi turli munosabatlarni ifodalaydigan so'zlardir. Bu so'zlar o'rin-payt, chiqish kelishigi va egalik qo'shimchalarini qabul qiladi: *old, o'rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o'rin, qosh, yoqa, tomon*. Bu so'zlar belgisiz qaratqich kelishigidagi so'zdan keyin kelgandagina ko'makchi ot hisoblanadi: *ish ustida, siqig'i ostida*. Aks holda, ular o'rin otlari hisoblanadi: *stolning ustida (stolning qayerida?), uying oldida*. Ko'makchi otlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1) **vertikal** yo'nalishni bildiruvchi: *ost, ust, tag*.

2) **gorizontal** yo'nalishni bildiruvchi: *old, orqa, yon, ich, tomon*;

3) **aralash** yo'nalishni bildiruvchi: *o'rta, ora, bosh*.

1) **bosh kelishikdagi** so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

Bilan (qisqa shakllari: **-la, -ila**) ko'makchisi birgalik, vosita, tez bosg'lanish, payt, ish-harakat ob'ekti, holat, maqsad ma'nolarini bildiradi: *Ukasi bilan keldi. Qalam bilan yozdi. Eshik ochilishi bilan kirishdi. Tuni bilan uxlamadi. Baxtiyorlik bilan jilmaydi*.

Uchun (qisqa shakli: **-chun**) ko'makchisi maqsad, sabab, atash, evaz ma'nolarini ifodalaydi: *Bolalar uchun qurildi. O'qimagani uchun bilmadi. Sen uchun oldim. Yordamingiz uchun rahmat*.

D i q q a t ! **-la, -chun** shakllari o'zi bog'lanib kelgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *qo'llarim-la, Vatan-chun*.

Uchun, bilan, kabi, singari ko'makchilari qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ham jubqo'llanishi mumkin: *shuning uchun, bununng kabi, shuning singari*.

Ko'makchilar vazifasi jihatidan kelishiklarga o'xshaydi. Ayrim hollarda ko'makchi kelishik qo'shimchasi o'rnida yoki kelishik qo'shimchasi ko'makchi o'rnida almashib kelishi mumkin. Ko'makchilar tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari o'rnida almashib kelishi mumkin: *Radio orqali eshitdik - Radiodan eshitdik. Ukam uchun oldim - Ukamga oldim. Qalam bilan yozdi - Qalamda yozdi. Borgani haqida gapirib berdi - Borganini gapirib berdi*. Biroq hamma vaqt ham ko'makchi o'rnida kelishik qo'shimchasi ishlatilavermaydi: *Do'stiga yordamlashdi* gapida jo'nalish kelishigi qo'shimchasi o'rnida ko'makchini qo'llab bo'lmaydi.

Ko'makchilar vazifasiga ko'ra kelishiklarga o'xshaydi. Ba'zan ko'makchilar kelishiklar bilan bir xil vazifada kelib, biri ikkinchisining o'rnida ishlatiladi. Masalan: *Kul bilan ko'tardim. Kulda ko'tardim*. (vosita ma'nosi) *Jahonda dong'imiz paxta orqali*. (G.G.) *Jahonda dong'imiz paxtadan* (vosita yoki sabab ma'nosi). *Maktab uchun mebel olindi. Maktabga mebel olindi* (atalganlik ma'nosi).

Lekin ko'makchi bilan kelishik bir narsa emas. Buni quyidagi misolda ham ko'rish mumkin: *Paxta uchun ko'rash - paxtaga ko'rash* birikuvlarida uchun ko'makchisini jo'nalish kelishigi qo'shimchasi - ga bilan almashtirib bo'lmaydi.

Ko'makchi qaysi so'zdan keyin kelsa, u o'sha so'z bilan birgalikda bir so'roqqa javob bo'ladi va bitta sintaktik vazifada, bitta gap bo'lagi bo'lib keladi. M-n: *Gap elektrostantsiya haqida (nima haqida?)bordi*. (Sh.R) *Gulnor Mastura bilan (kim bilan?) dars tayyorlayapti*.

3-savol bayoni: Asl ko'makchilar, vazifadosh ko'makchilar.

Hozirgi o'zbek tilida: *bilan, uchun, sari, kabi, sayin, qadar, singari* ma'nosini tamoman yo'qotgan, shuningdek *tomon, orqali, sababli, qarab, qaramay, so'ng, tashqari, nari, beri, chog'li* kabi ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi so'zlar ko'makchilar sanaladi. Shunga ko'ra ko'makchilar ikkiga: 1)sof ko'makchilar; 2)funksional ko'makchilarga bo'linadi.

Sof ko'makchilar. Sof ko'makchilar lug'aviy ma'nosini yo'qotgan bo'lib, boshqa so'zlar bilan birikib kelgandagina turli munosabatlarni ifodalaydi.

Boshqarish xususiyatiga ko'ra sof ko'makchilar ikki guruhga bo'linadi: 1)bir xil kelishikdagi so'z bilan keluvchi sof ko'makchilar, 2)turli kelishiklar bilan qo'llanuvchi sof ko'makchilar.

Sayin, o'zra, orqali va boshqa ayrim sof ko'makchilar bosh kelishikdagi otlar bilan qo'llanadi: *kun sayin, borgan sayin kabi*. Bunda ular harakatning takrorlanishi davom etishi kabi ma'nolarni ifodalaydi. M-n: *Ro'zgori ham kun sayin but bulyapti* (O)

Orqali ko`makchisi vosita ma'nosini anglatadi: Xat pochta orqali olindi. Tufayli ko`makchisi sabab ma'nosini anglatadi: Sen tufayli ulug' martabali bo`ldi. Yanglig, kabi ko`makchilari chogishtirish, o`xshatish kabi ma'nolarni bildiradi: Irodaning kilich kabi utkirdir dami. (O)

Sari o`rin, payt va yunalish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ulgaygan sari, yakinlashgan sari kabilar. Turli kelishikdagi otlar bilan keluvchi sof ko`makchilar bosh, qaratqich, jo`nalish kelishigidagi so`zlar bilan qo`llanadi. Bunday ko`makchilarga kabi, singari, bilan, uchun, kadar ko`makchilar misoldir.

Kabi, singari ko`makchilari chogishtirish, o`xshatish ma'nolarini anglatadi. Bahor toshqini kabi extirosalar bilan keldi. (S.An.) Uning o`zi so`zi singari sof edi.

Bilan ko`makchisi vosita, sabab, maqsad, payt kabi ma'nolarni anglatadi. Uning birlan, birla, -ila, -la kabi shakllari she'riyatda qo`llanadi. Gap bilan va'da berma, ish bilan ber. Tilak bilan kelgan, tong bilan uyg`ongan kabi.

Uchun ko`makchisi sabab, maqsad, atalganlik kabi ma'nolarni anglatadi: Bu boyliklar sen uchun, qizim. Ataylab ko`rish uchun keldi kabi.

Qadar ko`makchisi chogishtirish, masofa, vaqt va o`ringa munosabat ma'nolarini anglatadi: Aziza o`rtoqlarini kechga qadar kutdi.

Vazifadosh ko`makchilar. Funktsional ko`makchilar turli so`z turkumlaridan bo`lib, ular gapda o`rni bilan ko`makchi vazifasida qo`llanadi. Turkumiga va ma'no xususiyatiga ko`ra funktsional ko`makchilar quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Ot ko`makchilar: tomon, old, yon, orqa, xususida, urnida, ichida kabilar.
2. Sifat ko`makchilar: boshqa, qarshi, tashqari kabilar.
3. Fe'l ko`makchilar: ko`ra, qarab, qaraganda, bo`ylab, boshlab, tortib kabilar.
3. Ravish ko`makchilar: burun, avval, ilgari, bori, so`ng, keyin kabilar.

Nazorat savollari:

1-topshiriq: Ko`makchilarni topib, ularni bog`lanib kelaётgan so`zlar bilan qanday so`roqqa javob bo`layotganligini va qanday gap bo`lagi vazifasida kelayotganligini aniqlang.

1. Mehnat, bilim va qunt bilan kular chin xavas.
2. Ko`rishmoq uchun u uzoqdan quchoq ochib keldi. (O.)
3. Daryoning u betiga ko`prik bilan o`tdik.
4. Beg`ubor osmonda tayyora qanotlari kumush kabi yaltirab ko`rindi.
5. Jamoa xo`jaligi a'zolari dala tomon yo`l oldilar.
6. Sug`oriladigan ekin maydonlari yil sayin ko`paytirilmoqda.
7. Sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi. (Maqol)

2-topshiriq: Ko`makchilarning qanday sintaktik munosabat ifodalayotganini, ularning mustaqil so`zlardan farqini ayting.

1. Qush parvoz uchun, inson baxt uchun yaralgan.
2. Ertaga albatta mening qoshimga keling.
3. Taqdirni qo`l bilan yaratur inson, g`oyibdan kelajak baxt bir afsona (G`G`ulom)
4. Toshpo`latov uch kundan beri shu erda. Kecha kun bo`yi tepalik yonida g`isht kuyayotganlar bilan birga bo`ldi. (R.F)
5. Inson so`zlash qobiliyati tufayli xayvondan farq qiladi.
6. Jasorat iste'dod singari maqsad sari boradigan yo`lni osonlashtiradi.

Mavzu: Bog`lovchilar. Ularning grammatik xususiyatlari. Bog`lovchilarning qo`llanishiga ko`ra turlari

Reja:

1. Bog`lovchilarning gapdagi vazifasiga ko`ra turlari.
2. Bog`lovchilarning grammatik xususiyatlari.

3. Bog'lovchilarning qo'llanishiga ko'ra turlari: yakka bog'lovchilar va takroriy bog'lovchilar.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Bog'lovchi, yakka bog'lovchilar va takroriy bog'lovchilar, teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar, zidlov, ayiruv bog'lovchilar, aniqlov bog'lovchisi, sabab bog'lovchilari, chog'ishtiruv bog'lovchilari, maqsad bog'lovchisi, shart va to'liqsizlik bog'lovchilari.

1-savol bayoni: Bog'lovchilarning gapdagi vazifasiga ko'ra turlari.

Gap bo'laklarini yoki qo'shma gapning qismlarini bog'laydigan yordamchi so'zlar bog'lovchi deyiladi. Bog'lovchilar gap bo'laklari va ayrim sodda gaplarni o'zaro qanday munosabatda ekanliklarini ko'rsatadi. Farzand olgan tarbiyasiga qarab ota-onasiga rohat yoki jazo keltiradi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur») Kumush ichkariga kirib ko'zdan g' oyib bo'ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa erga mixlangandek qotib turdi. (A.Qod.)

Bog'lovchilar gapdagi vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1) teng bog'lovchilar; 2) ergashtiruvchi bog'lovchilar.

Teng bog'lovchilar grammatik jihatdan teng huquqli gap bo'laklarini va gaplarni o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Masalan, *Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir.* (Stefan TSveyg). *Agar so'zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar.* (H.O.)

Teng bog'lovchilar biriktiruv, zidlov va ayiruv bog'lovchilariga bo'linadi.

1) **biriktiruv bog'lovchilar** guruhiga *va, hamda, bilan, ham* kabi so'zlar kiradi. Bu bog'lovchilar gapning uyushiq bo'laklarini, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'laydi. Biriktiruv bog'lovchisi *va* eng ko'p qo'llanadigan bog'lovchidir. Bu bog'lovchi:

1) gapning uyushiq bo'laklarini bog'laydi: Aqlli odam olimlar, fozillar va tadbirli xunarmandlarning suhbatlarida bo'ladi, ulardan bahra oladi («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»);

2) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashga xizmat qiladi va turli ma'no munosabatlarini ifodalaydi. Masalan: Hamid Rahmat bilan birga Otabekni Ziyo akanikiga taklif qilgali kelgani edi va biz ularni osh-suv qilib jo'natgan edik. (A.Qod.)

Ham, hamda bog'lovchilari ham gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gap qismlarini bog'lash uchun qo'llanadi. Sultonmurod ham do'st Zayniddin cheksiz quvondilar. (O.) Kun sovidi hamda erlar muzladi.

Ham so'zi bog'lovchi bo'lib emas, balki gap ma'nosini yoki ayrim gap bo'laklarini ta'kidlash, kuchaytirish uchun ko'p ishlatiladi. Quyosh ham oltin to'rlarini to'kib, mag'rur ko'tariladi (O.)

Biriktiruvchi bog'lovchilari bilan ko'makchisi, -da, -u(-yu) yuklamalari ham qo'llanadi.

Bobom asta ko'zlarini yumadi-da, allaqanday uzoq bir xayolga ketadi. (O.) *Onayu bola – gulu lola.* (Maqol). *SHudgorda Jannatxola bilan Zebixon qoldi.* (S.A.)

1) **zidlov bog'lovchilari** guruhiga *biroq, ammo, lekin, balki, holbuki* kabi so'zlar kiradi. Bu bog'lovchilar mazmunan bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan bo'laklarni yoki gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi.

Biroq, ammo, lekin bog'lovchilari gap bo'laklarini bog'lab kelganda zidlik ma'nosini, shu bilan birga, gap mazmunini to'ldirish, izohlash, qiyoslash uchun ham xizmat qiladi. Qo'shma gap qismlari tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashda esa keyingi qism avvalgi qismda aytilgan fikrga qarama-qarshi, zid faktlar ifodalanadi. SHuning uchun bu faktlar, voqea-hodisalardan faqat bittasining bo'layotganini, ikkinchisi inkor etilganigi ma'nosi anglashiladi. Masalan, *Mahallada bolalar ko'p, lekin bir-biriga o'xshamaydi.* (O.) *Har narsaning yangisi, ammo do'stning eskisi yaxshi.* («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»). *O'xshash mevalarni saralaydi, xidlaydi, biroq egisi kelmaydi.* (O.)

Zidlov bog'lovchilari gap boshida kelib, avval aytilgan fikrga zid bo'lgan yangi fikrli gapni oldingi gapga bog'laydi:

Mazmunan bir-biriga qarama-qarshi gap bo'laklari va gaplarni bog'lashda *-da, -u (-yu)* yuklamalari ham qo'llanadi. *Sobir kichkina-yu, pishiqqina* (O.)

2) **ayiruv bog'lovchilar** guruhiga *yo, yoki, yo..., yo, yoxud, dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, ba'zan..., ba'zan, bir-bir* kabi so'zlar kiradi.

Bu bog'lovchilar narsa, voqea-hodisalarni boshqarishdan ajratish yoki ularning galma-gal bo'lishini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Bulardan *yo, yoki, yo..., yo, xoh..., xoh* bog'lovchilari uyushgan bo'laklarning birini ikkinchisidan, biror voqea, hodisa yoki ish-harakatni boshqasidan ayirib ko'rsatish uchun ishlatiladi: *Poshshaxon Umrinisabibining qizini yo ko'rmadi, yo ko'rsa ham nazarga ilmadi. (CHo'lpon). «YO podshoh biron erga chiqadi yoki elchi kelishi kutiladi», - dedi Zayniddin. (O.) Xoh ishonig, xoh ishonmang, birinchi kuniyoq to'qqiz tonna paxta teribman. (S. A.)*

Ba'zan..., ba'zan, dam..., dam, goh..., goh bog'lovchilari esa galma-gallikni, navbat bilan almashinib, takrorlanib turishni ifodalaydi. *Dam tekisliklar bo'ylab balandga, dam pastga tushib boramiz. (O.) Nimqorong'i shiftga tikilib yotgan cha xayol suraman: goh katta shaharlarga borib qolaman, goh daryolarda suzaman. (O'.Hoshimov) Hasanali eshitmadimi yoxud eshitsa ham eshitmaganga soldimi, har nechuk javob bermadi (A. Qod.)*

2-savol bayoni: Bog'lovchilarning grammatik xususiyatlari.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga tobelanish yo'li bilan bog'laydi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar grammatik aloqalarni ifodalash va ma'nolariga qarab: 1) aniqlov bog'lovchisi; 2) sabab bog'lovchilari; 3) chog'ishtiruv bog'lovchilari; 4) maqsad bog'lovchisi; 5) shart va to'liqsizlik bog'lovchilariga bo'linadi.

1) aniqlov bog'lovchilariga *ya'ni, -ki (-kim)* so'zlari mansub bo'lib, ular ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun qo'llanadi. Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi. *Mirzo Ulug' bek joyiga o'tirmagan ham ediki, saroybon kirib, ikkinchi nomani tutdi. (O.Y.)*

2) sabab bog'lovchilariga *chunki, shuning uchun, negaki, zeroki, nainki* kabi so'zlar kiradi. Bu bog'lovchilar ergash gapni bosh gapga bog'lab, sabab, payt ma'nolarini ifodalaydi. *Chorasi bo'lmagan ishga kirishma, chunki undan qutilib bo'lmaydi. (Amir Temur o'gitlari) Ko'chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. (A.Qod.) U ikki, balki uch yildan buyon o'z to'yini kutar edi. (O.)*

3) chog'ishtiruv bog'lovchilari: *go'yo, go'yoki.* Bu bog'lovchilar bosh gapda ifodalangan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslab ko'rsatadi. *Sen menga baxsh etding ko'rkam bir yoshlik, go'yo qalbmida ulg'aydi quyoshday viqor. (J.Jabborov). Nihoyat chollar jim bo'lishadi, go'yo yoshliklarini sog'inganday boshlarini quyi solishadi (O.)*

4) maqsad bog'lovchisi *toki* qo'shma gap tarkibidagi maqsad ma'nosini ifodalagan ergash gapni bosh gap bilan bog'laydi. *Yomonlarning jazosini berish kerak, toki ular yaxshilarning boshiga yomon kunlarni solmasinlar. (H.G'.)*

5) shart va to'liqsizlik bog'lovchilari: *agar (gar), modomiki, basharti, garchi, garchand, mabodo.*

Bu bog'lovchilar shart va to'liqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo'lgan munosabatdagi shartni, shu bilan birga to'liqsizlik ma'nolarini anglatadi: *Agar kishining hayoti biror maqsad, biror g'oya uchun kurash bilan o'tsa, bunday hayotga hech afsus qilmaslik kerak. (M.Ibr.) Bu oqshom, garchi tevarak tinch bo'lsa ham, kechagidan ko'ra qo'rqinchliroq, ezuvchanroq tuyular edi. (O.)*

Boshqa so'z turkumiga oid *ba'zi* so'zlar ham bog'lovchi o'rnida qo'llanadi: *bilan, deb, degan, bordi-yu, u(-yu), -da.*

Masalan: *Umrin shirin o'tsin deb, tilni tiydim hamisha. Ayvonda Hurmatbibi bilan onam choy ichib, gaplashib o'tirishibdi (O.)*

3-savol bayoni: Bog'lovchilarning qo'llanishiga ko'ra turlari: yakka bog'lovchilar va takroriy bog'lovchilar.

Bog'lovchilar qo'llanishiga ko'ra ikki turli bo'ladi: 1. Yakka bog'lovchilar. 2. Takroriy bog'lovchilar.

Yakka bog'lovchilar uyushgan bo'laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo'llanadi. Bular *va, hamda, lekin, biroq, -ki (-kim), chunki, agar, gar, balki, go'yo, basharti, garchi, go'yoki, holbuki, vaholanki.*

Xazon qilmas Zaynabni zamon Va otashda o'rtanmas Omon (H.O.) Bu gullarni Azizxon, go'yo ona o'z farzandini ardoqlagan kabi ardoqlardi. (S. Jamol). Ahli majlis Otabekni ko'klarga

ko'tarib maqtar edi, lekin Homid bu maqtashlarga ishtirok etmas va nimadandir g'ijingandek ko'rinar edi. (A.Qod.)

Takroriy bog'lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o'rinda gap bo'laklari, shuningdek qo'shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi. Bular dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, yo..., yo, yoki..., yoki, ham..., ham, ba'zan..., ba'zan, bir...,bir. Masalan, *U goh dashtdagi otlarning kishnashiga, goh yaqin chodirdagi go'zal kanilarning mayin kulgulariga quloq solib yotarkan, olam beg'ubor bo'lib tuyular edi. (O.YO.) YO bir maslahatni aytib bo'ladi, yo ro'zg' or ishni. (CHo'lpon). Dam bobomga, dam uning o'rtog'iga tikilaman. (O.) Dadasi... erkatoy o'g'lining bu arzini eshitib, bir hayratga tushdi, bir quvondi. (O.YO.)*

Takroriy bog'lovchilardan yo,yoki yakka holda ham qo'llanishi mumkin, ham, ba'zan, bir so'zlari esa yakka holda qo'llansa bog'lovchi bo'la olmaydi. Navoiy Xuroson va Movarounnahrda yashamoqda bo'lgan yoki dunyodan ko'z yumgan yuzlarga shoirlarni xotirga oldi. (O.) Bu erda qovun tekin. Uzib beraymi yo o'zingiz uzasizmi? (S.Ahmad).

Gaplarni va gap bo'laklarini bir-biriga boglaydigan so'zlar bog'lovchilardir. Bog'lovchilarga: va, ham, hamda, yo, yoki, yoxud, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun kabilar misol bo'ladi.

Bog'lovchilar lug'aviy ma'no ifodalamaydi. Grammatik jihatdan o'zgarmaydi. qo'llanishiga ko'ra bog'lovchilar yakka xolda va takroran ishlatiladi. Yakka bog'lovchilar gapning uyushgan bo'laklari va ayrim gaplar orasida yakka xolda qo'llanadi: va, hamda, ammo, biroq, balki, yoki, gar, basharti, go'yo kabilardir.

Takroriy bog'lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o'rinda gap bo'laklari yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni boglash uchun ishlatiladi. Takroriy bog'lovchilarga: dam...dam, yo...yo, goh...goh, bir...bir, yoki...yoki kabilardir. Takroriy bog'lovchilardan ayrimlari, jumladan bir (son), ham (yuklama), ba'zan (ravish) bog'lovchilashgan so'zlardir 3-topshiriq Bog'lovchining ta'rifini ayting.

Nazorat savollari:

1. Bog'lovchilar qo'llanishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
2. Teng bog'lovchilar ta'rifini ayting.
3. Biriktiruvchi bog'lovchilarning ta'rifini ayting.
4. Zidlov bog'lovchilar ta'rifini ayting.
5. Ayiruv bog'lovchilar ta'rifini ayting.
6. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning ta'rifini ayting.
7. Aniqlov bog'lovchilari haqida so'zlang.
8. Sabab bog'lovchilari haqida gapiring.
9. Shart va o'xshatish bog'lovchilari haqida gapiring.

Mavzu: Grammatik ma'no va vazifalariga ko'ra bog'lovchilarning turlari: teng bog'lovchilar(biriktiruv zidlov, ayiruv); ergashtiruvchi bog'lovchilar (aniqlov, sabab, shart, to'liqsizlik, chog'ishtiruv- o'xshatish bog'lovchilari).

Reja:

1. Bog'lovchilarning grammatik vazifalariga ko'ra turlari.
2. Bog'lovchilarning ma'no vazifalari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Bog'lovchi, yakka bog'lovchilar va takroriy bog'lovchilar, teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar, zidlov, ayiruv bog'lovchilar, aniqlov bog'lovchisi, sabab bog'lovchilari, chog'ishtiruv bog'lovchilari, maqsad bog'lovchisi, shart va to'liqsizlik bog'lovchilari.

1-savol bayoni: Bog'lovchilarning grammatik vazifalariga ko'ra turlari.

Bog'lovchilar gapdagi vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Teng bog'lovchilar.
2. Ergashtiruvchi bog'lovchilar.

Teng bog'lovchilar. Grammatik jihatdan teng munosabatli bo'lgan uyushik bo'laklarni yoki ayrim sodda gaplarni biriktiruvchi bog'lovchilar teng bog'lovchilardir. Masalan, Bahor ilik va saxiy keldi. Teng bog'lovchilar sintaktik vazifasi va ma'nosiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

Biriktiruv bog`lovchilari: va, ham, hamda kabilar.

Zidlov bog`lovchilari: ammo, lekin, biroq.

Ayiruv bog`lovchilari: yo, yoki, yoxud, goh...goh, dam...dam kabilar.

Biriktiruv bog`lovchilari. Biriktiruv bog`lovchilari uyushik bo`laklarni, shuningdek bog`lovchili boglangan qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga boglaydi va ular orasidagi ma`no munosabatlarining tengligini ko`rsatib turadi.

2-savol bayoni: Bog`lovchilarning ma`no vazifalari.

Va bog`lovchisi uyushik bo`laklar orasidagi tenglik munosabatini qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasidagi voqea-hodisalarning bir vaqtda sodir bo`lganligi (Gamxonada kashshoklik kuldi va shu onda tutday to`qildi), ish-harakatning ketma-ket bo`lganligini (Choyxonadagi govur bosildi va eshik oldida bir necha iljaygan siymo paydo bo`ldi) bildiradi. Ba`zan va urnida – u(yu) yuklamasi ishlatiladi. Kir-adirda utlar mening kuyu ko`zim. (Islom shoir). Ham, hamda bolovchilari gapning uyushik bo`laklarini va qo`shma gap qismlarini boglashda qo`llanadi. Sultonmurod ham dusti Zayniddin ham cheksiz kuvondilar.(O).

Zidlov bog`lovchilari. Ma`no jihatidan zid, karama karshi bo`lgan uyushik bo`laklarni yoki gaplarni boglaydi. M: Butun kuchimni ikki ko`zimga yigdim-da, uning bevafo, biroq gamgin, shux, lekin ma`yus ko`zlariga tikildim.(G.G). Jonli tilda ammo, lekin bog`lovchilari qator qo`llanishi mumkin: Ammo lekin butun vodiya tarkasa yomon bo`ladi. (Askad M). Zidlik ma`nosi –u(yu), -da yuklamalari orqali ham ifodalanishi mumkin. Bir nima demokchi bo`ldi-yu, tili ogziga tiqilib koldi. (O).

Ayruv bog`lovchilar. Bu bog`lovchilar gapning uyushik bo`laklari yoki qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni boglashga hamda ularning navbatini va galma galligini ko`rsatishga xizmat qiladi. Ulardan: yo, yoki, goh, dan kabilar faol ishlatiladi: Yo`lchi dam u eshikda,dam bu eshikda ishlaydi.

Ergashtiruvchi bog`lovchilari. Ergashtiruv bog`lovchilari asosan ergash gapli qo`shma gaplar tarkibidagi ergash gaplarni bosh gapga boglash uchun xizmat qiladi: Ular:-ki, chunki, shuning uchun, go`yo, go`yoki, toki, agar, garchi, basharti va boshqalardir. Ergashtiruv bog`lovchilari ma`no vazifasiga ko`ra kuydagi guruhlariga bo`linadi:

- 1.Aniqlov bog`lovchilari: -ki, kim, ya`ni.
- 2.Sabab bog`lovchilari: chunki, shuning uchun.
- 3.Shart bog`lovchilari: agar, basharti, agarchi.
- 4.Chog`ishtiruv bog`lovchilari: go`yo, go`yoki.

Aniqlov bog`lovchilari qo`shma gap tarkibidagi gaplarni izohlash ta`kidlash,aniqlash yo`li bilan bog`laydi: Cho`lda bir Guliston yarataylik-ki hamma xayron qolsin.

Sabab bog`lovchilari qo`shma gap tarkibidagi gaplarni sabab yoki natija ma`nosi orqali boglaydi: Hayot go`zal, hayot maroqli, shuning uchun erka ko`ngil shod(U)

Shart bog`lovchilari qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni shart, ma`nosi orqali boglaydi: Aniq, toj, garchi, yoxud, garchi zardir, xaloiq boshiga bitgan zarardir.(U)

Chog`ishtiruv bog`lovchilari sodda gaplarni qiyoslash, o`xshatish orqali bog`laydi: oppoqqina nozik yuzi quyoshda shunday tiniq ko`rindiki, go`yo u nurdan yaratilganday.(O)

Boshqa turkumlarga ayrim so`zlar ba`zan bog`lovchi vazifasida qo`llanadi. M-n: bordi-yu, deb kabilar: Majlis bo`ladi deb, vaqtli kelgan edim.

Bog`lovchi quydagicha tahlil qilinadi:

- 1.So`z turkumiga ko`ra(bog`lovchi)
- 2.Qo`llanishiga ko`ra(yakka,takror)
- 3.Ma`nosiga ko`ra(teng ergashtiruvchi)
- 4.Til bog`lovchilarining turi(biriktiruv, zidlov, ayiruv)
- 5.Ergashtiruvchi bog`lovchi turi (aniqlov, sabab, shart, chog`ishtiruv)

Nazorat savollari

1. Gaplarni va gap bo`laklarini boglaydigan so`zlar bog`lovchilar ekanligini ajrating.
2. Qo`llanishiga ko`ra bog`lovchilarning turlarini aytib bering.
3. Ma`no va vazifasiga ko`ra bog`lovchilarni turlarga ajrata oladi va tushuntirib bering.

4. Bog'lovchilarni topib, qaysilari sodda gaplarni, qaysilari gap bo'laklarini bog'lash uchun qo'llanganini tushuntiring.

Xalq qatag'onlarida g'ayratli va jasoratli odamlar she'riga o'xshatiladi. Sher yirtkich sut emizuvchilar ichida eng chiroyli va eng kuchli jonivor. Gavdvli ancha ko'pol, lekin u juda chaqqon. Barcha xayvonlar undan qo'rqadi. Chunki uning kuchi va keskin harakati ularni vaximaga solib kuyadi. Sher raxmsiz, ammo o'z bolalariga juda mexribon.

6-mavzu: Yuklamalar va ularning garmmatik, struktur, semantik xususiyatlari

Reja:

1. Yuklama va ularning tuzulishiga ko'ra turlari:

a) so'z yuklamalari;

b) affiks yuklamalar.

2. Yuklamalarning ma'no turlari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Yuklama, so'z yuklamalari, affiks yuklamalar, so'roq va taajjub, kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari, ayiruv va chegaralov yuklamalari, aniqlov yuklamalari, gumon yuklamasi.

1-savol bayoni: Yuklamalar haqida tushuncha.

Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha ma'no berish uchun qo'llanadigan yordamchi so'zlar yuklamalar deb ataladi. Masalan: *Haqiqiy kasbu kamol faqat ilm bilan hosil bo'ladi. (M.Hasaniy). Quyosh ham atayin nurlarini to'kib, mag'rur ko'tarildi. (O.)*

Yuklamalar tuzilishiga ko'ra ikki xil: a) qo'shimcha holatdagi yuklamalar: -mi, -chi, -a, -ya, -oq (-yoq), -da, -u (-yu), -gina (-kina, -qina), -ku; b) so'z holatidagi yuklamalar: axir, faqat, xudi, nahotki, ham, naq, xolos. To'ydan faqat Anor xabardor (H.O.) Eshik «g'irch etib ochildi-da, ruxsat so'rab ukasi Darvishali kirdi. (O.) Bir vaqi G'iyosiddin Kichkina, xudi shu erda, daricha ostida o'tirib, uni erkalatmasmidi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida gapga yoki ayrim so'zlarga beradigan qo'shimcha ma'nolariga ko'ra yuklamalarni quyidagicha turlarga bo'lish mumkin.

1. So'roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya.

-mi yuklamasi so'roq, taajjub, hayrat kabi ma'nolari bildiradi. Masalan: - Kelinning suluvligi Marg'ilonda ma'lum ekanmi? (A.Qodiriy) Men dalada ishlashish kerakmishmi? (O.)

-chi yuklamasi so'roq, kuchaytiruv, harakatga undash, buyruq, iltimos, ta'kid ma'nolarini bildiradi. Masalan, - Sizga-chi, Anvar (A.Qodiriy) - O'g'ling qaytsin-chi, bo'lmasa... (A.Qod.) - Loaqal bir og'iz o'g'lingizga aytib o'tishga va'da bering-chi, -dedi (A.Qod.) - O'rtoqjon, bir narsa desang-chi. (CHO'lpon).

-a (-ya) yuklamalari so'roq, taajjub, hayratlanish ma'nolarini bildiradi. Masalan, Bu gap oramizda qolsin-a! (T.Malik) Gulnorni sevishimni bilardi-ya (O.) - Qizim, bugun mehmonlaringni Sultonxonlarnikiga olib chiqasan-a? - deb qolmasinmi! (A.Qod.)

2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: -ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim), ham, hatto, hattoki, axir, nahot (nahotki).

-ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim) yuklamalari ma'noni kuchaytirish, to'liqsizlik, tezlik va davomiylik ma'nolarini ifodalash uchun qo'llanadi. Masalan, SHundan keyin men uzoq safarga ketdim-u, Masturaning taqdiridan bexabar bo'ldim (A.Q.) - O'z qizingiz-ku, tengini topib bering-da! (CHO'lpon) Mirzo Ulug' bek maktubni o'qib tugatmasdanoq o'rnidan turib ketdi. (O.YO.) Ko'plar yomg'irdan qochib ulgirmasdayoq, oftob charaqlab ketdi. (S.A.)

Bir qissakim, buning so'ngida

Sevishganlar topishgusidir. (H.O.)

3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: faqat, faqatgina, -gina (-kina, -qina). Bu yuklamalar turli so'z turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab ko'rsatish va ma'no jihatdan ajratish uchun qo'llanadi. Masalan, O'zi haqida o'ylamay, faqat xalqqa ilm berishga bel bog'lagan olim kishi xudi shamga o'xshaydi, sham o'zini yondiradi, xalqqa ziyo bag'ishlaydi. (M.Xasaniy)

Faqat yuklamasi o'rnida yolg'iz so'zi qo'llanishi ham mumkin. Miryoqubning topishi yolg'iz mingboshi orqali bo'lsa, unga «epaqa» nomini qo'yish to'g'ri bo'larmidi. (CHO'lpon)

4. Aniqlov yuklamasi: xuddi, naq. Bu yuklamalar o'zi mansub bo'lgan so'zning ma'nosini aniqlab ko'rsatish uchun qo'llanadi. Ilm o'rganib, ilmiga amal qilmagan kishi naq er haydab, uni ekmagan kishiga o'xshaydi. (M.Xasaniy)

5. Gumon yuklamasi: -dir barcha so'z turkumlariga qo'shib kela oladi va o'zi aloqador bo'lgan so'zga gumon, noaniqlik ma'nosini qo'shadi: - Sizga nimadir va'da bergandir-da? (Isfandiyor)

6. Inkor yuklamasi *na... na* uyushiq bo'laklar va qo'shma gap tarkibidagi ayrim gaplar oldidan kelib, ularning mazmunini inkor etadi, bo'lishsizga aylantiradi. Inkor shaklli gap bo'laklari va gaplar oldida kelganda, bo'lishsizlik kuchaytiriladi, ta'kidlanadi. Bu buyruqqa na ona e'tiroz qildi va na qiz (CHo'lpon). Na qor, na yomg'irdan darak bor. (O.)

1) *-mi, -oq(-yoq), -gina (-kina, -qina), -dir* yuklamalari o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi: *Shu bugunoq ota-onasigagina emas, butun mahallaga yetib bormaydimi?*

2) *-chi, -ku, -u(-yu), -da, -a(-ya)* yuklamalaridan oldin chiziqcha qo'yiladi: *Sen-chi? Keldi-ku!*

3) *faqat, ham, hatto, axir* kabi so'z yuklamalar ayrim yoziladi: *Tog'larda **hatto** yoz oylarida **ham** yomg'ir yog'adi.*

Ayrim so'z yoki gapga qo'shimcha modal ma'no berish uchun qo'llanadigan yordamchi so'zlar yuklamalardir.

Yuklama tuzilishiga ko'ra ikki xil: affiks shakldagi yuklama va so'z shakldagi yuklamalarga bo'linadi: *-mi, -chi, -u, -yu, -da, -ku, -oq(yoq), -gina, -dir* kabilar affiks shakldagi, *axir, nixoyat, naxotki* kabi so'zlar yuklamalardir

Affiksial yuklamalarning affiksdan farqi shundaki, affiks so'zlarga qo'shib, yangi so'z formasi hosil qilsa, yuklamalar izohlab kelgan so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no chog'ishtiring: *traktorchi-traktor-chi, zavodda-zavod-da.*

2-savol bayoni: Yuklamalarning ma'no turlari.

Ma'no xususiyatiga ko'ra yuklamalar quydagi turlarga bo'linadi:

1. So'roq va taajjub yuklamalari *-mi, -chi, -a, -ya.*

2. Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari: *-ku, -u(-yu), -da, -oq, -yoq, -ki, axir, xatto, xattoki, naxotki.*

3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: *-gina(-kina), faqat, faqatgina, elgiz.*

4. Aniqlov yuklamalari: *xuddi, nak.*

5. Gumon yuklamasi: *-dir.*

So'roq va taajjub yuklamalaridan *-mi* so'roq va taajjub, xayrat ma'nolarini bildiradi: *Men dalada ishlashim kerakmishmi?(O)*

-chi yuklamasi, so'roq, buyruq, iltimos, xohish kabi ma'nolarini bildiradi: *Qani yoz-chi(buyruq), yonimga kelib ko'r-chi(do'q), ol-chi bolam(iltimos), tezroq yozsang-chi(qistash), -a, -ya* yuklamasi so'roq, his-hayajon, taajjub, ajablanish ma'nolarini bildiradi: *qanday baxtli kun-a (his-hayajon), bolaga o'xshaydi-ya (taajjub, ajablanish), kelasan-a(so'roq).*

Kuchaytiruv ta'kid yuklamalari so'z ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlash ma'nolarini ifodalaydi. Bular: *-ku, -u, -yu, -oq, --yoq, -ki: -Ancha erni sug'oribdi-ku (O)*

Ham yuklamasi ta'kid ma'nosini (Vaxobjon ham men bilan yuradi), *-u, -yu*

Yuklamasi davomiylilik ma'nosini (O'yladi-yu qoldi), *-oq, -yoq* yuklamasi kuchaytirish ma'nosini, (Tansiq kontsert tugamasdanoq uyga keldi)(O), *axir, xatto, xattoki* yuklamalari ham kuchaytiruv, ta'kid va taajjub ma'nolarini ham bildiradi: *Nahotki, erimiz aylansa chappa.(G'.G')*

Ayiruv va chegaralov yuklamalari *-gina(-kina, -kina), faqat* turli so'z turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab ko'rsatish va ma'no jihatdan ajratish uchun ishlatiladi.

Aniqlov yuklamasi *xuddi, naq* so'zlari o'zi mansub bo'lgan so'zning ma'nosini aniqlab ko'rsatish uchun qo'llanadi: *O'g'il otasining xuddi o'zi.*

Gumon yuklamasi *-dir* o'zi bog'lanib kelgan so'zga gumon ma'nosini qo'shadi: *Omon kimdir, bormi Vatanda(X.O)*

Inkor yuklamasi *-na...na* inkor ma'nosini uqtiradi. Yuklamalar turkumga ko'ra yuklama tuzilishiga ko'ra tahlil qilinadi.

Nazorat savollari

1. Yuklamalarning soʻzga yoki gapga modal ma'nolar qoʻshuvchi, soʻz va gaplar, bir-biriga bogʻlovchi yordamchi soʻzlar ekanligini ajrating.
2. Yuklamalarni ma'no guruhlariga ajratib bering.
3. Yuklamalarning affiks va soʻz shakldagi turlari mavjudligini va yozilishini ajratib, tushuntiring.

Mavzu: Alohida olingan soʻzlar. Modal soʻzlar, ularning ma'no va grammatik xususiyatlari, sintaktik vazifalari.

Mavzu rejasi

1. Alohida olingan soʻzlar. Modal soʻzlar
2. Modal soʻzlarning ma'no turlari va sintaktik vazifasi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Modal soʻz va modallik, modal mano, modal soʻzlar, fikrning tasdigʻini bildiruvchi modal soʻzlar, fikrni taxmin yoʻli bilan ifodalovchi modal soʻzlar, fikrning oʻzaro munosabati va tartibini bildiruvchi modal soʻzlar.

1-savol bayoni: Alohida olingan soʻzlar haqida. Modal soʻzlar.

Oʻzbek tilida modal manolar turli yoʻllar bilan ifodalanadi.

Ot, fel, ravish soʻzlarning maxsus formalari, yuklama va koʻmakchilar hamda modal soʻzlar oʻz manolari bilan modallik anglatib turadi.

Oʻzbek tilida modal mano ifodalash uchun xizmat qiladigan alohida soʻzlar guruhi bor, ular modal soʻzlar deb yuritiladi.

Modal soʻzlar (lotincha modus-usul, oʻlchov, miqdor demakdir.) Soʻzlovchining gapda ifodalangan fikrga munosabatini anglatib turadi. Modal soʻzlar mustaqil soʻzlar kabi predmet, belgi va harakat kabi manolarni atamaydi, gap boʻlagi boʻlib kela olmaydi. Ular odatda butun gapga tegishli boʻladi: Mehnat ham turmush tajribasi, hunari boʻlmagan odam ishdagi kishining uyini, tuygʻusini anglamaydi, degan gapga albatta „shubhasiz, ehtimol, demak kabi soʻzlar qoʻshilganda ham bu gapning manosi oʻzgarmaydi.

Modal soʻzlar bir butun leksik birlik sifatida qaraladi, ular morfemalarga ajratilmaydi; shubhasiz, soʻzsiz kabi. Modal soʻzlarning morfologik belgisi ularning oʻzgarmasligidadir. Modal soʻzlar gapning biror boʻlagiga yoki butun gapga taluqli boʻlib, kirish soʻz vazifasida keladi va bu uning sintaktik vazifasi sanaladi. Semantik belgisi aniq tasdik yoki taxmin kabi modal manolarni ifodalashdir. Modal soʻzlar mustaqil soʻzlarga nisbatan kamroq nominativlikni, yordamchi soʻzlarga nisbatan koʻproq mustaqillikka egaligi bilan xarakterlanadi.

Demak, fikrning voqelikka munosabatini aniq tasdiq va taxmin yoʻli bilan bildirib, morfologik jihatdan oʻzgarmaydigan, kirish soʻz vazifasida keladigan soʻzlar modal soʻzlardir. Modal soʻzlar aslida mustaqil soʻzlardan oʻsib chiqqan: aftidan, haqiqatdan soʻzlari ot turkumidan, shubhasiz, soʻzsiz, tabiiy soʻzlari sifatdan va boshqalar.

Modal soʻzlar manosiga koʻra ikki guruhga: fikrning aniqligini, fikrning noaniqligini bildiruvchi modal soʻzlarga boʻlinadi.

Fikrning aniqligini bildiruvchi modal soʻzlar uning rostligini, chinligini ifoda etadi: albatta, tabiiy, haqiqatdan, shubhasiz kabilar. Fikrning noaniqligi gumon, tasmol, taxmin qilinadi. Bunday modal soʻzlarga balki, ehtimol, chamasi kiradi.

Shuningdek, modal soʻzlar afsuslanish (atang), fikrning oʻzaro munosabati va tartibi (demak, xususan, xullas, masalan, jumadan, chunonchi, birinchidan, ikkinchidan kabilar) manolarini ifodalaydi.

Tilimizdagi mumkin, lozim, kerak, darkor, zarur, shart kabi soʻzlar modal ma'nolar ifodalaydi.

2-savol bayoni: Modal soʻzlarning ma'no turlari va sintaktik vazifasi.

Modal soʻzlar gap boʻlaklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, shuning uchun vergul bilan ajratiladi. Xudi shu koʻrinishdagi mustaqil soʻz esa gap boʻlagi boʻlib kela oladi. Ayrim modal soʻzlar dialoglarda yakka holda qoʻllanganda mustaqil gap sifatida keladi. Bunday hollarda ham modal modal soʻzlar soʻzlovchining anglatayotgan fikrga munosabatini ifodalaydi.

- Rejani bajaramizmi?

- Soʻzsiz.

Modal soʻzlar sintaktik jihatdan quyidagi vazifada keladi.

1. Soʻz-gap:

Uchuvchilik bizning ishimizdan ham ogir?

- Albatta.(Oyd.)

2. Kirish soʻz vazifasida keladi: Sharofat erga karagancha utirar, aftidan, bu savolga javob bermokchi emas edi.(A.K)

Modal soʻz va kirish soʻz bir narsa emas. Kirish soʻz vazifasida turli soʻz turkumlari kelishi mumkin. Jumladan modal soʻzlar ham. Shuningdek tilimizdagi menimcha, uning aytishicha, baxtga qarshi, aytganday, boshqacha aytganda kabi kirish soʻzlar modal soʻzlar guruhiga kirmaydi.

Modal soʻzlar turkumiga koʻra(modal soʻz), maʼnosiga koʻra (tasdik, inkor, afsuslanish, fikrning tartibi), gapdagi vazifasiga koʻra tahlil qilinadi.

Modal soʻzlar maʼno jihatidan quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal soʻzlar:

1) fikrning rostligi tasdiqlanadi: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat (arx.)*; 2) fikrning qatʼiyligi taʼkidlanadi: *shubhasiz, shaksiz, soʻzsiz* 3) ishonch: *albatta* 4) anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: *tabiiy, oʻz-oʻzidan*, 5) fikrning chinligi eslatiladi: *toʻgʻri, xoynoxoy, muhaqqaq (arxaik), aslida, darvoqe, rostdan*.

2. Fikrning noaniqligini ifodalaydigan modal soʻzlar:

1) fikrning taxminiyligini bildiradi: *shekilli, chamasi, chogʻi*;

2) fikrning gumonli ekanligini bildiradi: *ehtimol, balki*;

3) fikrning tasmolli ekanini bildiradi: *aftidan*;

4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradigan: *har holda, har qalay*.

3. Fikrning tartibi: *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan*.

4. Fikrning dalillanishi: *masalan, jumladan*.

5. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat, xullas kalom*.

6. Achinish: *afsus, attang, esiz*.

7. Zaruriyat: *kerak, zarur, lozim*.

8. Quvonch: *xayriyat*.

9. Mavjudlik va mavjud emaslik: *bor, yoʻq*.

Bulardan tashqari: *binobarin, zero, holbuki, vaholanki* kabi modal soʻzlar ham mavjud.

Modal soʻzlarning koʻpchiligi mustaqil soʻzlardan oʻsib chiqqandir.

1) ot turkumidan: *aftidan, haqiqatan, mazmuni, ehtimol, darhaqiqat*; 2) sifatdan: *yaxshi(ki), toʻgʻri, soʻzsiz, shubhasiz, tabiiy*; 3) ravishdan: *albatta*; 4) feʼldan: *xoyna-xoy* (tojikcha *xohi-naxohi* soʻzidan); 4) bogʻlovchidan: *balki*; 5) soʻz birikmasidan: *har qalay, har holda*; 6) gapning modal soʻzga aylanishi: *holbuki (Hol buki)*; 7) soʻz tushirish natijasida hosil boʻlgan: *oʻz-oʻzidan* (aniq soʻzi tushib qoladi).

Modal soʻzlar **sof** va **vazifadosh** modal soʻzlarga boʻlinadi. *Haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, xullas, masalan, umuman, taxminan* soʻzlari sof modal soʻzlar hisoblansa, modal maʼnoda ham qoʻllanadigan *aftidan, chamasi, balki, ehtimol, shubhasiz* kabi soʻzlar vazifadosh modal soʻzlar hisoblanadi.

Modal soʻzlar gap tarkibidagi soʻzlardan vergul bilan ajratiladi va koʻpincha **kirish soʻz** vazifasini bajarib keladi.

Nazorat savol (topshiriq)lari:

1. Modal soʻzlar va ularning mano guruhlarini aytib bera oladi.

2. Modal soʻzlarning grammatik manolarini tushuntirib bera oladi.

1-topshiriq. Modal soʻzlarni topib oʻzgarish-oʻzgarmasligini aniqlang.

1.Xullas, vodiya ham, gullar bogida ham avvalgi hayotdan asar qolmagan edi.(Sh.R).

2.Ilmsiz, marifatsiz yangi turmush qurib boʻlmaydi, albatta.(X.G).

3.Darhaqiqat, xalq uchun ulugʻ ish qilayapsiz, oʻgʻlim.(Sh.R)

4.Afsuski, Dildorning mehnat gʻayratini, insoniy xislatlarini bazi begam raxbarlar sezmedi. (E.Sh).

2-topshiriq. Yuklama va modal soʻzlarni topib,ularning oʻxshash va farqli tomonlarini izohlang.

1. Soʻzdagi noaniqlik, shubhasiz, fikr noaniqligining alomati. (L.N Tolstoy).
2. Kuch-aqlida. Aksiz bosh bamisoli shamsiz chiroq. (L.T)
3. Aql ijodkorlik boʻlsa, topqirlik faqat hozirjavoblikdir. (K.Veber)
4. Agar oʻsha ketishi boʻlsa, bugun xuddi Koʻkonga etib borgan. (A.Kod.)
5. Bilarmisan, sevgan kishiga Soddiq boʻlmoq oʻzi saodat. (X. O.)

ADABIYOTLAR

1. Oʻzbek tili grammatikasi, 1-tom T, 1975 yil.
2. Hozirgi oʻzbek adabiy tili T, 1980 yil.
3. Tursunov. va boshqalar. Hozirgi oʻzbek adabiy tili Tosh. 1992 yil.
4. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Tosh. 1957 yil.
5. Boduen de Kurtene I. A. Izbranno'e trudo' po obshemu yazo'koznaniyu.-M. 1963 g.
6. Ferdinand de Sossyur. Kurs obshey lingvistiki.-Moskva. 1916 g.
7. V.M, Solntsev Yazo'k kak sistemno-strukturnoe obrazovanie, - M., 1971, 11-bet.
8. F.de Sossyur. Trudo' po yazo'koznaniyu, 120-bet.

Mavzu: Undovlar. Ularning grammatik xususiyatlari. Undovlarning otlashishi, sintaktik vazifasi. Undovlarning turlari: his-hayajon, buyruq xitob undovlari.

Reja:

1. Undov soʻzlar haqida umumiy tushuncha.
2. Undov soʻzlarning ma'no turlari.
3. Undov soʻzlarning morfologik tuzilishi.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar:

Undov soʻz, salbiy xis-tuygʻu undovlari, sof undovlar, rasm-odat undovlari, motsional undovlar, odamlarga karatilgan undovlar, imperativ undovlar, xayvonlar, jonivorlarga qaratilgan undovlar, ijobiy-emotsional undovlar koʻrsatish-ta'kid undovlari, sodda undovlar, takroriy undovlar, juft undovlar.

1-savol bayoni: Undov soʻzlar haqida umumiy tushuncha.

Undov soʻzlar kishilarning his-hayajoni, buyruq-xitobi, xaydash-chaqirishi, shuningdek, rasm-odati bilan bogʻliq boʻlgan turlicha munosabatlarni bildiradi.

Undov soʻzlar maxsus turkum sifatida predmet yoki uning belgisini ifodalamaydi, ya'ni leksik jihatdan nominativlikni koʻrsatmaydigan soʻzlar guruhida boʻlsa, grammatik jihatdan oʻzgarmaydigan soʻzlar qatoriga kiradi.

Sof undov soʻzlar kelishik va egalik qoʻshimchalarini olmaydi. Bunday qoʻshimchalarni qabul qilish uchun ular avvalo otlashishi kerak; masalan, dodingni kimga aytasan kabi.

Undov soʻzlar gap boʻlagi boʻla olmaydi, chunki gap tarkibida ular boshqa soʻzlar bilan sintaktik aloqaga kira olmaydi. Ular faqat otlashgandagina gap boʻlagi vazifasini bajarishi mumkin. Undov soʻzlarda mustaqil soʻz turkumlaridek soʻz yasaliş sistemasi yoʻq. Undov soʻzlar demoq, ba'zan urmoq, topmoq, solmoq fe'llari bilan birikishi mumkin, boshqa xollarda hech qanday soʻzlar bilan birikmaydi. Masalan: Oh dedim, ovora boʻldim, yora bilmaydir xanuz. (Muqimiy). Dod voy solmoq, uf tortmoq, oh urmoq kabi. (Bu misollarda nazarimizda undov soʻzlar qoʻshma fe'lning komponenti sifatida ishtirok etmoqda). Undovlarda ohang muhim rol uynaydi. Bir undovning turlicha ohangda talaffuz qilinishi ularning ma'nosiga turlicha ta'sir qiladi. Masalan: O, qanday goʻzal manazara. gapidagi "O" undovining ma'nosi bilan O, bekorlarni aytibsiz gapidagi "O" undovining ma'nosi teng emas. Birinchi gapdagi undov xursandchilikni, ma'naviy lazzatlanish ma'nosini ifodalayotgan boʻlsa, ikkinchi gapdagi undov soʻz e'tiroz, norozilik ma'nolarini ifodalab kelayapti. Yoki: Oh, qanday sulim kecha-ya!(O.) -shodlik, Oh, umr utdi-ketdi oqar suvday... –shikoyatli ovoz bilan dedi kampir. (O.) - afsuslanish, Oh, goʻyo oʻzing bilmaysan,-dedi koʻzlarini uynatib Tansiq.(O.) -ajablanish ma'nolari ifodalanyapti .

Undovlarning ma'nosini aniqlashda ohang bilan bir qatorda kontekstning ham ahamiyati katta. Shuningdek, undovlarning ma'nosini aniqlashda turli mimika va imo-ishoralarning ham oʻziga xos oʻrni bor. Boshqa turkum soʻzlar har doim ham undovlarga oʻtavermaydi. Ularni bunday holatga kiritish uchun maxsus ohang bilan talaffuz etish talab qilinadi. Masalan, "Komissiya" soʻzi "qabul komissiyasi oʻz ishini boshladi" gapida ot turkumiga xos ma'no

- umumkategorial ma'noni, ya'ni predmetlik tushunchasini ifodalayapti. Lekin "Komissiya! Endi nima qilamiz" gapida esa bu so'z emotsional ma'noga ega bo'lib, grammatik jihatdan umumiy gapning mazmuniga tegishli aloqador bo'lsa ham, sintaktik jihatdan gapga yoki uning biror bo'lagiga aloqasi yo'q, bog'lanmaydi.

Undov so'zlar ko'pincha o'ziga xos mimika bilan aytiladi. Mimika undovning ma'nosini kuchaytirib yoki kamaytirib qolmay, ularning ma'nosiga ham ta'sir etadi. Masalan, Bay-bay-bay, bunaqa somsani emaganimga necha yil bo'ldi ekan. (A.Q.) gapidan kishining rohatlanganligi, lazzatlanganligi ma'nosi anglashilib turibdi. Biroq shu gapni ayta turib yuzni burishtirilsa, tamoman boshqa ma'no anglashiladi.

Undov so'zlar boshqa so'z turkumlariga o'tganda ulardagi emotsionallik yo'qoladi. Undovlar nutqda ifodalilikni kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Ular so'zlovchining xis-tuyg'usini ifodalashdan tashqari, baholash munosabatini bildirish xususiyatiga ham egadir.

2-savol bayoni: Undov so'zlarning ma'no turlari.

O'zbek tilidagi undovlar ma'nolariga ko'ra dastlab ikki katta guruhga: emotsional undovlar va imperativ undovlarga bo'linadi. Bulardan tashqari, ikki guruhga ham kiritish mumkin bo'lmagan va alohida guruhni tashkil qiluvchi undovlar ham bor. Shuningdek, undov so'z turli sharoitda turli ma'no ifodalashi va shu sababli uning ma'no guruhi shunga muvofiq o'zgarishi mumkin.

Emotsional undovlar kishilarning his-tuyg'usini, hayajoni va ruhiy holatini bildiruvchi undovlar bo'lib, ular eng katta guruhni tashkil etadi. Bu guruhga kiruvchi undovlar ma'no jihatidan nixoyatda rang-barangdir: ular zavqlanish, quvonch, xursandchilik, xayrixohlik, achinish, xayratlanish, ajablanish, qoyil qolish, afsuslanish, norozilik, nafratlanish, g'azab, o'kinch, alam, g'am, qayg'u, kulfat, dard, shikoyat, vaxima, tanbex va boshqalar.

Emotsional undov so'zlarning ma'nolaridan kelib chiqib umumlashtiradigan bo'lsak, ularni asosan uchta katta guruhga: ijobiy emotsional ma'no bildiruvchi, salbiy his tuyg'uni ifodalovchi, rasm-odat ma'noli his-tuyg'u undovlarga guruhlashga to'g'ri keladi.

Ijobiy emotsional undovlar kontekst va intonatsiya bilan bog'liq ravishda quyidagi ma'no nozikliklariga ega bo'lishi mumkin:

1. Sevinch, xursandchilik, zavqlanish, xavas ma'nolarini ifodalaydi: -Xo, keliningizga muncha mexribonsiz? (P.Q.) Voy, buygingandan aylanay, do'mbog'im. Exe, ish katta-ku!-dedi u takka tuxtab (O.)

2. Shafqat, mehribonlikni ifodalaydi: Voy-ey bolam boyakish-ey, bir kunda nakd do'zax azobini kuribsan. (P.Tursun). O, bechora. Boshingga tekkan ekanda-a? (R.Fayziy.)

3. Qoyil qolish, rohatlanishni ifodalaydi: -Xay-xay, ovkat, ovkat...-dedi Eshon shoshilib (P.Tursun.) O, juda badavlat ekansiz-ku!

4. Mamnuniyat, faxrlanish, mag'rurlanish, xayrixohlikni ifodalaydi: Exe, xush kelibdilar, janoblari!- dedi o'rmdan ko'zg'alib mudarris. (O.)

5. Undash, ogohlantirish, tasdikni ifodalaydi: Xay-xay, qizlar, yulishib ketmanglar, -dedi Shakarxon Begimxonning qo'lidan ushlab. (I.R)

Undovlarning ikkinchi bir turi so'zlovchining voqea-hodisalarga salbiy munosabatini, salbiy his-tuyg'usini bildiradi. Undov vositasida ifodalangan inkor ma'nosi asosan kontekstda oydinlashadi va ular vositasida ifodalangan salbiy inkor ma'nosi quyidagicha ma'no nozikliklarini ifodalashi mumkin:

1. E'tiroz, norozilik, shikoyat, zorlanish ottenkasi ifodalanadi:

a) Ha, bu Ortiq akang toza jonimni oldi (P.Q) b) Ha, ha, nima gap, muncha qovog'ingizdan qor yog'ilmasa?- dedi kampir shoshoshilib ayvon labiga o'tirgach, so'ng eriga tikildi (O.) v) Ux, uldim-ey,-dedi poygacroqda o'tirib (O.) g) Oh, Po'lat, sen qanday raxmsizsan! (Sh.R.) Obbo, aldamchi-ey! Dunyoda yolg'onchi odam ko'payib ketgan (A. Nesin)

2. Jirkanish, nafrat, g'azab, jahl, zarda qilish ottenkalari ifodalanadi: E, akillay berasan-da, Safar! (A.Q.) O, noshud ugil, do'zaxi otangning kilmishlaridan bexabarmiding? (Sh. Yu.)

3. Achinish, afsuslanish ottenkalari ifodalanadi: Oh, qizim, muncha o'zingni o'tda ekasan. (Shuxrat) -Eh! O'rtada oyim bo'lmaganda-ku o'zim bilardim nima qilishimni! (O.Yoqubov)

4. Kinoya, kesatik, piching, koyish ottenkalari ifodalanadi: Obbo siz-ey, quyoning inini ijaraga olmoqchiman deng? (E. Shamsharov) Xo, zumrasha, bo'lar-ku borib kanal kaziydi (E. Shamsharov)

5. Tanbex, ogohlantirish, kutilmaganlik ottenkalari ifodalanadi: -E, sekinrok gapir, bundan anovi ikki oyoqli to'ng'izlar xavfliroq (E.Shukurov) Xay-xay, Nazira buvi, shu bo'ladigan ishmi, yo raisning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirib jo'natdingmi? (A. Qahhor.)

6. Chuchish, yaxima, daxshat ottenkasini ifodalaydi: Vo-ey, payqamabman, qo'rqib ketdim. (O.) -E, xudoyim-ey, endi nima bo'ladi... (S. Jamol)

7. G'am-g'ussa, qayg'u-alam, kulfat, zorlik, o'qinch ottenkalarini ifodalaydi: -Exa, qizlarim, mening ko'rganimini hech kim kurmasin. (O.) -Oh, qani endi u tirilsa-yu, bir kursam (X. G')

8. Ajablanish, taajjub, xayratlanish, ranjish ottenkalari ifodalanadi: Iyi, nima uchun? qarga qarganing ko'zini cho'qiydimi? (E.Shukurov) Ux-xu!-deb o'rnidan turdi tergovchi ajablanib, -zo'rsan-ku?! (E.Shukurov)

Misollardan ko'rinyaptiki, bir xil undovlar kontekst bilan bog'liq ravishda ba'zan ijobiy, ba'zan salbiy ma'noda kelishi mumkin. Lekin undovlarning shunday guruhlar ham borki, ular yo ijobiy yoki salbiy tuyg'uni ifodalaydi, xolos. O'zbek tili faktlari shundan dalolat beradiki, salbiy tuyg'uni bildiruvchi undovlarga nisbatan ijobiy tuyg'u ifodalovchi undovlar ko'proq. Ijobiy tasdiq ma'noli undovlar so'zlovchining zavqlanishi, quvonchi, mamnuniyati, xuzurlanish, qoyil qolish, shodlanish kabi manolarni ifodalashgagina xizmat qiladi, xolos.

O'zbek tilida undovlarning yana bir turi borki, ular turli urf-odat, rasm-rusum bilan bog'liq bo'lgan ma'nolarni ifodalaydi: Xormang, bor bo'ling, salomatmisiz, omonmisiz, barakalla kabilar.

Rasm-rusum, odat undovlarining bir qismi hol-ahvol so'rash, unga javob va shunga o'xshash ba'zi takalluflarni bildirsa, ikkinchi bir xillari ragbatlantirish, minnatdorchilik tuyg'ularini izhor etish uchun qo'llanadi. Rasm-odat undovlari quyidagi ma'no ottenkalariga ega bo'lishi mumkin: a) so'rashish: xormang, bor bo'ling, yaxshimisiz kabi; b) tabrik va xayrlashish: assalomu alaykum, sog' bo'ling, xo'sh, xo'p kabilar. v) rag'batlantirish, tashakkur, minnatdorchilik: marhamat, rahmat, shukur, qulluq, ofarin, qoyil kabilar.

Imperativ undovlar kishilarning diqqatini tortish, ogohlantirish yoki jonivorlarni biror ishni bajarishga undash, to'xtatish kabi ma'no ottenkalarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Buyruq-xitob undovlari ko'proq tinglovchiga qaratilganligi bilan buyruq fe'llariga o'xshab ketadi. Bu xil undovlar leksik grammatik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Imperativ undovlar avvalo ikkiga: a) odamlarga qaratilgan undovlar va b) xayvonlar va jonivorlarga karatilgan undovlarga bo'linadi.

1. Odamlarga qaratilgan undovlarning bir guruhi xoy, ey, xey, allo, oy va b. kishilarning diqqatini so'zlovchiga tortish uchun qo'llanib vokativ xarakterga ega bo'lsa, ikkinchi bir xillari ta'kid, buyurish kabi ma'nolarni ma, marsh, bos, kani, tek kabilar ifodalaydi: a) raxmat allo, o'rtoq Omonov, salom: men Iskandarovman!;

b) Tiss,-dedi Sayyora barmog'ini labiga qo'yib,- gap boshladi (U.Umarbekov)

2. Xayvonlar va boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar, asosan xayvonlarni tuxtashga undash, chaqirish, xaydash, tinchitish kabi ma'nolarni ifodalaydi: Ularni asosan uchga:

a) xayvon va jonivorlarni chakirish uchun ishlatiladigan undovlar: bex-bex, chigi-chigi, tu-tu, pish-pish kabilar.

b) xayvon va jonivorlarni biron harakatdan tuxtatish uchun ishlatiladigan undovlar: dirr, trr, xush, tak kabilar.

v) Xayvon va jonivorlarni xaydash, biror ishni bajarishga undash uchun ishlatiladigan undovlar: chu, chux, pisht, kisht, ix, kish-kish kabilar. Mana bulmasam,-bola shunday deb kichkirarkan, chodir oldiga etganda uni ot qilib minib oldi.-Chu xa chu! (S.A.)

O'zbek tilida emotsional undovlarga ham, imperativ undovlarga ham kiritib bo'lmaydigan, lekin predmetlarning urnini ko'rsatishga, bo'lib o'tgan voqeani eslatishga, javob-ta'kid ma'nolarini ifodalashga xoslangan bir guruh undov so'zlar ham borki, ularni umumiy bir nom - "ko'rsatish, ta'kid undovlari" deb atash ma'kul kuriladi.

Alohida guruh undovlarini quyidagi ma'no to'dalariga bo'lish mumkin:

a) ko'rsatish ma'noli undovlar: -Xu-uv, anovi kirgokdagi tunukani ko'rayapsanmi, -bizning avtobazamiz bo'ladi. (Ch.Ayt.)

b) javob, ta'kid, mulohaza ma'nolarini ifodalaydi: Xa-xa-xa! kumir, taksir (A. Nesin.)

3-savol bayoni: Undov so'zlarning morfologik tuzilishi.

Undov soʻzlar morfologik tarkibiga koʻra uch xil – sodda, takroriy, juft boʻladi. Sodda undovlar morfologik jihatdan maʼnoli qismlarga boʻlinmaydi: E, xmm. tsss, exa, uxu, oh, uf, obbo, xov, ey kabilar. E, bu erning kaeri kam Krimdan! Nima dedinglar. (A.Muqimov). Takroriy undovlar tarkibida hech qanday tovush oʻzgarishi yuz bermaydi. Ular emotsiyani, ekspressivlikni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Oh-oh, mening malikalarim. Takroriy undovlarning qismlari ikkitadan ortiq boʻlishi ham mumkin: E-e-e, -koshini chimrib tana'omoʻz tikildi. Manzura.(O).

Juft undovlarga : Oh-xo, ux-xu, ex-xa, voy-bu, voy-vuy, voy-dod, ex-voh, kabilar kiradi.E-xa! Mirtojiboyning kiziman deng, uxshamaysiz! Yo.Shukurov.

Undov soʻzlarning sintaktik xususiyatlariga ularning gapning boshqa boʻlaklari bilan biror grammatik aloqaga kirishmasligini, faqat mazmunan gapga umumiy aloqali boʻlib, ular baʼzan asosiy gapning ekvivalenti, baʼzan esa shu gapning yakuni sifatida qoʻllanadi. Undov soʻz asosiy gap ichida kelganida shu gapdan ifodalangan umumiy maʼnoga soʻzlovchining munosabatini bildiradi, unga emotsional buyuk beradi.

Gapda undovlar undalma, prepozitiv yuklama vazifasida ham keladi.Gapdan tashqarida undovlar oʻziga xos ohangdagi soʻz-gap tarzida shakllanadi. Undov sof xolda biror savolga javob bera olmaydi va gap boʻlagi vazifasini bajara olmaydi ham. Undov soʻzlar gapda ifodalangan umumiy mazmunga nisbatan soʻzlovchining ijobiy yoki salbiy emotsiyasini bildirishi bilan modal soʻzlar va yuklamalarga uxshaydi.

Nazorat topshiriqlari:

- 1.Undovlarning ma'no va grammatik xususiyatlarini aniqlang.
 2. Gaplardagi undov soʻzlarni topib, grammatik vazifasini aniqlang.
 - 1.Eh, hayot naqadar goʻzal!
 - 2.Salom, ey yangi kuch, yangilik suvini hayotga shimdirgan azamat ulkam.
 - 3.Voy-voy! Bu sen-ku, Ujar! Xuddi oʻzing-a! -dedi Ofat.
 - 4.-Obbo, Oʻjar-e! Shunaqa boʻlib ketdim degin,-dedi Ofat doʻstining qoʻlini siqib.
- Matndagi undovlarni toping va maʼnosini aniqlang.
- 5..Aravakashlar "xay-xay", "chux-chux" deya shovkin bilan kuchani boshiga kutarar edilar.
 - 6.Ikkalamiz ham baralla,chin kunglimizdan kax-kax urib kuldik.(O)
 - 7.-Ux,bay-bay,oʻzing bilasan,bolam.(O)
 - 8.Oh-vohlarimizni tinglash kimga zarur.
 - 9.Tongda ari gulga soʻzlar guv-guv-guv,Guljonim asalni ber,sogindim-ku.
 - 10.Eshikdan boyning kichik xotini Zebixon lop etib kirib keldi.

Adabiyotlar:

1. Hozirgi zamon oʻzbek tili . Toshkent, 1957,510-518-betlar.
2. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1980, 440-441-betlar.
3. Oʻzbek tili grammatikasi. Toshkent, 1975,591-601-betlar.
4. U. Tursunov va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1965,116-119-betlar.
5. Reshetov V.V. Osnovoʻ fonetiki i grammatiki oʻzbekskogo yazoʻka. Tashkent.1965.
- 5.Boduen de Kurtene I. A. Izbrannoʻe trudoʻ po obshemu yazoʻkoznaniyu.-M. 1963 g.
6. Ferdinand de Sossyur. Kurs obshey lingvistiki.-Moskva. 1916 g.
- 7.Baskakov N .A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazoʻkov. 1969.
- 8.V.M, Solntsev Yazoʻk kak sistemno-strukturnoe obrazovanie, - M., 1971, 11-bet.
- 9.F.de Sossyur. Trudoʻ po yazoʻkoznaniyu, 120-bet.

Mavzu: Taqlid soʻzlar. Ularning Grammatik xususiyatlari, otlashishi, taqliq soʻzlarning sintaktik vazifasi; turlari: tovushga taqlid va shuʼla harakatga taqlid soʻzlar.

Mavzu rejasi

1. Taqlid soʻzlarning turlari:tovushga va obrazga taqlid soʻzlar.
2. Taqlid soʻzlarning toʻzilishiga koʻra turlari: sodda, juft(qoʻshma),takroriy taqlid soʻzlar.
3. Taqlid soʻzlar komponentlarining bir-biriga munosabati va qoʻllanishiga koʻra turlari.

Mavzuga oid tayanch atama va iboralar: taqlid soʻzlar, hayvon va jonivorlar tovushiga taqlid, tovushga taqlid, qattiq predmetlar tovushiga taqlid, obrazga taqlid, mexanizmlar tovushiga taqlid, jonli narsalar, oʻq otar qurollar tov. taqlid, jonsiz narsalar tovushiga, transportlar tovush, taqlid, taqlid, kishilar tovushiga taq, sodda taqlid soʻzlar: tub va tarkibiy sodda taqlid soʻzlar, takroriy taqlid soʻzlar,

1-savol bayoni: Taqlid soʻzlarning turlari: tovushga va obrazga taqlid soʻzlar.

Kishilar, boshqa jonli va jonsiz predmetlar va hodisalar chikargan tovushlar taqlidini - ularning turli xil koʻrinishi, holat, harakatlari tasavvoʻrini ifodalovchi soʻzlar taqlid soʻzlar deyiladi.

Taqlid soʻzlarning bir xili tovushga taqlidni koʻrsatsa, ikkinchi bir xili esa harakat-holat va hodisa obraziga taqlidni koʻrsatadi. Shunga koʻra ular ikki xil boʻladi:

- 1) tovushga taqlid soʻzlar;
- 2) obrazga taqlid soʻzlar.

Tovushga taqlid soʻzlar. Boʻlar kishilar, jonivorlar, narsa va hodisalarning chikargan tovushlariga shartli ravishda taqlid qilish natijasida paydo boʻladi: tars-tars, tik, tuk-tuk, kars-kurs kabi.

Tovushga taqlid soʻzlarni kay holatda, nimaning tovushiga yoki taqlid kilayotgan bir jinsdagi narsalarning oʻzaro farqlariga qarab yana bir necha turlarga boʻlish mumkin. Ya'ni ularning bir qismi jonli (inson, xayvon va x.k) ikkinchi bir qismi esa jonsiz predmetlarning tovushlariga taqlid natijasida paydo boʻladi.

1. Jonli predmetlar tovushiga taqlid soʻzlar.

a) Kishilarning harakatlaridan paydo boʻlgan tovushlarga taqlid soʻzlar: Xusayn Boykaro tovoqni kutarib, qatiqni chinakam ishtaxa..., "xur-xur" ichar ekan, darvish gʻor ogʻzida chuqqayib, javray boshladi. (Oybek). Shux juvon ekan shekilli, cholni mashara qilib, piq-piq kulibdi. (X.G)
b) turli xayvon va jonivorlar tovushiga taqlid soʻzlar. Mo-o-o! Bexosdan Koʻrashtepa tomonidan sigir ma'radi. (S. Anorboev).

2. Jonsiz predmetlar tovushiga taqlid soʻzlar .

Jonsiz predmetlar tovushiga taqlid qilish asosida paydo boʻlgan soʻzlar bir necha mayda gruppalariga boʻlinadi:

a) qattiq predmetlar tovushiga taqlid soʻzlar. Zanjir tak etib tushib, darvozaning bir tavakasi ochildi. (X.G) b) Har xil mexanizmlar, motorlar, transport kabilarning harakatlaridan va qurollardan oʻq uzish paytida paydo boʻlgan tovushlarga taqlid soʻzlar: Mashina hademay toʻldi, guldiradi, qars-qars qildi-yu, yurib ketdi. (M. Sholohov) v) gazzimon predmetlar va suyuqliklar harakatidan paydo boʻlgan tovushga taqlid soʻzlar: Shamol yuzga gir-gir urar. (Sh.Sa'dulla)Gʻuv-gʻuv shamol derazaga, eshikka urildi. (X.G)

Tovushga taqlid soʻzlarinig bu klassifikatsiyasi ularning hamma semantik gruppalarini va xususiyatlarini oʻz ichiga bekamu kust qamrab olmaydi. Bu oʻrinda tovushga taqlid soʻzlarning kishilar xayotida tez-tez uchrab turadigan gruppalari keltirilgan. Haqiqatdan esa, hayotda bu klassifikatsiyasidan chetda qoladigan taqlidiy

soʻzlar ham uchraydi: Amirkon kovushning gʻarch-gʻurch bosishdan va uzum donalarini tishlari orasida chars-churs ezishidan qandaydir bir tajanglik, betoqatlik bor edi. (M. Ism). Koʻzlarini ogʻirgina harakatlantirib, kema-ket chip-chip toʻkilmoqchi boʻlgan xazonlarga qaradi va har bir yaproqni yuqoridan kuzatib, erga qoʻyabardi. (A. Kaxxor)

Yuqoridagi misollarning birinchisi biror narsaning ezilishidan hosil boʻlgan tovushni koʻrsatsa, ikkinchisi bargning erga tushishidan hosil boʻlgan tovushni koʻrsatmokda. quyidagi misollar esa yana boshqacha harakterga ega: Ugillarni jiz-biz va dimoklarni kitiklagan yokimli xid kuchok ochib karshi oldi. (M. Ism) Karnayning vaka-vako, vaku-vaka degan tovushi eshitildi. (A. Kaxxor).

Obrazga taqlid soʻzlar. Tovushga taqlid soʻzlar eshitish bilan boglangan hodisalarni ifodalasa, obrazga taqlid soʻzlar koʻrish bilan boglangan hodisalarni ifodalaydi. Predmetlarning holat, harakat, tashki koʻrinishining hamda yoruglik tasvirining obrazli ifodasi sifatida maydonga kelib, tilda keng qoʻllanuvchi lip-lip, yalt-yalt, pildir-pildir, xang-mang tipidagi soʻzlar obrazga taqlid soʻzlar hisoblanadi.

Turmushda harakat va holat formalari kanchalik ko'p bo'lsa, til ham ularni ifodalovchi so'zlarga shuncha boydir. M, alang-jalang - kishining biror narsadan xadiksirab yoki xayron bo'lib, turli tomonga karashini ifodalovchi obrazga taqlid so'z, jilpang-jilpang- ba'zi kishilarnig boshqa shaxslarga o'zini yaxshi ko'rsatish uchun qilgan noo'rin harakatining obrazli ifodasi, mult-mult-ma'lum holatdagi (zorlanib, madad surab) karashni ifodalovchi obrazga taqlid so'zlardir.

Obrazga taqlid so'zlar semantikasidagi bu har xilliklarga ko'ra bir necha gruppaga bo'linadi:

a) harakatni, uning xarakteristikasini bildiruvchi obrazli so'zlar. Bu so'zlar ko'proq kishilarning, narsa va jonivorlarning yurishi va boshqa xil harakatlaridan turli holatlarning obrazli ifodalanishi sifatida maydonga keladi: lip-lip, lop, likang-likang, ship-ship, kilpang-kilpang, salang-salang, jildir-jildir kabilar:

Saidiy lip etib kattakon butaning tagiga kirib ketdi. Nigoraning lablari uchdi, kipriklari pir-pir kilar, ko'zlaridan duv-duv yosh to'kildi.

b) kishi va boshqa predmetlarning holatini, tashki ko'rinishi tasvirini ifodalovchi obrazga taqlid so'zlar. Bo'lar asosan, narsalarning tinchlik, muvozanat holatini tasvirlaydi: Quadrat qanotlari lang ochiq kattakon temir darvoza oldida tuxtadi-yu, birdan G'ulomjonning ikki bilagidan ushlab, yuziga tiqilib turib suradi.(M.I)

Uning qog'ozida chizilgan bog'larda mevalar xil-xil pishar edi.(M.I)

v) yorug'lik tasvirini ifodalovchi taqlid so'zlar. Bu gruppaga obrazli so'zlarning asosiy qismi tusatdan bo'lganlikni, keskinlikni, laxzalikni bildiradi.

Bundan tashqari obrazli so'zlarning yukoridagi gruppalari kishi va boshqa narsalarning harakat va holatini ifodalasa, bu gruppaga erug'lik obrazini ifodalovchi so'zlar sifatida maydonga keladi: U tinik ko'kda so'zaetgan tulin oyga, jivir-jivir nukra yuldo'zlarga, kor bosib etgan chukkiga, soy buyidagi korongi olchazorga tikildi.

2-savol bayoni: Taqlid so'zlarning to'zilishiga ko'ra turlari: sodda, juft(qo'shma),takroriy taqlid so'zlar.

Taqlid so'zlar tuzilishiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:sodda taqlid so'zlar.

Bu so'zlar asosan olmok,demok yordamchi fe'llari bilan birikib keladi.Ba'zan esa,kilmok yordamchi fe'li bilan birikadi.(O'zbek tilida taqlid so'zlarning mustaqil fe'llar bilan birikish hodisasi kam uchraydi.)

Taqlid so'zlar yordamchi fe'llar bilan birikkanda qo'shma fe'llarni tashkil qiladi va keskinlik, bir laxzalikni ifodalaydi. So'z ohiridagi geminatsiya hodisasi yoki intonatsiya harakteri bilan sodda taqlid so'zlarning ma'nosida ham davomlilikni ko'rsatish xususiyati paydo bo'lishi mumkin: M: tarrrr, girrrr,immmm, shig'g'g'g' kabi.

Taqlid so'zlar ma'nosidagi davomlilik, asosan ularning takrorlanishi natijasida yuz beradi. Masalan, tak bir marta eshitishni ifodalasa, taq-taq uning birdan ortiq bo'lganini bildiradi.

Sodda taqlid so'zlar ham bir necha xil formada qo'llanadi:

a) tub xolda qo'llanuvchi taqlid so'zlar.

Bunday taqlid so'zlarga asosan bir bo'g'inli obrazga va tovushga taqlid so'zlar kiradi:

Voy dadasi, bizni etim qilib ketgan dadasi!... deb dod solar, faryod chekar, kishlok juvonlari, kampirlar unga qo'shilib uv tortishar edi. (X.G).Fermaga yakinlashganda, ba-bu degan tovush eshitildi. (og'zaki nutq).

b) qo'shimcha struktura elementiga ega bo'lgan sodda taqlid so'zlar. Bunday taqlid so'zlar yuqoridagi gruppadan ikki tomonlama farq qiladi. Birinchidan, ma'noda farq kilsa (bunda keskinlik ularga nisbatan kuchlirok), ikkinchidan, bu xil taqlid so'zlar struktura jihatidan (undoshQ unliQundoshQundosh) farq qiladi: Unga Nigora kelmagan bo'lsa-chi, degan shubxa ham yopishgan ediki kasalxona eshigi g'iyt etib ochildi. (S.Anorboev).

Bir bo'g'inli taqlid so'zlarga-ir, -a(ng) kabi kuchma ma'noli ottenkalar beruvchi elementlarining qo'shilishi bilan ikki bo'g'inli taqlid so'zlar hosil bo'ladi.

Takroriy taqlid so'zlar

Taqlid soʻzlar takrorlanganda harakat obrazini, tovushning bir necha marta bir xilda, bir tyokisda takrorlanganini, davomlilikni koʻrsatish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari takroriy taqlid soʻzlar miqdorni kuchaytirishni ham koʻrsatishi mumkin.

Takroriy taqlid soʻzlar asosan identiv (uxshash, bir xil) harakterda boʻladi. Bir xil takror formal tomondan ikki koʻrinishga ega:

a) oddiy takror. Bunda maʼlum hodisaning bir tyokisda takrorlanganligi ifodalanadi: miev-miev, chulp-chulp, kirt-kirt, guv-guv kabi.

b) kuchaytiruv elementli takror. Bir xil tovush yoki harakat obrazini kuchaytirib koʻrsatish, undagi tezlikni taʼkidlash uchun takrorning komponentlaridan birida unli tovush orttiriladi: taka-tak, tasir-tusir, gurso-gurs, shaka-shak kabi.

Bir xil takrorlangan taqlid soʻzlarning ikkinchi bir xillari borki, ularning komponentlarini alohida qoʻllash mumkin: miev-miev, duv-duv, gir-gir, inga-inga, kult-kult kabi.

Juft taqlid soʻzlar. Bu tip taqlid soʻzlar bir hodisaning turli oʻzgarib turishini, birgina tovush yoki obrazli harakatning goh kuchayib, goh pasayishi, baʼzan esa yaqinlashishi yoki oʻzoklashishi kabi holatlarini ifodalaydi. Bu holat esa, juft taqlid soʻzlar komponentlaridan birining sostavidagi unli yoki undosh tovushning oʻzgarishi, baʼzan ikkinchi komponentga bir undosh orttirilishi orqali yuz beradi.

Oʻzbek tilida juft taqlid soʻzlar quyidagi yoʻllar bilan yuzaga keladi:

a) unlilar oʻzgarishi bilan: garch-gurch, tak-tuk, tars-turs;

b) undoshlar oʻzgarishi bilan: givir-shivir, chirt-pirt, ging-ping;

v) ikkinchi komponentning boshlanishiga bir undosh orttirilishi bilan: alang-jalang, apil-tapil, apir-tapir;

g) aralash yoʻl bilan: qiy-chuv, gʻij-badabang, gʻovur-shuvir kabi.

3-savol bayoni: Taqlid soʻzlar komponentlarining bir-biriga munosabati va qoʻllanishiga koʻra turlari.

Taqlid soʻzlar komponentlarining bir-biriga munosabati va qoʻllanishiga koʻra uchga boʻlinadi.

Har ikki komponent ham mustaqil qoʻllana oladigan juft soʻzlar: gʻovur-gʻuvur, shov-shuv, givir-shivir.

Komponentlaridan faqat bittasi mustaqil qoʻllana oladigan juft taqlid soʻzlar: ivir-shivir, shaqir-shuqir. Ular harakati tezlashadi, hammayoqni temirning shakir-shoʻqiri sadosi kopladi. (O)

Asosiy maʼnoni qaysi komponent anlatishiga qarab bu xil taqlid soʻzlar ikkiga boʻlinadi:

a) asosiy maʼno birinchi komponentda boʻlgan taqlid soʻzlar: oramizad ham ishni orqaga suruvchi va daboʻzlar, bel ogʻritmasdan non eyuvchi, shaldir-shuldir pul sanovchi tekinoxor shaxslar ham bor. Akram valatga oʻxshagan chaqqonlar fosix afandining u yon-bu yondan shilt-shilt oʻtib qoyavordi. (M. Ism).

b) asosiy maʼno ikkinchi komponentda boʻlgan taqlid soʻzlar: Ahmad Xusayn haqquy kitoblar haqida Sharif Sulaymon bilan bahslasharkan, nogahon qiy-chuv koʻtarib bir gala bola eshikdan kirib keldi. (O)

Har ikki komponenti ham mustaqil qoʻllanmaydigan juft taqlid soʻzlar: Eʼzozxon toʻshakni apil-tapil yigʻib taxmonga olib borib tashladi-da, erga koʻrpacha yozdi. (X.Gʻ). Sultonmurod majilisdagilarning gapidan Alisherning ham saroyda ekanligini angladi, gangir-gungir suhbatga quloq solib oʻtirdi. (O).

Taqlid soʻzlar gapda, asosan, xol va aniqlovchi boʻlib keladi. Taqlid soʻzlar feʼlarning oldida kelib, harakatning qay holatda, ravishda bajarilganligini koʻrsatadi. Bunday xususiyatlari bilan ular ravishlarga ancha yaqin turadi va gapda xol vazifasini bajaradi: Piq-piq yigʻlaysiz, xayitda kiyimsiz qolgan qizday oʻkinasiz, qoʻlingizni chekkangizga tirab ux tortasiz (O)

Taqlid soʻzlar otlardan oldin kelib predmetlarning tovush tomondan belgi-xususiyatlarini koʻrsatib, gapda aniqlovchi vazifasini bajaradi.

Taqlid soʻzlar gapning kesimi vazifasida ham kela oladi. Taqlid soʻzlar gapda kesim funksiyasida kelishi uchun, asosan, juft yoki takroriy formaga oʻtadi: Tarvuzlar ham soy toshidek gʻuj-gʻuj. (B. Kerboboev) Shamol esardi gʻir-gʻir, yaproqlar shildir-shildir. (Q. Muhammadiy).

Taqlid soʻzlar otlashganda gapda ot bajarigan vazifani bajarishi mumkin. Bosh kelishik formasida gapda ega vazifasini bajaradi: Boʻlmasa shu ish tufayli boʻlgan qanchadan-qancha shov-shuv odam bolasini esidan chiqadigan gap emas edi. («Mushtum»)

Taqlid soʻzlar otlashib tushum, chiqish, joʻnalish kelishik qoʻshimchalarini olganda otlar kabi gapda toʻldiruvchi vazifasini bajaradi: Issiqda quruqda gʻarchillayotgan etigining qarchini pasaytirish uchun oyoq uchida yurib, harsangga yaqinlashadi. (S. Anorboev).

Nazorat topshiriqlari:

1-topshiriq. Quyidagi keltirilgan juft taqlid soʻzlar qismlari ifodalayotgan maʼno xarakteridan kelib chiqib, ularni: 1) qismlari mustaqil qoʻllana oladigan, 2) qismlari mustaqil qoʻllana olmaydigan, 3) qismlardan biri mustaqil qoʻllana oladigan guruhlarga ajrating.

Gʻuvir-chuvir, shov-shuv, alang-jalang, gʻivir-shivir, vagʻir-shagʻir, vij-vij, tars-turs, vagir-vigir; ivir-shivir, shakir-shuqir, shaldir-shuldir, taraq-turuq, yalt-yult, shart-shurt, qars-qurs, qiy-chuv, gʻala-gʻovur, gʻidi-bidi, gangir-gungur, xang-mang, apil-tapil, apir-tapir.

2-topshiriq. Quyidagi gaplarda qoʻllangan taqlid soʻzlar qismlari ifodalayotgan maʼno va ulardan qaysi birini mustaqil qoʻllay olish mumkinligini ayting.

Qoʻra orkasida arava gildiraklarining taqir-tuquri eshitildi. (X.Gʻ)

Gʻuldur-shaldur, taraqa-turuq oʻzgarishsiz davom etadi. (A. Q.)

–Xay, ichkariga kir, chagʻir-chugʻurdan qulogʻim bitdi.

Kampir piq-piq yigʻlab yubordi.

Teatr ichi gʻovur-gʻuvur boʻlib ketdi. Gʻovur-gʻuvurning dami pasaydi. (S.A)

Sotuvchi uzatgan papirosni kulga olib xang- mang boʻlib qoldi. («Mushtum»)

Gʻala-gʻovur ichida allakimning baland ovozi yangradi. (M.I.)

3-topshiriq. Gaplardagi taqlid soʻzlarni topib, qismlar ifodalayotgan maʼnoni tushuntiring.

Gʻuv-gʻuv uchar bolari, Duv-duv uchar bolari.

Viz-viz-viz, Qani toping, kim biz? Oltin qoʻngʻiz. (Q. M)

Oramizda... shaldir-shuldir pul sanovchilar, tekinxoʻr shaxslar ham yoʻq emas. (Gazetadan.)

Kucha tomondan gurs-gurs oyoq tovushi keldi. (S.)

Karnay-surnaylarning gʻat-gʻati bayram tongidan darak beradi.

Adabiyotlar:

5.Oʻzbek tili grammatikasi. 1 tom, Toshkent, 1975, 271-306.

6.Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 1 qism. Toshkent, 1980, 251-256.

7.U. Tursunov va boshq. Hozirgi zamon oʻzbek adabiy tili. Toshkent, 1992. 280-287.

8.Sodikova M. Hozirgi oʻzbek tilida sifat. Toshkent, 1974.

5.Boduen de Kurtene I. A. Izbrannoʻe trudoʻ po obshemu yazoʻkoznaniyu.-M. 1963 g.

6. Ferdinand de Sossyur. Kurs obshey lingvistiki.-Moskva. 1916 g.

7.Baskakov N. A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazoʻkov. 1969.

8.V.M, Solntsev Yazoʻk kak sistemno-strukturnoe obrazovanie, - M., 1971, 11-bet.

9.F.de Sossyur. Trudoʻ po yazoʻkoznaniyu, 120-bet.

ONA TILI VA ADABIYOT (MORFOLOGIYA) FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Grammatika haqida umumiy ma'lumot.

So'zning lug'aviy va grammatik ma'nosi, grammatik shakli. Grammatik shaklning turlari. Grammatik kategoriya.

Dars maqsadi: talabalarda morfologiya va uning kategoriyalarini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Morfologiyada grammatik ma'no va uning turlari amal qilinishini so'zlab bera oladi.
2. Grammatik forma morfologiyaning muhim xususiyatlaridan biri ekanligini tushuntirib bera oladi.
3. Grammatik kategoriya-morfologiya o'rgatishi lozim bo'lgan ta'limotning asosi ekanligini tushuntirib, topib bera oladi.
4. Grammatik ma'no va grammatik forma bir butun falsafiy-grammatik hodisa ekanligini gapirib, aniqlab bera oladi.
5. So'z turkumlari va ularning tasnifi, me'zonlarini izohlay oladi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Morfologiyada grammatik ma'no va uning turlari amal qilinishi so'zlab beriladi.
2. Grammatik forma morfologiyaning muhim xususiyatlaridan biri ekanligi tushuntirib beriladi.
3. Grammatik kategoriya-morfologiya o'rgatishi lozim bo'lgan ta'limotning asosi ekanligi tushuntirib beriladi.
4. Grammatik ma'no va grammatik forma bir butun falsafiy-grammatik hodisa ekanligi gapirib beriladi.
5. So'z turkumlari va ularning tasnifi, me'zonlari izohlanadi.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1-топшириқ. Грамматиканинг бўлимлари кўрсатилган тўғри жавобни топинг.

- А) Фонетика, орфография.
- В) Сўз ясаши, морфемика.
- С) Морфология, синтаксис.
- Д) Лексикология, семасиология.
- Е) Орфоэпия, услубият.

2-топшириқ: Морфологиянинг предмети ҳақидаги тўғри таърифни айтинг.

- А. Грамматиканинг асосини сўз туркумлари ва гап ҳақидаги таълимот ташкил қилади.
- В. Морфологиянинг объекти сўзнинг грамматик томонидир.
- С. Морфология сўз ҳақидаги грамматик таълимот.
- Д. Морфологиянинг асоси кенг маънода форма яшадир, сўзнинг формасидир.
- Е. Морфология сўз формалари системаси парадигматикаси ҳақидаги фандир.

3-топшириқ: Грамматика ҳақидаги тўғри таърифни аниқланг.

- А. Сўзнинг морфологик ва синтактик хусусиятлари ҳақидаги таълимот грамматиканинг асосидир.
- В. Грамматиканинг асосини сўз туркумлари ва гап ҳақидаги таълимот ташкил қилади.
- С. Грамматика тилнинг сўз ўзгартириш ва сўз қўшиш-бириктириш қоидаларининг йиғиндиси бўлиб, у сўзнинг формаларини, сўз категорияларини, сўз бирикмаси ва гап ҳосил қилишдаги хусусиятларни текширади.
- Д. Грамматика тилнинг грамматик қурилишига хос қонун-қоидаларни, нормаларни тасвирлайди, унинг турли хусусиятларини текширади.
- Е. Барча жавоблар тўғри.

1.2.

1-топшириқ. Сўзларнинг лексик-грамматик категорияларга гуруҳлашнинг мезонлари қайси жавобда изчил баён этилган?

А. Мустақил сўзлар: от, сифат, феъл, равиш, ёрдамчи сўзлар: кўмакчи, боғловчи, юклама ва модал, ундов, тақлид сўзлар.

В. От, сифат, феъл, равиш, кўмакчи, боғловчи, юклама; модал, ундов ва тақлид сўзлар.

С. Умумий категориал маънога эга бўлган мустақил сўзлар: от, сифат, сон, олмош, феъл, равиш; умумий категориал маънога эга бўлмаган сўзлар: кўмакчи, боғловчи, юклама; модал, ундов ва тақлид сўзлар.

Д. От, сифат, сон, олмош, феъл, равиш каби мустақил сўзлар; кўмакчи, боғловчи, юклама каби ёрдамчи сўзлар, шунингдек, модал сўз, ундов сўз, тақлид сўзлар.

Е. Барча жавоблар тўғри.

2-топширик. Берилган сўзларни сўзнинг морфологик структурасига кўра таркибини аниқланг.

Қариндошлик муносабатлари эмас, қарашларнинг бирлиги дўстликка олиб келади.

3-топширик. Берилган гапдаги ажратилган сўзларнинг умумкатегориал ва ички категориал маъно(грамматик маъно бирор туркум доирасида)ларини алоҳида кўрсатинг.

Пахта - инсон жонини иситган оташ.(Ғ.Ғ.)

Яшамок - ҳамиша тўхтовсиз олдинга интилмоқ демакдир.(С.Жонсон)

1.3.

1-топширик. Сўз туркумларининг гуруҳланиш принциплари тўғри қайд этилган жавобни топинг.

А. Сўзнинг луғавий маъносига қаралади.

В. Сўзнинг морфологик белгиларига қаралади.

С. Сўзнинг гапдаги вазифаси ҳисобга олинади.

Д. Ҳар учала томон назарда тутилади.

2-топширик. Гапларни морфологик таҳлил қилинг, туркумларини (умум категориал маъносини) аниқланг.

Салимбойвачча қонсиз юзини асабий буриштириб, дарвоза ёнида бирдан қотди. Мирзакаримбой номозгарга яқин келди. Йўлчи чиндан ҳам най чалишни билар эди ва яхши чалар эда. Кейин "чу" деб отга қамчи ураркан, Йўлчига қичқирди.

3-топширик. Морфологик категориялар номлари тўғри ва тўлиқ келтирилган жавобни топинг.

А. Тусловчилар, бирикма, қўшилма.

В. Сўз формалари, сўз туркумлари, қўшма сўзлар.

С. Сўз формалари: синтетик, аналитик, жуфт ва такрорий формалар, сўз туркумлари: от, сифат, сон, олмош, феъл, равиш; кўмакчи, боғловчи, юклама; ундов, модал ва тақлид сўзлар.

Д. Турловчилар, тусловчилар; ўзгарувчи, ўзгармас сўзлар.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-топширик. Сўзнинг бирор туркумга мансублигини кўрсатувчи, маълум бир грамматик категорияга хослигини ифодаловчи маъно...

А. Луғавий маъно;

В. Номловчи маъно;

С. Фигурал маъно;

Д. Дифференциал маъно.

Е. Грамматик маъно... дейилади.

Топширикдаги кўп нуқта ўрнига берилган жавоблардан тўғриси кўйиб тўлдилинг.

2-топширик. Сўз туркумларини иккига: умумий категориал маънога эга ва умумий категориал маъно ифодаламайдиган сўз туркумига ажратинг.

От, сифат, сон, олмош, феъл, равиш, кўмакчи, боғловчи, юклама, ундов, тақлид ва модал сўзлар.

3-топширик. Сўз туркумларининг ички категориал грамматик маъноларини ифодаловчи парадигмаларини санаб кўрсатинг.

От: Ёрдамчи сўзлар:

Сифат: Ундов сўзлар:
Сон: Модал сўзлар:
Олмош: Таклид сўзлар:
Феъл:
Равиш:

2.2.

1-топширик. Сўзнинг грамматик формаси ҳақидаги тўғри таърифни топинг.

1.Сўзнинг муайян грамматик маъно ифодаловчи шакли, СГФ дейилади.

2.Сўзнинг синтетик шакллари СГФ дейилади.

3.Сўзнинг семантик шакллари СГФ дейилади.

4.Сўзнинг жуфт ва такрорий формалари СГФ дейилади.

5.Сўзнинг ҳеч қандай кўшимчасиз, туб ҳолдаги шакли СГФ дейилади.

2-топширик. Ўзбек тилида сўзнинг тузилишига кўра формалари тўғри акс этган жавобни аниқланг.

1.Сўзнинг умумкатегориал формалари.

2.Сўзнинг аналитик, жуфт, такрорий ва нолга тенг шакллари.

3.Сўзнинг аналитик ва аралаш формалари.

4.Сўзнинг перифрастик ва синтетик формалари.

5.Туб, содда, содда ясама, кўшма, жуфт, такрорий.

3-топширик. Матндаги грамматик формалар қандай грамматик маъно ифодалаётганини сўз формаларининг турлар(синтетик, аналитик, аралаш, жуфт ва такрорий)ига мувофиқ ажратинг.

Халқ авлодлари бирин-кетин яшаб ўтаверади, аммо ҳар бир авлод ҳаётининг натижалари кейинги авлодларга тил орқали мерос бўлиб ўтади. Ҳар бир авлод ўз хис-туйғуларини, тарихий воқеалар, диний эътиқод, маслак натижаларини, бошидан кечирган қайғу ва хурсандчиликларини она тили хазинасига қўшади; хуллас, халқ бутун маънавий ҳаётининг натижаларини ўз тилида эҳтиёт қилиб сақлаб келади.

4-топширик. Матндаги (3-топширикдаги) сўзларни: а) категориал, б) нокатегориал (функционал) формадаги сўзлар гуруҳларига ажратинг.

2.3.

1-топширик. Бир-бирига қиёсан олинадиган икки ёки ундан ортиқ грамматик маъно ва шу маъноларни ифодаловчи грамматик шакллар системаси нима дейилади:

А)сўзнинг прагматик маъноси,

В)сўзнинг кўчма маъноси,

С)сўзнинг экспрессив маъноси,

Д)сўзнинг генетик маъноси,

Е)сўзнинг грамматик категорияси.

2-топширик. Қуйидаги грамматик атамалардан қайсилари грамматик категория бўла олади, уларни иккига ажратинг.

Отнинг: сон, эгалик, жамлик, жинс, келишиқ, ўхшатиш, эркалаш, хослик, хурмат;

Феълнинг: шахс-сон, замон, майл, нисбат, бўлишли-бўлишсизлик, ўтимли-

ўтимсизлик, объектли-объектсизлик, равишдош, сифатдош, ҳаракат номи, ҳаракат давомийлигини ифодаловчи шакллар.

2.4.

1-топширик: сўзнинг нокатегориал формалари нега грамматик категория саналмайди:

А) нокатегориал формалар луғавий маънони юзага келтирмайди,

В) нокатегориал формаларда қиёсан олинадиган маъно ва шу маъноларни ифодаловчи грамматик шакллар тизими йўқ,

С) нокатегориал формалар сўзларни бир-бирига боғламайди,

Д) нокатегориал формалар сўз формасинигина ҳосил қилади, холос.

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1.

1-топширик. Ўзбек тилидаги сўз туркумлари нечта ва улар қандай тартибда жойлашганлигига мослаб матндаги сўзларни жойлаштиринг.

Тил халқнинг маънавий, кўп асрли ҳаётининг энг тўлиқ ва энг ҳаққоний йилномасидир. Шу билан бир вақтда тил халқнинг ўқитувчиси ҳамдирки, у китоб ва мактаблар бўлмаганида ҳам халқни ўқитган, ўргатган, ҳозир ҳам ўқитиб-ўргатмоқда ва бундан кейин ҳам халқни ўқитиб боради.

2-топшириқ. Сўзнинг туркумларга бўлиниши қайси жавобда изчил баён этилган.

А. Мустақил сўзлар: от, сифат, сон, олмош, феъл, равиш; ёрдамчи сўзлар: кўмакчи, боғловчи, юклама ва модал сўз, ундов, тақлид сўзлар.

В. От, сифат, сон, олмош, феъл, равиш, кўмакчи, боғловчи, юклама, модал сўз, ундов, тақлид сўзлар.

С. Умумий категориал маънога эга бўлган мустақил сўзлар; от, сифат, сон, олмош, феъл, равиш, умумий категориал маънога эга бўлмаган сўзлар: кўмакчи, боғловчи, юклама, модал сўз ва ундов, тақлид сўзлар.

Д. От, сифат, сон, олмош, феъл, равиш каби мустақил сўзлар; кўмакчи, боғловчи, юклама каби ёрдамчи сўзлар; шунингдек, модал сўз, ундов, тақлид сўзлар.

3.2.

1-топшириқ. Ҳозирги тилимиздаги сўзлар асосан қандай белги (мезон)ларга кўра туркумларга гуруҳланади?

А) Сўзлар аташ, номлаш хусусиятларига кўра туркумга бўлинади.

В) Сўзлар луғавий маъноларга кўра туркумларга гуруҳланади.

С) Сўзлар синтактик вазифасига кўра туркумларга гуруҳланади.

Д) Сўзлар морфологик шаклланиши (белги)га кўра туркумларга бўлинади.

Е) Сўзлар луғавий маъно, грамматик шаклланиш ва синтактик вазифага кўра туркумларга гуруҳланади.

2-топшириқ. Матндаги сўзларнинг туркумларини аниқланг.

Орадан асрлар ўтди. Ислом олами таназзулга учраб, илм аҳли бўйнига итоат халқаси тушди.

3.3.

1-топшириқ. Қуйида келтирилган сўзларни иккига: 1) умумий категориал маънога эга; 2) умумий категориал маънога эга бўлмаган сўзларга ажратинг. Ислом, Жасур, қайчи, нон, тез, секин, олдин, бирдан, сари, каби, учун, шунинг учун, тўғри, сўзсиз.

3.4.

1-топшириқ. Мустақил сўз туркумига хос бўлган умумий категориал грамматик маънолар тўғри қайд этилган жавобни топинг.

А. Предметлик, белги, миқдор, ишора (кўрсатувчилик), иш-ҳаракат белгисини ва ҳаракатнинг ифодаланиши.

В. Ҳаракат, ҳолат, предмет, белги билдириш УКГМ дейилади.

С. Номлаш, ўзгармаслик, лекин турланиш ва тусланиш хусусиятлари УГМ дейилади.

3.5.

1-топшириқ. Ёрдамчи сўзлар қандай белгиларига кўра туркумларга гуруҳланади? Тўғри ва тўлиқ жавобни аниқланг.

А. Луғавий маъно ифодалай олишига кўра.

В. Грамматик маъно ифодаланишига кўра.

С. Синтактик вазифа бажаришига кўра.

Д. Грамматик маъно ва вазифа бажаришига кўра.

Е. Грамматик маъно ва грамматик вазифа бажаришига кўра.

2-топшириқ. Қайси банддаги сўзлар луғавий маъносини йўқотиб, кўмакчи, боғловчи, юкламага айланган? Тўғри ва тўлиқ жавобни айтинг.

А. Билан, учун, каби, сари, сайин, ўзга, чунки.

В. Ҳомон, ташқари, бери, кўра, шунинг учун.

С. Билан, учун, каби, сари, сайин, янглиғ, сингари, доир, оид, чунки, ва, гоҳ, гўё, -ми, -чи, -дир.

Д. Билан, учун, каби, сари, сайин, қадар, ўзга, туфайли, бошқа, сабабли, орқали, фақат, шунинг учун.

3.6.

1-топшириқ. Гаплардаги модал сўзларни топинг ва улар ифодалаган маънони изоҳланг.

Қодир бу одамнинг афтидан касб-корини белгилай олмади.(А.Қ.) Афтидан, улар эндиgina заводдан чиққан бўлса керак, бўёқ хиди гупиллаб димокқа уриб турибди.(И.Р.) Элмурод уларнинг овозларидан ўз ишларидан ниҳоят хурсанд эканлигини сизди. Ниҳоят, остонада Пўлат кўринди.(Ш.Р.) Сидиқжон тушки дам олишдан кейин кечгача хийла дуруст ишлади.(А.Қ.)

2-топшириқ. Матндаги ундов сўзларни топиб, маъно ва грамматик хусусиятларини тушунтиринг.

Мен етим ўсганман, ох, у етимлик...

Вой, бечора жоним, десам арзийди.(Ғ.Ғ.)

Бай-бай, зап чой бўлибди-да...(А.Қ.)

О...узугинг жуда чиройли, қани менга бер-чи.(Уйғун ва И.Султон)

3-топшириқ: Матндаги тақлид сўзларни топиб, уларнинг маъноларини турларига кўра тушунтиринг.

Ҳаво тоза. ғир-ғир шамол эсиб турибди.(С.А.)

Юраги қинидан чиққудай дук-дук уради.(О.)

Орқадан Холисхоннинг пиш-пиш ухлаётгани эшитилиб турибди.

Мустақил ишлар:

1-топшириқ. Мустақил сўз туркумлари: от, сифат, сон, олмош, феъл, равишларга хос семантик-грамматик хусусиятларга ёзма жавоб беринг.

2-топшириқ. Матндаги сўзларни туркумларга ажратиб, ёрдамчи ва алоҳида сўзлар (модал, ундов, тақлид)ни лексик-грамматик жиҳатдан таҳлил қилинг.

Ўзбекистон номи билан. Бепоеън мамлакатимиз халқлари - қон-қондош. Улар ҳамма ерда, ҳар бир ишда бир-бирларига ҳамкор, мададкор. Ҳамюртларимизнинг бунёдкорлик ишлари бунга ёрқин мисол.

Адабиётлар:

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм, Тошкент, 2010, 206-212.
2. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том, Тошкент, 1975, 53-124.
3. У.Турсунов ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992.
4. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. “XXI аср авлоди”, Т., 2001.
5. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.
6. А.Ғуломов ва б. Ўзбек тили морфем луғати. Тошкент, 1977.

2-amaliy mashg'ulot

Morfologiyaga kirish. Morfologiya haqida umumiy ma'lumot.

Ona tilida so'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari. So'z turkumlari va turlari: mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar, alohida olingan so'zlar.

Dars maqsadi: talabalarda morfologiya va uning kategoriyalarini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Morfologiyada grammatik ma'no va uning turlari amal qilinishini so'zlab bera oladi.
2. Grammatik forma morfologiyaning muhim xususiyatlaridan biri ekanligini tushuntirib bera oladi.
3. Grammatik kategoriya-morfologiya o'rgatishi lozim bo'lgan ta'limotning asosi ekanligini tushuntirib, topib bera oladi.
4. Grammatik ma'no va grammatik forma bir butun falsafiy-grammatik hodisa ekanligini gapirib, aniqlab bera oladi.
5. So'z turkumlari va ularning tasnifi, me'zonlarini izohlay oladi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Morfologiyada grammatik ma'no va uning turlari amal qilinishi soʻzlab beriladi.
2. Grammatik forma morfologiyaning muhim xususiyatlaridan biri ekanligi tushuntirib beriladi.
3. Grammatik kategoriya-morfologiya oʻrnatishi lozim boʻlgan ta'limotning asosi ekanligi tushuntirib beriladi.
4. Grammatik ma'no va grammatik forma bir butun falsafiy-grammatik hodisa ekanligi gapirib beriladi.
5. Soʻz turkumlari va ularning tasnifi, me'zonlari izohlanadi.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1-топширик. Грамматиканинг бўлимлари кўрсатилган тўғри жавобни топинг.

- A) Фонетика, орфография.
- B) Сўз ясашиши, морфемика.
- C) Морфология, синтаксис.
- D) Лексикология, семасиология.
- E) Орфоэпия, услубият.

2-топширик: Морфологиянинг предмети ҳақидаги тўғри таърифни айтинг.

- A. Грамматиканинг асосини сўз туркумлари ва гап ҳақидаги таълимот ташкил қилади.
- B. Морфологиянинг объекти сўзнинг грамматик томонидир.
- C. Морфология сўз ҳақидаги грамматик таълимот.
- D. Морфологиянинг асоси кенг маънода форма яшадир, сўзнинг формасидир.
- E. Морфология сўз формалари системаси парадигматикаси ҳақидаги фандир.

3-топширик: Грамматика ҳақидаги тўғри таърифни аниқланг.

- A. Сўзнинг морфологик ва синтактик хусусиятлари ҳақидаги таълимот грамматиканинг асосидир.
- B. Грамматиканинг асосини сўз туркумлари ва гап ҳақидаги таълимот ташкил қилади.
- C. Грамматика тилнинг сўз ўзгартириш ва сўз кўшиш-бириктириш қоидаларининг йиғиндиси бўлиб, у сўзнинг формаларини, сўз категорияларини, сўз бирикмаси ва гап ҳосил қилишдаги хусусиятларни текширади.
- D. Грамматика тилнинг грамматик қурилишига хос қонун-қоидаларни, нормаларни тасвирлайди, унинг турли хусусиятларини текширади.
- E. Барча жавоблар тўғри.

1.2.

1-топширик. Сўзларнинг лексик-грамматик категорияларга гуруҳлашнинг мезонлари қайси жавобда изчил баён этилган?

- A. Мустақил сўзлар: от, сифат, феъл, равиш, ёрдамчи сўзлар: кўмакчи, боғловчи, юклама ва модал, ундов, тақлид сўзлар.
- B. От, сифат, феъл, равиш, кўмакчи, боғловчи, юклама; модал, ундов ва тақлид сўзлар.
- C. Умумий категориал маънога эга бўлган мустақил сўзлар: от, сифат, сон, олмош, феъл, равиш; умумий категориал маънога эга бўлмаган сўзлар: кўмакчи, боғловчи, юклама; модал, ундов ва тақлид сўзлар.
- D. От, сифат, сон, олмош, феъл, равиш каби мустақил сўзлар; кўмакчи, боғловчи, юклама каби ёрдамчи сўзлар, шунингдек, модал сўз, ундов сўз, тақлид сўзлар.
- E. Барча жавоблар тўғри.

2-топширик. Берилган сўзларни сўзнинг морфологик структурасига кўра таркибини аниқланг.

Қариндошлик муносабатлари эмас, қарашларнинг бирлиги дўстликка олиб келади.

3-топширик. Берилган гапдаги ажратилган сўзларнинг умумкатегориал ва ички категориал маъно(грамматик маъно бирор туркум доирасида)ларини алоҳида кўрсатинг.

Пахта - инсон жонини иситган оташ.(F.F.)

Яшамок - ҳамиша тўхтовсиз олдинга интилмоқ демакдир.(C.Жонсон)

1.3.

1-топширик. Сўз туркумларининг гуруҳланиш принциплари тўғри қайд этилган жавобни топинг.

- А.Сўзнинг луғавий маъносига қаралади.
- В.Сўзнинг морфологик белгиларига қаралади.
- С.Сўзнинг гапдаги вазифаси ҳисобга олинади.
- Д.Ҳар учала томон назарда тутилади.

2-топширик. Гапларни морфологик таҳлил қилинг, туркумларини (умум категориал маъносини) аниқланг.

Салимбойвачча қонсиз юзини асабий буриштириб, дарвоза ёнида бирдан қотди. Мирзакаримбой номозгарга яқин келди. Йўлчи чиндан ҳам най чалишни билар эди ва яхши чалар эда. Кейин "чу" деб отга қамчи ураркан, Йўлчига қичқирди.

3-топширик. Морфологик категориялар номлари тўғри ва тўлиқ келтирилган жавобни топинг.

- А.Тусловчилар, бирикма, қўшилма.
- В.Сўз формалари, сўз туркумлари, қўшма сўзлар.
- С.Сўз формалари: синтетик, аналитик, жуфт ва такрорий формалар, сўз туркумлари: от, сифат, сон, олмош, феъл, равиш; кўмакчи, боғловчи, юклама; ундов, модал ва тақлид сўзлар.
- Д.Турловчилар, тусловчилар; ўзгарувчи, ўзгармас сўзлар.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-топширик. Сўзнинг бирор туркумга мансублигини кўрсатувчи, маълум бир грамматик категорияга хослигини ифодаловчи маъно...

- А.Луғавий маъно;
- В.Номловчи маъно;
- С.Фигурал маъно;
- Д.Дифференциал маъно.
- Е.Грамматик маъно... дейилади.

Топширикдаги кўп нуқта ўрнига берилган жавоблардан тўғриси кўйиб тўлдилинг.

2-топширик. Сўз туркумларини иккига: умумий категориал маънога эга ва умумий категориал маъно ифодаламайдиган сўз туркумига ажратинг.

От, сифат, сон, олмош, феъл, равиш, кўмакчи, боғловчи, юклама, ундов, тақлид ва модал сўзлар.

3-топширик. Сўз туркумларининг ички категориал грамматик маъноларини ифодаловчи парадигмаларини санаб кўрсатинг.

- | | |
|--------------|-----------------------|
| От: | Ёрдамчи сўзлар: |
| Сифат: | Ундов сўзлар: |
| Сон: | Модал сўзлар: |
| Олмош: | Тақлид сўзлар: |
| Феъл: | |
| Равиш: | |

2.2.

1-топширик. Сўзнинг грамматик формаси ҳақидаги тўғри таърифни топинг.

- 1.Сўзнинг муайян грамматик маъно ифодаловчи шакли, СГФ дейилади.
- 2.Сўзнинг синтетик шакллари СГФ дейилади.
- 3.Сўзнинг семантик шакллари СГФ дейилади.
- 4.Сўзнинг жуфт ва такрорий формалари СГФ дейилади.
- 5.Сўзнинг ҳеч қандай қўшимчасиз, туб ҳолдаги шакли СГФ дейилади.

2-топширик. Ўзбек тилида сўзнинг тузилишига кўра формалари тўғри акс этган жавобни аниқланг.

- 1.Сўзнинг умумкатегиориал формалари.
- 2.Сўзнинг аналитик, жуфт, такрорий ва нолга тенг шакллари.
- 3.Сўзнинг аналитик ва аралаш формалари.

4.Сўзнинг перифрастик ва синтетик формалари.

5.Туб, содда, содда ясама, кўшма, жуфт, такрорий.

3-топширик. Матндаги грамматик формалар қандай грамматик маъно ифодалаётганини сўз формаларининг турлар(синтетик, аналитик, аралаш, жуфт ва такрорий)ига мувофик ажратинг.

Халқ авлодлари бирин-кетин яшаб ўтаверади, аммо ҳар бир авлод ҳаётининг натижалари кейинги авлодларга тил орқали мерос бўлиб ўтади. Ҳар бир авлод ўз ҳис-туйғуларини, тарихий воқеалар, диний эътиқод, маслак натижаларини, бошидан кечирган қайғу ва хурсандчиликларини она тили хазинасига қўшади; хуллас, халқ бутун маънавий ҳаётининг натижаларини ўз тилида эҳтиёт қилиб сақлаб келади.

4-топширик. Матндаги (3-топширикдаги) сўзларни: а) категориал, б) нокатегориал (функционал) формадаги сўзлар гуруҳларига ажратинг.

2.3.

1-топширик. Бир-бирига қиёсан олинган икки ёки ундан ортиқ грамматик маъно ва шу маъноларни ифодаловчи грамматик шакллар системаси нима дейилади:

А)сўзнинг прагматик маъноси,

В)сўзнинг кўчма маъноси,

С)сўзнинг экспрессив маъноси,

Д)сўзнинг генетик маъноси,

Е)сўзнинг грамматик категорияси.

2-топширик. Қуйидаги грамматик атамалардан қайсилари грамматик категория бўла олади, уларни иккига ажратинг.

Отнинг: сон, эгалик, жамлик, жинс, келишиқ, ўхшатиш, эркалаш, хослик, хурмат;

Феълнинг: шахс-сон, замон, майл, нисбат, бўлишли-бўлишсизлик, ўтимли-ўтимсизлик, объектли-объектсизлик, равишдош, сифатдош, ҳаракат номи, ҳаракат давомийлигини ифодаловчи шакллар.

2.4.

1-топширик: сўзнинг нокатегориал формалари нега грамматик категория саналмайди:

А) нокатегориал формалар луғавий маънони юзага келтирмайди,

В) нокатегориал формаларда қиёсан олинган маъно ва шу маъноларни ифодаловчи грамматик шакллар тизими йўқ,

С) нокатегориал формалар сўзларни бир-бирига боғламайди,

Д) нокатегориал формалар сўз формасинигина ҳосил қилади, холос.

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1.

1-топширик. Ўзбек тилидаги сўз туркумлари нечта ва улар қандай тартибда жойлашганлигига мослаб матндаги сўзларни жойлаштиринг.

Тил халқнинг маънавий, кўп асрли ҳаётининг энг тўлиқ ва энг ҳаққоний йилномасидир. Шу билан бир вақтда тил халқнинг ўқитувчиси ҳамдирки, у китоб ва мактаблар бўлмаганида ҳам халқни ўқитган, ўргатган, ҳозир ҳам ўқитиб-ўргатмоқда ва бундан кейин ҳам халқни ўқитиб боради.

2-топширик. Сўзнинг туркумларга бўлиниши қайси жавобда изчил баён этилган.

А.Мустақил сўзлар:от,сифат,сон,олмош,феъл,равиш; ёрдамчи сўзлар: кўмакчи,боғловчи, юклама ва модал сўз,ундов,тақлид сўзлар.

В.От, сифат, сон, олмош, феъл, равиш, кўмакчи, боғловчи, юклама, модал сўз, ундов, тақлид сўзлар.

С.Умумий категориал маънога эга бўлган мустақил сўзлар; от, сифат, сон, олмош, феъл, равиш, умумий категориал маънога эга бўлмаган сўзлар: кўмакчи, боғловчи, юклама, модал сўз ва ундов, тақлид сўзлар.

Д. От, сифат, сон, олмош, феъл, равиш каби мустақил сўзлар; кўмакчи, боғловчи, юклама каби ёрдамчи сўзлар; шунингдек, модал сўз, ундов, тақлид сўзлар.

3.2.

1-топширик. Ҳозирги тилимиздаги сўзлар асосан қандай белги (мезон)ларга кўра туркумларга гуруҳланади?

- А) Сўзлар аташ, номлаш хусусиятларига кўра туркумга бўлинади.
- В) Сўзлар луғавий маъноларга кўра туркумларга гуруҳланади.
- С) Сўзлар синтактик вазифасига кўра туркумларга гуруҳланади.
- Д) Сўзлар морфологик шаклланиши (белги)га кўра туркумларга бўлинади.

Е) Сўзлар луғавий маъно, грамматик шаклланиш ва синтактик вазифага кўра туркумларга гуруҳланади.

2-топширик. Матндаги сўзларнинг туркумларини аниқланг.

Орадан асрлар ўтди. Ислом олами таназзулга учраб, илм аҳли бўйнига итоат халқаси тушди.

3.3.

1-топширик. Қуйида келтирилган сўзларни иккига: 1) умумий категориал маънога эга; 2) умумий категориал маънога эга бўлмаган сўзларга ажратинг. Ислом, Жасур, қайчи, нон, тез, секин, олдин, бирдан, сари, каби, учун, шунинг учун, тўғри, сўзсиз.

3.4.

1-топширик. Мустақил сўз туркумига хос бўлган умумий категориал грамматик маънолар тўғри қайд этилган жавобни топинг.

А. Предметлик, белги, миқдор, ишора (кўрсатувчилик), иш-ҳаракат белгисини ва ҳаракатнинг ифодаланиши.

В. Ҳаракат, ҳолат, предмет, белги билдириш УКГМ дейилади.

С. Номлаш, ўзгармаслик, лекин турланиш ва тусланиш хусусиятлари УГМ дейилади.

3.5.

1-топширик. Ёрдамчи сўзлар қандай белгиларига кўра туркумларга гуруҳланади? Тўғри ва тўлиқ жавобни аниқланг.

А. Луғавий маъно ифодалай олишига кўра.

В. Грамматик маъно ифодалашига кўра.

С. Синтактик вазифа бажаришига кўра.

Д. Грамматик маъно ва вазифа бажаришига кўра.

Е. Грамматик маъно ва грамматик вазифа бажаришига кўра.

2-топширик. Қайси банддаги сўзлар луғавий маъносини йўқотиб, кўмакчи, боғловчи, юкламага айланган? Тўғри ва тўлиқ жавобни айтинг.

А. Билан, учун, каби, сари, сайин, ўзга, чунки.

В. Томон, ташқари, бери, кўра, шунинг учун.

С. Билан, учун, каби, сари, сайин, янглиғ, сингари, доир, оид, чунки, ва, гоҳ, гўё, -ми, -чи, -дир.

Д. Билан, учун, каби, сари, сайин, қадар, ўзга, туфайли, бошқа, сабабли, орқали, фақат, шунинг учун.

3.6.

1-топширик. Гаплардаги модал сўзларни топинг ва улар ифодалаган маънони изоҳланг.

Қодир бу одамнинг афтидан касб-корини белгилай олмади. (А.Қ.) Афтидан, улар эндигина заводдан чиққан бўлса керак, бўёқ ҳиди гупиллаб димоққа уриб турибди. (И.Р.) Элмурод уларнинг овозларидан ўз ишларидан ниҳоят хурсанд эканлигини сизди. Ниҳоят, остонада Пўлат кўринди. (Ш.Р.) Сидиқжон тушки дам олишдан кейин кечгача хийла дуруст ишлади. (А.Қ.)

2-топширик. Матндаги ундов сўзларни топиб, маъно ва грамматик хусусиятларини тушунтиринг.

Мен етим ўсганман, ох, у етимлик...

Вой, бечора жоним, десам арзийди. (Ғ.Ғ.)

Бай-бай, зап чой бўлибди-да... (А.Қ.)

О...узугинг жуда чиройли, қани менга бер-чи. (Уйғун ва И.Султон)

3-топширик: Матндаги тақлид сўзларни топиб, уларнинг маъноларини турларига кўра тушунтиринг.

Ҳаво тоза. ғир-ғир шамол эсиб турибди. (С.А.)

Юраги кинидан чиққудай дук-дук уради.(О.)
Орқадан Холисхоннинг пиш-пиш ухлаётгани эшитилиб турибди.

Мустақил ишлар:

1-топшириқ. Мустақил сўз туркумлари: от, сифат, сон, олмош, феъл, равишларга хос семантик-грамматик хусусиятларга ёзма жавоб беринг.

2-топшириқ. Матндаги сўзларни туркумларга ажратиб, ёрдамчи ва алоҳида сўзлар (модал, ундов, тақлид)ни лексик-грамматик жиҳатдан таҳлил қилинг.

Ўзбекистон номи билан. Бепоеън мамлакатимиз халқлари - қон-қондош. Улар ҳамма ерда, ҳар бир ишда бир-бирларига ҳамкор, мададкор. Ҳамюртларимизнинг бунёдкорлик ишлари бунга ёрқин мисол.

Адабиётлар:

7. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм, Тошкент, 2010, 206-212.
8. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том, Тошкент, 1975, 53-124.
9. У.Турсунов ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992.
10. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. “XXI аср авлоди”, Т., 2001.
11. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.
12. А.Ғуломов ва б. Ўзбек тили морфем луғати. Тошкент, 1977.

3-amaliy mashg'ulot

Ot va uning ma'nosi, leksik-grammatik xususiyatlari

Dars maqsadi: hozirgi o`zbek adabiy tili lug`at boyligidagi ot turkumiga oid so`zlarning semantik-grammatik tabiati bilan talabalarni tanishtirish va ularda ot so`zlarning grammatik kategoriyalari va funktsional shakllarini o`z nutqlarida uslubiy jihatdan to`g`ri qo`llash malakalarini shakllantirish;

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Otlarning sanaladigan va sanalmaydigan turlari tushuntiriladi.
2. Otning egalik kategoriyasi izohlanadi.
3. Otning kelishik kategoriyasi aytib beriladi.
4. Otning funktsional formalari ajratiladi.
5. Otning ma'nosiga ko`ra tasnif mezonlari ajratibidi.
6. Otlarning atoqli va turdosh otga bo`linishi sababi ko`rsatiladi.
7. Otlarning shaxs (kishi) va narsa otlariga bo`linishi izohlanadi.

Mustaqil ishlar:

1-topshiriq. Otning ma'no guruhleri tasnifi va misollari aks etgan chizma tayyorlang. (6 – sinf uchun 1998 yilda nashr etilgan darslikdagi taklifdan foydalaning.)

2-topshiriq. Otning kelishiklar bilan turlanishi aks etgan (unli va undosh bilan tugagan ikkita ot so`zni turlang, so`rog`i, qo`shimchasi, ma'nosi izohlangan bo`lishi) jadval chizing.

1-savol bo`yicha savol va topshiriqlar

1.1.

1-топшириқ. От ва унинг таърифи тўғри ва тўлиқ берилган жавобни аниқланг.
А. Нарса-буюм, жисмларнинг номини билдирган сўзлар от дейилади.

- В. Эгалик ва келишик, кўплик қўшимчалари билан қўлланиладиган сўзларга от дейилади.
- С. Гапда бош бўлак, иккинчи даражали бўлак ва ундалма вазифасида қўлланиладиган сўзлар от дейилади.
- Д. Ким? нима? сўроқларига жавоб бўлиб, якка шахс, нарса номлари, бир турдаги жонли ва жонсиз нарса бўлган, нарса-ҳодиса, ҳаракат-ҳолатларнинг умумий номларини атаб келадиган сўзлар туркумига от дейилади.
- Е. Предметлик маъносини англариб, сон, эгалик, келишик каби грамматик категорияларга, турли маъно ва вазифа учун қўлланиладиган функционал формаларга, шунингдек ўзига хос сўз ясаиш системасига эга сўзларга от дейилади.

1.2.

1-топшириқ. Сўзларни уч гуруҳга ажратиб, уларнинг ҳар бирига сўроқ беринг ва рўйхатни давом эттиринг.

1. Гулистон, Сирдарё, «Халқ сўзи», Жамшид, Каримов, «Ўтган кунлар», «Тошкент», Самарқанд тамаки фабрикаси,...

2. Гул, ўт, ўтин, райҳон, курак, қошиқ, туздон, сув, мой, сой, ариқ, ховли, сигир, қўй, пичок, ўроқ, қовун, тарвуз, ...

3. Гўзаллик, муҳаббат, латофат, санъат, севги, соғлик, ишчанлик, маданият, ҳаракат,...

1.3.

1-топшириқ. Ҳар бир гуруҳ (1.2. 1-топшириқ)даги отларнинг умумий маъноларини аниқлаб, тушунтиринг.

2-топшириқ. Берилган сўзлардаги от туркумига хос умумий категориал грамматик маъно ва уларнинг ҳар бири англарибган луғавий маънодаги фарқни тушунтириб беринг.

Инсон, сигир, чумоли; Қуёш, тоғ, сув; пахта, зиғир, шоли; ҳаракат, ҳаёт, мавжудот; тепалик, сойлик, баландлик.

1.4.

1-топшириқ. Берилган от сўзларни маъносига кўра киши ва нарса, саналадиган ва саналмайдиган, атоқли ва турдош отлар, аниқ ва мавҳум отлар, якка ва тўда отларига ажратинг.

Ислон Каримов, Ойбек, Навоий, Гулистон, Мирзачўл, Ховос; Гулистон Давлат университети, Зухро, Миррих, сайёра, юлдуз; Мустақиллик куни, «Қутлуғ қон», Олмакўз, Бойчибор; булут, қор, сув, тоғ, тош, дарахт, қовун, тарвуз, олма, шафтоли; шакар, муҳаббат, севги, гўзаллик, қизиллик, бетоқатлик, халқ, қўшиқ, армия, оқим, туйғу, яхшилик, «Каштекс».

1.5.

1-топшириқ. Берилган отларни якка шахс, нарса-буюм, ўрин-жой, жонли ва жонсиз нарсаларни атаб келган отлар ва бир хил нарса-буюмлар, воқеа-ҳодисалар, ҳаракат-ҳолат, ўрин-жойларни атаб келган отлар гуруҳларига ажратинг.

Гулистон, гул, Гулжон, гултожихўроз, ўзбек, козоқ, қирғиз, рус, «Маърифат», қишлоқ, дафтар, Худойберди Дониёров, қарши, қаршивой, Босим Тўйчибоев, босим, Гўзал, латофат, кўчқор, кўчқоров, сайлов, сайловлар куни, болта, Болтабой, теша, Тешавой.

1.6.

1-топшириқ. Отлар ким? нима? сўроқларига жавоб бўлишига кўра ўзбек тилида қандай юритилади?

А. Киши отлари.

В. Нарса отлари.

С. Жой отлари.

Д. А ва В жавоб.

Е. Киши, нарса, жой отлари

2-топшириқ. Сўзлардан киши ва нарса отлари ясаб, гаплар тузинг.

Болта, чўп, теша, ўроқ, мих, олма, чарос, бўри, қарчиғай, асал.

1.7.

1-топшириқ Отларни саналадиган, саналмайдиган гуруҳларга ажратинг.

Ун, тол, дарахт, халқ, армия, кўшин, чой, мой, шакар, кум.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-топшириқ. Гапдаги «ўрик» сўзини маъносига кўра грамматик ва логик сон эканлигини изоҳланг. Тоғ этагидаги катта майдоннинг барисига ўрик кўчати экилди. Умиджон яхши ният билан ўрик кўчати ўтказди. Мактаб боғида ўтказилган ўриклар бирдан гуллади.

2-топшириқ. Берилган ҳар бир сўзнинг шакллари нима билан фарқланишини аниқланг. Дарахт – дарахтлар, мева – мевалар, бола – болалар, китоб – китоблар, тоғ - тоғлар.

3-топшириқ. Отнинг бирлик ва кўплик сон шакллари таърифини айтинг.

2.2.

1-топшириқ. Берилган қаторлардаги отларнинг грамматик сонга кўра маънодаги фарқини айтинг.

1. Олма, ўрик, нок, дафтар, қалам.
2. Оломон, халқ, кўшин, армия.
3. Олмалар, ўриклар, ноклар, дафтарлар, қаламлар.

2-топшириқ. қуйида берилган сўзларни иккига: бирлик ва морфологик кўплика ажратинг.

Олма, ўрик, нок, кўшин, халқ, дафтар, қалам, армия, қайчи; ўрикзорлар, кўшинлар, халқлар, қаламлар, узумлар; сувлар, унлар, дадамлар, мойлар, бошларим, соат ўнлар, келдилар, айтдилар.

2.3.

1-топшириқ. Отларнинг сон формаларида келиш жиҳатдан турлари неча хил бўлади?

2-топшириқ. қуйида берилган сўзларни иккига: бирлик ва морфологик кўплика ажратинг.

Олма, ўрик, нок, кўшин, халқ, дафтар, қалам, армия, қайчи; ўрикзорлар, кўшинлар, халқлар, қаламлар, узумлар; сувлар, унлар, дадамлар, мойлар, бошларим, соат ўнлар, келдилар, айтдилар.

2.4.

1-топшириқ. Отларнинг сон формаларида келиш жиҳатдан турлари нечага бўлинади?

1. 1 га бўлинади.
2. 3 га бўлинади.
3. 2 га бўлинади.
4. 4 га бўлинади.
5. 1-, 3-жавоблар

2-топшириқ. Ҳам бирлик ҳам кўпликада кела оладиган отлар тўғри таъкидланган жавобни аниқланг.

- А. Атоқли ва турдош отлар.
- В. Турдош отлар.
- С. Мавҳум отлар.
- Д. Саналадиган отлар.
- Е. Киши ва нарса отлари.

3-топшириқ. Фақат бирлик шаклда қўлланадиган отлар берилган жавобни топинг.

- А. Аниқ ва мавҳум отлар.
- В. Ўлчанадиган жисмлар отлари.
- С. Битта яратилган предметлар номлари.
- Д. Жуфт органлар ва жуфт предметлар номлари.
- Е. Мавҳум маъноли отлар.
- Ж. Барча жавоблар тўғри.

4-топшириқ. Берилган от сўзларни фақат бирликда ва ҳам бирликда, ҳам кўпликада қўллана олишига кўра иккига ажратинг.

Севги, туйғу, шаҳар, қишлоқ, туз, чой, узум, китоб, ручка, қалам, юз, қош, бош, қулок, оёқ, тил, жигар, киндик, бурун, Фурқат, Турсуной, картошка, сабзи, нон, буғдой.

2.5.

1-топшириқ. Сон кўрсаткичи -лар қўшилиб келган сўзларни топинг, уларнинг маъноси ва вазифасини изоҳланг.

1. Отам ишдан келдилар.
2. Кеча газетада ўқитувчи опамизнинг суратларини кўрдик.
3. Учрашув ўтган йилнинг май ойларида бўлган эди.
4. Магазинда унлар, ёғлар турибди.
5. Сенинг хотирангни унутмас асло менинг юракларим, Ўрта Осиё! (В.Инбер).
6. Каримлар, Фарходлар, Турсунойлар.
7. Сенлар бордиларинг. Кимлар – ким-ким.

2-топширик. –лар кўшимчасининг отдан бошқа сўзларга қўшилиб келган ҳолатларига бешта гап тузинг ва маъноларини изоҳланг. М: Бобомлар келдилар. Сизлар боргансизлар. Қизиллар келдилар.

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1

1-топширик. Отларга қўшилиб, предмет ёки предметлик тушунчаси уч шахсдан бирига тегишлилиги, қарашлилиги ёки мансублигини кўрсатувчи қўшимчаларни аниқланг.

Биламан, билганим учун шунақа деяпман. (Ас.М.)

Оқ-сарикдан келган, юзида табассум, зумрадга ўхшаш ақлли кўзлари жозибали. (И.Раҳим)

Сизни яхши кўришга алоҳида сабабларим бўлмаса ҳамки, бу нарсани тушунишга ақлим етади. (Войнич) Ойимлар келдилар, деди Асал. Кўпчилиги озғин, юзлари сўлғин, кўзлари

косасига чўккан, дармонсиз эди. (П.Т.) Сиз шуни билингки, халқ ўз ишини билиб қилади. (О.)

Сиздан умидимиз шумидики, кўпчиликнинг фикрига қарши турасиз. (А.Қ.) Ростини айтсам, Онахон кизим, кўнглим яримта. (Ас.М.). Эрта тонг юзлари оқарган чоғда, эркнинг чолғусини чалгали келдик. (У.)

Уюшқоқлик муваффақиятларимиз гарови. (Ш.Р.)

3.2.

1-топширик. Эгалик қўшимчаларини шахс ва сон жиҳатидан ажратинг.

1. Она – юртинг омон бўлса, ранг-рўйинг сомон бўлмас. 2. Ох, тилгинам, ширин сўзгинам, жонингга тасаддуқ бўлай ўзгинам. (Шукрулло) 3. Дунёда ташвишларни кўп чекди бошим.

Гоҳ қувондим мен, гоҳ туғилди ёшим, Кашф этдим ўзимга битта ҳақиқат, Ҳақиқат – бу ташвиш, ишонч, бардошинг. (Отаёр).

3.3.

1-топширик Берилган сўзлардаги туташтирувчи товушларни топиб, сабабини тушунтиринг.

Мактабим, мактабинг, укаси,

қишлоғим, қишлоғинг, отаси,

оғзим, оғзинг, елкаси, орзуим,

тилим, тилинг, тилиси, орзуинг.

3.4.

1-топширик. Отларга қўшилиб келган эгалик қўшимчаларининг моносемантик ва полисемантик табиатини тушунтиринг.

1. Укам, китобим, дафтарим, мактабим;

2. Укамиз, китобимиз, дафтаримиз, мактабимиз.

4-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

4.1.

1-топширик. От сўзларнинг қайси келишиқда ва қандай маънода эканлигини аниқлаб, тушунтиринг.

Ваҳобжон бояги қиз кўрсатган уй эшигининг тугмасини босди. (С.Аҳм.) Бу ерда икки юздан ортиқ бола дам олади. (С.Аҳм.) Ўғил бола бўлсам, албатта, шу ерга келиб ишлардим. (Ас.М.)

Кенг овулда нимаики кўринса, ҳаммаси ҳам Умрзоқ отанинг тириклигидан далолат берар эди. (Ш.Р.)

2-топширик. Нукталар ўрнига қайси келишиқ қўшимчалари мос келишини аниқланг ва тушунтиринг.

1. Олтин ўт..., одам меҳнат... билинади.

2. От... баланд, ит... паст.
3. Акам ... ўртоқлари қовун сайлига таклиф қилишди.
4. Она мушук бургут... бўйнидан бўғиб ўлдирди.
5. Азон паллада бутун қорабулоқ тоқ... жўнади.

4.2.

1-топшириқ. Бош келишиқда келган отларни топинг ва қандай маъно ва вазифада келганини изоҳланг.

1. Йўлчи мийиғида кулиб қўйди.
2. Бир бош узум ликопчада турган эди.
3. Ўзбекистоннинг пойтахти – Тошкент.
4. Тошкент – Ўзбекистоннинг пойтахти.
5. Ватанимиз – бахтиёр авлодлар диёри.
6. Илгари бу ерлар чакалакзор эди.
7. Пўлат пичоқ қинсиз қолмас.
8. Кумуш қишдан, зумрад баҳордан,
қолишмайди кузнинг зийнати.
9. Мастура хола келди.
10. Майхонада қанча амалдор, жиғадор, туғдор, сардор, беклар ўтирибди.
11. Жўрахонга ўхшаш гавдали хотин – билим юртининг мудираси – синфга кирди.
12. Қўшиқ. Санъатнинг бу турини севмайдиган, олқишламайдиган киши бормикан? Тўй.
Бахт. Омонлик. Лекин дил тинч эмас. Урушлар... Улар нега, кимга керак?! (Х.Ғ.).
13. Йўлдош! Ойниса остонада анграйиб қолди. (Х.Ғ.)
14. Қарғавой, мен сени ейман. (Эртақдан)

4.3.

1-топшириқ. Берилган гапларда қаратқич келишиғида келган от сўзларни топиб, уларнинг шакли, маъноси ва вазифасини тушунтириб беринг.

1. Олимжоннинг юраги Ойқиз яқинлашган сари дук-дук урар эди. (Ш.Р.)
2. Гапиришни фойдаси йўқ. Одамми соғи йўқ, демовдимми, санга!
3. Ҳар болам уфурган нафасин атри – Шеъримнинг энг етук, энг яхши сатри. (Ғ.Ғ.)
4. Менинг йўқлигимни сенинг субутсизлигингдан пайқашган, чоғи.

2-топшириқ. Нукталар ўрнига грамматик қоидага мувофиқ, -нинг ёки -ни қўшимчаларидан мосини қуйинг.

1. Навоий... келиш хабари атрофдагилар... юрағида чексиз қувонч уйғотди. Ҳамма бир хабар... бир-бирига етказиш билан фахрланади. (О.)
2. Навоий табассумли кўзлари билан атрофга боқиб, бир қўли... кўксига қўйган ҳолда боши... камтар, енгил қимирлатиш билан халқ... табриғига самимий жавоб бериб борди.
3. Бу ерда шаҳар... машҳур кишилари..., олимлар..., халқ вакиллари... қабул қилди.

4.4.

1-топшириқ. Матндаги тушум келишиғида келган сўзларни топиб, уларнинг қандай сўз билан синтактик алоқага киришаётганини аниқланг.

1. Гўзал бир йигит эшикни қоқди. Шу пайт Асроркулнинг кичик ўғли Абдор келиб отасини сўради.
2. Ултармалик Асроркул Хайдар отанинг кадрдон ошнасини кўриш истағида эканлигини айтди.

2-топшириқ. Нукталар ўрнига -ни, -нинг қўшимчаларидан мосини танлаб, уларнинг қандай сўз билан синтактик алоқага киришаётганлигини айтинг.

1. Эшик... очсам, дарҳақиқат, Мирвали... ўғли.
2. Шулар... одам қўли яратган, уларда одам қўли... изи бор.
3. Чол чироқ... пилиғи... кўтариб қўйди.
4. Кўзим... очсам бемор чол... хира кўзлари кўринади, юмсам яна титроқ овози эшитилади.

3-топшириқ. Ўзингиз қаратқич ва тушум келишиғи иштирок этган бештадан гап тузинг.

4.5.

1-топширик. Матндаги жўналиш келишигида келган отларни ажратиб, маъноси, қўшимчаси ва сўроғи ҳамда вазифасини аниқланг.

1. Болама ўхшайди овозинг сени.
 2. Бозордан укамга қалам олдим.
 3. Фаридани опаси билан шаҳарга кетди.
 4. Инсофга келсин дея дуо қилди.
 5. Тўтинисо бунинг сабабига қизикди.
- Суксурлар бир ойга қолмасдан келишди.

4.6.

1-топширик. Чиқиш келишигидаги отларнинг маъноси, сўроғи, вазифасини аниқланг.

1. Чол кечга қолган якка-ёлғиз йўловчиларни дарёдан шу қайиқда ўтказиб қўяди.
2. Уйғонган шаҳарнинг шов-шувидан, одамларнинг оёқ товушларидан, офтоб тигидан қочиб бурканиб ётибман.
3. Йигитча ўтирган ер одамлардан четроқда эди.
4. Раис бошқалардан кўра Бақабуллоқдаги водакачкани тиклаш мувофиқ ва қулайроқ эканини тушунтиришга кўп овора бўлди.
5. Отдан баланд, итдан паст.
6. Узумдан енг, боғини сўраманг.
7. Ўқувчилардан бири сўраб қолди.

4.7.

1-топширик. Ўрин-пайт келишиги маъноси, қўшимчаси, сўроғи ва синтактик вазифасини матндаги ўрин-пайт келишигидаги сўзлар воситасида тушунтириб беринг.
қаландаров бир оз сабр қилса, ёнида ўтирган шофёр... (А.Қ.)

1. Шу ерда ўқиб юрганида ҳам кўпроқ умрини мактабда, ёзда лагерларда, ёшлар орасида утказар эди. (А.Қ.)
2. Бу суҳбатда нима гаплар бўлганини Саида билолмади.

2-топширик. Матндаги жўналиш, ўрин-пайт ва чиқиш келишигидаги отларни аниқлаб, уларнинг маъноларини изоҳланг.

1. Ботирда бокқа ва боғбонликка меҳр болалик вақтидаёқ уйғонди. (С.Н.)
2. Қочоққа шафқат йўқ, қўрқоққа – ҳурмат.
3. Яхшига ёндаш, ёмондан қоч.
4. Ақл ёшда эмас, бошда.
5. Ақл ақлдан қувват олади.
6. Жўжани кузда санайдилар.

Назорат савол (топширик)лари:

5-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

5.1.

1-топширик. Келтирилган матнда отга хос функционал (категориал) формаларни топиб, уларнинг типларини аниқланг.

1. Кутади ўйинчоғинг, Кутади қўғирчоғинг, Кутади ер тепиниб, Шўх-ўйноқи тойчоғинг. (Мирт.)
2. Ана сичқон, мушуквой, Ана хўроз, кучуквой. (Ғ.Ғ.)
3. Ишчи-деҳқон – халқ ўзи, Завод - фабрика иш жойи, Шу халқники - бизники, Минг - минг ўғил қизники. (Т.Й.)
4. Қўшиқларим парвоз қил, Космонавтдек овоз қил. (Қ.М.)
5. Худди ипак хирмон-хирмон, Тўлин ойдайд ярқирай. (Мирт.)
6. Очил шу адрес бўйича шинамгина бир ховлига келди. (П.Қ.)
7. Она айиқнинг аҳволини сўз билан ифодалаш қийин.
8. Токчаларда безак учун терилган қимматбаҳо асбобларни томоша қилди. (О.)
9. Дастурхон жойида, қанд-курс, мева-чева саноғи йўқ. (О.)

2-топширик. Функционал формадаги отларни топиб, форма ясалиш структурасига кўра таҳлил қилинг.

1. Ўзларининг чорваси бўлмаган, бойларникини кўпайтириб, бировларникини семиртирган. (И.Р.)
2. Яхши, жийрон тойчадек ўйнаб-ўйнаб оққан сув.(З.Д.)
3. Гапни айланторманг, афандим.(С.Аҳм.)
4. Борлар табаррук бувим, Ёшлари буюк бувим. (П.М.)
5. Хотин жўхорини туйиб бўлди, уни келидан тоғарага солаётиб дўнғиллади.
6. Не-не отлар қўлимдан ўтган. Аммо бу отжон той экан. (О.)
7. Анор дарахтларида анор шиғил, чойнакдай-чойнакдай бўлиб осилиб ётибди.
8. Кампир одатдагидан чакконрок ҳаракат қилар ва мумкин қадар сўзлашга тиришар эди.(А.Қ.)
9. Биз рисоладаги, таомилдаги одамлармиз.(Ас.М.)

5.2.

1-топширик. Отга хос синтетик функционал формалар қайси жавобда тўлиқ ифодаланган.

1. Кичрайтиш, эркалалаш, ҳурмат, қарашлилиқ формалари.
2. Ўрин белгиси, чегара, ўхшатиш формалари.
3. Кичрайтиш, эркалалаш, ҳурмат, қарашлилиқ, ўрин белгиси, чегара, ўхшатиш формалари.
4. Кичрайтиш, ўрин белгиси, эркалалаш, чегара ва ўхшатиш формаси.

2-топширик. Матндаги синтетик функционал формали отларни маъно ва вазифасига кўра турларга ажратинг.

1. Ернинг тупроғи қизғиш, муздеккина.
2. Туймай ўйнар шўх қушчалар тоза ҳавода.
3. Келингиз, тойлоқларим, қайдан шамол учирди.
4. Урушгача сиз қаерда яшар эдингиз.
5. Осмондаги самолёт, қанотингни пастлаб ўт.
6. Ойижон, ойижон-ей, бошгинам оғрийдиё.
7. Ўтники ўтга, сувники сувга.
8. Энди у Сайфуллони ўғлидек севарди.
9. Қўшни келинчакдан ўргандим.
10. Бобомлар оламдан ўтдилар.

3-топширик. Жуфтликдаги маъно фарқларини тушунтиринг.

Ҳандалак – хандалакдай, балиқ - балиқча, той – тойчоқ, келин - келинчак, катта – каттагина, уй - уйдаги, онам - онамлар, Кумуш – Кумушой, она - онажон, Карим - Каримники.

5.3.

1-топширик. Отнинг функционал аналитик формаларини топиб, улар ифодалаётган маъноларни изоҳланг.

1. Ўйигит яраланган арслон сингари душманга ташланди.
2. Устоз, -деди бир кун тулки тулкига,
Нечун биз нишонмиз доим кулгига!
Ўрмонда бўри ҳам, ҳатто жаноб шер
Бир-бирин туртишиб, тулкисан-а, дер.
Бошқалар устидан кулмаслар нечун,
Бу ҳол қоронғидир, биз-ёшлар учун.
3. Терилар ошлангандан кейин тикув цехига ўтказилади.

5.4.

1-топширик. Отнинг функционал жуфт ва такрорий формаларини ажратиб, маъно ва вазифасини изоҳланг.

1. Кексалар: одам ич-ичидан қувонса, қувончлари юзларига чиқиб, нуронийлик бахш этади, дейишарди, рост экан. (Ш.Р.)
2. Яхши эр-хотинда қалб иккита бўлса ҳам, истак битта. (С.Сервантес)
3. Тартиб-интизомнинг энг зўр мактаби – оила. (С.Смайлс)
4. Ота-онага муҳаббат – барча яхши фазилатларнинг асоси. (Цицерон)
5. Бу гап Гўрўғлибекнинг жон-жонидан ўтиб кетди.

Мустақил ишлар:

1-топширик. Отнинг маъно гуруҳлари таснифи ва мисоллари акс этган чизма тайёрланг (6 – синф учун 1998 йилда нашр этилган дарсликдаги таклифдан фойдаланинг).

2-топширик. Отнинг келишиклар билан турланиши акс этган (унли ва ундош билан тугаган иккита от сўзни турланг, сўроғи, қўшимчаси, маъноси изоҳланган бўлсин) жадвал чизинг.

Адабиётлар:

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1980.
2. Ўзбек тили грамматикаси. Тошкент, 1975.
3. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. “XXI аср авлоди”, Т., 2001.
4. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.
5. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992. Муаллифлар: У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Рахматуллаев.
6. Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. Тошкент, 1979.
7. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, 1966.
8. Баскаков Н.А. Историко-типологическая морфология тюркских языков. Москва, 1979.

4-amaliy mashg'ulot

Sifat va uning ma'nosi, grammatik xususiyatlari.

Dars maqsadlari: talabalarning sifat so'zlarning ma'no guruhlari bo'yicha bilimlarini kengaytirish va mukammallashtirish;

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. O'zbek tilidagi sifat so'zlarning belgi ifodalash to'dalari (ma'no guruhlari)ga ko'ra turlari aytib beriladi.
2. Sifat so'zlarning umumkategorial ma'nosi va uning so'roqlari aytib beriladi.
3. Sifat ning o'ziga xos belgilar ajratiladi.
4. Asliy va nisbiy sifatlar tushuntiriladi.
5. Sifat darajalari ko'rsatiladi.
6. Sifatlarda belgining ortiq-kamligini ifodalovchi va sub'ektiv baho formalari izohlanadi.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1.1

1-топширик. Матндаги сифат сўзларни топинг ва маъносига қараб гуруҳлаб кўчиринг.

Эрта баҳорнинг серзавқ кунлари. Ям-яшил адирлардаги гиёҳлардан таралган хушбўй хидлар димокқа урилади. Офтоб чарақлайди. Кўм-кўк осмон шишадек тиник. Ола-курок пахтали тўнлар елкадан тушган. Катта-кичик меҳнаткаш деҳқоннинг эғнида хом сурп яқтак. Хушчакчақ қизларнинг қоп-қора сочларида тол баргақдан соч попуқ. Ўрикларнинг катта-кичик новдаларида оч пушти маржон. Ариқ бўйларида ялпизларнинг хушбўй ҳиди анқийди. Баланд-баланд деворлар тагида кумурсқалар ўрмалайди. (С. Аҳм.)

2-топширик. Қуйида берилган сўзларни сифатларнинг маъно гуруҳларига кўра ажратинг. Шўх, зикна, қизил, яшил, талғир, зангори, баланд, улкан, буюк, узун, қисқа, узок, яқин, ширин, чучук, ёзги, қишки, маъюс, кекса, қари, ёш, бўйдоқ, гўштдор, тўла, бадбўй, қўланса, сиртки, кундузги, оқ, қора.

1.2.

1- топширик. Сифат сўз ифодаляйдиган умумкаториал маънони изоҳланг.

1. Оқ қайин, қувноқ қиз, шўх бола, тиник осмон.

2. Осмон кўм-кўк, сувлар тиник, бола ёш.

2- топширик. Келтирилган сифатларнинг сўроғини аниқланг.

1.3.

1-топширик. Қуйида берилган бирикувларда сифат сўзда бўлган ўзгаришни изоҳланг: оқ девор, оқ деворда, оқ девордан, оқ деворни; ширин қовун, ширин қовуннинг, ширин қовунни, ширин қовунга, ширин қовунда, ширин қовундан; чиройли – чиройлироқ - ўта чиройли.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-топширик. Сифатларни аниқлаб, уларни ўзи боғланган отлар билан кўчириб, аслий ва нисбий сифатлар гуруҳларига ажратиб ёзинг.

1. Муҳаммад Жалол столнинг бир чеккасига ўтирди, тирсаккача очик ва сертук қўлларини кўкракда чалкаштириб, бир-икки минут индамади. Унинг кўзларида жиддий ўй, лабларида маънодор, ингичка табассум сезилар эди. (О.) Мовий осмонда кулранг булутлар сайр қилмоқда. (И. Р.)

2. Кекса врач билан Нафиса остонада жилмайиб турар эди. Нафиса оёқ учида югуриб бориб, кўча томондаги верандага чиқадиган ойнавонли эшикнинг икки табақасини ҳам ланг очиб юборди. Хонага шаҳарнинг шовкин-сурони ва соф ҳаво уфуриб кирди. Салимжон билан Манзура гул ушлаган Сатторовни ўртага олиб верандага чиқдилар. Енгил, илиқ шаббода уларнинг сочларини тузғитди. (Ас. М.) Сухбатдошим - нуроний бир чол, кувноқ, тетик, файласуфнамо (С. З.)

2.2.

1-топширик. Берилган мисолларда нисбий сифатларнинг қандай йўл билан ифодаланаётганини аниқланг ва тушунтиринг.

1. Ишчан, жуда ишчан одам. (А. Қ.)

2. Кўкни қоплаб олган саноксиз юлдузлар қозонга ёпишган учқунлардек йилтираб турибди. (И. Р.)

3. Оппоқ қизнинг кўкиш кўзлари жикқа ёшга тўлди. (Х. Ғ.)

4. Эрталабки жисмоний тарбия саломатлик гаровидир.

5. У рўпарасидаги одамни танимамай турди.

2.3.

1- топширик. Берилган сифатларга -роқ кўшимчасини кўшиб кўринг ва уларни бу кўшимча билан кўшила оладиган ва кўшила олмайдиган сифатлар гуруҳига ажратинг.

Тинч, олмоссимон, пахтали, оқ, шўх, тузли, чучук, дўппили, нам, бадавлат, сермева, серфарзанд, омилкор, зарарсиз, баланд.

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1.

1-топширик. Сифатларни топиб даражаларини аниқланг.

1. Дўстлик ўртоқчиликнинг энг олий даражасидир.

2. Дўстлик севгидан кўра бардошлироқ бўлмоғи лозим.

3. Самимий дўстлари бўлмаган одам ҳақиқатдан ҳам ёлғиздир.

4. Жимжимадор гапиришдан сақлан. Тил оддий ва гўзал бўлсин.

5. Дўл офати кучли, лекин халқ ундан ҳам кучлироқ.

6. Унинг беҳад чиройли кўзлари ифбат ва ҳаё билан маъсум боқарди.

7. Менимча, Ҳамроойнинг ўғлидан яхшироқ, ҳам бойроқ куёв тополмайсан?

2-топширик. Берилган сўз бирикмаларида сифатларнинг маънолари орасидаги фарқларни, бу фарқларни ясовчи воситаларни аниқланг ва тушунтиринг.

1. Ширин қовун – ширинроқ қовун - энг ширин қовун;

2. Катта бино – каттароқ бино - энг катта бино;

3. Қизил мато - қизилроқ мато - энг қизил мато;

4. Бемаъни савол – бемаънироқ савол - ўта бемаъни савол;

3.2.

Топширик. Сифатларни оддий, қиёсий, орттирма даража шаклларига ажратиб, уларнинг қайси сўз туркуми билан боғланиб келаётганини ва гапда қандай бўлак вазифасида келаётганини айтинг.

1. Қаноат тоатдан яхшироқ.

2. Энг катта бойлик саломатлик.

3. Кўпроқ ишласанг, кўпроқ ҳақ оласан.

4. Яхшилик - энг катта саҳоват.
5. Ширин сўз - энг азиз тухфа.
6. Ҳасад қулликдан ёмонроқдир.
7. Одобсиз фарзандни ёмон кўрарлар.
8. Кўйлак бежирим матодан бежирим қилиб тикилди.

3.3.

1-топширик. Сифатлар қандай усул билан даража кўрсатиш хусусиятларига эга бўлади. Тўғри ва тўлиқ жавобни топинг.

- A. Фонетик усул.
- B. Лексик ва фонетик усул.
- C. Фонетик, лексик, морфологик, лексик-семантик усул.
- D. Асосан фонетик ва лексик усул орқали.

2-топширик. Матндаги сифатларни топиб, даражанинг ифодаланиш усули ва воситаларини аниқланг. Синтактик усул билан даражаланган сифатларни алоҳида ажратиб ёзинг.

1. Ўзи жуда ғайратли эди-да.
2. Йўлдошбой ота халқ орасида энг обрўли, иродаси зўр, жуда оқ кўнгил, хушмуомала, ниҳоят камтар, меҳнатқашга жонкуяр, ўрнида беаёв, ўрнида кўнгилчанг, жуда зийрак, жуда доно, фидойи, дилқаш, деҳқончилик илмида аллома даражасида билагон, чин маънода халқчил инсон ва туғма етакчилардан эди. (Миртемир.)

4-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

4.1.

1-топширик. Берилган сифат сўзлардан белгининг ортиқлигини, камлигини ва ўта ортиқлигини намунага қараб ҳосил қилинг ва уларнинг маъносидаги фарқни сўзлаб беринг. Тайёр, узун, чўзиқ, яқин, қизик, силлиқ, тирик, тоза, янги, эски, тескари, думалок, кўк, қора, сариқ, жигари, пакана.

Наъмуна: қизил - қип-қизил - қизғиш; қора - қорамтир - қоп-қора; пакана - паканагина - пак-пакана.

2-топширик. Берилган қаторлардаги сифатларга оддий, киёсий, орттирма даражадаги сифатлар билан белгининг камлиги ва ортиқлиги, ўта ортиқлигини ифодаловчи шакллар ўртасида қандай семантик - грамматик фарқ борлигини айтиб тушунтиринг.

- 1) қора – қорароқ - энг қора – қорамтир - қоп-қора;
- 2) сариқ – сариқроқ - энг сариқ – сарғиш - сап-сарик;
- 3) катта – каттароқ - энг катта - каттагина - кап-катта;

4.2.

1-топширик. Берилган жуфтликларда -гина, -кина, -қина; -мтир, -имтир; -ш, -иш, кўшимчали сифатларнинг маъно жиҳатидан қандай фарқ қилишини айтинг.

1. Яп-янги китоб - янгигина китоб.
2. Туппа-тузук бола - тузуккина бола.
3. Пак-пакана одам - паканагина одам.
4. Сап-сарик хотин – сариққина хотин.
5. Қип-қизил бахмал - қизғиш бахмал.
6. Оқ сурп – оқиш сурп.
7. Қора тўн - қорамтир тўн.
8. Кўк товар - кўкимтир товар.

4.3.

1-топширик. Сифатнинг белгининг ортиқлиги маъносини ҳосил қилувчи воситаларининг тагига чизиб, тушунтиринг. Чексиз шод, ғоят хурсанд, ниҳоятда чиройли, беҳад миннатдор, хаддан зиёд, ғоят жозибали, жуда камтар.

4.4.

1-топширик. Сифатнинг кучайтирма (интенсив) шакллари ва уларни ясовчи воситаларни ажратинг ва тушунтиринг.

Тузук - туппа-тузук, дуруст - дуппа-дуруст, оқ - оппоқ, қизил - қип-қизил, юмалоқ - юм-юмалоқ, хўл – жикқа хўл, тўла – лик тўла, ёлғон - ғирт ёлғон.

2-топширик. Сифатда белгига нисбатан субъектив баҳо формаси ва маъноси ифодаланаётганини берилган мисоллар ёрдамида тушунтириб беринг.

1. Нигина, ширингина қизча бўлибди.
2. Қиз жазманига чиройлигина жилмайиб, йўлида давом этди.

Адабиётлар:

1. Ўзбек тили грамматикаси. 1 том, Тошкент, 1975, 271-306.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1 қисм, Тошкент, 1980, 251-256.
3. У. Турсунов ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992, 280-287.
4. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. “XXI аср авлоди”, Т., 2001.
5. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.
6. Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Тошкент, 1974.

5-amaliy mashg'ulot

Son va uning semantik - grammatik xususiyatlari.

Dars maqsadi: talabalarning son soʻzlar va ularning semantik - grammatik tabiati haqidagi bilimlarini kengaytirish.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Son soʻzlarning semantik - grammatik tabiati va tuzilishiga koʻra turlari ajratib beriladi.
2. Son soʻzlarini ma'no xususiyatlariga koʻra turlarga ajratiladi.
3. Hisob soʻzlar - numerativlarning ma'nosi va grammatik vazifasi aytib beriladi.
4. Sonning ma'no turlari va hisob soʻzlar bilan birikib kelishi tushintiriladi.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1.1.

1-топширик. Матндаги миқдор ва тартиб маъноли сўзларни топиб, уларни қанча? неча? нечанчи? нечта? сўроқларига жавоб бўлувчи гуруҳларга ажратинг.

1. Ўзи битта, кулоғи тўртта. 2. Боғда учта қиз мева термоқда. 3. Оиламизда икки ўғил, икки қиз бор. 4. қизларнинг иккаласи ҳам шу мактабда ўқийди. 5. Мактабимиз боғига бу йил бир юз ўттиз беш жуфт кўчат ўтказдик. 6. Ўн тўртнинг ярми етти бўлади. 7. Китоб жавонида юзтача китоб тартиб билан терилган эди. 8. Раҳимнинг иккинчи йил биринчи синфда қолаётгани мактаб жамоасини ташвишга солмоқда.

2-топширик. Матндаги сон сўзларни топиб, уларнинг маъноси, морфологик ва синтактик хусусиятларини аниқланг.

1. Миллион йиллар ўтганда ҳам, тошга йўнилган хатлар ўчиб кетганда ҳам пайғамбаримиз Муҳаммад салоллоху алайҳи васаллам мусулмонлар қалбидан ўчмайди. 2. Маданият ривожининг биринчи шarti тинчликдир. 3. Бир кун туз ичган жойга қирқ кун салом. 4. Кечки соат тўртларда қоймас дарвозасидан шаҳарга кирдилар. 5. Ойнинг куни ҳам, туни ҳам ердаги икки ҳафтага тенг. 6. Мулкларнинг учдан бири ҳам қолган эмас. 7. Яхши ният - ярим давлат. 8. Агар илгари бундай кишилар бармоқ билан санарли бўлса, ҳозир юзлаб, минглаб топилади. 9. қайтадан кўл ушлашиб, Семурғ билан хушлашиб, Ажралдилар икковлон.

3-топширик. Гаплардаги сон сўзларни топиб, тузилишига кўра гуруҳларини ва маъноларини аниқлаб тушунтириб беринг.

1. Кеч соат ўн бирда уювлари биргалашиб қурилишга чиқиб кетдилар. 2. Навоий шоирларнинг турли-туман асарларидан ўн мингларча байтни ёд билар эди. У уч-тўрт ёшдан бошлаб жиддий, гўзал шеърларни ёдлаган. Саккиз-тўққизда бутун-бутун илмий-фалсафий шеърини асарларни ўзини унутажак даражада завққа берилиб, мутолаа этган. 3. Кумуш бошқалар билан бир-бир кўришиб чиқди. 4. Икки ўн беш - бир ўттиз. 5. Олтмишга кирган отадан ош сўрама. 6. қишлоқ у ердан олтмиш-етмиш чақирим узоқда эди. 7. Хизмат қилиб,

унумидан ўндан бир ол. 8. Сизсиз келажак йўқ, сиз ахир халқнинг минг йилни кўражак қароғларисиз.

1.2.

1-топширик. Матндаги сон сўзларни топиб турини аниқланг. Миқдор сонлар билан тартиб сонларнинг фарқини тушунтиринг.

1. Бир йил тут эккан киши юз йил гавҳар теради.
2. Бир йигитга қирқ хунар ҳам оз.
3. Сизга маълум: пахтани биринчи йил экаяпмиз.
4. Шу орада тўртта самосвал олдинма-кетин ғишт тўкиб кетди.
5. Бир зумда икков, учов, тўртов, бешов бўлишди.
6. Адолат маставадан бир-икки қошиқ ичди.
7. Манзилнинг чораги ҳам босилмаган эди.
8. Эр кишининг сўзи битта.

1.3.

1-топширик. Ҳисоб сўзларни ажратиб, маъноларини ва грамматик вазифасини тушунтиринг.

1. Топган гул келтирар, топмаган бир боғ пиёз.
2. Юзлари худди олмадай таранг. Бир жуфт қуралай кўзи сурма босгандай қора.
3. Сиз билан икки оғиз гаплашай деб келдим.
4. Ахмоққа кува бир тош.
5. Салкам миллион туп дарахт бор. Тошкентда нима кўп серсоя жойлар кўп.
6. Кимларга бир бурда нон учун зор бўласиз, онажон.
7. Навоий астрободлик бир тўда тантиларга йўлиқди.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-топширик. Сон сўзларнинг қандай морфологик белгиларга эгалиги тўғри қайд қилинган жавобни аниқланг.

А. -ов, -ала, -та, -тача, -лаб, -тадан, -нчи қўшимчалари миқдор сонларга қўшилиб, предметларнинг турли миқдорий хусусиятларини англатади, нумератив сўзлар билан бирга қўлланади, отлашади, баъзи бир сўзларнинг ясалиши учун асос бўлади.

В. -ов, -ала, -та, -тача, -лаб, -тадан, -нчи аффикслари сонларга қўшилиб, предметларнинг турли белгиларини англатади, нумератив билан бирга қўлланиши мумкин, категориал форма ясовчи аффиксларни, сўз ясовчи аффиксларни қабул қилиши мумкин. Сонлардан бошқа туркумга тегишли сўзлар ясалмайди, сонлар фақат категориал формага эга бўлганда отлашиши мумкин.

С. Предметларнинг тартиби, жамлиги, тахминий ҳисоби, тақсимини билдирувчи аффиксларни қабул қилади, нумеративлар билан қўлланади.

Д. Предметларнинг турли миқдори ва тартибини билдирувчи аффикслар билан қўлланади, нумеративлар билан муносабатда бўлади, отлашиш хусусиятига эга, категориал форма ясовчиларни қабул қилади.

2- топширик. Жадвалга қуйида ёзилган сон сўзларни жойлаштиринг.

Санок сон	Дона сонлар	Чама сонлар	Жамловчи сонлар	Тақсим сонлар	Каср сонлар
Бир, икки, ўн, тўксон	Битта	Ўнтача	Икковлари	Учтадан, иккита-иккита	Саккиз ярим

Битта, ўнлаб, икков, олтов, йигирмалаб, етов, юз, ўнта, беш-олти, бир бутун ундан беш, икки ярим, ўн-ўн беш, иккаласи, ўн тўққизта, ўн икки ярим, уч, учлар, юзларча, ўттиз, юзтача, тўртта, олтмиш, минглаб, миллионларча, беш-олти бола, учта-тўрттагина, тўртала, биттадан, учтадан, ўнта-ўнта, нимчорак, иккидан бир.

3-топширик. Гаплардаги ўлчов сўзларни топинг ва маъносини тушунтиринг.

1. Раҳмонқул узоқ сафардан сўнг тўрт туя мол билан қишлоғига қайтди.
2. Манзура хола боғдан бир сават анор узиб чиқди.
3. Юсуфжон қизиқ бир қишлоқ одамини роса кулдирди.
4. Сожидалар уйи билан унинг ишхонаси оралиғи бир чақирим масофада эди.

4-топширик. Берилган ҳисоб сўзларни соннинг қайси маъно тури билан бирикаётгани ва ҳисоб сўзларнинг маъно гуруҳларини аниқланг.

Бир сиким тупроқ, бир кафт ун, бир ҳовуч сув, уч тўрва буғдой, бир сават анор, бир қоп ёнғоқ, уч туя мол, тўрт той пахта, икки уй одам, уч вагон ўғит, бир жавон китоб, бир этак фарзанд.

5-топширик. Берилган рақамларни сўзлар билан ёзиб, уларнинг санок сонларнинг қайси турига мансублигини тушунтиринг.

1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,20,30,40,50,60,70,80,90.

6-топширик. Гаплардаги бир сўзининг маъносини аниқланг.

Лек эрур бисёр душман, бўлса у бир дона ҳам.

Бир замонларда бир шахзода, бир подшоҳ ўтган экан.

Булоқ бошида бир катта чинор ўсарди.

Узоқдан йигит кўзига бир кўрғон кўринди.

Оқилга бир ишорат етарли.

Фаҳм айлаган кишига бу сўз бир китобдир.

Қоратегиндан бир киши келибди. Сизни сўрайди.

Тушда бир воқеалар содир бўладики, ўнгда уларни тасаввур қилиб бўлмайди.

Томдан бир одам аста пастга тушди.

Бир йигитга етмиш ҳунар оз.

Эр кишининг сўзи битта .

7-топширик. Берилган санок сонлардан дона сонлар ясанг.

Ўн, ўн беш, минг, юз, миллион, саккиз, уч, тўрт, тўққиз, саксон, эллик, ўттиз, беш, олти, етти, бир.

8-топширик. Берилган бирикмалардаги дона сонлар ясовчи -та қўшимчаси ўрнига -тача қўшимчасини қўшинг ва маънодаги фарқни тушунтиринг.

Ўнта олма, иккита ёнғоқ, саккизта нон, йигирмата бола, бешта қалам.

9-топширик. Берилган содда чама сонларни жуфт чама сонлар билан қиёсланг ва маънодаги фарқни тушунтиринг.

Бештача китоб - тўрт-бешта китоб, бештача отлик - беш-олтита отлик. Тўрттача бола – уч-тўрт бола каби.

10-топширик. Берилган каср сонларни рақамлар билан ёзинг.

Ўндан уч, икки бутун тўртдан бир, бир бутун мингдан уч юз ўн бир, саксон етти бутун юздан олтмиш тўққиз.

11-топширик. Гаплардаги сон сўзларни ажратиб, уларнинг соннинг қайси маъно гуруҳига оидлигини аниқланг.

1. Болаларнинг учаласи ҳам спортчи эди.
2. Салима ва Раҳималарнинг иккаласи ҳам аълочи.
3. Учала команда ҳам фахрли ўрин олишди.
4. Ўқувчиларнинг тўрталаси масалани ўз вақтида ечиб бўлдилар.
5. Бешала дастгоҳ бирдан гувуллаб ишлаб кетди.

2.2.

1-топширик. Санок сонларга - (и)нчи қўшимчасини қўшиб, улар орасида маънода юз берган фарқни аниқлаб айтинг.

Икки - иккинчи, уч йил, беш бармоқ, тўрт боб, тўрт курс, беш қават, ўн икки машина, йигирма бир спортчи, қирқ қиз.

2-топширик. Қуйидаги санок сонлардан тартиб сонлар ясанг.

5,11,18,26,33,40,49,130,1999,75.

3-топширик. Гаплардаги биринчи тартиб сонини қуйидаги маънодошлари билан алмаштириб кўринг ва маънодаги нозикликларни тушунтиринг
Илк, энг яхши, асосий, бош, дастлабки, аввалги.

1. Фарҳод синфимиздан чиққан биринчи олим.
2. Ҳосилнинг юз фоизини биринчи навга қабулладик.
3. Миллий истиқлолга 1989 йил биринчи қадам қўйилди.
4. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига ва қонунларига қатъий риоя этиш Ўзбекистон Республикаси Президентининг биринчи бурчидир.
5. Салимжон Шарипов номи тарихда биринчи ўзбек космонавти сифатида абадий қолади.

Адабиётлар:

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1980, 256-290.
2. У. Турсунов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992.
3. Ўзбек тили грамматикаси. Тошкент, 1975, 307-331.
4. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. “XXI аср авлоди”, Т., 2001.
5. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.

6-amaliy mashg'ulot

Olmosh va uning semantik-grammatik xususiyatlari.

Dars maqsadi: talabalarning olmosh turkumining semantik-grammatik tabiati haqidagi bilimlarini kengaytirish va nutqda qo'llash kunikmalarini takomillashtirish;

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Olmosh va uning ot, sifat, son, ravish so'zlar urnida qo'llanishi aytib beriladi.
2. Olmosh so'zlarning grammatik xususiyatlari gapirib beriladi.
3. Olmoshlarni gapda bajargan vazifasiga ko'ra guruhlarga ajratiladi.
4. Olmoshning ma'no turlari va olmoshlashish tushuntiriladi.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1.1.

1- топширик. Матндаги олмошларни топиб, уларнинг лексик-семантик хусусияти ва морфологик белгиларини, қайси сўз туркуми ўрнида келганини тушунтириб беринг.

1. Врачлик касби — жасорат, бу касб фидойиликни, қалб ва фикр софлигини талаб қилади.
2. Менинг халқим ўз тақдирини бошқа дўст халқларнинг тақдири билан маҳкам боғлай олади. (Х. О.)
3. Шу саҳрода тўнғич ўғил туғилди, унга Бадиуззамон деб ном беришди. (Л. Б.)
4. Кўрқоқни ҳар қандай фирибгар ҳам хўрлайди.
5. Ҳеч кимнинг ҳаваси келмаган одамнинг ҳолига вой. (Эсхил)
6. Ҳасадгуй ё ўзи бахтсизликка учрагани учун ёки кимнингдир омади келгани учун хомуш юради. (Бион)
7. Қаерда қай камчилик сезса, уни йўқотиш учун йўл-йўриқ кўрсатди. (О.)
8. Шундай халқ билан қурилишда ишлаш қандай яхши, қандай бахт! (О.)
9. Менимча, бу сарлавҳада нимадир етишмайди. (А.Қ.)
10. (Ғофир) Аллақандай гумонлар юрагимни ёндирмоқда. (Х.Х.)

2- топширик. Гапларни кўчиринг. Кўчиришда от, сифат, сон, равиш сўзлар ўрнига маъно ҳамда услуб талаб этган олмошни қўйинг ҳамда мазмуний - услубий фарқни айтиб беринг.

1. Садоқатли одам ўз халқининг зебу-зийнати саналади.
2. Гўзал сўзлар ҳаётда ҳам ўзлигини кўрсатса, ажойиб натижаларга эришмоқ мумкин.

3. Профессорнинг кўзларида самимий одамларда бўладиган тоза бир нур порлаб кетди. (Ў.Х.)
4. Ақлли одам нақлаб гапирар, ақлсиз одам лақиллаб гапирар. (Мақол)
5. Фаришталар яхши сўзга ҳам, ёмон сўзга ҳам омин, дейишади.

1.2.

1-топширик. Олмошларнинг грамматик хусусияти қайси жавобда тўлиқроқ акс этган?

А. Олмошлар предмет, белги ва миқдор маъноларини тўғридан - тўғри эмас, балки бошқа предмет, белги ёки миқдор тушунчалари билан боғлаган ҳолда ифодалайди.

В. Олмошлар мустақил маъноли сўзлар ўрнида қўлланиб, улар сингари предмет, белги ёки миқдор билдирмайдиган сўзлардир.

С. Мустақил сўзлар каби шахс, предмет, белги ёки миқдорни бевосита билдирмай, от, сифат, сон, қисман равиш ўрнида алмашилиб қўлланиб, турли йўллар билан уларга ишора қилувчи сўзлар туркуми олмош саналади.

Д. От, сифат, сон, равиш туркумига мансуб мустақил сўзлар ўрнида қўлланидиган сўзлар олмошлардир.

2- топширик. Матнда келган олмошларнинг гапдаги вазифаларини аниқланг.

1. Муҳаббат шундай бир қудратли кучки, кимнинг қалбига йўл топган бўлса, уни ҳам ўз йўлига бошлайди. (С.Аҳм.)

2. Менинг юрагимда чўғ йўқ. Ҳеч ким ўт солмаган. (С.Аҳм.)

3. Табиат аллақандай хидга тўлган. (С.Аҳм.)

4. Скамейкада ўтирган хотин нимадир деди. (С.Аҳм.)

5. Ҳу ана у липанинг тагида салқин бир скамейка бор. (П.Қ.)

1.3.

1-топширик. Олмошларнинг гапда бажарган вазифасига кўра турларга ажратилиши қайси жавобда тўғри ёритилган?

А. От, сифат, сон, равиш характеридаги олмошлар.

В. От, сифат, равиш характеридаги олмошлар.

С. От, сифат, сон характеридаги олмошлар.

Д. От, сон, равиш характеридаги олмошлар.

2-топширик. Олмошларни топиб, гапдаги вазифасини аниқланг, уларнинг қайси сўз ўрнида келганини айтиб беринг.

1. Шаббода кўзғалди. У жонга ором берди.

2. Герасим кучукчасини жуда яхши кўрар эди, унга Муму деб от қўйди.

3. Пўлат Камолов ботир йигит, уни ҳамма ҳурмат қилади.

4. Ўтган йиғилишимизга 80 ота-она келган эди, бу йиғилишимизга ҳам шунча келди.

5. Катта қурилишлар мамлакатимиз ҳуснига ҳусн қўшмоқда, улар халқимизнинг фаровонлигини яна ҳам оширади.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1- топширик. Матндаги кишилиқ, кўрсатиш ва ўзлик олмошларини топиб, уларни уч гуруҳга ажратинг ва маъно ҳамда гапдаги вазифасини тушунтиринг.

Менинг халқим ўз киндигининг қони тўкилган тупроқни ўз онасидан азиз кўради... қадим ўзбек ботирлари узоқ сафарга кетганда бир ҳовуч ватан тупроғини доимо ўз ёнларида олиб юрганлар. Чунки бу тупроқ уларга ўз туғилган ерларини эслатиб турган, халқ олдида ичган қасамини ёдга солган. Ватанга бўлган муҳаббатини бир нафас ҳам унуттирмаган. Бир ҳовуч тупроқ унга ўз ота-онасини, қариндошларини, халқини эслатган, узоқ ўлкаларда бўлса ҳам, уни ўз ватанида ҳис қилдирган ва қаерда бўлмасин ўз халқи шаънига иснод келтирмасликка, ўз халқининг номусли ва содиқ ўғли бўлишга чақирган. У Ватанини қанча севса, ота-онасини қанча севса, ота-онадан, сеvimли ёрдан, қадрдон ватандан нишон бўлган

шу бир ҳовуч тупроқни ҳам шунча севган. Шу бир ҳовуч тупроқнинг кучи шунча зўр бўлганки, у сувсиз саҳролардан, қорли тоғлардан, ваҳший дарёлардан, ёввойи ўрмонлардан кўз очиб юмгунча ўта олган. Шу бир ҳовуч тупроқ уни ўтдан олиб, ўтга ташлаган, лекин омон сақлаган. Ўқ унинг кўкрагини тешолмаган, қилич танасини кесолмаган, олов куйдиrolмаган, зиндон чиритолмаган. (Ҳ.О.)

2-топширик. Матндаги кишилик олмошларини аниқлаб, уларнинг ёзилиши, келишиклар билан турланишини, қайси сўз ўрнида келаётганини тушунтиринг.

1. Мен спорт билан шуғулланаман. Спорт менинг янада бақувват, довюрак бўлишимга ёрдам берапти.

2. Тер тўкиб сочсанг уруғ, ер сени кўймас қуруқ. (Мақол)

3. Сизда, сизнинг юришингизда, сафда туришингизда озод ўлкамизнинг кўрки кўриниб турсин.

4. Ўқишда сизга муваффақиятлар тилайман, азиз ўқувчилар!

5. Сиз билан мен бўлсак, қаттиқ нонни ҳам еяверамиз. (А.Қ.)

6. Сиз бироз дам олинг. (А.Қ.)

3-топширик. Матнда келган ўзлик олмошларини топиб, уларни эгалик кўшимчасини олган от билан боғлангандаги ифодалаётган маънолари, танҳо ишлатилганда эгалик кўшимчаларини олиб учала шахсни ифодалашига ва турланишига изоҳ беринг.

1. Тил билан бировнинг айбини айтиш осон, ўз тили билан ўз айбини айтадиганлар жуда кам. (Чўлпон)

2. Унинг ўзи ёш, лекин зийрак бола.

3. Бу суратни ўзим чиздим.

4. Ўзингиз ҳам ўтиринг. (А.Қ.)

5. Нима ёзганимни мен ўзим сизга тушунтираман. (О.)

6. Ўзи ширин, туклигина, мазаси ҳам тотлигина. (Топишмоқ, шафтоли)

7. Кишининг ҳурмати ўз қўлида. (Мақол)

8. Ўз ошим - ғавғосиз бошим. (Мақол)

4-топширик. Матндаги кўрсатиш олмошларини ўзи боғланиб келаётган сўз билан биргаликда олиб, ифодалаётган маъносини тушунтиринг.

1. Мен ана шу гулларга сув куюётган эдим. (Ҳ.Н.)

2. Бундай чиройли машинани биринчи марта кўришим.

3. Мана шу асбобларни бошингга қўйиб, хушёрроқ бўлиб ётасан. (Ғ.Ғ.)

4. Мана буларни кўтариб сен олдинроқ боравер.

5. Шу қишлоқда туғилдим. Шу ерда ўсдим, униб. (З.)

6. Бу овоз унга жуда таниш туюлди.

2.2.

1-топширик. Матндаги сўроқ ва белгилаш-жамлаш олмошларини топиб, маъно хусусиятларини тушунтиринг.

1. Тошкентдан нималар келтирдингиз, бек ака. (А.Қ.)

2. Ҳар ким ўз асарининг Навоийга мақбул бўлишини истар эди. (О.)

3. Гулнорни олиб қочганлар ... Улар ким? қайси мақсад билан бу жиноятни бажарадилар. (О.)

4. Экин қалай, неча таноб? (С. Аҳм.)

5. Барчасига кўз югуртирдим. Барчаси ҳам товланар, кулар. (У.)

6. Буларнинг бари энди сизники, Зиёдахон.

7. Дунёни сув босса, ўрдакка нима қайғу? (Мақол)

2-топширик. Сўроқ олмошларини топиб, уларнинг нимани аниқлаш учун қўлланаётганини тушунтиринг.

1. Зилола, қанақа қалам олдинг?

2. Сиз нимани ўйлаяпсиз?

3. Қайси шоир, ёзувчиларни танийсиз?

4. Нега мунча кеч қолдинг?

5. Эрталаб қаёққа кетаётган эдинг?

6. Шералига қандай топширик берилган эди?

7. Нима қилиш керак, кимга учрашиш керак?

3-топширик. Матндаги белгилаш-жамлаш олмошлари ва уларнинг маъносини тушунтиринг.

1. Биз истаймиз: барча эллар, элатлар, Бир-бирига бўлсин яна яқинроқ.

2. Сизнинг таклифингиз гўё ҳамманинг номидан бўлади. (О.)

3. Ҳар бир қишлоқ ширингина шаҳарча бўлиши лозим. (О.)

4. Боғчамиздаги гулларнинг бари очилди.

5. Хадича хола қишлоқнинг ҳамма қарияларидек тетик кампир эди.

2.3.

1-топширик. Бўлишсизлик ва гумон олмошларини топиб, маъносини ва гапдаги вазифасини изоҳланг.

1. Элмурод деразаларидан ёруғлик тушиб турган уйларнинг ёнига келганда қандайдир ёқимли мусика эшитилди. (П.Т.)

2. Ойқиз йиғилганларнинг юзига тўғри қарар ва энди ҳеч қандай ҳижолат тортмасди. (Ш.Р.)

3. Девор орасида алланарса шитирлади. (Ш.Р.)

4. Бу кеч амир Алишер ҳеч кимни қабул қилмади. (Л.Б.)

5. Арчазордан яна аллақандай ёқимли ҳидлар келар эди. (Ҳ.Н.)

6. Дунёда ҳеч бир халқ тўғри келолмас. Менинг билишимча, сенинг элинга. (Х.О.)

7. Дўсмаст қаёққадир бориб, рўмолчасига нон ва яна нимадир тугиб келди. (П.Т.)

8. Хулқ ҳар ким ўз қиёфасини кўрсатадиган кўзгудир. (Гёте)

2- топширик. Бўлишсизлик олмошларини топиб, уларнинг маъносини ва тузилиши (таркиби)ни тушунтиринг.

1. Сиз ҳозир ҳеч қаёққа кетмайсиз. Театрни полициячилар қуршаб олишган. Бирпас кутинг. қон тўкиш ҳеч қачон яхшилик келтирмайди.

2. Унинг сўзини ҳеч ким бўлмади.

3. Тўлабойнинг ҳеч бир йўқдир тоқати, бу турганда ҳеч ким пойга ололмас.

4. Бу ишларни ҳеч бир одам қилмаган, Гулшанбоғни ҳеч ким келиб кўрмаган. (Фольклордан)

3-топширик. Гумон олмошларини топиб, уларнинг ясалишини, маъносини, гапдаги вазифасини тушунтиринг.

1. Унинг юзи ориқ, рангсиз, бурни қирра, чуқур ботган катта кўзларининг оқи аллақандай мовий эди. (Ас.М.)

2. Гўё Лайлонинг бошига аллақим болға билан тақиллатиб ураётгандек туюларди.

3. Мирвали аллақайси базада экспедитор. (С. Аҳм.)

4. Бунинг бадалига унга биров битта-яримта нон, яна биров чойчақа бериб кетади. (Ҳ.Ғ.)

5. Кимдир сенга учқур тулпор эгарлар. (А.О.)

6. У менинг қулоғимга нималарнидир шивирлади. (С.)

Мустақил ишлар:

1-топширик. Бошқа туркумдаги сўзларни олмошга кўчиши - прономинализация ходисасини аниқланг ва изоҳланг.

1. Атрофда одам тўпланди. Баъзилар ачинади, баъзилар - томошабин. (О.)

2. Афтидан, оғзига аччиқ гап келди-ю, дадаси олдида бу одамга бир нарсга дейишдан ўзини тийди. (Ш.Р.)

3. Бунда толе ҳар нарсадан мўл, То ўлгунча шу ўлкада қол. (Ҳ.О.)

4. Менинг икки онам бор:

Иккиси ҳам меҳрибон.

Бири менга сут берди,

Бири эса ширин нон. (У.)

2-топширик. Ифодаланмай қолган олмошни тикланг. Бунда сизга нима ёрдам берганини тушунтиринг.

1. Кийинтирсам сени баҳорга, Юлдузларни ўрасам қорга... (Х.О.)
2. Ҳар кимки вафо қилса, вафо топгусидир,
Ҳар кимки жафо қилса, жафо топгусидир.
3. Она тилим, сен борсан, шаксиз, Булбул куйин шеърга соламан, Сен йўқолган кун, шубҳасиз, Мен ҳам тўти бўлиб қоламан. (А.О.)
4. Ох, майин аллаларга, Илҳомрез паллаларга, Мардонавор яллаларга, бой экансан, Фарғона.

Адабиётлар:

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1980, 290-325.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1966, 252-264.
3. У. Турсунов ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1965, 46-56.
4. Ўзбек тили грамматикаси. 1 том, Тошкент, 1975, 332-364.
5. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. “XXI аср авлоди”, Т., 2001.
6. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.

7-amaliy mashg'ulot

Fe'l va uning ma'no to`dalari, sematik-grammatik xususiyatlari, grammatik kategoriyalari, funktsional formalari.

Dars maqsadi: fe'lning umumkategorial ma'nosi, semantik guruhleri, morfologik belgilari haqidagi talabalar bilimini mukammallashtirish;

Identiv o`quv maqsadlari.

Fe'lning umumkategorial va ichki kategorial grammatik ma'nolari, funktsional formalarini aytib bera oladi.

Fe'llarni semantik guruhlariga ajrata oladi.

Fe'lning leksik-grammatik xususiyatlariga ko`ra turlarini tushuntirib bera oladi.

Fe'lning ma'nosi, semantik guruhleri, morfologik belgilari tushuntira oladi.

Fe'lning daraja (nisbat) kategoriyasini izohlay oladi.

Fe'lning bo`lishli-bo`lishsizlik kategoriyasini aytib bera oladi.

Fe'lning mayl kategoriyasini ajrata oladi.

Fe'lning zamon kategoriyasini tushuntirib bera oladi.

Fe'lning funktsional formalarini tushuntirib bera oladi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Fe'lning umumkategorial va ichki kategorial grammatik ma'nolari, funktsional formalari aytib beriladi.
2. Fe'llarni semantik guruhlariga ajratib beriladi.
3. Fe'lning leksik-grammatik xususiyatlariga ko`ra turlari tushuntirib beriladi.
4. Fe'lning ma'nosi, semantik guruhleri, morfologik belgilari tushuntirib beriladi.
5. Fe'lning daraja (nisbat) kategoriyasi izohlab beriladi.
6. Fe'lning bo`lishli-bo`lishsizlik kategoriyasi aytib beriladi.
7. Fe'lning mayl kategoriyasi ajratib beriladi.
8. Fe'lning zamon kategoriyasi tushuntirib beriladi.
9. Fe'lning funktsional formalari tushuntirib beriladi.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1.1.

1-топширик. Матндаги феълларни топиб, умумкаториал, ички каториал ва функионал формаларини аниқланг, тушунтиринг.

1. Бадантарбия машқи танани бақувват қилса, фикр юритиш машқи ақлни кучайтиради.
2. Ишламаслик ҳар доим ланжликни келтириб чиқаради, ланжликдан кейин эса ногиронлик келади.

1.2.

1-топширик. Феълларни топиб лексик-грамматик хусусиятлари ва турини (мустақил ва ёрдамчи феъл эканлигини) айтинг.

Биз бир қориндан талашиб чиққан халқларнинг вакилларимиз. Бизнинг бешигимиз бир ерда бўлган. Қозоқ онасининг айтган алласига ўзбек боласи ҳам ухлаган. Ўзбеклар тожиклар билан бир ҳовлида яшаганлар. Навоийни туркманлар ўзбеклардай яхши кўрар эдилар, қирғизнинг тўйи ўзбексиз ўтмаган. Бизнинг халқларимиз бир-биридан қиз олиб, қиз бериб куда бўлиб келганлар. Бизнинг боболаримизнинг қабрлари бир-бирига жуда яқин қўйилган. Бизнинг уруғларимиз бир-бирига чатишиб кетган. Бизнинг халқларимизни бир-биридан ажратиб бўлмайди. Ўзбек халқининг эътиқоди –шу. (Ҳ.О.)

2-топширик. Қуйидаги саволларга оғзаки жавоб беринг.

1. «Ёрдамчи феъл», «кўмакчи феъл» атамалари маъносидagi фарқ нимада?
2. Қандай феълларни «кўмакчи феъл» деймиз?
3. Етакчи ва кўмакчи феълли бирикувлар қандай номланади?

3-топширик. Кўмакчи феълнинг етакчи (мустақил) феълга бирикиш формасини берилган мисоллар асосида тушунтиринг.

Юмалаб кетмоқ, олиб кетмоқ, бошлаб кетмоқ, ўқиб кетмоқ, сўзлаб кетмоқ, юриб кетмоқ, битириб кетмоқ.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-топширик. Феълнинг шахс-сон қўшимчалари билан тусланиши ҳақидаги тўғри таърифни топинг ва тушунтиринг.

1. Ҳаракатнинг бажарувчи шахсга муносабати шахс-сон категорияси дейилади.
2. Ҳаракатнинг бажарувчи шахс миқдорига бўлган муносабати шахс-сон категорияси дейилади.
3. Ҳаракат ва унинг бажарувчиси ҳамда бажарувчи шахс миқдорини кўрсатувчи қўшимчалар олиб тусланишига шахс-сон категорияси дейилади.
4. Феъл сўзларнинг шахс-сон ва замон қўшимчалари билан ўзгартувчи қўшимчаларга шахс-сон категорияси дейилади.

2-топширик. Гаплардаги феъл сўзлар англатган бажарувчи шахс ва унинг миқдорини аниқланг.

1. Китобни ўқиб бўлдим – китобни ўқиб бўлдик.
2. Сарвиноз «аъло» баҳоларга ўқийди.
3. Сарвиноз ва Фурқатжон ҳовлида ўйнапти.
4. От кишнади, ит вовиллади, хўроз қичқирди. Ялмоғиз уйғонди.

Жумракдан сув оқарди. Ҳайрон бўлдим.

2.2.

1-топширик. Феълларни шахс кўрсатишига кўра: шахсли ва шахсиз турларга бўлинишини тушунтиринг.

1. Тошкетнга автобусда, электрпоездда борилади.
2. Университетга кўприк орқали ўтилади
3. Ёши катталар ҳурматда. Тоғдан муздай шабада эсади.
4. Феруза чойга таклиф қилди.
5. Билдим, билдим, ҳаммасини биламан.
6. Мансуров отидан тушди.

2-топширик. Тусланган феъл формаларини қайси шахс ва сонда келганлигини айтинг.

(Ғофир.) Улар менинг дўстларим! Улар менинг бошимга тушган кулфатга тоқат қилолмаганлар!... Айтинг, буюринг, улар кирсинлар! Улар сизга арзиҳол қилмоқчилар! Бойлардан, мингбошилардан тортган жабру жафо, кулфат-аламлари тўғрисида

гапирмоқчилар! Мен энди ўзимни ёқламайман. Лекин... шу бағри қон бечораларни ёқлайман!..

3-топширик. Ажратиб кўрсатилган феълларнинг қайси шахсда ва қайси сонда келганини тушунтиринг.

1. Талабалар ўқишдан кейин ижтимоий фойдали меҳнат билан шуғулланадилар.
2. Биз аудиториямизни ўзимиз тозалаймиз.
3. Мен сув ташийман, ўртоғим пол ювади.
4. Биз графикдаги ишни бажардик.
5. Гуруҳга раҳбар керак бўлади.

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1.

1-топширик. Нисбат формасидаги феълларни топиб, уларнинг тури, маъноси ва ясовчи воситасини аниқланг.

Наврўзда кўчат экадилар ва боғ яратадилар: қиш охирларига келиб организми толган одамлар илк шифобахш кўкатдан олиб сомса ва чучвара қиладилар, бир неча кун донни бир оз кўкартириб ажойиб сумалак пиширадилар, узоқ ва мураккаб йўллар ила буғдойни алоҳида тайёрлаб халқона баҳорий саҳоват тимсоли – лаззатли ҳамда даволи халим пиширадилар ва жамоатни, ҳаммани меҳр-ла меҳмон қиладилар.

2-топширик. Гап жуфтликларидаги феълларнинг фарқини ва ясовчи кўшимчаларни аниқланг.

1. От чопди. Чавондоз от чоптирди.
2. Шоҳидахон хат ёзди. Шоҳидахон хат ёздирди.
3. қурбонжон масалани ечди. Масала ечилди.
4. Маъмор бино тархини чизди. Бино тархи чизилди.
5. Раҳмонбек кийимини кийди. Раҳмонбек кийинди.
6. Розиябегим қўл-бетини ювди. Розиябегим ювинди.
7. Дўстлар ҳол-аҳвол сўрадилар. Дўстлар ҳол-аҳвол сўрайди.
8. Одамлар ерни ағдарди. Одамлар ерни ағдаришди.

3-топширик. Феълларни аниқ ва бошқа нисбат шаклида эканлигини аниқланг.

1. Шарофатхон расмга қаради. Шарофатхон ҳаммани расмга қаратди.
2. Комбайн буғдойларни ўради. Комбайнда буғдойлар ўрилди.
3. Азизахон хатни ўқиди. Азизахон хатни ўқитди.
4. Ойбекнинг болалиги Тошкентда ўтди. Ойбек болалигини Тошкентда ўтказди.
5. Навоий асарлари дунёга ёйилган. Уни ёйган Навоийнинг сон-саноксиз тадқиқотчиларидир.

3.2.

1-топширик. Аниқ нисбат шаклидаги феълларни аниқланг.

Кичкина ариқнинг зилол сувлари алланималарни куйлайди - ора-сира ойга қош қоқиб, ноз билан оқади. Ер бетини ёпган кўм-кўк майсалар ел чилдирмасига шох ташлаб ўйнайди. Кенг кўк юзида йўртиб келаётган оймомо майсаларнинг юзини сут билан ювади...

Мана бу боғнинг чечакларидан бирини 12 ёшга тўлган Лолахон узди-да, дўпписининг четига такди, севинди, яйради, гул унинг қўлида ғижимланди, сўлди. (К.Я.)

2-топширик. Гап жуфтларидаги феъл нисбат кўшимчаларини аниқланг ва уларнинг маъносини тушунтиринг.

1. От чопди. Рахимжон отни чоптирди.
2. Парвонахон хат ёзди. Парвонахон хат ёздирди.
3. Бузоқ онасини эмди. Сигир бузоққа сут эмизди.
4. Бола ухлади. Она болани ухлатди.
5. Воҳиджон ариқдан ўтди. Йигитлар Воҳиджонни ариқдан ўтказди.

3-топширик. -т, -тир, -дир, -ир, -ар, -из, -гиз, -ғиз, -киз, -сат кўшимчалари ёрдамида ишла, бошла, тўки, қара, тер, ёз, ўқи, сўйла, ишқа, созла, ол, сур, сурт феълларидан ортторма нисбат кўшимчали феъллар ҳосил қилинг.

4-топширик. Гаплар орасидаги маъно нозикликларини аниқланг ва тушунтиринг.

1. Қизлар унинг гапларидан кулдилар. Унинг гаплари қизларни кулдирди.

2. Меҳмон уйга кирди. Мезбон меҳмонни уйга кирғизди.
 3. қўйлар орқага қайтди. Чўпон қўйларни орқага қайтарди.
 4. Челак сувга тўлди. қиз челакни сувга тўлдирди.
- 5-топширик. Гап жуфтликларидаги феъл нисбат қўшимчаларини топиб, уларнинг маъносидаги фарқини изоҳланг.
1. Ҳисобчи қўйларни санади. Қўйлар саналди.
 2. Олим тажрибани синади. Тажриба синалди.
 3. Навбатчи синфни тозалади. Синф тозаланди.
 4. Қиз сочини таради. Соч таралди.
 5. Сожида тўнни илди. Тўн қозикқа илинди.
- 6-топширик. Аниқ ва мажҳул нисбат феълларини қиёслаб, -л, -ил, ва -н, -ин қўшимчаларининг қўлланиш ўринларини тушунтириб беринг.
1. Ўрамоқ-ўралмоқ, сўрмоқ-сўралмоқ, тўқимоқ-тўқилмоқ, танимоқ-танилмоқ, қазимоқ-қазилмоқ.
 2. Бошламоқ-бошланмоқ, ташламоқ-ташланмоқ, куйламоқ-куйланмоқ.
 3. Термоқ-терилмоқ, топмоқ-топилмоқ, ёймоқ-ёйилмоқ, қувмоқ-қувилмоқ, тўнтармоқ-тўнтарилмоқ, ағдармоқ-ағдарилмоқ.
- 7-топширик. Гапларда қандай маъно ифодаланганлигини тушунтиринг.
1. Бу йўлдан истиклолга, ғалабага ва озодликка борилади.
 2. Йўл юрилса ҳам, мўл юрилди.
 3. Ўнгга Қумушкентга, чапга Вобкентга, тўғрига эса ғиждувонга чиқилади.(С.А.)
 4. Кўприкдан ўтилди ва маррага эришилди.
- 8-топширик. Гаплардаги ўзлик нисбатда келган феъл сўзларни топинг, ясовчи қўшимчаларнинг тагига чизинг ва маъносини изоҳланг.
1. Гулчеҳра дарс тайёрлади - Гулчеҳра дарсга тайёрланди.
 2. Хуршид юз-қўлини ювди - Хуршид ювинди.
 3. Қузғун ўзини ўлжага ташлади - Бургут ўлжасига ташланди.
 4. Меҳриноз ўзини савол-жавобга тайёрлади - Меҳриноз савол-жавобга тайёрланди.
- 9-топширик. Берилган феълларни ўзлик ва мажҳул нисбатга ажратинг.
- Безанмоқ, безалмоқ, кийинмоқ, кўринмоқ, кийилмоқ, кўрилмоқ, севинмоқ, севилмоқ, суўринмоқ, сурилмоқ, суртинмоқ, суртилмоқ, таранмоқ, таралмоқ, уринмоқ, урилмоқ, ювинмоқ, ювилмоқ, ясанмоқ, ясалмоқ.
- 10-топширик. Берилган ўзлик нисбат феълларидан аниқ нисбат ҳосил қилиб, унинг ўтимли ёки ўтимсизлигини аниқланг.
1. Куйинмоқ, тўйинмоқ, оғринмоқ...
 2. Тотинмоқ, яширинмоқ, ёпинмоқ, билинмоқ, ювинмоқ.
- 11-топширик. Ўзлик ва мажҳул нисбат бир хил бўлган қуйидаги феъллар иштирокида иккитадан гап тузинг ва уларнинг бирида феъл ўзлик нисбат маъноси билан, иккинчисида мажҳул нисбат маъноси билан келсин.
- Ёзилмоқ, шайланмоқ, ёрилмоқ, парчаланмоқ, бўлинмоқ.
- 12-топширик. Матндаги биргалик нисбатда келган феълларни топиб, ясовчи қўшимчаларини аниқланг.
- Қушлар гоҳ юқорига кўтарилар, гоҳ қанотларини ёзиб пастга сузишарди. Улар сувга қўнар, қанотлари билан шалолатиб уриб кўпириб турган сув томчиларини узоқларга сачратардилар-да, яна осмонга кўтарилардилар. Сўнгра улар турна қатор тизилиб бир текисда қанот қоқишиб, тунамоқ учун кўрфазнинг қумлоқ соҳиллари томон учиб кетишарди. (Ч.А.) Улар яна кулишдилар. (А.Қ.) Болалар тўқилган пахталарни теришди. Карим билан Аҳмад «Тонг юлдузи» газетасига мақола ёзишди.
- 13-топширик. қуйида келтирилган гаплар орасидаги маъно нозикликларини тушунтириб беринг.
1. Дилнавоз ва опаси кир ювишди. Дилнавоз опасига кир ювишди. Дилнавоз опасига кир ювишга ёрдамлашди.
 2. Ўқувчилар ва сабзавотчилар хандалак узишди. Ўқувчилар сабзавотчиларга хандалак узишди. Ўқувчилар сабзавотчиларга хандалак узишга кўмак бердилар.

3. Наргиза ва Саломатхон дераза ойналарини артишди. Наргиза Саломатхонга дераза ойналарини артишди. Наргиза Саломатхонга дераза ойналарини артишда кўмаклашди.

Мустақил иш:

14-топширик. Матндаги феълларнинг бош, мажхул, ўзлик, биргалик ва орттирма нисбатларини аниқланг. Нисбат ясовчи кўшимчалар тагига чизинг ва ҳар бир кўшимча иштирокида биттадан феъл ҳосил қилинг.

1. Талант сукунат кўйнида етилади, характер ҳаёт бўронларида тобланади. (А.Гете)
2. Ҳалол одамни таъқиб этиш мумкин, аммо уни бадном қилиб бўлмайди. (Ф.В.)
3. Одамлар билан уларнинг ақлига монанд гаплаш. (Саъдий)
4. Аллақайда булбул тўлиб-тошиб куйлайди. (С.Аҳм.)
5. Кечкурун Гулнор ... қоронғи хаёлларга чулғанди. (О.)
6. Йўлчи эшик олдида тиз чўкди ва мақсадини тушунтирди. (О.)
7. Биз каналлар қазидик... Янги ерлар очдик! Сув келтирдик! (Ш.Р.)
8. Кумушбиби қизаринди. (А.Қод.)

4-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

4.1.

1-топширик. Матнда бўлишли ва бўлишсиз шаклдаги феълларни топинг, бўлишсизлик маъносини ифодаловчи воситаларни кўрсатинг.

1. Янги дўст орттирсанг, эскисидан юзингни бурма. («қобуснома»)
2. Пўлатжоннинг тили танглайга ёпишиб қолгандек гапиролмас, вужуди эса қарахт бўлиб қолгандек қимирламас эди. (С.Аҳм.)
3. Мен у вақтда ёш эдим, қўмондонликни ҳам Раҳимовга ўхшаб қилолганим йўқ.
4. Тилнинг ақлдан олдинга кетишига йўл қўйма. (Хилон)
5. Билишнинг ўзи кифоя эмас, уни қўллай билиш керак. Истакнинг ўзи етмайди, уни рўёбга чиқармоқ лозим. (И.Гёте)
6. Ким олға юрмаса, у ортга кетади. (Белинский)
7. Отанг боласи бўлма, одам боласи бўл. (Мақол)
8. Озни билмаган, кўпни билмас. (Мақол)
9. Даврим келди ўйнайман, ўйнаб сира тўймайман. (А.Пўлат)
10. Пўлат ўзини кулгидан тўхтата олмасди. (Ш.Р.)

2-топширик. Бўлишли феълларнинг тагига бир чизик, бўлишсиз феълга икки чизик чизиб ажратинг.

1. Дўстларнинг сонини санама, сифатини сана.
2. Олтин қуёш заррин нурларини сочди.
3. Мажлисида Сайрамов маъруза қилди.
4. Бинокорликдан ҳеч ким оғиз очмади.
5. Ҳосилинг кам бўлса, ҳаводан кўрма.
6. Ёмонга йўлдош, нодонга сирдош бўлма.
7. Аҳоли ёппасига ҳашарга отланди.

4.2.

1-топширик. Гаплардаги феъл сўзларни топиб бўлишсизлик маъносини юзага келтираётган кўшимчани аниқланг.

1. Пул, мол-дунёга кўнгил қўйманг, илм ва маърифатни эгаллашга ҳаракат қилинг.
2. Азоб чекмагунча, ҳузур кўрмайди, меҳнат қилмагунча, роҳат кўрмайди.
3. Машина тезда юрмади.
4. Бормаганимиз яхши бўлган экан.

2-топширик. Бўлишсизликнинг ифодаланиш усулини аниқланг.

1. Жалил Фарғонани ҳали кўргани йўқ.
2. У ёши ўттизга яқинлашса ҳам вилоятдан четга чиққан эмас.
3. Фазлидин на ўқиди, на ишлади.
4. Шукуржон Зилолани кўрмай қўймади.

5-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

5.1.

1-топширик. Феъл майлларининг таърифи тўғри ва тўлиқ қайд этилган жавобни аниқланг.

1. Сўзловчининг иш-ҳаракатга мойиллиги феъл майли дейилади.
2. Ҳаракат билан субъект орасидаги алоқанинг воқеликка муносабати феъл майли дейилади.
3. Сўзловчи шахснинг бажарувчи шахсга турлича муносабатига феъл майли дейилади.
4. Иш-ҳаракатнинг воқеликка муносабатини ифодалайдиган категорияларга феъл майллари деб айтилади.
5. Феълда сўзловчининг иш-ҳаракатга муносабатининг ифодаланиши феъл майли дейилади.

2-топширик. Матндаги феълларни ижро майли, буйруқ-истак, шарт майлларига ажратиб, улар орасидаги семантик-грамматик фарқларни тушунтиринг.

1. Оммани ичида яшангиз. Ҳамма нарсадан хабардор бўлингиз. Оммани тушунингиз. Унинг мутлоқ ишончини қозонингиз.
2. Муҳитни ўраган қалин зулматни кураш машъали ёндиради. (О.)
3. Ер ҳайдасанг, куз ҳайда, куз ҳайдамасанг, юз ҳайда. (Мақол)
4. Олим бўлсанг, олам сеники. (Мақол)
5. Кишилар адолат билан ҳаракат қилганларида эди, судьялар дам олган бўлар эдилар.
6. Дарвоза тик этса, юраги гупиллаб урарди. (С.З.)
7. Мен ҳам сенга оталик қилмоқчимен. Сени руҳий азоблардан қутқармоқчимен. (Уйғун ва И.Султ.)

5.2.

1-топширик. Матндаги ижро майлдаги феълларни аниқлаб, уларнинг замони ва қайси шахс томонидан бажарилаётганлигини тушунтиринг.

Осмонни булут қоплади: ёмғир ёғадигандек қоронғулик босди, билинар-билинемас шамол турди. Бу шамол кучайиб-кучайиб, ярим соатдан кейин довулга айланди. Денгиз кўпириб, тошиб, ҳайқириқ солиб, соҳилга урила бошлади. Дарахтлар шамол зарбидан кўпорилди. Кейин бўрон сал бўшашди. Икки соатлардан кейин бўрон тақа-тақ тўхтади ва шу заҳотиёқ ёмғир куйиб берди.

2-топширик. Буйруқ-истак майлидаги феълларни топиб, улар ифодалаётган модал маънолар (буйруқ, истак, маслаҳат, илтимос ва б.)ни аниқланг.

1. Сен уқиб ололмадингми, аттанг! Майли, уқиб олганингни айта бер.(А.Қод.)
2. Ўзига боқма, сўзига боқ. (Мақол)
3. Қўрпангга қараб оёқ узат. (Мақол)
4. Йўлингдан қайтма, ёвингдан қўрқма. (Мақол)
5. Шошманг, мен яна бир суриштирай... (Чўлпон)
6. Гап билгунча, иш бил. (Мақол)
7. Масаланинг тагига етайлик. (Чўлпон)
8. Сенлар эшитмасанглар, ухлаларинг ё бўлмаса, сўзни-сўзга қовуштирларинг.(А.Қод.)
9. Қўлингдан келмаган ишга уринма. (Мақол)
10. Уят эмасми? Юв қўлингни, юв! Укаларингни бола десам, сен улардан ҳам ошиб тушасан. Ишинг бўлмаса, китоб ўқи, хуснихат ол.(А.Қ.)

3-топширик. қуйида берилган феълларни учала шахс, бирлик ва кўпликда буйруқ-истак майлида тусланг ва ясовчи қўшимчаларнинг модал маъноларини аниқланг: айт, юр, сўзла, ўқи, ёз.

Шахс	Бирлик	Кўплик
I	Айтай(ин)	Айтайлик
II	Айт(гин)	Айтингиз
III	Айт(син)	Айтсинлар

4-топширик. Матндаги шарт майлида келган феълларни топиб, шарт майли ясовчи қўшимча ва унинг қўшилишидан ҳосил бўлаётган маънони аниқланг ва тушунтиринг.

1. Қўлингдан келса, қилар ишингни бир нафас ҳам кечиктирма.

2. Олим бўлсанг, олам сеники. (Мақол)
3. Ёлғон айтиб фойда кўрсанг, охирида зарар топасан.
4. Ажаб саодат эрур чиқса яхшилик била от.(Н.)
5. Ерни боқсанг, ер элни боқади.(Мақол)
6. Ер яхши ишланса, ҳосил мўл бўлади.
7. Мактабни «аъло» баҳоларга битирсам.
8. Отам кўнглидаги умидларини очиб айтса эди.
9. Эртага ёмғир ёғса керак.
10. Шунча эътиборга яраша ўғли ўқиса экан.

5-топширик. Мисоллардаги соф шарт ва шарт-истак феълларини ажратинг, уларнинг фарқини тушунтиринг.

1. Тан-жонинг соғ бўлса, тинч бўлсанг, орзу-ҳавас бошланади. (Мирт.)
2. Отмагай тонг боғаро, булбул хиромон бўлмаса.(Достондан)
3. Жамила, тур ўрнингдан! Агар сен мени севсанг, агар муҳаббатинг чин бўлса, тиз чўкма, ялинма, бу итларга. (Х.Х.)
4. Сиз болани ҳурмат қилмас экансиз, бола сизни тингламайди, сизни севмайди. (С.З.)
5. Ҳаёт сабоқларин этолмасанг ёд, Уни ўргатолмас ҳеч қандай устод. (Рудакий)

6-топширик. Гаплардаги шартли майл феълларини топиб, уларнинг ясаши ва маъносини изоҳланг.

1. 1.Агар бўлмасайди шу фидожон халқ, Шаҳарлар тарихдан учгуси эди. (Ғ.Ғ.)
2. Сўрашсам, менга тасалли берар эдингиз. (А.Қ.)
3. Кимки подшога тил тегизса, у дарҳол ушланиб қамалар эди. (О.)
4. Агар мен сенга ўхшаш эркин куш бўлсам, аллақачон гўзал Ҳиротга қараб учар эдим.(И.Султ.,Уйғун)

7-топширик. Мақсад майли формасини топиб, ясаши ва маъносини тушунтиринг.

1. Мен ҳам сенга оталик қилмоқчимен, сени руҳий азоблардан қутқармоқчимен. (Уйғун ва И.Султон)
- 2.Акамни, Самандарни, ҳарбийга олишмоқчи. (А.Қ.)
3. Сизнинг ёнингизга арзга келмоқчи эди ... Шу қизга бир раҳм-шафқат қилсангиз бўларди, ака! (Х.Х.)
4. Мен шу аснода Ҳамид Олимжон уюштирган таржима кечалари ҳақида тўхталмоқчиман. (Х.Ғ.)
5. Улуғ султон ўз фуқароларини бахтиёр ва бадавлат қилмоқчилар; адолат йўли билан мамлакатни гуллаб-яшнатмоқчилар; ёрдамга муҳтож бўлган ҳар бир кимсага қўмаклашмоқчилар. (Л.Б.)
6. Бало тоғи бўлиб бир умр, Кўкрагимдан босмоқчи бўлдинг, Толеимни, озодлигимни, Номусимни олмоқчи бўлдинг. (У.)
7. Улар сизга арзи ҳол қилмоқчилар.(Х.Х.).

Мустақил иш:

1-топширик. «Алишер Навоий» драмасидан олинган қуйидаги гаплардаги феълларни аниқлаб, улар қайси майл формасида қўлланганлигини, уларнинг ясаши ва маъно хусусиятларини белиланг.

1. Қафасга тушмасин халқим, элим дер Вазир, олим, буюк шоир Алишер.
2. Гулим, беҳудага безовта бўлма, Ўзингни қийнама, ғамларга тўлма. Дадил бўлсанг, ваҳминг ранги сўлғай, Ишон одатда тушнинг акси бўлғай.
3. Улуғ амир, отамни қутқаринг! Тушунтир,қийнама! Англат, бу не ҳол!
4. Халққа бўлаётган зулмлар камайтирилсин. Бузуқи амалдорлар жазолансин!
5. Сизнинг қўлингизда қалам қандай ўйнаса, бизнинг қўлимизда ҳам қилич шундай ўйнайди.
6. Ташвиш зўр бўлса, уйқу қочади.
7. Сен иблисни деб, Алишердан воз кечайми?
8. Тонг билан парвозга тайёрлан.
9. Қизишманг! Табаррук қиличингизни бир ифлоснинг қони билан ҳаром қилманг!
10. Олиб чиқинг! Сафар жабдуғини ҳозирланг!
11. Бизга ғамхўрлик қилган шоир Навоийнинг умри узоқ бўлсин!

2-топширик.: а) буйруқ-истак майлидаги феълларнинг ҳосил бўлишини мисоллар билан тушунтиринг, б) шарт ва шартли майлдаги феъллар маъносидаги фарқни айтиб беринг, в)

мақсад майлидаги феълнинг ҳосил бўлишини айтиб, таклиф қилмоқ феълидан мақсад майли ҳосил қилинг ва унинг бўлишли, бўлишсиз шаклини шахс-сон кўрсаткичлари билан тусланг.

6-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

6.1.

1-топширик. Феълларни топинг ва замонларини аниқланг.

1. Кенг сахро бағрида ҳаёт қайнайди. Турли марқадаги юк машиналари, самосваллар у ёқдан бу ёққа қатнамоқда. Саҳронинг ҳар томонида чироқлар йилтилламоқда. Улкан ишлар янги йилдан бошланади. Биз, бинокорлар, улкан ишларнинг базасини яратаяпмиз. Мирзачўл оқшоми кирди. Мирзачўлни боғ-бўстонга айлантормагунча, ҳеч ёққа кетмаймиз. (Газетадан)

2. Пахлавон қайсарнинг қўшинига бир алп йигит ўзини уриб бораётир. Буни кўриб Ойсулув қайтмай, қилич солиб бораётир. (Э.Ж.)

3. Уришга борган экансиз ... мен ҳам борганман. (А.Қ.)

2-топширик. Феълларни ўтган, ҳозирги, ҳозирги-келаси замонга ажратиб, уларнинг қайси жиҳатдан бундай тасниф қилинишини тушунтиринг.

1. Енгур зулматни нур, албатта шаксиз. (Уйғун, И.Султон.)
2. Кеча кўрган эдим мен бир ёмон туш, У тушни эласам, бошдан учар хуш.
3. Ариқ қазмоқдамиз: чўлларда иш кўп, Работу мадраса, йўлларда иш кўп. (Уйғ. И.Сул.)
4. Ойқиз кўрик ва бўз ерларга яқинлашди. (Ш.Р.)
5. Муборак опам беш йил ичида анча ўзгарибди. (С.З.)
6. Ўқитувчилар бугунги ва эртанги авлодларимизни вояга етказяптилар. (С.Аҳм.)
7. Кенг сахрода ҳаёт қайнайди.
8. Улкан ишлар янги йилдан бошланади.
9. қўшин қалъа томон бораётир.
10. Йўк, ҳақиқат букилар, лекин синмас. (Х.Х.)

6.2.

1-топширик. Ўтган замон феълларини топиб, уларнинг ясовчи қўшимчаларини, маъноларини ва ҳар бир шаклнинг қандай аталишини айтиб беринг.

1. Олтинсойликлар оммавий чиқишга тайёрланардилар. (Ш.Р.)
2. Бутун жонли ва жонсиз тинглади жим, Ғазалдин биз каби завқ олмаган ким.
3. Алданибмиз... Иблис ўз муддаосига етибди. (Уйғун ва И.Султон)
4. Дала йўлининг икки томонидаги боғлар туташ гуллар билан қопланган. (О.)
5. Биз ўз Ватанимизни севамиз, бу биз нафас олаётган хаводир. (Ш.)
6. Бутабой катта ерга етганда отдан тушди. (С.Аҳм.)
7. Хамид Олимжоннинг сози ҳеч қачон тинмайди. (Х.Г.)
8. Танга қўлдан-қўлга ўтавериб сийқа бўлиб кетган экан. (А.Қ.)
9. Ойсулув ва мерганлар девлар билан учрашиб, суришиб юрар эди, Буни пахлавон қайсар кўриб эди. (Эртақдан)
10. Болалик кунларимда, Уйқусиз тунларимда, Кўп эртак эшитгандим, Сўйлаб берарди бувим. (Х.О.)
11. Нотиқ ўтирди. У ўтирганида яна аслига қайтди. Хотин унинг ҳар бир сўзидан завқланар, кулар эди. (А.Қ.)

2-топширик. Матндаги ўтган замон феъл формаларини аниқланг, группалаб, уларнинг ясалиши ва маъно хусусиятларини тушунтиринг.

Сув

Ҳазили йўк, шаршарадан тушган Сув илгари жуда ўжар, бебош, безори экан. Айниқса баҳор кезлари маст бўлиб олиб ҳаддидан ошаркан. Оғзидан оқ кўпик сочиб, босар-тусарини билмай, йўлида дуч келганни босиб-янчиб, уриб-йиқитиб, қулатиб кетавераркан. Унга на Сепоя полвону на Тўғон полвон, на қорабувра полвон бас келаркан.

Донишманд бошқача йўл тутибди. Бебош Сувни маслаҳат билан йўлга солишибди, уй-жойли қилиб, ишга жойлаб, тинчитиб қўйишибди. У ҳозир чироғбонлик қилаётганмиш. Ўжарни урмай-сўкмай йўлга сол, деганлари, дарҳақиқат, беҳикмат эмас экан. (В.Рўзиматов)

6.3.

1-топширик. Ҳозирги замон феълларини топиб, замон кўшимчаларини аниқланг ва уларнинг маъноси, қандай аталишини тушунтиринг.

1. Дала йўлининг икки томонидаги гўзалар қийғос гулламоқда. 2. Биз Мирзачўлни гуллаган водийга айлантирмоқчимиз. 3. Ҳаво очиқ. Майсалар офтобда яшнайдди. Чинор тепасидаги уяда лайлак ҳали-ҳали бир оёқлаб қимирламай турибди. (С.Аҳм.) 4. Жавлон ота ... нималар тўғрисида ўйлапти? Лаблари секин қимирлайди, оҳиста шивирлайди... қўшиқ айтяпти, қўшиқ! (Газетадан) 5. Мактабнинг турмуш билан алоқаси борган сари мустаҳкамланаётир, ўқиш ва тарбия ишларининг сифати яхшиланаётир. (Газетадан). 6. Саидахон опамлар ҳам бизнинг қишлоққа кетишаётган эканлар. (А.Қ.) 7. Меҳмонлар тўда-тўда бўлиб кела бошладилар. (О.) 8. Фаоллар жамоат ишларини яхши олиб бормоқдалар.

2-топширик. Матндаги ҳозирги замон феъллари ясовчи воситаларни аниқлаб, уларнинг маъноларини изоҳланг.

1. Адир орасидан баркашдек ой кўтарилмоқда. (С.Аҳм.)
2. Биз юртбошимиз чақириқларига амал қилиб яшайпмиз.
3. Хонада ёлғиз ўринбосарнинг ўзи ўтирибди. (Ё.Ш.)
4. Улуғвор қурилишнинг ҳамма жойида ашула янграётир. (Ш.Р.)
5. Она табиат уйғониб, бутун олам яшил либос киймоқда.
6. Кирсам, Сайёра деканимиз қаршисида турибди.

3-топширик. Матндаги ўз маъносиди ва кўчма маънода келган феъл замон шаклларини ажратинг ва тушунтириб беринг.

1. Турди XVIII аср охирида яшаган талантли шоирдир.
2. У Субхонқулихон зулмига қарши кўтарилади.
3. Турди хонлар, беклар томонидан оёқ-қўллари боғланган камбағалларнинг ҳолига чидай олмайди.
4. У халқнинг оғир, даҳшатли ҳаёти учун қайғуради.
5. Турди кўзғолончиларни Субхонқули ҳокимиятини ағдаришга ундайди.
6. Турди кўзғолончилар билан Хўжандга боради.
7. Кўзғолонда бевосита иштирок этиб, кейин ўша ерда яшади.

6.4.

1-топширик. Ҳозирги-келаси замон феълларини топиб, уларнинг ясалишини ва маъносини аниқланг.

1. Шу қарорга келдим: далага кетмоқчиман. (О.)
2. Дехқон ҳаётини ўрганарман, эҳтимол, уларга зарра фойда келтирарман. (О.)
3. Мен сиздан сўрамоқчи эдим, хола. (Ас.М.)
4. Балки, яна бутун шеърларини келтирарман. (О.)
5. Ўқитувчи болаларни Бурчмуллага олиб бормоқчи. (Ҳ.Н.)
6. Оғир тошни сув элтмас. (Мақол)
7. Болангни ўзим елкамга кўтараман, ўзим катта қиламан... (Ҳ.Ҳ.)
8. Олтин ўтда, одам меҳнатда билинади. (Мақол)

2-топширик. Ҳозирги-келаси замон феълларининг ясалиши ва маъносини тушунтиринг.

1. Абдуллаев ўзи тавсия қилиб, энди ҳаммасига иқрор бўлгиси келмайди. (Ш.Р.)
2. Қақраган чўллар тезда обод ерларга айланажак!
3. Қобил телеграммани олган бўлса, кечгача етиб келар ёки жавоб қайтарар, кутайлик-чи.
4. Муқаддас вазифа этилур адо. (У.)
5. Собир институтни битириб, Мирзачўлга бормоқчи бўлди.

Мустақил иш:

1-топширик. Замонлари алмашилиб келган феълларни топиб, уларнинг қайси замон ўрнида келаётганини тушунтиринг.

1. –Юринг, ўртоқ Одилов. Кетдик. Пиёда кетдик. (А.Қ.)
2. Чойни ичиб, маслаҳати битиб, одамларга қараб, Гўрўғли бу сўзни айтиб турибди.
3. Бу сўзни Аваздан эшитиб, яна кампир Авазга қараб бу сўзларни сўзлаб турган экан.
4. Бобурнинг қалами, худди рассом қалами сингари, ... ҳаётни реал тасвирлайди. (Ҳ.О.)

5. Тилшунос олим Маҳмуд Кошғарий халқнинг хотирасида сақланиб қолган қўшиқлар, афсоналар ва мақолларни тўплаб «Девону луғотит турк» китобини ёзади.

7-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

7.1.

1-топширик. Фейлнинг функционал формаларини топинг, уларни асосий хусусиятларига кўра гуруҳларга ажратинг.

1. Подшонинг марҳаматидан баҳраманд бўлмоқ, аждарнинг оғзидан таом емоқ билан баробардир. 2. Саҳар чоғи туриб, ширин ғазалдин эшитмак одатим бўлган азалдин ... 3. (Абулмалих) Дунё тўғрисида қайғурадиганлар хўроз уруштириш, олтин қадахларда май ичиш билан овора. 4. Кўзим чиксун сени кўргунча мундоқ, Кесилсин тил сени сўргунча мундоқ. 5. Агар истар эса бошимни олсун, Танамни бурдалаб, ўтларга солсун. 6. Санъат осмонида нур сочувчи улуғ юлдузга асло завол йўк! (Уйғун ва И.Султон.) 7. Бир неча қиз рақсга тушиб кетди. (О.) 8. Умрни қискартирувчи таъсирлар орасида кўрқув, қайғу, умидсизлик, зерикш, тутқунлик, ҳасад, нафрат етакчи ўринни эгаллайди. (К.Гуфеланд) 9. Агар мен сенга ўхшаш эркин куш бўлсам, аллақачон гўзал Ҳиротга қараб учар эдим.

2-топширик. Матндаги ҳаракат номи, сифатдош ва равишдошларни топиб, уларнинг қандай аффикс билан ясалганлигини гуруҳларга ажратинг ва шу форманинг маъносини аниқланг.

1. Ўқиш-тафаккур ва ақлий камолот манбаларидан бири. (В.А.Сухомлинский) 2. Яхши ёзадиган муаллифларни ўқиш билан яхши сўзлашга ўргатадилар. (Ф.Вольтер) 3. Ишнинг ўзини билгунча, кўзини бил. (Мақол) 4. Ким буюк мақсадга интилса, у ўзини ўйламаслиги зарур. (И.С.Тургенев) 5. Киши бадантарбия қилгани сингари ақл ва характерини ҳам машқ орқали тоблаши мумкин. (Д.И.Писарев) 6. Яхши китоб кўтариб олган одам ҳеч қачон ёлғиз эмас. (К.Гольдони) 7. Нодонлар даврасида ўтиргандан кўра китобдан таскин топган афзал. (П.Буаст) 8. Одамни йўлга соладиган ва йўлдан оздирадиган китоблар бор, шунинг учун китоб танлай билиш ниҳоятда муҳимдир.

7.2.

1-топширик. Ҳаракат номларини топиб, ҳосил бўлишини тушунтиринг.

1. Соғлом бўлиш учун ҳамма жойда тозалikka риоя қилиш, турли ҳаракатли ўйинлар ўйнаш, тоза хавода юриш зарур. 2. Ўқиш ва ишлаш билан бирга, вақтида дам олиш ҳам керак. 3. Ботирлар кўрқувни билмайдилар. 4. Бизни она янглиғ оқ ювиб, оқ тараган Ватанни севмоқ – бу муқаддас бурчдир. (М.Шолохов) 5. Ўзидан қоникмаслик доно киши ҳаётининг зарур шартидир. (А.Н.Толстой)

2-топширик. Ҳаракат номи формаларини топиб, уларнинг отга ва феълга хос хусусиятларини айтинг.

1. Тил дўстлик ва ҳамжиҳатликни қарор топтиришнинг энг қулай воситасидир. (Эразм Роттердамский) 2. Киши яхшилик қилишга қодир экан, кадр билмаслар билан тўқнашиш унга хавф солмайди. (Ф.Ларошфуко) 3. Эзгу ишни ҳеч қачон кейинга қолдирмаслик керак, ҳар қандай пайсалга солишлик ақлга мувофиқ эмас ва кўпинча хавфлидир. (М.Сервантес) 4. Кетмон чопмоқ – олмоқ-солмоқ; қўш ҳайдамоқ – бормоқ-келмоқ. (Мақол) 5. Айтмаган жойга борув йўк, айтган жойдан қолув йўк. (Мақол)

3-топширик. -ш, -иш; -в, -ув; -моқ, -маслик кўшимчалари ёрдамида қуйида берилган феъл асослардан ҳаракат номлари ясанг.

Сайла, сўра, тут, сурт, ишла, ата, силжи, тани, ўқи, чўқи, тўқи, тур, юр, сўзла.

4-топширик. Ҳаракат номларида - ш, -иш кўшимчасини - моқ кўшимчаси билан алмаштириб кўринг ва маънодаги ўзгаришни изоҳланг.

1. Спорт билан шуғулланишнинг фойдаси кўп. 2. Шеър ёдлашнинг аҳамияти катта. 3. Эл орасида яхшилик уруғини сочишдан фойдалироқ иш йўқ. (А.К.) 4. Одамларни ҳурмат қилиш ўзини ҳурмат қилиш демакдир.

7.3.

1-топширик. Берилган феълларга: а) -ган, -кан, -қан; б) -адиган, -йдиган; в) -ётган, -аётган кўшимчаларини қўшиб, сифатдошлар ясанг, улар иштирокида гаплар тузинг.

Судрамоқ, етакламоқ, чикмоқ, қизикмоқ, ҳайикмоқ, букмоқ, зерикмоқ, тирнамоқ.

2-топширик. Қуйидаги феъллардан -р, -ар, -ажак қўшимчалари воситасида сифатдошлар ясанг: кел, бор, ёрит, қил, топ; ўқи, ёз, эк, кўрк, баҳола, тайёрла, тур, кут, асра, давола, кўр, бажар, қуйла, ўйна, ўйла.

3-топширик. Сифатдошларни ўзи боғланиб келган сўз билан кўчиринг, қайси замонда келганини аниқланг ва тушунтиринг (айтиб беринг).

1. Бир томони хонақоҳ, уч томони катакча-хужралар билан ўралган мадрасанинг кенг, текис, чорбурчак сахнидан кеча шовдираб ўтган ёмғир кўзга илинар-илинмас буғ бўлиб ҳавога кўтарилмоқда эди. (О.)

2. Юзни тиканлаб ўтадиган изғиринлар ўрнига энди баданга ором берувчи, руҳни тебратувчи шамоллар изғийди... Пурсиллаб қабарган сахро яшил жингалаклари билан қопланди. Булар кўз олдинда гўё дақиқа сайин ўсади, шамолда тўлқинланувчи қалин майсаларга, ўтлоққа айланади.

4-топширик. Ўқи, бажар, ол, юбор феълларидан аввал мажҳул нисбатдаги ўтган замон сифатдоши, сўнгра мажҳул нисбатдаги ҳозирги замон сифатдоши ҳосил қилинг ва улар иштирокида ўзингиз 4 та гап тузинг.

5-топширик. Ўтган замон, ҳозирги замон, келаси замон сифатдошлари қатнашган 2 тадан, жами 6 та гап тузинг ва улардаги замон маъносини тушунтиринг.

7.4.

1-топширик. Равишдошларни топиб, уларнинг маъно хусусияти, ясаши ва гапдаги вазифасини айтинг.

1. Водокачка битгунча, ариқлар тайёр бўлди. (А.Қ.) 2. Наққош кетмасдан аввал шоир эшикка чикди. (О.) 3. Йўлчи эҳтиёт билан қумғонни олиб, бир чимдим чой солди. Пиёлаларни ювиб-артиб қуя бошлади. (О.) 4. Орадан бир мунча вақт ўтгач, каналнинг у ёғидан автомобил чироғи кўринди. (А.Қ.) 5. Онамларни кўргали келувдим. (Х.Х.) 6. Узокқа кетмагин, сени кўргани меҳмонлар келади. (Я.) 7. Ақлни ўстирмоқ учун ҳадеб ўқийвермай, кўпроқ фикрлаш керак. (Р.Декарт)

2-топширик. Равишдошларни топиб маъно турларига ажратинг, ясовчи қўшимчаларини аниқланг.

1. Ўйламай гапириш мўлжал олмай отиш билан баравар. (Сервантес) 2. Самоварчи унинг елкасига қўлини қўйиб, яна бир тикилиб олгач, бағрига босди. (С.Аҳм.) 3. Атайин сизга шуни айтгани келган эдим. (Х.Х.) 4. Тома-тома қўл бўлур, томмай қолса чўл бўлур. (Мақол) 5. қишлоқдан чиқилгунча, яна бир неча жойда тўхталди. (А.Қ.) 6. Ҳазрат Яъқубнинг кўзлари йиғлай-йиғлай кўр бўлди. (О.Ё.) 7. Овчи эмаклаб қушга яқинлашди. 8. Йигит юра-юра бир қўл қирғоғига келибди. (Эртакдан)

3-топширик. Гаплардаги кўп нуқталар ўрнига равишдош қўшимчаларидан мосини қўйинг.

1. Узун қоронғи йўлакдан чик ..., Унсин тўхтади. (О.) 2. Ёмғир тин ..., булутлар тарқал ..., тиниқ осмонда куёш нурлари яна порлади. 3. Менинг назаримда, шамол унча кучли кўринмади, то кучай ... бекатга етиб олиш мақсадида бўл ..., қистаброқ юришни буюрдим. 4. Тонг ҳам от ... бошлади. қўйлар ўринларидан тур ..., кўзиларини эргаштир..., жилға томон юр ... бошладилар. (Ё.Ш.)

Мустақил иш:

1-топширик. Феълга хос хусусиятлардан: а) даража, б) бўлишли-бўлишсизлик, в) майл, г) замон, д) ҳаракат маъноси, е) бошқарув хусусияти, ё) кесимлик вазифаси, ж) шахс-сон билан ўзгариш кабилардан қайси бири сифатдошларда, равишдошларда, ҳаракат номида мавжудлигини мисоллар воситасида тушунтириб беринг.

1. Эзгулик ҳеч ўзгармайдиган бирдан-бир либосдир. (Г.Торо) 2. Вақтини бой бераётганида хуноб бўладиган одам энг доно одамдир. (Данте) 3. Бошқа халқларни эзувчи халқ ўзига ўзи кишан тоблаиди. (К.Маркс) 4. Ўз шогирдларида меҳнатдан завқланиш хислатларини уйғота билган муаллим шарафларга лойик. (Э.Хаббард) 5. Туганмас ҳузур-ҳаловат –меҳнатда. (У.Блейк) 6. Энг яхши тил - тийилган тил, энг яхши нутқ пухта ўйланган нутқ. (Л.Н.Толстой) 7. Қалбдан чиққан сўз қалбга йўл олади. (Низомий)

Адабиётлар:

1. Ўзбек тили грамматикаси. 1 жилд. Т., 1975.
2. Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1980.
3. Шомаксудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. Т., 1983.
4. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. “XXI аср авлоди”, Т., 2001.
5. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.
6. Ғуломов А.Ғ. Феъл. Т., 1954.
7. Ҳожиев А. Феъл. Т., 1973.
8. Содикова М. Феъл стилистикаси. Т., 1975.
9. Қўчқортоев И.қ. Валентнўй анализ глаголов речи в узбекском языке. Т., 1977.
10. Жўрабоева М. Феъл. (Маъруза матнлари), Т., 1999.

8-amaliy mashg'ulot

Ravish va uning semantik – grammatik xususiyatlari.

Dars maqsadi: talabalarga ravish va uning semantik – grammatik xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

Identiv o`quv maqsadlari:

Ravish so`zlarning harakat va holat belgisini bildiruvchi so`z turkumi ekanligini tushuntirib bera oladi.

Ravish so`zlar predmet va belgining belgisini bildiruvchi so`zlar bilan bog`lanib kelishini, lekin o`zgarmasligini aytib bera oladi.

Ravishlarning mustaqil so`z turkumi sanaladigan morfologik belgilarini tushuntirib bera oladi.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

Ravish so`zlarning harakat va holat belgisini bildiruvchi so`z turkumi ekanligi tushuntirib beriladi.

Ravish so`zlar predmet va belgining belgisini bildiruvchi so`zlar bilan bog`lanib kelishini, lekin o`zgarmasligi aytib beriladi.

Ravishlarning mustaqil so`z turkumi sanaladigan morfologik belgilari tushuntirib beriladi.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1.1.

- 1-топширик. Равишга берилган тўғри ва тўлиқ жавобни аниқлаб, тушунтиринг.
 - А. Иш-ҳаракат ва ҳолатнинг белгисини билдирган сўз туркуми равиш дейилади.
 - Б. Иш-ҳаракатнинг белгисини - ҳолатини, пайтини, ўрнини, даража-миқдорини билдирган сўз туркуми равиш дейилади.
 - С. Мустақил маъноли ўзгармас сўзлар равиш деб номланади.
 - Д. Равишлар феъл билдирган ҳаракат-ҳолатнинг бажарилиш тарзи, пайти, ўрни, мақсади, даража-миқдорини билдирган сўзлардир.
 - Е. Равиш, асосан, иш-ҳаракатнинг белгисини билдириб, феълга боғланади, шунингдек, белгини билдириб сифатга, равишга, баъзан предметнинг белгисини билдириб отга боғланадиган сўзлардир.
- 2-топширик. Равиш сўзларнинг ўзи боғланган сўзлар билан бириккандаги маъноларини аниқланг ва тушунтиринг.
 - А. Тез ўқиди, бугун ўтказилади, узоқдан кўринди.
 - Б. Жуда чиройли, ғоят гўзал, ниҳоят тез.
 - С. Фидокорона меҳнат, оқилона иш, тонналаб пахта.
- 3-топширик. Гаплардаги равишларни топиб, уларнинг қайси туркумга оид сўз билан боғланаётганини аниқланг ва маъносини тушунтиринг.
 1. Узоқдан майин қўшиқ овози эшитила бошлади.
 2. Оқшом шамол бирдан тўхтади.
 3. Султонмурод дўстларини хаёлчан кўзлари билан анча жойгача кузатди.

4. Эрта турсанг соз ҳаво; кеч турганга не раво. (Мақол)
5. У жуда тез, қайсар одам эди.

1.2.

1-топшириқ. Берилган сўзларга кўплик (-лар), қиёсий даража (-роқ), эгалик (-м,-инг,-ди), келишиқ кўшимчалари (-нинг,-ни,-га,-дан,-да)ни кўшиб, уларни ўзгарувчи ва ўзгармас кўшимчалар билан бирика оладиган ва бирика олмайдиган сўзлар гуруҳига ажратинг.

Кеча, энди, зўрға, ҳали, пиёда, ҳозир, яёв, бирданига, эрталаб, қўққисдан, қасддан, бу ер, галма-гал, мардона, мардларча, нари, қахрамон, қахрамонона, қахрамонларча, қахрамончасига, асло, мутлақо.

2-топшириқ. Қуйида берилган сўзлар иштирокида гаплар тузинг ва уларга сўроқ бериб, қандай гап бўлаги вазифасида келаётганини аниқланг.

1. Ишчилар фидокорона меҳнат қилаётирлар.
2. Аҳмад кечагина Тошкентдан келди.
3. Собир бугун бир неча ўртоқлари билан келди.
4. Тонги шаббода майин эсмоқда.
5. Аҳмад Хусайн эрталаб қариндошлари билан хайрлашди.
6. Азиз дўстим, сени жуда, жуда кўргим келди. Ҳозир иш кўп, оғайни.
7. Барча фанлардан «аъло» баҳоларга ўқишга астойдил ҳаракат қилаяпман.

3-топшириқ. 1- ва 2- топшириқларда берилган ўзгармас сўзлар иштирокида гаплар тузинг ва уларга сўроқ бериб, гапда қандай бўлак бўлиб келаётганини аниқланг.

1.3.

1-топшириқ. Берилган сўзларда сўз ўзгартувчи кўшимчаларга ўхшаш қисмларни топинг, уларнинг қандай вазифа ва маъно ифодалаётганини тушунтиринг.

1. Бир варақайига, кўндалангига, бирданига.
2. Бирдан, ростдан, тўсатдан, тубдан, чиндан.
3. Бирга, зўрға, жўрттага.

2-топшириқ. Равишларнинг маъноси ва ясаиш усулларини тушунтиринг.

1. Меҳмонлар олдин-кетин кириб келишди.
2. Узоқдан найнинг майин овози эшитилди.
3. Собир беихтиёр орқага бурилди.
4. Бир зумда машинада етиб келди.
5. Илгарилари хотинлар ўйин қилишарди.

3-топшириқ. Берилган гап жуфтларида ажратилган сўзларга сўроқ бериб, уларнинг қандай гап бўлаги вазифасида келаётганини, қандай сўз туркуми билан ифодаланаётганини тушунтиринг.

1. Фермерлар бу йил кўп меҳнат қилишди. Энди кўп ҳосил кутишмоқда.
2. Баҳорда ва қишда ёгингарчилик мўл бўлса, ёз ва кузда ҳосил мўл бўлади.
3. Деҳқон кишин – ёзин тер тўкиб меҳнат қилади.
4. Дўстлар ўзаро очик гаплашиб олишди. Энди очикчасига гаплашамиз.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-топшириқ. Гаплардаги равиш сўзларни топиб, маъно жиҳатидан турини аниқланг.

1. Ўрмонжон тўсатдан келиб қолди. (А.Қ.)
2. Бун атайин сизга олиб қўйган эдим. (ЎТИЛ)
3. Азимбойвачча кўзларини айёрча қисиб, таъзим қилди. (С.Аҳм.)
4. Хушчақчақ одамнинг бугуни ҳам, эртаси ҳам қувноқ ўтади. (Л.Н.Толстой)
5. Машина равон ва тез юрмоқда. (Ас.М.)

2-топшириқ. Гаплардаги равиш сўзларнинг қандай маъно англатиб келаётганини: иш-ҳаракатнинг бажарилиш ҳолатини, пайтини, ўрнини, миқдор-даражасини ангатишини саволи билан тушунтириб беринг.

1. Тонги шабада аста эсар эди.
2. Кеча шахримизда спорт байрами бўлди.
3. Меҳмонхона узоқдан кўриниб турар эди.
4. Мамлакатимизда кўплаб боғ-роғлар бор.

2.2.

1-топширик. Қуйида берилган равишларни ҳолат ва пайт равишларига ажратинг.

Эрта, тез, эртага, бултур, тезда, секин, ҳозир, ҳозирдан, зўрға, бирдан, бирданига, индин, индинига, ҳали, пиёда, аввал, илгари, қийғос, тўсатдан, яёв, дўстона, эрталаб, доимо, ботирларча, наридан-бери, чала-чулпа, тез орада, аллақачон.

2-топширик. Ҳолат ва пайт равишли гаплар ва улар боғланиб келган сўз билан биргаликда ажратиб, қандай маъно ва вазифа бажариб келаётганини тушунтиринг.

1. Бугун ҳаво илиқ, деразаларни ланг очиб қўйса ҳам бўлади. (Ч.)
2. Ҳозир чой қайнайди, чакчаклашиб тонг оттирамыз. (С.А.)
3. Биз кечгача бирга дарс тайёрладик.
4. Аввал ўйла, кейин сўйла. (Мақол)

2.3.

1-топширик. Равишларни топиб, уларни иш-ҳаракат ўрни, даража-миқдорини билдирувчи равишлар гуруҳларига ажратинг.

1. Гапни кам сўзла, ишни кўп кўзла. (Мақол) 2. Орадан бир оз вақт ўтгач, бу ерга юзлаб қурувчилар келиб, ишни бошлаб юборишди. (Ш.Р.) 3. Ер қўпориб олға борар экскаватор. 4. Мана, узоқда бомбалар портлади. Бир зумда қора қушлар Бектемирнинг устида чарх ура бошлади. (О.)

2-топширик. Берилган сўзларни ўрин ва даража-миқдор равишларига ажратинг.

Кўп, олдинда, ичкарида, оз, кўплаб, пича, ташқарида, ўнгда, бироз, талай, мўл, юқорига, пастда, ўртада, тўла, озгина, чапда, чапдан, нарида, берида, анча, тўсатдан, яёв, тездан, аллақакча, аллақерга, ҳар ёкка.

3-топширик. Аввал ўрин, кейин миқдор-даража равишли гапларни аниқланг. Уларнинг гапдаги вазифасини тушунтиринг.

1. Қўллашинг, етакланг, олға интилинг, баравар маррага етиш эътибор. (Ф.Ф.)
2. Кўпни кўрган кўп билар. (Мақол)
3. Оз сўзла, кўп тингла. (Мақол)
4. Ғулумжон отнинг жиловини силтади, кейин қаёққа кетаётганини аниқлаш учун у ёкка-бу ёкка аланглаб қаради. От тўғри кетаётган эди. (М.Исм.)

Мустақил иш:

1-топширик. Ўнгда берилган равишлардан чапдаги равишларнинг синонимларини топиб, уларнинг синонимик қаторини тузинг.

Аввал
Аранг
Баъзан
Секин
Доим
Тез
Олдинга
Тўхтовсиз

барвақт, хамиша, зўрға, гоҳо, аста, дастлаб, ҳар доим, илдам, илгари, мутгасил, муғомбирона, узлуксиз, олға, оҳиста, аҳёнда, сушт, олдин, бурун, қадим.

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1.

1-топширик. Ҳаракат белгисини даражалаб кўрсатувчи равиш формаларини топинг.

9. Раъно оҳистагина Анварнинг ёнига келиб, супага суянди. (А.Қ.)
10. Кампир билан Мавлон ака Ботиралини оҳистагина кўтариб аравага олдилар. (Х.Ғ.)
11. Ол, ўғлим, ҳақингни эртароқ ол. (О.)
12. Улар жуда секин юришди. (О.)
13. Саида шуни билгиси, тезроқ билгиси келарди. (А.Қ.)
14. Тоғда қоронғи тезроқ тушади. (Х.Н.)
15. Мажлис жуда тез тугади. (А.Қ.)

16. Табиат эҳсонига қараганда кишилар кўпроқ машқ туфайли фозил одамга айланадилар. (Демокрит)

2-топширик. Гаплардаги жуфт ва такрорий равиш формаларини топиб, уларнинг маъно хусусиятларини, гапдаги вазифасини аниқланг ва тушунтиринг.

9. Зиёбек ўқтин-ўқтин орқага қарайди. (Н.Фозилов)

10. Ишчилар бирин-кетин сўзга чиқишди. (Ш.Р.)

11. Мен ҳам эрта-индин жўнаб қоларман. (С.З.)

12. Ойқиз қалбига жо бўлган фикрларнинг ҳаммасини бирма-бир айтди. (Ш.Р.)

13. Эрталаб қўшнилари кетма-кет кела бошлади. (С.З.)

14. Аста-секин бошланган чапак тобора авж олиб соз овозини босиб кетди. (А.Қ.)

15. Бу ерлар ёзин-қийин чорва молларига яйлов бўлган. (Ш.Р.)

16. Умида Саидадан тез-тез хабар олиб турди. (А.Қ.)

3-топширик. Равишларни топиб, тузилиш жиҳатидан турини аниқланг, маъносини тушунтиринг.

1. Феруза ҳар вақт озода юради.

2. Қизлар ҳосилот билан қадрдонларча хайрлашиб, ишга отландилар. (О.)

3. Мен аста-секин бу хонадоннинг паст-баландини яхши билиб олдим.

4. Ўқтам болага бирин-кетин савол берар эди.

5. Хуфтондан кейин уйлардаги қизлар бирин-кетин катта танобийга йиғила бошладилар. (А.Қ.)

Мустақил ишлар:

1-топширик. Равишнинг ҳар бир маъно турига оид сўз қатнашган иккитадан гап тузинг.

2-топширик. Равишнинг даражаланишини ҳосил қилувчи воситалар ва ясаиш усулига (синтетик, аналитик) кўра иккитадан гап тузинг.

Адабиётлар:

1. Ўзбек тили грамматикаси. 1, Т., 1975.

2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1, Т., 1980.

3. У.Турсунов ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1992.

4. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. “XXI аср авлоди”, Т., 2001.

5. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.

6. М.Мирзаев ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Машқлар тўплами. Т., 1984.

7. Мактаб дарсликлари.

9-amaliy mashg'ulot

Yordamchi so'z turkumlari

Dars maqsadi: talabalarga ko'makchi va uning yordamchi so'z sifatida gap qurilishidagi urni, turlari, kelishiklar bilan bog'liqligi haqida ma'lumot berish.

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Ko'makchilarning yordamchi so'z sifatidagi o'rni va vazifasi tushuntiriladi

2. Ko'makchilarni ma'no va vazifasiga ko'ra sof va funksional ko'makchilarga bo'linishini, ularning kelishiklarga munosabatdor ekanligi aytib beriladi.

3. Bog'lovchi va uning turlari izohlab beriladi.

4. Yuklama va uning ma'nosi, turlari tushuntiriladi.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1.1

1-топширик: Кўмакчиларни топиб, уларни боғланиб келаётган сўзлар билан қандай сўроққа жавоб бўлаётганлигини ва қандай гап бўлаги вазифасида келаётганлигини аниқланг.

1. Меҳнат, билим ва кунт билан кулар чин ҳавас.

2. Кўришмоқ учун у узоқдан кучоқ очиб келди. (О.)

3. Дарёнинг у бетига кўприк орқали ўтдик.

1. Беғубор осмонда тайёра қанотлари кумуш каби ялтираб кўринди.
 5. Жамоа хўжалиги аъзолари дала томон йўл олдилар.
 6. Суғориладиган экин майдонлари йил сайин кўпайтирилмоқда.
 7. Сут билан кирган, жон билан чиқар. (Мақол)
- 2-топширик: Кўмакчиларнинг қандай синтактик муносабат ифодалаётганини, уларнинг мустақил сўзлардан фарқини айтинг.
1. Қуш парвоз учун, инсон бахт учун яралган.
 2. Эртага албатта менинг қошимга келинг.
 3. Такдирни қўл билан яратур инсон, ғойибдан келажак бахт бир афсона. (Ғ.Ғ.)
 4. Тошпўлатов уч кундан бери шу ерда. Кеча кун бўйи тепалик ёнида ғишт қуяётганлар билан бирга бўлди. (Р.Ф.)
 5. Инсон сўзлаш қобилияти орқали ҳайвонлардан фарқ қилади .
 6. Жасорат истеъдод сингари мақсад сари борадиган йўлни осонлаштиради.
- 3-топширик. Кўмакчилар билан уларнинг омонимларини қиёсланг ва фарқини тушунтиринг.
1. Йиғилишда сўзни Расулжон бошлаб берди. - У эртадан бошлаб ишга киришади.
 2. Мен ҳозир келаман, сен укангга қараб тур. - У марказга қараб кетди.
 3. Бўри овчини кўра қочди. - Кечаги йиғилишнинг қарорига кўра бугун кўчат экишни бошлаб юбордик.
 4. Ичида нималарни ўйлаб кетяпти бу отлик? – қопча, қопчанинг ичида унча, унчанинг ичида - устунча. (Топишмоқ: жийда)

1.2.

1-топширик. Кўмакчиларни топиб, уларнинг турини, қайси келишиқдаги мустақил сўзлар билан бириқиб келганлигини айтинг.

1. Ҳаёт куёш билан гўзал, инсон – ҳулқи билан. (Шукрулло)
2. Куёш Калковуз бўйлаб ўсган қалин толларнинг учида ўйнайди. (О.)
3. Халқ кучли ел билан чайқалган денгиз каби бирдан кўзғалди. (О.)
4. Гулнор икки ҳафтадан буён дадаси ва онаси билан бирга ҳар кун боғда ишлайди. (О.)
5. Қиш қўйнидан бахт сингари ёз учиб келур. (Мирт.)
6. Онанга хиёнат қилиш, сени боқиб катта қилган кишиларга эътиборсизлик билан қараш энг оғир жинойятдир.
7. Ноз-неъмат тўла дастурхон устида суҳбат қизиқ кетди.

2-топширик. Кўмакчиларни топиб, турини аниқланг.

1. Меҳнат-ла яралур шох асарлар ҳам. (Р.Б.)
2. Шу тупроққа берганим-чун жон, Кўз юмаман мағрур, беармон. (З.)
3. Ошнинг таъми туз билан, одам таъми сўз билан. (Мақол)
4. Бир куни анинг ўғли фақирнинг уйига бориб кўрдик, ул одам бола-чақаси бирлан аллақандай таомни еб ўлтирибдур. (А.Қ.)
5. Адирдаги лолалар кўм - кўк майса узра чирой касб этган. (А.Каттабеков)
6. Қалбини бир оғир ғам ўртгарди мисли оташ. (Ҳ.О.)

3-топширик. Бош ва қаратқич келишигидаги сўзлар билан қўлланган кўмакчиларнинг маъноси ва гапдаги вазифасини айтинг.

1. Ойни этак билан ёпиб бўлмас. (Мақол).
2. Элмурод шу куни кечқурун бир бола орқали Давлатёрни ўз ҳузурига чақирди.
3. Шу пайт ўша дарахтзорлар оша эсган шамол йигитнинг қулоғига енгил қўшиқ тўлқинини келтириб урди. (Ш.Ғуломов)
4. Ака-сингил - Оляхон билан Абдурахмон - Бўзсув бўйлаб техникум томон йўл олдилар.(Н.С.)
5. Йўлчи сузган сайин ўзини енгил сезар, томирлари кенгаяр эди. (О.)
6. Бу ҳақда бошқа фикр бўлмагани учун маорифдан бошқа муаллим сўрашга қарор қилинди.(П.Т.)

4-топширик. Жўналиш ва чиқиш келишигидаги сўзлар билан қўлланган кўмакчиларнинг маъноси ва гапдаги вазифасини изоҳланг.

1. Полковник ҳаммага қарата нутқ сўзлади. (Ж.Ш.)

2. Кумуш онасининг юмушига бир оз қараб тургандан кейин ташқарига томон кетди. (А.Қод.)
 3. Гулнор уч кунни жаҳаннам азобида ўтказди. Онасидан машъум хабарни эшитганидан бошлаб, тинмай йиғлади... (О.)
 4. У табиатининг оғирлигига қарамай, ўрнидан сапчиб туриб кетди. (М.И.)
 5. Доя келгандан сўнг, ичкари ҳовли эркақдан тозаланди. (А.Қ.)
 6. Улар Николайдан тортиб, элликбошиларга қадар ҳаммани қарғашади.
 7. Элмурод, эрталабдан бери нон-чоидан бўлак ҳеч нарса емаганлигидан, кўнгли озиганини сезди.
 8. Минсанг, бундан ўзга йилқинг йўқмиди? (Алпомиш)
- 5-топширик. Нукталар ўрнига кўмакчилар талабига мувофиқ қўшимчалар қўйиб чиқинг ва кўмакчилар ифодалаётган модал маънони айтинг.
1. Бу борада у... олдига тушадиган йўқ.
 2. Бу гапни етти яшардан етмиш яшар... қадар ҳамма билади.
 3. Аскар ота Маърифатхон воқеасини эшитган... бери унинг қабрини зиёрат қилиш ниятида юрган эди. (А.Қ.)
 4. Бу ишга қадам қўйиш... илгари, бир карра сиз... олдингиздан ўтиб раъингизни билишга тўғри келди. (О.)
 5. Нонушта... кейин, одатдагидек, кийиниб, комбинат сари жўнади. (Миртемир)
 6. Катта йўл кечаси душман ўт қўйиб кетган қишлоқ... ёнидан ўтар эди. (А.Қ.)
- 6-топширик. Қайси гуруҳдаги сўзлар мустақил маъносини йўқотиб, кўмакчига айланган? Саволга қайси жавобдаги сўзлар тўғри ва тўлиқ жавоб бўлади?
1. Билан, учун, каби, сари, сайин, қадар, ўзга.
 2. Томон, ташқари, бери, кўра, тўғрисида, ҳақида, қарши, яраша, асосан, биноан, мувофиқ, кейин, бурун, нари, бери.
 3. Билан, учун, каби, сари, сайин, қадар, ўзга, туфайли, бошқа, сабабли, қараб, қарамай, орқали, сўнг.
 4. Билан, учун, каби, сари, сайин, янглиғ, сингари, оид, доир.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-топширик. Гаплардаги боғловчиларни аниқлаб, уларнинг гап бўлақларини ёки содда гапларни бир-бирига боғлаётганлигини тушунтиринг.

1. Шаҳар ва қишлоқлар обод бўлди. Кўп қаватли бинолар қурилмоқда ва қудратли электростанциялар ишга тушмоқда.
2. У дам айвонга, дам ошхонага қатнаб тинмай юрди. (Ойдин)
3. Роҳатой олдинги дарсда бўлмаган эди, аммо уй вазифасини бажариб келибди.
4. Ёмғир тинган, лекин ҳаво булут эди.
5. Гулларни парвариш қилиб турамыз, шунинг учун улар яхши ўсмоқда.

2-топширик. Боғловчиларни топиб, қайсилари содда гапларни, қайсилари гап бўлақларини боғлаш учун қўлланганини тушунтиринг.

Халқ дostonларида ғайратли ва жасоратли одамлар шерга ўхшатилади. Шер йиртқич сут эмизувчилар ичида энг чиройли ва энг кучли жонивор. Гавдаси анча кўпол, лекин у жуда чаққон. Барча ҳайвонлар ундан кўрқади. Чунки унинг кучи ва кескин ҳаракати уларни ваҳимага солиб қўяди. Шер раҳмсиз, аммо ўз болаларига жуда меҳрибон.

2.2.

1-топширик. Боғловчиларнинг якка ва такрорланиб келишини аниқланг ва тушунтиринг.

1. Уни саҳнада кўрсанг: дам жиддий тусда кескин овоз билан гапиради, дам худди чоллардек мулойим гапиради. У зўр артист бўлади.
 2. Опам ёзда дам олиш учун ё «Оқтош» санаторийсига, ё «Сўқок» дам олиш уйига бордилар.
 3. Бола жуда шўх, гоҳ югуради, гоҳ сакрайди, тиним билмайди.
 4. Тоғнинг ҳавоси жуда ажойиб, гоҳ ҳаво очилиб кетади, гоҳ ёмғир шаррос куяди.
- 2-топширик. Якка ва такрорий боғловчиларни аниқланг ва уларнинг вазифасини изоҳланг.

1. Ҳаёт томоша ҳам, байрам ҳам эмас, ҳаёт оғир иш. (Ж.Сантаяна)
2. Кампир баъзан мудрар, баъзан ўғли билан нималарнидир гаплашарди. (С.З.)
3. Унинг гоҳ йиғлагиси, гоҳ кулгиси, гоҳ бутун кечани остин-устун қилиб қўшиқ айтгиси келарди. (С.Аҳм.)
4. Чўлда янтоқ ҳам, ажриқ ҳам, шувоқ ҳам, чечак ҳам ўсади. (Ш.Р.)
5. У ё уялиб, ё чўчиб остонада турарди. (П.Т.)
6. ғуломжон суюнганидан ерда юрмас, гўё осмонда учарди. (М.Исм.)
7. Мен эртадан кейин, яъни дам олиш куни уйда бўламан.
8. Битибдур беш работ ҳам учта ҳаммом. (Уйғун ва И.Султон)

2.3.

1-топширик. Матндаги гапларни боғловчиларнинг маъно ва вазифаларига кўра турларига: олдин тенг боғловчили, сўнгра эргаштирувчи боғловчили гаплар гуруҳига ажратинг.

Паркент – тоғлик жой. Паркент денгиз сатҳидан анча юқори, шунинг учун у ерда анор ва анжир пишмайди, иссиқ камлик қилади. Июнь ва июль ойларида Бухоро, Термиз каби жойларда иссиқ 40-42 даражага чиқади, лекин Паркентда шу ойларда ҳам ҳарорат 30 даражадан паст бўлади. Паркент кўкларга бурканган, у чиройли кўриниши, майин, салқин ҳавоси ва тиниқ суви билан кишига ором бағишлайди, шунинг учун кўркам тоғлар кучоғидаги бу жойда дам олиш уйлари кўп.

2-топширик. Боғловчиларнинг турини (тенг ва эргаштирувчи) аниқланг.

1. Ҳамма гап меҳнат ва тажрибада.(О.)
2. На кўча бор, на уй-жой. (О.)
3. У ҳам кўп ўтмай ё инженер, ё ўқитувчи бўлиши мумкин.
4. Болалар ҳарбий қоидага мувофиқ қилиб бурилишди, бироқ уч-тўрттаси чапга эмас, ўнгга бурилди. (У.)
5. Биз Тошкентга автобусда ёхуд электричкада борамиз.
6. Шаҳримиз бўлди обод, шунинг учун кўнглимиз шод.

3-топширик. Нукталар ўрнига чунки, ва, ҳам, ҳамда, шунинг учун, лекин, дам боғловчиларидан мосини қўйинг.

1. Йироқдаги ўлкамизга қарашли бу боғ суҳбатимиз учун бўлди ... боғ, ... чироқ.
2. Деҳқонлар пахта экдилар...яхши даромад қилдилар.
3. Помир...Кавказ тоғларида жуда юксак чўққилар бор.
4. Мустақиллик байрамига тайёрланаяпмиз,... байрам жуда яқинлашиб қолди.
5. Тонг отди,... хали қуёш чиққани йўқ.
6. Иккови ҳам қувончли ҳаяжондан қоқилиб,...йўлнинг у ёғига, ...бу ёғига ихтиёрсиз равишда ўтишар эди.
7. Ҳалима ... Дилшод пахтани қуритиш учун қопларга жойладилар.

2.4.

1-топширик. Билан, ҳам сўзларининг боғловчи ва бошқа ёрдамчи сўз бўлиб келишини аниқланг.

1. Умрзоқ ота билан Олимжон кириб келди. (Ш.Р.)
2. Дарахт япроғи билан, одам меҳнати билан кўркам. (Мақол)
3. Дўстлик ёшлиқда ҳам, ҳаётимиз кузида ҳам бебаҳо бойлик.
4. Битибдур беш работ ҳам учта ҳаммом.
5. Яхшининг юзида зулук ҳам ҳол бўлиб кўринади. (А.Қ.)
6. Тийин ҳам пул, юз минг ҳам пул. (О.)

2-топширик. Билан сўзи қайси гапларда кўмакчи, қайсисида боғловчи бўлиб келганини аниқланг ва тушунтиринг.

1. Шиддат билан отга минган ким бўлди? (Фозил шоир)
2. Қурилишда пайвандчилар сув билан ҳаводай зарур.
3. Эшиқдан Ҳусниддин билан Мурод кириб келишди.
4. Кенг, текис майдон байрамга ясанган халқ билан, янгроқ қўшиқ ва хушчақчақ шовқин-сурон билан тўлди. (Ас.М.)

3-топширик. Боғловчиларнинг кўмакчи билан ўхшаш ва фарқли томонларини сўзлаб беринг.

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1.

1-топширик. Чапда ва ўнгда берилган гапларнинг маънодаги фарқини ва бу фарқни келтириб чиқарувчи воситани аниқланг.

Дам олиш кунни томошага борамиз. - Дам олиш кунни томошага борамизми?

Тош ётқизилмаган шу кўча қолди. - Тош ётқизилмаган фақат шу кўчагина қолди.

Собир келди, Махмуд келмади. - Собир-ку келди-я, Махмуд келмади-да!

2-топширик. Юкламаларни топинг ва улар ифодалаётган қўшимча маънолар(сўроқ, таажжуб, таъкид, айирув, чегаралаш, кучайтирув, инкор ва б.)ларни тушунтиринг.

1. Тўхтанг-чи, фронтда бўлганмисиз? ...Эски ошна эканмиз-ку! (О.)

2. Ҳамма гап сувда...Ҳа, шундай денг-а...

3. Биз нима деяпмиз-у, сен нима деяпсан?

4. Ҳали эшитдингми, ўша менинг мирзам ёрлиғ опти-я? (А.Қод.)

3-топширик. Юкламаларни аниқланг. қайси юклама сўзга, қайси бири гапга қўшимча маъно берапти, тушунтиринг.

1. Махдум урина - урина, ниҳоят, ўзи ҳам кулди. Зор қолгуринг жуда ҳам қотибди-да, кун ҳам иссиқ-а, Раъно? (А.Қод.)

2. Китоб-дафтарларингни усти тоза эмас-ку! Нега бепарволигингни ташламайсан ахир!

3. Электр кўзгагина эмас, қўлга ҳам ёрдам берсин.(О.)

1. Акам дурадгор. Унинг кўлидан-чи ҳамма иш келади. У яхши, чиройли жиҳозлар ясайди. - Акам мебель фабрикасида ишлайди-да!

3.2

1-топширик. Юкламаларни топиб, турини аниқланг. қандай қўшимча маъно бераётганини айтиб беринг.

1. Эҳ, мен унинг бугун келмай қолишини билар эдим-ку!

2. - Ёмғир нима бўпти! Тош ёғаётгани йўқ-ку ахир!

3. Боғ тинч. Фақат ғир-ғир шабадаю чумчуқлар чуғурлаши тинмас эди. (Х.Н.)

4. Папироснинг захари ҳатто филни ҳам ўлдиради.

2. Бирдан от кишнади. Шерали чўчиб ўрнидан турди. Ахир тушки овқат маҳалигача яйловга етиб бориши керак эди-да! (Н.Ф.)

3. Бойда инсоф бўладими ахир! (Х.Х.)

2-топширик. Нуқталар ўрнига юкламаларни қўйиб кўчиринг.

1. Бичиш-тикиш машғулотига ... қизлар қатнашади.

2. Ўзинг... вазифани тўла бажариб келмабсан, яна нега гердаясан?

3. Нега тез ҳаракат қилмайсан? Ёшлар серғайрат бўлади ...

4. Мен...математикага қизиқаман.

5. У дик этиб ўрнидан турди ... ўқитувчининг саволига аниқ ва тўла жавоб берди.

3-топширик. Юкламали гапларни маъноларига кўра турларга гуруҳлаб ажратинг.

1. - «Адолат кўзгуси»нинг сўнгги сонини ўқидингми?

- Сен-чи?

2. - Бу расмни мен ишлаганман.

- Сен-а?

3. - Буни қара-я, шу ҳам ов бўлдимми?!

4. - Менинг акам-чи, Тўйчи, мард чегарачи. (Қ.М.)

5. - Домла-ку келди-я. Талабалар келмади-да!

6. Ҳаммаси ҳам майли-я. Равшаннинг ёши кичкиналиги ёмон бўлди-да!

7. Саёҳатга фақатгина Дилдора боролмади.

8. Ҳозирча бу сир иккимизнинг орамиздагина қолишини сиздан сўрайман. (А.Қод.)

9. Бу ерларда ҳатто баҳор ойларида ҳам майса кўкармасди.

10. Тонг отмасданоқ шу ерда бўламан.

11. Шу заҳотиёқ сафар анжомлари ҳозирланди.

12. На кўшиқ, на кулги, на чурқ этган овоз эшитилади. (И.Р.)

13. На кўкнинг фонари ўчмасдан, На юлдуз сайр этиб кўчмасдан,

На уфқ ўрамай ёкут зар, На булут силкитмай олтин пар,

Тонг кулмасдан бурун туради.

4-топширик. -ми, -чи, -а, -я юкламалари маъносига кўра қандай юкламалар? Тўғри ва тўлиқ жавобни топинг.

А. Сўроқ ва таажжуб юкламалари: улар сўзга ёки гапга сўроқ, таажжуб, буйруқ, илтимос, истак, таъкид, ишонч каби маъноларни қўшади.

В. Кучайтирув ва таъкид юкламалари: улар ажратиш ва чегаралаш каби қўшимча маъноларни ифодалайди.

С. Айирув ва чегаралов юкламалари саналади.

Д. Аниқлов юкламалари ҳисобланади.

Е. Инкор юкламаси саналади .

3.3.

1-топширик. Берилган мисоллардан юклама вазифасида қўлланувчи сўз-юкламаларни ажратинг.

Агар, ахир, башарти, наҳотки, фақат, лекин, ҳатто, ҳаттоки, ёлғиз, ҳали, ҳеч, алла, жикқа, ғирт, эса, фақатгина, бир каби.

2-топширик. Қуйидаги гаплар таркибида келган аффиксал омонимлардан юклама вазифасида келганларини аниқлаб, маъносини тушунтиринг.

1. Бу китобни ўқиб кўр-чи, нима ҳақида ёзилган экан?

2. Эртага-чи, биз болалар боғчасига борамиз.

3. Юсуф халвочи бозорда юрган экан.

4. Гапирсанг-чи, мум тишлаганмисан?

Мустақил иш:

1-топширик. Матндаги ёрдамчи сўзларни топиб, уларнинг ҳар бирига тўлиқ характеристика беринг.

1. Сукротнинг донолиги шунда эдики, у билмаганини билдим деб ўйламас эди. (Цицерон) 2. Бойликдан керилмоқ – ақлдан нари, чунки у ўткинчи булут сингари. (Жомий) 3. Кучга бўйсунуш мумкин, аммо фақат ақлгагина сўзсиз итоат этадилар. (Л.Бланки) 4. Одамларни жисмоний бақувватлик ҳам, пул ҳам эмас, ҳақгўйлик ва серқирра билимдонлик бахтиёр қилади. (Демокрит)

5. Тана учун сиҳат-саломатлик қанчалик зарур бўлса, қалбга донолик ҳам шунчалик зарур. (Ф. Ларошфуко) 6. Тирик, яъни юракдан чиққан жўшқин нутқ ўликни тирилтирса, ўлик, яъни юракдан чиқмаган совуқ нутқ, дарҳақиқат, ўликка ҳам озор етказади. (А.Қ.) 7. Бир каттанинг гапига кир, бир кичикнинг. (Мақол) 8. Сени ўйлаш ўзи бир севинч, хаёлинг-ла ўтади тунлар. (Ҳ.О.) 9. Нутқнинг кучи оз сўз билан кўп маънони англата олишда. (Плутарх)

Адабиётлар:

1. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Тошкент, 1980, 405-424.
2. Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. Тошкент, 1975, 541-565.
3. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992.
4. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. “XXI аср авлоди”, Т., 2001.
5. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.
6. Мирзаев М. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Машқлар тўплами. Тошкент, 1984.
7. Мактаб дарсликлари.

10-amaliy mashg'ulot

Modal so`zlar

Mavzu rejasi

1. Modal so`zlar va ularning mano turlari.
2. Modal so`zlarning sintaktik vazifasi.

Dars maqsadi: talabalarga modal so`z va modallik haqida malumot berish;

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Modal so`zlar va ularning mano guruhlarini aytib beriladi.

- 2.Modal soʻzlarning grammatik manolari tushuntirib beriladi.
- 3.Modal soʻzlarning sintaktik vazifasi tushintiriladi.

1-savol boʻyicha savol va topshiriqlar

1.1.

1-топширик. Гаплардаги модал сўзларни аниқланг, маъносини изоҳланг.

1. Унинг (Нурининг) мақсади Йўлчи билан учрашув, албатта.(О.) 2. -Балки сиз Мирзакарим акани танирсиз? Балки отангиз билан таниш чиқар. – Эхтимол... (А.Қод.) 3. Астафидуллох, нега бу тўғрида Отабек хабар бермаган? (А.Қод.) 4. Хизмат, ая, бобой яхши юрибдиларми? - Шукур-шукур, болам. (С.Ахм.) 5. Ниҳоят, юрт оғалари... йиғин қилишди. (А.Қ.) 6. - Қани, овқатга қарасинлар, марҳамат! -Раҳмат, раҳмат, оламиз, албатта, - деди меҳмон.

2-топширик. Модал сўзларни топиб, ҳар бир модал сўзнинг маъно оттенкасини айтинг.

1. Бахтимизга, ҳаво очилиб кетди.
2. Тўйга таклиф қилинганман, афсуски, боролмадим.
3. Айтмоқчи, бугун ким навбатчи бўлади? Шавкат бўлади, шекилли.
4. Менимча, кеча тайёра учмади. Ҳаво булут эди, чоғи.
5. Лектор, одатича, аввал мавзуни ёзиб, кейин тушунтириб кетди.
6. Дарҳақиқат, космосни забт этишда ўзбек олимларининг ҳам ҳиссаси бор.
7. Билиш учун кунт билан ўқиш керак.
8. Саводхонлик жамиятнинг барчаси учун зарур.
9. Нутқ маданиятига аҳамият бериш лозим.
10. Пахта муҳим хом ашё, демак, унинг ҳосилини йил сайин ошириш даркор.

3-топширик. Ажратиб кўрсатилган сўзлар мисолида модал сўзларнинг мустақил сўзлардан фарқини изоҳланг.

1. Қодир бу одамнинг афтидан касб-корини белгилай олмади.(А.Қ.). Улар, афтидан, ҳозир ишдан қайтган кўринади.
2. Йўлчи, чамаси, икки йилдан бери темирчи билан дўст. (О.) - Уруш чиқиши билан қурилиш бир ой чамаси тўхтаб қолди.
3. Бу даромаднинг қатъиян кесилиш эхтимоли бор эди. (А.Қод.) -Эхтимол, бўрон учун ҳам мени айбдор қиларсиз. (Ш.Р.)
4. Таажжуб, унинг мактуби юрагимда на севинч уйғотди, на бир ачиниш! (Ё.Ш.) - Бу таажжуб ҳол одамларда гумон туғдирмай қолмади (М.И.)

1.2.

1-топширик. Модал сўзларни топиб, ўзгариш-ўзгармаслигини аниқланг.

1. Хуллас, водийда ҳам, гуллар боғида ҳам аввалги ҳаётдан асар қолмаган эди. (Ш.Р.)
2. Илмсиз, маърифатсиз янги турмуш қуриб бўлмайди, албатта. (Х.Г.)
3. Дарҳақиқат, халқ учун улуғ иш қиляпсиз, ўғлим. (Ш.Р.)
4. Афсуски, Дилдорнинг меҳнат ғайратини, инсоний хислатларини баъзи беғам раҳбарлар сезмади. (Ё.Ш.)

2-топширик. Юклама ва модал сўзларни топиб, уларнинг ўхшаш ва фарқли томонларини изоҳланг.

1. Сўздаги ноаниқлик, шубҳасиз, фикр ноаниқлигининг аломати. (Л.Н Толстой)
2. Куч – ақлда. Ақлсиз бош бамисоли шамсиз чирок. (Л.Н.Толстой)
3. Ақл ижодкорлик бўлса, топқирлик фақат ҳозиржавобликдир. (К.Вебер)
4. Агар ўша кетиши бўлса, бугун худди кўконга етиб борган. (А.Қод.)
5. Билармисан, севган кишига содиқ бўлмоқ ўзи саодат.(Ҳ.О.)
6. (Унсинга) На кампирнинг, на қоратойнинг юпатишлари қор қилди.(О.)

2-savol boʻyicha savol va topshiriqlar

2.1

1-топширик. Гаплардаги модал сўзларнинг синтактик ўрни ва вазифасини аниқланг.

1. Кўнглингизга келмасин-у, извошга эшак қўшиб бўлмайди – Тўғри! Албатта, албатта. (А.Қ.)
2. Ўрмонжон, бу соатнинг тўғрилигига шубҳаланди шекилли, ўз соатига қаради. (А.Қ.)

3. Балки сиз, сигир ҳам гапирадими, дерсиз. («Муштум»)
4. Ҳаммангиз ҳам бирваракай тўй қиласиз! - Албатта! (Уйғун)
5. Ишчан, жуда-жуда ишчан одам. Ишнинг кўзини билади. Жамоанинг бутун ҳисоб-китоб ишларини шу эплаб турибди. - Эҳтимол, - деди Ўрмонжон кулимсираб.
- Лекин идора ишида унинг ишчанлигини кўрмадим. (А.Қ.)
6. Мана бориб кўрарсан. Ҳойнаҳой, меникига тушмасдан кетмассан. (Уйғун)
7. Билдимки, афсона, қўшиқ ва ўйин жон топган у шахло кўзлардан, шаксиз. (Шайхзода)
1. 2-топшириқ. Кириш сўз вазифасида келган модал сўзларни аниқланг.
2. - Мазмуни, мағрурлик, ўжарлик халал берди, чамаси... (Уйғун)
3. Канизак, афтидан, шуни айтмоқчи эмас эди шекилли, ноилож "ха" деди. (А.Қ.)
4. Ҳақиқатдан ҳам, чолнинг меҳнат қилаётгани кўриниб турар эди. (С.Назар)
5. Яхшиям келганларинг-а! Анчагина фойдаларинг тегди. - Албатта-да. Хайт деган туюга мадор, деб кўйди Бобокул ота. (Ҳ.Назир)
6. Бу, шубҳасиз, бизнинг ютуғимиз. (А.Қ.)
7. ...Лекин, жигар, ... Эсга тушса, ачинаман, албатта. (Уйғун)
8. Дарвоқе, бу гап раиснинг уйида ҳам айтилган эди. (С.Назар)

2.2.

- 1-топшириқ. Сўз-гап бўлиб келган модал сўзларни топинг.
1. Айтмоқчи бўлган гапимни тушундингизми? - Албатта!
 1. Сен ҳам борасанми? - Бўлмасам-чи!
 2. Сиз ҳам шундай ўйлайсизми? - Аксинча!
 4. Салим бугун жим ўтирди. - Нахотки!
- 2-топшириқ. Гапларни кириш сўзли гаплар ва сўз-гапли гапларга ажратинг.
1. Бахтга қарши, бугун бора олмадим.
 2. Анорхол бувисини севади. - Эҳтимол!
 3. Анорхол бувисини севади. - Эҳтимол, кампирнинг ёрдами тегар. (И.Р.)
 4. Жуда, дейман, бугун ишларинг ўнгидан келган, шекилли?
 5. Ким ўйлабди, сени қайтиб келади деб... Тавба. (У.)
 6. Эртага синов бўларкан, шу тўғрими? - Тўғри.

Мустақил иш:

- 1-топшириқ. Синонимик модал сўзларга мисол келтиринг.
- 2-топшириқ. Модал сўзларнинг бошқа сўз туркумларига муносабати ҳақида гапиринг.

Адабиётлар:

1. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том, Т., 1975.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1980.
3. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1992.
4. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. "XXI аср авлоди", Т., 2001.
5. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.
6. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т., 1957.
- Мирзаев. М ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Машқлар тўплами. Т., 1984.

10-amaliy mashg'ulot

UNDOV SO`ZLAR VA ULARNING SEMANTIK-GRAMMATIK TABIATI

Mavzu rejası

1. Undov so`zlar haqida umumiy tushuncha.
2. Undov so`zlarning ma'no turlari.
3. Undov so`zlarning morfologik tuzilishi.

Dars maqsadi: talabalarga undov so`zlar haqida ma'lumot berib, ularning bu guruh so`zlar haqidagi bilimlarini mustaxkamlash;

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Undov soʻzlarning leksik-grammatik xususiyatlari tushuntirib beriladi
2. Undov soʻzlarning ma'nosini aniqlashda ohang va matnning ahamiyatini aytib va tushuntirib beriladi.
3. Undov soʻzlarning morfologik tuzilishi izohlab berilad.

1-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

1.1.

1-топшириқ. Матндаги ундовларни топиб, маъно ва грамматик хусусиятларини аниқланг.

1. Мен етим ўсганман, ох у етимлик...;
Вой бечора жоним, десам арзийди. (Ғ.Ғ.)
2. Эй, улуғ наслимнинг юраги, жони!
Кипригингга илинмас йиғидан зарра. (Ғ.Ғ.)
3. Бай-бай, зап чой бўлибди-да... (А.Қ.)
4. Ух, энди қайси юзим билан бу хонадонга қайтаман.
5. О...узугинг жуда чиройли. қани менга бер-чи! (Уйғун ва Иззат Султон.)
6. Эҳҳе, иш катта-ку! (О.)
7. Унинг фикрини маъқулловчи овозлар эшитилди: Балли! Отангизга раҳмат! (П.Т.)
8. «Тах», деди-ю, «Чувха» деди, жўнади. қоражон ўз йўлидан қолмади. («Алпомиш»)

2-топшириқ. Гаплардаги ундов сўзларни топиб, грамматик вазифасини аниқланг.

1. Эх, ҳаёт нақадар гўзал!
2. Салом, эй янги куч, янги севгини ҳаётга шимдирган азамат ўлкам! (О.)
3. Вой-вой! Бу сен-ку, Ўжар! Худди ўзинг-а! - деди Офат.
4. - Оббо, Ўжар-э! Шунақа бўлиб кетдим дегин, - деди Офат дўстининг қўлини қисиб.

3-топшириқ. Қуйидаги гаплар таркибида келган ундовларни қандай гап бўлаги вазифасида келганини тушунтиринг.

1. О, нақадар буюк жасорат!
2. Бай-бай, қир бағри шундай гўзал бўлибдики!
3. Офарин, топшириқни ўз вақтида бажарибсизлар!
4. Озоданинг беҳ-беҳ деган овози эшитилди.
5. Ҳай капалак, капалак, қанотларинг ипакдек. (З.Диёр)
6. Йўловчи «чух» деб отга камчи урди.
7. Гув-гув учар болари, Дув-дув учар болари.
8. Виз-виз, қани топинг, ким биз? Олтин қўнғиз. (Қ.М.)

1.2.

1-топшириқ. Гаплардаги ундов сўзларнинг оҳангини товлантириб қўллаб, маъносидаги фарқни тушунтиринг.

1. Бай-бай-бай, бирам ширин уннадиди-ки оғзимга.
2. Бай-бай-бай, кун қаттиқ исибди.
3. Бай-бай-бай, жони азобда қолибди-ку жониворнинг.
4. Бай-бай-бай, қизмисан қиз, юзлар нақш олма!
5. Бай-бай-бай, бунақа серпиёз сомсани емабсиз, дунёга келмабсиз!

2-топшириқ. Ундов сўзлар маъносини белгилашда матн ва мимиканинг аҳамиятини тушунтиринг.

1. О, юртим шамоли, юртим шамоли,
Бунчалар оромбахш ва ҳаловатли.
2. О, бекорларни айтибсиз, ҳечам бундай эмас.
3. О, дўстим, сени ҳам кўрар кун бор экан-ку!
4. О, ҳам кечикасиз, ҳам жой танлайсиз!
5. О, ҳам зўрлик, ҳам пешкирликми?!

3-топшириқ. Ундов сўзларнинг тақлид сўзлардан фарқини тушунтиринг.

1. Вой, сизни қаранг, акангиз ҳали гўдак-ку!
2. Оббо, қўшни-ей, битта ҳовлида туриб, кўча айланиб келганингизни қаранг-а!

3. Вой-дод, деган овоз эшитилди.
4. Вой-додига ким ҳам кулоқ осибди.
5. Оббо дегани ортиқча, оббоси кимга керак бўпти.
6. Театр ичи ғовур-ғувур бўлиб кетди.
7. Иссиқ тобора ортар, ғир этган шамол йўк. (О.)

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-топширик. Матндаги ундовларни топинг ва маъносини аниқланг.

1. Аравакашлар "хай-хай", "чух-чух" дея шовқин билан кўчани бошига кўтарар эдилар.
2. Иккаламиз ҳам баралла, чин кўнглимиздан қаҳ-қаҳ уриб кулдик.(О.)
3. -Ух, бай-бай, ўзинг биласан, болам.(О.)
4. Оҳ-воҳларингизни тинглаш кимга зарур.
5. Тонгда ари гулга сўзлар ғув-ғув-ғув, Гулжоним, асалинг бер, соғиндим-ку. (Қ.М.)
6. Эшиқдан бойнинг кичик хотини Зебихон лоп этиб кириб келди.
7. Чархдан тинмай учкун отилади, гув-гувдан кулоқ битади.

2-топширик. Матндаги ундовларни маъно турларига кўра: эмоционал, императив ва расм-одат ундовларига ажратинг.

1. Салом, эй янги куч, янги севгини ҳаётга чўмдирган азамат ўлкам! (О.)
2. О, қандай чин бахтга тўлғин бу онлар.(О.)
3. У киши хўп деган эди, хўкизлар аста-секин тўхтади.
4. Чип-чип, жўжаларим, чип-чип, чип-чип, жўжаларим. (кўшиқдан)
5. Вой-вой! Бу сен-ку, Ўжар!
6. Эй суюкли моделчам, тайёрмисан сафарга? (З.Диёр)
7. Вой-бу! Сенмисан, Фарход!
1. Салом, эй юртимнинг шердил ўғлони!
9. Офарин, топширикни ўз вақтида бажарибсизлар.

2.2.

1-топширик. Келтирилган эмоционал ундов сўзларни маъносига кўра: ижобий, салбий ва расм-одат маъноли ундов сўзлар гуруҳига ажратинг.

Оҳ, эҳ, ух, о, э, уф, вой, уф, офарин, салом, хўш, раҳмат, ҳорманг, балли, баракалла, бай-бай, хай-хай, вой-буй, оҳ-воҳ, вой-дод, чух, кишт, қурей-қурей, тфу, комиссия кабилар.

2-топширик. Берилган ундовларнинг матн ва оҳанг билан боғлиқ маъноларини аниқлаб, тушунтиринг.

1. Эй, Фарғона! Эй бўйнига қора тўрва осган қоплардан, Эй ҳар куни гадоликка тортган онлардан, Эй танларни шилиб ётган ҳаром қонлардан, бир йўласи озод бўлган азамат ўлка! (Х.О.)
2. Салом, эй юлдузлар, ошноларим! (Х.О.)
3. Болалар қий-чув қилишиб машинага ўтирдилар.
4. Бай-бай, жуда тотли шафтоли экан-ку!
5. О, қандай чин бахтга тўлғин бу онлар.(О.)
6. Вой-ей, болагинам-эй, шаллоба бўлибсан-ку!
7. Бир саломга шунча фироқ, шунча қовоқми, хай-хай!
8. Хай-хай, астағфируллоҳ де, гуноҳга ботма, қизим!
9. – Хай-хай, овқатмисан – овқат бўлибди, - деди ҳожи ота.
10. Ҳо, бекорларни айтибсиз!
11. Ҳо, мунча яхши, мунча ажойиб манзара!

3-топширик. Матндаги эмоционал ундов сўзларни англатган маъноларини тушунтиринг.

1. Эҳ, бу водий нақадар гўзал.(Лермонтов)
2. Эй, улуғ наслимнинг юраги, жони! Кипригинга илинмас йиғидан зарра. (Ғ.Ғ.)
3. Бай-бай, зап чой бўлибди-да ... (А.Қ.)
4. Хай-хай, жуда ғалати кастюм тиктирибсиз!

5. Воҳ-воҳ, пешонам!... Охун пешонасига шартта уриб давом этди: - Ёдимга тушса, юрагим хун бўлади. (О.)
6. Гулнор, кечир ... Эвоҳ эсиз умр, эсиз қизим ... (О.)
7. Хув ... домла бўлмай ўл! (Х.Х.)

2.3.

1-топширик. Матндаги императив ундовларни топиб, маъноларини тушунтиринг.

1. Ҳой, муйтанлар, котибнинг калласи омонат! (Ас.М.)
2. Эй, Пўлат, - деди Баҳор, - уйимизда шундай жанг бўлдики ... (Ш.Р.)
3. - Ўрдак ғақ-ғақ, вит-вит, ғақ-ғақ, вит-вит деб сайрай бошлади. (Ё.Ш.)
4. Кампирнинг дон сепмоқ учун беҳ-беҳ деб товукларни чақиргани эшитилди.
5. Аёл катакдан чиқиб келаётган товукларни дон сочиб туриб чақирди: беҳ-беҳ-беҳ.(О.)
6. Соқи "Чух!" деб гаждум отга қамчи берди. (Ф.Й.)
7. Пишт. Ҳей, ер юткур. (М.Шолохов)
8. - Марш! Рассомга мешаъ этмаларинг. (Ҳ.Назир)
9. Тсс ... - деди кўчқор ваҳимали шивирлаб, ён-верига қаради. (О.Ё.)

2-топширик. Матндаги императив ундовларнинг турларини аниқланг ва тушунтиринг.

1. О, болам, - деди кампир, - жияним ишга ярамайди. (А.Қ.)
2. Ҳой хотин, бўла қолсанг-чи, қудалар кутиб қолишди.
3. Алло, Мастура, сенмисан, театрга борамизми!
4. Отлиқлар гаплашмас, фақат ҳар замон отга шилт қамчи босиб, чув деб қўйишарди. (Мирт.)
5. Чўпонлар қур-ҳайтлаб қўйни хайдаган. («Алпомиш»)

2.4.

1-топширик. Матндаги расм-русум, одат ундовларини топинг.

1. Унинг фикрини маъқулловчи овозлар эшитилди: Балли! Отангизга раҳмат! (П.Т.)
2. Чаққон, эпчил ишлаётган аскарлар олдида тўхтаб: «Офарин, баҳодирлар!» - деб мақтаб ўтарди генерал.(О.)
3. О, Алишер! Хуш келибсиз, ичкарига марҳамат! (Уйғун ва Иззат Султон.)
- 4 - Э - э, Жавдат Наимми? -Ҳа, баракалла. – Бундоқ демайсизми? (А.Қ.)

2-топширик. Матндаги расм-одат ундовларини топиб, уларнинг маъно турларини аниқланг.

1. Назм энг ўткир яроқки, теккан жойини кесади-ташлайди. Офарин, тақсир!
2. Воқеадан хабар топган ҳалойиқ кутқарувчиларга ўз миннатдорчилигининг рамзи сифатида "Раҳмат!" - дерди.
3. Ҳорманг, барно йигит, хуш келибсиз, хўп келибсиз, дейишди қизлар!
4. Қуллуқ, қуллуқ, тақсир! Минг бор қуллуқ. Худодан қайтсин!

Мустақил иш:

Қуйидаги саволларга оғзаки жавоб беринг:

1. Ундов сўзлар қандай лексик-грамматик хусусиятга эга?
2. Ундов сўзлар қандай маъно гуруҳларига бўлинади.
3. Ундовга хос оҳанг ва унинг аҳамиятини айтинг?

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1.

1-топширик. Келтирилган ундовларни таркибига кўра содда, такрорий ва жуфт турларга ажратинг.

Э-э-э, тсс, тиши, эҳа, ўхў, оҳ-хо, эҳ-ха, оббо, ох, ауф, тфу, ҳмм, ҳов, эй, вуй, вой-вой, эдод, вой-дод, эвоҳ, вой-бу, э-ҳа, ҳов, бай-бай, хо-хо, ҳа-ҳа, қурей-қурей.

2-топширик. қавсларни тушириб қолдириб, жуфт ва такрорий ундовларни қоидага мувофиқ ёзинг.

1. Юраги дук(дук) урди. 2. Бай (бай) жуда тотли таом бўлибди-ку! 3. «Ур (ха) (ур)» деган овозлар келарди. 4. Вой (дод) деган овоз чикди. 5. - О(хо), гапда ҳеч кимса сизга етолмайди. 6. -Э(хе), зиёфат катта-ку, - деди Петров ҳазиллашиб. (О.)

3.2.

1-топширик. Ундовларнинг гапдаги синтактик вазифасини аниқланг.

1. Вой-дод деган овоз эшитилди.
2. Вой-додига ким ҳам кулоқ осибди.
3. Оббо, кўшни-ей, битта ҳовлида туриб, кўча айланиб келганингизни қаранг-а! (Х.Ғ.)
4. Оббо дегани ортиқча, оббоси кимга керак бўпти. («Ш.Ю.»)
5. У чўғни пуф-пуфлаб Лутфинисанинг олдига келди.
6. Туф деган замон илиқлик сезди қўлида.

2-топширик. Гапдаги ундовларга тузилишига кўра морфологик характеристика беринг.

1. – Чу, нари тур, арзандам, тагингни тозалаб қўяй энди.
2. Ўхў, жуда соз, хуш келибсизлар.
3. Уф, чанқадим-эй, мунчаям кун исиб кетди.
4. Шаҳарда, маҳаллада дув-дув гап.

Мустақил иш:

1-топширик. Ижобий эмоционал маъноли ундовлар иштирокида иккита гап тузинг.

2-топширик. Ижобий эмоционал ундовлар иштирокида тузилган гапларингизда улар қандай синтактик вазифада келатганини аниқланг.

3-топширик. Ундовларнинг ҳар бир маъно турига кўра иккитадан гап тузинг.

4-топширик. Тилимиздаги алоҳида гуруҳ ундовлар ҳақида маълумот беринг.

Адабиётлар:

1. Ҳозирги замон ўзбек тили . Тошкент, 1957, 510-518.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1980, 440-441.
3. Ўзбек тили грамматикаси. Тошкент, 1975, 591-601.
4. У. Турсунов ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992.
5. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. “XXI аср авлоди”, Т., 2001.
6. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.

12-amaliy mashg'ulot

Taqlid soʻzlar va ularning semantik-grammatik tabiati

Mavzu rejasi

1. Taqlid soʻzlarning turlari: tovushga va obrazga taqlid soʻzlar.
2. Taqlid soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlari: sodda, juft(qoʻshma), takroriy taqlid soʻzlar.
3. Taqlid soʻzlar komponentlarining bir-biriga munosabati va qoʻllanishiga koʻra turlari.

Dars maqsadi: talabalarga taqlid soʻzlar, ularning turlari va ishlatilishi boʻyicha maʼlumot berish;

ISHNI BAJARISH TARTIBI

1. Taqlid soʻzlarni maʼnosiga koʻra tovushga va obrazga taqlid soʻzlarga boʻlinishi aytib beriladi.
2. Tovushga taqlid soʻzlar va ulardagi ichki boʻlinishga koʻra turlari tushuntiriladi.
3. Obrazga taqlid soʻzlar va ularning turlari aytib beriladi.
4. Taqlid soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlari: sodda, juft(qoʻshma), takroriy taqlid soʻzlar izohlab beriladi.
5. Taqlid soʻzlar komponentlarining bir-biriga munosabati va qoʻllanishiga koʻra turlari tushuntiriladi.

1-savol boʻyicha savol va topshiriqlar

1.1.

1-топширик. Тақлид сўзларни топиб турларга ажратинг.

1. Ҳаво тоза. ғир-ғир шамол эсиб турибди. (С.Аҳм.)
2. Чумчук пир этса, юраги шир этади-ю бунинг! (Ҳ.Ҳ.)
3. қандайдир буғотдан сув томчилайди: тик-тик. (О.)
4. Клуб томондан одамларнинг ғовир-ғувури келди. (Ҳ.Ғ.)
5. Маҳбуба ялт этиб юзимга қаради.(О.Ё.)
6. Баъзан осмонни чакмоқнинг ялт-юлти бузарди.

2-топширик. Қуйидаги келтирилган тақлид сўзларни ажратиб, уларни товушга ёки образга тақлид сўзлар гуруҳига ажратинг.

Гумбур-гумбур, ғиз-ғиз, жимир-жимир, дук-дук, вой-вой, вой-дод, қасур-қусур, апил-тапил, тўп-тўп, вижир-вижир, ғовур-ғувур, жилпанг-жилпанг, бай-бай, ликанг-ликанг, чип-чип, пилдир-пилдир кабилар. 3-топширик. Қуйида келтирилган товушга ва образга тақлид сўзлар иштирокида гаплар тузинг ва маъносини тушунтиринг.

милт-милт, шивир-шивир, ғуж-ғуж, лип, пилдир-пилдир, ялт-юлт.

1.2.

1-топширик. Гаплардаги тақлид сўзларни топиб, уларни жонли ва жонсиз предметлар товушига тақлид эканлигига кўра гуруҳлаб ажратинг.

1. Чол сочиқ билан ўраб қўйилган чойнақдан хотини куйиб узатган бир пиёла илиқ-милик чойни култ-култ қилиб ютди. (Ҳ.Ғ.)
2. Ҳоким қаҳ-қаҳ уриб кулди. (М.Исм.)
3. Сидиқжон шундай қаттиқ кулдиги, бурчакда кулча бўлиб ётган мушук шошиб ўрнидан турди ва Сидиқжонга қараб "миёв" деди. (А.Қ.)
4. Бу товушнинг эгасидан илгари "тўк" этиб ҳасса кирди. (А.Қ.)
5. Шамол ўймакор дарчанинг тавақаларини бир-бирига уриб тарақа-туруқ билан ёпди. (О.)
6. Бир маҳал мопеднинг тир-тири қулоғимга чалинди.
7. Шу ернинг ўзида, гулханнинг бир чеккасида кумғонингиз вақ-вақ қайнайди. (Ҳ.Ғ.)

2-топширик. Қуйидаги тақлид сўзларни жонли предметларнинг қайси хили (ким, нима)га тегишлилигига кўра турларга ажратинг. ғилт-ғилт (ёш), хўр-хўр (ичмоқ), пир-пир (учмоқ), шир-шир (ўтмоқ), дурк-дурк (қуймоқ), писс (этмоқ), вақ-вақ (этмоқ), чуғур-чуғур (қилмоқ), шалоп-шалоп (юрмоқ), шикир-шикир (қилмоқ), ғинг-пинг (демоқ), чип-чип-чип (демоқ), виш-виш (овоз келмоқ), чир-чир (овоз чиқармоқ), қий-чув (бўлмоқ) ва б.

3-топширик. Берилганларни жонсиз предметлардан қай бирига хослигига кўра турларга ажратинг. қарс-қурс, шилдир-шилдир, пат-пат, гуп, тўп, тақ, ғийқ, чурр, ғарч-ғурч, тўп-тўп, пақ, пақ-пақ, ғув-ғув, вақир-вуқур, жилдир-жилдир, шақ-шук, биқир-биқир, дут-дут, дув-дув, занг, чирс, чарс-чарс, чак, тақ-туқ.

1.3.

1-топширик. Гаплардаги образга тақлид сўзларни топиб, уларнинг нима билан боғлиқ ҳодисаларни ифодалашини тушунтиринг.

1. Магазиндан шип этиб чиқиб кетишининг сабаби ҳам шунда эди.
2. ...Ўйлаб бораётиб эди олдидан, бир газадан, лип этиб бир одам чиқиб қолди.
3. Вакил жиқ-жиқ терлаб, қизариб-пишиб, гоҳо кўтарилди, гоҳо босилди. («Муштум»)
4. Ғуломжон...донг қотиб қолди.
5. Бугун куёш ҳатто бирон минут ҳам "йилт" этмади. (О.)
6. Ўртадаги катта текис лампа лип-лип ёнмоқда. (С.Ан.)

2-топширик. Қуйида келтирилган образга тақлид сўзларни ҳаракат, ҳолат, ёруғлик образига тақлидни билдирувчи тақлид сўзлар гуруҳига ажратинг. Лип-лип, лоп, ликанг-ликанг, ҳил-ҳил, ҳанг-манг, данг, ғилт-ғилт, шип-шип, қилпанг-қилпанг, живир-живир, йилт-йилт, милт-милт, лов-лов, лоп-лоп, дик-дик, лик-лик, лўк-лўк, пир-пир, дув-дув, мўлт-мўлт кабилар.

3-топширик. 2-топшириқда келтирилган тақлид сўзлардан ҳар бир гуруҳга оид иккитадан гап тузинг ва уларнинг маъносини изоҳланг.

2-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

2.1.

1-топширик. Гаплардаги тақлид сўзларни топиб тузилишига кўра турини аниқланг.

1. Бизнинг аҳволимизни кўрсангиз ҳам вой дейсиз.
 2. Унсиннинг юзида қон қолмаган, дағ-дағ титраётган бўлса-да, ўзини тутишга тиришди. (О.)
 1. Кампир пиқ-пиқ йиғлаб юборди. (О.)
 2. Дикир-дикир ўйноқлаб Читтак учар далага. (Қ.М.)
 3. –Хой, ичкари кир, чағир-чуғурдан қулоғим битди.
 4. Шохи яктаги қуёшда живир-живир товланиб, учқунланиб, ялтирар эди. (О.)
 5. Каптарим дейди ғув-ғув, ғув-ғувлаб нима дер у?
 8. Ўша бобо қарғавой, қақшар «қағ-қағ» анқавой. (Қ.М.)
 9. Юрагим тарс ёрилаёзди, айтмайсизми шунақа деб. (О.)
- 2-топширик. Қуйида келтирилган содда тақлид сўзлар маъносидаги ўзгаришни аниқланг ва тушунтиринг.

1. таррррр, ғиррррр, иммм, шиғғғ, тизз, чурррр кабилар (геминация);
2. мо – о – о, ку – у – ух, ду - уу – уд (оҳанг).

2.2.

1-топширик. Содда тақлид сўзлар турларини аниқланг.

1. Вой адаси, бизни етим қилиб кетган адаси !.. деб дод солар, фарёд чекар, кишлок жувонлари, кампирлар унга қўшилиб ув тортишар эди. (Х.Ғ.)
2. Фермага яқинлашганда, ба, бу деган товуш эшитилди.
3. Бир киши ёзса мени аё «Муштум», Биласанки, ўша куни мен пўрт учдим. («Муштум»)
4. Хона эшиги ғийт этиб очилди-ю, ҳамшира кириб келди.

2-топширик. Такрорий тақлид сўзлар ва уларнинг тузилишига кўра турларини тушунтиринг.

- 1) миёв-миёв, қитир-қитир, лип-лип, чип чип; 2) тақа-тақ, гурса-гурс, шақа-шақ, тасира-тусур; 3) ғирра-ғирра, гуппа-гуппа, шартта-шартта кабилар.

3-топширик. Жуфт тақлид сўзлар ва уларнинг турларини аниқланг(қандай ҳодиса юз берапти).

а) ғарч-ғурч, тақ-туқ, тарс-турс, вағир-вуғур, шалоп-шулуп;

б) ғивир-шивир, чирт-пирт, ғинг-пинг, ҳанг-манг;

в) кий-чув, ғиж-бадабанг, ғовур-шувур; г) аланг-жаланг, апил-тапил, апир-шапир кабилар.

3-savol bo'yicha savol va topshiriqlar

3.1.

1-топширик. қуйида келтирилган жуфт тақлид сўзлар қисмлари ифодалаётган маъно характеридан келиб чиқиб уларни: 1) қисмлари мустақил қўллана оладиган, 2) қисмлари мустақил қўллана олмайдиган, 3) қисмларидан бири мустақил қўллана оладиган гуруҳларга ажратинг.

ғовур-ғувур, шов-шув, аланг-жаланг, ғивир-шивир, вағир-шағир, виж-виж, тарс-турс, вағир-виғир, ивир-шивир, шақир-шукур, шалдир-шулдир, ялт-юлт, тарақ-туруқ, шарт-шурт, қарс-курс, кий-чув, ғала-ғовур, ғиди-биди, ади-бади, гангир-гунгур, ҳанг-манг, апил-тапил, апир-шапир кабилар.

2-топширик. Қуйидаги гапларда қўлланган тақлид сўзлар қисмлари ифодалаётган маъно ва улардан қайси бирини мустақил қўллай олиш мумкинлигини аниқланг.

1. Қўра орқасида арава ғилдиракларининг тақир-туқури эшитилди. (Х.Ғ.)
2. Гулдур-шалдур, тарақа-туруқ ўзгаришсиз давом этади. (А.Қод.)
3. – Хай, ичкари кир, чағир-чуғурдан қулоғим битди.
4. Кампир пиқ-пиқ йиғлаб юборди.
5. Театр ичи ғовур-ғувур бўлиб кетди. ғовур-ғувурнинг дами пасаймади. (С.Аҳм.)
6. Сотувчи узатган папиросни қўлга олиб ҳанг-манг бўлиб қолди. («Муштум»)
7. Ғала-ғовур ичида аллакимнинг баланд овози янгради. (М.Исм.)

3.2.

1-топширик. Гаплардаги тақлид сўзларни топиб, қисмлар ифодалаётган маънони тушунтиринг.

1. Ғув-ғув учар болари, Дув-дув учар болари.

2. Виз-виз-виз, қани топинг, ким биз? Олтин кўнғиз. (Қ.М.)
 3. Орамизда... шалдир-шулдир пул сановчилар, текинхўр шахслар ҳам йўқ эмас.
 4. Кўча томондан гурс-гурс оёқ товуши келди.
 5. Карнай-сурнайларнинг ғат-ғати байрам тонгидан дарак беради.
- 2-топширик. Гаплардаги тақлид сўзлар қисмлари маъноларини тушунтиринг, уларнинг қўлланишидаги асосий хусусиятни аниқланг.
1. Акрам валагга ўхшаган чаққонлар Фосих афандининг у ён-бу ёнидан шилт-шилт ўтиб кочворди. (М.Исм.)
 2. Бирпасда ҳовлини болаларнинг қий-чуви тўлдирди.
 3. Карнайларнинг ват-вутлари халқ шодиёнасини кўкларга кўтарди.
 4. Алишер қўшни хонадан келаётган гангир-гунгир суҳбатга эътибор бермади.

Мустақил иш:

- 1-топширик. Қуйидаги саволларга жавоб беринг.
1. Қандай сўзлар товушга, қандай сўзлар образга тақлидни билдиради?
 2. Тақлид сўзлар тузилишига кўра неча турли бўлади, уларга мисоллар келтиринг.
 3. Тақлид сўзлар қайси хусусиятлари билан ундовлардан фарқ қилади?

Адабиётлар:

1. Ўзбек тили грамматикаси. I, Тошкент, 1975.
2. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Коллектив, Тошкент, 1980.
3. Турсунов У. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1992.
4. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I, "Фан", Тошкент, 1966.
5. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. "XXI аср авлоди", Т., 2001.
6. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Т., 2005.
7. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тақлидий сўзлар. Самарқанд, 1960.
8. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тақлидий сўзларнинг ўрганилиши ҳақида. Самарқанд, 1961.

Oraliq nazorat savollari

1. Ot soʻz turkuminng ma'no jihatdan tasnifi.
2. Grammatik ma'nolarning xususiyati.
3. Grammatik ma'no qanday usullar bilan ifodalanishini tushuntiring.
4. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida soʻz shaklining 3 shaklini tushuntiring.
5. Soʻz turkumlariga ajratishda asosan qanday printsiplarga tayanishini tushuntiring.
6. Oʻzbek tilida soʻzlar leksik, morfologik, sintaktik ma'nolariga koʻra guruhlanishini tushuntirng.
7. Atoqli otlarning ma'nosi.
8. Turdosh otlarning ma'nosi.
9. Abstrakt otlar.
10. Egalik kategoriyasi.
11. Egalik affikslari qoʻshilganda soʻz tarkibida boʻlgan fonetik oʻzgarishlar.
12. Son kategoriyasi
13. Oʻzbek tilida son kategoriyasida koʻplik ma'nosi ikki xil usul bilan yasaliishini tushuntirng.
14. Kelishik kategoriyasi.
15. Otlarda kichraytish formasi
16. Otlarda erkalash formasi
17. Sifat soʻz turkumi.
18. Sifatlarda daraja.
19. Orttirma darajaning yasaliish sullari.
20. Ozaytirma darajaning 2 xil usul bilan ifodalanishini tushuntirng.
21. Son soʻz turkumi
22. Sonning ma'nosiga koʻra turlari.

23. Numerativ soʻzlar.
24. Sonning tuzilishiga koʻra turlari.
25. Olmosh soʻz turkumi. Kishilik olmoshlari
26. Oʻzlik, belgilash olmoshlari.
27. Koʻrsatish, gumon olmoshlari olmoshi.
28. Fe'ning umumkategorial va ichki kategorial grammatik ma'nolari, funktsional formalari.
29. Fe'llarni semantik guruhlari.
30. Fe'ning leksik-grammatik xususiyatlariga koʻra turlari.
31. Harakatning bajaruvchi shaxsga va uning son miqdoriga munosabati.
32. Fe'llarning shaxs koʻrsatgichga boʻlgan munosabati.
33. Fe'ning shaxs-son qoʻshimchalari bilan ifodalanish usullari (tuslanish qoʻshimchalari) .
34. Harakatning sub'ekt va ob'ekt oʻrtasidagi munosabatni ifodalash daraja koʻrsatkichlari .
35. Hozirgi oʻzbek tilida fe'l soʻzlarni besh xil: bosh, oʻzlik, majhul, birgalik va orttirma daraja shakllari.
36. Bosh va oʻzlik daraja.
37. Majhul daraja.
38. Birgalik daraja.
39. Ortirma daraja
40. Fe'llarning boʻlishli-boʻlishsiz shakllarda ishlatilishi.
41. Fe'llarda boʻlishsizlik ma'nosini keltirib chiqaruvchi vositalar .
42. Hozirgi oʻzbek tilida fe'ning mayl kategoriyasining semantik va grammatik kategoriyasini aytib bering.
43. Ma'no ifodalash xususiyatlariga koʻra mayl turlari va ularni yasovchi vositalar.
44. Buyruk-istak maylidagi fe'llarning hosil boʻlishi.
45. Shart va shartli maylidagi fe'llar ma'nosidagi farq.
46. Fe'l soʻzlar ifodalangan zamon grammatik zamon tushunchasi va uning uch zamonga boʻlinishi.
47. Oʻtgan zamon fe'llarini yasovchi qoʻshimchalar, ularning ma'nolari.
48. Xozir zamon fe'llarini yasovchi vositalar, ularning ma'nolari.
49. Kelasi zamon fe'llarini yasovchi vositalar, ularning ma'nolari va atalishi.
50. Fe'ning nokategoriyal (funktsional) formalari va ularning turlari.
51. Fe'ning harakat nomi formalari va ularning yasalishi.
52. Fe'ning sifatdosh formalari, ularning yasalishi va fe'ning grammatik kategoriyalariga munosabati.
53. Fe'ning ravishdosh formalari, ularning yasalishi va fe'l grammatik kategoriyalariga munosabati.
54. Ravish soʻzlarning harakat va holat belgisini bildiruvchi soʻz turkumi ekanligini tushuntiring.
55. Ravish soʻzlar predmet va belgining belgisini bildiruvchi soʻzlar bilan bogʻlanib kelishini, lekin oʻzgarmasligini tushuntirib bering.
56. Ravishlarning mustaqil soʻz turkumi sanaladigan morfologik belgilari.
57. Ravishlarni ma'no guruhlari.
58. Holat va payt ravishlari ularning soʻroqlarini, gapdagi vazifalari.
59. Oʻrin va daraja miqdor ravishlari.
60. Ravishlarda belgining darajasini koʻrsatuvchi forma yasalishi.
61. Ravishning forma yasovchi vositalari va usullarini.
62. Koʻmakchilarning yordamchi soʻz sifatidagi urni va vazifasi.
63. Koʻmakchilarni ma'no va vazifasiga koʻra sof va funktsional koʻmakchilarga boʻlinishini, ularning kelishiklarga munosabatdor ekanligi.
64. Sof koʻmakchilar.
65. Funktsional koʻmakchilar
66. Gaplarni va gap boʻlaklarini bogʻlaydigan soʻzlar bogʻlovchilar ekanligini izohlang.
67. Qoʻllanishiga koʻra bogʻlovchilarning turlari.
68. Ma'no va vazifasiga koʻra bogʻlovchilarning turlari.

69. Ergashtiruvchi bog`lovchilar.
70. Yuklamalarning so`zga yoki gapga modal ma'nolar qo`shuvchi,so`z va gaplar,bir-biriga bog`lovchi yordamchi so`zlar ekanligini izohlang.
71. Yuklamalarni ma'no guruhlari.
72. Yuklamalarning affiks va so`z shakldagi turlari mavjudligini va ezilishini ajrating.
73. Modal so`zlar va ularning mano guruhlari.
74. Modal so`zlarning grammatik manolari.
75. Modal so`zlarning gap bo`lagi bo`lib kela olmasligini, kirish so`z bo`lib kelishini tushuntiring.
76. Modal so`zlarning so`z-gap bo`lib ham kelishini ayting.
77. Undov so`zlarning leksik-grammatik xususiyatlari.
78. Undov so`zlarning ma'nosini aniqlashda ohang va matnning ahamiyatini ayting.
79. Undov so`zlarning ma'no turlari.
80. Emotsional undovlar, ularning turlari.
81. Imperativ undovlar va ularning turlari.
82. Rasm-rusum, odat undovlarini, ularning ma'no turlari va grammatik xususiyatlari.
83. Taqlid so`zlarni ma'nosiga ko`ra tovushga va obrazga taqlid so`zlarga bo`linishi.
84. Tovushga taqlid so`zlar va ulardagi ichki bo`linishga ko`ra turlari.
85. Obrazga taqlid so`zlar va ularning turlari.
86. Taqlid so`zlarning tuzilishiga ko`ra to`rini ajratib, tushuntiring.
87. Taqlid so`zlarning sodda, juft va takroriy turlari hamda ularning ichki bo`linishi.
88. Taqlid so`zlar qismlari ma'no ifodalashiga ko`ra turlari.
89. Taqlid so`zlar qismlari ifodalagan ma'no xarakterining darajasiga ko`ra turlari.
90. Takroriy taqlid so`zlar.
91. Juft taqlid so`zlar

Glossariy

Grammatika (grekcha: gramma - harf o`qish va yozish san'ati) tilshunoslik fanining eng muhim bo`g`ini bo`lib, u alohida olingan har bir tilda mavjud bo`lgan o`ziga xos grammatik qurilishni tekshiradigan sohadir. Tilning grammatik qurilishi ancha barkaror qonun- qoidalar va shakllar tizimidan iborat ekanligi bilan tilning boshqa sathlaridan, jumladan uning leksikasidan, fonetik-fonologik qurilishidan farq qiladi.

Morfologiya grammatikaning bir qismi bo`lib, (grekcha morphe - "shakl", logos- "ta'limot") u so`zlarning grammatik turkumlari, morfologik kategoriyalarini, so`zning formalar sistemasini va u formalarning hosil bo`lish yo`llari hamda hosil qiluvchi vositalarini urganadi. Morfologiya so`zni grammatik birlik sifatida tekshiradi.

So`z grammatik birlik sifatida. Grammatik birlik sifatida so`z grammatik ma'no va grammatik formaga ega bo`ladi.

Grammatik ma'no. So`zning biror turkumga mansubligini ko`rsatuvchi, ma'lum bir grammatik kategoriyaga xos formasini ifodalaydigan ma'no grammatik ma'no hisoblanadi.

Grammatik ma'no turlari. Grammatik ma'no asosiy belgisiga ko`ra ikki turga: umumiy kategorial ma'no va ichki (maxsus) kategorial ma'noga bo`linadi.

Umumiy kategorial ma'no. Muayan turkumga oide so`zlarning har birining o`ziga xos lug`aviy ma'nosidan tashqari ularning barchasi uchun umumiy bo`lgan ma'no (otlardagi predmetlik, sifatlardagi belgilik, sonlardagi miqdor, fe`llardagi harakat ma'nosi kabilar). Bu ma'nolar shu tipli 10 minglab so`zlar uchun xosdir va u umumiy kategorial ma'no deb yuritiladi.

Ichki kategorial ma'nolar. Umumiy kategorial ma'nolar o`z ichki sistemasiga ega bo`ladi.Muayan so`z turkumi, masalan, ot turkumiga xos grammatik ma'nolar: egalik, kelishik, son kabi ichki grammatik ma'nolar. Shunday ma`nolarga egaligi bilan ular boshqa so`z turkumlaridan farqlanib turadi. Demak, so`zning leksik ma'nosiga qo`shimcha ma'no (yoki ma'nolar) qo`shuvchi ma'nolar ichki kategorial ma'nolar deb yuritiladi.

Grammatik forma (So`z formasi). So`zning muayyan grammatik ma'no ifodalovchi shakli. Masalan, kitoblar so`zida predmet (lug`aviy) ma'nosidan tashqari, predmetning ko`pligi ham ifodalanyapti. Bu ma'no kitob so`ziga -lar qo`shimchasini qo`shish orqali yuzaga chiqmoqda.

Demak, kitob soʻzining koʻplik formasi hisoblanuvchi k i t o b l a r soʻzi grammatik koʻplik maʼnosini anglatadi.

Oʻzbek tilida soʻz bir grammatik koʻrsatgichli yoki birdan ortiq grammatik koʻrsatgichli boʻladi. Masalan, kitob - bosh kelishik, birlik formasi; kitoblar - bosh kelishik, koʻplik formasi; kitoblarim - bosh kelishik, koʻplik, birinchi shaxs formasi; kitoblarimni - bosh kelishik, koʻplik, birinchi shaxs, tushum kelishigi formasi.

Grammatik forma (Soʻz formasi)ning tiplari. Hozirgi oʻzbek tilida soʻz formasining fsoan 3 tipi mavjud: sintetik forma, analitik forma, juft va takroriy forma.

Sintetik forma- affikslar yordamida hosil boʻluvchi forma: uyni, uydan, uyga, uyda, uyni; oʻqiyapman, oʻqiyapsan, oʻqiyapti kabi.

Analitik forma - yordamchi soʻzlar, koʻmakchi feʼllar va toʻliqsiz feʼl qoʻshilishidan hosil boʻluvchi forma: ukam uchun, uy tomon, oʻqib chik, koʻrib qoʻy kabi formalar.

Juft va takroriy forma. Bu tipli formalar maʼlum grammatik maʼno ifodalash uchun xoslangan qozon – tovoq, bola – chaqa, yaxshi - yomon kabi formalar. Bu formalar umumlashtirish va davomiylilik, koʻplik, kuchaytirish kabi maʼnolarni ifodalaydi.

Masalan, baland - baland (imorat), qator-qator (mashina), kula-kula (gapirmoq) kabilar.

Soʻzning nol koʻrsatgichli formasi. Soʻzning formalari sistemasida formasiz koʻrinish - nol koʻrsatgichli forma deb yuritiladi Oʻzbek tilida soʻzning maxsus koʻrsatgichga ega boʻlmagan formalari ham bor. Masalan, otning koʻplik formasi -lar affiksi yordamida yozilgani xolda, birlikning maxsus koʻrsatkichi yoʻq: kitob - birlik (koʻrsatgichsiz). Feʼllarda boʻlishsizlikning maxsus koʻrsatkichi boʻlgani holda, boʻlishsizlikning maxsus koʻrsatkichi yoʻq: ishla (boʻlishli, koʻrsatgichsiz) - ishlama (boʻlishsiz, -ma koʻrsatgichli).

Soʻz formasining ichki turlari. Soʻz formasi biror turkumdagi ichki grammatik kategoriyaga xos formada boʻlishi yoki grammatik kategoriya hosil qilmaydigan formada boʻlishi mumkin. Shunga koʻra soʻz formalari oʻzbek tilida ikki asosiy turga boʻlinadi:

a. kategorial formalar, 2) nokategorial yoki funktsional formalar.

Kategorial formalar. Maʼlum grammatik kategoriyaga xos maʼnolarni ifodalovchi, shu formalar bilan birlikda grammatik kategoriya hosil qiluvchi formalardir. Masalan, otlardagi son, egalik, kelishik, feʼldagi mayl, zamon, shaxs-son formalari.

Funktsional (nokategorial) formalar -maʼlum grammatik maʼnoni ifodalovchi (grammatik kategoriyaga ega boʻlmagan maʼnoni) yoki soʻzni shu soʻz mansub boʻlgan turkumga xos boʻlmagan sintaktik vazifaga moslash uchun xizmat qiluvchi formalardir. Masalan, otlardagi xoslik, oʻxshatish, kichraytish-erkalash; sifatdagi daraja, feʼlning sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi formalari nokategorial formalar hisoblanadi.

Grammatik kategoriya. Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik maʼno va shu maʼnolarni ifodalovchi grammatik shakllar sistemasi. Masalan, otlarda birlik va koʻplik maʼnosi va shu maʼnoni yuzaga keltiruvchi grammatik forma birgalikda otning son kategoriyasini tashkil etadi: kitob (birlik) - nol forma, kitoblar - koʻplik. Yoki harakatning hozirgi, oʻtgan, kelasi zamonga oidligi maʼnosi va shu maʼnoni ifodalovchi formalar birgalikda feʼlning zamon kategoriyasini hosil qiladi. Masalan, keldi - oʻtgan zamon, kelyapti - hozirgi, kelmoqda - kelasi zamon.

Soʻz turkumlari. Soʻzlarning maʼlum grammatik maʼno, morfologik belgi va sintaktik vazifasiga qarab guruhlarga boʻlinishi soʻz turkumi deyiladi.

Har bir turkum oʻziga xos grammatik maʼno anglatadi va shu grammatik maʼnolarni ifodalovchi grammatik shakllarga ega boʻladi. Jumladan, ot turkumi "predmetlik" maʼnosini (uy, bino, inson, doʻstlik, sevgi, istiqloq kabi) feʼl turkumi "harakat"ni (yoz, oʻqi, ishla, boshla, ichir kabi), sifat "belgi"ni (qizil, oq, yaxshi, odobli kabi), ravish holatni (tez, sekin, moʻl, oz kabi) anglatadi. Soʻz turkumlari ifodalayotgan bunday mavhum grammatik maʼnolar soʻzlarni turkumlarga ajratishda asosiy belgi hisoblanadi.

Mustaqil soʻzlar. Biror voqea- hodisa (predmet, belgi, harakat, miqdor) haqidagi tushunchalarni ifodalovchi (lugʻaviy maʼno anglatuvchi), gap tarkibida muayan gap boʻlagi vazifasida keluvchi, shuningdek, soʻz yasash, shakl yasash va forma oʻzgartirish xususiyatiga ega boʻlgan soʻz turkumlari. : ot, sifat, son, olmosh, feʼl va ravish shunday soʻzlardir.

Morfologik belgi soʻzning kategoriyal va nokategorial sharh yasash xususiyatlariga ega boʻlishi. Bu belgi barcha soʻz turkumlari uchun birdek xos emas. Masalan, ot va fe'l turkumidagi soʻzlar uchun har uchala hodisa - soʻz yasash, shakl yasash va soʻz oʻzgartirish (turlanish va tuslanish) mavjud boʻlsa, sifatlarga uchun esa ikkitasi soʻz yasash va shakl yasash xos, ravishda asosan soʻz yasash, qisman shakl yasash (daraja yasalishi) bor.

Umumiy kategorial ma'noga ega boʻlmagan soʻzlar. Oʻzbek tilida umumiy kategorial ma'noga ega boʻlmagan soʻzlarga koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamalar kiradi. Bu guruhdagi soʻzlar mustaqil lugʻaviy ma'noga ega emasligi, gapda mustaqil gap boʻlagi vazifasida kela olmasligi bilan xarakterlanadi.

Yordamchi soʻzlar. Mustaqil lugʻaviy ma'noga ega boʻlmagan, gapda faqat turli xil grammatik ma'nolarni ifodalaydigan soʻzlar yordamchi soʻzlar deb yuritiladi. Koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklamalar shunday soʻzlardir.

Koʻmakchi - maqsad, sabab, vaqt, makon, vosita kabi modal ma'nolarni anglatadigan uchun, tomon, orqali, maqsadida kabilar.

Bogʻlovchi - gaplar va gap boʻlaklarini bogʻlovchi, ular orasidagi turli grammatik aloqa munosabatlarini ifodalashga xizmat qiluvchi: va, bilan, chunki, shuning uchun kabi soʻzlar.

Yuklama - soʻzga va gapga qoʻshimcha ma'no beruvchi axir, xuddi, -u, -yu, -ku, -mi, -chi kabi soʻzlar.

Modal soʻzlar. Tilimizda soʻzlovchining gapda ifodalnayotgan fikrga, fikrning borliqqa munosabatini koʻrsatadigan: balki, albatta, soʻzsiz, chamamda kabi soʻzlar guruhi borki, ular **modal soʻzlar** yuritiladi. Modal soʻzlar tasdiq, ishonch, gumon, taxmin kabi modal ottenkalarni ifodalaydi.

Undov soʻzlar. Turli - tuman xis-tuygʻularni, xitob, chaqiriq, undash kabi ma'nolarni ifodalovchi soʻzlar guruhi. Undov soʻzlar lugʻaviy ma'no (nominativ ma'no)ga ega emasligi va yordamchi soʻzlarga xos vazifada kelmasligi bilan alohida guruh tashkil qiladi: ofarin, barakallo, eh, oh kabilar.

Taqlid soʻzlar. Borliqdagi jonli va jonsiz predmetlarning ixtiyoriy-ixtiyorsiz ravishda chiqargan tovushlari va ularning koʻrinishi hamda holatiga taqlidni bildirgan taq -tuq, yilt - yilt, lov -lov, lip-lip kabi soʻzlar guruhi.

Ot. Predmetlik ma'nosini anglatib, son, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalarga, turli ma'no va vazifa uchun qoʻllanuvchi funktsional formalarga, shuningdek, oʻziga xos soʻz yasalishi sistemasiga ega soʻzlar ot deb yuritiladi.

Ot morfologiyada katta oʻrin tutadi, chunki boshqa soʻz turkumlari otning belgi xususiyatlarini koʻrsatadi. Jumladan, sifat otning belgisini, son miqdori va tartibini, fe'l harakatini bildiradi: katta bino, 3 – kurs, unta kitob, kitobni oʻqimoq kabi.

Ot soʻzning muhim grammatik xususiyati. Otga oid soʻzlarning kim, nima, qayer olmoshlari bilan munosabatdor boʻlishi, ya'ni gapda mutloq bosh boʻlak vazifasida kelishi ham uning muhim grammatik xususiyati hisoblanadi.

Predmetlik ma'nosi. Predmetlik ma'nosini ifodalash bu logik tushuncha boʻlmay, grammatik hodisadir. Chunki bir-biridan ancha uzoq boʻlgan bir qancha tushunchani ifodalovchi soʻzlar, masalan, inson, sigir, chumoli kabi tirik mavjudotlarni ifodalovchi, quyosh, osmon, togʻ, suv kabi ob'ektiv borliqqa xos hodisalarni: paxta, sholi, bugdoy kabi usimliklarni, harakat, bilim kabi fikrda predmetdek tasavvur qilinadigan hodisa, xususiyat, munosabatlarni ifodalovchi tushunchalar, shuningdek, tepalik, pastlik, Guliston, Sirdaryo kabi oʻrin-joy otlarining barchasi predmetlik grammatik ma'nosini ifodalab, xilma-xil logik tushunchalarni bitta grammatik ma'no atrofida umumlashtirib turadi. Demak, grammatik umumlashtirish logik umumlashtirishdan kengdir.

Otlarning ma'noga koʻra turlari. Otlarni ma'nosiga koʻra turlicha tasnif qilish mumkin: bunda otlarning grammatik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi semantik belgilar asosga olinadi:

bir turdagi predmetlarning umumiy nomini yoki birinchi nomini bildirishga koʻra (atoqli va turdosh otlar),

kim yoki nima olmoshlariga boʻlgan munosabatiga koʻra (atoqli va turdosh otlar)

sanalish va sanalmasligiga koʻra (sanaladigan: daftar, qalam; sanalmaydigan: havo, bulut, un, qum, tuproq kabi).

Atoqli otlar. Bu xildagi predmet yoki hodisalarning birini ajratib ko'rsatuvchi otlar. Atoqli otlarga: kishilarning ismi, nasl nomi, otasining ismi (familiya va otchestva), taxallusi: Alisher, Akram Valiev, Oybek, Navoiy kabi; geografik nomlar: Sirdaryo, O'zbekiston, Samarqand, Xovos kabi; turli tashkilot, korxonalar, muassasa nomlari: Guliston Davlat universiteti, «Kashteks» kabi; Planeta va yulduzlarning nomlari: Zuxro, Yupiter kabi; tarixiy hodisalar, asarlar, gazeta, jurnallar va ilmiy muassasalarning nomlari: Mustaqillik kuni, «Qutlug' qon» romani kabi; hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar: Boychibor, Olako'z kabi. Atoqli otlarning deyarli ko'pchiligi turdosh otlardan, bir qismi boshqa so'z guruhlaridan kelib chiqqan: Rayxon, Anora, Go'zal, Sotib oldi kabi. Ba'zi atoqli otlar turdosh otlarga aylangan: rentgen, xosiyatxon, bo'ston kabi. Bu otlar atoqli otlar safidan chiqib, leksik ma'no ifodalashga ko'chgan.

Turdosh ot. Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi otlar turdosh ot deyiladi: ishchi, kitob, daraxt, gul kabi. Otlarning asosiy qismini turdosh otlar tashkil qiladi. Turdosh va atoqli otlar ma'nosiga ko'ra farq qilib qolmay, ularning har biri o'zigagina xos ba'zi grammatik xususiyatlarga ham ega. Masalan, atoqli otlar faqat birlik formada qo'llanadi. Agar ko'plik formasini olsa, grammatik ko'plik emas, balki boshqa ma'no ottenkalariga ega bo'ladi: Umidalar kelishdi kabi.

Turdosh otlarning ma'no turlari. Turdosh otlar ma'nosiga ko'ra aniq va mavhum, yakka va to'da, sanaladigan va sanalmaydigan, kishi va narsa otlariga **ajratiladi**.

Aniq va mavhum otlar. Turdosh otlar ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra aniq va mavhum otlarga bo'linadi. To'g'ridan-to'g'ri predmetni anglatadigan otlar aniq otlar deyiladi. Aniq otlar anglatgan predmetlarni bevosita sanash va ko'rish mumkin. Shu sababli bunday otlar sanoq sonlar bilan, masalan, beshta daftar, minglab odamlar kabi, sintaktik aloqaga kirisha oladi. Shuningdek, aniq otlar sub'ektiv baho formalari va ko'plik qo'shimchalarini olishi mumkin: uycha, tuynik, bolagina, kitoblar kabi.

Mavhum tushunchalarni ifodalovchi otlar mavhum otlar deyiladi. Bu otlar odatda mavhum belgi va xususiyatlarni ataydi: sevgi, oqim, tuyg'u, yaxshilik kabi. Mavhum otlar ko'plik ko'rsatgichi –lar qo'shimchasini ham oladi. Agar bu qo'shimcha bilan kelsa ko'plikni ifodalamay, boshqa ottenkalarni anglatadi.

Yakka va to'da otlar. Otlar birlik shaklda bir turdagi predmetning o'zini yoki ularning to'dasi (jami)ni bildirishiga ko'ra yakka va to'da otlariga ajratiladi.

Bir turdagi predmetning o'zini bildiruvchi kitob, uy, daraxt kabi so'zlar yakka ot, bir xil predmetlarning jamini ifodalovchi armiya, xalq, qo'shin kabi otlar to'da otlari deb yuritiladi.

Kishi va narsa otlari. Kim yoki nima so'zlariga bo'lgan munosabatiga ko'ra otlar kishi va narsaotlariga bo'linadi. Kishi otlari kim? so'rog'ini, narsa otlari nima? so'rog'ini qabul qilib, ular atoqli va turdosh otlardan bo'lishi mumkin.

Sanaladigan va sanalmaydigan otlar. Sanalish – sanalmasligiga ko'ra otlar ikkiga, sanaladigan va sanalmaydigan otlarga bo'linadi. Sanaladigan otlar asosan aniq otlarini: beshta daftar, unta qalam kabi, sanalmaydigan otlar asosan modda otlarini tashkil qiladi: havo, bulut, shamol kabi. Atoqli otlarning ham aksariyati sanalmaydigan otlardir: Tinch okean, Qora dengiz, Amudaryo, Dilbar G'ulomova, Oybek kabi.

Otning grammatik kategoriyalari. Ot uchta grammatik kategoriyaga ega: son, egalik va kelishik kategoriyalari. Ot nutqda doimo son va kelishik kategoriyasi formasida bo'ladi. Bu otning nutqdagi ko'rinishidir. Egalik kategoriyasi esa otning grammatik shakllanishida doim ham qatnashavermaydi.

Otning nol ko'rsatgichli formalari. Birlik formadagi otlar bir jinsdagi predmetlarning bittasini anglatadi va bosh kelishik ma'nosi va shaklida bo'ladi. Bu ma'nolar va shakllar nol ko'rsatgichli forma hisoblanadi. Demak, nol shakllar moddiy ko'rsatkichga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Otning birlik va bosh kelishik shakli nol ko'rsatgichlidir. Masalan, shahar, odam, daftar, bur.

Otning birlik shakli otning nol ko'rsatkichli shakllaridan biri bo'lib, bir turdagi predmetlarni yoki ularning birini anglatadi. Lekin ba'zi otlar birlik formada bo'lsa-da, ayrim predmetlarning to'dasini anglatadi; xalq, armiya, olomon. Bu ko'plikning semantik usul bilan ifodalanishi deb yuritiladi. Bu otlar grammatik jihatdan birlik deb qaraladi.

Otlarning ko`plik shakli. Bu shakl –lar affiksi orqali hosil bo`ladi. Ikki va undan ortiq predmetlarning noaniq miqdorini bildiradi: shaharlar, kitoblar, odamlar. Ko`plikning bunday ifodalanishi morfologik usul bilan ifodalanish deyiladi. O`zbek tilida otning son formasi (birlik va ko`plik) sintaktik munosabat ko`rsatmaydi.

Otlarning son formalarida kelishi. Otlar bu jihatidan ikki turga bo`linadi:

- 1) Birlik va ko`plik formaga ega bo`lgan otlar.
- 2) Faqat birlik formaga ega bo`lgan otlar.

Birlik va ko`plik formaga ega bo`lgan otlar. Sanash mumkin bo`lgan predmetlarning hammasi birlik va ko`plik formada kela oladilar.

Otlarning faqat birlik formada qo`llanishi. Asosan donalab sanash mumkin bo`lmagan predmetlarga xosdir. Bular quyidagilar:

Abstrakt otlar ko`plik affiksini olmaydi: muhabbat, mardlik, o`qituvchilik.

Sanash mumkin bo`lmay, faqat o`lchanadigan jismlarni anglatadigan otlar: tuz, yog, asal, neft, uzum, choy. Bunday otlarga -lar qo`shilganda ularning turi anglashiladi.

Organizmdagi juft organlarni, shuningdek juft predmetlarni bildiruvchi otlar: qo`l, ko`z, etik, kalish. Bu otlarga -lar affiksi qo`shilganda, bo`lingan ko`plikni bildiradi: ung va chap qo`llar.

Aslida bittadan ortiq bo`lmaydigan predmetlarning nomi ham faqat birlikda ishlatiladi: yurak, til kabi.

Atoqli otlar ichida –lar affiksining oladiganlari ham bor. Atoqli otlardan planeta va yulduz nomlari: Quyosh, Mars kabilar -lar olmaydi. Farxodlar - Farxod bir necha kishi ma`nosini ifodalaydi.

Son kategoriyasining boshqa turkumlarga ham xoslanishi. Olmoshlarda: nimanimalar?, kim- kimlar?, sizlar. Sifatlar otlashganda: kattalar, qizillar. Son otlashganda: soat to`qqizlar. Sifatdoshlar otlashganda: o`qiganlar hurmatda. Tuslovchi tarkibida –lar . ikki ma`noni ifodalaydi:

1). Ko`plik ma`nosi: odamlar, bir –birlariga ko`mak beradilar,

2). Hurmat,(sizlash) ma`nosida : Sizni Xursand, akam so`rab keldilar. Bu ayol onangiz bo`ladilarmi? (J, Abdullaxonov.)

Egalik kategoriyasi. Predmetning uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini anglatuvchi umumiy ma`nolar va ularni ifodalovchi qo`shimchalar paradigmasi egalik kategoriyasidir.

Egalik qo`shimchalari tilimizda ikki ma`nolidir: ya`ni ham shaxs, ham son ma`nosini ifoda etadi. Masalan: maktabim-birlik, 1 shaxs; maktabimiz-ko`plik, 1 shaxs.

Egalik qo`shimchalarining morfologik variantlari. Hozirgi o`zbek adabiy tilida egalik qo`shimchalarining morfologik variantlari deyarli yo`q. Egalik qo`shimchalari ichida II shaxsning ko`plik formasigina variantlarga ega: kitobingiz-kitoblaring.

Egalik qo`shimchalarining semantic tabiati: Egalik qo`shimchalari ma`lum ma`noda polisemantik tabiatga ega: Egalik qo`shimchasini olgan so`z bosh kelishik formasidagi so`z bilan birikib, ya`ni to`g`ri ma`noli turg`un uyushmalarni yuzaga keltirishi mumkin: yog` – moy kombinati, pedagogika instituti, dil rozi, vatan ishq, Volga daryosi kabi holatlarda birinchi qism qaratqich kelishigi qo`shimchasini ola olmaydi. Shu sababli ularni bosh kelishik formasida deb qarash to`g`ri bo`ladi. Egalik qo`shimchasi ba`zan chiqish kelishigidagi ot bilan bog`lanib, mansublik ma`nosini ifodalab kelishi ham mumkin: Majlisda talabalardan biri ma`ro`za kildi, gapida qarashlilik ma`nosini yuzaga chiqaradigan qaratqich kelishigi ishtirok etmayotganligi sababli unda qarashlilik ma`nosi yo`q.

Kelishik kategoriyasi. Hozirgi o`zbek adabiy tilida otning boshqa so`zlar bilan sintaktik munosabatini ko`rsatuvchi ma`nolari va bu ma`nolarini ifodalovchi formalar sistemasi kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi olti grammatik ma`no yoki olti kelishikni birlashtiradi: bosh kelishik, qaratqich kelishik, tushum kelishigi, chiqish kelishigi, jo`nalish kelishigi, o`rin kelishigi.

Kelishiklar ifoda qiladigan munosabatlarning umumlashgan ma`nolari so`zlar paradigmasida emas, so`z birikmasida shakllanadi, ya`ni bunday ma`nolar sintagmatik xarakterda bo`ladi.

Turlanish va turlovchi. Otlarning kelishik formalar bilan o`zgarishi turlanish, kelishik affiksining o`zi esa turlovchi deyiladi.

Kelishiklar	So`roqlar	Turlanish
Bosh kelishik	Kim?, nima?, kaer?	Go`zal,kitob,Samarqand
qaratqich kelishik	Kimning?, nimaning?, kaerning?	Go`zalning,kitobning, Samarqandning
Tushum kelishik	Kimni?, nimani?, kaerni?	Go`zalni,kitobni,Samar-kandni
Jo`nalish kelishik	Kimga?, nimaga?, kaerga?	Go`zalga,kitobga, Samar-qandga
O`rin-payt kelishik	Kimda?, nimada?, qaerda?	Go`zalda,kitobda,Samar-qandda
Chiqish kelishik	Kimdan?,nimadan?, qaerdan?	Go`zaldan, kitobdan, Samarqanddan

Kelishiklarning ma'no-munosabati. Har bir kelishikning o`z formasi, ma'nosi va sintaktik vazifasi bor. Masalan, jo`nalish kelishigi ot, olmosh, son va otlashgan so`zlarga qo`shilib, ot bilan fe'l orasidagi sintaktik munosabatni ko`rsatadi. Uning asosiy ma'nosi harakatni yunalishi o`rnini bildirishdir. Bundan tashqari payt, atash, sabab, maqsad ma'nolarini ham ifoda qiladi. Kelishik formasidagi so`zlar gapda boshqa so`zlar bilan quyidagicha munosabatda bo`ladi: qaratqich kelishigi ot bilan otni grammatik aloqaga kiradi: jurnalning varagi, odamning gavdasi. Tushum, jo`nalish, o`rin, chiqish kelishiklari otni fe'l bilan aloqaga kiritadi: xatni o`qidi, klubga bordim, institutga kirdim, uydan keldim. Kelishik formasidagi otlar ot va fe'ldan boshqa turkumdagi so`zlar bilan ham munosabatga kirishadi: Otdan baland, itdan past.(Topishmoq)Uyat o`limdan qattiq. (Maqol).

Bosh kelishik. Bosh kelishikdagi so`z kim?, nima?, qaer? degan so`roqlarning biriga javob bo`ladi. Bosh kelishik formasi maxsus morfologik ko`rsatgichga ega emas. Shuning uchun ham u nol ko`rsatgichli forma hisoblanadi.

Qaratqich kelishigi. Qaratqich kelishigi biror predmetning shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmetga qarashlilikini ifodalaydi.

Qaratqich kelishigi –ning affiksi orqali shakllanadi: Dilfuzaning kitobi, daraxtning bargi.

Qaratqich kelishigi qo`llanishi. Qaratqich kelishigi kki ko`rinishda – belgili va belgisiz qo`llanadi. Belgili qaratqich kelishigi –ning affiksi bilan qo`llanadi va real qarashlilikni ifodalaydi: Gulchehraning butun vujudi muz bo`lib ketdi. (U.Umarov). Bunda predmetni konkret bir shaxsga qarashlilikni anglashildi.

Qaratqich kelishigi affiksi tushib qolsa, qaratqich kelishigi belgisiz bo`ladi. Cho`l qushlari beozorgina chug`urlashadi.

Qaratqich kelishigi quyidagi xollarda albatta belgili qo`llanadi:

Tushum kelishigi. Tushum kelishigidagi ot gapdagi ish-harakatning o`ziga qabul qilgan predmetni anglatadi. Bu so`z gapda hamma vaqt fe'l bilan birikadi. Tushum kelishigi formasi –ni affiks orqali yasaladi: daftarni, Nargizani. Tushum kelishigidagi ot vositasiz bo`lib keladi: Brigada qizlari Karimni kayta kuzatib qo`ydilar.

Qo`llanishi. Tushum kelishigi formasi belgili va belgisiz qo`llanishi mumkin. Kelishik affiksi –ni saqlansa, belgili, -ni affiksi tushirilib qoldirilsa belgisiz hisoblanadi.

Chiqish kelishigi. Chiqish kelishigi ish-harakatning chiqish nuqtasini, shuningdek, ob'ekt, manba, payt, sabab, qiyoslash ma'nolarini ifoda qiladi. Bu kelishik -dan affiksi orqali shakllanadi: Endi uxlagan ekanman, birov divandan uloqtirib yuborganday bo`ldi. (U.Xoshimov.).

Jo`nalish kelishigi. Jo`nalish kelishigi formasi –ga affiksi orqali yasaladi. Bu kelishikdagi ot ish-harakat yunalgan predmetni anglatadi: MaktabQga – maktabga, ishQga –ishga, zavodQga zavodga, fabrikaQga –fabrikaga.

Jo`nalish kelishigi affiks qo`shilayotgan so`z ohiridagi tovushga qarab, -ka shakllariga ham ega bo`ladi: k yoki –g tovushi bilan tugagan so`zlarga –ka shaklida qo`shiladi. StanokQga – stanokka, ko`rakQga –ko`rakka, bargQga –barkka, qishloqQga –qishloqqa.

O`rin-payt kelishigi. O`rin kelishigidagi ot ish-harakatning bajarilish uchun, vaqti, sharoiti, holati, sababini, maqsadini ifodalaydi. O`rin kelishigi -da formasi orqali shakllanadi: Shaharda, bogda, qishloqda. Payt ma'nosini ifodalaganda ba'zan o`rin kelishigi affiksi qo`llanmaydi: Dehqon bo`lsang kuz xayda, kuz xaydamasang yuz xayda. (maqol). O`rin kelishigidagi otlar gapda quyidagi vazifalarda keladi.

Otning funktsional formalari. Ot soʻz turkumi son, egali va kelishik kabi kategorial formalardan tashqari bir qator (nokategorial) funktsional formalarga ham ega.

Hozirgi oʻzbek tilida, otga xos funktsional formaning yasashiga koʻra uch tipi bor: Sintetik forma. Analitik forma. Juft va takroriy forma.

Otlarning sintetik funktsional formasi oʻz ma'no va vazifalariga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi: Kichraytish formasi. Erkalash formasi. Xurmat formasi. qarashlilik formasi . Chegara formasi. Oʻrin belgisi formasi. Oʻxshatish formasi

Kichraytish formasi. Otlarnin kichraytish formasi –cha, -choq, (chak) affiksari formasida yasaladi.

Erkalash formasi. Otning bu funktsional formasi –jon, -xon, -oy affikslari yordamida yasaladi. –jon affiksi shaxs bildiruvchi turdosh otlarga yoki shaxslarning nomini bildiruvchi otlarga qoʻshilib erkalash, suyish kabi ijobiy munosabat ifodalovchi forma yasaydi: Erkalash ma'nosi –jon bilan yasalgan formaning asosiy modal ma'nosi boʻlib, erkalash ma'nosining boʻrttirilishida egalik affikslarining roli muhimdir: Buvijon, allani kim chiqargan! Qachon! – Chugurlab soʻrashdi nevaralar

-xon, -oy affikslari ham kishi ismini bildiruvchi otlarga qoʻshilib erkalash, hurmatlash ma'nosini bildiradi.

Otning xurmat formasi. Otning xurmat formasi –lar affiksi yordamida yasaladi: dadamlar, amakimlar kabi: Davdam akamlarni kuzatib uyga kirganlarida soat birga yaqinlashib qolgandi. Hozirgi oʻzbek tilida –lar koʻplik ifodalovchi affiks sifatida son kategoriyasining birlik formasiga qarama-qarshi boʻlgan koʻplik formasini yasaydi. Xurmat ifodalovchi affiks sifatida esa funktsional forma hosil qiladi. Xurmat ifodalovchi affiks sifatida esa funktsional forma hosil qiladi. Mustaqil forma sifatida –lar affiksi yordamida yasaluvchi xurmat formasi koʻplik formasidan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi.

Qarashlilik formasi. Bu forma –niki affiksi bilan yasaladi. –niki affiksi qoʻshilgan soʻz bildirgan ma'no predmetning shaxs yoki narsaga karashlilikini, unga tegishlilikini bildiradi: Bu ilmiy ishlar studentlarniki. qaratqich kelishigi koʻrsatkichi –ning va –ki affikslarining birikishidan –niki affiksi hosil boʻladi. Bu affiks hozirgi kunda qoʻshma affikslik xususiyatini yoʻqotib, sodda affksga aylanib kolgan: institutniki, bizlarniki va xokozolar.

Otning funktsional analitik formalari. Hozirgi oʻzbek tilidagi otning analitik formasi koʻmakchi soʻz yordamida vujudga keladi. Funktsional formalarning ikkinchi turi analitik formadir.. Bular esa vosita, makon, vaqt, sabab, maqsad kabi ma'nolarni anglatadi. Analitik formani hosil qiluvchi koʻmakchilar otning ma'lum bir kelishik formasiga birikadi. Qaychi bilan (qirqmoq), dugonasi uchun(bermoq), tushga yaqin (bormoq) kabilar bunga misol boʻladi.

Otning funktsional juft va takroriy formalari. Navbatdagi funktsional formalardan biri, juft va takroriy formalar sanaladi. Bu forma otning umumlashtirish ma'nolarini bildiradi. Otning takroriy formasi koʻplik ma'nosini ifodalay oladi, ma'noni kuchaytiradi. Shu topda u oʻzini hamda doʻsti Mirvali va uning serzavq-sershovqin joʻralarini eslab ich-ichidan yonmoqda edi.

Yakuniy nazorat savollari va topshiriqlar

2-variant

1. Tagiga chizilgan soʻzlarni toʻliq morfologik tahlil qiling.

2. Gapdagi so'zlarni o'zak va **qo'shimchalarga** ajratib, **qo'shimcha** turlarini aniqlang.
Kecha **Hamida ota-onalar** majlisi bo'lishi to'g'risida maktabidan **qog'oz** olib kelgan. (A.Q.)

2-variant

1. Gapdagi so'zlarni o'zak va **qo'shimchalarga** ajratib, **qo'shimcha** turlarini aniqlang.
2. Tagiga chizilgan so'zlarni to'liq morfologik ta'hlil qiling.
Raisimiz Sotiboldi shu kunlarda mening uyimda yashirinib turibdi. (H.G'.)

3-variant

1. Gapdagi so'zlarni o'zak va **qo'shimchalarga** ajratib, **qo'shimcha** turlarini aniqlab yozing.
2. Tagiga chizilgan so'zlarni to'liq morfologik ta'hlil qiling.
Uning bu jilmayishida allanechuk sirlil ma'no bor edi.

4-variant

1. Gapdagi so'zlarni o'zak va **qo'shimchalarga** ajratib, **qo'shimcha** turlarini aniqlang.
2. Tagiga chizilgan so'zni to'liq morfologik ta'hlil qiling. Uchastkang **trassasini bir** necha bo'laklarga bo'lib qo'ygansan. (J.Abd.)

5-variant

1. Gapdagi so'zlarni o'zak va **qo'shimchalarga** ajratib, **qo'shimcha** turlarini aniqlang.
2. Tagiga chizilgan so'zlarni to'liq morfologik ta'hlil qiling.
Husayn Boyqaro Navoiyning uyida **uch kun** o'tirdi. (M.O.)

6-variant

1. Gapdagi so'zlarni o'zak va **qo'shimchalarga** ajratib, **qo'shimcha** turlarini aniqlang.
2. Tagiga chizilgan so'zlarni to'liq morfologik ta'hlil qiling.
Muhiddin Jabborovich shularning barini o'lchamay turib to'g'ri topayotgan edi. (O'.Usm.)

7-variant

1. Gap tarkibidagi tub va yasama so'zlarni aniqlang.
2. Gap tarkibidagi so'zlarni o'zak va **qo'shimchalarga** ajratib, **qo'shimcha** turlarini aniqlang.
Bo'ronboyning xizmatchisi qo'l qovushtirib, darboza oldida turmoqda edi. (H.O.)

8-variant

1. Tagiga chizilgan so'zlarni to'liq morfologik ta'hlil qiling.
2. Gapdagi so'zlarni uzak va **qo'shimchalarga** ajratib, **qo'shimcha** turlarini aniqlang.
Bolalarni **cho'ldagi bir bostirmaga** joylashtirishdi. (T.Malik)

9-variant

1. Gap tarkibidagi sifatlarni topib, to'liq morfologik ta'hlil qiling.
2. Gapdagi so'zlarni o'zak va **qo'shimchalarga** ajratib, **qo'shimcha** turlarini aniqlab yozing.

Tonggi salqin o'rnini asta iliq shabada tafti egallay boshlaydi. (J.Abd.)

10-variant

1. Gapdagi sonni to'liq morfologik ta'hlil qiling.
2. Gapdagi so'zlarni o'zak va qo'shimchalarga ajratib, qo'shimcha turlarini aniqlab yozing. Farmonov bu juvoni dashtda bir-ikki marta ko'rgandi. (O.Yo.)

11-variant

1. Tagiga chizilgan so'zlarni to'-liq morfologik ta'hlil qiling.
2. Gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so'zlarni aniqlang. Vazira Sherzodning bu dalilini ham yashil siyoh bilan belgiladi. (P.Q.)

12-variant

1. Tagiga chizilgan so'zlarni to'-liq morfologik ta'hlil qiling.
2. Gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so'zlarni aniqlab yozing. Ertasiga Ergash kuni bo'yi ro'zq'or ishlari bilan ovora bo'ldi. (As.M.)

13-variant

1. Tagiga chizilgan so'zlarni to'liq morfologik ta'hlil qiling.
2. Gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so'zlarni aniqlab yozing. Hotam bilan Umid nozu ne'matlarga to'la stol yonida yonma-yon o'tirishdi. (Mirm.)

14-variant

1. Gapdagi so'zlarni o'zak va qo'shimchalarga ajratib, qo'shimcha turlarini aniqlab yozing.
2. Tagiga chizilgan so'zlarni to'liq morfologik ta'hlil qiling. Havoni tutash, qandaydir vahshiy, dahshatli guldurama qopladi. (O.)

15-variant

1. Gapdagi tub va yasama so'zlarni toping, yasaliush usulini aniqlang.
2. Gap tarkibidagi sifatlarni to'liq morfologik ta'hlil qiling. Lekin yangi uyda uni katta quvonch kutib turardi. (X.T.)

16-variant

1. Gapdagi so'zlarni o'zak va qo'shimchalarga ajratib, qo'shimcha turlarini aniqlab yozing.
2. Tagiga chizilgan so'zlarni to'-liq morfologik ta'hlil qiling. Qorong'ida Usmonov uni yaxshi ko'rolmadi. (O'.Umarbekov)

17-variant

1. Gap tarkibidagi tub va yasama so'zlarni aniqlab, yasaliush usulini yozing.
2. Gap tarkibidagi mustaqil va yordamchi so'zlarni aniqlang. Hafiza nafaqat Umidga, boshqalarga ham hayo bilan gapirardi. (Mirm.)

18-variant

1. Tagiga chizilgan so'zlarni to'-liq morfologik ta'hlil qiling.
2. Gap tarkibidagi yasama so'zlar-ni aniqlab, yasalish usulini yozing.
Savroqi gushlar, urishqoq it, xo'rozlar ham ko'ziga yomon ko'rinib ketdi. (G'.G')

19-variant

1. Tagiga chizilgan so'zlarni to'-liq morfologik ta'hlil qiling.
2. So'zlarni tuzilish jih'atdan turlarga ajrating.
Shu o'rtada birdan bu xo'jayin borib qoldilar. (O.)

20-variant

1. Tagiga chizilgan so'zlarni to'-liq morfologik ta'hlil qiling.
2. So'zlarni o'zak va qo'shimcha-larga ajratib, qo'shimcha turlarini yozing.
Oxirgi marta yigirma ikkinchi avgustda ertalab ko'rganman. (T.Malik)

21-variant

1. Gap tarkibidagi so'zlarni o'zak va qo'shimchalarga ajratib, qo'shimcha turlarini yozing.
2. Tagiga chizilgan so'zlarni to'-liq morfologik ta'hlil qiling.
Yuzini ajin bosgan xomush yo'lovchi birinchi bo'lib o'ziga keldi. (A.Nesin)

22-variant

1. So'zlarni o'zak va qo'shimchalar-ga ajratib, qo'shimcha turlarini yozing.
2. Gap tarkibidagi sifatlarni topib, to'liq morfologik ta'hlil qiling.
Muzaffarning lo'ppi yuzidagi achinish alomati xushnud tabassum bilan almashdi.(O.Yo.)

23-variant

1. Tagiga chizilgan so'zlarni to'-liq morfologik ta'hlil qiling.
2. Gap tarkibidagi so'zlarni o'zak va qo'shimchalarga ajratib, qo'shimcha turlarini yozing.
Arxitektorlar esa o'z ijod mevalarini qog'ozdan hayotga olib kiradilar.(P.Q.)

24-variant

1. So'zlarni o'zak va qo'shimcha-larga ajratib, qo'shimcha turlarini yozing.
2. Gap tarkibidagi sifatlarni to'liq morfologik ta'hlil qiling.
Mayingina shabada er[nafasini ufurib, engil[esadi. (J.Abd.)

25-variant

1. So'zlarni o'zak va qo'shimcha-larga ajratib, qo'shimcha turlarini yozing.
2. Tagiga chizilgan so'zlarni to'-liq morfologik ta'hlil qiling.
Navoiy shahzodaning iltimosi bilan hammadan yuqori o'tirdi. (O.)

26-variant

1. Gapdagi so'zlarni o'zak va qo'shimchalarga ajratib, qo'shimcha turlarini yozing.

2. *Gapdagi tub va yasama soʻzlarni topib yasalish usulini aniqlang.*
Yarim soatgacha maktab **qoʻngʻirogʻi** jaranglab turdi. S.Barnoev)

27-variant

1. *Gapdagi soʻzlarni oʻzak va qoʻshimchalarga ajratib, qoʻshimcha turlarini yozing.*
2. *Tagiga chizilgan soʻzlarni toʻliq morfologik taʼhlil qiling.*
Boshidan kechirgan faje **hodi-salar uning** butun **siyosida** ravshan edi.(O.)

28-variant

1. *Gapdagi soʻzlarni oʻzak va qoʻshimchalarga ajratib, qoʻshimcha turlarini yozing.*
2. *Tagiga chizilgan soʻzlarni toʻliq morfologik taʼhlil qiling.*
Uzoq yillik tajribadan **u bir narsani** bilardi. (O'.Umarbekov)

29-variant

1. *Gapdagi tub va yasama soʻzlarni topib yasalish usulini aniqlang.*
2. *Gap tarkibidagi sifatni toʻliq morfologik taʼhlil qiling.*
Bu **yogʻini** Ummatali **hali-hali** tiniq eslolmaydi. (Sh.)

30-variant

1. *Soʻzlarni oʻzak va qoʻshimcha-larga ajrating va qoʻshimcha turlarini yozing.*
2. *Gapdagi sifatlarni toʻliq morfologik taʼhlil qiling.*
Fotih soʻnggi soʻzlarini goʻyo **qattiq** kuyunib aytdi.(O.Yo.)

31-variant

1. *Tagiga chizilgan soʻzlarni toʻliq morfologik taʼhlil qiling.*
2. *Gapdagi tub va yasama soʻzlarni topib yasalish usulini aniqlang*
Undagi **xastalik hamon oʻz** kuchini koʻrsatmoqda edi.(J.Abd.)

32-variant

1. *Gapdagi soʻzlarni oʻzak va qoʻshimchalarga ajrating va qoʻshimcha turlarini yozing.*
2. *Gap tarkibidagi tub va yasama soʻzlarni topib, yasalish usullarini aniqlab yozing.*
Kunora nazoratchilar tushib turadilar bu erga.(X.T.)

Ot turkumi yuzasidan test savollari:

1. Ot soʻz turkumi, unga xos grammatik kategoriya(xususiyat)lar, otlarning yasalishi, ot yasovchi qoʻshimchalar tilshunoslikning qaysi boʻlimida oʻrganiladi?
A) morfologiya B) morfologiya va sintaksis C) morfologiya va soʻz tarkibi D) morfologiya va soʻz yasalishi
2. Qaysi qatordagi soʻzlar faqat ot turkumiga mansub?
A) kelma, oʻqima, tugma B) gazlama, childirma, koʻrsatma
C) yasama, qaynatma, toʻqima D) yigirma, sekinlama, surma.
3. Qaysi qatorda faqat otlar berilgan?

A) uchqun, to'lg'in, bilimdon, qalamdon B) yong'in, toshqin, tuzdon, kuldun C) tuyg'un, keskin, qumdon, xumdon D) so'lg'in, turg'un, suvdun

4. Qaysi javobda otga xos bo'lgan sintaktik vazifa noto'g'ri ko'rsatilgan?

A) ega vazifasida keladi. B) kesim vazifasida qo'llanadi.

C) undalma vazifasida kelmaydi. D) to'ldiruvchi vazifasida keladi

5. Ot qaysi so'z turkumidagi so'zlar bilan birika olmaydi?

A) ot, sifat B) olmosh C) ravish, fe'l D) ot mustaqil so'z turkumlarining barchasi bilan birika oladi

6. Ot turkumi uchun asosiy belgi nimadan iborat?

A) o'ziga xos yasalish tizimiga ega va gapda gapning har qanday bo'lagi vazifasida kela oladi. B) son, egalik, kelishik kabi grammatik ko'rsatkichlarga ega C) ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ravish bilan birika oladi. D) otning asosiy belgisi predmetlik ma'nosini ifoda etish

7. Faqat mavhum otlar qatorini toping.

A) bola, daftar, qishloq B) gul, zafar, shahar

C) shodlik, sevgi, kulfat D) yo'l, daraxt, vodiya

8. Mavhum otlar qatorini toping.

A) uyqu, jahl B) soch, kiprik C) quyosh, tutun D) gul, orzu

9. Atoqli ot asosida paydo bo'lgan turdosh otlar qatorini toping

A) asal, rayhon, arslon, muhabbat B) anor, lola, shirin, to'qson C) etmish, bultur, turdi, ra'no D) rentgen, xosiyatxon, michurinchilar, amper

10. Faqat turdosh otlar asosida paydo bo'lgan atoqli otlar qatorini toping.

A) Ergash, Lobar, Gulchehra, To'xtamurod B) Juma, Bahri, Rayhon, Nilufar C) Ulug', Suluv, Dilbar, Go'zal D) Ortiq, Quvonch, Xursand, Vali

11. Mavhum otlarni aniqlang.

A) do'stlik, baxt, quvonch B) Suhrob, Feruza, shahnoza C) suv, g'o'za, shiypon D) bug'doy, arpa, zig'ir

12. Atoqli ot haqida bildirilgan qaysi hukm noto'g'ri?

A) bir xildagi predmet yoki hodisalardan birini ayirib ko'rsatadi B) o'ziga xos grammatik xususiyatga ega C) atoqli otlarning ma'lum qismi sifat, fe'l, son turkumlariga oid so'zlar asosida paydo bo'ladi D) atoqli otlar ham grammatik jihatdan ko'plik sonda qo'llanadi

13. Ismlarning qaysi qo'shimchalarga ega bo'lgan shakllari lug'aviy shakllari deb ataladi?

A) ko'plik qo'shimchalariga ega bo'lgan shakllari B) qiyoslash qo'shimchalariga ega bo'lgan shakllari C) kichraytirish-erkalash qo'shimchalariga ega bo'lgan shakllari D) A,B,C.

14. Yig'lasa, yig'lablar ketmaydimi?! gapidagi -lar qo'shimchasining vazifasini aniqlang.

A) ko'plikni anglatish B) hurmatni ifodalash C) taxmin-chamani bildirish D) ma'noni kuchaytirish

15. Faqat birlikda qo'llanadigan otlar qatorini toping.

A) Toshkent, Farg'ona, Qo'qon, Qarshi B) bola, o'quvchi, temir, mis C) bo'ron, qo'zg'olon, qo'l, muallim D) ko'z, quloq, burun, g'ildirak

16. O'zbek tilida otning qaysi shakli sintaktik munosabatni ko'rsatmaydi?

A) kelishik shakli

B) egalik shakli

C) birlik va ko'plik shakli D) egalik, birlik va ko'plik shakllari

17. Ko'plik ma'nosi qo'shimchasiz holda ifodalangan qatorni aniqlang.

A) Har doim sofdil bo'laylik. B) Ko'chada bir qancha bola ko'rindi. C) B,D D) Har rastada ming-ming do'kon

18. Ko'plik qo'shimchasi chama, taxminni ifodalagan misolni toping.

A) Onda-sonda ochilgan chanoqlar ko'k dengizda sadafdek yaltiradi. B) Quvnashdi havasdan ko'p bilan ko'ngillar

C) Vatandoshlarim bilan quvonaman D) Kechqurunlari bo'sh bo'laman, keling suhbatlashamiz.

19. Ismlarning qaysi qo'shimchalarga ega bo'lgan shakllari munosabat shakllari deb ataladi?

A) egalik qo'shimchalariga ega bo'lgan shakllari B) kelishik qo'shimchalariga ega bo'lgan shakllari C) -man, -san, -dir qo'shimchalariga ega bo'lgan shakllari D) barchasi to'g'ri.

20. Quyida berilgan qaysi so'zlar ismlarning munosabat shakllarini hosil qilishda qatnashadi?

A) bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq B) mumkin, zarur, lozim C) kerak, shart, edi D) barchasi to'g'ri.

21. Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri otlarga xos?

A) tuslanish B) turlanish C) daraja D) nisbat

22. Qaysi qo‘shimchalar turlovchi qo‘shimchalar deyiladi?

A) egalik qo‘shimchalari B) kelishik qo‘shimchalari C) shaxs-son qo‘shimchalari D) ko‘plik shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha

23. Turlanish bilan bog‘liq tovush o‘zgarishi bo‘ladigan so‘zlar qatorini toping

A) kitob, xo‘roz, ittifoq B) samo, osmon, shivir
C) bo‘taloq, chiroq, etik D) o‘qish, pedagog, etti

24. Quyidagi gapda qaratqich kelishigidagi so‘z qanday ma‘no anglatyapti? Jahonning shodligi yig‘ilsa butun...

A) shaxs B) to‘dadan bo‘lak C) tur D) butundan qism

25. Quyida berilgan gapdagi nuqtalar o‘rniga qaysi qatordagi qo‘shimchalarni qo‘yish mumkin? U... voqea... bexabar ekani... bilib, butun vujudi... engib bo‘lmas bir horg‘inlik sezdi.

A) -ni, -ga, -dan, -da B) -dan, -ni, -ning, -ka
C) -ning, -dan, -ni, -da D) -ni, -dan, -qa, -ning

26. Tushum kelishigining belgisiz ishlatilishi asosan qaysi so‘z turkumlariga xos?

A) ot turkumidagi barcha so‘zlarga xos B) faqat turdosh otlarga xos C) ot, olmosh, sifat va songa xos D) ot va olmoshga xos

27. -niki qo‘shimchasini qabul qiluvchi so‘zlar qaysi javobda berilgan?

A) ot, ravish, bog‘lovchi B) ot, olmosh, otlashgan so‘zlar
C) fe‘l, ravish, son D) sifat, sifatdosh, fe‘l

28. Qaysi qatordagi otlarga egalik affiksi qo‘shilganda, so‘z oxiridagi k yoki q tovushi o‘zgarmaydi?

A) o‘rik, tuproq, istak B) o‘rtoq, kelajak, qarmoq C) idrok, nutq, axloq D) koptok, pichoq, tirnoq

29. Qaysi qatordagi otlarga egalik affiksi qo‘shilganda, keyingi bo‘g‘indagi i unlisi tushib qoladi?

A) bilim, vazir, bog‘ich B) vakil, voris, do‘stlik C) o‘rin, bo‘yin, o‘g‘il D) idish, ilik, ayiq

30. -m egalik qo‘shimchasining vazifasi to‘g‘ri ifodalangan javobni toping.

A) fe‘llarga qo‘shilib, birinchi shaxsni ifodalaydi B) fe‘llarga qo‘shilib, ot yasaydi C) unli bilan tugagan otlarga qo‘shilib qarashlilikni ifodalaydi D) fe‘llarga qo‘shilib miqdor anglatuvchi ot yasaydi

31. Qaysi qo‘shimchalar predmetning uch shaxsdan biriga qarashli ekanini bildiradi?

A) shaxs-son B) kelishik C) tuslovchi D) egalik

32. Egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda, o‘zakda o‘zgarish bo‘ladigan so‘zlar qatorini toping.

A) qarmoq, etik, koptok, park, qoshiq B) qaymoq, o‘rik, eshik, o‘rtoq, buloq C) qishloq, quloq, huquq, palak, chelak
D) barmoq, bilak, ertak, ufq, zavq

33. Qaysi qatordagi otlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda k tovushi g tovushiga aylanmaydi?

A) terak, yurak B) bilak, chelak
C) tilak, kuylak D) idrok, ishtirok

34. Qaysi qatordagi otlarga II shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan?

A) kitobim, onam B) xulqingiz, onangiz D) yurlaring, borlaring C) daftaring, ukang

35. Mavhum ot yasovchi qo‘shimchalar berilgan qatorni aniqlang.

A) -li va -lik; B) -lik va -chilik;
C) -lik, -chilik, -at, -ot; D) -li, lik, chilik;

36. Qaysi qatordagi so‘zlardan -q, -k qo‘shimchalari bilan ot yasalganda o‘zakda tovush o‘zgarishi bo‘ladi?

A) o‘ta, ista B) kura, yama C) bo‘ya, sana D) tala, tara

37. -lik qo‘shimchasi qaysi turkumga oid so‘zlardan ot yasay oladi? 1) ot; 2) fe‘l; 3) sifat; 4) ravish.

A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 2 D) 1, 3, 4

38. Fe‘l asosli otni toping.

A) paxtazor B) yaxshilik C) sharshara D) ochqich

39. Ot yasovchi qo‘shimchalarni toping.

- A) –chi, –moq, –bon, –m B) –um, –sh, –b, –lik
C) –chi, –la, –cha, –dir D) –k, –lik, –ma, –chi.

40. Uchalasi ham ot yasaydigan qo‘shimchalarni belgilang.

- A) –lik, –cha, –illa B) –lik, –im, –zor
C) –viy, –dosh, –ay D) –ona, –gi, –dek

41. Qaysi qatordagi qo‘shma otlarning tarkibi ot va otdan iborat?

- A) otquloq, qo‘larra, ishboshi B) ko‘ksulton, xomtok, tomorqa C) o‘rinbosar, xontaxta, karnaygul
D) gulbeor, oshko‘k, qo‘ziqorin

42. Qo‘shma otlar qatorini toping.

- A) tilla bola B) Markaziy Osiyo C) tosh yo‘l D) A, B

43. Qaysi qatordagi qo‘shma otlarning yozilishida imlo xatosi bor?

- A) mingtepa, eryong‘oq, osh qozon B) qo‘shtegirmon, beshiktervatar, otquloq C) laylakqor, sadarayhon, qozon yuvg‘ich D) qo‘qongul, Yangi Marg‘ilon, Yangiyo‘l

44. Sinonim so‘zlardan yasalgan juft otlar qatorini ko‘rsating.

- A) or-nomus, baxt-iqbol B) hovli-joy, oyoq-qo‘l C) kuch-quvvat, baxt-saodat D) A, C

45. Quyidagi gapda berilgan juft otlar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? Ona-bolaga qarab turib, «Ona bilan bola – gul-u lola» degan maqolning haqligiga ishondim.

- A) ona-bola, ona bilan bola B) ona-bola, ona bilan bola, gul-u lola C) ona-bola, gul-u lola D) ona bilan bola, gul-u lola

46. Qo‘shma otlar qatorini toping.

- A) gultojixo‘roz, sadarayhon, namozshomgul, muzyorar
B) sohibjamol, tinchliksevar, ishyoqmas o‘zbilarmon
C) allakim, allaqanday, allaqachon, kimdir D) ishlab chiqmoq, oh urmoq, nazar solmoq, payqamay qoldi

1. Sifat turkumining o‘ziga xos morfologik xususiyatlari qaysilar?

- A) darajalanish xususiyatiga ega B) sifat aniqlovchilar o‘zlarining sifatlanmishlari bilan moslashmaydi. C) sifatlar sodda va qo‘shma bo‘ladi D) A, C

2. Baland, ulkan, kichik, mayda so‘zlari uchun xos bo‘lgan umumiy ma‘nolar qanday ma‘no sanaladi?

- A) ko‘chma ma‘no B) grammatik ma‘no
C) uslubiy ma‘no D) leksik ma‘no

3. Uzun, naynov, pakana so‘zlari uchun xos bo‘lgan umumiy ma‘nolar qanday ma‘no sanaladi?

- A) leksik ma‘no B) grammatik ma‘no
C) uslubiy ma‘no D) ko‘chma ma‘no

4. Jumladagi sifatning ma‘no turini toping. Uning yonoqlari uzunchoqroq edi.

- A) hid bildiruvchi B) hajm-o‘lchov bildiruvchi
C) shakl-ko‘rinish bildiruvchi D) holat bildiruvchi

5. Sifat turkumiga oid so‘zlar qaysi javobda berilgan?

- A) chiniqqan, o‘qigan, esayotgan B) so‘nmas, oqar, sehrlovchi C) mayin, yoqimli, quvnoq D) birinchi, ishchi, to‘quvchi

6. Predmetning xususiyatini bildiruvchi sifatlar qaysi javobda?

- A) shirin, achchiq, nordon B) novcha, og‘ir, katta C) kamtar, xushfe‘l, sho‘x D) devoriy, tonggi, xushbo‘y

7. Ish-harakat natijasida hosil bo‘lgan belgi-xususiyatni bildiruvchi sifat yasovchi qo‘shimchani toping.

- A) –oq B) –gir C) –chak D) –ma

8. Sinonim sifatlarini toping.

- A) cheksiz, behad, bardoshli, benihoya B) chopqir, chopag‘on, metin C) sekin, asta, astoydil, ohista. D) sezgir, ziyrak, tuyg‘un, hushyor.

9. Antonim sifatlarini toping.

A) Adolatli podsho hech vaqt mag'lub bo'lmas. B) Otabekka O'zbek oyim tarafidan kirish uchun ruxsat berilgan edi. C) Ish sur'ati tobora jadallashmoqda. D) Achchiq savol berib, shirin javob kutma.

10. Baland tog'lar o'lkamizda ko'p. Ushbu gapdagi baland so'zining grammatik ma'nosi qaysi qatorda ifodalangan?

A) belgi B) sifat C) aniqlovchi D) B va C

11. Asliy sifatlar berilgan javobni toping.

A) qishki, derazali, ko'chma, devoriy B) go'zal, chiroyli, shirin, C) oq, aqlli, yuzaki D) B va C.

12. Nisbiy sifatlar berilgan javobni toping.

A) qishki, derazali, ko'chma, devoriy B) go'zal, chiroyli, shirin, C) oq, aqlli, yuzaki D) B, C.

13. Narsa-buyumlardagi belgining ortiq-kamlik jihatdan farqlanishi...

A) nisbiy sifat deyiladi B) tub sifat deyiladi C) sifat darajasi deyiladi D) qo'shma sifat deyiladi

14. Orttirma daraja shaklidagi sifatlarni toping.

A) tim qora, qip-qizil, oqish B) sarg'ish, ko'kimtir, qoramtir

C) yumshoqqina, och yashil, to'q ko'k D) pak-pakana, bo'm-bo'sh, biram yoqimli.

15. Bunisi xiyol kattaroq ko'rindi. Ushbu gapdagi sifat darajasini belgilang.

A) oddiy daraja

B) orttirma daraja

C) ozaytirma daraja

D) sifat qo'llanmagan

16. Biram yoqimli havo birikmasidagi sifatning darajasini va daraja hosil qiluvchi vositani aniqlang.

A) orttirma daraja, fonetik vosita B) orttirma daraja, morfologik vosita C) orttirma daraja, leksik vosita

D) ozaytirma daraja, leksik vosita

17. Ushbu gapdagi sifatning darajasini va daraja hosil qiluvchi vositani aniqlang. Qoshi sal qoraroq yigit edi.

A) orttirma daraja, morfologik vosita B) orttirma daraja leksik vosita C) ozaytirma daraja, leksik vosita D) ozaytirma daraja, leksik-morfologik vosita

18. Orttirma daraja shaklidagi sifatlarni aniqlang.

A) yumshoqqina, och yashil, to'q ko'k B) yam-yashil, chiroyliroq, nim pushti C) tim qora, qipqizil, oqish D) but-butun, tim qora, g'irt yolg'on.

19. Oddiy darajadagi sifatlar qaysi qatorda berilgan?

A) go'zal, hushyor, odobli B) silliqroq, novcharoq, baxtliroq

C) yam-yashil, oppoq, ko'm-ko'k D) juda yaxshi, nihoyatda baland, g'oyatda qo'rqinchli

20. Tub sifatlar qatorini toping.

A) ozg'in, achchiq, oyday B) tushki, toshsimon, haftalik

C) go'zal, yuzaki, badavlat D) ko'kimtir, qatqaloq, pushtiroq

21. Issiq, sovuq sifatlarining isimoq, sovumoq fe'llariga qanday munosabati bor?

A) sifatlar fe'llardan yasalgan B) fe'llar sifatlardan yasalgan C) sifat va fe'llar "is", "sov" so'zlaridan yasalgan D) ularning o'zaro munosabati hozir unutilgan

22. Taqlid so'zlardan yasalgan sifatlar berilgan qatorni toping.

A) yaltiroq, yarqiroq, so'lqildoq B) jizza, qahqaha, sharshara C) do'rildoq, chiyildoq, likildoq D) qalbaki, dahanaki, xomaki

23. Qaysi qatorda sifat yasovchi sinonim qo'shimchalar berilgan?

A) -li, ba-, bo-

B) -siz, -gi, -ki

C) -ag'on, -li, -simon

D) -gan, ser-, no-

24. Sifat yasovchi qo'shimchalar olgan so'zlar qatorini toping.

A) andijonlik, sersavlat, suvli B) yozgi, supurgi, qishki

C) harakatchan, mehnatkash, yumaloq D) baquvvat, tuxumsimon, charag'on

25. Narsa-buyumning o'ringa yoki vaqtga xosligini bildiruvchi sifat yasovchi qo'shimchalar qaysi qatorda ko'rsatilgan

A) -iy, -viy B) -simon, -lik C) -dagi, -ki, -qi D) -simon, -lik

26. Fe'ldan yasalgan sifatlar qatorini ko'rsating.

A) yig'iq, yig'loq B) bosiq, bosqon C) qo'g'irchoq maqtanchoq, D) kuyunchak, kelinchak, burchak

27. Ot va sifat yasovchi -ma omonim qo'shimchasi qo'llanmagan qatorni toping.

A) aylanma, yasama B) qovurma, birikma

C) yasama, jamg'arma D) ezma, bog'lama

28. Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar qaysi qatorda berilgan?

A) -gi, -ki, -qi, -iy, -viy, -chan B) -siz, -simon, ser-, ba-, be-

C) -dosh, -kor, -kash, -chi, -gar D) -choq, -chak, -gir, -kir, -q, -qi

29. O'zbek tilida sifat yasovchi qo'shimchalarni aniqlang.

A) -im, -viy, -m, -t. B) -chi, -la, -cha, -dir

C) -um, -sh, -b, -lik D) -siz, -li, -gi, -on

30. Qaysi qatorda sifat otlashmagan?

A) Boy qursin, uyat-andishani bilmaydimi? B) Quv, ichidan pishgan, fidoyi, jasur komandirni hamma sevadi. C) Yaxshidan ot qoladi, yomondan - dod. D) Bu xabarni eshitgach, onasi dovdirab, nochor qoldi.

31. Berilgan gapda ajratilgan so'z vositasida qaysi hodisa yuzaga chiqyapti? Odam olasi ichida.

A) sifatlashish B) so'z tushish C) sifatlash D) otlashish

32. Otlashgan sifat qaysi gapda?

A) Ichki go'zallik bilan yo'g'rilmagan har qanday tashqi husn mukammal bo'la olmaydi. B) Izchil mehnat hamma to'siqlarni engadi. C) Otning yaxshisi uloqda bilinadi. D) Baxtsizlikda burchga sodiq qolish buyuk xislatdir.

33. Otlashgan so'zni toping.

A) Bilmaslik ayb emas, o'qimaslik ayb. B) Birov yonbag'irdan gul terгани, birov buloq suvidan ichgani tarqalib ketdi.

C) Dunyoda el va erga xiyonat qilishdan, zolimga do'st bo'lishdan ham ko'ra og'irroq, razilroq, mudhishroq jinoyat bormi? D) Donolikning bir belgisi – adolat.

34. Quyidagi xususiyatlarning qay biri otlashgan sifatlarga xos emas?

A) Otga xos ko'plik qo'shimchasini qabul qiladi B) Otga xos egalik qo'shimchasini qabul qiladi. C) Otga xos yasovchi qo'shimchalarni qabul qiladi. D) Gapda otga xos barcha sintaktik vazifalarni bajara oladi.

35. Quyidagi sifatlardan qaysi birlari sodda sifatlarni hisoblanadi?

1. katta; 2. chiroyli; 3. ishyoqmas; 4. shishasimon; 5. ko'kimtir.

A) 1, 2, 3 B) faqat 1 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 4, 5

36. Qaysi qatorda qo'shma sifat ravishOot birikuvidan tashkil topgan?

A) mushtumzo'r B) kamquvvat C) yolg'izoyoq D) xomkalla

37. Qo'shma sifatlarni toping.

A) olachipor, qoraqizil, ochiq ko'ngil B) ko'k muqovali, serjahl, xomxayolroq C) yam-yashil, uch g'ildirakli, betakalluf

D) qoramtir, sharsimon, oliy ma'lumotli,

38. Quyidagi gapda nechta juft sifat bor? Yakka-yu vagona farzanding yaxshi-yomon kuningga yaramasa, katta-yu kichik oldida yuzingni erga qaratsa-ya!

A) 1 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta

39. Qo'shma sifatlarni qanday tuziladi?

A) ot va otdan B) sifat va otdan C) ot va -ar qo'shimchali fe'ldan D) ot va -aro so'zidan

40. Sifat Q ot ko'rinishdagi qo'shma sifatlarni belgilang.

A) sovuqqon, balandparvoz B) kamgap, kamquvvat C) tezoqar, ertapishar D) dunyoqarash, toshbag'ir

1. Qaysi qatorda songa oid grammatik xususiyatlar noto'g'ri berilgan?

A) son boshqa so'z turkumidan yasalmaydi B) sonning turlari maxsus qo'shimchalar qo'shish bilan yasalmaydi C) son otlashmasa turlanmaydi D) son odatda aniqlovchi so'z bilan qo'llanadi

2. Quyidagi belgi ifodalovchi qaysi so'zlar son turkumiga oid so'zlarga tobe bo'lib kelishi mumkin? 1) katta; 2) yaxshi; 3) shirin

A) Berilgan so'zlarning barchasi songa tobe bo'lib kelishi mumkin B) berilgan so'zlar sonlarga tobe bo'lmaydi C) yaxshi, katta D) shirin, katta

3. Nutqimizda faol ishlatiladigan nechta sodda (tub) son bor?

A) 26 B) 23 C) 35 D) 10

4. Affiksatsiya (qo‘shimchalar yordamida yasalish) qaysi turkum uchun xos emasligini aniqlang.

A) ot B) sifat C) son D) fe‘l

5. Qaysi javobda arab raqamlarining rim muqobili noto‘g‘ri ifodalangan?

A) CM – 900, to‘qqiz yuz B) M - 1000, ming C) LXX - 70, etmish D) CCD - 200, ikki yuz

6. Qaysi sonlarga -lan qo‘shimchasini qo‘shish orqali yangi so‘z yasash mumkin?

A) ikki B) yuz C) uch D) A,B

7. Sonning morfologik xususiyatlari qaysilar?

A) So‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar sonning hamma turlariga ham qo‘shila bermaydi. B) Boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi. C) Sondan turli so‘z turkumlari yasalishi mumkin. D) A,B,C

8. Sonning sintaktik xususiyatlarini aniqlang.

A) Sonlar gapda aniqlovchi va kesim vazifasida keladi.

B) Sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so‘zlarni o‘ziga tobe qilib kelmaydi. C) Boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi. D) A, B

9. Agar ot turkumiga oid so‘zning aniqlovchisi vazifasida sifat va son turkumiga oid so‘zlar kelsa, ular gap tarkibida qanday joylashadi?

A) oldin sifat, keyin son keladi B) oldin son, keyin sifat keladi

C) faqat son so‘z turkumi keladi D) faqat sifat so‘z turkumi keladi

10. Kasr sonni toping.

A) Ikki hovli qo‘shib yuborilgan edi. B) ... qizarib-bo‘zarib, ketmondek oyning yarmi ko‘rinadi. C) ... to‘rt-beshacha chakana havaskorlargina kelibdi. D) Novvoyxonadan ikkita issiq non olib chiqay.

11. Aralash sonni toping.

A) yarim, chorak, nimchorak B) ikkidan bir, uchdan ikki, to‘qqizdan besh C) o‘ttiz ikki, sakson sakkiz, bir yuz ellik besh D) uch yarim, olti butun o‘ndan besh, ikki butun uchdan bir

12. Ki hisob ichra bor edi o‘n lak, Har laki o‘n tuman kelib beshak. (Navoiy) Navoiyning misralarida qo‘llangan bir lak nechaga teng?

A) yuz B) ming C) o‘n ming D) yuz ming

13. Bir so‘zi qaysi gapda chegaralash ma‘nosini bildirgan?

A) U Toshkentdan vakil bo‘lib kelgan bir rus kishi bilan gaplashmoqda. B) Choy mahalida bir kulib, bir yig‘lamsirab, o‘zi, bolalari to‘g‘risida gapirdi. C) Vodiy larni yayov kechganda, Bir ajib his bor edi menda. D) Hammamiz imtihonlardan yaxshi o‘tdik, bir Ahmadning mazasi bo‘lmadi.

14. Qaysi javobda jamlovchi son shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha berilgan?

A) -ta B) -lab C) -lar D) -ovlon

15. Chama sonni toping.

A) Ularning har ikkalasi ham shu to‘g‘rida o‘ylar edi.

B) ...to‘rt-beshacha chakana havaskorlargina kelibdi. C) Lekin ular yiqqan kitoblar chol yiqqan kitoblarning o‘ndan biriga ham teng kelmaydi. D) Hozir ular bo‘lajak shiyponning to‘rtinchi ustunini tayyorlashyapti.

16. Qurbon ota ikkinchi samovarga xumdan suv olib quymoqda edi. Shu gapdagi tartib sonning sintaktik vazifasini belgilang.

A) kesim B) ega C) to‘ldiruvchi D) aniqlovchi.

17. Qaysi qatorda sonlarni yozishda imlo xatoga yo‘l qo‘yilgan?

A) bitta, ikkita B) uchchala, to‘rttala C) besh-o‘n, ellik-oltmishacha D) uchdan bir, beshdan uch

18. Sifatlariga qo‘shilib keluvchi -roq, -g‘ish, -imtir, -ish; sonlarga qo‘shilib keluvchi -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab kabilar qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra qaysi turiga mansub?

A) -roq, -g‘ish, -imtir, -ish shakl yasovchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab so‘z yasovchi B) -roq, -g‘ish, -imtir, -ish so‘z yasovchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab shakl yasovchi C) sanab o‘tilgan qo‘shimchalarning barchasi shakl yasovchi D) -roq, -g‘ish, -imtir, -ish so‘z o‘zgartuvchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab so‘z yasovchi

19. Hisob (numerativ) so‘zi qatnashgan gapni aniqlang.

A) Ming marta shukur B) Kissasida bir miri ham yo‘q. C) Bir guruh yoshlar safarga otlandilar. D) A,B,C.

20. Quyida berilgan hisob so‘z qanday ifoda uchun xizmat qilmoqda? Bir qultum suvga zor bo‘lib...

A) butunning bo‘lagi B) og‘irlik o‘lchovi
C) masofa D) predmetni yakkalab hisoblash

21. Butunning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlar berilgan qatorni toping.

A) nafar, bosh, nusxa B) siqim, to‘da, botmon C) chaqmoq, luqma, shingil D) shingil, quloq, kun

22. Sonning qaysi turi hisob so‘zlari bilan qo‘llanmaydi?

A) dona son B) chama son C) jamlovchi son D) tartib son

23. Numerativ (hisob) so‘zlar qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi?

A) son, sanoq sonlar B) sifatlar, asosan yasama sifatlar
C) gumon olmoshlari bilan D) otlar bilan

24. Numerativ (hisob) so‘zlar sonlar bilan qo‘llanganda, qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

A) tire, vergul B) ikki nuqta
C) nuqtali vergul D) tinish belgisi qo‘yilmaydi

25. Otlashgan sonni aniqlang.

A) Beshta qiz salqin hovlida chir-chir aylanib koptok o‘ynar edi. B) Ular ancha gaplashib turgandan keyin, biri qishloq tomonga ketdi, ikkinchisi orqaga qaytdi. C) Bir kilogramm paxta tolasidan o‘n ikki metr chit yoki yigirma metr batist tayyorlash mumkin. D) Alisher Navoiy XV asrda yashab ijod etgan.

26. Sonning ma‘no jihatidan qaysi turi otlashish xususiyatiga ega emas?

A) dona va tartib son B) taqsim son C) miqdor sonning barcha turlari otlashadi, tartib son otlashmaydi D) sonning barcha turlari otlashish xususiyatiga ega

27. Son otlashganda, qanday sintaktik vazifada keladi?

A) undalma, ikkinchi darajali bo‘lak B) bosh bo‘lak
C) kirish so‘z D) A,B,C.

28. Otlashgan son qaysi gapda mavjud?

A) Ikkalasi navqiron aktrisaga bamisoli sehrlanganday tikilishardi. B) Shuxatlardan ikkitasini sho‘xroq yigit yozgan edi. C) Bu erda u sakkizinchi va to‘qqizinchi sinflarda bir yo‘la o‘qishga ulgurdi. D) A, B.

29. Egallik affiksining qaysi shaxsdagi shakli otlashgan sonlarga qo‘shilmaydi?

A) II shaxs ko‘plik B) I shaxs birlik
C) III shaxs birlik D) II shaxs birlik

30. Sodda sonlar ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Majlisga besh-olti ota-ona keldi. B) Karima to‘rt-besh yil sabr qildi. C) Yigirmanchida oxirgi imtihon bo‘ldi. D) O‘n beshinchi kuni hovlimizga ko‘chgan edik.

31. Gap tarkibida qo‘llangan juft sonlar asosan sonning ma‘no jihatdan qaysi turiga mansub?

A) tartib sonlarga B) jamlovchi sonlarga
C) chama sonlarga D) qo‘shma sonlarga

32. Bir so‘zining chegaralov (ayiruv) ma‘nosi qaysi qatorda berilgan?

A) Bir gektar erni bog‘u bo‘stonga aylantirdi. B) Choy mahalida bir kulib, bir yig‘lamsiradi. C) U bir kuni ovga chiqdi. D) Hamma keldi, bir Hakimjon ko‘rinmadi.

33. Dona son ishtirok etgan gap qaysi qatorda qo‘llangan?

A) Bu sinfdagi yigirma beshta o‘quvchi ta‘lim oladi. B) Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi. C) Shahrimizda o‘nlab teatrlar bor. D) Ikkovimiz ham pastga tushdik.

34. Taqsim son qaysi gapda mavjud?

A) Hozir uyida shunaqa antiqa bodringdan to‘rttasi bor. B) So‘rining shundoq yoniga ikki dona olma tushibdi. C) Bemorlar palatalarga to‘rttadan joylashtirildi. D) Ularning ikkovi ham jim qolishdi.

35. Qaysi qatordagi tartib son dastlabki, ilk ma‘nosida kelgan?

A) Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. B) Endi ikkinchi tomonga nazar tashlaylik. C) Ikkinchi kattalarning so‘ziga aralashma. D) Atirgullar, ko‘rkam karnaygullar, xil-xil gulbeorlar kuzning birinchi izg‘irinlarini pisand qilmaydi.

36. Tartib son yo‘q qatorni toping.

- A) Onasi tokchadagi ettinchi lampani yoqdi. B) Ukam beshinchi sinfda o‘qiydi. C) Ettinchilar, shanbalikka chiqdilar.
D) Beshinchi, oldinga chiqing.

Olmosh turkumi yuzasidan test savollari:

1. Predmet, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurga ishora qiluvchi so‘zlar...

- A) ko‘rsatish olmoshlari deyiladi B) so‘roq olmoshlari deyiladi C) gumon olmoshlari deyiladi D) olmoshlar deyiladi.

2. Olmoshlardan qaysi so‘z turkumlarini yasash mumkin?

- A) fe‘l B) ravish C) son D) A, B va C

3. Olmoshlar qaysi so‘zlarning yasalishiga asos bo‘lishi mumkin?

- A) sifatlarning B) iboralarning C) sonlarning D) A va B.

4. Olmoshlar qaysi so‘zlar o‘rnida qo‘llanganda, so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarni qabul qiladi?

- A) ot B) sifat C) ravish D) ot va fe‘l

5. Uning quchog‘ida g‘amdan yo‘q nishon,

U erda tentimas iblis xayoli.

U erda do‘stlikni ulug‘lab inson,

Takallum qiladi qumri misoli.

Misralar muallifi kim? 1-misradagi olmosh qaysi gap bo‘lagi vazifasida?

- A) U. Nosir; hol B) E. Vohidov; ega
C) A. Oripov; aniqlovchi D) R. Parfi; aniqlovchi

6. Olmoshlarga xos grammatik xususiyatlar qaysi javobda noto‘g‘ri izohlangan?

- A) Olmoshlardan ba‘zi qo‘shimchalar orqali ot, ravish yoki fe‘llar yasalishi mumkin. B) Olmoshlar ba‘zi so‘zlar bilan qo‘shilib, boshqa so‘z turkumiga ko‘chishi mumkin. C) Olmoshlar ba‘zi so‘z turkumlaridan qo‘shimchalar yoki sintaktik yo‘l bilan yasalishi mumkin. D) olmoshlar otlarga xos so‘z o‘zgartuvchilar bilan o‘zgaradi.

7. Qaysi so‘z turkumlari turlanadi?

- A) olmosh, ot, otlashgan so‘zlar B) sifat, son, olmosh C) ravish, olmosh, bog‘lovchi D) mustaqil so‘z turkumlarining barchasi

8. Turlanish qaysi turkumlariga xos?

- A) olmosh, son B) fe‘l, olmosh C) sifat, ravish D) ot, olmosh.

9. Saida bu ayolni darrov yomon ko‘rib qoldi. Ushbu misoldagi olmosh gapning qaysi bo‘lagi bo‘lib kelgan?

- A) ega B) kesim C) to‘ldiruvchi D) aniqlovchi

10. Olmoshning gapdagi vazifasi qaysi qatorda to‘liqroq va to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) ega B) to‘ldiruvchi C) aniqlovchi D) aniqlovchi, to‘ldiruvchi, ega, undalma

11. Bir xil talabalar berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmaydilar. Ushbu gapdagi olmoshlarni toping.

- A) bir xil B) bir C) o‘z, bir xil D) o‘z

12. Bir o‘lka bor dunyoda biroq bitilmagan dostondir bori. Ushbu gapdagi olmosh o‘rnida kelgan so‘zni toping.

- A) bori, bir B) bori C) bor D) bir

13. Kishilik olmoshlariga odatda qaysi qo‘shimchalar qo‘shilib kelmaydi?

- A) so‘z yasovchi qo‘shimcha B) -lar qo‘shimchasi C) egalik qo‘shimchasi D) kelishik qo‘shimchasi

14. Olmoshlarning qaysi turi turlanganda tovush orttirilishi yoki tushishini kuzatish mumkin?

- A) o‘zlik olmoshida B) kishilik olmoshida
C) ko‘rsatish olmoshida D) belgilash olmoshida

15. Uning (Xaliljonning) nechun shu holga tushib qolganligiga hamma hayron, o‘zi esa qo‘l siltaydi. Ushbu gapda olmoshning ma‘no va grammatik xususiyatlariga ko‘ra qaysi turlari bor?

A) belgilash, o'zlik, kishilik, ko'rsatish olmoshi B) ko'rsatish, kishilik, so'roq, belgilash olmoshi C) so'roq, ko'rsatish, belgilash, o'zlik, kishilik olmoshi D) belgilash, ko'rsatish, o'zlik olmoshi, kishilik olmoshi

16. U ko'rsatish olmoshi qo'llangan gapni belgilang.

A) U ko'pchilikning fikrini allaqachon sezgan edi. B) Muattar uning shodlikdan uchqun sochib turgan ko'zlariga qaradi. C) U uchun atagan qo'shiqlarim bor. D) U kishi siz haqingizda juda yaxshi fikrlar aytdilar.

17. Qaysi gapdagi birov so'zi allakim ma'nodoshi bilan almashtirish mumkin?

A) Bolalardan birovi ko'zlarini chirt yumdi. B) Bu gaplarni birov eshitmasin. C) Uzoqdan birovning qorasi ko'rindi.

D) Botirlar birov eshitmasin deb, sekin-sekin qadam bosishdi.

18. Bo'lishsizlik olmoshi tarkibidagi hech so'zi yakka holda qo'llanganda ko'pincha qaysi so'zlar oldida keladi?

A) otlar oldida B) sifatlar oldida
C) fe'llar oldida D) ravishlar oldida

19. O'zlik olmoshi bog'lanib kelgan ot tarkibida, asosan, qanday qo'shimcha bo'ladi?

A) kelishik qo'shimchasi B) ko'plik qo'shimchasi C) egalik qo'shimchasi D) egalik va kelishik qo'shimchasi

20. 2-shaxs qaratqichli birikma o'rnida olmosh qatnashgan gapni aniqlang.

A) Kaminaning ham sizga aytolmagan gaplari bor edi. B) Biz mana shunday muvaffaqiyatlarga erishdik. C) Sening irodang mustahkam emas. D) O'zlarining ham fikrlarini eshitsak yomon bo'lmasdi.

21. Men o'z tilagimni unga bildirsam gapida olmoshlar qaysi kelishik shakllarida kelgan?

A) bosh, qaratqich, tushum kelishigi B) bosh, qaratqich, jo'nalish kelishigi C) tushum, bosh, qaratqich kelishigi D) bosh, qaratqich, o'rin-payt kelishigi

22. Gapdagi olmoshning ma'no turini aniqlang. Xalq amaliy san'ati nihoyatda serjilo va sertarmoq ekanligiga shak-shubha yo'q.

A) ko'rsatish B) belgilash-jamlash C) so'roq D) olmosh ishtirok etmagan

23. Quyidagi so'roq olmoshlaridan qaysi biri birinchi shaxs birlik shaklda qo'llanadi?

A) nima B) A, D C) qaysi D) kim

24. Gapdagi gumon olmoshi anglatgan ma'noni aniqlang. Tog' yo'lidan allaqancha yo'l bosishi kerak.

A) o'rin B) payt C) miqdor D) holat

25. Qaysi gapda odamga so'zi olmosh turkumiga ma'no jihatidan yaqin?

A) Odamga ko'p narsa kerak emas. B) Odam odamga do'st, o'rtoq. C) Har qanday odmaga yaxshilik qilish kerak.

D) Odamga alam qilarkan...

26. Kaminaning bergan maslahati bilan hamma o'z ishini davom ettirdi. Ushbu gapda ostiga chizilgan so'z qaysi olmosh turi o'rnida qo'llangan?

A) kishilik B) ko'rsatish C) belgilash D) bo'lishsizlik

27. Otning olmoshga ko'chishi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Yaxshi odam, yo'ldoshing kitob bo'lsin! B) Odam borki, odamlarning naqshidir C) Odam ketgisi kelyapti D) Inson yashamoqdan tolmasin uchun umid berilgan.

28. Quyidagi qaysi so'zlar ba'zan nutqda men kishilik olmoshi o'rnida qo'llanishi mumkin? 1) kamina; 2) kishi;

3) faqir; 4) banda.

A) 1,2,3 B) 1,2,3,4 C) 1,2 D) 1,3,4.

29. Qanday olmoshlar juft olmoshlar sanaladi?

A) bir-biriga talaffuzi yaqin bo'lgan olmoshlarning birikishidan hosil bo'lgan olmoshlar B) bir-biriga mazmunan zid bo'lgan olmoshlarning birikishidan hosil bo'lgan olmoshlar C) bir-biriga mazmunan yaqin bo'lgan olmoshlarning birikishidan hosil bo'lgan olmoshlar D) barchasi to'g'ri.

30. Qaysi olmoshlar tuzilish jihatidan sodda va qo'shma turlarga bo'linadi?

A) kishilik, bo'lishsizlik va ko'rsatish olmoshlari B) kishilik, belgilash, ko'rsatish va gumon olmoshlari C) so'roq, belgilash, ko'rsatish, o'zlik olmoshlari D) ko'rsatish va belgilash olmoshlari

31. Qaysi olmoshlar takroriy holda ham ishlatilishi mumkin?

A) ko'rsatish, so'roq, belgilash olmoshlari B) kishilik, so'roq va belgilash olmoshlari C) so'roq, belgilash, ko'rsatish, o'zlik olmoshlari D) kishilik va ko'rsatish olmoshlari

32. Qo'shma olmoshlarni belgilang.

A) shu onda nimadir qars etdi. B) Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir. (Bobur) C) Unda-bunda qushlarning sayragani eshitilardi. D) Allakim eshikni taqillatdi.

33. Olmoshlarning qaysi turi sodda, qo'shma, juft, takroriy shakllarga ega?

A) bo'lishsizlik va belgilash olmoshlari B) so'roq, bo'lishsizlik va belgilash olmoshlari C) ko'rsatish olmoshlari D) kishilik va o'zlik olmoshlaridan tashqari olmoshlarning barcha turlari

34. Qo'shma olmoshlarning qaysi turlari «olmoshQolmosh» shakliga ega?

A) gumon olmoshlari B) bo'lishsizlik va belgilash olmoshlari C) ko'rsatish olmoshlari D) olmoshlarning barcha turlari

35. Qaysi olmoshlar tarkibida qo'shma olmoshlar mavjud emas?

A) belgilash; B) ko'rsatish; C) so'roq; D) bo'lishsizlik;

36. Juft olmoshlar ishtirok etgan gapni toping.

A) U har qanday vaziyatda ham o'zini yo'qotmasdi. B) Har kim ekanini o'radi. C) To'yga kimkimlar borishdi? D) U-bu eb ol, o'g'lim.

25. Ikkala qismi ham ma'no anglatmaydigan juft so'zlarni aniqlang.

A) qaqir-ququr, uvali-juvali, aji-buji B) chala-chulpa, qora-qura, ot-ulov C) gap-so'z, idish-tovoq, ikir-chikir D) sap-salqin, ur-yiqit, eski-tuski

26. Qaysi juft so'zlar tarkibidagi so'zlar o'rnini almashtirib qo'llash mumkin? 1) qishin-yozin; 2) qozon-tovoq;

3) chang-to'zon; 4) asta-sekin; 5) eson-omon; 6) yor-do'st.

A) 1,2,3,5 B) 4,5,6 C) 1,4,5,6 D) 4,5

27. Qaysi qatorda yasama so'z bor?

A) yig'la B) tog'a C) jizza D) sanam

28. Takroriy so'z bor qatorni toping.

A) non-pon B) keldi-ketdi C) kam-ko'st D) unda-bunda

29. So'zlarning grammatik tuzilishi va o'zgarishi tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

A) leksikologiya B) orfografiya C) morfologiya D) sintaksis

30. Yasama so'z bor qatorni toping.

A) bitirmoq B) to'latmoq C) sezmay turdi D) o'sib bormoq

31. Morfologiya so'zning qaysi tomonini tekshiradi?

A) so'zning lug'aviy ma'nosini B) so'zning grammatik shaklini C) so'zning grammatik ma'nosini D) B va C

32. Qaysi qatordagi so'z grammatik jihatdan shakllangan?

A) o'qiyapsan B) bog'tomon C) asta-sekin D) A,B,C

33. Qaysi so'z turkumlari grammatik ma'nolar ifodalashga xizmat qiladi?

A) kesim vazifasida kela oladigan barcha so'z turkumlar

B) barcha mustaqil so'z turkumlar C) barcha yordamchi so'zlar D) barcha so'z turkumlari

34. So'zlarni turkumlarga ajratishda qaysi xususiyatlar hisobga olinadi?

A) so'zning ma'nosi B) so'zning ba'zi morfologik xususiyatlari C) so'zning sintaktik vazifasi D) A,B,C.

35. Borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni bildirish-bildirmasligiga ko'ra so'zlar qanday turlarga bo'linadi?

A) atoqli otlar va turdosh otlar B) mavhum otlar va aniq otlar C) mustaqil so'zlar va mustaqil bo'lmagan so'zlar D) narsa bildiruvchi, belgi bildiruvchi va harakat bildiruvchi so'zlar

36. Qaysi vositalar grammatik ma'no ifodalovchi hisoblanmaydi?

A) so'z yasovchi qo'shimchalar B) shakl yasovchi qo'shimchalar

C) so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar D) takrorlar

Sifat turkumi bo'yicha test savollari:

1. Sifat turkumining o'ziga xos morfologik xususiyatlari qaysilar?

A) darajalanish xususiyatiga ega B) sifat aniqlovchilar o'zlarining sifatlanmishlari bilan moslashmaydi. C) sifatlar sodda va qo'shma bo'ladi D) A, C

2. Baland, ulkan, kichik, mayda so'zlari uchun xos bo'lgan umumiy ma'nolar qanday ma'no sanaladi?

A) ko'chma ma'no B) grammatik ma'no
C) uslubiy ma'no D) leksik ma'no

3. Uzun, naynov, pakana so'zlari uchun xos bo'lgan umumiy ma'nolar qanday ma'no sanaladi?

A) leksik ma'no B) grammatik ma'no
C) uslubiy ma'no D) ko'chma ma'no

4. Jumladagi sifatning ma'no turini toping. Uning yonoqlari uzunchoqroq edi.

A) hid bildiruvchi B) hajm-o'lchov bildiruvchi
C) shakl-ko'rinish bildiruvchi D) holat bildiruvchi

5. Sifat turkumiga oid so'zlar qaysi javobda berilgan?

A) chiniqqan, o'qigan, esayotgan B) so'nmas, oqar, sehrlovchi C) mayin, yoqimli, quvnoq D) birinchi, ishchi, to'quvchi

6. Predmetning xususiyatini bildiruvchi sifatlar qaysi javobda?

A) shirin, achchiq, nordon B) novcha, og'ir, katta C) kamtar, xushfe'l, sho'x D) devoriy, tonggi, xushbo'y

7. Ish-harakat natijasida hosil bo'lgan belgi-xususiyatni bildiruvchi sifat yasovchi qo'shimchani toping.

A) -oq B) -gir C) -chak D) -ma

8. Sinonim sifatlarini toping.

A) cheksiz, behad, bardoshli, benihoya B) chopqir, chopag'on, metin C) sekin, asta, astoydil, ohista. D) sezgir, ziyrak, tuyg'un, hushyor.

9. Antonim sifatlarini toping.

A) Adolatli podsho hech vaqt mag'lub bo'lmas. B) Otabekka O'zbek oyim tarafidan kirish uchun ruxsat berilgan edi. C) Ish sur'ati tobora jadallashmoqda. D) Achchiq savol berib, shirin javob kutma.

10. Baland tog'lar o'lkamizda ko'p. Ushbu gapdagi baland so'zining grammatik ma'nosi qaysi qatorda ifodalangan?

A) belgi B) sifat C) aniqlovchi D) B va C

11. Asliy sifatlar berilgan javobni toping.

A) qishki, derazali, ko'chma, devoriy B) go'zal, chiroyli, shirin, C) oq, aqlli, yuzaki D) B va C.

12. Nisbiy sifatlar berilgan javobni toping.

A) qishki, derazali, ko'chma, devoriy B) go'zal, chiroyli, shirin, C) oq, aqlli, yuzaki D) B, C.

13. Narsa-buyumlardagi belgining ortiq-kamlik jihatdan farqlanishi...

A) nisbiy sifat deyiladi B) tub sifat deyiladi C) sifat darajasi deyiladi D) qo'shma sifat deyiladi

14. Orttirma daraja shaklidagi sifatlarini toping.

A) tim qora, qip-qizil, oqish B) sarg'ish, ko'kimtir, qoramtir
C) yumshoqqina, och yashil, to'q ko'k D) pak-pakana, bo'm-bo'sh, biram yoqimli.

15. Bunisi xiyol kattaroq ko'rindi. Ushbu gapdagi sifat darajasini belgilang.

A) oddiy daraja B) orttirma daraja
C) ozaytirma daraja D) sifat qo'llanmagan

16. Biram yoqimli havo birikmasidagi sifatning darajasini va daraja hosil qiluvchi vositani aniqlang.

A) orttirma daraja, fonetik vosita B) orttirma daraja, morfologik vosita C) orttirma daraja, leksik vosita

D) ozaytirma daraja, leksik vosita

17. Ushbu gapdagi sifatning darajasini va daraja hosil qiluvchi vositani aniqlang. Qoshi sal qoraroq yigit edi.

A) orttirma daraja, morfologik vosita B) orttirma daraja leksik vosita C) ozaytirma daraja, leksik vosita D) ozaytirma daraja, leksik-morfologik vosita

18. Orttirma daraja shaklidagi sifatlarni aniqlang.

A) yumshoqqina, och yashil, to‘q ko‘k B) yam-yashil, chiroyliroq, nim pushti C) tim qora, qipqizil, oqish D) but-butun, tim qora, g‘irt yolg‘on.

19. Oddiy darajadagi sifatlari qaysi qatorda berilgan?

A) go‘zal, hushyor, odobli B) silliqroq, novcharoq, baxtliroq

C) yam-yashil, oppoq, ko‘m-ko‘k D) juda yaxshi, nihoyatda baland, g‘oyatda qo‘rqinchli

20. Tub sifatlari qatorini toping.

A) ozg‘in, achchiq, oyday B) tushki, toshsimon, haftalik

C) go‘zal, yuzaki, badavlat D) ko‘kimtir, qatqaloq, pushtiroq

21. Issiq, sovuq sifatlari isimoq, sovumoq fe‘llariga qanday munosabati bor?

A) sifatlari fe‘llardan yasalgan B) fe‘llari sifatlardan yasalgan C) sifati va fe‘llari “is”, “sov” so‘zlaridan yasalgan D) ularning o‘zaro munosabati hozir unutilgan

22. Taqlid so‘zlardan yasalgan sifatlari berilgan qatorni toping.

A) yaltiroq, yarqiroq, so‘lqildoq B) jizza, qahqaha, sharshara C) do‘rildoq, chiyildoq, likildoq D) qalbaki, dahanaki, xomaki

23. Qaysi qatorda sifati yasovchi sinonim qo‘shimchalar berilgan?

A) -li, ba-, bo-

B) -siz, -gi, -ki

C) -ag‘on, -li, -simon

D) -gan, ser-, no-

24. Sifati yasovchi qo‘shimchalar olgan so‘zlar qatorini toping.

A) andijonlik, sersavlat, suvli B) yozgi, supurgi, qishki

C) harakatchan, mehnatkash, yumaloq D) baquvvat, tuxumsimon, charag‘on

25. Narsa-buyumning o‘ringa yoki vaqtga xosligini bildiruvchi sifati yasovchi qo‘shimchalar qaysi qatorda ko‘rsatilgan

A) -iy, -viy B) -simon, -lik C) -dagi, -ki, -qi D) -simon, -lik

26. Fe‘ldan yasalgan sifatlari qatorini ko‘rsating.

A) yig‘iq, yig‘loq B) bosiq, bosqon C) qo‘g‘irchoq maqtanchoq, D) kuyunchak, kelinchak, burchak

27. Ot va sifati yasovchi -ma omonim qo‘shimchasi qo‘llanmagan qatorni toping.

A) aylanma, yasama

B) qovurma, birikma

C) yasama, jamg‘arma

D) ezma, bog‘lama

28. Fe‘ldan sifati yasovchi qo‘shimchalar qaysi qatorda berilgan?

A) -gi, -ki, -qi, -iy, -viy, -chan B) -siz, -simon, ser-, ba-, be-

C) -dosh, -kor, -kash, -chi, -gar D) -choq, -chak, -gir, -kir, -q, -qi

29. O‘zbek tilida sifati yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang.

A) -im, -viy, -m, -t. B) -chi, -la, -cha, -dir

C) -um, -sh, -b, -lik

D) -siz, -li, -gi, -on

30. Qaysi qatorda sifati otlashmagan?

A) Boy qursin, uyat-andishani bilmaydimi? B) Quv, ichidan pishgan, fidoyi, jasur komandirni hamma sevadi. C) Yaxshidan ot qoladi, yomondan - dod. D) Bu xabarni eshitgach, onasi dovdirab, nochor qoldi.

31. Berilgan gapda ajratilgan so‘z vositasida qaysi hodisa yuzaga chiqyapti? Odam olasi ichida.

A) sifatlashish B) so‘z tushish C) sifatlash D) otlashish

32. Otlashgan sifati qaysi gapda?

A) Ichki go‘zallik bilan yo‘g‘rilmagan har qanday tashqi husn mukammal bo‘la olmaydi. B) Izchil mehnat hamma to‘siqlarni engadi. C) Otning yaxshisi uloqda bilinadi. D) Baxtsizlikda burchga sodiq qolish buyuk xislatdir.

33. Otlashgan so‘zni toping.

A) Bilmaslik ayb emas, o‘qimaslik ayb. B) Birov yonbag‘irdan gul tergani, birov buloq suvidan ichgani tarqalib ketdi.

C) Dunyoda el va erga xiyonat qilishdan, zolimga do‘st bo‘lishdan ham ko‘ra og‘irroq, razilroq, mudhishroq jinoyat bormi? D) Donolikning bir belgisi – adolat.

34. Quyidagi xususiyatlarning qay biri otlashgan sifatlarga xos emas?

A) Otga xos ko'plik qo'shimchasini qabul qiladi B) Otga xos egalik qo'shimchasini qabul qiladi. C) Otga xos yasovchi qo'shimchalarni qabul qiladi. D) Gapda otga xos barcha sintaktik vazifalarni bajara oladi.

35. Quyidagi sifatlardan qaysi birlari sodda sifatlarni hisoblanadi?

1. katta; 2. chiroyli; 3. ishyoqmas; 4. shishasimon; 5. ko'kimtir.

A) 1, 2, 3 B) faqat 1 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 4, 5

36. Qaysi qatorda qo'shma sifat ravishQot birikuvidan tashkil topgan?

A) mushtumzo'r B) kamquvvat C) yolg'izoyoq D) xomkalla

37. Qo'shma sifatlarni toping.

A) olachipor, qoraqizil, ochiq ko'ngil B) ko'k muqovali, serjahl, xomxayolroq C) yam-yashil, uch g'ildirakli, betakalluf

D) qoramtir, sharsimon, oliy ma'lumotli,

38. Quyidagi gapda nechta juft sifat bor? Yakka-yu yagona farzanding yaxshi-yomon kuningga yaramasa, katta-yu kichik oldida yuzingni erga qaratsa-ya!

A) 1 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta

39. Qo'shma sifatlarni qanday tuziladi?

A) ot va otdan B) sifat va otdan C) ot va -ar qo'shimchali fe'ldan D) ot va -aro so'zidan

40. Sifat Q ot ko'rinishdagi qo'shma sifatlarni belgilang.

A) sovuqqon, balandparvoz B) kamgap, kamquvvat C) tezoqar, ertapishar D) dunyoqarash, toshbag'ir

Son turkumi bo'yicha test savollari:

1. Qaysi qatorda songa oid grammatik xususiyatlar noto'g'ri berilgan?

A) son boshqa so'z turkumidan yasalmaydi B) sonning turlari maxsus qo'shimchalar qo'shish bilan yasalmaydi C) son otlashmasa turlanmaydi D) son odatda aniqlovchi so'z bilan qo'llanadi

2. Quyidagi belgi ifodalovchi qaysi so'zlar son turkumiga oid so'zlarga tobe bo'lib kelishi mumkin? 1) katta; 2) yaxshi; 3) shirin

A) Berilgan so'zlarning barchasi songa tobe bo'lib kelishi mumkin B) berilgan so'zlar sonlarga tobe bo'lmaydi C) yaxshi, katta D) shirin, katta

3. Nutqimizda faol ishlatiladigan nechta sodda (tub) son bor?

A) 26 B) 23 C) 35 D) 10

4. Affiksatsiya (qo'shimchalar yordamida yasaliş) qaysi turkum uchun xos emasligini aniqlang.

A) ot B) sifat C) son D) fe'l

5. Qaysi javobda arab raqamlarining rim muqobili noto'g'ri ifodalangan?

A) CM – 900, to'qqiz yuz B) M - 1000, ming C) LXX - 70, etmish D) CCD - 200, ikki yuz

6. Qaysi sonlarga -lan qo'shimchasini qo'shish orqali yangi so'z yasash mumkin?

A) ikki B) yuz C) uch D) A,B

7. Sonning morfologik xususiyatlari qaysilar?

A) So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar sonning hamma turlariga ham qo'shila bermaydi. B) Boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi. C) Sondan turli so'z turkumlari yasalişhi mumkin. D) A,B,C

8. Sonning sintaktik xususiyatlarini aniqlang.

A) Sonlar gapda aniqlovchi va kesim vazifasida keladi.

B) Sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so'zlarni o'ziga tobe qilib kelmaydi. C) Boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi. D) A, B

9. Agar ot turkumiga oid so'zning aniqlovchisi vazifasida sifat va son turkumiga oid so'zlar kelsa, ular gap tarkibida qanday joylashadi?

A) oldin sifat, keyin son keladi B) oldin son, keyin sifat keladi

C) faqat son so'z turkumi keladi D) faqat sifat so'z turkumi keladi

10. Kasr sonni toping.

A) Ikki hovli qo'shib yuborilgan edi. B) ... qizarib-bo'zarib, ketmondek oynning yarmi ko'rinadi. C) ... to'rt-beshacha chakana havaskorlargina kelibdi. D) Novvoyxonadan ikkita issiq non olib chiqay.

11. Aralash sonni toping.

A) yarim, chorak, nimchorak B) ikkidan bir, uchdan ikki, to'qqizdan besh C) o'ttiz ikki, sakson sakkiz, bir yuz ellik besh D) uch yarim, olti butun o'ndan besh, ikki butun uchdan bir

12. Ki hisob ichra bor edi o'n lak, Har laki o'n tuman kelib beshak. (Navoiy) Navoiyning misralarida qo'llangan bir lak nechaga teng?

A) yuz B) ming C) o'n ming D) yuz ming

13. Bir so'zi qaysi gapda chegaralash ma'nosini bildirgan?

A) U Toshkentdan vakil bo'lib kelgan bir rus kishi bilan gaplashmoqda. B) Choy mahalida bir kulib, bir yig'lamsirab, o'zi, bolalari to'g'risida gapirdi. C) Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. D) Hammamiz imtihonlardan yaxshi o'tdik, bir Ahmadning mazasi bo'lmadi.

14. Qaysi javobda jamlovchi son shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha berilgan?

A) -ta B) -lab C) -lar D) -ovlon

15. Chama sonni toping.

A) Ularning har ikkalasi ham shu to'g'rida o'ylar edi.

B) ...to'rt-besh-tacha chakana havaskorlargina kelibdi. C) Lekin ular yiqqan kitoblar chol yiqqan kitoblarning o'ndan biriga ham teng kelmaydi. D) Hozir ular bo'lajak shiyponning to'rtinchi ustunini tayyorlashyapti.

16. Qurbon ota ikkinchi samovarga xumdan suv olib quymoqda edi. Shu gapdagi tartib sonning sintaktik vazifasini belgilang.

A) kesim B) ega C) to'ldiruvchi D) aniqlovchi.

17. Qaysi qatorda sonlarni yozishda imlo xatoga yo'l qo'yilgan?

A) bitta, ikkita B) uchchala, to'rttala C) besh-o'n, ellik-oltmish-tacha D) uchdan bir, beshdan uch

18. Sifatlarga qo'shib keluvchi -roq, -g'ish, -imtir, -ish; sonlarga qo'shib keluvchi -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab kabilar qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra qaysi turiga mansub?

A) -roq, -g'ish, -imtir, -ish shakl yasovchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab so'z yasovchi B) -roq, -g'ish, -imtir, -ish so'z yasovchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab shakl yasovchi C) sanab o'tilgan qo'shimchalarning barchasi shakl yasovchi D) -roq, -g'ish, -imtir, -ish so'z o'zgartuvchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab so'z yasovchi

19. Hisob (numerativ) so'zi qatnashgan gapni aniqlang.

A) Ming marta shukur B) Kissasida bir miri ham yo'q. C) Bir guruh yoshlar safarga otlandilar. D) A,B,C.

20. Quyida berilgan hisob so'z qanday ifoda uchun xizmat qilmoqda? Bir qultum suvga zor bo'lib...

A) butunning bo'lagi B) og'irlik o'lchovi
C) masofa D) predmetni yakkalab hisoblash

21. Butunning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zlar berilgan qatorni toping.

A) nafar, bosh, nusxa B) siqim, to'da, botmon C) chaqmoq, luqma, shingil D) shingil, quloch, kun

22. Sonning qaysi turi hisob so'zlari bilan qo'llanmaydi?

A) dona son B) chama son C) jamlovchi son D) tartib son

23. Numerativ (hisob) so'zlar qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi?

A) son, sanoq sonlar B) sifatlar, asosan yasama sifatlar
C) gumon olmoshlari bilan D) otlar bilan

24. Numerativ (hisob) so'zlar sonlar bilan qo'llanganda, qanday tinish belgisi qo'yiladi?

A) tire, vergul B) ikki nuqta
C) nuqtali vergul D) tinish belgisi qo'yilmaydi

25. Otlashgan sonni aniqlang.

A) Beshta qiz salqin hovlida chir-chir aylanib koptok o'ynar edi. B) Ular ancha gaplashib turgandan keyin, biri qishloq tomonga ketdi, ikkinchisi orqaga qaytdi. C) Bir kilogramm paxta tolasidan o'n ikki metr chit yoki yigirma metr batist tayyorlash mumkin. D) Alisher Navoiy XV asrda yashab ijod etgan.

26. Sonning ma'no jihatidan qaysi turi otlashish xususiyatiga ega emas?

A) dona va tartib son B) taqsim son C) miqdor sonning barcha turlari otlashadi, tartib son otlashmaydi D) sonning barcha turlari otlashish xususiyatiga ega

27. Son otlashganda, qanday sintaktik vazifada keladi?

- A) undalma, ikkinchi darajali bo‘lak B) bosh bo‘lak
C) kirish so‘z D) A,B,C.

28. Otlashgan son qaysi gapda mavjud?

A) Ikkalasi navqiron aktrisaga bamisoli sehrlanganday tikilishardi. B) Shuxatlardan ikkitasini sho‘xroq yigit yozgan edi. C) Bu erda u sakkizinchi va to‘qqizinchi sinflarda bir yo‘la o‘qishga ulgurdi. D) A, B.

29. Egalik affiksining qaysi shaxsdagi shakli otlashgan sonlarga qo‘shilmaydi?

- A) II shaxs ko‘plik B) I shaxs birlik
C) III shaxs birlik D) II shaxs birlik

30. Sodda sonlar ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Majlisga besh-olti ota-ona keldi. B) Karima to‘rt-besh yil sabr qildi. C) Yigirmanchida oxirgi imtihon bo‘ldi. D) O‘n beshinchi kuni hovlimizga ko‘chgan edik.

31. Gap tarkibida qo‘llangan juft sonlar asosan sonning ma‘no jihatdan qaysi turiga mansub?

- A) tartib sonlarga B) jamlovchi sonlarga
C) chama sonlarga D) qo‘shma sonlarga

32. Bir so‘zining chegaralov (ayiruv) ma‘nosi qaysi qatorda berilgan?

A) Bir gektar erni bog‘u bo‘stonga aylantirdi. B) Choy mahalida bir kulib, bir yig‘lamsiradi. C) U bir kuni ovga chiqdi. D) Hamma keldi, bir Hakimjon ko‘rinmadi.

33. Dona son ishtirok etgan gap qaysi qatorda qo‘llangan?

A) Bu sinfda yigirma beshta o‘quvchi ta‘lim oladi. B) Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi. C) Shahrimizda o‘nlab teatrlar bor. D) Ikkovimiz ham pastga tushdik.

34. Taqsim son qaysi gapda mavjud?

A) Hozir uyida shunaqa antiqa bodringdan to‘rttasi bor. B) So‘rining shundoq yoniga ikki dona olma tushibdi.
C) Bemorlar palatalarga to‘rttadan joylashtirildi. D) Ularning ikkovi ham jim qolishdi.

35. Qaysi qatordagi tartib son dastlabki, ilk ma‘nosida kelgan?

A) Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi.
B) Endi ikkinchi tomonga nazar tashlaylik. C) Ikkinchi kattalarning so‘ziga aralashma. D) Atirgullar, ko‘rkam karnaygullar, xil-xil gulbeorlar kuzning birinchi izg‘irinlarini pisand qilmaydi.

36. Tartib son yo‘q qatorni toping.

A) Onasi tokchadagi ettinchi lampani yoqdi. B) Ukam beshinchi sinfda o‘qiydi. C) Ettinchilar, shanbalikka chiqdilar.
D) Beshinchi, oldinga chiqing.

Fe‘l turkumi bo‘yicha test savollari:

1. Go‘dakday uxlaydi tunda odamlar. Ushbu misoldagi fe‘lning sintaktik vazifasini ko‘rsating.

- A) ega B) to‘ldiruvchi C) kesim D) aniqlovchi

2. Biz muzeyga bordik. Ushbu gapdagi bordik so‘zining lug‘aviy ma‘nosi qaysi qatorda berilgan?

- A) fe‘l B) I shaxs ko‘plikda C) o‘tgan zamon fe‘l
D) lug‘aviy ma‘nosi berilmagan.

3. Kuyindi, kuyundi so‘zlari o‘zaro qanday farqlanadi?

A) kuyundi – fe‘l, kuyindi – ot B) kuyindi – fe‘l, kuyundi – fe‘l C) kuyindi talaffuz qilinadi, kuyundi yoziladi D) kuyundi talaffuz qilinadi, kuyindi yoziladi

4. Harakat fe‘llariga to‘g‘ri ta‘rif berilgan javobni toping.

A) shaxsning jismoniy faoliyati natijasida ro‘y bergan harakatni bildiruvchi fe‘llar B) narsaning jismoniy faoliyati natijasida ro‘y bergan harakatni bildiruvchi fe‘llar
C) shaxsning aqliy faoliyati natijasida ro‘y bergan harakatni bildiruvchi fe‘llar D) A, B.

5. Holat fe‘llariga to‘g‘ri ta‘rif berilgan javobni toping.

A) shaxslarning ichki kechinmalarini ifodalovchi fe‘llar B) narsalarning bir ko‘rinishdan boshqa ko‘rinishga o‘tishini ifodalovchi fe‘llar C) A, B D) shaxslarning bir ko‘rinishdan boshqa ko‘rinishga o‘tishini ifodalovchi fe‘llar.

6. Quyidagi fe‘llardan qay biri nutqiy faoliyat fe‘llari guruhiga kiradi? 1) gapirmoq; 2) pichirlamoq; 3) yozmoq;

4) o'qimoq; 5) ijod qilmoq; 6) fikrlamoq; 7) ekmoq;
8) duduqlanmoq; 9) yurmoq; 10) qaramoq; 11) fahmlamoq;
12) isitmalamoq

A) 8, 11, 12. B) 1, 4, 5 C) 3, 4, 5, 11. D) 1, 2, 8.

7. Bo'lishlilik shakli orqali bo'lishsizlik ifodalangan gapni toping.

A) Men xalqni aldamoqchi emasman! B) Yordam bersangiz, kolxozni ko'tarish uchun kuchquvvatimni ayarmidim?! C) Tez orada uncha-muncha mexanikka gap bermay qo'yadi u ... D) Bu hol qishloqda sezilmay qolmaydi.

8. Quyidagi yasama sifat va otlarning qaysi biri fe'lining bo'lishsizlik shakli bilan omonim bo'lolmaydi?

A) qaynatma (sho'rva) B) sochma (o'q)
C) suzma D) qo'llanma

9. Bo'lishlilik ma'nosi ifodalangan qatorni aniqlang.

A) Otaqo'zi shaharga kelsa, kirmay ketmaydi. B) U na o'qiydi, na yozadi. C) Bugungi ishni ertaga qo'yma. D) Gapiradi-ya, gapiradi, gapirib bo'pti.

10. Fe'l nisbatlarining ta'rifi to'g'ri berilgan javobni toping.

A) Harakatning kim yoki nima tomonidan bajarilishini bildiruvchi fe'l shakllari B) bajaruvchining holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari
C) bajaruvchining harakat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari D) B, C.

11. Orttirma nisbat qo'shimchasi -dir haqida bildirilgan qaysi hukm xato?

A) jarangsiz undosh bilan tugagan fe'llarga doimo -tir tarzida qo'shiladi B) jarangli undosh bilan tugagan fe'llarga doimo -dir tarzida qo'shiladi C) kesimlik qo'shimchasi va gumon olmoshini hosil qiluvchi -dir qo'shimchalari bilan omonim hisoblanadi D) orttirma nisbat qo'shimchasi, shakl yasovchi qo'shimcha hisoblanadi

12. Uni ancha erkalatib qo'ygan edilar. Ushbu gapdagi erkalatib fe'li qaysi nisbat shaklida?

A) o'zlik nisbat B) birgalik nisbat C) aniq nisbat D) orttirma nisbat.

13. Shaxs-son shakllarining xususiyatlari noto'g'ri berilgan javobni ko'rsating.

A) fe'lni kesim sifatida shakllantiradi B) fe'lni ega bilan bog'lab keladi C) zamon qo'shimchalarini qabul qilmaydi
D) fe'l ifodalagan ish-harakatning bajaruvchisini ko'rsatadi

14. Fe'lga xos so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarni toping.

A) fe'l yasovchi qo'shimchalar B) zamon qo'shimchalari
C) nisbat qo'shimchalari D) shaxs-son qo'shimchalari.

15. Quyidagi omonim so'zlardan qaysi biri shaxs-son qo'shimchalarini qabul qilishi mumkin?

A) o't (o't-o'lan) B) o't (olov) C) o't (fe'l) D) A va B

16. O'tgan zamon davom fe'li qaysi qatorda qo'llangan?

A) Gimnastika badan g'uborini tozalaydi. B) Bu shovqin-suron hech nimani isbotlamadi. C) Uchrashuv do'stona va samimiy sharoitda o'tdi. D) Cho'lning taqir betida bir parcha qor ko'rinmas edi.

17. Hozir qorong'ida qayoqqa bordig-u, nimayam qildik. Ushbu gapda qaysi zamon ma'nosi ifodalangan?

A) hozirgi zamon B) kelasi zamon C) o'tgan zamon D) hozirgi-kelasi zamon

18. Hozirgi-kelasi zamon fe'li qaysi qatorda berilgan?

A) ishlayman, o'sadi, o'qiysiz B) borar edi, o'qir, ishlar edim
C) ko'rganman, yuborgansiz, chaqirgan D) yozibman, kelibsiz, ekibdi

19. Eski o'zbek tilida fe'lining qaysi shakli -sar tarzida yozilgan?

A) fe'lning sifatdosh shakli B) shart fe'lning shakli C) bunday shakl bo'lmagan D) kelasi zamon fe'li shakli

20. Buyruq-istak maylidagi fe'llar qatorini aniqlang.

A) o'qisam, borsak, ko'rmasa B) bildirmoqchi, chaqirmoqchiman, ishlamoqchimiz C) ishlay, boraylik, aytsin D) isidi, ketadi, o'qiyapti

21. Shart maylidagi fe'llarni toping.

A) tozalaysan, yig'ishtirasan, tushuntirasan B) ochilsa, ko'rsangiz, sezmasak C) unutma, uyg'otma, shoshilmaylik D) boryapman, eriyapti, qatnayapti

22. Inson tirik ekan, hech qachon umidsizlanmasligi kerak! Ushbu gapda to'liqsiz fe'l qaysi turkumga oid so'z bilan birga qo'llangan?

A) ot B) ravish C) son D) sifat

23. To'liqsiz fe'llar uchun xos bo'lmagan xususiyat qaysi javobda berilgan?

A) To'liqsiz fe'llar mustaqil ma'noga ega emas. B) To'liqsiz fe'llar otlar bilan ham, fe'llar bilan ham qo'llana oladi. C) Ular bo'lishsizlik, nisbat, zamon kabi ma'nolarga ega bo'la oladi. D) To'liqsiz fe'l uyushiq kesimlar uchun umumiy bo'lganda, oxirgi kesim tarkibida qo'llanadi

24. U imtihonlardan muvaffaqiyat bilan o'tgach, sevinchi ichiga sig'may, uylariga qaytarkan. Mazkur gapdagi to'liqsiz fe'lni toping.

A) To'liqsiz fe'l ishtirok etmagan B) o'tgach
C) sevinchi ichiga sig'may D) qaytarkan

25. U devordan oshib tushdi. Ushbu gapdagi tushdi fe'li qanday fe'l hisoblanadi?

A) mustaqil fe'l B) ko'makchi fe'l C) qo'shma fe'lning tarkibiy qismi D) oshib tushdi birgalikda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi.

26. -ma bo'lishsizlik shakli qo'shimchasi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalariga qanday qo'shiladi?

A) ko'makchi fe'l tarkibida bo'ladi B) etakchi fe'l tarkibida bo'ladi C) ba'zan etakchi fe'lga, ba'zan ko'makchi fe'lga qo'shiladi D) barchasi to'g'ri.

27. Gap bilan ovora bo'lib, kechikib ham qolibman. Ushbu gapdagi qolibman so'zi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) mustaqil fe'l B) qo'shma fe'lning tarkibiy qismi
C) bog'lama D) ko'makchi fe'l.

28. Sifatdoshlar fe'lga xos qanday ma'nolarni ifodalaydi?

A) zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat B) mayl, shaxs-son o'timli-o'timsizlik C) A va B D) barchasi to'g'ri.

29. Sifatdoshning qaysi shakliga bo'lishsizlik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi yuz beradi?

A) -gan B) -(a)r C) -(a)yotgan D) -(a)digan

30. Ravishdoshning sabab ma'nosini ifodalaydigan turi berilgan javobni toping.

A) musiqa tingach, ko'rgani bormoq B) qorong'i tushguncha, yugurib kelmoq C) qo'rqib kirmadi, qaynayvermagach kuchaytirdi D) yig'lay-yig'lay uxlamog, tikilganча o'ylanib qolmoq

31. Quyidagi fe'llarning qay biri otdan yasalgan?

1) tuzlamoq; 2) dodlamoq; 3) yngilamoq; 4) tezlamoq;

5) yaxshilamoq; 6) varaqlamoq; 7) to'g'rilamoq;

8) sekinlamoq; 9) ho'plamoq; 10) qishlamoq..

A) 3,5,7 B) 5, 7, 8 C) 4, 8, 9 D) 1, 6, 10.

32. Quyidagi fe'llarning qay biri undov so'zdan yasalgan? 1) tuzlamoq; 2) dodlamoq; 3) yangilamoq; 4) tezlamoq;

5) yaxshilamoq; 6) varaqlamoq; 7) to'g'rilamoq;

8) sekinlamoq; 9) voyvoylamoq; 10) qishlamoq..

A) 3,5,7 B) 5, 7, 8 C) 2, 9 D) 4, 5, 10.

33. Harakatning kuchsiz darajasi ma'nosini ifodalovchi

-(i)sh qo'shimchali so'zni aniqlang.

A) boshqarishni B) sevishganlar C) uchrashdi D) to'lishdi

34. Qo'shma fe'llarning xususiyatlari noto'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) birdan ortiq asosdan tashkil topadi B) asoslar orasiga boshqa qo'shimchalarni qo'shsa bo'ladi C) bitta so'roqqa javob bo'ladi D) qismlari ajratib yoziladi

35. Qo'shma fe'llar yasalishida ishtirok etadigan so'zlar qaysi javobda berilgan?

A) ket, bor, yur B) qil, et, bo'l
C) o'tir, qo'y, sol D) yubor, chiq, kir

36. Qo'shma fe'llar berilgan javobni toping.

A) oshib qolgan B) yig'ishtirib oldi

C) olib keldi

D) charaqlab ketdi

Ravish turkumi bo'yicha test savollari:

1. Rahim yugurib keldi-yu, birpas nari-beri shoshib ovqatlandi-da, shu ondayoq chiqib ketdi. Ushbu gapdagi yasama ravishlar qaysi qatorda berilgan?

A) yugurib, birpas, shoshib B) yugurib, shoshib, birpas, shuondayoq C) shuondayoq D) birpas, nari-beri, shu ondayoq

2. Chang va tutundan mashina va odamlar zo'rg'a ko'rinar edi. Ushbu gapda qo'llangan ravishning turini aniqlang.

A) holat ravishi B) payt ravishi
C) daraja-miqdor ravishi D) sabab ravishi

3. Salimaning ko'ngli joyiga tushdi va aybdorlarcha tabassum bilan yigitga qaradi. Ushbu gapda ravish qanday vazifada kelgan?

A) hol B) sifatlovchi-aniqlovchi C) ega D) qaratqich-aniqlovchi

4. - Oqizisan, qartasan, axir naslingga tortasan! – dedi kampir omborni qulflayotib (A.Oahhor) Ushbu gapdagi axir so'zi qaysi so'z turkumiga mansub?

A) yuklama B) ravish C) sifat D) modal so'z

5. Dam o'tmay, a'lochi o'quvchilarni birin-ketin nom-banom chaqirishib, xonalarga taklif qilishdi. Shugapdagi ravishlarni toping.

A) dam o'tmay B) nom-banom, birin-ketin C) xonalarga, nom-banom, a'lochi D) dam o'tmay, nom-banom, birin-ketin

6. Kampir xiyla uzoqlashganda, Nurmatjon gichqirdi. Ushbu gapda ravishning qaysi turi mavjud?

A) payt ravishi B) o'rin ravishi
C) daraja-miqdor ravishi D) holat ravishi

7. So'zlarni faqat belgi anglatish xususiyatiga asoslanib, qaysi turkumga ajratish mumkin?

A) sifatga B) songa C) ravishga D) sifat va ravishga

8. Quyida ko'rsatilgan qaysi so'z turkumlariga oid so'zlar juft holda yoki takrorlanib qo'llanishi mumkin? 1) olmosh; 2) son; 3) fe'l; 4) ravish; 5) undov so'zlar; 6) taqlid so'zlar

A) 2,3,4,6 B) 2,3,4,5,6 C) 3,6 D) 1,2,3,4,5,6.

9. O'sha yillar qancha-qancha vatandoshlarimiz qatag'on qilindi. Ushbu gapda qancha-qancha so'zi qaysi so'z turkumiga tegishli?

A) son B) sifat C) ravish D) olmosh

10. Ravish yasovchi qo'shimchalarni toping.

A) -lar, -si, -aki, bad- B) -larcha, -ona, -li, -chi
C) -chi, -cha, -goh, -don D) -cha, -larcha, -lab, -an

11. Quyidagi gapda qo'llangan ravishning tuzilish jihatdan turini aniqlang. Bir talay qushlar donga qarab intildilar.

A) sodda-yasama B) tub C) qo'shma D) otlashgan ravish

12. Berilgan gapdagi ravishning ma'no turini ko'rsating. Ana shu qishloq boshida balandgina bir tepalik bor.

A) tarz(holat) ravishi B) o'rin ravishi
C) ravish berilmagan D) miqdor-daraja ravishi

13. Quyidagi gapda ravish turkumiga xos so'z qanday sintaktik vazifada kelgan? Mehmonni uyga olib kir, men otga picha em tashlab qo'yay.

A) ravish holi B) o'rin holi C) payt holi D) miqdor-daraja holi

14. Berilgan so'zlardan o'rin ravishlarini aniqlang.

A) majburan, tez, uyda B) aniq, mardlarcha, o'rtada
C) pastga, Toshkentdan, o'rtada D) quyi, chetda, oldinga

15. Halitdan vahimaga tushma-ey! Shu gapda tagiga chizilgan so'z qaysi turkumga oid?

A) sifat B) payt ravishdoshi C) modal so'z D) payt ravishi.

16. Ravish berilmagan qatorni toping.

A) so'zma-so'z, B) o'z-o'zidan

C) quruqdan-quruq, D) barchasi ravish hisoblanadi

17. Qaysi qatordagi gapda qo'shma ravish mavjud?

A) Saida yolg'ondan hayron bo'lib qoldi. B) Ko'chada tasodifan Kamolani uchratib qoldim. C) Avaz har gal tog'dan mamnun bo'lib qaytar edi. D) Elmurod akaga mug'ombirona ko'z tashladi.

18. Ravish o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar berilgan qatorni toping.

A) nega, qani B) men, sen C) siz, ular D) qancha, nega

19. Qaysi gapda qo'shma ravish mavjud?

A) Majlis kechroq boshlandi. B) O'quvchilar sayohatga ertaga ertalab ketadilar. C) Har erni qilma orzu, har erda bor tosh-u tarozu. D) Biz do'stona yashaymiz va ishlaymiz.

20. Belgining belgisini bildirgan ravishni toping.

A) Mashina tezroq yura boshladi. B) Oqshom paytida shamol birdan to'xtadi. C) Ra'no majlisda yaxshi gapirdi. D) Uning so'zlari bolalarcha sodda, samimiy, lekin aniq va ravshan.

21. Dam o'tmay o'quvchilarni nom-banom chaqirishib, xonalarga taklif qilishdi. Gapdagi ravishga oid so'zni toping.

A) dam o'tmay B) nom-banom
C) xonalarga D) dam o'tmay, nom-banom

22. Suhbat haqida Aziza keyin uzundan-uzoq so'zlab berdi. Shu gapdagi ravishga oid so'zni toping.

A) so'zlab B) keyin C) uzundan-uzoq D) B, C

23. Intizomsiz kishi hech qaerda muvaffaqiyatga erishmaydi. Ushbu gapda ravishning qaysi turi mavjud?

A) payt ravishi B) o'rin ravishi
C) daraja-miqdor ravishi D) holat ravishi

24. Yaqindan musiqa ovozi eshitildi. Ushbu gapdagi ravishni toping.

A) musiqa B) ovozi C) yaqindan D) eshitildi

25. Qaysi qatordagi gapda -i, -si qo'shimchalari egalik ma'nosini ifodalamaydi?

A) Ona tuni bilan uxlamadi. B) Kechasi yomg'ir yog'di.
C) Berilgan gaplarda egalik qo'shimchalari ifodalanmagan.
D) O'tgan yili hosil yaxshi bo'lgan edi.

26. Qaysi turkum so'zlari ish-harakat va holatning belgisini anglatadi?

A) sifatlar B) ravishdoshlar C) B, D D) ravishlar

27. Yigitning ko'ngli bir oz tinchidi va aybdorlarcha tabassum bilan qizga qaradi. (O) Ushbu gapdagi otga bog'langan ravishni toping.

A) bir oz B) aybdorlarcha C) oz D) A, B

28. Faqat ravishlar berilgan qatorni aniqlang.

A) tiklab, pag'alab, mo'ylab B) qarab, aqrab, mansab
C) yonlab, egatlab, dastlab D) haftalab, kilolab, saharlab

29. Ravishni toping.

A) Pak-pakana bo'yi bor, etti qavat to'ni bor.
B) G'ulomjonning oppoq yuzi issiqdan qizargan edi.
C) Mana, begim, falokat! Bo'ron boshlandi, - dedi yamshik.
D) Vodiylarni yayov kezganda...

30. Quyidagi gaplarning qaysi birida ichida so'zi ravish sifatida qo'llangan?

A) Zaynab uch-to'rt oyning ichida kishi tanimaydigan holga tushgan edi. B) Hakimboyvachcha diqqat bilan ichida o'qir ekan, yuziga tabassum yoyildi. C) Pastqam uylarning qamish va yog'och bo'g'otlari tuman ichida bahaybat ko'rinardi. D) Har uchala gapda ham ravish sifatida qo'llangan.

31. Biz mustaqilligimiz belgilab bergan yo'ldan olg'a boraveramiz. Bu gapda olg'a so'zi qaysi so'z turkumiga mansub?

A) modal so'z B) olg'a boraveramiz birgalikda qo'shma fe'l C) undov so'z D) o'rin ravishi.

32. Yakka holda ishlatilsa ravish turkumiga oid bo'ladigan bog'lovchi berilgan javobni toping.

A) yoki B) ba'zan C) chunki D) B, C

33. Top'adan, yangalardan yashirincha u bilan bir-ikki marta kinoga tushdi (O) gapidagi ravishga oid so'zni toping.

A) bir-ikki marta B) yashirincha C) kinoga D) A, B

34. Fe'llarning o'zaro juftlashishidan qaysi so'z turkumiga oid so'zlar yasalishi mumkin?

A) ot turkumiga oid B) sifat turkumiga oid C) ravish turkumiga oid D) ot, ravish, sifat turkumiga oid so'zlar

35. Kumush uyalgannamo yuzini chetga burdi. Ushbu gapdagi ravishga tegishli so'zlarni toping.

A) chetga B) uyalgannamo C) yuzini D) A, B

36. Bir necha qiz o'z-o'zidan raqsga tushib ketdi. Ushbu gapdagi yasama ravishni toping.

A) bir necha B) o'z-o'zidan C) tushib ketdi D) A, B

Yordamchi so'zlar guruhi bo'yicha test savollari:

1. Yordamchi so'zlarni aniqlang.

A) Inson go'zallik uchun intiladi, yorqin ufqlar sari oshiqadi. B) Zokir ota shubhasiz, tajribali paxtakor, qo'li gul odam.

C) Eh, bugun toqqa ketamiz! D) Xotin yaktakni olib yoniga qo'ydi, aftidan, hozir tikmoqchi emas edi.

2. Yordamchi so'zlarni toping.

A) Asablarning sog'lom bo'lishi uchun badantarbiya bilan shug'ullanish lozim. B) O, qanday chin baxtga to'lg'in bu onlar! C) Munofiqlik va soxtalik do'stlik uchun yotdir. D) A, C.

3. Aziz ham bu savolni kutmaganligi uchun hatto ancha vaqtga qadar javob berolmay qolgan edi.

Ushbu gapda mustaqil lug'aviy ma'no anglatmaydigan nechta so'z bor?

A) 4 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 5 ta

4. Ko'makchilar qaysi kelishiklar qo'shimchalariga sinonim sifatida qo'llanishi mumkin?

A) qaratqich va jo'nalish B) jo'nalish va o'rin-payt

C) o'rin-payt va chiqish D) chiqish, jo'nalish va o'rin-payt

5. Maqsad ma'nosini anglatgan uchun ko'makchisi qatnashgan gapni aniqlang.

A) Anvar yuzidagi kulgini yashirish uchun chetga qaradi. B) Daftarni ukam uchun keltirdim.

C) G'o'za erta ekilgani uchun hosil mo'l bo'ldi. D) Yig'ilish uchun imkon yaralmadi.

6. Ko'makchilar, asosan, quyidagi qaysi so'zlardan keyin kelmasligi mumkin?

A) ot, olmosh B) harakat nomi, sifatdosh C) ravishdosh, otlashmagan so'zlar D) A, B.

7. Vazifadosh ko'makchilar berilgan qatorni toping.

A) Avval o'yla, keyin so'yla. (Maqol) B) Siz bilan hamsuhbat bo'lmasdan avval boshqacha xayolda edim. (O.Y.) C) Usmon Nosir o'z ustida ko'p ishlardi. (O'.Rashid) D) B va C.

8. Sof ko'makchilarning xususiyatlari noto'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A) Bunday ko'makchilar atash ma'nosini tamoman yo'qotgan bo'ladi. B) O'zi birikkan so'zni boshqa so'zga bog'lash uchun xizmat qiladi. C) Bunday ko'makchilar urg'u olmaydi.

D) Ohang tomonidan o'zidan oldingi so'z bilan bir butunlikni tashkil etadi.

9. Fikr mavzusi ma'nosini ifodalaydigan ko'makchilar berilgan qatorni toping.

A) sari, bo'ylab B) tufayli, uchun

C) haqida, to'g'risida D) xususida, o'xshab.

10. Qaysi gapda sof ko'makchi ishtirok etmagan?

A) Toshbaqa uyasi tomon sudraldi. B) Vatan ham Ona kabi qadrlidir. C) Bu uchun hammamiz ancha gap eshitamiz.

D) Yangiliklarni xat bilan ma'lum qilib turamiz.

11. Qaysi gapdagi vazifadosh ko'makchini sof ko'makchi bilan almashtirish mumkin?

A) Gap futbol o'yini ustida ketardi. B) Qoziq ustida qor turmas. (Topishmoq) C) Orqadan chuqur soy oqardi. (SH.) D) A, B.

12. Vazifadosh ko'makchilar berilgan qatorni toping.

A) -la, -chun B) deya, deb, atab

C) haqida, to'g'risida D) qadar, uzra

13. Yozuvda qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi?

A) sabab B) aniqlov C) shartli D) A, B

14. Qaysi ergashtiruvchi bog'lovchilar tarkibida o'zakdosh bog'lovchilar mavjud?

A) sabab B) shart C) aniqlov D) shartli

15. Qaysi bog'lovchilar teng bog'lovchilarga mansub emas?

A) zidlov bog'lovchilar B) ayiruv bog'lovchilar C) bog'lovchi-yuklamalar D) sabab bog'lovchilar

16. Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra...

A) teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi. B) biriktiruv, zidlov, ayiruv bog'lovchilariga bo'linadi. C) birik-tiruv, zidlov, ayiruv, ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi. D) takrorlanadigan va yakka holda qo'llanadigan bog'lovchilarga bo'linadi.

17. Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo... Ushbu misradagi bog'lovchini toping.

A) gar B) ro'yo C) shul D) bog'lovchi berilmagan

18. Bog'lovchilarning qaysi turi gaplarni ham, uyushiq bo'laklarni ham bog'lab kelishi mumkin?

A) faqat ergashtiruvchi bog'lovchilar B) faqat teng bog'lovchilar C) teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar D) gaplarni ham, uyushiq bo'laklarni ham bog'laydigan bog'lovchilar mavjud emas.

19. Biz sayohatga poezdga yoki avtobusda boramiz. Ushbu gapda ayiruv bog'lovchisi qanday bo'laklarni bog'lagan?

A) qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni B) uyushiq bo'laklarni C) turli gap bo'laklarini D) bog'lovchi vazifasini bajarmagan

20. Dam yomg'ir yog'adi, dam havo ochiladi. Bu gap tarkibida bog'lovchining qaysi turi qo'llangan?

A) biriktiruv bog'lovchisi B) zidlov bog'lovchisi C) ayiruv bog'lovchisi D) ergashtiruvchi bog'lovchi

21. Ergashtiruvchi bog'lovchi qo'llangan qatorni toping.

A) Olim sharq xalqlarining madaniyati to'g'risida hurmat va iftixor bilan gapirdi. B) Hozir yo shamol bo'ladi, yo yomg'ir yog'adi. C) Qishloq obod bo'ldi, shuning uchun ko'nglim shod. D) Quyosh dam yalt etib bir ko'rinib qoladi, dam bulutlar ichiga bekinib oladi.

22. O'ktamxon, mening o'rtog'im, juda epchil ayol... kotletni u pishirsin-da, a o'zimizning taomlarni kabob va palovdan tortib, to halimgacha do'ndirib yuboradi. Mazkur gapdagi bog'lovchi vazifasidagi birlikni toping.

A) -da B) a C) va D) to

23. Ham so'zi qanday vaqtda bog'lovchi sanaladi?

A) hamma vaqt B) faqat teng bog'lovchilar o'rnida qo'llanganda C) uyushgan bo'laklarning oxirida takrorlanib kelganda D) faqat uyushgan bo'laklarning oldida kelgandagina bog'lovchi sanaladi

24. Qaysi gapdagi nuqtalar o'rniga ergashtiruvchi bog'lovchini qo'yish mumkin?

A) Osmonni quyuv bulut qopladi ... yomg'ir yog'a boshladi. B) Osmonni quyuv bulut qopladi, ... yomg'ir yog'madi. C) Ichkaridan ovoz eshitilar, ... so'zlari anglashilmas edi. D) Ko'chatlar yaxshi parvarish qilindi,... ular tez o'sa boshladi.

25. O'xshatish-qiyoslash yuklamasi ishtirok etgan gapni toping.

A) Hatto zeb-ziyatni yulqib ziyoda, Haykal ham qo'yingiz bamisli xayol... (A.O.) B) Faqat o'zimizga ayon sirimiz. (E.V.) C) U buni sezmaganday tuyuldi menga. D) A va C.

26. Gumon yuklamasi qaysi qo'shimcha bilan shakldosh?

A) -miz, -siz qatorida turuvchi 3-shaxs qo'shimchasi bilan B) -man, -san qatorida turuvchi 3-shaxs qo'shimchasi bilan

C) fe'llardagi ortirma nisbat qo'shimchasi bilan D) B va C.

27. Gumon yuklamasi qatnashgan gapni toping.

A) Urug'ingdir, aymog'ingdir, Biror og'zi maymog'ingdir... (Masaldan) B) U musobaqa g'olibidir. C) Suv hayot manbaidir. D) A, B, C.

28. Quyidagi yuklamalardan qaysilari so'zga qo'shib yoziladi? 1) -ku; 2) -u(-yu); 3) -da; 4) -oq(-yoq); 5) -mi; 6) -a (-ya); 7) -chi; 8) -gina.

A) 1,2,4,5,8 B) 2,3,5,6 C) 3,4,5,8 D) 4, 5,8

29. Quyida berilgan qaysi turkumga oid birliklarning ba'zilari o'zlari birikib kelgan so'zdan chiziqcha(defis) bilan ajratib yozilishi mumkin?

A) bog'lovchilar B) ko'makchilar C) yuklamalar D) A, C

30. Sizni otasi o'rnida ko'rsag-u, nahotki sizdan beso'roq ish tutsak-a...(A.Q) Ushbu gapdagi yuklamalar miqdorini aniqlang.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

31. Mustaqil so'z turkumlariga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlardan qaysi biri yuklamalarga ham xos?

1) lug'aviy ma'noga egalik; 2) grammatik shaklga egalik;

3) grammatik ma'noga egalik; 4) grammatik vazifaga egalik; 5) gap bo'lagi vazifasida kela olish.

A) 2, 3, 4, 5 B) 2, 3, 4 C) 2, 4 D) 3, 4

32. Bu ko'chada ham faqatgina imorat xolos-da, boshqa hech narsa yo'q-ku. Bu gapdagi yuklamalar sonini aniqlang.

A) 5 B) 4 C) 3 D) 6

33. Qaysi qatordagi so'zlarning ikkinchisi yordamchi so'z hisoblanadi?

A) uyga ketmoq, isib ketmoq B) uying ichi, hafta ichi

C) hafta ichi, uyga ketmoq D) isib ketmoq, hafta ichi.

34. So'zlarga qo'shib yoziladigan yuklamalar berilgan qatorni aniqlang.

A) -chi, -ku, -da B) -a, -yoq, -ya

C) -u, -yu, -da D) -mi, -oq, -gina.

35. O'shanda ham imorat xolos-da, boshqa hech narsa yo'q (A.Q). Ushbu gapdagi yuklamalar miqdorini aniqlang.

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

36. Ota-onang qo'vgan otlariga mag'rur bo'lmagil, bu ot yolg'iz tashqi ko'rinishgina, xolos. Ushbu gapda yuklama vazifasida qo'llangan so'zlarni toping.

A) -gina B) xolos C) yolg'iz D) -gina, xolos

Alohida olingan so'zlar guruhi bo'yicha test savollari:

1. Modal so'zlarning morfologik xususiyatlari qaysi qatorda ko'rsatilgan?

A) kirish so'z vazifasida keladi B) modal ma'nolarni anglatish uchun xizmat qiladi C) morfologik jihatdan o'zgaraydi D) A, B

2. Qaysi gapda modal so'z bor?

A) Balki, uning kimligini aftidan bilsa bo'lar. B) Obbo, yana ish pachava deng. C) Bu yil hamma fanlarni «a'lo» bilan yakunlashim shubhasiz. D) Ofarin, azamatlar, ishni do'ndiribsiz.

3. Qaysi gapda modal so'z bor? 1. So'zsiz, buni hamma biladi-ku! 2. Har bir ishning chamasi bo'ladi, har daryoning kemasi. 3. Yo'lchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan yaqin do'st edi. 4. Mayda-chuyda kamchiliklar topibdi, mazmuni. 5. Axir, xatning mazmuni shunday edi. 6. Tabiiy, Xushro'yning fe'lini yaxshi bilgan ota-onasi unga hech narsani aytmaydi. 7. Siz, balki, mening tilimga tushunarsiz.

A) barcha gaplarda B) 1,2,3,6

C) 1,3,4,5,6 D) 1,3,4,6.

4. Qaysi gapdagi chamasi so'zi gap bo'laklaridan vergul bilan ajratilmaydi?

A) Ertaga havo ochiladi chamasi. B) Kechasi chamasi bir oz yomg'ir yog'di. C) Chamasi Nodir bu gapni eshitdi. D) Uning amasi to'g'ri chiqdi

5. Modal so'zlarning sintaktik belgisi qaysi qatorda berilgan?

A) morfologik jihatdan o'zgarasligi B) undalma vazifasida kelishi C) kirish so'z vazifasida kelishi D) so'zlarni o'zaro biriktirishi

6. Qaysi gapda modal so'z mavjud?

A) Ofarin, azamatlar, ishni do'ndiribsiz. B) Bu yil hamma fanlarni «a'lo» bilan yakunlashim shubhasiz. C) Obbo, yana ish pachava deng. D) gaplarda modal so'z qo'llanmagan.

7. Qaysi qatordagi so'z chamasi modal so'ziga sinonim bo'la oladi?

A) balki B) darvoqe C) tabiiy D) mazmuni

8. Qaysi gapda modal so'z bor? 1. So'zsiz, buni hamma biladi-ku! 2. Ofarin, azamatlar, ishni do'ndiribsizlar. 3. Yo'lchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan yaqin do'st edi. 4. Mayda-chuyda kamchiliklar topibdi, mazmuni. 5. Axir, xatning mazmuni shunday edi. 6. Tabiiy, Xushro'yning fe'lini yaxshi bilgan ota-onasi unga hech narsani aytmaydi. 7. Siz, balki, mening tilimga tushunarsiz. 8. Uning ishlari, aftidan, yaxshi emasga o'xshaydi.

A) 1, 3, 4, 6, 7, 8 B) 1, 3, 4, 5, 6 C) 1, 2, 3, 6, 8

D) berilgan barcha gaplarda

9. Quyidagi gaplardan qaysi birida modal soʻz qoʻllangan?

A) *Ona oʻz oʻgʻlini sevadi faqat. (H.O.)* B) *Yuragimni berib ketsang bas.(Uygʻun)* C) *Hattoki ish shu qadar jiddiy boʻldi.*

D) *Yolgʻiz sensan mening tilagim.*

10. Qaysi qatorda modal soʻz mavjud?

A) *Xayriyat, majlisga Oqilaning oʻzi kirib bormabdi.* B) *Obbo, yana ish pachava deng.* C) *Bu yil hamma fanlarni “aʻlo” bilan yakunlashim shubhasiz.* D) *Ofarin, azamatlar, ishni doʻndiribsiz.*

11. Quyidagi sifatlardan qaysi biri modal soʻz vazifasida qoʻllanishi mumkin?

A) *toʻgʻri* B) *tabiiy* C) *yaxshi* D) *A, B, C*

12. Futuvvat barcha qilmakdur, demak yoʻq. Demak, maktabni bitirib, oʻqishga kirmoqchisan.

Har ikkala gapdagi demak soʻzidan qaysi biri modal soʻz hisoblanadi?

A) *har ikki gapda modal soʻz* B) *birinchi gapda ot, ikkinchisida modal soʻz* C) *birinchi gapda harakat nomi, ikkinchisida modal soʻz* D) *birinchi gapda ot, ikkinchisida kirish soʻz.*

13. Gap tarkibidagi tovushga taqlid bildirgan soʻzlarni toping.

A) *U kishi hingir-hingir kulardi.* B) *... oy tangalari suv betida milt-milt oqadi.* C) *Tun sukunatini ot tuyoqlarining dupuri buzdi.* D) *A va D.*

14. Otlashgan taqlid soʻz qaysi gap tarkibida qoʻllangan?

A) *Yomon ishning oxiri voy.* B) *Mayna uyda yolgʻiz oʻtirib, uy tomini chertayotgan yomgʻirning taqir-tuqurini tinglardi.*

C) *Suvning shildir-shildiri kuchaydi.* D) *B, C.*

15. Davradaqilar shivir-shivir gap boshlashdi. Gapdagi shivir-shivir soʻzi qaysi soʻz turkumiga mansub?

A) *ravish* B) *taqlid soʻz* C) *sifat* D) *modal soʻz*

16. Tovushga taqlidni bildiruvchi soʻz qaysi gap tarkibida qoʻllangan?

A) *Osmonda yulduzlar gʻuj-gʻuj.* B) *Bay-bay, zap choy boʻlibdi-da.* C) *Yalt-yult etib chaqmoq chaqadi.* D) *Koʻchadan mashinalar viz-viz oʻtadi.*

17. «Atrofdagi ovozlarga gala-gala chugʻurchuqlarning vijir-vijiri qoʻshilib ketmoqda» gapidagi taqlid soʻzning turini aniqlang.

A) *holatga taqlid* B) *tovushga taqlid*
C) *harakatga taqlid* D) *koʻrinishga taqlid*

18. Holatga taqlid soʻzlarni toping.

A) *lik-lik, qult, jiq, pix-pix* B) *yilt-yilt, jiq, dik*
C) *gurs-gurs, taq-tuq, lip* D) *tap-tap, gʻiz-gʻiz, hang-mang*

19. Taqlid soʻzlardan qaysi soʻz turkumlarini yasash mumkin?

A) *sifat, ravish* B) *faqat ot* C) *faqat feʻl* D) *ot va feʻl*

20. Har ikkala qismi ham mustaqil qoʻllanmaydigan juft taqlid soʻzlar berilgan qatorni toping.

A) *apil-tapil* B) *hang-mang* C) *taraq-turuq* D) *A va B*

21. Taqlid soʻzlar qanday holda qoʻllanishi mumkin?

A) *faqat yakka holda qoʻllanadi* B) *faqat juft holda qoʻllanadi*
C) *faqat takror holda qoʻllanadi* D) *yakka, juft yoki takror holda qoʻllanadi*

22. Gʻat etgan karnaychi, baloga qolgan surnaychi. Ushbu maqoldagi taqlid soʻzni toping.

A) *etgan* B) *baloga* C) *gʻat*
D) *gʻat etgan birgalikda qoʻshma feʻl*

23. Otlashgan taqlid soʻz ishtirok etgan gapni toping.

A) *Shivir-shivir gaplar toʻxtamadi.* B) *Olomon gʻuv-gʻuv qaynaydi.* C) *Yuragi gup-gup urib ketdi.* D) *Tokchaga in qurgan musichaning gʻuv-gʻuvi eshitildi.*

24. Quyosh damini gʻir-gʻir esgan shamol kesar edi. Mazkur gapdagi gʻir-gʻir soʻzi qanday turkumga mansub?

A) *taqlid soʻz* B) *takror soʻz* C) *holatga taqlid soʻz*
D) *tovushga taqlid soʻz.*

25. Tarkibida his-hayajon undovi boʻlgan gaplarni aniqlang.

A) O'g'lim, umringizdan baraka toping! B) Hay, Oynisa, buvingni chaqir. C) Qumri, axir ukangga qarasang-chi, ichagi uzilib ketdi-ku! D) Voy, nega qulluq qilishar ekan?

26. Tarkibida haydash-chaqirish (buyruq-xitob) undovi bo'lgan gapni aniqlang.

A) Salom, ey yulduzlar, oshnolarim! B) «Chu» deb otini savaladi. C) Er kurrasida qadim-qadim zamonlardan yangragan musiqiy «Qur-ey!» bundan keyin ham tinmaydi.

D) B, C.

27. Ha, albatta, qatnashamiz! E, otangizga rahmat! Barakalla, do'stim! Ushbu matndagi undov so'zlarni toping.

A) ha, albatta, e B) rahmat, barakalla C) e D) e, barakalla, rahmat

28. «O'hho', namuncha katta ketdingiz!» gapidagi undov so'z qanday ma'noni anglatyapti?

A) faxrlanish B) mag'rurlanish C) mensimaslik D) e'tiroz

29. Voy undovi qanday ma'no nozikliklarini bildiradi?

A) havas, zavq B) qo'rquv, alam C) hayrat, ajablanish D) yuqoridagilarning barchasi.

30. Otlashgan undov so'zlar qanday qo'shimchalarni qabul qilmaydi?

A) so'z yasovchi qo'shimchalarni B) kelishik qo'shimchalarini C) egalik qo'shimchalarini D) ko'plik qo'shimchalarini

31. - Hormanglar! - dedi O'lmas baralla. Ushbu gapdagi undov so'zni toping.

A) baralla B) hormanglar C) A,B D) undov so'z berilmagan.

32. Hayvon, parranda kabilarni kelish, ketish, to'xtashga undashni bildiruvchi so'zlar qaysi so'z turkumiga oid?

A) taqlid so'zlar B) modal so'zlar C) undov so'zlar D) fe'l

33. Qulluq, ming marta qulluq, Dilbarxon! Ushbu gapdagi undov so'zlarni toping.

A) ming marta B) qulluq C) marta D) undov so'z berilmagan

34. Otlashmagan undov so'zlar qanday qo'shimchalarni qabul qiladi?

A) so'z yasovchi qo'shimchalarni B) kelishik qo'shimchalarni C) egalik qo'shimchalarini D) ko'plik qo'shimchalarini

35. Bay-bay, qir bag'ri shunday go'zal bo'libdiki! Mazkur gapdagi bay-bay so'zi qanday so'z hisoblanadi?

A) juft so'z B) haydash-chaqirish undovi C) undov so'z D) buyruq-xitob undovi

36. Qaysi gapda, odatda, gap bo'lagi vazifasida qo'llanmaydigan so'z berilgan?

A) O'ng tomonda, jarlikning ustida, bir qo'rg'on ko'zga chalinardi. B) Har yili kuzda, xazonrezlik vaqtida, daraxtzorni aylanib yuraman. C) Eh, tabiat qanday go'zal! D) Anhorni yoqalab hovuz bo'yidagi choyxonaga chiqdik. aaa

Mundarija

Soʻz boshi.....	4
Fanning ishchi dasturi.....	6
<i>Maʼruza matnlari</i>	
1. Kirish. Grammatika. Sintaksisning maqsad va vazifalari.....	16
2. Sintaktik munosabat va sintaktik aloqa.....	23
3. Soʻz birikmasi.....	31
4. Soʻz birikmalarining tasnifi.....	35
5. Gap. Gapning asosiy mantiqiy-grammatik kategoriyalari.....	44
6. Gaplarning tasnifi: gaplarning mazmun koʻra turlari.....	52
7. Gaplarning tuzilishiga koʻra turlari.....	58
8. Gapning sintaktik tuzilishi.....	65
9. Bosh boʻlaklar va ularning ifodalanishi.....	69
10. Ikkinchi darajali boʻlaklar va ularning ifodalanishi.....	74
1. Gap boʻlaklarining oʻrni.....	82
2. 12. Murakkablashgan sodda gaplar va ularning turlari.....	84
13. Bir bosh boʻlakli gaplar.....	94
14. Soʻz-gaplar va ularning turlari.....	102
<i>Amaliy mashgʻulotlar</i>	
1. Sintaktik birliklar, sintaktik munosabat va sintaktik aloqa.....	104
2. Soʻzlarning teng va ergash bogʻlanishi, ergash bogʻlanish turlari.....	105
3. Soʻz birikmasi.....	106
4. Soʻz birikmalarining tasnifi.....	107
5. Gap. Gapning asosiy mantiqiy-grammatik kategoriyalari.....	108
6. Gaplarning tasnifi: Gaplarning mazmuniga koʻra tasnifi.....	109
7. Gaplarning tasnifi: Gaplarning tuzilishiga koʻra tasnifi.....	110
8. Gapning sintaktik tuzilishi.....	111
9. Bosh boʻlaklar va ularning ifodalanishi.....	112
10. Ikkinchi darajali boʻlaklar va ularning ifodalanishi.....	113
11. Gap boʻlaklarining oʻrni.....	115
12. Murakkablashgan sodda gaplar va ularning turlari.....	117
13. Uyushiq boʻlaklar va uyushiq boʻlakli sodda gaplar.....	117
14. Ajratilgan boʻlaklar va ajratilgan boʻlakli sodda gaplar.....	119
15. Undalma va undalmali sodda gaplar.....	120
16. Kirish va kirishli sodda gaplar.....	121
17. Kiritma va kiritmali sodda gaplar.....	121
18. Bir bosh boʻlakli gaplar.....	122
19. Soʻz-gaplar va ularning turlari.....	123
20. Nazorat savollari.....	124
21. Yakuniy xulosali glossariy.....	133
22. Fan boʻyicha oʻz echimini kutayotgan ilmiy muammolar.....	143
23. Informatsion taʼminot.....	144

VI SEMESTR
ONA TILI VA ADABIYOT (SINTAKSIS) FANIDAN MA'RUZA
MASHG'ULOTLARI

Kirish. Grammatika.Sintaksisning maqsad va vazifalari.sintaktik birliklar.

Ajratilgan vaqt : 2 soat

Reja:

1. Grammatika terminining qisqacha tarixi .
2. Grammatikaning o'rganish ob'ektlari.
3. Grammatikaning umumiy xususiyati.
4. Grammatikaning tarkibiy qismlari.
5. Sintaksisning maqsad va vazifalari.
6. Sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar
7. So'z birikmasining ta'rifi, tasnifi, tavsifi.

Tayanch tushuncha va atamalar:

Tilning tarkibiy qismlari va tilshunoslikning bo'limlari. Grammatika, grammatikaning ma'nolari. Grammatika fani: grammatik ma'no va grammatik shakl, «Hozirgi o'zbek adabiy tilining grammatikasi» tushunchasi, morfologiya, morfologik hodisalar, morfologik ma'no, so'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari,so'z shakllari; sintaksis, so'zlarning o'zaro bog'lanishi, sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar, tilda mazmun va shakl, sub'ektili, ob'ektili, atributiv, relyativ munosabat, tenglik va tobelik, predikativlik va nopredikativlik,so'z birikmasi, gap, qo'shma gap, matn.Sintaktik qurilma va ularning tiplari, so'z birikmasi komponentlari va mustaqil so'zlar, tobe so'zning grammatik shakli, hokim so'zning grammatik shakli, tobe va hokim so'zning ifodalanishi, tobe va hokim so'z gap tarkibida; yaxlit, bo'linmas ma'no ifodalovchi bog'lanmalar: lug'aviy birikmalar va so'zshakllar. Shakl, tuzilish, shakliy soddalik va murakkablik, mustaqil so'z turkumi, otli birikmalar, fe'lli birikmalar, ravishli birikmalar, sintaktik vazifasiga, aniqlovchili, to'ldiruvchili, holli birikmalar.

1- savol bayoni:

Grammatika yunoncha «grammatike» so'zidan olingan bo'lib, aslida "yozish san'ati" ma'nosini bildiradi. Manbalarga qaraganda, u qo'shma so'zlar tarkibiga kiradi. (1-89-b): gramma – yozuv belgisi, chiziq degani. Fonogramma, telegramma, stenogramma so'zlari tarkibida bor.

Demak, grammatika hozirgi grammatika darajasiga ko'tarilguncha, uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini boshidan kechirgan. Dastlab u, darhaqiqat, yozuv tilini tekshirish bilan shug'ullangan. Shu sababli ham u "yozuv san'ati" ma'nosini bildirgan. Biroq ijtimoiy hayot va fan taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda grammatika tushunchasining doirasi kengayib, yozuvi bo'lmagan jonli tillarni ham tekshira boshlagan, lekin nomi o'zgarmagan. Biz bu erda shakl va mazmun nomutanosibligini ko'ramiz. Shunday qilib, grammatikaning ma'nosi ham, uning o'rganish ob'ekti ham kengayib, tilshunoslik fanining muhim tarkibiy qismini anglatadigan atamaga aylana bordi va bir tildagi so'zlarning tuzilishi, gapda so'zlarning o'zgarishi va birikishi kabi masalalarni o'rgana boshladi. Grammatika endi tilning muhim xususiyatlarini o'rganuvchi ilmning nomi sifatida til qonunlarini, til bilan tafakkurning o'zaro munosabatlarini, til taraqqiyoti jarayonida bo'ladigan turli o'zgarishlar, hodisalarni nazariy o'rganib, umumlashtira boshladi. Bu esa tilning amaliy jihati uchun ham katta ahamiyatga egadir. Har bir tilning asosi uning fonetik tizimi, leksikasi va grammatikasidir. Grammatika vositasida kishilar o'z fikrlarini gap orqali ifodalaydilar. Gap, odatda, bir-biri bilan o'zaro bog'langan so'zlardan tashkil topadi. Demak, yakka holdagi so'zlar mustaqil, ayrim ma'nolarni ifodalay olsa ham, ular nutqda chambarchas bog'langan holda faoliyat ko'rsatadi. Ular yolg'iz holda, odatda, bir butun fikrni ifodalay olmaydi. Masalan: ko'katlar, shamol, silkitmoq

so'zlarining har biri alohida ma'noga ega bo'lsa ham, aniq bir fikrni ifodalamaydi. Lekin ularni grammatik qonun-qoidalar asosida bog'lab, "Shamol ko'katlarni silkitdi"desak, ma'lum fikr ifodalanadi. Ko'rinadiki, grammatika, birinchi galda, fikrning ifodalanishi uchun, demak, gapni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Binobarin, grammatika, har qanday so'zlarni emas, balki gap tarkibidagi so'zlarni va bu so'zlarning o'zaro birikishi natijasida hosil bo'ladigan bog'lanmalar: so'z birikmasi va gaplarni o'rganadi. Gap tarkibidagi so'zlar gapdan tashqaridagi so'zlardan farq qilib, gap bilan bog'liq belgi-xususiyatlarga ega bo'ladi. Gapdan tashqarida so'z leksikologiya aspektida qaralib, tub va yasama so'z holatida lug'aviy ma'no ifodalasa, gap tarkibida muayyan grammatik ma'no va vazifa bajarish uchun muvofiqlashadi: muayyan grammatik (morfoloqik va sintaktik) ma'no ifodalovchi semantik-sintaktik elementga aylanadi. Bu ularning muayyan sintaktik birikmalarda muayyan morfoloqik shakllarda kelishida o'z ifodasini topgan.

Muhokama uchun savollar:

1. Grammatikani keng va tor ma'noda tushunish.
2. Grammatikaning tarkibiy qismlari, ularning o'zaro bog'liqligi va farqi.
3. Sintaksis nutq birliklarini o'rganishi kerakmi, til birliklarini o'rganishi kerakmi?
4. Grammatikaning umumiyliqi nimada?

2- savol bayoni :

Grammatika so'zlarning umumiy ma'nolari, so'zlarning o'zgarishi, gapdagi munosabati, o'zaro bog'lanishi haqidagi qoidalardan iborat bo'lib, u tilning ichki xarakterini, holatini ko'rsatadi. Adabiy tilni yaxshi egallash, fikrni aniq, ravshan tushuntirish, adabiy tilda so'zlashish uchun tilning lug'at tarkibi bilan birga grammatikasini puxta bilish zarur. Tilning so'z boyligini, so'zlarning to'g'ri va turli ko'chma ma'nolarini, uslubiy imkoniyatlarini, shuningdek, grammatik hodisalar, qonun-qoidalarni o'zlashtirmay turib, tilni mukammal egallash mumkin emas.

Har bir tilning leksikasi va frazeologiyasi uning lug'aviy birliklarini tashkil qiladi. Lug'aviy birliklar gap tarkibida doimo o'zaro bog'langan holda bo'ladi, bu esa ularning muayyan shakllarda kelishini taqozo qiladi. Shu ma'noda leksikologiyada leksemalar, lug'aviy ma'no birliklari o'rganilsa, grammatikada so'zlarning umumiy leksik-grammatik kategoriyalari, so'zlarning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan so'z-shakllar, so'zlarning o'zgarishini ta'minlovchi omillar, so'zlarning bog'lanishi, buning natijasida yuzaga keladigan bog'lanmalar, bu jarayonni yuzaga keltiruvchi omillar, qonun-qoidalar, usullar o'rganiladi.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1.1. Grammatika nimalarni o'rganadi?
- 2.1.2. Morfoloqiya va sintaksis nima uchun grammatikaning tarkibiga kiradi?
- 2.1.3. Morfoloqiya va sintaksisning o'zaro bog'liqligi nimalarda ko'rinadi?
- 2.1.4. Morfoloqiya nimalarni o'rganadi?
- 2.1.5. Sintaksis nimalarni o'rganadi?
- 2.1.6. Sintaktik birliklar qaysilar?
- 2.1.6. Sintaktik birliklar qanday xususiyatlarga ega?

3-savol bayoni:

Tilning tovush tizimi va lug'aviy sathi uning aniq, bevosita seziladigan, o'qilaib, anglanadigan tomonlaridir. Bunda tilning tovush tomoni uning ma'nosiz tomoni bo'lsa, leksika uning ma'noli tomonidir. Biroq tilning ma'noli tomoni ma'nosiz tomonisiz voqelana olmaydi, moddiylik kasb etmaydi. To'g'ri, leksika yozma shaklda ham moddiylik kasb etadi, biroq hozirgi yozuvlarni tovushlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning fonetik (tovushli) yozuv deyilishi ham shundan. Bu holda tovush tizimi, ta'bir joiz bo'lsa, harfning «ma'nosidir» Demak, yozuv tovush tomoni tufayli mavjuddir. Binobarin, til ma'noli tomonining ikki xil shakli bordek tuyulsada, bu ikki shakl aslida bir hodisaning ikki ko'rinishi bo'lib, bu ko'rinishning biri ikkinchisi asosida yuzaga kelgan. Boshqacha aytganda, ular til ma'noli tomonining o'ziga xos farqli ikki ko'rinishi emas. So'zlarning yozma shakli tovushsiz alohida yashash imkoniyatiga ega emas, ular tovushsiz o'z kuchi, ahamiyatini yo'qotadi. Xullas, yozuv tilning fonetika yoki leksika singari mustaqil

sohasi emas, balki ularning «soyasi»dir. Fonetika va leksika uchun bu «soya»ning bo'lishi-bo'lmasligining ahamiyati yo'q, biroq «soya» uchun ularning bo'lishi shart. Shu bilan birga, bu «soya» tovush tizimi va leksikaning tilning aniq, konkret mohiyatga ega tomonlaridan ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Tilning tovush tomoni va leksikasiga konkretlik, aniqlik xarakterli bo'lsa, tilning grammatikasi uchun mavhumlik va umumiylik xosdir. To'g'ri, grammatik shakllar aniq, konkret, biroq bu aniq shakllarning ma'nosi leksik ma'noga nisbatan umumiyliigi, mavhumligi bilan xarakterlanadi. Chunki grammatik shakl va grammatik ma'no bir so'zni nazarda tutmay, u yoki bu turkum, guruhga oid so'zlarga taalluqlidir. Jumladan, so'zlarning o'zgarishi, birikishi haqidagi har bir qoida ma'lum bir so'zning o'zgarishi, bog'lanishigagina emas, balki shu turkumdagi yoki shu guruhdagi barcha so'zlarga, chunonchi, otlarga yoki otlashgan so'zlarga xos grammatik qoida bo'lib umumlashadi. Masalan, otlardagi kelishik, egalik, son, fe'llardagi zamon, nisbat, mayl, shaxs-son; sifat va ravishlardagi daraja kabilar yoki ega yoki kesim, ergash, bosh gap kabi hodisalar muayyan bir so'z, gapga xos emas, balki bir necha yoki bir turkumga xos umumlashgan grammatik hodisalardir.

Grammatika muayyan bir predmet nomi bilan qiziqmaydi. Grammatika predmetning og'ir-engilligi, rangi, to'g'ri-egriligi, qattiq-yumshoqligi, uzun-qisqaligi va boshqa xususiyatlarni nazarda tutmaydi. Grammatika uchun er, osmon, daryo, daraxt, suv, tuproq, odam, quvonch, do'stlik kabi so'zlarning umumlashgan, mavhumlashgan grammatik xususiyati muhimdir (bularning umumiy belgisi predmet yoki hodisa, munosabatning umumiydashgan nomini anglatishdir), shuning uchun grammatika bu so'zlarni ot kategoriyasi doirasida umumlashtiradi va shu yo'sinda o'rganadi.

Demak, so'zning aniq, bevosita uqiladigan ma'nolari uning leksik-lug'aviy sathiga oid bo'lsa, uning ana shu aniq ma'nosi asosidagi mavhum, umumiy ma'nosi grammatika sathiga oiddir. Biz buni grammatikaning o'rganish ob'ekti bo'lgan har bir hodisada, jumladan, so'z birikmasi komponentlarining o'zaro bog'lanish usullarida ham ko'ramiz. Moslashuv, boshqaruv, bitishuv deb atalgan bu usullar chegaralanmagan miqdordagi so'zlarning bog'lanish xususiyatlarini o'zlarida aks etiradi. Jumladan, moslashuv mening daftaram, shoir qalbi, uzukning ko'zi, futbolchining harakati, gapning bo'lagi, kostyumning tugmasi, qovunning ta'mi kabi cheksiz miqdordagi birikmalarning bog'lanish xususiyatlarini bildiradi.

Muhokama uchun savollar:

3.3.1. Grammatik ma'noning umumiyliigi nimalarda ko'rinadi ?

3.3.2. Grammatikaning o'ziga xos xususiyati nimada ?

3.3.3. Umumiyliigiga ko'ra morfologik ma'no va sintaktik ma'noning farqi nimalarda ko'rinadi?

4- savol bayoni:

Biz yuqorida ko'rdikki, grammatikaning o'ziga xosligi leksikadan farqlanuvchi tomoni uning umumiyliigi, umumlashma xarakterda ekanligidadir. Biroq bu umumiylik chek-chegarasiz, bilib bo'lmaydigan, tushunib bo'lmaydigan umumiylik emas. Grammatikadagi umumiylik ma'lum shakllardagi, daraja va chegaradagi umumiyliklardir. Ularning ayrimlari muayyan tur, guruhga oid umumiyliklar bo'lsa, ba'zilar bir necha tur, guruhga oid umumiyliklardir. Ular orasida umuman tilga oid umumiyliklar ham bor. Ana shu umumiyliklar xarakteriga ko'ra grammatika ikki qismga bo'linadi: morfologiya va sintaksis. Morfologiya grammatikaning quyi darajadagi umumiyliklarni o'rganadigan qismi va shunday umumiylik darajasidagi hodisalardir. Morfologiya so'zlarning birikish qonuniyatlari, usullari va bu birikish natijasida yuzaga keladigan hodisalarni emas, birikishgacha va birikishga tayyor bo'lgan umumiyliklarni o'rganadi. So'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari-so'z turkumlari, so'zlarning ma'noli qismlari, so'z shakllari, ularning hosil bo'lish yo'llari ana shunday hodisalardir. Morfologiyada gap tarkibidan ajratib olingan so'zlarning va so'z-shakllarning belgi-xususiyatlari tekshiriladi. Buning sababi shuki, morfologiyada tilning leksik sathi bilan bog'liq umumiyliklar ham va sintaktik sath bilan bog'liq umumiyliklar ham va shu bilan birga ayni morfologiyaning o'zi uchungina xos bo'lgan hodisalar uyg'unlashgandir. Masalan, kitobga so'z shakli morfologik nuqtai nazardan ot (predmetning nomi) predmet tushunchasi bilan bog'liq, kitob o'zak; -ga qo'shimcha, konkret ot, yakka ot, turdosh ot, birlikdagi ot, sanaladigan ot, tushum kelishigidagi ot tavsifiga egadir. Bu erda kitobga so'zining predmet ma'nosini anglatishi, «predmet» tushunchasi bilan bog'lanishi uning leksik sath bilan aloqador jihati bo'lsa, tushum

kelishigidagi ot ma'nosi uning sintaktik sathga aloqador xususiyatidir, boshqa belgi-xususiyatlari morfologiyaning o'zi bilan bog'liq ma'nolaridir. Demak, morfologiyada uch xil umumiylik mujassamlashgan. 1. So'zning bevosita nimani anglatishi, bildirishi, bilan bog'liq leksik satxga aloqador umumiy ma'nosi (predmet, belgi, miqdor, harakat kabilar). 2. So'zning boshqa so'zlar bilan aloqasi, bog'lanishi bilan bog'liq sintaktik sathga aloqador munosabat, bog'lanish holati bilan izohlanuvchi umumiy ma'nosi. 3. Ayni morfologiya bilan izohlanuvchi umumiy ma'noxususiyatlar. Shu ma'noda morfologiya, leksika va sintaksis orasidagi oraliq shakllarni o'rganuvchi oraliqdagi sohadir. Uning o'ziga xosligi ham shundadir.

Grammatikaning ikkinchi qismi sintaksis esa yuqori darajadagi umumiyliklarni o'rganadi. So'zlarning birikish yo'llari, sintaktik aloqa va munosabatlar, bular natijasida yuzaga keladigan hodisalar: so'z birikmasi, so'z tizmasi, gap, gap bo'laklari, qo'shma gaplar, murakkab sintaktik birliklar kabilar shular jumlasidandir. Sintaksisning o'ziga xos xususiyati uning mustaqil hodisalarning birikishi, o'zaro munosabati, aloqasi bilan bog'liq hodisalar bilan shug'ullanishidir. Shuning uchun ham u so'zdan, so'z-shakldan yuqori turadigan umumiyliklarni o'rganadi. Ularni umumiy lashtiradi, umumiy qonuniyatlarni yoritadi .

Muhokama uchun savollar:

4.1.1. Morfologiyaning o'rganish ob'ektlari nimalardan iborat?.

4.1.2. Sintaksis nimalarni o'rgatishi kerak ?

4.1.3. Morfologiya va sintaksisning o'zaro aloqadorligi va farqini asoslang.

5-savol bayoni:

Sintaksis grekcha syntax so'zidan olingan bo'lib, tuzish degan ma'noni bildiradi. Shundan ham ko'rinib turibdiki, sintaksis tayyor, avvaldan mavjud bo'lgan narsalarni emas, nutq jarayonida tuziladigan, hosil qilinadigan birliklarni o'rganadi. Sintaksisning o'rganish ob'ektlari mohiyat e'tibori bilan kamida ikki mustaqil so'zdan yoki kamida ikki xil hodisaning birikuvidan hosil qilingan tuzilma, bog'lanma xususiyatiga ega bo'lishi va bu bog'lanmalar ham bizning xotiramizda saqlanmagan bo'lishi, ayni nutq jarayonida hosil qilinishi lozim. Bu talabga javob bermagan til hodisalari, garchi ular tashqi jihatdan ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan bo'lsa-da, sintaksisning ob'ekti bo'la olmaydi. Shu sababli, so'z birikmasi va gapga har qancha o'xshash bo'lmasin, iboralar, birikmali terminlar, qo'shma so'zlarning barcha turlari, turli xil analitik shakllar sintaksisning o'rganish ob'ekti hisoblanmaydi. Sintaksis jonli nutq jarayonida hosil bo'lgan birikmalar, bog'lanmalar, tuzilmalarnigina tekshiradi. Bunday tuzilmalarning hozirgacha aniqlangan turlari to'rtta: so'z birikmasi, gap(sodda gap), qo'shma gap, mikro matn. Xuddi shu tuzilmalarga qarab sintaksis so'z birikmasi sintaksisi, sodda gap sintaksisi, qo'shma gap sintaksisi, mikro matn sintaksisiga bo'linadi.

Sintaksisning o'rganish ob'ektlari bevosita nutq jarayonida hosil qilinishi tufayli sintaksis ana shu jarayonni o'rganishga ham alohida diqqat qiladi. Boshqacha aytganda, sintaksis nutq jarayonida hosil bo'lgan tuzilmalarnigina emas, bu tuzilmalarning hosil bo'lish jarayonini ham o'rganadi. Shu sababli sintaksis nutq jarayonida so'zlar, gaplar qanday bog'lanadi, bu bog'lanish jarayonlari qanday kechadi, bu jarayonda qanday hodisalar, o'zgarishlar ro'y beradi? degan savollarga ham javob beradi. Keyingi paytda bu jarayonlar haqidagi ma'lumotlar sintaktik aloqa va munosabatlar rubrikasida alohida o'rganilmoqda va sintaktik birliklarni o'rganishdan oldin berilmoqda. Bu bejiz bo'lmay, sintaktik aloqa va munosabatlarning barcha sintaktik birliklarga taalluqli ekanligi bilan belgilanadi. Zero, har qanday sintaktik tuzilma u yoki bu sintaktik aloqamunosabat natijasida yuzaga keladi. Demak, sintaksisda so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap, mikro matn kabi sintaktik birliklar bilan birga, bu birliklarning yuzaga kelish jarayonlari, sintaktik aloqa va munosabatlar ham o'rganiladi. Sintaksisning vazifalari ham shulardan kelib chiqadi. Bu vazifalarning asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. So'zlarning o'zaro bog'lanish usullari va vositalarini o'rganish.
2. Sintaktik aloqa va uning tur va tiplarini o'rganish.
3. Sintaktik munosabat va uning turlarini o'rganish.
4. So'z birikmasi, uning tur va tiplarini o'rganish.
5. Gap va uning grammatik kategoriyalarini o'rganish.
6. Gaplarni tasnif qilish.

7. Sodda gaplarni, ularning tur va tiplarini o'rganish.
8. Qo'shma gaplarni, ularning tur va tiplarini o'rganish.
9. Sodda va qo'shma gap oralig'idagi sintaktik tuzilmalarni o'rganish.
10. Matn va matnning hosil bo'lishi, matn turlari, matn grammatikasini o'rganish.
11. Sintaktik birliklarda tinish belgilarining roli va ularning ishlatilish o'rinlarini o'rganish kabilar.

Bu hodisalar orasida gapni o'rganish asosiy o'rin tutadi. Chunki gap fikr ifodalovchi asosiy sintaktik birlikdir. Sintaksisni o'rganishdan maqsad esa mustaqil fikr ifodalash va fikrlarni maqsadga muvofiq shakllantirishni o'rganish, fikrni har xil shakllarda ifodalashga ko'nikma hosil qilishdir. So'z birikmasi gapning tarkibiy qismi sifatidagi sintaktik birlik hisoblanadi. So'z birikmasi mustaqil sintaktik birlik emas. Qo'shma gap ham gap bilan bog'liq asosiy grammatik xususiyatlarga ega. Mikromatn turli gaplarning bir mavzu, g'oya atrofida uyushishidan, birlashishidan hosil bo'ladi. Demak, gap sintaksisda markaziy o'rin tutuvchi, boshqa sintaktik birliklarning mohiyatini belgilashda qatnashuvchi markaziy masaladir. Shu sababli ba'zilar sintaksisni gap haqidagi ta'limot ham deyishadi. Shu ma'noda sintaksisni o'rganishdan maqsad gapni o'rganishdir, deyish mumkin. Ammo gapni nimaga o'rganamiz, degan savol ham bor. Biz gapni fikrni to'g'ri, maqsadga muvofiq ifodalash uchun o'rganamiz. Gap tuzish qonun-qoidalarini o'rganish har bir talabning oldida turgan muhim vazifadir. Bunda bizga yordam beruvchi asosiy fan sintaksisdir.

Demak, biz sintaksisni mohiyat e'tibori bilan fikrlash mohiyatini o'rganish, fikrimizni yaxshi, to'g'ri, chiroyli, maqsadga muvofiq ifodalashga ko'nikma hosil qilish uchun o'rganamiz. Sintaksisning oldiga qo'yilgan vazifalar ham ana shu bosh maqsadga bo'ysundirilgan va shunday bo'lishi lozim. Aks holda, u o'zining vazifasini to'liq bajarmagan bo'ladi.

Muhokama uchun savollar:

1. Sintaksisda nimalar o'rganiladi?
2. Sintaksisning asosiy o'rganish ob'ekti nima?
3. Gap nima uchun asosiy sintaktik birlik hisoblanadi?
4. Gapni o'rganishdan maqsad nima?

6-savol bayoni:

1. Sintaktik birliklar – so'z birikmasi, gap va matnning mohiyatini bilib olish ularni tashkil etuvchi qism – bo'laklarning belgi xususiyatlarini o'rganishni taqozo qiladi. Qismlar belgi-xususiyatlari doirasida ularning o'zaro munosabati va aloqasi masalasi muhim o'rin tutadi. Zero, sintaktik butunliklar yoki birliklar ayni qismlarning o'zaro munosabati va aloqasi natijasidagina yuzaga keladi. Sintaktik birliklar qismlarining (so'z, gap bo'lagi, sodda gap, qo'shma gaplarning) mazmuniy munosabati kishi ongida aks etgan moddiy dunyodagi elementlarning o'zaro munosabatini aks ettiradi. Masalan, predmet va uning belgisi (ta'mi-mazasi, rangi, miqdori va boshqa xususiyati) o'rtasidagi munosabat, harakat va uning belgisi (tarzi, sababi, o'rni, payti va shu kabilar) o'rtasidagi munosabat, harakat va uning sub'ekti o'rtasidagi munosabat, harakat va uning ob'ekti o'rtasidagi munosabat va boshqalar. Demak, sintaktik munosabat sintaktik birliklar komponentlarining o'zaro mazmuniy munosabatini ifodalovchi sintaktik kategoriyadir. Mazmuniy sintaktik munosabatlarni umumlashtirgan holda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Sub'ekt va predikat munosabati yoki sub'ekтли munosabat.
2. Belgi va predmet o'rtasidagi munosabat yoki atributiv munosabat.
3. Belgi bilan harakat o'rtasidagi munosabat yoki relyativ munosabat.
4. Predmet (ob'ekt) va harakat o'rtasidagi munosabat yoki ob'ekтли munosabat.

Sub'ekтли munosabat sub'ekt va uning harakati munosabatidir. Bu munosabat ikki xil bog'lanish orqali ifodalanadi. Birida ega va kesimning moslashuv yo'li bilan bog'lanishi orqali ifodalanadi. Masalan: Behzod kelyapti. Ikkinchisida esa sub'ektni bildiruvchi qism qaratqich aniqlovchi shaklida, qaratuvchi predmetni bildiruvchi qism egalik shaklida qaralmish vaziyatida keladi. Demak, qaratuvchi va qaralmishning moslashuv aloqasi orqali ifodalanadi. Masalan : Otamning xotirasi .

Anglashiladiki, sub'ektlilik munosabat borliqdagi ma'lum holat- vaziyatni aks ettiradi va tilning ikki xil birligi orqali ifodalanadi : a) gap orqali (ega-kesim orqali); b) so'z birikmasi orqali (qaratuvchi va qaralmish orqali). Sub'ektlilik munosabatning bu ikki turini farqlash uchun ega-kesim munosabati orqali ifodalangan sub'ektlilik munosabatni predikativ, qaratuvchi-qaralmish munosabati orqali ifodalangan sub'ektlilik munosabatni nopredikativ (muvofiqlashuv) munosabati terminlari bilan atash mumkin.

Relyativ munosabat bir qancha semantik modellarga ega :

1. Harakat-uning sifat yoki miqdor tavsifi (tez gapirmoq, ko'p o'ylamoq).
2. Harakat-uning yuzaga chiqish o'rni (Toshkentdan kelmoq, Germaniyada ishlamoq).
3. Harakat yoki belgi- uning yuzaga chiqish payti (Tushda kelmoq, hamisha baxtiyor);
4. Harakat yoki belgi-uning yuzaga chiqish sababi (Betobligi uchun bora olmadi yoki betobligidan bora olmadi, mehribonligi uchun hurmatli);
5. Harakat-uning yuzaga chiqish maqsadi (davolanish uchun bordi, o'qish uchun keldi va boshqalar.)

Atributiv munosabat belgi-predmet semantik modelidagi so'z birikmasi uchun xosdir: oq ko'ylak, yaxshi inson, to'rtinchi sinf kabilar. Shoir Abdulla Oripov tipidagi birikmalar ham atributiv munosabatning bir turidir.

Ob'ektlilik munosabat ob'ekt-predmet, predmet-belgi (chog'ishtiruv birikmalarda: Dadamdan katta, Anvardan kuchli va boshqalar) semantik modellaridagi so'z birikmalarida ifodalanadi. Demak, sintaktik munosabat turlari bilan ularning ifodalanishi o'rtasida nomutanosiblik bor. Bir sintaktik munosabat ikki va undan ortiq shakllarda ifodalanishi mumkin. Bu tildagi shakl va mazmun nomutanosibligining bir ko'rinishidir. Bulardan tashqari, undalma, kirish, kiritma orqali ifodalangan sintaktik munosabat turlari ham borki, bu mazmuniy munosabat yuqoridagi mazmuniy munosabatlardan farqlanadi. Bu undalma orqali ifodalangan predmetning (tinglovchining) gap (jumla) orqali ifodalangan mazmun bilan va kirish, kiritma orqali ifodalangan mazmun bilan jumla mazmuni o'rtasidagi sintaktik munosabatlardir.

Atributiv, relyativ, ob'ektlilik, sub'ektlilik munosabatlar gapning sintaktik tuzilishi orqali ifodalangan mazmunning ikki birligi o'rtasidagi munosabat bo'lsa, kirish, kiritma, undalma bilan jumla o'rtasidagi munosabat, jumla mazmuni bilan so'zlovchi, tinglovchi o'rtasidagi munosabatdir. Birinchi tipdagi munosabat o'zining shakliy bog'lanish vositalari va usuliga ega bo'lsa (moslashuv, boshqaruv, bitishuv), ikkinchi turi bunday xususiyatga ega emas. Shuning uchun keyingi tip gap bo'laklari bilan grammatik aloqa qirishmaydigan unsurlar hisoblanadi. Ular so'zlovchining munosabati bilan bog'liq bo'lganligi sababli sub'ektiv munosabat ham hisoblanadi. Birinchi tip esa ob'ektiv munosabatdir.

Har qanday sintaktik birliklar qismlarining o'zaro mazmuniy munosabati o'zining shakliy bog'lanish vositalariga va bog'lanish usuliga ega. Ayni shu hodisa sintaktik aloqa timsolida namoyon bo'ladi. Demak, sintaktik aloqa o'zaro mazmuniy munosabatda bo'lgan sintaktik birliklar qismlarining so'z birikmasi, gap va matn tarkibida shakliy bog'lanishidir. Bu shakliy sintaktik munosabat ham deyiladi. Demak, sintaktik aloqa u yoki bu mazmuniy munosabatdagi qismlarning o'zaro bog'lanishini ifodalovchi sintaktik tushunchadir. Sintaktik aloqa ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida ro'yobga chiqadi. Bunday vositalar sintaktik aloqa vositalari deyiladi .

O'zbek tilining qonun-qoidalarida asosida ma'lum bir so'z yoki so'zlar guruhini bog'lab, nutqning mustaqil (sodda, qo'shma gaplar va mikro matn) va nomustaqil xususiyatga ega bo'lgan birligi sifatida shakllantiruvchi va ularni bog'lovchi vositalar sintaktik aloqa vositalari hisoblanadi. Hozirgacha quyidagi sintaktik aloqa vositalari aniqlangan:

1. So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar. Bular kelishik, egalik, shaxs-son qo'shimchalaridan iboratdir.

So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar. 1-jadval

Kelishiklar		Egalik qo'shimchalari.			Shaxs - son qo'shimchalari		
Nomi	qo'shim	Shaxs	Birlik	Ko'plik	Shaxs	1-tur	2-tur

	chasi						
Bosh k.	O	1-sh.	-m,-im	-miz -imiz	1-shaxs	-m, -k	-man -miz
Qarat qich k.	-ning						
Tushum k.	-ni	2-sh.	-ng-ing	-ngiz -ingiz	2-shaxs	-ng -ngiz	-san, -siz
Jo'nalish.k.	-ga -ka -qa						
O'rin-payt.k	-da	3-sh.	-i, -si	-lari	3-shaxs	0,-lar	o,-lar
Chiqish k.	-dan						

1. Bulardan egalik va shaxs-son qo'shimchalari bog'li nutqda mustaqil so'zlarni o'zaro sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar sanalsa, kelishik qo'shimchalari bundan tashqari, ergash gaplarning bosh gapga bog'lanishida ham ishtirok etadi. Qiyoslang: Universitetda o'qiyman. Universitetda o'qiyotganimda, akam mendan doim xabar olib turdi.

2. Fe'l shakllarini yasovchi qo'shimchalar: -r, -ar, -gan, -b, -ib, -gach,-guncha, -gani, -sa kabilar. Bular ko'proq ergash gaplarning kesimi vazifasida kelib,ularni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi. Bunda ulardan ayrimlari, xususan, sifatdash yasovchi -r, -ar, -gan, -yotgan qo'shimchalari to'liqsiz fe'l (edi, ekan) yoki kelishik qo'shimchasi, asosan – o'rin-payt kelishigi shakli yoki ko'makchilar bilan birga keladi. Masalan: Nigora biznikiga tez-tez kelib turgani uchun, onam hammani ularnikiga borishga majbur qilar edi. Chet el tovarlari har yoqni to'ldirib, kosiblarning bozori kasod bo'ldi. Er to'ymaguncha, el to'ymas. Otasi o'sha kuni ham kelmagach, ularni vahima bosdi. Borsam, yo'q ekansiz. Hozir mamlakatimizning qaysi burchagiga bormang, u erda bunyodkorlik ishlarining avj olganiga guvoh bo'lasiz. O't o'chiruvchilari etib kelguncha uy yonib, kul bo'lgan edi.

3. Ko'makchilar. Ko'makchilar ham xuddi so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar singari gap bo'laklarini va qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vosita hisoblanadi. Masalan: Paxta mashina bilan terilganda, o'z xususiyatini birmuncha yo'qotadi. Sen uchun hech narsamni ayamayman. Shisha bo'shagan sayin, Saidiy o'zini Salimxonga yaqinroq seza boshladi.

4. Yuklamalar. Yuklamalar gap bo'laklari va gaplarga qo'shimcha ma'no yuklashi bilan birga bog'lovchi vazifasini ham o'taydi. Bu ko'proq ham, -u, -yu, -da, -mi yuklamalariga xosdir. Masalan: Kelibdi-yu ketibdi. Sen-u men. Keldi-da ketdi. "Ham" yuklamasi ham bog'lovchi, ham yuklama vazifasini o'taydi.

5. Bog'lovchilar. Bog'lovchilar sodda gap qismlarini, qo'shma gap qismlarini o'zaro grammatik va mazmuniy aloqaga kiritish uchun xizmat qiladi. Masalan: Suylab beray Zaynab va Omon, sevgisidan yangi bir doston. Havoni bulut qopladi, ammo yomg'ir yog'madi.

6. Olmoshlar. Olmoshlar ergash gaplarning bosh gapga bog'lanishida va matn qismlarining o'zaro bog'lanishida xizmat qiladi. Masalan, Toileim shuki, Vatanda bir guliston tanladim. Bu gapda ergash gapni bosh gapga bog'lashda-ki yuklamasi ishtirok etish bilan birga, olmosh mazmuniy "puch" so'z bo'lganligi uchun keyingi gap ana shu "puch" so'zning ma'nosini izohlash, uni "to'ldirish" uchun xizmat qilmoqda. Demak, olmosh asosida ikki gap bog'lanadi.

Olmosh matn hosil qilish vazifasini ham bajaradi. Bu vaqtda mikro matnning birinchi qismida qatnashgan ot, sifat, son o'rnida keyingi gapda olmosh almashinib keladi va bu almashinish matn

qismlarini bir butun ichida birlashtirishga xizmat qiladi. Masalan: Bu erimning yaqin o'rtog'i To'lanboy ismli kishi edi. U qiz tanlab – tanlab yoshini o'tkazib qo'ygan, oxiri qirqni qoralab qolganda uylangan, o'zi kichginagina, har gapiga maqol yoki matal qo'shib gapiradigan so'zamol kishi edi. U kelgan davra birdan yashnab ketar, to'y-hashamlarda u bo'lmasa, o'rni izlanib turadi. U o'zini katta olmas edi.

Bu mikromatndagi gaplarning sintaktik aloqasi birinchi gap tarkibida kelgan atoqli ot To'lanboyning keyingi gaplarda III shaxs kishilik olmoshi bilan almashinish orqali yuzaga chiqadi.

7. Bog'lama. Bog'lama ega va kesimning birikishida shaxs-son, zamon ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qiladigan yordamchidir. U shu ma'nolarni o'zicha ko'rsata olmaydigan, shu ma'nolarni ifodalovchi formalarga ega bo'lmagan so'zlar bilan birga kelib, ularni ega bilan grammatik jihatdan bog'laydi. (Biz o'qituvchi bo'ldik. U chavandoz edi).

Demak, bog'lama kesim ot bilan (keng ma'noda) ifodalanadigan gaplarda ega va kesimning birikishini ko'rsatuvchi bo'lmoq, hisoblamoq, edi, ekan kabi yordamchilardir.

8. Gap bo'laklarining tartibi. So'zlarning sintaktik vazifalari maxsus ko'rsatkichlar bilan ifodalanmaganda, ya'ni yuqoridagi leksik-grammatik vositalar bo'lmaganda, ularning sintaktik aloqasida tartib(nutqda tartib va intonatsiya) bosh rol ni o'ynaydi. Bunda so'zning sintaktik vazifasi, asosan, tartib orqali belgilanadi. Tartib o'zgarsa, mazmun bilan birga sintaktik holat ham o'zgaradi. Katta bino - bino katta. Toshkent - O'zbekistonning poytaxti. O'zbekistonning poytaxti – Toshkent kabi.

9. Intonatsiya. Intonatsiya ham turli sintaktik aloqalarni ifodalashda xizmat qiladigan vositadir. Biror gruppada intonatsion o'zgarish bo'lar ekan, bu odatda sintaktik bo'linishning, mazmunning boshqaligini ko'rsatadi. Masalan : qalin muqovali-kitob (muqova qalin). – qalin - muqovali kitob (kitob qalin). U - ahmoq odam emas (u aqli)- U ahmoq, odam emas. (U aqli emas, axmoq).

Bog'lovchisiz qo'shma gapning shart, qarama-qarshilik, sabab kabi ma'nolarni ifodalovchi qismlarida ham maxsus intonatsiya bo'ladi. Masalan: Kunduzi issiq-kechasi sovuq (qarama-qarshilik: kunduzi issiq, lekin kechasi sovuq), tong otdi – men ketdim (harakatning tez almashinishi, harakat tezligi: Tong otdi-yu, men ketdim). Sen kel, u boradi (shart : Sen kelsang, u boradi) kecha bora olmadim: uyga mehmonlar kelib qolishdi (sabab: kecha bor olmadim, chunki uyga mehmonlar kelib qolishdi).

Sintaktik aloqalarni ifodalovchi vositalar. 2-jadval

№	Sintaktik aloqalar-ni ifodalovchi vosi-talarning turlari va xususiyatlari	Biriktiruvchi vositalarning turlari va morfologik ko'rsatkichlari	Misollar
1.	So'z shakli. Bir so'zning boshqa so'zga bog'lanishini ko'rsatadi. Grammatik ma'noni bildiradi	Shakliy-grammatik vositalar: A)kelishik affikslari: -ga, -ning, -ni, -da, -dan B)egalik affikslari: -im, -ing, -i, -ingiz, -imiz V)shaxs-son affikslari: - m,-k,-ing, -ingiz	Maktabga bormoq; uydan chiqmoq; jurnalni o'qimoq Mening kitobim; sening ukang; uning daftari Men keldim; biz keldik; siz keldingiz
2.	Yordamchi so'zlar Kelishik affikslariga o'xshash funktsiyani bajaradi. Otni fe'lga bog'laydi.	Leksik-grammatik vositalar: A) ko'makchilar: bilan, uchun, kabi, singari B)bog'lovchilar: (uyu-shiq bo'laklarni va gaplarni bog'laydi) V)bog'lamalar: edi, bo'ldi (ega va kesimni bog'laydi)	Diqqat bilan tinglamoq. O'quvchilar uchun olmoq Dadam fermer edi, hozir rais bo'ldi.
3.	So'z tartibi So'zning sintaktik vazifasi maxsus ko'rsatkich-	Joylashishi	Qizil qalam.- Qalam qizil Sovuq suv. – Suv sovuq Qalin daftar. – Daftar qalin.

	lari bilan ifodalanmagan, tartib bosh rolni o'ynaydi. Tartib o'zgarsa, grammatik vazifa ham o'zgaradi		
4.	Ohang Pauzaning o'zgarishi birikmaning bog'lanishini o'zgartiradi	Ohang	Qalin muqovali (kitob, Qalin) muqovali kitob. Katta mevali (daraxt. Katta)mevali daraxt. Uchta bolali (ayol. Uchta) bolali ayol. Anvar ukam injener bo'ldi. Anvar, ukam injener bo'ldi. Anvar, ukam, injener bo'ldi.

PREDIKATIV ALOQA

Ega va kesim orasidagi sintaktik aloqa predikativ aloqadir. Demak, predikativ aloqa natijasida ikki sostavli gap hosil bo'ladi : Havo sovuq. Suvlar muzlagan. Men hayronman. Siz kiring.

NOPREDIKATIV ALOQA

Aniqlovchi-aniqlanmish, to'ldiruvchi va to'ldirilmish orasidagi hamda hol va hollanmish orasidagi aloqa nopredikativ aloqadir. Demak, nopredikativ aloqada fikr ifodalovchi kommunikativ birlik emas, balki tushuncha ifodalovchi nominativ birlik – so'z birikmasi hosil bo'ladi. Masalan: Katak daftar, paxtani termoq: daryoda so'zmoq kabi.

Nopredikativ aloqa barcha turdagi so'z birikmasi komponentlarining o'zaro aloqasini o'z ichiga oladi, shuningdek, uyushiq bo'laklar orasidagi sintaktik aloqa ham nopredikativ aloqa doirasiga kiradi. Uyushiq bo'laklar so'z birikmasiga nisbatan olib so'z tizmalari deb ham yuritiladi.

Sintaktik birliklar komponentlarining sintaktik mavqei bir xil bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Shunga ko'ra, sintaktik aloqa ikkiga bo'linadi :

1) teng aloqa, 2) tobe aloqa.

TENG ALOQA

O'zaro bir xil sintaktik vaziyat – mavqedagi, bir xil sintaktik shakldagi, bir xil so'roqqa javob bo'lgan bo'laklar, qismlar aloqasi teng aloqa deyiladi. Sodda gapdagi uyushiq bo'laklar, bog'langan qo'shma gap qismlari va bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari, bir xil tipli ergash gaplar o'zaro teng aloqada bog'langan. Masalan : Ega va kesim sodda gapning grammatik asosi, predikativ qo'shilmadir. Soy shuvillab oqar va uning muzdek shamoli o'tlarni silkitar edi. Agar traktor berilsa, erlar traktor bilan haydalsa, birinchidan, mehnat unumi ortadi, ikkinchidan, hosil mo'l bo'ladi .

Teng bog'lanish turlari. 3-jadval

Teng bog'lanishning asosiy xususiyatlari	Teng bog'lanishni hosil qiluvchi vositalar	Teng bog'lanishdan hosil bo'lgan birliklar	Misollar
Teng qismlarning munosabatini ifodalaydi. Ular o'zini almashtirish mumkin: bu grammatik va mazmun o'zgarishiga olib kelmaydi. Ular boshqa bir qismni aniqlaydi yoki boshqa bir qism tomonidan aniqlanadi, grammatik	1. Teng bog'lovchilar: a)biriktiruvchi: <i>va, bilan, hamda</i> b)zidlovchi: <i>ammo, lekin, biroq, balki</i> v)ayiruvchi: <i>dam... dam; yo, yoki, goh...goh</i> 2.Sanash intonatsiyasi	1. Uyushiq bo'laklar 2. Qo'shma gap	Kitob va qalam. Men kitob va qalam oldim. Ali bilan Vali keldi. Salim o'qidi, biroq yozmadi. Goh opam, goh akam xabar olib turdi. Karim yoki Salim bir kelib ketsin. Soy guvillab oqar va uning shamoli o'tlarni silkitar-di. Havo bulut

vazifasi bir xil bo'ladi.		bo'ldi, lekin yomg'ir yog'madi. Yo men boray, yo siz keling.
---------------------------	--	--

TOBE ALOQA

Har xil, ya'ni biri hokim, ikkinchisi tobe sintaktik mavqedagi bo'laklar yoki komponentlar o'rtasidagi aloqa tobe aloqa hisoblanadi. Tobe aloqadagi komponentlardan biri doim hokim, biri tobe holatda bo'ladi. Tobe bo'lak hokim bo'lakni mazmunan izohlaydi, to'ldirib keladi.

So'z birikmalarida ergash – tobe so'zlar hokim - bosh so'zga uch xil usul bilan: moslashuv, boshqaruv, bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. U yoki bu jihatdan aniqlanadigan, to'ldiriladigan, izohlanadigan komponent doim hokim bo'ladi, hokim bo'lakdagi ana shu noaniqlikni aniqlaydigan, izohlaydigan, to'ldiradigan bo'lak tobe bo'lak hisoblanadi. Aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, kesim bo'laklari (sodda gapda), ergash gap (qo'shma gapda) ana shunday komponentlardir. Tobelanish gapning asosini tashkil qiluvchi bog'lanishdir, tobelanishsiz gap yuzaga kelmaydi. Gapning asosini tashkil qilgan ega va kesimning o'zaro aloqasi tobelanish yo'li bilan bo'ladi. Anglashiladiki, so'zlarning tobelanish orqali bog'lanishi natijasida yo so'z birikmasi (quvnoq qiz kabi) yoki gap hosil bo'ladi. (Qiz quvnoq kabi). Tobelik CBda moslashuv, boshqaruv, bitishuv orqali reallashadi.

Moslashuv deb shaxs va sonda bir biriga mos bo'lgan ergashishli birikmalarga aytiladi. Qaratqichli birikmalarda qaratqich bilan qaralmish shaxs va sonda mos bo'lib, moslashuvni tashkil qiladi. Masalan: *bizning uyimiz* birikmasidagi ergash so'z (bizning) ham, bosh (uyimiz) ham birinchi shaxs ko'plikda kelgan. Mening vatanim birikmasida komponentlar 1-shaxs orqali moslashgan. Ergash so'z bosh so'zning talabiga muvofiq muayyan kelishik affikslari yoki ko'makchilar olib kelishi natijasida hosil bo'lgan tobelik boshqaruv deyiladi. Bunda ergash so'z tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklaridan birini yoki shunga mos ko'makchilardan birini olib keladi. Akmalni vokzalga kuzatib qo'y. Terrorchilar Qirg'iziston tomonga qochib ketdilar.

Bitishuv deb birining o'zgarishi ikkinchisiga ta'sir etmaydigan, komponentlari tartib va ohang orqali bog'lanishga aytiladi. Bitishuv ikki turli bo'ladi: birinchi turda ergash so'z ravish, ravishdosh va ravish vazifasidagi son, sifatlar bilan ifodalanib, bosh so'zga (fe'lga) bog'lanadi : tez yozmoq, asta yurmoq, kulib gapirmoq, yaxshi ko'rmoq kabi. Ikkinchi turi sifatlovchi bilan sifatlanmish munosabatini ko'rsatadi. Bunday birikmalarda ergash so'z sifat, son, olmosh, ot, sifatdosh bilan ifodalanadi: odobli qiz, katta orzu, uchta kitob, beshinchi uy, shu ko'cha, o'sha bino; kumush qoshiq, po'lat sandiq, hurmat taxtasi kabi. Quyidagi kabi zimdan kuzatmoq, to'satdan kelmoq, birga ko'rmoq birikmalari ham shaklan boshqaruv bo'lsa-da, aslida bitishuv aloqasidir. Chunki bu erdagi kelishik shakllaridagi so'zlar shu shaklda ravishga ko'chgan.

Tobelanish turlari (4-jadval)

Asosiy xususiyati	Tobelanishning turlari va mazmuni	Misollar
Tobelanish bir qismning boshqa-sini aniqlashga xizmat qilishidir; A) gap bo'laklari orasida; B) ergash gap bilan bosh gap orasida	Moslashuv Ikki so'z – tobe va hokim so'z bir-biriga muvofiq-lashadi. Harakat, belgi yo predmetning qaysi predmetga tegishlilikini ko'rsatadi	Kitobning varag'i, qishlog'imiz o'quvchilari, ishlab chiqarish, unumdorligi, bolaning tug'ilishi.
	Boshqaruv Tobe so'z hokim so'zning talabi bilan o'z shaklini o'zgartiradi. Fe'l boshqaruv va ot boshqaruv. Kelishik va ko'makchili boshqaruv	Uyga ketmoq, uydan ketmoq, uni ko'tarmoq, uquvchilar bilan gaplashmoq, tinchlik uchun ko'rashmoq. Asal qanddan shirin. Otdan baland, itdan past.
	Bitishuv so'zlarning o'zaro aloqasi tartib va ohang orqali belgilanadi.	Yashil bayroq, bu bino, beshta

	A)sifatlovchi-sifatlan-mish: sifatlovchi vazifa-sida otlashgan so'zlar va sifatdoshlar qo'llanadi; B) hol-hollanmish: Hol vazifasida ravish va ravishdoshlar qo'llanadi.	o'quvchi, oqar suv, oltin kuz, ko'p kitob Notiq sekin so'zladi. Quyosh qizarib botdi.
--	---	--

Muhokama uchun savollar:

- 1.1.1. Sintaktik munosabat nima?
- 1.1.2. Sintaktik munosabat necha turga bo'linadi?
 - 1.2.1 Predikativ va muvofiqlashuv munosabatining umumiy va farqli xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
 - 1.2.2. Gap tuzish uchun sintaktik munosabatning qaysi turi muhim?
 - 1.2.3. Sintaktik munosabatlar qaysi sintaktik qurilmalarda faoliyat ko'rsatadi?
- 3.1.1 Sintaktik aloqa necha turga bo'linadi?
 - 3.2.1 Predikativ – nopredikativ va tobe-teng aloqalarning farqi nimalarda ko'rinadi?
 - 3.4.2 Ega va kesim, to'ldiruvchi–to'ldirilmish, aniqlovchi–aniqlanmish, hol va hollanmish orasidagi aloqa sintaktik aloqaning qaysi turiga mansub?
 - 3.4.3 O'zbek tilining sintaktik qurilishida qaysi sintaktik aloqa keng tarqalgan?

7-savol bayoni:

Sintaksisning asosiy tekshirish ob'ekti sintaktik qurilmalardir. So'z birikmasi ham sintaktik qurilma. Shuning uchun so'z birikmasi haqida gapirishdan oldin sintaktik qurilma tushunchasini aniqlab, chegaralab olish lozim.

Har qanday so'z bog'lanmasi sintaktik qurilma hisoblanavermaydi. O'rinbosar (qo'shma so'z), ishlab chiqarish birlashmasi (turg'un birikma), og'a-ini (juft so'z), misi chiqdi (frazologik birlik) tipidagi bog'lanmalar lug'aviy birliklar hisoblanadi. Maktab tomon, dadam bilan, vatan uchun, o'qib chiqdi kabi ifodalar ham sintaktik qurilma sanalmaydi. Bular mustaqil so'z bilan ko'makchining qo'shilishidan hosil bo'lgan so'zning analitik shakli, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasidir. Yuqoridagilarning hammasi bir necha so'zlardan tashkil topgan bo'lsa-da, ular bo'laklarga bo'linmaydigan bog'lanmalar, so'z shakli holatidagi til birliklaridir. Ular nutqda ham, nutqdan tashqarida ham shunday shaklda mavjuddirlar. Sintaktik birliklar, qurilmalar esa nutq jarayonida ma'lum grammatik qoidalar asosida hosil bo'lgan, bo'laklarga bo'linuvchi bog'lanmalar yoki o'ziga xos semantik – sintaktik, intonatsion sifatga ega bo'lgan alohida so'zlardir. Mayli. Xo'p. Bahor. Kuz. Tun kabilar.

Sintaktik qurilmalar uch xil ko'rinishga ega: bir so'zli qurilmalar, ikki so'zli qurilmalar, ko'p so'zli qurilmalar.

Bir so'zli sintaktik qurilma ko'pincha bitta mustaqil ma'noli so'z bilan ifodalanadi va so'z – gap, bir so'z shaklidagi atov, vokativ gaplarni, shuningdek, «Eshitdim» tipidagi bir bosh bo'lakli gaplarni o'z ichiga oladi.

Ikki so'zli sintaktik qurilmalar yo sodda so'z birikmasidan (Vatanni sevmoq, ona mehri, chiroyli qiz), yoki sodda yig'iq gapdan (Vatan yagonadir. Havo isib ketdi) tashkil topadi.

Ko'p so'zli sintaktik qurilmalar esa ikkitadan ortiq mustaqil so'zning birikishidan hosil bo'lgan murakkab so'z birikmasi va yoyiq sodda gaplardan iborat: Etmishlarga borib qolgan chol. Biz o'z vatanimizni sevamiz.

Ko'rinadiki, so'z birikmasi ikki so'zli va ko'p so'zli sintaktik qurilmalarning o'ziga xos ko'rinishlaridan biridir.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1.1. Sintaktik qurilmalar necha turga bo'linadi?
- 1.1.2. Nopredikativ qurilmalarning qamrov doirasi.

1.1.3. Predikativ qurilmalar qaysi sintaktik birliklarni o'z ichiga oladi?

1.1.4. Nima uchun ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlardan tashkil topgan barcha til birliklari so'z birikmasi hisoblanmaydi?

Mavzu: So'z birikmasi. So'z birikmalarining tasnifi.

Reja:

1. So'z birikmasi
2. So'z birikmasi turlari
3. So'z birikmasida hokim va tobe so'z

I-savol bayoni

Sintaktik qurilmaning bir ko'rinishi bo'lgan so'z birikmasi boshqa sintaktik qurilmalardan nomustaqilligi, butunning tarkibiy qismi holatidagi erkin birikma ekanligi bilan farqlanadi. Bu uning qurilish materiali bo'lib xizmat qilishida o'z ifodasini topgan. Shuning uchun so'z birikmasi fikr ifodalay olmaydi, tushuncha ifodalovchi ochik qurilma hisoblanadi, kommunikativ emas, nominativ funktsiya bajaradi. Shu ma'noda so'z birikmasi kamida ikkita mustaqil so'zning tobelanish asosida, birining ikkinchisiga ergashishi natijasida hosil bo'ladigan nominativ birlik, tushuncha ifodalovchi erkin so'z bog'lanmasidir.

So'z birikmasi nechta so'zdan hosil bo'lishidan qat'i nazar, albatta, ikki komponentdan – tobe va hokim komponentdan iborat bo'ladi. Bu ma'noda esa so'z birikmasi bir so'zning yoki komponentning ikkinchi bir so'z yoki komponentga tobelanib, u bilan birga bir semantik-grammatik bog'lanma hosil qilishidir. Bunda tobe so'z –komponent doim aniqlash, izohlash, to'ldirish vazifasini bajaradi. Masalan: farovon hayot, sigir quyruq qilib tushuntirmoq, tovushdan tez, uchta katta qora qo'y kabilar.

Yuqoridagi gaplardan kelib chiqib so'z birikmasiga shunday ta'rif berish mumkin:

Nutq jarayonida ikki yoki undan ortiq mustaqil til birliklaridan birining ikkinchisiga grammatik jihatdan tobelanib, uning ma'nosini aniqlab, izohlab, to'ldirib kelishi natijasida hosil bo'ladigan tushuncha ifodalovchi erkin birikma so'z birikmasi deyiladi.

Muhokama uchun savollar:

2.1.1. So'z birikmasining ta'rifi.

2.1.2. So'z birikmasining asosiy leksik –grammatik xususiyatlari.

2.1.3. So'z birikmasi komponentlari asosan qanday usullar yordamida bog'lanadi?

So'z birikmasida komponentlarning biri tobe (ergash komponent), ikkinchisi hokim (bosh komponent) hisoblanadi. Bunday hokim-tobelik bog'lanmaning xarakteridan: boshqaruvchi so'zning semantikasi, so'z formasi va so'z tartibidan anglashilib turadi. Morfologik ko'rsatkichlar bo'lmaganda tobe-hokimlik leksik-semantik holatdan, bog'lanishning xarakteridan, tartibdan, intonatsiyadan bilinib turadi. Masalan: kulib gapirmoq (tobe-hokim), aytgan kitobing (tobe-hokim), beshta daftar (tobe-hokim).

Tobe-hokimlik mutlaq va nisbiy bo'lishi mumkin. Birikma ikki komponentdan iborat bo'lsa, tobe-hokimlik mutlaq bo'ladi: mehribon ona (mehribon –mutlaq -tobe), ona-mutlaq hokim. Birikma uch yoki undan ortiq komponentdan iborat bo'lsa, hokim-tobelik nisbiy bo'lishi mumkin. Masalan: **paxta gulli piyola**. Birikmadagi **gulli** komponenti **paxta** komponentiga nisbatan hokim, **piyola** komponentiga nisbatan esa tobedir. Shuningdek, **yog'och karavotdagi odam** birikmasidagi **karavotdagi** so'zi **yog'och** so'ziga nisbatan hokim, **odam** so'ziga nisbatan esa tobe hisoblanadi.

So'z birikmasi 5-jadval

So'z birikmasi qismlarini bog'lovchi vositalar	Grammatik aloqa turlari	Tobe bo'lakning sintaktik vazifasiga ko'ra	Hokim bo'lakning ifodalani shiga ko'ra	Tuzilishiga ko'ra
So'z shakli 1. Egalik qo'-shimchalari: mening	Moslashuv	Atributiv (aniqlovchili) birikma (me-ning	Otli birikma (yaxshi kitob)	Sodda birikma (yaxshi kitob)

kitobim		kitobim, yaxshi kitob)		
2. Kelishik qo'shimchalari kitobni olmoq	Boshqaruv	Ob'ektli (to'ldiruvchili) birikma (kitob-ni olmoq, qalam bilan yozmoq)	Fe'lli birikma (kitobni olmoq)	Murakkab birikma (chiroyli ko'ylakli qiz)
3. Ko'makchilar: qalam bilan yozmoq			Ravishli birikma (shamoldan tez)	
4. So'z tartibi va ohang (yaxshi kitob)	Bitishuv	Relyativ (holli)birikma: kecha keldi, kasalligi uchun kelmadi		

Muhokama uchun savollar:

3.4.1. So'z birikmasi necha tarkibiy qismdan iborat va ular nimalar bilan ifodalanadi?

3.4.1. Tobe va hokim komponentlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

3.4.2. So'z birikmasi komponentlarining biri nima sababdan doim tobe, ikkinchisi nima sababdan hokim bo'ladi?

So'z birikmalari uch tomonlama, uch mezonga ko'ra tasnif qilinadi:

- 1) tuzilishiga ko'ra;
- 2) hokim komponentning ifodalanishiga ko'ra;
- 3) tobe komponentning sintaktik vazifasiga ko'ra.

So'z birikmalarining tuzilishiga ko'ra turlari. Har qanday sintaktik qurilma singari so'z birikmasi ham tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

1. Sodda so'z birikmasi.

2. Murakkab so'z birikmasi.

SODDA SO'Z BIRIKMASI. Sodda so'z birikmasining asosan quyidagi ko'rinishlari bor: a) sifat - ot : yaxshi kitob b) ravish-fe'l: tez gapirmoq.v) ot-ot: tilla uzuk, onamning mehri g) ot-fe'l : magazinga bormoq.

Ko'rinadiki, tobe va hokim komponenti bittadan mustaqil so'zdan tashkil topgan birikmalar sodda birikmalar hisoblanadi. Buni inkor qilib bo'lmaydi, lekin sodda so'z birikmasi tushunchasi shu bilan chegaralanmaydi.

Sodda so'z birikmasining har ikki komponenti yoki ulardan biri qo'shma so'z, so'zning analitik shakli. juft so'z, takror so'z bo'lishi mumkin. Har ikki komponenti qo'shma so'z bo'lib keladi: Mehnatsevar o'rinbosar, o'rinbosarning qo'lqopi *kabi*.

Bir komponenti qo'shma so'z bo'lib keladi: beshiktervatarning likillashi, havorang ko'ylak, rektorning o'rinbosari *kabi*.

Har ikki komponent juft so'z bo'lib keladi: o'g'il-qizlarimizning baxt-saodati: ota-onamning qarindosh-urug'i *kabi*.

Bir komponenti juft so'z bo'lib keladi: baxt-saodat tilamoq, og'a-inilarga aytmoq. Har ikki komponent takror so'z bo'lib keladigan sodda so'z birikmasi deyarli uchramaydi, biroq bir komponenti takror so'z bo'lib keladigan so'z birikmasi kuzatiladi, lekin shunisi borki, bunda tobe komponent takrorlanib keladi: asta-asta gapirmoq, yurib-yurib etmoq, yum-yum yig'lamoq, asta-asta chaqirmoq, shiq-shiq tugma, gala-gala chumchuqlar kabilar.

Har ikki komponent analitik shakl bo'lib keladi : men uchun aytib bering, o'zingiz uchungina o'ylab ko'ring, fe'l haqida gapirib qo'ya qoling *kabi*. Bir komponent (tobe yoki hokim) analitik shakl bo'lib keladi: shundan beri o'ylanmoq, vatan haqida suhbatlashmoq, yolg'iz turib qolmoq, chidamay turib ketmoq *kabi*. Bulardan tashqari, to'rt qavatli bino, besh yashar bola, uzun bo'lyi yigit, yarim soatda etmoq, til oldi undoshi kabi birikmalar ham sodda so'z birikmalari qatoriga kiradi, chunki bu erdagi "to'rt qavatli", "besh yashar", "uzun bo'lyi," "yarim soatda" birikmalari bir so'z hukmida, ajralmas aniqlovchi sifatida qaraladi, ikkinchidan, ular ishtirokida tuzilgan so'z birikmalar qavatli bino, yashar bola, bo'lyi yigit, soatda etmoq kabi birikuvlar tarzida deyarli ishlatilmaydi. So'z birikmasi komponenti frazeologik ibora bilan, turg'un birikma bilan, sostavli

nom bilan ifodalanganda ham, sodda hisoblanadi. Masalan : Qo'li engil shifokor, yolg'iz oyoq yo'l, borsa-kelmas oroli, "Ming bir kecha" hikoyasi kabilar. Bu birikmalardagi "qo'li engil", "yolg'iz oyoq", "borsa kelmas", "Ming bir kecha" ifodalari ajralmas tobe komponentlardir, ular yaxlit holda (**qo'li engil** shifokor, **yolg'iz oyoq yo'l**, **borsa kelmas** oroli, "**ming bir kecha**"ertagi tarzida) bosh so'zni aniqlab, tobelanib keladi.

Demak,tobe va hokim komponentlar ikki mustaqil so'zdan, shuningdek, bir so'z yoki bir so'z shakli hukmida qabul qilinadigan frazeologizmlar, turg'un birikmalar, tarkibli nomlar bilan ifodalangan so'z birikmalari sodda so'z birikmalari hisoblanadi.

Murakkab so'z birikmalari sodda so'z birikmasining kengayishidan, birikmalarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bunda ko'zga tashlanadigan xarakterli jihat shundaki, odatda kengayish, yoyiqlashish tobe komponentga taalluqli bo'ladi. Bu hokim komponentni yanada aniqlashtiradi, konkretlashtiradi, bo'rttiradi. Demak, murakkab birikma hokim komponentni yanada aniqlashtirish, konkretlashtirish, yorqinlashtirish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Masalan: Erkak kishi – anavi erkak kishi, setka ko'targan anavi erkak kishi yoki chinni piyola – gulli chinni piyola – paxta gulli chinni piyola-yangi paxta gulli chinni piyola kabi. Demak,bunda ham grammatik jihatdan ikki bo'lak mavjud: aniqlovchi - aniqlanmish. Biroq bulardan biri aslida so'z birikmasidan iborat bo'ladi.

Murakkab birikma hosil qilishning ham o'z tartib –qoidasi bor. Sodda birikmani kengaytiradigan so'z, bo'lak, yana ham aniqrog'i, yangi aniqlovchi to'g'ridan-to'g'ri avvalgi sodda birikmaning hokim komponentiga bog'lanmaydi: balki avvalgi sodda birikmaga tegishli bo'ladi. Masalan: yosh yozuvchi –iste'dodli - yosh yozuvchi-o'nta - iste'dodli yosh yozuvchi yoki qiziqarli kitob-katta-qiziqarli kitob kabi. Yana quyidagi birikmalarni chog'ishtiring: keng ko'chalar- bu yil qurilgan - keng ko'chalar, mevali daraxt- katta - mevali daraxt, aytilmaydigan gap-hech kimga - aytilmaydigan gap, yangi musiqa- ko'ngilochar - yangi musiqa.

Ko'rinadiki, murakkab birikma unga asos bo'lgan sodda birikma ma'nosini kengaytirish, aniqlash, bo'rttirish, yaqinlashtirish bilan xarakterlanadi. Murakkab birikmaning hosil bo'lish yo'llari va ularning tiplari ham har xil.

So'z birikmasining tuzilishiga ko'ra turlari. 6- jadval

Asosiy xususiyatlari	Birikmaning turlari	Misollar
Tobe va hokim so'zlar tarkibiga qarab, sodda va murakkab birikmalarga ajratiladi. Tarkibi ikki mustaqil so'zdan iborat bo'lgan birikmalar sodda, uch va undan ortiq so'zdan iborat bo'lgani esa murakkab birikma sanaladi.	<p>1. Sodda birikma:</p> <p>A) ikki mustaqil so'zdan;</p> <p>B Tobe so'z ajralmas birikmadan;</p> <p>V) Tobe so'z frazeologik ibora, turg'un birikma va tarkibli nom bilan ifodalanganda.</p> <p>2. Murakkab birikmalar:</p> <p>A) sifatlovchili murakkab birikma.</p> <p>B) sifatdosh oborotli murakkab birikmalar</p> <p>V) harakat nomili murakkab birikmalar.</p> <p>G) ravishdosh oborotli murakkab birikmalar.</p>	<p>Keksa bog'bon, kichik maydon, qilichbo'yin ot</p> <p>Dumi xurjunda ish qilib qo'yibsan-da, uka!</p> <p>Tishini tishiga qo'yib yuraveradi.</p> <p>O'zbekiston Respublikasi-ning poytaxti.</p> <p>Borsa kelmas oroli; «Qutlug' qon» romani.</p> <p>Katta mevali daraxt; paxta gulli chinni piyola.</p> <p>Baliq ovlash uchun keltirgan qarmoqlar.</p> <p>Qudrat tezroq tog' ko'rinishlarini suratga olib qolishga shoshildi. (H.N)</p> <p>Archalarning bir- biriga tutashib ketgan shoxlarini asta qayirib kirdi.</p>

Muhokama uchun savollar:

1.1.1. So'z birikmasi qaysi tomonlariga ko'ra tasnif qilinadi?

1.2.1. So'z birikmasi tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?

1.3.1. Sodda soʻz birikmasining necha xil koʻrinishi bor?

1.4.1. Murakkab soʻz birikmasi qanday hosil boʻladi?

Soʻz birikmasining hokim komponenti turli soʻz turkumlari bilan ifodalanadi. Masalan: Sifat: hammadan **chiroyli**, otdan **past**. Son: uchdan **biri**, ikkitadan **bitasi**. Ot: qiziqarli **kitob**, obroʻli **oʻqituvchi**. Olmosh: tergaydigan **hech kimim**, mening **nimam**. Feʼl: Toshkentda **oʻqigan**, kulib **gapirmoq**. Ravish: Tovushdan **tez**, oʻntadan **koʻp**. Undov soʻz: jangchilarimizning **“ura” si**. Taqlidiy soʻz: yuragimning **“duk-duk”i**, aravalarning **taqir-tuqiri**. Biroq boʻlar soʻz birikmalarining hokim komponentning ifodalanishiga koʻra bir turi sifatida ajratilmaydi. Ular umumlashtirilib, asosan ikki guruhga ajratiladi:

1. **Otli soʻz birikmalari.**

2. **2. Feʼli soʻz birikmalari.**

OTLI SOʻZ BIRIKMALARI

Bosh soʻzi shaxsli feʼl formasi va ravishdosh, sifatdosh shakllaridan boshqa soʻzlar bilan ifodalangan soʻz birikmalari otli soʻz birikmalari hisoblanadi. Demak, otli soʻz birikmalari keng maʼnoda boʻlib, komponenti ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, undov, taklidiy soʻzlar bilan ifodalangan juda koʻp soʻz birikmalarini oʻz ichiga oladi. Bu erda koʻrinib turibdiki, hatto feʼlning harakat nomi shakli hokim komponent boʻlib kelgan soʻz birikmasi ham otli birikma doirasiga kiradi. Bunda uning otga yaqin turishi-harakatning nomi ekanligi hisobga olingan. Otli soʻz birikmalari komponentlari oʻzaro bitishuv, boshqaruv, moslashuv usullari bilan bogʻlanadi.

BITISHUVLI OTLI BIRIKMALAR

Bitishuvli otli birikmalarning quyidagi tiplari bor:

1. Ot-ot. Bu ikki otning qoʻshimchasiz tobe bogʻlanishidir. Bunda birinchi kelgan ot aniqlovchi, ikkinchisi aniqlanmish boʻladi. Masalan: qoʻngʻiroq ovoz, otash yurak, shoir tabiat, shamol tegirmon, oʻrik domla kabi.

2. Olmosh-ot. Odatda, soʻroq, koʻrsatish, belgilash olmoshlari otga bitishuv orqali bogʻlanadi: oʻsha bodomzor, qaysi gap, har bir kishi, barcha odam kabi.

3. Son-ot: yigirmatadan qalam, oʻn beshinchi qavat, toʻrt talaba kabi.

4. Sifat-ot: Bu tip otli birikmalar eng keng tarqalgandir: yaxshi niyatli, uzoq yoʻl, goʻzal qiz, shu bola kabi.

5. Sifatdosh-ot: kelayotgan asr, oʻqigan bola, oqar suv, boʻlmagan voqea.

BOSHQARUVLI OTLI BIRIKMALAR

Ot boshqaruvi deganda, asosan ot, sifat son, ravish soʻzlar boshqaruvi nazarda tutiladi. Ot boshqaruvning ikki turi ajratiladi (bu feʼl boshqaruvga ham taalluqlidir): *kelishikli boshqaruv*, *koʻmakchili boshqaruv*.

KELISHIKLI BOSHQARUV

Bunda hokim komponent oʻrnidagi ot, sifat, ravish, sonlar joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigidagi tobe komponentni boshqarib keladi. Masalan: *oyogʻida etik, elkasida xurjun, tilga eʼtibor, vatanga mehr, gʻishtdan devor, respublikada mashhur. soʻzga chechan, mehmonlardan uchtasi, haqiqatga yaqin, oʻqdan tez kabi.*

KOʻMAKCHILI BOSHQARUV

Bunda tobe soʻz boshqaruvchi otga koʻmakchilar yordamida tobelanib bogʻlanadi: *bolalar haqida sheʼr, onam uchun sovgʻa, shahar birinchiligi uchun musobaka, shoirlar bilan uchrashuv kabilar.*

MOSLASHUVLI OTLI BIRIKMALAR

Bu qaratuvchi va qaralmish munosabatidagi ikki otning birikuvidir: Maktabimiz hovlisi, universitetimizning rektori, Vatanimizning kelajagi kabi. Bu tipdagi bogʻlanishning bitishuvli bogʻlanishdan farqi shundaki, bitishuvda ikki ot hech qanday qoʻshimchasiz yoki koʻmakchisiz birikadi: deraza parda, yogʻoch uy, tosh yoʻl, tandir kesak kabi. Moslashuvli otli birikmalarda esa birikmaning birinchi (tobe) komponenti qaratqich kelishigi shaklida, hokim komponent egalik shaklida bir-biri bilan moslashib, muvofiqlashadi: yaxshilarning suhbat, mening orzuim, bizning qishlogʻimiz. Biroq moslashuvli otli birikmalarning yoz issigʻi,

paxta terimi, Guliston guldastasi, shahar hokimi, bizning she'r, bizning qishloq kabi belgisiz qaratqichli, belgisiz egalikli ko'rinishlari ham faol qo'llanadi.

Bu shakllarning qo'llanilishida nozik farqlar ham ko'zga tashlanadi. Tobe komponentning qo'shimchasini olmagan moslashuvli birikma, belgili moslashuvga nisbatan umumiylik ma'nosi, ma'nosining mavhumligi bilan xarakterlanadi. Masalan, chog'ishtiring: Ona mehri-onaning mehri, deraza pardasi-derazaning pardasi, kuz manzarasi-kuzning manzarasi.

Hokim komponentning egaliksiz, belgisiz qo'llanishida ham shu holat kuzatiladi, shu bilan birga ma'noni kuchaytirish ham seziladi. Chog'ishtiring: Bizning Vatan-bizning Vatanimiz, bizning zamon-bizning zamonimiz.

Ko'rinadiki, moslashuvli otli birikmaning qaratqich va egalik qo'shimchasini olgan turi konkretlikni ifodalaydi. Ularda egalik va qarashlilik ma'nosi kuchli bo'ladi. Ularning qo'llanmasligi bilan bu ma'nolar kuchsizlanadi, umumiylik holati yuzaga keladi.

FE'LLI SO'Z BIRIKMALARI

Hokim komponenti barcha turdagi tuslanadigan fe'l shakllari, ravishdosh, sifatdoshlar bilan ifodalangan birikmalar fe'lli so'z birikmalari hisoblanadi: kitobni o'qidi-kitobni o'qigan-kitobni o'qib-kitobni o'qiguncha-kitobni o'qigach-kitob haqida gapirdi-kitob haqida gapirgan-kitob haqida gapirgach kabi. Fe'lli so'z birikmalari otli so'z birikmalardan farqli o'laroq moslashuvli birikma shaklida kuzatilmaydi. Fe'lli so'z birikmalari ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Bitishuvli birikmalar .
2. Boshqaruvli birikmalar.

BITISHUVLI FE'LLI BIRIKMALAR

Tobe komponent hokim komponent fe'lga harakat belgisini bildiruvchi sifat, ravish, ravishdoshlar orqali hech qanday qo'shimcha olmay tartib va intonoatsiya orqali birikib kelsa, bitishuvli fe'lli birikmalar hosil bo'ladi. Masalan: Dadajonga ishonmang, yomon qaridi u (I.Raxim)Normat to'y egasi bilan xayrlashgach, tez chiqib ketdi. O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir.

Ot, olmosh va otlashgan so'zlar turli yasovchilar vositasida ravishga aylanadi va fe'lga bog'lanib bitishuvli birikma hosil qiladi. Uning ko'zlari paxsa devorga munchoq qadalganday yiltirar edi. Saidaning o'z fikrida turib olishiga Qalandarov o'zicha ma'no berdi. Buni Ochil buva haligacha bilmaydi. U otasidan yashirincha xotinini ko'rib ketardi. Tobe komponenti – a, -y, -b, -ib, -gani, -gach, -guncha qo'shimchali ravishdosh, -r, -ar, -mas qo'shimchali sifatdosh, takror qo'llangan taqlidiy so'zlar bilan ifodalangan fe'lli birikmalar ham bitishuvli birikmalar hisoblanadi. Masalan : U maktabdan kela solib o'qishga kirishadi. Kifoyatxon ... yosh qizday uyala-uyala zinadan chiqib keldi. Hammasi senga- to'yguningcha eyaverasan. Saida eshitilar –eshitilmas: Ayol boshim bilan, dedi-yu, u yog'ini aytmadi. Nigor oyim dasturxon yozib tovoqni Anvarning oldiga qo'yar ekan, birdan piq-piq yig'lab yubordi.

BOSHQARUVLI FE'LLI BIRIKMALAR

Tobe komponenti qaratqich kelishigidan boshqa ko'rsatkichli kelishiklar yoki ko'makchilar bilan birga hokim komponent fe'lga tobelanib keladigan birikmalar boshqaruvli fe'lli birikmalar hisoblanadi. Masalan: Vatanni sevadi, telefonda gapirdi, qalam bilan yozdi, baxt haqida kuyladi kabi.

Ayon bo'ladiki, kelishikli boshqaruv va ko'makchili boshqaruv fe'lli so'z birikmalarga ham xosdir. Bunda kelishikli fe'lli boshqaruv ko'makchili fe'lli boshqaruvdan farqli o'laroq belgisiz qo'llanish xususiyatiga ham ega. Bu holat tushum kelishigi formasidagi tobe komponentga ko'proq xos bo'lsa-da, ba'zan jo'nalish kelishigi shaklida ham kuzatiladi. Masalan: Lola tergani tog' sayliga chiqdik. Gul teraman, gullar teraman. Toshkent boramiz, Parij ketdi.

Boshqaruvli fe'lli birikmalar asosan ob'ekt bilan harakat o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Hokim bo'lakning ifodalanishiga ko'ra

7-jadval

Asosiy xususiyati	Hokim bo'lakning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra	Misollar
Odatda, so'z birikmasida oldingi	1. Otli birikma:	Otaning vasiyatlari, keng dala,

<p>soʻz tobe, keyingi soʻz hokim vaziyatda boʻladi. Tobe soʻz ham, hokim soʻz ham turli maʼnoli mustaqil soʻzlardan boʻlishi mumkin.</p>	<p>A) hokim soʻz ot, tobe element ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, infinitiv, ravish va mimemalar bilan ifodalanadi. B) hokim soʻz sifat, tobe soʻz ot, olmosh, son kabilar bilan ifodalanadi. V) hokim soʻz olmoshdan G) hokim soʻz sondan D) hokim soʻz undovdan E) hokim soʻz bor, yoʻq soʻzlari bilan ifodalanadi. 2.Feʼlli birikma: Hokim soʻz feʼl bilan, tobe soʻz esa ot, olmosh, sifat, ravishlar bilan ifodala-nadi. 3.Ravishli birikma: Hokim soʻz ravish bilan, tobe soʻz esa ot, olmosh va otlashgan soʻzlar bilan ifodalanadi.</p>	<p>ochilgan gullar, uchta olma, shu uy, oʻqimoq orzusi, oʻzbekcha maktab, shivir-shivir gap. Nomus oʻlimdan qattiq. Ahmoq doʻst yovdan yomon. Baliq suv bilan tirik. Toshdan qattiq, Oltindan qimmat. Saylovchilarning hammasi ovoz berishda qatnashdi. Oʻquvchilarning uchtasi musobaqada gʻolib chiqdi. Oyimga koʻpdan-koʻp salom. Dadangda ishim bor. Latofatdan darak yoʻq. Vazifani bajarmoq, sheʼrni yozmoq, kitobni oʻqimoq, seni chaqirmoq, yayov yurmoq, oʻqishga bormoq, yaxshi ishlamoq. Oʻqdan tez, doʻstlardan oʻzoq, haqiqatga yaqin, barchaga baravar, har kungidan kechroq.</p>
--	---	---

Muhokama uchun savollar:

2.2.1. Soʻz birikmalari qaysi mezonlarga koʻra turlarga ajratiladi?

2.2.1. Hokim komponentning ifodalanishiga koʻra soʻz birikmasi nima uchun ikkiga boʻlinadi?

2.2.2. Hokim komponentning ifodalanishiga koʻra soʻz birikmasi necha turga boʻlinadi?

Soʻz birikmalari tobe komponentning sintaktik mavqei, vazifasiga koʻra uch turga ajratiladi: 1. Aniqlovchili soʻz birikmalari. 2. Toʻldiruvchili soʻz birikmalari. 3. Holli soʻz birikmalari .

Koʻrinib turibdiki, bunda tobe komponentning gapning semantik-sintaktik tuzilishida qanday vazifa bajarishiga, qaysi gap boʻlagi boʻlib kelishiga asoslanilgan. Izohlovchi aniqlovchining bir tipi boʻlgani sababli izohlovchili birikmalar alohida tur sifatida ajratilmaydi. Yuzaki qaraganda egali, kesimli soʻz birikmalari yoʻqmi degan savol tugʻilishi tabiiy. Bunga hech ikkilanmay “yoʻq” deb javob berish mumkin. Chunki ega va kesim birikmasi predikativ aloqaning natijasi, soʻz birikmasi esa nopredikativ aloqa doirasiga kiradi. Binobarin, kesim egaga tobe boʻlsa-da, bu tobelik boshqa kategoriyadagi tobelikdir. Ikkinchidan, ega mutlaq hokim boʻlakdir. Bizning eʼtiborimiz ayni tasnifda tobe komponentga qaratilganidir. Bu jihatdan kesimli soʻz birikmalari boʻlishi kerakday tuyuladi, chunki unda ham tobelik holati bor, biroq kesimdagi tobelik yuqorida aytilganidek, predikativ aloqa doirasiga mansub boʻlib, nopredikativ aloqada bu hol butunlay oʻzgaradi: nopredikativ aloqa doirasida kesim asosiy hokim boʻlakka aylanadi. Chunki toʻldiruvchili, holli soʻz birikmalarining hokim komponenti odatda gapda kesim boʻlib kelishi bilan xarakterlanadi. Zotan, toʻldiruvchi va hol kesimga boshqaruv yoʻli bilan tobelanadi,ularning sintaktik mavqei ham kesimga nisbatan belgilangan. Ular kesimning maʼnosini ochish aniqlash, toʻldirish, izohlash, konkretlashtirish uchun xizmat qiladi. Binobarin, egali, kesimli soʻz birikmalari boʻlishi mantiqqa toʻgʻri kelmaydi. Toʻgʻri, ega-kesim birikmasi odatdagi oʻrinlaridan “chetlashtirilib” aniqlovchi oʻrniga “koʻchirilsa” tobe komponent aniqlash,tushunish,izohlash xususiyatini namoyon qiladi. Onasi mukofotlangan qiz,sochi uzun kelinchak, beli bukri odam kabi birikmalarda onasi mukofatlangan, sochi uzun, beli bukri birikmalari kabilar shular jumlasidandir. Biroq bunda ular oʻzlarining odatdagi vazifalarini yoʻqotib,aniqlovchi vazifasiga oʻtgan boʻladi. Boshqacha aytganda, ular shaklangina ega-kesim boʻlib, mohiyatan aniqlovchidir. Ular bunday oʻrinlarda na semantik jihatdan, na sintaktik jihatdan ega-kesimlik vazifasini oʻtay olmaydi. Demak, tobe komponenti ega yoki kesim (yoki ularning har ikkisi) boʻlgan haqiqiy maʼnodagi egali yoki kesimli soʻz birikmalari haqida gapirib boʻlmaydi. Soʻz birikmasining tobe komponentlari aniqlovchi,

to'ldiruvchi, hol vazifalari uchun xoslangan bo'ladi. Bu so'z birikmalari tobe komponenti uchun qonuniyatdir .

ANIQLOVCHILI SO'Z BIRIKMALARI. Aniqlovchili so'z birikmalari so'z birikmalari sistemasida nihoyatda keng tarqalgan va faoldir. Aniqlovchili birikmalarning tiplari ham nihoyatda rang-barang bo'lib, turli so'z turkumlari bilan ifodalanadi va har xil shakliy ko'rinishga ega. *M a s a l a n :* 1. Sifat-aniqlovchili birikmalar: yaxshi niyat, yoqimli shabada, kamtar inson,

1. Ot aniqlovchili birikmalar: taxta ko'prik, mustaqillik sharofati .
2. Son-aniqlovchili birikma: uchinchi kurs, ettinchi tramvai, beshta daftar.
3. Olmosh- aniqlovchili birikmalar: bu yo'l, ana shu vazifa, hamma odam .
4. Ravish -aniqlovchili birikmalar : oz so'z, ko'p gap .
5. Sifatdosh -aniqlovchili birikma: ko'tayotgan qalb, kelayotgan yil, oqar suv.
6. Taqlid so'z- aniqlovchili birikma: g'ir-g'ir shabada, piq-piq yig'i, lim-lim suv.
7. Undov so'z-aniqlovchili birikmalar : "ura" sadolari, ox-vox ovozlari.

Aniqlovchili so'z birikmasi o'z ichida ikkiga bo'linadi:

1. Sifatlovchi aniqlovchili birikmalar .
2. Qaratqich aniqlovchili birikmalar.

Sifatlovchi-aniqlovchili so'z birikmalarining tobe komponenti sifat, sifatdosh, ot, olmosh son, ravish, taqlidiy so'zlar, frazeologizmlar bilan ifodalanadi. Tuzilishiga ko'ra ular mustaqil so'z, birikma, gap shakllarida bo'ladi.

Masalan: oppoq qor, omadi yurishmagan odam, ichimdan top qiz, ko'ngli tor rahbar, no'noq mutaxassis kabi.

Qaratqich aniqlovchili so'z birikmalarining tobe komponenti ko'proq ot bilan yoki otlashgan so'zlar, frazeologizmlar bilan ifodalanadi. Masalan: Shaharning havosi, hafsalasi pir bo'lganning ishi, yaxshining sharofati, birining gapi, ko'pning oshi.

Ikki qaratqich ketma-ket kelganda, birinchisi belgisiz qo'llanilishi mumkin, lekin bu barcha holatlarga taalluqli emas. Ba'zan qaratqich qo'llanmasligining iloji bo'lmaydi. Masalan: Qiyoslang: Karimning akasining qizlarining to'yi – Karim akasining qizlarining to'yi – Karimning akasi qizlarining to'yi – Karimning akasining qizlari to'yi. So'nggi holatning bo'lishini tasavvur qilish qiyin.

Aniqlovchili so'z birikmalarining yana bir turi izohlovchili so'z birikmalaridir. Bunda bir ot ikkinchi otni uning boshqacha nomi, atamasi sifatida aniqlab izohlab keladi. Natijada, izohlanmish ma'lum xarakteristikaga ega bo'ladi. *Musa Toshmuhammad o'g'li- Oybek she'r o'qidi. Professor A.Quljonov – katta olim. Izohlovchili so'z birikmalarining ikki turini ajratish mumkin:* a) mustaqil izohlovchili so'z birikmalari,

b) mustaqil bo'lmagan izohlovchili so'z birikmalari.

Birinci tur birikmalarda izohlovchilar izohlamishdan keyin keladi. Biz-qizlar uni kuzatib yurardik. Olimjon istardiki, bu odam, jamoa raisi, mahallaga qadam qo'yish bilanoq qishloqning markaziga, ulug' bir makonga kelganini payqasin. Ikkinchi tur izohlovchili birikmalarda izohlovchi izohlanmish ot bilan juda zich bog'lanadi, bir tomondan, uning sifatlovchisi kabi qo'llanadi, ko'p o'rinlarda aniqlovchi (sifatlovchi) bilan izohlovchi orasidagi chek yo'qoladi (Akademik A.A.Shaxmatov). Bunday hollarda izohlovchi sifatlovchidan otlik xususiyati va o'ziga maxsus sifatlovchi qabul qila olish xususiyati bilan farqlanadi. Izohlovchili birikmalarda ko'pincha atoqli ot bilan turdosh ot bog'lanib keladi, bunda turdosh ot izohlovchi sanaladi. Masalan: General Rahimov mukofotlandi. Dotsent To'ychiev - til tarixi bilimdoni. O'rinboy tog'am sizni yo'qladi.

TO'LDIRUVCHILI SO'Z BIRIKMALARI. Tobe komponenti tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi yoki ko'makchilar bilan birga hokim komponentga bog'langan ob'ektni bildirgan birikmalar to'ldiruvchili birikmalar hisoblanadi. To'ldiruvchili birikmalar ikkiga bo'linadi: a) vositasiz to'ldiruvchili birikmalar; b) vositali to'ldiruvchili birikmalar;

Vositasiz to'ldiruvchili birikmalarda tobe komponent tushum kelishigi formasida, belgili yoki belgisiz holda qo'llanadi. Masalan: Vatanni sevmoq, anor termoq, taom emoq, ekinni yig'ishtirmoq kabi.

Vositali to'ldiruvchili so'z birikmalarida tobe komponent jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari yoki ko'makchili konstruksiyalar bilan kelib, hokim komponentga bog'lanadi. Masalan: Vatan haqida qo'shiq, onamga xat, televizorga qaramoq, telefon orqali gaplashmoq, hech kimga kerak emas.

HOLLI SO'Z BIRIKMALARI. Tobe komponenti jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi shaklida yoki ko'makchilar bilan kelgan relyativ birikmalar holli so'z birikmalari deyiladi.

1. Harakat - uning sifat, xususiyatini bildiradi: tez yurmoq, ko'rib gapirmoq.
2. Harakat - uning yuzaga chiqish o'rnini bildiradi: Toshkentdan kelmoq. Samarqandda yashamoq.
3. Harakat yoki belgi - uning yuzaga chiqish paytini bildiradi: Hamisha baxtiyor, ertalab olmoq.
4. Harakat yoki belgi-uning yuzaga chikish sababini bildiradi: Halolligi uchun mukofotlandi, bag'ri kengligi uchun hurmatli.
5. Harakat - uning yuzaga chiqish maqsadini bildiradi: o'qish uchun keldi, yashash uchun kurashdi
6. Harakat - uning yuzaga chiqish shartini bildiradi: O'lmasa yashaydi, qaynamasa kuydirmaydi.

To'ldiruvchili va holli so'z birikmalarining grammatik shakli tushum kelishigidan boshqa hollarda bir-biridan farq qilmaydi. Bunda tobe komponentining leksik-semantik xususiyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Harakat o'tgan predmetni yoki harakatning bajarilishi uchun vosita bo'lgan predmetni bildirgan tobe komponentli birikmalar to'ldiruvchili, harakatning bajarilish o'rnini, paytini bildirgan tobe komponentli birikmalar esa holli so'z birikmalari hisoblanadi

Tobe bo'lakning vazifasiga ko'ra 8-jadval

Asosiy xususiyati	Tobe bo'lakning turlari	Misollar
So'z birikmasidagi tobe bo'lak gapda aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol vazifasida keladi. Aniqlovchi ot bilan ifodalangan bo'lak-ka tobe bo'ladi, hol va to'ldiruvchilar esa fe'l bilan ifodalangan bo'lakka tobe bo'ladi.	A t r i b u t i v	Daraxtlarning soyalari, gulzorning xusni, ko'm-ko'k o'tlar, sariq gullar, ikkita kitob; o'sha anorzor; po'lat pichoq; g'uj-g'uj oppoq tutlar. Mardni mehnat eng-mas. Qochoqqa shafqat yo'q, qo'rqqoqa – hurmat. Yaxshidan ot, yomondan dod. Marosim kechqurun o'tkazildi. Eshik g'iyq etib ochildi. Hamma gurillab o'rmi-dan turdi. Osmon sekin-sekin qizara boshladi.
	Aniqlovchi-aniqlanmish munosabati (tobe bo'lak ot, sifat, olmosh, ravish, sifatdosh kabi so'zlar, hokim bo'lak esa ot va otlashgan so'zlar bo'ladi)	
	O b ' e k t l i	
	To'ldiruvchi - kesim munosabati (tobe bo'lak otning kelishikli va ko'makchili shaklida, hokim bo'lak fe'l, sifat bo'ladi)	
	R e l y a t i v	
	Hol-kesim munosabati (tobe bo'lak ravish, ravishdosh va ba'zan otdan, hokim bo'lak esa fe'ldan bo'ladi)	

Muhokama uchun savollar:

- 3.1.1. Tobe komponentning sintaktik vazifasiga ko'ra so'z birikmasining turlari.
- 3.1.2 To'ldiruvchili va holli so'z birikmalarining o'xshash va farqli xususiyatlari.
- 3.1.3. Aniqlovchili va izohlovchili so'z birikmalarining o'xshash va farqli tomonlari.

Tavsiya qilinadigan asosiy adabiyotlar

1. M.Hamroev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili. "MOLIYA-IQTISOD" nashriyoti, Toshkent, 2007-yil.
2. U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil

3. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
4. Sh.Rahmatullayev Hozirgi adabiy o'zbek tili. 1-2 tom 2010, 2011, "Universitet" nashriyoti

QO'SHIMCHA ADABIYO TLAR

1. R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
2. O'zbek tilidan praktikum. 2-qism, 2007, TDPU
2. O'.Sharipova, I.Yo'ldoshev. Tilshunoslik asoslari TDPU, 2006.
3. M.Hamroev. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. TDPU, Toshkent, 2007-yil.
4. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nariyalar. Toshkent, 1988.
5. A.Nurmanov, R.Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. T., O'qituvchi, 1993
6. O'zbek tili grammatikasi. T., Fan, 1976.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www. tdpu.uz
- 2 www. guldu.uz
3. www.gduportal.uz
4. www.guldu.zn.uz.
5. www.pedagog.uz
6. www. Ziyonet. uz
7. www. edu. uz
8. tdpu-INTRANET. Ped

MAVZU: GAP. GAPNING ASOSIY MANTIQUIY-GRAMMATIK KATEGORIYALARI.

Reja:

1. Gap haqida umumiy tushuncha.
2. Gapning grammatik kategoriyalari: predikativlik.
3. Grammatik shaxs kategoriyasi.
4. Grammatik zamon kategoriyasi.
5. Modallik kategoriyasi.
6. Intonatsion butunlik.
7. Gaplarning tasnifi: gaplarning mazmuniga kura tasnifi va tavsifi.
8. Gaplarning tasnifi: gaplarning tuzilishiga kura tasnifi va tavsifi.
- 9.

Tayanch tushuncha va atamalar.

Sintaktik birlik, butunlik, qurilma. Asosiy sintaktik butunlik. Fikr, hukm, sub'ekt, predikat, grammatik sub'ekt, mazmuniy sub'ekt, tushuncha, tushuncha ifodalovchi birliklar, fikr, fikr ifodalovchi birliklar, gap, predikativlik, grammatik ma'no, grammatik shaxs, grammatik zamon, tasdiq va inkor kategoriyasi, modallik kategoriyasi, intonatsion butunlik. Gaplarning tasnifi. Tasnif tamoyillari va mezonlari. Gapning mazmun – maqsad (ma'no – vazifa) belgisi. Gapning ifoda maqsadi. Gapning voqelikka munosabati. Gapning emotsionallikka munosabati. Gapning intonatsiyasi. Bog'lovchi intonatsiya. Ko'tariluvchi intonatsiya. Tasdiq va inkor. Tasdiq va inkor vositalari.

1-masala bayoni:

Ma'lumki, nihoyatda murakkab va o'ziga xos sistema bo'lgan til bir-birini taqozo qiluvchi, biri ikkinchisiz yashay olmaydigan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlardan iborat bo'lib, har bir sath o'zining asosiy birligiga ega. Fonetik sath uchun bu fonema bo'lsa, leksik sath uchun leksema, morfologik sath uchun so'z-shakldir. Shu singari sintaksisning ham asosiy birligi bor. Sintaksisning asosiy birligi esa gapdir. Gap jamiyatning eng muhim, uni hayvonotdan farqlovchi faoliyati-fikrlash qobiliyatini namoyon qiluvchi asosiy vositadir. Gapning asosiy funktsional belgisi kommunikativlik, ya'ni fikr ifodalash va bayon qilish vazifasidir. Tilning bu vazifasini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita gap hisoblanadi. Zero, so'z ham, so'z birikmasi ham bu vazifani bajara olmaydi. Ularning vazifasi narsa va hodisalar, belgi, harakatlarni nomlash, ya'ni nominativ vazifadir. Bu jihatdan gap fikr ifodalovchi kommunikativ birlikdir. Gap fikr ifodalovchi asosiy

sintaktik qurilma bo'lishi bilan birga, eng kichik sintaktik birlik hamdir. Gapdan kichik sintaktik kategoriyalar fikr ifodalash xususiyatiga ega emas. Nutqdagi bundan keyingi bo'linish, aniqrog'i, gapning qismlarga ajralishi uning fikr bayon qilish xususiyatini yo'qotadi, chunki gap gap bo'laklari, so'z birikmalari, shuningdek, ular bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan ayrim bo'laklarga bo'linadi, xolos. Bular esa, bizga ma'lumki, nominativ vazifa bajaruvchi sintaktik hodisalardir.

Keyingi paytda sistem tilshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti natijasida til va nutqning farqli hodisalar ekanligi ayon bo'lib bormoqda. Bu tilning ham, nutqning ham o'zaro aloqador, biroq o'ziga xos birliklarga ega ekanligida ham ifodasini topgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, gap termini umumlashgan birlik, mohiyat sifatida til birligini ham, reallashgan birlik, hodisa sifatida nutq birligini ham ifoda etadi. Til tuzilishidagi har bir sath uchun til va nutq birliklari bo'lganidek, sintaktik sath birligi bo'lgan gap ham til va nutq birliklariga bo'linishi kerak. Gap sathida til va nutq hodisalarini farqlash uchun "gap" yoki "gap modeli" (til birligi) va "jumla" (nutq birligi) terminlaridan foydalanish o'rinli. Gap yoki gap modeli jumlaning umumlashirilgan, tipiklashtirilgan grammatik shakli (O.M.Maskalskaya), jumla esa uning muayyan vaziyat bilan bog'langan ko'rinishidir. Gap modeli aniq sanalish va tasvirlanish xususiyatiga ega (yopiq ro'yxatni tashkil etadi), jumlaning cheksiz bir ko'rinishda namoyon bo'lish imkoniyati mavjud. Bundan ikki ma'no kelib chiqadi: 1. Gap haqiqatan fikr ifodalaydi, lekin bu fikr mutlaq tugal, mukammal bo'lmaydi. 2. Gap fikr ifodalovchi yagona sintaktik butunlik emas, fikr ifodalovchi gapdan katta butunliklar ham bor.

Muhokama uchun savollar

- 1.2.1. Gapning fikr ifodalovchi asosiy va eng kichik sintaktik birlik ekanligi nimalarda ko'rinadi?
- 1.2.2. So'z birikmasi va gapning qiyosiy tahlili.
- 1.2.3. Gapning fikr ifodalashi nimaga bog'liq?

2 - masala: Gapning grammatik kategoriyalari. Predikativlik.

2- masalaning bayoni

Gap so'z va so'z birikmasidan farqli o'laroq tushuncha emas, balki fikr ifodalaydi. Bu uning muhim, farqli, asosiy, xarakterli xususiyatidir. Bu xususiyat gapning ob'ektiv borliqqa xos voqea-hodisa, holatning in'ikosi ekanligida o'z ifodasini topgan. Shu sababli gap predikativ birlik yoki birikma hisoblanadi.

Demak, predikativlik gapni boshqa sintaktik birliklardan ajratib turuvchi farqli belgisidir. Shuning uchun gapning mohiyatini, grammatik tabiatini bilib olish uchun predikativlikning nima ekanligini aniq bilib olish lozim.

Xo'sh, predikativlik nima ?

Predikativlik har qanday gapga xos umumiy grammatik ma'no bo'lib, gapni fikr ifodalash, xabar berish, tasdiqlash, hukm bildiruvchi birlik sifatida shakllantiruvchi asosiy grammatik xususiyatdir. Masalan: O'rik gulladi va o'rikning gullashi qurilmalarining axborot hajmi bir xil. Ular faqat shu ob'ektiv mazmuni qanday ifodalashi jihatidan farq qiladi. Birinchisida o'rikning gullaganligi tasdiqlanyapti, unda shu haqdagi hukm bor, ikkinchisida shu hodisa atalyapti xolos. Demak, 1-qurilma predikativ qurilma, 2-si nopredikativ (nominativ) qurilma.

Predikativlik gapning grammatik ma'nosi, dedik. Xo'sh, bu qanday grammatik ma'no? U gapning shakllar tizimidagi qismlarga ajratilmaydigan grammatik ma'nosidir. Predikativlik shaxs (son), zamon, mayl, tasdiq-inkor ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllar tizimi orqali ifodalanadi. Binobarin, ana shunday shakllar tizimiga ega bo'lgan har qanday eng kichik sintaktik birlik gap hisoblanadi. Predikativlikning shakllanishi xilma-xil:

1. Har bir predikativ ma'no komponenti (tasdiq-inkor, shaxs, zamon, modallik) alohida-alohida shakllar orqali ifodalanadi. Masalan: yoz-ma-sa- (y) – di-ng-iz qurilmasi beshta predikativ ma'no komponenti, beshta grammatik shakl orqali ifodalangan : - ma(inkor)- sa (modallik)- di (zamon) – ng (shaxs)-iz (son).
2. Bir formant yordamida sintezlashgan holda ifodalanishi mumkin. Masalan: yoz-ay (tasdiq, aniqlik mayli, kelasi zamon, birinchi shaxs).
3. Nol shaklga ega bo'lib, u paradigma ichida boshqa paradigma a'zolarining shakliga qiyosan belgilanadi. Masalan : yoz-ay, yoz, yoz-sin. Paradigmaning ikkinchi a'zosi yozning, ikkinchi shaxs,

buyruq mayli (modallik), kelasi zamon, tasdiq grammatik ma'nolarining nol shakl orqali ifodalanganligi yoz-ay va yoz-sin birikmalariga qiyosan belgilanadi.

4. Nol shaklga ega bo'lib, u nutq vaziyati orqali belgilanadi. Masalan: Bahor. Bu so'z o'zining shakl paradigmasida bosh shakl sifatida nominativ birlik, gap emas. Paradigmadan tashqarida predmetning umumlashgan nomini atash yo'li bilan shaxs, son, zamon, tasdiq, (mavjudlik) ma'nolarining ifodalanishi uni gapga aylantiradi.

Xullas, predikativlik gapning asosiy grammatik kategoriyasi bo'lib, u tasdiq, inkor, modallik (mayl), zamon, shaxs, son kategoriyalarining sintezidan iborat.

Demak, gapni predikativlik shakllantiradi: bu grammatik kategoriya- umuman gapga xos xususiyat, lekin uning ifodalanishida kesim asosiy rol o'ynaydi. Kesim umumiy predikativlik ma'nosini konkret modallik, zamon, shaxs kategoriyalari orqali ifodalaydi. (Yigirma yoshdaman. Talabaman. Albatta, boramiz kabi). Hatto Bahor. Oydin kecha kabi atov gaplar ham mohiyatan kesimga tengdir. Chunki bu erda ham mavjudlik ana shu shaklda tasdiqlanyapti. Tasdiqlash esa kesimning funksiyasidir. Bosh kelishikdagi so'zning bunday ma'no kasb etishida tugallangan intonatsiya muhim rol o'ynaydi. Intonatsiya gapga xos bo'lgan universal vositadir.

Gapning muhim xususiyatlaridan yana biri uning grammatik jihatdan shakllanganligidir. Buning ma'nosi shuki, har qanday tovush yoki tovushlar majmuasi so'z bo'lmaganidek, har qanday so'z yoki so'zlar majmuasi gap bo'lavermaydi. Buning uchun muayyan so'z tugallangan intonatsiya va sintaktik qurshov tufayli yangi sifat kasb etishi, mavjudlikni tasdiqlashi lozim bo'lsa, so'zlar majmuasi o'zaro semantik - sintagmatik aloqaga kirishib, predikativlik ifodalashi zarur bo'ladi. Bularning hammasi muayyan tilning intonatsion xususiyatlari, grammatik qonun - qoidalari asosida yuz beradi.

Ayon bo'ladiki, gapning fikr ifodalashi bejiz, o'z-o'zidan, tasodifan bo'lmay, so'z yoki so'zlarning muayyan tilning grammatik qonun-qoidalari va tugallangan intonatsiya tufayli yangi sifat kasb etishi, predikativlikka ega bo'lishidir. Masalan: Oydin tun. To'lin oy. Xiyobonda ikki qalb yolg'iz. Ikki qalbning dilbar suhbat. Ular bilan dunyo ham uyg'oq... Oqarishib kelar tong. Bu sintaktik qurilmalarning har biri bitta gapdir. Chunki ularning har biri ob'ektiv holat bilan bog'liq bir holat, manzarani tasdiqlab ifodalayapti, har bir sintaktik qurilma tugallangan intonatsiyaga ega va grammatik jihatdan shakllangandir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, gapga shunday ta'rif berish mumkin: Grammatik jihatdan shakllangan, tugallangan intonatsiyaga ega bo'lgan bir so'z yoki so'zlar bog'lanmasidan iborat fikr ifodalovchi eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi .

Predikativlik

9-jadval

Asosiy xususiyati	Predikativlik qismlari	Ifodalanishi
Predikativlik va ohang gapni shakllantiruvchi vositalardir. Gap mundari-jasining mavjud voqelik bilan aloqadorlik hodisasi predikativlik sanaladi. Predikativlikni kesim ko'rsatadi. Kesim umumiy predikativlik ma'nosini kon-kret modallik, zamon, shaxs-son vositalari orqa-li ifodalaydi. Predikatsiya kesimlilikni bildiruvchi butun shakllar sistemasi bilan bog'liq.	1. Tasdiq - inkor 2. Modallik. (Gap mazmunining voqelikka muno-sabati, aytilayot-gan fikrning mav-jud holatga muno-sabati) 3. Zamon (Aytilayotgan fikrning nutq paytiga bo'lgan munosabati: o'tgan, hozirgi va kelasi zamon) 4. Shaxs-son (So'zlovchi, ting-lovchi, o'zga shaxs-lar	-ma affiksi va emas, yo'q so'zlari, bo'lishsizlik olmoshlari orqali ifodalanadi. So'zlovchining voqelikka munosaba-ti, gapdagi fikrni qanday baholashi: haqiqiy deb bilish, shubha, taxmin, ishonch, istak. Bo'lar fe'lining mayl shakli, modal so'zlar, modal yuklamalar bilan, ya'ni grammatik, leksik va fonetik vositalar orqali ifodalanadi. Zamon ma'nosi fe'lining zamon ko'rsatadigan maxsus shakllar orqali, payt ma'nosini ifoda-lovchi so'zlar, payt ravishlari va bog'lamalar orqali ifodalanadi. Fe'llardagi shaxs-son shakllarini ko'rsatuvchi tuslovchi qo'shimchalar orqali ifodalanadi.

	birlik va ko'plik shaklda namoyon bo'ladi). 5. Ohang.	
--	--	--

Muhokama uchun savollar:

1. Gapning fikriy ma'nosi va grammatik ma'nosi.
2. Predikativlik shakli, ma'nosi?
3. Predikativlik va modallik nimasi bilan farq qiladi?
4. Predikativlik qanday ifodalanadi?
5. Predikativlik qanday ma'no?

3- masala bayoni

Gapni gap bo'lmagan boshqa lisoniy birikmalardan farqlovchi grammatik ma'no bo'lgan predikativlik har qanday gapga xos umumiy grammatik ma'no sifatida bir necha qismlardan tashkil topadi va bu qismlarning har biri o'ziga xos kichik kategoriyalarni hosil qiladi. Shu ma'noda predikativlik quyidagi tarkibiy-grammatik kategoriyalardan iborat:

- 1) gapning grammatik shaxs kategoriyasi;
- 2) gapning grammatik zamon kategoriyasi;
- 3) Gapning grammatik tasdiq-inkor kategoriyasi;
- 4) Gapning modallik kategoriyasi.

Predikativlik-gap mundarijasining voqelikka munosabatining ifodalanishida zamon, tasdiq-inkor, modallik kategoriyalari bilan birga grammatik shaxs ham qatnashadi. Grammatik shaxs gapda harakatning bajaruvchisi, sub'ekti yoki belgi egasi ma'nosining ifodalanishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun grammatik shaxs gapning ajralmas bir xususiyati, zarur kategoriyadir.

Grammatik shaxs kategoriyasi fe'llarning morfologik shaxs kategoriyasi asosida vujudga kelsa ham, lekin u bilan teng emas, undan bir muncha kengdir. Chunki grammatik shaxs kategoriyasi fe'l ishtirok etmagan gaplarda ham ifodalanadi. Bunda grammatik shaxs shaxs otlari, kishilik, belgilash-jamlash olmoshlari orqali, bular ham bo'lmaganda sintaktik konstruksiyaning o'zi bilan ifodalangan bo'ladi. So'nggi holda grammatik shaxs boshqa shaxsli gaplarga qiyosan belgilanadi. Masalan: Toshkent –O'zbekistonning poytaxti gapining grammatik shaxsi Akram – o'qituvchi, U-ishonchli hamkor gaplariga qiyosan III shaxsga aloqador bo'ladi. Grammatik shaxs kategoriyasi mazmun jihatidan olmoshlardagi shaxs kategoriyasiga o'xshashdir. Grammatik shaxs kategoriyasida ham 1-2-3– shaxs noaniq shaxs, umumlashgan shaxs, hamda shaxssizlik ajratiladi. Bunda:

- a) fe'lning shaxs-son kategoriyasi;
- b) fe'lning nisbat kategoriyasi;
- v) shaxs olmoshlari;
- g) shaxs otlari qatnashadi.

Grammatik shaxsiga ko'ra gaplar shaxsi aniq, shaxsi umumlashgan, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan, shaxssiz gaplarga bo'linadi.

Kesimi aniqlik maylidagi fe'llar va shaxs-son qo'shimchalarini olgan otlar bilan ifodalangan gaplar shaxsi aniq gap hisoblanadi. Masalan: Hech qayoqqa bormaymiz. Bizkim, turklarning bosh bo'g'ini amiri Turkistonmiz. 20 yildan buyon shu dargohda o'qituvchiman.

Kesimi 3- shaxs aniqlik mayli shaklidagi yoki birgalik nisbatidagi fe'llar bilan ifodalangan harakatning bajaruvchisini aniq ko'rsatib turmaydigan gaplar shaxsi noaniq gaplarni tashkil qiladi. Demak, bunday gaplarda shaxs grammatik jihatdan ifodalansa-da, u konkret shaxsni ko'rsatmaydi. Chunki bunday hollarda ish-harakatni bajaruvchi shaxs emas, balki ish-harakatning o'zi birinchi o'rinda turadi. Masalan : Uni Karim nonvoy der edilar. Mana buni zarba deyishadi. Yaqinda yangi stadion qurishdi. Ko'chatni ko'pincha bahorda ekishadi. Kesimi grammatik jihatdan aniq bir shaxsni ko'rsatib tursa ham mazmunan hammaga, umumga qarashli harakatni bildirgan gaplar shaxsi umumlashgan gap deyiladi. Odatda bunday gaplarning kesimlari hozirgi-kelasi zamon fe'lining ikkinchi shaxs shaklida bo'lib, birinchi va uchinchi shaxsdagi fe'llar bilan juda kam

ifodalanadi. Lekin ish harakat mazmunan doim har uch shaxsga tegishli bo'ladi. Masalan: Ishyoqmasga ish buyursang, otangdan ortiq nasihat qiladi. Izzat tilasang, ko'p dema, sihat tilasang ko'p ema. Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir. Och o'tirsang ham tinch o'tir.

Kesimdan harakatning bajaruvchisini umuman topib bo'lmaydigan, uni topib qo'yish ham mumkin bo'lmagan gaplar shaxssiz gaplar hisoblanadi. Shaxssiz gaplarning kesimi: a) uchinchi shaxs majxul nisbatdagi fe'llar bilan ifodalanadi: Yig'lanmasin, nega yig'lanadi. b) o'timsiz fe'lining majxul nisbat shakliga kirishi bilan ifodalanadi: Kecha majlisga etib borildi. Soat 3 gacha 1 tonna terildi. v) bo'l yordamchi fe'lining shart mayli va ravishdosh shaklidagi fe'l bilan ifodalanadi: Bu suvni ichsa bo'ladi – Bu suvni ichib bo'ladi. g) jo'nalish kelishigi shaklidagi harakat nomi - to'g'ri kel birikmasining tuslanishi bilan ifodalanadi: Ertaga tong saharda borishga to'g'ri keladi. d) harakat nomi - kerak, zarur so'zlari orqali ifodalanadi: Topshiriqni o'z vaqtida bajarish kerak.

Muhokama uchun savollar

1. Grammatik shaxs predikativlikning tarkibiy qismi sifatida.
2. Sintaktik shaxs va fe'llardagi shaxs-son kategoriyasi.
3. Grammatik shaxs va shaxssizlik.

4- masala bayoni:

Har qanday predmet, voqea-hodisa, ish-harakat ma'lum zamonda mavjud bo'ladi, yuz beradi: shuning uchun ana shu predmet, voqea-hodisalarning ifodasi bo'lgan gaplar ham zamon ma'no munosabatiga egadir. Aytilayotgan fikr, gap orqali ifodalanayotgan mazmun yo nutq so'zlanayotgan paytdan oldingi zamonga, nutq so'zlanayotgan paytdagi zamonga, nutq so'zlanayotgan paytdan keyingi zamonga taalluqli bo'ladi. Gap ana shunday grammatik zamon ma'nosi va uni ifodalovchi vositalarga egadir. Shunday qilib, gap orqali ifodalangan voqeaning ma'lum zamonga munosabati va bu munosabatni ifodalovchi shakllar tizimi gapning grammatik zamon kategoriyasi deyiladi.

Grammatik zamon kategoriyasi quyidagi vositalar orqali ifodalanadi:

1. Fe'ning zamon ko'rsatadigan maxsus shakllari orqali: U keldi. U kelyapti. U kelmoqchi. U kelgan. U kelmoqda. U keladi.
2. Payt bildiruvchi so'zlar, payt ravishlari orqali: Hozir keladi. Bu voqea 1941 yilda bo'lib o'tadi.
3. Bog'lamalar orqali: Men 3-kurs talabasi bo'laman. U maktab direktori edi.
4. Sintaktik qurilmaning o'zi orqali. Gapda fe'l zamonlari, payt bildiruvchi so'zlar va bog'lamalar yo'q bo'lganda ham zamon ma'nosi bo'ladi. Bunda sintaktik konstruksiyaning o'zi zamon ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Gapning zamon ifodalovchi boshqa sintaktik shakllariga qiyosan, ya'ni shu gapning paradigmaları uni ana shunday sifatga ega qiladi. Masalan: *U o'qituvchi gapi U – o'qituvchi edi. O'qituvchi bo'ladi. U o'qituvchi bo'lmoqchi* gaplariga nisbatan hozirgi zamoni ifodalaydi. Demak, grammatik zamon ma'nosi fe'ning zamon shakllari, payt bildiruvchi so'zlar hamda gap tuzilishi orqali ifodalanadi.

Ayon bo'ladiki, grammatik zamon kategoriyasi fe'ning zamon kategoriyasidan keng tushunchadir. Fe'ning zamon kategoriyasi fe'ning turli zamon shakllarini qamrasa, gapning grammatik zamon kategoriyasi tarkibiga fe'ning turli shakllarini qo'llashga imkon beradigan gapning turli shakllari kiradi. Shunga muvofiq gapning zamon paradigmasi a'zolarining miqdori turlicha bo'ladi. 1. Gapning zamon paradigmasi fe'l zamon paradigmasiga muvofiq keladi. Bu vaqtda gapning uyushtiruvchi bosh bo'lagi fe'l bo'ladi va u gapda o'zining barcha shakllari bilan kela oladi. Men (o'qidim), (o'qiganman), (o'qib edim), (o'qiyotgan edim), (o'qiyapman), (o'qimoqdaman), (o'qiyotirman), (o'qimoqchiman), (o'qiyman) kabi

2. Gap tuzilishidagi ayrim ishtirokchilar fe'ning faqat ayrim shakllari bilan kelishini taqozo qiladi. Bu vaqtda gap faqat bir zamon shaklida keladi: Hozirgina keldi.

3. Ot kesimli gaplarda kesim zamon shakliga ega bo'lmay, zamon ma'nosi gapning tuzilishi orqali ifodalanadi va hozirgi zamonga taalluqli bo'ladi. Men talabaman. Otam-o'qituvchi .

4. Atov gaplarda zamon gapning umumiy mazmuni orqali ifodalanib, hozirgi zamoni bildiradi. Bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k.

5. Ba'zan predmet, voqea-hodisa, ish-harakat qaysi zamonda yuz berishi emas, balki shu harakat o'zi muhim bo'ladi. Bunda umumzamon ma'nosi ifodalanadi. Umuman hozirgi zamonga to'g'ri keladi: Po'lat – qattiq metall. Qush ham hayvonot dunyosiga kiradi. Chopsa chopilmaydi, ko'msa

ko'milmaydi.

Anglashiladiki,

morfologik zamon ma'nosi (fe'l zamonlari) bilan gapning sintaktik zamon ma'nolari o'zaro uzviy aloqador bo'lsa-da, ular miqdor jihatidan farq qiladi. Sintaktik zamon morfologik zamoni to'liq qamrab oladi, lekin u bu ma'nolardan boshqa zamon ma'nolariga ham egadir.

Muhokama uchun savollar:

- 4.1. Grammatik zamon kategoriyasining ta'rifi.
- 4.2. Grammatik zamon qanday vositalar orqali ifodalanadi?
- 4.3. Grammatik zamon va fe'l zamonlarining farqi.
- 4.5. Fe'l qatnashmagan gaplarda grammatik zamon qanday ifodalanadi?
- 4.6. Fe'l zamonlarining ko'chishi.

5 - masala bayoni:

Predikativlikda modallik kategoriyasi asosiy o'rin tutadi. Chunki predikativlik gap mundarijasining ob'ektiv borliqqa aloqadorlik, bog'lanish xususiyati bo'lsa, modallik ana shu umumiy munosabatni konkretlashtiradi: gap mundarijasining ob'ektiv borliqqa aloqasi so'zlovchi shaxsning nutq mundarijasiga qarashi bilan aniqlashtiriladi, to'ldiriladi. Demak, modallik gap mundarijasining ob'ektiv borliqqa munosabatining so'zlovchi-sub'ekt tomonidan baholanishidir. Demak, modallik gapning ob'ektiv holat bilan belgilanadigan, shuningdek, ob'ektiv holatdan kelib chiquvchi sub'ektiv munosabat ifodalash xususiyatidir. Shu ma'noda modallik ob'ektiv-sub'ektiv munosabat mohiyatiga ega grammatik kategoriyadir.

Modallik turli vositalar orqali ifodalanadi. Ularni asosan to'rt guruhga bo'lish mumkin:

1. Fe'lning mayl ko'rsatuvchi shakllari: bunda modallik tasdiqlash va inkor qilish orqali ifodalanadi.

Aniqlik maylida tasdiq (yo aksi) qat'iy tusda beriladi: bordi, boradi-boriladi, bormaydi kabi). Bu holat aniqlik maylidagi fe'l kesim vazifasida kelganda yuz beradi. Buyruq maylining II shaxsida ham shunday: bor, borma. Bu forma o'rni bilan iltimos, yalinish ma'nolariga ham ega bo'ladi. Bunda intonatsiya ham boshqacha bo'ladi: Berib yubor. Berib yubor! Ber. Ber! Berib tur. Berib tur! Bu erda birinchi holda iltimos yalinish, keyingi holda buyurish ma'nosi ifodalangan. Shart mayli tilak, istak, iltimos kabilarni bildiradi. Bunda shart maylidagi fe'l sodda gapning kesimi bo'lib keladi: Mana shu kitobni menga berib tursang. Bugun bir shaharni aylansak.

b) shartni, ayrim hollarda paytni bildiradi. Bu holat ular ergash gapning kesimi bo'lib kelganda ro'y beradi. Vaqtdan unumli foydalansak, ishimiz ham tez bitadi, dam olishga ham ulguramiz .

2. Modal so'zlar orqali. Bu, shubhasiz, sening ishing. Ehtimol, kelib qolar.

3. Yuklamalar orqali. Nahotki, podachi bormay qolsa. Sen-a ?

4. Gapning maxsus tipi bilan: harakat nomi kerak (zarur, lozim, shart, aniq, gumon kabi so'zlar) orqali: Ertaga viloyatimizda prezidentimiz asarlari bo'yicha seminar bo'lishi kerak. Imtihonlarga jiddiy tayyorlanishimiz zarur .

5. Intonatsiya orqali. Gaplar modallik intonatsiyasi orqali turli xil modal ma'nolar kasb etadi. Kelinglar! – ishonch intonatsiyasida: Kelinglar – istamaslik, xohish bildirmaslik intonatsiyasi. Bormaydi – ishonchli, qat'iy inkor intonatsiyasi. Bormaydi ?! – qat'iy tasdiq intonatsiyasi. Albatta, boradi ma'nosida.

Yuqoridagilardan qisqacha shunday xulosa qilish mumkin:

Grammatik modallik gapni shakllantirishdagi o'rni va sub'ektning gap mazmuniga munosabat darajasiga qarab, ikki guruhga: ob'ektiv va sub'ektiv modallikka bo'linadi

Ob'ektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy grammatik ma'nolardan biri, asosiy uzvi hisoblansa, sub'ektiv modallik ob'ektiv modallik ustiga qo'yilgan qo'shimcha modallikdir. U gapda bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun u gapning doimiy uzvi emas. Tilga xos modallik so'zga, iboraga, so'z birikmasiga ham xos bo'lishi mumkin (grammatik, leksik, fonetik vositalar orqali ifodalanadi) .

Muhokama uchun savollar:

1. Modallik va predikativlik munosabati.
2. Modallik va modal so'zlar.
3. Modallikning qanday vositalar orqali ifodalanadi?
4. Modallikning qanday tiplari bor?

6- masala bayoni:

Gapning, nutqning intonatsion tomoni uning mundariyasi va strukturasi bilan bog'liq: nutqning qismlarga bo'linishi grammatik-fikriy va intonatsion jihatlariga asoslanadi. Gapning qismlarga ajratilishi bir qancha tomonlardan bo'lishi mumkin: logik tomondan (mazmun qismlari), formal – grammatik tomondan (grammatik qismlar), fonetik tomondan (intonatsion qismlar). Lekin bu tomonlar o'zaro bog'langan: ular bir-biriga moslashgan bo'ladi. Tilning turli vositalarini analiz qilish shuni ko'rsatadiki, intonatsiyaning yolg'iz o'zida til nuqtai nazaridan fikriy mundarija yo'q: u gap, so'z orqali mavjud, demak, intonatsiya tilning yordamchi vositasidir: supersegment fonetik hodisadir. Shulardan kelib chiqib, intonatsiyaning asosiy vazifasini quyidagicha jamlab ko'rsatish mumkin:

Intonatsiya gapni, nutqni fonetik jihatdan shakllantiradi, grammatik-fikriy tugallikni ko'rsatadi. U o'zaro bog'langan bir necha so'zning yoki yakka so'zning gap bo'lishida qatnashadi. Bunday tugallangan intonatsiya gapga xos bo'lib, u so'z birikmasida yo'q. Demak, bu tipdagi intonatsiya so'z birikmasi bilan gapni farqlaydigan belgilardan biridir. Predikatsiya, predikativlik ma'lum darajada shu intonatsiya bilan ifodalanadi. Bir so'zdan iborat Tong tipidagi gaplarda, shuningdek, Shahar-shahar; Qishloq-qishloq tipidagi gaplarda predikativlikning intonatsiya yordami bilan ifodalanishini yaqqol ko'rish mumkin. Gapning kuzatilgan maqsadga, emotsionallikka ko'ra turlari ko'p jihatdan intonatsion farqqa qarab belgilanadi. Intonatsiya gapning modalligini o'zgartirib yuborishi mumkin. Masalan: tasdiq bildiradigan gapni intonatsiya yo'li bilan inkor bildiradigan gapga aylantirish. Borasan-a, borasan!

Gap tugallangan fikr ifodasidir, uning mazmun tomonidir, lekin bu fikriy tugallik nisbiydir, chunki ayrim gapdagi fikrning to'liq ochilishi nutq ichida bo'ladi. Demak, gap formal-grammatik va intonatsion jihatlardan ham, mundarija jihatdan ham tugallikka ega. Biroq uning fikriy tugalligi – nisbiy. Gap nutq ichida yashaydi. Nutqda uning mazmuni boshqa gaplar bilan munosabatda bo'lish orqali yana ham oydinlashadi. Gap bir so'z yoki so'zlar bog'lanmasidan tashkil topadi. Bir so'zning gap bo'lib kelishi maxsus intonatsiya tufaylidir. Bunda predikativlik intonatsiya orqali ifodalanadi: Bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k.

Gap so'zlar bog'lanmasidan iborat bo'lganda, uning bo'laklari ma'lum grammatik qonun-qoidalar asosida sintaktik aloqaga kiradi. Bu tip gaplarda predikativlik mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari, modal so'zlar bilan ifodalanadi: Qirdan g'ir-g'ir shabada esadi.

Yuqoridagi belgilar asosida gapga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Grammatik shakllangan, intonatsion va fikriy tugallikka ega bo'lgan, fikrni shakllantirish, ifodalash va bildirish vositasi bo'lgan so'z yoki so'zlar bog'lanmasidan tashkil topgan eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi.

Muhokama uchun savollar:

1. Intonatsiya nutqiy gapni shakllantiruvchi qanday omil?
2. Intonatsiya qaysi gaplarda predikativlikni ifodalovchi asosiy vositaga aylanadi?
3. Intonatsiyaning qanday tiplari bor?

MAVZU: GAPLARNING TASNIFI: GAPLARNING MAZMUNIGA KO'RA TASNIFI.

REJA:

1. DARAK GAPLAR
2. SO'ROQ GAPLAR
3. UNDOV GAPLAR

Gaplarni tasnif qilishda, u yoki bu turga ajratishda ularning: a) mazmuni yoki ma'no vazifasiga; b) tuzilishi yoki tarkibiy xususiyatlariga asoslaniladi.

Har qanday gap tipi yoki turi gapning ana shu ikki jihatiga kelib bog'lanadi va ana shu ikki jihatni aniqlash, izohlashga xizmat qiladi.

Gaplarni mazmun yoki ma'no - vazifasiga ko'ra tasniflashda uch jihatga e'tibor beriladi: 1) ifoda maqsadiga; 2) voqelikka munosabatiga; 3) emotsionallikka munosabatiga.

Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra uch turga bo'linadi: darak gap; so'roq gap; buyruq gap.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari			10-jadval
No	Turlari	Farqlovchi belgilari	Misollar
1	Darak gap	Maxsus ko'rsatkichga ega emas. Kesimi darak mazmunini bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanadi.	Derazamning oldida bir tup O'rik oppoq bo'lib gulladi.
2	So'roq gap	Tarkibida so'roq olmoshi va so'roq yuklamasi bo'ladi yoki so'roq ohangi bilan talaffuz qilinadi.	Jizzax cho'lida bo'lganmisiz? - Siz qaerda o'qiysiz? - Toshkentda. - Toshkentda?
3	Buyruq gap	Kesimi buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi.	Yozaver, yozaver, zehn qo'yib yoz, Zafarni marmarga, mayli, o'yib yoz. (A.P)

Darak gap.

1. Voqea-hodisalarni tasdiq yoki inkor yo'li bilan xabar qiluvchi gap darak gap deyiladi: Qish cho'zilib ketdi. Navro'z kelib qolgan bo'lsa ham, havo sovuq, ayrim erlarda hali ham qor bor.

2. Darak gaplar xabar, orzu-umid, maslahat, taajjub, tashvish, gina, kinoya kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ba'zan istak, gumonni ifodalashi ham mumkin.

Avval bir tamaddi qilib olsak. Sirojiddin ham kelib qolar. Katta bo'lsam, uchuvchi bo'laman. Kimdir izimizga tushibdi.

3. Darak gapning kesimi ko'pincha aniqlik maylining o'tgan, hozirgi-kelasi zamon formalari bilan, ba'zan shart-istak mayli formasi bilan ifodalanadi. Ikki soatdan keyin etib boraman. Sessiya tugadi.

4. Darak gap xabar intonatsiyasi bilan aytiladi, yozuvda uning oxiriga nuqta qo'yiladi. Bunda ohang gapning birinchi qismida ko'tarilib, ikkinchi qismida esa pasayib boradi:

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida olamshumul voqealar sodir bo'lmoqda. Ega va kesim gapning bosh bo'laklaridir.

Darak gap nutqda gapning boshqa turlariga qaraganda keng qo'llanadi. Hatto butun matnlar darak gaplardan tashkil topadi. Darak gap haqidagi yuqoridagi ma'lumotlar buning isbotidir.

Darak gaplar		11-jadval
Ma'nolari	Misollar	
Darak-xabar	Bolalar ko'zlaridan nafrat uchqunlari otilib turgan Po'latning vajohatilan qo'rqdilar.	
Istak	Men senga doimo sog'liq - salomatlik tilayman.	
Maslahat, tashviq	Maydonga ro'yi rost chiqib, haqimizni da'vo qilamiz. (O.)	
Taajjub	Cho'loq boshi bilan Meresev ham kelibdi-ya. (B.P)	
Gumon	Balki u odam butun bola- chaqasi bilan ekinga ko'z tikayotgandir.(O)	
Tasvir	Temir – metall. Tol - daraxt.	

So'roq gap.

So'zlovchiga noma'lum bo'lgan biror voqea - hodisa, harakat-holat, belgi haqidagi so'roqni bildirgan gaplar so'roq gap deyiladi. O'qishlar qalay? Qachon keldingiz?

So'roq gap odatda so'zlovchiga noma'lum bo'lgan biror narsa haqida xabar bilish, shu to'g'rida ma'lumot olish maqsadida ishlatiladi va shu xabar ma'lumotni anglatuvchi javobni talab qiladi. Lekin so'roq gapning javob talab qilmaydigan ko'rinishlari ham bor. Bunday gaplarda so'roqqa javob gapning o'zidan anglashilib turadi. So'zlovchining o'zi javob beradi: Vatanni kim sevmaydi?!

So'roq gaplar ba'zan so'roq yo'li bilan ifodalangan hayratlanish, taajjubni, buyruqni, shubha-gumonni, taxminni, turli holat, tuyg'ularni ham ifodalaydi. Masalan: Lotereyangizga Neksiya chiqdimi? Tezroq yurmaysizmi? Dushanbagacha ulguramizmikan? Bunaqada uni kim yoniga oladi?! Mana shu xususiyatlariga ko'ra so'roq gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sof so'roq gaplar (asl so'roq gaplar). Bular odatdagi javobni talab qiluvchi so'roq gaplardir. Qachon boramiz sayohatga? Bunday so'roq gaplar shubha, gumon, taajjub, istak kabi ma'no nozikliklarini ham ifodalaydi. Bunday nozik ma'nolarni og'zaki nutqda ohang tovlanishlari ko'rsatadi. Masalan: Qachon katta bo'laman, dada? Uchrashuvga chiqarmikin?

2. Ritorik so'roq gaplar. Bunday so'roq gaplar javob talab qilmaydi. Bunda so'roq yo'li bilan tasdiq mazmuni beriladi (yashirin tasdiq). So'roq gapning bu turi fikrni emotsional tusda, kuchli, ifodali, ta'sirli qilib beradi. Masalan: Xalq orzusini amalga oshirishdan kattaroq baxt bormi?! Baxtli bo'lishni kim istamaydi?!

3. So'roq-buyruq gaplar. Bunday gaplar so'roq yo'li bilan buyurish ma'nosini ham bildiradi. Tez-tez yurmaysanmi?

So'roq gaplar asosan quyidagi vositalar bilan tuziladi:

- 1) So'roq yuklamalari bilan: Bugun «Klara» bo'ladimi? Kelasan-a?
- 2) Nahot, nahotki yuklamalari bilan: Nahot sizga yoqmasa?
- 3) So'roq olmoshlari bilan: Nima chaynayapsan? Qachon to'xtatasan?
- 4) So'roq intonatsiyasi bilan: Iroda Parijga ketipti?

So'roq intonatsiyasi so'roq gapning hamma turida bor, lekin uning roli har xil: a)so'roqni ifodalovchi leksik-grammatik vositalar bo'lmaganda, intonatsiya bosh rolda bo'ladi b)leksik grammatik vositalar ishtirok etganda, uning roli avvalgiga nisbatan kuchsizlanadi.

So'roq gapda intonatsiya ko'tariluvchi, pasayuvchi, ko'tariluvchi-pasayuvchi xarakterida bo'ladi. Ko'tariluvchi intonatsiyada logik urg'u olgan bo'lak gap oxirida bo'lib, ohang ko'tarilib boradi: Bugun qor yog'adi? Logik urg'u olgan bo'lak so'roq gapning boshida kelsa, ohang pasayib boradi. Biz bugun navbatchilik qilamiz?

Logik urg'u olgan bo'lak so'roq gapning ichida kelsa, ohang shu bo'lakkacha ko'tarilib, so'ng pasayadi: Biz bugun ekskursiyaga boramiz? Biroq shunda ham ohang darak gapdagidek u bilan tenglasharli darajada past bo'lmaydi.

So'roq gaplar 12- jadval

№	So'roq gapni hosil qiluvchi vositalar	So'roq gapning semantik guruhlari	Xususiyati	Misollar
1.	So'roq yuklamalari (-mi, -chi, -a (-ya), -ku, nahot, nahot- ki)	Sof so'roq gap	So'zlovchining no-ma'lum yoki uncha-lik aniq bo'lmagan narsa va hodisa-lar haqida ma'-lumot olish uchun ishlatiladi	Kim keldi? Qachon ketasiz? Qaerga borasiz?
2.	So'roq olmoshlari (kim?, nima?, qaysi?, qancha?, necha?, nega?, qani?)	Ritorik so'roq gap	Mazmunidan xabar anglashiladi. His-hayajonli ma'no ifodalaydigan mu-him uslubiy vo-sita. So'roq yo'li bilan tasdiq mazmuni beriladi.	Bolani kim sevmaydi? (Hamma sevadi.) Yaxshi she'rdan kim bahra olmagan?! (Hamma bahra olgan.)
3.	So'roq ohangi	So'roq-buyruq gap	So'roq yo'li bilan buyurish bo'yog'ini ham beradi.	Ishga ertaroq kelmayisizmi?! (Ishga ertaroq keling.)

Buyruq gaplar.

Buyurish, iltimos, maslahat kabilarni ifoda qiluvchi gaplar buyruq gaplar deyiladi: Shoshmasdan yoz. Meni unutmang, Sirojiddin aka! Otangning yoshlikdagi do'stalaridan xabar olib tur.

Buyruq gaplarda buyruq, iltimos, maslahat, yalinish, g'azab, do'q kabilar ifoda qilinadi: So'zingdan qaytma. Yangi chiqqan adabiyotlar bilan tanishib boring. Qani, tuyog'ingni shiqillat. Jo'na! O'pkangni bos.

Buyruq gapning kesimi odatda buyruq mayli bilan ifodalanadi. Bunda fikr ko'proq tinglovchi shaxsqa qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham bunday gaplarning kesimi buyruq maylining II shaxs shakli bilan ifodalanadi. Chiqma, yiqilasan. Yig'ishtir mashmashangni!

Ba'zan buyruq gap kesimi I va III shaxsdagi buyruq mayli shakllari bilan ham ifodalanadi, lekin ma'no o'ttenkalarida farq bo'ladi. Qizlar, bugun bir teatrda tushaylik. Kim tushunmagan bo'lsa, o'rmdan tursin.

Buyruq maylining uchinchi shaxs (birlik) formasidagi fe'l kesim majhul nisbatda bo'lishi ham mumkin. Bunday holatda, odatda, umumiy buyruq mazmuni kelib chiqadi: Zalda chekilmasin! Qoidaga rioya qilinsin! Tartib saqlansin. Lekin bu formani II shaxs uchun buyruq ma'nosida qo'llash ham mumkin. Yig'lanmasin! Nega yig'lanadi?!

Buyruq gaplar ma'no o'ttenkalariga qarab turli intonatsiyaga ega bo'ladi, biroq buyruq intonatsiyasi ular orasida ajralib turadi.

Buyruq gapni hosil qiluvchi leksik-grammatik vositalar bo'lmaganda, buyruq gap intonatsiya bilangina tuziladi. Bolg'a! (Bolg'ani ber!) Qattiqroq! (qattiqrok gapir!) Bu gaplar kuchli ohang bilan aytiladi.

Buyruq gaplar 13- jadval

№	Buyruq gapni hosil qiluvchi vositalar	Semantik guruhlar	Misollar
1.	Buyruq maylidagi fe'l shakllari: -y (-ay), -ylik (-aylik), -gin, -in, -sin.	1. Sof buyruq gaplar 2. Maslahat, nasihat gaplar 3. Iltimos gaplar 4. Istak, tilak, maqsad gaplar	Ertaga ishga chiqing! Kundalik gazeta xabar-lari bilan tanishib boring. Ozgina choy bering. Davron suring hur mehnatda, asti tol-mang. (A.Po'lat) Bugun bir kinoga boray.
2.	Buyruq ohangi (kesimi aniqlik maylidagi gaplarda)		

Muhokama uchun savollar

1. Gaplarni tasnif qilishda nimalarga asoslaniladi?
2. Darak, so'roq, buyruq, undov gaplarni hosil qiluvchi vositalar.
3. Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlarida intonatsiyaning turlari.

2 – masala. Gaplarning voqelikka munosabatiga ko'ra turlari.

2 - masala bayoni:

Gapning tasdiq va inkor formasida bo'lishi uning hamma turiga xos, lekin logik jihatdan qaraganimizda, tasdiq va inkor hodisasi xabar berishning eng xarakterli xususiyatidir. Bu jihatdan uning darak gap bilan zich bog'liq ekanligi anglashiladi. Biroq tasdiq va inkor mazmunini bildirish so'roq gap va undov gaplarning ayrim turlari uchun ham xosdir. Bunda intonatsiya ham muhim rol o'ynaydi. Demak, gaplar borliqqa munosabati jihatidan ikki turga bo'linadi: 1. Tasdiq gap. 2. Inkor gaplar.

Tasdiq gaplar narsa-hodisalar orasidagi munosabatning mavjudligini tasdiqlaydi. Masalan: Yig'im-terim tugadi. Qor yog'di.

Inkor gaplar esa shu munosabatning mavjudligini inkor qiladi. Masalan: Yig'im-terim tugamadi. Qor yog'madi. Tasdiq va inkor kategoriyalari orasida chambarchas bog'liqlik bor. Har qanday tasdiqdan inkor, har qanday inkordan tasdiq kelib chiqadi. Havo sovuq (issiq emas). Havo issiq (sovuq emas).

Inkor gaplar tasdiq gaplar asosida maxsus inkor ko'rsatkichlari (qo'shimchalar, so'zlar) yordamida hosil bo'ladi. Tasdiq gaplar esa bunday ko'rsatkichlarga ega emasligi bilan xarakterlanadi.

Inkor gaplarni hosil qiluvchi vositalar quyidagilar:

1. Kesim vazifasida kelgan fe'ning bo'lishsiz formasi orqali: Farida o'qimagan.
2. Fe'ning sifatdosh formasi va emas orqali: Farida o'qigan emas.
Eslatma: emas so'zi sifatdoshdan boshqa so'zlar bilan birgalikda ham inkor gaplarni yuzaga keltirishi mumkin: Nazira yomon qiz emas.
3. Fe'ning sifatdosh formasi Q yo'q modal so'zi orqali: Gavhar aytgani yo'q.
4. Takrorlanib kelgan na yordamchisi orqali. Bunda na yordamchisi ko'pincha bo'lishli fe'l bilan birgalikda keladi: Gavhar na o'qidi, na yozdi.
5. Hech bo'lishsizlik ma'nosini ifodalovchi so'z bo'lishsizlik fe'li va olmosh bilan birgalikda inkor gaplarni yuzaga keltiradi. Masalan: Hech kim majlisga kelmadi.
6. Ba'zan inkor ma'nosi intonatsiya yordami bilan ham beriladi. Bunda gap tasdiq formasida bo'ladi – Ha, tog'ang keldi. Borasan-a borasan!
7. Sifatlarda qo'llaniladigan -siz qo'shimchasi ham gapni inkor mazmuni bilan bog'laydi. Masalan: U qobiliyatsiz. Keldibek madaniyatsiz. Bunday hollarda sifatlarning kesim yoki kesimning aniqlovchisi bo'lib kelishi lozim.
Demak, inkor vositalari asosan uch xil ekan: leksik vositalar, grammatik vositalar, intonatsion vositalar.

Gapning voqelikka munosabatiga ko'ra turlari 14-jadval

№	Turlari	Farqlovchi belgilari	Misollar
1.	Tasdiq (bo'lishli) gaplar	Mavjudlikni ifodalaydi.	Tongda hamma yoqdan bulbullar-ning xush ovozi eshitildi. (H.N) Bog'imizda har xil mevalar bor.
2.	Inkor (bo'lishsiz) gaplar	Mavjudlikni inkor qiladi. - ma, emas, yo'q ko'rsatkichlari yordamida hosil bo'ladi.	Ilmni mehnatsiz egallab bo'lmaydi. Dangasalik hech qachon yaxshi-likka olib kelgan emas. Do'stimdan xat kelgani yo'q.

3-masala: Gapning emotsionallikka munosabatiga ko'ra turlari.

2-masala bayoni:

Gaplar emotsionallikka munosabat jihatidan ikkiga bo'linadi: emotsional gaplar va emotsional bo'lmagan gaplar. Birinchi tur undov gaplardir.

Undov gap fikrni kuchli his-hayajon bilan ifodalaydigan, o'ziga xos his-hayajon, ayrim undov intonatsiyasi, kuchli ohang bilan aytiladigan gapdir. Masalan: U o'rtog'iga qarab: «Ot o'ldi!»- dedi. «Men yaxudiyman! Qo'zg'aldi butun xalq: ukrain, o'zbek, yahudiy». Bolalar qichqirdilar: Ko'klam keldi!

Undov gap odatda fikr bilan birga shunga bo'lgan emotsional munosabatni - shodlik, qo'rqinch, tantana kabilarni - turli emotsiyalarni ifodalaydi. Demak, darak, so'roq va buyruq gaplarga maxsus undov intonatsiyasining qo'shilganligi gapning kuchli emotsionallik, ko'tarilgan ohang bilan aytilishi ulardan undov gap hosil qilinganligini ko'rsatadi. Misollar: Kontsert boshlandi. - Kontsert boshlandi! Opam kelidimi? - Opam keldimi! Yo'qol ko'zimdan. Yo'qol ko'zimdan! va boshqalar.

Undov gaplar quyidagi (emotsional) intonatsion, grammatik xususiyatlarga ega:

- 1) Bu gap maxsus undov intonatsiyasiga (to'lqinli intonatsiyaga) ega bo'ladi. Emotsiya, hislarning har xil bo'lishiga (shodlik, erkalash, g'azab, afsus, qo'rqinch kabi) va ularning qay darajada bo'lishiga qarab, intonatsiya ham turli tus oladi.
- 2) Undov gaplarning sostavida undovlar (his-hayajon undovlari), shunga mos kuchaytiruvchi so'zlar, ayrim yuklamalar ishtirok etgan bo'lishi mumkin. Misollar: Eh, bugun lagerga ketamiz!.. Paxtazorlar qanday chiroyli! (qanday so'zi - kuchaytiruvchi). Naqadar balanddir bu erda cho'qqi!
- 3) Undov gapning ayrimligi ba'zan gapdagi bo'laklarning tartibida ham ko'rinadi: Emotsionallikni kuchli ifodalash uchun inversiya ham xizmat qilishi mumkin. Ko'rsatib qo'yaman men o'sha insofsiz qoziga!»- dedi yigit.

- 4) Undov gaplarda emotsionallikni kuchaytirish uchun emfatik urg'u olgan so'zni takrorlash, ikki marta (ba'zan ortiq) ishlatish hollari ham uchraydi. Mardikor bahona yurtni shildi. Yurtginani shildi bular! (Bu o'rindi -gina ham kuchaytiruvchidir).
- 5) Undov gaplar ko'pincha bir sostavli bo'ladi. Biznikilar! Yashasin erkinlik! Oh qanday go'zalsan!

Gapning emotsionallikka ko'ra turlari 15-jadval

№	Turlari	Farqlovchi belgilari	Misollar
1.	His-hayajonga ega bo'lmagan gaplar: A) darak gap B) so'roq gap V) buyruq gap	His- hayajon bildirmaydi.	Bugun klubda uchra-shuv bo'ladi. Ta'tilda qaerga borasan? O'rtog'ingni biznikiga olib kel.
2.	His- hayajon yoki undov gaplar.	Kuchli his-hayajonni bildira-di. Darak, so'roq va ko'proq buyruq gaplardan hosil bo'ladi. Undov ohangida talaf-fuz qilinadi.	O'qish boshlandi! Poezd keldimi?! Yashasin Navro'z bayrami!

Muhokama uchun savollar

- 2.1.1. Gaplar emotsionallikka munosabati jihatidan necha turga bo'linadi?
- 2.1.2. Emotsional gaplarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

Adabiyotlar

1. A.G'ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T., 1987. 29-48-betlar.
2. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili(darslik). T., Universitet, 2006.272-387-betlar.
3. R.Sayfullaeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. III.(o'quv qo'llanmasi). T., 2006. 123-136-betlar.
4. M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). T., 2000 y.
5. R.Ikromova, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova.Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
6. A. Nurmanov, R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda.T., 1983.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. G'.Abdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Qo'llanma.T.: «O'qituvchi», 1979 .
2. O'zbek tili grammatikasi 2-tom, sintaksis .T.:, «Fan»,1976.
3. A.Nurmonov, R.Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. T.:«O'qituvchi» 1993, 102-bet.
4. N.Mahmudov, A.Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. Qo'llanma. T.: «O'qituvchi» 1995.
5. O'zbek tili grammatikasi.T. Fan. 1976.

MAVZU: GAPLARNING TASNIFI: GAPLARNING TUZILISHIGA KO'RA TASNIFI .

Ajratilgan vaqt: 2 soat

Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar

1. Gaplarning tuzilishiga ko'ra tasnifi.
2. Sodda gapning tuzilishiga ko'ra tasnifi:
 - 2.1. Bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra.
 - 2.2. Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etishi etmasligiga ko'ra.
 - 2.3. Zarur bo'laklarning ifodalanishi - ifodalanmasligiga ko'ra.

2.4.Bo'laklarga ajralish - ajralmasligiga ko'ra.

3. Qo'shma gaplarning tuzilishiga ko'ra tasnifi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar.

Gaplarning tasnifi. Tasnif tamoyillari va mezonlari. Gapning ma'no – vazifa belgisi. Tuzilish belgisi. Sodda gap va qo'shma gap. Sodda va qo'shma gapda tarkibiy xususiyat. Sodda gapning tuzilish belgisi. Gapning bosh bo'lagi. Bosh bo'lakning miqdori. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari. Gapning zarur bo'laklari. Gapning bo'laklarga ajratilishi, bo'laklarga ajratilmasligi.

1- masala: Gaplarning tuzilishiga ko'ra tasnifi.

1-masalaning bayoni:

Gaplarning tuzilishiga ko'ra turlarini belgilashda quyidagilar asos qilib olinadi:

Grammatik asos, predikativ markazning miqdori.

Gaplarning grammatik asos, predikativ markazning miqdoriga ko'ra turlarini belgilashda oddiy gaplarning grammatik asosi, struktura asosi, predikativ markazi, yadrosi tushunchalarini bilib olish lozim. Bu terminlar har qanday gapning tuzilishida asosiy rol o'ynovchi bo'laklar yoki bo'lak ma'nosini bildiradi. Bu bo'laklarsiz gap shakllanmaydi, predikativ munosabat yuzaga kelmaydi, fikr ifodalanmaydi. Shuning uchun uni ba'zilar grammatik asos, predikativ markaz, yana ba'zilar predikativ yadro deydi. Nima deyilishidan qat'i nazar, so'zni o'zak morfemasiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, gapni ham mazkur bo'laklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Gapda bunday vazifani ega va kesim munosabati yoki kesimning o'zi yoki kesim sostavi bajaradi. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Yangisini qurmay, eskisini buzmay. Shovqin qilmang. Etti o'lchab, bir kes.

Demak, gapning grammatik asosi, predikativ markazi ega va kesim munosabatidan tashkil topgan predikativ qurilma yoki kesim sostavi yoki kesimning o'zidan tashkil topgan predikativ birlikdan iborat.

Gaplarning tuzilishiga ko'ra turlarini belgilashda dastlab ana shu grammatik asos, ya'ni ularning necha grammatik asosli ekanligiga qaraladi. Bunga ko'ra gaplar dastlab ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Sodda gaplar.
2. Qo'shma gaplar.

Sodda gaplar bir grammatik asosdan, bir predikativ markazdan iborat bo'ladi. Bu grammatik asos ega-kesim munosabati yoki kesim sostavi (yoki kesimning o'zi) bilan ifodalangan bo'ladi. Masalan: Qo'ng'iroq chalindi. Hamma o'z o'rnini egalladi. O'qituvchi kirib keldi. Salomlashdik. Dars boshlandi.

Qo'shma gaplar ikki yoki undan ortiq grammatik asoslarning birikib, bir semantik butunlik hosil qilishidan yuzaga keladi. Bu grammatik asoslar mustaqil holda ishlatilishi ham, ishlatilmasligi ham mumkin. Bu erda ularning mustaqil ishlatilishi yoki ishlatilmasligiga emas, balki grammatik asos talablariga javob berishi yoki bermasligiga e'tibor beriladi. Qo'shma gapning grammatik asoslari xuddi sodda gap singari ega - kesim munosabati yoki kesim sostavi (yoki kesimning o'zi) dan iborat bo'lishi va ularning biri ikkinchisidan pauza-to'xtam bilan ajralib turishi kerak.

Ana shunday semantik-sintaktik, intonatsion xususiyatlarga ega bo'lgan sintaktik butunliklar qo'shma gap hisoblanadi. Masalan: Havoni bulut qopladi, lekin yomg'ir yog'madi. Buxoro xonligida rus boj nazorati o'rnatilgach, choyni har pudi uchun 6 so'm miqdorida boj belgilangan. Bu gaplarning har ikkisi ham ikki sodda gap predikativ birlikdan iborat bo'lishi bilan birga, bu predikativ birliklar o'zaro grammatik jihatdan bog'langandir.

Albatta, tilning dastlabki davrlarida sodda gap qo'llangan, keyinchalik sodda gaplarning qo'shilishi va fikrni ifodalashning turli ko'rinishlariga o'tilgandan keyin qo'shma gaplar ham yuzaga kelgan. Hozirgi kunda og'zaki nutqda sodda gap ko'proq qo'llansa, yozma nutqda qo'shma gap ham faol qo'llanadi. Yozma nutqda og'zaki nutqga qaraganda vaqt va imkoniyat kengroq bo'lgani uchun fikr qo'shma gaplar shaklida ham ifodalanadi, qolaversa, yozma nutqda ko'proq murakkab voqea-hodisalar bilan bog'liq jabhalar bayon qilinadi. Masalan: Qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi. Mumtoz tilimizga oid so'zlarning loaqal 10 foizi nutq madaniyatimizga (muomalaga) kiritilsa, davlat tilimizning obro'si yanada oshgan bo'lardi. Qor yog'di - don yog'di. Qo'shning tinch-sen tinch. Borsam, yo'q ekansan.

Shu bois ushbu talablarga javob bermagan, biroq shaklan qo'shma gapga juda o'xshash bo'lgan quyidagi sintaktik qo'shilmalar qo'shma gap hisoblanmaydi:

Omon bo'lsak, uchrashamiz. Onasi mukofotlangan qiz keldi. Soqol-mo'ylovlariga oq oralagan, peshonasi keng, ko'zlari mehr bilan boquvchi bu kishi bir ko'rinishdayoq kishida iliq taassurot qoldirardi. Birinchi gapda ega bitta, ikkinchi gapda predikativ birikma ikkita bo'lsa-da, birinchisi aniqlovchi vazifasida kelgan (qanday? qaysi? so'rog'iga javob bo'ladi), uchinchi gapda ham predikativ birikmalar va sifatdosh oborot aniqlovchi vazifasida kelgan. Ular predmetdan ajralib turuvchi alohida intonatsiyaga ega emas. Binobarin, ular sodda gaplardir.

Sodda gapning umumiy tahlili 16-jadval

№	Gapning asosiy turlari	Turning bo'linishlari
1.	Gapning tuzilishiga ko'ra	1. Sodda gap; 2. Qo'shma gap
2.	Gapning maqsadiga ko'ra	1. Darak gap; 2. So'roq gap; 3. Buyruq gap
3.	Gapning voqelikka munosabatiga ko'ra	1. Tasdiq (bo'lishli) gap; 2. Inkor (bo'lishsiz) gap
4.	Gapning sostaviga (bosh bo'laklariga) ko'ra	1. Bir sostavli (1 bosh bo'lakli) gaplar; 2. Ikki sostavli (bosh bo'lakli) gaplar. Bir sostavli gaplar: 1. Kesim sostavidan: a)shaxsi aniq; b)shaxsi noaniq; v) shaxsi topilmas; g)shaxsi umumlashgan, d)nomina-tiv (atov) gap.
5.	Ikkinchi darajali bo'laklarning mavjudligiga ko'ra	1. Yig'iq gap; 2. Yoyiq gap; a) aniqlovchili; b)to'ldiruvchili; v) holli; g) aralash.
6.	Emotsionallikka ko'ra	1. His-hayajonsiz gaplar: darak, so'roq, buyruq gaplar. 2. His-hayajon gaplar: darak, so'roq, buyruq gaplardan hosil bo'lgan undov gaplar.
7.	Zaruriy bo'laklarning ifodalanishiga ko'ra	1. To'liq gap. 2. To'liqsiz gap.
8.	Bo'laklarga bo'linish-bo'linmasligiga ko'ra.	1. Bo'laklarga bo'linadigan gaplar; 2. Bo'laklarga bo'linmaydigan gaplar: A) so'z-gaplar: tasdiq, inkor, his-tuyg'u, urf-odat, so'roq, tabrik, xitob, tahsin, buyruq ifodalovchi so'z shaklidagi gap; B)vokativ gaplar: do'q, g'azab, ajablanish, shodlik, ta'na, o'pka-gina, piching, afsus-lanish, ta'qiqlash ma'nolarini intonatsiya orqali ifodalaydigan undalma xarakteri-dagi gap.
9.	Murakkablashish va murakkablashmasligiga ko'ra	1. Murakkablashmagan gaplar; 2. Murakkablashgan gaplar: a)uyushiq bo'lak-li gaplar, b)ajratilgan bo'lakli gaplar, v)undalmali gaplar, g)kirish konstruktsiyali gaplar, d)kiritma konstruktsiyali gaplar

Muhokama uchun savollar:

1. Gaplarni tuzilishiga ko'ra tasnif qilishda qaysi xususiyatlarga asoslaniladi?
2. Gapning grammatik asosi, predikativ markazi deganda nima tushuniladi?
3. Grammatik asosning miqdoriga ko'ra gaplar necha turga bo'linadi?
4. Sodda va qo'shma gap bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?
5. Gaplarning tuzilish belgisi deganda nima tushuniladi?
6. Gaplarning ma'no belgisi deganda-chi?
7. Gaplarning grammatik belgisi nima?

2–masala: Sodda gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari. 2.1 Sodda gapning bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra turlari.

2. va 2.1-masala bayoni. Sodda gaplarni tuzilishiga ko'ra tasnif qilishda quyidagilarga asoslaniladi:

1. Grammatik asosning tarkibi yoki bosh bo'laklarning miqdori.
2. Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtiroki.
3. Sodda gaplarning turli semantik-sintaktik bo'laklar, hodisalar bilan murakkablashishi yoki murakkablashmasligi.
4. Zarur bo'laklarning ifodalanishi yoki ifodalanmasligi.
5. Gap bo'laklariga ajralishi yoki ajralmasligi.

Predikativ markazning tarkibiga yoki bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra sodda gaplar ikkiga bo'linadi: 1. Ikki bosh bo'lakli gap. 2. Bir bosh bo'lakli gap.

Egasi ham, kesimi ham mavjud bo'lgan sodda gaplar ikki bosh bo'lakli gap sanaladi. Bunda bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar qatnashishi ham, qatnashmasligi ham mumkin. Masalan: Atrof ko'm-ko'k. Binafshalar ochilgan. Fazoda ko'klam qushlari charx uradi.

Predikativ yadrosi bitta bo'lgan sodda gaplar bir bosh bo'lakli sodda gaplardir. Bunda bosh bo'lak yolg'iz o'zi yoki ikkinchi darajali bo'laklar bilan birgalikda predikativ yadroni tashkil etgan bo'lishi mumkin. Demak, bu erda predikativ yadroning tarkibi yoyiq yoki yig'iq holdagi bir bosh bo'lakdan iborat bo'ladi. O'zbek tilida bosh bo'lagi kesim bilan ifodalangan bir bosh bo'lakli gaplar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu suvni ichishga to'g'ri keladi. Do'sting uchun zahar yut. Shivir-shivirni bas qiling. Suyanmang, bo'yalgan. Biroq bu *Kech kuz. Sahar* tipidagi bir bosh bo'lakli gaplarning qo'llanishini inkor qilmaydi. Bu xil gaplarda predikativlik ega shaklidagi so'zlarni tugallangan intonatsiya bilan aytish va undan keyin boshqa gaplar kelishi orqali ifodalanadi. Shuning uchun uni eganing aynan o'ziga tenglashtirib bo'lmaydi. Bu so'zlar yoki birikmalar bir vaqtning o'zida ham ega, ham kesim vazifasini o'taydi.

Bir bosh bo'lakli gaplarni *Sen kelding - boshlayveramiz: Kecha bordim, yo'qsan* kabi qo'shma gaplardan, shuningdek, *Xo'p. Mayli. Barakalla. Ofarin.* shakllaridagi so'z-gaplardan va dialoglarda ishlatiladigan gaplardan (Qachon kelding - kecha kabi) *Ona. Naqadar ulug' so'z kabi* sintaktik qurilmalardan farqlash kerak. Birinchi holda gap qo'shma gap, ikkinchi holda so'z-gap, uchinchi holda to'liqsiz gap, turtinchi holda esa tasavvur nomi to'g'risida ketyapti. Chunki *Sen kelding - boshlayveramiz.* gapida ikkinchi komponent kesimdan tashkil topgan bir bosh bo'lakli gapdir, binobarin, u qo'shma gapdir. *Xo'p. Mayli. Barakalla. Ofarin.* so'z-gaplari esa oldin aytib o'tilgan fikrga ekspressiv modal munosabatlarni ifodalaydi va bo'laklarga ajralmasligi bilan xarakterlanadi. To'liqsiz gaplarning yashiringan bo'laklari mavjud bo'ladi. Bir bosh bo'lakli gaplarda esa biron bo'lak yashirinib qolmaydi, ular fikrning ana shunday shakldagi ifodasidir. So'nggi holatda tushuncha nomi (*Ona*) alohida ta'kidlangan, ma'no kuchaytirilayotir. Bu erda fikr ifodalangayotani yo'q. Fikr ta'kidlangan so'zdan keyin kelayotgan sintaktik qo'shilma orqali ifodalanadi. Bu bir fikr-mazmunni ana shunday bo'laklab ifodalashdir.

Muhokama uchun savollar:

1. Bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra sodda gaplar necha turga bo'linadi?
 2. Ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
- 2.2 - masala: Sodda gaplarning ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etish-etmasligiga ko'ra turlari.**

2.1.2- masala bayoni:

Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gaplar yig'iq va yoyiq sodda gaplarga bo'linadi.

Yig'iq sodda gaplar faqat bosh bo'laklarning o'zidagina iborat bo'ladi. Yig'iq sodda gapning uch xil ko'rinishi bor:

- A) ega va kesimning o'zidan tashkil topgan gaplar. Bahor keldi. Otam-o'qituvchi.
- B) kesimning o'zidagina tashqil topgan fe'l asosli sodda gaplar: Chekilmasin. Shovqin qilmang.
- V) kesimning o'zidagina tashkil topgan ot asosli gaplar:

Tun. Kuz. Urush.

Bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etgan gaplar yoyiq sodda gaplar hisoblanadi. Buning asosan uch xil ko'rinishi bor: A) ega-to'ldiruvchi (hol) kesim; B) to'ldiruvchi (hol)- kesim; V) aniqlovchi-bosh bo'lak Masalan: Ziyodulla yozishni o'rganyapti. Uy ishini tayyorladim. Qirq birinchi yilning bahori. Sokin tun.

Muhokama uchun savollar

1. Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etish-etmasligiga ko'ra sodda gaplar necha turga bo'linadi?

2. Yig'iq gaplarning qanday ko'rinishlari bor?

2.3 – masala: Sodda gapning zarur bo'laklarning ifodalanish –ifodalan-masligiga ko'ra turlari.

2.3. - masala bayoni:

Gaplar, ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning ishtirok etishiga ko'ra, to'liq gap va to'liqsiz gaplarga bo'linadi. To'liq gaplarda ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning barchasi ifodalangan bo'ladi. Viloyatimiz poytaxti - ona shahrimiz Guliston kundan-kunga chiroy ochib, tobora ko'rkamlashib borayapti.

To'liqsiz gaplarda ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning ma'lum qismi tushirilgan yoki yashiringan bo'ladi, lekin fikr to'liq bo'ladi. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib - Teatrga bilet oldingmi? - Oldim.

To'liqsiz gaplarda tushirilgan bo'laklar gapning mazmunidan, ko'pincha, oldingi gapdan anglashilib turadi. To'liqsiz gaplarga uning tushirilgan bo'lagi yoki bo'laklari qo'shilsa, grammatik jihatdan mukammal gap hosil bo'ladi-yu, biroq fikrning ixcham, ta'sirli bayon qilinishiga erishilmaydi. To'liqsiz gap biron bo'lagi etishmagan gap emas, u sodda gapning alohida bir turi, ma'lum mazmuni ifodalashda qo'llanuvchi stilistik vositadir.

To'liqsiz gaplar ko'pincha o'zaro suhbatlashuvda, dialoglarda qo'llanadi. Shuningdek, monologlarda ham to'liqsiz gap qo'llanadi. Masalan: Tikansiz gul bo'lmas, mashaqqatsiz hunar. Oltin o'tda bilinadi, odam mehnatda. Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz rohat.

To'liq va to'liqsiz gap 17-jadval

Gapning turlari	Izohi	Misollar
To'liq gap	Zarur bo'laklari tushib qolmagan gap	Kim kitobni keltirdi? O'quvchi kitobni keltirdi.
To'liqsiz gap	Zaruriy bo'laklardan biri yoki bir nechasi tushib qolgan gap	- Kim keldi? (to'liq gap) - Karim.(to'liqsiz-kesimi tushib qolgan)
	- Karimning akasi keldimi?	- Ukang ketdimi? - Ketdi. (to'liqsiz gap-ega tushib qolgan)
	- Ha, akasi keldi. (to'liqsiz- aniqlovchi tushib qolgan)	- Kim keldi? (to'liq) - Opam.(to'liqsiz gap-kesim tushib qolgan)
		- Dadang qachon keladi? (to'liq) - Bugun. (to'liqsiz-ega va kesim tushib qolgan)
		- Institutni bitirdingmi? - Bitirdim. (to'liqsiz-to'ldiruv-chi tushib qolgan)
		-Ertaga kelasanmi? - Kelaman. (to'liqsiz-hol tushib qolgan)
	To'liqsiz gap dialo-gik nutqdan boshqa o'rinlarda ham uchray-di.	Don ekilgan. Yaqinda unib chiqadi. (keyingi gapda ega ifodalan-magan-to'liqsiz gap)

Muhokama uchun savollar:

1. To'liqsiz gaplar to'liq gaplardan nimasiga ko'ra farqlanadi?
2. To'liqsiz gaplar qanday ko'rinishlarga ega?
3. To'liqsiz gaplar nutqiy hodisami yoki lisoniy hodisami?
4. To'liqsiz gaplarni to'liq gaplarga aylantirilsa, nima bo'ladi?
5. Bo'laklarga ajralish-ajralmasligiga ko'ra sodda gaplarning qanday turlari bor?
6. So'z-gap sodda gaplarning qaysi turiga kiradi?
7. Sodda gaplarning qaysi turlari bo'laklarga ajraladigan gaplar hisoblanadi?
8. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar doirasiga kiradigan sodda gaplardan qaysilarini bilasiz?
9. Qanday gaplar bo'laklarga ajralmaydigan gap hisoblanadi?

Adabiyotlar

1. A.G'ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T., 1987. 48-49-betlar.
2. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili(darslik). T., Universitet, 2006.272-387-betlar.
3. R.Sayfullaeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. III.(o'quv qo'llanmasi). T., 2006. 72-108-betlar.
4. M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). T., 2000 y.
5. R.Ikromova, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova.Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
6. A. Nurmanov, R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda.T., 1983.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. G'.Abduraxmonov va boshqalar.O'zbek tili grammatikasi.T.1999. 3-123 betlar.
2. O'zbek tili grammatikasi. T.: Fan. 1976.
3. Ne'matov X, Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. Toshkent: Universitet, 1999. 55-bet.
4. Kalshanskiy G.V. Logika i struktura yazo'ka. -M.: Vo'ssh. shk. 1965.s.240.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tili nazariy grammatikasi. T.: o'qituvchi, 1995. 228-b.
3. Mehaninov I.I. Predikativnost, skazuemost, glagolnostG'G'Vestnik. LGU. - №4-5. -S. 119-132.
- 4.Bobokalonov R. O'zbek tilida funksional-semantik shakllangan so'z-gaplar. Filol.fanlari nomzodi ..dis. -Toshkent, 2000. -136 b.

MAVZU : GAPNING SINTAKTIK TUZILISHI.

Ajratilgan vaqt - 2 soat

Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar:

1. Gapning sintaktik tuzilishi.
2. Gapning semantik - sintaktik bo'laklari:
 - 2.1. Gap bo'laklari.
 - 2.2. Gap bo'laklari hisoblanmaydigan sintaktik shakllar.

Tayanch tushuncha va atamalar.

Sintaktik tuzilish, gap bo'lagi, gap bo'lagining turlari, bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar, gap bo'lagi hisoblanmaydigan sintaktik shakllar, undalma, kirish, kiritma, sodda gap, oddiy sodda gap, murakkab sodda gap.

1 – masala: Gapning sintaktik tuzilishi

1-masala bayoni.

Sintaksisning asosiy birligi bo'lgan gap fikriy va intonatsion tugallikka ega bo'lgan sintaktik butunlikdir. Lekin gap bo'linmaydigan, qismlarga ajralmaydigan sintaktik butunlik emas. To'g'ri, ayrim gap turlari, xususan, so'z-gaplar bo'linmas sintaktik butunlikdir. Biroq bunday sintaktik butunliklar boshqa tipdagi sintaktik butunliklarga nisbatan juda kamchilikni tashkil etadi. Gaplarning aksariyati o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'lanib bir butunlikni hosil qilgan lug'aviy birliklardan tashkil topgan sintaktik qurilmalardir. Bunday qurilmalar hamma vaqt bir necha qismlardan iborat bo'ladi. Ammo bu gapning sintaktik tuzilishi gapdagi lug'aviy birliklardan tashkil topgan degani emas. Gapning sintaktik tuzilishi undagi lug'aviy birliklarga aloqador bo'lsa-da, lug'aviy birliklar va gapning tuzilish birliklari bir xil hodisa emas va ularning miqdori ham mohiyat e'tibori bilan bir-biriga teng emas. To'g'ri, gapdagi lug'aviy birliklar va sintaktik tuzilish birliklari miqdor jihatdan teng bo'lishi mumkin. Masalan, Vatan yagonadir, Vatan bittadir gaplarida gaplarning sintaktik tuzilish birliklari ham ikkita, unda qatnashgan lug'aviy birliklar ham ikkita. Demak, ayni misollarda ular miqdoran teng. Biroq quyidagi gapda lug'aviy birliklar va gapning tuzilish birliklari soni farq qiladi (sintaktik tuzilish birliklari 4 ta, lug'aviy birliklar soni 6 tadir): Uzoqdan bo'ylari uzun uch dugona ko'rindi. Qolaversa, sintaktik tuzilish birliklari va lug'aviy birliklar har xil hodisalardir. Lug'aviy birliklar leksikologiya va frazeologiyaning o'rganish ob'ekti sanalsa, sintaktik tuzilish birliklari

sintaksisning o'rganish ob'ektidir. Demak, lug'aviy birliklarni va sintaktik tuzilish birliklarini har tomonlama tenglashtirib bo'lmaydi.

Sintaksisning o'rganish ob'ekti bo'lgan gapning sintaktik tuzilishi va bu tuzilishni vujudga keltirgan birliklar gapning semantikasi bilan bog'liq ravishda belgilanadi. Shu ma'noda gapning sintaktik tuzilishi gapning sintaktik ma'nosini ifodalovchi sintaktik shakllarning mazmunga mutanosib birikishidan hosil bo'lgan sintaktik strukturadan iboratdir. Bu struktura strukturani tashkil etishdaga vazifasiga ko'ra bir-birdan farq qiluvchi bir necha struktur birliklardan tashkil topgan. Demak, gapning sintaktik tuzilishi gapning semantikasini shakllantiruvchi struktura bo'lib, u shu sintaktik semantikaning ifodalanishida muayyan vazifaga ega bo'lgan struktur birliklar-sintaktik shakllarning maqsad- mazmunga muvofiq o'rinishi va bog'lanishidan vujudga keladi. Gapning sintaktik tuzilishini yanada aniq tasavvur qilish uchun sintaktik tuzilish birliklarini, ularning gap semantik-sintaktik strukturasi shakllantirishdagi roli va vazifalarini, qisqasi, gapning semantik-sintaktik bo'laklarini o'rganish kerak bo'ldadi.

Muhokama uchun savollar:

1. Gapning sintaktik tuzilishi deganda nima tushuniladi?
2. Gapning sintaktik tuzilishi nimalardan tashkil topgan?
3. Sintaktik tuzilish struktur birliklarning yig'indisi bo'la oladimi?

2-masala: Gapning semantik – sintaktik bo'laklari.

2.1. Gap bo'laklari.

2.2. Gap bo'laklari hisoblanmaydigan sintaktik shakllar.

2- masalaning bayoni:

Ma'lumki, kishi nutqining intonatsion butunlikdagi, grammatik jihatdan shakllangan, nisbiy tugal bir fikrni bildiradigan so'zlar bog'lanmasi yoki alohida bir so'z shaklidagi parchasi gap sanaladi. Gap yolg'iz muhokamani, hukmni bildirmasdan istak, buyruq, so'roq kabi ma'nolarni ham ifodalab keladi. Shu bilan birga, gap orqali ichki tuyg'ularimiz, hayajonlarimiz ham ifodalanadi. Demak, gap hukmning til materiallari bilan ifodalangan shakli, qobig'idir. Hukm gapsiz mavjud bo'lmaydi. Lekin gapda hukmdan tashqari fikrning boshqa turlari (buyruq, so'roq va b.k) ham ifodalanishi mumkin. Shuningdek, gap so'zlovchining dunyoga, voqelikka va fikrga bo'lgan munosabatini ham bildiradi. Demak, gap shakl va mazmunga ega birlikdir. Bundan ayon bo'ladiki, gap semantik-sintaktik butunlikdir. Semantik-sintaktik butunlik bo'lgan gaplarning aksariyati bir necha qismlardan iborat. Chunki gaplarning ko'pchiligi odatda so'zlar bog'lanmasidan tashkil topgan bo'ladi. Gap semantik- sintaktik butunlik ekan, uning qismlarini semantik-sintaktik bo'laklar deyish mumkin. Gapning eng mukammal tipini mujassam etgan gap 8 semantik-sintaktik bo'lakdan iborat bo'ladi. Bularning 5 tasi odatdagi gap bo'laklari bo'lsa, 3 tasi odatdagi gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan bo'laklardir. Bular, ma'lumki, undalma, kirish va kiritma deb ataladi.

Demak, semantik-sintaktik bo'lak gap bo'laklaridan kengroq tushunchaga ega bo'lib, gapni to'liq qamraydi. Shu ma'noda semantik-sintaktik bo'lak gapning o'ziga xos ma'no-vazifa va shaklga ega bo'lgan qismidir.

Bu holda semantik-sintaktik bo'lak ikkiga bo'linadi:

1. O'zaro sintaktik aloqaga kirishadigan semantik - sintaktik bo'laklar.
2. Bevosita sintaktik aloqaga kirishmaydigan semantik- sintaktik bo'laklar.

O'zaro sintaktik aloqaga kirishadigan bo'laklar shu choqqacha gap bo'laklari doirasida o'rganilgan semantik-sintaktik bo'laklardir. Bular gapning predikativlik ifodalovchi qismini shakllantiruvchi bo'laklar ekanligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun gap bo'laklari nisbatan gaplarning doimiy, zaruriy bo'laklari hisoblanadi.

Gap bo'laklari ma'no-vazifasiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Bosh bo'laklar.
2. Ikkinchi darajali bo'laklar.

Gap bo'laklarini belgilashda quyidagilar asosga olinadi:

- 1) gap bo'laklarining leksik - semantik xususiyati.
- 2) gap bo'laklarining o'zaro sintaktik aloqaga kirishish usullari.
- 3) gap bo'laklarini sintaktik aloqaga kirituvchi vositalar.
- 4) Sintaktik aloqa komponentlarining formasi.

5) sintaktik aloqaga kiruvchi komponentlarning bir-biriga nisbati.

1. Gap bo'laklarini belgilashda so'zning leksik-semantik xususiyati ham rol o'ynaydi. Masalan: *Paxtalarni jonim bilan teraman* misolidagi *jonim bilan* bo'lagi harakatning qanday bajarilishini bildiradi: qanday - jonim bilan - ravish holi. *Paxtani mashina bilan terdik* misolidagi *mashina bilan* bo'lagi qanday bajarilishini bildirmay, balki harakat vositasi bo'lgan predmet ma'nosini anglatib, to'ldiruvchi sanaladi. Gap bo'laklari deganda odatda gapda ma'lum sintaktik vazifani bajaruvchi mustaqil so'zlar nazarda tutiladi, yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar bilan birgalikdagina gap bo'lagi bo'lib kelishi mumkin. Anglashiladiki, gap bo'laklari bilan so'z turkumlari orasida ma'lum bog'lanish bor. Gap bo'laklari sintaktik kategoriya bo'lib, gap sostavidagi elementlarning o'zaro munosabatini, bu munosabatning xarakterini, gapning grammatik jihatdan qanday bo'laklarga bo'linishini, so'zning gapdagi rolini ko'rsatadi. Demak, bunday munosabatda gap bo'laklarining aloqasini, bog'lanishini ko'ramiz. Masalan, ega bilan kesim, qaratuvchi bilan qaralmish orasidagi moslashuv, aniqlovchi bilan aniqlanmish, hol bilan hollanmish orasidagi munosabat bitishuv, to'ldiruvchi bilan to'ldirilmish orasidagi munosabat boshqaruvdir.

Gap bo'laklarining turini aniqlashda so'zlarning bog'lanish yo'li ham o'ziga xos rol o'ynaydi. Jumladan, yordamchi so'zlar orqali bog'langan so'zlardan biri-yordamchi so'z qo'shilib kelgan so'z bosh bo'lak bo'la olmaydi, demak u ikkinchi darajali bo'lakdir.

So'zning qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotgani uning qaysi formada qo'llanayotganiga ham bog'liqdir. Odatda ega bosh kelishik formasida, vositasiz to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchi va hol tushum, o'rin-payt, chiqish kelishigi formasida yoki ko'makchilar bilan birga ko'makchili konstruktsiya shaklida keladi.

Gapdagi so'zlar to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bir-biriga nisbatan belgilanadi. Kesim doim egaga tobedir, to'ldiruvchi va hol esa kesimga, aniqlovchi barcha gap bo'laklariga va boshqa aniqlovchiga tobedir. Demak, gap bo'laklarining sintaktik munosabati tobelikka asoslangan. Bundan yana shunday xulosa chiqadiki, so'zning qaysi gap bo'lagi ekanligi uning qaysi so'zga tobeligiga ham bog'liqdir. Egaga bog'lanib, tobelanib kelayotgan so'z yo aniqlovchi, yo kesimdir. Kecha tilla zirak oldim - *tilla* - aniqlovchi; Ziragim tilla. *tilla* - kesim.

Gap bo'laklarini belgilashda so'zlarga savol berish ham muhim o'rin to'tadi. Masalan, Zaynab keldi - kim keldi- Zaynab; Zaynab - ega, keldi - nima qildi? - keldi - kesim. Lekin bu usul hamma vaqt ham o'zini oqlamaydi: Masalan, qanday? so'rog'iga, odatda, aniqlovchi javob bo'lib keladi, lekin ba'zan hol ham shunday so'roqqa javob bo'ladi. Bunday hollarda gap bo'lagini belgilashning boshqa usullariga murojaat qilinadi.

Gap bo'laklari gapni tashkil etgan sintaktik shakllarni to'liq qamrab olmas ekan, demak, gapni bo'laklarga gap bo'laklari rukni ostida ajratish etarli asosga ega emas. Gapning semantik-sintaktik bo'laklari tushunchasi shuni hisobga olgan holda kiritildi. Gapning semantik-sintaktik bo'laklari doirasida asosiy rolni odatdagi gap bo'lagi o'ynaydi. Shuning uchun gap bo'lagini aniq bilib olish muhimdir.

2.1. Gap bo'laklari

Tobe aloqada muayyan sintaktik vaziyatda keluvchi eng kichik sintaktik shakl gap bo'lagi sanaladi. Muayyan so'z shaklining boshqa so'z shakliga nisbatan holati uning vaziyati sanaladi. Ba'zan ayni bir so'z shakli turli xil sintaktik vaziyatda turli gap bo'lagi vazifasida kelishi mumkin. Masalan, *Shahar-shahar, qishloq-qishloq, sen-sen, u-u*. Bu gaplardagi bosh kelishikdagi so'z shakllari ega va kesim vazifasida kelayapti.

Gap bo'laklarining sintaktik qurilmani tashkil qilishdagi roli bir xil emas. Ayrim bo'laklar gap qurilishida markaziy o'rinni egallaydi. Bu bo'laklar gap qurilishidan chiqarib tashlansa, gap shakliiy tomondan ham, mazmun tomondan ham o'z xususiyatini yo'qotadi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida etakchi rol o'ynamaydi. Ular gap qurilishida ishtirok etib, gapning axborot hajmini kengaytiradi. Shunga muvofiq, gap bo'laklari ikki darajaga bo'linadi:

a) bosh bo'laklar;

b) ikkinchi darajali bo'laklar.

Gapning tuzilish asosini ega va kesim munosabati tashkil etadi. Odatda gap ega va kesim birikuvidan yoki bosh bo'lakning bir o'zidan iborat bo'ladi. Bu bo'laklarsiz gap tushunchasini tasavvur qilish qiyin.

Gapdagi bu ikki bosh bo'laklardan boshqa elementlar ikkinchi darajali bo'laklardir. Ikkinchi darajali bo'laklar doim bosh bo'laklar bilan sintaktik aloqaga kirishgan bo'ladi. Chunki ikkinchi darajali bo'laklarning vazifasi bosh bo'laklarni aniqlash, ulardan anglashilgan fikrni to'ldirib kelishdir. Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklar bilan zich bog'liq bo'lib, gapning strukturasi shular orqali kiradi. Ega va kesimning sostaviga kiradigan so'zlar-bo'laklar qancha bo'lmasin gapda baribir, ularning birligi, yaxlitligi seziladi; bu elementlarning har biri yo eganing, yo kesimning mazmunini to'latish uchun xizmat qiladi (ba'zilar biri ikkinchisini aniqlash orqali). Ikkinchi darajali bo'laklar o'z funktsiyalariga qarab uchga bo'linadi: to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol.

Gap tarkibida gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan ifodalar ham bor. Bular gapga mazmun jihatdan bog'lansa ham, grammatik jihatdan bog'lanmaydi. Shuning uchun ular gap bo'lagi sifatida ajratilmaydi. Bunday ifodalar nutqda gap bo'laklaridan pauza bilan ajralib turadi. Bular tilshunoslikda kirish, undalma va kiritma qurilmalar deb yuritiladigan sintaktik hodisalardir.

Gap bo'laklari tuzilishiga ko'ra turli shakllarda bo'ladi: bir mustaqil so'zdan iborat bo'ladi. Ertaga Toshkentga boraman; ikki mustaqil so'zning birikishidan tashkil topgan erkin holdagi lekin ajralmaydigan birikmadan iborat bo'ladi. Bu yil katta o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda. Hech qachon bunday holat kuzatilmagan edi; ba'zan predikativ modeldagi birikmalar ham bir gap bo'lagi vazifasida keladi. *Onasi o'pmagan* qizga uylantirib qo'ymoqchi bo'ldi otasi uni. Ma'lumki, gap bo'laklari ba'zan frazeologik birikma bilan ifodalangan bo'ladi. U *taqdirga tan berdi. Hafsalasi pir bo'lib* uyga qaytdi.

2.2-gap bo'laklari hisoblanmaydigan sintaktik shakllar

Gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan semantik-sintaktik birliklar ulardan o'ziga xos pauza bilan ajralib turadi. Shuning uchun ular boshqa gap bo'laklaridan vergul orqali ajratiladi. Gapning boshida kelsa, ulardan so'ng, o'rtasida kelsa, har ikki tomondan, boshida kelsa, ulardan oldin vergul qo'yiladi. Lekin bu ularning gap bo'laklari bilan hech qanday aloqaga ega emas, degani emas. Undalma, kirish va kiritmalar gapning boshqa bo'laklari bilan mazmunan aloqadordir. Ularning ma'no-vazifasi ham aslida shu bilan belgilanadi. Masalan, undalmalar nutq qaratilgan shaxs (predmet)ni bildiradi. Shu ma'noda u bir tomondan, gapning ta'bir joiz bo'lsa, predikativligi bilan aloqador bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu gapda amalga oshiriladigan yoki amalga oshirilmaydigan ish-harakatning haqiqiy bajaruvchisi bo'lishi ham mumkin: Masalan: Yoshlar, fan sirlarini egallangiz. Harakatning bajaruvchisi grammatik jihatdan II shaxs ko'plikdagi olmosh(siz) bo'lsa-da, u yoshlarning ekvivalentidir. Demak, haqiqiy bajaruvchi yoshlardir. Kirish, undalmali gaplarda odatda ega yashiringan bo'ladi. Undalmaning bosh kelishik shaklida kelishi ham shu bilan izohlanadi. Undalmalar kesim bilan grammatik jihatdan moslashmasligigina ularni grammatik ega emas, balki undalma ekanligini ko'rsatib turadi.

Kirishlar, kiritmalar ham gapning predikativ qismi va gap bo'laklari bilan mazmuniy aloqadordir. Kirishlar so'zlovchining gapning predikativ qismida ifodalangan mazmunga sub'ektiv munosabatini bildirsa, kiritmalar ana shu qismni yoki uning biron bo'lagi ma'nosini qo'shimcha ma'lumot bilan boyitadi.

Ana shularga ko'ra, undalma, kirish va kiritmalar ham gapning semantik-sintaktik bo'laklari hisoblanadi.

Gap bo'laklari

18-jadval

Ma'nosi	Gap qurilishidagi vazifasiga ko'ra	Ma'nosi	Tuzilishiga ko'ra	Ma'nosi
Ma'lum so'-roqqa javob bo'lib, ma'-lum bir sin-taktik vazi-fada keluvchi so'z yoki so'z birikmalari	Bosh bo'laklar (ega, kesim) Ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol)	Gapning kesim-lik asosini tash-kil etuvchi bo'laklar. Bosh bo'laklar-ning yoki o'zaro tobe aloqada bo'-ladigan hokim bo'lakning	Sodda bo'lak Murakkab bo'lak	Birgina mustaqil so'z yoki turg'un so'z birikma-si bilan ifodalangan bo'lak. Birdan or-tiq lug'aviy birlik

		ma'-nosini aniqlab, to'ldirib, izoh-lab keladigan bo'laklar		bi-lan ifoda- langan gap bo'lagi.
--	--	---	--	---

Muhokama uchun savollar

- 1.1.1. Gapning sintaktik tuzilishi mavjud grammatikada to'liq ifodalanganmi?
- 1.1.2. Gap bo'laklari nima uchun gapning sintaktik tuzilishini to'liq qamrab olmaydi?
- 1.2.1. Semantik-sintaktik bo'lakning gap bo'laklaridan farqi nimada?
- 1.2.2. Undalma, kirish va kiritmalarning gap bo'laklaridan farqlari nimalarda ko'rinadi?

Adabiyotlar

1. A.G'ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T. 1987. 48-49 betlar.
2. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili(darslik). T., Universitet, 2006.272-387-betlar.
3. R.Sayfullaeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. III.(o'quv qo'llanmasi). T., 2006. 72-108-betlar.
4. M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). T., 2000 y.
5. R.Ikromova, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova.Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
6. G'.Abdurahmonov va boshqalar.O'zbek tili grammatikasi.T.1999. 3-123 betlar.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbek tili grammatikasi. T.:Fan. 1976.114-119-betlar.
2. Ne'matov X, Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. Toshkent: Universitet, 1999. 55-bet.
3. A. Nurmanov, R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. T., 1983.
4. N.Mahmudov, A.Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). T.:O'qituvchi, 1995.

MAVZU: BOSH BO'LAKLAR VA ULARNING IFODALANISHI.

Ajratilgan vaqt : 2 soat

Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar:

1. Ega va uning ifodalanishi.
2. Kesim va uning ifodalanishi.
3. Ega va kesimning o'zaro moslashuvi.

Tayanch tushuncha va atamalar.

Gap bo'laklari. Bosh bo'laklarning ma'no va vazifasi. Ega. Kesim. Ikki bosh bo'lakli gap. Mutlaq hokim bo'lak. Ega vaziyati. Sub'ekt. Harakatni bajaruvchi. Belgining egasi. Kesim, predikat tushunchalari. Predikativlikni ifodalovchi bo'lak. Fe'l- kesim. Ot-kesim.

1 - masala: Ega va uning ifodalanishi.

1-masala bayoni:

Ikki bosh bo'lakli gapning fikr, hukm qarashli bo'lgan shaxs, narsa- hodisani bildiruvchi mutlaq hokim bo'lagi ega deyiladi. Ega kim? nima? qaer? so'roqlaridan biriga javob bo'lib, bosh kelishik formasida keladi. Masalan: Lolalardan gulxanlar yoqib, bahor keldi, gulchiroy keldi. Guliston - viloyatimiz markazi. Anvar Ra'noning mahoratiga qoyil qoldi.

Ega shu gapdagi fikr o'zi haqida borayotgan, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan predmetni ko'rsatadi. Egadan anglashilgan predmet - hodisa kommunikatsiya predmeti bo'lib, uning ma'nosi har xil:

1. Kesimdan anglashilgan ish-harakatning bajaruvchisini bildiradi: bajaruvchi shaxs yoki jonli jonsiz mavjudot bo'ladi. Masalan: Muqaddas hech kimga yozdirmay davradan chiqib ketdi. Nigora darsga bormadi. Shuvillagancha «Neksiya» ketyapti.
2. Kesimdan anglashilgan holat tegishli shaxs, jonli mavjudot, jonsiz narsalarni bildiradi. Masalan: Sherzod xursand. Kuchukchanning qulog'i qirqilgan. O'rtada kitoblar sochilib yotibdi.
3. Kesimdan anglashilgan jinsning turini bildiradi. Masalan: Delfin – baliq. Kaptar - parranda.

4. Kesimdan anglashilgan belgining egasini bildiradi: Abdullatif - padarkush. Bozorboy - saxiy. Suv tiniq. Havo sovuq.
5. Mavjudlik sub'ktini bildiradi: Mexmonlar bor.
6. Miqdor sub'ektini bildiradi: Bolalar to'rtta.
7. Qiyoslanuvchi sub'ektni bildiradi: Ukasi akasidan esliroq.
8. Ob'ekt ma'nosini bildiradi: Uy quruvchilar tomonidan ko'rildi.

Qiyoslang: O'quvchilar fan sirlarini egallashsin – O'quvchilar fan sirlarini egallangiz. Bularning birinchisi kesim bilan moslashuv aloqasida kelgan bosh kelishikdagi so'z-ega; ikkinchisi-kesim bilan moslashuv aloqasiga kirmagani undaldir.

Kesim bilan moslashuv aloqasiga kirmagan, lekin bir qarashda bosh kelishikdagi egani eslatadigan quyidagi sintaktik shakllar ham ega emas, balki vositasiz to'ldiruvchidir. Bu yil uch tonna paxta terdim. Uch yil burun ming tup terak, ikki yuz tup qarag'ay ekdik.

Ega vaziyatidagi sintaktik shakl umumlashgan namuna sifatida bir muncha morfologik shakllarda namoyon bo'la oladi:

1. Bosh kelishikdagi ot bilan: Sayfi Soqievich dumboq qo'lini siladi.
2. Bosh kelishikdagi ot o'rnida almashib kelgan olmosh bilan: U hayoliga kelgan bema'ni fikrdan o'zi kuldi.
3. Harakat nomi bilan: Erta turish foydali.
4. So'z birikmasi shakli bilan: Xotinsiz o'tish-hato, bolasiz o'tish-jafo.
5. Otlashgan sifat bilan: Yaxshilar ko'paysin.
6. Otlashgan son bilan: 234-mening orqamdan yursin. Uchinchisi qochdi.
7. Otlashgan sifatdosh bilan: Qimirlagan qir oshar.
8. Otlashgan taqlid so'z bilan: Tomdan oshib tushayotgan tiniq suvlarning shildir-shildiri dillarga orom beradi.
9. Otlashgan undov bilan: Atrofni qo'shinlarning urasi tutib ketdi.

Eganing yuqoridagi so'z turkumlari bilan ifodalanishi uning morfologik shakllari hisoblanadi. Morfologik shakllar esa uning shakliy paradigmasidir.

Eganing qo'llanishida quyidagi o'ziga xos holatlar mavjud:

1. Ega to'dadan ajratilgan qismni bildirganda, to'daning butun nomi ko'pincha chiqish kelishigidagi so'z bo'ladi. Kesimni bildiruvchi so'z qo'llanmasa, bu vaqtda butun nomi–chiqish kelishigidagi so'z go'yo ega vazifasida qo'llangandek tuyuladi. Masalan: Bizning jamoada hamma millatdan bor: rusdan ham bor, armanidan ham bor. Bunda chiqish kelishigidagi so'zdan keyin bosh kelishikdagi so'z qo'llansa, ega odatdagi holatda ifodalangan bo'ladi-shu so'z ega bo'ladi, qo'llanmasa, bunday gap bir bosh bo'lakli bo'ladi.

2. Shaxs jihatdan bir xil bo'lganda:

A) Ularning har biri kesim bilan bevosita bog'lana oladi, bunday holat egalarda 3 -shaxs ma'nosi ifodalanganda sodir bo'ladi. U va Karim keldi.

B) egalari kesim bilan yakka- yakka bog'lana olmaydi, faqat birikkan holdagina birikadi, har ikkalasi bir butunlikda ega sanaladi: U bilan Karim borishdi. Buning asosiy sababi kesimning jamlik, birgalik anglatishidir. Bu hodisa oddiy gaplarda ham uchraydi: Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur butun dunyoga tanilgan mashhur o'zbek shoirlaridir.

2) Shaxs jihatidan har xil bo'lganda, uyushuvchi elementlar birgalikda ega sanaladi: Kesim 1-yoki 2-shaxsning ko'pligini ko'rsatadi. Men va sen keldik. Bunday o'rinlarda ko'pincha umumlashtiruvchi so'z qo'llaniladi. Men va u-ikkovimiz keldik. Bu so'z kesim bilan moslashgan bo'ladi. Shunga ko'ra asl ega ana shu so'zdir. Umumlashtiruvchi so'z bo'lganda, ular uning izohlovchisi sanaladi. Umumlashtiruvchi so'z ega vazifasida qo'llansa, avvalgi elementlardan biri - kesim bilan shaxs jihatidan bir xil bo'lgani ifodalanmasligi ham mumkin.

Biz ikkimiz keldik tipidagi gaplarda, biz ikkimiz so'zlari ega sanaladi. Bular aslida qaratuvchi - qaralmish aloqasiga to'g'ri keladi. Ular ikkalasi keldi. Ularning ikkalasi keldi. Hozirgi tilda esa ular ikkalasi izohlovchi - izohlanmish aloqasiga teng. Biroq ba'zan ikkinchi element ajratilgan bo'lishi ham mumkin. Ular, ikkalasi, keldi. Shuningdek, bunday konstruksiyada (ular ikkalasi keldi) o'rniga qarab, birinchi element ega, ikkinchi element hol vazifasida ham kelishi mumkin.

Ega ikki bosh bo'lakli gapning tavsiflovchi sintaktik kategoriyadir. Chunki ega ikki bosh bo'lakli gapning mutlaq hokim bo'lagidir. Boshqa barcha gap bo'laklari bevosita yoki bivosita egaga tobelanib, uni izohlash, aniqlash «tushuntirish»ga xizmat qiladi. Shuning uchun ega vaziyatida belgi (keng ma'noda) bildiruvchi so'z emas, predmet nomini bildiruvchi so'z - ot keladi yoki otlashgan, ot hakarakteridagi leksik vositalar keladi.

Eganing mutlaq hokimligi, boshqa biron bo'lakka tobe emasligi uning ma'no vazifasi bilangina emas, sintaktik shakl-bosh kelishik formasida kelishi bilan ham belgilanadi. Demak, bosh kelishik shaklidagi ot yoki otlashgan so'zlar ko'proq ega vazifasida qo'llanish bilan xarakterlanadi. Quyidagilar buning isbotidir:

1. Qish yaqinlashib qoldi. Qorning hidi kelyapti - bosh kelishikdagi otlar.
2. Yaxshi etar murodga - bosh kelishikdagi otlashgan sifat.
3. Ettinchisi sho'x chiqdi - bosh kelishikdagi otlashgan son.
4. Men sizni kutaman - bosh kelishikdagi olmosh.
5. Yashash qanday yaxshi - bosh kelishikdagi harakat nomi.
6. Ko'p ketadi, oz etadi.- bosh kelishikdagi otlashgan ravish.
7. Shivir-shivir boshlandi - bosh kelishikdagi taqlidiy so'z va xokazo.

Ega bir so'z bilan, ajralmas birikma, frazeologizm bilan ham ifodalanadi, biroq keyingi hollarda ham uning bosh kelishik shakli o'zgar olmaydi: ikki do'st turarkan elkama-elka, tog'larni ham oson aylaydi tilka.

Ega – ma'no-vazifasiga ko'ra kesimdan anglashilgan ish-harakat, belgining bajaruvchisi, egasi bo'lib kelishi bilan xarakterlanadi. Egalar tuzilishiga ko'ra ikki: sodda va murakkab.

Sodda ega ayrim bir so'zdan iborat bo'ladi. Uning uch xil ko'rinishi bor: a) tub so'z holiday sodda ega: Kecha oydin. Daryo tiniq. b) qo'shma so'z holiday sodda ega: Tuyaqush ucha olmaydi. v) juft so'z va takroriy so'z holiday ega: Ota-onang- davlating. Kassa oldida itar-itar boshlandi.

Murakkab egalar ikki yoki undan ortiq so'zlarning grammatik-semantik bog'lanishidan hosil bo'ladi. Murakkab eganing ham uch xil ko'rinishi bor. A) Ajralmas holdagi erkin birikmali ega: Ishlamay egan og'rimay o'lar. Har daqiqa g'animat. b) bir butun holda qo'llanuvchi bog'lanmalar bilan: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi - 50 yoshda. GDU - g'olib. v) frazeologizm holatidagi murakkab ega.: Og'iz ochish boshlandi.

Ega 19-jadval

Ma'nosi	Ifodalanishi	Misollar
Gapdagi fikrni, hukmni o'ziga qaratuvchi bo'lak, kesim bilan ifodalanagan belgi-ning egasi.	Ot bilan	Gulnor yo'lchining so'zlarini diqqat bilan tingladi. (O)
	olmosh bilan	Men o'qituvchiman
	son bilan	Besh-o'ning yarmi
	harakat nomi bilan	Ishlamoq ishtaha ochar
	Sifatdosh bilan	Tirishgan tog'dan oshar.
	Sifat bilan	Yaxshi topib so'zlar, yomon qopib so'zlar. (Maqol).
	Taqlid so'zlar bilan	Yangi binoda ustalarning taqir- tuquri eshitilmoqda.
Birikmalar bilan	Ishlamay egan og'rimay o'lar. (Maqol). O'sha tomon-bizning dam oladigan joyimiz.	

Muhokama uchun savollar

1. Gapning bosh bo'laklari nechta va ular qanday nomlanadi?
2. Eganing gapdagi roli, ma'no-vazifasi nimadan iborat?

2 - masala. Kesim va uning ifodalanishi.

Kesim gapning shakllanishida asosiy rol o'ynovchi, biroq grammatik jihatdan egaga tobe bo'lgan bosh bo'lakdir. Kesim eganing umumiy belgisini, ega haqidagi xabarni bildiradi. Shuning uchun kesim predmet, narsa-hodisaning harakati, belgisini bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanadi. Ma'lumki, fe'l va sifatlar ana shunday so'zlar hisoblanadi. Biroq sifat ko'proq predmetning statik (qotib qolgan, turgun, predmetning o'zida bo'lgan, undan ajralmagan) belgisini bildirgani sababli

aniqlovchi vazifasida, fe'l esa kesim vazifasida qo'llaniladi. Fe'l kesimga mos keladigan so'z turkumidir. Aytish mumkinki, shaxsli fe'llarning har biri potentsial kesimdir. Umuman, nutqimizda fe'l-kesimli gap ko'pchilikni tashkil qiladi. Fe'lning ravishdosh, sifat-dosh shakllari ham kesim vazifasida qo'llanib, fe'l-kesim bo'lib keladi. Yot eguncha, o'z o'lguncha. Bu asar X asrda yozilgan. Eshik ochilib, Ikrom ko'rindi. Kesim fe'ldan tashqari sifat, ot, son, olmosh, ravish, modal so'z, harakat nomlari bilan ham ifodalanadi. Bularning barchasi umumlashtirilib ot-kesim doirasiga kiritiladi. Masalan: Istagim - shu. Havo sovuq. Mening navbatim-ettinchi. Uyda hech kim yo'q. Sendan umidim katta. So'z ko'pu ma'no kam kabilar. Kesim gapning shakllanishi, uyushishida, fikrning yuzaga kelishida egaga nisbatan asosiy rol o'ynaydi. Negaki, gapning grammatik asosi bo'lgan predikativlik ko'proq kesim bilan ifodalanadi. Shuning uchun predikativlikni kesimlik ham deyishadi. Predikativlikning tarkibiy qismlari - sintaktik shaxs, sintaktik zamon, modallikning, tugallangan intonatsiyaning ifodalanishi ham asosan kesimga bog'liqdir. Shuning uchun ko'p hollarda ega tushirib qoldirilsa ham, fikr ifodalanaveradi. Biroq kesimsiz fikrning ifodalanishi, gapning yuzaga kelishi deyarli mumkin emas. Hatto shaklan ega sifatida talqin qilinadigan nominativ - atov gaplar ham mohiyatan kesim mazmuniga egadir. Zero, bular bosh kelishik formasidagi predmetning nomigina emas, uning mavjudligini tasdiqlovchi tugallangan intonatsiyaga ega predikatdir, kesimdir.

Kesim tuzilish jihatdan sodda va sostavli turga bo'linadi. 1. Sodda kesimlar bir so'z bilan ifodalanadi: Ko'zlar yumildi, qoshlar chimirildi. Hammaning e'tibori bizda. 2. Sostavli kesimlar ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi: Qishloq ustida kishiga xuzur beruvchi tong shabadasi shivirlay boshladi. Katta bo'lsam, shifokor bo'laman. Bizni ham yozib qo'ya qoling. Ega mutlaq hokim bo'lak hisoblanadi. Endi dam olinglar. Devorning o'ziga yozib qo'ya qolamiz.

Muhokama uchun savollar:

1. Kesimning egaga nisbatan gapning shakllanishi, fikrning ifodalanishida asosiy rol o'ynashi nima bilan izohlanadi?
2. Gapning grammatik ma'nolarini ifodalashda kesim va eganing o'rnini qanday?
3. Kesim qanday til birliklari bilan ifodalanadi?

3 - masala. Ega va kesimning o'zaro moslashuvi.

Gapning bosh bo'laklari ega va kesim odatda moslashgan holatda bo'ladi. Bu ularning o'zaro shaxs va sonda bir xil ma'no va shaklda kelishida o'z ifodasini topgan. Bu shaxs-son affikslari, fe'lning birgalik nisbati orqali reallashadi. 1. Ega va kesim mantiqiy jihatdan ham, grammatik jihatdan ham moslashadi: Universitetimiz talabalari fan sirlarini egallash uchun astoydil o'qimoqdalar. 2. Ega va kesim faqat mantiqiy jihatdan moslashadi: Barcha to'plandi. 3. Ega va kesim forma jihatdan moslashadi. Bu quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi.

A) Ega I va II shaxsni ko'rsatuvchi olmosh bilan ifodalanganda, kesim bilan shaxs va sonda moslashadi, lekin kesim tarkibidagi shaxs-son affikslari qo'llanmasligi ham mumkin. Biroq bu kesim ot-kesim bo'lganda ro'y beradi: Men o'qituvchiman. Men o'qituvchi. Sen talabasan - sen talaba. B) Ega III shaxsning ko'plik formasida kelganda kesim ko'plikda ham, birlikda ham qo'llanishi mumkin: Ular talabalar. Ular talaba.

V) Kesim fe'l-kesim bo'lganda, ega I va II shaxs olmoshlari bilan ifodalanganda kesim bilan shaxs-sonda moslashadi: Men keldim. Sen ketding. Biz keldik. Siz ketdingiz.

G) Ega III shaxsni ko'rsatuvchi olmosh bilan ifodalanganda, kesim bilan shaxs-sonda moslashadi. Lekin moslashmasligi ham mumkin. Zulfiya o'qidi. O'quvchilar keldi.

Uyushiq egalarning kesim bilan moslashuvi quyidagicha: 1) Uyushiq egalari shaxsni bildirganda kesim ko'plikda bo'ladi: Akrom, Ne'mat va Ibrohim birga dars tayyorlashdi. 2) uyushiq egalari jonsiz predmetlarni ifoda qilganda, kesim birlik formada bo'ladi: O'rik, olma, shaftoli gulladi.

Muhokama uchun savollar:

- 3.1.1. Ega va kesimning moslashuvi deganda nima tushuniladi?
- 3.1.2. Ega va kesimning moslashish darajasi.

ADABIYO TLAR

1. A. G'ulomov, M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Universitetlar va pedagogika institutlaring filologiya fakultetlari uchun darslik. Toshkent, «O'qituvchi» 1987. 67-68, 76-93 betlar.
2. Sh. Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). T., Universitet, 2006. 272-387-betlar.
3. R. Sayfullaeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. III. (o'quv qo'llanmasi). T., 2006. 79-94-betlar.
4. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). T., 2000 y.
5. R. Ikromova, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
6. G'. Abduraxmonov va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. T. 1999. 3-123 betlar.

Qo'shimcha adabiyotlar

2. O'zbek tili grammatikasi. T. Fan. 1976. 114-119-betlar.

MAVZU: IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR VA ULARNING IFODALANISHI.

Ajratilgan vaqt : 4 soat

Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar

1. Aniqlovchi va uning turlari.
2. To'ldiruvchi va uning turlari.
3. Hol va uning turlari.

Tayanch tushunchalar.

Grammatik asos, bosh bo'laklar, sintaktik aloqa, tobe aloqa, ikkinchi darajali bo'lak, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol; vositasiz to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi, kelishikli boshqaruv, ko'makchili boshqaruv, bir grammatik shaklning ikki xil grammatik ma'nosi: to'ldiruvchi va hol bo'lib kelishi; sifatlovchi, qaratqich, izohlovchi; ravish, o'rin, payt, sabab, maqsad, to'siqsiz, daraja-miqdor, shart hollari.

1 – masala Aniqlovchi va uning turlari.

Gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir predmetning boshqasiga qarashlilikini bildirgan bo'lak aniqlovchi deyiladi. Masalan: Yalang'och daraxtlar mayda yulduzchalar bilan yongan qorga ajib chiroyli ko'lkalar tashlaydi. Navoiyning ko'z o'ngida Xirot gavdalandi.

Aniqlovchilar ikki xil bo'ladi. 1. Sifatlovchi aniqlovchi. 2. Qaratqich - aniqlovchi.

Sifatlovchi - aniqlovchi qanday? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qaerdagi? qachongi? kabi so'roqlarga javob bo'luvchi aniqlovchidir.

Sifatlovchi aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Sifat, son, olmosh, sifatdosh bilan: Biz serjun va serunum qo'ylarni ko'paytirayotirmiz. Ko'k - yuvilgan, artilgan shisha.
2. Ot bilan: Nigora bu yilgi yig'im-terim mavsumida oltin soat oldi.
3. Ibora bilan: Uning xushomadlar oldida og'zining tanobi qochadigan odati bor edi.
4. Ajralmas birikma bilan: Bozordan ikki tavaqali darvoza oldik.
5. Sifatdosh oborot bilan: Oyqiz ko'zni qamashtirgudek chaqnagan cho'qqiga tikilganicha ich-ichidan quvondi.

Qaratqich -aniqlovchi

Qaratqich aniqlovchi kimning? nimaning? qaerning? so'roqlariga javob bo'luvchi aniqlovchidir.

Qaratqich tomonidan aniqlangan bo'lak qaralmish deb yuritiladi: qaratqich qaralmish bilan moslashuv yo'li bilan birikadi. Behunarning hunari yalqovlikdir.

Qaratqich-anqiqlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot, olmosh bilan: Ko'zning oltin barglari suv yuzida suzar edi. Uning qalbi qiynoqda qoldi.
2. Otlashgan so'zlar bilan: Yaxshining sharofati, yomonning kasofati. Olmoqning bermog'i bor.
3. Ibora bilan: Betga aytganning zahri yo'q.
4. Ajralmas birikma bilan: Qish faslining zavqi ham bo'lakcha bo'ladi.

Qaratqich aniqlovchi -ning qo'shimchasisiz ham qo'llanadi: Jamoamiz a'zolari yangi yilni munosib kutib olishdi.

Izohlovchi:

Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo'lib, u predmet yoki shaxsni boshqacha nom berish yo'li bilan aniqlaydi.

Izohlovchilar ko'pincha ot orqali ifodalanishi bilan aniqlovchining boshqa turlaridan farqlanadi.

Izohlovchi izohlagan bo'lak izohlanmish deyiladi. Izohlovchi va izohlanmish turdosh va atoqli ot bilan ifodalansa, odatda, atoqli ot izohlanmish, turdosh ot esa izohlovchi bo'ladi: Traktorchi Salim er haydayapti.

Izohlovchi va izohlanmish umumiy va konkret ma'noni bildiruvchi otlardan iborat bo'lsa, konkret ma'noli so'z izohlovchi, umumiy ma'noli so'z - ot esa izohlanmish bo'ladi, yozuvda ularning orasiga chiziqcha qo'yiladi: mexanik - haydovchi, sinovchi-uchuvchi kabi.

Kitob, gazeta, jurnal, korxonalar, jamoa, tashkilot, muassasalarning nomlari izohlovchi bo'lib keladi va qo'shtirnoq ichiga olib yoziladi. «O'zbekiston» jamoasi, «Umid» romani, «Yosh kuch» jurnali kabi. Bunday izohlovchilar kishi nomlari bilan ifodalansa, qo'shtirnoq ichiga olinmay, odatda, nomidagi, nomli so'zlari bilan qo'shib yoziladi: Mannon Uyg'ur nomidagi san'at bilim yurtida o'qiyman.

O'xshatish ma'noli izohlovchi bilan izohlanmish orasiga chiziqcha qo'yiladi: Ona-Vatan, ona-yurt kabi.

Aniqlovchi 20-jadval

Ma'nosi	Ma'noga ko'ra turlari	Ifodalanishi	Misollar
Predmetning turli belgi-larini, bir predmetning ikkinchi predmetga qarashli ekanligini bildiradi.	Sifatlovchi-aniqlovchi	Sifat bilan Sifatdosh bilan Son bilan Olmosh bilan Sifatlashgan ot bilan	Uning ziyrak ko'zlarida xorg'inlik bor edi. (S.An) Aytilgan so'z – otilgan o'q. Uchta yangi roman sotib oldim. Shabada ana shu ajoyib gullarning g'unchalarini yozmoqda. Kumush qishdan, zumrad ba-hordan qolishmaydi ko'zning ziynati. (U)
	Qaratuvchi aniqlovchi	Ot bilan Olmosh bilan Otlashgan sifat, sifatdosh va boshqa so'zlar bilan.	Paxtakorlarning shuhrati butun viloyatga yoyildi. Sening ishing hammaga ma'qul bo'ldi. Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l! O'qiganning tili uzun. Ikka-lasining gapi bir erdan chiqdi.
	Izohlovchi aniqlovchi	Unvon, mashg'ulot, kasb, amal, qarindoshlik, jins, laqab, tahallusni bildiruvchi so'zlar bilan	Akademik A.N.Kononov mash-hur tilshunos olimdir. Buxgalter Karimov bilan talaba Nabijon birga kelishdi. Karima hola qiz bolalarga kashta tikishni o'rgatdi.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1.1. Aniqlovchining nechta turi bor va ular qanday ifodalanadi?
- 1.2.1. Sifatlovchi-aniqlovchi va qaratqich-aniqlovchi nimasi bilan o'zaro farqlanadi?
- 1.3.1. Izohlovchining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

2 - masala To'ldiruvchi va uning turlari.

2 - masala bayoni:

Gapdagi biror bo'lakning ma'nosini to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan bo'lak to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi ko'pincha kesimga bog'lanadi: Halol mehnat insonni ulug'laydi.

Yomonga yondashma, yaxshidan adashma. To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: 1. Vositasiz to'ldiruvchi. 2. Vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi

Vositasiz to'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakatni o'ziga qabul qilgan, o'z ustiga olgan predmetni bildirib, kimni? nimani? qaerni? so'roqlariga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot va olmosh bilan: Do'stingdan pulingni qizg'anma. Sizni unutmayman, Sherzod aka.
2. Otlashgan so'zlar bilan: Ayrilganni ayiq er, bo'linganni bo'ri er. Ettinchini ham e'tibordan chetda qoldirmang.
3. Ibora bilan: U o'z g'ururi, obro'siga bironing oz-moz til tegizishini ko'tarmas edi. Oddiygina starshina-yu, burnini ko'targanini qarang.
4. Ajralmas birikma bilan: Qish faslini kutadi keng dalalar, maydonlar. Uch dugonasini Toshkentga olib ketishdi.

Vositasiz to'ldiruvchi belgili (tushum kelishigi qo'shimchasi bilan), belgisiz (tushum kelishigi qo'shimchasisiz) qo'llanadi. M.: Bu yil ikki tonna paxta terdim. Ko'p gapirma, ko'p kitob o'qi.

Vositali to'ldiruvchi.

Vositali to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilmagan, lekin uning bajarilishi uchun vosita bo'lgan yoki unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan predmetni bildirib, kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kimda? nimada? kim bilan? nima bilan? kim to'g'risida? nima to'g'risida kabi so'roqlarga javob bo'ladigan ikkinchi darajali bo'lakdir.

Vositali to'ldiruvchi kelishik qo'shimchali yoki ko'makchili bo'lib, quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot va olmosh bilan: Yovdan qochgan, yovga do'st, elni suygan elga do'st. Siz bilan ketaman.
2. Otlashgan so'zlar bilan: Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar. Madaminbek qizillar bilan sulh tuzish uchun Qo'qonga keldi.
3. Ibora bilan: Og'zi bo'shga ishonib bo'lmaydi.
4. Ajralmas birikma bilan: Bu xona to'rt kishiga kamlik qiladi.

To'ldiruvchining belgili va belgisiz qo'llanishi

To'ldiruvchining belgili va belgisiz qo'llanishi deganda ularning qo'shimchali va qo'shimchasisiz kelishi nazarda tutiladi. Lekin bu to'ldiruvchining barcha ko'rinishlariga xos emas. O'zbek tilida odatda vositasiz to'ldiruvchi belgili, belgisiz qo'llanadi. Masalan: Dadamga bir yashik oziq-ovqat yubordik. Otabekka yuborilgan oziq-ovqatni egasiga topshirdilaringmi? Vositasiz to'ldiruvchining bunday ikki xil qo'llanilishi bejiz bo'lmay, mazmun va grammatik holatga asoslanadi: vositasiz to'ldiruvchi tinglovchiga avvaldan ma'lum bo'lgan predmetni ifodalaganda, tushum kelishigi affiksi qatnashadi. Shu turdagi predmet umuman ifodalanganda, tushum kelishigi affiksi qatnashmaydi. «O'yinchoqni olib keldi» (avvaldan mo'ljallangan, kutilgan, tinglovchiga ma'lum bo'lgan o'yinchoq) «O'yinchoq keltirdi» (umuman qandaydir «o'yinchoq»).

Vositasiz to'ldiruvchilar quyidagi holatlarda belgili qo'llanadi: 1) Vositasiz to'ldiruvchi atoqli ot yoki kishilik olmoshi bilan ifodalanganda: U ko'pni ko'rgan, katta davralarda bo'lgan. O.Qurbonovni darhol tanidi. Meni olib keting o'z uyimga. 2) Vositasiz to'ldiruvchi ko'rsatish olmoshi yo payt, o'rin bildiruvchi so'zlar bilan ifodalangan aniqlovchiga ega bo'lganda. Kechagi eshittirishni ko'rdingizmi? Qishloqdagi tengdoshlarimni juda-juda sog'indim. 3) To'ldiruvchi bilan to'ldirilmish orasida so'z yo so'zlar bo'lganda. Qiyoslang: U baxtsizlik keltirdi- Baxtsizlikni u keltirdi.

4) Otlashgan vositasiz to'ldiruvchilar ham odatda belgili qo'llanadi: Ayrilganni ayiq er, bo'linganni bo'ri er. 5) Sifatdosh vositasiz to'ldiruvchining aniqlovchisi bo'lib kelganda: Yuborgan kitobingizni oldim. 6) Vositasiz to'ldiruvchi egalik affiksini olganda (ayniqsa, 3-shaxsda) Uning so'zlarini hech kim eshitmadi. 7) Vositasiz to'ldiruvchi fikr markazidagi predmetni ifodalaganda: Mana shu o'g'limni yaxshi ko'raman-da.

8) Vositasiz tuldiruvchi payt ma'nosidagi so'z bilan ifodalanganda: Bugun erta turib tongni ko'rdim. Yozni o'ynab utkazsang, qishni yig'lab o'tkazasan.

To'ldiruvchi 21-jadval

Ma'nosi	Turlari	Ko'rsatkichlari	Ifodalanishi	Misollar
---------	---------	-----------------	--------------	----------

Harakat o'z us-tiga olgan, harakat yo'nal-gan, harakatga biror yo'l bi-lan bog'langan predmetni bildiradi.	Vositasiz to'ldiruvchi.	-ni	Otdan	Moskvani sen bilmaysan, qonxo'r yov (H.O)
			Sifatdan	Yaxshidan ot qo-lar, yomondan dod.
			Sondan	Beshni o'nga qo'sh-sak, o'n besh.
			Olmoshdan	O'zingni er bil-sang, o'zgani sher bil. (Maqol)
	Vositali to'ldiruvchi	1)vositali kelishik-lar (o'rin-payt, chiq-ish va jo'-nalish kelishikla-ri) keli-shikli birikma; 2)ko'makchil ar ko'makchili bi-rikma	Harakat nomidan	Laylakning ke-tishiga boqma, ke-lishiga boq. (Maqol)
			Sifatdoshdan	Bilmaganini so'-rab o'rgangan ol-im. (Maqol)
			Ravishdan	Ko'pdan quyon qoch-ib qutulmas.
			Bir necha so'zdan	Dasturxon boshida Yodgor undan qa-moqdan qanday qu-tulganini va qan-day qilib askar bo'lganini so'radi. (S.Ahm)

Muhokama uchun savollar:

- 2.1.1. To'ldiruvchining gapdagi vazifasi nimadan iborat?
- 2.2.1. To'ldiruvchining qaysi turlarini bilasiz?
- 2.3.1. Vositasiz to'ldiruvchi haqida nimalarni bilasiz?
- 2.4.1. Vositali to'ldiruvchining ma'no-vazifasi, grammatik shakllari to'g'risida-chi?

3-masala. Hol va uning turlari

Hol gapning ma'noviy mundarijasi va sintaktik tuzilishida faol qatnashuvchi gap bo'lagidir. Biroq u gapning bosh bo'laklari singari doimiy a'zosi, grammatik markazi emas. Uning gapda qatnashishi so'zlovchining fikri, maqsadiga bog'liqdir. Demak, u gapda qatnashishi ham, qatnashmasligi ham mumkin. Uning sintaktik mavqei ega va kesimdan past turadi. To'g'ri, hol shaklidagi so'zning o'zidan tashkil topgan gaplar ham bor. Biroq u muayyan vaziyatlardagina yuz beradi (to'liqsiz gaplarda yoki bir bosh bo'lakli gaplarda). Binobarin, hol ikkinchi darajali gap bo'lagidir. Harakat - holatning bajarilish o'rni, payti, sababi, tarzi, maqsadi va shu kabilarni ko'rsatib, boshqa bo'lakka tobe bo'lgan ikkinchi darajali bo'lak h o l deyiladi. Hollar aksariyat fe'l-kesimga, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh yoki ravish bilan ifodalangan bo'laklarga bog'lanib, ularni biror jihatdan izohlab keladi. Masalan: Safarov bilan Samandarov qotib-qotib kulishdi. (Kesimga bog'lanib, harakatning qay tarzda bajarilishini ko'rsatgan). Ravon o'qishni dadamdan o'rgandim. (To'ldiruvchiga bog'langan). Hol ravish, ravishdosh, vositali kelishik formalaridagi yoki ko'makchili otlar, harakat nomi, sifat, shuningdek, ravish xarakteriga ega bo'lgan ajralmas birikmalar bilan ifodalanadi. Hol ko'pincha ravish bilan ifodalanadi. Ravish gapda yakka holda yoki o'ziga tobe so'zlar bilan birgalikda hol funktsiyasini bajaradi. Bu uning asosiy sintaktik vazifasidir. Masalan: Muncha asta yurasan? Ot va harakat nomi esa holat, makon, sifat, sabab, maqsad kabi munosabatlarni anglatgandagina hol vazifasida keladi. Ular ba'zan o'ziga tobe bo'laklar bilan birga (yoyiq holda) yaxlit bir bo'lak - hol bo'lib kelishi mumkin: Ulug'bek baland ruh va tetik qadam bilan jo'nadi. Ifodalangan ma'nosiga ko'ra hollar quyidagi turlarga ajratiladi: ravish holi, miqdor-daraja holi, o'rin holi, payt holi, sabab holi, shart holi, to'siqsizlik holi.

Ravish holi. Harakatning qay tarzda, qanday vaziyatda sodir bo'lishini bildiradigan hol ravish holi deyiladi. Ravish holi quyidagicha ifodalanadi: 1. Holat ravishi bilan: Oppoq bulutlar asta-sekin qoraya boshladi. Ravishdosh bilan: Samandar yiqila-yiqila oldinga intildi. 3. Sifat bilan. Ular ko'zlari bilan iliq, samimiy salomlashishdi. 4. Ko'makchili yoki ko'makchisiz mavhum otlar va harakat nomi bilan : U Sultonovni o'ylab ich-ichidan achindi. 5. Ravishdosh formasidagi

«bo'lmoq» yordamchisi bilan birikkan sonlar bilan: Biz hollarni olti turga bo'lib o'rganamiz. 6. Ekan yordamchisi, holda so'zi bilan birikkan sifatdosh bilan: Bo'taboy hamon o'ylangan holda xatni bukar ekan «uf» tortdi. 7. Taqlidiy so'zlar bilan: Anorxon piq-piq yig'ladi. 8. Ravish karakteridagi frazeologik birikmalar bilan: Ular... topshiriligan vazifani qo'l uchida bajarib yurdilar.

Miqdor-daraja holi: Miqdor-daraja holi ish-harakat, holat, vaqt kabilarning qay darajada ekanligini miqdor jihatdan chegaralab, darajalab ko'rsatadi. Miqdor - daraja holi quyidagicha ifodalanadi: 1. Miqdor ravishlari va miqdor-daraja ma'nosiga ega bo'lgan sifatlar bilan: Kun tamom yorishib ketdi. 2. Marta, bor, daf'a, barobar, hissa, foiz kabi so'zlar olib kelgan son va olmoshlar bilan: Nigora dugonasi qancha qistamasin, Anvar bilan uchrashuvga biron marta chiqmadi. 3. Ko'ra, qarab, yarasha, sari, sayin kabi so'zlar olib kelgan ot va sifatdoshlar bilan: Xayr, risqimizga yarasha qolar. 4. Son va vaqt bildiruvchi so'zlar birikmasi bilan: Poezd uch kecha-yu uch kunduz yo'l yurdi.

O'rin holi: Ish-harakat yoki holatning sodir bo'lishidagi o'rin ma'nosini bildiruvchi hollar o'rin holi deb ataladi. O'rin hollari ish-harakatning biror jihatdan o'ringa munosabatini ko'rsatadi va qaerda? qaerdan? qaerga? qaergacha? singari so'roqlarga javob bo'ladi.

O'rin hollari ma'nolariga ko'ra uchta asosiy gruppaga bo'linadi: 1. Harakatning yuz berish, bajarilish o'rnini bildiruvchi hollar. 2. Harakatning boshlanish, chiqish o'rnini ko'rsatuvchi hollar. 3. Harakatning oxirgi nuqtasini ko'rsatuvchi hollar.

Ish-harakatning bajarilish o'rnini bildiruvchi hollar harakatning ma'lum bir nuqtada, doirada yuz berganligini anglatadi va quyidagicha ifodalanadi. 1) O'rin-payt kelishigidagi o'rin-joy nomlari bilan: Mirzacho'lda birinchi bahor boshlandi. 2) O'rin ma'nosidagi olmoshlar: Bunda bulbul kitob o'qiydi, bunda qurtlar ipak to'qiydi. 3) O'rin angatuvchi ot ko'makchilar bilan: Yigit eshikdan odim narida otning boshini silab turar edi.

Harakatning chiqish nuqtasini ko'rsatuvchi hollar chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan shakllanib, harakatning manbaini, qaerdan boshlanganligini anglatadi, qaerdan? so'rog'iga javob bo'ladi. Moskvadan keldim, - deb kulib qo'ydi Mirzaev.

Harakatning yo'nalishi va oxirgi chegarasini ko'rsatuvchi hollar jo'nalish kelishigi bilan shakllanadi, qaerga? so'rog'iga javob bo'ladi. Siddiqjon Bekobodga jo'nab ketdi.

Payt holi. Ish-harakatining bajarilish paytini bildiruvchi hollar payt holi deyiladi. Ish-harakat paytini bevosita ifodalash payt ravishlariga va vaqtni anglatuvchi otlarga xosdir: yozda, hozir, ertalab, tongda kabi.

Payt holi qachon? qaysi vaqtda? qachondan beri? qachondan boshlab? qachongacha? qay vaqtga qadar? singari so'roqlarga javob bo'ladi. Payt holi asosan quyidagicha ifodalanadi:

1. Payt ravishlari bilan: Kontsert juda kech tamom bo'ldi.
2. Otlashib, o'rin-payt kelishigida shakllangan sifat, harakat nomi, mavhum ot bilan: Qaytishda ular ancha qiynalishdi.
3. Payt ma'nosini anglatuvchi so'zlar bilan: Men ko'rgan paytda u kichkina edi.
4. Sifat, son va vaqtni anglatuvchi so'zlardan tashkil topgan birikmalar bilan: Issiq oylarda g'o'zani tunda sug'oradilar.

Harakatning bajarilish jarayoniga, vaqtga munosabatiga ko'ra payt holi quyidagicha bo'ladi:

A) harakatning boshlanish paytini ko'rsatuvchi hollar: Ertadan boshlab qo'shma gaplarni o'rganishga kirishamiz.

B) harakatning tugash paytini bildiruvchi hollar: Yig'im-terim 20 noyabrga qadar davom etadi.

Sabab holi. Ish harakatning bajarilish sababini bildiruvchi hollar sabab holi deyiladi. Sabab holi nima sababdan?, nima sababli?, nima uchun?, qanday munosabat bilan?, nimaga?, nima natijasida? kabi so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1. Ravishdosh bilan: Sevgilisining qamchilanishiga chiday olmay maydonga otildi.
2. Frazeologik birikma bilan: Shomil do'stining astoydil ishlashga bel bog'laganidan xursand bo'ldi.
3. Ot, olmosh, harakat nomi, sifatdoshlarning ko'makchilar bilan birikib kelishi bilan: Yodgor extiyot yuzasidan juda past ovoz bilan kuylar edi..

Maqsad holi. Ish-harakatni bajarishdan maqsadni bildiruvchi hollar maqsad holi deyiladi. Maqsad holi nima maqsadda? nimaga?, nima uchun? qanday maqsad bilan? singari so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1. Ravish bilan: Solovyov asirlar bilan gaplashar ekan, atayin vahimali gaplarni aytardi.

2. Ravishdosh bilan: Nay eshitgani keldik.

3. Harakat nomi bilan: Bizni chipta kovushni o'rishga yuborishdi.

To'siqsizlik holi. Ma'lum bir harakatning bajarilishida to'siq, zidlik bo'lishiga qaramay, shu harakatning bajarilishini anglatadigan hol to'siqsizlik holi deyiladi.

To'siqsizlik holi nimaga qaramasdan?, nimaga qaramay?, nima demay? singari so'roqlarga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1. Turib ko'makchisi bilan shakllangan ravishdosh oborot bilan: Mening borolmasligimni bila turib taklifnoma olib keldingmi?

2. da, ham yuklamasini olib kelgan shart fe'li bilan: Bilib tursangiz ham yana so'raysiz?

3. demay ko'makchisini olib kelgan so'zlar bilan: Qish demay, yoz demay, bo'ron demay, yil o'n ikki oy qo'ying orqasidan yuramiz.

Shart holi. Shart holi harakat ifodalaydigan bo'lakka bog'lanib, shu bo'lak orqali anglashilgan harakatning sodir bo'lishidagi shartni ko'rsatadi va fe'lining shart mayli formasi bilan ifodalanadi, Hokim bo'lakka - sa affiksi yordamida bog'lanadi: O'qisang dono bo'lasan. Shart holi ba'zan payt ma'nosi bilan bog'lanadi: U qishloqqa borsa, Ochil buvani albatta ko'radi.

Hollar tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab tiplarga ajratiladi.

Sintetik formadagi bir so'z bilan ifodalangan va bir sodda tushuncha anglatadigan hol sodda hol deyiladi. Masalan: Ko'p bilgan oz so'zlar.

Analitik formadagi so'z bilan, shuningdek, turli oborotlar (o'ramlar), yoyiq birikmalar bilan ifodalangan hollar murakkab hollar deyiladi. Masalan: Halqimiz uzoq vaqtlardan buyon mustaqillikni orzu qilib keladi. Sizni olib ketgani keldik.

Hol

21-jadval

<i>Turlari va ma'nosi</i>	Ifodalanishi	Misollar
Ravish (tarz) holi. Harakat-ning qanday bo'lishini bildiradi.	Holat ravishi, olmosh, ravishdosh, sifat, taqlidiy so'z va ko'makchili konstruktsiyalar bilan	Yangi ariqqa suv ochish marosimi tantanali o'tkazildi. Kul rang osmon sekin-sekin qizara boshladi. Ta'til oylari bilinmay o'tib ketdi. Karim ma'ruzani diqqat bilan eshitdi.
O'rin holi. Harakatning bajarilish o'rnini, bo'lish, chiqish, boshla-nish, borish o'rinlarini bildiradi.	O'rin ravishlari, o'rinni bildiruvchi otlar bilan	Tevarak – atrofda chumchuqlar chirqillashadi. Kechqurun Botirni Moskvaga kuzatishdi.
Payt holi. Harakatning bo'lishidagi umuman vaqtni, boshlanish va eng keyingi vaqtlarni bildiradi.	Payt ravishi va payt ma'nosini ifodalovchi otlar bilan	Yaxshi niyatli kishilarning istaklari hamma vaqt ro'yobga chiqadi. Bir necha kundan so'ng Botir chigit ekilgan maydonga keldi.
Sabab holi. Harakatning bo'lishidagi sabab ma'nosini bildiradi.	Chiqish kelishigi-dagi so'z bilan, uchun ko'makchisi qo'-shilgan birikma bilan, ravishdosh va ravishdosh obo-rot bilan	Karima sevinganidan qichqirib yubordi. Bobolarimiz savodsizligi uchun yangiliklardan habarsiz qolgan. Havoning buzilishi sababli sayohat qoldirildi.
Maqsad holi. Harakatning bo'lishidagi maqsadni bildiradi.	Jo'nalish kelishi-gidagi so'z bilan, - gani shaklidagi so'z bilan.	Olimpiada g'oliblarini qarshi olgani to'plandik. O'quvchilar Arslonbobga ekskursiyaga borishdi. Biz institutni muvaffaqiyatli bitirish uchun harakat qilmoqdamiz.
Miqdor-daraja holi. Harakatning uzoq davom etishi va aksi;	Miqdor-daraja ravishlari, ko'makchili birikmalar bilan	Ko'p bilgan oz so'zlar. Bu qissani uch marta o'qib chiqdim. Botirga o'lim bir mata keladi, qo'rroqqa

bajarilish darajasini bildiradi.		ming marta. (Maqol)
Shart holi. Harakatning bajarilish shartini bildiradi.	Shart maylidagi fe'l bilan, ravishdosh oborot bilan, ko'makchili konstruktsiya bilan	Halima majlisga ulgursa keladi. Nurmatjon kimyogarlik nima ekanini yaxshi biladi: «kimyogar istasa g'ishtni, toshni tilla qiladi». (A.Q.)
To'siqsizlik holi. Harakatning bajarilishiga to'siq bo'lgan shartni bildiradi.	- sa ham - -ga qaramay kabi shakllar bilan	Boboqul charchasa ham piyoda yuraverdi. Bobomurod bir parcha non topsa ham mehmonsiz emaydi. Mehmonlar kuchli yomg'irga qaramay etib kelishdi.

Muhokama uchun savollar

- 3.1.1. Hol gapda qanday vazifalarni bajaradi?
- 3.1.2. Holning qanday ma'no turlari bor?
- 3.1.3. Hol va to'ldiruvchi qanday hollarda bir xil grammatik shaklda bo'ladi?

ADABIYO TLAR:

1. A.G'ulomov, M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Darslik. Toshkent. «O'qituvchi», 1987y, 68-76, 101-120 betlar.
3. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili(darslik). T., Universitet, 2006.272-387-betlar.
4. R.Sayfullaeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. III. (o'quv qo'llanmasi).T.,2006. 88-103-betlar.
4. M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). T., 2000 y.
5. R.Ikromova, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova.Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
6. G'.Abduraxmonov va boshqalar.O'zbek tili grammatikasi.T.1999. 3-123 betlar.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. G'.Abdurahmonov, A.Sulaymonov, X.Holiyorov, J.Omonturdiev. Hozirgi o'zbek adabiy tili(sintaksis). Toshkent, «O'qituvchi»,1979.
2. O'zbek tili grammatikasi.T., Fan, 1976.114-119-betlar.
3. A.Nurmonov, R.Rasulov. O'zbek tili jadvallarda.T.: «O'qituvchi» 1993,102 bet.

MAVZU: GAP BO'LAKLARINING O'RNI.

Ajratilgan vaqt : 2 soat

Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar

1. Gap bo'laklari tartibini o'rganishning ahamiyati
2. Gap bo'laklarning odatdagi tartibi.
3. Gap bo'laklari odatdagi tartibining o'zgarishi.

Tayanch tushunchalar.

Gaplarda so'z tartibi va gap tartibi, odatdagi tartib, tipik tartib, bosh bo'laklarning tartibi, ikkinchi darajali bo'laklarning tartibi, odatdagi tartibning o'zgarishi,inversiya.

1-masala: Gap bo'laklarining tartibini o'rganishning ahamiyati

Ona tili sintaktik kursini o'rganish jarayonida talabalarni nutqini o'stira borib, o'z fikrini to'g'ri, aniq, ravon, ta'sirli bayon qila olish malakasini xosil qilishlariga erishish ko'zda tutiladi. To'g'ri, aniq, ravon, ta'sirli so'zlash uchun fikrni mantiqiy izchil bayon qilish, adabiy til normalariga rioya qilish zarur. Fikrni aniq bayon qilish uchun tilning xilma-xil ifoda vositalaridan zarurini-zarur so'zni, so'z birikmasini tanlash, bulardan tashqari, gap bo'laklarini maqsadga muvofiq tartiblashga, ma'no urg'usiga rioya qilish kerak. Gap bo'laklarining tartibi gapning mazmuni, undagi bo'laklarning ma'nosini aniq ifodalash hamda nutqning ma'lum bir uslubini hosil qilish uchun xizmat qiladi. Tinch, sokin nutqda ma'no jihatidan muhim bo'lgan bo'lak gapning

oxirida keladi. Emotsional, hayajonli nutqda ma'no jihatidan muhim bo'lgan bo'lak gapning boshida yoki o'rtasida kelib, uni aytishda ovoz ko'tariladi. Bunday gaplarda voqea – hodisalarni tasvirlash bilan birga emotsional munosabat ham ifodalanadi.

1-masala: Gap bo'laklarining odatdagi tartibi.

2-masalaning bayoni

Ma'lumki, o'zbek tilida gap bo'laklarining tartibi, asosan, erkin bo'lishiga qaramay, ko'p qo'llanadigan odatdagi tartib bor. Odatdagi tartibda ega avval, kesim gapning oxirida, payt holi egadan avval, to'ldiruvchi egadan keyin, ravish holi kesimdan avval, qaratqich qaralmishdan avval keladi.

O'zbek tilidagi gap bo'laklarining tartibi, asosan, erkin bo'lganligi uchun ularning o'rnini o'zgartirish ko'pincha grammatik holatga ta'sir etmaydi, ya'ni bo'laklarning o'rnini o'zgartirilsa ham, ularning sintaktik vazifasi avvalgicha qolaveradi: Sen muzeyga borasanmi? Muzeyga sen borasanmi? Chunki gapning bu bo'laklari o'z sintaktik vazifasini anglatib turuvchi morfologik ko'rsatkichlarga ega. Biroq gap bo'laklarining har bir tartib o'zgarishi gap mazmuniga, uning yo'nalishiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Masalan: 1. Kutubxonaga kecha bordim. 2. Kecha kutubxonaga bordim. 3. Kecha kutubxonaga men bordim. Birinchi misolda payt holiga, ikkinchi misolda o'rin holiga, uchinchi misolda egaga alohida ahamiyat berilgan. Demak, birinchi misolda vaqt ma'nosi, ikkinchi misolda o'rin ma'nosi, uchinchi misolda ish-harakatni bajargan shaxsni anglatish kuchli.

So'zlar tartibi ba'zan grammatik holatga ta'sir etishi mumkin. Bu bilan ma'no ham o'zgaradi. Bu hodisa so'zning vazifasi – grammatik funktsiyasi morfologik shakllanishidan bilinmay, tartib bilan tayin etilgan vaqtlarda uchraydi. Bu hodisa tartibning grammatik rolidir. Boshqa o'rinlarda tartib stilistik rol o'ynaydi.» Chunoschi, sifatlovchi va sifatlanmishda tartib qat'iy bo'ladi: sifatlovchi avval, sifatlanmish keyin keladi. Agar bu tartib o'zgartirilsa, grammatik tuzilish ham o'zgaradi.

3-masala: Gap bo'laklari odatdagi tartibining o'zgarishi.

O'rnini bilan gap bo'laklarining odatdagi tartibi o'zgarishi ham mumkin. Odatdagi tartib logik – grammatik, stilistik talab bilan o'zgaradi. Mazmun jihatdan birinchi o'rinda turgan bo'lak, o'z tipik o'rnidan qat'iy nazar, odatda kesimning oldida keladi va logik urg'u oladi, o'zbek tilida logik urg'u tartib bilan zich bog'langandir. Intonatsiya va so'zlar tartibi bo'laklarning mazmun jihatdan ahamiyatini ko'rsatishdagi asosiy vositalardir. Bularning logik darajasi odatda kesim bilan bo'lgan masofaga qarab bilinadi.

Logik urg'u kesimda yoki uning oldidagi bo'lakda bo'lsa, odatda u kesimning oldiga keltiriladi. ... gapdagi bo'laklarning odatdagi tartibni va uning o'zgarishini – inversiyasini belgilashda asosiy tayanch darak gapdagi holatdir.

Gap bo'laklarining tartibi ikki xil bo'ladi; odatdagi tartib, o'zgargan tartib.

Biz sharaflil kurash yo'lini bosib o'tdik gapida ega (biz) avval, kesim (bosib o'tdik) gapning oxirida, to'ldiruvchi (kurash yo'lini) egadan keyin kelgan. Bu odatdagi tartib sanaladi.

Bizga bahor qiyofasida ko'rinadi shonli kelajak gapida ega (kelajak) fe'l kesim (ko'rinadi) dan keyin to'ldiruvchi (bizga) egadan oldin kelgan – gap bo'laklari o'zgargan tartibda berilgan.

O'zgargan tartibda gap bo'laklarining tartibi boshqacha bo'ladi. Bunda o'quvchi yoki tinglovchining diqqati o'rnini o'zgartirilgan bo'lakka jalb qilinadi.

Tavsiya qilinadigan asosiy adabiyotlar

1. A.G'ulomov, M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T. 1987. 121-127 betlar.
2. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). T., 2000 y.
3. R. Ikromova, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
6. G'. Abduraxmonov va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. T. 1999. 3-123 betlar.
2. G'. Abduraxmonov va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. T. 1999. 3-123- betlar.
3. O'zbek tili grammatikasi. T. Fan. 1976. 3-211- betlar.
4. A. Nurmanov, R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. 3- 67- betlar.
5. Ne'matov X, Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. T.: Universitet, 1999. 55- bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mahmudov N. Funktsional va nofunktsional to'ldiruvchilar haqida. O'zbek tili va adabiyoti. -1981. - №1. -B.43-46.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tili nazariy grammatikasi. -Toshkent: O'kituvchi, 1995. -228 b.
3. Mehaninov I.I. Predikativnost, skazuemost, glagolnost G'G' Vestnik. LGU. - №4-5. -S. 119-132.
4. Bobokalonov R. O'zbek tilida funktsional-semantik shakllangan so'z-gaplar. Filol.fanlari nomzodi ..dis. Toshkent, 2000. -136 b.

MAVZU: MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLAR VA ULARNING TURLARI.

AJRATILGAN VAQT : 4 soat

Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar

1. Sodda gaplarning murakkablashuvi.
2. Uyushiq bo'laklarning semantik-sintaktik xususiyatlari
3. Ajratilgan bo'laklarning semantik-sintaktik xususiyatlari .
4. Undalmalarning semantik-sintaktik xususiyatlari.
5. Kiritmalarning semantik-sintaktik xususiyatlari.

Tayanch tushuncha va atamalar.

Sodda gaplarning grammatik asosi. Bosh bo'laklar. Ikkinchi darajali bo'laklar. Sodda gaplarning tuzilishi. Oddiy sodda gaplar. Murakkab sodda gaplar. Murakkab sodda gaplarni yuzaga keltiruvchi omillar. Sifatdosh, ravishdosh oborotlar. Uyushiq bo'laklar. Umumlashtiruvchi so'zlar. Ajratilgan bo'laklar. Ajratilgan izohlovchi. Ajratilgan to'ldiruvchi. Ajratilgan hol. Ajratilgan ega. Ajratilgan kesim. Undalma. Kirish. Kiritma

1-masala: Sodda gaplarning murakkablashuvi.

Har qanday sintaktik qurilma singari sodda gaplar ham o'z ichida tuzilishiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. Oddiy sodda gaplar.
2. Murakkab sodda gaplar.

Oddiy sodda gaplar bir bosh bo'lakli yoki ikki bosh bo'lakli, yig'iq yoki yoyiq, to'liq yoki to'liqsiz, yoki so'z-gaplarning o'zidan iborat bo'ladi. Boshqacha aytganda, oddiy sodda gaplar gap bo'laklaridan yoki so'z-gaplardan tashkil topadi. Ularda ana shu aytilgan sintaktik shakllar va hodisalardan boshqa elementlar bo'lmaydi. Ular na sintaktik jihatdan, na semantik jihatdan murakkablashmagan bo'ladi. Oddiy sodda gaplar to'la-to'kis gap bo'laklariga ajralib ketadi yoki bir butun holda gap hisoblanadi (so'z-gaplar). Bu erda gap bo'lagi hisoblanmagan bironta sintaktik shakl qolmaydi yoki mavjud sintaktik shaklning o'zi yaxlit holda oddiy sodda gap hisoblanadi. Oddiy sodda gaplar murakkab sodda gaplarga qiyoslanganda uning belgilari yana ham ravshanroq ko'rinishga boshlaydi. Shuning uchun endi murakkab sodda gapdarning belgi-xususiyatlariga diqqat qilaylik. Chunki murakkab sodda gaplar oddiy sodda gaplarga u yoki bu xildagi sintaktik shakllarning qo'shilishi yoki mavjud gap bo'laklarining miqdoriy yoki mazmuniy jihatdan o'zgarishi bilan yuzaga keladi. Demak, murakkab sodda gaplar moxiyatan oddiy sodda gaplarning turli sintaktik shakllar va sintaktik hodisalar bilan murakkablashuvi ekan.

Tilshunoslar oddiy sodda gaplarni murakkablashtiruvchi asosan beshta holat borligini aniqlaganlar:

1. Gap bo'laklarining uyushishi.
2. Gap bo'laklarining ajratilishi.
3. Undalmalarning qatnashishi.
4. Kirishlarning qatnashishi.
5. Kiritmalarning qatnashishi .

Bu hodisalarning voqelanishi natijasida murakkab sodda gaplarning muayyan ko'rinishlari: uyushiq bo'lakli sodda gaplar, ajratilgan bo'lakli sodda gaplar, undalmali sodda gaplar, kirishli va kiritmali sodda gaplar yuzaga keladi .

Ayon bo'ladiki, oddiy sodda gaplar uyushiq bo'laklar ajratilgan bo'laklar, undalmalar, kirish va kiritmalar qatnashmasligi bilan xarakterlanadi, murakkab sodda gaplar esa aksincha, oddiy sodda gaplarga ana shu semantik-sintaktik hodisalar qo'shilishidan yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Bu

esa murakkab sodda gaplarni o'rganish amalda uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, undalmalar, kirish va kiritmalarni o'rganishdan boshqa narsa emasligini ko'rsatadi. Shuning uchun endi asosiy diqqat –e'tiborni ana shu sintaktik hodisalarni o'rganishga qaratamiz.

Murakkablashgan sodda gaplar

22-jadval

Sintaktik tabiatiga ko'ra	Murakkablashtiruvchi vositalar	Misollar
Murakkablashtiruvchi vosita shu gapning bo'lagi hisoblanadi.	Uyushiq bo'laklar	Gullar, rayhonlar va maysalar ajib bir go'zallik baxsh etadi. U o'qidi, biroq yozmadi.
	Ajratilgan bo'laklar	Ukam, qo'zichog'im, orom olib uxlayapdi. Oshpazning, Alimjonning, qo'li gul ekan. Yozda, qovun pishig'ida, havo kechasi ham dim bo'ladi.
Murakkablashtiruvchi vosita shu gapning bo'lagi hisoblanmaydi.	Kirish birikmalari	Majlisga dadam, albatta, boradi, balki akam ham borar. Baxtimizga, havo ochilib ketdi. O'sha odam, men sizga aytsam, maktabimizga direktor bo'ldi.
	Kiritma birikmalar	Onam (o'gay) qarg'agani-qarg'agan edi. Bolani (uyda kattalardan hech kim yo'q edi) men o'zim uyg'otdim.
	Undalmalar	Mashinalarni tezroq ishga sol, qizim, vaqt g'animat! (I.R.) O'rtoqlar! Bizning oldimizda katta vazifalar turibdi.

Muhokama uchun savollar:

1. Soda gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari.
2. Sodda gaplarning murakkablashuvi nimaga ko'ra ro'y beradi?
3. Uyushiq kesimli gaplar va uyushgan gaplar.
4. Ajratilgan bo'laklar va oborotlar.
5. Undalma va eganing munosabati.
6. Kirish va kiritma munosabati.

2-masala. Uyushiq bo'laklarning semantik-sintaktik xususiyatlari.

O'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi yordamida bog'langan, bir xil so'roqqa javob bo'lgan, gapda bir xil sintaktik vazifa bajaruvchi so'zlar tizmasi gapning uyushiq bo'laklari deyiladi. Masalan : U tez va ravon o'qidi. Magazindan qalam, daftar, chizg'ich oldim. Uyushiq bo'laklar o'zaro tenglashish, boshqa gap bo'laklari bilan esa tobelanish asosida bog'lanadi. Bog'imizda turli mevali daraxtlar: bodomlar, shaftolilar va o'riklar gulladi.

Gap bo'laklarining barchasi uyushib kela oladi. Eganing uyushib kelishi: O'tmishda halkimiz orasidan Beruniy va Navoiy, Ulug'bek va Boburlar etishib chiqqan. Kesimning uyushib kelishi: U urnidan turdi, ammo gapirmadi. To'ldiruvchining uyushib kelishi: Men uning jasorati va mardligi, chidam va sadoqatiga qoyil qoldim. Aniqlovchining uyushib kelishi: Ijodiy ish go'zal, juda ham og'ir va hayron kolarli darajada xursand kiluvchi mehnatdir. Izohlovchining uyushib kelishi: O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, filologiya fanlari doktori, professor Izzat Sulton – o'zbek adabiyotshunoslarining otaxoni.

Holning uyushib kelishi: Adolat qo'rqib, qaltirab, jaxl ustida yonib, tez-tez gapirardi.

Uyushiq bo'laklarning Har biri son, egalik kesimlik affikslari, ko'makchilar bilan kelishi mumkin. Bunda ularning har biri ta'kidlanadi: Menga ham, senga ham, ukangga ham etadi.

Son, egalik. kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar uyushiq bo'laklarning oxirgisida kelib,ularning hammasi uchun umumiy bo'ladi: Hayotning mazmuni kishining mehnati, akl zakovoti, yurish-turishi, jamiyatda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Uyushiq bo'laklar yig'iq va yoyiq holda bo'ladi: bir gap bo'lagining o'zi uyushib kelsa, yig'iq, bo'lar o'ziga oid so'zlar bilan kengaytib kelsa.yoyiq bo'ladi. Gulistonda kursdoshlarim: Ali, Ibrohim, Rahimjonlarni ko'rdim. Go'zal qizlar, mard yigitlar dalalarda baxt topdilar.

Uyushiq bo'laklar umumlashtiruvchi so'zlar bilan qo'llanishi mumkin. Umumlashtiruvchi so'z jins tushunchasidan keng tushunchani ifodalovchi so'z bo'lib, uyushiq bo'laklar tushunchasi o'sha keng tushunchaning ichiga kiradigan tushunchalardan iborat bo'ladi. Umumlashtiruvchi bir so'z yoki so'z birikmasi bilan ham ifodalanadi: Hamma keldi: Qo'chqor, Sodiq va boshqalar. Sho'x yigitlar, erka qizlar quvnashar, qahqahlashar. Gapda ketma-ket kelgan sifatlovchilar uyushib kelgan bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin: Sifatlovchilar predmetni bir tomonidan aniqlab, uning turli yoki bir belgisini bildirsa va o'zaro teng holatlarda bo'lsa, uyushib keladi.

Sifatlovchilar predmetni turli tomondan, ya'ni rang, shakl, material, vaqt, hajm, tus kabi belgi-xususiyatlar tomonidan aniqlasa, uyushmagan bo'ladi. Uyushmagan sifatlovchilar o'z sifatlanmishi bilan murakkab so'z birikmasi hosil qiladi: Bahodir ota oppoq uzun soqolini salobat bilan silardi.

Uyushiq bo'laklar		23-jadval
Biriktiruvchi vositalar	Uyushiq bo'laklarning ko'rinishlari	Misollar
1. Ohang 2. Teng bog'lovchilar A) biriktiruvchi B) zidlovchi V) ayiruvchi	Ega	Olma o'rik, shaftolilar gulladi. Akam va opam dalada ishlaydi.
	Kesim	Karim yozdi, o'qidi, tayyorlandi. Gulnora o'qidi, lekin yozmadi. Yoshlar dam ashula aytishadi, dam raqsga tushishadi.
	Ham ega, ham kesim	Salim, Hakim va Olimlar ta'tilda ham ishladilar, ham dam oldilar.
	To'ldiruvchi	O'qituvchimiz qalam, daftar va kitoblarni tarqatdi. Bo'ridan, echkiemardan qo'rqardi. (S.Ahm)
	Aniqlovchi	Bog'imizda oq, qizil, pushti gullar chamanday ochilib yotibdi.
	Hol	Suyima tez va ravon o'qidi. Tomlardan, ivigan devorlardan bug' ko'tarila boshladi. (S.Axm.)

Muhokama uchun savollar

1. Uyushiq bo'laklarning ta'rifi
2. Qaysi gap bo'laklari uyushadi?
3. Uyushish uchun nimalar zarur?
4. Uyushiq bo'laklar qanday bog'lanadi?
5. Uyushiq kesimlar qo'shma gap hosil qilishi mumkinmi?

3-masala. Ajratilgan bo'laklarning semantik-sintaktik xususiyatlari.

O'zlari taalluqli bo'lgan gap bo'laklaridan ohang hamda fikran ajratilib, gapda ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan bo'laklar ajratilgan bo'laklar deyiladi. Ajratilgan bo'laklar fikrni odatdagiga qaraganda kuchli, ifodali, ta'sirli qilib berish uchun qo'llanadi. Ajratilgan bo'lak mazmunni kuchaytirish, yanada aniqroq, yorqinroq qilib, grammatik jihatdan ma'lum mustaqil holga qo'yish uchun maxsus intonatsiya. Pauzalar bilan ajratiladi. Masalan: Onam, mehribonim, keldi gapidagi «mehribonim» bo'lagini tahlil qilib ko'raylik. «mehribonim» bo'lagi «onam» bo'lagining aniqlovchisidir. Bu aniqlovchi aniqlanishdan keyin keltirilib, ikki tomondan maxsus pauza va intonatsiya bilan ajratildi. Natijada shunday o'zgarishlar sodir bo'ldi:

1. Bu bo'lakning mazmun-mohiyati avvalgiga nisbatan kuchaydi: uning mazmuni ta'kidlandi, unga diqqat kuchaydi.

2. Natijada bu bo'lak (mehribon ona) holatidagiga nisbatan ayrimlik, nisbiy mustaqillikka ega bo'ldi. Bu uni kesimga yaqinlashtirdi, tasdiqni bildirish darajasiga yaqinlashtirdi. Demak, bu aniqlovchi predikativlik elementiga ega bo'ldi.

3. Aniqlovchini ajratish fikrni ifodali, ta'sirli qilib berishga xizmat qildi.

O'zbek tilida bosh bo'laklar ham, ikkinchi darajali bo'laklar ham ajratiladi. Bu bilan tinglovchining diqqati ana shu bo'laklar ma'nosiga jalb qilinadi. Binobarin, gap bo'laklarining ajratilishi bejiz bo'lmay, so'zlovchining kommunikativ maqsadlari bilan bog'liqdir.

1. Bosh bo'laklarning ajratilishi izohlash zaruriyati bilan bog'liq. Ajratilgan bosh bo'laklar o'zidan oldin kelgan ega yoki kesimni izohlaydi.

Ajratilgan ega: Keyinchalik biz, aka-uka ikkimiz, texnikaga berildik.

Ajratilgan kesim: Mening tug'ilgan yilim – shu – bir ming to'qqiz yuz sakson birinchi yil.

2. Ikkinchi darajali bo'laklarning ajratilishi inversiya, izohlash, gap bo'laklarining kengayib kelishi bilan bog'liq.

Aniqlovchilarning ajratilishi: Hech erinmay kuch to'kibdi ko'kan-devkor,

O'ylamapti shuncha piyoz kimga darkor.

Nargizning ovozigga boshqa gullarning, qizlarning, ovozlari kelib qo'shildi. Izohlovchilarning ajratilishi invereya hodisasi bilan bog'liq:

Kasb, xunar, amal unvon kabilarni ifodalovchi izohlovchilar o'z izohlanmishidan keyin keltiriladi. Obid Sodiqov, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, atoqli olimdir.

To'ldiruvchilarning ajratilishi izohlash va uning yoyiq holda kelishi bilan bog'liq: Bektemirga, sobiq sodda cho'ponga, komandirning fikri g'oyat yoqdi. Pul topishning turli yo'llariga kirish bilan, san'atkorni xor qiluvchi bunday yo'l bilan teatrning obro'sini aslo tiklab bo'lmaydi.

Hollarning ajratilishida ham izohlash va ularning yoyiq holda kelishi muhim rol o'ynaydi. Ertasi kechqurun, soat ettilarda, kutilmaganda G'ulomjon kirib keldi. Navoiy, bir qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda, boshni kamtar engil qimirlatish bilan halqning tabrigiga samimiy javob berib bordi.

Ravishdosh bilan ifodalangan hollar o'zlariga oid so'zlari bilan kengayib kelib ajratiladi. Oyqiz, ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, hurmat bilan xalqqa ta'zim qildi.

Ajratilgan bo'laklar

23-jadval

Ajratilgan bo'laklarning turlari	Asosiy xususiyatlari	Misollar
Ajratilgan izohlovchi	Izohlanmishdan keyin uning ma'no-sini konkretlashtirishga, shunga qo'shimcha ma'no berishga xizmat qiladi.	Orqada tikka turgan yoshgina yigit, Mamadali, o'zini odamlarning orasiga oldi. To'xtagin, qiz, bu men – Omon-jon. (H.O) Xuddi shunday, sen bilan menga o'xshagan odamlar, ya'ni mehnat kishilari, istiqbol to'g'risida o'ylamay yashay olmaydi
Ajratilgan qaratuvchi	Bu bo'lak har doim otdan bo'ladi, har ikkalasi qaratqich kelishigida bo'ladi.	Hammamiz bir onaning, ya'ni haqiqatning bolalarimiz. O'sha otga mana bu bolaning, Hudoyberdining ishq tushib qolgan ekan.
Ajratilgan sifatlovchi	Sifatlovchi gapning oxirida, sifatlan-mishdan keyin keladi.	Sakrab tushib shunda tuyadan, karvonboshi-berahm, nodon (Z.D.) Mushtumzo'r lapanglar- mug'ambir, pismiq. (O.) Batrak eding, yupun-yalang oyoq. (O.) Kamzul kiydim, tirinka. Bir qiz tug'ildi, ninni. (G'.G')
Ajratilgan to'ldiruvchi	Olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchi-ning (shuningdek, ot bilan ifodalangan to'ldiruvchining ham) ma'nosini oydinlashtiradi.	Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam, Qo'msayman birovni- allakimni. Unsin uchun, bechora qiz uchun, bu qanday mudhish! Motam! (O)
Ajratilgan hollar	Ma'nosi umumiy, aniq bo'lmagan hol-larning ma'nosini nisbatan oydinlashtiradi.	Kechalari, ishdan bo'shagan paytlarda, ular hangomalashib o'tirar edilar. Boshqa bir joyda-hovlining ichida alla-kimning qichqirgani eshitilar edi. Yillar mana shu

Muhokama uchun savollar

- 3.1.1. Ajratilgan bo'lak deb nimaga aytiladi ?
- 3.2.1. Ajratilgan bo'laklar qanday xususiyatlari bilan xarakterlanadi ?
- 3.3.1. Gap bo'laklarining ajratilish sabablarini ko'rsating.
- 3.4.1. Qaysi gap bo'laklari ajratiladi ?

4-MASALA : Undalmalarning semantik-sintaktik xususiyatlari .**4 – masala bayoni**

Nutq qaratilgan shaxs, predmetni bildirgan sintaktik shakl undalma deyiladi.

Undalma, garchi gapning tarkibiy qismi bo'lsa ham, gap bo'laklari bilan bevosita grammatik aloqaga kirishmaydi, gap bo'laklariga ajratilishning bosh mezonini bo'lgan tobelanish talabiga javob bermaydi. Biroq bu undalmaning gap bo'laklariga hech qanday aloqasi yo'q, degani emas.

Shuni alohida qayd etish lozimki, gap tarkibida tobe aloqa bilan birgalikda, tobe bo'lmagan, grammatik aloqa hisoblanmaydigan aloqa ham mavjud bo'ladi. Bunday aloqa tilshunoslikda introduktiv aloqa deb nomlanadi. Demak, gap tarkibidagi sintaktik aloqani uchga bo'lish mumkin.

1. Subordinativ aloqa (tobelanish).
2. Koordinativ aloqa (tenglanish).
3. Introduktiv aloqa (mazmuniy bog'lanish).

Ko'rinadiki, undalma gap bo'laklari bilan mazmuniy bog'lanishga egadir. Undalma bosh kelishik shaklida keladi. Bu jihatdan u egaga o'xshaydi. Lekin undalma undash intonatsiyasi, pauza bilan ajratilishiga ko'ra hamda kesim bilan bog'lanmasligi bilan egadan farq qiladi.

Undalma leksik-semantik jihatdan quyidagilarni ifoda qiladi.

1. Konkret ism-familiyani: Men ham o'shanda sizni ovora qilgan edim-ku, Roziya!
2. Kasb-hunar, mashg'ulotni: Er-suv endi, dehqon, seniki, quyosh ungan zamon seniki.
3. Mansab-amalni ifoda qiladi: To'qay masalasini jiddiy o'ylashimiz kerak, rais!
4. Unvonni: O'rtoq mayor, dushman tanklari !
5. Qarindoshlik, yaqinlikni: Behuda yonma, uka, bir aql top.
6. Holat-xususiyatni: Bilamiz. qahramon, sizni hamma hurmat qiladi.
7. Sub'ektiv bahoni: Bilasanmi, jonginam, endi bir umrga birga bo'lamiz.

Ba'zan undalma aniqlovchilari uyushgan bo'lishi ham mumkin: Ey, vujudi qayg'u-alamdan iborat bo'lgan, peshonasiga azaldan sevgi yozib qo'yilgan yigit, sen bizga ravshanlik keltirding. Uyushish undalmaning o'ziga ham taalluqli bo'lishi mumkin: Hasan, Aziz, Ibrohim, yuklarni darhol tushiringlar.

Undalma gap boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkin: Bunda tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1. Undalma gap boshida kelganda, undalmadan so'ng vergul qo'yiladi: Yigit va qizlar, fan asoslarini chuqurroq egallangizlar.
2. Undalma gap orasida kelganda, ularning ikki tomonidan vergul qo'yiladi. Bunda tinglovchiga tegishli fikr aytilib, keyin unga murojaat qilinadi, keyin fikr yana davom ettiriladi: Siz baxtlisiz, Olimjon aka, ko'nglingizga nima kelsa, ayta olasiz.
3. Undalma gap oxirida kelganda undan oldin vergul keladi: Qachon ovqatingiz pishadi, ona. Gap boshida kelgan undalmada undash, chaqirish intonatsiyasi kuchli, qolganlarida kuchsiz bo'ladi. Ayrim hollarda undalma kuchli his-hayajonni ifodalab, kuchli intonatsiya bilan aytiladi va shunga ko'ra undalmadan sung undov belgisi qo'yiladi: G'ofurjon! Unutma meni, bolangni o'ldirgan, xotiningni hazon qilgan boyning, butun boylarning jazosini ber !

Muhokama uchun savollar

- 4.1.1. Undalma deb nimaga aytiladi ?
- 4.2.1. Undalmaning ma'no va vazifalarini ko'rsatib bering.
- 4.3.1. Undalma qanday ma'nolarini ifodalaydi ?

5-masala: Kirishlarning semantik-sintaktik xususiyatlari .

Kirish bo'laklar so'zlovchining gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan sub'ektiv munosabatini, emotsional tuyg'ularini ifodalaydi: Albatta, buyuk kashfiyotlar osonlikcha tug'ilmaydi. Yolqin akang bundan ham kattaroq bir unvonni ko'zlayapti, chamasi.

Kirish vazifasida soʻz turkumidan ajralib chiqib, faqat kirish vazifasida ishlatiladigan soʻzlar (morfoloqiya da ular modal soʻzlar deb yuritiladi Masalan: shekilli, albatta, demak, xullas, modomiki, darvoqe kabilar), maʼlum soʻz turkumidan ajralib chiqmagan, kirish vazifasida ham, gap boʻlagi vazifasida ham qoʻllanuvchi soʻzlar (qisqasi, rost, ortidan, oxiri kabilar) keladi.

Kirishlar tuzilishga koʻra 3 xil: kirish soʻzlar, kirish birikmalar, kirish gaplar.

Kirish soʻzlar bir soʻzdan iborat boʻladi. Shunga koʻra kirish soʻzlar quyidagi tiplarga boʻlinadi:

A) Ot tipidagi kirish soʻzlar: chamasi, taajjub, modomiki, odatda, oxiri, nazarimda, baxtimizga, soʻziga koʻra kabilar.

B) Olmosh tipidagi kirish soʻzlar: Menimcha, seningcha, uningcha kabilar.

V) Sifat tipidagi kirish soʻzlar: toʻgʻri, durust, qisqasi, tabiiy kabilar.

G) Son tipidagi kirish soʻzlar: birinchidan, ikkinchidan kabilar.

D) Ravish tipidagi kirish soʻzlar: dastlab, oxir, nihoyat, umuman, asosan, aksincha kabilar.

E) Feʼl tipidagi kirish soʻzlar: kechirasiz, bundan chiqadiki, anglashiladiki, deyman kabilar.

KIRISH BIRIKMALAR. Bular birikma holiday kirishlardir. Ular semantik tabiatiga koʻra quyidagi tiplarga boʻlinadi.

A) Qaratuvchili kirish birikmalar: uning fikricha, buning ustiga, sening nazaringda, kabilar.

B) Sifatlovchili kirish birikmalar: bir tomondan, shu jumladan kabilar.

V) Toʻldiruvchili kirish birikmalar: Menga desa qisqasini aytsam, toʻgʻrisini aytganda, kabilar.

G) Holli kirish birikmalar: qisqacha aytganda, boshqacha aytganda, ochiq gapirganda kabilar.

D) Aniqllovchili va toʻldiruvchili kirish birikmalar: uning soʻziga qaraganda, sening gapingga qaraganda kabilar.

E) Aniqllovchi va holli kirish birikmalar: uning ochiq aytishicha, uning ochiq gapirishicha kabilar.

J) Aniqllovchi, hol va toʻldiruvchili kirish birikmalar: uning ochiq gapirishiga qaraganda.

KIRISH GAPLAR. Bular gap shaklida boʻlishi bilan xarakterlanadi. Yolgʻiz yurishga, toʻgʻrisini aytsam, qoʻrqaman. Ibrohimov, Qurbon ota aytmoqchi, gullarni oʻz ilmidan xabardor qildi.

Kirishlar quyidagilarni ifodalaydi:

1. Soʻzlovchining aytilayotgan fikrga boʻlgan munosabatini koʻrsatadi: Bular quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

A) ishonch yo tasdiqni: albatta, shubhasiz, soʻzsiz, haqiqatan, darhaqiqat, muqarrar kabilar. Darhaqiqat, bugungi sayr umrbod esda qoladigan boʻldi.

B) Gumonni: ehtimol, chamasi, shekilli, aftidan: Mehmonlar biz tomonga kelishyapti, shekilli.

V) Mamnunlikni: baxtimizga, hayriyat, shukur: Hayriyat, bugun havo ochiq boʻlar ekan.

G) Afsus-achinishni: afsus, essiz, nahotki, baxtga qarshi, ajabki: Eh, attang, shuncha mehnat qilsang-u, mehnating koʻkka sovrilsa.

D) Orzu-umidni: koshki, shoyad, koshkiydi: Koshki, akasi Yoʻlchi boʻlsa edi .

2. Aytilayotgan fikrning kimga qarashli ekanini ifodalaydi: bizningcha, fikrimcha, nazarimda kabilar: Domlamizning gapiga qaraganda, bu yil yozma imtihonlarda voz kechiladi.

3. Aytilayotgan fikrning tartibini ifodalaydi. Birinchidan, ikkinchidan, avvalo, nihoyat, ohiri kabilar. Nihoyat, goʻzal kunlarning birida uchrashishdi.

4. Aytilayotgan fikrning oldingi fikr bilan aloqasini ifodalaydi: Demak, xullas, koʻrinadiki, shunday qilib, binobarin, zotan, bir soʻz bilan aytganda kabilar. Xullas, qoʻshiq yana avjga chiqdi.

5. Aytilayotgan fikrning odatda roʻy beruvchi hodisa ekanligini ifodalaydi: odatda, odat buyicha, odatga koʻra. Odatda, kichik kattaga salom beradi.

Kirishlar gap boshida, oʻrtasida, oxirida keladi. Bu ularning maʼno funksiyasiga bogʻliq. Darhaqiqat, demak, xullas modomiki, baxtimizga, oʻgʻri, zotan kabilar koʻproq gap boshida; shekilli, deyman kabilar koʻproq gap oxirida; koʻpchiligi esa gap oʻrtasida keladi.

Baʼzan kirishlar birdan ortiq kelishi ham mumkin: Shunday qilib, Mahmud, sening fikringcha, halifaning Xorazm shohga alohida iltifot qilishi zamirida biror gʻaraz yoʻqmi?- savol berdi Beruniy.

Kirishlar gap boʻlaklaridan vergul bilan ajratiladi. Gap oʻrtasida kelsa, har ikki tomonidan vergul qoʻyiladi.

Ma'no	Tuzilishiga ko'ra	Ifoda materialiga ko'ra	Ma'no jihatdan turlari
Gapning ayrim bo'laklari yoki mazmuniga so'zlovchining turlicha munosabatini ifodalaydi	Sodda: albatta, ehtimol, menimcha, avvalo Birikmali: to'g'risini aytganda, bir so'z bilan, shu jumladan, uning fikricha, mening nazarimda. Gap: O'zingizdan o'tar gap yo'q; men sizga aytsam, O'rmonjon aytmoqchi.	Otdan: aftidan, nazarida, odatda, baxtimizga	Modal ma'nolarni ifodalaydi (ishonch, gumon, shubha, taxmin): albatta, haqiqatan, chamasi, so'zsiz, ehtimol, shubhasiz
		Sifatdan: to'g'ri, to'rrirog'i, durust, tuzuk, tabiiy, rost, shubhasiz, so'zsiz	His-hayajonni ifodalaydi. (Shodlik, orzu-umid, achinish, taajjub): kosh-ki, shoyad, ishqilib, ajab-ki, taajjubki, nahotki
		Olmoshdan: menimcha, seningcha, sizningcha, bundan tashqari	Fikrni ifodalash, shakl-lantirish usulini ko'rsa-tadi: umuman olganda, to'g'-risi, gapning lo'ndasi, boshqacha aytganda, ochiq-chasiga, qo'pol qilib aytganda, aynan, to'g'rirog'i, qisqasi
		Sondan: birinchidan, ikkinchidan...	Gaplarning ichki bog'lani-shini ko'rsatadi: demak, xulosa, shunday qilib, anglashiladiki.
		Ravishdan: umuman, haqiqatan, asosan, zotan, aksincha, taxminimcha.	Fikrning manbaini ko'r-satadi: menimcha, fikrim-cha, aytishlaricha, eshiti-shimcha, nazarimda, uning gapiga qaraganda.
Fe'ldan: aytaylik, ko'rasizki, ishonasizmi, kechirasiz, o'ylaymanki, bilasizmi.	Fikrning tartibini ko'r-satadi: avvalo, ikkin-chidan, birinchidan, oxiri		

Muhokama uchun savollar

- 5.1.1. Kirishlar qanday ma'no vazifalarni ifodalaydi ?
- 5.2.1. Kirishlarning ifodalanishi.
- 5.3.1. Kirishlar va modal so'zlarning uzviy aloqadorligi.

6- MASALA . Kiritmalarning semantik-sintaktik xususiyatlari .

Kiritma gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beruvchi ifodalardir. Bular gap tarkibiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik-semantik jihatdan (grammatik emas) munosabatga kirishadilar. Kiritmalar ohang jihatdan mustaqillikka ega bo'ladi. Ular biror so'roqqa javob bo'lmaydi, sintaktik vazifa bajarmaydi, gap bo'lagi yoki qo'shma gapning biror komponenti hisoblanmaydi. Kiritmalar tushunilishi qiyin yoki notanish so'zlar ma'nosini, ayrim leksik birliklarning etimologiyasini izohlash, so'zlovchining sub'ektiv, emotsional munosabatini ifodalash, xabar manbaini ko'rsatish, qo'shimcha ma'lumotlar berish uchun xizmat qiladi: Boshidagi qalampir nusxa qora do'ppisi ham (na chust nusxaga o'xshaydi, na marg'ilon nusxaga) yangi. «Iqbol» ko'rik tanlovida Nargiza Muhammedova (filologiya fakultetidan– 1-o'rin), Nilufar Ahmedova (pedagogika fakultetidan - 2-o'rin) va Mamlakat Pochchaeva (Chet tili fakultetidan -3-o'rin)lar g'olib chiqishdi.

Kiritmalar tuzilishiga ko'ra uch tipga bo'linadi: kiritma so'zlar, kiritma birikmalar, kiritma gaplar.

1) kiritma so'zlar ayrim mustaqil so'z shaklida bo'ladi. Saida Sultonova snayper(mergan) bo'lib jang qildi.

2) Kiritma birikmalar soʻz birikmasi shaklida boʻladi: U (safardan qaytgan kishi) ... juda mayda odatiy voqealarni ham qoldirmay soʻzlar edi.

3) Kiritma gaplar gap shaklida boʻladi: Oʻrmondan (u erda yirtqich hayvonlar bor edi) boʻkirgan va uligan ovozlari eshitildi.

Kiritmalar kirishlardan farq qilib gap boshida kelmasligi bilan xarakterlanadi. Ular koʻpincha gap ichida, baʼzan gap oxirida keladi. Kiritmalar gaplarning barcha tiplari tarkibida kelishi mumkin. Baʼzan bir gap (koʻproq murakkablashgan gaplar) tarkibida bir necha boʻlishi ham mumkin: Mehmonxonaga joylashib, soqol-moʻylovlarini olib (ochil shoʻx xarakterlar bilan yuzini siladi) keyin agitator sifatida (u koʻkragini kerdi) salobat bilan kirib bordi.

Kiritmalar

25-jadval

Maʼnosi	Tuzilishiga koʻra turlari	Misollar
Gapdagi asosiy fikrga yoʻl-yoʻlakay qoʻshimcha dalil bayon qiluvchi, toʻldiruvchi, aniqlik kiritish maqsadida qoʻllanuvchi soʻz, birikma va gaplar. (Gapning boshida kelmaydi.)	Kiritma soʻz	Onam (oʻgay) qargʻagani- qargʻagan. Nomer xizmatchisidan bu yaqin orada hammom (moʻrcha) borligini soʻradi. Saida Sulstonova snayper (mergan) boʻlib jang qildi. Buvim yasagan patir-kulchalarga nonpar (chekich) bosa boshladim.
	Kiritma birikma	Uning xotini (mahsumning onasi) sal ilgariroq qazo qilgan edi. (H.Gʻ) Aleksy Tolstoy meni toʻxtatib soʻradi (albatta tarjimon orqali): - Isming nima: (H.Qodiriy) Bu odat (mehmonlarni elpib qoʻyish) xonlar, beklar zamonasidan qolgan. (Gʻ.Gʻ)
	Kiritma gap	U bejirim tuflisi bilan erni duk- duk bosib (bu duk- duklardan Qahramonning yuragi goʻyo mix qoqilayotganday zirqirab ketdi) mashina tomon yurdi. (O.Yo.) Kelganlarning biri- novchasi partbyuro aʼzolaridan biri (sekretar kasal edi), semizi bosh agronom edi. (Sh.) Oʻsha yosh bolani (u ota- onasiz qolgan edi) boyga qarol qilib berishdi.
	Kiritma belgi	«Avtor mana shu bachkana(?) munosabatlarning hammasini poetiklashtirib tasvir etadi». Nahot poetiklashtirilgan (!) tasvir bachkana boʻlolsa. (M.Nurmatov)

Muhokama uchun savollar

6.1.1.Kiritma deb nimaga aytiladi?

6.2.1.Kiritmalar qanday maʼno-vazifalarni bajaradi?

6.4.1. Kiritmalar tuzilishiga koʻra necha turga boʻlinadi?.

6.5.1. Kirish va kiritmalarning ikki xil hodisa ekanligi.

Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. A.Gʻulomov, M.Asqarova. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.Sintaksis, darslik. Toshkent. «Oʻqituvchi»,1987y, 139-159 betlar.

2. R.Sayfullaeva va boshqalar Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sintaksis. III. (oʻquv qoʻllanmasi).T.,2006. 123-124-betlar.

3. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi adabiy oʻzbek tili(darslik). T., Universitet, 2006.378-381-betlar.

4. M.Asqarova. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidan maʼruza matnlari (Sintaksis). T., 2000 y.

5. R.Ikromova, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova.Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
6. G'.Abduraxmonov va boshqalar.O'zbek tili grammatikasi.T.1999. 3-123 betlar.
7. I.Rasulov.Sodda gap sintaksisi (kospektiv kurs). Toshkent, 1980.
8. O'zbek tili grammatikasi.T. Fan. 1976.114-119-betlar.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ne'matov X. Tajalli tasavvuf bilish nazariyasi va tilshunoslikda sintaksisni o'rganish masalalari. O'zbek tili va adabiyoti, 2-son. 1993. 27-30 b.
2. Mengliev B. Morfologik vositalarning ma'noviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol.fanlari nomzodi ... diss. -Toshkent, 1996. 1346.
3. Bobokalonov R. O'zbek tilida funktsional-semantik shakllangan so'z-gaplar. F.f.n. dis. -Toshkent, 2000. -136 b.

MAVZU : BIR BOSH BO'LAKLI GAPLAR.

Ajratilgan vaqt : 4 soat

Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar

1. Bir bosh bo'lakli gap haqida tushuncha.
2. Bir bosh bo'lakli gaplarning turlari:
 - 1) shaxsi aniq gap;
 - 2) shaxsi noaniq gap;
 - 3) shaxsi umumlashgan gap;
 - 4) shaxssiz gap;
 - 5) atov gap.
3. Bir bosh bo'lakli gap va to'liqsiz gap, so'z-gaplar.

Tayanich tushuncha va atamalar.

Grammatik asos, bosh bo'laklar. Shaxs. Shaxsli (tuslanuvchi) fellar va bir bosh bo'lakli gaplar. Tuslanish shakllari. Predikativlik, vokativlik. Infinitiv fellar. To'liqsiz gap. So'z-gap.

1- asosiy masala – bir bosh bo'lakli gap haqida tushuncha.

Malumki, biz tashqi olam tasirida tug'ilgan o'y-fikr, his-tuyg'u, istak-niyatlarimizni asosan, gaplar orqali ifodalaymiz va suhbatdosh-tinglovchiga etkazamiz. Biz bunda maqsadimiz,sharoit-vaziyat, bilim va malakalarimizga bog'liq holda gaplarning turli tiplaridan foydalanamiz. Ana shunday gaplardan biri bir sostavli deb ham yuritiladigan bir bosh bo'lakli gapdir. Bir bosh bo'lakli gap sodda gapning bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra bir turidir. Ma'lumki, bu jihatdan sodda gaplar ikkiga bo'linib, uning boshqa bir turi ikki bosh bo'lakli gap deyiladi. Bunday gaplarda fikr ikki bosh bo'lak, ya'ni ega va kesimning qo'shilishidan hosil bo'lgan gap orqali ifodalanadi. Masalan: *Bahor keldi Olam* anvoyi gullar bezagan ko'm-ko'k libosga *burkandi*.

Bir bosh bo'lakli gapda esa fikr shaklan ega yoki kesimni eslatuvchi bitta bosh bo'lak bilan ifodalanadi. Biroq bu bunday gaplarda ega yoki kesimning «tushib qolganligi»ni yoki etishmasligini bildirmaydi (U to'liqsiz gap emas). Ikki bosh bo'lakli gap ham fikrning to'liq ifodasidir. Bir bosh bo'lakli gap ham ikki bosh bo'lakli gap singari odatdagi, normal hodisadir. Boshqacha aytganda, ikki bosh bo'lakli gap ham, bir bosh bo'lakli gap ham fikrning sodda gap shaklidagi grammatik jihatdan to'liq shakllangan mustaqil yashash formasidir. Ular o'rtasidagi farq bosh bo'laklarning miqdorida, xolos. Bir bosh bo'lakli gapda bir-biriga nisbat berib o'rganiladigan ikki bosh bo'lak bo'lmaydi. Shuning uchun bu erdagi bosh bo'lakni kesim yoki ega deb tushunilmaydi. Biroq u o'z logik-grammatik xususiyatlariga ko'ra yo kesim sostavini, yo ega sostavini eslatib turadi. Jumladan: *Bahor. Erta tong. Oydin kecha* kabilar egani yoki ega sostavini eslatadi. Bu suvni ichib bo'lmaydi. Avval o'yla, keyin so'yla. Ketsang-ketaver kabi gaplar esa kesim yoki kesim sostavidan iboratdir.

Xullas, bir bosh bo'lakli gaplar ikki sostavli gapning kesimi yoki egasi tushib qolgan qismi emas. Ular fikrning bir bosh bo'lak orqali ifodalangan mustaqil bir ko'rinishidir. Shuning uchun

to'liqsiz gaplarni bir bosh bo'lakli gap deb bo'lmaydi, chunki to'liqsiz gaplarda bo'laklar sharoit talabiga ko'ra haqiqatan tushirilgan bo'ladi. *Hozir qaysi fasl haqida gapirayotgan edik ? – Bahor.* **Buni:** *Bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k* qurshovidagi *Bahor* bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Birinchi holdagi *Bahor* to'liqsiz gapdir, u aslida to'ldiruvchining qisqargan shaklda ifodalangan (aslida Bahor haqida), kesim avvalgi so'roqdan anglashilib turgani uchun tushirib qoldirilgan. Keyingi holdagi *Bahor* esa fikrning shu shakldagi normal ifodasidir. U sharoit tufayli kesimidan ajratilib ifodalanilayotgani yo'q. U fikrning shunday holatdagi ifodasidir. Gapga xos tugallangan intonatsiya bu so'zga gaplik sifatini baxsh etadi. Bular aksariyat predmetning nomini bildiruvchi so'zlardan tashkil topgani uchun atov gap yoki nominativ gap deb yuritiladi.

Bir so'zning fikr ifodalovchi birlikka aylanishi so'z-gaplarga ham xosdir. Biroq shundan kelib chikib, ularni bir bosh bo'lakli gap deb bo'lmaydi. Chunki so'z-gap deb ataladigan Ha. *Yo'q. Mayli. Barakallo. Xayr. Bas.* kabi sintaktik hodisalarni bo'laklarga ajratib bo'lmaydi. Ularni sintaktik tabiatiga ko'ra malum gap bo'lagi deb hisoblash grammatik qonun-qoidalarga to'g'ri kelmaydi. Bunday so'zlar yaxlit holda gap hisoblanib, bir so'zdan iborat bo'lganligi uchun so'z-gap deb yuritiladi va sodda gaplarning yana bir alohida turini tashkil qiladi.

Shu munosabat bilan bir bosh bo'lakli gap bosh bo'lagining sintaktik maqomini aniqlab berish ehtiyoji tug'iladi. Bu o'rinda bir bosh bo'lakli gaplarda bir-biriga nisbatan belgilanadigan ikki bosh bo'lak yo'q, shuning uchun bir bosh bo'lakli gap bosh bo'lagini ega yoki kesim deb bo'lmaydi, biroq shu bilan birga, ularni ana shu bosh bo'laklarni eslatib turadi deyish bilan ham ish bitmaydi. Har qalay, bunday fikr-talqin masalaga oydinlik kiritmaydi. Bu erda bir bosh bo'lakli gap bilan predikativlik va predikativlikning asosiy ifodalanmishi bo'lgan kesim munosabatlarining aniqlanishi bilan masala ijobiy hal etiladiganga o'xshaydi.

Malumki, gap hammadan burun obektiv borliqni ifodalaydi. Bu-ularning obektiv manosi, mazmuni. Biroq gap orqali obektiv borliq konkret holda emas, umumlashtirilgan holda, kishining jamiyat hayotida tug'ilgan ijtimoiy ongi nuqtai nazaridan ifodalanadi. Bu shundan iboratki, gapning mazmunida obektiv borliqdan tashqari kishining o'sha borliqqa munosabati ham ifodalanadi. Bu munosabat modallik deb yuritiladi. Biroq obektiv modallik gap mazmunidagi asosiy narsadir. Unga qo'shiladigan modal mano grammatik abstraksiya xarakterida bo'lib, gapda kommunikativ funktsiya tufayli yuzaga keladi. Chunki gap faqat aloqa jarayonida tuziladi. Aloqa jarayonida gap tuzish degan so'z – nimaningdir belgi- xususiyatini tasdiqlash yoki inkor qilish, nimaningdir mavjud yoki mavjud emasligini tasdiqlash (keng manoda : iltimos, buyruq ham nimaningdir mavjud emasligidan kelib chiqqan tasdiq) demakdir. Tasdiqlash yoki inkor qilish esa predikativlik hodisasi bo'lib, modallik ana shu predikativlikning bir elementidir.

Modallik grammatik zamon va shaxs shakllari bilan qo'shib predikativlikni tashkil qiladi. Masalan, *Endi yozganingni izohlab ber* deyilganida anglashiladigan malum shaxs va harakat uning obektiv (material) mazmuni bo'lsa, o'sha shaxsning harakatini tasdiqlaydigan so'zlovchining aniq ishonchi, undash manosi (modallik), harakatning nutq so'zlanib turgan paytdan oldin yuz berganligi manosi (o'tgan zamon), harakatning boshqaruvchisi II shaxs ekanligi manosi birgalikda gapning predikativligini tashkil qiladi.

Demak, predikativlik gap manosini ifodalaydi. U gapning grammatik manosidir.

Predikativlik, odatda, bitta so'zning shaxs-son formasi bilan ifodalanishi mumkin bo'lgani uchun gap bitta so'zdan (yoki so'z formasidan) iborat bo'la oladi. Masalan: *Eshitdim.- O'qituvchiman.*

Gapning predikativlikka ega bo'lishining o'zi bu birlikning o'ziga xos fonetik shakllanishini ham taqozo qiladi: predikativlik mavjud bo'lgan joyda, albatta, intonatsion shakllanish bo'ladi. Chunki intonatsiya gapning tashqi formasidir. U gapning boshlanish va tugash chegaralarini ko'rsatadi. Kishilarning o'zaro aloqa qilishlari gap orqali amalga oshirilgani uchun intonatsiya ham predikativlik kabi kommunikativ funktsiya bajaruvchi vosita bo'lib, u gapning uchinchi muhim belgisidir.

Shunday qilib, gap-obektiv borliqning kishining unga bo'lgan munosabati orqali ifodalaydigan leksik-grammatik va intonatsion butunlikdan iborat bo'lgan alohida in'ikos shaklidir.

Ko'rinib turibdiki, ushbu tavsif-nazariy malumot Endi yozganingni izohlab ber. Eshitdim. O'qituvchiman gaplari misolida isbotlab berildi. Bu gaplar esa bir bosh bo'lakli gaplardir. Ayni gaplarni *sen endi yozganingni izohlab ber, men eshitdim. Men o'qituvchiman* tarzida shakllantirish

mumkin. Shaklda o'zgarish bo'lgan bo'lsa-da, mazmunda o'zgarish yuz bergani yo'q. Biz nima qildik? Biz bir bosh bo'lakli gapni ikki bosh bo'lakli gapga aylantirdik. Demak, biz mazkur gaplarga yana bitta bosh bo'lak qo'shdik. Bu bosh bo'lak, malumki, ega deyiladi. Demak, biz yuqorida keltirgan bir bosh bo'lakli gaplar ikki bosh bo'lakli gaplarning kesimi mavqeidagi bosh bo'lakka egadir. Bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas Chunki gapning mohiyatini belgilovchi grammatik mano-predikativlik va intonatsion tugallik kesim orqali voqelanadi. Shu manoda yuqorida keltirilgan bir bosh bo'lakli gaplarning bosh bo'lagini bemalol kesim deyish mumkin. Bu nafaqat bosh bo'lagi fel bilan ifodalangan bir bosh bo'lakli gaplarga, balki *Bahor. Ko'm-ko'k dala!* tipidagi atov gaplarga ham taalluqlidir. Chunki mazkur so'zlar intonatsiya va sintaktik qurshov tufayli atalmishlarining nutq so'zlanib turgan paytda mavjudligi to'g'risidagi hukmni ham bildiradi. Bu esa faqat kesimga xos xususiyatdir. Demak, Bahor. Ko'm-ko'k dala tipidagi bir bosh bo'lakli gaplar kesimsiz ega gaplar emas, balki aslida kesimning o'zidir.

Bir bosh bo'lakli gaplar mano- vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: a) shaxsi aniq gap; b) shaxsi noaniq gap; v) shaxsi umumlashgan gap; g) shaxssiz gap; d) atov gap.

Bir bosh bo'lakli gaplar 26-jadval

№	Ma'no turlari	Misollar
1.	Shaxsi aniq (ma'lum)gaplar	- Keldingmi, o'g'lim! - Maktabda o'qituvchiman. - Yordamlashaymi?
2.	Shaxsi noma'lum (noaniq) gaplar.	Qush edim, qanotimni qayirdilar, gul edim, bulbulimdan ayirdilar. Yaxshini maqtaydilar, yomonni uyaltiradilar.
3.	Shaxsi umumlashgan gaplar	Nimani eksang, shuni o'rasan. Etti o'lchab, bir kes! Bugungi ishni ertaga qo'yma!
4.	Shaxssiz (shaxsi topilmas) gaplar	Odamning ichidagini bilib bo'lmas ekan. Tartib- qoidalarga rioya qilinsin!
5.	Atov (nominativ) gaplar	Oy. Nozik jimjitlik. Qahraton qish. Hamma yoq qor bilan qoplangan. Kuz. Paxtalar chamanday ochilgan. Ana talabalarimizning eng kuchlisi. Uni hamma hurmat qiladi.

Muhokama uchun savollar

1. Sodda gaplarning bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra turlari.
2. Bir bosh bo'lakli gapda predikativlikning ifodalanishi.
3. Bir bosh bo'lakli gaplarning turlari.
4. Bir bosh bo'lakli gaplar bosh bo'lagining shaxsga munosabati.
5. Atov gaplarda predikativlik.

2.1-asosiy masala – bir bosh bo'lakli gapning turlari: 1) shaxsi aniq gap.

Kesimi harakatni bajaruvchi shaxs-egani aniq ko'rsatib turadigan bir bosh bo'lakli gap shaxsi aniq gap deyiladi. Masalan: Borsam, yo'q ekansan. Yaxshi uxladigizmi? Kiring, o'tiring. Bunday gaplarning bosh bo'lagi asosan quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

1. I, II shaxs manosini ifodalovchi shaxsli fellar bilan. Masalan: Gektariga 40 tsentnerdan hosil yigishtirib oldik. Borasan, nima uchun bormas ekansan ?
2. I, II shaxs tuslovchi qo'shimchalarni olgan otlar, fe'ldan boshqa so'zlar bilan: Masalan: Xo'jalik suvchisiman. Uch bolaning otasiman. Erkakmisan?
3. I – II shaxsdagi buyruq –istak maylidagi fellar bilan :

Yur dalaga! Birga ketaylik. Bor. yo'qol, Dada, bir o'ynab kelay.

Bir kelib keting qishlog'imizga.

Bir bosh bo'lakli gaplar bilan ikki bosh bo'lakli gaplar chog'ishtirilsa, shu narsa ham aniq bo'ladiki, birinchi tipdagi gaplarda eganing yo'qligi fikr materialiga ta'sir etmaydi, u grammatik jihatdan shu konsturiktsiyada zarur element sanalmaydi.

Bazan mazmun va grammatik xususiyatlariga ko'ra egasi ifodalanmaydigan gaplarda ham eganing qo'llanishini ko'ramiz. Bu grammatik holat bilan emas, poetik, stilistik xususiyatlar bilan bog'liq.

Shaxsi aniq gaplarning kesimi harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko'rsatib turganligi uchun egani qo'llab ularni ikki bosh bo'lakli gapga aylantirish mumkin. Biroq shaxsi aniq gaplarning

shunday turlari ham borki, ular deyarli hamma vaqt bir bosh bo'lakli bo'lib, odatda egasiz kullanadi: bunday gaplarni ikki bosh bo'lakli gapga aylantirib bo'lmaydi. Anglashiladiki, shaxsi aniq gaplarning egasi umuman qo'llanilmaydigan (ega olib, ikki sostavli gapga aylanmaydigan) ko'rinishlari ham bor. Bunday bir bosh bo'lakli gaplar-topishmoqlarda uchraydi. Chunki topishmoqlarning talabiga ko'ra topilishi lozim bo'lgan predmet aytilmaydi. Demak, bu topilishi lozim bo'lgan predmet ega vazifasida kelishi lozim bo'lganda yuz beradi. Masalan, Kunduzi erga qaraydi, kechasi osmonga qaraydi. Bu gapning egasi zanjir(u) bo'lsa ham, lekin u qo'llanilmaydi (topiladigan narsa zanjirning o'zi). 2.Vaqtingni yo'qotding-baxtingni yo'qotding, tipidagi makollarda uchraydi. Bu erda "sen"ni qo'llab bo'lmaydi: umumiylik ma'nolari yo'qoladi. Tuya ko'rdingmi? -Yo'q tipidagi gaplarda ham egani qo'llab bo'lmaydi. Bular ham shu tipdadir.

3. Kesim «ketsak-ketdik» formasidagi fe'ldan bo'lgan gaplarda uchraydi. Bu fe'l kesim odatda birinchi, ikkinchi shaxs formasida keladi. Qani, yursak-yurdik. Yozsang-yoz kabi.

4. Mang (maqol) kabi gaplarda uchraydi. Ma, mang so'zlari shaxs bildiradigan fe'llar bo'lgan, keyinchalik kesim kabi qo'llanib ketgan.

Demak, bunday o'rinlarda grammatik shaxs aniq bo'lsa-da (shunga ko'ra, u shaxsi aniq gaplardir), lekin malum sabablarga ko'ra ega qo'llanmaydi.

Muhokama uchun savollar

2.1.1. Shaxsi aniq gapning talqini.

2.2.1. Shaxsi aniq gaplarning kesimlari fe'lining qaysi shakllari bilan ifodalanadi?

2.3.1. Bosh bo'lagi fe'ldan boshqa so'z bilan ifodalangan shaxsi aniq gaplar.

2.2– asosiy masala:Shaxsi noaniq gap.

Kesimi harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko'rsatib turmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxsi noaniq gap deyiladi. Masalan: Jo'jani kuzda sanaydilar. Uni institutga qabul qilishdi. Bu tipdagi gaplarning kesimi 3-shaxs shaklidagi aniq fe'llardan bo'ladi (kesimning 3 shaxs formasida bo'lishi bu turdagi bir bosh bo'lakli gaplar uchun tipik hodisadir). Biroq shunga qaramay, bajaruvchi shaxs-kesimdan anglashilgan harakatning bajaruvchisi aniq bo'lmaydi. Demak, bunda grammatik shaxs aniq bo'lsa-da, u konkret shaxsni anglatmaydi: u so'zlovchi ham emas, tinglovchi ham emas, umuman o'zga, boshqa shaxslar, o'zgalar, kimlarligi nomalum. Ular gapning harakatni bajaruvchisi to'g'risida bundan ortiq malumot bera olmaydi, ular bir bosh bo'lakli gapning ayni shunga-harakatning bajaruvchisini aniq ifodalash zarur bo'lmagan holatlarga moslashgan, shunday ehtiyojdan tug'ilgan turlaridir. Masalan: Dalada ish qizg'in: bir tomonda ariq-zovurlarni tozalayaptilar, bir tomonda ko'chat ekyaptilar, bir tomonda daraxtlarni oqlayaptilar.

Shaxsi noaniq gapning bosh bo'lagi, asosan, quyidagi fe'llar bilan ifodalanadi:

1. Uchinchi shaxsning ko'pligi formasidagi fe'l bo'ladi: Muxbirlarni bu yoqqa kirgizmaydilar. Test savollarini uch oy oldin e'lon qiladilar.

1. Birgalik nisbatidagi fe'llar bilan ifodalanadi: Salimjonni institutga qabul qilishdi. Eshnazarovni 21-maktabda uchratish mumkin deyishdi. Shu o'rinda takidlab o'tish lozimki, shaxsi noaniq gaplarning katta guruhining kesimi aytmoq, demoq, malumot bermoq, xabar bermoq, e'lon qilmoq kabi fe'llar bilan ifodalaniib, asosiy fikr boshqa shaxs yoki shaxslarga taalluqli bo'ladi, shuning uchun ham bu xil gaplarni yarim o'zlashgan ko'chirma gaplar deb atash mumkin. Masalan: Otam sayohatga ketgan deyishyapti. Uni Karim nonvoy deyishardi.

Yarim o'zlashgan ko'chirma gap tamoman muallif gapiga singdirib yuborilishi ham mumkin: Direktorning soat o'nlarda bo'lishini aytishdi.

2. Shaxsi noaniq gapning kesimi ba'zan 3-shaxsning birlik formasidagi fe'l bilan ifodalanadi: Hozir paxtani mashina bilan teradi. Xey, senga gapirayapti.

Ko'rinadiki, shaxsi noaniq gaplarda bajaruvchi shaxs aniq bo'lmaydi va uni ko'rsatish talab ham qilinmaydi, odatda, bajaruvchi sifatida nomalum bir qancha shaxslar tushuniladi. Chunki bu xil gaplarda bajaruvchi shaxs emas, balki ish-harakatning o'zi birinchi o'rinda turadi, asosiy diqqat shunga qaratilgan bo'ladi.

Muhokama uchun savollar

2.1.1. Shaxsi noaniq gapning tarifi va tavsifi.

2.2.1. Gaplarning shaxsi noaniqlik tushunchasi.

2.3.1. Shaxsi noaniq gaplarning bosh bo'lagi qanday so'zlar bilan ifodalanadi?

2.3-asosiy masala: Shaxsi umumlashgan gap.

Umumshaxsga, hammaga qaratilgan ish-harakatni bildiruvchi bir bosh bo'lakli gap shaxsi umumlashgan gap deyiladi. Masalan: Bir yoqadan bosh chiqarib ishlaylik. Avlodlarga ozod va obod Vatan qoldiraylik. Etti o'lchab bir kes. Suyanmang, xavfli.

Bunday gaplarning kesimi shaxsni aniq ko'rsatib tursa ham, bu shaxs mazmunan umumlashgan bo'ladi, chunki undan anglashilgan ish-harakat ko'pchilikka, barcha shaxslarga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun bu tip gaplarda barcha shaxslarga xos va taalluqli bo'lgan hayotiy xulosalar, uzoq asrlik tajribalar, umumiy qoidalar, umumlashgan mulohazalar, umumga qaratilgan chaqiriqlar, chorlovlar ifodalangan bo'ladi. Bu jihatdan, ayniqsa, maqollar xarakterlidir. Masalan: Bir kun burun sochsang, bir hafta burun o'rasan. Dehqon bo'lsang, shudgor qil. Avval o'yla, keyin so'yla. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt. Misollardan ko'rinib turibdiki, bunday gaplarning kesimi har xil shakldagi fe'llar bilan ifodalangan, lekin ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

1. Fe'lning ikkinchi shaxs birlik shaklidagi buyruq mayli shakli: Bugungi ishni ertaga qo'yma. Do'sting uchun zahar yut.
2. Aniqlik mayli shakli .
 - a) o'tgan zamon shakli –Tuya ko'rdingmi – Yo'q.
 - b) hozirgi -kelasi zamon shakli : Bersang-olasan, eksang-o'rasan.
 - v) kelasi zamon shakli: Xom bo'lsang pisharsan, bu shashtingdan tusharsan.
3. Shart-istak mayli shakli : Qalavini topsang, qor yonar.

Muhokama uchun savollar

- 2.3.1. Shaxsi umumlashgan gapning tarifi.
- 2.3.2. Shaxsi umumlashgan gapning tavsifi.
- 2.3.3. Shaxsi umumlashgan gap bosh bo'lagining ifodalanishi.

2.4- asosiy masala. Shaxssiz gaplar.

Kesimdan anglashilgan ish-harakatning bajaruvchisini topib bo'lmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxssiz gaplar deyiladi. Shaxssiz gaplar bir bosh bo'lakli gapning egasini topib bo'lmaydigan turidir. Bunda eganing yo'qligi shaxsi aniq gaplardagi egasiz qo'llanishdan, shuningdek, to'liqsiz gaplardagi egasiz qo'llanishdan tubdan farq qiladi. Shaxsi aniq gaplarning kesimidan harakatning bajaruvchisi, yani ega aniq bilinib tursa va uni bemalol tiklash mumkin bo'lsa, to'liqsiz gaplarda tushirib qoldirilgan egani qullash mumkin bo'lsa, shaxssiz gapda umuman ega va ega tushunchasi bo'lmaydi, faraz ham qilinmaydi. Qiyoslaylik: – Sen sayohatga borasanmi? – Boraman – to'liqsiz gap-ega «men» tushirib qoldirilgan. Bu suvni ichib bo'lmaydi-shaxssiz gap- grammatik jihatdan ham, mazmunan ham shaxsni qo'shib bo'lmaydi.

Shaxssiz gapning Bizga bugun borishimizga to'g'ri keladi, kabi tipida kesimdan anglashilgan harakatning bajaruvchisi – logik subekt anglashilib tursa ham, lekin o'sha subektni bildiradigan so'z (grammatik ega) bunday gapda qatnasha olmaydi: kesim bu so'z bilan, umuman boshqa element bilan ham, predikativ munosabatga kirisha olmaydi, grammatik xususiyat bunga yo'l qo'ymaydi, Masalan: Daryoning u yuziga o'tishga to'g'ri keladi. Majlisda Navro'z bayramini qanday qilib o'tkazish to'g'risida gapirildi.

Misollardan ko'rinib turibdiki, shaxssiz gaplarda eganing bo'lmasligi va topilmasligi normal nutq hodisasidir, bunday gaplarga egani kiritish logik-grammatik jihatdan tilga ziddir, shaxsi topilmas gaplarda so'zlovchi uchun harakatni bajaruvchi butunlay etibordan chetda bo'ladi, diqqat ish-harakatga, uning bajarilishiga yoki bajarilmasligiga, harakatni bajarish mumkin yoki mumkin emasligiga, noilojlikdan kelib chiqqan yoki aksinchaligiga, majburiyligi yoki o'rinsizligiga qaratiladi. Shunga ko'ra bunday gaplarda eganing ifodalanishiga butunlay zaruriyat bo'lmaydi. Ular shunday tuziladiki, shaxsi aniq, shaxsi noaniq yoki shaxsi umumlashgan gaplardan farqlangan holda, bunday gaplarning egasini tiklab ham bo'lmaydi. Ularning shaxssiz yoki shaxsi topilmas gap deyilishi ham ana shu bilan izohlanadi. Shu manoda shaxsi topilmas gaplar bir bosh bo'lakli gaplarning o'ziga xos bir turi, fikrning mustaqil bir yashash formasidir.

Shaxssiz gaplarning kesimlari, asosan, quyidagi morfologik shakllar orqali ifodalanadi:

1. Majhul nisbatdagi felning 3-shaxs buyruq – istak mayli shakli bilan: Bu erga nos tuflanmasin, chekilmasin. Yig'lanmasin, nega yig'lanadi. (A.Qahhor).

2. Yo'q so'zi bilan birga kelgan egalik qo'shimchali majhul nisbatdagi sifatdosh shakli bilan: Ish qog'ozlarini yangi o'zbek lotin alifbosida yozishga haligacha kirishilgani yo'q.

3. Ayrim oddiy darajadagi yoki aniq nisbatdagi fe'llar bilan. Bunday fe'llar o'zining grammatik egasi bilan birikib ketib, mazmunan bir umumiy tushunchani, hukmni ifodalaydi. Shuning uchun ulardagi grammatik egani alohida ajratib olinmaydi, birikma asosidagi mazmunni bo'laklarga bo'lib tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun bunday shakliy ikki bosh bo'lakli gaplar ham shaxssiz gaplar hisoblanadi: Masalan: Tong otdi. Kun botdi. Qorong'u tushdi. Kech kirdi. Chaqmoq chaqdi. Hozir qorong'u tushib qoladi. Kech bo'lib qolgan. Uyqusi keldi. Joni chiqdi. Achchig'i keldi. Boshi aylandi. Yig'lagisi keldi. Joni kirdi. Uni sovuq urdi.

4. Kerak, lozim, darkor, zarur, mumkin so'zlarining harakat nomi bilan birga kelishi bilan: Do'stning aybini yuziga aytish kerak. Gazeta bilan qaerda tanishish mumkin. Bu holatda harakat nomi egalik qo'shimchasini olsa, gap ikki bosh bo'lakli hisoblanadi.

5. To'g'ri kelmoq so'zining tushangan shakli bilan: To'xtashga to'g'ri keladi, qo'limda ratsiya bor. Odatda to'g'ri kelmoq felidan oldin jo'nalish kelishigi shaklidagi harakat nomi keladi. Bu harakat nomi mazmun talabi bilan egalik qo'shimchasini olish mumkin. Masalan: Chiqishingga to'g'ri keladi.

6. bo'lmoq bog'lamasining ravishdosh, shart feli, ot, olmoshlar bilan birikkan tushangan shakli bilan. Masalan: Ilmni mashaqqatsiz egallab bo'lmaydi. Oyni etak bilan yopib bo'lmas. G'ofur aka, sizga nima bo'ldi? Bu olmani esa bo'ladi.

7. Ayrim ravish, ot, undov, so'zlar bilan.

Masalan: Senga yaxshi-ya ! Aytishga oson! Aytishga uyat !

Muhokama uchun savollar

2.4.1. Shaxssiz gapning talqini.

2.4.2. Shaxssiz gapni shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar bilan qiyosi.

2.4.3. Shaxssiz gap kesimining morfologik shakllari.

2.5 – asosiy masala: Atov gap .

Predmet, voqea-hodisaning mavjudligi to'g'risidagi hukmni bildiruvchi bir bosh bo'lakli gap atov gap deyiladi. Masalan: O'rtada katta stol. Stolning ustida guldor choynak. Bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k libosga burkangan.

Biror narsaning nomini aytish, borar voqea-hodisani atash bilan gap hosil bo'lmaydi. Gap uchun predikativlik va gapga xos tugallangan intonatsiya shart. Atov gapda predikativlik maxsus yo'l bilan ifodalanadi: unda gapga xos intonatsiya bo'ladi. Aslida so'z, so'z birikmalari bo'lgan nominativ birliklar gapga xos intonatsiya bilan aytiladi. Natijada mazkur so'z va birikmalar narsa-hodisalarning atamasigina bo'lib qolmay, balki shu narsa-hodisalarning nutq so'zlanib turgan momentda mavjudligini ham tasdiqlaydi, shu haqda hukmni ham bildiradi: Masalan: Qirq beshinchi yil. May oyi. G'alaba bayrami ! Amudaryo! Amudaryo deganlari shu ekan-da!

Demak, biror narsa-hodisaning atamasi tugallangan intonatsiya tufayli predikatsiya bildirgandagina, ana shu atalayotgan narsa –hodisalarning mavjudligini tasdiqlash sifatiga ham ega bo'lgandagina gap sanaladi. Boshqa hollarda gap sanalmaydi. Binobarin:

1. Turli asarlarning nomlari, sarlavhalar, viveska va boshqalar – faqat atash bildiradigan so'z birikmalari nominativ, atov gap sanalmaydi. «Sirdaryo haqiqati», «Yoshlar telekanali», «Yozuvchi», «Gazmol», «Sirdaryo viloyati hokimligi» kabilar.

2. Gapga mazmunan o'xshash bo'lgan ushbu kabi sintaktik hodisalar ham atov gap bo'la olmaydi. Qovun. U bir pishgan osh. Ona ! Bu so'zda olam-olam mano bor. Bular logik urg'u olayotgan so'zlardir. So'zlovchi ular asosida yotgan narsalarga ma'noviy-mantiqiy urg'u berayapti, e'tiborni shu narsalarga jalb qilyapti.

3. Menga kitob, Yozda kanikul.tipidagi gaplar esa hukm ifodalasa-da, atov gap emas, ular biror sabab bilan kesimi tushirib qoldirilgan to'liqsiz gaplardir.

Atov gap bosh bo'lagi substantiv xarakterda bo'lib, predikativlik ifoda qiladi. Buning uchun u zamon kategoriyasi bilan bog'lanib, tugallangan intonatsiya bilan aytiladi: Ko'm-ko'k dala. Sayohatchilar miriqib dam olishyapti. Bunda atov gap alohida intonatsiya bilan aytilib, predmetning hozirgi zamonda mavjudligi tasdiqlanyapti.

Nominativ gaplar ko'proq badiiy asarlarda yoki matbuot-televideniya voqea-hodisalarini bevosita, to'g'ridan-to'g'ri berishda, tabiat hodisalarini, turli voqealarni tasvirlashda ishlatiladi. Ular nutqning ixcham, ifodali formalaridan biridir.

Atov gaplarning bosh bo'lagi asosan ot va otlashib kelgan so'zlar bilan ifodalanadi. Masalan: Tong. Navro'z tongi. Erta ko'klam. Ko'm-ko'k dalalar. Chet elga sayohatga borish. Bu gap hammaga moydek yoqib tushdi.

Atov gaplar logik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Mavjudlikni tasdiqlash xarakteridagi atov gaplar. Kech kuz. Tashqarida izillar yomg'ir.
2. Ham mavjudlikni tasdiqlash, ham ko'rsatish xarakteridagi atov gaplar. Ana samolyot! Uchishini qara. Mana bizning qishloq. Butun tuman uni biladi. Mana mening bedam. Bu tipdagi atov gaplarda emotsionallik avvalgisiga qaraganda kuchli bo'ladi.

Ayon bo'ladiki, atov gaplar narsa-hodisalarining nutq so'zlanib turgan paytda mavjudligini tasdiqlovchi, tugallangan intonatsiya bilan aytiladigan bir bosh bo'lakli gaplardir. Ular asosan bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Shuning uchun ular shaklan egaga o'xshasalar-da, ega emas, balki eganing vazifasini ham o'z zimmasiga olgan kesimdir.

Muhokama uchun savollar

- 2.5.1. Atov gaplar qaysi tomonlari bilan tavsiflanadi?
- 2.5.2. Atov gaplarda predikativlik qanday ifodalanadi?
- 2.5.3. Atov gapning bosh bo'lagi qaysi va qanday so'zlar bilan ifodalanadi?
- 2.5.4. Atov gaplarning hosil bo'lishida intonatsiyaning roli.

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar

1. A.G'ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T. 1987. 129-137 betlar.
2. Sh. Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). T., Universitet, 2006. 378-381-betlar.
3. R. Sayfullaeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. III. (o'quv qo'llanmasi). T., 2006. 123-124-betlar.
4. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). T., 2000 y.
5. R. Ikromova, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
6. G' Abduraxmonov va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. T. 1999. 3-123 betlar.
7. O'zbek tili grammatikasi. T. Fan. 1976. 114-119-betlar.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ne'matov X. Tajalli tasavvuf bilish nazariyasi va tilshunoslikda sintaksisni o'rganish masalalari. O'zbek tili va adabiyoti, 2-son. 1993. 27-30 b.
2. Mengliev B. Morfologik vositalarning ma'naviy xususiyatlari va sintaktik imkoniyatlari: Filol. fanlari nomzodi ... diss. -Toshkent, 1996. 134 b.
3. Bobokalonov R. O'zbek tilida funktsional-semantik shakllangan so'z-gaplar. F.f.n. dis. -Toshkent, 2000. -136 b.

SO'Z-GAPLAR VA ULARNING TURLARI.

Ajratilgan soat – 2

Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar:

1. *Gaplarning bo'laklarga ajralish-ajralmasligiga ko'ra turlari.*
2. *So'z-gapning semantik-sintaktik xususiyatlari.*

Tayanch tushuncha va atamalar.

Grammatik asos, bosh bo'laklar. Gap bo'lagi. Grammatik asos. Grammatik markaz. Predikativlik. Bir bosh bo'lakli gap. Atov gap. To'liqsiz gap. So'z-gap.

1- masala: Gaplarning bo'laklarga ajralish-ajralmasligiga ko'ra turlari

Sodda gaplar bo'laklarga ajralish-ajralmasligiga ko'ra ham turlarga ajratiladi. Bu jihatdan ular ikkiga bo'linadi.

- 1) bo'laklarga ajraladigan gaplar;

2) bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.

Bo'laklarga ajraladigan gaplar bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajraladi. Ikki bosh bo'lakli gaplar va bir bosh bo'lakli gaplarning barcha turlari bo'laklarga ajraladigan gap hisoblanadi. Chunki ularning hammasi bosh bo'lak yoki ikkinchi darajali bo'lak hisoblanadi. Demak, bo'laklarga ajraladigan gaplar u yoki bu gap bo'lagiga ajraladi. Sodda gaplarning aksariyati gap bo'laklariga ajraladigan gaplardir.

Biroq sodda gaplarning yana shunday bir turi borki, ular birgina so'zdan yoki bir so'z maqomidagi bog'lanmadan tashkil topadi. – Bugungi majlis bo'ladimi? – Yo'q. Assalomu alaykum, muallim! – Va alaykum assalom.

Keltirilgan sintaktik qurilmalarning – «Yo'q», «Assalomu alaykum» «Va alaykum assalom» ko'rinishdagi tiplari so'z – gap hisoblanadi. Bular ega ham, kesim ham emas, lekin ular fikr ifodalash xususiyatiga ega, shunga ko'ra ularni so'z-gap deyish mumkin.

So'z – gaplarning semantik-sintaktik xususiyatlari.

2- masala bayoni

So'z-gaplarga o'xshash bir qancha gaplar bor. Ular ichida to'liqsiz gap va atov gap, bir bosh bo'lakli gaplar bo'laklarga ajralmaydigan gaplarga o'xshashligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bu hodisalarni qiyoslash ularni farqlashda muhim o'rin tutadi.

Ba'zan to'liqsiz gaplar ham bir so'zdan tashkil topadi. Shuning uchun so'z-gap va to'liqsiz gaplarni bir-biridan farqlash lozim. To'liqsiz gapni hosil qiluvchi so'z ma'lum gap bo'lagi vazifasini bajaradi. So'z-gap esa, yuqorida aytilganidek, gap bo'lagi sifatida ajratilmaydigan birgina so'zdan yoki so'zshaklidan iborat bo'ladi: Mayli. Xo'p. Salom. Assalomu alaykum. Yo'q. Barakalla. Xayr. To'g'ri kabilar ana shunday so'z-gaplar hisoblanadi.

Quyidagi misolda so'z-gap bilan to'liqsiz gapning farqlari yaqqol ko'rinib turibdi.

- Bugun muzeyga borasizmi? – Boraman.
- Bugun muzeyga borasizmi? – Ha ,boraman.
- Bugun muzeyga borasizmi? – Ha.

Birinchi misoldagi Boraman gapi bir so'zdan iborat bo'lsa ham, kesim vazifasida kelgan, demak, to'liqsiz gap; ikkinchi misoldagi – Ha, boraman gapida *Ha* kirish so'z, boraman_ kesim. Uchinchi misolda esa *Ha* so'zining o'zi gap vazifasida kelgan. U hech qanday gap bo'lagi vazifasini o'tay olmaydi. Shuning uchun ular bo'laklarga ajralmaydigan so'z-gap hisoblanadi.

So'z - gaplar fikrni tasdiqlash (*Ha*, *mayli*, *rost*, *durust*, *binoyi*, *albatta*), inkor etish (*yo'q*, *noto'g'ri*, *aslo*), so'rash (*a?*, *xo'sh?*, *rostdanmi?*, *nahotki?*), turli his-hayajon (*voy*, *iya*, *eh*, *uff*) kabi ma'nolarni ifodalaydi.

So'z-gaplar, asosan, ikki yoki undan ortiq shaxs orasidagi so'zlashuvda, dialoglarda ishlatiladi:

- Biz kutib turaylikmi? – Yo'q.
- Sizni muyulishgacha kuzatib borsam maylimi ? – Mayli.

So'z-gaplar undalmalar bilan birga qo'llanishi mumkin:

- Yashavor, azamat.

Ba'zan ular takrorlanib ham ishlatiladi: Ergash tushunmadi: -Nima-nima?-dedi ko'zini katta ochib.

Vokativ gaplar ham so'z - gaplarning bir ko'rinishidir. Bunday gaplar favqulodda vaziyatlarda ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Ularda so'zlovchining kutilmagan vaziyatlardagi hayajonlari, qo'rquv holatlari bir so'z bilan unga xos intonatsiya yordamida ifodalanadi.

Masalan: Oyi!.. Alvido! **Podsho baqirdi: -Jallod!**

Bo'laklarga bo'linmaydigan gaplar.

27-jadval

Turlari	Semantik guruhlari	Misollar
So'z- gaplar	Tasdiq yoki inkorni anglatadi. His- tuyg'uni bildiradi. Rasm- odatni anglatadi. So'roqni bildiradi. Tabrik, xitob, tahsinni bildiradi.	Ha. Durust. To'g'ri. Xo'p. Mayli. Yo'q. Hech. Uh. Dod (voy). Voydod! Bay- bay! Ura! Eh! Oh! Salom. Assalom. Vaalaykum assalom. Hayr. Marhamat. Rostdanmi? Bo'ptimi? Rosti bilan-a? maylimi? A?

	Buyruqni bildiradi: A) insonga nisbatan B) hayvon va parrandalarga nisbatan	Balli. Barakalla. Ofarin. Rahmat. Tashakkur. Tasanno. Qoyil. Qulluq. Bas! Jim! Kisht! Pisht! Beh-beh! Ish-sh! Chu!
Vokativ gaplar	Aytilayotgan fikrga ting-lovchining diqqatini jalb qilish, do'q, g'azab, ajab-lanish, shodlik, ta'na, o'pkagina, piching, afsuslanish, taqiqlashni ifodalaydi.	- Yormat aka!- Gulnorning yuragi to'lqinlanib ketdi. (O) Qiz yig'lab onasining quchog'iga otildi: <i>Oyijon!</i> Podsho baqirdi: <i>Jalld!</i>

Muhokama uchun savollar

1. Bo'laklarga ajralish-ajralmasligiga ko'ra sodda gaplarning qanday turlari bor?
2. So'z-gap sodda gaplarning qaysi turiga kiradi?
3. Sodda gaplarning qaysi turlari bo'laklarga ajraladigan gaplar hisoblanadi?
4. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar doirasiga kiradigan sodda gaplardan qaysilarini bilasiz?
5. Qanday gaplar bo'laklarga ajralmaydigan gap hisoblanadi?

ADABIYOtlAR:

1. A.G'ulomov, M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis Darslik. Toshkent. «O'qituvchi», 1987y, 137-139 betlar.
2. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili(darslik). T., Universitet, 2006.378-381-betlar.
- 3.R.Sayfullaeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. III.(o'quv qo'llanmasi).T.,2006. 57-63-betlar.
4. M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). T., 2000 y.
5. R.Ikromova, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova.Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.
- 6.G'.Abdurahmonov A.Sulaymonov, X.Holiyorov, J.Omonturdiyev, Hozirgi o'zbek adabiy tili(sintaksis). Toshkent «O'qituvchi»,1979.
7. O'zbek tili grammatikasi.T. Fan. 1976.114-119-betlar.
- 8.Bobokalonov R. O'zbek tilida funksional-semantik shakllangan so'z-gaplar. Filol.fanlari nomzodi ..dis. Toshkent, 2000. -136 b.

ONA TILI VA ADABIYOT (SINTAKSIS) FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR

1- amaliy mashg'ulot

Mavzu: Sintaktik birliklar, sintaktik munosabat va sintaktik aloqa.

Ajratilgan vaqt- 2 soat

Darsning maqsadi: talabalarning sintaksisning o'rganish ob'ektlari, sintaktik birliklar, so'zlarning o'zaro bog'lanishi, sintaktik aloqa va sintaktik munosabat, ularning turlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday sintaktik tuzilmalardan sintaktik aloqa va sintaktik munosabatni hamda ularning turlarini ajrata olish ko'nikmasi va malakasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Berilgan mashq, matnlardan sintaktik birliklarni aniqlab, daftaringizga ularni to'rt guruhga (so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap, mikromatn) ajratib yozing.
2. Berilgan matndagi so'z birikmalari va gaplar (sodda va qo'shma gaplar) alohida-alohida guruhlariga ajratib yoziladi.
3. Ajratib yozilgan sintaktik birliklardan dastlabki uchtasining komponentlari o'zaro qanday sintaktik aloqa va sintaktik munosabat asosida bog'langanini toping va yoniga yozib qo'ying.
4. Tahlil qilingan har bir sintaktik birlikdagi sintaktik aloqa va sintaktik munosabatni ifodalovchi vositalarni aniqlang va javobingizni birliklarning 2-puktdagi izohining davomiga yozing.

1-mashq

1. Topshiriqning mohiyatini yaxshilab anglab olmay ijroga kirishadigan bola bir ishni ikki marta bajaradi. 2. O'z ota-onasining qadrini bilmagan bola vijdon va or-nomus hislaridan mahrum bo'ladi. 3. Elga halol xizmat qilib, shon va shuhrat qozongan farzand ota-onaning umriga umr qo'shadi. 4. Kuch va g'ayrat qaynab-toshayotgan bolani... o'z vaqtida foydali ishga yo'llay olsak, rohatini ko'ramiz, aks holda, toshqin suvdek azobu uqubatini tortamiz. 5. Boladagi iste'dod biz tarbiyachilardan alanga kutadi.

2-mashq

Andijondagi hovlimiz esimga keladi. Buvim xuddi shunaqa mahal ariq bo'yida piyola yuvadi. Barmog'idagi uzugi piyolaga tekkanda chiq-chiq ovoz chiqzardi. Keyin choy damlab chochiqqa o'rab qo'yadi. Boshimga kelib: «Tur, tura qol, Saida», deb boshimni silaydi. Bearmon kunlar edi Andijondagi kunlarim! Meni Toshkentga nima bog'lab turibdi? Shu mehribon, shu pokiza kampir bilan taqdirimiz birlashib ketganimi? Unga behad mehr qo'yganimmi? Ayriliq dog'ida o'rtangan shu musichadek beozor xotinni tashlab ketish menga xuddi xiyonatdek bo'lib tuyilishimi? Shu munglug', kichkinagina jusassida tog'dek yukni ingramay, faryod urmay ko'tarib yurgan jannati xotinni tashlab ketish mumkinmi? Biz oyim bilan ikkimiz bitta vujud bo'lib ketganmiz axir! Otilgan toshlar ikkiyovimizga barobar tegadi. (S.Zunnunova)

2-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: So'zlarning teng va ergash bog'lanishi, ergash bog'lanish turlari

Ajatilgan vaqt – 2 saot

Darsning maqsadi: talabalarning so'zlarning o'zaro bog'lanishi, bu bog'lanishning teng va tobelik asosida kechishi, tenglik va tobelikning belgilari, tobe bog'lanishning uch turi: boshqaruv, moslashuv, bitishuv to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday sintaktik tuzilmalardan sintaktik aloqa va uning turlarini ajrata olish malakasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Berilgan mashq, matnlardan sintaktik birliklarni aniqlab, daftaringizga ularni to'rt guruhga (so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap, mikromatn) ajratib yozing.
2. Berilgan matndagi so'z birikmalari va gaplar (sodda va qo'shma gaplar) alohida-alohida guruhlarga ajratib yoziladi.
3. Ajratib yozilgan sintaktik birliklar tarkibidan teng bog'langan va tobe bog'langan tashkil etuvchilarni aniqla, ularni ikki guruhga ajratib yozing.
4. Har bir guruhning yoniga ularni ifodalovchi vositalarni qayd eting.
5. Ergash bog'lanishli qurilmalarni predikativ va nopredikativ aloqa yuzasidan tahlil qilib, turini aniqlang va ularni ikki guruhga ajratib, daftaringizga qayd qiling.
6. Nopredikativ birikmalar qismlari o'zaro ergash bog'lanishning qaysi usuli bilan bog'langanini aniqlang va ularni uch guruhga bo'lib yozib chiqing.

3-mashq

Oybek o'sha paytlarda bolalari bilan tor bir uyda yashardi. Ijod qilish uchun mutlaqo sharoit yo'q edi. Er-xotin o'ylab-o'ylab yashab turgan xonaning shifti bilan poli oralig'ida bolaxona qilishdi. Oybek unga narvonda chiqar, to sahargacha muk tushib yozardi. Yozib charchagan paytlarda qaddini rostlasa, boshi shiftga tegardi. Kunduzlari ba'zan Eski Juvadagi «Oktyabr» kutubxonasiga borib yozardi.

Bu kutubxona ilgari «Turon» nomi bilan atalgan. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemirlar bu erga tez-tez kelib turishgan. «Turon» so'zini eshitganda, Sho'ro hukumatining labiga uchuq toshardi. Hamzaning «Yasha, Turon» she'ri ham «Yasha, Sho'ro» qilib o'zgartirildi. Ilgari Turon zamonga qofiya etilardi. Endi Sho'ro zamonga qofiya bo'libdi. Bechora she'rni kupa-kunduzi qaroqchilar echintirib, qofiyasini o'g'irlab ketgan edilar. (S.Ahmad).

4-mashq

So'zga chiqqan Nazir Safarov shunday degani kechagidek esimda (jummalarni, so'zdarni aynan keltiraman):

-Oybekning bu romani arriginal asar emas, plagat. Siymon Boboyvskaning «Kovoleriya zolotoy zvizda» kitobidan ko'chirib olingan.

Zalda gurros kulgu ko'tarildi. Safarov odamlarning nimaga kulayotganiga hayron edi. Oybek ham silkinib-silkinib, miriqib kulardi. Safarov unga o'qrayib qaradi.

-Nega kulasiz?

Oybek o'tirgan joyida javob qildi:

-Siz umuman o'rischa bilmaysiz. O'qimagansiz. Kitobning nomini ham, avtorining familiyasini ham bilmaysiz. Undan ko'chirib olganimni qayoqdan bilaqoldingiz. Do'stlaringiz durustroq o'rgatishmabdi-da...

Pastdagilar chapak chalib yuborishdi. Ayniqsa, studentlar jon- jahdlari bilan qarsak urishardi.

5-mashq

Davrimizning buyuk ixtirosi.

O'tgan asrdagi eng ahamiyatli kashfiyotlar qaysilar?

Mo'g'iliston sahrolaridan 10 million yil oldin yashab o'tgan dinozavrlar qo'ygan tuxumning topilganimi?

Qadimda o'tgan tamaddun (tsivilizatsiya) haqida bebaho ma'lumotlar beruvchi qabrlar, shaharlar va yozma yodgorliklarning ochilganimi?

Radioaktiv soatning ixtiro etilgani va uning yordamida Taft-kolledji professori Leynning er yoshini 1250 000 000 yil deb aniqlaganimi?

Reaktiv samolyotlarmi? Televideniya? Radiomi? Atom energiyasimi? Vodorod bombasimi?

Yo'q! Ularning bironyasi ham emas!

Mening fikrimcha, ratsional ochlik yordamida insonlar o'zlarini o'zi jismonan, aqlan va ma'nan yoshartirish yo'lining topilganligi hozirgi zamon kishisining eng buyuk ixtirolaridandir. Ilmiy amalga oshirilgan ochlik tufayli inson so'nmas yoshlikni qo'lga kiritishi mumkin.(Pol Bregg.)

3-amaliy mashg'ulot

Mavzu: So'z birikmasi

Ajratilgan vaqt- 2 soat

Darsning maqsadi: Talabalarning so'z birikmasi to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday matndan so'z birikmasini ajrata olish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi:

1. Berilgan mashq, matn va gaplardagi so'z birikmalarini va unga o'xshash hodisalarni ajratib yozing.
2. Ajratilgan so'z birikmalarining tobe va hokim komponentini topib, tobe komponentning tagiga to'lqinli, hokim komponentning tagiga to'g'ri chiziq chizing.
3. Ajratilgan so'z birikmalarini moslashuvli, boshqaruvli, bitishuvli so'z birikmalari tarzida uch guruhga bo'lib qaytadan yozib chiqing.
4. Har bir guruhga oid so'z birikmalarining qismlari qanday vositalar bilan bog'langanini aniqlab, bu vositalarni SBning yoniga yozib chiqing.

6-mashq

Dunyodagi jami mavjudot haroratga talpinib yashaydi. Quyosh kabi muhabbat ham nur manbaidir.

Kunlardan bir kuni mo'jiza ro'y berdi. Odamlar orasidagi bir kishidan sizga nur tushayotganini tuyasiz. U butun jismu joningizga yoyiladi va umringizda birinchi bora o'zingizni astoydil ko'ra broshlaysiz. Bu muborak nur jami kamu ko'stingizni titkilab, yuzaga olib chiqadi. Qattiq uyat tuyg'usi uyg'onadi. Jon-jahdingiz bilan o'zingizni sozlashga kirishasiz. Birov ko'rmagan ayblaringiz, guvohsiz sodir etgan gunohlaringizni yuvishga tushasiz. Tabiatingiz halim tortadi. Ichu toshingizda yaxshilikka moyillik sodir bo'ladi. haligi nur sizni tinmay ta'qib etaveradi, ichki dunyongizni yoritgandan yoritaveradi. Bora-bora hayotingizda inqilob yuz beradi: odamlar sizda shu kungacha bo'lmagan yangi iqlimni ko'ra boshlaydilar, endi siz atrofga ham yoqa boshlaysiz....

Bu muborak nur MUHABBATdir.

Sizdagi sodir bo'layotgan o'zgarish esa

Poklanishdir! (T.Sodiqova).

7-mashq

Ulug'likka ko'tarilish uchun bir umr riyozat kerak, tubanlikka tushish uchun esa bir on kifoya.

Harom pul ketidan xonadonga notinchlik, bola qoshida beburdlik, el qoshida sharmandalik kirib keladi.

Kishi balandlikka zinalardan o'tib borgani ma'qul. Aks holda, cho'qqiga ko'tarilgan kishining ko'zi tinib, boshi aylanib qolishi mumkin.

Ilm uchun vaqt topolmay, lavozim olish uchun birinchi bo'lib poyga qo'yadigan kishilardan olim chiqmaydi.

4-amaliy mashg'ulot

Mavzu: So'z birikmalarining tasnifi

Ajratilgan vaqt – 4 soat

Darsning maqsadi: talabalarning so'z birikmasi va ularning turlari, so'z turkumlari, gap bo'laklari to'g'risidagi bilimlarini boyitish, ularda har qanday matndan so'z birikmasini ajrata olish ko'nikmasini hosil qilish va mustahkamlash.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan matn, mashqlardan so'z birikmalarini topib, ularni ikki guruhga – sodda va murakkab so'z birikmalariga ajratib yozing.
2. Har bir so'z birikmasini tobe komponentning sintaktik vazifasiga ko'ra tahlil qilib, tobe komponentning tagiga gap bo'lagiga mos tegishli chiziqlar chizing.
3. Har bir so'z birikmasi hokim komponenti qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini aniqlab, ustiga yozib qo'ying.
4. Har bir so'z birikmasi komponentining o'zaro qaysi vositalar va qanday usul bilan bog'langanini aniqlang, yoniga yozib qo'ying.
5. Moslashuvli birikmalarni belgili-belgisizligiga ko'ra tahlil qilib, javobingizni SB yoniga yozib chiqing.
6. So'z birikmalaridan xohlagan beshtasini tanlab, hokim so'zning qanday so'zlar bilan bog'lana olishini dalillar bilan yozib ko'rsating.

8-mashq

1. Topshiriqning mohiyatini yaxshi anglab olmay ijroga kirishadigan bola bir ishni ikki marta bajaradi. 2. O'z ota-onasining qadrini bilmagan bola vijdon va or-nomus hislaridan mahrum bo'ladi. 3. Elga halol xizmat qilib, shon va shuhrat qozongan farzand ota-onaning umriga umr qo'shadi. 4. Kuch va g'ayrat qaynab-toshayotgan bolani... o'z vaqtida foydali ishga yo'llay olsak, rohatini ko'ramiz, aks holda, toshqin suvdek azobu uqubatini tortamiz. 5. Boladagi iste'dod biz tarbiyachilardan alanga kutadi.

9-mashq

Daraxtning qadri uning bo'yiga qarab emas, mevasi bilan o'lchanadi. Qanchadan-qancha kamtar ulug' zotlar fanga buyuk hissalar bo'lsa-da, beunvon o'tib ketdilar. Bir dona so'z aytgan odamning har erda ismu-sharifi bor. Kishi uchun halq nazaridan tushib qolish katta baxtsizlikdir. Har qanday xushro'y ayolning xunuk qiladigan narsasi uning zahar tilidir.

Do'st va yoru birodarlardan judo qiluvchi ham til, ularning sonini oshiruvchi ham til. Dili hasta kishiga aytilgan har bir shirin so'z uning qalbi uchun yoqilgan mash'al, chiroqdir. Eng qudratli nutq haqiqat ifodalan yogan nutqdir. (R.Usmonov).

10-mashq

Shoyimardon bir lahza jim qoldi. Mikrafon yana battarroq bijillab, bo'g'iq ovoz chiqardi. Yana Shoyimardonning xirillagan ovozi eshitildi:

-Edike, aylanay sendan, ha deb boshimni achitaverma. O'lgan bo'lsa o'libdi, endi nima ham qilardik... Menda boshqa odam yo'q. O'likning boshida o'tirishdan ne foyda? Marhum tirilib qoladi, deb o'ylaysanmi?

... - Nima demoqchisan o'zi? o'rningga odam yo'q. O'likning yoniga yarim tunda borib nima qilasan?

Janoza o'qiyman. Irim-sirimini qilib, marhumning haqqiga duo qilaman.

-Janoza o'qiysan? Sen-a, Edigey Bo'ron-a?

-Ha, men. Janoza o'qiyman.

Ana holos... Haligiday, Sovet hokimiyatining tashkil etilganiga oltmish yil to'lganda-ya? (Ch.Aytmatov).

5-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Gap. Gapning asosiy mantiqiy-grammatik kategoriyalari

Ajratilgan vaqt – 2 soat

Darsning maqsadi: talabalarning gap, gapning grammatik ma'nosi, predikativlik va uning tarkibiy grammatik ma'nolari, gapning grammatik kategoriyalari va morfologik kategoriyalar to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday gapdan grammatik ma'nolarni hamda ularning ifodalanishini ajrata olish va gap tuzish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan mashq, matn, gaplarda predikativlik qanday vositalar yordamida ifodalanganini topib, yozib chiqing.
2. Vositalarni predikativlikning ifodalanish usuliga ko'ra tahlil qilib, javobingizni 1-punttdagi izohingizning yoniga yozing.
3. Grammatik shaxs va zamoni morfologik shaxs va zamon bilan qiyoslang, farqlarini aniqlab, fikringizni alohida punttda ifodalang.
4. Gaplarni intonatsiyaning roliga ko'ra tahlil qiling. Intonatsiyaning o'zi bilan gap hosil bo'lishini dalillang.

11-mashq

Shijoatli kishi jangda dushman diliga vahima soladi, boshqalarni olg'a yurishga ilhomlantiradi.(O'talar so'zi) Alloh g'ayratli odamni yaxshi ko'radi.(Hadis). Kechira olishlik mardlik, kechira bilmaslik nomardlik. (A.Temur o'gitlari) Tug'dirgan emas, tarbiyalagan – ota.(Menandr) O'z o'g'lini hech bir foydali ishga o'rgatmagan odam o'g'ri boqayotgan bo'ladi.(T.Fuller) Yomon bolalar uchun ota-onani jazolamoq kerak. Ota-ona muhabbatining faqat bolaga qaratilishi dahshatli adashuvdir.(A.S.Makarenko) Bekorchi umr-bevaqt qarishdir.(I.Gyote) Har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. (I.Karimov) Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi. (G.Gegel) Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech kimni seva olmaydi.(Bayron) Kuchli odamlar hamisha oddiydirlar. (L.N.Tolstoy) G'azab ustida jazo berish-jazolash emas, qasd olishdir. (P.Buast)

12-mashq.

Shogirdim, har qanday martaba topsang ham, okeanlarning kichik irmoqlarga ehtiyoji borligini unutma. Sergap kishidan ma'no kutma. Shogirdim, munozarada gapga chechan, lekin fikri sayoz nohaq kishini emas, teran va haqqoniy fikr yuritayotgan odamni qo'llashni odat qil. Bolani saratonning jazirasiga, qishning izg'iriniga, hayotdagi har qanday qiyinchiliklarga bardosh beradigan, matonatli kishi qilib chiniqtirmoq lozimdir. Kasbga bo'lgan havasni tarbiyalash mavsumiy ish emas, balki u butun o'quv-tarbiya izchilligining qonuni bo'lmog'i lozim. Kasb tanlashda, avvalo, shu kasbga bo'lgan havasing, iste'doding borligi haqida chuqur o'ylab, ishonch hosil qil, nihoyat, uni chuqur egallash yo'lida aqlu irodangni ishga sol. Bir tulpor bor: u seni eng uchqur qushlardan tez uchiradi, beqiyos qudrat beradigan, eng muhimi, ko'z gavharingni juda uzoqni, kelajakni ko'ra oladigan qiladi, aql –idrok, zebo xulq baxsh etadi. Bu tulpor fan asoslari bo'lib, yoshlikdanoq uni yaxshi egallab olishga intil. Fan ummonining tubidan g'avvos kabi mashaqqat chekib, javohir izlaydigan zahmatkashlargina tarixda qoladi. Soxta shuhrat izidan quvib, o'zini ko'z-ko'z qilib, suv yuzida suzib yurgan shuhratparastlar ko'pik kabi uchib ketadi. (R.Usmonov)

6-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Gaplarning tasnifi: Gaplarning mazmuniga ko'ra turlari.

Ajratilgan vaqt – 4 soat

Darsning maqsadi: talabalarning darak, so'roq, buyruq gaplar; tasdiq va inkor gaplar; his-hayajonli va his-hayajonsiz gaplar, ularning turlari, mazmuniy xususiyatlari va vazifalari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday matndan gaplarning ma'no-vazifasiga ko'ra turlarini ajrata olish va shu xildagi gaplar tuza olish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan mashq, matnlardagi gaplarni mazmuniga ko'ra uch jihatdan turlarga ajratib, daftaringizga qayd qiling.
2. So'roq gaplarni hosil qilgan vositalarni aniqlab, ularni so'roq gaplar yoniga yozib chiqing.
3. Buyruq gaplar qanday hosil bo'lganini aniqlab, javobingizni qayd qiling.
4. Inkor va his-hayajonli gaplar qanday hosil bo'lganini ularning to'g'risiga yozib ko'rsating.
5. So'roq gaplarni ichki turlarga ajratib, yozib chiqing va funktsional ma'nolarini yoriting.
6. Undov gaplarning turlarga ajrating va yozib chiqing.
7. Undov gaplar turlarining uslubiy xususiyatlarini aniqlab, qayd eting.
8. So'roq va undov gaplarning hozirgi matbuotda qo'llanishiga baho berib, fikringizni yozma ifodalang.

13-mashq

Esing borida etagingni yop!

Ana tomosha-yu mana tomosha!

Eh-ha, bu orada qanchadan-qancha odamlar kelib ketmadi deysiz bu erga!

Sen manqurtsan! Haqiqiy manqurtsan!

E-ha, gap bu yoqda ekan-da! E-ha nechuk, er yuzida haqiqat bor! (Ch. Aytmatov).

Radiodan «Chorgoh» ashulasi yangrab qoldi. G'afur aka ko'cha o'rtasiga tushib aravakashga qichqirdi: -To'xtat aravangni! Bilasanmi, kim ashula aytayapti? Mulla To'ychi akam aytayaptilar. Oshdan kelayotgan chollar to'xtashdi. Hamma jim. «Chorgoh»ning mungli, yurakni o'rtavchi ohanglariga to'lgan butun ko'cha jimib qolgandi. «Chorgoh» tugadi. Diktorning ovozi yangradi. -Siz O'zbekiston xalq artisti Yunus Rajabiy ijrosida...

G'afur aka xijolat bo'lib Yunus akaga qaradi.

- E, o'ling, sizmidingiz. Keyin u aravakashlarga qichqirdi: -Hayda otingni!

Chollar ham, shoir mehmonlar ham kulib yuborishdi. (S. Ahmad).

14- mashq

Birodarlar, o'zi, bo'z ot qanday bo'ladi? Surpday oppoq bo'ladi. Bordiyu ajdodida bo'lsa, to'qqizga to'lganda Tarlon bo'ladi. To'qqiz yoshida Bo'zning badanida xolday-xolday qora donolar paydo bo'ladi. Shundan boshlab u Bo'z emas, Tarlon ot bo'ladi. Tarlon -xol-xol ot! Tarlon -otlar sarasi.

Birodarlar, To'riq otning yuzdan biri yaxshi bo'ladi. Tarlon otning yuzdan biri yomon bo'ladi!

Birodarlar, ot tanimasang, Tarlon ol!

Ayyo Tarlon, sen mening akamsan. Uka desa degulik mendayin ukang bor, aka desang degulik sendayin akam bor, nima g'amim bor?

Ayyo Tarlon, sen mening birodarimsan, qiyomatlik birodarim... (Tog'ay Murod).

15-mashq. Mashqni ko'chiring. Tasdiq va inkor gaplarni gapning kuzatilgan maqsadga ko'ra turlari bo'yicha tahlil qilib, javobingizni qavs orqali kiriting. Javoblaringiz asosida tasdiq va inkor gaplarning kuzatilgan maqsadiga ko'ra turlariga munosabati bo'yicha xulosalar chiqaring.

Sog'ligingiz o'z qo'lingizda

Kasallik tanangiz toksin moddalar va ichki zaharlar bilan to'lib ketganini tabiatning bildirish usulidir. Ehtimol, jiddiy bemorlik vaqtingizda, umuman ishtahangiz yo'qolganini sezgandirsiz. Ovqatga qaragingiz ham kelmay qoladi, mehribon, lekin bu sohani tushunmaydigan yaqinlaringiz va qarindoshlaringiz, «E, quvvatga enasan» deyishadi. Shu vaqtda ichki bir tuyg'u ovqatlanmaslikka topshiriq beradi. Tabiat sizning och qolishingizni, quvvatni tanangizni tozalash uchun sarf qilishingizni istaydi. Ona tabiatning nafis ovozi eshitish va tushunish qiyin. Ochlik davrida sizning sezish qobiliyatingiz juda o'tkirlashadi. Ochlik farosatingizni o'tkirlashtiradi va tabiatning sezgir ovozi bilan uyg'unlashtiradi. Har bir ochlik davridan keyin miyaning qanchalar

yaxshi ishlashini men bilaman. Ona tabiat sizning o'z tanangizni istagancha jabrlashingizga yo'l qo'ymaydi. Har safar «o'lik» va jonsiz taom bilan tanangizga etkazgan azoblaringiz uchun qimmat to'lov berasiz. Albatta, badan holatini unutish uchun og'riq qoldiradigan biron dori-darmon ichish mumkindir. Lekin bola singari qandaydir yaramas narsalarni eb olib, ustidan dori ichsam hammasi o'tib ketadi, degan xom xayolga bormaslik kerak. Siz har safar oshqozoningizni axlatxonaga aylantirganingiz uchun yanada katta to'lov to'lashingizga to'g'ri keladi. Bundan yurak va qon tomirlari azoblanadi. Har bir yangi zaharlanish hayotingiz uchun yana bir xavf demakdir. Har bir intoksikatsiya o'z izini qoldiradi va shuning uchun ham undan qo'rqish kerak. Qoningizni ifloslantirmang. O'zingizni autointoksikatsiyadan saqlashga o'rganing. (Pol Bregg)

7-amaliy mashg'ulot

Mavzu:Gaplarning tasnifi: Gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari

Ajratilgan vaqt – 4 soat

Darsning maqsadi: talabalarning gap, gapning tuzilishi, gapning grammatik asosi, bosh bo'lak, gap bo'laklari, gapning zarur bo'laklari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday matndan gaplarning tuzilishiga ko'ra turlarini ajrata olish va shu xildagi gaplar tuza olish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan mashq,matnlardagi gaplarning grammatik asoslarini topib, ularning miqdorini aniqlang.
2. Grammatik asoslarning miqdoriga ko'ra gaplarning turlarini belgilang va ularni ikki guruhga (sodda va qo'shma) ajratib yozib chiqing.
3. Sodda gaplarning bosh bo'laklarini aniqlab, tagiga tegishli chiziqlar chizing.
4. Sodda gaplarning bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra turini aniqlab, yoniga yozib qo'ying.
5. Ikkinchi darajali bo'laklarni topib, tagiga chizib chiqing va gaplarni ularning ishtirokiga ko'ra tahlil qilib, javobingizni gaplarning yoniga yozing.
6. Sodda gaplarni zarur bo'laklarning ifodalangani-ifodalanmaganiga ko'ra turlarini belgilab, javobingizni qayd qiling.
7. Tahlil qilinayotgan gaplarning bo'laklarga ajralishi-ajralmasligiga e'tibor qaratib, ularni shunga ko'ra tahlil qiling. Turini aniqlab, qayd eting.

16-mashq

Dur marjon qobig'iga yashiringandek, ko'pincha yaxshi odamlar ham o'zlaridagi yaxshi, go'zal fazilatlarini kamtarlik libosi bilan yashiradilar. Do'stlik bamisoli bir nihol bo'lsa, o'zaro izzat va hurmat esa bu niholni sug'oruvchi bir obi-hayot chashmasidir. Ustozning bilim ziyosidan foydalanib, so'ngra uni siqib chiqarib, o'rnini egallashga urinayotgan shogird daraxtning shoxida yurib, mevasini eb, so'ngra tagiga tushib, ildizini kemirayotgan hashoratni eslatadi. Ruhii ko'tarinkilik hayot cho'qqisiga, tushkunlik esa qabristonga olib boradigan yo'l.(R.Usmonov).

17-mashq.

O'z o'g'lini hech bir foydali ishga o'rgatmagan odam o'g'ri boqayotgan bo'ladi. (T.Fuller) Yomon bolalar uchun ota-onani jazolamoq kerak. Ota-ona muhabbatining faqat bolaga qartilishi dahshatli adashuvdir. (A.S.Makarenko) Bekorchi umr-bevaqt qarishdir. (I.Gyote) Har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma'naviy barkamolligi ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. (I.Karimov) Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi. (G.Gegel) Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech kimni seva olmaydi.(Bayron) Kuchli odamlar hamisha oddiydirlar. (L.N.Tolstoy) G'azab ustida jazo berish-jazolash emas, qasd olishdir. (P.Buast) Haqiqiy mardlik hech bir kulfat va xatarlarga qaramay, o'zini xotirjam tuta bilish va vazminlik bilan o'z burchini ado etishda namoyon bo'ladi. (J.Lokk)

18- mashq

... Navoiy ko'chasida Sobir Abdullani uchratib qoldim. Yusupov bir nechta atoqli yozuvchilar bilan suhbat o'tkazgan ekan. Shunda Yusupov Uyg'unni tikka turg'izib qo'yib qattiq-qattiq gapiribdi.

- Yoshlarni turmaga tayyorlaganmizmi!? Qayoqqa qarab o'tiribsan?! Agar Said Ahmad dushman bo'sa, sen bilan men ham dushmanmiz! Chunki uni biz tarbiyalaganmiz.

Uyg'un javob berolmay, lavlagiday qizarib-bo'zarib joyiga o'tirib qolibdi. (S.Ahmad).

8-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Gapning sintaktik tuzilishi

Ajratilgan vaqt – 2 soat

Darsning maqsadi: talabalarning gapning sintaktik tuzilishi, gap bo'laklari, gapning gap bo'laklari hisoblanmaydigan tashkil etuvchilari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda gapning maksimal sintaktik tuzilishi haqida mukammal tushuncha va ko'nikma hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi.

1. Berilgan har bir gapdagi gap bo'laklarini aniqlab, tagiga chizing, har bir turini alohida yozib chiqing.
2. Gapning gap bo'laklaridan boshqa tashkil etuvchilarini aniqlab, guruhlarga ajrating va daftaringizga qayd qiling.
3. Belgilangan gap bo'laklari va gapning gap bo'laklaridan boshqa tashkil etuvchilarini a) tuzilishi; b) ifodalanishi; v) semantik-sintaktik vazifalariga ko'ra tahlil qilib, javobingizni ularning yoniga yozib chiqing.

19-mashq

Chinakam yaxshilikning asl belgisi tug'ilishdanoq hasad nimaligini bilmaslikdir. (Laroshfuko) G'urur sirg'anchiq qoya bo'lib, pastda bizni takabburlik va manmanlik kutadi. (P.Dekursen) Tulki terisini yopingan tekin maqtovdan qo'rq.(Goratsiy) Yolg'on ham ichkilikbozlikning o'zi. Yolg'onchi o'layotganda ham yolg'on gapirib o'ladi. (A.P.Chexov) Dononing tili qalbida, tentakning qalbi esa tilida. (N.V.Shelgunov) Janjallashayotgan ikki kishining aqllirog'i ko'proq aybdor. (I.Gyote) G'azab hamisha yomon nasihatidir. (E. Zolya) Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. (I.Karimov) Kitob insondan hech narsa tilamaydi, ammo uni kamolga etkazadi. (O'talar so'zi) Farzand olgan tarbiyasiga qarab ota-onasiga rohat yoki jazo keltiradi.(Hikmatdan) Sahovatning eng buyuk jasurliklari vatanga bo'lgan muhabbat tufayli vujudga keladi. (J.J.Russo) Shunday jinoyat borki, uni oqlab bo'lmaydi: bu vatanga xiyonatdir. (P.Buast)

20-mashq

SIZ OTASIZ...

Siz ota bo'ldingiz. Nazaringizda atrof birdaniga yorishib ketganday bo'ldi. Yursangiz, bo'yingiz balandlashib qolganday, oyoqlaringiz ham erga tegmayotganday tuyuladi. Go'yo shu birgina bolangiz bilan dunyo to'lib qoldi, hamma kamu ko'stingiz bitganday bo'ldi. Yuragingizning tag-tagidan butun jismingizga bir shirin yayrash taraladi. Qo'lingizdagi bir parcha et sizning takroringizdir. Bitta edingiz, ikkita bo'ldingiz. U ulg'ayib o'zidan ko'paysa, uchta bo'lasiz, to'rtta bo'lasiz... Qarabsizki, inshoolloh, sizning nomingiz bilan ataladigan avlodingiz karvoni paydo bo'ldi. Bu beqiyos baxtning boshlanishi muborak bo'lsin, o'g'lonim!

Uyingizda farzand otliq shirin "dushman" paydo bo'ldi. Yuragingizning o'rtasiga bir ip bog'landi-yu, ikkinchi uchi bolangizga ulandi. Ko'ksingizning shu qismi endi hech uxlamaydi. Qaerda bo'lsangiz ham bir shirin og'riq bilan uy tomon tortaveradi, tortaveradi. Bu ip endi umringizning oxirigacha joningizni qo'yib yubormaydi. O'g'lonim, shunday onda bir dam o'zingizga keling: siz tug'ilganda, ota-onangizning ham shunday ko'yga tushganini tasavvur qiling. Ularning bag'ridagi o'sha og'riq siz ekanligingiz va ota-onaning bag'ri bu darddan hali ham ozurda ekanligini his eting va avvalo, qalban ularga ta'zim etib, so'nggina bolangizga yuzlaning.

Bolangizning shirin tili va shirin harakatlaridan simobday erigan paytlaringizda, u bemor chog'lari hali u, hali bu najotning ketidan sarson bo'lgan kezlaringizda ota-onangiz ham siz tufayli xuddi shu holga tushganini yodlab yuring va ularning ostonasiga bosh urib, uzrlaringizni aytishga shoshiling.

21-mashq. Berilgan matndagi gaplarni quyidagi tartibda ikki guruhga ajratib yozing. Inkor bildiruvchi vositalar nima uchun inkor gap hosil qilmayotganini tushuntiring.

- a) inkor vositasiz tasdiq gaplar; b) inkor vositali tasdiq gaplar.

...Ko'p vaqt mobaynida odatga aylangandan keyin oshqozon nonushtani kutadi. Men uchun nonushta keraksiz narsa. Tana tuni bilan dam oldi, hech qanday energiya sarf qilgani yo'q. Nega endi inson, tanani uzoq vaqt dam olganidan keyin ertalabki nonushtada oshqozonni zo'r ovqatlar

bilan to'ldirish kerak, shuning uchun ham, yana takrorlayman: «Eydigingiz ovqatingiz jismoniy harakatingizga muvofiq bo'lishi kerak».

Nonushtasiz yashashga tashviq qilishimning yana bir sababi kechasi bilan to'plangan quvvatning ertalabki ovqatni hazm qilishga sarf bo'lishini istamaslikdir. (Pol Bregg)

9-amaliy mashg'ulot

Bosh bo'laklar va ularning ifodalanishi

Ajratilgan vaqt – 2 soat

Darsning maqsadi: talabalarning ega va kesim, ularning gapni shakllantirishdagi roli to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday gapdan gapning grammatik asosi, ega va kesimni ajrata olish ko'nikmasini hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari

1. Berilgan matndagi gaplarning bosh bo'laklarini topadi.
2. Topgan bosh bo'laklarning ifodalanishini aniqlaydi..
3. Ularni tuzilishiga va materialiga ko'ra turlarga ajratadi.
4. Ega va kesimning o'zaro moslashish darajasini aniqlaydi.
5. Ega va kesim o'rtasiga kerakli tinish belgisini qo'yadi.
7. Ega va kesim orasiga tire qo'yilish o'rnlarini amalda ko'rsatib beradi.

22 - mashq.

Xalqimizning kelajagi, eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liqdir (I.Karimov) Yolg'onchilik kishini adolatdan yuz o'girtiradi. (A.Beruniy). Go'zal tashbehlar go'zal fikrga yarashib, uni avaylab turadi. (V.Gyugo) Zerikish bekorchilik mahsulidir.(Stendart) Aroq o'zi oq, ammo burunni qizartirib, obro'ni qora qiladi. (A.P.Chexov) Eng katta boylik-ochko'z bo'lmaslik. (Seneka) Hasilik qancha kuchli bo'lsa, rahm-shafqat shuncha kuchsiz. (F.Petrarka) Eng tuban tuyg'ular ichidagi eng tubani -qo'rquv. (V.Shekspir) O'z yaxshiliklari bilan maqtangan odamdan qo'rqaver. (M.Ebner-Eshenbax) Aqlning halolligi haqiqat oldida chekinmay, unga intilish, har qancha qiyin bo'lganda ham uni topish, engil, qulay, yarim-yorti xulosalar, haqoratli soxtagarchiliklardan jirkanishdadir. (R.Rolan) Halollik har qanday martabani bezaydi. (F.Shiller)

23-mashq.

So'z-gaplarning ma'no turlariga 5 ta gap tuzib, daftaringizga ko'chiring,ularning bosh bo'laklari qanday ifodalanganini ko'rsating.

24-mashq.

Quyidagi gaplarning kesimini topib tagiga chizing. Ustiga ifodalanishini yozib qo'ying. Suluv suluv emas, sevgan suluv. O'qigan o'qdan o'zar. Do'stning eskisi, do'ppining yangisi yaxshi.

10-amaliy mashg'ulot

Ikkinchi darajali bo'laklar va ularning ifodalanishi

Ajratilgan vaqt – 4 soat

Darsning maqsadi: talabalarning ikkinchi darajali bo'laklar to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularni har qanday matndan ajrata olish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan gaplardagi ikkinchi darajali bo'laklarni topib, turlarga ajratgan holda, stun shaklida (daftarning har bir yo'liga bittadan) daftaringizga qayd eting.
2. Topilgan ikkinchi darajali bo'laklar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini aniqlab, yoniga yozib chiqing.
3. Ularni tuzilishiga ko'ra tahlil qilib, sodda va murakkab(birikmali) tarzida iki guruhga ajratib, yozib chiqing.
4. Bir xil grammatik shaklga ega bo'lgan to'ldiruvchi va hollarni topib, alohida qayd qiling, farqlarini yozib ko'rsating.

25-mashq.

Inson hatti-harakatlarining qaysi biri foydali, qaysi biri zararli ekanligi o'ziga ravshan bo'lmaguncha, kuzatadi va foydaliligini tanlab olib o'zlashtiradi, zararlilarini rad etib, ulardan o'zini olib qochadi. (Abu Nasr Forobiy) Jahon tijorat ahli birlan oboddir. (A.Temur) Englar, ichinglar, hadya qilinglar, ammo isrof qilmanglar.(Hadis) Vijdon- yaxshi xulqlarning

manbai.(A.Avloniy) Hunar va ilm–insonning bezagidir.«Qobusnoma» dan) Insonning qiymati emas siymu zar, insonning qiymati ilm ila hunar.(A.Bedil) Amalsiz olim-yomg'irsiz bulut(Arab maqoli) Vatan o'g'limizni o'z xizmatiga loyiq topibdi. Borsin. Hunar o'rganadi, mehnatda pishadi, tengdoshlari oldida yuzi yorug' bo'ladi.(Oilaviy suhbatdan)

26-mashq

Men san'atshunos emasman, buning ustiga, ulkan san'atkorimiz Halima Nosirova haqida mutaxassislar shu qadar ko'p yozganlarki, ulardan o'tkazib biror narsa deyish ham qiyin. Shunday bo'lsa-da, ikki holat meni bu andishani bir chekkaga surib turishga majbur etdi. Keksa yozuvchimiz, madaniyatimizning ajoyib jonkuyari Komil Yashin bilan do'st bo'lganim uchun bu xonadonga ko'p yillardan buyon borib-kelib turaman, uning bir a'zosidek bo'lib qolganman. Halima opa uyda doim orasta kiyinib yuradi va avval kuni yoki o'tgan hafta kelgan odamni ham xuddi bir-ikki yil ko'rmagan aziz kishisidek kutib oladi, kuzatayotganda uzoqdan-uzoq duo qiladi. Avval – taom, keyin – kalom, degan qoida bu oila uchun qat'iy taomil. O'tirish avvalida asosan Halima opa bilan suhbat bo'ladi, keyin u kishi «Bo'ldi, endi sizlar ishlanglar, men boray», deb bizni holi qoldirib ijodxonasiga kirib ketadi, u erda she'rmi, pesami, nasriy asarminimadir qoralaydi, ammo hech kimga ko'rsatmaydi, garchand ko'zlari xira tortib qolgan bo'lsa ham, yirik – yirik harflar bilan faqat o'zi yozadi. (S.Ahmad)

27-mashq.

Ma'lumki, hayot qarama-qarshiliklardan iborat, undagi bir taqdir ikkinchisiga sira o'xshamaydi. Lekin inson baribir umid va ishonch bilan yashaydi. Hamma joyda – yoru do'stlar bilan suhbatlarda, televizor qarshisida, xizmat kursisida, sayxu sayohatda, shodu xurram kezlarimizda, g'ussali, uyqusiz kechalarda – xullas, qaerda bo'lmaylik, ongu shuurimizni band etgan behisob savollarga javob axtaramiz.

Afsuski, ko'pincha ularga javob topmoq mushkul. Ammo javob topmoq istagi, toki tirik ekanmiz, bizni tark etmaydi.

Shu istak bizni mutolaaga undaydi. Hayot muammolari haqidagi so'roqlarga avvalo kitoblardan echim izlaymiz. Aynan kitob bizni manqurtga aylanib qolish balosidan ogoh qiladi, biz aslida kimmiz, dunyo bunchalar bezovta, nechun bir-birimizga ishonmay qo'ydik, nechun odamlar o'rtasida mehr-oqibat ko'tarilib bormoqda, degan azaliy savollar ustida bosh qotirishga majbur etadi.

Farxod Hamroev. «Tafakkur» jurnali 1997y 1-son 64-bet

28-mashq.

E'tiqodsiz odam boyligini nimaga sarf etadi? Turgan gapki, be'mani ishlarga: ikki-uch qavatli imoratga, qo'sha-qo'sha mashinaga, be'huda bazmi jamshidga... Bu ishlarni amalga oshirish jarayonida u zimdan o'z e'tiqodsizligini targ'ib etadi. Ya'ni boshqalarga, sizlar men kabi bee'tiqod, beiymon bo'lsalarining edi, dunyoning bor noz-ne'mati oyoqlaring ostida yotardi, degandek bo'ladi. Buning aksi o'laroq e'tiqodli odam boy-badavlat bo'lib qolsa, boyligini e'tiqod-iymon yo'lida sarf etadi. Zero, inson tabiati shunday: qani, hamma men kabi bo'lsa, deya orzu qiladi. Buning vositasi topildi deguncha amaliy faoliyatga kirishadi. Boylik esa vositadir...

Murtazo Qarshiboy «Tafakkur» jurnali 1997y 1-son 5-6-bet

11-amaliy mashg'ulot

Gap bo'laklarining o'rni

Ajratilgan vaqt – 2 soat

Darsning maqsadi: talabalarning gap bo'laklarining odatdagi tartibi va uning o'zgarish sabablari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda mazmunga muvofiq holda gap bo'laklarini o'zgartirish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan matndan gap bo'laklari odatdagi tartibda tuzilgan va o'zgargan tartibdagi gaplarni topib, ikki guruhga ajratib yozing.
2. Bo'laklari o'zgargan tartibdagi gaplarni aynan qaysi bo'lak-larining tartibi o'zgarganini aniqlab, buning sabablarini tahlil qilib, bayon qiling.

29-mashq. Mashqni ko'chiring. Gap bo'laklarining tagiga chizing. Tahlilni ishning bajarilish tartibi bo'yicha davom ettiring.

Mard kelding, mard ketgil, toqating toq bo'lsa ham, o'tma nomard ko'prigidan, suv seni oqizsa ham.(Oraziy) Dono ayol! Agar ering barcha bo'sh vaqtini sen uchun sarflashini istasang, unga hech qerda ko'rmagan, his qilmagan izzat-ikrom va lazzatlar ato qil. (Pifagor) Molu puling ketsa-ketsin, ammo vaqtingni zoe ketkazma.(Otalar so'zi) Agar bizning hayotimiz hurriyat va baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz.(Behbudiy) Darig' tutmang, ilm uchun ketsa molu jon, o'quv farzligi ming yo'l Qur'onda farmon.(Hamza) Yaxshisi biz o'zimizni maqtamaylik, birov bizni maqtasin.(Demokrit) Milliy g'urur, milliy iftixor har qanday ishimizning poydevori bo'lmog'i kerak. (I.Karimov).

30-mashq. XX asr mo''jizasi

Mo''jizalar haqida o'ylash insonga xos xususiyat. Tabiiy narsalarni eyish, jismoniy tarbiya va ochlik kabi o'z holicha g'aroyib bo'lgan narsalar, yutuqlar sirini o'rganmay turib, inson o'zi tushunib etmagan narsalardan mo''jizalar axtaradi.

Tabiatning buyuk qonunlariga amal qilish uncha qiyin emas. Kasallikdan jabr tortgan, barvaqt qariyotgan kishilar sog'ayish va yasharishning tezu oson yo'llarini orzu qiladilar. Yodingizda tuting: salomatlikka erishiladi! Uni sotib olish bo'lmaydi. Sizga uni hech kim sotmaydi ham. Men tabiiy narsalarnigina eganim, ochlik yordamida badanni tozalash qonunlarini o'rganganim uchungina kuch-quvvat va g'ayratga to'laman. Ayni shular kishini qartayishdan saqlaydi. (Pol Bregg)

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Eski o'zbek tilida gap bo'laklarning o'rni mavzusida ilmiy axborot tayyorlang.
2. Gap bo'laklarining tartibi va mantiqiy urg'u o'rtasidagi aloqadorlikni izohlang.

12-amaliy mashg'ulot

Murakkablashgan sodda gaplar va ularning turlari

Ajratilgan vaqt –2 saot

Darsning maqsadi: talabalarning sodda gaplarning murakkablashuvi, sodda gaplarni murakkablashtiruvchi elementlar to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday matndan murakkablashgan sodda gaplarni ajrata olish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan mashq, matn, gaplarni a) sodda gaplar; v) qo'shma gaplar tarzida ikki guruhga ajratib, daftaringizga yozib qo'ying.
2. Ajratilgan sodda gaplarni tuzilishiga ko'ra, tahlil qilib, quyidagi guruhlarga ajratib yozing:
 - 1) uyushiq bo'lakli gaplar;
 - 2) ajratilgan bo'lakli gaplar;
 - 3) undalmali gaplar;
 - 4) kirishli gaplar;
 - 5) kiritmali gaplar.
3. Har bir turdagi gaplarni gap bo'laklari bo'yicha tahlil qilib, javobingizni yozing.
4. Tinish belgilarining ishlatilish o'rinlariga diqqat qiling. Fikringizni bayon qiling.

31-mashq.

Tejamkor bo'ling-xor bo'lmaysiz.

Tejamkor odam yaxshi eydi, yaxshi ichadi, pokiza kiyinadi, xushhavo uylarda yashaydi, keraksiz narsalarni sotib olavermaydi, haqiqiy zarur narsalarnigina harid qiladi. Birovlarga qo'lidan kelganicha yordam qiladi. Yaxshilik yo'lidagi ishlarga pulini ayamaydi, saxovatli bo'ladi. Vatani va xalqi uchun molini ham, pulini ham ayamaydi. Shamini kunduzi yondirgan odamning tuni qorong'i bo'ladi. Pulini behuda isrof qilgan odam og'ir kunda xor bo'ladi. Har qanday narsada isrofgarchilik bor, ammo yaxshilik qilishda bo'lmaydi.

32-mashq.

Xalqimizning kelajagi, eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongini ijodiy kuchiga bog'liqdir. (I.Karimov) Yolg'onchilik kishini adolatdan yuz o'girtiradi.(A.Beruniy) Go'zal tashbehlar go'zal fikrga yarashib, uni avaylab turadi. (V.Gyugo) Zerikish bekorchilik mahsulidir.(Stendart) Aroq o'zi oq, ammo burunni qizartirib, obro'ni qora qiladi.(A.P.Chexov) Eng katta boylik-ochko'z bo'lmaslik.(Seneka) Hasislik qancha kuchli bo'lsa, rahm-shafqat shuncha kuchsiz. (F.Petrarka) Eng tuban tuyg'ular ichidagi eng tubani -qo'rquv. (V.Shekspir).

13-amaliy mashg'ulot

Uyushiq bo'laklar va uyushiq bo'lakli murakkab sodda gaplar

Ajratilgan vaqt – 2

Darsning maqsadi: talabalarning sodda gaplarning uyushiq bo'laklar bilan murakkablashuvi, uyushiq bo'lakli sodda gaplarning leksik-grammatik xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday matndan uyushiq bo'laklar bilan murakkablashgan sodda gaplarni ajrata olish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan mashq, matn, gaplarni: a) sodda gaplar; v) qo'shma gaplar tarzida ikki guruhga ajratib, daftaringizga yozib chiqing.
2. Ajratilgan sodda gaplar orasidan uyushiq bo'lakli gaplarni topib, ularni alohida yozib chiqing.
3. Uyushiq bo'lakli har bir gapni qaysi bo'laklar uyushganiga qarab tahlil qiling va tagiga tegishli chiziqlar bilan belgilang.
4. Umumlashtiruvchi birliklarni topib, ustiga so'z turkumini yozib qo'ying.
5. Uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilish xususiyatlarini bayon qiling.
6. Har bir gapni gap bo'laklari bo'yicha tahlil qiling.

33-mashq

Ba'zi tarixchilar bizni Chingizxonning avlodi, hatto, Amur Temurda ham Chingiz qoni bor, u mo'g'ul qavmidan, demoqchi bo'ladi. O'ylab ko'raylik, Amur Temur bobomiz qaysi millatga mansub?

Yana sovet davri kitoblarida Amur Temur askarlari Moskva atrofiga etib borgani xususida «mo'g'ul-tatar qo'shinlari Moskvani qamal qildilar», deb yozishgan. Holbuki, Sohibqironning askarlari To'xtamishxonni tor-mor qilib, Rusiyani mo'g'ul istilosidan ozod etgandan keyingina Moskva atrofida paydo bo'lgan. Afsuski, bu haqiqat Rossiya matbuotida 1955 yildagina yozildi. Bizning tarixchilarimizning zaifligi shu darajadaki, shu paytgacha birontasi chiqib, yo'q, tarixiy haqiqat bunday, deb aytmagan. Yo'qsa, Amir Temur qayoqdayu, mo'g'ullar qayyoqda! qani bu erda fidoyilik, vatanparvarlik? Qani milliy g'urur, milliy iftixor?!

Demoqchimanki, har bir xalq o'z tarixini har xil ta'sir va tajovuzlardan asrashi kerak. Beparvo bo'lsangiz, turli soxta homiylar, kuchlar borki, ular tarixni buzib ko'rsatadigan kitoblarni chiqaraveradi. Hatto chet elda ham chiqarishi mumkin.

Dunyoda do'st bor ekan, g'animlar ham bo'ladi. Birgina misol. Biz 1996 yili Sohibqiron Amir Temur bobomizning 660 yillik to'yini o'tkazdik. Shuni ham turlicha talqin qilgan kishilar bo'ldi.

Avvalambor, biz biror ajdodimizning to'yini o'tkazsak, bunga uning millatimiz ravnaqi uchun qilgan ishlari, tariximizda tutgan o'rni sabab bo'ladi. Shu nuqtai nazardan yondoshsak, Amir Temur kim edi? U, birinchi navbatda ulug' bunyodkor shaxs edi. Samarqanddagi obidalarni, Shahrisabzdagi yodgorliklarni Kim qurdi? Turkistondagi Yassaviy maqbarasini kim tikladi? Amur Temur va uning avlodlari zamonida Afg'oniston, Eron, Hindiston hududlarida amalga oshirilgan obodonchilik, me'morchilik ishlarini aytmaysizmi? Kim «Kuch - adolatdadir» degan olamshumul, teran hikmatni o'z faoliyatiga asosiy tamoyil qilib oldi?

Yaqin-yaqingacha davlat boshqaruvi san'ati haqida so'z ketsa, ko'pchilik gapni yo markchileninchilarning davlat haqidagi soxta nazariyasi, yo bo'lmasa XVI asrda yashagan Makiavelli qarashlaridan boshlardir. Qo'yib bersangiz, bu eski odatni bugun ham davom ettirishadi. Davlat, saltanat, jamiyat boshqaruviga oid mumtoz asar – «Temur tuziklari»ni yozgan kim? Umuman, kishilik tarixida ana shunday yo'nalishda asar bitib qoldirgan boshqa hukmdor bormi o'zi?

Endi Chingizxon shaxsini shu mezonga solib ko'raylik. Undan vayron etilgan shaharu qishloqlardan bo'lak qanday iz qoldi? Shunday ekan, biz o'zimizni Chingizxon vorislarimiz, deb o'tirsak, o'taketgan be'manilik bo'lmaydimi?

Islom Karimov. Adolatli jamiyat sari. T., «O'zbekiston», 1998. 53-54 b.

34-mashq

Vatanlar, vatanlar, mayli gullasin, bog' unsin mangulik muzda ham, ammo, yurtim seni faqat boyliklaring-chun sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo! (A.Oripov) Ko'ngil!.. tiriksan, o'lmagansan. Sen-da odam, sen-da inson sen. Kishan kiyma, bo'yin egma, ki, sen ham hur

tug'ilg'onsen!.. (Cho'lpon). Moziyga qarab ish tutish hayrlidir! (A.Qodiriy) Itoat et! Agar sendan vatan rozi emas bo'lsa, yoril, chaqmoqqa aylan sen, yoril! Mayli, tamom o'lsam!.. (U.Nosir) Har lahza zamonlar umridan uzun, asrlar taqdiri lahzalarda hal, umrdan o'tajak har lahza uchun qudratli qo'l bilan quraylik haykal (G'.G'ulom) Hurriyat, keldingmi, nahotki kelding, kelar yo'llaringda pinhona toldim. Mening ota-onam, jon Vatanimda, elim taqdirida abadiy qolding!(Zulfiya) Odamlarning yaxshirog'i o'z qalbida yaxshilikka yo'l ochgani va yomonlikni hamda ochko'zlikni haydab chiqarganidir!(Muhammad Zehniy) Insoniyat farovonligi yo'lida mehnat qilish qanchalar buyuk ishdir, o'zini mehnatdan ozod qilish jinoyatdir (L.N.Tolstoy) Soffdil kishilar, sayyitlar, olmlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi, chunki bu insonlar mamlakat rivojida ustundirlar (A.Temur) Madaniy yaxshilik-barcha yaxshilikdan yomonroqdir. (K.Veler) Har qanday odamga uning qilgan ishlariga qarab baho berish kerak.(M.Servantes).

14-amaliy mashg'ulot

Ajratilgan bo'laklar va ajratilgan bo'lakli sodda gaplar

Ajratilgan vaqt – 4 soat

Darsning maqsadi: talabalarning sodda gaplarning ajratilgan bo'laklar bilan murakkablashuvi, ajratilgan bo'lakli sodda gaplarning leksik-grammatik xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday matndan ajratilgan bo'laklar bilan murakkablashgan sodda gaplarni ajrata olish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan mashq, matn, gaplarni: a) sodda gaplar; v) qo'shma gaplar tarzida ikki guruhga ajratib, daftaringizga yozib chiqing.
2. Ajratilgan sodda gaplar orasidan ajratilgan bo'lakli gaplarni topib, ularni alohida yozib chiqing.
3. Ajratilgan bo'lakli har bir gapni qaysi bo'laklar ajratilganiga qarab tahlil qiling va tagiga tegishli chiziqqlar bilan belgilang.
4. Ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilish xususiyatlariga diqqat qiling, fikringizni bayon qiling.
5. Har bir gapni gap bo'laklari bo'yicha tahlil qiling.

35-mashq

Darsda bolalarning «hamisha aqliy tirishqoqlik vaziyati»ni vujudga keltirishga muvaffaq bo'lishni o'zining muvaffaqiyatli deb hisoblaydigan o'qituvchilar bor. Qo'pincha bunga yuganlik rolini o'ynaydigan, bolaning diqqat-e'tiborini no'htalab turadigan: e'tibor bilan quloq sol, deb, tez-tez eslatib turish, bir turdagi ishdan ikkinchi bir turdagi ishga keskin o'tish, tushuntirib bo'lgandan keyin bilimni tekshirib ko'rish (aniqrog'i, men aytayotgan narsani tinglamasang, ikki qo'yaman deb do'q-po'pisa qilish), biror nazariy qoidani tushuntirib berish bilanoq amaliy ishni bajarish zarurati singari tashqi omillar bilan erishiladi.

Bir qarashda bu usullarning hammasi faol aqliy mehnatga o'xshab ketadi: bamisoli kaleydeskopdagidek, ish turlari birin-ketin o'zgarib turadi, bolalar o'qituvchining og'zidan chiqqan har bir so'zni e'tibor bilan tinglaydilar, sinfdagi jimjitlik hukmronlik qiladi. Lekin bunga nimaning evaziga erishiladi va bu qanday natija beradi? Biror og'iz so'zni ham chala qoldirmasdan eshitayin deb, hamisha o'zini hushyor tutishga majbur qilish, (o'quvchi esa hali bu yoshda o'zini shunday majbur qilishga qodir emas) asab sistemasini holdan toydirdi, bolaning joniga tegadi, tinkasini quritib, madorini ketkazadi. Insonni tarbiyalashdek nozik ishda faol aqliy mehnatsiz dars chog'ida biror fursatni bekor ketkazmayman deyishdan ko'ra bema'niroq gap bo'lishi mumkinmi. O'qituvchining ishida bunday sobitqadamlik to'g'ridan-to'g'ri bolani siqib suvini ichish degan ma'noni bildiradi. Shunday «samarali» darslardan keyin bola uyga xorib-charchab qaytadi. Sal narsaga ham uning jahli chiqib, g'azablanadi. U bemalol dam olishi kerak, lekin uyga berilgan vazifasi ham bor, shuning uchun ham kitob-daftar solingan sumkasiga qarash bilanoq bolalarning ko'ngli ayniydi. (10,101)

V.Suxomlinskiy. Tarbiya haqida. T.,1977.

36-mashq

Insonning ikki umri bor, biri hayotligida, biri olamdan o'tganida, deydilar. Ikkinchi umr asosiy umr emish. Bilmadim, bu gapni qaysi donishmand o'ylab topdiyin? Bu gap bironta qorni to'q, omadi chopgan odamdan chiqqan bo'lsa ajabmas. Axir inson bu dunyoga nima uchun keladi?

Yorug' jahonning jamoliga to'ysam, rohat-farog'atda yashasam, xudo bergan umrimni odamdek yashab o'tkazsam, deydi. (S.Ahmad).

Balki bu beklar chindan ham Boburni aldayotgandir? Balki mana shunaqa beklar Axsida Umarshayx Mirzoni jordan itarib yuborib o'ldirgandirlar? Balki bular erta-indin Boburning joniga ham qasd qilishar? Birdan Boburning beg'am yurgan damlari esiga tushdi. Kechagina u tengdosh o'rtoqlari bilan ot choptirib o'ynab yurmaganmidi? Boburni chirmab aylantirayotgan dahshatli quyun mana shu qora bulutlarning shamoli emasmikan? (P.Qodirov)

15-amaliy mashg'ulot

Undalma va undalmali sodda gaplar

Ajratilgan vaqt – 2

Darsning maqsadi: talabalarning sodda gaplarning undal-malar bilan murakkablashuvi, undalmali sodda gaplarning leksik-grammatik xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday matndan undalmalar bilan murakkablashgan sodda gaplarni ajrata olish ko'nikmasini hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari

1. Berilgan matndan undalmalar bilan murakkablashgan sodda gaplarni ajrata oladi.
2. Undalmalarni tuzilishiga va ma'no

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan mashq, matn, gaplarni: a) sodda gaplar; v) qo'shma gaplar tarzida ikki guruhga ajratib, daftaringizga yozib chiqing.
2. Ajratilgan sodda gaplar orasidan undalmali gaplarni topib, ularni alohida yozib chiqing.
3. Undalmalarning leksik-grammatik xususiyatlarini aniqlab, bayon qiling.
4. Undalma va eganing farqlarini dalillang.
5. Undalmali gaplarda tinish belgilarining ishlatilish xususiyatlarini bayon qiling.
6. Har bir gapni gap bo'laklari bo'yicha tahlil qiling.

37-mashq

Sevgili qizim! Bizning muqaddas kitobimiz Qur'oni karim butun haqiqatlarni to'la va o'z aslicha bildiradi. Bu kitobda hech bir yanglishlik va tuzatishga muhtoj o'rin yo'qdir. Ba'zi kitoblarda ma'lum ilovalar bo'lgani holda, bizning muqaddas Kitobimiz Rasulullohning saodat zamonlardagi kabi hech bir o'zgarishsiz qolgan. Binobarin, insonlar faqatgina bu kitobimizga ishonish bilan haqiqiy saodat, salomat va to'g'ri yo'lni topganlar.

Sevgili qizim! Naqadar baxtlisanki, bu katta, to'g'ri yo'lga qovushibsan. Naqadar baxtlisanki, bu kitobga ishonibsan, Allohning suyukli habibi, rasuli Muhammad alayhissalomni payg'ambar, deb qabul qilibsan. Unga iymon keltiribsan. Barcha payg'ambarlar ham ruh olamida ekanliklarida, bu olamga kelgandan keyin Payg'ambarimizning kelishlaridan habar berishlik xususida Allohga so'z berishgan. Ular har vaqt Payg'ambarimizni chuqur ehtirom bilan ma'lum qilishgan, Ul zotni maqtashgan.

Hatto Iso alayhissalom yahudiy qavmiga kelganida: «Ey Isroil o'g'illari! Men sizga, mendan ilgari Tavrotni tasdiqlash va mendan so'ngra Ahmad ismli bir rasul kelishini mujdalash (xushxabarni etkazish) uchun keldim» degan edi. Ne baxtki, sen xushxabarni berilgan Ul Payg'ambarga ummat bo'libsan. Buning uchun olamlarning robbi bo'lgan Allohga behad shukr etmog'ing kerakki, Alloh taolo bunday sharafni sevgan qullarigagina nasib etgay.

Muhammad Kamol. Musulmon ayollarga maslahatlar. T., "Movarounnahr», 2000y.

16-amaliy mashg'ulot

Kirish va kirishli sodda gaplar

Ajratilgan vaqt – 2 soat

Darsning maqsadi: talabalarning sodda gaplarning kirishlar bilan murakkablashuvi, kirishli murakkab sodda gaplar leksik-grammatik xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday matndan kirishli murakkab sodda gaplarni ajrata olish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan mashq, matn, gaplarni: a) sodda gaplar; v) qo'shma gaplar tarzida ikki guruhga ajratib, daftaringizga yozib chiqing.

2. Ajratilgan sodda gaplar orasidan kirishli gaplarni topib, ularni alohida yozing.
3. Kirishlarning tuzilishiga ko'ra tularga ajratib yozing.
4. Kirishlarning ma'no xususiyatlarini aniqlab, bayon qiling.
5. Kirish va modal so'zlarni farqlarini bayon qiling.
6. Kirishlar miqdorining ko'payib borish sabablarini bayon qiling.
7. Kirishli gaplarda tinish belgilarining ishlatilish xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
8. Gap bo'laklarini aniqlab tagiga chizing.

38-mashq

Muhabbat ko'ngil mulkidir. Ko'ngil qo'ygan kishingning oyoqlariga osilib, men bilan qol deyilmaydi yoki orqasidan ergashib ketilmaydi! Bu ta'madir, bu – nafsdir! Yurakka ishq tutishning o'zi katta baxt! Sen endi hech qachon yolg'iz qolmaysan, doimo bag'ringning qoq o'rtasida sen bilan shirin suhbatlar quradigan dardkashing, mahrami jon – muhabbat bor! U hamisha seni nazorat qiladi, hamisha unga hisob berasan, unga munosib bo'lishga bir umr urinib o'tasan. U birovni sog'inish, birov uchun afg'on chekish, yig'lash ham hatto ayriliq ham hayotingni to'ldirib turadigan BUTUNLIK ekanligini isbotlaydi.

Haqiqiy muhabbatga uchragan kishi suyganga olislardan tinimsiz yaxshiliklar tilab, uning ta'rifini yuragining osmonlariga ko'tarib yashaydi.

Haqiqiy oshiq yorga sen meniki bo'lishing shart demaydi, senga munosib bo'lishga menga yo'l bo'lsin, deya o'zini tuproqlarga teng qo'yadi.

Muhabbat ko'ksingga botgan quyosh – nafaqat seni, butun umringni isitib turadi. Aslo ro'zg'oringda, bola chaqangga xalaqit bermaydi, aksincha, ularga bo'ladigan munosabatlaringga afzallik qo'shib, uyingni fayziyob qiladi.

T.Sodiqova. O'g'lim, senga aytaman. Qizlarga atalgan so'zlar. T., «Cho'lpon», 2002.

39-mashq

Oybek xotindan yolchigan odam edi. Zarifaxonimdek fidoiy ayolni kitoblarda ham uchratmaganman. U butun umrini Oybekka bag'ishladi. U Oybek deb yashadi.

Oybek umrining oxirgi yillarida gapirolmay qoldi. Barmoqlari qalam tutolmasdi. Bo'lg'usi asarlarni birovga aytib yozdirishning ham iloji yo'q. O'zim yozay, desa barmoqlari qalam tutishga yaramaydi.

Er-xotin bir-birlariga shunchalik o'rganib ketishgan ediki, bir imo bilan Oybekning nima demoqchiligini Zarifaxonim bilib olardi. (S.Ahmad)

17-amaliy mashg'ulot

Kiritma va kiritmali sodda gaplar

Ajratilgan vaqt – 2 soat

Darsning maqsadi: talabalarning sodda gaplarning kiritmalar bilan murakkablashuvi, kiritmali murakkab sodda gaplar leksik-grammatik xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday matndan kiritma murakkab sodda gaplarni ajrata olish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan mashq, matn, gaplarni a) sodda gaplar; v) qo'shma gaplar tarzida ikki guruhga ajratib, daftaringizga yozing.
2. Ajratilgan sodda gaplar orasidan kiritmali gaplarni topib, ularni alohida yozib chiqing.
3. Kiritmalarni tuzilishiga ko'ra turlarga ajratib yozing.
4. Kiritmalarning ma'no xususiyatlarini aniqlab, bayon qiling.
5. Kiritma va ajratilgan bo'lakning farqlarini bayon qiling.
6. Kiritmali gaplarda tinish belgilarining ishlatilish xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
7. Gap bo'laklarini aniqlab tagiga chizing.

40-mashq

Ota-onang mag'zini senga berib, o'zlari po'choqqa aylanadi. Ularni baxtli qiladigan ham, baxtsiz qiladigan ham sen. Albatta, ularni rozi qilib ish tut. Ota-ona noroziligi sendan qadamiga qurbonlik so'raydi, xudo ko'rsatmasin! Otabekning qismatini esla, ota-onasini, Zaynabni va boshqalarni norozi qilgani uchun, Kumush unga buyurmadi...

T.Sodiqova. O'g'lim, senga aytaman. Qizlarga atalgan so'zlar. T., «Cho'lpon», 2002

41-mashq

Turmushdan ko'ngli to'lmay o'tayotganlarning ko'pchiligi sevishib ro'zg'or qurganlardir. Xolis baholanganda, ularning hayoti balki yaxshidir. Ammo muhabbatga ta'ma aralastirganlari, ota-ona roziligini hisobga olmaganlari uchun, Oллоh shirin hayotlarini ham tatitmaydi. Baxt ichra baxtsizlik tuyaveradilar. Dillari to'la armon va tavba. Bundan vazmin kun yo'q, o'g'lim...

T.Sodiqova. O'g'lim, senga aytaman. Qizlarga atalgan so'zlar. T., «Cho'lpon», 2002

42-mashq

Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi (A.Qahhor) Donishmandlar so'zni javohirga, odamni esa konga tashbeh qiladilar (Barxirdor ibn Mahmud) Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotidir (I.Karimov) Kishini ko'ngli kelishgan va tartibli har narsaga qiziqadi, tartibsiz narsalardan nafratlanadi (A.Beruniy) Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmoqqa aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz erga bir tiyin sarf qilmaydi, o'rni kelganda so'mni ayamas. (A.Avloniy) Inson hatti-harakatlarining qaysi biri foydali, qaysi biri zararli ekanligi o'ziga ravshan bo'lmaguncha, kuzatadi va foydaliligini tanlab olib o'zlashtiradi, zararlilarini rad etib, ulardan o'zini olib qochadi. (Abu Nasr Forobiy) Jahon tijorat ahli birlan oboddir. (A.Temur) Englar, ichinglar, hadya qilinglar, ammo isrof qilmanglar.(Hadis) Vijdon-yaxshi xulqlarning manbai.(A.Avloniy) Hunar va ilm–insonning bezagidir. («Qobusnoma»dan) Insonning qiymati emas siymu zar, insonning qiymati ilm ila hunar. (A.Bedil) Amalsiz olim-yomg'irsiz bulut.(Arab maqollari)

18-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Bir bosh bo'lakli gaplar

Ajratilgan vaqt – 4 soat

Darsning maqsadi: talabalarning gaplarning bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra turlari, bir boshli gaplar va ularning turlari to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash, ularda har qanday matndan bir bosh bo'lakli gaplarni ajrata olish va shunday gaplarni mustaqil tuzish ko'nikmasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan matndan ikki va bir bosh bo'lakli gaplarni topib, ikki guruhga ajratib yozing.
2. Bir bosh bo'lakli gaplarning bosh bo'laklari nima bilan ifodalanganini tahlil qiling va yozma javob tayyorlang.
3. Bir bosh bo'lakli gaplarni turlarga ajrating.
4. Har bir turning bosh bo'lagi nima bilan ifodalanganini, uning grammatik xususiyatlarini bayon qiling.
5. Mashqlarda so'z-gaplar bo'lsa, ularning ma'no xususiyatlari, bog'lanish imkoniyatlari haqida fikr yuriting. Fikrlaringizni yozma ravishda ifodalang.

43-mashq.

G'afur G'ulom bu!

G'afur G'ulom-chi? Ha, G'afur G'ulom bir qarashda sho'rolarning erka arzandasi edi. Undan hech qanaqa mukofotu unvonlarni, hech qanaqa siylovlarni ayashgan emas. Sho'rolar tishlarini-tishlariga qo'yib bo'lsa-da, uning katta-kichik sho'xliklarini ko'tarar edi. Chindan-da, G'afur G'ulomda rasmiy mavzularga bag'ishlangan she'rlar va maqolalar, madhiya va alyor yo'nalishidagi asarlar anchagina bor. Lekin bu odamning ijodini ham shulardangina iborat deb bo'lmaydi. Unda chinakam xalqona she'rlar ham ko'p. Uning she'rlari sharqona hikmatlarga, sharqona donishmandlikka to'la.

To'la asos bilan aytish mumkinki, G'afur G'ulom XX asrdagi Sharqning eng o'ziga xos, eng yorqin, eng ko'lamli shoiri edi va hozir ham shunday. Lekin ana shularning bariga qaramay, u tom ma'nodagi fojeona hayot kechirgan. Shu ma'noda u sho'roning erkasi emas, qurboni bo'lgan. Uning fojeasi o'z siyratini to'la namoyish qila olmaslikdan, suvratini hamisha kerakli shamoyilga solib yurish majburiyatidan, ko'ngil bilan imkon o'rtasidagi ziddiyatdan, ijod erkinligining yo'qligidan tug'ilgan fojea edi... G'afur G'ulom nisbatan yosh vafot etganida Abdulla Qahhor qayg'uli ko'zlarini allaqayoqqa tikib, chuqur xo'rsinish bilan: «Bu odam o'zida borining yarmini o'zi bilan olib ketdi», -degan edi. Gerostratdek shuhratiga sherik bo'lishni istagan ba'zi adabiyotshunoslar esa bu odamga tosh otish havasiga tushib qolgan. Xolbuki, o'tib ketgan odamga qora chaplash uchun unchalik ko'p aql kerak emas. Lekin birovga pichoq sanchishdan avval uni

o'zingga urmog'ing kerak. Zo'r bo'lsang, uning fojeasini idrok et, qaysi ziddiyatlar bu buyuk inson va sho'irni qulaganini ochib ber!

Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti.T., «Sharq», 2004.

44-mashq

Shunday bo'layaptiki, bugun ba'zilar sho'ro zamonini qoralash bahonasida kechagi 70 yillik tarixni butunlay rad etishayapti, unda yilt etgan yorug'lik ko'rishmayapti. Shu jumladan, ularning fikricha, o'zbek sovet adabiyoti ham rasvo adabiyot, sotsialistik tuzumni madh etishdan boshqaga yaramagan adabiyot, yozuvchilar ham hukmron mafkuraning oqsoqollari, partiyaning yugurdaklari, ularni bugunning kemasidan ayamay uloqtirib tashlash kerak!

Bunday mulohazalarda jon borday ko'rinadi. Chindan ham zamon o'zgardi, zamon bilan birga o'zimiz ham o'zgardik. Chindan ham sho'rolar zamonida sig'inib kelgan qadiryatlarimiz, ardoqlagan e'tiqodlarimizning ko'pi chippakka chiqdi. Ayniqsa, mustaqillikka ming rahmat – ko'zimizdagi og'ir pardalarni olib tashladi, tafakkurimizni mustamlakachilik kishanlaridan xalos etdi, erkinlik berdi. Kechagi tarixni, kechagi e'tiqodlarni, kechagi odamlarni, shu jumladan, o'zimizni ham qayta baholash, qayta tahlil qilish bugungi kunning eng muhim vazifasi bo'lib turibdi. Sho'rolar zamonida xolislik deyarlik yo'qolib ketgan edi, hamma narsani yaltiratib, pardoqlar ko'rsatish qon-qonimizga singib ketgandi. Butun adabiyotimiz haqidagi, yozuvchilarimiz to'g'risidagi yolg'on tassavvurlarga, soxta maqtovlarga, yaltiroq pardoqlarga barham bermog'imiz, hamma narsani xolis tahlil chig'iridan o'tkazmog'imiz kerak. Ammo qayta baholash zinhor-bazinhor 70 yillik tarixni rad etish, uning ustidan qora tortish degan ma'noni anglatmasligi kerak. Burunni sasiq deb kesib tashlab bo'lmaganidek, yaqin tariximiz har qancha qora va kir bo'lmasin, uni axlat qutisiga uloqtirib yuborish mumkin emas. Chunki bu 70 yil ichida mislsiz azoblar va mashaqqatlar ichida xalq barpo etgan ne-ne ulug' ishlar bor, zo'r to'siqlar – talofatlar va hatto fojialarga qaramay yaratilgan yangi madaniyat, yangi san'at va adabiyot bor, eng og'ir sharoitlarda ham o'zining juda yuksak fazilatlarini namoyon qila olgan, etuk va barkamol shaxslar sifatida faoliyat ko'rsatgan ajoyib odamlarimiz bor!

Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti.T., «Sharq», 2004.

19-amaliy mashg'ulot

Mavzu:So'z-gap va uning turlari.

Ajratilgan vaqt – 2 soat

Darsning maqsadi: talabalarda so'z-gaplar va ularning turlarini ajratish ko'nimasini hosil qilish.

Ishning bajarilish tartibi

1. Berilgan mashq, matn, gaplarni: a) sodda gaplar; v) qo'shma gaplar tarzida ikki guruhga ajratib, daftaringizga yozing.
2. Ajratilgan sodda gaplar orasidan bo'laklarga ajraladigan va bo'laklarga ajralmaydigan gaplarni topib, ularni alohida yozib chiqing.
3. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplarni ma'nosiga ko'ra tahlil qilib, turlarga ajrating.
4. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplarga bir bosh bo'lakli gap bilan qiyoslab, baho bering.
5. Har bir sodda gapni gap bo'laklari bo'yicha tahlil qiling.

45- mashq.

Cho'lpon ham boshqa ko'pgina iste'dod sohiblari kabi sovet hokimiyati yillarida to'rga ilingan baliqday hukmron mafkura domiga ilinib, undan qutilish ilinjida tahlikada tipirchilab yashashga majbur bo'lgan. Ayniqsa, bolsheviklar tuzumi murvatlarini qattiqroq burganda, tizginlar qattiq tortilganda cho'lponlar ham omon qolmoq uchun uchun zamona zayliga qarab ish yuritishga majbur bo'lgan. Agar 20-yillarning boshlarida adabiyot va san'at sohasida nisbatan jinday erkinlik mavjud bo'lgan bo'lsa, hali adabiyotda bir-biridan farq qiluvchi oqimlar yashayotgan va ular bir-biridan farq qiluvchi g'oyalarni olg'a surayotgan bo'lsa, 20-yillarning ikkinchi yarmida jinday-jinday toza havo kirib turgan teshiklar batamom yopib tashlandi. Ayniqsa, RKP(b) Markaziy Komitetning 1925 yil 18 iyun qaroridan keyin «proletar adabiyotning gegamonligi» uchun kurash juda qizg'in tus oldi. Buning oqibatida ijodda har qanday erkinlikka chek qo'yildi. Yangi paydo bo'lgan RAPP tashkiloti ham o'zining vulgar sotsiologik qarashlari bilan hukmron mafkuraning

tegirmoniga suv quydi. «Mafkuraviy sog'lomlik uchun», «Yot mafkuralarga qarshi kurash» shiori ostida adabiyotdagi va san'atdagi har bir mustaqil kuch, har bir yilt etgan iste'dod egasi shavqatsiz tazyiq ostiga olina boshladi. Bunga bo'y bermagan, bo'lar-bo'lmas rivoyatlarni, yolg'on-yashiq afsonalarni qabul qilmagan adabiyotchilar boshi ustida esa hech mubolag'asiz o'lim xafi qanot yoza boshladi. Hukmroni mafkura o'z aqidalarini NKVD-yu, GPUlar orqali zo'rlik bilan, qurol kuchi bilan o'tkaza boshladi. Bunday sharoitda har qanday ijodkor ham tabiiy ravishda jonini saqlab qolish yo'llarini qidira boshlaydi. Ba'zilar ko'proq, ba'zilar kamroq darajada zamonasozlik yo'lga o'tadi. Shular qatorida Cho'lpon ham bor edi. Ho'sh, buning uchun Cho'lponni qoralash mumkinmi? Nega u mardona ravishda o'zini o'qqa tutib bermadi? – deya unga tana qilish mumkinmi? Menimcha, yo'q. Chunki o'z-o'zini saqlash instinkti – insoniyat tabiatida, qonida, shuurining allaqaysi pinhona puchmoqlarida bor. Har qanday odam ham xatarga, o'lim xafiga duch kelganda, hatto istamasa ham, himoyalani, o'zini asrash yo'lga o'tadi. Ijodkor odam ham bundan mustasno emas, buni o'z e'tiqodidan chekinish deb qarash kerak emas.

Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti.T., «Sharq», 2004.

46-mashq

Ko'rib turibman. Vujudingda g'alayon – birovni yoqtirib qolding. Ammo, o'g'lonim, so'zimni yaxshilab tingla: butun tuyg'ularingni ichingga dimlab, rangingni o'zgartirmay, ko'zingni o'sha tomonga alanglatmay tur. Uch kun, bir hafta sabr qil. Yana qattiq chida-da, bir oyni o'tqazib ol! Insonchilikda ehtiros bamisli olovga o'xshaydi. Avval gur-r etib yonadi, bora-bora pasayadi. qolaversa, har bir kun hakam, sarani saraga puchakni puchakka ajratib beradi. Ehtiros bo'roni tinchigach, tafakkuring bilan obdon maslahat qil. O'sha yoqtirganingni har xil vaziyatlarda kuzat, boshqalarga solishtir. Yodingda qolsinki, yoqtirish sanoqsiz bo'lishi mumkin. O'n beshingda birov, o'n oltingda boshqasi, o'n ettingda yana bittasi yuragingga g'ulu solsa, o'zingni betayinlikda ayblama. Chunki bu hali muhabbat emas, bu yoqtirish xolos. Dilingda bunaqa yoqtirishdan yigirmatasi kechsa ham mayli, ayb emas, ammo hargiz tilingga chiqarma! Ohoringni to'kma! O'n sakkiz yoshgacha og'zingni mahkam yumib etib olsang bo'ldi, u yog'iga o'zingni boshqaradigan bo'lib qolasan! Ko'ngli tusaganki kishi bilan qo'l ushlab ketaverish bu NAFSdir. Nafs bor joyda muhabbat bo'lmas! Shaytonning gapi bilan nafsiga ruju qo'yib, jannatdan quvilgan Odam Ato qismatini hamisha yodingda tut. Navoiy hazrati aytadilar:

Beshta sherni gar zabun qilsang shijoatdan emas,

Nafs itin etsang zabun olamda yo'q senday shujo.

Beshta sher hamlasi nima bo'пти, uni english hech gap emas, ammo nafs iti eng qo'rqinchli va ziyonliroqdir, sen o'shani enga ol! Shundagina shijoatli sanalasan, deydi shoir.

T.Sodiqova. O'g'lim, senga aytaman. Qizlarga atalgan so'zlar. T., «Cho'lpon», 2002

NAZORAT SAVOLLARI VA TOPSHIRIQLARI

Grammatika va sintaksis.

1.2.1. Grammatika tushunchasi doirasining kengayib borishini izohlab bering.

1.3.1. Grammatika tor va keng ma'noda nimani anglatishi qaysi javobda berilgan .

a) grammatika tor va keng ma'noda tushinilmaydi;

b) tilning grammatik qurilishi haqidagi fan;

v) umuman tilning grammatik qurilishi ;

g) b va v javoblardagi ma'nolar ;

d) tor ma'noda fanni, keng ma'noda san'atni bildiradi ;

e) Grammatika yunoncha so'zdan olingan va qo'shma so'z hisoblanadi.

1.4.1. Tilning asosi ifodalangan qatorni toping.

a) fonetika, grafika, orfografiya, so'z yasalishi,gap;

b) fonetika, fonologiya, leksikologiya, frazeologiya;

v) fonetika, morfologiya, sintaksis;

g) tovush tizimi, leksika, grammatika;

e) tovushlar, mustaqil so'zlar, yordamchi so'zlar.

2.2.1. Grammatikaning o'rganish ob'ektlarining o'zaro farqlarini tushuntiring

2.3.1 Grammatikaning o'rganish ob'ektlari berilgan qatorni toping.

- a) fonetika, leksika, ko'p ma'noli so'zlar;
 - b) so'z turkumlari, so'z shakllari, so'zlarning o'zaro bog'lanishi, bog'lanmalar;
 - v) so'zlarning o'zgarishi, so'zlarning bog'lanishi, frazeologizmlar, gaplar ;
 - g) so'zlar, so'z shakllar, frazeologizmlar, so'z birikmalari;
 - d) tovush tizimlari, so'z shakllari, sintaktik aloqa va munosabatlar;
- 2.4.1. Grammatika va leksikologiyani o'rganish ob'ektlariga ko'ra taqqoslang.
- 3.1.1. Leksik va grammatik ma'nolarga misollar keltiring.
- 3.2.1. Leksik va grammatik ma'noning farqini izohlab bering .
- 3.3.1. Kitobning varag'i birikmasining leksik va grammatik ma'nosini aniqlab bering.
- 3.6.1. Grammatik ma'no ifodalangan qatorni toping.
- a) fonema, harf, leksika, ibora;
 - b) ot, atoqli ot, konkret ot, bosh kelishiklar.
 - v) bu erda grammatik ma'no yo'q.
 - g) leksik ma'no, semema, sema, bo'yoq.
 - d) assimilyatsiya. dissimilyatsiya, prokopa.
- 4.2.1. Morfologiya va sintaksisning o'zaro aloqadorligi va farqlarini izohlang .
- 4.3.1. Kitob-bilim bo'log'i gapidagi kitob so'zining leksik, morfologik, sintaktik ma'nolari topib, bayon qiling.
- 4.4.1. So'zning morfologik va sintaktik ma'nolariga xarakteristika bering.
- 5.1.1. Sintaksisning o'rganish ob'ektlarini sanang.
- 5.2.1. Sintaksisning o'rganish ob'ektlarini farqlang.
- 5.3.1. Sintaksis va morfologiyani o'rganish ob'ektlariga ko'ra taqqoslang.
- 5.3.2. Gapning asosiy sintaktik birlik ekanini tushuntiring.
- Sintaktik aloqa va uning turlari.
- 1.3.1. Sintaktik munosabat to'liq ifodalangan javobni toping.
- a) Ega –kesim, aniqlovchi-aniqlanmish munosabati.
 - b) Sub'ektli munosabat, atributiv munosabat.
 - v) Sub'ektli, atributiv, relyativ, ob'ektli munosabat.
 - g) Predikativ, ob'ektiv, sub'ektiv munosabat.
- 2.1.1. Sintaktik aloqa haqida ma'lumot bering.
- 2.2.1. Sintaktik aloqani ifodalovchi vositalarni ko'rsating.
- a) shakl yasovchilar, so'z yasovchilar, so'z o'zgartuvchilar;
 - b) shaxs-son qo'shimchalari, egalik va son kategoriyasi;
 - v) kelishiklar, egaliklar, birlik va ko'plik qo'shimchalari.
 - g) so'z o'zgartuvchilar, fe'l shakllarini yasovchilar, ko'makchilar, undalmalar va kirishlar.
 - d) so'z o'zgartuvchilar, fe'l shakllarini yasovchilar, ko'makchilar, bog'lovchilar, olmoshlar, bog'lama, gap bo'laklarining tartibi, intonatsiya.
 - e) so'z o'zgartuvchilar, fe'l shakllarini yasovchilar, ko'makchilar, bog'lovchilar, modal so'zlar, undovlar.
- 2.3.1. Quyidagi gapda sintaktik aloqa qanday vositalar orqali ifodalangan?
Meni olib keting, O'zbekistonga!
- 3.1.1. Sintaktik aloqa turlari haqida ma'lumot bering.
- 3.2.1. Predikativ – nopredikativ va tobe-teng aloqalarning farqini izohlang.
- 3.3.1. Moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqasi asosida 3 ta so'z birikmasi va 3 ta gap tuzing.
- 3.4.1. Navoiyning g'azali birikmasini sintaktik aloqa turlari bo'yicha tahlil qiling.
- 3.4.2. Ega va kesim, to'ldiruvchi – to'ldirilmish, aniqlovchi-aniqlanmish, hol va hollanish orasidagi aloqa sintaktik aloqaning qaysi turiga mansub?
- 3.4.3. O'zbek tilining sintaktik qurilishida qaysi sintaktik aloqa keng tarqalgan ?
Sintaktik qurilmala, so'z birikmasi
- 1.1.5. Sintaktik qurilmalarning turlari ko'rsatilgan javobni toping.
- A) ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol;

- B) undalma, kirish, kiritma, ajratilgan bo'lak;
- V) sodda gap, qo'shma gap, murakkab qo'shma gap;
- G) bir so'zli qurilmalar, ikki so'zli qurilmalar, ko'p so'zli qurilmalar;
- D) so'z birikmasi, so'z –shakli, yoyiq sodda gap.

1.2.1 So'z birikmasi sintaktik qurilmaning bir turi ekanligini izohlab bering.

1.3.1. Quyidagi sintaktik birliklardan qaysinisi so'z birikmasi?

- A) Tez-tez gapir;
- B) tez gapirmoq;
- V)Ko'nglimga tugib qo'ydim;
- G) masala yuzasidan;
- D) yordam bera boshladi.

1.4.1. Quyida berilgan sintaktik qurilmalarni guruhlariga ajrating:

Bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k. Hech qayoqqa bormayman. -Borasan. Eshitdim, bog'larda tanxo o'tkazar emushsan mensiz tunlarni. U mening gaplarimga ishonmadi.

1.5.1. Sintaktik qurilmaga ta'rif bering.

1.6.1. Gapning yuzaki tahlili bog'lanmasi turgun so'z birikmasidir degan hukm to'g'risida o'z fikrlaringizni bildiring.

2.1.1. So'z birikmasining ta'rifini ayting.

2.1.2. So'z birikmasining asosiy leksik-grammatik xususiyatlarini ayting.

2.1.3. So'z birikmasi komponentlari asosan qanday usullar yordamida bog'lanadi?

2.2.1 Quyidagi mustaqil so'zlardan so'z birikmasi tuzib, hokim komponentlarning tagiga chizing: uzun, kelmoq, tez, arqon, gapirmoq, yaqin, o'qib, akam, ikki marta.

2.3.1. Kelishik qo'shimchalari va egalik qo'shimchalari nima uchun so'zlarni bog'lovchi grammatik vositalar deyiladi?

2.4.4. So'z birikmasi to'g'risidagi qaysi hukm to'g'ri.

A) So'z birikmasi ikki so'zning bog'lanishidan tuzilgan kommunikativ birlikdir.

B) So'z birikmasi fikr ifodalovchi nomustaqil ochiq sintaktik qurilma.

V) So'z birikmasi uch va undan ortiq mustaqil so'zlardan tashkil topgan birlik.

G) so'z birikmasi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning tobelanish asosida bog'lanishidan hosil bo'ladi.

D) Ikki yoki undan ortiq mustaqil, yordamchi so'zlarning tobelanishidan tuzilgan sintaktik qurilma so'z birikmasi deyiladi.

3.4.1. Tobe va hokim komponentlarning o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.

3.4.3. So'z birikmasi komponentlaridan birining nima sababdan doim tobe ikkinchisining nima sababdan hokim bo'lishini tushuntirib bering.

So'z birikmasining turlari

1.2.1. So'z birikmasi qaysi tomonlariga ko'ra tasnif qilinadi?

1.2.1. So'z birikmasining tuzilishiga ko'ra turlarini aytib bering.

1.3.1. Sodda so'z birikmasining ko'rinishlari haqida ma'lumot bering.

1.4.1. Murakkab so'z birikmasini izohlang .

1.8.1. Murakkab birikmalarni hosil qilish yo'li va sabablari haqida ma'lumot bering.

2.1.1. Hokim komponentning ifodalanishiga ko'ra so'z birikmasi necha turga bo'linadi?

2.2.3. Hokim komponentning ifodalanishiga ko'ra so'z birikmasining nima uchun ikkiga bo'linishini aytib bering .

2.3.1. O'tli va fe'lli birikmalarning turli tiplariga misollar keltiring .

2.4.1. Belgili va belgisiz moslashuv qanday farqlarga ega ?

2.6.1. Boshqaruvli birikmalarning turlarini jadvalga tushiring.

2.7.1. Deraza parda va derazaning pardasi birikmalariga hokim komponentning ifodalanishi va bog'lanish usullariga ko'ra baho bering .

3.1.1. Tobe komponentning sintaktik vazifasiga ko'ra so'z birikmasi necha turga bo'linadi?

3.1.2. Qanday so'z birikmalari aniqlovchili so'z birikmalari deyiladi ?

3.2.1. Aniqlovchili birikmalarning turlari va ko'rinishlari, ularning farqlari haqida ma'lumot bering.

- 3.2.2. To'ldiruvchili so'z birikmalari va ularning turlari haqida gapiring.
- 3.2.3. Holli so'z birikmalari qanday ma'nolarni bildiradi?
- 3.3.1 To'ldiruvchili va holli so'z birikmalarining umumiy va farqli xususiyatini tushuntiring.
- 1.1.1. Bir xil grammatik shakldagi to'ldiruvchili va holli so'z birikmasi berilgan javobni toping?
- Akam uchun oldim. O'qish uchun keldim .
 - Maktab tomon ketdi. Sen haqingda gapirdi.
 - Sen tomon ketdi. She'r haqida kuyladi.
 - Onamga salom ayting. Qishloqqa qaytish.
 - a, g javob to'g'ri.
- 3.5.1. To'ldiruvchili va holli so'z birikmalarini ajratishda ularning grammatik shakliga emas, ko'proq lug'aviy ma'nosiga e'tibor berishini asoslab bering.

Gap va gapning grammatik kategoriyalari.

- 1.1.1. Gapning ijtimoiy vazifasi haqida ma'lumot bering .
- 2.2.1. Gapning fikr ifodalovchi asosiy va eng kichik sintaktik birlik ekanligi nimalarda ko'rinadi?
- 1.1.1. So'z, so'z birikmasi va gapni qiyosiy tahlil qiling .
- 1.5.1. Gapning ta'rifida nimalarga e'tibor berish kerak ?
- 2.2.1. Predikativlik nima ekanligini izohlab bering .
- 2.3.1. Predikativlikning shakllanish usullari berilgan javobni toping.
- Alohida-alohida shakllar orqali ifodalanadi;
 - Bir formant yordamida sintezlashgan holda ifodalanadi;
 - Boshqa shakllarga qiyosan belgilanadi;
 - Nutq vaziyati orqali ifodalanadi;
 - Barcha javoblar to'g'ri.
- 2.4.1. Sintaktik shaxs va fe'llardagi shaxs-son kategoriyalarini qiyosiy ta'riflang.
- 2.4.1. Sintaktik zamon fe'l zamonlaridan nimasi bilan farqlanadi?
- 2.5.1. Predikativlik va modallikning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlang.
- 2.6.1. Gapga predikativlik asosida ta'rif bering .
- 3.1.1. Predikativlikning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot bering .
- 3.2.1. Grammatik shaxsni izohlang.
- 3.3.1. Gaplar grammatik shaxsiga ko'ra necha turga bo'linadi? To'g'ri javobni toping
- shaxsi topilmas gap.shaxsi aniq gap;
 - shaxsi bitta, shaxsi ko'p gap;
 - shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan, shaxssiz gap;
 - shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan, egasi aniq gap;
 - egasi aniq, noaniq, umumlashgan, topilmaydigan gap;
- 3.4.1. Shaxsi aniq va shaxsi noaniq gap kesimlarini toping Biz seni hech kimga bermaymiz, O'zbekiston. O'limdan qo'qmaganni mard deydilar
- 3-shaxsdagi olmosh,3-shaxsdagi fe'l;
 - 3-shaxsdagi aniq nisbat, 1-shaxsdagi fe'l;
 - 1-shaxs ko'plik shaklidagi fe'l, 3-shaxs ko'plik formasidagi fe'l;
 - 1-shaxs ko'plik shaklidagi shart mayli, 3-shaxsdagi orttirma nisbat;
 - 1-shaxs ko'plik shaklidagi ot, 3-shaxs ko'plik shaklidagi olmosh.
- 3.5.1. Grammatik shaxsning shaxs ma'nosidan kengligini asoslang.
- 3.6.1. Grammatik shaxs barcha gaplarga xosdir hukmiga baho bering.
- 4.1.1. Modallik va uning turlari haqida ma'lumot bering.
- 6.1.1. Intonatsiyaning nutqqa xos universal vosita ekanligini tushuntiring.
- 6.2.1. Gapga xos intonatsiyaning o'ziga xos bo'lishini izohlang.
- 6.4.1. Tugallangan intonatsiya predikativlik ifodalovchi vositalardan biri ekanligini isbotlab bering.

Gaplarning tasnifi: gaplarning mazmun-maqsadiga ko'ra turlari

- 1.1.1. Gaplar asosan qaysi tomonlariga ko'ra tasnif qilinadi?

- 1.1.2. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ayting.
- 1.2.1. Darak gaplarning mazmuni, grammatik, intonatsion xususiyatlari to'g'risida ma'lumot bering.
- 1.2.2. So'roq gaplarni hosil qiluvchi vositalarni ko'rsating.
- 1.2.3. Buyruq gaplarning kesimlari qanday ifodalanadi?
- 1.3.1. Darak gap berilgan qatorni toping.
- A) Qurt tushibdi olmalarga.
 V) kuzda haydalgan erlar.
 S) oyog'ini qo'liga olib.
 D) ko'z qorachig'idek asrab.
 E) Bu kimning ishi?
- 1.3.2. So'roq olmoshi bilan hosil qilingan so'roq gapni toping.
- A) O'zimizning qishloqlik Eshmat-a?
 A) O'z erini pichoqlabdimi?
 V) Kim-u yig'layotgan?
 S) Nahotki daryolar oqar teskari?
 D) Hech nima bo'lgani yo'q.
- 1.3.8. Buyruq gapning kesimi to'g'ri berilgan javobni toping. Bu yo'lda xato qilma.
- A) bu yo'lda;
 V) qilma;
 S) kesimi umumlashgan;
 D) xato qilma;
 E) yo'lda xato.
- 4.1.1. Darak, so'roq, buyruq gaplarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bering.
- 4.1.2. Darak, so'roq, buyruq gaplarning umumiy xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
- 1.5.1. Gapning darak, so'roq, buyruq gap bo'lishi uning tuzilishiga bog'liqmi?
- 2.1.1. Gaplar emotsionallikka munosabati jihatidan necha turga bo'linadi?
- 2.2.1. Emotsional gaplarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
- 2.4.1. Undov gaplarning emotsional xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
- 2.5.1. Undov gaplarni hosil bo'lishida intonatsiyaning roliga baho bering.
- 3.1.1. Gaplar borliqqa munosabatiga ko'ra necha turga bo'linadi?
- 3.1.2. Tasdiq va inkor gaplarning ma'no vazifasini aytib bering.
- 3.1.3. Inkor gaplarning hosil qiluvchi vositalarni ko'rsating.
- A) - ma, emas, yo'q, na, hech, -siz, men;
 V) aslo, birorta ham, hech qachon, hech kim;
 S) -ma. emas, yo'q, -na, na, hech, siz, inkor intonatsiyasi;
 D) butunlay, umuman, yo'q, -ma, -siz;
 E) emas, yo'q, - ma, magan, madi, ladi.

Gaplarning tasnifi: gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari

- 2.2.2. Grammatik asosning miqdoriga ko'ra gaplar necha turga bo'linadi?
- 2.2.3. Sodda va qo'shma gap bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?
- 2.4.1. Sodda va qo'shma gapning qurilish materialiga ko'ra farqini aniqlang.
- 2.6.1. Oddiy so'zlashuvda gapning qaysi turi (sodda yoki qo'shma) faol qo'llanadi, sababi nimada?
- 2.1.1. Bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra sodda gaplar necha turga bo'linadi?
- 2.2.1. Ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplarning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
- 2.6.1. So'z-gap, to'liqsiz gap, tasavvur- tushuncha nomlari bir bosh bo'lakli gaplarning o'ziga xos bir ko'rinishlaridir degan hukmga o'z munosabatingizni bildiring.
- 3.1.1. Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirok etish-etmasligiga ko'ra sodda gaplar necha turga bo'linadi?
- 3.2.1. Yoyiq va yig'iq gaplarning farqlarini ko'rsatib bering.
- 4.1.1. Bo'laklarga ajralish-ajralmasligiga ko'ra sodda gaplarning qanday turlari bor?
- 4.1.2. So'z-gap sodda gaplarning qaysi turiga kiradi?
- 4.2.1. Bo'laklarga ajraladigan gaplarni izohlang.

- 4.2.2. Sodda gaplarning qaysi turlari bo'laklarga ajraladigan gaplar hisoblanadi?
- 4.2.3. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar doirasiga kiradigan sodda gaplardan qaysilarini bilasiz?
- 4.2.4. Qanday gaplar bo'laklarga ajralmaydigan gap hisoblanadi?
- 4.3.1. So'z-gap deb nimaga aytiladi?
- 4.3.2. So'z-gaplar tuzilishiga ko'ra qanday bo'ladi?
- 4.3.3. So'z-gaplar qanday ma'no xususiyatlarga ega?
- 4.3.4. So'z-gaplar qaysi gap bo'lagiga mos keladi?
- 4.3.5. So'z-gaplar fikr ifodalaydimi?
- 4.3.6. So'z birikmasi so'z-gap vazifasini bajaradimi?
- 4.4.1. So'z-gapni toping: - Kim bilan uchrashding? – Hech kim bilan.
- 4.4.2. So'roq ma'nosini ifodalovchi so'z-gaplarga misollar ayting?
- 5.5.1. *To'liqsiz gap* va so'z-gapni qiyosiy tavsiflang?
- 5.5.2. *Xo'p, boraman* gapi to'liqsiz gapmi, so'z-gapmi?
- 5.5.3. To'liqsiz gaplar qanday bo'laklarga ajraladi?
- 5.5.4. So'z-gaplar to'liqsiz gap bo'la oladimi?

Gapning sintaktik tuzilishi: gap bo'laklari.

- 1.1.1. Gap bo'laklari nima uchun gapning sintaktik tuzilishini to'liq qamrab olmaydi?
- 1.2.1. Semantik-sintaktik bo'lakning gap bo'laklaridan farqi nimada?
- 1.2.2. Undalma, kirish va kiritmalarning gap bo'laklaridan farqlarini ko'rsatib bering.
- 1.3.1. Undalmali va kirishli gaplarni toping.
 - A) Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit.
 - V) Anvar, eshitdingizmi, aytishlaricha, bugun Yulduz kelar ekan.
 - S) Yoshlar, fan sirlarini egallang!
 - D) Menimcha, tilimizda bunday gap yo'q.
 - E) O'quvchilar, dam olish kunini ko'ngilli o'tkazingiz.
- 1.4.1. Undalma, kirish, kiritmalar nima uchun gap bo'lagi hisoblanmaydi.
- 2.1.1. Gaplarni semantik-sintaktik tuzilishiga ko'ra tasnif qilishda qaysi xususiyatlarga asoslaniladi?
- 2.1.2. Gaplarning semantik-sintaktik tuzilishiga ko'ra turlarini ayting.
- 2.2.1. Gapning grammatik asosi, predikativ markazi deganda nimalarni tushunasiz?
 - 1.1.1. Gapning bosh bo'laklari nechta va ular qanday nomlanadi?
 - 1.1.2. Eganing gapdagi roli, ma'no- vazifasini tushuntiring.
 - 1.1.3. Eganing sub'ekt tushunchasi bilan aloqadorligini asoslab bering.
 - 1.1.4. Ega bilan undalmaga xarakteristika bering.
 - 2.1.1. Kesimning bosh bo'laklardan biri ekanligini izohlang.
 - 2.2.1. Kesimning turli so'zlar, iboralar bilan ifodalanishini ko'rsatib bering.
 - 2.3.1. Kesimning egaga nisbatan gapning shakllanishi, fikrning ifodalanishida asosiy rol o'ynashini isbotlab bering.
 - 3.1.3. Ega va kesimning moslashuvi deganda nima tushuniladi?
 - 3.1.4. Ega va kesimning shaxs va sonda moslashishini izohlang.
 - 3.1.5. Ega va kesim qaysi paytda moslashmaydi?
 - 3.1.6. Undalma va egaga semantik-sintaktik jihatdan baho bering!
 - 2.4.1. Quyidagi gaplarning kesimini topib tagiga chizing. Ustiga ifodalanishini yozib qo'ying. Suluv suluv emas, sevgan suluv. O'qigan o'qdan o'zar. Do'stning eskisi, do'ppining yangisi yaxshi. (Kartochkalar beriladi)
 - 3.1.5. Ega va kesimning moslashishi to'liqmi yoki qismanmi?
 - 1.1.1. Aniqlovchining ta'rifini ayting.
 - 1.2.2. Aniqlovchining turlari va ko'rinishlari to'g'risida ma'lumot bering.
 - 1.2.1. Sifatlovchi-aniqlovchi va qaratqich-aniqlovchi nimasi bilan o'zaro farqlanadi.
 - 1.3.1. Izohlovchining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsating.
 - 1.4.1. Quyidagi gapda aniqlovchining turlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping: Yomonning yaxshisi bo'lguncha yaxshining yomoni bo'l.
 - A) izohlovchi va qaratqich;
 - v) qaratqich va qaralmish;
 - s) Sifatlovchi va qaratqich;

- d) aniqlovchi qatnashmagan;
- e) yoyiq va yig'iq aniqlovchi.

- 1.5.1. Aniqlovchining to'ldiruvchi va holdan keskin farqlanishi nimalarda ko'rinadi?
- 2.1.1. To'ldiruvchining ta'rifini ayting.
- 2.1.2. To'ldiruvchining qaysi turlarini bilasiz?
- 2.1.3. Vositasiz to'ldiruvchi haqida ma'lumot bering.
- 2.4.1. Vositali to'ldiruvchining ma'no-vazifasi, grammatik shakllari haqida gapiring.
- 2.4.3. To'ldiruvchi qanday gap bo'laklariga bog'lanadi?
- 2.4.4. Holning to'ldiruvchidan farqlarini tushuntiring.
- 2.5.1. Quyidagi gapdagi vositasiz va vositali to'ldiruvchi to'g'ri topilgan javobni toping:
Palovga sabzini nechog'lik tekis va mayin to'g'ralsa, osh shuncha shirin bo'ladi:
 - A) osh, tekis, palovga;
 - V) tekis va mayin;
 - S) sabzini, nechog'lik;
 - D) palovga, sabzini;
 - E) to'g'ralsa, shirin bo'ladi.

3.1.1. Hol deb nimaga aytiladi?

3.2.1. Holning ma'no turlarini sanang.

3.3.1. Holning ma'no turlarini sharhlang.

3.4.1. Berilgan gapdan holning ma'no turini aniklang. Kecha Toshkentda taraqqiyparvar kuchlarning XVII doimiy anjumani bo'lib o'tdi.

3.4.2. Taqlidiy so'z hol bo'lib kelgan gapga bitta misol toping.

3.5.1. Hol va to'ldiruvchining o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib bering.

3.6.1. Hol bo'lib keladigan asosiy so'z turkumlari qaysilar?

Gap bo'laklarining tartibi

1. So'z tartibi va gap bo'laklarining tartibi atamalariga qanday qaraysiz?

2. O'zbek tilida gap bo'laklarining tartibi qanday?

3. Gap bo'laklarining necha xil tartibi bor?

4. O'zbek tilida gap bo'laklarining odatdagi tartibini ko'rsatib bering.

5. Gap bo'laklarining o'zgargan tartibiga misollar keltiring.

6. O'zbek tilida qaysi gap bo'laklarining tartibi boshqalariga qaraganda qat'iy?

7. She'riyatda gap bo'laklari odatdagi tartibining o'zgarish sabablarini izohlang.

8. Gap bo'laklari tartibining o'zgarishiga ta'sir etadigan asosiy omillar nimalardan iborat?

Murakkablashgan sodda gaplar.

2.1.1. Uyushiq bo'laklarni ta'riflang .

2.2.1. Uyushiq bo'laklarni misollar asosida izohlang.

3.4.1. Ajratilgan bo'lak deb nimaga aytiladi ?

3.2.1. Ajratilgan bo'laklar qanday xususiyatlari bilan xarakterlanadi ?

3.3.1. Gap bo'laklarining ajratilish sabablarini ko'rsating.

3.5.1. Aniqlovchilar ajratilganda odatdagidan farqli o'laroq qanday xususiyatlar kasb etadi

4.1.1. Undalma deb nimaga aytiladi ?

4.2.1. Undalmaning ma'no va vazifalarini ko'rsatib bering.

4.3.1. Undalma qanday ma'nolarini ifodalaydi ?

4.5.1. Undalma va egaga qiyosiy tavsif bering.

5.1.1. Kirish deb nimaga aytiladi ?

5.2.1. Kirishlar qanday ma'no vazifalarni ifodalaydi ?

5.3.1. Kirishlarning ifodalanishi to'g'risida ma'lumot bering.

5.5.1. Kirishlar va modal so'zlarning uzviy aloqadorligini ko'rsatib bering.

5.6.1. Kirishlarni tuzilishiga ko'ra tasnif qiling.

6.1.1. Kiritma deb nimaga aytiladi?

6.2.1. Kiritmalarni ma'no-vazifasiga ko'ra tavsiflang.

6.3.1. Oddiy sodda gaplarni murakkablashtiruvchi elementlar yozilgan javobni ko'rsating.

A) sifatdosh oborotlar, undov va taklidiy so'zlar;

V) ravishdosh oborotlar, undalma va modal so'zlar;

S) uyushik bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, undalmalar kirish va kiritmalar;
D) kirish va kiritmalar, uyushmagan bo'laklar;
E) modal so'zlar, undov so'zlar, ko'makchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar.

6.3.2. Qaysi gap bo'laklari uyushadi? Qaysi javobni to'liq deb hisoblaysiz?

- A) Bosh bo'laklar uyushadi.
- V) ikkinchi darajali bo'laklar uyushadi.
- S) Barcha gap bo'laklari uyushadi.
- D) Ayrim gap bo'laklari uyushadi.

6.4.3. Qaysi gap bo'laklari ajratiladi? To'g'ri javobni toping .

- A) Ikkinchi darajali bo'laklar ajratiladi;
- B) Aniqlovchilar ajratiladi;
- S) Bosh bo'laklar ajratiladi.
- D) A va S javoblar to'g'ri.
- E) To'ldiruvchilar ajratiladi.

6.4.1. Kiritmalar tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?.

6.5.1. Kirish va kiritmalarning ikki xil hodisa ekanligini asoslang.

6.5.2. Kiritmali gapni aniqlang.

- A. Fikrimcha, rutbalarning, mansablarning past-balandlari yo'q.
- B. Darvoqe, G'ofur, kelinga ayt, xizmat-pizmat qilib tursin.
- S. Baxtimizga, bu yil yomg'ir ko'p bo'ldi.
- D. O'sha yosh bolani (u ota-onasiz qolgan edi) boyga qarol qilib berishdi.
- E. Menimcha, V javob to'g'ri.

Bir bosh bo'lakli gaplar

1.1.1. Sodda gaplar tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi ?

1.2.1. Oddiy va murakkab sodda gaplarni tavsiflang.

1.2.2. Sodda gaplarning bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra turlari ko'rsatilgan javobni toping.

- a) yoyiq va yig'iq gap;
- b) egasiz va kesimsiz gap;
- v) to'liq va to'liqsiz gap;
- g) bosh bo'lakli va bosh bo'laksiz gap;
- d) bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gap.

1.2.3. Bir bosh bo'lakli gaplarda qaysi bosh bo'lak tushib qoladi?

- a) to'ldiruvchi tushib qoladi.
- b) aniqlovchi tushib koladi.
- v) o'rin holi tushib qoladi.
- g) ular bunday xususiyatga ega emas.
- d) kesimi tushib koladi.

1.3.1. Bir bosh bo'lakli gaplar:

- a) to'liq fikr ifodalaydi;
- b) to'liq fikr ifodalay olmaydi;
- v) chala fikr ifodalaydi;
- g) tushuncha ifodalaydi;
- d) aniq fikr ifodalaydi.

1.4.1. Qaysi qatorda to'liqsiz gap berilgan?

- a) Kunduzi erga qaraydi, kechasi osmonga qaraydi.
- b) Men ertaga Buxoraga borishim kerak.
- v) Opang qani? – Oshxonada.
- g) O'n etti kun ochlikda yashagan odam.
- d) O'limdan qo'rqmaganni mard deyishadi.

1.5.1. Bir bosh bo'lakli gap va so'z-gaplarga qiyosiy xarakteristika bering.

1.6.1. Bir bosh bo'lakli gapda predikativlikning ifodalanishini isbotlab bering.

1.7.1. Quyida berilgan bosh bo'lakning sintaktik vazifasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping
O'rtada katta archa.

- a) bosh bo'lak ifodalanmagan.

- b) bosh bo'lak (turibdi) tushib qolgan.
 - v)bu gap emas, so'z birikmasi.
 - g) ega.
 - d) kesim
- 1.8.1. Bir bosh bo'lakli gaplarning qanday tiplari bor?
qaysi javob savolning mohiyatiga mos.
- a) egasiz gaplar, kesimsiz gaplar.
 - b) egasi topiladigan gaplar, egasi topilmaydigan gap.
 - v)shaxsi aniq gap, shaxsi noaniq gap, shaxsi umumlashgan gap, shaxssiz gap, atov gap, vokativ gap, infinitiv gap.
 - g) shaxsi aniq gaplar, shaxsi noaniq gaplar, shaxssiz gaplar, undov gaplar.
 - d) shaxsi nomalum gaplar,shaxsi umumlashgan gaplar, shaxssiz gaplar, nominativ gaplar, undov gaplar.
- 2.1.1.Shaxsi aniq gapning tarifini ayting.
- 2.2.1.Shaxsi aniq gaplarning kesimlari fe'lining qaysi shakllari bilan ifodalanadi?
- a) harakat nomi shakllari bilan;
 - b) 3-shaxsdagi buyruk mayli shakllari bilan;
 - v) guncha, -gancha, -gani qo'shimchali ravishdoshlar bilan;
 - g) 1-va 2- shaxsdagi tuslanuvchi fe'l shakllari bilan;
 - d) 3-shaxsdagi ortirma nisbat fe'l shakllari bilan.
- 2.3.1.Bosh bo'lagi fe'ldan boshqa so'z bilan ifodalangan shaxsi aniq gaplarni toping.
- a) Uyg'onguvchi bog'larni kezdin.
 - b) Oh,sening yoshliging menda bo'lsaydi?!
 - v) Uch yildan buyon zavodning bosh injeneriman.
- 2.2.1. Shaxsi noaniq gapga tarif va tavsif bering ?
- 2.2.2.Gaplarning shaxsi noaniqligini tushuntirib bering?
- 2.2.3.1Shaxsi noaniq gaplarning bosh bo'lagi qanday fe'l shakllari bilan ifodalanadi?
- 2.3.1.Shaxsi umumlashgan gapning tarifini aytib bering.
- 2.3.2. Shaxsi umumlashgan gapni tavsiflang.
- 2.3.3. Shaxsi umumlashgan gap bosh bo'lagi ifodalanishini bayon qiling.
- 2.4.1. Shaxssiz gapning tarifini ayting.
- 2.4.2. Shaxssiz gapni shaxsi aniq,shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar bilan qiyoslab tushuntiring.
- 2.4.3. Shaxssiz gap kesimining morfologik shakllarini sanang.
- 2.4.1.Shaxsi noaniq gap berilgan javoblarni toping.
- a) Qush edim, qanotimni qayirdilar, gul edim,bulbulimdan ayirdilar.
 - b) Bo'lmading deb qaytarib yuborishdi.
 - v) Ular qachon kelishadi?
 - g) Yigirma oltinchisi otilmasin!
- 2.5.1. Shaxsi noaniq gapda harakatning bajaruvchisi aniq ifodalansa, qanday gap hosil bo'ladi.
- a) shaxsi aniq gap;
 - b) shaxsi umumlashgan gap;
 - v) to'liq gap;
 - g) yoyiq gap;
 - d)ilkki bosh bo'lakli gap.
- 2.3.4. Shaxsi umumlashgan gapni aniqlang.
- a) Eksang o'rasan;
 - b) Borsang ko'rasan;
 - v) O'rningdan tur;
 - g) Ketsang ketaver;
 - d)Otni egarla.
- 2.3.5. Kesimi buyruk mayli bilan ifodalangan shaxsi umumlashgan gapni toping.
- a) Menga demasa, zahar yut,
 - b) Jonginam, shartingni ayt.

- v) O'ynab keldingmi, ovqatingni e!
 g) Gulistonni bog'i bo'stonga aylantiraylik!
 d) Shaharni bir aylanaylik.
- 2.3.6. Quyidagi maqolning bosh bo'laklari qaysi shaklda:
 Maxbusdan qo'rqma, shaytondan qo'rq.
 a) aniqlik maylining bo'lishsiz-bo'lishli shakli;
 b) orttirma nisbatning bo'lishsiz-bo'lishli shakli;
 v) Hozirgi-kelasi zamonning bo'lishsiz-bo'lishli shakli;
 g) buyruk maylidagi 2-shaxs fe'lining bo'lishsiz-bo'lishli shakli;
 d) shart-istak maylining 2-shaxs shakli.
- 2.4.4. Shaxssiz gap berilgan qatorni toping.
 a) Men ertaga darsga bora olmayman;
 b) Bu erda cheksa bo'ladimi ?
 v) Akam bir kelib ketsa bo'lardi;
 g) Suv ichishga yaroqsiz;
 d) Tufli sizga to'g'ri keldi.
- 2.5.5. Berilgan gaplarning qaysilari atov gaplar ?
 a) «O'yjon...» endi bizni kim boqadi ?!
 b) Hunar, hunardan unar.
 v) Bahorning gullagan chog'i.
 g). Mana bedam!
 d). Oh, Hirot, Hirot! Kindik qonim to'kilgan shahar !
- 2.5.5. Atov gapni tavsiflab bering.
 2.5.6. Atov gapning bosh bo'lagi qaysi va qanday so'zlar bilan ifodalanadi?
 2.5.7. Atov gaplarning hosil bo'lishida intonatsiyaning rolini izohlab bering.

YAKUNIY XULOSALAR

1. Grammatika hozirgi grammatika darajasiga ko'tarilgunga qadar uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini boshidan kechirgan. Dastlab u yozuvni, yozuv «tili»ni tekshirish bilan shug'ullangan va "yozuv san'ati" ma'nosini bildirgan. Keyinchalik grammatika terminining ma'nosi kengayib va o'zgarib, tilshunoslik fanining muhim tarkibiy qismini anglatadigan hozirgi ma'nodagi atamaga aylandi va tilning grammatik qurilishini o'rganadigan fan darajasiga ko'tarildi. Grammatika hozir fanning nomi ma'nosinigina emas, til grammatik qurilishining o'zini ham anglatadi.

2. Grammatika ikki qismga bo'linadi: morfologiya va sintaksis. Morfologiya grammatikaning quyi darajadagi umumiyliklarni o'rganadigan qismi va shunday umumiylik darajasidagi hodisalarni bildiradi. So'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari-so'z turkumlari, so'z shakllari, ularning hosil bo'lish yo'llari ana shunday hodisalaridir.

3. Sintaksis grammatikaning ikkinchi qismi bo'lib, sintaksisda yuqori darajadagi umumiyliklar o'rganiladi. So'zlarning birikish yo'llari, sintaktik aloqa va munosabatlar, bular natijasida yuzaga keladigan hodisalar: so'z birikmasi, so'z tizmasi, gap, sodda gap, qo'shma gaplar, murakkab sintaktik birliklar kabilar shular jumlasidandir. Sintaksisning o'ziga xos xususiyati uning mustaqil til birliklarining birikishi, o'zaro munosabati, aloqasi va bu aloqa natijasida yuzaga keladigan hodisalar bilan shug'ullanishidir. Shu sababli sintaksis sintaktik aloqa va munosabatlarni o'rganishdan boshlanadi.

4. Sintaktik aloqa va sintaktik munosabat sintaktik bog'lanmalarning mazmuniy va shakliy bog'lanish xususiyatlaridir.

*Sintaktik aloqa qanday birliklar hosil qilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

a) predikativ aloqa ;b) nopredikativ aloqa.

Predikativ aloqa. Gap hosil qiluvchi aloqa predikativ aloqadir. U ega va kesim orasidagi aloqa orqali ifodalanadi. Predikativ aloqa natijasida ikki bosh bo'lakli gap hosil bo'ladi. Havo sovuq. Suvlar muzlagan. Qish eshik qoqib qoldi.

Nopredikativ aloqa. Soʻz birikmasi hosil qiluvchi aloqa nopredikativ aloqadir. Bu aloqa aniqlovchi-aniqlanmish, toʻldiruvchi - toʻldirilmish orasidagi hamda hol va hollanmish orasidagi aloqalarda oʻz ifodasini topgan boʻlib, soʻz birikmasining turli tiplarida namoyon boʻladi.

*Sintaktik aloqa komponentlarning oʻzaro mazmuniy munosabatiga koʻra ikkiga boʻlinadi :

1) teng aloqa;

2) tobe aloqa.

Teng aloqa. Oʻzaro teng huquqli, bir xil sintaktik vaziyat – mavqedagi, bir xil soʻroqqa javob boʻlgan boʻlaklar, qismlar aloqasi teng aloqa deyiladi. Sodda gapdagi uyushiq boʻlaklar, bogʻlangan qoʻshma gap qismlari va bogʻlangan qoʻshma gapga sinonim boʻlgan bogʻlovchisiz qoʻshma gap komponentlari, bir xil tipli ergash gaplar oʻzaro teng aloqada bogʻlangan.

Tobe aloqa. Har xil, yaʼni biri hokim, ikkinchisi tobe sintaktik mavqedagi, biri ikkinchisini aniqlab, izohlab, toʻldirib keluvchi komponentlar oʻrtasidagi aloqa tobe aloqa hisoblanadi.

5. Oʻzbek tilining qonun-qoidalarida asosida maʼlum bir soʻz yoki soʻzlar guruhini bogʻlab, ularni nutqning mustaqil (sodda, qoʻshma gaplar va mikro matn) va nomustaqil xususiyatga ega boʻlgan birligi sifatida shakllantiruvchi va ularni bogʻlovchi vositalar sintaktik aloqa vositalari hisoblanadi.

1) soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar (kelishik, egalik, shaxs-son qoʻshimchalari); 2) feʼl shakllarini yasovchi qoʻshimchalar (-b, -ib, -gach, -guncha, -sa kabilar); 3) koʻmakchilar (bilan, uchun, sari, sayin, kabi, haqida, toʻgʻrisida, qaraganda kabilar), 4) yuklamalar. (-u, -yu, -da, -mi kabilar); 5) bogʻlovchilar (va, ammo, yo, yoki, shuning uchun, chunki, goʻyoki, ki kabilar); 6) olmoshlar (shu, u, ushbu, oʻsha, ana shu, bunday, shunday, kim, nima, qaer kabilar); 7) payt, oʻrin bildiruvchi soʻzlar (paytda, zamonda, qaerda, oʻsha erda kabilar); 8) modal soʻzlar (zero, zotan, vaholanki, modomiki kabilar); 9) bogʻlamalar (edi, ekan, emish, boʻlmoq, sanalmoq, hisoblanmoq, -dir, -man, -san kabilar); 8) tartib va intonatsiya (Soʻzlarning sintaktik aloqasi maxsus koʻrsatkichlar bilan ifodalanmaganda, ularning sintaktik aloqasida tartib bosh rolni oʻynaydi) kabilar ana shunday vositalardir.

6. Sintaksisning asosiy tekshirish obʼektlari sintaktik qurilmalardir. Sintaktik qurilmalar mustaqil soʻzlarning yoki gaplarning oʻzaro erkin bogʻlanishidan hosil boʻladi. Lekin har qanday ikki yoki undan ortiq soʻzdan tashkil topgan til birliklari sintaktik qurilma hisoblanavermaydi. Oʻrinbosar (qoʻshma soʻz), ishlab chiqarish birlashmasi (turgʻun birikma), ogʻa-ini (juft soʻz), misi chiqdi (frazologik birlik) tipidagi bogʻlanmalar lugʻaviy birliklar, maktab tomon, dadam bilan, vatan uchun, aytib qoʻya qol kabi ifodalar soʻz bilan koʻmakchining yoki koʻmakchi feʼlning qoʻshilishidan hosil boʻlgan soʻzning analitik shakllaridir. Yuqoridagilarning hammasi bir necha soʻzlardan tashkil topgan boʻlsa-da, ular boʻlaklarga boʻlinmaydigan bogʻlanmalar, soʻz shakli holatidagi til birliklaridir. Sintaktik qurilmalar bevosita nutq jarayonida maʼlum grammatik qonun-qoidalar asosida hosil boʻladigan, boʻlaklarga boʻlinuvchi bogʻlanmalardir.

7. Sintaktik qurilmalar toʻrt xil koʻrinishga ega: a) soʻz birikmasi; b) sodda gap; b) qoʻshma gap; s) matn (mikromatn). Shunga koʻra sintaksis ham oʻz ichida toʻrtga boʻlinadi: 1) soʻz birikmasi sintaksisi; 2) sodda gap sintaksisi; 3) qoʻshma gap sintaksisi; 4) mikro matn sintaksisi.

8. Soʻz birikmasi sintaksisning gapning nominativ funktsiya bajaruvchi nopredikativ birligi hisoblanadi.

*Nutq jarayonida ikki yoki undan ortiq mustaqil til birliklaridan birining ikkinchisiga grammatik jihatdan tobelanib, uning maʼnosini aniqlab, izohlab, toʻldirib kelishi natijasida hosil boʻladigan tushuncha ifodalovchi erkin birikma soʻz birikmasi deyiladi.

* Soʻz birikmalari uch tomonlama, uch mezonga koʻra tasnif qilinadi :

-tuzilishiga koʻra;

-hokim komponentning ifodalanishiga koʻra;

-tobe komponentning sintaktik vazifasiga koʻra.

*Soʻz birikmasi tuzilishiga koʻra ikkiga boʻlinadi : a) sodda soʻz birikmasi; b) murakkab soʻz birikmasi .

Sodda soʻz birikmasi. Tobe va hokim komponentlar ikki mustaqil soʻzdan, shuningdek, bir soʻz yoki bir soʻz shakli hukmida qabul qilinadigan frazeologizmlar, turgʻun birikmalar, tarkibli nomlar bilan ifodalangan soʻz birikmalari sodda soʻz birikmalari hisoblanadi .

Murakkab soʻz birikmasi. Murakkab soʻz birikmalari sodda soʻz birikmasining kengayishidan, birikmalarning qoʻshilishidan hosil boʻladi. Bunda kengayish, yoyiqlashish, asosan, tobe komponentga taalluqli boʻladi. Chunki murakkab birikma hokim komponent maʼnosini yanada aniqlashtirish, konkretlashtirish, yorqinlashtirish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Masalan: yosh yozuvchi – isteʼdodli yosh yozuvchi – sirlaryolik isteʼdodli yosh yozuvchi kabi.

9. Hokim komponentning ifodalanishiga koʻra soʻz birikmasi umumlashtirilib, asosan, ikki guruhga ajratiladi:

1) otli soʻz birikmalari; 2) feʼlli soʻz birikmalari.

Otli soʻz birikmalari keng maʼnoda boʻlib, komponenti ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, undov, taklidiy soʻzlar bilan ifodalangan soʻz birikmalarini oʻz ichiga oladi.

Feʼlli soʻz birikmalari. Bosh soʻzi shaxsli feʼl formasi va ravishdosh, sifat-dosh shakllari bilan ifodalangan soʻz birikmalari feʼlli soʻz birikmalari hisoblanadi.

10. Soʻz birikmalari tobe komponentning sintaktik mavqei, vazifasiga koʻra uch turga ajratiladi: 1) aniqlovchili; 2) toʻldiruvchili; 3) holli.

Aniqlovchili soʻz birikmalari. Tobe komponenti aniqlovchi (ular sifat, sifat-dosh, ot, olmosh son, ravish, taqlidiy soʻzlar, frazeologizmlar bilan ifodalangan boʻladi) vazifasini bajaradigan birikmalar aniqlovchili soʻz birikmalari deyiladi.

Toʻldiruvchili soʻz birikmalari. Tobe komponenti tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi yoki koʻmakchilar bilan birga kelib toʻldiruvchi vazifasini bajaruvchi obʼektni bildirgan birikmalar toʻldiruvchili birikmalar hisoblanadi.

Holli soʻz birikmalari. Tobe komponenti joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi shaklida yoki koʻmakchilar bilan kelib hol vazifasini bajaruvchi relyativ birikmalar holli soʻz birikmalari deyiladi.

11. Gap sintaksisning asosiy birligidir. Chunki gap tilning asosiy funktsional belgisi kommunikativlikni, yaʼni fikr ifodalash va bayon qilish vazifasini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Gap termini umumlashgan birlik, mohiyat sifatida til birligini ham, reallashgan birlik, hodisa sifatida nutq birligini ham ifoda etadi. Gap sathida til va nutq hodisalarini farqlash uchun “gap modeli, qolipi” (til birligi) va “jumla, gap” (nutq birligi) terminlaridan foydalanish oʻrinli. Gap qolipi, gap modeli jumlaning umumlashirilgan, tipiklashtirilgan grammatik shaklidir (O.M.Maskalskaya), gap, jumla esa uning muayyan vaziyat bilan bogʻlangan koʻrinishidir.

Til va nutq farqlanishiga binoan gapga ikki xil taʼrif berish mumkin.

*Til nuqtai nazaridan gap kesimlik kategoriyasi orqali shakllangan atov birligidir.

*Nutq nuqtai nazaridan esa grammatik jihatdan shakllangan, tugallangan intonatsiyaga ega boʻlgan bir soʻz yoki soʻzlar bogʻlanmasidan iborat boʻlgan fikr ifodalovchi eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi.

Gap soʻz va soʻz birikmasidan farqli oʻlaroq tushuncha emas, balki fikr ifodalaydi. Bu xususiyat gapning obʼektiv borliqqa xos voqea-hodisa, holatning inʼikosi ekanligida, uning voqelik bilan bevosita bogʻlanishida oʻz ifodasini topgan. Sintaksisda bu gapning predikativligi deyiladi. Shunga muvofiq gap predikativ birlik hisoblanadi.

12. Predikativlik har qanday gapga xos xususiyat boʻlib, gapning shakllar tizimidagi qismlarga ajratilmaydigan grammatik maʼnosidir. Predikativlik shaxs (son), zamon, mayl, tasdiq-inkor maʼnolari va bu maʼnolarni ifodalovchi shakllar tizimi orqali ifodalanadi. Binobarin, ana shunday shakllar tizimiga ega boʻlgan har qanday eng kichik sintaktik birlik gap hisoblanadi.

Gapni gap boʻlmagan boshqa lisoniy birikmalardan farqlovchi grammatik maʼno boʻlgan predikativlik har qanday gapga xos umumiy grammatik maʼno sifatida quyidagi tarkibiy-grammatik kategoriyalar sintezidan iborat:

- 1) grammatik shaxs kategoriyasi;
- 2) grammatik zamon kategoriyasi;
- 3) grammatik tasdiq-inkor kategoriyasi;
- 4) modallik kategoriyasi.

Grammatik shaxs predikativlikni yuzaga keltiruvchi muhim grammatik kategoriya, gapning ajralmas bir xususiyati, zarur elementidir.

Grammatik shaxs kategoriyasi fe'llarning morfologik shaxs kategoriyasi asosida vujudga kelsa ham, undan bir muncha keng tushunchadir. Chunki grammatik shaxs kategoriyasi fe'l ishtirok etmagan gaplarda ham ifodalanadi. Bunda grammatik shaxs shaxs otlari, kishilik, belgilash-jamlash olmoshlari orqali, bular ham bo'lmaganda sintaktik konstruksiyaning o'zi bilan ifodalangan bo'ladi. So'nggi holda grammatik shaxs boshqa shaxsli gaplarga qiyosan belgilanadi. Masalan: Toshkent – O'zbekistonning poytaxti gapining grammatik shaxsi Akram – o'qituvchi, U-ishonchli hamkor gaplariga qiyosan III– shaxsga aloqador bo'ladi. Grammatik shaxs kategoriyasida 1,2,3– shaxs, noaniq shaxs, umumlashgan shaxs hamda shaxssizlik ajratiladi. Bunda: a) fe'ning shaxs-son kategoriyasi; b) fe'ning nisbat kategoriyasi; v) shaxs olmoshlari; g) shaxs otlari qatnashadi.

Grammatik zamon. Gap orqali ifodalangan voqeaning ma'lum zamonga munosabati va bu munosabatni ifodalovchi shakllar tizimi gapning grammatik zamon kategoriyasi deyiladi.

Grammatik zamon kategoriyasi fe'ning zamon ko'rsatadigan maxsus shakllari, payt bildiruvchi so'zlar, payt ravishlari, bu vositalar bo'lmaganda sintaktik qurilmaning o'zi orqali ifodalanadi.

Grammatik zamon kategoriyasi fe'ning zamon kategoriyasidan keng tushunchadir. Fe'ning zamon kategoriyasi fe'ning turli zamon shakllarini qamrasa, gapning grammatik zamon kategoriyasi tarkibiga fe'ning turli shakllarini qo'llashga imkon beradigan gapning turli shakllari kiradi. Shunga muvofiq gapning zamon paradigmasi a'zolarining miqdori turlicha bo'ladi. 1) Gapning zamon paradigmasi fe'l zamon paradigmasiga muvofiq keladi. Bu vaqtda gapning uyushtiruvchi bosh bo'lagi fe'l bo'ladi va u gapda o'zining barcha shakllari bilan kela oladi. Men (o'qidim), (o'qiganman), (o'qib edim), (o'qiyotgan edim), (o'qiyapman), (o'qimoqdaman), (o'qiyotirman), (o'qimoqchiman), (o'qiyman) kabi. 2) Gap tuzilishidagi ayrim ishtirokchilar fe'ning faqat ayrim shakllari bilan kelishini taqozo qiladi. Bu vaqtda gap faqat bir zamon shaklida keladi: Hozirgina keldi. 3) Ot kesimli gaplarda kesim zamon shakliga ega bo'lmay, zamon ma'nosi gapning tuzilishi orqali ifodalanadi va hozirgi zamonga taalluqli bo'ladi. Men talabaman. Otam-o'qituvchi. 4) Atov gaplarda zamon gapning umumiy mazmuni orqali ifodalanib, hozirgi zamoni bildiradi. Bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k. 5) Ba'zan predmet, voqea, hodisa ish-harakat qaysi zamonda yuz berishi emas, balki shu harakatning o'zi muhim bo'ladi. Bunda umumzamon ma'nosi ifodalanadi. Umuman hozirgi zamonga to'g'ri keladi: Po'lat – qattiq metall. Qush ham hayvonot dunyosiga kiradi. Chopsa chopilmaydi, ko'msa ko'milmaydi.

Modallik. Predikativlikda modallik kategoriyasi asosiy o'rin to'tadi. Chunki predikativlik gap mundarijasining ob'ektiv borliqqa aloqadorlik, bog'lanish xususiyati bo'lsa, modallik ana shu umumiy munosabatni konkretlashtiradi: gap mundarijasining ob'ektiv borliqqa aloqasi so'zlovchi shaxsning nutq mundarijasiga qarashi bilan aniqlashtiriladi, to'ldiriladi.

Shunga ko'ra modallik a) ob'ektiv va b) sub'ektiv modallikka bo'linadi

Ob'ektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy grammatik ma'nolardan biri, asosiy uzvi hisoblansa, sub'ektiv modallik ob'ektiv modallik ustiga qo'yilgan qo'shimcha modallikdir. U gapda bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun u gapning doimiy uzvi emas. Tilga xos modallik so'zga, iboraga, so'z birikmasiga ham xos bo'lishi mumkin (grammatik, leksik, fonetik vositalar orqali ifodalanadi). Demak, modallik gapning ob'ektiv holat bilan belgilanadigan, shuningdek, ob'ektiv holatdan kelib chiquvchi sub'ektiv munosabat ifodalash xususiyatidir.

Modallik turli vositalar: fe'ning mayl ko'rsatuvchi shakllari; modal so'zlar (Bu, shubhasiz, sening ishing. Ehtimol, kelib qolar); yuklamalar (Nahotki, podachi bormay qolsa. Sen-a?); gapning maxsus tipi (harakat nomi-kerak (zarur, lozim, shart, aniq, gumon kabi so'zlar orqali)); intonatsiya orqali ifodalanadi. Bormaydi! – ishonchli, qat'iy inkor intonatsiyasi. Bormaydi?! – qat'iy tasdiq intonatsiyasi. Albatta, boradi ma'nosida.

13. Intonatsiya gapni, nutqni fonetik jihatdan shakllantiradi, grammatik-fikriy tugallikni ko'rsatadi. Bunday tugullangan intonatsiya gapga xos bo'lib, u so'z birikmasida yo'q. Demak, bu tipdagi intonatsiya so'z birikmasi bilan gapni farqlaydigan belgilardan biridir. Predikatsiya, predikativlik ma'lum darajada shu intonatsiya bilan ifodalanadi. Bir so'zdan iborat Tong tipdagi gaplarda, shuningdek, Shahar-shahar; Qishloq-qishloq tipdagi gaplarda predikativlikning intonatsiya yordami bilan ifodalanishini yaqqol ko'rish mumkin.

14. Gaplarning tasnifi. Gaplar: a)mazmun-maqсадiga; b) tuzilishiga ko'ra tasnif qilinadi. Gaplar tuzilishiga ko'ra dastlab ikki asosiy turga bo'linadi: a)sodda gaplar; b) qo'shma gaplar.

Sodda gaplar grammatik asosi bitta bo'lgan, o'zidan boshqa gaplarga bo'linmaydigan gapdir.

Qo'shma gap ikki yoki undan ortiq grammatik asos (sodda gaplar)larning birikishidan hosil bo'lgan sintaktik qurilmadir. Qo'shma gaplarning grammatik asoslari sodda gaplarga teng kelishi ham, teng kelmasligi ham mumkin.

Sodda gaplarni tuzilishiga ko'ra tasnif qilishda quyidagilarga asoslaniladi:

*grammatik asosning tarkibi yoki bosh bo'laklarning miqdori;

*ikkinchi darajali bo'laklarning ishtiroki;

*sodda gaplarning turli semantik-sintaktik bo'laklar, hodisalar bilan murakkablashgani yoki murakkablashmaganligi;

*zarur bo'laklarning ifodalanishi yoki ifodalanmasligi;

*gap bo'laklariga ajralishi yoki ajralmasligi.

15. Bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra sodda gaplar ikkiga bo'linadi: 1. Ikki bosh bo'lakli gap. 2. Bir bosh bo'lakli gap.

Ikki bosh bo'lakli gap. Egasi ham, kesimi ham mavjud bo'lgan sodda gaplar ikki bosh bo'lakli gap sanaladi. Bunda bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar qatnashishi ham, qatnashmasligi ham mumkin. Masalan: Atrof ko'm-ko'k. Binafshalar ochilgan. Fazoda ko'klam qushlari charx uradi.

Bir bosh bo'lakli gap. Predikativ yadrosi, grammatik markazi bitta bo'lgan sodda gaplar bir bosh bo'lakli sodda gaplardir. Bunda bosh bo'lak yolg'iz o'zi yoki ikkinchi darajali bo'laklar bilan birgalikda predikativ yadroni tashkil etgan bo'lishi mumkin.

16. Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gaplar yig'iq va yoyiq sodda gaplarga bo'linadi.

Yig'iq sodda gaplar faqat bosh bo'laklarning o'zidagina iborat bo'ladi. Yig'iq sodda gapning uch xil ko'rinish bor:

A) ega va kesimning o'zidan tashkil topgan gaplar. Bahor keldi. Otam - o'qituvchi.

B) kesimning o'zidagina tashkil topgan fe'l asosli sodda gaplar: Chekilmasin. Shovqin qilmang.

V) kesimning o'zidagina tashkil topgan ot asosli gaplar:

Tun. Kuz. Urush.

Yoyiq sodda gaplar. Bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etgan gaplar yoyiq sodda gaplar hisoblanadi. Buning asosan uch xil ko'rinish bor: A) ega - to'ldiruvchi (hol)- kesim; B) to'ldiruvchi - (hol)- kesim; V) aniqlovchi - bosh bo'lak: Masalan: Ziyodulla yozishni o'rganyapti. Uy ishini tayyorladim. Qirq birinchi yilning bahori. Sokin tun.

17. Gaplar, ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning ishtirok etish-etmasligiga ko'ra, to'liq gap va to'liqsiz gaplarga bo'linadi.

To'liq gaplarda ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning barchasi ifodalangan bo'ladi. Viloyatimiz poytaxti - ona shahrimiz Guliston kundan-kunga chiroy ochib, tobora ko'rkamlashib boryapti.

To'liqsiz gaplarda ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning ma'lum qismi tushirilgan yoki yashiringan bo'ladi, lekin fikr to'liq bo'ladi. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib - Teatrga bilet oldingmi? - Oldim.

To'liqsiz gap biron bo'lagi etishmagan gap emas, u sodda gapning alohida bir turi. Ma'lum mazmunni ifodalashda qo'llanuvchi stilistik vositadir.

18. Sodda gaplar bo'laklarga ajralish-ajralmasligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) bo'laklarga ajraladigan gaplar;

2) bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.

19. Gaplarning aksariyati o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'lanib bir butunlikni hosil qilgan bir necha lug'aviy birliklardan tashkil topgan sintaktik tuzilmalardir. Bunday qurilmalar hamma vaqt bir necha qismlardan iborat bo'ladi. Ammo gapdagi lug'aviy birliklar va gapning tashkil etuvchilari bir xil hodisa emas. Gapning tashkil etuvchilari uning sintaktik tuzilishini hosil qiluvchi struktur birliklardir.

Gapning sintaktik tuzilishi gapning semantikasini shakllantiruvchi struktura bo'lib, u shu sintaktik semantikaning ifodalanishida muayyan vazifaga ega bo'lgan struktur birliklar-sintaktik shakllarning maqsad- mazmunga muvofiq o'rinishi va bog'lanishidan vujudga keladi.

20. Gap muayyan shakl va mazmunga ega bo'lgan sintaktik butunlikdir. Gap sintaktik butunlik ekan, uning qismlarini sintaktik bo'laklar deyish mumkin. Gapning eng mukammal tipini mujassam etgan gap 8 sintaktik bo'lakdan iborat bo'ladi. Bularning 5 tasi odatdagi gap bo'laklari bo'lsa, 3 tasi odatdagi gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan bo'laklardir. Bular undalma, kirish va kiritmalardir.

*Gap bo'laklari gapning predikativlik ifodalovchi qismini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Gap bo'laklari ma'no-vazifasiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) bosh bo'laklar; 2) ikkinchi darajali bo'laklar.

21. Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini, predikativ yadrosini tashkil etuvchi asosiy bo'laklardir. Bular ega va kesim munosabati yoki kesimning(kesim sostavining) o'zi orqali ifodalanadi. Shu sababli eng kichik gap bir bosh bo'lakli yoki ikki bosh bo'lakli bo'ladi. Bu bosh bo'laklarsiz gap tushunchasini tasavvur qilish qiyin.

22. Gapdagi bu ikki bosh bo'laklardan boshqa elementlar ikkinchi darajali bo'laklardir. Ikkinchi darajali bo'laklar doim bosh bo'laklar bilan sintaktik aloqaga kirishgan bo'ladi. Chunki ikkinchi darajali bo'laklarning vazifasi bosh bo'laklarni aniqlash, ulardan anglashilgan fikrni to'ldirib kelishdir. Ikkinchi darajali bo'laklar o'z funktsiyalariga qarab uchga bo'linadi: to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol.

23. Gap tarkibida gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan ifodalar ham bor. Bular gapga mazmun jihatdan bog'lansa ham, grammatik jihatdan bog'lanmaydi. Shuning uchun ular gap bo'lagi sifatida ajratilmaydi. Bunday ifodalar nutqda gap bo'laklaridan pauza bilan ajralib turadi. Bular tilshunoslikda kirish, undalma va kiritma qurilmalar deb yuritiladigan sintaktik hodisalardir.

24. Ega. Ikki bosh bo'lakli gapning fikr, hukm qarashli bo'lgan shaxs, narsa hodisani bildiruvchi mutlaq hokim bo'lagi ega deyiladi. Ega kim? nima? qer? so'roqlaridan biriga javob bo'lib, bosh kelishik formasida keladi. Ega vaziyati kesimga qarab belgilanadi. Kesimning sub'ekt valentligini to'ldiruvchi va u bilan moslashuv munosabatida bo'luvchi bosh kelishikdagi sintaktik shakl egadir. Shuning uchun ham gap tarkibidagi har qanday bosh kelishikdagi sintaktik shakl ega sanalavermaydi. Faqat kesim bilan tobe munosabatda bo'lgan bosh kelishik shaklidagi grammatik shakliga ega vaziyatida kela oladi va ega hisoblanadi. Bunday talabga javob bermagan boshqa biron bosh kelishikdagi so'z yoki birikma ega hisoblanmaydi.

***Egalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:** sodda va murakkab. Murakkab egalar ikki yoki undan ortiq so'zlarning grammatik-semantik bog'lanishidan hosil bo'ladi. Murakkab eganing ham uch xil ko'rinishi bor: A) ajralmas holdagi erkin birikmali ega: Ishlamay egan og'rimay o'lar. Har daqiqa g'animat. B) bir butun holda qo'llanuvchi bog'lanmalar bilan: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi - 50 yoshda. GDU - g'olib. V) frazeologizm holatidagi murakkab ega: Og'iz ochish boshlandi.

25. Kesim gapning shakllanishida asosiy rol o'ynovchi, biroq grammatik jihatdan egaga tobe bo'lgan bosh bo'lakdir. Kesim eganing umumiy belgisini, ega haqidagi xabarni bildiradi. Shuning uchun kesim predmet, narsa -hodisaning harakati, belgisini bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanadi.

Kesim fe'ldan tashqari sifat, ot, son, olmosh, ravish, modal so'z, harakat nomlari bilan ham ifodalanadi. Bularning barchasi umumlashtirilib ot-kesim doirasiga kiritiladi. Kesim gapning shakllanishi, uyushishida, fikrning yuzaga kelishida egaga nisbatan asosiy rol o'ynaydi. Negaki, gapning grammatik asosi bo'lgan predikativlik ko'proq kesim bilan ifodalanadi. Shuning uchun predikativlikni kesimlik ham deyishadi. Predikativlikning tarkibiy qismlari - sintaktik shaxs, sintaktik zamon, modallikning, tugallangan intonatsiyaning ifodalanishi ham asosan kesimga bog'liqdir. Shuning uchun ko'p hollarda ega tushirib qoldirilsa ham, fikr ifodalanaveradi. Biroq kesimsiz fikrning ifodalanishi, gapning yuzaga kelishi deyarli mumkin emas. Hatto shaklan ega sifatida talqin qilinadigan nominativ - atov gaplar ham moxiyatan kesim mazmuniga egadir. Zero, bular bosh kelishik formasidagi predmetning nomigina emas, uning mavjudligini tasdiqlovchi tugallangan intonatsiyaga ega predikatdir, kesimdir.

***Kesim tuzilish jihatdan sodda va sostavli(murakkab) turga bo'linadi.** 1.Sodda kesimlar bir so'z bilan ifodalanadi: Ko'zlar yumildi, qoshlar chimirildi. Hammaning e'tibori bizda. 2. Sostavli kesimlar ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi: Qishloq ustida kishiga huzur beruvchi tong shabadasi shivirlay boshladi.

26.Gapning bosh bo'laklari ega va kesim odatda moslashgan holatda bo'ladi. Moslashish har xil darajada bo'ladi: 1. Ega va kesim mantiqiy jihatdan ham, grammatik jihatdan ham moslashadi: Universitetimiz talabalari fan sirlarini egallash uchun astoydil o'qimoqdalar. 2. Ega va kesim faqat mantiqiy jihatdan moslashadi: Barcha to'plandi. 3. Ega va kesim forma jihatdan moslashadi.

27.Sifatlovchi.Gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir predmetning boshqasiga qarashlilikini bildirgan bo'lak aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchilar ikki xil bo'ladi. 1. Sifatlovchi-aniqlovchi. 2. Qaratqich - aniqlovchi.

Sifatlovchi - aniqlovchi qanday? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qaerda- gi? qachongi? kabi so'roqlarga javob bo'luvchi aniqlovchidir. Qaratqich aniqlovchi kimning? nimaning? qaerning so'roqlariga javob bo'luvchi aniqlovchidir.

Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo'lib, u predmet yoki shaxsni boshqacha nom berish yo'li bilan aniqlaydi.

Izohlovchilar ko'pincha ot orqali ifodalanishi bilan aniqlovchining boshqa turlaridan farqlanadi.

Izohlovchi izohlagan bo'lak izohlanmish deyiladi.

28.To'ldiruvchi.Gapdagi biror bo'lakning ma'nosini to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan bo'lak to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi ko'pincha kesimga bog'lanadi: Halol mehnat insonni ulug'laydi. Yomonga yondashma, yaxshidan adashma. To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: 1. Vositasiz to'ldiruvchi. 2. Vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakatni o'ziga qabul qilgan, o'z ustiga olgan predmetni bildirib, kimni? nimani? qaerni? so'roqlariga javob bo'ladi

Vositali to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilmagan, lekin uning bajarilishi uchun vosita bo'lgan yoki unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan predmetni bildirib, kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kimda? nimada? kim bilan? nima bilan? kim to'g'risida? nima to'g'risida? kabi so'roqlarga javob bo'ladigan ikkinchi darajali bo'lakdir.

29. Hol. Harakat-holatning bajarilish o'rni, payti, sababi, tarzi, maqsadi va shu kabilarni ko'rsatib, boshqa bo'lakka tobe bo'lgan ikkinchi darajali bo'lak h o l deyiladi. Hollar aksariyat fe'l-kesimga, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh yoki ravish bilan ifodalangan bo'laklarga bog'lanib, ularni biror jihatdan izohlab keladi. Ifodalagan ma'nosiga ko'ra hollar quyidagi turlarga ajratiladi: ravish holi, miqdor-daraja holi, o'rin holi, payt holi, sabab holi, shart holi, to'siqsizlik holi.

30.O'zbek tilida gap bo'laklarining tartibi, asosan, erkin bo'lishiga qaramay, ko'p qo'llanadigan odatdagi tartib bor. Odatdagi tartibda ega avval, kesim gapning oxirida, payt holi egadan avval, to'ldiruvchi egadan keyin, ravish holi kesimdan avval, qaratqich qaralmishdan avval keladi.

O'zbek tilidagi tap bo'laklarining tartibi, asosan, erkin bo'lganligi uchun ularning o'rnini o'zgartirish ko'pincha grammatik holatga ta'sir etmaydi, ya'ni bo'laklarning o'rnini o'zgartirilsa ham, ularning sintaktik vazifasi avvalgicha qolaveradi.

Biroq ba'zan gap bo'laklarining tartibi grammatik holatga ta'sir etishi mumkin. Bu bilan ma'no ham o'zgaradi. Bu hodisa so'zning vazifasi – grammatik funktsiyasi morfologik shakllanishidan bilinmay, tartib bilan tayin etilgan vaqtlarda uchraydi.

*O'rnini bilan gap bo'laklarining odatdagi tartibi o'zgarishi ham mumkin. Bu tilshunoslikda inversiya deyiladi. Inversiya so'zlashuv va she'riy uslubda ko'proq kuzatiladi.

*Odatdagi tartib logik-grammatik, stilistik talab bilan o'zgaradi. Mazmun jihatdan birinchi o'rinda turgan bo'lak, o'z tipik o'rnidan qat'iy nazar, odatda kesimning oldida keladi va logik urg'u oladi, o'zbek tilida logik urg'u tartib bilan zich bog'langandir. Intonatsiya va tartib bo'laklarning mazmun jihatdan ahamiyatini ko'rsatishdagi asosiy vositalardir.

31. Murakkablashgan sodda gaplar. Har qanday sintaktik qurilma singari sodda gaplar ham o'z ichida tuzilishiga ko'ra 2 turga bo'linadi :

1)oddiy sodda gaplar;

2) murakkablashgan sodda gaplar.

Oddiy sodda gaplar bir bosh bo'lakli yoki ikki bosh bo'lakli, yig'iq yoki yoyiq, to'liq yoki to'liqsiz, yoki so'z-gaplarning o'zidan iborat bo'ladi.

***Murakkablashgan sodda gaplar** oddiy sodda gaplarning turli sintaktik shakllar bilan mazmunan va shaklan murakkablashuvi natijasidir.

Sodda gaplarni murakkablashtiruvchi sintaktik hodisalar, asosan, beshta:

- 1) gap bo'laklarining uyushishi;
- 2) gap bo'laklarining ajratilishi;
- 3) undalmalarning qatnashishi;
- 4) kirishlarning qatnashishi;
- 5) kiritmalarning qatnashishi.

Bu hodisalarning voqelanishi natijasida murakkablashgan sodda gaplarning muayyan ko'rinishlari: uyushiq bo'lakli sodda gaplar, ajratilgan bo'lakli sodda gaplar, undalmali sodda gaplar, kirishli sodda gaplar va kiritmali sodda gaplar yuzaga keladi.

***O'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi yordamida bog'langan, bir xil so'roqqa javob bo'lgan, gapda bir xil sintaktik vazifa bajaruvchi bo'laklar tizmasi gapning uyushiq bo'laklari deyiladi.** Gap bo'laklarining barchasi uyushib kela oladi.

Eganing uyushib kelishi: O'tmishda xalkimiz orasidan Beruniy va Navoiy, Ulug'bek va Boburlar etishib chiqqan.

Kesimning uyushib kelishi: U o'rnidan turdi, ammo gapirmadi. **To'ldiruvchining uyushib kelishi:** Men uning jasorati va mardligi, chidam va sadoqatiga qoyil qoldim.

Aniqlovchining uyushib kelishi: Ijodiy ish go'zal, juda ham og'ir va hayron qolarli darajada xursand qiluvchi mehnatdir.

Izohlovchining uyushib kelishi: O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, filologiya fanlari doktori, professor Izzat Sulton – o'zbek adabiyotshunoslarining otaxoni.

Holning uyushib kelishi: Adolat qurqib, kaltirab, jaxl ustida yonib, tez-tez qarardi.

Uyushiq bo'laklarning har biri son, egalik kesimlik affiksleri, ko'makchilar bilan kelishi mumkin. Bunda ularning har biri ta'kidlanadi: Menga ham, senga ham, ukangga ham etadi.

Son, egalik, kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar uyushiq bo'laklarning oxirgisida kelib, ularning hammasi uchun umumiy bo'ladi.

***O'zlari taalluqli bo'lgan gap bo'laklaridan ohang hamda fikran ajratilib, gapda ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan bo'laklar ajratilgan bo'laklar deyiladi.** Ajratilgan bo'laklar fikrni odatdagiga qaraganda kuchli, ifodali, ta'sirli, aniq va yorqin qilib berish uchun qo'llanadi. Buning uchun ajratilgan bo'laklar o'zlari taalluqli bo'lgan bo'laklardan maxsus intonatsiya, pauzalar bilan ajratiladi.

O'zbek tilida bosh bo'laklar ham, ikkinchi darajali bo'laklar ham ajratiladi.

Bosh bo'laklarning ajratilishi izohlash zaruriyati bilan bog'liq. Ajratilgan bosh bo'laklar o'zidan oldin kelgan ega yoki kesimni izohlaydi.

Ajratilgan ega: Keyinchalik biz, aka-uka ikkimiz, texnikaga berildik.

Ajratilgan kesim: Mening tug'ilgan yilim – shu – bir ming to'qqiz yuz sakson birinchi yil.

Ikkinchi darajali bo'laklarning ajratilishi inversiya, izohlash, gap bo'laklarining kengayib kelishi bilan bog'liq.

Aniqlovchilarning ajratilishi: Hech erinmay kuch to'kibdi Ko'kan-*devkor*, O'ylamapti shuncha piyoz kimga darkor. Nargizning ovozigga boshqa gullarning, *qizlarning*, ovozlari kelib qo'shildi. Izohlovchilarning ajratilishi inveresiya hodisasi bilan bog'liq:

Kasb, hunar, amal, unvon kabilarni ifodalovchi izohlovchilar o'z izohlanmishidan keyin keltiriladi. Obid Sodiqov, *O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi*, atoqli olimdir.

To'ldiruvchilarning ajratilishi izohlash va uning yoyiq holda kelishi bilan bog'liq: Bektemirga, *sobiq sodda cho'ponga*, komandirning fikri g'oyat yoqdi. Pul topishning turli yo'llariga kirish bilan, *san'atkorni xor qiluvchi bunday yo'l bilan*, teatrning obro'sini aslo tiklab bo'lmaydi.

Hollarning ajratilishida ham izohlash va ularning yoyiq holda kelishi muhim rol o'ynaydi. Ertasi kechqurun, *soat ettilarda*, kutilmaganda G'ulomjon kirib keldi. Navoiy, *bir qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda*, boshni kamtar engil qimirlatish bilan xalqning tabrigiga samimiy javob berib bordi.

***Nutq qaratilgan shaxs, predmetni bildirgan sintaktik shakl undalma deyiladi.** Undalma, gap bo'laklari bilan bevosita grammatik aloqaga kirishmaydi, chunki u gap bo'laklariga ajratishning bosh mezonini bo'lgan tobelanish talabiga javob bermaydi. Biroq bu undalmaning gap bo'laklariga hech qanday aloqasi yo'q, degani emas.

Undalma gap bo'laklari bilan mazmuniy bog'lanishga egadir. Bu bog'lanish tilshunoslikda introduktiv aloqa deyiladi.

***So'zlovchining gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan sub'ektiv munosabati, qarashini, ba'zan emotsional tuyg'ularini ifodalovchi sintaktik shakllar kirish deyiladi.** Kirish vazifasida so'z turkumidan ajralib chiqib, faqat kirish vazifasida ishlatiladigan so'zlar (morfologiyada ular modal so'zlar deb yuritiladi Masalan: shekilli, albatta, demak, xullas, modomiki, darvoqe kabilar), ma'lum so'z turkumidan ajralib chiqmagan kirish vazifasida ham, gap bo'lagi vazifasida ham qo'llanuvchi so'zlar (qisqasi, rost, ortidan, oxiri kabilar) keladi.

Kirishlar tuzilishiga ko'ra 3 xil: kirish so'zlar, kirish birikmalar, kirish gaplar. Masalan: Ibrohimov, Qurbon ota aytmoqchi(kirish gap), gullarni o'z ilmidan xabardor qildi. Menimcha(kirish so'z), bu gapda kirish so'z qatnashgan. Baxtga qarshi(kirish birikma), bugun dushanba-bozor ishlamaydigan kun.

***Kiritmalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beruvchi ifodalardir.** Bular gap tarkibiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik-semantik jihatdan (grammatik emas) munosabatga kirishadi. Kiritmalar ohang jihatdan mustaqillikka ega bo'ladi. Ular biror so'roqqa javob bo'lmaydi, sintaktik vazifa bajarmaydi, gap bo'lagi yoki qo'shma gapning biror komponenti hisoblanmaydi. Kiritmalar tuzilishiga ko'ra uch tipga bo'linadi: kiritma so'zlar, kiritma birikmalar, kiritma gaplar.

32. Bir bosh bo'lakli gapda fikr shaklan ega yoki kesimni eslatuvchi bitta bosh bo'lak bilan ifodalanadi. Biroq bu bunday gaplarda ega yoki kesimning «tushib qolganligi»ni yoki etishmasligini bildirmaydi (U to'liqsiz gap emas). Bir bosh bo'lakli gap ham ikki bosh bo'lakli gap singari odatdagi, normal hodisadir. Bir bosh bo'lakli gaplar ikki sostavli gapning kesimi yoki egasi tushib qolgan qismi emas. Ular fikrning bir bosh bo'lak orqali ifodalangan mustaqil bir ko'rinishidir. Bu bo'lak qanday ifodalanganidan qat'iy nazar kesimdan yoki kesim sostavidan iborat.

*Bir bosh bo'lakli gaplar mano- vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: a) shaxsi aniq gap; b) shaxsi noaniq gap; v) shaxsi umumlashgan gap; g) shaxssiz gap; d) atov gap.

***Shaxsi aniq gap.** Kesimi harakatni bajaruvchi shaxs-egani aniq ko'rsatib turadigan xususiyatga ega bo'lgan bir bosh bo'lakli gap shaxsi aniq gap deyiladi. Masalan: Borsam, yo'q ekansan. Yaxshi uxlingizmi? Kiring, o'tiring.

***Shaxsi noaniq gap.** Kesimi harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko'rsatib turmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxsi noaniq gap deyiladi. Masalan: Jo'jani kuzda sanaydilar. Uni institutga qabul qilishdi.

***Shaxsi umumlashgan gap.** Umumshaxsga, hammaga qaratilgan ish-harakatni bildiruvchi bir bosh bo'lakli gap shaxsi umumlashgan gap deyiladi. Masalan: Bir yoqadan bosh chiqarib ishlaylik. Avlodlarga ozod va obod Vatan qoldiraylik. Etti o'lchab bir kes. Suyanmang, xavfli.

Bunday gaplarning kesimi shaxsni aniq ko'rsatib tursa ham, bu shaxs mazmunan umumlashgan bo'ladi, chunki undan anglashilgan ish-harakat ko'pchilikka, barcha shaxslarga qaratilgan bo'ladi. Masalan: Bir kun burun sochsang, bir hafta burun o'rsan. Dexqon bo'lsang, shudgor qil. Avval uyla, keyin so'yla. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

***Shaxssiz gap.** Kesimdan anglashilgan ish - harakatning bajaruvchisi - egani topib bo'lmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxssiz gaplar deyiladi. Shaxssiz gapda umuman ega va ega tushunchasi bo'lmaydi, ega faraz ham qilinmaydi. Qiyoslaylik: – Sen sayohatga borasanmi? – Boraman – to'liqsiz gap- ega «men» tushirib qoldirilgan. Bu suvni ichib bo'lmaydi-shaxssiz gap-grammatik jihatdan ham, mazmunan ham shaxsni qo'shib bo'lmaydi.

***Atov gap.** Predmet, voqea-hodisaning mavjudligi to'g'risidagi hukmni bildiruvchi bir bosh bo'lakli gap atov gap deyiladi.

Atov gapda predikativlik maxsus yo'l bilan - gapga xos tugallangan intonatsiya bilan ifodalanadi. Shu sababli aslida lug'aviy yoki nominativ birliklar bo'lgan so'z va so'z birikmalari narsa-hodisalarning atamasigina bo'lib qolmay, balki shu narsa-hodisalarning nutq so'zlanib turgan

momentda mavjudligini tasdiqlovchi, shu haqidagi hukmni bildiruvchi kommunikativ birlik - gapga aylanadi. Masalan: Qirq beshinchi yil. May oyi. G'alaba bayrami ! Amudaryo! Amudaryo deganlari shu ekan-da !

Atov gaplar logik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi: A)mavjudlikni tasdiqlash xarakteridagi atov gaplar: Bahor.Chor atrof ko'm-ko'k libosga burkandi.

B)ham mavjudlikni tasdiqlash,ham ko'rsatish xarakteridagi atov gaplar. Ana samolyot ! Uchishini kara. Mana bizning qishloq.Butun tuman uni biladi. Bu tipdagi atov gaplarda emotsionallik avvalgisiga qaraganda kuchli bo'ladi.

33. So'z-gaplar sodda gaplarning bo'laklarga ajralish-ajralmaligiga ko'ra bir turidir. Sodda gaplar bu jihatdan ikkiga bo'linadi:1)bo'laklarga ajraladigan gaplar.2)bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.

***Bo'laklarga ajraladigan gaplar** bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajraladi. Ikki bosh bo'lakli gaplar va bir bosh bo'lakli gaplarning barcha turlari bo'laklarga ajraladigan gap hisoblanadi.

***Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar bir so'zdan iborat bo'lib**, u yoki bu gap bo'lagiga ajralmaydigan o'ziga xos so'zlardan tashkil topgan predikativ birliklardir. Ularni ega ham, kesim ham yoki ikkinchi darajali bo'lak deb ham deb bo'lmaydi. Chunki ular mazkur gap bo'laklari belgilariga ega emas. Ular garchi bir so'zdan iborat bo'lsa-da, shu holicha fikr ifodalash xususiyatiga ega. Shu sababli ular **so'z – gap** deyiladi. Masalan:– Bugungi majlis bo'ladimi?-Yo'q. Assalomu alaykum, domla. – Alaykum assalom.

Ba'zan to'liqsiz gaplar ham bir so'zdan tashkil topadi. Shuning uchun so'z-gap va to'liqsiz gaplarni bir-biridan farqlash lozim. To'liqsiz gapni hosil qiluvchi so'z ma'lum gap bo'lagi vazifasini bajaradi. So'z-gap gap bo'lagi emas, mustaqil gapning bir tipi, semantik shakllangan gapdir.

Fan bo'yicha chuqur o'rganishni talab qiladigan, shuningdek, o'z echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Til va tafakkur munosabati yangi bosqichda.
2. Ichki nutq va til.
3. Predikativ aloqa, predikativ birikma, predikativ birlik, predikativlik tushunchalarining munosabati.
4. Sintaktik munosabat va sintaktik aloqaning o'zaro munosabati.
5. Bir so'zli sintaktik birliklarda sintaktik munosabat.
6. So'z birikmasining tuzilishiga ko'ra turlari.
7. Fe'lli so'z birikmasi va fe'l predikatli gaplar.
8. Predikativlik va modallik munosabati.
9. Predikativlik va predikat, kesim munosabati.
10. To'liqsiz gaplarda predikativlikning ifodalanishi.
11. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplarda predikativlik qanday bo'ladi?
12. Atov gaplar bosh bo'lagining sintaktik mavqei talqini.
13. To'liqsiz gap va so'z – gap munosabati.
14. Gapning semantik tuzilishi.
15. Gap bo'lagi hisoblanmaydigan sintaktik shakllarning gap bo'laklari bilan aloqasi.
16. Gap bo'lagining yangicha talqini.
17. Ega va sub'ekt munosabati.
18. Eski o'zbek tilida gap bo'laklarining tartibi.
19. Murakkab sodda gap, sodda gaplarning murakkablashuvi, murakkablashgan sodda gap atamalarining tahlili.
20. Uyushiq kesimlar, uyushgan va uyushiq sodda gaplar, bir tipli sodda gaplardan tuzilgan qo'shma gaplarning o'zaro munosabati.
21. Ajratilgan bo'laklar va oborotlar.
22. Kirishlarning sintaktik vazifalari.

23. Bosh bo'laklarning talqini.

INFORMATSION TA'MINOT:

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. I. Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.,1997 y.
2. A.G'ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis, darslik. T. 1987 y.
3. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili(darslik). T., Universitet, 2006.
- 4.R. Sayfullaeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. III.t. T., 2006.
- 5.M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari(Sintaksis). T., 2000 y.
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova.Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari. (Sintaksis). 2001 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. Toshkent, 1988.
- 2.O'zbek tili grammatikasi. T., Fan, 1976.
3. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi.T.,O'qituvchi, 1996.
- 4.A.Hojiev.Lingvistika terminlarining izohli lug'ati.Toshkent,1985 y.
6. Bobokalonov R. O'zbek tilida semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar.ND.T.,2000.

Internet saytlari :

- 1.<http://G'G'ursuG'uzpakG'uzG'msG'btmG'MAXKURS ONAG'TIL 5.DOC>
 2. <http://G'G'ziyoG'edu.uzG'showinfo>.
 3. <http://G'G'www.guldu.uzG'jad.html>.
 4. <http://G'G'www.nuu.uzG'downloadG'dasturlarG'uzbek filologiya>
 5. <http://G'G'karshiG'G'5.connect.uzG'TilshunoslikG'xulosa>.
11. wwwG'pedagogG'uz
 12. w.w.w.ziyo.net

Mundarija	
So'zboshi.....	3
Qo'shma gap va uning asosiy belgilari. Qo'shma gaplarning tasnifi.....	4
Bog'langan qo'shma gap va ularning turlari.....	24
Ergash gapli qo'shma gaplar. Ergash gaplarning tasnifi va tavsifi.....	37
Bog'lovchisiz qo'shma gap va ularning turlari.....	65
Murakkab qo'shma gap va ularning turlari.....	84
O'zga gap va uni ifodalash usullari.....	95
Matn sintaksisi.....	101
Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari va ularni ishlatish tamoyillari.....	111
Tinish belgilarini ishlatilish usullari va o'rinlari.....	125
Uslubiyat va uning o'rganish ob'yektlari. Nutq uslublari,	130
Uslubiyat turlari.....	135
Amaliy mashg'ulot materiallari.....	146
Mustaqil ta'lim bo'yicha materiallar.....	150
Glossariy.....	155
Test savollari.....	160
Adabiyotlar ro'yhati.....	166
Ilovalar:	
Taqdimot va multimediya vositalari.....	
Qo'shimcha didaktik materiallar.....	

ONA TILI VA ADABIYOT (SINTAKSIS) FANIDAN MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

1-mavzu: Qo'shma gap va uning asosiy belgilari. Qo'shma gaplarning tasniifi.

AJRATILGAN VAQT : 4 soat

Reja:

1. Qo'shma gap haqida tushuncha.
2. Qo'shma gapning sodda gap bilan qiyosiy xarakteristikasi.
3. Qo'shma gap qismlarining bog'lanishi.

Tayanch tushuncha va atamalar.

Gapning tuzilishi ,grammatik asos, predikativ birlik, kesimlik kategoriyasi, sodda gap, qo'shma gap, qo'shma gap komponenti, qo'shma gap komponenti, nisbiy tugallangan intonatsiya va tugallangan intonatsiya, mazmuniy va mantiqiy muvofiqlik, mazmuniy va mantiqiy nomuvofiqlik, komponentlarning bog'lanishi, teng va tobe bog'lanish, bog'lovchi vositalar.

1-masala.Qo'shma gap haqida umumiy tushuncha.

Ma'lumki, nutq, matn turli va har xil xarakterdagi katta va kichik gaplardan tashqil topadi. Ular tuzulishiga ko'ra asosan ikki guruhga bo'linadi. Sodda gaplar va qo'shma gaplar. Ayni o'rinda qo'shma gaplar haqida fikr yuritiladi. Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, fikr ifodalash uchun gapning sodda shakli qanday zarur bo'lsa, qo'shma gap formasi ham shunday zarurdir. Boshqacha aytganda, tilda qo'shma gap qolipining mavjudligi sodda gap qolipi kabi nutqning tabiiy talabidir. Shuning uchun biz nutqimizda har ikki gap tipidan ham bab-baravar foydalanaveramiz. Chunki har qaysisi o'z vaqtida va o'z o'rnida darkordir. Bunday paytlarda ulardan birining o'rnini ikkinchisi bosa olmaydi. To'g'ri, qo'shma gap tuzish sodda gapga qaraganda birmuncha murakkab . Biroq bu holat qo'shma gapning qo'llanishiga aslo monelik qilmaydi. Shunday holatlar ham bo'ladi, qo'shma gaplar sodda gaplardan miqdor jihatdan ham ustunlik qiladi. Bunda so'zlovchining fikrlash tarzi, umumiy yo'nalish, vaziyat, maqsad kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Xullas, qo'shma gap deb ataladigan semantik-sintaktik butunlik nutqning sodda gap singari zarur shartidir. Shuning uchun uni o'rganish sintaksisning alohida muhim muammosi hisoblanadi.

Shunday qilib qo'shma gap nima? U nimasi (nimalari) bilan sodda gapdan farq qiladi? Uning asosiy belgi -xususiyatlari nimalardan iborat?

Qo'shma gap tuzish uchun: birinchidan, kamida ikkita sodda gap, predikativ birlik bo'lishi shart. Ikkinchidan, bu sodda gaplar mazmunan va mantiqan munosabatga kirishgan bo'lishi lozim. Har qanday sodda gaplarning yonma - yon qo'yilishidan qo'shma gap yuzaga kelavermaydi. Bu yil yog'ingarchilik juda kam bo'ldi,shuning uchun ekinlar gurkirab o'smoqda. Havo yonayapti,shuning uchun qo'ylar sovuqdan qirilmoqda. Bu sodda gaplar grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan bo'lsa-da, qo'shma gap emas, ularda mazmuniy-mantiqiy muvofiqlik, mutanosiblik yo'q. Uchinchidan, qo'shma gaplar birdan ortiq sodda gaplarning grammatik aloqaga kirishidan, grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishidan tuziladi. Masalan: Borsak, ketgan ekanmiz deb bo'lmaydi- grammatik aloqa buziladi. Borsak, ketgan ekansiz desa, predikativ birliklar grammatik aloqaga kirishadi. To'rtinchidan, yonma-yon kelgan qo'shma gaplar mazmunan bir-biriga bog'langan bo'lsa ham, yaxlit, birlashtiruvchi intonatsion, butunlikka ega bo'lmasa, qo'shma gap shakllanmagan bo'ladi. qiyoslaylik: Havoni bulut qopladi. Yomg'ir yog'a boshladi. Bular alohida olingan sodda gaplardir. Havoni bulut qopladi va yomg'ir yog'a boshladi. Qo'shma gapda - sodda gaplar bir intonatsion - grammatik butunlikka birlashgan. Demak, qo'shma gapning shakllanishida yana bir muhim belgi birlashtiruvchi intonatsiyadir. Yuqoridagilarga asoslangan holda, qo'shma gapga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Ikki va undan ortiq sodda gaplarning mazmun va grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topgan bir butun birlashtiruvchi intonatsiya bilan aytiluvchi sintaktik qurilma qo'shma gap deyiladi.

Muhokama uchun savollar

1.1.1.Qo'shma gapning ta'rifi.

1.1.2. Gaplarning tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linishi.

1.1.3. Qo'shma gap tuzish uchun nimalar zarur?

2-masala. Qo'shma gapning sodda gap bilan qiyosiy xarakteristikasi.

Sodda gap qo'shma gap bilan tashqi gaplik formasi, ichki-kommunikativ vazifa bajarishi, tugallangan intonatsiyaga egaligi kabi umumlashtiruvchi xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga, unda quyidagi farqlovchi belgilar ham mavjud: Tuzilish belgisi. Qo'shma gap birdan ortiq predikativ qo'shilmalardan (soddaa gaplardan) tuziladi. Sodda gap bitta predikativ yadro, bitta predikativ qo'shilmadan tashkil topadi. Masalan. ***Borsak, yo'q ekansiz, hamma tarkalib ketdi.*** Ushbu gapda uchta predikativ yadro borligidan murakkab qo'shma gap sanaladi. ***Vodiylarni yayov kezganda bir ajiyu his bor edi menda*** hajman avvalgi gapdan katta bo'lsa ham, bitta predikativ markaz borligidan qo'shma gap hisoblanadi. Material jihatidan. Qo'shma gapning materiali, uni tashkil etuvchi komponentlar sodda gaplardir. Sodda gapning materiali esa gap bo'laklaridir. Masalan, ***Qalin qor yoqqan bo'lsa-da, havo sovuq emas*** gapi qo'shma gap bo'lib ikki gapdan; ***Ko'kda quyosh porlaydi*** gapi esa sodda gap bo'lib, uch gap bo'lagidan iborat. Mazmuniy belgi. Qo'shma gapda birdan ortiq hukm-xabar ifodalanadi. Sodda gapda voqelikka yoki bir sub'ektning belgi-xususiyatiga doir bir hukm, xabar beriladi. Masalan, Gulsumbibi qizini quchoqlab qichqirdi, lekin uning yarim ochiq ko'zlarida hayot so'nggan edi. Hech kim, hech narsa unutilmaydi. Birinchisida birdan ortiq hukm xabar ifodalangan bo'lsa, ikkinchisida bir hukm, xabar berilgan.

Qo'shma gapning qismlari: 1) o'zida predikativlikni aks ettirishi. 2) nisbiy tugallangan fikr ifodalashi 3) intonatsiya jihatdan yarim mustaqillikka egaligi bilan gap hisoblansa-da, ular alohida olingan sodda gaplardan farq qiladi.

Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar shuning uchun ham alohida olingan sodda gaplarday mustaqil emaski, ular qo'shma gap doirasida boshqa gaplar bilan bog'langan holda harakat qiladi. Demak, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuni va grammatik hamda intonatsion xususiyatlari shu butunlikning umumiy mazmunini belgilaydi. Masalan, Kelin-kuyovlar keldi. Boshlanglar! (ikkita alohida olingan sodda gap). Kelin-kuyovlar keldi, boshlanglar qo'shilmasida esa, Kelin-kuyovlar keldi gapi keyingi gap bilan munosabatga kirishganligidan oldingi mustaqilligini yo'qotgan va nisbiy tugallangan fikr va intonatsiyaga ega bo'lib qolgan. O'zbek tilida bir qarashda qo'shma gapga o'xshab ketadigan, biroq aslida sodda gap hisoblangan quyidagi kabi sintaktik butunliklar ham mavjud.

1. Tarkibida fe'ning ravishdosh shakli hokim bo'lgan sintaktik o'ramli qurilmalar: *Ikromjon cholga yaqinlashgach*, unga ehtirom bilan qo'l uzatdi. Eshik qiya ochilib, fakultet dekanining yaltiroq boshi ko'rindi.

2. Tarkibida fe'ning sifatdosh shakli hokim bo'lgan sintaktik o'ramli qurilmalar: *Vodiylarni yayov kezganda*, bir ajiy his bor edi menda.

3. Tarkibida fe'ning harakt nomi hokim bo'lgan sintaktik o'ramli qurilmalar: *Dadang kelishi bilan* menga qo'ng'iroq qilinglar.

Bu kabi sintaktik butunliklar hozir qo'shma gap hisoblanmaydi, demak, sodda gaplardir. Chunki ulardagi sintaktik o'ramlarning hokim bo'lagi kesimlik kategoriyasiga ega emas. Boshqacha aytganda, ularning hokimi sof fe'l shakli bilan ifodalanmagan.

Biroq egasi mazmunan umumiy bo'lgan quyidagi sintaktik butunliklarni qo'shma gap hisoblash lozim:

1. Bir egaga tobelanib keladigan uyushiq kesimli gaplar: Bunda uyushiq kesimlar ba'zan bir xil, ba'zan har xil shakllangan bo'lishi mumkin. Men ularning har biriga navbat bilan suv ichirardim, chivinlarni elpig'ich bilan quvardim, boshqa ishlariga ham qo'limdan kelganicha yordam berardim. She'rni yaxshi o'qidingiz, lekin bu bilan shoirni nima demoqchi ekanligini tushuntirib bera olmadingiz.

2. Hokimi fe'ning shart mayli shakli bilan ifodalangan murakkab tarkibli quyidagi kabi sintaktik qurilmalar: Mabodo bir ishdan keyin shunda bir pas cho'zilib, bir chimdim uxlab olsang, kuchga to'lib, yayrab qolasan.

3. Ikkinchi qismida ega *u, o'zi* olmoshlari ega bo'lib kelgan murakkab sintaktik qurilmalar: Munchoq emas vijdon, u-gavhar. Komilani o'tirishga taklif etdi va o'zi mehmonlar bilan suhbat boshladi.

4. Har ikki qismida bir xil ega takrorlangan sintaktik konstruksiyalar: Yo'lchi uchun bu qiz endi begona emas, u Yormatning qizi, u yaqin.

Muhokama uchun savollar

2.1.1. Tuzilish belgisiga ko'ra qo'shma gap sodda gapdan nimasi bilan farqlanadi?

2.1.2. Materiliga ko'ra qo'shma va sodda gaplarning tavsifi.

2.2.2. Qo'shma gap va sodda gapning mazmuniga ko'ra farqlari.

3-masala: Qo'shma gap qismlarining bog'lanishi.

Qo'shma gap ma'lum vositalar bilan o'zaro bog'langan gaplar, predikativ birliklar qo'shilmasidan tashkil topgan sintaktik butunlikdir. Ma'lum fikr-mazmunni ifodalashda xizmat qilgan gaplar Qo'shma gap doirasida o'zaro turli vositalar yordamida birikkan bo'ladi. Bu vositalarni umumiy va farqli xususiyatlariga ko'ra to'rt guruhga bo'lish mumkin.

1. Grammatik vositalar. Bunday vositalarga tilda mavjudligi grammatik ma'no-vazifa bajarish bilan shartlangan yordamchi so'zlar va qo'shimchalar kiradi. Ma'lumki, bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar, kelishik qo'shimchalari ana shunday grammatik vositalardir.

Grammatik vositalar bog'langan qo'shma gap va ergash gapli qo'shma gap larni hosil qilishda faol qatnashadi. Masalan: Siz yashirdingiz, ammo men yashirmayman. Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi. Birinchi qor yoqqan kezlarda, chittakni tutish uchun tuzoq qo'yar edim.

2. Leksik-grammatik vositalar. Qo'shma gap qismlarini bog'lashda xizmat qiladigan leksik-grammatik vositalarga asosan, fe'lning shart mayli shakli kiradi. Bunda shart mayli shaklining ma'noviy vazifadan tashqari bog'lovchilik (grammatik) vazifasida ham kelishi ko'proq ko'zga tashlanadi. Masalan: *Kim birovg'a chuqur qazisa, unga o'zi tushadi.*

Bu xil leksik-grammatik vositalar ergash gapli qo'shma gap larning hosil bo'lishida faol qatnashadi. Ular deyarli barcha turdagi ergash gaplarning kesimi vazifasida kelib, ularni bosh gapga bog'lashda ishtirok etadi. Bunda ular yuklama olgan bo'lishi ham mumkin.

3. Leksik vositalar. Ayrim leksik vositalar qo'shma gapning yuzaga kelishida, ular qismlarining o'zaro mazmun munosabatiga kirishishida muhim vositachilik rolini o'ynaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, leksik vositalar qo'shma gapning hamma turida uchraydi. Ammo qo'shma gapni tuzishda grammatik va leksik-grammatik vositalar qo'llangan o'rinlarda leksik vositalarning roli susayadi. Aksincha, ohang yordamida hosil bo'lgan qo'shma gaplar komponentlarining bog'lanishida leksik vositalar ham muhim rol o'ynaydi. Ular intonatsiya bilan birga bog'lovchisiz qo'shma gap larni hosil qiluvchi asosiy vositadir. Qo'shma gap qismlarining bog'lanishida faol katnashadigan maxsus leksik vositalar asosan quyidagilardir: ya'ni, umuman, bir so'z bilan, boshqacha aytganda, shu bilan birga, to'g'rirog'i, shunga qaramay, aksincha, aks holda, birinchidan, ikkinchidan, avvalo, qolaversa, uningcha, baxtga qarshi, bundan tashqari kabi kirish bo'lak, kirish birikmalar shular jumlasidandir. Masalan: Lekin bu narsa Qalandarovning taftini bosa olmadi, aksincha, yuragiga o't yoqildi. Xurinisho ikki yoklama qayg'uga qoldi. Bulardan tashqari, shekilli, natijada, buning natijasida, nihoyat, shundan keyin, shundan buyon, shunda, unda, shu, u, shunday kabilar ham qo'shma gap qismlarini bog'lovchi leksik vosita vazifasini ham o'taydi. Misollar: Otasi o'lganiga o'n besh yil bo'ldi - shundan beri har qanaqa ishni yig'ishtirib quygan. Shunday ayollar bo'ladi, ular ishqni e'tiqod kabi muqaddas tutadilar.

3. Gap bo'laklarining takrorlanishi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplardagi bir xil gap bo'lagi takrorlanib, ularni mazmunan birlashtirib, munosabatga kirishishga xizmat qiladi.

Takrorlangan bo'laklar har ikki gapda bir xil yoki turli vazifada bo'lishi mumkin. Bir xil vazifada takrorlanganda, shu bo'lakning bir xil vazifasi va mazmuni ta'kidlanadi.

Agar takrorlanuvchi gap bo'laklari turli vazifada bo'lsa, izohlash yoki qiyoslash munosabati ifodalanadi. Masalan: Mening domlam yo'q, domlam ikki ko'zim. Vaqting ketdi- baxting ketdi.

Ba'zan takrorlangan bo'lak ifodalanmasligi mumkin, lekin bu kontekstdan bilinib turadi. Masalan: Do'st achitib gapirar, dushman kuldirib.

4. Umumiy va ikkinchi darajali bo'laklarning bo'lishi. Qo'shma gap qismlarining tarkibidagi ikkinchi darajali bo'laklardan biri barcha qismlarga tegishli bo'lishi mumkin. Bunday umumiy ikkinchi darajali bo'laklar qo'shma gap tarkibidagi gaplarni jips bog'laydi, shu asosda ixcham qo'shma gap qurilmalari vujudga keladi.

Gapning har qanday ikkinchi darajali bo'lagi umumiy bo'lib kelishi mumkin. Masalan: Uning kichik qisq ko'zlari yomon yondi, qalin lablari titrab ketdi.

Odatda, umumiy ikkinchi darajali bo'lak qo'shma gap tarkibidagi birinchi gapning tarkibida keladi.

Qo'shma gap tarkibida ega ham umumlashgan holda kelishi mumkin. Bunda bir predmet-shaxsning turlicha harakat-holati, xususiyati haqida sof fe'l yoki ot-kesim orqali bir necha hukm bildiriladi, bunday hukmlar esa qo'shma gap hisoblanadi.

Umumiylik ikkinchi darajali bo'laklargagina emas, kesim tarkibidagi yordamchi elementlarga yoki to'liqsiz fe'lga taalluqli bo'lishi mumkin. Bundan ko'pincha bir-biri bilan jips bog'langan bog'lovchisiz qo'shma gap lar vujudga keladi: Bostirmada chiroq paslatilgan, kimdir allaqachon xurрак otar edi.

5.Ohang va o'rin. Qo'shma gap qismlarining bog'lanishida intonatsion vosita – ohang, gaplarning o'rinishi ham alohida ahamiyat kasb etishi mumkin.

Ohang, xususan, Qo'shma gaplarni biriktirib, bog'lovchisiz qo'shma gap hosil qilishda katta rol o'ynaydi. Masalan: qushlar keldi. Ko'klam keldi gaplari shu holda ikkita sodda gapdir. Biroq ularni intonatsiyani o'zgartirib, birlashtiruvchi ohang bilan qushlar keldi - ko'klam keldi tarzida talaffuz qilsak, bog'lovchisiz qo'shma gap hosil bo'ladi. Demak, intonatsiya ham ajratuvchilik (birinchi holda), ham bog'lovchilik vazifasini o'tayapti (keyingi holda).

Ohang bog'lovchisiz qo'shma gap larning turli tipini hosil qilishda, intonatsion ajratishda ham muhim rol uynaydi: Paxta ochildi, uni terib olish kerak. Bu erda paxta ochilganligi va uni terib olish kerakligi (payt munosabati) ifodalangan. Paxta ochildi, uni terib olish kerak. Bu holda sabab munosabati ifodalangan. Paxta ochilgan, shuning uchun uni terib olish kerak. Gaplarni biriktiruvchi grammatik vositalar va leksik vositalar qancha kam bo'lsa, yoki bo'lmasa, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan shuncha zich bog'lanadi, ohangning roli shunchalik ortadi. Ohang bog'lovchisiz qo'shma gap lardagina emas, har qanday qo'shma gaplarda ham ularning qismlarini bog'lovchi vositalaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda u universal vositadir. Bog'lovchisiz qo'shma gap larda esa u asosiy bog'lovchi vositalardan biriga aylanadi. Qo'shma gaplarning birikishi va qo'shma gaplarning hosil bo'lishida ularning har birining tartibi ham o'ziga xos rol o'ynaydi. Shu tartib, o'ringa muvofiq ma'lum maqsad- fikrni ifodalaydi. O'rin- tartibni o'zgartirish shu qo'shma gapning bo'zilishiga sabab bo'lishi mumkin. ***O'n minutcha ham vaqt o'tmagan edi, maydonning oldida biz kutgan odam ko'rindi*** - bu qo'shma gap. Undagi gaplarning tartibini o'zgartirib ***Biz kutgan odam ko'rindi. O'n minutcha ham vaqt o'tmagan edi*** tarzida ifodalasak, ikkita alohida sodda gap hosil bo'ladi. Qismlarning o'rnini o'zgartirish bilan bir mazmunli qo'shma gap ikkinchi bir mazmunli qo'shma gapga aylanishi mumkin: Suv keldi - nur keldi-Nur keldi - suv keldi. Sen kelding - yasandi dunyo. Yasandi dunyo-sen kelding. Ayon bo'ladiki, sodda gaplar, predikativ birliklarning bog'lanib, qo'shma gaplarning hosil bo'lishida fonetik -intonatsion vositalardan tortib, leksik-grammatik, leksik, pozitsion vositalargacha qatnashadi.

Muhokama uchun savollar

3.1.1.Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi grammatik vositalar qaysilar?

3.1.2.Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi leksik-grammatik vositalar deganda nimalar nazarda tutiladi?

3.1.3.Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi leksik vositalarga nimalar kiradi?

3.2.1.Gap bo'lagining takrorlanishi qanday vazifalarni bajaradi?

3.2.2.Umumiy ikkinchi darajali bo'laklarning bo'lishi qo'shma gaplarda qanday vazifa o'taydi?

3.2.3..Qo'shma gapni hosil qilishda yana qanday vositalar qatnashadi?

3.2.4.Qo'shma gap turlarining hosil bo'lishida intonatsiyaning roli.

1 - masala bayoni:

Har qanday sintaktik qurilma singari qo'shma gap ham shakliy tuzilish, material belgi va mazmuniy -ma'noviy munosabat belgisiga ega. Birinchi holda qo'shma gapning hajmiga, murakkabligiga, uni tashkil etgan qismlarning miqdoriga e'tibor berilsa, ikkinchi holda qismlarning sintaktik mavqei, mazmuniy munosabati, bog'lanishi asosiy rol o'ynaydi. Qo'shma gaplarni tasnif qilishda u yoki bu turga ajratishda ularning ana shu belgi xususiyatlari asos, mezon bo'lib xizmat qiladi.

Jadval 30 **Qo'shma gap qismlarining miqdoriga ko'ra turlari**

Oddiy qo'shma gap	murakkab qo'shma gap
Bog'langan qo'shma gap Ergash(gapli)gan qo'shma gap Bog'lovchisiz qo'shma gap	Qo'shma period.(Bir tipli qo'shma gaplardan hosil bo'ladi.) A)bog'lanish yo'li bilan; B) ergashish yo'li bilan; V) bog'lovchisiz Murakkab period. (Turli tip (yoki aralash) qo'shma gaplardan hosil bo'ladi). A) bir butunlikdan; B)ikki butunlikdan; V) uch va undan ortiq butunlikdan.

Shu jihatdan qaraganda mavjud darsliklarda qo'shma gaplar quyidagi turlarga ajratilganligini ko'rish mumkin,:

- 1.Ikki komponentli qo'shma gaplar.
- 2.Ko'p komponentli qo'shma gaplar.
3. murakkab qo'shma gaplar.
- 4.Bog'lovchili qo'shma gaplar.
- 5.Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.
- 6.Bog'langan qo'shma gaplar.
- 7.Ergash gapli qo'shma gaplar.
- 8.Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

1-2-3-tur qo'shma gaplarning tuzilishi, material belgisiga ko'ra tasnifdir. 4-5-turda qo'shma gap qismlarini bog'lashda bog'lovchilarning ishtiroki yoki ishtirok etmasligiga asoslanilgan.6-7-8-turda esa komponentlarning ma'lum mazmun munosabatlari, bog'lanishi, grammatik belgilari, tuzilishi va ohangi hisobga olingan. Demak, qo'shma gaplar uch nuqtai nazardan, uch xil mezon asosida tasnif qilingan.

- 1.Tuzilishiga ko'ra.
- 2.Komponentlarni bog'lovchi vositalariga ko'ra.
- 3.Komponentlarning mazmun - munosabatiga ko'ra.

Biroq ushbu belgilar asosida tasnif qilishda hamma vakt izchillikka e'tibor berilgan deb bo'lmaydi. Jumladan, darsliklarda ikki komponentli, ko'p komponentli qo'shma gaplar qayd etilgan bo'lsa-da, bu holat qo'shma gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari tarzida berilmagan. Vaholanki, qo'shma gap sodda gap singari mustaqil sintaktik butunlik va bu hamma tomondan tan olingan ekan, qo'shma gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari alohida rubrika ostida berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. To'g'ri, tasnifni ikki komponentli va ko'p komponentli deb berish, albatta, shart emasdir. Biroq qo'shma gaplar tuzilishiga ko'ra turlarga ajratilib berilishi va bu alohida masala sifatida talqin etilishi mantiqan zarur. Shunday yo'l tutilmaganligi sababli darsliklarda faqat murakkab qo'shma gaplar haqida fikr yuritilgani holda, unga muqobil bo'lgan oddiy (ikki komponentli) qo'shma gaplar tur sifatida alohida berilmagan. Bu boradagi izchillik ta'minlanadigan bo'lsa, qo'shma gaplarni tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab qo'shma gaplar tarzida ikkiga bo'lishi ham mumkin. O'zbek tilshunosligida keng tarqalgan tasnif: bog'langan qo'shma gap ; ergashgan (ergash gapli) qo'shma gap; bog'lovchisiz qo'shma gap ham til birliklarini tasniflash talabiga to'la javob beradi, deb bo'lmaydi: avvalo, bu tasnif tadqiqotchilarning o'zlari aytganidek, ikki komponentli, ya'ni sodda qo'shma gaplar asosida amalga oshirilgan. Binobarin, u qo'shma gaplarning to'laqonli umumiy tasnifi bo'la olmaydi. Chunki bu erda xususan, aralash aloqali qo'shma gaplar tasnif doirasiga kirmay qolgan. Ikkinchidan, mazkur tasnif har uch turga taalluqli bir xil mezon ega emas. Bog'langan qo'shma gap da komponentlarning bog'lovchilar bilan bog'langanligi (aslida bu ham nomlanishda aks etmagan, bog'langanlik bog'lovchilarni nazarda tutmaydi) asosga olingan bo'lsa, ergashgan qo'shma gap komponentlarining o'zaro mazmun-munosabati hisobga olingan, uchinchi holda leksik-grammatik bog'lovchilarning ishtirok etishi yoki etmasligi asos bo'lib xizmat qilgan. 1- va 3- mezon shartli ravishda birlashtirilgan taqdirda ham tasnif ikki xil mezon asosida amalga oshirilganligi ayon bo'ladi. Vaholanki, tasnif mezoni tasnif doirasidagi barcha tiplarga aloqador bo'lishi, barcha tiplar ana shu mezon orqali baholanishi kerak.

Shu jihatdan qaraganda, qo'shma gaplarni bog'lovchili va bog'lovchisiz turlarga ajratgan tasnif birmuncha muvaffaqiyatliroq deyish mumkin. Chunki bu mezon tavsiflarning bir talabiga-umumiylig, barchaga taalluqlilik xususiyatiga javob beradi. Biroq mezon shu bilan birga, predmet-hodisalardagi muhim, asosiy, turlik belgisini mujassam eta olishi lozim. Mazkur mezon, bizningcha, ana shu jihatdan bir oz talabga javob bermaydi. Chunki bir qator qo'shma gaplar bog'lovchili va bog'lovchisizlik mezoniga ko'ra alohida turni tashkil etmaydi. Bu xususiyat ularni ikki turga ajratish uchun etarli bo'lmaydi. qolaversa, bog'lovchi tor ma'noda teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarni nazarda tutadi. Vaholanki, bog'lovchi vositalar bundan ko'pdir. Demak, mezonni o'zgartirish yoki ulardan birini asosiy qilib olish kerak. Bunday mezonlik vazifasini qo'shma gapning qaysi xususiyati bajara oladi? Olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qo'shma gap komponentlarining o'zaro sintaktik munosabati yoki sintaktik aloqasi ana shunday mezon bo'lib xizmat qila oladi. Sintaktik aloqa sintaktik munosabatga qaraganda kengroq ifodalanish xususiyatiga ega bo'lganligi sababli komponentlarning sintaktik aloqasi asosiy mezon qilib olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Gap shundaki, qo'shma gaplarning ayrim turlarida sintaktik munosabat, sintaktik aloqa haqida gapirish qiyin. (masalan so'z-gap, bir so'zli atov, infinitiv gaplarda) biroq qo'shma gaplarning biron turi sintaktik aloqadan chetda emas, chunki ular ayni shu sintaktik munosabat-alloqa tufayli yuzaga kelgan hodisalardir.

Shu mezonga ko'ra qo'shma gaplarni uch turga bo'lish mumkin:

1. Teng tarkibli(aloqali) qo'shma gaplar.
2. Tobe tarkibli (aloqali) qo'shma gaplar.
3. Aralash tarkibli(aloqali) qo'shma gaplar.

Keyingi yillarda o'rtaga tashlanayotgan va mustahkam ilmiy asoslarga ega tasniflar, bizningcha, mana shudir. Biroq bu tasnif hali boshlang'ich ta'lim darsliklardan o'rin olmagan, shu sababli biz an'anaviy tasnif asosida ish ko'ramiz. Ya'ni qo'shma gaplarni bog'langan, ergash gapli va bog'lovchisiz qo'shma gap lar tarzida o'rganamiz.

Muhokama uchun savollar

- 1.1.1. Qo'shma gaplar qaysi jihatlariga ko'ra turlarga ajratiladi?
- 1.1.2. Qo'shma gaplar tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?
- 1.2.1. Bog'lovchili va bog'lovchisiz qo'shma gap lar nimasiga ko'ra shunday tasnif qilingan?
- 1.2.2. Tasnifiy mezon , asos, nuqtai nazar qanday bo'lishi kerak?
- 1.2.3. Nima uchun bog'lovchilarning ishtiroki yoki ishtirok etmasligi asosiy mezon bo'la olmaydi?
- 1.2.4. Mavjud tasniflarning kamchiliklarini ko'rsatib bering.

Tavsiya qilinadigan asosiy adabiyotlar

1. Hamroev M. va b. Ona tili. T., 2007.
2. A. G'ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T. 1987.
3. G' Abduraxmonov va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. T. 1999.
3. Sh. Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2006.
4. R. Sayfullaeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. A. Hojiev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002.
2. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992 y.
3. A. Nurmanov, R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. T., 1993.
4. A. Nurmonov. Gap haqida sintaktik nazariyalar. T., 1988.

2-mavzu: Bog'langan(teng tarkibli) qo'shma gap. Bog'langan qo'shma gap qismlari (komponentlari) orasida tinish belgilarining ishlatilishi. Bog'langan qo'shma gapning turlari

Ajratilgan vaqt : 4 soat

Reja:

1. Teng tarkibli (bog'langan) qo'shma gap haqida tushuncha.
2. Bog'langan qo'shma gapning tasnifi: biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.
3. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap .

4. Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap .
 5. Na inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gap .

Tayanich tushuncha va atamalar.

Bog'langan(teng tarkibli) qo'shma gap. Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap. qiyoslov munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gap. Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar. Biriktiruvchi, zidlov, ayiruv, qiyoslash va izohlash, sabab- natija, payt ma'no-munosabati.

1 - masala. Bog'langan (teng tarkibli) qo'shma gap.

Qo'shma gap qismlarining o'zaro mazmun-munosabati, strukturasi va birikish yo'llari xilma xildir. Shularni hisobga olganda, qo'shma gaplar uch turga bo'lib o'rganiladi.

1. Bog'langan qo'shma gap
2. Ergash gapli qo'shma gap .
3. Bog'lovchisiz qo'shma gap .

Bog'langan qo'shma gaplar biriktiruv, ayiruv, zidlov va chog'ishtirish munosabatini ifodalovchi sintaktik komponentlarning teng bog'lovchilar yordamida birikishidan tashkil topadi. Bog'langan qo'shma gap ning qismlari tenglanish yo'li bilan bog'langan bo'ladi. Ularning har biri grammatik jihatdan mustaqil sodda gap kabi shakllangan bo'ladi.

Ergash gapli qo'shma gap ning qismlari tobelanish (ergashish) yo'li bilan birikkan bo'ladi. Shuning uchun ham bu turdagi qo'shma gap komponentlarining bir-biriga bog'liqligi birining ikkinchisiga aloqadorligi, bog'langan qo'shma gap ga nisbatan kuchli bo'ladi. Hatto shunday ergash gapli qo'shma gap lar borki, ularni tashkil qilgan sodda gaplardan birining mazmunini ikkinchisiz anglash qiyin bo'ladi: Ko'z qacarda bo'lsa, mehr o'sha erda bo'ladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari o'zaro intonatsiya (ohang yordamida) birikadi. Bu turdagi qo'shma gaplarning bir tipida komponentlarning o'zaro bog'liqligi bog'langan qo'shma gap dagi singari kuchsiz bo'ladi, boshqa tipida esa komponentlar o'zaro zich aloqador, biri ikkinchisining bo'lishini taqozo qiladigan darajada bo'ladi. qiyoslang: Nihoyat, Pavel o'rnidan turdi, hamma yoqni jimjitlik bosdi. Qo'shning tinch-sen tinch.

Qo'shma gapning qismlari bog'lovchisiz birikkanda, ularning mazmun va sintaktik jihatdan qanday ekanligi - bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gap ekanligi intonatsiya orqali aniq sezilib turadi.

Xullas, o'zbek tilida qo'shma gaplar mazmun munosabatlari, grammatik belgilari, tuzilish va intonatsiyasiga ko'ra ana shu uch turga bo'lib o'rganiladi. Endi har bir turning leksik-grammatik, semantik-sintaktik xususiyatlariga e'tibor bermaylik.

Bog'langan qo'shma gap .

Ikki yoki undan ortiq, biri ikkinchisiga tobe bo'lmagan, teng huquqli sodda gaplarning teng bog'lovchilar va shu vazifadagi yuklamalar yordamida birikuvidan yuzaga kelgan qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gap lar deyiladi. Bunday qo'shma gap qismlarining bir-biriga bog'liqligi ularning tuzilishida, kesimlarining ma'no va grammatik munosabatida, umumiy gap bo'laklarining mavjudligida ham ko'rinadi.

1. Bog'langan qo'shma gap komponentlari o'zaro va, ham, hamda kabi teng bog'lovchilar va shu vazifadagi -u (-yu), -da yuklamalari orqali birikadi. Masalan: Shu onda chiroq sharaqlaganicha erga tushib, chilparchin bo'ldi. Abayning rangi uchdi-yu, ko'zlari oq shohi cho'qqilarga tikilganicha qoldi: Pushkin esiga tushdi. Ba'zi bog'langan qo'shma gap komponentlari **bo'lsa, esa** yordamchilari orqali bog'lanadi. *Kozimbek qilmishidan xijolat, Saida esa undan biron og'iz so'z kutar edi.*

Bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro aloqasi orqali boshqaruv, qiyoslash, sabab-natija, ayiruv kabi mazmun munosabatlari ifodalanadi va ularni turlarga ajratishda ham ana shular hisobga olinadi.

Jadval 40

Oddiy qo'shma gap turlari

Bog'lanish yo'llariga ko'ra	Mazmun munosabati
Bog'langan qo'shma gap	Teng aloqada bo'ladi. Biriktiruvchi, zidlov, ayiruv, qiyoslash va izohlash, sabab- natija, payt munosabatlarini ifodalaydi.
Ergash gapli qo'shma gap	Bosh gapga nisbatan ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, ravish, o'rin, payt, sabab, maqsad, miqdor, shart, to'siqsizlik,

	o'xshatish, chog'ishtirish, natija munosabatlarini ifodalaydi.
Bog'lovchisiz (faqat ohang orqali bog'langan) qo'shma gap	Biriktiruv, zidlov, payt, shart, to'siqsizlik, natija, sabab, o'xshatish, izohlash munosabatlarini ifodalaydi

Muhokama uchun savollar

- 2.1.1. Bog'langan qo'shma gap lar qanday gaplardan tashkil topadi?
- 2.2.1. Bog'langan qo'shma gap deb nimaga aytiladi?
- 2.2.2. Bog'langan qo'shma gap qismlari o'zaro qanday vositalar orqali bog'lanadi?
- 2.2.3. Bog'langan qo'shma gap da qanday voqea-hodisalar ifodalanadi?
- 2.2.4. Bog'langan Qo'shma gaplar qanday turlarga bo'linadi?

2-masala. Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap .

Biriktiruv bog'lovchili qo'shma gap larning qismlari ma'lum bir paytda yoki ketma-ket ro'y bergan voqea-hodisa, harakatlarni bildirib keladi va va, ham, hamda, bo'lsa, esa yordamchilari, yuklamalar yordamida bog'lanadi. Masalan: Kampirning hayajonli tovushi chor devorlardan osha ketdi va bu xushxabar bir zumda hammaga eshitildi.

Bu misolda qo'shma gap qismlari parallel harakat-holatni ifodalaydi. Umumiy bir fikrning elementlari sanaladi. Biriktiruv munosabatiga kirishgan Qo'shma gaplarning qismlari ko'pincha mazmunan o'zaro jips bog'lanadi. Birining mazmuni ikkinchisiga bog'liq bo'ladi. Turli mazmun ottenkalari, emotsional ma'nolar ifodalanadi.

Biriktiruv munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda qanday qo'shimcha mazmun ottenkasi ifodalanmasin, qo'shma gap qismlaridan anglashilgan harakat, holat, xususiyat bir paytda ruy beradi.

Shunga ko'ra biriktiruv munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gap lar ikki gruppaga bo'linadi:

1. Harakat-holat yoki belgilarning bir paytda ro'y berishini ko'rsatuvchi bog'langan qo'shma gap lar.
2. Harakat-holat yoki belgilarning ketma-ket ro'y berishini ko'rsatuvchi bog'langan qo'shma gap lar.

Bir paytda ro'y beruvchi harakat-holat yoki belgi-xususiyatlarni ifodalagan qo'shma gaplar quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

1) ularning kesimlari aksariyat bir xil zamon shaklida bo'ladi: Abayning rangi uchdi-yu, ko'zlari oq shohi cho'qqilarga tikilganicha qoldi: Pushkin esiga tushdi.

2) Qo'shma gapning ikkinchi qismida bir paytlik ma'nosini yanada bo'rttirish uchun shu payt, xuddi shunda, shu vaktida, bunda kabi leksik elementlar qo'llaniladi: Harakat-holat yoki belgilarning ketma-ket ruy berishini ko'rsatuvchi bog'langan qo'shma gap larda odatda birinchi qismdan anglashilgan ish-harakat oldin, ikkinchi gapdan anglashilgan ish-harakat esa keyin ro'y beradi. *Shu payt to'satdan ko'cha eshigi sharaqlab ochildi-yu, Zununxuja halloslaganicha kirib keldi.*

Muhokama uchun savollar

- 3.1.1. Bog'langan qo'shma gap o'z ichida qanday tiplarga bo'linadi?
- 3.1.2. Bog'langan qo'shma gap ning biriktiruv bog'lovchili turi.
- 3.2.1. Biriktiruv bog'lovchili qo'shma gap lar qanday voqea-hodisalarni ifodalaydi?
- 3.2.2. Biriktiruv bog'lovchilarga qaysi bog'lovchi vositalar kiradi?
- 3.2.3. Biriktiruv bog'lovchili qo'shma gap lar o'z ichida necha guruhga bo'linadi?

3-masala: qiyoslov munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gap

Ma'lum voqea, hodisa, belgi-xususiyatlarni bir-biriga kiyoslashdan maqsad ular orasidagi farqni aniqlash yoki ularni zid qo'yish, bir-biriga nomuvofiq ekanini ko'rsatishdir.

Shu singari qiyoslash mazmun munosabatini ifodalovchi Qo'shma gaplar ham zidlash, qiyoslash, izohlash kabi ma'no ottenkalarini ruyobga chiqaradi.

1. Qo'shma gap qismlarining umumiy mazmuni yoki gaplar tarkibidagi ayrim bo'laklar biror tomondan bir-biriga zid qo'yiladi. qismlar ammo, lekin, biroq zidlovchi bog'lovchilari yoki shu vazifadagi -u, -yu yuklamalari orqali birikadi. Nay ham durustgina chalindi, lekin Rafiq darrov sindirib tashladi. Quyosh chiqib turibdi-yu, havo sovuq.

Zidlash munosabati «va», «lekin» bog'lovchilarini birga «va lekin» tarzida ishlatish bilan ham ifodalanadi: Hamon chopib boradi va lekin ko'kragi qon.

2. Qiyoslash orqali voqea-hodisa, predmet va ularning xususiyatlari o'rtasidagi farqlar ochiladi. Qiyoslash munosabati asosan bo'lsa, esa yordamchilar, zidlovchi bog'lovchilar yordamida ifodalanadi. Bu xil qo'shma gap qismlarining strukturasi ma'lum parallelizm bo'ladi. ***Xonzoda sen shu ishni bajar, boydan qutulasan, men bo'lsam o'z maqsadimga etaman.***

3. Bog'langan qo'shma gap zidlash munosabatini ifodalaydi. Bunda qismlarning tartibidagi ayrim bo'laklarning ma'nosi yoki birinchi qismining umumiy mazmuni izohlanishi mumkin. Izohlovchi gap ikkinchi o'rinda kelib, birinchi gapning har bir bo'lagi izohlanishi mumkin.

1) ega izohlanadi: ***Odanga andisha kerak, lekin undan ham ilgariroq insof kerak.***

2) kesim izohlanadi: ***Sidiqjonning yuragi bir oz g'ash bo'ldi, lekin bu g'ashlikning sababini o'zi ham bilmas edi.***

3) ikkinchi darajali bo'lak izohlanadi. ***To'g'ri tashkilotchilikning ahamiyati katta, lekin tashkil qilingan odam tashkilotchining soyasida qolib ketmasligi kerak.***

Muhokama uchun savollar

4.1.1. Zidlov bog'lovchili qo'shma gap ning ta'rifi.

4.2.1. Zidlov bog'lovchili qo'shma gap asosan qanday voqealarni ifodalaydi?

4.2.2. Zidlov bog'lovchili qo'shma gap qismlari o'zaro qanday vositalar orqali bog'lanadi?

4.3.1. Zidlov bog'lovchili qo'shma gap qismlari qanday mazmun munosabatlarini ifodalaydi?

4- masala: Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar

Ayiruv munosabatini ifodalovchi Qo'shma gaplar ketma-ket yuzaga keladigan yoki bir-biri bilan almashinib turadigan, navbatma-navbat yuzaga keladigan birdan ortiq voqea-hodisa yoki harakatni ifodalaydi. Bunday Qo'shma gap komponentlari goh..., goh..., ba'zan..., ba'zan; dam..., dam..., yo..., yo..., xoh..., xoh; bir..., bir... kabi ayiruv bog'lovchilari orqali bog'lanadi. Bu bog'lovchilar Qo'shma gapdagi komponentlarni ayirib, ta'kidlab ko'rsatish uchun qo'llanadi. Bu bog'lovchilar deyarli har bir predikativ qismning boshida takrorlanib keladi. Goh osmonni tutib ashula yangrar, goh allaqaerda garmon tovushi eshilib turar edi.

Ayiruv bog'lovchili qo'shma gap komponentlari mazmunan turli xususiyatga ega: goh, dam, bir kabi bog'lovchilar birdan ortiq voqeaning ketma-ket yuzaga kelishini ko'rsatsa, yo, xoh bog'lovchilari o'sha voqealardan birininggina yuzaga kelishini ko'rsatadi: Bir tachanka taraqlab qolar, bir xo'kizning bo'yinturug'i qimirlab qolar edi. Yo men boray, yo siz keling.

Muhokama uchun savollar

5.1.1. Ayiruv bog'lovchili qo'shma gap ta'rifi.

5.2.1. Ayiruv bog'lovchili qo'shma gap lar qanday xarakterdagi voqea-hodisalarni ifodalaydi?

5.2.2. Ayiruv bog'lovchili qo'shma gap qismlari o'zaro qanday vositalar orqali bog'lanadi?

5.2.3. Goh, dam, bir bog'lovchilari bilan bog'langan qo'shma gap larda qanday voqealar ifodalanadi?

5.2.4. Yo, xoh bog'lovchilari orqali bog'langan qo'shma gap larda qanday voqealar ifodalanadi?

5 - masala Na inkor yuklama - bog'lovchili bog'langan qo'shma gap .

Bog'langan qo'shma gap larning yana bir turi sodda gaplarning na inkor bog'lovchi - yuklamasi yordamida birikishidan hosil bo'ladi. Masalan: Na ko'zimga uyqu keladi, na miyaga yaxshi bir fikr.

Na inkor bog'lovchi - yuklamasi vositasida birikkan predikativ qismlar ikki va undan ortiq bo'lib, inkor ma'nosini sanab ko'rsatadi. Na bir uyning mo'risidan tutun chiqadi, na biror daraxt ko'rinadi.

Na inkor bog'lovchi - yuklamasi ham takrorlanib ishlatiladi va inkor ma'nosidagi sodda gaplarni bog'laydi.

Inkor bog'lovchi - yuklamasi **na** yordamchi vazifasida kelganda, bog'lovchidan ko'ra yuklamaga yaqin turadi. Bu yordamchi inkor ma'nosini kuchaytiradi (o'qimadi, yozmadi - na o'qimadi, na yozmadi) yoki gapga inkor ottenkasini qo'shadi. Akamdan xat keldi - na akamdan xat keldi, na sendan xabar. Umuman **na** inkor bog'lovchi-yuklamasi ishtirok etgan gaplarning mazmunidan hamma vaqt bo'lishsizlik ma'nosi anglashilib turadi: Na o'qimaydi, na yozmaydi - na o'qiydi, na yozadi. Uning bog'lovchi - yuklama deylilishi ham shundan.

Na inkor bog'lovchi yuklamasi qo'shma gapda ham, uyushiq bo'lakli sodda gapda ham (na taaalluqli bo'laklar sodda gapda, albatta, uyushib keladi) takrorlanib ishlatiladi. Na ko'cha bor, na mustaxkam uy-joy ko'rinadi.

Muhokama uchun savollar

- 6.1.1. Na inkor bog'lovchi- yuklamasi qanday ma'nodagi qo'shma gaplarni hosil qiladi?
- 6.1.2. Na inkor bog'lovchi - yuklamasi qo'shma gaplarda qanday qo'llanadi?
- 6.1.3. Na inkor bog'lovchi - yuklamasi qo'shma gaplarning kesimida qanday o'ziga xos holat ko'zga tashlanadi?
- 6.2.1. Na inkor bog'lovchi - yuklamasining sodda va qo'shma gaplarda qo'llanishida qanday farqlar bor?.

Tavsiya qilinadigan asosiy adabiyotlar

1. Hamroev M. va b. Ona tili. T., 2007.
2. A. G'ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T. 1987.
3. G'. Abduraxmonov va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. T. 1999.
3. Sh. Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2006.
4. R. Sayfullaeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. A. Hojiev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002.
2. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992 y.
3. A. Nurmanov, R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. T., 1993.
4. A. Nurmonov. Gap haqida sintaktik nazariyalar. T., 1988.
4. Ne'matov H., Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. -Toshkent: Universitet, 1999. -556 b.

3- mavzu: Ergash gapli qo'shma gap. Bosh va ergash gap, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Ergash gaplarning tasnifi va tavsifi.

Ajratilgan vaqt : 6 soat

Reja:

1. Ergash gapli qo'shma gap, ergash va bosh gap haqida umumiy tushuncha.
2. Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar.
3. Bosh gapdagi biror bo'lakni izohlovchi ergash gaplar.
4. Shartlanganlik munosabatlarini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar.
5. O'rin, payt, ravish, o'lchov – daraja, chog'ishtirish – o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar.

Tayanch tushuncha va atamalar.

Ergash gap, bosh gap, ergashtiruvchi bog'lovchilar, ergashish formalari, gap bo'laklari va ergash gaplar, havola bo'lakli bosh gaplar, shartlanganlik munosabatini ifodalovchi ergash gaplar, hol ergash gaplar.

1-masala: Ergash gapli qo'shma gap , ergash va bosh gap haqida tushuncha.

Ergashgan qo'shma gap ham bog'langan qo'shma gap singari kamida ikkita sodda gap. predikativ markazdan tashkil topadi. Biroq bog'langan qo'shma gap komponentlari o'zaro teng bog'lovchilar, shunday vazifadagi vositalar orqali teng bog'lansa, ergashgan Qo'shma gap komponentlari o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchilar (keng ma'noda) orqali bog'lanadi va tobe aloqada bo'ladi. Bu holda qo'shma gap komponentlari o'zaro bog'langan qo'shma gap ga nisbatan zich munosabatda bog'langan bo'ladi.

-Biri hokim, biri tobe bo'lgan gaplarning o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchilar va shu vazifadagi boshqa grammatik vositalar orqali bog'lanishi asosida yuzaga kelgan sintaktik konstruktsiya ergash gapli qo'shma gap deyiladi.

Hokim holatidagi gap bosh gap, tobe holatdagi gap esa ergash gap deb yuritiladi. Bosh gap hokim bo'lsa-da, ma'nosi noaniq, noma'lum bo'ladi, izohlashni, aniqlashni, tuldirlashni talab qiladi. Ergash gap bosh gapga bog'lanib, uning biror bo'lagini yoki butun bir gapni izohlaydi. Bu

xususiyati bilan ergash gap Qo'shma gapdagi gap bo'laklariga o'xshaydi.: Eshitdimki, qahramon nom olibsan. gapidagi ergash gap– bosh gapdagi Harakat obektini izohlaydi.

Ergash gaplarning hammasi mustaqil sodda gaplarga xos asosiy bir shartga –ma'lum mazmun munosabatini ifodalash, pauza bilan ajralish xususiyatlariga egadir.

Tilimizda shunday gaplar ham uchraydiki, ularda ba'zi gap bo'laklari ega-kesim munosabatidagi birikmalar bilan ifodalanadi. Ayrim olimlar bunday birikmalarni ergash gap, ular ishtirokidagi gaplarni esa ergash gapli qo'shma gap hisoblashadi. M: **Qizi mukofotlangan sochi uzun ayol keldi.** O'zbek tilidagi bunday sintaktik birliklarning tabiati ularning ergash gap emasligini ko'rsatadi. Bular quyidagilardan iborat:

Bunday sintaktik qurilmaning kesimi vazifasida ko'pincha sifat, sifatdosh, bor, yo'q kabi so'zlar, ko'p, oz kabi ravishlar, semantik jihatdan ko'proq sifatga yaqinlashgan otlar keladi. M: **Mehnati taqdirlangan ayollar to'planishdi.**

2. Bunday sintaktik qurilma gapdagi biror bo'lakka bevosita bog'lanadi. Shunga ko'ra gap bo'lagi vazifasida keladi, gap bo'lagi so'rog'iga javob bo'ladi. **Baxti kulgan** bolalar bayrami nishonlandi.

3. Bunday sintaktik qurilma gap bo'lagi vazifasida kelgani sababli unda ergash gapga xos intonatsiya bo'lmaydi: bunday bo'lak gapning boshqa qismlaridan hech qanday pauza bilan ajralib turmaydi.

Muhokama uchun savollar

1.1.1. Ergash gapli qo'shma gap deb nimaga aytiladi?

1.1.2. Qanday gap bosh gap deyiladi?

1.2.1. Bosh gap mazmunan qanday belgi-xususiyatga ega bo'ladi?

1.2.2. Bosh gapning grammatik belgi- xususiyatlari.

1.1.3. Ergash gapning ta'rifi.

1.2.3. Ergash gapning vazifasi nimalardan iborat?

1.2.4. Ergash gap qanday grammatik belgi-xususiyatlarga ega?

2-Masala: Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar

O'zbek tilida ergash gapni bosh gapga biriktirishda ergashtiruvchi bog'lovchilar, fe'l formalari, yuklamalar, ko'makchilar, bog'lovchi so'zlar, nisbiy so'zlar, kelishik qo'shimchalari, -day (dek) affiksleri, intonatsiya va tartib kabi vositalar xizmat qiladi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar ergash gaplardagi vazifasi jihatidan ma'lum xususiyatlarga ega. Shunga ko'ra ergashtiruvchi bog'lovchilarni uch turga bo'lish mumkin.

1. Sof bog'lovchilar. Bular tamomila bog'lovchiga aylangan, fakat bosh va ergash gaplarni bir-biriga bog'laydigan so'z va shakl yasovchi qo'shimchalardir. Bunday yordamchilarga –ki, chunki, negaki, sababki kabilar kiradi.

2. Bog'lovchi- yuklamalar. Ayrim yordamchilar o'z tabiatiga ko'ra yuklamalarga o'xshab ketadi. Agar, bordiyu, basharti, mabodo, guyo, toki, garchi so'zlari shunday bog'lovchilardir. Shuning uchun ular bog'lovchi –yuklamalar deyiladi.

3. Bog'lovchi so'z, birikmalar. Ayrim yordamchilar ergash gapni bosh gapga bog'lashda o'z asil ma'nolarini ma'lum darajada saqlaydi. Shuning uchun ular bog'lovchi so'z, birikmalar deb yuritiladi. Bularga shuning uchun, deb, shu sababli, deguncha, desa kabilar kiradi.

4. Fe'lning shart mayli va sifatdoshning ayrim sof fe'l shakli ma'nosida qo'llanadigan shakllari va shu xildagi sifatdoshlarning to'liqsiz fe'llar bilan birikkan shakllari. Bunda sifatdosh deyarli hamma vakt ergash gapning egasiga moslashgan holda egalik affiksini olib keladi: **Umr o'tar, vaqt o'tar, xonlar o'tar, taxt o'tar. U avobusda o'ylab o'tirar ekan, uyiga kelganini ham bilmay qoldi.**

Biroq sifatdosh Q chiqish yoki o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi bilan: **Jahl kelganda**, aql qochadi; kelishik qo'shimchalari Q payt ravishi bilan : **Ruxsat berilgandan keyin**, biz ham ketdik. kelganda sintaktik qurilma qo'shma gap hisoblanmaydi.

Xuddi shuningdek ravishdoshning -b, -ib, -guncha, gach, may (bo'lishsiz) qo'shimchali shakllari bilan: Tumshuqlari *tilinib*, baliq chiqdi *ilinib*. Otasi o'sha kun ham *kelmagach*, ularni vahima bosdi. Ko'p vaqt suv tashiydigan odam *topilmay*, suvsiz o'tiramiz. Kelganda ham sintaktik qurilma qo'shma gap emas, sodda gap sanaladi.

Harakat nomi va ko'makchilar bilan kelgan sintaktik qurilmalar ham sodda gap hisoblanadi. *Deraza ochilishi bilan Yo'lchi boshini ko'tardi. Demak, bu hollarda mazkur vositalar qo'shma gap kesimlarini emas, sodda gap bo'laklarini bog'lashga xizmat qiladi.*

5. Fe'ning shaxsli formasi orqali birikish.

Fe'ning har uch mayli ergash gapning kesimi bo'lib kelib, ma'lum yordamchilar bilan birga kelgan holda ergash va bosh gapni biriktiradi. Masalan: Shart mayli: Ko'zim tezroq ochilsa-yu, bog'larni, maysalarni, odamlarni ko'rsam. Buyruq mayli: bugun mamlakatimizning qaeriga bormang, u erda bunyodkorlik ishlariga guvoh bo'lasiz. Ijro mayli: -gan ham ediki, -ganicha yo'q ediki, -i (b) ediki shaklidagi ijro maylidagi fe'llar ergash gapning kesimi bo'lib kelgan holda, komponentlarni bog'laydi: Bir kun u qo'ltig'iga non qistirib eshikdan chiqib ediki, qarshisidan otasi kelib qoldi.

6. Yuklamalar : - ku, - da,-mi,- ham yuklamalari ko'pincha ergash gapning kesimi tarkibida qo'llanib, komponentlarni biriktirishda ikkinchi darajali vosita hisoblanadi. Masalan: Ko'rdingiz-ku, qancha erga ekin ekkanman. Paxta ochildimi-terimni boshlaymiz. Havo bulut bo'lsa-da, yomg'ir yog'madi.

7. Nisbiy so'zlar: Nisbiy so'zlar qo'shma gapning har ikki komponentida qo'llanuvchi o'zaro moslashgan munosabatdosh so'zlardir. Oldingi komponentdagi nisbiy so'zlar ko'pincha so'roq olmoshlari yoki suroqni ifodalovchi ravishlar orqali ifodalansa, keyingi gapda unga mutanosib ravishda ko'rsatish olmoshlari yoki ular bilan birga qo'llangan ravishlar keladi. Shunisi muhimki, nisbiy so'zlar ko'pincha bir xil kelishik shakllarini olib bir-biriga moslashib keladi. Bunda so'roq xarakteridagi nisbiy so'zlar ergash gap tarkibida bo'ladi va ergash gap bosh gapdan oldin kelishi bilan xarakterlanadi. Masalan:Keng dalada nimaiki ko'rinsa, hammasi ham Umirzoq otaning tirikligidan dalolat berar edi. Nisbiy so'zlar shaxs (kim... , u, qaysi biri..., u, o'sha, har kim..., u), predmet (nima..., shu-o'sha), o'lchov-miqdor (qancha..., shuncha, nechta..., shuncha (o'shancha)), belgi-daraja (qanday..., shunday, nechog'li...,shu darajada), o'rin (qaer...,shu er. qay tomon...,shu tomon) kabi ma'no munosabatlarini bildiradi.

9.Intonatsiya. Ergash gapli qo'shma gaplar komponentlarining shakllanishida intonatsiya asosiy rol o'ynamasa-da, leksik-grammatik vositalar bilan birga biriktirish vazifasini ham o'taydi. Chunki ergash gaplar nisbiy tugallangan intonatsiyaga, o'zidan keyin keluvchi intonatsion-grammatik komponentni talab qiluvchi ohangga-qisqa to'xtamga ega bo'ladi. Uyushiq ergash gaplarda esa sanash intonatsiyasi bog'lovchilik vazifasini o'taydi.

10.Tartib. Komponentlarning o'rinishi-tartib ham qo'shma gap qismlarini biriktiruvchi, ularning sintaktik munosabatini ko'rsatuvchi vositadir. Bu, ayniqsa, leksik-grammatik vositalarsiz birikkan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ko'zga tashlanadi. Xususan, shart, to'siqsizlik, payt kabi mazmun anglatilgan bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tartibni o'zgartirish bilan ma'no ham o'zgaradi, avvalgiday ma'no anglashilmaydi. Masalan: qo'shning tinch-sen tinch.- Sen tinch- qo'shning tinch. Suv keldi-nur keldi,-nur keldi- suv keldi.

Jadval 41 Ergash gapning bosh gapga bog'lanish yo'llari

№	Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalarga ko'ra turlari	Biriktiruvchi vositalar
1.	Bog'lovchili ergashish: A)sof bog'lovchilar B)bog'lovchi-yuklamalar	-ki, chunki, negaki, sababki, shu sababli, shuning uchun, shekilli, bo'lmasa, nega desangiz, nega deganda agar, bordi-yu, basharti, mabodo, go'yo, toki, garchi, deb (demay, deguncha, degan, desa)
2.	Bog'lovchisiz ergashish: Grammatik shakllar orqali ergashish.	Sifatdosh shakli:- gan Ravishdosh shakli: -i (b), - may, -gach,- guncha Harakat nomi shakli: -sh (-ish) Shart mayli shakli:- sa Buyruq mayli shakli:-y (-ay), -sin va b Yuklamalar: -mi, -chi, axir, nahotki va b Ko'makchilar: bilan, uchun, beri va b Kelishik qo'shimchalari: -ga, -da,- dan O'xshatish shakli:- day

Jadval 42 Ergash gapli qo'shma gap

Ma'no xususiyati	Ergash gapning turi va ma'nosi	Misollar
I guruh Bosh gapdagi mazmuni abstrakt olmoshni izohlaydi -gan gaplar	A)Ega ergash gap Bosh gapdagi mazmuni abstrakt olmosh egani izohlaydi yoki unga nisbatan ega funksiyasida keladi.	Kimki halol mehnat qilsa, u Vatanimiz tomonidan taqdirlanadi. Kim epchil bo'lsa, u hamma erda o'zini ko'rsatadi. Shunisi menga ma'lum ediki, uning vazminligi dilidagini tiliga keltirmasdi.
	B)To'ldiruvchi ergash gap Bosh gapdagi mazmuni abstrakt olmosh to'ldiruvchini izohlaydi yoki unga nisbatan to'ldiruvchi vazifasida keladi.	Uydagilar nimani buyursa, shuni bajar. (H.H) Bilib qo'yki, seni vatan ko'tadi. (G'.G')Ona biladiki, endi har nahor, Butun vatan bo'ylab to'lishar bahor. (H.O.)
	V)Aniqllovchi ergash gap Bosh gapdagi mazmuni abstrakt olmosh aniqllovchini izohlaydi.	Kimning ko'ngli to'g'ri bo'lsa, uning yo'li ham to'g'ri bo'ladi. Shunday chiroyli xat yozish kerakki, uni o'quvchi hamisha yuragiga bosib yursin, har kuni o'qisin. (O.) Rossiyada shunday bir muhit hukm surib qoldiki, bugun bo'lmasa, ertaga inqilob olovi lovullab yonib ketadi. (M.Ism)
	G) Kesim ergash gap Bosh gapdagi mazmuni absstrakt lomosh kesimini izohlaydi.	Oramizdagi farq shuki, men nima uchun shu ishni qilayotganimni bilaman, ammo sizlar bilmaysizlar. (A.q.) Sizdan umidimiz shumidiki, ko'pchilikning fikriga qarshi turasiz. (A.q.)
	D) Ravish ergash gap Bosh gapdagi ish- harakatning qay tarzda yuzaga kelishini bildiradi.	Yo'l chetidagi jar uzoqlashib, qushlarning ovozlari ham tindi. (Sh.X.) Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi.
	E) O'rin ergash gap Bosh gapdagi ish- harakatning yuzaga kelish, boshlanish, yo'nalish o'rnini ko'rsatadi.	Ko'z qaerda bo'lsa, mehr ham shu erda bo'ladi. qaerda ko'rash bo'lmasa, u erda o'sish ham bo'lmaydi. Katta kema qaerdan yursa, kichik kema ham shu erdan yuradi.
	A) payt ergash gap Bosh gapdagi ish- harakatning yuzaga kelish vaqtini bildiradi.	To Ashurali haqiqatning tagiga etmaguncha, Mirhosil yashaydi. (H.G')
	B) Saba ergash gap Bosh gapdagi ish- harakatning yuzaga kelish sababini, bosh gap esa natijasini bildiradi.	Dilshod yo'lga chiqqanda, xo'rozlar hali tong madhini boshlamagan edi. (M.Ism.) Paxta yonadi, chunki atrofi tez to'taydigan tola. (M.Ism.) Har kun ortar ko'zlarimda nur, shuning uchun yo'q aslo g'amim. (H.O.)
II guruh Bosh gapdagi ish- harakatni	V) Maqsad ergash gap Bosh gapdagi ish- harakatning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradi.	So'zim qanday ta'sir etarkin deb, diqqat bilan unga tikildim. (A.q.) Tog'day og'irlik bilak berdim, Yovlar mushtlasin deb. (H.O.)
	G) Miqdor- daraja ergash gap Bosh gapdagi ish- harakatni o'lchash, darajasini aniqlash uchun xizmat qiladi.	Insonga havo nechog'lik zarur bo'lsa, halqqa tinchlik, ozodlik va baxt- saodat ham shunchalik zarur. Chuqur qancha ko'p bo'lsa, aravakash ham shuncha notinch bo'ladi.

ng belgisini bildiradigan gaplar	D) Shart ergash gap Bosh gapdagi voqeaning qanday yuzaga kelish shartini bildiradi.	Qalb salomat bo'lsa, aql ham, firka ham salomat bo'ladi. Agar majburiyatni bajarsak, bayroq biz tomonda. (A.Q.) Yaxshi bilan o'rtoq bo'lsang, yaxshi yo'lga boshlaydi. Yaxshi bilan o'rtoq bo'lsang, yaxshi yo'lga boshlaydi.
III guruh Bosh gapdagi mazmunni izohlaydigan gaplar	A) To'siqsiz ergash gap. Bosh gapdagi voqeaga to'siq bo'lmagan shartni bildiradi.	Ba'zi odamlarning qo'li ishda bo'lsa ham, hayoli o'z erida. (A.q.) U keksaygan bo'lsa-da, ko'zlarining o'ti so'nmagani edi. (O.)
	B) Natija ergash gap. Bosh gapdagi voqeaning natijasini, xulosasini bildiradi.	O't tafti shu qadar kuchli ediki, yuzini to'sib zo'rg'azo'rg'a ichkarilab bordi. (M.Ism.) qiz pomidorni shunday mayda to'g'radiki, yigitning havasi keldi. (M.Ism.)
	V)O'xshatish ergash gap Bosh gapdagi voqeani boshqa voqeaga o'xshatadi.	Adirlarga qip-qizil gilam yopganday, lolalar chaman bo'lib ochilib yotibdi. (Oydin) Bektemir xuddi otasining sog'inchi bilan ko'ngli to'lgandek, xo'rsinib qo'ydi. (O.)

Muhokama uchun savollar

- 2.1.1. Ergash gap bosh gapga necha turli vositalar orqali bog'lanadi?
- 2.2.1. Bog'lovchili ergash usulini izohlang?
- 2.2.2. Bog'lovchisiz ergash deganda nimani tushunasiz?
- 2.2.3. Nisbiy so'zlarning bog'lovchilik vazifasini tushuntiring.
- 2.2.4. Bog'lovchi so'zlar haqida ma'lumot bering.
- 2.2.5. Yuklamalarning bog'lovchilik vazifasini tushuntiring.
- 2.2.6. Ergash gapni bosh gapga bog'lashda qaysi kelishik qo'shimchalari faol katnashadi?
- 2.2.7. Ergash gapni bosh gapga bog'lashda ohang qanday rol uynaydi?
- 2.2.8. Komponentlarning o'rinishi ularning bog'lanishiga ta'sirini izohlang.

3-Masala. Bosh gapdagi biror bo'lakni izohlovchi ergash gaplar.

Ega ergash gap

Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan yoki kullanmagan eganing ma'nosini izohlab, to'ldirib keladi. Hozirdanok ko'rinib turibdiki, dangasalik, ayyorlikni bilmaydigan yigitga o'xshaysiz. Ko'ziga nima ko'rinsa, shu uni qiziqтира boshlaydi.

Ega ergash bosh gapga fe'ning shart mayli formasi, ba'zan-ki Bog'lovchisi orqali birikadi. Bosh va ergash gapni bog'lashda nima, nimaiki, shu, kim, o'zi kabi nisbiy so'zlar ham muhim rol o'ynaydi. Bunda kimki, nimaiki, kimdakim, nima so'zlari ergash gapda shu, u, usha, shu narsa so'zlari esa bosh gapda bo'ladi. M: Kimki vatanparvarlik ishqi bilan yonsa, u albatta, MAqSADiga erishadi. qozonga nima tushsa, cho'michga ham o'sha chiqadi.

Ega ergash bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Oldin kelsa, -sa orqali, keyin kelsa-ki orqali bog'lanadi. Kim bировga chuqur qazisa, unga o'zi yiqiladi. Shunisi ham borki, biz o'z tashvishimiz bilan ovora bo'lib qolishimiz yaramaydi.

Jadval 44

Ega ergash gap

Mazmuni	Biriktiruvchi vositalar	O'rni	Misollar
Bosh gapdagi ega vazifasida kelgan umumlashgan ma'no ifodalovchi olmoshning ma'nosini	sa kim-u, nima-shu, kim-o'zi, kimni-u	Oldin	Kim sening kamchiliklaringni ko'rsatsa, u sening yaqin do'sting. Kim bировga chuqur qazisa, unga o'zi yiqiladi qo'ziga nima ko'rinsa, shu uni qiziqтира boshlaydi. (Oydin)

izohlaydi.			qozonga nima tushsa, cho'michga o'sha chiqadi. (M) Kimda –kim xo'jalikni siyosatdan ajralib qarasa, ualbatta boshi berk ko'chaga kiradi.(A.q.)
	-ki	Keyin	Shunisi ham borki, biz qishloqlarni obod qilish bilan xotirjam bo'lib qolishimiz yaramaydi. (R.F.)

Kesim ergash gapli qo'shma gap.

Bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi bilan yoki boshqa so'z bilan ifodalangan kesimning mazmunini aniqlab, tuldrib keluvchi ergash gap kesim ergash gap deyiladi.

Niyatimiz shuki, har bir talaba ertaga haetda qiynalmasin.

Shunisi xarakterliki, bosh gapning kesimi o'zicha biror hukmni to'liq ifodalay olmaydi, shuning uchun ham kesimdan keyin uning mazmunini tuldrib, aniqlash uchun boshqa biror gap (ergash gap) unga tobelanib keladi: ***Gapning xulosasi shuki, bundan keyin o'qish bilangina murodingizga etasiz.***

Kesim ergash gap bosh gap bilan uning kesimiga kushiluvchi –ki (kim) bog'lovchisi vositasida birikadi. *Vazifa shundan iboratki, o'zbek tilini ilmiy o'zlashtirmagan biron talabi qolmasin.*

Kesim ergash gap bosh gapning kesimini kuyidagicha izohlaydi:

A) shu olmosh bilan ifodalangan kesimning mazmunini izohlaydi:

Gapning rosti shuki, behuda kelib ketishga hech kimning toqati yo'q.

B) Kim so'roq olmoshi bilan ifodalangan kesimni izohlab keladi. Bunda bosh gapning kesimi shaxs ko'rsatkichini ham olgan bo'ladi: ***Sen kimsanki***, ovozingga hamma uyg'onsa.

V) Ko'rsatish olmoshi va o'rin kelishigidagi ot bilan ifodalangan kesimni izohlab keladi: *Muvaffaqiyatlarimizning siri shundaki, biz tinchlik siyosatiga erinmay amal qilayo-tirmiz.*

Shundan iboratki birikmasi bilan ifodalangan kesimning ma'nosini izohlaydi. ***Qiladigan ishing shundan iboratki, kelganlarning har biriga mana shu kitobdan bittadan berib chiqasan.***

Ko'rsatish olmoshi shu edi, bo'ldi yordamchilari bilan birga kelib, kesimning mazmunini izohlab keladi. Bunda bosh gapdagi ish-harakatning turli zamonda yuzaga kelganligi ham ifodalanadi: *Majlisni olib borishdagi kamchilik shu bo'ldiki, rais kun tartibini e'lon qilmasdan so'zga chiqib ketdi.*

Shunisi xarakterliki, bosh gapning kesimi shuni so'zi bilan ifodalanganda, kesim ergash gapdagi mazmun endi mo'ljallanayotgan bo'ladi. Shu ediki bilan ifodalansa, kesim ergash gapdagi mazmun ilgari mo'ljallangan fikr so'zlash paytida eslatiladi.

Kesim ergash gap bosh gapning kesimi vazifasidagi ***shunday, shunaqa, shunchalik*** so'zlarining mazmunini oydinlashtiradi: ***Bizning xalkimiz shundayki, u mehmonning kunglini sira og'ritmaydi.***

Jadval 43

Kesim ergash gap

<i>Mazmuni</i>	Biriktiruvchi vositalar	O'rni	Misollar
Bosh gapdagi mavhum (ko'rsatish) olmosh bilan ifodalangan kesimini izohlaydi	ki (Bosh gapning kesimi: shunday, shu, shu erda, shun da), shundan iborat, shu bo'ldi, kimsan kabi so'zlar bilan ifodalanadi)	Bosh gapdan keyin keladi.	Gapning xulosasi shuki, elektrostantsiya quramiz. (O) Masalaning qizig'i shu erdagi, ular uch soatning ichida shuncha ish qilishgan. (A.q.) Lekin, eng yomoni shundaki, Rixsiboy aka qo'lga kiritilgan yutuq bilan taqqa to'xtab qoldi. (R.F.) Bizning xalqimiz

			shundayki, u do'stini qo'llab- quvatlaydi. (A.q.)
--	--	--	---

Aniqlovchi ergash gap

Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi olmosh yoki olmosh kabi umumiy ,mavhum ma'noli so'zlarning ma'nolarini aniqlab, izohlab keladi. M: **Tabiatda shunday moddalar borki, qisqa muddat ichida kuyosh nurini o'ziga singdirib, qorong'ilikda yana bo'shlikka qaytaradi.**Bu o'rinda aniqlovchi ergash gap bosh gapdan keyin kelib, bosh gapdagi shunday olmoshi bilan ifodalangan aniqlovchining ma'nosini kotretlashtirib kelyapti. Aniqlovchi ergash gaplar bosh gapdagi quyidagi gap bo'laklarining ma'nosini izohlaydi.

1.Eganing aniqlovchisini izohlaydi: Shunday talabalar borki, o'zlarining bilimiga emas, ota-onalarining puliga ishonadilar:

2.Kesimning aniqlovchisini izohlaydi: Alpomish shunday qahramonki, u o'zida o'zbek halkining eng go'zal fazilatlarini mujassamlashtirgan.

3.To'lduruvchining aniqlovchisini izohlaydi: Men siz bilan shunday ishlarni orzu qilamanki, To'g'onbek janoblari, unday ishlar dunyoda hech bir tojdorga muyassar bo'lmagan;

4.Aniqlovchining aniqlovchisini izohlaydi;Uning akasi shunday yaxshi ishlar qilyaptiki, uning hatto ko'ziga yosh oldirishga hech kimning hakki yo'q.

5.Bosh gap holining aniqlovchisini izohlaydi: Ali kushchining nazarida Ulug'bek shunday odam bo'lib gavdalanadiki,u oddiy odam emas, balki butun xalkning, butun mamlakatning kattakon dardlarini o'ylaydigan,uning ma'rifati uchun har qanday ishga tayyor turgan qudratli aziz kishi edi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapga - ki bog'lovchisi va shart mayli formasi yordami bilan birikadi.

A.)-ki yordami bilan birikkan ergash gap bosh gapda aniqlovchi bo'lib kelgan, quyidagi so'zlarning ma'nosini izohlaydi:

-bosh gapdagi shunday so'zining ma'nosini izohlaydi: Shunday kunlar bo'lganki, Alisher mayda harjlari uchun ham tangasiz kolgan.

-bosh gapdagi ba'zi, ayrim, bir xil kabi so'zlarning ma'nosini izohlab keladi:Ba'zi kishilar borki, o'z qorinlari uchun ham puldan qizg'onadilar. Ayrim qizlarimiz borki , moda ketidan quvib, hayoni unutishyapti.Yana bir xil yoshlarimiz borki, jamoat joylarda, naq erkaklarning ko'z o'ngida o'n martalab o'pishib ko'rishadilar.

-bosh gapdagi hech bir so'zining ma'nosini aniqlab keladi: Bugun hech bir qishloq yo'qki, unda maktab, kinoteatrlar,klub bo'lmasin. ;

Shu kunlarda o'zini bilgan hech bir o'zbek yo'qki, suyuqasdchilardan nafratlanmagan , ularni lanatlamagan bo'lsa.

-bosh gapdagi bir , bir qancha kabi so'zlarning ma'nosini aniqlab keladi:Mustaqillikning dastlabki kunlarida bir qancha kishilar bo'ldiki, ular mustaqillikning mohiyatini to'la tushunib etmadilar, uni faqat qorin bilan baholadilar.Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, o'zga xalklar ibrat ola bilsinlar.

Aniqlovchi ergash gap ba'zan bosh gapdagi qo'llanmagan aniqlovchining ma'nosini izohlashi mumkin:Odam borki, odamlarning naqshidir... Yozuvchi ajoyib asarida yoritib berdiki, bu asarlar hozirda xalkning qo'lidan- qo'lga o'tib kelmoqda. Bu misollardagi Qo'shma gapning bosh gap qismiga bosh gapda qo'llanishi mumkin bo'lgan shunday, ba'zi kabi so'zlarni kiritish mumkin.

Aniqlovchi ergash gapning bu turi -ki vositasi bilan birikkan ergash gaplardan farq qiladi. –sa vositasida birikkan aniqlovchi ergash gaplarda shart ma'nosi ham sezilib turadi.Biroq ular aniqlovchi ergash gap hisoblanaveradilar.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapdan oldin va keyin kela oladi. Agar aniqlovchi ergash gap bosh gapga -ki vositasida biriksa, bosh gapdan keyin keladi. Agar aniqlovchi ergash gapga –sa vositasida biriksa, bosh gapdan oldin keladi.; Siz qaysi kitoblarni o'qigan bo'lsangiz, men ham o'sha kitoblarni o'qiganman.

To'ldiruvchi ergash gap

To'lduruvchi ergashgan gap bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan yoki qo'llanmagan to'lduruvchining mazmunini aniqlab , to'ldirib, izohlab keladi.

Tulduruvchi ergash gap bosh gapdagi harakat ob'ektining ma'nosini kengaytirish yoki uning mazmunini to'liq ochib berish, izohlash uchun ishlatiladi.M: Shuni unutmaginki, ushbu xonadondan

hech kim norozi bo'lib chiqib ketgan emas. Hech kachon unutmaylikki, bizning ayollarimiz o'tmishda hammadan ko'p zulm ko'rgan, hammadan ko'p jaholatda qolgan. Siz kimga ishonch bildirsangiz, men uni o'zimga sherik qilib olaman.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga -ki, -sa, -mi, -ku kabi vositalar yordami bilan ergashadi:

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga -ki vositasida bog'lansa, bosh gapdagi ob'ekt mazmunini aniqlab, ta'kidlab ko'rsatadi. Shuni unutmangki, Aziz, Sattor Toirga o'xshab nomardlik qilmaydi. Bunday hollarda bosh gapning kesimi vazifasida ishonch, taajjub, iltimos ifodalovchi so'z keladi.

Bosh gapning xursand bo'lmoq, umid qilmoq, shubhalanmoq kabi fe'llar bilan ifodalangan kesimi vositali to'ldiruvchiga mos gapni talab qiladi, o'ylamoq, eshitmoq, unutmoq, ko'rmoq, bilmoq, tushunmoq, eslamoq, aytmq, talab qilmoq, qayd qilmoq, ko'rsatmoq kabi fe'llar bosh gapning kesimi bo'lib kelsa, funktsiyasi jihatidan vositasiz to'ldiruvchiga mos bo'lgan gapni talab qiladi .

To'ldiruvchi ergash gapning kesimi shart mayli formasida ifodalanib , gapdan shart ma'nosi anglatilsa-da, ergash gap bosh gapdagi kimni ?yoki nimani? so'rog'iga javob bo'lgan obe'ktning mazmunini aniqlab keladi. Kimdan gumoning bo'lsa, uni ko'zdan qochirma.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga -mi yuklamasi yordamida bog'lansa, bosh gap mazmunida tinglovchiga nisbatan so'roq ma'nosi anglashilib, ergash gap bosh gapdagi fikrning mazmunini kengaytirib, to'ldirib turadi. Eshitingizmi, Ne'mat bilan Ra'no yana yarashib olishibdi.

Ba'zan -mi yuklamasi ergash gap tarkibida ham kelishi mumkin. Bunday ergash gap bosh gapdan oldin keladi. Bu uning lakabimi, rostakam ismimi, hech kim bilmasdi.

To'ldiruvchi ergashgan gap bosh gapga -ku yuklamasi bilan bog'langanda to'ldiruvchi ergash gapdagi fikr oldindan ma'lum bo'lib bosh gap orqali shu fikr yana ta'kidlanadi, eslatiladi. Kecha sizga aytgan edimku, Saidjon bu narsaning hammasi sizning tegishingiz.

Muhokama uchun savollar

3.1.1 Bosh gapdagi biror bo'lakni izohlovchi ergash gaplar qaysilar?

3..2.1. Ega ergash gapning talqini .

3.2.2. Kesim ergash gapning grammatik xususiyatlari.

3 .2.3. Aniqlovchi ergash gapning izohi.

3.2.4. To'ldiruvchi ergash gapning sementik-sintaktik xususiyatlari.

3.2.5. Aniqlovchi ergash gapning o'lchov-daraja ergash gapga o'xshash va farqli tomonlari.

5-M a s a l a : Hol ergash gaplar va ularning turlari. O'rin, payt, ravish, o'lchov –daraja chog'ishgirma-o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar.

O'rin ergash gap.

Bosh gapdagi ish-harakat, voqea hodisyaning yuzaga kelish yoki yo'nalish o'rnini bildiruvchi ergash gaplar o'rin ergash gap hisoblanadi. Ko'z kaerda bo'lsa, mehr ham o'sha erda .

O'rin ergash gap bosh gapga shart mayli ,buyruk mayli formasidagi fe'llar, ekan to'liqsiz fe'li orqali bog'lanadi. Bo'lardan tashqari ergash va bosh gap tartibidagi qaerda, qaerga, qaerdan, u erda ,shu erda, o'sha erda so'zlari ham ularni bog'lashda ishtirok etadi. Gulsum qaera o'ynasa, Holmurodning ko'zi ham o'sha erda edi.

O'rin ergash gap ko'pincha bosh gapning oldida keladi. O'rin ergash gap va bosh gap tarkibidagi nisbiy so'zlar ularni ana shunday tartibda o'rinishini talab qiladi. Katta arava qayoqqa yursa, kichik arava ham shu yoqqa yuradi.

Jadval 46 O'rin ergash gap

Mazmuni	Biriktiruvchi vositalar	O'ri	Misollar
Bosh gapdagi harakat- ning yuzaga kelish, boshlanish yoki yo'nalish o'rnini bildiradi.	Sa (qaerdan, qayga, qaerga,qaerda, shu erda, o'sha erda, shunda, shu erga, shu erdan, u erda) Mang Masin Ekan	Oldin	Gulsum qaerda o'ynasa, Holmurodning ko'zi ham o'sha erda. Vatanimizning qaeriga bormang, u erda elaktr chiriqlari nur sochib turibdi. (Oydin)

Payt ergash gaplar.

Payt ergash gaplar bosh gapdagi ish-harakatning yuzaga kelish Vaqtini bildiradi: Dilshod yo'lga chiqqanda, xo'rozlar hali tong madhini boshlamagan edi.

Payt ergash gap bosh gapga –ganda-, gandan keyin (so'ng, avval)-gan vaktida (paytda, zamon,) -masdan, -masdan oldin (burun, avval), gan edi, -gan ham ediki, r-(ar) ekan, -b-(ib), –sh(ishi) bilan, -gach, -guncha kabi so'z shakllari, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida bog'lanadi.

M: Jahl kelganda, aql ketadi.

Ba'zan shart mayli formasi ham payt ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi. Bahor kelsa, gul bo'ladi bu bog'lar.

Payt ergash gaplar bosh gapda ifodalangan voqea-hodisadan oldinma-ketin yoki u bilan bir vaqtda yuzaga kelgan voqea-hodisalarni bildiradi.: «Dehqonobod» qishlogining chegarasi ko'ringan zamon, qizning yuragi orziqib ketdi. Biz universitetga kelganimizda, darslar endi boshlangan ekan.

Payt ergash gap ko'pincha bosh gapdan oldin keladi. Ba'zan bosh gap orasida yoki undan keyin ham kelishi mumkin. Paxta ochildimi, terim boshlanadi.

Ravish ergash gap

Ravish ergash gap bosh gapdagi kesimdan anglashilgan harakatning yoki bosh gapdagi butun voqeaning qay tarzda yuzaga kelishini ko'rsatadi. M: Yozning kuchi ketib, havo bir oz salqinlangan edi. Dasturxon yozilib bir lagan yaxna et, bir lagan quymoq keltirildi.

Ravish ergash gap bir qarashda ravishdosh oborotga juda o'xshab ketadi. Chunki har ikkisida ham ish-harakatning qay tarzda bajarilishini bildirish bor. Har ikkisida -b-, -ib qo'shimchali ravishdosh ishtirok etadi. Biroq ravish ergash gap tarkibida ega va kesim mavjudligi bilan ravishdosh oborotlardan farq qiladi.

Har bir ravish ergash gapda ergash gaplarga xos uch belgi mavjud bo'ladi. Ravishdosh oborotlari esa ergash gaplarga xos bu uch belgiga ega emas. Shuning uchun ular ergash gaplar hisoblanmaydi.

Ba'zan ravish ergash gap bosh gapdagi «shunday» olmoshining ma'nosini izohlaydi. Nazokat shunday gapirdiki, uning so'zlari hammaga ma'qul tushdi.

To'siqsiz ergash gap

Bosh gapdagi ish-harakat, voqea- hodisaga zid bo'lgan, ammo unga to'siq bo'lmaydigan ish-harakatni bildiradigan ergash gaplar to'siqsiz ergash gaplar deyiladi.

To'siqsiz ergash gap bosh gapga -sa ham, -sa-da- so'z-shakllar orqali bog'lanadi. Havo bo'lut bo'lsa ham yomg'ir yog'madi.

O'lchov-daraja ergash gap .

O'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gap bosh gapdagi voqeani uning hajmi va darajasiga ko'ra o'lchab ko'rsatadi. Mas: Mehnat kancha qiyin bo'lsa, samarasi shuncha shirin bo'ladi.

O'lchov-daraja ergash gaplar bosh gapga ko'pincha fe'lning shart mayli formasi –sa oraqli bog'lanadi.

Ba'zan o'lchov-daraja ergash gap bosh gapga –ki bog'lovchisi yordamida bog'lanadi. Bunda o'lchov-daraja ergash gap ko'pincha bosh gap kesimi oldidagi holni, sifat yoki ravish bilan ifodalangan kesimni izohlaydi.

M: *Shunday xushmuomila, shunday shirin so'z, shunday kamtarinki, suhbatlashib to'ymaysiz.*

Odatdagidek o'lchov-daraja ergash gaplar bosh gapga fe'lning shart formasi –sa, bilan bog'langanda, bosh gapdan oldin, -ki bog'lovchisi bilan bog'langanda bosh gapdan keyin keladi.

Tohirjonning dardi qancha og'irlashsa, u shuncha quvonadi. Bir yilda kabinetini shu darajada o'zgartirib yubordiki, ko'rsangiz, tarix muzeyi deysiz.

Jadval 47

Miqdor – daraja ergash gap

Mazmuni	Biriktiruvchi vositalar	O'рни	Misollar
Bosh gapdagi voqeani uning hajmi	sa gan sari gan sayin	oldin	U kuchanib qancha qattiq puflasa, pilik shuncha lovillab yonardi. Erga qancha mehnat sarf qilinsa, hosil

va darajasiga ko'ra o'lchab ko'rsatadi.	(qancha- shuncha, qanchalik-shunchalik)		shuncha mo'l bo'ladi. qiladigan ishingiz qanchalik ulug'vor bo'lsa, g'ayratingiz shunchalik qaynayveradi. Biz qancha ko'p yo'l yurgan sayin, manzil shunchalik uzoqlashganday bo'lardi.
	ki (shunday, shu qadar, shunchalik, shu daraja)	keyin	U shunday xushmuomila, shunday shirin so'zki, suhbatlashib to'yimsiz. Konvert ustidagi adreslar ham, familyalar ham shunday chiroyli --lib yozilganki, har qanday kishining havasi keladi.

Chog'ishtirish- o'xshatish ergash gaplar.

Chog'ishtirish-o'xshatish ergash gap bir harakat bilan ikkinchi harakatni, bir voqea bilan ikkinchi shaxsni chog'ishtiradi. Chog'ishtiriladigan ergash gaplarda bosh gaplardagi harakat yoki belgi bilan o'xshashlik momenti aniqlanadi.

Chog'ishtirish ergash gap bosh gapga fe'ning shart mayli formasi orqali bog'langanda ergash gap va bosh gap tarkibida o'zaro mos ravishda qanday-shunday, qanday qilib, shunday qilib kabi nisbiy so'zlar ham ishtirok etib, komponentlarni yanada zichroq bog'lash uchun xizmat qiladi. M: *Chavandozlar boshi kesilgan uloqqa qanday muomala qilsalar, banditlar tirik Sa'dullaga ham shunday muomala kildilar.*

Chog'ishtirish-o'xshatish ergash gaplar bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. - ***ki bog'lovchisi va go'yo...*** vositasida bog'langanda bosh gapdan keyin keladi. ***Hozir men sizning oldingizda shunday ahvoldamanki, go'yo siz bilan ilk bor uchrashayman.***

Fe'ning shart mayli formasi va nisbiy so'zlar bilan shuningdek, -ganidek, go'yo ... orqali bog'lansa, bosh gapdan oldin keladi.

Gulnor, go'yo Yo'lchi uni ham chaqirgan kabi, naq Unsin bilan baravar o'rnidan turdi. Nonushtada Egamberdi bobo nonini dasturxonga qo'ysa, peshin chog'i u belbog'ini ezardi.

5-M a s a l a a: bosh gapni to'lig'icha izohlovchi shartlanganlik munosabatini izohlovchi ergash gaplar.

Shartlanganlik munosabati bir qator o'zaro aloqador, shuning uchun bir doiraga birlashuvchi, bir goya asosida birlashuvchi munosabatlarni mujassam etgan sintaktik munosabatdir. Bu munosabat shart, sabab, tusiqsizlik, maqsad va natija munosabatlari kompleksidan iborat. Bu munosabatlarning hammasining asosida bir umumiy goya, bir umumiy mohiyat-«sabab-natija» g'oyasi yotadi.

Shartlanganlik munosabatida voqealar talkinining tabiati, nutq egasining maqsadi hal qiluvchi rol o'ynaydi, ana shularga ko'ra bu munosabatning konkret tiplari (shart, to'siqsizlik, maqsad, sabab, natija) ajratiladi. Misol uchun quyidagi ikki voqeani olaylik: dehqonlarning astoydil mehnat qilishi (1- voqea) va oziq- ovqatning mo'l bo'lishi (2-voqea).

Bulardan birinchi voqea keltirib chiqaruvchi. 2-voqea kelib chiquvchi voqealardir. Ular «sabab-natija» g'oyasi asosida munosabatda bo'lib, shartlanganlik munosabatining quyidagi konkret shakllarini namoyon qilishi mumkin:

1. **Sabab munosabati.** Bu quyidagi ko'rinishlarda ifodalanadi: Dehqonlar astoydil mehnat qildilar, shuning uchun oziq-ovqat mo'l bo'ldi. Oziq-ovqat mul bo'ldi, chunki dehqonlar astoydil mehnat qildilar. Dehqonlar astoydil mehnat qilganliklari uchun oziq-ovqat mo'l bo'ldi. Shuning uchun oziq-ovqat mo'l bo'ldiki, dehqonlar astoydil mehnat qildilar. Dehqonlar astoydil mehnat qilganligidan oziq-ovqat mo'l bo'ldi.

2. **Shart munosabati.** Bunda 2-voqeaning amalga oshishi uchun 1- voqeaning bo'lishi shart bo'ladi, shunday bo'lma-sa, voqealar amalga oshmaydi, shuning uchun bunday munosabatda voqealar farq qilinadi. Bu ham bir qancha ko'rinishlarda ifodalanadi: Dehqonlar astoydil mehnat qilsalar, oziq-ovqat mo'l bo'ladi, dehqonlar astoydil mehnat qilganlarida edi, oziq-ovqat mo'l bo'lardi kabi.

3. **To'siqsizlik munosabati:** Bunda 2-voqeaning bajarilishi uchun shart bo'lgan, biroq uning bajarilishiga to'siq bo'la olmagan voqea ifodalanadi: Dehqonlar astoydil mehnat qilsalar ham, oziq-ovqat mo'l bo'lmadi. Dehqonlar astoydil mehnat qilmasalar ham, oziq-ovqat mo'l bo'ldi.

4. Maqsad munosabati. Bunda 2-voqea 1- voqeani amalga oshirishning maqsadli natijasi sifatida yuzaga keladi. Oziq-ovqat mo'l bo'lsin deb, dehqonlar astoydil mehnat qildilar. Oziq-ovqat mo'l bo'lsin uchun dehqonlar astoydil mehnat qildilar.

5. Natija munosabati. Bunda 2-voqea 1-voqeaning o'z-o'zidan yuzaga keladigan natijasi sifatida yuzaga keladi: Dehqonlar shunday astoydil mehnat qildilarki, oziq-ovqat mo'l bo'ldi. Dehqonlar shunaqangi astoydil mehnat qildilarki, natijada oziq-ovqat mo'l bo'ldi.

Shartlanganlik munosabatining konkret tiplari, xususan sabab, shart va maqsad munosabatlari bir-biridan shunday farqlanadi: Agar 1- voqea ob'ektiv voqelikka nisbatan real bo'lsa, sabab munosabati, agar bu voqea real emas, taxminiy bo'lsa, shart munosabati, agar 2- voqea amalga oshirilish mo'ljallangan niyat bo'lsa, maqsad munosabati yuzaga keladi. Demak, sabab va shart munosabatida keltirib chiqaruvchi voqea muhim bo'lsa, maqsad mazmunida kelib chiquvchi mazmun muhim bo'ladi.

Shartlanganlik munosabatlarining yuqorida keltirilgan-besh tipi besh xil ergash gapli qo'shma gap orqali ifodalanadi. Bular sabab, shart, to'siqsiz, maqsad va natija ergash gaplardir.

SABAB Ergash gapli qo'shma gap

Sabab ergash gap bosh gapdagi ish-harakat, voqea-hodisaning yuzaga kelish, mavjud bo'lish sababini bildiradi, bosh gap esa uning natijasini bildiradi. M: Uyimiz mehmonlar bilan to'ldi, shuning uchun biz qo'shnikida o'tirdik.

Sabab ergashgan bosh gapga chunki, shuning uchun, negaki, sababki, -ki, shu sababli, shu bois, shu vajdan, shekilli, chamasi kabi ergashtiruvchi bog'lovchilar va so'zlar, sifatdoshning –gan formasiqegalik qo'shimchasiqkelishik qo'shimchalari yoki ko'makchilar yordamida bog'lanadi.

Bu bog'lovchi vositalardan shuning uchun, shu sababli, shu bois, shu vajdan, -ki, lar bosh gap; sababki, chamasi, shekilli, ganidan, -gani uchun, -sa kerak kabilar ergash gap tarkibida kelib, bog'lovchi vazifasini o'taydi.

Bo'lardan shekilli so'zi, fe'lning shart mayli (-sa) formasi qkerak so'zi, shuningdek, -li yuklamasi ergash gap tarkibida kelib, bosh gapdagi harakat, voqea-hodisaning yuzaga kelishidagi taxminiy sababni ko'rsatish uchun ham xizmat qiladi. M: Olmaning bardoshi ko'prok shekilli, avval barg chiqarib, keyin gullaydi.

Sabab ergash gap yordamchilarning qo'llanishiga va turli uslubiy talabga ko'ra bosh gapdan oldin, keyin yoki uning o'rtasida keladi:

1. Ergash gap bosh gapga so'z formalari va shekilli, men quvonar bo'lsam, sen-sabab shuning uchun kabi vositalar bilan biriksa, bosh gapdan oldin keladi.

2. Chunki, negaki, sababki, -ki vositasida birikkan ergash gap bosh gapdan keyin keladi: Kitobni e'zozlang, chunki kishining do'stidir.

3. Bosh gapdagi biron bo'lakka ahamiyat berishimiz kerak bo'lganda ergash gap bosh gap o'rtasida keladi. M: Uning bolalarcha beg'ubor qo'ng'iroq tovushi, zal keng va zich bo'lganidan, o'zi kutganidek kuchliroq jaranglab chiqdi.

Jadval 45

Sabab ergash gap

<i>Mazmuni</i>	Biriktiruvchi vositalar	O'rni	Misollar
Bosh gapdagi voqea-hodisaning, harakatning yuzaga ke-lish sababini bildiradigan (bosh gap esa	Shuning uchun, shu sababli, -sa kerak Chunki Negaki Sababki -ki Shekilli	Oldin Keyin oldin	Har kuni ortar ko'zlarimda nur, shuning uchun yo'q aslo g'amim. (H.O) Oysulton to'g'ri gapirdi shekilli, hamma jim qoldi. Majlis ko'p davom etmagan bo'lsa kerak, Sergey tez qaytdi. Oyoqlari erga yopishib qoldimi, sira qimirlay olmadi. Uning jahl ustida rayonga ketmaganligi aniq bo'lib qoldi, chunki o'z qishlog'iga bu holda ketmas edi. Endi chiroyli yozishga o'rganmasak bo'lmaydi, negaki o'zimizdan shoirlar paydo bo'layapti. Gapni cho'zishning hojati yo'q, sababki odamlar tayyor. Men sizga shuning uchun ishonmaymanki, siz olg'a

uning natija-sini ko'rsatadi)			qarab emas, orqaga qarab ketyapsiz. Baxtim borki, har narsa go'zal, Ko'rinadi mening ko'zimga.
-------------------------------	--	--	---

Shart ergash gap

Shart ergash gap bosh gapdagi ish harkat, voqea –hodisani qanday shart bilan yuzaga kelgani yoki yuzaga kelajagini bildiradi. Inson bolasi astoydil jazm qilsa, tomga lavlagi ekib, hosilini bo'g'otning orasidan olishi hech gap emas.

Shart ergash gap ikki xil bo'ladi: real voqea-hodisani ifodalaydigan shart ergash gaplar; mo'ljallagan, taxminlangan voqea- hodisani ifodalaydigan shart ergash gaplar.

Ergash gapda shart bosh gapdagi natijani keltirib chiqargan bo'lsa, bu real voqea –hodisani ifodalagan shart ergash gap hisoblanadi. M: **Ahvol shu holda ketaversa,deyarli hamma bir-bir tijorat yo'liga kirib chiqadi.**

Ergash gapdagi shart taxminlangan, mo'ljallagan voqeani ham ifodalashi mumkin. **Ko'zim ilgari ochilgan bo'lsa edi, men o'z yuragimni burilarga edirar edimmi?**

Shart ergash gap bosh gapga fe'ning shart mayli formasi -ganda edi yordamchisi, shuningdek, -(a) r, -masQ ekan formalari orqali bog'lanadi. Uyda mustaqil o'qimas, o'rganmas ekansiz, biror fanni talab darajasida o'zlashtira olmaysiz.

Ba'zan shart mazmunini kuchaytirish uchun ergash gapning boshida agar, bordiyu, mabodo, basharti kabi so'zlar qo'llaniladi. **Agar shu tuproq bo'lmaganda edi, menda na yurak, na baxt, na oila bo'lar edi.**

Shart ergash gaplar ba'zan bir sostavli yoki to'liqsiz gap shaklidagi bosh gapni izohlab keladi. Qari kelsa- oshga, yosh kelsa, ishga.

Shart ergash gap ba'zan so'z-gap holdagi bosh gapni izohlab, shart ma'nosini ifodalab keladi. Menga bitta ishora qilsa, bo'lgani- hammangiz ketsangiz ham mayli.

To'siqsiz ergash gap

Tarkibida bosh gapdagi ish-harakat, voqea-hodisani yuzaga kelishi uchun zarur va shart bo'lgan, lekin unga to'siq bo'la olmagan ergash gapi bo'lgan qo'shma gaplar to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap deyiladi. Masalan: Shabada esib turgan bo'lsa-da, havo dim va issiq.

To'siqsiz ergash gap ko'pincha bosh gapdan oldin keladi va bosh gapga quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

1. Fe'ning shart mayli formasi:- saQham yuklamasi orqali: Vodiy nafasi kelib tursa ham, hali aylanma tog' yo'llari tikka, xatarli.
2. Fe'ning shart mayli formasi: saQda yuklamasi: Gaplar eshitilmagan bo'lsa-da, martenchilar bir-birlarini ko'z qarashlaridan angladilar.
3. Bo'lishsiz shakldagi buyruq-istak mayli fe'llari orqali birikadi. Bunda ergash gaplar tarkibida qancha, har qancha, qanchalik, qanday kabi olmoshlar ishtirok etadi. *Qunduzxon o'zini har qancha tutishga urinmasin, og'ir yo'qotishning azobi uni qiynar ezardi.*
4. Aniq o'tgan zamon fe'liQhamki yordamida birikadi: **Oradan ikki oy o'tdi hamki Ikromdan darak bo'lmadi.** Bu holda ham bosh gapning kesimi inkor shaklda bo'ladi.
5. Bo'lishli –bo'lishsiz holda takrorlangan buyruq, shart maylidagi fe'l bilan bog'lanadi: **Xoh ishonig, xoh ishonmang, kecha tomorqamizga katta havo shari ko'ndi.**

6. Ba'zan to'siqsiz ergash gap bosh gapga fe'ning shart mayli formasida bog'lanadi: *Qilich solsa, to'g'ralmayman. O'lmayman, o'q qadalsa.*

NATIJA ERGASH GAP.

Bosh gapdagi harakatning, belgining natijasini yoki voqeaning xulosasini ko'rsatadigan ergashgan natija, ergash gar deyiladi.

Natija ergash gap bosh gapga –ki bog'lovchisi orqali birikadi. Bunday ergash gaplar ko'pincha bosh gapdagi harakat belgisini ko'rsatadigan shunday, shunaqangi, chunki onam kabi so'zlarning ma'nosini aniqlashtirib keladi. Bunday so'zlarning ko'pi aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap da ham qo'llaniladi: Farq shundaki, bu so'zlar aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap ichida kelganda otning belgisini bildiradi. Natija ergash gap Qo'shma gap ichida kelganda esa ish harakatning belgisini bildiradi. qiyoslang: Shunday odamlar borki, o'zlarida hech nima yo'q, boshqalarni ko'rolmaydilar.

Ba'zan natija ergash gap bosh gapdagi biram so'zining ma'nosini konkretlashtirib keladi: Bechora qiz boshiga tushgan savdolarni biram yig'lab qaqshab aytdiki, achinganimizdan ko'zlarimizga yosh oldik.

Natija ergash gap doimo bosh gapdan keyin keladi. Yomg'ir shunakangi qo'yib berdiki, uydan chiqolmay qoldik.

Maqsad ergash gap

Maqsad ergash gap bosh gapdagi voqea-hodisa yoki harakatning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradi.

Maqsad ergash gapdagi fikr ko'pincha kuchirma gap mazmunini beradi, bu gap orqali ifodalangan harakat hali boshlanmagan, yuzaga kelishi endigina mo'ljallangan bo'ladi. Maqsad ergash gap bosh gapga –deb, mi yuklamasi, ekan formasi, deb buyruq mayliq uchun formasi, toki yordamchisi orqali bog'lanadi.

Maqsad ergash gap ko'pincha bosh gapdan oldin keladi. Bunda ergash gap --sin, deb, r(ar) deb, miq ekan deb, -sin uchun kabi vositalar bilan bog'langan bo'ladi. Toki –bog'lovchisi bilan bog'langanda ergash gap odatda bosh gapdan keyin keladi va toki bog'lovchisi ergash gap tarkibida bo'ladi.

Muhokama uchun savollar

- 4.1.1. Shartlanganlik munosabati nima?
- 4.2.1. Shartlanganlik munosabati necha xil ergash gaplar orqali ifodalanadi?
- 4.2.3. Sabab ergash gapning ta'rifi.
- 4.2.4. Shart ergash gap deb nimaga aytiladi?
- 4.2.5. To'siqsiz, maqsad va natija ergash gapning ta'riflari.

Tavsiya qilinadigan asosiy adabiyotlar

1. Hamroev M. va b. Ona tili. T., 2007.
2. A. G'ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T. 1987.
3. R. Sayfullaeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. A. Hojiev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002.
2. A. Nurmanov, R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. T., 1993.
3. A. Nurmonov. Gap haqida sintaktik nazariyalar. T., 1988.
4. Ne'matov H., Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. -Toshkent: Universitet, 1999. -556 b.

Mavzu: Bog'lovchisiz qo'shma gap va ularning turlari

Reja:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap va uning turlari haqida umumiy tushuncha.
2. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap .
3. Ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap .

Tayanch tushuncha va atamalar.

Bog'lovchisiz bog'lanish, tenglovchi intonatsiya, tobelovchi intonatsiya. Mazmuniy

1-masala . Bog'lovchisiz qo'shma gap va uning turlari to'g'risida umumiy tushuncha.

1. Ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning bog'lovchilarsiz, faqat mazmun va birlashtiruvchi intonatsiya yordamida bog'lanishidan tashkil topgan sintaktik tuzilmalar bog'lovchisiz qo'shma gap deyiladi. Odamning tanasida chorakam besh litr qon bor, shuning hammasi taxminan har minutda bir marta yurakdan o'tib turadi.

Bog'lovchisiz qo'shma gap ning komponentlari bir-biridan sanash intonatsiyasiga o'xshash tugallanmagan intonatsiya bilan ajralib turadi va unda voqealarning bir vaqtda yoki ketma-ket yuz berishi ko'proq tasviriy tarzda ifodalanadi. Daraxtlarning ustidan onda-sonda qushlarning sadosi bir zungina yangrar, yana jimlik cho'kardi.

Bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari teng yoki ergashtiruvchi bog'lovchilarsiz birikadi. Biroq bog'lovchisiz qo'shma gap larni tashkil etgan sodda gaplarning tuzilishida leksik, morfologik, sintaktik paralelizm (muvoziylik) mavjud bo'ladi. Bu holatlar qismlarni bog'langan qo'shma gap ga ham, ergash gapli qo'shma gapga nisbatan ham zich bog'lab, ma'lum qo'shma gap turining tuzilishiga sabab bo'ladi.

Xullas, ohang, intonatsiya bog'lovchisiz qo'shma gaplar tuzilishida asosiy, hal qiluvchi vosita hisoblanadi. Ohang bog'lovchisiz qo'shma gaplarda turlicha ma'no va ma'no nozikliklarining ifodalanishida ham asosiy omildir.

Shu ma'noda bog'lovchisiz qo'shma gap bog'langan yoki ergash gapli qo'shma gaplarning bir varianti emas, balki alohida bir tipidir, deyish mumkin.

Gaplarni biriktiruvchi grammatik vositalar qatnashmaganda ayrim so'z va ohang vositalarining roli ortadi. Shu sababli bog'lovchisiz qo'shma gap larning komponentlarini bog'lashda ayrim so'zlar, umumiy ikkinchi darajali bo'laklar, ayrim gap bo'laklarining takrorlanishi, komponentlar kesimlarining bir xil zamon va shaklda bo'lishi, elliptik qurilmalar muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun bu xil qo'shma gaplarga nisbatan bog'lovchisiz atamasini qullash shartli bo'lib qoladi. Zero, yuqorida ko'rsatib o'tilgan vositalar ham keng ma'noda bog'lovchi vositalardir.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar komponentlarining munosabati jihatidan ikki xil bo'ladi: 1) teng, 2) tobe.

Birinchi tur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro mazmunan teng munosabatda bo'ladi va tenglovchi intonatsiya (ohang) orqali bog'lanadi. Shu jihatdan bog'langan qo'shma gapga o'xshaydi. Ular o'rtasidagi farq bog'lovchisiz qo'shma gaplarda teng bog'lovchilarning qo'llanmasligidadir. qiyos uchun: Yalpi yig'ilish o'z ishini soat o'n ikki tugatdi, sho'balarniki soat beshda. Yalpi yig'ilish o'z ishini soat o'n ikkida tugatdi, sho'balalar esa soat beshda tugatdi.

Ikkinchi tur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro tobe munosabatda bo'ladi va tobelovchi intonatsiya (ohang) orqali bog'lanadi. Shu jihatdan ular ergashgan (ergash gapli) qo'shma gapga o'xshaydi. *Qo'shning tinch – sen tinch. qo'shning tinch bo'lsa, sen ham tinch bo'lasan.* Shulardan kelib chiqqan holda bog'lovchisiz qo'shma gap larni ikki turga ajratish mumkin.

1. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap .
2. Ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap .

Muhokama uchun savollar

- 1.1.1. Bog'lovchisiz qo'shma gap deb nimaga aytiladi ?
- 1.2.1. Bog'lovchisiz qo'shma gap lar o'z ichida qanday turlarga bo'linadi?
- 1.4.1. Bog'lovchisiz qo'shma gap ning asosiy xususiyatlari.
- 1.5.1. Bog'lovchisiz qo'shma gap ni yuzaga keltiruvchi asosiy vosita nima?

3-masala. Ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap .

Bog'lovchisiz qo'shma gap ning yana bir turi ergash gapli qo'shma gapga o'xshaydi, shunga ko'ra ularni ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap deyish mumkin. Bu quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

1. Ergash gapli qo'shma gap lar ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shu vazifalardagi boshqa grammatik vositalar orqali bog'lansa, ularga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap lar tobelovchi intonatsiya yordamida bog'lanadi. Bunda oldingi komponentda intonatsiya balandroq,

keyingisida pastroq bo'ladi. Birovga ayta ko'rmang-ikkovimiz ham baloga qolamiz. Birovga aytsangiz, ikkovimiz ham baloga qolamiz.

2. Ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari ham ergash gapli qo'shma gap lar singari shart, payt, to'siqsizlik, sabab, o'xshatish, natija kabi ma'no-munosabatlarini ifodalaydi. Masalan: Oldiga yaqinlashding- shovqin soladi. (payt). It xuradi – karvon o'tadi. (to'siqsizlik) U daryoga shunchalik berilib termildi, soyning o'rtasida suv ichayotgan otning pishillashi ham eshitilmadi. qor yog'di-don yog'di (o'xshatish), Sizga ishonaman, akamdek kishisiz. (sabab). Hozirdanoq ko'rinib turibdi: siz dangasalik, ayyorlikni bilmaydigan yigitga o'xshaysiz. (bog'lovchisiz).

Bunday qo'shma gaplarning ko'pchiligini ularga ergashtiruvchi bog'lovchilarni kiritib ergashgan qo'shma gaplarga aylantirish mumkin. Lekin ergash gapli qo'shma gaplarning hamma turi ham bog'lovchisiz formada kelavermaydi. Chunonchi, ravish, chog'ishtirish, o'lchov-daraja, o'rin ergash gaplar bog'lovchisiz kelmaydi. Chunki bu xil gaplarda bog'lovchilar yoki nisbiy so'zlar tushirilganda, shu turdagi qo'shma gap hosil bo'lmaydi.

Quyidagi ergash gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplarga sinonim bo'ladi:

Shart ergash gap, payt ergash gap, to'siqsiz ergash gap, natija ergash gap, sabab ergash gap, o'xshatish ergash gap, ega ergash gap, kesim ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, aniqlovchi ergash gap.

Masalan: To'g'ri bo'ling – behavotir bo'lasiz.

O'zim har joydaman – ko'nglim sendadir.


Ko'rqitmay o'stirdim – botir bo'ldingiz.

Yaxshisi shu: bizdan havotir olmay, kapsanchilar oldiga boring.

Usma ketar-qosh kolar. Mehnatsiz turmush-o'g'irlik, san'atsiz turmush – vaxshilikdir.

Bog'lovchisiz qo'shma gapning tahlil namunasi. Hayot bor-mudrashdir, hayot bor-kurash!

1. Ikkita bog'lovchisiz qo'shma gapdan to'zilgan bog'lovchisiz murakkab qo'shma gap.
2. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapga sinonim.
3. Sxemasi:



Muhokama uchun savollar

3.1.1. Ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari qanday mazmun munosabatlarini ifodalaydi?

3.1.2. Ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro qanday bog'lanadi?

3.3.1. Ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gapning qaysi turlariga bog'lovchi grammatik vositalarni kiritish mumkin, qaysi turlariga kiritish mumkin emas?

2-m a s a l a . Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap .

Bog'lovchisiz qo'shma gapning bir turi komponentlarning mazmun munosabatiga, grammatik shakliga ko'ra bog'langan qo'shma gapga o'xshaydi. Shuning uchun ularni bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap deyish mumkin. Bu quyidagilarda o'z ifodasini topgan.

1. Bog'lovchisiz qo'shma gapning bu turi bog'langan qo'shma gap singari o'zaro teng munosabat-dagi ikki sodda gap komponentidan tashqil topadi. Tushga borib pag'a-pag'a qor yog'di, hamma yoq oppoq libosga burkandi.

2. Har ikki turdagi qo'shma gapda ham bir vaqtda yoki ketma-ket yuzaga keladigan voqea - hodisalar ifodalanadi: Derazadan shamol kirdi, kog'ozlar uchib ketdi – qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi.

3. Bog'langan qo'shma gap teng bog'lovchilar, unga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap tenglovchi intonatsiya bilan bog'lanadi: Birdan chiroq o'chib qoldi va shovqin- suron boshlandi – Birdan chiroq o'chib qoldi, shovqin-suron boshlandi.

4. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gap- lar singari chog'ishtirish, zidlash ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, Do'st achitib

gapirar, dushman kuldirib. Yaxshi qand edirar, yomon pand edirar. Tig' yarasi tuzaladi, til yarasi tuzalmaydi.

Bog'lovchisiz qo'shma gapning bog'langan qo'shma gap ga sinonimligini, o'xshashligini ko'rsatuvchi yana quyidagi belgi- xususiyatlari bor:

1. Ketma-ket yuzaga keladigan voqea-hodisani ifodalovchi komponentlarning fe'l kesimlari bog'langan qo'shma gaplardagi singari bir xil formada ham (bu ko'p kuzatiladi), har xil formada ham qo'llanadi. Masalan: Qo'yaver, yana biroz sinab ko'raylik. Gulnor boshini Yo'lchining ko'ragiga suqib yig'ladi, Yo'lchi uni eshik oldiga olib bordi.
2. Ketma-ket yuzaga keladigan harakat hali bajarilmagan, endigina mo'ljallangan bo'lishi mumkin: Kelsa ovora bo'lmasin, o'zimiz bora qolaylik.
3. Ketma-ketlik mazmunini aniqroq ko'rsatish uchun bog'langan qo'shma gap dagi singari payt ravishlari qo'llanadi. Masalan: Saida haqida yana ikki og'iz gapiray, so'ng boshqa gaplarga o'tamiz.
4. Predikativ qismlar uchun umumiy so'zlar ishlatiladi: Sobirning yuragi po'killaydi, oyoqlari qaltiraydi. Bir ozdan so'ng muzika chalinadi, o'yin boshlanadi.

Muhokama uchun savollar

- 2.1.1. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap qanday voqealarni ifodalaydi?
- 2.1.2. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan Qo'shma gap komponentlari o'zaro qanday mazmun munosabatiga ega?
- 2.1.3. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari o'zaro qanday bog'lanadi?
- 2.1.4. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap kesimlari qanday ifodalanadi?

Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap qo'shma gapning alohida turimi?
2. Bog'lovchisiz qo'shma gap turlarining aslida bog'langan qo'shma gap va ergash gapli qo'shma gaplarning bir tipi ekanligi.

Mavzu: Murakkab qo'shma gap va ularning turlari

Ajratilgan vaqt : 6 soat

Reja:

1. Murakkab qo'shma gapning ta'rifi.
2. Bog'lanish - tenglanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.
3. Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap .
4. Bog'lanish va ergashish yo'li bilan tuzilgan (aralash aloqali) murakkab qo'shma gap

Tayanch tushuncha va atamalar.

Murakkab qo'shma gap, komponent tushunchasi, tenglanish va bog'lanish, bog'lanish va ergashish, ergashish va tobelik tushunchalari, aralash sintaktik aloqa.

1-masala. murakkab qo'shma gapning ta'rifi.

Uch va undan ortiq sodda gaplar yoki predikativ birikmalarning mazmun va grammatik jihatdan birikuvidan tuzilgan sintaktik tuzilmalar murakkab qo'shma gaplar deyiladi.

Qo'shma gapning murakkab formasi uning oddiy (ikki komponentli) formasidan:

- 1) komponentlar miqdorining ko'pligi (ikkitadan ortiq);
- 2) birdan ortiq bog'lanish usulining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Masalan: ***Hunar va iste'dod mushkanbar kabidir, uni qanchalik berkitmang, u shunchalik atrofga yoyilib, hamma yoqni muattar qilib yuboradi.***

Murakkab qo'shma gap komponentlarining o'zaro grammatik munosabatiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

A) bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap;

B) ergashish yo'li bilan to'zilgan murakkab qo'shma gap.

V) aralash yo'l bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

Muhokama uchun savollar

1.1.1. murakkab qo'shma gapni ta'riflang.

1.2.1. murakkab qo'shma gap necha turga bo'linadi?

1.3.1. Murakkab qo'shma gap nitmalarni ifodalaydi?

1.4.1. Qo'shma gaplarni oddiy va murakkab deb turlarga ajratishda asosan nimalar e'tiborga olinadi?

1.4.2. Qo'shma gapning murakkab formasi, sodda formasidan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?

1.4.3. Murakkab qo'shma gaplar nima asosda turlarga ajratiladi?


Murakkab qo'shma gaplar turli voqea- hodisalar o'rtasidagi munosabatni, murakkab fikrni to'laroq ifodalash uchun ishlatiladi. Shuning uchun ular bog'langan (teng aloqali) uch va undan ortiq sodda gaplardan tuzilgan qo'shma gaplarni, bir necha ergash gapli qo'shma gap larni, uch va undan ortiq komponentli bog'lovchisiz qo'shma gaplarni, shuningdek, yuqorida sanalgan qo'shma gaplarning bog'langan va ergashgan qo'shma gaplar bilan aralashishi natijasida hosil bo'ladigan sintaktik butunliklarni o'z ichiga oladi.

2-masala. Bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

Uch va undan ortiq sodda gaplar o'zaro teng munosabatda bo'lsa va teng bog'lovchilar yoki shu vazifadagi boshqa vositalar bilan bog'langan bo'lsa, murakkab qo'shma gapning bog'lanish yo'li bilan tuzilgan turini tashkil qiladi. Bunday murakkab qo'shma gaplar ma'lum bir vaqtda yoki ketma-ket ro'y bergan yoki ro'y bermagan voqea-hodisalarni ifodalaydi. Murakkab qo'shma gapning bu turi ancha erkin tuzilib, ochiq gap qurilmalarini tashkil qiladi. *Otdaysiz, boy, bittayarimta shish bor, ammo bezarar, birov borsin, dori beraman, shishlaringiz, butun illatlaringiz birpasda qaytadi.* Bunday qo'shma gap kesimlarning shakllanishida ikki holat kuzatiladi.

1)komponentlar kesimlarining hammasi ba'zan to'la shakllanmaydi-shaxs –son, zamon ko'rsatuvchi element –bog'lama oxirgi gapning kesimida qo'llaniladi va qismlarning hammasiga tegishli bo'ladi. Luqmonchaning yonoqlari sariq, qarashlari qoramtir,ko'zlari katta-katta,lekin ko'rimsiz va xira edi.


Bu gapni sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.



2.Oldingi komponentlarda bog'lamagina emas,kesimlar yoki uning biror qismi qo'llanmasligi mumkin.Bunda ham keyingi komponentning kesimi boshqalariga ham tegishli,umumiy bo'ladi.

Shijoatli va kuchli botirlar-urushda; xotin va farzandlar- kambag'allikda; do'st va birodarlar boshga kulfat tushganda taniladilar.

Bu gapning sxematik tuzilishi quyidagicha:






Muhokama uchun savollar

- 2.1.1. Teng bog'lanishli murakkab qo'shma gapning tavsifi?
- 2.2.1. Bunday murakkab qo'shma gaplarda komponentlar qanday aloqada bo'ladi?
- 2.3.1. Teng bog'lanishli murakkab qo'shma gap komponentlarining kesimi qanday ifodalanadi?

3-masala. Ergashish (tobelanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap. .

Birdan ortiq ergash gaplarning bir bosh gap bilan birikishidan tashkil topgan sintaktik tuzilmalar ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap deyiladi. Masalan: *Shunday payt yuzaga keldiki, yolg'iz seninga bu ishni bajara olasan, sendan bo'lak hech kim uni hal eta olmaydi.*




Bunda ergash komponentlar bosh gapga ikki xil yo'l bilan birikadi: birgalik ergashish va ketma-ket ergashish yo'li bilan.

Ergash gaplar bosh gapga to'g'ridan-to'g'ri, alohida - alohida (mustaqil) bog'lansa, birgalik ergashish deyiladi. M: O'tirish qanchalik sodda, dasturxon qanchalik faqirona bo'lsa, suhbatimiz shuncha samimiy va shirin bo'ladi.


Yursa agar tomirda qoning,
Aziz bo'lsa bir parcha noning,
Kerak bo'lsa nomus-vidjoning,
qo'lingga qurol ol!

Ergash gaplar bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelib birgalik ergashishni tashkil qilishi mumkin: Agar biron odam bu ishdan xabar topsa, bizning birodarligimiz shunday buziladiki, uni hech qanday mol, adolat bilan tiklab bo'lmaydi va bu keyingi avlodlarga meros bo'lib koladi.



Birdan ortiq ergash gaplarning biri ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga tobelanib bosh gapga bog'lanishidan hosil bo'lgan gaplar **ketma-ket ergashuv yo'li bilan tuzilgan murakkab gap** deyiladi. Bunday bog'lanishda bosh gap oldidagi ergash gap birinchi darajali, undan oldingisi ikkinchi darajali va hokazo nomlanib, ma'lum zanjirni tashkil qiladi.

Bunday qo'shma gaplarda bir ergash gap ba'zan boshqasini o'ziga tobe qilib, ham ergash gap, ham nisbiy bosh gap rolini bajarib, asosiy bosh gapga bog'lanadi. M: Sahro shunday olamki, ishchi qo'llar bo'lsa, hamma narsa bor, ular bo'lmasa, hech narsa yo'q.



Muhokama uchun savollar


- 3.1.1 Tobe aloqali murakkab qo'shma gap qanday bo'ladi?
- 3.2.1. Tobe aloqali murakkab qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapga qanday yo'l bilan birikadi?
- 3.3.1. Bunday murakkab qo'shma gaplarda bosh gapning o'rni qayerda bo'ladi?

4-masala. Bog'lanish va ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap (aralash aloqali murakkab qo'shma gap)

Aralash aloqali murakkab qo'shma gap teng aloqali komponentlar va tobe aloqali komponentlar birikuvidan tuziladi. Boshqacha aytganda, murakkab qo'shma gapning bu turi bog'langan qo'shma gap va ergash gapli qo'shma gaplardan tashkil topadi. Aralash aloqali murakkab qo'shma gapning ko'prok uchraydigan turlariga quyidagilar kiradi; bir ergash gap va ikki bosh gapdan; ikki komponentli ergashgan qo'shma gap va ikki komponentli bog'langan qo'shma gapdan; ikki ergash gap va ikkita bosh gapdan tuzilgan aralash aloqali qo'shma gaplar.

1. Bir ergash gap va ikki bosh gapning birikishidan iborat aralash aloqali murakkab qo'shma gaplarda:


A) Ergash gap oldin kelib, ikki bosh gapga alohida-alohida bog'lanadi: Bu gap kutilmagan bo'lsa ham, Mirhomidxo'janing yoshiga munosib ravishda tarang va tiniq qizil yuzi oqarishdi, oq oralagan cho'qqi soqoli xiyol titradi.



B) Ba'zan buning teskarisi bo'ladi, ya'ni ergash gap qo'shma gapning oxirida kelib, o'zidan avvalgi gaplarga alohida-alohida bog'lanadi. Bu gaplar ergash gap uchun ayrim-ayrim bosh gap hisoblanadi.


Yulduzning muomalasi shu qadar mayin ediki, kulishi shu qadar jozibali ediki, har qanday odam ham u bilan gaplashib to'ymasdi.

Bog'lanish sxemasi:




V) Ergash gap o'zidan keyingi sodda gaplarning birinchisiga ergashib, qo'shma gapni tashkil qiladi va ular birgalikda uchinchi sodda gap bilan teng aloqali qo'shma gap hosil qiladi. Kattalar qancha ishlasa, bolalar ham shuncha ishlar edi, biroq xo'jayin bolalarga kam haq to'lardi.

Bog'lanish sxemasi.



G) Ergash gap bir bosh gap bilan birikib, ergashgan qo'shma gapni tashkil qiladi, bu ergashgan qo'shma gap boshqa bir gapning biror bo'lagini butunligicha izohlab, yana ergashgan qo'shma gap hosil qiladi.


Shuni aytmoqchi bo'lganki, u vaqtda kambagal non deb bosh ko'tarsa, boy mushtumzur qon deb bosh ko'tarardi.



2. Ikki ergash gap va ikki bosh gapdan tashkil topgan aralash qo'shma gaplarda:


A) ikkita ergash gap birdan ortiq bosh gapga alohida-alohida ergashib keladi: Agar traktor berilsa, erlar traktor bilan haydalsa, birinchidan, mehnat unumdorligi ortadi, ikkinchidan, hosil mo'l bo'ladi.

SXEMASI:




B) Ergash gapli qo'shma gap bog'langan qo'shma gapga ergashish yo'li bilan birikadi.

SXEMASI:




V) Bir necha ergash gapli qo'shma gap keyingi bosh gapga ergashish yo'li bilan birikadi: Shuni aytmoqchimanki, birlashgan jamoa bo'lsak, hokimiyat traktor olib bersa, ishimiz ikki emas, o'n bo'ladi, yuz bo'ladi.

S X E M A S I :




G) Ikki ergash gapli qo'shma gap o'zaro tenglanish yo'li bilan birikadi: Karim kelgach, sen ketgin; lekin men bora olmayman, chunki ishlarim ko'p.

S X E M A S I :




D) Ikki ergash gapli qo'shma gap o'zaro ergashish yo'li bilan birikib keladi. Jadallashtirish haqida mish-mish gaplar ko'paygandan keyin, bunga hamma qiziqdi, shuning uchun tuman hokimi Ahmedov majlis o'tkazish uchun kelganda, zalga odam sig'ishmay qoldi.

S X E M A S I :




3.A) Aralash aloqali murakkab qo'shma gap ba'zan ma'lum bir gapga ergashadi. Men sizga shuni aytamanki, agar shu taklifga ko'nsak, jamoamiz yiriklashadi va moddiy manfaatdorligi oshadi.




B)Aralash qo'shma gaplarda ergash gaplar undagi teng komponentlarning birigagina ergashib keladi,so'nggi gap esa tenglanish usulida birikadi Uni tanib olish qiyin edi, chunki elkalari kengaygan,qiyofasi ancha keskinlashgan ,katta ko'zlari dumaloq shakl olgan, ammo baquvvat kelgan qomati avvalgicha edi.


S X E M A S I:



4.Ikkitadan ortiq ergash gapli qo'shma gap tenglanish yo'li bilan birikadi: Ko'kda parvoz etsa lochin,erga tushgay zog'lar; kishnagan ot o'tsa cho'ldan qo'zg'alur tuproqlar; qonga to'lgay; jangga botir kirsam, sulu sog'lar.



5.Bir bosh gapga ham ergash gap, ham ergashgan qo'shma gap birikib keladi: Bilib qo'ying, mardning so'zi bir bo'lur; Birlashsak, dushman holi tang bo'lur.



6.Aralash aloqali murakkab gap ergash gapli qo'shma gapga tenglanish yo'li bilan birikadi: el yashirmas,er ko'karmas, bo'lmasa,ko'k tomchisi,qaydin olsin shoir she'rni bo'lmasa ilhomchisi. Demak, murakab Qo'shma gaplarning tuzilishi ham, tarkibiy qismlari ham, qo'llanishi ham har xil.

Muhokama uchun savollar

4.1.1. Aralash aloqali murakkab qo'shma gaplar qanday tuziladi?

4.2.1. Aralash aloqali murakkab qo'shma gap komponentlari asosan qanday mazmun munosabatlarini ifodalaydi?

Tavsiya qilinadigan asosiy adabiyotlar

1. Hamroev M. va b. Ona tili. T., 2007.
- 2.A. G'ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis.T. 1987.
- 3.G'.Abduraxmonov va boshqalar.O'zbek tili grammatikasi.T.1999.
3. Sh. Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2006.
4. R.Sayfullaeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. A.Hojiev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002.
- 2.U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent, 1992 y.
- 3.A. Nurmanov, R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda.T.,1993.
4. A.Nurmonov. Gap haqida sintaktik nazariyalar. T., 1988.
- 4.Ne'matov H., Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. -Toshkent: Universitet, 1999. -556 b.

MAVZU: O'zga gap va uni ifodalash usullari.

Reja:

1. O'zga gap haqida tushuncha .
2. Ko'chirma gapning grammatik xususiyatlari.
3. O'zlashtirma gap haqida ma'lumot.

Tayanch tushuncha va atamalar.

Gap. So'zlovchi, muallif. Muallif gapi. O'zganing gapi. Ko'chirma gap. Muallif gapining kesimi, o'zganiki bo'lmagan ko'chirma gap.

1-masala: O'zga gap haqida tushuncha.

Ma'lumki, gaplar so'zlovchiga munosabatlariga ko'ra ham turlarga bo'linib ketadi. Ba'zi gaplar so'zlovchiga tegishli bo'lsa, so'zlovchining o'z mustaqil fikri bo'lsa, ba'zi gaplar so'zlovchiniki bo'lmay, boshqa birovlariga tegishli bo'ladi. Boshqalarga tegishli fikrlarning ishlatilishi tabiiy bo'lib, deyarli barcha uslublarda qo'llanadi. Buning boisi shundaki, so'zlovchi hamma vaqt ham o'z fikrinigina bayon etib qolmaydi, u ba'zan o'zganing gapini ham o'z nutqi ichida ishlatadi.

O'zganing gapini ishlatuvchi shaxs muallif, uning gapi esa muallif gapi deyiladi.

Muallifning biron bir shaxs fikrini o'z nutqi ichida keltirishi o'zganing gapi deyiladi.

Ba'zan muallifning yoki so'zlovchining o'z gapi yoki o'ylagan fikri ham o'zganing gapi shaklida beriladi. Masalan: Men nima qilishimni bilmay: «Bu yoqda nima qilib yuribsanz?» -dedim. Mening yo'qlab kelganimni ko'rsa, dalda bo'ladigan biron so'z aytsam, zoraki darmon bo'lsa, deb kutdim.

Bundan tashqari yana shunday hollar ham borki, ba'zan qushlar, hayvonlar tovushi yoki ba'zi predmetlarga nisbatan ishlatiladigan undov va taqlidiy so'zlar ham o'zganing gapi shaklida beriladi. Haligina pashsha «g'ing» desa eshitaladigan jimjit hovli qiy-chuvga to'ldi. Afandi «shish-shish» deb eshagini to'xtatdi.

O'zganing gapi turli shaklda ishlatiladi. Bularning asosiy ko'rinishi ikki xil: 1) Ko'chirma gap; 2) O'zlashtirma gap.

Muhokama uchun savollar

- 1.1.1. Gaplar so'zlovchiga munosabatiga ko'ra necha turga bo'linadi?
- 1.1.2. O'zga gapning ta'rifini aytib berinig?
- 1.1.3. Nima uchun so'zlovchi o'zganing gaplaridan foydalanadi?

2-masala: Ko'chirma gapning grammatik xususiyatlari.

Ko'chirma gap

O'zgalarning mazmuniy,leksik - grammatik xususiyatlari to'liq salagan holda hech o'zgarishsiz ishlatilgan gapi ko'chirma gap deyiladi. Abdulla qahhor adabiyot to'g'risida shunday degan edi: «Adabiyot-atomdan kuchli. Uning kuchini o'tin yorishga sarflash kerak emas». Bu o'rinda Abdulla qaxxor adabiyot to'g'risida shunday degan edi: gapi muallif gapi , «Adabiyot-atomdan kuchli. Uning kuchini o'tin yorishga sarflash kerak emas» ko'chirma gapdir. Muallif gapi ko'chirma gapning kimga tegishli ekanligini ko'rsatib keladi.

Ko'chirma gapdagi mazmun odatda tinglovchiga qaratiladi. Ko'chirma gap bir so'zdan, bir gap yoki bir necha gapdan, ba'zan butun bir abzatsdan iborat bo'lishi mumkin. Muallif gapi esa ko'pincha ikki bosh bo'lakli birgina sodda gapdan tashqil topadi. Qo'shma gap hoida yoki bir bosh bo'lakli sodda gap shaklida deyarli qo'llanmaydi. Masalan; «To'g'on buzilibdi .Yigitlarni, suvchilarni chaqqon olib borsin»,-deb buyurdi Mahkamov. U joy ko'rsatib, mehribonlik bilan murojat kildi. «Kelganingga xursandman».

Ko'chirma gapning kesimi turli so'z turkumi bilan ifodalanadi oladi, lekin muallif gapining kesimi hamma vaqt sof fe'l bilan ifodalanadi.

Quyidagi fe'llar muallif gapining kesimi bo'lib keladi.

1. Gapiirish, so'zlashish ma'nosini bildiruvchi demak, aytmoq, gapirmoq, so'zlamoq, murojaat kilmoq singari fe'llar. Masalan: Shunda mehnatkashlardan biri dedi: «Bizlar mehmonmiz: kim yaxshi, kim yomonni bilmaymiz».

2. So'zlash ma'nosi bilan bog'lik bo'lgan turli holatni ko'rsatuvchi qichqirmoq, pichirlamoq, buyurmoq, undamoq, telefon qilmoq singari fe'llar:

3. Oldingi fikr bilan bog'liqligini ifodalovchi javob bermoq, bo'lmoq, (gapni bo'lmoq) : davom

ettirmoq kabi fe'llar.M:Rais so'zida davom etdi: «Ayniqsa,Farhod to'g'risida so'z borganda ham sen aytganday,kishining ko'ngli tog'day ko'tariladi».

4.So'rok ma'nosini ifodalovchi fe'llar: «qalay, bu yil bug'doy rejasini bajarasizmi?-so'radi O'ktam.

5.So'zlovchining turli ichki kechinmalari, munosabatlari, imo-ishoralarini ifodalovchi fe'llar:Nasimjon boshini ko'tarmasdan ming'irladi: «Xotirjam bo'linglar,bir iloj qilib ko'ndiraman».

6.Tafakkur faoliyati bilan bog'lik fe'llar :o'y surib ketmoq, hayoldan o'tkazmoq,fikr kilmoq, hayolga botmoq, o'z-o'zi bilan gapirmoq kabilar M: «Cho'lponoy bizlarning roziligimizsiz erga tegib, balki yaxshi ish qilgandir?»-deya o'y surib ketdi u.

Ko'chirma gapda bayon qilingan fikrnigina bildirmay,balki hali ifoda etilmagan, faqat o'ylangan –taxmin kilingan fikrni ham bildirishi mumkin. Shuning uchun bu holda muallif gapining kesimi o'yladi, dedi ichida, dedi o'ziga-o'zi, kabi shaklida ifodalaniladi.

Bayon qilingan fikrni ifodalovchi ko'chirma gaplar fikrning tenglovchiga qaratilganini ko'rsatsa, bayon qilinmagan fikrni bildiruvchi ko'chirma gapda fikr so'zlovchining o'ziga qaratilgan bo'ladi. «Nahotki rost bo'lsa!-dedi ichida yigit.-Demak, kishining qo'li uzun bo'lsa, olmani o'sha uzadi, debdi-da do'stim».

Ko'chirma gapda ba'zan biror predmetning «gapi» ham ko'chirilib berilishi mumkin.Bu holat asosan poetik asarlar uchun xos: Paxta dedi kulib tovlanib: Sevgan kishi meni maqtasin.

Ko'chirma gap va muallif gapining o'rni uslubiy talablarga muvofiq turlicha bo'ladi.

1)Ko'chirma gap muallif gapidan oldin keladi.Bunda muallif gapidagi kesim oldin,ega keyin joylashadi.

«To'g'ri ,qoloqdan cho'loq yaxshi,»-dedi qovog'ini solib Dilshod.

Bunday gaplardagi demoq fe'li ma'no va funktsiyasi jihatidan aytmoq, so'ramoq, gapirmoq, so'zlamoq kabi nutq fe'lariga teng bo'ladi. Bunda deb bog'lovchisi emas, balki demoq mustaqil fe'li qatnashadi. Uning ma'nosi o'ta umumiy bo'ladi.Shuning uchun dedi fe'lining o'rnida deb so'radi, deb buyurdi birikmalarini qo'llash mumkin.

Biroq demoq fe'li so'zlash harakatga bog'liq bo'lmagan fe'llar bilan birga kelib, deb yoki deya formasida muallif gapi bilan ko'chirma gapni bog'lashi mumkin.

Bunda ko'chirma gap butunligicha muallif nutqidagi fe'l kesimga nisbatan hol yoki ergash gap bo'lib keladi. «Bu xom hayol», -deya gapini bo'ladi akam. «Undoq qildim, bundoq qildim, qoyil qoldimi» deb ko'kragiga uradiganlar ham topiladi. Bu xildagi gaplarda ko'chirma gapni xususiyati kuchsizlashgan bo'ladi.

2.Ko'chirma gap muallif gapidan keyin keladi.Bunda muallif gapining kesimi ko'pincha aytmoq,so'ramoq, javob bermoq, gapirmoq, demoq kabi fe'lari bilan ifodalanadi.Masalan: U birdan engillashib, xo'rsindi-da, O'ktamga murojat kildi: «Mana bu mavzuga nima deysiz?»

Muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelganda, gap bo'laklarining tartibi odatdagicha bo'ladi.

3.Ko'chirma gap muallif gapining o'rtasida kelishi mumkin.Bunda muallif gapining ega sostavi ko'chirma gapdan oldin, kesim sostavi ko'chirma gapdan keyin keladi.Masalan: Sayramov cholni... sekin quchoqlab : « Hali ko'nglingiz g'unchaday yosh, bilaman,» -dedi.

4.Ko'chirma gap muallif gapining har ikki tomonidan kelganda ham, muallif gapidagi kesim sostavi oldin, ega sostavi keyin keladi. «Juda to'g'ri haq, gap,-dedi Boltaboev,- hamma yutuqlaringiz birlik orqasidan kelayotir»

Muhokama uchun savollar

2.1.2. Ko'chirma gapning ta'rifini ayting.

2.1.3. Muallif gapning kesimlari haqida ma'lumot bering.

2.2.1. Ko'chirma gapning vazifalari nimalardan iborat?

2.2.2. Muallif gapi qanday vazifalarni bajaradi?

2.3.1. Ko'chirma gaplarga shakliga ko'ra tavsif bering.

2.3.2. Muallif gapni tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

3-masala.O'zlashtirma gap.

O'zlashtirma gap o'zga gapning yana bir ko'rinishidir.Bunda o'zgalar fikrining asosiy mazmuni saqlangan holda, kesimning grammatik xususiyatlari o'zgartirilib beriladi.Komiljon kitob kishini

ko'p narsaga o'rgatishini aytdi. Mazkur o'zlashtirma gapda tubandagi ko'chirma gap mavjud : «Kitob kishini ko'p narsaga o'rgatadi»,-dedi Komiljon.

Ko'chirma gap ,o'z sostavida nechta gap borligidan qat'iy nazar o'zlashtirma gapga aylantirilganda sodda gap holiga keltiriladi.

O'zlashtirma gapda muallif gapining bosh bo'laklari saqlangan holda (ba'zan ikkinchi darajali bo'laklar ham saqlanadi) ko'chirma gap birikmali to'lduruvchiga aylanadi. «Har soatni g'animat bil », dedi o'qituvchi. Bu ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilsa, undagi ikki sodda gap: (1. Sen har soatni g'animat bil. 2. Sakson ota dedi) bir sodda gapga aylanadi: ko'chirma gap birikmali to'ldiruvchi shaklini oladi: Sakson ota har soatni g'animat bilish kerakligini aytdi.

Muhokama uchun savollar

3.1.1. O'zlashtirma gapning asosiy xususiyatini aytib bering?

3.1.2. O'zlashtirma gap muallif gapimi yoki o'zganing gapimi?

3.2.1. Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda nimalar o'zgaradi?

3.2.2. O'zlashtirma gapda muallif gapi ham bo'ladimi?

Tavsiya qilinadigan asosiy adabiyotlar

1. Hamroev M. va b. Ona tili. T., 2007.

2. A. G'ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T. 1987.

3. G'. Abduraxmonov va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. T. 1999.

3. Sh. Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2006.

4. R. Sayfullaeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. A. Hojiev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002.

2. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992 y.

3. A. Nurmanov, R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. T., 1993.

4. A. Nurmonov. Gap haqida sintaktik nazariyalar. T., 1988.

4. Ne'matov H., Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. -Toshkent: Universitet, 1999. -556 b.

Mavzu : Matn sintaksisi

Ajratilgan vaqt : 2

Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar

1. Matn va uning turlari .

2. Sintaktik butunlikning semantik –sintaktik yaxlitligi .

3. Sintaktik butunlik tiplarining bog'lanishi .

Tayanch tushuncha va atamalar.

Matn, makromatn, mikromatn, matnshunoslik va tilshunoslik. Supersintaktik butunlik. Murakkab sintaktik butunlik, yuqori darajadagi sintaktik butunlik. Mavzu va uning umumiyligi, mavzu yadrosi. Kommunikatsiya, tema, rema zanjiri. Tashqi signal. Anaforik va kataforik vositalar, grammatik almashish, semantik yaqin so'zlar.

I-MASALA .Matn va uning turlari

Matn sintaksisi tilshunoslikning yaqin vaqtlarda muamalaga kirgan lisoniy kategoriyalardan biridir .Matn gapdan katta sintaktik birliklarni aniqlash jarayonida kashf kilingan hodisadir .Unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Mazmun tugalligi, tuzilish, bog'lanish vositalari, ohang va uslub jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan nutq parchasi matn deyiladi.

Matn ikki turli bo'ladi :makromatn va mikromatn .

Makromatn matnshunoslikning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Yozilgan yoki bosilgan, aytilgan nutq, kitob, gazeta, jurnal va shu kabilarning rasm, jadval, bezaklardan boshqa qismi, rasmiy hujjatlarning sharh va izohlardan boshqa qismi, musiqa asarlariga asos bo'lgan so'zlar, she'rlar makromatnning ko'rinishlaridir .

Mikromatn tilshunoslikning o'rganish ob'ekti, yuqori darajadagi sintaktik birlikdir. Mikromatn tilshunoslik nuqtai- nazaridan yuqorida zikr etilganidek yuqori darajadagi sintaktik birlik, murakkab sintaktik butunlik, supersintaktik butunlik sifatida qaraladi .Demak, ularning asosida bir hodisa yotadi .Biz supersintaktik birlik (keyingi o'rinda SSB) atamasini ma'qullaymiz, chunki unda gapdan katta , yana ham aniqrogi, eng katta sintaktik butunlik ma'nosi aniqroq ifodalangan .

Muhokama uchun savollar

- 1.1.1. Matn va uning turlari
- 1.2.1. Matnning gapdan katta sintaktik butunlik ekanligi nimalarda ko'rinadi?
- 1.3.1. Mikro va makromatnga nimalar kiradi?
- 1.4.1. Mikromatni supersintaktik butunlik desa bo'ladimi?

2-masala. Supersintaktik butunlikning semantik –sintaktik yaxlitligi

SSB semantik bir butundir. Bu ,birinchi galda, uning mavzusining umumiyligida o'z ifodasini topgan. Darhaqiqat, ko'pchilik matnlar mavzusi yoki sarlavhasi bilan ajralib turadi. SSB mavzusi bir butun SSB mazmunining yadrosidir, markazidir. SSB tarkibidagi har bir keyingi gap kommunikativ planda oldingi gapga tayanadi, jumla mazmunini ma'lumdan yangiga rivojlantiradi. Natijada jumlar o'rtasida tema zanjiri hosil bo'ladi. SSB tarkibidagi jumlar nafaqat mavzu umumiyligi va kommunikativ progressiya asosida, balki uning bir butunligini ta'minlaydigan turli xil tashqi signallar orqali ham bog'lanadi. Tashqi signallar sifatida olmoshlar, ayrim ravishlar, takror zamon shakllari SSB hosil qilish funksiyasini bajaradi.

Muhokama uchun savollar

- 2.2.1. SSB nima?
- 2.2.2. SSBning mazmuniy va sintaktik birligi nimalarda ko'rinadi?
- 2.2.3. SSBning qanday ko'rinishlari bor?

3-masala: Supersintaktik butunlik qismlarining bog'lanishi.

SSB qismlarini bog'lovchi vositalar xarakteriga ko'ra ikki xil: SSB qismlarini chapga (oldingi qismga karab) bog'lovchi vositalar, SSB qismlarini o'ngga qarab (keyingi qismga karab) bog'lovchi vositalar. Bularning birinchisi anaforik, ikkinchisi kataforik vositalar deb ham yuritiladi. Anaforik vositalar to'rtga bo'linadi: almashish, takror, tushish, muvofiqlashish, almashish barcha til sathlariga oid birliklarni o'z ichiga oladi:

1. Fonetik almashish. Bu logik urg'u asosida gapning ohang tomondan turlicha shakllanishi asosida yuzaga keladi.
 2. Grammatik almashish (fe'llarning zamon shakllarining, bosh bo'laklar tartibining almashishi),
 3. Leksik almashish: a) olmoshlar yordamida, b) giponimlar yordamida, v) sinonimlar yordamida, g) tematik yaqin so'zlar yordamida, d) o'rin va payt ma'noli so'zlar yordamida (u vaqtda u erda kabi).
- SSB qismlarini bog'lash uchun oldingi gapdagi biror til birligining takrorlanish ham muhim rol o'ynaydi. Nutqiy birliklarning tushib qolishi ham qismlarni bog'lash vazifasini bajaradi (ko'proq kontekstual to'liqsiz gaplarda uchraydi). Muvofiqlashuv bog'lovchilar, yuklamalar, kirish va modal so'zlarning qo'llanishi bilan amalga oshiriladi. Kataforik vositalar miqdori ko'p emas: quyidagi so'zi, umumlashtiruvchi sonlar (mening ikki bobom bor birinchisi: ikkinchisi kabi leksik vositalar ana shunday vositalardir.

Ana shu vositalar SSB qismlarini bog'lab uning bir butunligini ta'minlab turadi.

Muhokama uchun savollar

- 3.1.1. Matn qismlari o'zaro qaysi vositalar orqali bog'lanadi?
- 3.2.1. Anaforik va kataforik vositalarga nimalar kiradi?
- 3.2.2. Matn qismlari yana qanday vositalar orqali bog'lanadi?

Tavsiya qilinadigan asosiy adabiyotlar

1. Hamroev M. va b. Ona tili. T., 2007.
2. A. Gulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T. 1987.
3. G'Abduraxmonov va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. T. 1999.
3. Sh. Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2006.
4. R. Sayfullaeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2009.
5. A. Mamajonov. Tekst lingvistikasi (pedagogika institutlarining o'zbek filologiyasi fakultetlari studentlari uchun maxsus kurs) Toshkent, 1989.
6. M. Hakimov. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari AKD. 1993.
7. M. Abdupattoev. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. AKD. Toshkent 1998.

Modul bo'yicha yakuniy hulosalar

Uch va undan ortiq sodda gaplar yoki predikativ birikmalarning mazmun va grammatik jihatdan birikuvidan tuzilgan sintaktik tuzilmalar murakkab qo'shma gaplar deyiladi.

Qo'shma gapning murakkab formasi uning sodda (ikki komponentli) formasidan:

- 1) komponentlar miqdorining ko'pligi (ikkitadan ortiqligi);
- 2) birdan ortiq bog'lanish usulining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Masalan: xunar va iste'dod mushkianbar kabidir, uni qanchalik berkitmang, u shunchalik atrofga yoyilib, hamma yoqni muattar qilib yuboradi.

Murakkab Qo'shma gaplarni qancha gaplar tashkil etmasin, ular qanday mazmun munosabatlariga kirishmasin, bu qismlar orasida asosan uch xil mazmun munosabati ifodalanadi:

- voqea- hodisa, xususiyatlarni qiyoslash;
- voqea-hodisa, xususiyatlarini izohlash;
- voqea-hodisa, xususiyatlarni bir paytda, ketma-ket yuzaga kelishi.

* murakkab qo'shma gap komponentlarining o'zaro grammatik munosabatiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

A) Bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap;

B) Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

V) Aralash aloqali murakkab qo'shma gap.

Bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

Uch va undan ortiq sodda gaplar o'zaro teng munosabatda bo'lsa va teng bog'lovchilar yoki shu vazifadagi boshqa vositalar bilan bog'langan bo'lsa, murakkab qo'shma gapning bog'lanish yo'li bilan tuzilgan turini tashqil qiladi. Bunday murakkab qo'shma gaplar ma'lum bir vaqtda yoki ketma-ket ro'y bergan voqea-hodisalarni(yoki ularning ro'y bermaganligini) ifodalaydi.

Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap. Birdan ortiq ergash gaplarning bir bosh gap bilan birikishidan tashkil topgan sintaktik tuzilmalar ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap deyiladi. Masalan: Shunday payt yuzaga keldiki, yolg'iz sengina bu ishni bajara olasan, sendan bo'lak hech kim uni hal eta olmaydi. Bunda ergash komponentlar bosh gapga ikki xil yo'l bilan birikadi: birgalik ergashish va ketma-ket ergashish yo'li bilan.

*Ergash gaplar bosh gapga alohida - alohida (mustaqil) bog'lansa, birgalik ergashish deyiladi. M: O'tirish qanchalik sodda, dasturxon qanchalik faqirona bo'lsa, suhbatimiz shuncha samimiy va shirin bo'ladi.

*Birdan ortiq ergash gaplarning biri ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga tobelanib bosh gapga bog'lanishidan hosil bo'lgan gaplar ketma-ket ergashuv yo'li bilan tuzilgan murakkab gap deyiladi. M.: Sahro shunday olamki, ishchi qo'llar bo'lsa, hamma narsa bor, ular bo'lmasa, hech narsa yo'q.

Aralash aloqali murakkab qo'shma gap. Aralash aloqali murakkab qo'shma gap teng aloqali komponentlar va ularga tobe bo'lgan komponentlar birikuvidan tuziladi. M.: Kattalar qancha ishlasa, bolalar ham shuncha ishlar edi, biroq xo'jayin bolalarga kam haq to'lardi.

O'zga gap. So'zlovchi (muallif)ning biron bir shaxs fikri(gapi)ni o'z nutqi ichida keltirishi o'zganing gapi deyiladi.

O'zganing gapi turli shaklda ishlatiladi. Bo'larning asosiy ko'rinishi ikki xil: 1) Ko'chirma gap; 2) O'zlashtirma gap.

Ko'chirma gapda bayon qilingan fikrnigina bildirmay, balki hali ifoda etilmagan, fakat o'ylangan -taxmin qilingan fikrni ham bildirishi mumkin. Shuning uchun bu holda muallif gapining kesimi o'yladi, dedi ichida, dedi o'ziga-o'zi, kabi shaklida ifodalaniladi.

Bayon qilingan fikrni ifodalovchi ko'chirma gaplar fikrning tenglovchiga qaratilganini ko'rsatsa, bayon qilinmagan fikrni bildiruvchi ko'chirma gapda fikr so'zlovchining o'ziga qaratilgan bo'ladi. «Nahotki rost bo'lsa!-dedi ichida yigit.-Demak, kishining qo'li uzun bo'lsa, olmani o'sha uzadi, debdi-da do'stim».

Ko'chirma gapda ba'zan biror predmetning «gapi» ham ko'chirilib berilishi mumkin. Bu holat asosan poetik asarlar uchun xos: Paxta dedi kulib tovlanib: Sevgan kishi meni maqtasin.

Ko'chirma gapning o'rni uslubiy talablarga muvofiq turlicha

(muallif gapidan keyin, undan oldin, uning o'rtasida, uning har ikki tomonida) bo'ladi. Masalan: Sayramov cholni... sekin quchoqlab : « Hali ko'nglingiz g'unchaday yosh, bilaman,» - dedi.

«Juda to'g'ri hak, gap,-dedi Boltaboev,- hamma yutuqlaringiz birlik orqasidan kelayotir»

O'zlashtirma gap. Ko'chirma gapning muallif tomonidan mazmuni saqlangan holda shaklan o'zgartirilib berilishi o'zlashtirma gap deyiladi. O'zlashtirma gap o'zga gapning yana bir ko'rinishidir. Bunda o'zgaralar fikrining asosiy mazmuni saqlangan holda, kesimning gramatik xususiyatlari o'zgartirilib beriladi. Komiljon kitob kishini ko'p narsaga o'rgatishini aytdi. Mazkur o'zlashtirma gapda tubandagi ko'chirma gap mavjud : «Kitob kishini ko'p narsaga o'rgatadi»,-dedi Komiljon.

Ko'chirma gap ,o'z sostavida nechta gap borligidan qat'y nazar o'zlashtirma gapga aylantirilganda sodda gap holiga keltiriladi.

O'zlashtirma gapda muallif gapining bosh bo'laklari saqlangan holda (ba'zan ikkinchi darajali bo'laklar ham saqlanadi) ko'chirma gap birikmali to'lduruvchiga aylanadi. M.:«Har soatni g'animat bil », dedi Sakson ota.. Sakson ota har soatni g'animat bilish kerakligini aytdi.

Mazmun tugalligi, tuzilish, bog'lanish vositalari, ohang va uslub jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan nutq parchasi matn deyiladi.

Matn ikki turli bo'ladi :makromatn va mikromatn .

Makromatn matnshunoslikning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Yozilgan yoki bosilgan, aytilgan nutq, kitob, gazeta, jurnal va shu kabilarning rasm, jadval, bezaklardan boshqa qismi, rasmiy xujjatlarning sharh va izohlardan boshqa qismi, musiqa asarlariga asos bo'lgan so'zlar, she'rlar makromatnning ko'rinishlaridir .

Mikromatn tilshunoslikning o'rganish ob'ekti sifatida gapdan katta yuqori darajadagi sintaktik birlik, murakkab sintaktik butunlik, supersintaktik butunlik sifatida qaraladi.

Mikromatn yoki supersintaktik butunlik (SSB) semantik bir butundir. Bu ,birinchi galda, uning mavzusi – mazmuni)ning umumiy ligida o'z ifodasini topgan. SSB mavzusi bir butun SSB mazmunining yadrosidir, markazidir. SSB tarkibidagi har bir keyingi gap kommunikativ planda oldingi gapga tayanadi, jumla mazmunini ma'lumdan yangiga rivojlantiradi. Natijada jumlar o'rtasida tema-rema zanjiri hosil bo'ladi . SSB tarkibidagi jumlar nafakat mavzu umumiy ligi va kommunikativ progressiya asosida,balki uning bir butunligini ta'minlaydigan turli xil tashqi signallar orqali ham bog'lanadi.Tashqi signallar sifatida olmoshlar, ayrim ravishlar, takror zamon shakllari SSB hosil qilish funksiyasini bajaradi.

Nazorat savollari va topshiriqlari.

5- mavzu bo'yicha

1.1.1. Murakkab qo'shma gapni ta'riflang.

1.2.1. Murakkab qo'shma gap necha turga bo'linadi?

1.3.1. Murakkab qo'shma gap qanday bo'ladi?

1.4.1. Qo'shma gaplarning sodda va murakkab deb turlarga ajratishda asosan nimalar e'tiborga olinadi?

1.4.2. Qo'shma gapning murakkab formasi, sodda formasidan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?

1.4.3. Murakkab qo'shma gaplar nima asosda turlarga ajratiladi?

1.5.1. «Tong otdi va quyosh chikishi bilanoq, odamlar dala tomon o'tlanishdi».

Ushbu gap murakkab qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

A) Bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

B) Aralash aloqali murakkab qo'shma gap.

V) Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

G) Bu gap sodda Qo'shma gap.

2.1.1. Teng bog'lanishli murakkab qo'shma gapni ta'riflang?

2.2.1. Bunday murakkab qo'shma gaplarda komponentlar qanday aloqada bo'ladi?

2.3.1. Teng bog'lanishli murakkab qo'shma gap komponentlarining kesimi qanday bo'ladi?.

3.1.1 Tobe aloqali murakkab qo'shma gap qanday bo'ladi?

3.2.1.Tobe aloqali murakkab qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapga qanday yo'l bilan birikadi?

3.3.1. Bunday murakkab qo'shma gaplarda bosh gapning o'rni qaerda bo'ladi?

4.2.1. Aralash aloqali murakkab qo'shma gap komponentlari asosan qanday mazmun munosabatlarini ifodalaydi?

4.3.1. Aralash aloqali murakkab qo'shma gapni toping?

- A) Yulduzning muomalasi shu qadar mayin ediki, har qanday odam u bilan gaplashib to'ymasdi.
- B) Kattalar qancha ishlasa, bolalar ham shuncha ishlar edi, biroq xujayin bolalarga kam haq to'lar edi.
- S) Otdaysiz, boy, bitta-yarimta shish bor, ammo bezarar, birov borsin, dori beraman, shishlaringiz, butun illatlaringiz bir pasta qaytadi.
- D) Men o'zimni inson bilganda, gulga to'lib bahor kelganda, yuragimda havas uygondi.
- E) Shunday hayot tug'ildiki, u sensiz yashay olmaydi.
- 4.4.1. quyidagi murakkab qo'shma gapni sxemada ifodalang.
- Men olmani sizlarga shu istak bilan beraman; qaysi biringizni xotiningiz o'g'il tug'sa , otini Toxir qo'ying, qaysi biringizni xotinigiz qiz tug'sa, otini Zuxra qo'ying.

6- mavzu bo'yicha

- 1.1.1. Gaplar so'zlovchiga munosabatiga ko'ra necha turga bo'linadi?
- 1.1.2. O'zga gapning ta'rifini aytib berinig?
- 1.1.3. Nima uchun so'zlovchi o'zganing gaplaridan foydalanadi?
- 1.2.1. O'zga gapli sintaktik qurilmalar, muallif, muallif gapi, o'zganing gapi tushunchalarini izohlang?
- 1.2.2. O'zganing gapi shaklidagi muallif gapini tushuntiring?
- 1.2.3. O'zganing gapi 1-shaxsga tegishli bo'ladimi?
- 1.3.1. qaysi javobda o'zganing gapi berilgan?
- A) Maqsadga erishish yo'lidagi mashaqqatlardan chekinmaslik kerak.
- V) Onayu bola-gulu lola.
- D) «Nahotki rost bo'lsa!» –dedi ichida yigit.
- E) D. javob to'g'ri.
- 1.4.1. Nima uchun o'zganing gapi so'zlashuv uslubida ko'p qo'llaniladi?
- 2.1.1. Ko'chirma gap haqida tushuncha bering.
- 2.1.2. Ko'chirma gapning ta'rifini ayting.
- 2.1.3. Muallif gapning kesimlari haqida ma'lumot bering.
- 2.2.1. Ko'chirma gapning vazifalari nimalardan iborat?
- 2.2.2. Muallif gapi qanday vazifalarni bajaradi?
- 2.3.1. Ko'chirma gaplarga shakliga ko'ra tavsif bering.
- 2.3.2. Muallif gapni tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
- 2.4.1. «Sahroning bag'ri yomg'irga tashna bo'lgandek,-dedi Sultonmurod qo'lini harakatga solib,- Xurosonning eli adolat va haqiqat yoshiga tashnadir.» Ko'chirma gapli Qo'shma gapdagi ko'chirma gap va o'zlashtirma gapni joylashishiga ko'ra to'g'ri tavsiflangan javobni toping?
- A) Ko'chirma gap – ergash gapli qo'shma gap , muallif gapi-sodda yoyiq gap.
- V) Ko'chirma gap –bog'lovchisiz qo'shma gap , muallif gapi- sodda yig'iq gap.
- S) Ko'chirma gap – bog'langan qo'shma gap , muallif gapi –sodda gap.
- D) Ko'chirma gap- Qo'shma ergash gapli qo'shma gap , muallif gapi- shaxsi aniq gap.
- 2.5.1. Muallif gapining kesimi qanday so'zlar bilan ifodalaniladi?
- 2.5.2. Muallif gapining kesimi qanday paytlarda tushib qoladi?
- 2.5.3. Muallif gapining asosiy vazifasi nimadan iborat?
- 2.6.1. Ko'chirma gap o'zgalarning bayon kilgan fikrinigina ifodalaydimi?.
- 2.6.2. Ko'chirma gaplar faqat shaxslarning gapi bo'la olmasligini isbotlang?
- 2.7.1. Ko'chirma gapning o'rni haqida ma'lumot bering?
- 2.7.2. Muallif gapining o'rniga ko'ra tinish belgilari qanday qo'yiladi?
- 3.1.1. O'zlashtirma gapning asosiy xususiyatini aytib bering?
- 3.1.2. O'zlashtirma gap muallif gapimi yoki o'zganing gapimi?
- 3.2.1. Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda nimalar o'zgaradi?
- 3.2.2. O'zlashtirma gapda muallif gapi ham bo'ladimi?
- 3.3.1. O'zlashtirma gap berilgan javobni toping.
- A) Yaxshiki ibn Sinoni Xorazmshoh o'z saroyiga chaqirtirgan-deb o'yladi Aburayxon.
- V) Uning yonidagi bir kosaga: «Ilmning ibtidosi achchik, so'nggi boldan ham totli»-deb yozilgandi.
- S) O'ktam davlat rejasini bajarish, ishchilarni yaxshi ta'min etish haqida so'zladi.

D) Beruniy soʻz haqida soʻzladi.

E) S,D javoblar toʻgʻri.

3.4.1. Oʻzlashtirma gapning grammatik xususiyatlari nimalarda koʻrinadi?

7- mavzu boʻyicha:

1.1.2. Matn va uning turlari toʻgʻrisida tushuncha bering .

1.2.1. Matnning gapdan katta sintaktik butunlik ekanligi nimalarda koʻrinadi ?

1.3.1. Mikro va makro matnga nimalar kiradi ?

1.4.1. SSB larga turlicha karashlarga baho bering.

2.1.1. SSB haqida maʼlumot bering ,

2.2.1. SSB ning mazmuniy va sintaktik birligi nimalarda koʻrinadi?

2.3.1. SSB ga misollar keltiring .

2.4.1. Berilgan matnni turlarga ajrating (matnlar tarkatiladi)

3.1.1. Matn qismlari oʻzaro qaysi vositalar orqali bogʻlanadi .

3.2.1. Anaforik va kataforik vositalarga qiyosiy tasnif bering .

3.3.1. Berilgan matndagi anaforik va kataforik vositalarni aniqlang.

3-modul

Mavzu: Hozirgi oʻzbek adabiy tilida tinish belgilari va ularni ishlatish tamoyillari

Ajratilgan vaqt : 2 soat

Oʻzbek yozuvida punktuatsiyaning paydo boʻlishi va undagi asosiy omillar.

1. Oʻzbek punktuatsiyasi asoslari.

2. Oʻzbek punktuatsiyasi printsiplari.

3. Oʻzbek tilida tinish belgilarining miqdori va qoʻllanish usuli.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar

Puntuatsiya, punktuatsiya va grafika, orfografiya, punktuatsiya va sintaksis, punktuatsiya va intonatsiya, tinish belgilari va gap semantikasi, tinish belgilari va gap strukturasi, tinish belgilari va gap stili, semantik- sintaktik signal, punktuatsiyaning semantik va funktsional taraqqiyoti, «taʼkid» belgilari «maʼno» belgilari «bezak» belgilari; yordamchi vositalar, punktuatsiya va poligrafiya, punktuatsiya va tarjima sanʼati, punktuatsiya printsiplari va punktuatsiya asoslari, maʼnoviy asos, grammatik asos, intonatsion asos, mazmuniy struktural – intonatsion asos, oʻzbek tilining grammatik sistemasi, rus punktuatsiyasi sistemasi, etakchi asos, logik-grammatik printsiplari, stilistik printsiplari, differentsiatsiya printsiplari.

1-masala: Oʻzbek yozuvida punktuatsiyaning paydo boʻlishi va undagi asosiy omillar.

Tinsh belgilari oʻzbek yozuvida XIX asrning II yarmidan soʻng qoʻllana boshlagan. Arab yozuvidagi «yordamchi vositalar», oʻz mohiyatiga koʻra, punktuatsion belgi emas. «Yordamchi vositalar»dan ayrimlarining (masalan, bezak belgilarining) XIX asrning II yarmidan keyin «tinsh belgisi» vazifasida qisman ishlatilishi ham oʻzbek tili punktuatsiyasi tarixi shu davrdan boshlanganligini koʻrsatadi.

Oʻzbek punktuatsiyasi tarixining XIX asrning II yarmidan boshlanish sabablarini koʻrsatuvchi obʼektiv tarixiy omillar:

1. XIX asrning II yarmida Oʻrta Osiyoning Rossiyaga qoʻshilishi Oʻrta Osiyo halqlari madaniyatining, shuningdek, oʻzbek halqi madaniyatining yanada rivojlanishida muhim omil boʻldi. «Haqiqatan ham, Rossiya Sharqqa nisbatan progressiv rol oʻynaydi. Rossiya hukmronligi qora va Kaspiy dengizlari, Markaziy Osiyo uchun madaniyatlashtiruvchilik rolini oʻynaydi». (F.Engels) Oʻrta Osiyo halqlari ilgʻor rus madaniyati – sanʼati, adabiyoti, tili va yozuvi bilan tanisha boshlaydilar; rus halqi madaniyatining Oʻrta Osiyo halqlari madaniyatiga taʼsiri kuchayadi. Bunday madaniy aloqa-taʼsir, tabiiyki, madaniyatning bir koʻrinishi boʻlmish yozuvda ham oʻz ifodasini topadi. Rus punktuatsiyasi oʻzbek punktuatsiyasining taraqqiyot yoʻlini 150-200 yilga qisqartirdi: oʻzbek punktuatsiyasi sohasida, taxminan, 150-200 yil ichida erishish mumkin boʻlgan yutuqqa atigi chorak asr mobaynida erishildi. Bu ulkan yutuqqa erishishda ilgʻor rus madaniyati – rus yozuvi (rus punktuatsiyasi)ning roli kattadir.

1. XIX asrning II yarmida O'rta Osiyoda (O'zbekistonda) poligrafiya (matbaachilik) vujudga keladi: bosmaxonalar, nashriyotlar paydo bo'lib, kitob, gazeta va jurnallar nashr etish ishlari boshlanadi. Shu munosabat bilan tilning ijtimoiy funktsiyasi kengayib, yozuvning xo'jalikdagi roli ortadi. XIX asrning 70-yillarida o'zbek adabiy tili matbuot tili darajasiga ko'tariladi va turmushning eng muhim tarmoqlarida qo'llana boshlaydi. Kitob, gazeta, jurnallardagi har bir fikrni o'quvchiga aniq va to'g'ri etkazish zaruriyati tug'iladi. Shu munosabat bilan kitob va gazeta sahifalarida tinish belgilarini qo'llash boshlanadi hamda bu protsess asta-sekin odat tusiga kira boradi. Kitob va gazetalarda tinish belgilaridan foydalanishda ruscha kitoblardagi traditsiyalarga rioya qilina boshlaydi. O'zbek punktuatsiyasining shakllanishi va rivojida, ayniqsa, 1871 yildan muntazam ravishda va ikki tilda (ruscha va o'zbekcha) nashr etilgan "Turkiston viloyatining gazetasi" muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

3. XIX asrning II yarmidan so'ng O'zbekistonda tarjima san'ati juda rivojlanadi. Rus tilidan o'zbek tiliga ko'plab badiiy asarlar tarjima qilinadi. Tarjima protsessida ruscha tekstdagi tinish belgilari, tabiiyki, o'zbekcha nushaga ham o'tadi.

4. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida turkiy tillar va turkiy yozuvlar haqida turli tipdagi ilmiy asarlar, grammatik qo'llanmalar paydo bo'ladi. Bularning ma'lum qismi rus turkolog olimlar tomonidan yozilgan bo'lib, bu asarlardagi tekst parchalarida (misollarda), rus yozuvi traditsiyasiga ko'ra, tinish belgilari bilan ajratish holatlari uchraydi.

Demak, XX asr boshlarida o'zbek punktuatsiyasi to'liq shakllangan.

Bunda o'sha davrdagi ijtimoiy-tarixiy va madaniy – siyosiy sharoit muxim rol o'ynagan.

O'zbek punktuatsiyasi tarixini davrlashtirish.

O'zbek punktuatsiyasi taraqqiyotini ikki katta davrga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Oktyabr to'ntarishidan oldingi davrda o'zbek punktuatsiyasi. Bu davr o'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'llana boshlashi va bu qo'llashning odat tusiga kirishi hamda o'zbek punktuatsiyasining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Bu XIX asrning II yarmidan to 1917 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, u ikki bosqichga bo'linadi: 1) 1870-1905 yillar; 2) 1905-1917 yillar.

2. Oktyabr to'ntarishidan keyingi davrda o'zbek punktuatsiyasi. Bu davr o'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'llanishi muayyan tartibga kirganligi, o'zbek punktuatsiyasining sistemalashuvi va o'zbek grafikasining alohida bir qismi sifatida o'rganilishi bilan xarakterlanadi. O'zbek punktuatsiyasini ilmiy asosda o'rganish oktyabr to'ntarishidan so'ng boshlandi. Bu 1917 yildan to hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va quyidagi bosqichlarga bo'linadi: 1) 1917-1930 yillar; 2) 1930-1940 yillar; 3) 1940 yildan to hozirgacha bo'lgan davr.

O'zbek punktuatsiyasi taraqqiyotini bunday davrlashtirish va bosqichlarga bo'lishda ijtimoiy – tarixiy, madaniy-siyosiy sharoitlar va o'zbek milliy yozuvi taraqqiyoti hamda undagi o'zgarishlar hisobga olinadi.

Muhokama uchun savollar

1.1.1. Punktuatsion belgilar qanday sharoitda va qachon paydo bo'lgan?

1.1.2. O'zbek tili punktuatsiyasi qachon paydo bo'lgan?

1.3.1. Punktuatsiya paydo bo'lishida qanaqa omillar asosiy rol o'ynagan?

2-masala: O'zbek punktuatsiyasi asoslari.

Puntuatsiya asoslari masalasi faqat o'zbek tilshunosligida emas, balki turkologiyada ham eng aktual problemalardan hisoblanadi. Puntuatsiya asoslari masalasi bilan punktuatsiya printsiplari masalasini o'zaro farqlash lozim.

Puntuatsiya asoslari tinish belgilarining qanday nazariy fundament, tayanch, manba zaminida ishlatilishi, punktuatsiya printsiplari esa ularning qanday usul va tartibda qo'llanishidir.

Puntuatsiya nutqning (yozma nutqning) ifoda maqsadiga asoslanadi: tinish belgilari yozma nutqda ifodalanishi lozim va zarur bo'lgan maqsadga bog'liq holda ishlatilib, ma'lum kommunikativ funktsiya bajaradi. Maqsad har bir til grammatik qurilishiga mos ravishda turli xil forma va usullarda ifodalanadi. Shunga ko'ra, tinish belgilari tillararo har xil qo'llanadi.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, punktuatsiya asoslarini belgilashda, asosan, uch xil nuqtai nazar mavjudligini ko'ramiz. Bu oqimlar punktuatsiyaga turli jihatdan yondoshish, uning asosiy funktsiyasini turlicha aniqlash tufayli kelib chiqqan.

1. Punktuatsiyaga ma'noni asos qilib olish. Bu oqim vakillari (masalan, S.I.Abakumov, A.B.Shapiro va boshqalar) punktuatsion qoidalarni belgilashda ko'proq semantikaga-gapning ma'nosiga, mazmuniga – e'tibor beradilar. Tinish belgilarining qo'llanishini ma'noga bog'lab izohlaydilar.

2. Punktuatsiyaga grammatik qurilishni asos qilib olish. Ular (masalan, S.Bulich, N.Grech, Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar) tinish belgilarining qo'llanishini aniqlashda ko'proq gapning sintaktik qurilishiga diqqat qilib, tinish belgilarining ishlatilishini gap strukturasi bog'lab izohlaydilar.

3. Punktuatsiyaga intonatsiyani asos qilib olish. Bu oqim tarafdorlari (L.V.Shcherba, A.M.Peshkovskiy, H.Rustamov va boshqalar) punktuatsion qonun-qoidalarni gapning ohangi, intonatsiyasi bilan bog'lab tushuntiradilar.

Puntuatsiya asoslarini bunday belgilash bir yoqlama bo'lib, masalaning mohiyatini to'liq aks ettira olmaydi. Chunki intonatsiya ham, nutqning sintaktik strukturasi ham, gapning mazmuni ham alohida-alohida olinganda, ya'ni bir-biridan ajratilgan holda, punktuatsiya uchun aso bo'la olmaydi, chunki bular bir narsaning uch tomoni – bir hodisaning uch xususiyatidir.

Puntuatsiya asoslarini belgilashda nutq mazmuni, strukturasi va intonatsion xususiyatlari bir butun holatda olib qaralishi zarur.

Puntuatsion asosi deyilganda mazkur tildagi punktuatsion qoidalarining tafsiloti va tinish belgilarining qo'llanishi nimalarga bog'liqligi, ya'ni ma'lum tayanch (fundament) zaminida muayyan til punktatsiyasining sistemalashuvi tushunilishi lozim.

Hozirgi o'zbek tili punktuatsiyasining ikki asosi mavjud: 1. O'zbek tilining grammatik sistemasi; 2. Rus punktuatsiyasi sistemasi.

O'zbek punktuatsiyasi, avvalo, o'zbekcha nutqning grammatik qurilishiga asoslanadi, ya'ni o'zbek tilining grammatik strukturasi o'zbek punktuatsiyasi uchun negiz, etakchi asos bo'lib xizmat qiladi va u o'zbek punktuatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Grammatik qurilish nutqning mazmun, intonatsion va tuzilish jihatlarining bir butunligi (yahlidligi) dir: bunda (nutqdagi semantik-grammatik munosabatning butunligi, dialektik birligi – mazmun va shakl birligi) tushuniladi. Shu yaxlitlik zaminida konkret fikr – maqsad ifodalanadi. Gapdagi mazmun uning ichki tomonini, grammatik holat esa uning tashqi tomonini belgilaydi.¹

Rus tili punktuatsion sistemasi, o'z navbatida, o'zbek punktuatsiyasining ikkinchi asosi hisoblanadi. Chunki, birinchidan, o'zbek tilidagi ko'pchilik tinish belgilari (so'roq, undov, qo'shtirnoq, ko'p nuqta kabi) rus tilidan o'zlashtirilgan; ikkinchidan, rus punktuatsiyasi ilmiy – nazariy jihatdan ancha ishlangan va sistemalashgan bo'lganligi uchun o'zbek tilidagi ayrim punktuatsion qoidalar shu rus punktuatsiyasi qoidalari asosida tuzilgan; uchinchidan, hozirgi kunda rus tili hamdo'stlik mamlakatlari millatlararo aloqa vositasiga aylangan.

O'zbek yozuvida tinish belgilarining qo'shilishida O'rta Osiyoning harbiy yo'l, kuch bilan Rossiyaga majburan qo'shib olinishi, istilo qilinishi ko'plab salbiy oqibatlari bilan birga O'zbekistonda matbaachilikning paydo bo'lishiga ham sabab bo'ldi. O'zbek halqining ilg'or rus madaniyati (rus adabiyoti, san'ati va yozuv sistemasi) bilan yaqindan tanishuvi o'zbek yozuvida punktuatsiyasi sistemalashuvi uchun zamin hozirladi va uning rivojini tezlashtirdi.

Rus va o'zbek halqi o'rtasidagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy – madaniy aloqalar Oktyabr to'ntarilishidan so'ng yanada rivojlandi: rus tilining ta'siri o'zbek tilining rivojlanishida, o'zbek grafikasining sistemalashuvida, orfagrafik va punktuatsiyasi qoidalarini ishlanishida, hozirgi o'zbek tilidagi kiritma konstruktsiyalar, ajratilgan bo'laklar, bir sostavli gapning ayrim turlari, turli xil oborot kabi sintaktik kategoriyalarning tariqiy etishida va ularda punktuatsiyasi qoidalarining belgilanishida rus tilining ta'siri sezilarli darajada ko'rindi.

Keyinchalik ruscha yoki o'zbekcha lug'at va qo'llanmalarining tuzilishi, rus tili darslari asosida o'zbek tilida darsliklar yaratilishi o'quv – o'qituv sohalarida ham punktuatsiyaning takomillashuvini taqozo etdi. Shuningdek, ruscha kitoblar o'zbekchaga tarjima qilindi: bunda ruscha tekstlardagi ayrim tinish belgilari, shubhasiz, o'zbekcha tekstlarga ham ko'chirildi. Bular o'zbek yozuvida tinish belgilarining keng qo'llanishida ma'lum omil (vosita) bo'ldi.

1. «Грамматик холат» деганда интонациани ҳам назарда тутамиз. Чунки интонация синтактик муносабатни ифодаловчи асосий воситалардан биридир.

Bu obektiv hodisalar rus punktuatsion sistemasi o'zbek punktuatsiyasining ilmiy – nazariy asoslaridan biri deyishga imkon beradi.

Muhokama uchun savollar

2.1.1. Punktuatsiya asoslariga nimalar kiradi?

2.4.1. Sodda va Qo'shma gaplarda tinish belgilarining asoslari qaysi jihatdan o'xshash va farqli xususiyatlarga ega?

3-masala: O'zbek punktuatsiyasi prinsiplari.

Punktuatziya prinsipi tinish belgilarining qanday usul va tarkibda qo'llanishini ko'rsatadi. Shuning uchun tinish belgilarining qo'llanishidagi barcha qonun-qoida va tartiblar punktuatsiya prinsiplari asosida belgilanadi; punktuatsiya prinsiplari tinish belgilarining malum asosiy usullar zaminida sistemalashuvini ta'minlaydi.

Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilarining qo'llanishiga doir quyidagi prinsiplarni ko'rsatish mumkin:

1. **Logik-grammatik prinsip.** Bu prinsip nutqning semantik-grammatik tomonini aks ettiradi: bunda tinish belgilari gapning (nutqning) mazmuniy, tuzilish va intonatsion jihatlarga bog'liq holda qo'llanadi. Shuning uchun logik-grammatik prinsip quyidagilarga asoslanadi:

1) **nutq mazmuniga.** Bunda tinish belgilarining gap mazmuniga bog'liq holda qo'llanishi tushuniladi. So'roq ma'nosini anglatga, bunday gaplar oxirigi so'roq belgisi qo'yiladi: *Kimning iltimosi bu? Nima gap o'zi?* Gap habar ma'nosini anglatga, uning oxiriga nuqta, buyruq yoki turli xil emotsional munosabatlar ifodalasa, undov belgisi qo'yiladi: *Hamma o'z vazifasini bajarsin! Yo'q! Bu iflosni otgan men bo'laman! Yashashdan yuz asr oltin qafasda – yashash afzal bir oy erkin nafasda!* (Uyg'un)

Tinash belgilari nutqning ma'no jihatiga ko'ra ishlatilganda, ular bir gapdagi yoki gaplar orasidagi mazmuniy munosabatni, shuningdek, gap bo'laklarining va gapdagi ayrim qismlarning ham o'zaro mazmuniy munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi: *It huradi – karvon o'tadi.*

2) **nutq tuzilishiga.** Bunda tinash belgilarining gap strukturasi ga bog'liq holda ishlatilishi tushuniladi. Ma'lumki, gaplar tuzilish jihatdan bir necha turli. Shuningdek, gapni tashkil etuvchi vositalar (gapning tarkibiy qismlari) bir-biri bilan turlicha munosabatda bo'ladi. Bu munosabatlar yozuvda tinash belgilari vositasida aks ettiriladi. Masalan, kiritma konstruksiyalarning ayrimlari asosiy gap bilan zich bog'langan bo'lsa, ba'zilar kuchsizroq bog'langan bo'ladi. Shunga ko'ra, ular birinchi holatda asosiy gapdan qavs bilan (qo'sh qavs – ikki qavs bilan), ikkinchi holatda tire bilan (qo'sh tire – ikki tire bilan) ajratiladi.

Gaplar tarkibiy jihatdan murakkab bo'lib, uning qismlari orasidagi leksik-grammatik munosabatlar ham har xil bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda ham sintaktik munosabat, ulardagi ma'no va ma'no ottenkalari tinash belgilari vositasida aniqlanadi.

Tinash belgilari nutq strukturasi ga ko'ra qo'llanganda, tubandagi maqsadlarda ishlatiladi: a) uyushiq bo'laklar munosabatini ko'rsatish uchun; b) kirish va kiritma konstruksiyalarni asosiy gapdan ajratib ko'rsatish uchun; v) gapdagi undov so'z, tasdiq va inkorni bildiruvchi so'zlarning asosiy gapdagi o'rni va leksik-grammatik xususiyatlarini ko'rsatish uchun; g) ajratilgan bo'laklarni asosiy gapdan ayirish uchun; d) qo'shma gap qismlarini ajratish, chegaralash uchun va boshqalar.

3) **nutq intonatsiyasi ga.** Bunda tinash belgilarining gap intonatsiyasi ga muvofiq ishlatilishi anglashiladi. Intonatsiya sintaktik munosabatni ifodalovchi, gapni shakllantiruvchi asosiy grammatik vositalardan biri bo'lib, tinash belgilarining qo'llanishi, o'z navbatida, intonatsiyaga ham bog'liq bo'ladi. Masalan: *Yuring, Ochil o'quv zaliga borib birpas Begimovni o'qiylik (ular ko'p fanlarni o'qituvchining nomi bilan atab o'rgangan edilar).* (P.Qodirov) Bundagi kiritma gap pasayuvchi intonatsiya bilan – kirish intonatsiyasi bilan – aytiladi, shunga ko'ra, qavsga olingan; *E, yaqinda rais eshikdan kirsas, qorni derazadan chiqadigan bo'ladi.* (A.Q.) *Baribir kechikdik, eh!* (Yashin) Birinchi gapda undov so'z kuchsiz intonatsiya bilan, ikkinchi gapda kuchli intonatsiya bilan aytilgan, shuning uchun ulardan so'ng ikki xil tinash belgisi (vergul va undov) qo'llangan. Intonatsiya nutq ohangi, temp, pauza kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. Tinash belgilarining gap ohangi, gapdagi emotsionallik va gapdagi pauzalar asosida qo'yilishi intonatsiyaga bog'liqligini ko'rsatadi. Masalan, gapning uyushiq bo'laklari sanash intonatsiyasi bilan aytiladi: bundagi sanash

intonatsiyasi uyushiq bo'laklarning bir-biridan qisqa pauzalar orqali ajratib talaffuz etilishidan tug'iladi.

Nutqning mazmuniy, tuzilish va intonatsion jihatlari o'zaro zich bog'liq bo'lib, nutqning har qanday parchasida (gapda) shu uch xususiyat mujassamlashgan bo'ladi. Shu jihatdan quyidagi gapni tekshirib ko'raylik: *Xo'p, soat oltiga etib boraman.* (A.Qahhor) Bu gapdagi: a) *mazmuniy jihat*: xabarni anglatish, voqeani konstatziya qilish; b) *tarkibiy jihat*: sodda gap shaklida, tarkibida gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan, tasdiq ma'nosini anglatuvchi so'z (xo'p)bor; v) *intonatsion jihat*: pasayuvchi intonatsiya – darak intonatsiyasi bilan aytiladi, tasdiq bildiruvchi so'z qisqa pauza bilan asosiy gapdan ajratib talaffuz etiladi. Gapdagi bu uch tomonning dialektik birligi quyidagi misollarda ham yaqqol ko'rinadi: Onajonlarim, nechuk shamol uchirdi? (A.q.) Yugur, qo'zim, bolalarni chaqirib kel. (A.Makarenko) Yo'q, yo'q! U menga bir og'iz ham so'z aytmadi! (Sh.R.) U qo'shnisini – bir kampirni – chaqirdi. (A.q.)

2. Stilistik printsip. Bunda tinish belgilari nutq stillariga bog'liq holda ishlatiladi. Ma'lumki, gap shakllari xilma-xil bo'lib, bu holat, asosan, nutq stillariga ko'ra belgilanadi. Hozirgi kunda tillarning funktsional stillari rivojlanib, turmushda keng ko'lamda rivojlanishi va turli xil janrlarda ko'plab nashr ishlarining olib borilishi, kishilar madaniy saviyasi va savodxonligining oshishi, shu tufayli ularning nutqning u yoki bu stilidan o'z faoliyatlarida keng foydalana olishlari punktuatsiyaning taraqqiy etishiga olib keladi va uning stilistik funktsiyasini kengaytiradi.

Demak, stilistik printsip tinish belgilarining barcha nutq stillarida qo'llanish qonuniyatlarini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Stilistik printsip keng ma'noda bo'lib, punktuatsiya qoidalarining barcha nutq stillari uchun mushtarak bo'lgan umumiy qonuniyatlarini belgilaydi. Tinish belgilarining individual stilga ko'ra qo'llanishi mazkur stilistik printsipning bir ko'rinishi hisoblanadi va shunga asoslanadi.

Stilistik printsip tinish belgilarining qo'llanishidagi nutq stillariga xos umumiy holatlarni aniqlashda va konkret stilga doir tipik jihatlarni belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, ko'p nuqta, vergul, nuqta, so'roq va undov belgilari kabi tinish belgilarining qo'llanishi barcha yozuv stillarida (ilmiy, badiiy, ommaviy –siyosiy kitoblarda, gazeta va jurnallarda) deyarli bir xildir. Lekin ba'zi tinish belgilarining qo'llanishida farqlanadi. Masalan, ilmiy tekstlarda fikrning davomlilikini anglatuvchi gaplar oxiriga doim ikki nuqta qo'yiladi. Badiiy asarlarda esa bunday gaplar oxiriga ko'pincha nuqta ishlatiladi; ko'chirma gap o'rtasida kelgan avtor gapi barcha holatlarda (ilmiy, ilmiy-ommaviy, badiiy, publitsistik tekstlarda) ikki tomondan ikki tire va ikki vergul bilan ajratiladi. Gazetalarda esa faqat ikki vergul bilan ajratilishini ko'ramiz. (Gazetalarda tinish belgilarining bunday qo'llanishi ulardan foydalanishda soddalikka, ixchamlikka intilishini ko'rsatdi): Toshkent Deklaratsiyasi, d e y i l a d i y a n a r e z o l y u t s i y a d a, Hindiston va Pokiston halqlarining do'stona munosabatlar o'rnatish yo'lida astoydil qilinayotgan harakatlariga mos bo'lib tushadi.

Nutq stillariga xos barcha yozma tekstlarda dialoglar tire bilan boshlanganligini ko'ramiz. Ammo drammatik asarda har bir dialog (shaxsning so'zi) tire bilan boshlanmaydi. Bu holat drammatik asarlardagi dialoglarning berilishidagi uslubga ko'ra belgilanadi: drammatik asarda har bir dialogni aytuvchi shaxs alohida – alohida ta'kidlanganligi uchun (dialogdan oldin shaxsning nomi keltirilgan bo'ladi) dialoglarni o'zaro tire bilan ajratishga ehtiyoj qolmaydi.

Individual stilda tinish belgilari, asosan, turli sub'ektiv maqsadlar, emotsionallik uchun qo'llanadi: Yoz. Quyosh hamma yoqni qizdiradi. (O.) Yoz! Pishiqchilik - to'kinchilik fasli! (U.) Ko'rinadiki, yoz so'zidan tashkil topgan bir sostavli gap orqali ikki yozuvchi ikki xil maqsadni, ikki xil munosabatni ifodalagan. Bu munosabatlar tinish belgilari (nuqta va undov) vositasida reallashtirilgan, ya'ni yozuvchilar tinish belgilaridan o'z maqsadlariga muvofiq foydalanganlar. Lekin bundan «har bir yozuvchi tinish belgilaridan o'z istagicha foydalanaveradi» degan xulosa kelib chiqmaydi. Tinish belgilarining individual stilga mos ravishda qo'llanishi umumiy normaga, stilistik printsipga bo'ysunadi. Yozuvchining u yoki bu tinish belgisini qo'llashi uning maqsadi, nutq holati (obstanovkasi), qaysi stilda, qanday janrda va temada asar yozayotganligi bilan belgilanadi. Masalan, Uyg'unning asarlarida, ayniqsa, lirik asarlarida undov, so'roq, so'roq- undov, undov- ko'p nuqta kabi tinish belgilarining ko'proq qo'llanganligini ko'ramiz:

*Chindan ham bekinib turgan bo'lsa-chi,
Keksa majnun tolning soyasida u!...*

*Soyda kim shivirlar? Oh, hayol! Hayol!!
Aldama?! Yor bo'lib shivirlama, suv!... (U.)*

Tinish belgilarining qo'llanishidagi bunday holatlar nutq stillarining funktsiyasi, strukturasi va spetsifikasiga bog'liq holda aniqlanishi lozim.

3.Differentsiatsiya prinsipi. Bu printsipga ko'ra, tinish belgilari yozuv texnikasi (formasi)ni farqlash, tinish belgilarining qo'sha qo'llanishidagi tartib va sistemani belgilash, gapdagi murakkab mazmunni konkretlashtirish uchun qo'llanadi. Shuningdek, tinish belgilarining o'z shaklini o'zgartgan holda qo'llanishi ham shu printsipga asoslanadi.

Ba'zan jumla boshida yoki oxirida ikki qo'shtirnoqning parallel (barobar) ishlatilishi zarur bo'lib qoladi va bu ikki tinish belgisi ham barobar ishlatiladi. Bunday holatlarda ulardan biri (yonma-yon turgan ikki qo'shtirnoqdan birinchisi) boshqacha shaklda ishlatiladi: «*“Qutlug' qon”romani Oybekning birinchi yirik prozaik asaridir*», - dedi o'qituvchi. Bu misolda birinchi qo'shtirnoq «burchak» shaklida qo'llanib, ko'chirma nutqning boshlanish va tugallanish chegarasini aniq belgilash uchun ishlatilgan; ikkinchi qo'shtirnoq esa, odatdagidek qo'llanib, asarning nomini chegaralab ko'rsatgan.

Agar ikki qavsning birgalikda ishlatilishi lozim bo'lsa, ularning birinchisi katta qavs (kvadrat qavs) shaklida, ikkinchisi esa odatdagidek (kichik qavs) shaklida ishlatiladi: *Ikki komanda («Paxtakor» (Toshkent) – «qayrat» (Olma-ota) o'rtasidagi uchrashuv maydon egalarining g'alabasi bilan tugadi.* qavsning ikki xil shaklda ishlatilishi tasodifiy hodisa emas; bu bilan yozma nutqning stilistik ravonligi, o'zaro aloqador qismlarning chegarasi, sintaktik munosabatlari aniq ko'rsatiladi.

Ilmiy stilda, jumla ichida so'zlarni qisqartirishda, tsitatalarning manbaini ko'rsatishda, havolalarda, kitob muqovalarida nashriyot nomi va nashr vaqtini ko'rsatishda tinish belgilari differentsiatsiya printsipiga asosan ishlatiladi. Masalan: *Toshkent – 1965 yoki T., 1965; «Fan» nashriyoti, Toshkent – 1966 yoki «Fan» nashr., T.,1966.* Misollardan ko'rinadiki, so'zlar qisqartirilmaganda faqat tire ishlatilsa, ular qisqartirilganda tirening o'rniga ikki tinish belgisi – nuqta va vergul qo'yiladi. Demak, tinish belgilarining yozuv formalariga bog'liq holda odatdagidan farqli ishlatilishi differentsiatsiya printsipi asosida yuz beradi.

Demak, hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari uch printsip – logik-grammatik, stilistik va differentsiatsiya printsiplari asosida qo'yiladi. Bulardan logik-grammatik printsip etakchi bo'lib, keyingi ikki printsip shunga asoslanadi.

Muhokama uchun savollar

3.1.1. Punktatsiya printsipi nima?

3.1.2. O'zbek punktatsiyasi printsiplariga nimalar kiradi?

3.1.3. Printsip va usulning farqi.

4-masala: O'zbek tilida tinish belgilarining miqdori va qo'llanish usuli.

Tinish belgilari yozma nutqni ifodalashda muhim vositalardan hisoblanadi. Yozma tekstda yoki bu tinish belgisining ishlatilishi shu gapdan kuzatilgan maqsad va uning qanday formada ifodalanishiga – semantik-sintaktik strukturasi – bog'liqdir. qiyoslang: 1. *Rais aka, qo'l bering. Mayli, yana cho'l bering.* 2. *Rais aka, qo'l bering! Paxtaga keng yo'l bering!* (O'tkir Rashid) Keltirilgan gaplar, kuzatilgan maqsadga ko'ra, buyruq gap turkumiga kiradi. Ularda tinish belgilarining ikki xil qo'llanganligi mazkur gaplardagi mazmuniy munosabatning (buyruq ma'nosining) turliligiga bog'liq. Ularda leksik vositalar va intonatsion holat o'zgacha. Birinchi misolda buyruq ma'nosi *tashviq, murojaat, iltimos* formasida berilgan. Unda *tashviq, murojaat, iltimos* ottenkalari kuchli, umuman, «buyruq iltimos» ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun birinchi misoldagi buyruq gaplar oxiriga nuqta qo'yilgan; ikkinchi gap ham «buyruq - iltimos» ma'nosini ifodalaydi, biroq unda *buyruq ottenkasi* kuchli. Shuning uchun keyingi gap oxiriga undov belgisi qo'yilgan. Birinchi misolda mayli kirish so'zi gapning buyruq ma'nosini kuchsizlantirgan. Demak, leksik vositaning boshqachaligi («*mayli*» ning qo'llanishi), shunga bog'liq holda struktura va intonatsiyaion holatning o'zgarishi iltimos ma'nosining kuchayishiga sabab bo'lgan.

Tinish belgilarining qo'llanish xususiyatlarini puxta bilishi va unga amal qilish yozma nutqni har jihatdan to'g'ri, aniq bayon etishda, savodli ifodalashda, yozuv madaniyatini egallashda,

yozma nutqni taraqqiy ettirishda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Puntuatsiya qoidalari hamma uchun (yozuvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham) umumiydir.

Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilarining qo'llanish doirasi, funktsiyasi kengayib, puntuatsion normalar stabillashib bormoqda. Bu tire, vergul, qo'shtirnoq kabi tinish belgilarining qo'llanish jarayonida ochiq ko'rinadi. Bu protsess o'zbek yozuv madaniyatining, o'zbek tili sintaktik qurilishining va o'zbek adabiy tili funktsional stillarining rivojlanishi, taraqqiyoti va takomillashuvi bilan bog'liq.

Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari o'nta, ularning nomlanishi va shakli quyidagicha:

№	Nomi	Shakli
1.	Nuqta	.
2.	So'roq belgisi	?
3.	Undov belgisi	!
4.	Nuqtali vergul	;
5.	Ko'p nuqta (uch nuqta)	...
6.	Vergul (qo'sh vergul)	, yoki ,,
7.	Ikki nuqta (bayon belgisi)	:
8.	Tire (qo'sh tire)	- yoki - -
9.	qavs (qo'sh qavs)	(), []
10.	Tinoq (qo'shtirnoq)	“ “, « »,

Tinsh belgilarining yuqoridagi shakllari hozirgi o'zbek tili yozuv sistemasi uchun qabul qilingan yagona, asosiy, normal formadir. Shunga ko'ra, barcha nashriyot va bosmaxona ishlarida, o'quv-o'qituv sistemasida mazkur tinsh belgisining normallashtirilgan shaklidan (asosiy formadan) foydalaniladi. Tablitsada vergul, tire va qavsning ikki xil shakli, tirnoqning esa uch xil shakli ko'rsatilgan. Bularning birinchisi asosiy forma, qolganlari esa variant (yordamchi forma) sanaladi. Har bir variant o'z qo'llanish qonuniyatlariga ega. Masalan, tirnoq (qo'shtirnoq) odatdagi shaklidan tashqari «burchak» va «yakka tirnoq» formalarida, qavs esa katta qavs va kichik qavs formalarida ham ishlatiladi. Tinsh belgilarining turli shaklda ishlatilishi texnik sababga, nashriy qulaylikka, stilistik holatga (uslubga) va individual badiiy yozuv stiliga ko'ra belgilanadi.

Tinsh belgilarining, yozma tekst xarakteriga ko'ra o'z shaklini o'zgartgan holda qo'llanishi muayyan shart-sharoitlar, qonun-qoidalar, ko'proq uslub talabi bilan bo'ladi.

Tinsh belgilarining miqdori va shakli har bir milliy tilning o'z normalariga ko'ra belgilanadi. Masalan, ingliz tilida defis va apostrof ham tinsh belgisi hisoblanadi. Ispan tilida so'roq va undov belgilari gapning boshida va oxirida qo'llanib, jumla boshida ishlatilganda teskari shaklda qo'yiladi.

Hozirgi o'zbek tilida tinsh belgilari quyidagi usulda qo'llanadi: a) yakka holatda; b) qo'sha holatda.

Yakka holatda qo'llanganda, bir belgi muayyan tekstda alohida funktsiyani bajaradi: *Tishing qani? qani, o'g'lim, kechagi cho'pchakni ayt!* (Oybek)

qo'sha qo'llanganda esa ular takror holatda yoki ikki va undan ortiq tinsh belgisi birgalikda (ketma-ket, yonma-yon) qo'yiladi: - *O'lim yovga!!!* (H.O.)

qachongacha bizni aldaysizlar?!

Bo'ldi endi!.. Endi toqat yo'q!.. (Uyg'un)

Keltirilgan misollarning birinchisida undov belgisi uchtagacha takror ishlatilgan: ikkinchisida so'roq va undov, uchunchi va to'rtinchisida esa undov va ko'p nuqta birgalikda (qo'sha) qo'llangan.

Muhokama uchun savollar

4.1.1. Hozirgi o'zbek adabiy tilida nechta tinsh belgisi ishlatiladi?

4.2.1. Hozirgi o'zbek adabiy tilida tinsh belgilari qanday me'zonlarga ko'ra ishlatiladi?

4.2.2. Tinsh belgilarining ishlatilish usullari deganda nimani tushunishimiz kerak?

4.3.1. Tinish belgilarining ishlatilish usullari bilan ularni ishlatish printsiplari o'rtasida qanday farqlar bor?

4.3.2. Hozirgi kun matbuoti tilida tinish belgilarini ishlatishda qanday hatolarga yo'l qo'yilmoqda, buning sabablari nimada?

Mavzu: Tinish belgilarini ishlatilish usullari va o'rinlari

AJRATILGAN VAQT : 4 soat

Reja:

1. O'zbek tilida tinish belgilarini ishlatish usullari.
2. Nuqta va vergulning ishlatilish o'rinlari..
3. So'roq va undov belgilarining ishlatilish o'rinlari.
4. Tire va nuqtali vergul, ikki nuqtaning ishlatilish o'rinlari.
5. Ko'p nuqta, qavs va qo'shtirnoqning ishlatilish o'rinlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar

Nuqta, vergul, nuqtali vergul, so'roq belgisi, undov belgisi, tire, ikki nuqta, ko'p nuqta, qavs, qo'shtirnoq, yakka ishlatish, qo'sha ishlatish.

1-masala bayoni

Hozirgi o'zbek tilida tinish belgilarining qo'llanish usuli, o'rni, funktsiyasi turlichadir. Masalan, nuqta ko'proq gap oxirida qo'llanib, fikrning tugallanganligini bildirsa, vergul har doim gap ichida qo'llanib, turli semantik-sintaktik funktsiyalarni bajaradi: gap va gap qismlarini birikish, ayirish va chegaralash uchun xizmat qiladi. Masalan: *Ingichka, a mm o d a r o z, cho'tirnamo tarozibon kuldi.* (O.) Bahor keldi, gullar ochildi. Vergul birinchi misolda ma'lum bo'lakni ayirish, ajratish; ikkinchi misolda esa Qo'shma gap qismlarini birlashtirish (bog'lash) vazifasini bajargan. Chunki bunda gaplar o'zaro birlashtirish intonatsiyasi asosida munosabatga kirishgan va bu holat yozuvda vergul bilan ko'rsatilgan.

O'zbek tilida tinish belgilari ikki xil usulda ishlatiladi. a) yakka xolda, b) qo'sha xolda.

Tinish belgilarini yakka holda ishlatish keng tarqalgan. Chunki har bir tinish belgisi o'z vazifasiga egadir.

Tinish belgilarini qo'sha qo'llaganda ham ma'lum maqsadlar ko'zda tutiladi. O'zbek nutqida ko'proq undov, undov va so'roqning qo'sha ishlatilishi kuzatiladi. Lekin ba'zan vergul va tirelar ham qo'sh vergul, qo'sh tire tarzida takror (qo'sha, birgalikda) ishlatiladi. Vergul va tirelarning qo'sha qo'llanishi alohida xususiyatga ega:

1. Gap o'rtasida kelgan kirish so'zlar, kirish so'z birlashtirish qo'sh vergul bilan ajratiladi: Bu, bir t o m o n d a n, t o'g' r i f i k r k u – ya, ammo qora donalarda o'ynab turib, yutuqni mo'ljalga olish uchun bundan yaxshiroq debyutni topish ham qiyin-da!!

1. Gap o'rtasida kelgan undalmalar qo'sh vergul bilan ajratiladi: *Guvoh bo'ling, o'rt o q l a r, shu – mening o'g'lim bo'ladi.* (G'.G'.)

2. Bosh gapning o'rtasida kelgan ergash gaplar qo'sh vergul bilan ajratiladi: *Yo'lchi shu choq, q a n c h a a q c h a s i b o' l s a h a m, berishga tayyor edi.* (O.)

3. Gap o'rtasida kelgan va turli xil modal munosabatlarni ifodalagan *ha, yo'q, qani, xo'sh, xo'p* kabi so'zlar va undovlar qo'sh vergul bilan ajratiladi: *qani, x o' sh, xizmat? – dedi hayajonini bosishga urinib.*

4. Gap o'rtasida kelgan ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar qo'sh vergul bilan ajratiladi. Agar ajratish, ta'kid juda kuchli bo'lsa, bunday vaqtlarda qo'sh vergul o'rnida qo'sh tire ishlatiladi: *«Oqlon» shaharchasi, s o b i q K o' k c h a d a r v o z a s i d a, ular mashinadan tushishdi.* (O.)

Tutilib, shoshilib, hovliqib tillar

Parashyutchi qizni – B a s h o r n i – so'zlar. (U.)

5. Ko'chirma (o'zga) gapning o'rtasida kelgan avtor gapi ham qo'sha vergul, ham qo'sh tire bilan ajratiladi: «Biz, - d e d i j a m h a r a i s i, - paxta planini ortig'i bilan bajaramiz».

Bunday vaqtlarda ba'zan (ko'proq gazetalarda) qo'sh vergulning o'zi ishlatiladi: Vazifa, t a ' k i d l a d i d o k l a d c h i, g'o'za parvarishini o'z vaqtida sifatli o'tkazishdan iborat.

Muhokama uchun savollar

4.3.1. Tinish belgilarining ishlatilish usullari va o'rinlari masalasining aloqadorligi va farqlari.

4.3.2. Tinish belgilarining turlari va ularni ishlatish o'rinlari munosabati.

2-masala: Nuqta va vergul, ularning ishlatilish o'rinlari.

Nuqta – eng qadimgi va eng ko'p qo'llanuvchi tinish belgilaridan biri. Nuqta yozuv belgisi sifatida arabcha tekstda Abdul Malik halifaligi (hijriy I asr) davridan qo'llana boshlagan. Lekin qadimgi yozuvlardagi nuqta tom ma'nodagi tinish belgisi sifatida emas, umuman, yozuv belgisi sifatida qo'llangan va turli funktsiyalarni bajarib, turli xil maqsadlarda ishlatilgan. Keyinchalik, XIX asrning II yarmidan boshlab, tinish belgisi sifatida ishlatilgan. Nuqtaning asosiy funktsiyasi habar ma'nosini anglatuvchi muayyan bir fikrning (gapning) tugallanganligini ko'rsatishdir. Bundan tashqari, nuqta shu gapda fakti, hodisani konstatatsiya qiluvchi ma'no borligini ham anglatadi; bu jihatdan u ma'noni farqlovchi vosita hamdir.

Nuqta gap oxirida qo'llanadi. Uning qo'llanishi logik-grammatik prinsipga asoslanadi.

Ba'zan nuqta shartli qisqartmalardan so'ng ham ishlatiladi. Bunda stilistik yoki differentsiatsiya printsiplariga asoslaniladi. Nuqtaning shartli qisqartmalardan so'ng qo'llanishi uning qo'shimcha (yordamchi) funktsiyasidir. qiyoslang: *Alisher Navoiy – ulug' shoir! A.Navoiy – ulug' shoir !* Ikkinchi gapda *Alisher* so'zidan so'ng nuqtaning qo'yilishi individual stil, yozuv uslubi (texnikasi) bilan bog'liq bo'lib, agar *Alisher* so'zi qisqartirilmaganda, ikkinchi gapda ham nuqtani ishlatishga ehtiyoj tug'ilmay edi.

Hozirgi o'zbek tilida nuqta quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Darak gaplar oxiriga qo'yiladi. Ma'lumki, darak gaplarda habar ma'nosini ifodalanadi, voqea, hodisa ta'kidlanadi. Shuningdek, darak gaplardan iltimos, nasihat, orzu-istak kabi ma'no ottenkalari ham anglashiladi. Darak gaplar tinch ohang, pasayuvchi intonatsiya bilan aytiladi, intonatsiya, ayniqsa, oxirgi so'zda (bo'lakda) juda pasayadi. Bu «nuqta intonatsiyasi» deb yuritiladi.

Oxiriga nuqta qo'yiluvchi darak gaplar struktura jihatdan xilma-xil bo'lishi mumkin: sodda va Qo'shma, bir sostavli va ikki sostavli, to'liq va to'liqsiz gap kabi. Masalan:

qarang, shu kuni ertalabgacha qor yog'ib chiqdi.

-«Uzr so'rang qambardan». – «Ana endi tushundim».

-«Uzr so'ra, tushunsang». (*Uyg'un*)

Bayon et, ey ko'ngul, rozingni har dam,

Eshitsun ahli dillar bo'lsa hamdam. (Nozimaxonim)

Nuqtaning bir sostavli gaplarda (nominativ gaplarda) qo'llanishi xarakterlidir. Nominativ gaplar narsa va hodisalarning nomini (atamasini) bildirib, ko'proq ot turkumidagi so'zlar bilan ifodalanadi va shu so'z anglatgan ma'no mazkur nominativ gapning mazmuni hisoblanadi – mavjudlik ma'nosi tasdiq yo'li bilan beriladi. Nominativ gaplarda emotsional bo'yoq bo'lmaydi. (Agar bu gaplarda emotsionallik qo'shilsa, shunga xos intonatsiya bilan aytilsa, bu vaqtda ularning oxiriga nuqta emas, undov belgisi qo'yiladi.) Masalan:

Qor. Sovuq. Bo'ronning o'chmagan uni.

Ayozning zabtidan qaltirar daraxt. (U.)

2. Ba'zan buyruq gaplar oxiriga qo'yiladi. Bunday buyruq gaplar sof buyruq mazmunini anglatmay, buyruq bilan birga, emotsional ma'no ham ifodalaydi: buyruq - iltimos, buyruq - yalinish, buyruq - istak, buyruq - so'roq, buyruq - maslahat, buyruq - nasihat, buyruq - ogohlantirish, buyruq - da'vat etish(undash), buyruq - ruxsat (yoki taklif) kabi. Bunday gaplarning har biri o'ziga xos ohang va intonatsiya bilan aytiladi hamda o'z grammatik xususiyatlariga ega bo'ladi. Masalan, buyruq - istak ma'nosini ifodalovchi gaplarning kesimi ko'proq shart fe'li formasida bo'ladi: Tezroq, tezroq ko'zim ochilsa. (S.A.) («Ko'zim ochilsin» ma'nosida.) Mazkur gaplardagi intonatsiya, sintaktik holatlarni o'zgartirish orqali ham ulardagi ma'noni farqlash mumkin. qiyoslang: Menga so'z bering. (buyruq-iltimos ma'nosini) – Co'z bering menga! (buyruq-do'q) – Menga so'z bering! (buyruq - qat'iylik, qat'iy buyruq, kuchaygan buyruq.) Ba'zan bu ma'no ottenkalarining ifodalanishida ayrim grammatik ko'rsatkichlar (istak, shart mayli affikslari va ba'zi yuklamalar) muhim rol o'ynaydi.

Masalan: *Shunday yosh xotining umriga zomin bo'lganingdan keyin jabrini ham tortda.* (G'.G'.) *qo'rqma, qochsang o'zingga jabr qilasan. qani, yur-chi ichkariga.* (P.Tursin)

Tark etma nazokatni, xulqingga jaf o'qilma,
Izzatni berib elga, behuda safo qilma. (U.)

3. Remarka tipidagi gaplar oxiriga qo'yiladi. Ma'lumki, remarkalarda pesadagi voqealarning tavsifi, personajlarning vaziyati, ichki kechinmalari beriladi. Bu jihatdan remarkalardagi mazmun darak gapdagi mazmunga o'xshash bo'ladi; fakt, voqea, hodisa, holat ta'kidlanadi. Masalan: - *Halqimga, ijodimga!* (K e t a b o s h l a y d i.)- Hayr, shahanshoh!

(Y o' l i d a d a v o m e t a d i. H a m m a b o s h e g i b t u r -
g a n j o y i d a q o t i b q o l a d i. T a s h q a r i d a n N a v o i y n i o l q i s h l a g a n x a l q n i
n g o v o z l a r i e s h i -
t i l a d i.) (U.)

Agar remarka personaj nomini bildiruvchi so'zdan keyin kelib, uning harakatini anglatsa, bunday remarkalar oxiriga nuqta qo'yilmaydi. Chunki bu tipdagi remarkalar personaj nomi bilan birgalikda bir sintaktik butunlikni tashkil etadi. Masalan: q o' l d o s h (c h o' c h i b). Y o' g' e! T o s h m a t (k u l i b). O' n i k k i - y u n o l - n o l d a! Q o d i r (P a t t i x o n g a). Siz hoynahoy remont jo'nidan kelgandirsiz. Q o d i r (i c h k a r i g a t a k l i f q i l i b). Q a n i m a r h a m a t! (U.)

Shuningdek, *davomi 3-betda, davomi kelgusi sonda, boshi gazetaning avvalgi sonida, davomi bor* tipidagi iboralardan so'ng ham nuqta qo'yiladi, chunki ular gapga teng intonatsiya bilan aytiladi va ularda gapga xos predikativlik bo'ladi.

4. Numerativlar bilan sanab ko'rsatilgan gaplar oxiriga (agar ular o'zidan oldingi va keyingi gaplar yoki numerativlar bilan izohlanmasa) qo'yiladi. Masalan: ...quyidagi onalarga «qahramon ona» faxriy unvoni berilsin:

Keng ma'noda qaror, rezolyutsiya, deklaratsiya va ayrim hujjatlardagi punktlar (numerativlar) ham shunga kiradi.

Ammo numerativlardagi gaplardan mazmuniy bog'liqlik sezilsa yoki ular tugallanmagan fikrni anglatsa, bunday paytda ularning oxiriga nuqtali vergul qo'yiladi: numerativni ko'rsatuvchi son yoki harflar esa yarim qavsqa olingan bo'ladi.

5. Bir nechta mustaqil (bir-biri bilan semantik-grammatik bog'lanmagan) darak gaplardan tashkil topgan yirik sarlavhalar va ayrim yirik rubrikalardagi gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi. Bunda nuqta gaplarni o'zaro ajratish uchun xizmat qiladi. Nuqtaning bundagi vazifasi ko'proq nuqtali vergulning vazifasiga yaqinlashadi: sarlavha va rubrikalarni tashkil etuvchi qismlar (gaplar) mazmunan bir-biriga uncha yaqin bo'lmaydi. Masalan: *Halq kontroliga ko'maklashuvchi grupp. Postlarga rahbarlik – partiyaviy ishning muhim qismi. Paxta nobudgarchiligiga qarshi kurash – halq nazoratchilarining burchi. Chorvachilikka alohida e'tibor. Jonkuyarlar tashabbusi ortmoqda. Oqqo'rg'on, Bo'ka va O'rta Chirchiq rayonlarida mashina bilan paxta terish kun sayin kuchaytirilmoqda. Hosil pishib etilgan joylarda mashinalarning normal ishlashini ta'minlaylik. Bekobod, Kalinin, Orjonikidze rayonlarida g'o'zani defoliatsiya qilish keyingi kunlarda susaytirib yuborildi. Paxta terish va tayyorlash sur'atini hamma joyda keskin ko'taraylik.* («Toshk.haqq»)

6. Ba'zan izoh mazmunini anglatuvchi gaplar oxiriga qo'yiladi. Bu holat, asosan, badiiy asarlarda uchraydi. Masalan: *Xolmurodni boshlab kirgan Ergash bu erdagi «ajoyibotlarni» tushuntirdi. – Mana bularni «vanna» deyiladi; mana buni esa «titan» deyiladi...* (P.Tursun) *Uni kelgan mehmonlardan, kampiridan xoli qilib gapga soldim: - Saodat opalariningnikiga mening kelganimni habar qildingmi?* (G'.G'.)

Nuqtaning bunday o'rinlarda qo'llanishi badiiy uslubga xos bo'lib, stilistik printsipga ko'ra belgilanadi. Chunki izoh ma'nosini anglatuvchi gaplardan so'ng nuqtaning ishlatilishi boshqa nutq stillarida, masalan, ilmiy stilda uchramaydi. (Bunday paytda boshqa stildagi tekstlarda ikki nuqta ishlatiladi.)

7. Raqamlar yoki harflar bilan ko'rsatilgan numerativlardan so'ng qo'yiladi. Bunda numerativdan keyingi gaplar mustaqillikka ega bo'lishi shart. (Agar bunday gaplar biri ikkinchisiga bog'liq, mazmunan tobe, tugallanmagan bo'lsa, unda numerativni ko'rsatuvchi raqam yoki harfdan so'ng yarim qavs qo'yiladi.)

8. Bosh harflar yoki bo'g'inlar bilan ko'rsatilgan shartli qisqartmalardan so'ng ham nuqta qo'yiladi. Bunday shartli qisqartmalarni ayrim tashkilotlarning nomini bildiruvchi qisqartma so'zlardan

farqlash kerak. qisqartma soʻzlar umumnorma, umumqoidaga muvofiq boʻlib, ularning nuqtasiz yozilishi qoidalashgan boʻladi; shartli qisqartmalar esa individual uslub bilan bogʻliq, yozuv texnikasi usuliga koʻra qoʻllanadi. Masalan: *Alisher Navoiy – A.Navoiy, Aleksandr Sergeevich Pushkin – A.S.Pushkin* kabi.

9. Tsitataning manbaini koʻrsatuvchi kiritmalar tekst ichida yoki havolada berilsa va manbada avtor, asarning nomi, asarning nashri, beti toʻliq koʻrsatilsa, bunda avtor nomidan soʻng va oxirgi soʻzdan keyin nuqta qoʻyiladi. Masalan: «Har narsadan oliy yurt va halq baxti!» (Uygʻun. «Vafo».) Yoki havola (snoska)da: *H.Olimjon. tanlangan asarlar, Oʻznavnashr, T., 1951 yil, 5-bet.*

Agar manbada faqat avtorning nomi toʻliq shaklda yoki asarning nomi va beti koʻrsatilgan boʻlsa, bunda ulardan soʻng nuqta qoʻyilmaydi. Shuningdek, havolada asarning nomi koʻrsatilmaydi, *yuqoridagi asar* yoki *koʻrsatilgan asar* deyilsa, unda avtor nomidan soʻng nuqta emas, vergul qoʻyiladi. Manba *gazetadan, jurnaldan, falon asardan* deb koʻrsatilganda ham, ulardan soʻng nuqta qoʻyilmaydi.

10. Matematikada nuqta koʻpaytiruvchi alohidi (ishorasi, belgisi) sifatida qoʻllanadi. Bunda u ikki raqam oʻrtasida qoʻyilib, koʻpaytirish belgisini bildiradi: $2 \cdot 2$ q4 (2×2 q4), $3 \cdot 3$ q9 (3×3 q9) kabi.

Baʼzan nuqta murakkab sonlarni (raqamlarni) sinflarga boʻlib koʻrsatish uchun ham ishlatiladi. Bunda murakkab (koʻp xonali) sonlarni oʻqish osonlashadi, metodik izchillik, qulaylik vujudga keladi: 4.400.000 tonna «oq oltin».

12. Baʼzan nuqta chislolarda kun, oy va yillarni ajratish uchun ishlatiladi. Bu davlat xujjatlarida, ayrim yozuvchilarning asarlarida uchraydi. masalan: 5.XII.1970 (5 dekabr, 1970 yil), 20.03.70 (20 mart, 1970 yil). qiyoslang: 1915GʻIV70 yil (15 aprel, 1970 yil). Chisloni bu tartibda yozish vrachlar uslubiga xos.

Vergul va uning qoʻllanish oʻrinlari.

Vergul oʻzbek yozuvida XX asrdan qoʻllana boshladi. «Turkiston viloyatining gazetasi» sahifalarida 1901 yildan, Toshkentda nashr etilgan «Taraqqiy» gazetasida esa 1906 yildan boshlab ishlatilgani maʼlum. Vergul eng qadimgi tinish belgilaridan boʻlib, oʻzining uzoq tarixiga ega: u Gʻarbiy Evropa yozuvlarida XV asrdan tinish belgisi sifatida qoʻllana boshlagan.

Vergul eng koʻp qoʻllanuvchi va eng koʻp funktsiyani bajaruvchi tinish belgilaridan hisoblanadi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida vergulning qoʻllanish doirasi, funktsiyasi kengayib bormoqda. Masalan, ilgari koʻchirma nutq oʻrtasida kelgan avtor gapi ikki tomondan vergul va tire bilan ajratilgan boʻlsa, hozirgi kunda faqat qoʻsh vergul bilan ajratilmoqda; tirening funktsiyasini ham vergul bajaryapti: Jamoamiz aʼzolari, dedi rais, fidokorona mehnat qilmoqdalar.

Vergul quyidagi funktsiyalarda keladi: a) gap boʻlaklari va gaplarning oʻzaro birikuvini koʻrsatadi; b) gap boʻlaklari, gaplar, ayrim soʻzlar va iboralarni ajratadi, ayiradi, boʻladi; v) tekstdagi ayrim qismlarni chegaralaydi.

Vergul sodda gap tarkibida ham, Qoʻshma gap tarkibida ham qoʻllanadi. Vergul Qoʻshma gap tarkibida koʻproq uchraydi.

Muhokama uchun savollar

1. Oʻzbek tilida nuqta qanday oʻrinlarda ishlatiladi va qanday vazifalarni bajaradi?

2. Vergulning vazifalari nimalardan iborat, u qaerlarda ishlatiladi?

3- masala: SOʻROQ VA UNDOV BELGISI VA ULARNING qOʻLLANISH OʻRINLARI.

Soʻroq belgisi gap oxirida qoʻllanuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi. Bu belgi mazmunidan soʻroq anglashilgan gaplar oxiriga qoʻyiladi; shu gapning tugallanish nuqtasini, uning boshqa gaplardan ajralish chegarasini koʻrsatadi va mazkur gapning ifoda maqsadiga koʻra soʻroq gap egaligini bildiradi. Masalan: qayoqqa chekinasan? Bormi keraksiz ering? Ne uchun odam boʻlding, kemasang dushmanga teng? (H.O.) – Ilgari kim boʻlgan bu odam? Turdivoy halfa nima dedi? Kim toʻy qilyapdi? – deb soʻradi Xolmurod. (P.Tursin)- Nima? Nimalar deding? (U.) Prof. A.N.Gvozdyov «soʻroq belgisi latincha Questio (soʻroq) soʻzining qisqarishidan kelib chiqadi.» deb koʻrsatadi: avval soʻroq maʼnosini ifodalash uchun bu soʻz qisqartirib (Q - O) qoʻllangan; keyinchalik mazkur funktsiya shu soʻzning faqat bosh harfi ishlatilgan (Q); bundan hozirgi soʻroq belgisi (?) paydo boʻlgan.

So'roq belgisining o'zbek tilida qo'llana boshlashi XIX asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Bu belgi o'zbek tiliga rus tilidan kirgan. U 1885 yildagi ba'zi o'zbekcha matnlarda uchraydi. «Turkiston viloyatining gazetisi» sahifalarida 1900 yildan keyin muntazam qo'llanana boshlagan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida so'roq belgisining qo'llanishi quyidagicha:

1. Sof so'roq ma'nosini anglatuvchi gaplar oxiriga qo'yiladi. Bunday gaplar ikki xil shakllangan bo'ladi: a) tarkibida so'roqni bildiruvchi vositalar ishtirok etadi. – Endi ketib qolmaysizmi? Ha, nima, o'lasanmi, kap-katta qiz-a? (G'.G'.) b) tarkibida so'roqni bildiruvchi grammatik vositalar ishtirok etmaydi: bundagi so'roq ma'nosi yozuvda so'roq belgisi orqali og'zaki nutqada intonatsiya orqali bilinadi: To'ygacha qo'limni ham ushlatmayman deysiz chog'i? (U.)

So'roqni anglatuvchi gaplar to'liq va to'liqsiz gap shaklida bo'lganda ham, so'roq belgisi qo'llanadi: Ustingizdan shikoyat tushdi. – Shikoyat?(K.Yashin) Bo'lar – bo'lmasga yig'lagan vaqtingiz ham bo'lgandir? (A.qodirov) Bu imorat otangizdan qolgan bo'lsa kerak? (A.qahhor)

So'roqni anglatuvchi gaplar sodda va Qo'shma gap shaklida bo'lishi mumkin. sodda gap shaklidagi so'roq gaplarda taajjub, taxmin, chama, buyruq kabi ma'no ottenkalari ham ifodalanadi. Masalan: – Mening soatim to'xtab qolibdi. – Soatim to'xtab qolibdi? (A.q.) Bas endi, uka, ichmang! – Ichmang? Siz ham ichasiz! (A.q.) Xo'sh, masalani hal qildik, shekilli? (O.) Kechgacha yana uch barobar bo'lar? (A.q.) Plan bajarilgan bo'lsa kerak?

Qo'shma gaplarda so'roq ma'nosining ifodalanishi xiyla murakkab: Qo'shma gapni tashkil etuvchi barcha gaplardan (komponentlaridan) so'roq ma'nosi anglashiladi; Qo'shma gapni tashkil etuvchi bir gap so'roq ma'nosini anglatib, ikkinchi (yoki boshqalari) shu ma'noni ifodalamaydi; ergash gapli qo'shma gaplarda esa so'roq ma'nosi bosh gapda bo'lishi mumkin va aksincha; ergash gap so'roq ma'nosini anglatganda, ko'pincha bosh gapdan so'ng qo'llanadi.

Bunday holatlarda ham gap oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi. Masalan: *Axir har borganingizda, pochchangiz quruq qo'ymas?* (A.q.) *Qanday uxlar, oyli tun qizning yuragiga hayajon solsa?* (U.) *O'zing-ku xatingda quyoshim debsan, Nega g'arbga ketsam yig'laysan to'lib?* (U.)

2. Taqrizlarda yoki tsitalalarda biron so'z yoki jumla noaniqlik, gumon va anglashilmovchilikni bildirsa, bunday so'z va jumladan so'ng so'roq belgisi qavsga o'ralgan holda qo'yiladi. Masalan: «*Onaning bokira siynasida(?) gavgalangan...»*, *kampir o'zining sodda tafakkuri, o'tmish ongi(?) bilan, tilidagi o'zbekcha joziba (?) bilan esda qoladi.* («O'zb.mad») Ba'zan bunday paytlarda so'roq belgisi qo'sha qo'llanadi. Bu jumladagi qo'pol xatoni, noaniqlikni, avtorning kuchli noroziligi ko'rsatadi. Masalan: ...umumtomoshabinning qalbida asir etgan ko'rku-bastigami (??) yo jahonshumul ahamiyati sayqal berib turadi. («O'zb.mad») Bu haqda quyida («So'roq belgisining takroriy qo'sha qo'llanishi») batafsil gapiriladi.

3. So'roq gap tipidagi sarlavhalardan keyin so'roq belgisi qo'yiladi: *Teatr bolalarga nima beradi?*(«Toshk.oqshomi») *Bu haqda nimalarni bilasiz? Inglizlar qanday salomlashadi?* («Toshk.oqshomi») *Xo'jalik yilini qanday yakunlayapsiz?*

4. *Kim, nima qaysi, qanaqa, qanday qilib, nima qildi* kabi so'z va so'z birikmalari so'roq ma'nosi uchun ishlatilsa, ulardan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi. Masalan: *Ega kim?, nima?, kimlar?, nimalar?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Undov belgisi va uning qo'llanish o'rinlari.

Undov belgisi gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilariga kiradi. Undov belgisi o'z strukturasi ko'ra, ikki elementli tinish belgisi.

Undov belgisi badiiy asarlarda (ayniqsa, poeziya, lirik asarlarda) ko'p qo'llanadi: yozma nuqtadagi turli tuyg'ular, xolatlar, emotsionalliklarni ifodalashda undov belgisi roli katta. Shuning uchun bo'lsa kerak, lirik shoir Uyg'unning asarlarida undov belgisi boshqa shoir va yozuvchilarning asarlariga nisbatan ko'p qo'llangan.

Hozirgi o'zbek tilida undov belgisi takroriy, oddiy va murakkab qo'sha (birlikda)qo'llanish xususiyatiga ega: undov belgisi bir o'rinda uch martagacha takroriy qo'llana oladi. Masalan:

Seni unitolmas yuragim aslo,

Ey, O'rta Osiyo, O'rta Osiyo!!! (H.O.)

Undov belgisi boshqa tinish belgilari bilan (vergul va ikki nuqtadan tashqari) birlikda ham qo'llanadi.

Undov belgisi undov va buyruq gaplar oxirida qo'yiladi. Bunda bu mazkur gapning emotsional yoki qat'iy buyruq ma'nosiga ega ekanligini, tugallanganligini boshqa gaplardan chegaralanish nuqtasini ko'rsatadi. Bunday gaplarda to'liqlik intonatsiya bilan aytiladi.

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tili orqali o'tgan. U, o'zbekcha yozuvlarda XX asr boshidan boshlab mumtazam ravishda ishlatilgan. «Turkiston viloyatining gazetisi»da 1901 yildan qo'llana boshlagan. Prof. A.N.Gvozdyov «Undov belgisi lotincha lo (Lo) undov so'zidan kelib chiqqan» deb ko'rsatadi; latincha L harfining nuqta bilan qo'shiluvi asosida undov belgisi xosil bo'lgan: l q !

Hozirgi o'zbek adabiy tilida undov belgisining qo'llanish doirasi funktsiyasi kengayib bormoqda. Badiiy adabiy, ilmiy-publitsistik asarlar, gazeta va jurnallarda undov belgisi xilma-xil maqsadlarda qo'llangan va u ishlatilgan gaplar ham semantik, ham struktura, ham sintaktik jihatdan rang – barang. Undov belgisining, faqat undov gaplardagina emas, vokativ, ba'zi nominativ va so'roq gap tiplarda ham qo'llanishi yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida undov belgisining qo'llanishi quyidagicha:

1.Undov gaplar oxiriga qo'yiladi. Bunday gaplar emotsionallikni anglatib, kuchli ko'tariluvchan, to'liqlik intonatsiya bilan aytiladi va ular leksik-grammatik, intonatsion va struktura jihatdan turlicha bo'lishi mumkin: Oltinsoy ajoyib go'zal qishloq! (Sh.R.) Bu iflosni otgan men bo'laman! (Ya) Sening xotiraningni unutmas aslo, mening yuraklarim, O'rta Osiyo ! (H.O.)

1. Undash gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: a) muomala munasabatni bildiruvchi undash gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ular oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Misollar: Navoiy: O... Marhamat! Soz! Joymi? Salom, do'stlar! Majiddin: Salom, pokiza ustoz! (Uyg'un va I. Sultonov) b) kuchli emotsionallikka ega bo'lgan tasdiq yoki inkorni bildiruvchi undash gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: Ha! Xo'p! Yo'q! V) xitob, tashviqni bildiruvchi undash gaplar emotsionallik va kuchli undov intonatsiyasi bilan aytilsa, ular oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *Chux! Tss!* kabi; g) ko'rsatish, hayajon bildiruvchi undash gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi: *Ana! Ma! Bu-chi!* kabi

2. Nominativ gaplar undov intonatsiyasi bilan aytilsa va emotsionallik ifodalasa, ular oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Masalan: *Urush! Dunyo! Mustamlaka!* (H.O.) *Topgan so'zi: Oh, falak!* (G'.G'.) *Signal!* «Toshk.haq»

3. Kesimi **-moq, -sh(-ish)** affiksli harakat nomi bilan ifodalangan infinitiv gaplar emotsionallikka ega bo'lib, undov intonatsiyasi bilan aytilsa, ular oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Bunday infinitiv gaplarning kesimi «harakat nomi - *kerak (lozim, darkor, zarur)*» tipida ham bo'lishi mumkin: *Paxta planini tez kunda bajarish kerak!*

4. So'roq gap strukturasidagi ayrim gaplar, ayniqsa, ritorik so'roq gaplar undov intonatsiyasi bilan aytilib, emotsionallikka ega bo'lsa, undov belgisi qo'yiladi. Bunda: a)so'roqni bildiruvchi **-mi** yuklamasi bo'lishi mumkin. Bunday gaplarda umumiy mazmun tasdiqni bildiradi; b) so'roq olmoshlari bo'ladi: *qanday, qancha, qanaqa, kim, nima, qani* kabi. Bular so'roq ma'nosini emas, balki emotsional (sevinch, rag'batlanish, kesatiq kabi) ma'nolarni anglatadi. Masalan: *qutlaymiz yangi yil, yangi baxt bilan, Do'stlar qadahlarni ko'taring, qani!* (U.) *Nima bizga Amerika! Nima bizga uning sur'ati!* (H.O.)

5. Kesimi shart, istak mayli formasidagi ayrim gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Masalan: *qo'shiq aytgim keldi sening to'yingda, qanday qilay, sevinch sayratsa tilni! qanday qilay, do'stim, baxt taronasi, Bahor tuyg'ulari yayratsa dilni!* (U.) *Sening to'ying, do'stim, hamamizni ham Yangi ijodlarga etsin safarbar!* (U.)

6. Buyruq gaplar oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Masalan: 1. *Do'stim, senga takror, takror aytaman: Bilakni shimarib ishga tush, ishga!* (U.) 2. *qahramonim, arslonim, mehribonim, bo'l omon!* (H.O.)

Muhokama uchun savollar

1.Nuqtaning funktsiyalari kengayib borishi nimalarda ko'rinadi?

2.O'zbek tilida so'roq belgisining qanday o'rinlarda ishlatiladi va qanday vazifalarni bajaradi?

3.Undov belgisining vazifalari nimalardan iborat, u qaerlarda ishlatiladi?

4- masala: 4.. Tire va nuqtali vergul, ikki nuqtaning ishlatilish o'rinlari.

Tire(fran.Tiret – chiziqcha, tirer – tortish, uzaytirish).Defisga nisbatan uzunroq chiziq bilan ifodalanadigan tinish belgisidir. Bu belgi gaplar, Qo'shma gap qismlari, gap bo'laklari orasidagi sintaktik munosabatlarni ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida tirening ishlatilish o'rinlari va vazifalari ham kengayib borayotganini kuzatish mumkin. Hozirgi kunda tire quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Ega va kesim teng munosabatda bo'lsa va quyidagrammatik xususiyatlarga ega bo'lsa: - kesim ot bilan ifodalangan bo'lsa va -dir kesimlik qo'shimchasini olmagan bo'lsa; Masalan: Onam – o'qituvchi. Yotoqxon - ikkinchi uyimiz; - kesim olmosh(kishilik olmoshlaridan tashqari) bilan ifodalangan bo'lsa va -dir kesimlik qo'shimchasini olmagan bo'lsa; Masalan: Niyatimiz shu – paxtadan mo'l hosil olish.

2. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda muallif gapini ko'chirma gapdan ajratish uchun ishlatiladi. Bunda u yakka holda ham, qo'sha holda ham ishlatiladi. Muallif gapi ko'chirma gapdan keyin kelsa, tire yakka holda undan oldin ishlatiladi. Masalan: «qalay, Turg'unboy, xipchin qalay!» - so'raydi A'zam.(O.) Muallif gapi ko'chirma gapning ichida kelsa, tire qo'sha holda muallif gapining har ikki tomonida ishlatiladi. Bunda ko'chirma gapning tabiatiga qarab muallif gapidan keyin vergul yoki nuqta ham ishlatiladi. Ko'chirma gapning boshlanish qismidagi gap tugal keltirilsa, muallif gapidan keyin nuqta, tugal keltirilmasa, vergul qo'yiladi. Masalan: 1.«Mehnatni sev, - deydi oyim,- mehnat kishiga baxt keltiradi».2., Gap darsni o'z vaqtida bajarmaganingda, - deb qo'ydi akam. – O'z vaqtida bajarsang, oyinglar urishmas edi“.

Nuqtali vergulning ishlatilish o'rinlari

Nuqtali vergul ustma – ust joylashgan nuqta va verguldan iborat tinish belgisidir(:). Murakkab tarkibli bu tinish belgisining ishlatilish o'rinlari ham biroz murakkabdir, chunki bu belgi to'liq tugallanganlikni ham anglatmaydi, shuningdek, bir tipdagi qisqa to'xtamni ham bildirmaydi. Bu belgi orasidagi to'xtam verguldagidan farq qiladi. Chunki ular verguldan farqli o'laroq ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan bir necha masalalar orasidagi munosabatni bildirishga xizmat qiladi. Shuning uchun u quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- 1) tarkibi murakkab gap bo'laklari orasiga;
- 2) Qo'shma gaplarning mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan qismlari orasiga;
- 3) raqamlash bilan sanalgan parchalar orasiga. So'nggi holning ish ko'rish jarayoni quyidagicha:

Bir sarlavha ostida yoki bir munosabat bilan bayon etilayotgan masalalarni bildiradigan raqamlangan yoki boshqa usulda tartiblangan gaplar, agar ularda mazmuniy bog'liqlik sezilsa yoki ular tugallanmagan fikrni anglatsa, bunday paytda ularning oxiriga nuqtali vergul qo'yiladi: numerativni ko'rsatuvchi son yoki harflar esa yarim qavsqa olingan bo'ladi. Masalan: Hozirgacha ergash gaplarning quyidagi turlari aniqlangan:1) ega ergash gap;2)kesim ergash gap;3)aniqlovchi ergash gap;4) to'ldiruvchi ergash gap; 5) ravish ergash gap; 5) daraja-miqdor ergash gap; 6)chog'ishtirish-o'xshatish ergash gap; 7)o'rin ergash gap; 8)payt ergash gap;9) sabab ergash gap;10) maqsad ergash gap; 11) shart ergash gap; 12) to'siqsiz ergash gap;13) natija ergash gap. Bunday sintaktik qurilmaning oxiriga nuqta qo'yiladi. Nuqtali verguldan keyin, agar qurilma gap bo'lmasa, navbatdagi tashkil etuvchi kichik harf bilan yoziladi.

Ikki nuqta va uning ishlatilishi. Ikki nuqta (:) ustma – ust qo'yiladigan ikkita nuqta bilan ifodalanadigan tinish belgisi bo'lib, asosan, quyidagi hollarda qo'yiladi:

1) uyushiq bo'laklar oldidan qo'llangan umumlashtiruvchi bo'lakdan so'ng: Suv ochish tantanasiga qorabuloqning butun aholisi: chollar, xotinlar, bolalar chiqishdi.(M.Ismoilij);2) bog'lovchisiz Qo'shma gap tarkibidagi gaplarni ajratishni ko'rsatish uchun: Yakun qildim: ko'z yoshlariga ikki bois bor ekan asli.(Uyg'un);3)ko'chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan keyin: Halqimizning sevimli adibasi, suyuqli momomiz Tursunoy Sodiqova bir chiqishida ba'zi betgachopar kelinlarga qarata shunday deganlar: «... Hay kelinchak shu kojliging bo'lsa, senga gap uqdirishning iloji yo'q!»

Muhokama uchun savollar

1. Tire o'zbek tilda qanday vazifalarni bajaradi?
2. Nuqtali vergul qaysi o'rinlarda ko'proq ishlatiladi? Nima uchun?
3. Ikki nuqtaning vazifalari nimalardan iborat?

5- masala: **Ko'p nuqta, qavs va qo'shtirnoqning ishlatilish o'rinlari.**

Ko'pnuqta va uning ishlatilish o'rinlari. Ko'pnuqta gorizontal holda qo'yiladigan uch nuqta bilan ifodaladigan tinish belgisidir. Ko'pnuqta asosan quyidagi hollarda ishlatiladi:

a) mazmuni tugamagan gaplar oxirida: Siz otasiz ...O'z gapingizdan qolmas edingiz;
v) tsitata yoki olingan misollarning tushirib qoldirilgan qismi o'rnida: «Men,- degan edi mashhur rus pedagogi V.Suxomlinskiy,- tarbiyaning kuchiga ishonaman».

b) so'zlovchining ichki his-tuyg'ulari, aytmagan so'zlari o'rnida: Men sizga aytsam, sovg'ani mengami... deb o'ylab, uni uyga olib borib qo'yibman .

qavs va uning ishlatilish o'rinlari. qavs yangi chiqqan yarim oy yoki yoy shaklidagi ikki qismli(ochiluvchi va yopiluvchi) tinish belgisidir. qavs asosan quyidagi vazifalarni bajaradi va quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

a) tsitalarning manbaini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Bunda asosan tsitatadan keyin ishlatiladi. Masalan: Beshikdan to qabrgacha ilm izla.(Hadis)

b) kiritmalarni ajratish uchun xizmat qiladi. Bunda gap ichida ishlatiladi. Masalan: Fuziya(fran.fusion -qo'shilish, to'tashishqlot. Fusio-quyish, quyma degani) fonema tarkibining o'zgarishi(yonma-yon fonemalarning singishuvi) natijasida fonemalar chegarasining noaniqlashuvi, bir fonemaning har ikki morfema tarkibi uchun umumiy bo'lib qolishidir.

qo'shtirnoq va uning ishlatilish o'rinlari.

qo'shtirnoq ikki (ochiluvchi va yopiluvchi) qismli tinish belgisi bo'lib, yozuv ifodasiga ko'ra ikki shaklga ega: „, „, « ». qo'shtirnoq yozuvda bir necha vazifalarni bajaradi va quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

a) ko'chirma gaplar va tsitalarni ajratib ko'rsatish uchun ularning har ikki tomonidan qo'yiladi;

b) gazeta, jurnal va muassasalarning nomlarini ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi;

v) kesatiq, qochiriqlarni ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi: Ha endi siz «kattasiz», «siz» bilan birga o'tirishga bizga yo'l bo'lsin.

Modul bo'yicha yakuniy hulosalar

1. O'zbek tilida tinish belgilari ikki xil usulda ishlatiladi.a)yakka xolda,b)qo'sha holda.

2.Nuqta – eng qadimgi va eng ko'p qo'llanuvchi tinish belgilaridan biri. Nuqta dastlab yozuv belgisi sifatida arabcha tekstda Abdul Malik halifaligi (hijriy I asr) davridan qo'llana boshlagan. Keyinchalik, XIX asrning II yarmidan boshlab, tinish belgisi sifatida ishlatilgan. Nuqtaning asosiy funksiyasi xabar ma'nosini anglatuvchi muayyan bir fikrning (gapning) tugallanganligini ko'rsatishdir.

Nuqta gap oxirida qo'llanadi. Uning qo'llanishi logik-grammatik printsiptga asoslanadi.

Ba'zan nuqta shartli qisqartmalardan so'ng ham ishlatiladi.Bunda stilistik yoki differentsiatsiya printsiplariga asoslaniladi. Nuqtaning shartli qisqartmalardan so'ng qo'llanishi uning qo'shimcha (yordamchi) funksiyasidir.

3.Vergul o'zbek yozuvida XX asrdan qo'llana boshladi. «Turkiston viloyatining gazetii» sahifalarida 1901 yildan, Toshkentda nashr etilgan «Taraqiy» gazetasida esa 1906 yildan boshlab ishlatilgani maa'lum. Vergul eng qadimgi tinish belgilaridan bo'lib, o'zining uzoq tarixiga ega: u G'arbiy Evropa yozuvlarida XV asrdan tinish belgisi sifatida qo'llana boshlagan.

Vergul eng ko'p qo'llanuvchi va eng ko'p funktsiyani bajaruvchi tinish belgilaridan hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida vergulning qo'llanish doirasi, funktsiyasi kengayib bormoqda. Masalan, ilgari ko'chirma nutq o'rtasida kelgan avtor gapi ikki tomondan vergul va tire bilan ajratilgan bo'lsa, hozirgi kunda faqat qo'sh vergul bilan ajratilmoqda; tirening funktsiyasini ham vergul bajaryapti: Jamoamiz a'zolari, dedi rais, fidokorona mehnat qilmoqdalar.

Vergul quyidagi funktsiyalarda keladi: a) gap bo'laklari va gaplarning o'zaro birikuvini ko'rsatadi; b) gap bo'laklari, gaplar, ayrim so'zlar va iboralarni ajratadi, ayiradi, bo'ladi; v) tekstdagi ayrim qismlarni chegaralaydi.

Vergul sodda gap tarkibida ham, Qo'shma gap tarkibida ham qo'llanadi. Vergul Qo'shma gap tarkibida ko'proq uchraydi.

4.So'roq belgisi gap oxirida qo'llanuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi. Bu belgi mazmunidan so'roq anglashilgan gaplar oxiriga qo'yiladi; shu gapning tugallanish nuqtasini, uning boshqa

gaplardan ajralish chegarasini ko'rsatadi va mazkur gapning ifoda maqsadiga ko'ra so'roq gap egaligini bildiradi.

Undov belgisi gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilariga kiradi. Undov belgisi o'z strukturasi ko'ra, ikki elementli tinish belgisi.

5. Hozirgi o'zbek tilida undov belgisi takroriy, oddiy va murakkab qo'sha (birlikda) qo'llanish xususiyatiga ega: undov belgisi bir o'rinda uch martagacha takroriy qo'llana oladi.

Undov belgisi undov va buyruq, ba'zan darak, so'roq gaplar oxirida qo'yiladi. Bunda bu mazkur gaplarning emotsional yoki qat'iy buyruq ma'nosiga ega ekanligini, tugallanganligini ba'zan esa ichki ta'sirchan mazmunga ega ekanligini, boshqa gaplardan chegaralanish nuqtasini ko'rsatadi. Bunday gaplarda, ko'pincha, to'lqinli yoki o'ziga xos hayajonli intonatsiya bilan aytiladi.

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tili orqali o'tgan. U, o'zbekcha yozuvlarda XX asr boshidan boshlab mumtazam ravishda ishlatilgan

6. Nuqtali vergul ustma – ust joylashgan nuqta va verguldan iborat tinish belgisidir (;) U quyidagi holatlarda qo'yiladi:

4) tarkibi murakkab gap bo'laklari orasiga;

5) Qo'shma gaplarning mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan qismlari orasiga;

6) raqamlash bilan sanalgan parchalar orasiga.

7. Ikki nuqta (:) ustma – ust qo'yiladigan ikkita nuqta bilan ifodalanadigan tinish belgisi bo'lib, asosan, quyidagi hollarda qo'yiladi:

1) uyushiq bo'laklar oldidan qo'llangan umumlashtiruvchi bo'lakdan so'ng: Suv ochish tantanasiga qorabuloqning butun aholisi: chollar, xotinlar, bolalar chiqishdi. (M. Ismoilov); 2) bog'lovchisiz Qo'shma gap tarkibidagi gaplarni ajratishni ko'rsatish uchun: Yakun qildim: ko'z yoshlariga ikki bois bor ekan asli. (Uyg'un); 3) ko'chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan keyin: Halqimizning sevimli adibasi, suyuqli momomiz Tursunoy Soddiqova bir chiqishida ba'zi betgachopar kelinlarga qarata shunday deganlar: «Hay kelinchak shu kojliging bo'lsa, senga gap uqdirishning iloji yo'q!»

8. Ko'pnuqta gorizontol holda qo'yiladigan uch nuqta bilan ifodaladigan tinish belgisidir (...). Ko'pnuqta asosan quyidagi hollarda ishlatiladi:

a) mazmuni tugamagan gaplar oxirida: Siz otasiz. O'z gapingizdan qolmas edingiz;

v) tsitata yoki olingan misollarning tushirib qoldirilgan qismi o'rnida: «Men, - degan edi mashhur rus pedagogi V. Suxomlinskiy, - tarbiyaning kuchiga ishonaman».

b) so'zlovchining ichki his-tuygulari, aytmagan so'zlari o'rnida: Men sizga aytsam, sovg'a ni mengami deb o'ylab, uni uyga olib borib qo'yibman.

9. qavs yangi chiqqan yarim oy yoki yoy shaklidagi ikki qismli (ochiluvchi va yopiluvchi) tinish belgisidir. qavs asosan quyidagi vazifalarni bajaradi va quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

a) tsitalarning manbaini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Bunda asosan tsitatadan keyin ishlatiladi. Masalan: Beshikdan to qabrgacha ilm izla. (Hadis)

b) kiritmalarni ajratish uchun xizmat qiladi.

10. Qo'shtirnoq ikki (ochiluvchi va yopiluvchi) qismli tinish belgisi bo'lib, yozuv ifodasiga ko'ra ikki shaklga ega: „ „, « ». qo'shtirnoq: a) ko'chirma gaplar va tsitalarni muallif gapidan; b) gazeta, jurnal va muassasalarning nomlarini ajratib ko'rsatish;

v) kesatliq, qochiriqlarni bildirish uchun ishlatiladi.

Nazorat savollari va topshiriqlari.

8-mavzu bo'yicha

1.1.3. Punktatsion belgilar qanday sharoitda va qachon paydo bo'lgan?

1.3.1. O'zbek tili punktatsiyasi qachon paydo bo'lganini aytib bering.

1.2.1. Punktatsiya paydo bo'lishining ijtimoiy til va yozuv taraqqiyoti bilan bog'liqligini bayon qiling.

3.1.1. O'zbek punktatsiyasi printsiplariga nimalar kiradi?

3.5.1. Nima uchun logik- grammatik printsiplari etakchi hisoblanadi?

9-mavzu bo'yicha

3.6.1. Nuqtaning ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.

- 3.6.2. Nuqta qanday vazifalarni bajaradi?
- 3.6.3. Nuqta qanday usullarda ishlatiladi?
- 3.7.1. Vergulning ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
- 3.7.2. Vergul qanday vazifalarni bajaradi?
- 4.1.1. So'roq belgisining ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
- 4.1.2. So'roq belgisi qanday vazifalarni bajaradi?
- 4.2.1. Undov belgisining ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
- 4.2.2. Undov belgisi qanday vazifalarni bajaradi?
- 5.1.1. Ikki nuqtaning ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
- 5.1.2. Ikki nuqta qanday vazifalarni bajaradi?
- 6.1.1. Nuqtali vergulning ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
- 6.1.2. Nuqtali vergul qanday vazifalarni bajaradi?
- 7.1.1. Ko'pnuqtaning ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
- 7.1.2. Ko'pnuqta qanday vazifalarni bajaradi?
- 8.1.1. Tirening ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
- 8.1.2. Tire qanday vazifalarni bajaradi?
- 9.1.1. Tirening ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
- 9.1.2. Tire qanday vazifalarni bajaradi?
- 10.1.1. qavasning ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
- 10.1.2. qavs qanday vazifalarni bajaradi?
- 11.1.1. qo'shtirnoqning ishlatilish o'rinlarini bayon qiling.
- 11.1.2. qo'shtirnoq qanday vazifalarni bajaradi?

Tavsiya qilinadigan asosiy adabiyotlar

1. Hamroev M. va b. Ona tili. T., 2007.
2. A. G'ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T. 1987.
3. G' Abduraxmonov va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. T. 1999.
4. Sh. Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2006.
5. R. Sayfullaeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2009.
6. K. Nazarov. O'zbek tili punktuatsiyasi. Toshkent, 1976.
7. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. »O'qituvchi«, Toshkent, 1995.

Mavzu: Uslubiyat va uning o'rganish ob'yektlari. Nutq uslublari, uslubiyat turlari.

Uslubiyat turlari: leksik, fonetik va grammatik uslubiyat.

Ajratilgan vaqt-2 soat.

Asosiy savollar:

1. Uslubiyat fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Uslub so'zining ma'nolari. Nutq uslubiyati yoki tilning vazifadosh uslub turlari: a) so'zlashuv uslubi: b) rasmiy uslub: v) ilmiy uslub: g) publitsistik uslub: d) badiiy uslub:
3. Uslubiyat turlari

Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:

Stilos – suyakdan qilingan tayoqcha.

Uslub – bo'g'in, nutq uslubi ma'nosida qo'llanilgan.

Uslub – uslubiyat (ingichka hanjar va uslub-avtoruchka so'zlari kelib chiqqan)

Struktural uslubiyat – tilning vazifadosh uslublarini o'rganuvchi uslubiyat.

Lingvistika – til.

Adabiy me'yor – tilning eng yuksak, ishlangan, sayqallangan ko'rinishi.

Funksional – vazifadoshlik.

Okkazionalizm - har bir ijodkorning uslubiga xos bo'lgan, u yaratgan so'zlar.

Leksik va frazeologik me'yor – hamma tomonidan ishlatiladigan, hammaga tushunarli bo'lgan so'z va iboralarning qo'llanishi.

Mushtarak – barcha uslub uchun umumiy bo'lgan.

Funksional (xoslangan) uslublar.

1-asosiy savolning bayoni:

Uslubiyat - tilshunoslik fanining bir bo'limi bo'lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi.

Uslubshunoslik-stilistika terminining tarjimasini. Stilistika - grekcha «stylos» so'zidan olingan bo'lib, suyakdan qilingan uchli tayoqcha degan ma'noni bildiradi. Qadimgi greklar mum surtilgan taxtachaga shunday uchli tayoqcha bilan yozar edilar. Bu tayoqchani tepa tomoni kurakchaga o'xshar edi. Xato yozilgan so'zni tayoqchani kurakchaga o'xshagan tomoni bilan taxtachadagi mumni tekislash yo'li bilan o'chirar edilar va uchli tomoni bilan to'g'rilab yozardilar.

Stil so'zidan stilbet – ingichka hanjar va stilo – avtoruchka so'zlari kelib chiqqan.

Qadimdan oq stil so'zi «bo'g'in, nutq uslubi» ma'nosida qo'llana boshlangan. Goratsiyning «Agar sen o'qish uchun loyiq narsa yozmoqchi bo'lsang, uslubingni tez - tez almashtirib tur. Dunyoqarashi tor odamlarni qoyil qoldira olmasang, kuyinib o'tirma, ozgina bo'lsa ham tushungan odamlar bilan qoniq» deb yozib qoldirgan jumalari ichidan «uslubingni tez-tez almashtirib tur» degan ifodasi keyinchalik greklarda maqolga aylanib ketgan.

Demak, odamlarning ko'ngliga urmaydigan, foydali ma'lumot beradigan biror narsa yozish uchun uslubni tez-tez almashtirib turish lozim ekan. Uslub so'zining izohli lug'atlarda bir necha ma'nolari berilgan. 1935-1940 yillarda D.N.Ushakov tahririda nashr etilgan «Tolkovo'y slovar russkogo yazo'ka» kitobida Uslub so'zining 4 xil ma'nosi berilgan. Bu ma'nolar 1981 yilda chop etilgan «O'zbek tilining izohli lug'ati»da ham tarjima qilinib, izohlangan. Ular quyidagilar:

Uslub 1 – biror san'at asarining, biror ijodkor, davr, millatning o'ziga xos belgilari yig'indisi. Masalan: Arxitekturadagi sharqona Uslub (naqshinkorlik, gumbazli binolar).

Ko'rinadiki, Uslub so'zining 1 – ma'nosi juda keng tushunchani ifodalaydi, ya'ni badiiy ifodalar yig'indisi yoki badiiy ifodalarning umumiy tizimi. Bunda adabiyot nazarda tutilmaydi.

Uslub 2 – biror adabiy asar, adabiy yo'nalish, adabiy janr yoki biror muallifga xos bo'lgan g'oya va til vositalarining tizimi.

Masalan: A. Qahhor uslubi, Oybek uslubi. Poetik Uslub, romantik Uslub va h.k.

Bunda fikr ifodalash ctillari ham tushuniladi. Masalan: ko'tarinki uslub, lo'nda uslub va boshqalar. G'.G'ulomning «Sen etim emassan» she'ri ko'tarinki uslubda yozilgan. A.Qahhorning uslubi fosh qiluvchilik xususiyatiga ega.

Uning asarlarida zaharxanda iboralar, maqol va matallar ko'plab uchraydi. Masalan: «Sinchalak» qissasida Arslonbek Qalandarov shunday deydi: «Sinchalak degan oyog'i ipday ingichka qush bor. U kechasi oyog'ini osmonga ko'tarib yotadi, osmon tushib ketsa, ko'tarib qolaman, deb. Saida esa unga javoban deydi: “Xo'roz ham «men qichqirmasam, tong otmaydi, der ekan.” «Mayiz emagan xotin» hikoyasida fosh qiluvchi bunga o'xshagan jumlar juda ko'p.. Yozuvchi Oybekka esa keng ko'lamlilik xos. Masalan Oybekning “Navoiy” romanidan parcha:

Shoir “Xiyobon ko'chasini o'tib,”Bog' zag'on”ning katta darvozasiga etishi bilan bu erda tartib kuzatib turgan navkarlar muhrdorga salom berib, darrov otning jilovidan ushladilar. Shoir ularning yordamisiz otdan tushdi-da,”Bog' zag'on”ga kirdi. Bu –turli qasrlar, ko'shklar va boshqa go'zal binolar va ajoyib xiyobonlarga boy g'oyat katta bog' edi. Darxtda oralab ketgan keng, toza va quyosh nurlari bilan ola chalpoq yo'ldan borib, bir necha tanob joyni ishg'ol etgan katta gulzorlarga chiqdi. Bu erga go'yo butun dunyoning gullari to'plangan edi. Turli-tuman rang va ziyo bilan quyoshda yashnagan bu chaman ko'zlarni qamashtirardi. Navoiy gulni, rangni juda sevar edi. Har kungidek, to'xtab, zavq bilan tomosha qildi. Keyin bu chamanzor qarshisidagi koshonaga –devorlari, ustunlari, eshiklari naqqoshlar qo'li bilan yasalgan naqsh gulzorini tovlantirgan tomon yurdi. Oltin qubbachalar, o'ymakor gullar bilan bezangan eshikni ochib, kichikroq, lekin serxasham bir xonaga kirdi. Bu erda uni do'sti Xo'ja Afzal qarshi oldi. Bu –past bo'yli, tiyrak ko'zli, xush muomila, qariyb o'zi bilan tengdosh kishi edi.

Uslub 3 – ko'chma ma'noni ifodalaydi. Bunda xulq, axloqqa xos bo'lgan xususiyatlar yig'indisi, faoliyat metodi, biror ishni amalga oshirishning yo'l-yo'riqlari kabilar tushuniladi.

Uslub 4 – bu ma'no adabiyotga ham, tilga ham xos emas. Bu davrga, yil hisobiga nisbatan ishlatiladi. Masalan: melodiyl yil hisobi, hijriyl yil hisobi.

Uslub so'zining ma'nolari bilan tanishishdan ma'lum bo'ldiki, 2 – ma'no bilan bog'liq holda uslubiyat fani vujudga kelgan.

Uslubiyat fanini o'rganish ob'ekti haqida turli qarashlar mavjud. Akademik V.V.Vinogradov uslubiyat bahsida bir – biri bilan aloqador, lekin vazifalari jihatdan farqlanadigan 3 ta tekshirish aspektini ko'rsatish zarurligini aytadi. Ular quyidagilar:

1. Tilning funktsional uslublarini o'rganuvchi uslubiyat. Bu struktural uslubiyat deb ham yuritiladi. Struktural uslubiyatning vazifasi uning struktural elementlari bo'lgan rasmiyl, ilmiyl, publitsistik, badiiyl uslublarning o'ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalarini o'rgatishdir.

2. Turli janrlarning (semantik, ekspressiv – stilistik) ma'no va tez ta'sir qilish tomonlarini hamda og'zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq uslubiyati. Uning vazifasi tilning barcha uslublar tizimi bilan birga yozma va og'zaki shakllari, adabiy va so'zlashuv nutqi ko'rinishlarini tekshiradi. U til birliklaridan qaysi biri yozma va og'zaki nutqda ko'proq ishlatilishi, fikr ifodalashda til vositalarining to'g'ri tanlangan yoki noto'g'ri olinganligi, shu vositalarni o'rnida ishlatish yo'llarini o'rganadi.

3. Adabiy yo'nalishlar, badiiyl asar hamda yozuvchi uslubini tadqiq etadigan badiiyl adabiyot uslubiyati. Uning vazifasi badiiyl asarlarni yaratishda yozuvchining ifoda vositalaridan foydalanish mahorati haqida bahs yuritishdir. Uslubiyat fani akademik V.Vinogradov ko'rsatgan aspektlardan birinchi va ikkinchisi asosida shakllangan. Uchinchisi adabiyotshunoslikning ob'ektidir. Aslini olganda, badiiyl adabiyot uslubiyati uning bir ko'rinishidir. Bu tushunchaning alohida tur sifatida ko'rsatilishiga sabab shundan iboratki, u boshqa nutq uslublaridan anchagina farqli jihatlariga ega. Badiiyl adabiyot uslubi keng qamrovliligi, ya'ni barcha uslublarni ham o'zida ifodalashi bilan ajralib turadi.

Demak, Uslubiyat ikki xil ko'rinishga ega:

1. Nutq uslubiyati. Bu tilning vazifadosh shakllari deb ham yuritiladi. Bunga so'zlashuv uslubi, rasmiyl uslub, ilmiyl uslub, publitsistik va badiiyl uslub kiradi.

2. Lingvistik, ya'ni til uslubiyati. Uning turlari:

a) fonetik uslubiyat.

b) leksik uslubiyat.

v) grammatik uslubiyat.

NUTQ USLUBIYATI. Bu tushuncha adabiyotlarda funktsional uslubiyat yoki funktsional uslub turlari deb ham yuritiladi.

Nutq uslublari bir-biriga bog'liq vositalarning tuzilishidan tashkil topadi. Ular tilning vazifasi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham ular nutq uslublari deyiladi. Tilning vazifasi jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq va uning ijtimoiyl mohiyatidan kelib chiqadi.

Nutq uslubi tizim¹ini tashkil etuvchi ifodalar faqat bir uslub doirasida cheklanib qoladi. Masalan, ilmiyl uslubda ishlatiladigan terminlar badiiyl, publitsistik, rasmiyl va so'zlashuv uslublarida ishlatilmasligi ham mumkin. Lekin har bir nutq uslubi o'zining barcha vositalari bilan yagona bir maqsad uchun bo'ysungan muayyan til vositalarining majmuasiga ega.

Nutq uslublari til taraqqiyotining ma'lum bir davrida asta-sekin shakllanadi va o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, XX asr boshida nashriyot va vaqtli matbuot ishlarining kengayib ketishi bilan bog'liq tarzda O'zbekistonda publitsistik uslub vujudga kelgan.

Nutq uslublari og'zaki va yozma nutq shakllari bilan chambarchas bog'liq. Demak, har bir nutq uslubi og'zaki va yozma shaklda ifodalanishi mumkin. Masalan, so'zlashuv uslubi, asosan, og'zaki nutqqa xos. Lekin badiiyl adabiyotda bu uslub yozma shaklga ega bo'ladi. Shuningdek, ilmiyl uslubning og'zaki ko'rinishi dars jarayonida ma'ruza o'qilganda, ilmiyl ma'ruzalar bayon qilinganda namoyon bo'ladi, yozma shakli esa dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiyl maqolalar tarzida ifodalanadi.

¹ V.Vinogradov. Русская грамматика. Москва. 1962. 125-стр.

Nutq uslublari o'ziga xos belgilari va farqlaridan qat'i nazar, adabiy til me'yorlari asosida umumiylikka ega.

Adabiy me'yor nima? Adabiy me'yor atamasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da sharh beriladi:

"Adabiy me'yor til tovush tizimini, grammatik ko'rinishi va lug'at tarkibidagi eng hayotiy va zaruriy vositalarni tanlab olish demakdir. Adabiy me'yor tilning eng yuksak, ishlangan, silliqlangan shaklidir".

Adabiy me'yor tilning faqat yozma ko'rinishigagina emas, balki og'zaki shakliga ham xosdir. Shuning uchun ma'ruza o'qilayotganda, radio va televideniadagi chiqishlarda ham adabiy me'yorga rioya qilish talab qilinadi. Shu bilan birga, uning adabiy me'yordan chetga chiqadigan tomonlari ham mavjud. Masalan, so'zlashuv uslubida shevaga xos so'zlar ham ishlatiladi. Bu adabiy me'yorga zid, lekin uslub me'yori hisoblanadi, yoki badiiy uslubda yozuvchi yoki shoir shunday so'zlarni yaratishi mumkinki, ular hali me'yorlashtirilmagan bo'lishi mumkin, lekin uslub me'yori sifatida qolaveradi. Adabiy me'yor bilan uslub me'yoring o'zaro munosabati, ya'ni mushtarak va farqli xususiyatlari bo'yicha dissertatsiyalar yaratilgan. Masalan, A.E.Mamatov, "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari", doktorlik dissertatsiyasi, T., 1991 yil. S.Toshaliyeva, "O'zbek tilida okkazionalizmlar", nomzodlik dissertatsiyasi, T., 1998 yil kabi.

Xoslangan(funksional) uslub turlari quyidagilar;

1. So'zlashuv uslubi.
2. Rasmiy uslub.
3. Ilmiy uslub
4. Publitsistik uslub.
5. Badiiy uslub.

Uslubiyat o'qitish asosiy vazifalarini quyidagicha belgilash taqazo etadi.

- 1.Uslubiyatni tilni a'moliy-nutqiy jihatdan tatqiq etuvchi fan sifatida o'rganish.
- 2.Uslubiyatning sotsiologiyaviy, psixologiyaviy,hozirgi o'zbek adabiy tili va adabiyot nazariyasi fanlari doirasidagi o'rnini, o'zaro munosabatini ko'rsatish.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili uslublarni, ularning lisoniy va nolisoniy alomatlarini tasvirlash.
- 4.Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasi va frazeologiyasining funksional-stilistik va ekspressiv-stilistik qatlamlarini, ularning stilistik xususiyatlari bilan tanishtirish, fonetika, morfologiya, so'z yasalishi va sintaksisning stilistik boyligini tasvirlash.
- 5.Til vositalaridan semantik-stilistik xususiyatlarini maromlilik va ijodiylik jihatidan baholashga o'rgatish,ma'nodosh qo'llanishlarining uslubiy ahamiyatini izohlash.
- 6.Obrazli vositalar, stilistik san'atlar va ularning hususiyatlari haqida ma'lumot berish.
- 7.Uslubiy tahlil qilish yo'rig'i va usullari,adabiy tahrir talqinlari bilan oshno qilish.
- 8.Amaliy mashg'ulotlarda o'zbek tili lisoniy tizimi va ularni qo'llash qonuniyatlari, uslublari majmuiga oid nazariy bilimni mustahkamlash, o'quvchilarning turli uslubga oid matnlar ijod etish va tahlil qilishga yordamlashish.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1.Uslubiyat nimani o'rganadi?
- 1.2. Uslubiyat fanining vazifalari?
- 1.3. O'zbek tili uslublarni to'liq sanab bering?
- 1.4.Tilshunoslikda uslubiyatning tutgan o'rnini va roliga baho bering.
- 1.5.Uslubiyatning ob'ektini izohlang.
- 1.6.Uslub so'zi qanday ma'nolarni bildiradi?
- 1.7.Akademik V.V.Vinogradov Uslubiyat fanining vazifalarini nechta aspektga bo'ladi va ular qaysilar?
- 1.8.Uslubiyat necha xil ko'rinishga ega?
- 1.9.Nutq uslubi nima?
- 1.10.Adabiy me'yor nima?

2-asosiy savolning bayoni:

Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llari, fonetik, lug'aviy, freazalogik va grammatik birliklarning qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi.

Adabiy tilning ijtimoiy vazifasiga ko'ra uslubiyat quyidagi turlarga bo'linadi:

Nutq uslublari: og'zaki va yozma uslub.

Og'zaki nutq uslubiga asosan so'zlashuv uslubiyati, yozma nutq uslublariga esa rasmiy ish qog'ozlari uslubiyati, ilmiy uslub, ommabop uslub, badiiy uslublarni kiritish mumkin.

I. Og'zaki nutquslubiyati:

So'zlashuv uslubiyati- umumiy so'zlashuv uslubidir. Bu uslubning o'z qonun-qoidalari bo'ladi:

1. So'zlar tarkibi erkin bo'ladi.

2. Asosiy maqsadni ifodalovchi gap bo'lagi ajratib ko'rsatiladi, fikr so'zga mantiqiy urg'u berish bilan ifodalanadi.

3. Jumlar qisqa va ta'sirli bo'ladi.

4. Nutq ko'pincha dialogik shaklda bo'ladi. Ikki yoki undan ortiq so'zlovchi luqmasidan tuzilgan nutq dialogik nutq deyiladi.

So'zlashuv uslubida ko'pincha turli uslubiy bo'yoqli so'zlar, grammatik vositalar, tovushlarning tushib qolishi, orttirilishi kuzatilishi mumkin. Masalan: Mazza qildik.

II. Yozma nutq uslubiyati quyidagi turlarga bo'linadi: rasmiy ish qog'ozlari uslubiyati, ilmiy uslub, ommabop-publitsistik uslub, badiiy uslub.

Rasmiy ish qog'ozlari uslubiyati eng ko'p tarqalgan uslublardan biri bo'lib, shaxslar bilan shaxslar, shaxslar bilan davlat idoralari orasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi: ariza, tilxat, xat, ma'lumotnoma, ana shunday nutq uslubining ko'rinishlaridir. Bunday uslubning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

1. So'zlar o'z ma'nosida har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi;

2. Darak gaplar, qaror, buyruq ko'rsatmalardan foydalaniladi;

3. Gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'ladi;

4. Rasmiy- idoraviy uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi;

5. Rasmiy- idoraviy hujjatlarning qolip matnlari –tayyor andozalarning ishlab chiqilgan.

6. Yozma nutq shaklida amal qilinadi. Ifoda aniq, ixcham, izchil va tushunarli bo'ladi.

7. Tasviriylilik va ma'joziylilik ishlatilmaydi.

8. Buyurish va undash ohangi kuchli bo'ladi.

Mn: Jamoat ishlaridagi faol ishtiroki va o'qishdagi yutuqlari uchun Nazira Yusupovaga minnatdorchilik e'lon qilinsin.

Ilmiy uslub –fan-texnika uslubiyati:

1. Bu uslubning asosi atama, ta'rif qoida va qonunlardir. Atamalar bir ma'noda qo'llanadi.

2. U fan tili bo'lib, aniq va holis ilmiy axborot beradi. Dalillarning aniqligi, mantiqiyliigi, izchilligi ilmiy uslub uchun muhim xususiyatdir.

3. Har bir fan sohasiga oid shartli qisqartmalar va ramziy belgilarning mavjudligi.

4. Ilmiy tadqiqotlar va ilmiy- ommabop asarlar, darslik va qo'llanmalar shu uslubda yoziladi.

5. Ilmiy uslubda gap bo'laklarining tushib qolishi alomati kam uchraydi.

6. Shevachilikka yo'l qo'yilmaydi.

Ommabop-publitsistik uslub-eng dolzarb masalalarni ma'lum darajada ko'tarinki ruxda tahlil etish bilan bog'liq bo'ladi. Publitsistik uslubning muhim xususiyatlari:

1. Tasvirning mukammalligi, kengligi.

2. Mavzuni dalillar asosida izchil ravishda yoritib berish.

3. Axborot berish va ta'sir etish, targ'ibot yuritish.

4. Asosan yozma nutq shaklida yuzaga keladi.

5. Nutqning ommabopligi va hammabopligi.

6. Ro'znoma tiliga xos so'z va iboralarning qo'llanilishi.

Badiiy uslub-so'z san'atiga, timsoliy fikrlash sohasiga oid. Mazmun doirasi nihoyatda keng. Asosiy belgilari:

1. Badiiy nutq-so'z san'ati bo'lib, timsollar tizimi bilan ish ko'radi.

2. Badiiy to'qima va yozuvchi fantaziyasi ishtirok etadi.

3. Nazm va nasrning rang-barang janrlaridan iborat.

4. Tasviriy-ta'sirchan vositalar silsilasi va uslubiy san'atlar majmuiga ega ekanligi.

Bo'lajak muallim yoki adibning nutq madaniyati va mahoratini, kasbiy malakasini oshirishda zarur bo'lgan asosiy fanlardan biri uslubiyatdir. Chunki muallim ma'rifatchi, tashviqotchi va targ'ibotchi sifatidagi ijtimoiy vazifasini til vositasida amalga oshiradi. Uslubiyat ularning umumiy va kasbiy nutq madaniyatini oshirishga, tilga ongli munosabatda bo'lish hissini tarbiyalashga, ijodiy mahoratini oshirishga, tasavvurlarini boyitishga, amalda sodda va ta'sirchan, jonli va tushunarli qilib yozishga odatlantirishga xizmat qiladi. Turli nutq uslublariga oid matnlarni badiiy nuqtai nazardan to'g'ri baholashga o'rgatadi. Uslubiyat fanini o'qitishning asosiy maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni nazariy bilim bilan qurollantirishdan, o'quvchilarning tildan foydalanish malakasini egallashlariga nutq madaniyatini yuqori ko'tarishga yordam berishdan til unsurlarini ma'no va uslub jihatidan to'g'ri baholashga, ularni maromlilikiga, nutq mazmuni, sharoiti, aloqa sohasi talablaridan kelib chiqib tanlash va maqsadga muvofiq qo'llashga o'rgatishdan iborat.

Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, fraziologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladi. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutqning bu xilma-xil ko'rinishlari nutq uslublari deb ataladi.

Nutq uslublari-ifoda vositalari sistemasining muayyan aloqa doirasida maqsadga muvofiq tanlash natijasida tarixan tashkil topgan nutq ko'rinishlaridir.

Nutq uslublarining har biri alohida yagona bir sistemani tashkil qiladi. Nutq- uslubining har biriga bog'liq elementlar sistemasini tashkil qilishi aloqa-aralashuv quroli bo'lgan tilning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. To'g'ri, tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at sostavining har biri ham alohida bir sistemani, tilning o'zi esa yaxlit holda butun bir sistemani tashkil etadi. Tilning funktsional uslublari mana shu leksik, grammatik va fonetik sistemalarga xos barcha vositalarning ma'lum kommunikativ maqsadga ko'ra uyushishi tufayli bunyodga keladi. U faqat muayyan hodisalar sostavi bilangina emas, balki ularning bog'lanishi, aloqasi va munosabatlari bilan ham xarakterlanadi. Demak, nutq uslublari tilning vazifasi- funktsiyasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular funktsional uslublar deb yuritiladi.

Funktsional uslubning umumxalq tili xazinasidan tanlab olgan vositalari ayni shu uslub sistemasini tashkil qiladi. Tildagi bu uslubiy hodisalar tarqoq xarakterda bo'lmay, balki kommunikativ vazifasi va umumiy uslubiy bo'yog'i bilan o'zaro aloqador elementlar sistemasini tashkil etadi.

Adabiy tilning uslubiylik sistemasi jargon, mahalliy, dialekt va shu kabi tildagi boshqa hodisalar bilan ham ma'lum munosabatda bo'ladi. Masalan: umumxalq tiliga jargonlar, ko'pincha oddiy so'zlashuv tili orqali kirib keladi. Badiiy nutq uslubida esa ba'zi personajlarning tilini individuallashtirish uchun ulardan qisman foydalaniladi.

Dialektal so'zlar ham adabiy til uslublari sistemasini bilan ham oddiy so'zlashuv va ba'zan badiiy nutq uslublari orqali munosabatda bo'ladi. Dialektal so'zlar o'z sistemasini doirasida, odatda, maxsus uslubiy bo'yoqqa ega bo'lmaydi.

Nutq uslublari tushunchasi – og'zaki va yozma nutq formalari bilan uzviy bog'liq. Bir nutq uslublari aloqa formalari har ikkalasida ham ishlatilishi mumkin. Nutq uslublari o'zlariga xos belgi va farqlardan qat'iy nazar, adabiy til normalari asosida umumiylikka ega. Adabiy norma tilning tovush sistemasini, grammatik qurilishi hamda uning lug'at sostavidagi eng tipik hayotiy va zaruriy elementlarni tanlab olish asosida tashkil topadi. U tilning eng yuksak ishlangan, silliqlashgan formasidir. Adabiy normalar faqat yozma adabiy til uchunгина taalluqli bo'lmay, u og'zaki adabiy til uchun ham zaruriy holatdir. Shuning uchun adabiy tilning og'zaki formasida ham adabiy normaga bo'ysuniladi, uning qonun-qoidalariga rioya qiladi.

Funktsional uslub nutq ko'rinishlarining asosiy funktsiyalarga muvofiq qismlarga bo'linishidir. Shunga ko'ra adabiy tilning quyidagi funktsional uslublari ajratiladi. 1) so'zlashuv uslub; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub.

Tilning bu funktsional uslublari inson faoliyatining u yoki bu sohasiga mos keluvchi umumxalq adabiy tilining turli xil ko'rinishlaridir. Funktsional uslublarni nomlash va atash ham ularning qanday aloqa doirasida ishlatilganligiga qarab belgilanadi. Chunki bir xil narsa va hodisalar haqidagi fikrlar turli xil uslublarda birdek bayon qilinmaydi.

Bu fanni o'rganishni asosan o'quvchi egallashi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar asosan tubandagilardan iborat.

1. Madaniy til va maromli nutq oldiga qo'yilgan asosiy talabni yaxshi bilish.
2. Adabiy tilning uslublarga xos uslubiy belgilar va ijtimoiy vaziyatlar, stilistik maromlar va tildan ijobiy foydalanishning imkoniyatlari haqidagi nazariy masalalar bilan tanish bo'lish.
3. Matndagi turli xil nuqsonlarni belgilay olish, ularning turini, tabiatini va yuzaga kelish sababini to'g'ri izohlab berishga o'rgatish.
4. Uslubiy tahlil yo'riq va talqinlaridan habardor bo'lish hamda ilmiy ish yuritishga oid malaka hosil qilish.

Uslubiyat belgi-sifatlar til birliklarining barchasida mavjuddir. Fonetik, morfologik, sintaktik va leksik birliklar uslubiyatning ham predmeti hisoblanadi.

Fonetika va uslubiyat: Fonetika nutq organlarining tovush hosil qilish paytidagi harakati va holati- artikulyatsiyani, tovush o'zgarishi qonuniyatlarini, uning intonatsiyasi kabi masalalarni tekshiradi. Fonetik uslub esa tovushlarning bir-biriga bog'lanishning ekspressiv uslub imkoniyatlarini, xullas nutq tovushlarining tilning ta'sirchan vositasi bo'lib xizmat qila olish usullari va qonuniyatlarini o'rganadi.

Fonetik uslub nutqning ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida nutq tovushlarining uslub imkoniyatlaridan foydalanish usullari bilan qiziqadi. Nutq tovush va ohangdan foydalanish, ta'sirchanglikni kuchaytirish turlari xilma-xildir.

Leksikologiya va uslub:leksikologiya tilning lug'at sostavini, uning tarixiy qatlamlari, boyib borishi va taraqqiyot yo'llarini, so'zning, uning ma'nosini, qo'llanishi va shu kabi masalalarni o'rganadi. Leksik uslub ham lug'at sostavini o'rganadi, lekin uni so'z ishlatish, so'zdan foydalanish qonuniyatlari tomonidan tekshiriladi. Leksik uslub so'z yoki so'z birikmalarining ekspressiv tomonini o'rganadi. Demak, bir xil til xodisasi leksikologiya va uslub tahlilda turlicha yoritiladi. Bu narsa leksikologiya bilan uslubning leksik xodisalarga yondashishdagi pirintsipial farqini ko'rsatadi.

Leksikologiya so'z ma'nosi ko'chishining turli tiplarini ham tekshiradi. Lekin leksikologiya bu xodisalarni til sistemasida mustahkamlanib, qat'iy lashib qolganligi jihatidan tekshiradi.

Grammatika va uslub: grammatikaning gapda so'zlarning o'zgarishi va birikishi, so'z shakllari va gap qurilishi kabi xodisalar haqida umumiy qoidalarni belgilab berishi nazarda tutilsa, uning uslub bilan ham aloqador ekani aniq tasavvur qilinadi. ;uslub birinchi galda fikrni ravshan va aniq qilib bera olish uchun grammatika belgilab bergan umumiy qoidalardan qaysi birini qanday holatda qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishini belgilab beradi. Gapda fikrni tushunarli ifodalash uchun faqat grammatika qoidalariga rioya qilishning o'zigina kifoya qilmaydi, gapni uslubiy ham to'g'ri tuza olish kerak.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1.Funktsional (xoslangan) uslublarni sanab bering.
- 2.2. Nutq uslublarini ta'riflang?
- 2.3.Uslubiyat fani tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan o'zaro aloqada?
- 2.4. Fonetik uslubiyat nimani o'rganadi?
- 2.5.Nutq uslublarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida tushuncha bering.
- 2.6.Nutq uslubining og'zaki va yozma nutq shakllari bilan o'zaro bog'liqligini tushuntirib berng

O'zbek tili uslubiyati, nutq uslublari va ualrning turlari bo'yicha quyidagi xulosa-arga kelish mumkin:

Uslubiyat fikr ifodalash usullarini o'rganadi. Shunga ko'ra, u kundalik bayotimizda so'z qo'llashning barcha tarmoqlari bilan bog'liqdir. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, fikrning ifodasi ta'sirchan tarzda barchaga bab-barobar etib borishi nihoyatda muhimdir. Buning uchun bir tomondan, voqe'likni chuqur o'rganib, fikrni me'yoriga etkazish. Ikkinchi tomondan, so'zni tanlab, saralab ishlatish lozim. Yo'qsa ta'sirchanlik yuzaga kelmaydi. Navoiyning fikricha, bunday nutq hayotdan to'xtagan jonsiz tanaga o'xshab qoladi:

So'zki, ma'nisida ishq o'ti bo'lmag'ay

Bir taharruksiz badan anglaki, joni bo'lmag'ay.

Ya'ni, so'zning ma'nosi yolqinlanib turmasa, tinglovchilarnio'ziga jalb etmasa, harakatdan to'xtagan jonsiz tanaga o'xshab qoladi. Bu esa nutqni ta'sir qudratidan mahrum qiladi.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, uslubiyat ilmida til vositalarining o'rinli qo'llanishiga alohida e'tibor beriladi. Chunki faqat o'rinli qo'llangan vosita fikrni aniq va to'liq yuzaga chiqara boradi.

Nazorat savollari:

1. Uslubiyat nimani o'rganadi?
2. Uslubiyat fanining vazifalari?
3. O'zbek tili uslublarini to'liq sanab bering?
4. Tilshunoslikda uslubiyatning tutgan o'rni va roliga baho bering.
5. Uslubiyatning ob'ektini izohlang.
6. Funktsional (xoslangan) uslublarni sanab bering.
7. Nutq uslublarini ta'riflang?
8. Uslubiyat fani tilshunoslikning qaysi bo'limlari bilan o'zaro aloqada?
9. Fonetik uslubiyat nimani o'rganadi?
10. Nutq uslublarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida tushuncha bering.
11. Nutq uslubining og'zaki va yozma nutq shakllari bilan o'zaro bog'liqligini tushuntirib bering.

Ma'ruza bo'yicha mustaqil ish savol-topshiriqlari:

1. I.A.Karimovning «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» asarini tahlil qilish (3-20-betlar).
2. Mavzu bo'yicha keltirilgan savollarga javob bering (5-6-savollar).
3. Mavzu bo'yicha 10 ta test savollari tuzib kelish.
4. **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**
 1. I.A.Karimov «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent, 1998.
 2. A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo'ng'urov, H. Rustamov «O'zbek tili stilistikasi». Toshkent, 1983. 6-13-b.
 3. Q. Samadov. O'zbek tili uslubiyati. Guliston, 1992. 5-7-b.
 4. Yo. Tojiev, N. Hasanova, H. Tojimatov, O. Yo'ldosheva. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari (ommabop qo'llanma). Toshkent, 1994.
 5. I. Toshaliyev. O'zbek tili uslubiyati. Toshkent: Universitet, 1996.

Mavzu: Uslubiyat turlari.

Asosiy savollar:

1. Uslubiyatdagi nutqiy san'atlar.
2. Sintaktik ko'chimlar uslubiyati.
3. leksik uslubiyat.
4. Frazeologik uslubiyat.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar va iboralar:

Sintaksisning uslubiy imkoniyatlari va nutq. Matn uyushtirish usuli va nutq san'atlari o'rtasida bog'liqlik. Uslubiy unsurlar. Sintaktik san'at. Poetik figuralar. Badiiy va publitsistik uslublarda badiiy san'atlarning qo'llanishi. Takrorlar. Inversiya, Tazod. Kuchaytirish Ritorik so'roq. Sintaktik ko'chimlar va ularning turlari. Metafora. Metonimiya. Sinikdoxa. Vazifadoshlik. O'xshatish. Epitet. Ironiya. Sarkizm. Mublag'a. Allegoriya. Simvol. Jonlantirish.

1-savolning bayoni:

Uslubiyatga oid adabiyotlarda badiiy tasvir vositalari turli usullari kiritiladi. Bular dastlab paeziya doirasida qarala boshlanadi. Keyingi yillarda nashr qilinga adabiyotlarda esa sintaktik shakllar boshqa uslublar doirasida ham o'rganilayapti.

1. **Anafora.** Takrorlanuvchi birliklar so'z, so'z birikmasi, gap shaklida bo'lishi mumkin. Bu ko'proq badiiy va publitsistik uslubga xos.

Quyidagilar anafora bo'lib keladi:

Gap bo'lagi. Bu so'z birikmasi, gap va qo'shma gap qismlari boshida keladi.

1. **So'z birikmasi** boshida:

Inson tafakkuriga, Bugun yana ta'zim-la:

Inson jasoratiga Tashakkur!- deydi olam. (Z. D.)

Har bir so'z, **har bir** dalil, **har bir** taklifni qayta-qayta tekshirib ko'rish lozim. (Sh. Rashidov.) **Yoshlar**, **avlodlar** mehnati, matonatini ko'rib, quvonchim qalbimga sig'may toshadi!

Ammo **shu** muhit, **shu** qaynoq hayotda, **shu** go'zal insonlar orasida, afsuski, Karimlar ham bor!.. (H. G'.)

2. **Gap** boshida:

Nega buncha go'zal ko'rinar olam,
Nega buncha qarab to'yimas ko'zlarim?!

3. Qo'shma gap qismlari boshida:

Mehnat insonni yaratadi, **mehnat** insonni bezaydi, **mehnat** odamni odam qiladi.

2. **Epifora**. Bu – anaforaning teskarisi. Bu usul bilan takrorlangan gapning ma'nosi kuchaytiriladi. Anafora og'zaki va yozma nutqlarda ham qo'llansa, epifora asosan yozma nutq uchun xarakterlidir.

Quyidagilar epifora bo'lib keladi:

1. Murakkab kesimlarning yordamchi elementi:

Kesim:

Yigirma bahorni ko'rgan yoshim **bor**,
O'n beshta diyorimda qadr donim **bor**,
Yo'lbarslar o'z izidan qaytmaganday,
Bu yo'ldan qaytmaydigan bardoshim **bor!** (M.)

Juvonning butun bergan dashnomi ham **bir bo'ldi-yu** hozir bodiring uzatgani ham **bir bo'ldi**. (A.Q.) Qalb iztirob chekib **yig'lamasdi**, ko'ngil dard bilan **yig'lamasdi**, yurak o'rtanib **yig'lamasdi**, balki butun vujud quvonib, baxtiyorlik daryosiga sho'ng'ib-sho'ng'ib **yig'lardi**. (J. Abd.)

2. **Ega**. Bu ega inversiyaga uchraganda yuz beradi: Do'stlik so'zi juda ajoyib, ohangdor va ohangrabodir! Qanchalik ulug'vor va ma'nodor so'z-**bu!**

Qanchalik ulug'vor va ma'nodor so'z-**bu!** Qanchalik tengi yo'q, bebaho so'z- **bu!** (V.Z.)

3. **Takror**. Bu ma'noni kuchaytirish, o'ziga xoslik va hissiylik uchun xizmat qiladi. Sh. Balli takrorning yuzaga kelishini hissiy impuls bilan izohlaydi: « Qancha impuls bo'lsa, shuncha takror bo'ladi».

So'zlovchi o'z sezgilariga iboraning mos emasligini anglab, sifatni miqdor bilan to'ldirishga xarakat qiladi. Bu takrori yuzaga keltiradi. Takror hissiy nutqni xarakterlaydi.

Takror turlicha bo'ladi.

1. Takror aynan bo'lib, **yonma- yon** keladi. Bu ikkilanish deb ham yuritiladi. Takrorning bu ko'rinishi quyidagi shakllarga ega:

a) **Gap** takrori: **-Ha, ha** ofarin, otangiz rahmatlik ko'p dono odam edilar-da! (P.T.)

b) **Gap bo'laklari** takrori: Ikromjon **yig'ladi, yig'ladi**, yig'idan ko'z yoshlari quridi. (S.A.)

v) **Yordamchi so'zlar** takrori: Ikromjon turgan joyida bir qalqib ketdi. Bu bola nimalar deyapti? **Nahotki, nahotki**, bolasi yana nobud bo'lgan bo'lsa? (S. A.)

2. Takror aynan bo'ladi. Lekin keyingi komponent boshqa bo'laklar bilan **kengayib** keladi. Bu ma'noni yanada kuchaytiradi, yanada ta'kidlaydi. Bunday takrorlar ham gap takrori, gap bo'lagi takrori, yordamchi so'z tarkibi shaklida bo'lishi mumkin.

a) **Gap** takrori: Juda o'zgarib ketibdi, - o'ylardi Abdulla uyga qaytar ekan. -Juda o'zgarib ketibdi. Nahotki, ikki yil ichida shunday o'zgarish mumkin bo'lsa? (O'. U.)

b) **Gap bo'lagi** takrori: Bayroq, qizil bayroqo'rnatish kerak! (O'. U.)

Beg'ubor, juda ham beg'ubor shabada esdi. (S. A.)

v) **Modal so'z** takrori: afsus, ming afsuski, nasihatimga quloq solmadingiz, maslahatimga yurmadingiz. Umurzoqov! (H. G'.)

3. **Takror** aynan bo'ladi. Lekin ular orasida **boshqa gap bo'laklari** keladi. –Sekin yaxshi qiz, sekin –dedi sharfli yigit hamon kulib. (O'.H)

4. **Sintaktik parallelizm**. Bunda tuzilishi bir xil bo'lgan ikki yoki undan ortiq gap ketma–ket keladi. Bunday gaplarning bo'laklari ham ularning shakli ham bir xil bo'ladi. Bu sintaktik simmetriya hosil qilib, ifodalilikni kuchaytiradi. Xolmatjon uchun Chortherakning sira qizig'i qolmagandi: **na** ota, **na** ona, **na** buvisi boruning bu qishloqda. **Na** akasi, **na** ukasi bor uning Chortherakda.

5. **Antiteza. (Tazod)** Bu mantiq jihatdan qarama -qarshi bo'lgan ikki qutb (fikir, sezgi, tushuncha va obrazlar)ni qiyoslashdir. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi. Tarkibida antonimlar, grammatik zidlik munosabatini hamda tasdiq va inkor ifoda qiluvchi grammatik vositalar, shuningdek, ifodalikning boshqa zidlash vositalari qo'llanadi: Uning hayoti **baland-past** bo'lishi kerak emas, **to'g'ri** bo'lishi kerak. (O'. U.) Egri ozadi- to'g'ri o'zadi.(Maqol).

6. **Gradatsiya. (Kuchaytirish.)** Bu ifodalilikni birin-ketin kuchaytirib yoki pasaytirib borish usulidir. Agar ifodalilik birin-ketin kuchaytirib borilsa, **klmans**, pasaytirib borilsa, **antiklmans** deyiladi. Bunda ifodalilikning metofora, epitet, sinonimiya kabi vositalardan foydalaniladi.

Gradatsiya gap, gap bo'lagi shaklida bo'ladi.

Gap shaklida: Kim o'z yuragini o'zi sug'irib olgisi keladi? Kaftiga qo'ngan qushni uloqtirib yuborishga ko'zi qiyadigan odam bormi?

Gap bo'lagi shaklida: U har qanday to'siqni ham engib o'tadi. Ulg'aydi, voyaga etadi.(P.T.)

7. **Ritorik so'roq.** Bu ekspressiv funktsiya tashuvchi sintaktik vositalardandir.

Ritorik so'roq gaplarda ifodalangan fikr sof so'roq emas: sub'ekt yangi informatsiya olishni ko'zda tutmaydi, so'roq javob talab qilmaydi, balki so'roq orqali hukm ifodalanadi. Uning sintaktik qurilishi mantiqqa, mazmunga mos kelmaydi.

Ritorik so'roqlarni funktsiyasiga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhdan ritorik so'roqlar (javob talab qilinmaydigan murojat) adresati-tinglovchiga qandaydir ta'sir ko'rsatishga mo'ljallanadi: Yigit uchun mardlik, qahramonlikdan o'zga ulug'roq, oliyroq bir fazilat bormi?

Bu gaplarda fikr ko'tarinki ruhda kuchli emotsiya bilan ifodalanayapti.

Ikkinchi guruhdagi ritorik so'roqlar faqat ekspressivlik funktsiyasini bajarib, sof emotsional ta'sir ko'rsatadi:

Kurashadi ikki to'lqin, qarab turaymi?

Yo tarixning temir qo'lin chetga buraymi?(O.)

Ritorik so'roq gaplar badiiy va publitsistik uslublar uchun tipik bo'lib, ba'zan so'zlashuv uslubida ham uchraydi. Bunda ritorik so'roqlar fikrni ta'sirchanligini ifodalaydi. Umuman, ritorik so'roq gaplar nutqda kuchli uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi: Do'nani kim bilmaydi? Uning shuhrati va tashabbusi butun trassaga ma'lum. (Y. Sh.)

Axir kirish so'zi ko'pincha egasi topilmaydigan bir bosh bo'lakli gaplardan bo'lgan ritorik so'roq gaplar tarkibida keladi: Bu ulug' ish bizning Vatanda boshlandi. Bunga behad xursand bo'lmasdan bo'ladimi, **axir?! (V. Z.)**

Ayrim ritorik so'roq gaplar sof so'roq gaplarga o'xshab ketadi. Ularning ritorik so'roq ekanligini ohang kontekst orqali anglash mumkin:

Saida zaharxanda qildi:

- Kolxozda xotin mukofatga beriladimi? (A. Q.)

Ba'zan murakkab sintaktik butunliklar faqat ritorik so'roqlardan iborat bo'lib, murakkab fikrni kuchli emotsiya bilan ifodalaydi: Bunday Vatanning, uning xalqining ajoyib eski yilni ulkan mamnuniyat bilan kuzatmasdan bo'ladimi?!

Nazorat savollari:

1.1.Nutqiy san'atlarning umumiy xususiyatlari va turlari.

1.2.Inversiya.Uning turlari va vazifalari.

1.3.Takror. Uning turlari, uslubiy vazifalari.

1.4. Ritorik so'roq gap ritorik undash va murojatlarning qo'llanishi.

1.5.Matn uyushtirish usuli va nutq san'atlari o'rtasidagi bog'liqlik.

1.6. Badiiy va publitsistik uslubda nutq san'atlarini qo'llanilishi.

2-savol bo'yicha dars maqsadi:

2- savolning bayoni:

Tildagi ko'pgina so'zlar o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarni hatto ba'zan o'z ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan ma'nolarni ifodalash uchun ham qo'llanadi. Bir predmet belgisi boshqa bir predmetga ko'chiriladi, o'xshatiladi.

Adabiy asarning badiiy qiymatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi ko'chim deyiladi.

Ongimizda qandaydir xususiyatlari bilan, belgilari bilan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki predmet yoki hodisani chog'ishtirish, o'xshatish ko'chimga asos qilib olinadi. Ya'ni biror predmet yoki voqea hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa biror predmet yoki voqeaning belgisi ko'chiriladi, o'xshatiladi.

Ko'chimlarning quyidagi asosiy turlari mavjud:

1. **Metafora (istiora)**- grekcha metaphora (ko'chim, istiora) so'zidan olingan.

Nutqda obrazlilik, emotsiya berish maqsadida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zlar va iboralarning ko'chma ma'noda ishlatilishi **metafora** deyiladi. Masalan, kishinig yoshligini g'uncha, yigitlik davrini umrning bahori kabi so'z birikmalari bilan, o'ldi so'zini xazon bo'ldi, so'ldi so'zlari bilan almashtirish mumkin. Chunki bu so'zlar anglatgan ma'nolar o'rtasida qandaydir umumiylik, yaqinlik mavjud.

Metaforani yashirin o'xshatish deyish ham mumkin. Ammo oddiy o'xshatish har doim asosiy ikki a'zodan tashkil topsa (ya'ni nima qiyos qilinadi, nima bilan qiyos qilinadi, qiyos qilinuvchi va qiyos qilinadigan predmet) metaforada faqat ikkinchi a'zo – o'xshatilgan narsa qoladi, o'xshagan narsa tushirib qoldiriladi va u kontekstda ochiq sezilib turadi, demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi a'zo orqali idrok qilinadi:

Metafora tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: sodda va kengaygan.

Sodda metafora birgina so'zdan tashkil topsa, kengaygan metafora ikki yoki undan ortiq so'zdan tuziladi. Masalan, gumbaz (osmon), yiqildim (yomon baho oldim ma'nosida.) kengaygan metafora sanaladi.

Badiiy metafora bilan lingvistik metaforani bir-biridan farqlash kerak. Agar metafora predmetning doimiy nomiga aylanib qolgan bo'lsa, u tilshunoslikning o'rganish ob'ekti bo'ladi. Masalan, yoy- asli yomg'ir yoqqandan so'ng osmonda paydo bo'ladigan yarim doira shaklidagi yorug' chiziq. Uning nomi tarixiy jihatdan ov quroliga ham o'tgan; omon-sifat, omon- ot; kakku taqlidiy so'z, kakku- qush nomi va h. k.

Badiiy metaforaning eng yaxshi namunasini H. Olimjon « Baxtlar vodiysi» she'ridan keltirilgan quyidagi parchada ham ko'rish mumkin:

Ko'm-ko'k vodiylarda

Po'lat izlaridan (temir yo'l-R.Q.)

Kelayotir qora poezd

Uchib,

Qarsillab,

Elektrik tomiridan (elektr simi- R.Q.)

Oqqan qonlardan (elektr toki-R.Q.)

Butun o'lka shimirayotir

Chanqab, harsillab.

2. **Metonimiya (ma'joz)**- grekcha metonymia so'zidan olingan bo'lib, boshqacha nom berish degan ma'noni bildiradi. Metonimiya (ma'joz) hodisasi ham so'zlarning ko'chma ma'nosi bilan bog'liq. Ammo bu erda asosan biror narsa yoki voqea hodisasining nomi boshqa bir narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Bu predmet yoki voqea hodisa ongimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari ko'chirilsa, metanimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi.

Predmetlarning nomlarini boshqa predmetlarga o'tkazishning bir necha xil ko'rinishlari mavjud:

1. Biror narsa ichidagi predmetning ma'nosi o'sha narsaga (idishga) o'tkaziladi: bir tovoq palov edim deyish o'rniga bir tovoqni tushirdim, deymiz.

2. Muallifning nomi uning asari o'rnida qo'llanadi: Marksni o'qidim, Navoiyni o'qidim kabi. Bu erda Marks, Navoiy asarlarini o'qidim degan ma'no tushuniladi.

Misol:

Fuzuliyini oldim qo'limga, Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi

Va Navoiy tushib yo'limga, faryod bilan o'rnidan turdi.

Lemantovni tashlamadim hech, oxir qo'yib oldim Hofizni,

Pushkin menga ko'rsatdi har kech yig'lab turgan bir cherkas qizni.

(H. Olimjon. «Shodlikni kuylaganimning sababi».)

Harakat yoki uning natijasi shu harakatni bajaruvchi qurolning nomi bilan almashtiriladi:
Uning perosi qasos o'ti bilan yonardi.

Biror predmetni u yasalgan material bilan almashtirish:

Er kurrasida bo'lgan proletar
Salomi,

Do'stlik ilhomi-

Po'lat karvonlarda

Hayqirib kelajak. (G'.G'.)

Ma'lum erda, mamlakatda, davlatda yashab turgan kishilar ma'nosi shu erga, mamlakat yo davlatga ko'chiriladi6 «Majlisga butun qishloq keldi».

Aniq tushuncha nomi o'rnida mavhum ot qo'llanishi mumkin: Odamlar esnaydi, majlis raisga ho'mrayib qaraydi. (A. Q.)

3.Sinekdoxa- grekcha synekdoche so'zidan olingan. U metaforaning bir turi bo'lib, predmetning soni bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni predmetlarning son jihatidan birining (qism, to'la) ma'nosi ikkinchisiga ko'chiriladi. Butun o'rnida qism (yohud, aksincha) yoki birlik o'rnida ko'plik (va aksincha) qo'llanishi ham bunga misol sifatida ko'rsatish mumkin: Buyuk armiyaning soldati! Quyidagilarga amal qilsang, senga o'q tegmaydi, engilmaysan.

Sinekdoxaning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

a) Butun o'rnida qism: ba'zan biror kishini chaqirish uchun uning ismi bilan emas, balki kallasi katta bo'lsa, «ey kalla», shlyapa kiygan bo'lsa, «ey shlyapa» deb chaqirish hollarini uchratamiz.

b) Ko'plik o'rnida birlikni ishlatish: Sotuvchi, xaridor bilan xushmuomalada bo'l.

4.Epitet (sifatlash) – grekcha epitheton so'zidan olingan bo'lib, izohlovchi degan ma'noni beradi. Epitet – sifatlashning bir turi. Ammo u doimiy sifatlashdan o'zining ekspressivligi, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi.Epitet- poetik aniqlovchi.Epitetning oddiy aniqlovchidan farqi shundaki, u aynan paytida tasvirlanayotgan narsaning so'zlovchi nuqtai nazarida muhim hisoblangan tomonini ta'kidlab, bo'rttirib ko'rsatadi. Ayniqsa, she'riy asarlarda bu ko'proq talab qilinadi. Chunki she'riy asarda prozaik asarga nisbatan so'zning estetik va emotsional ta'siri kuchliroq bo'lishi kerak. Bunday epitet ko'pincha qisqargan metaforaga o'xshab ketadi. Shuning uchun bunday epitet metaforik epitet deb ham yuritiladi.

G'ururlanib poezd qichqirib, uzoqlarga tomon uchadi,

Oq bug'lari engil suzilib, muzday havolarni quchadi. (U.)

Ayrim epitetlar biror predmet bilan mustahkam bog'langan bo'ladi. Masalan, dengiz deganimizda ko'k rang ko'z oldimizga keladi, shuning uchun, asosan, u ko'k (ko'm-ko'k) so'zi bilan birga ishlatiladi. Bunday epitetlar doimiy epitetlardir. Doimiy epitet predmet va voqealarni individual tomondan xarakterlanmaydi, emotsianallik hosil qilmaydi. Sintaktik tomondan ham ular ancha turg'un (ya'ni dengiz hamma vaqt ham ko'k, bog' asosan yashil kabi).

5.O'xshatish. O'xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretrroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdir.O'xshatish eng qadimgi tasviriy vositalardan biri bo'lib, eng sodda va juda ko'p qo'llanadigan sintaktik hodisa hisoblanadi.

Ammo yuzini oyga, qizni gulga qiyos qilinadigan doimiy o'xshatishlar borki, ular ham emotsianallik, ham baholash qiymatini yo'qotgan. Bu tipidagi o'xshatishlarni lingvistik hodisa sifatida qarash kerak.

O'xshatish to'rt asosiy qismdan tarkib topgan:

Bog'lardagi qip-qizil lola

Bo'lib go'yo yoqut piyola,

Buloqlardan uzatadi suv,

El ko'zidan qochadi uyqu. (H. O.)

6.Ironiya-grekcha eironeia (bilib bilmaganga olish) so'zidan olingan.

Ba'zan muallif voqeani bamaylixotir, jiddiy holda hikoya qiladi-yu ammo so'zlarni o'z asl ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda qo'llab, biror kishi yoki hodisa ustidan kesatliq bilan, masharaomuz yashirin kuladi.

So'zlar va iboralarning kesatq va piching bilan o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi **ironiya (kinoya)** priyomi deyiladi.

Ironiya shunday usulki, yuzaki qaraganda, so'zlovchi jiddiy gapirayotganga o'xshaydi, ammo uning tagida haqiqiy ma'noga qarshi bo'lgan yashirin kulgi yotadi:

Navoiy. Qo'rqma! (Uzukni olib tomosha qiladi.) Qimmatbaho uzuk.

Katta xizmatlar evaziga mukofat qilib bersa arziydigan uzuk. Ma!

Husayn. Koshki, boshqa amirlar ham avomning tilini bilsa? Koshki o'zgalarni g'iybat qiluvchilar o'z nuqsonlarini ham bilsalar! (Majididdinga kinoya)

Husayn. Alisher, men xazinaning ahvolidan behabar, sizga pul va'da qilgan ekanman.

7.**Antifraza**-ironiyaning bir ko'rinishi bo'lib, biror shaxs yoki predmetga xos bo'lgan u yoki bu ijobiy xususiyat kulgili intonatsiya bilan inkor qilinadi: juda aqlli, nima ham der edik. (M. G.)

So'zlovchi yoki yozuvchi tasvirlanayotgan predmetga munosabatini ba'zan o'z tasvirida bildirsa, ba'zan persanajlar nutqi vositasida bayon qilinadi. Masalan, A. Qahhorning «O'g'ri» va «Mayiz emagan xotin» hikoyalarida persanajlar nutqidagi ironiyalardan tashqari, muallif nutqida ham kuchli ironiyalardan foydalanilganini ko'ramiz: mulla Norqo'zi safarga ketadigan bo'lib qoldi: ketishidan bir kun ilgari xotiniga aytib, o'sha farishtani oldirdi va o'rta eshik oldiga borib qiyomatlik singlisidan iltimos qildi: singlim, men o'n kunda qaytib kelaman. Kelgunimcha o'rtog'ingiz bilan birga bo'ling.

Bu o'rinda A. Qahhor «farishta», «qiyomatlik singil», «cholning holiga ko'p achindi» kabi so'z va so'z birikmalarini asl ma'nolariga juda ustalik bilan qarshi qo'ygan. Haqiqatda esa Norqo'zi uyida xotini bilan birga turishini iltimos qilayotgan kishi farishta ham emas, singil ham emas, balki erkak kishi edi.

Demak, har qanday so'z va har qanday jumla ma'lum muhitda intonatsiya bilan bog'liq ravishda kinoya-piching ma'nosini berishi mumkin.

8.**Sarkazm.** Grekcha sarkasmos so'zidan olingan bo'lib, (so'zma-so'z tarjimasida qiynash, ozor berish), achchiq zaharhanda, iztehzoli ta'na, piching demakdir. Sarkazm tasvirlanayotgan yoki murojaat qilinayotgan kishi yoki narsadan muallifning ustunlik hissiyotiga asoslanadi.

Sarkazm ko'chma ma'noga ega bo'lmaydi, ammo muallifning tasvirlayotgan voqea-hodisaga munosabatini ko'rsatadi. Bu ham achchiq kulgi, ta'naga asoslangan bo'ladi. Shu xususiyati bilan ham sarkazm ironiyaga ancha yaqinlashadi. Bunda ko'proq shaxs-predmet yoki voqea-hodisaning salbiy tomonlari fosh qilinadi.

Husayn (bosh quyi solingan). Nechun avvalroq bilmadim.

Navoiy. Rahnamo iblis bo'lgach, yangilishish tabiiydir. Tushgan yo'lingiz g'oyat mudhish yo'l. Bu yo'ldan boruvchining qonlardan kechib, kallalarni depsib o'lmay iloji yo'q.

Husayn (og'ir). Etar, Alisher... Men sizdan bunchalik ta'nalarni kutmagan edim.

Navoiy Men sizni, meni Balxga yuborib, bunchalik marhamatlar qilasiz deb o'ylamagan edim.

9.**Perifraza.** Kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to'g'ridan-to'g'ri gapirmasdan, ularni turli xil so'z yoki tasviriy iboralar vositasida bayon qilish perifraz deyiladi. Bu termin prefraza, parafraz, parafraza deb ham yuritiladi.

Har qanday nomni boshqa ibora bilan almashtirish ham perifraz bo'la bermaydi. Almashtirilgan predmet bilan tasviriy ibora o'rtasida mazmuniy jixatdan qandaydir bog'liqlik bo'lishi kerak. Shu bilan birga, u almashtirilgan narsaning muhim, ahamiyati tomoni, xususiyati to'g'risida o'quvchi yoki tinglovchida ravshan manzara hosil qilinishi lozim. Misollar :

Ey shonli **inqilob beshigi**,

Bag'ring bukun chaman gul ekan. (U.)

10.**Mubolag'a va litota.** Mubolag'a- **giperbola** grekcha so'zidan olingan bo'lib, bo'rttirish, orttirib ko'rsatish ma'nosini bildiradi. **Litota** esa, aksincha, grekcha - haddan tashqari kichraytirib ko'rsatish ma'nosini bildiradi. Litota termini o'rnida ba'zan **meyozis** termini ham ishlatiladi. Mumtoz adabiyotda bu san'at **tafrit** deb yuritiladi.

Mubolag'a va litota ham asosan ko'chma ma'no asosida qandaydir o'xshatilish, yoki boshqa biror predmet va voqea-hodisa tushinilsa, haddan tashqari kuchaytirish yoki kichraytirish to'g'ri ma'noda tushunmaslikni talab qiladi:

Uzoq yillarda qora chashmangdan

Oqqan siyohlarni o'lchasak agar,-
Qo'llasam klassik mubolag'a man-
Der edim: teng kelar Qora dengizga!(M.Sh.)

11. Allegoriya. Grekcha so'zidan olingan bo'lib, qochiriq, kesatish ma'nosini bildiradi. Tropning bir turi sifatida allegoriya ham so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Yozuvchi abstrakt (mavhum) tushunchalar to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish niyatida uni biror xususiyati bilan yaqinlashadigan konkret predmetlar orqali badiiy qilib tasvirlab beradi.

Elga bersang oshingni, erlar silar boshingni.

Itga bersang oshingni, itlar g'ajir boshingni. (Maqol.)

12. Simvol.(ramz) Simvol metaforaning bir ko'rinishidir. U grekcha so'zidan olingan. Qadimgi greklarda mahfiy bir tashkilot a'zolarining bir-birlarini bilishlari uchun qo'llangan shartli belgi. Badiiy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va predmetlar ifodasi uchun so'zlarning ma'lum ravishda ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z, birikma yoki predmet, voqea va tushunchalarni eslatib turishi kerak.

Masalan, Tong - quvnoqlik, yoshlik, baxt ramzi (simvoli), tun - baxtsizlik ramzidir.

13. Jonlantirish. Jonlantirish metaforaning maxsus turi sifatida og'zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham o'xshatishlar kabi juda qadimdan ishlatilib kelinadi. Bu shunday usulki, unda kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chiriladi. Boshqacha qilib aytganda, jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so'zlaydigan qilib tasvirlash jonlantirish deyiladi. Jonlantirish usulidan poetik asarlarda, ertak va masalalarda ko'proq foydalaniladi:

Sahar chog'i... Kumush kabi shudringdan

Sirg'a taqib, yaprog'iga bosh qo'yib,

Gullar tunning quchog'ida mudraydi...(U.)

14. Apostrofa. Agar jonlantirishda jonsiz predmetlar inson sifatida harakat qilsa, apostrofada jonsiz predmetlar harakat qilmaydi, balki jonsiz narsaga jonli narsadek murojaat qilinadi;

Siyohdon, omon bo'l, ishchan hamdamim,

Ishonki, so'qqabosh bo'lmagaysan hech.

Seni ko'p bezovta qildi qalamim,

Sen ham uxlatmagin meni erta-kech! (M. Sh.)

Gapirilayotgan paytda bo'lmagan kishiga shu erda ishtirok etayotgandek murojaat qilish ham apostrofaning ko'rinishlaridan biridir.

Qabringga gulchambar keltirdim, Xamza,

Dindan, inglizdan zerikkan jonman .

Isodan, Musodan, Qur'on burhondan

Tongan kommunistman, oddiy insonman. (G'.G'.)

Nazorat savollari.

2.1. Sintaktik ko'chimlar va ularning turlarini sanab berish.

2.2. Sintaktik ko'chimlar va ularning uslubiy tbiatini izoxlash.

2.3. Sintaktik badiiy, publitsistik va suzlashuv uslubida qo'llanilishiga misollar ko'chiring

2.4. Ma'no ko'chish yo'llari haqida o'z fikrini bildiring.

2.5. Jonlantirish va uning turlari haqida tushincha bering.

2.6. O'xshatish va uning turlari haqida fikringizni ayting.

2.7. Ko'chimlarni uslubiy tasvirlang.

2.8. So'z ichki « qiyofa»sini jonlantirish usuli.

2.9. Sintaksisning uslubiy imkoniyatlari va matn uyushtirish usuli xamda nutq san'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda ko'rib chiqish.

2.10. Nutq san'atlarining matn uslubini yaratishdagi ahamiyati haqidagi ilmiy qarashlarni izohlash.

2.11. Badiiy va publitsistik nutqda badiiy san'atlarning qo'llanishi va uslubiy imkoniyatlarini ilmiy dalillash.

Leksik uslubiyat.

So'z va uning ma'nosi. Nutqning aniq va ravshan bo'lishi, avvalo, so'zdan to'g'ri foydalanishga bog'liq. So'zni o'z o'rnida to'g'ri ishlata bilish uchun uning leksik ma'nosini anglash zarur.

So'zning leksik ma'nosini tushunmaslik uni xato qo'llashga olib keladi. Masalan: O'n kun deganda er xaydash va ariq chopish tugallandi. Bu gapda chopish so'zi xato qo'llangan. Odatda, ariq chopilmaydi, qaziladi. Sekin-asta deb, xotirjam yuraversangiz, g'alvir suvdan ko'tarilganda, guruh a'zolari yuzingizga qorakuya chaplaydi. Bu misolda chaplamoq fe'lining leksik ma'nosidan to'g'ri foydalanilmagan. Odatda, qorakuya surtiladi, loy chaplanadi.

«So'z barcha faktlar, barcha fikrlar libosidir» (M.Gorkiy). «Agarda biror narsani aniq ifodalay olmas ekanmiz, bunda tilimizdan emas, balki uquvsiz mahoratimizdan gina qilishimiz kerak», - degan edi M.V.Lomonosov¹²

So'z san'atkorlari tilga alohida e'tibor berib keldilar, uslub va ifodaning sodda bo'lishini, nutqda fikriy mujmallikka yo'l qo'ymaslikni targ'ib etdilar. Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy tilga e'tibor—elga e'tibor, deb tilning ahamiyatini alohida ta'kidladi. Bobur esa o'g'li Humoyunga yozgan maktublaridan birida uning (o'g'lining) xatda fikr ravonligi va aniqligiga rioya qilmaganligidan tashvishlanib «xatingni xud tashvish bilan o'qisa bo'ladi. Mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bit, ham senga tashvish ozroq bo'lur, ham o'qig'uvchiga», - degan edi.

Ona tilini mukammal egallash uchun tilning nazariy va amaliy asoslaridan xabardor bo'lish kerak. Chunonchi, gap tarkibi so'zning semantikasi—ma'no tomoni, qo'shimcha emotsional—ekspressiv ottenkasi va uslub belgilari, fikrni so'z vositasi bilan logik jihatdan to'g'ri ifoda qilish usullari va shunga o'xshash masalalarni puxta bilish zarur. «Ona tilini o'rganish, -deydi M.I.Kalinin, -nihoyatda ulug' bir ish. Inson tafakkurining erishgan eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari va g'oyat otashin hislar, agar ular so'z vositasi bilan aniq va ravshan ifoda qilinmasa, odamlar uchun noma'lumligicha qolaveradi. Til fikrni ifodalash qurolidir. Binobarin, agar fikr nutq vositasi bilan bayon qilingan bo'lsa, agar u til vositasi bilan ro'yobga chiqqan bo'lsa, agar u, faylasuflar tili bilan aytganda, -boshqalarga bevosita borib etsa, reallashsagina fikr bo'la oladi».

Omonimlar. Har bir tilning lug'at tarkibida tovush tarkibi va yozilishi jihatidan bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar muayyan miqdorda topiladi. Bunday so'zlar omonimlar guruhini tashkil qiladi.

Fonetik (tovush) tomondan bir xil — shakli o'zaro teng kelib qolgan ikki va undan ortiq so'zlar omonimlardir. Omonimlar ma'no jihatdan o'zaro munosabatda bo'lmaydi— boshqa-boshqa tushunchalarni anglatadi. Masalan: ot (ish hayvoni, ism, buyruq fe'li). Ko'p ma'noli so'zlarning shakli asli bitta bo'lib, ma'nolari o'zaro bir-biriga juda yaqin va aloqador, biri-ikkinchisiga bog'liq bo'ladi. Masalan, bosh so'zi: ko'chaning boshi, gapning boshi, tomning boshi, erning boshi.

O'zbek tilida omonimlar turli ko'rnishlarga ega. Chang (to'zon)— chang (musiqasi asbobi), yoqmoq (chiroqni yoqmoq)— yoqmoq (uning nutqi menga juda yoqdi, «xush kelmoq, ma'qul bo'lmoq») kabi barcha grammatik shakllari teng, bir so'z turkumiga kiruvchi so'zlar omonimlar deyiladi.

Omonimlarning ikkinchi turi — omoformalar. Ba'zan grammatik shakllardagina teng keluvchi bir xil talaffuz qilinadigan va bir xil yoziladigan so'zlar **omoformalar** deyiladi. Omoformalar ko'pincha boshqa-boshqa so'z tukumlariga mansub bo'ladi. Masalan: olma (ot) — olma (fe'ning buyruq shakli), qo'y (uy hayvoni)—qo'y (fe'ning buyruq shakli). Omonimlarning uchinchi turi omofonlardir. Bular aytilishi (o'qilishi) bir xil, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: etti (son)— etdi (fe'l), yot (begona, buyruq, fe'li)—yod (xotira). Omofonlarni farqlamaslik ko'pincha og'zaki nutqda dudmollikka olib keladi. Omonimlarning to'rtinchi turi omograflar bo'lib, ular yozilishi bir xil, lekin aytilishi (o'qilishi) har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: tok (uzum) — tok (elektr quvvati), tur (xil, nav) — tur (davra, shaxmat o'yinlarining ikkinchi turi boshlandi).

Tildagi har bir so'zning leksik ma'nosi boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishganda reallashadi. Omonimlarning kontekstdan tashqari yolg'iz o'zini ishlatish deyarli uchramaydi. Shunday ekan, kontekst omonim so'zlar ma'nosi tufayli sodir bo'luvchi qiyinchilikni bartaraf qiladi.

¹ Бодуэн де Куртене И. А. Избранные труды по общему языкознанию. -М. 1963 г.

² .В.М, Солнцев Язык как системно-структурное образование, - М., 1971, 11-бет.

Nutqda ikki xil anglash holatiga yo'l qo'yuvchi omonimiya hodisasi, o'z navbatida, tushuncha doirasini kengaytiradi. Chunonchi, yozuv va talaffuzda bir o'rinda so'zni, ikkinchi o'rinda so'z birikmasini o'xshash–teng keltirish hodisasi ham omonim so'zlar doirasini kengaytiradi. Misollar:

Deydilarki, kungaboqar

Umr bo'yi kunga boqar.

Nutqda omofonlarni bunday ishlatish orqali so'z o'yinlari hosil qilinadi. Bunda tovush tomonidan o'xshash, lekin ma'nosi turlicha bo'lgan elementlarning, omonim so'zmi yoki so'z birikmasi ekanidan qat'iy nazar, matndagi har galgi takrori juda muhimdir. Omonim so'zlarning bu turidan, ayniqsa, askiyada so'z o'yini va qochiriq vositasi sifatida keng foydalaniladi. Bu uslub yozuvchi va shoirlarimiz ijodida tez-tez uchrab turadi. Masalan, quyidagi misolda ma'nosi bir-biridan juda uzoq bo'lgan so'zlarning «to'qnashtirilishi» omonimik holatni yuzaga keltirgan:

Bir yosh yigit iste'dodli shoir oldiga kelib yozuvchilik da'vo qila boshladi:

- Men ko'p vaqtlardan beri adabiy ishlar bilan shug'ullanib kelayotirman. Istardimki, men yozgan asarlar ham nashr qilinsa.

- Siz nozimmi yoki nosir? – so'rabdi shoir diqqat bilan uning so'zlarini eshitgach.

Yigit elkasini qisib javob beribdi:

- Nozim ham, Nosir ham emasman, mening nomim Karimjon.

(«O'zbekiston madaniyati»)

Bu o'rinda adabiyotdan butunlay xabarsiz kishi qiyin ahvolga tushib qoladi: nozim, nosir (nazm, nasr – adabiy termin – poeziya va proza) o'rniga uning omonimini (Nozim, Nosir – atoqli ot) qo'llab, suhbatdoshining savoliga hech aloqasiz javob beradi. Latifa muallifi omonimlarni «to'qnashtirish» yo'li bilan yozuvchilikni da'vo qiluvchi kishining satirik xarakteristikasini chizadi.

Omonimlardan xalq og'zaki ijodida, badiiy adabiyotda maxsus poetik janr – tuyuq tuzishda keng foydalaniladi. Misolar:

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi **ot**,

Yaxshilik qil bolam, yomonlikni **ot**.

Nasihatim yod qilib ol farzandim,

Yolg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi **ot**.

(Xalq og'zaki ijodi)

Bunda ot so'zi birinchi satrda «nom, shuhrat», ikkinchi satrda «tark etmoq, tashlamoq», uchinchi satrda «ish hayvoni - ot» ma'nolarida ishlatilgan.

Olmani sundi nigorim–**ol!**–dedi,

Olma birla bu ko'ngiln –**ol!**–dedi.

So'rdim ersa olmasining rangini,

Ne so'rarsan?– olma rangi–**ol** dedi.

Bu tuyuqda ol so'zi uch ma'noda ishlatilgan: 1) buyruq fe'li; 2) ko'ngil ovlamoq; 3) qizil rang.

Omonimlar va paronimlar ba'zi jihatlari bilan bir-biriga yaqin. Paronimlar tovush jihatdan butunlay teng bo'masa-da, lekin aytilishda birmuncha o'xshash bo'lgan so'zlardir. Masalan: adresat –adresant, diplomat-diplomant, indeets-indiets va boshqalar.

Ma'nodoshlik- uslubiyat asosi

Leksik ma'nosi jihatidan farqlanadigan sinonimlar ideografik (ma'no) sinonimlardir. Masalan, kasal (umum ishlatadigan so'z), bemor (yozuvda ko'p qo'llanadi), xasta (eskirgan so'z), ammo ba'zan-ba'zan, ora-sira kasal bo'lib turish ma'nosini bildiruvchi betob, notob so'zlari yuqoridagilarga nisbatan uslubiy va ideografik sinonimdir. Ideografik sinonimlar o'zaro leksik ma'no darajasiga ko'ra farqlanadi: yomg'irda plashim nam bo'ldi, yomg'irda plashim ho'l bo'ldi bog'lanishlarining keyingisida belgi darajasi kuchliroq. Nutqda fikr bo'yog'i nozikligi yoki emotsiyasiga, leksik, grammatik yoki uslubiy xarakteriga mos sinonim so'zlardan faqat bittasi tanlab olinadi va ishlatiladi. Shu sababdan sinonimik qatordagi so'zlar o'rtasidagi ba'zi farqlarni o'rganish uslubiyatning vazifasi hisoblanadi.

Muayyan sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar konkret hollarda ma'no tomonidan bir-biridan ajalaradi, uslubiy qo'llanishiga ko'ra farqlanadi.

Bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar ma'no jihatidan yaqin bo'lsa ham, ba'zan ulardan birini ikkinchisining o'rnida ishlatib bo'lmaydi. Masalan: ayanch, ahvol, og'ir ahvol, qiyin ahvol,

mushkul ahvol birikmalarida ayanch, og'ir, qiyin, mushkul so'zlari bir-biriga sinonim bo'lib, ayni o'rinda ularni almashtirish ma'noga xalal etkazmaydi. Ammo boshqa bir aniq tushuncha yoki tasavvurni ifodalashda bu sinonim so'zlarni leksik ma'no nuqtai nazaridan baholash lozim bo'ladi. Masalan, og'ir chamadon deyish mumkin bo'lgan holda, mushkul chamadon, qiyin chamadon deyish kulgulidir.

Sinonimlar nutqda ishlatilish doirasi jihatidan ham o'zaro farqlanadi. Masalan, lab—barcha nutq uslublarida ishlatiladigan umumnutq so'zi, dudoq-badiiy nutq so'zi; shamol-umunutq so'zi; sabo—badiiy nutq so'zi; rohat—umumnutq so'zi; eslamog -umumnutq so'zi; xotirlamog -rasmiiy nutq so'zi; yo'qlamog-so'zlashuv nutqi so'zi. Bu xil sinonimlar uslubiy sinonimlar deyiladi.

Shuningdek, ishlatilish doirasi chegaralangan yo chegaralanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, kekxa, qari, oqsoqol, nuroniy, mo'ysafid kabi bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar orasida qari so'zining ishlatilish doirasi keng. Bu so'z insondan tashqari, hayvonlar uchun ham qo'llanadi: qari ot, qari tulki kabi. Lekin oqsoqol, nuroniy, mo'ysafid sinonim so'zlarining ishlatilish doirasi chegaralangan. Bunday holatlar—ishlatilish doirasining keng-torligi sinonimlar ma'no hajmiga, ya'ni ularning keng yoki tor ma'no ifodalashiga bog'liq.

Til faktlari sinonim so'zlar bilan evfemizmlar orasida ma'lum darajada munosabat borligini ko'rsatadi. Ma'nosi qo'pol yoki aytilishi noqulay so'zlarni shunday taassurot tug'dirmaydigan so'z yoki ibora bilan almashtirish vositalaridan biri evfemizmdir. Masalan, kar va qulog'i og'ir, o'g'ri va qo'li egri, ikkiqat va og'ir oyoq kabi.

O'zbek tili nutqda nozik ma'no nozikliklarini hamda rang-barang uslubiy bo'yoqlarni bera oladigan sinonimlarga boy. Mashhur o'zbek shoir va yozuvchilari, so'z ustalari sinonimlardan mohirlik bilan foydalanib kelganlar. Masalan, Alisher Navoiy o'zining «Muhokamatul—lug'atayn» asarida birgina yig'lamoq so'ziga mazmunan yaqin bo'lgan ettita sinonimni keltiradi: yig'lamsiramog, ingramog, singramog, siqtamog, o'kirmog, qichqirmog, hoy-hoy yig'lamoq. Navoiy bu sinonimlar bir-biridan nozik ma'no nozikliklari va uslubiy qo'llanish o'rinlariga ko'ra farqlanishini misollar bilan ko'rsatadi. Ko'zdan yosh chiqarmasdan yig'lash-yig'lamsiramogning ma'nosini Navoiy quyidagi baytda ochib beradi:

Zohid ishqin desaki, qilg'ay fosh,

Yig'lamsinuru ko'ziga kelmas yosh.

So'ngra Navoiy ingramog va singramog so'zlariga izoh berar ekan, «dard bila yashurun ohista yig'lamoqdur va oralarida tafavut oz topilur», deydi va quyidagi baytni keltiradi:

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamog,

Kechalar goh ingramogdir odatim, goh singramog.

Sinonimik qatorni tashkil qiluvchi qolgan so'zlarni ham shu tariqa baytlarda ma'nosini ochib beradi va farqlarini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, sinonimlar bir xil ma'nosi bilan birlashuvchi sinonim so'zlar qatorini tashkil qilsa, fikr va his-tuyg'ularni aniqroq, ravshanroq ifodalashga imkon beradigan uslubiy ma'nolariga ko'ra o'zaro farqlanadi.

Nutqning aniq va ravshan bo'lishi sinonimlardan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Ba'zi sinonimlar so'zlarning ma'nosini farqlash birmuncha murakkab bo'ladi. Hatto adabiy nutqni yaxshi biladigan, sinonimlarni to'g'ri tanlab, ularni maqsadga muvofiq ishlata oluvchi kishilar ham ko'pincha sinonimik so'zlar nozikliklaridagi tafovutlarni tushuntirishda ojizlik qilishlari mumkin. Masalan, bir sinonimik qatordagi iflos, isqirt, irkit, isliqi, iqna so'zlarining ma'no nozikliklarini osongina izohlab berish qiyin.

Sinonim so'zlarning ma'no qirralarini to'g'ri anglash va o'z o'rnida qo'llash ularning qanday so'zlar bilan birikib kela olishi imkoniyatlarini ham hisobga olishni talab etadi. Masalan, qasamyod, qasam, ont; qasamyod qilmoq, qasam ichmoq, ont ichmoq. Qasam qilmoq, ont qilmoq deb bo'lmaganidek, qasamyod ichmoq ham deyilmaydi.

Har bir sinonim so'zning antonimini topish ham sinonim so'zlarning ma'no farqini ochishga yordam beradi. Masalan: engil-og'ir, vazmin, zil,zildek, zalvorli; oson, o'ng'ay-qiyin, mushkul, mahol, mashaqqatli, dushvor. Yana: sekin-tez, ohista-ildam, sust-jadal kabi.

Sinonimlar nutqni ta'sirchan bayon qilishda hamda usubning rangdor bo'lishini ta'minlashda, qaytariqlarning oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Antonimlar. Antonimlar ikki soʻz orasidagi qarama-qarshi maʼno munosabatini ifodalaydi. Masalan, kata-kichik, issiq-sovuq, yaxshi-yomon.

Bir soʻzning boʻlishli va boʻlishsiz formalari antonim soʻzlardagi kabi zid, qarama-qarshi maʼno munosabatini hosil qilmaydi. Antonim boʻlishi uchun ikkita soʻzning zid leksik maʼno munosabati boʻlishi shart.

Antonimlar, asosan, belgi anglatuvchi soʻzlarda uchraydi (sifatlarda, ravishlarda): oq-qora, uzoq-yaqin, doʻst-dushman. Miqdor, vaqt, oʻrin, harakat-holat maʼnolarini ifodalaydigan soʻzlarda zidlash maʼnosi kam boʻladi (ravish, ot, sifat, feʼl): oz-koʻp, baland-past, kecha-kunduz, kulmoq-yigʻlamoq. Shunga koʻra antonimlar sifat, ravish soʻz turkumlarida koʻp uchraydi. Feʼllarda antonim hosil etuvchi soʻzlar juda kam, son, olmosh, modal va yordamchi soʻzlarda umuman yoʻq.

Antonimik holat soʻz birikmalarida ham boʻladi: baland boʻyli semiz qari kishi–past boʻyli oriqli yosh kishi; qizil rangli katta chamadon–qora rangli kichik chamadon.

Bir soʻz bir maʼnosida antonimga ega boʻlishi, boshqa maʼnolarida umuman antonimga ega boʻlmasligi mumkin. Masalan, qalin soʻzining odatdagi antonimi yupqa soʻzi boʻladi: qalin qogʻoz–yupqa qogʻoz, qalin koʻrpa–yupqa koʻrpa. Lekin qalin soʻzi birikmaga oʻzining koʻchma maʼnosi bilan kirishganda yupqa soʻziga antonim boʻlolmaydi; qalin oʻrtoq («yaqin» maʼnosida) – yupqa oʻrtoq deb boʻlmaydi; qalin soch («zich» maʼnosida)–yupqa soch deyilmaydi.

Baʼzi soʻz yasovchi affikslar ham oʻzaro antonimik munosabat hosil qiladi: jonli–jonsiz, pulli–pulsiz, bepul. Antonimik juftiga ega boʻlmagan soʻzlarga oʻzaro antonim soʻz yasovchi qoʻshimchalarni qoʻshish bilan qarama-qarshi maʼnoli antonimlar yasash mumkin.

Antonimlar nutqda kata ahamiyatga ega. Ular narsa-buyum va hodisalar orasidagi farqni toʻgʻri ifodalay olish imkonini beradi. Antonimlarni toʻgʻri qoʻllay olmaslik qoʻpol xatoga olib keladi. Masalan, quyidagi misolni kuzating: choyxona mudiri Yusufjon Nozimov koʻrinishidan turmushning issiq-chuchugini totigan kishiga oʻxshaydi. («Gʻalaba» gazetasi).

Antonimlar tilning kuchli uslubiy vositalaridan biridir. Yozuvchilar voqelikni, narsa va hodisalarning sifat va xususiyatlaridagi farqni koʻrsatishda, bir-biriga qarama-qarshi qoʻyib tasvirlashda–kontrastlar hosil qilishda antonimlardan foydalanadilar. Ayniqsa, sheʼriy asarlarda bir-biriga zid fikr va hissiyotlarni ifodalashda antiteza uslubi keng qoʻllaniladi:

Ota-ona uyquga ketdi,
Uyda faqat Inobat bedor...
Kichik qalbdan buyuk sevinch bor
Er yuzini tutib ketguday.

(Zulfiya.)

Koʻrinadiki, antonim soʻzlar hodisa va holatlarning ikki ziddiyatini ochishda kuchli uslubiy vosita sifatida muhim rol oʻynaydi.

Zidlash munosabati kontekstual-situativ xususiyatda xam boʻladi. Antonimik munosabat nutq situatsiyasida, yaʼni soʻzlarni maʼlum kontekstda qoʻllash orqali voqe boʻladi. Masalan, Doʻst achitib gapiradi, dushman kuldirib. Bunday qarama-qarshi qoʻyish, zidlash natijasida hosil boʻlgan antonimlar kontekstual antonimlar deb ataladi. Kontekstual antonimlar koʻpincha individual, biror muallifga xos boʻladi.

Zidlash munosabatini ifodalashning koʻrinishlaridan yana biri oksimorondir. Kishi yoki buyumning tabiati va mohiyatiga xos boʻlmagan zid belgini unga nisbatan qoʻllash orqali antonimik munosabat hosil qilish **oksimoron** deyiladi. Bu stilistik uslubda toʻgʻri maʼnolari bilan mantiqiy jihatdan muvofiq kelmaydigan soʻzlar bir-biri bilan uchrashadi, natijada, komponentlari mohiyat eʼtibori bilan bir-biriga tamomila qarama-qarshi boʻlgan koʻchma maʼnodagi birikma hosil boʻladi. Bu birikmaning material jihatdan koʻrinishi asosan sifatQot tipida boʻladi. Masalan, shirin dard, achchiq shodlik, aqlli tentak, soqolli koʻsa, ziyrak devona.

Muhokama uchun savollar:

- 1.1. Soʻz qoʻllash sanʼati haqida oʻz fikringizni manbalar asosida izohlashga harakat qiling.
- 1.2. Omonimlar, omoformalar, omofonlar, omograflar, paronimlar haqida tushuncha bering, farqini misollar yordamida isbotlang.
- 1.3. «Maʼnodoshlik-uslubiyat asoslari» gapini izohlang.
- 1.4. Ziddiyatlarni qoʻllay olmaslik natijasida qanday xatolar kelib chiqadi? Misollar asosida isbotlang.

1.5. Lug'aviy-ma'noviy silsila, (leksik-semantik paradigma) va lug'aviy muqobillik (oppozitsiya)ning turlari va mohiyati.

1.6. So'z ma'nosi va uning tasviriy-ta'sirchanlik xususiyati.

1.7. Ko'p ma'noli so'zlar tasviriy-ta'sirchan va a'moliy-uslubiy vosita sifatida.

1.8. Sinonimlarning uslubiy vazifalari va ularni qo'llash usullari.

1.9. Matniy sinonimlar. Gazeta tilidagi matniy sinonimlar.

1.10. Antonimlar va ularning uslubiy qo'llanishi.

1.11. Omonimlar va ularning uslubiy qo'llanishi.

1.12. Paronimlar va ulardan uslubiy maqsadlarda foydalanish.

1.13. Ko'chimlar va ularning uslubiy tavsifi.

1.14. So'z ichki «qiyofasi»ni jonlantirish usuli.

Frazeologiyaning vzu uslubiy imkoniyatlari.

Frazeologik iboralar va ularning turli nutq uslublarida ishlatilishi. Frazeologiyada tildagi turg'un–barqaror birikmalar o'rganiladi.

Odatda, so'zlarning birikuv tufayli so'z birikmasi hosil bo'ladi. Bu so'z birikmalarining ba'zilari erkin bo'lsa, ba'zilari turg'un (barqaror) bo'ladi. **Oyoq uchida** birikmasi kontekstdan anglashilgan ish-harakatning imi-jimida, yashirincha, maxfiy bajarilganligini bildiradi. Birikma tarkibidagi har bir so'z o'z mustaqil ma'nosini saqlamagan, shunga ko'ra bu tarkibdagi so'zlari (komponentlari) barqaror bo'linmas bir semantik birlikni hosil qilgan turg'un birikmadir.

Quyidagi gaplardagi **og'zi qulog'ida, qo'l keladi, nonini tuya qilmoq** iboralari ham turg'un birikma sanaladi: istar-istamas idoraga kirgan Bo'riboy bu erdan og'zi qulog'ida bo'lib chiqdi. U dinni qurol qilib sodda dil musulmonlarning nonini tuya qilib yurar ekan. Ibora tarkibidagi har bir so'zning ma'nosi tushunarli bo'lsa-da, ammo bu so'zlarning semantik bog'lanishi cheklangan, ularni boshqa biror so'z bilan almashtirish mumkin emas.

Ko'p ma'nolilik hodisasi turg'un birikmalarga, ya'ni frazeologik iboralarga ham xos. Masalan, «O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati»da **bosh ko'tarmoq** iborasining 6 xil ma'no qirralari ko'rsatiladi.

Quyidagi iboralar ham bir necha ma'noga ega: **yo'lga solmoq**:

1)ketish tomoniga to'g'rilab jo'natmoq, yurgizmoq;

2)to'g'ri yo'lga qaytarmoq;

3)manfaatdor bo'lgani holda rag'batlantirmoq;

4)faoliyatini yaxshilamoq;

bel bog'lamoq: 1)shaylanmoq, otlanmoq;

2)astoydil kirishmoq;

3)ahd qilmoq;

tilga kirmoq: 1)nutqqa ega bo'lmoq;

2) ma'lum fursat o'tgandan so'ng gapira boshlamoq;

3) o'q uza boshlamoq.

Frazeologik iboralarining ko'p ma'noliligi ularning sinonimik holati bilan bog'liq. Chunki u yoki bu iboraning yangi ma'nosi turg'un iboralar doirasida yangidan-yangi semantik bog'lanishlarni aniqlashga, frazeologik ma'nolar miqdorini kengaytirishga olib keladi.

Frazeologik iboralarining sinonimiya hodisasiga boyligi ulardan foydalanishda katta uslubiy imkoniyatlar yaratadi. Bu imkoniyatlarni, qisqacha, quyidagicha izohlash mumkin:

Frazeologik ibora alohida so'z bilan sinonimik munosabat hosil etadi. Masalan, **tepa sochi tikka bo'ldi** iborasi achchiqlanmoq, g'azablanmoq so'zlari bilan, **ko'zi tor** iborasi qizg'anchiq so'zi bilan, **nonini tuya qilmoq** iborasi aldamoq so'zi bilan sinonimik holatda bo'ladi.

Bir sinonimik uyani tashkil qiluvchi iboralar o'zaro obrazlilik darajasi jihatdan farqlanadi. Masalan, **boshiga etmoq-boshini emoq** frazeologizmlari ayni bir ma'noni anglatrsa-da, ammo obrazlilik darajasiga ko'ra farq qiladi. Ikkinchi iborada «yo'q qilmoq», «halok qilmoq» ma'nosi kuchli va qat'iyroq. **Boshi qotdi, boshi shishdi, miyasi g'ovlab ketdi** iboralarining so'nggisi ma'no darajasining kuchliligi, obrazlilik va ifodaliligi jihatidan ajralib turadi. Xuddi shuningdek, **mum tishlamoq, og'ziga talqon solmoq, og'ziga qatiq ivitmoq** sinonimik uyada ikkinchi va

uchinchi iboralar birinchisiga nisbatan obrazliroqdir. Olib borilgan maxsus «kuzatishlar frazeologik sinonimlarning ko'pincha obrazlilik darajasida farq qilinishini ko'rsatadi»¹

Frazeologik sinonimlar ham nutq ko'rinishlariga xoslangan bo'ladi. Bir sinonimik uyadagi iboralarning ba'zisi umumnutqqa xos bo'lsa, ba'zisi boshqa biron nutq ko'rinishiga xoslangan bo'ladi. Masalan: **erga tegmoq, turmushga chiqmoq, erga chiqmoq** iboralarning birinchisi rasmiy nutqqa, uchinchi esa so'zlashuv nutqiga xoslangandir. Xuddi shuningdek, **oila qurmoq, turmush qurmoq, bir yostiqa bosh qo'ymoq** iboralarning birinchisi va ikkinchisi rasmiy nutqqa, uchinchi so'zlashuv nutqiga mansub. Quyidagi iboralarning birinchisi badiiy nutqqa, ikkinchisi umumnutqqa oiddir: **bir yoqadan bosh chiqarmoq, bir jon bir tan bo'lmoq**.

Badiiy adabiyot va publitsistikada iboralarni ishlatish, qo'llash yo'llari juda xilma-xil. Yozuvchi va publitsistlar umumtildagi mavjud tayyor iboralardan unumli foydalanibgina qolmay, o'zlari ham shular zamirida yangi iboralar yaratadilar. Bunda ular umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboralarning leksik tarkibini o'zgartish uning semantik-uslubiy funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullardan foylanadilar.

Yozuvchi Abdulla Qahhor «Qo'shchinor chiroqlari» romanida rus tilidan o'zlashgan **o'z gazi bilan o'lchamoq** iborasi asosida yangi ibora yaratadi. Bunga u «..ibora zamiridagi obrazni O'rmonjonning fikriga muvofiqlashtirish uchun uning talqiniga «o'lchagani gazi yaramay qolmoq, eskilik qilmoq» tarzida yangicha yo'nalish, yangicha tus beradi. Natijada tushunishga o'zlik qilmoq degan ma'noni ifodalaydigan individual frazeologik neologizm vujudga keladi: **o'lchagani gazi eskilik qilmoq**. Bu yangi ibora O'rmonjonning fikrini obrazli qilib, yorqin ifodalash imkonini beradi».

Quyidagi matnda esa **loy bo'lmoq** birikmasi ham erkin birikma, ham turg'un birikma sifatida ishlatiladi:

-Ie, Ra'noxon, etagingizga loy tegibdimi?-so'radim.

-Yo'g'e, qani?—deb etagini ushlagan edi, chippa loyga tegdi.

-Voy, loy qaerdan tekkan ekan-a?-dedi uyalib u lekin bu loyni yuvsa ketadi-ku, o'zingiz **loy bo'lib qolmasangiz** deyman

-Nega endi **men loy bo'lar ekanman?**—dedim jahlim chiqib,-shunday chiroyli qizlardan ham kesatiq chiqar ekan-a... Tavba...

-Chiroyli qizlar ketidan soyadek ergashaverishingizni kelinoyim ko'rsa-chi, naq **bir zambil loy** bo'lar edingiz, dedi. Terlab ketganimdan Ra'noxonning qaysi ko'chaga burilganini ham bilmay qolibman».

Umumtil frazeologik iboralaridan Oybek, Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom va boshqa ko'pgina iste'dodli yozuvchilar o'z asarlarida mohirlik va ijodkorlik bilan foydalanganlar. Masalan, A. Qahhor «O'tmishdan ertaklar» qissasida To'raqul vofurushning juda ayyorligini, mug'ambir va quvligini ko'rsatish uchun **ilonni yog'ini yalagan** xalq iborasiga muqobil tarzda yangi ibora ijod qiladi:-Pulni oldingiz, usta, bo pand emang. Bu odam sof ajdaho. **O'likning yog'ini, tirikning tirnog'ini eydi bu!**

Muhokama uchun savollar:

1.1. Frazeologizmlar va ularning semantik-stilistik tabiati.

1.2. Frazeologik va leksik-frazeologik sinonimlar.

1.3. Emotsional-ekspressiv bo'yoqli frazeologizmlar va bularning qo'llanishi.

1.4. Frazeologizmlarni qo'llash usullari.

1.5. Noadabiy frazeologizmning uslubiy qo'llanishi.

Maqol, matal va hikmatli so'zlarning uslubiy vazifasi.

So'z ko'rki bo'lgan maqol va matallardan foydalanish har bir qalam ahlining so'z boyligini orttiradi, uning nutqini o'tkir va ta'sirli qiladi, unga badiiy jihatdan sayqal beradi.

Rus yozuvchisi M.Gorkiy maqol va matallarning badiiy kuchi va qimmatini baholar ekan, «ularda butun-butun kitoblarning mazmuniga teng his-tuyg'ular ifodalangan» degan edi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari orasida nutq madaniyatini puxta egallashga, tilning qadr-qimmatini chuqur anglashga da'vat etuvchi maqol va matallar keng o'rin olgan. Bu turdagi

¹ Каранг: Ш.Абдурахмонов. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари Т., 1966.116-бет

maqollarda so'zning serma'no va o'tkir, fikrning qisqa va ixcham bo'lishi kabi muhim fazilatlarini talqin qilinadi. Quyida bulardan namunalar keltiramiz: **Tilga e'tibor-elga e'tibor. Tilga hurmat-elga hurmat. Xalq so'zi-dengiz to'lqini. Til qilichdan o'tkir. Oldin o'yla-keyin so'yla. Yaxshi naql -tomiri aql. Yaxshi so'z-jon ozig'i, yomon so'z-bosh qozig'i.**

Ko'pgina maqollarda ortiqcha safsatabozlik, tilyog'lamalilik qattiq qoralanadi, ixcham, qisqa va ma'noli gapirish, rostgo'y va shirin so'z bo'lish ulug'lanadi: **Gapning qisqasi yaxshi, qisqasidan hissasi yaxshi. Ko'p bilgan oz so'zlar, oz so'zlasa ham soz so'zlar. Ko'p so'zning ozi yaxshi, oz so'zning o'zi yaxshi. Oz so'zla, ko'p tingla.**

Badiiy adabiyotda maqol va matallar yozuvchi anglatmoqchi bo'lgan ma'noni obrazli qilib ifodalash uchun xizmat qiladi. Yozuvchilar personajning ichki dunyosini ochish va uning nutqiy xarakteristikasini berishda badiiy vosita sifatida maqol, matal, hikmatli so'zlardan o'rinli va ijodiy foydalanadilar. Buning uchun Oybekning «Qutlug' qon», «Oltin vodiyan shabadalar» romanlari, Abdulla Qahhorning prozaik va sahna asarlarida ishlatilgan maqollarni kuzating. Ular so'z ko'rki-maqol, matallardan barakali foydalanibgina qolmay, o'zlari ham yangidan-yangi hikmatli so'zlar ijod etganlar. Masalan, **O'qsiz soldat-qilichsiz qin. Er hosilning onasi bo'lsa, otasi-mehnat.**

Quyidagi matnlarda esa A.Qahhor ijod etgan hikmatli iboralarni o'qiyimiz:

Dadam dam-badam ichidan xuruj qilib kelayotgan yig'ini yutib, ayamga tasalli berdi, taqdiri azal, odamning umri bir tomchi kabobning seli. («O'tmishdan ertaklar».) Kanna sigirning qulog'iga tushadi, tuyog'iga emas. Xazinaga kirgan mushuk zarga qaramaydi, sichqon ovlaydi.

Hamza Hakimzodaning «Boy ila xizmatchi» dramasi-dagi ijodiy obrazlar - G'ofur va Jamila nutqidagi ba'zi iboralar o'z ma'nolari jihatidan aforizm darajasida turadi: **Hayo benomusda bo'lmaydi, hayosizda nomus bo'lmaydi. Tiz cho'kib yashaguncha, tik turib o'lmoq yaxshiroq. Pul, mol yo'lida halok bo'lgandan ko'ra, ishq-muhabbat yo'lida halok bo'lish kishiga baxt. Haqiqat bukiladi, lekin sinmas** va boshqalar.

Publitsistik asarlarda maqol va matnlar badiiylikni kuchaytirishdan tashqari, fikrni alohida ta'kidlash uchun xizmat qiladi va uning siyosiy o'tkirligini oshiradi. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotda uchragan maqol, matal va hikmatli so'zlar, «qochiriq so'zlar g'oyat murakkab hodisalarning mohiyatini yaxshi ifodalab beradi».

G'oyaviy mazmuni ma'naviy-axloqiy xulosasiga ko'ra xilma-xil, rang-barang bo'lgan maqollar uslubiy funktsiyasi jihatidan ham o'ziga xos xususiyatga ega. Maqollarda keng va teran g'oyani qisqa, ixcham shaklda ifodalash kishilarni nutqqa e'tibor berish va talabchan bo'lishga o'rgatadi, to'g'ri va mantiqiy fikrlashga yordam beradi.

Maqollardan foydalanishda ularning tushunarli bo'lishi, o'z o'rnida to'g'ri ishlatilishiga, nutqni aniq va ta'sirchan qilishiga alohida e'tibor berish kerak.

Maqollarni noto'g'ri, buzib ishlatish ham ularning ma'nosiga putur etkazadi. Quyidagi misollarni kuzating: Bu taklifning yaxshi ekanligiga shubha yo'q, lekin bu taklif oy eshikka arava tuynukka kelganda kiritiladi. Bunda xalq tilidagi **Oy tuynukka, arava eshikka kelganda** maqolining leksik tartiblanishi buzib berilgan. Quyidagi matnda esa xalq tilidagi **echkiga jon qayg'u, qassobga yog' qayg'u** maqolining butunlay buzib ishlatilishi maqoldan anglashiladigan ma'juziy ma'noni ham, mantiqiy xulosani ham yo'qqa chiqargan: «Sichqonga don qayg'u, qassobga jon» deganlaridek, hamma nima dardda-yu, u nima hasratda.

Muhokama uchun savollar:

- 2.1. Maqol va matallarni tilimiz boyligi sifatida adabiy asarlardan namunalar keltiring.
- 2.2. Maqollar xalq tilidan tiliga o'tib, sayqallangan so'zlar qaymog'i ekanligini isbotlang.
- 2.3. So'zlashuv uslubida ishlatiladigan maqollarga misollar keltiring.
- 2.4. Publitsistik uslubdagi maqollarga misollar keltiring.
- 2.5. Badiiy nutqda ishlatiladigan maqollarga misollar keltiring.
- 2.6. Maqollarning ahamiyatini ilmiy asoslang.
- 2.7. Xalq og'zaki ijodi namunalarini sifatida maqollarning vazifasini aniqlang.

Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. O'zbek tilining boy frazeologik vositalarga ega ekanligini ilmiy asoslash.
2. Iboralarning turlari va mazmuniy guruhlarini ilmiy izohlash.
3. Iboralar orasida ma'nodoshlik hodisasini sharhlash.
4. Maqol va matallarning turli uslublarda ishlatilishini ilmiy asoslash.

5. Badiiy asarlarda va xalq og'zaki ijodida maqol va iboralarning ishlatilishini ilmiy dalillash.:

G) Modul bo'yicha yakuniy mashg'ulot.

1. O'zbek tilining boy frazeologik vositalarga egaligi. Frazeologizmlarning yuzaga kelishi, grammatik qurilishi va semantik tabiati. Ularning tayyor, barqaror tasviriy-ta'sirchan ifodalar-konnotativ nutqiy vositalar ekanligi. Ularning tasviriylik, milliylik, tavsif berish va shaxsiy baho ifodalash tabiati, uslubiy ahamiyati.

2. Frazeologizmlarning turlari va mazmuniy guruhlari. Ma'no tarkibiga ko'ra turlari: ko'p ma'noli, omonim va antonim iboralar. Ibora sinonimlar. So'z va ibora ma'nodoshligi. Bularning uslubiy ahamiyati.

3. Umumuslubiy (uslubiy jihatdan betaraf) iboralarning uslubiy imkoniyati. Emotsional-ekspressiv bo'yoqli frazeologizmlarning ijobiy va salbiy baho munosabatlarini anglatishdagi o'rni va uslubiy vazifasi. Ilmiy va rasmiy uslublar frazeologiyasi. So'zlashuv nutqiga xos frazeologizmlar.

4. Frazeologizmlarni badiiy va publitsistik uslublarda qo'llash usullari va uslubiy vazifalari. Og'zaki va yozma nutqqa xoslangan iboralar. Frazeologizmlarning turli variantlarda uchrashi. Arxaik frazeologizmlar, dialektal frazeologizmlar. O'zlashgan frazeologizmlar. Frazeologizmlarning ma'nosi, tarkibi va shaklini o'zgartirib qo'llash. Frazeologik neologizmlar va okkazonalizmlar.

5. Maqol va matallar. Bularning turli uslublarda ishlatilishi. Hikmatli so'z va ifodalar. Ularning so'zlashuv, publitsistik va badiiy nutqda qo'llanishi va vazifasi.

Nazorat savollari:

1. Frazeologizmlar va ularning semantik-uslubiy tabiati haqida gapiring.
2. Frazeologik va leksik-frazeologik sinonimlarni ajratib bering.
3. Emotsional-ekspressiv bo'yoqli frazeologizmlar va bularning qo'llanishini tushuntiring.
4. Frazeologizmlarni qo'llash usullarini izohlang.
5. Noadabiy frazeologizmning uslubiy qo'llanishi haqida nimalar deya olasiz?
6. Maqol va matallarni tilimiz boyligi sifatida adabiy asarlardan namunalar keltiring.
7. Maqollar xalq tilidan tiliga o'tib, sayqallangan so'zlar qaymog'i ekanligini isbotlang.
8. So'zlashuv uslubida ishlatiladigan maqollarga misollar keltiring.
9. Publitsistik uslubdagi maqollarga misollar keltiring.
10. Badiiy nutqda ishlatiladigan maqollarga misollar keltiring.
11. Maqollarning ahamiyatini ilmiy asoslang.
12. Xalq og'zaki ijodi namunalari sifatida maqollarning vazifasini aniqlang.

9-mavzu bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Adabiy asarning badiiy qiymatini, ifodaliligin, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi ko'chim deyiladi.

Ongimizda qandaydir xususiyatlari bilan, belgilari bilan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki prebmet yoki hodisani chog'ishtirish, o'xshatish ko'chimga asos qilib olinadi. Ya'ni biror predmet yoki voqea hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa biror predmet yoki voqeaning belgisi ko'chiriladi, o'xshatiladi.

Uslubiyatga oid adabiyotlarda badiiy tasvir vositalari turli usullari kiritiladi. Bular dastlab poeziya doirasida qarala boshlanadi. Keyingi yillarda nashr qilingan adabiyotlarda esa sintaktik shakllar boshqa uslublar doirasida ham o'rganilayapti.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo'ng'urov, X. Rustamov. O'zbek tili stilistikasi. T.: O'qituvchi, 1983.
2. R. Qo'ng'urov, S. Karimov, T. Qurbonov. O'zbek tili funktsional stillari. S. SamDU nashri, 1984.
3. Yo. Tojiev, N. Hasanova, H. Tojimatov, O. Yo'ldosheva. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari (ommabop qo'llanma). T., 1994.
4. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent. Fan. 1977.

5. Abdullaev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. Toshkent. Fan. 1983 .
6. Qo'ng'urov R. Begmatov E. Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. Toshkent. O'qituvchi 1992.
7. Toshaliyev I. O'zbek tili uslubiyati. O'quv qo'llanma. Toshkent. Milliy universitet. 1996.
1. M. Hamroyev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R. Ikromova, D. Muhamedova, M. Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
2. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2002, -290 bet.
3. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2011, 260 bet.

ONA TILI VA ADABIYOT (SINTAKSIS)

AMALIY MASHG'ULOTLARINING MAZMUNI

Mavzu: Sintaktik aloqa va munosabatlar. Predikativ va nopredikativ munosabatlar

1. Sintaktik munosabatlar va sintaktik aloqa
2. Sintaktik munosabatning turlari
3. Nopredikativ munosabat: atributiv, relyativ, obyektli

O'quv mashg'uloti maqsadi: Sintaktik munosabatlar haqida umumiy ma'lumot, uni sintaktik aloqadan farqlash, uning turlari: atributiv, relyativ, obyektli munosabatlarni bir-biridan farqlash, gapdagi sintaktik munosabat turlarini tahlil qilish

O'quv faoliyati natijalari:

Sintaktik munosabat va sintaktik aloqaning o'zaro farqi, ularning xususiyatlari, nopredikativ munosabat: atributiv, relyativ, obyektli munosabat haqida tashkil etilgan nazariy munozara orqali o'rgangan bilimlarini namoyon etadi, misollar asosida mashqlar, testlar ishlaydilar .

Aqliy hujum uchun savollar:

♣ *1- topshiriq. Savollarga javob bering.*

1. Sintaksis bo'limining tilshunoslikning boshqa bo'limlari bilan aloqasi haqida gapiring.
2. Asosiy sintaktik birliklar haqida ma'lumot bering.
3. Sintaktik birliklarning til va nutqda farqlanishini izohlang.
4. Sintaktik aloqa vositalariga nimalar kiradi?
5. Sintaktik munosabat va sintaktik aloqa deganda nimani tushunasiz?
6. Predikativ munosabat nima?
7. Nopredikativ munosabatni izohlang.
8. Atributiv munosabat qanday hosil bo'ladi?
9. Obyektli munosabatni misollar bilan izohlang.
10. Relyativ munosabat nima?

✎ *2- topshiriq. Berilgan matndan predikativ munosabatli birliklarni ajrating.*

Ertasi kuni peshinda Andijon arkining qarshisidagi jazo maydonida nog'oralalar chalindi. To'plangan xaloyiqning ko'zi oldida Darveshgov yomon ovoza tarqatishda ayblanib, boshi kesildi.

Yoqubbek Ahmad Tanbalni yapasqi navkari bilan birga o'sha kuni kechasi Axsiga yashiriqcha jo'natib yuborgan edi. Ikki oradagi sir sirligicha qoldi.

Dushman Marg'ilonni olib, Andijonga tahdid solmoqda edi. Xo'ja Abdulla boshliq elchilar ...sulh tuzishni taklif qildilar.

Sulton Ahmad beklarning ra'yini qaytarolmaydigan zaif tojdorlardan edi. Xo'ja Abdulla boshliq elchilar undan rad javobi olib qaytdilar.

Endi avvalgidan battar qirg'in bo'lishini sezgan bek va navkarlar Andijon qo'rg'oniga bekina boshladilar. (P.Qodirov).

4-ilova

3- topshiriq. *Mashqni sxematik tahlil qiling. Sintaktik munosabatlarni aniqlang. Sintaktik aloqa vositalarini ko'rsating.*

1. Paxtakorlarimiz bu yil ham o'z majburiyatlarini muvaffaqiyatli ado etdilar. 2. Yam-yashil adirlardagi giyohlardan taralgan xushbo'y hidlar dimoqqa uriladi. (S.A.) 3. Alisher bog'dagi yolg'izoyoq yo'ldan ovoz kelayotgan tarafga qarab yurdi. (L.B.) 4. G'ulomjon qishloqda bo'lgan voqealarni ularga oqizmay-tomizmay so'zlab berdi. (M.I.) 5. Kumush onasining yuragidagi o'tni hozir sinamasdan ham his etdi. (A.Q.) 6. Jasorat iste'dod singari maqsad sari boradigan yo'lni osonlashtiradi. (L.Leonov) 7. Gulnor ikki haftadan buyon dadasi va onasi bilan birga bog'da ishlaydi. (O.) 8. Ariq yoqalaridan yashil ko'zli boychechak jimgina mo'ralaydi. (O.) 9. Mayin va yoqimli kuy ko'zga ko'rinmas afsonaviy qush singari keng zalda parvoz qiladi. (S.A.) 10. Turmushimizda hamma narsa bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

5-ilova

4- topshiriq. *Mavzuga oid testlarning javobini toping.*

1. Qaysi qatordagi gapda atributiv birikma mavjud?
 - A. Kiborlarga xos bir xonadonga kelib qolganimni tez payqadim.
 - B. Sihat tilasang ko'p ema.
 - C. Men kechqurunlari buvimga gazeta o'qib beraman.
 - D. Majlisda direktorimiz intizom haqida kuyinib gapirdi.

2. Qaysi qatordagi gapda atributiv va relyativ munosabatlar mavjud?
 - A. O'ktam qizg'in va baland ruh bilan terimga kirishdi.
 - B. Yo'lchi kechgacha dam u ekinda, dam bu ekinda ishlaydi.
 - C. Tik ko'tarilgan quyosh o'zining hayotbaxsh nurlarini sochmoqda.
 - D. Ergash bolalar haqida bir qancha savollar berdi.

3. Qaysi qatorda sintaktik munosabatni ifodalash yo'llari to'liq ko'rsatilgan?
 - A. Turlovchilar, tuslovchilar, yordamchi so'zlar
 - B. So'z formalari, yordamchi so'zlar, tartib va ohang
 - C. Kelishik qo'shimchalari, yordamchi so'zlar, tartib va ohang
 - D. Tartib, ohang, yordamchi so'zlar, bog'lama

4. Qaysi gapda teng bog'lanish ishtirok etgan?
 - A. Men bilan opam suhbatlashdi.
 - B. Siz bilan men boraman
 - C. Ba'zan qor, ba'zan yomg'ir yog'adi.
 - D. Ko'zing osmonga tushganda, Lovillab oftob kuygay.

5. Maktab direktori kotiba olib kirgan hujjatlarga qo'l qo'ydi. Rahimjon ma'yus holda so'ri suyanchig'iga qo'l qo'ydi. Ushbu gaplardagi «qo'l qo'yimoq» birligi haqidagi qaysi hukm to'g'ri?
 - A. Har ikkala gapda qo'shma so'z
 - B. Birinchi gapda qo'shma so'z, ikkinchi gapda so'z birikmasi.
 - C. Har ikkala gapda so'z birikmasi
 - D. Birinchi gapda qo'shma so'z, ikkinchi gapda ibora

6. Quyidagi birliklardan qaysilari ham erkin, ham turg'un birikma (ibora) sanaladi?
 - A. Boshini ko'tarmoq, ko'ngliga keltirmoq, to'nini teskari kiymoq

- B. Ko‘zini yog‘ bosgan, ko‘nglidan o‘tkazmoq, qo‘lini siltamoq, tosh otmoq
- C. Boshiga yetmoq, yaxshi ko‘rmoq, qulog‘iga qo‘ymoq, o‘z yog‘iga qovurilmoq
- D. Bo‘yniga qo‘ymoq, kapalagi uchmoq, jonidan o‘tmoq, ko‘zini tikmoq

7. Qaysi qatorda berilgan so‘z birikmalarini gapga aylantirish mumkin?

- A. Qattiq sovuq, shirin qovun, chiroyli gul
- B. Qiziqarli mashg‘ulot, oydin kecha, maqola o‘qimoq
- C. Berilgan topshiriq, o‘qishli asar, g‘azal yodlamoq
- D. Samarali ishlamoq, ko‘chat o‘tqazish, barqaror tinchlik

8. Sifatlovchi o‘z sifatlanmishiga qanday yo‘l bilan birikadi?

- A. Moslashuv yo‘li bilan
- B. Bitishuv yo‘li bilan
- C. Boshqaruv yo‘li bilan
- D. Moslashuv yoki bitishuv yo‘li bilan

9. Sintagmatik munosabat nima?

- A. Muayyan sintaktik birlikning boshqa sintaktik birlik bilan ketma-ket munosabati
- C. Sintaktik birliklarning shakliy munosabati
- C. Sintaktik birliklarning mazmuniy munosabati
- D. Sintaktik birliklarning makon va zamonga bog‘liq bo‘lmagan o‘zaro assotsiativ munosabati

10. Paradigmatik munosabat nima?

- A. Sintaktik birliklarning makon va zamonga bog‘liq bo‘lmagan o‘zaro assotsiativ munosabati
- B. Muayyan sintaktik birlikning boshqa sintaktik birlik bilan ketma-ket munosabati
- C. Sintaktik birliklarning shakliy munosabati
- D. Sintaktik birliklarning mazmuniy munosabati

11. Shakliy sintagmatik munosabat to‘g‘ri berilgan qatorni toping

- A. Tenglanish va tobelanish
- B. Moslashuv, boshqaruv, bitishuv
- C. Predikativ va nopredikativ
- D. Atributiv, relyativ, obyektli

12. Mazmuniy sintagmatik munosabat to‘g‘ri berilgan qatorni toping

- A. Atributiv, relyativ, obyektli
- B. Tenglanish va tobelanish
- C. Moslashuv, boshqaruv, bitishuv
- D. Predikativ va nopredikativ

13. Nopredikativ munosabat turlari to‘g‘ri berilgan qatorni toping

- A. Atributiv, relyativ, obyektli
- B. Moslashuv, boshqaruv, bitishuv
- C. Predikativ va nopredikativ
- D. Barchasi to‘g‘ri

14. Predikativlik shakllari to‘g‘ri berilgan qatorni toping

- A. Barchasi to‘g‘ri
- B. Mayl, zamon, shaxs-son
- C. Nol shakl
- D. Tasdiq-inkor

15. Predikativlik nol shakl bo‘lgan qatorni toping.

- A. Bugun havo issiq.
- B. Terlar tuproq uzra quyilar duv-duv.
- C. Yo‘lchi Unsinni eshik oldida to‘xtatdi.
- D. Yerda oltin yaproqlar kabi yotar oy nuri.

16. Sport bilan shug‘ullanish sog‘lom bo‘lishning garovidir. Ushbu gapdagi sintaktik munosabat turlarini aniqlang.

- A. Predikativ, atributiv, obyektli.
- B. Predikativ, relyativ, obyektli
- C. Predikativ, atributiv, relyativ
- D. Nopredikativ, atributiv, relyativ.

6-ilova

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rnatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting
 S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
 M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring
 U – fikringizni umumlashtiring

Savol	Atributiv munosabat va unga misollar?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

2-guruh

Savol	Relyativ munosabat va unga misollar
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

7-ilova

Uyga vazifa. Badiiy asardan 4ta gapni sxematik tahlil qiling. Sintaktik munosabatlarni ko'rsating.

2 – amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Tobe aloqa turlari. Moslashuv, boshqaruv, bitishuv

1. Sintaktik aloqa va uning turlari
2. Tenglanish: ochiq va yopiq tenglanish.
3. Tobelanish va uning turlari: Moslashuv, boshqaruv, bitishuv

O'quv mashg'uloti maqsadi: Sintaktik aloqa haqida umumiy ma'lumot, sintaktik munosabatdan farqlash, uning turlari: tenglanish va tobelanish, tobe aloqa turlari: moslashuv, boshqaruv, bitishuvni bir-biridan farqlash, gapdagi tobe aloqa turlarini tahlil qilish

O'quv faoliyati natijalari:

Sintaktik aloqa va uning turlari haqida ma'lumot savollar asosida takrorlaydi.

Tenglanish: ochiq va yopiq tenglanishga doir mashqlar ishlaydi.

Tobelanish va uning turlari: moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqalari bo'yicha tahlil qiladi.

👉 1- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Tenglanish va uning xususiyatlari, turlarini izohlang.
2. Ochiq tenglanish nima?
3. Yopiq tenglanish nima?
4. Tobe aloqa qanday birliklarni hosil qiladi?
5. Moslashuv aloqasi qanday sintaktik munosabatlar hosil qiladi?
6. Boshqaruv nima?
7. Bitishuv nima?
8. Tobelanishda hokim va tobe qismlar qanday farqlanadi?

👉 2-topshiriq. Mashqda berilgan gaplardagi teng va tobe aloqalarni va ularning turlarini aniqlang.

1. Til do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirishning eng qulay vositasidir. (E.Rot.) 2. Tonggi salqin o'rnini asta iliq shabada tafti egallay boshladi. (J.Abd) 3. Jimjit kechada ark darvozasining g'iyqillab ochilgani uzoqlarga eshitildi. (P.Q) 4. Mavlono Fazliddin bahor kirganini, qal'a ichidagi bog'chalarda bodom va o'rik gullaganini esladi. (P.Q) 5. Samarqanddan chiqayotganda vujudini zilday bosib yotgan g'am-g'ussalar endi asta-sekin tarqab ketayotganday tuyuldi. (P.Q). 6. Navoiy turli shoirlarning turli-tuman asarlaridan o'n minglarcha baytni yod bilar edi. (O.) 7. Kipriklarim ikki saf bo'lib Bir-biridan yashaydi yiroq. (E.V). 8. Dalaga yoyilgan otlarning kishnashlari, yigitlarning qo'shiqlari quloqlarda endi boshqacha yangraydi. (O.) 9. Dala bag'rini baxmal ko'rpa kabi qoplab olgan bo'z o'tlar kundan-kun bo'y cho'zadi, gullaydi. 10. Ahmad Tanbal Andijon etagida bo'lgan jangda shikast egandan keyin qo'rg'onga kirib bekendi. (P.Q).

👉 3-topshiriq. Berilgan gaplardagi sintaktik birliklarni ajrating va sintaktik aloqa vositalarini ko'rsating.

1. Kitobxon bilan har qanday uchrashuv yozuvchining mas'uliyat hissini oshiradi. (As. M). 2. Jonajon tabiat go'zalligini ko'ra bilish, unga hurmat va muhabbat hissi bolalikdan tarbiyalanishi kerak. (As M.) 3. Tuproq ko'chalardan chopgan bolalik Yillar changi ichra asta yo'qoldi. (E.B.) 4. Muzaffarning lo'ppi yuzidagi achinish alomati xushnud tabassum bilan almashdi. (O.Yo). 5. Ko'klamda Nafisadan durustgina dashnom eshitgandan buyon u hayot haqida boshqacharoq, chuqurroq o'ylaydigan bo'lib qoldi. (H.G'). 6. Uning g'amdan ado bo'lgan yuragiga quloq solgan kishi shunday nido eshitardi. (S.A). 7. Yo'l-yo'lakay u Nizomjon haqida, alam o'tida qolgan Dildor haqida o'ylab borardi. (C.A.)

👉 4- topshiriq. Mavzuga oid testlarning javobini toping.

1. Qaysi qatorda so'z birikmasi berilgan ?
 - A. Qilichdan o'tkir, juda muhim
 - B. Vatan farzandlari, bodom qovoq
 - C. Hammaga manzur, bilim yurti
 - D. Toshdan qattiq, vatan farzandlari
2. Qaysi gapda boshqaruv munosabatli birikma ishtirok etgan ?
 - A. Parovoz gudok berdi.
 - B. Osoyishta qish kunlari boshlandi.
 - C. Paykallar qor ostida dam olyapti.
 - D. Hamma sekin jilmayib qo'ydi.
3. SifatQot shaklidagi birikuvlarda quyidagi vositalardan qaysi biridan deyarli foydalanilmaydi?
 - 1)kelishik qo'shimchalaridan;
 - 2) ko'makchilardan;
 - 3) ohangdan;
 - 4)so'z tartibidan.
 - A. 1,2
 - B. 2,3

- C. 3,4
D. 1,3
4. Qaysi birikmalarda tobe soʻz sifat bilan ifodalangan?
A. Ishonchli doʻst, oq kabutar, qizargan olma
B. Doʻstona munosabat, gʻoyat qiziqarli, oʻzbekcha nutq
C. Hovlining oʻrtasi, qushning qanoti, doʻstning maktubi
D. Qiziqarli suhbat, beqiyos oʻlka, katta qishloq
5. Husan esa tabiatan tirishqoq va dadil ekan. U qunt bilan ishlabdi, hayotni diqqat bilan oʻrganibdi, oqilona harakat qilibdi. Ushbu matndagi aniqlovchili birikmalarni hosil qiluvchi tobe soʻzlar qaysi qatorda toʻgʻri berilgan?
A. tirishqoq, dadil
B. qunt bilan, diqqat bilan, oqilona
C. qunt bilan, diqqat bilan
D. toʻgʻri javob berilmagan
6. Koʻmakchili boshqaruv qatnashgan gapni toping.
A. Bu tepalikka chiqish orqada qolgan yoʻlning azobidan ham ortiqroq boʻldi.
B. Qizim, bunaqa yigitdan sovchi bir marta keladi.
C. Ota yuz-qoʻllarini yuvgandan soʻng sal nariga borib oʻtirdi.
D. Oʻquvchi bolalarga, yigit va qizlarga atab yozilgan qoʻshiqlar koʻp.
7. Qaysi qatordagi boshqaruv aloqasida grammatik vosita shaklan ifodalanmagan?
A. togʻ balandligi
B. kutubxonaga bormoq
C. bugʻdoy oʻrmoq
D. togʻ balandligi, bugʻdoy oʻrmoq
8. Qaysi birikmalarda bosh soʻz ravish bilan ifodalangan?
A. Asalday shirin, buyumlarning barchasi
B. Tez borgan, suvda suzib
C. Qorday oppoq, yugirishda birinchi
D. Hammadan koʻp, tovushdan tez
9. Yosh hunarmand oʻz kasbiga, uyiga, bola-chaqasiga, doʻkoniga ega boʻlibdi, oilasi, farzandlari bilan tinch yashay boshlabdi. Ushbu gapda nechta boshqaruvli birikma bor?
A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5 ta
10. Yosh hunarmand oʻz kasbiga, uyiga, bola-chaqasiga, doʻkoniga ega boʻlibdi, oilasi, farzandlari bilan tinch yashay boshlabdi. Ushbu gapda nechta bitishuvli aniqlovchili birikma bor?
A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta
11. Bitishuv yoʻli bilan hosil boʻlgan soʻz birikmasini aniqlang.
A. bolalar haqida gʻamxoʻrlik B) maktab hovlisi
C) qaytadan yozmoq D) gapirishga oson
12. Soʻz birikmalarida ergash soʻz ravish yoki sifatlar bilan ifodalansa, ular bosh soʻzga asosan qanday yoʻl bilan birikadi?
A. moslashuv yoʻli bilan B) bitishuv yoʻli bilan C) boshqaruv yoʻli bilan D) bitishuv yoki boshqaruv yoʻli bilan
13. Qaysi qatordagi gapda atributiv birikma mavjud?

- A.Kiborlarga xos bir xonadonga kelib qolganimni tez payqadim.
 B.Sihat tilasang ko'p yema.
 C.Men kechqurunlari buvimga gazeta o'qib beraman.
 D.Majlisda direktorimiz intizom haqida kuyinib gapirdi.

14. Ko'makchili boshqaruv qatnashgan gapni toping.
 A.Bu tepalikka chiqish orqada qolgan yo'ning azobidan ham ortiqroq bo'ldi.
 B.Qizim, bunaqa yigitdan sovchi bir marta keladi.
 C.Ota yuz-qo'llarini yuvgandan so'ng sal nariga borib o'tirdi.
 D.O'quvchi bolalarga, yigit va qizlarga atab yozilgan qo'shiqlar ko'p

15. Bizning ajdodlarimiz hamisha mana shu zaminda tinch yashaganlar. Ushbu gapda nechta so'z birikmasi bor?
 A. 6 B) 3 C) 4 D. 5

7-ilova

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

- F – fikringizni bayon eting
 S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
 M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

1-guruh

avol	Moslashuv va uning belgilari?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

2-guruh

Savol	Bitishuv va uning belgilari?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

Uyga vazifa: Badiiy matndan 5ta gap ajratib, sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlarni aniqlang.

3- Amaliy mashg'ulot Mavzu: So'z birikmasi

1-ilova

1. So'z birikmasida bosh va ergash so'z
2. So'z birikmasining ifodalanishiga ko'ra turlari

3. Soʻz birikmasining tuzilishiga koʻra turlari

Oʻquv mashgʻuloti maqsadi: Soʻz birikmasi va unda bosh hamda ergash soʻz, bosh soʻzning ifodalanishiga koʻra soʻz birikmasi turlari, tuzilishiga koʻra turlari, soʻz birikmasi va sintagmani *bir-biridan farqlash, gapdagi tobe aloqa turlarini tahlil qilish*

Oʻquv faoliyati natijalari: Soʻz birikmasida bosh va ergash soʻz haqida, soʻz birikmasining ifodalanishiga koʻra turlari, soʻz birikmasining tuzilishiga koʻra turlari haqida maʼlumotga ega boʻladi

🔑 *1-topshiriq. Savollarga javob bering.*

1. Soʻz birikmasi nima?
2. Soʻz birikmasida ergash soʻz va bosh soʻz.
3. Soʻz birikmasining nominativ funksiyasi nima?
4. Soʻz birikmasining hokim soʻz ifodalanishiga koʻra turlari.
5. Oʻtli birikmalarda bosh soʻz.
6. Feʼlli birikmalarning xususiyatlari.
7. Sodda soʻz birikmalari.
8. Murakkab soʻz birikmalari.
9. Soʻz birikmasi va sintagmani farqlang.
10. Erkin va turgʻun birikmalar nima?

🔑 *2- topshiriq. Berilgan gaplarni soʻz birikmalariga ajrating va turlarini aniqlang.*

1. Yigitning bu gaplari Zulayho uchun yangilik edi. (Jurnaldan). 2. Madamin boʻyniga qoʻyilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi. (P.T). 3. Kambagʻallar kulbasidan boshlangan ochlik asta-sekin navkarlar, beklar qarorgohiga ham yetib keldi. (P.Q). 4. Andijon koʻchalari tahlikali bir sukutga choʻmgan edi. (P.Q). 5. Mening xalqim doʻstlik va birodarlikning qadrini biladi. (H.O). 6. Zarqishloqning katta-kichik koʻchalarida, serdaraxt bogʻlarida koʻklam namoyishi kezadi. (S.A). 7. Shu jajji qizaloq tabiatida Tabiatning buyuk kamolin koʻrdim. (E.V). 8. Odamlar bilan ularning aqliga monand gaplash. (Saʼdiy).

🔑 *3- topshiriq. Berilgan gaplardan murakkab soʻz birikmalarini ajrating.*

1. Baxtga intilish intilishlarning intilishidir. (Feyerbax). 2. Uyatchanlik oʻz xatolarini tan olishdan boshqa barcha hollarda oʻrinlidir. (Lessing). 3. Qalbdan chiqqan soʻz qalbga yoʻl oladi. (Nizomiy). 4. Qomatiga ishongan qaddini bukib ketadi, Bilimiga ishongan tilagiga etadi. (Maqol). 5. Soʻzlayotgan odamning gapini boʻlishdan ham ogʻir dagʻallik yoʻq. (J.Lokk). 6. Oyogʻida tik turgan dehqon tiz choʻkkan oliftadan ming bora afzal. (Franklin). 7. Oʻz yurtidan yuz oʻgiranlar oʻz vijdonlaridan ham yuz oʻgiradilar. (G.). 8. Oʻz nomukammallingingni anglashing kamolotga etaklaydi.

🔑 *4- topshiriq. Mavzuga oid testlarning javobini toping.*

1. Qaysi gapda boshqaruv va bitishuv aloqalari mavjud?
 - A. Terlar tuproq uzra quyilar duv-duv.
 - B. Yoʻlchi Unsinni eshik oldida toʻxtatdi.
 - C. Yerda oltin yaproqlar kabi yotar oy nuri.
 - D. Tinch va totuv yashamoqdamiz.
2. Soʻz birikmasi berilgan qatorni toping
 - A. Ukam uchun
 - B. Men oʻqidim
 - C. Tor uy
 - D. Imzo chekmoq
3. Bitishuvli soʻz birikmasini toping.
 - A. qiz husni
 - B. ukam uchun olmoq

C. birdan gapirmoq

D. ukamdan olmoq

4. Bizning ajdodlarimiz hamisha mana shu zaminda tinch yashaganlar. Ushbu gapda nechta soʻz birikmasi bor?

A. 6

B. 3

C. 4

D. 5

5. Bizning ajdodlarimiz hamisha mana shu zaminda tinch yashaganlar. Ushbu gapda nechta bitishuvli soʻz birikmasi bor?

A. 2

B. 3

C. 4

D. 1

6. Kelishik qoʻshimchalari yordamida birikkan soʻz birikmasini toping.

A. moviy osmon, Zuhro yulduzi

B. togʻ choʻqqisi, kitob oʻqimoq

C. yoqimli kuy, dala yumushlari

D. aʻlochi oʻquvchilar, kitob sevarlar uyushmasi

7. Soʻz birikmasining oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

A. Ikki va undan ortiq soʻzdan tuziladi.

B. Ikki va undan ortiq mustaqil soʻzlarning birikuvidan tuziladi.

C. Ikki mustaqil soʻzdan tuzilib, bitta tabiiy pauza bilan aytiladi.

D. Maʼlum grammatik qonun-qoida asosida birikadigan, ikki va undan ortiq mustaqil soʻzning tobelanish asosida birikishidan tuziladigan sintaktik birlik.

8. Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi. Ushbu gapda nechta soʻz birikmasi mavjud?

A.4ta

B.5ta

C.3ta

D.6ta

9. Birinchi bor bahorni tanigan, ilk bor varrak uchirgan, birinchi marta hayitlik olgan joying, birinchi oʻqituvchi, birinchi muhabbatingni tanigan makon Vatandir! Ushbu gapda nechta toʻldiruvchili birikma mavjud?

A.5ta

B.3ta

C.4ta

D.6ta

7-ilova

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda oʻquv jarayonini bahs-munozarali oʻtkazishda qoʻllaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni oʻz fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va oʻz fikrini boshqalarga oʻtkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini oʻrnatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qogʻozga oʻz fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab koʻrsating

M – koʻrsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni toʻldiring

1-guruh

Savol	Soʻz birikmasining ifodalanishiga koʻra turlari?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab koʻrsating	
(M) Koʻrsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Soʻz birikmasining tuzilishiga koʻra turlari?
-------	---

(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

✍ Uyga vazifa: Badiiy asardan murakkab so'z birikmalari qatnashgan 4ta gap topib yozing va sxematik tahlil qiling.

4-amaliy mashg'ulot **Mavzu: Otli va fe'lli birikmalar**

1. So'z birikmasining ifodalanishiga ko'ra turlari
2. Otli birikmalar va ularning ifodalanishi
3. Fe'lli birikmalar va ularning ifodalanishi

O'quv mashg'uloti maqsadi: So'z birikmasi, bosh so'zning ifodalanishiga ko'ra so'z birikmasi turlari, otli va fe'lli so'z birikmalari, ularni *bir-biridan farqlash, gapdagi tobe aloqa turlarini tahlil qilish.*

O'quv faoliyati natijalari: So'z birikmasining ifodalanishiga ko'ra turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish, Otli birikmalar va ularning ifodalanishi haqida ma'lumotga ega bo'lish, Fe'lli birikmalar va ularning ifodalanishi haqida ma'lumotga ega bo'lish.

📌 1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. So'z birikmasi nima?
2. So'z birikmasi va gapning farqi?
3. So'z birikmasining o'zaro bog'lanishiga ko'ra turlari?
4. Hokim so'zning ifodalanishiga ko'ra so'z birikmasining turlari qanday?
5. Otli so'z birikmalari deb qanday birikmaga aytiladi?
6. Fe'lli so'z birikmalari deb qanday birikmaga aytiladi?

📌 2-topshiriq. Quyidagi so'z birikmalarini otli va fe'lli birikmalarga ajratib yozing va izohlang.

Ishga shoshilmoq, oydan ham go'zal, bahor ayyomi, yosh ijodkorlar, uyidan chiqib, yangi she'r, ukamdek ishchan, serzavq qo'shiq, bayram fayzi, o'rik hidi, guldasta qo'yib, insoniy muhabbat, davo izlab, yigit kabi navqiron, qattiq aziyat, anketa savollari, yurakdan o'qimoq, sevimli qo'shiq, toshdek izziz, hayoti achinarli, duo qilib, yaxshi o'qish, bexato yozish, insoniy go'zallik, kamalak misli egik, hayvon kabi beo'xshov, qo'l qo'yish, tarixiy shaxs, adabiy uyushma

📌 3-topshiriq. Gaplarni so'z birikmalariga ajratib ko'chiring. Birikmalarning turlarini aniqlang.

Saxiylik kishilar o'rtasidagi ishonch va muhabbatdan paydo bo'ladi. Saxiy kishi o'z iltifoti bilan birovga qarz yoki yordam bermaydi, balki unga bo'lgan ishonchining qanchalar quvvatga ega ekanligini oshkor etadi. Inson hammaning ko'nglini olishni, qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishni istaydi. Ertasiga yana allaqayoqda bo'g'iqqina momoqaldiraq guldirab, beozorgina yomg'ir savalab o'tdi, tuproq hidi anqidi. Quyosh endi boshini ufqqa qo'ygan. Qirlarning g'ir-g'ir shamoli, o'pkalarga moyday tuyulgan moyday havosi hammamizning ruhimizni birdan ko'tarib yuboradi. Men tog'lar cho'qqisidagi oltin chizgilarni, yumshoq maysalarda otlarimizning tovushsiz dukurini, soylarning toshlarida tuyoqlar ostidan chaqnagan uchqunlarni sayr etib, go'zallikka maftun, ko'nglim ravshan holda jim bormoqdaman.

☞ 4- topshiriq. Mavzuga oid testlarning javobini toping.

1. *Katta sement ko'prik ustidan mashinalar tinimsiz o'tib turibdi.*

Berilgan gapda nechta so'z birikmasi bor?

A.4 ta B.5ta C.3 ta D.6 ta

2. *Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitardi.*
Berilgan gapda nechta fe'lli birikma mavjud va ularning birikish usullarini aniqlang.

A.2 ta: boshqaruv, bitishuv

B.3 ta: boshqaruv, boshqaruv, bitishuv

C.4 ta: boshvaruv, boshqaruv, moslashuv, bitishuv

D.2 ta: boshqaruv, moslashuv

3. Qaysi qatorda so'z birikmasi berilgan?

A.qochib qoldi

B.sevintirib qo'ydi

C.kirib keldi

D.yugurib keldi

4. *Shaharda ko'p qavatli baland binolar qurish avj olgan.* Gapdagi to'ldiruvchili va holi birikmalar soni qaysi badda to'g'ri ko'rsatilgan?

A.1 ta to'ldiruvchili, 2 ta holli birikma

B.2 ta to'ldiruvchili, 1 ta holli birikma

C.1 ta to'ldiruvchili, 1 ta holli birikma

D.2 ta to'ldiruvchili, 2 ta holli birikma

5. Holli so'z birikmalarida so'zlarning birikish usullarini ko'rsating.

A.faqat bitishuv

B.boshqaruv, moslashuv, bitishuv

C.bitishuv, boshqaruv

D.faqat boshqaruv

6. So'z birikmasida hokim so'z vazifasida qaysi turkumga oid so'zlar kelishi mumkin?

A.Ot, sifat, son, fe'l

B.Ot, sifat, son, ravish, olmosh

C.Ot, olmosh, sifat, son, fe'l, taqlid so'zlar

D.Turli turkum so'zlari hokim so'z vazifasida kelishi mumkin.

7. Qaysi qatorda otli birikmalar otlashgan so'zlar bilan ifodalangan?

A.daftarga yozmoq, kitobni o'qimoq

B.beqiyos o'lka, shahrimiz ko'chalari

C.hammasidan katta, bolalarning hammasi

D.chumchuqlarning chug'ur-chug'uri, bolalarning beshtasi

8. Qaysi qatordagi gapda moslashuvli so'z birikmasi mavjud?

A.Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni.

B.Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas.

C.Umidsizlik uyin buzsang, umidingga yetarsan.

D.Bo'zchi belbog'ga yolchimas.

9. Qaysi grammatik vositalar so'z birikmasidagi so'zlarni o'zaro biriktirishga xizmat qiladi?

1) bog'lovchilar; 2) ko'makchilar; 3) kelishik qo'shimchalari; 4) shaxs-son qo'shimchalari; 5) egalik qo'shimchalari; 6) bog'lovchi vazifasidagi yuklamalar.

A.1, 3, 4, 6 B.1, 2, 3, 6 C.2, 3, 5 D.2, 3, 4, 5, 6

10. Qaysi qatorda bitishuv aloqasi berilgan?

A.Yigit husni, kitob o'qimoq

B.Ona allasi, qiziqarli suhbat

C.Tezda kelmoq, birga bormoq

D.Hayotga chaqiriq, bo‘rda yozmoq

11. Qaysi kelishik qo‘shimchalari boshqaruv aloqasini yuzaga chiqaradi?

- A.Bosh, qaratqich va jo‘nalish kelishigi
- B.Tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi
- C.Boshqaruv aloqasida hech qanday grammatik vositalar qo‘llanmaydi.
- D.Qaratqich, jo‘nalish va chiqish kelishigi

12. Berilgan qaysi gaplarda turg‘un birikma mavjud?

- 1. *Shahzoda bir kambag‘al kosibning qizini yaxshi ko‘rardi.*
- 2. *Burgut bir, ikki km masofani ham yaxshi ko‘radi.*
- 3. *U sharfini bo‘yniga ilib, ko‘chaga otildi.*
- 4. *Barcha aybni bo‘yniga ilib, sud zalidan to‘g‘ri qamoqxonaga ravona bo‘ldi.*

A.1, 2, 3, 4 B.1, 4 C.2, 3, 4 D.2, 4

13. Qaysi qatorda holli birikmalar sanalgan?

- A.mashinada kelmoq, tunda gaplashmoq
- B.onasi uchun olmoq, futbol haqida gaplashmoq
- C.ko‘rgani kelmoq, hayajon bilan tinglamoq
- D.kamtarga kamol, elga xizmat

14. Qaysi qatorda so‘z birikmasi ikki qismdan iborat?

- A.qorachadan kelgan yigit
- B.ko‘p qavatli bino
- C.ko‘m-ko‘k o‘tloq D.berilganlarning barchasi.

15. Qaysi gapda *ot* Q *sifat* tarzidagi boshqaruvli birikma mavjud?

- A.Berilgan barcha gaplarda.
- B.Alifdek tik qomati asir qildi.
- C.Inson tarixni yaratuvchi eng oliy xilqatdir.
- D.Mehmon otangdan ulug‘ligini unutma.

16. So‘z birikmasida hokim bo‘lak belgi bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalanib, qiyoslashga asos vazifasini bajarsa, qiyoslanuvchi qaysi kelishik shakli orqali ifodalanadi?

- A.qaratqich kelishigi
- B.chiqish kelishigi
- C.tushum va jo‘nalish kelishigi
- D.qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o‘ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

I-guruh

Savol	Otli birikmalarning asosiy xususiyatlari?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	

(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

2-guruh

Savol	Fe'lli birikmalarning asosiy xususiyatlari?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

✍ *Uyga vazifa.* Badiiy asardan 5 ta gap olib, gapni so'z birikmalariga ajrating.

5-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Gap va uning belgilari. Gaplarning tasnifi

1. Gap va uning belgilari
2. Gapning shakliy va mazmuniy tuzilishi
3. Gaplarning tasnifi

O'quv mashg'uloti maqsadi: Gap va uning belgilari, gapning boshqa sintaktik birliklardan farqi, gapning shakliy va mazmuniy tuzilishi, gaplarning tasnifi asosida gaplarni *tahlil qilish*

O'quv faoliyati natijalari:

Gap va uning belgilari, gapning shakliy va mazmuniy tuzilishi, gaplarning tasnifi, turlari haqida ma'lumotlarni mustahkamlaydi, bilimlarini sinaydi, mashqlar ishlaydi, testlar ishlaydi.

♣ *1-topshiriq. Savollarga javob bering.*

1. Gap deb nimaga aytiladi?
2. Gap va so'z birikmasi
3. Gapning asosiy belgilari.
4. Gap haqidagi an'anaviy va zamonaviy qarashlar.
5. Gapni bo'laklarga ajratish va uning shakl va mazmun munosabati.
6. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari
7. Gaplar qaysi belgilariga ko'ra tasnif qilinadi?
8. Gaplarning tuzilishiga ko'ra qanday turlari bor?
9. Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar
10. Bir bosh bo'lakli gaplarning turlari
11. Tasdiq va inkor gaplar

✎ *2-topshiriq. Berilgan gaplar orasidan darak gaplarni aniqlab, undagi turli xil modal ma'nolarni tushuntirib bering.*

1. Men o'z baxtimni, quvonchimni, boyligimni uzoqda, olis tog'lardan topib keltirdim.(M.Qoriev). 2.Jamshid shu fikrda darvozadan asta uzoqlashdi. (T.Malik) 3.Bekorga halloslab yurgandan ko'ra, boynikida yashash yaxshiroq emasmi? (G'.G'.) 4.Pulni olmaganimni, vijdonim pokligini kim bilab o'tiribdi? (T.Malik). 5.Afzalxon akam anchagacha cho'kkalab o'tirdida, sekin qaddini rostladi. (O'.Hoshimov). 6. Oy nuriga ters o'tirgani uchun uning yuzida, ko'zida qandoq ifoda aks etayotganini bilmasdim (S.A.).

✎ *3-topshiriq. Tasdiq va inkor gaplarni aniqlab, ular orasidagi semantik-grammatik farqlarni izohlang. Inkorni ifodalovchi vositalarni toping.*

1. U kelsa, oshnasini ko'rmay ketmaydi. 2. Bilmadim, tuman tarqaldimi, oy chiqdimi, bobomning yuzi yorishgandek bo'ldi. 3.Seskanib ketdim. Hali qorong'ida ko'rmagan ekanman.

Bobom boshyalang, yuzini tanib bo'lmas, kiyimlari pora-pora bo'lib ketgan edi. 3. Aytmovmidim, hech kimdan ko'rmaganingni mana shu Potmadan ko'rsan deb. 4. Kerakmas bizga bunaqa rais! 5. Oqsoqol bilan bobom kechasi chiqib ketgancha qaytishmagan edi. 6. Potma aytdi, ota, nevarangiz yettiga kirdi, to'y qilmaymizmi, dedi. 7. Umar zakunchi serrayib turar, ammo endi boyagidek esankiramas, yuzi qahrli, qat'iy tusga kirgan edi. (O'.Hoshimov)

4-topshiriq. Bir bosh bo'lakli gaplarning turlarini aniqlang

1. El og'ziga elak tutib bo'lmaydi. (Maqol) 2. Katta tanaffusda zalga to'plandik. (O) 3. Ming masala bilan bosh qotirishga to'g'ri keladi. (O.) 4. Mehnatsiz rohatga erishib bo'lmaydi. 5. Aprelning dastlabki kunlari. Biz sayrga chiqdik. 6. Tong yorisha boshladi. 7. Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir. (Maqol). 8. Darsga kirish uchun qo'ng'iroq chalindi. 9. Bo'sh kelmang, hurmatli sportchilar! (Gaz.) 10. Erta bahorda tuproq hidi boshqacha bo'ladi. (O'.H.). 11. Hali qurib ulgurmagan tuproqdan nam aralash quyosh hidi anqiydi.

Sodda gap tahlili tartibi

1. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi: darak, so'roq, buyruq, istak gap.
2. Emotsionallikka ko'ra turlari: undov gap, his-hayajonsiz gap
3. Gapning grammatik asoslar miqdoriga ko'ra turi: sodda yoki qo'shma gap ekanligi.
4. Gapning grammatik asosiga ko'ra turi: Bir sostavli (egasiz) va ikki sostavli (egali gap)
5. Ikkinchi darajali bo'laklarning mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko'ra turi: sodda yoyiq gap va sodda yoyiq gap
6. Zaruriy bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gapning turi: to'liq va to'liqsiz gap
7. Gapning modallikka munosabati jihatdan turlari: tasdiq yoki inkor gaplar.
8. Sintaktik vazifa bajarmaydigan elementlarning mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko'ra gapning murakkablashganligi yoki murakkablashmaganligi (undov, yuklama, undalma, kirish gap, kiritma so'z, kiritma birikma, kiritma va h.)

Namuna: Zorqishloq ko'chalarida, adir va soylarida, serdaraxt bog'larida ko'klam namoyishi kezadi. (C. A.)

1. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi: darak
2. Emotsionallikka ko'ra turlari: his-hayajonsiz gap
3. Gapning grammatik asoslar miqdoriga ko'ra turi: sodda
4. Gapning grammatik asosiga ko'ra turi: ikki sostavli (egali gap)
5. Ikkinchi darajali bo'laklarning mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko'ra turi: sodda yoyiq gap
6. Zaruriy bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gapning turi: to'liq gap
7. Gapning modallikka munosabati jihatdan turlari: tasdiq gap.
8. O'rin holi uyushgan, murakkablashgan sodda gap

5- topshiriq. Mavzuga oid testlarning javobini toping.

1. Gapning grammatik shaxs kategoriyasini qaysi vositalar ifodalay oladi?
A. Kishilik olmoshlarining ba'zilari
B. Nisbat shakllarilarining ba'zilari
C. Shaxs-son qo'shimchalarining ba'zilari
D. Hammasi to'g'ri
2. Gapning grammatik shaxs kategoriyasini qaysi vositalar ifodalay olmaydi?
A. Egallik shakllari
B. Nisbat shakllarilarining ba'zilari
C. Shaxs-son qo'shimchalarining ba'zilari
D. Hammasi to'g'ri
3. Qaysi gapda subyekt tushunchasi noma'lum?
A. Bu yerdan yo'l chiqarishga qaror qilindi
B. Ona bolasini uxlatdi
C. Bolalar tonggacha suhbatlashdilar
D. Ko'priknini biz qurdik.

4. Qaysi gapda ikkita subyekt ishtirok etgan?
 A.Ona bolasini uxlatdi
 B.Bu yerdan yo‘l chiqarishga qaror qilindi
 C.Bolalar tonggacha suhbatlashdilar
 D.Ko‘prikni biz qurdik.
5. Kesimi qaysi nisbatdagi fe‘llar bilan ifodalanganda subyekt tushunchasi noma’lum bo‘ladi?
 A.Majhul nisbatda
 B.Birgalik nisbatda
 C.Aniq nisbatda
 D.Orttirma nisbatda
6. Kesimi qaysi nisbatdagi fe‘llar bilan ifodalanganda subyekt tushunchasi birdan ortiq bo‘ladi?
 A.Orttirma nisbatda
 B.Majhul nisbatda
 C.Birgalik nisbatda
 D.Aniq nisbatda
7. Qaysi qatordagi gapda shakliy va mazmuniy nomuvofiqlik ifodalangan?
 A.Shundan xursandmanki, ular Elobodni bilishar ekan.
 B.Chaqirsam, qaramaysiz.
 C.Chaqimchidan qo‘rqin, chunki uning bir soatda buzgan ishini bir yilda ham tuzatib bo‘lmaydi.
 D.Sen tabiatga to‘pponchadan o‘q uzsang, tabiat senga to‘pdan o‘q uzadi.
8. Har bir kesimlik ma’nosi alohida –alohida kesimlik shakli orqali ifodalanishi mumkin? Berilgan kesimlarning qaysi biri yuqoridagi hukmga to‘g‘ri keladi?
 A)o‘qidi
 B)o‘qimasayding
 C)o‘quvchiman
 D)barcha javoblar to‘g‘ri
9. Bitta kesimlik shakli bir necha kesimlik ma’nolarini ifodalashi mumkin. Berilgan kesimlarning qaysi biri yuqoridagi hukmga to‘g‘ri keladi?
 A)o‘qidi
 B)o‘qi
 C)o‘qimasaydi
 D)barcha javoblar to‘g‘ri
10. Kesimlik ma’nolari nol shakl orqali ifodalanishi mumkin. Qaysi gapdagi kesim yuqoridagi hukmga to‘g‘ri keladi?
 A)Litseyning 3-bosqich o‘quvchisiman
 B)Bu kitobni, albatta, o‘qi
 C)Men o‘quvchi.
 D)B va C

8-ilova

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o‘ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting
 S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating
 M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring
 U – fikringizni umumlashtiring

I-guruh

1-guruh

Savol	Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab	

ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

✍ Uyga vazifa. Badiiy asardan 5 ta gap olib, gapning turini aniqlang

6-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar

1. Gap bo'laklari
2. Kesim va uning turlari
3. Ega va uning turlari

O'quv mashg'uloti maqsadi: Gap va uning bo'laklari, gap bo'laklarining shakliy va mazmuniy tuzilishi, ega va kesim hamda ularning o'zaro munosabati, turlari bo'yicha gaplarni *tahlil qilish*

O'quv faoliyati natijalari: Gap bo'laklarining turlari: bosh bo'laklar, kesim va uning turlari, ega va uning turlari haqidagi ma'lumotlarni takrorlaydi va mustahkamlaydi.

✎ 1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Gap bo'laklari va ularning tasnifi
2. Bosh bo'laklar
3. Ega va uning ifodalanishi.
4. Eganing tuzilishiga ko'ra turlari.
5. Kesim, kesim haqidagi an'anaviy va zamonaviy qarashlar
6. Kesimning ifodalanishiga va tuzilishiga ko'ra turlari
7. Ega va kesim mosligi
8. Kesimlikni hosil qiluvchi shakllar

✎ 2-topshiriq. Gaplar tarkibidagi ega va kesimni aniqlang. Kesimlikni hosil qiluvchi shakllarni toping.

1. Vadud Mahmud do'stlari bilan birga Behbudiyning so'nggi izlarini boshqa shaharlardan ham qidirgandi. 2. U Cho'lpon ta'sirida ozmi-ko'pmi barmoqda (barmoq vazni) qalam tebratgan. 3. Iste'dodli shoir Botu suronli davr zayli bilan 34 yil umr ko'rdi. 4. Botu haqida o'ylaganimda, uni yaqindan bilgan kishilardan biri Laziz Azizzodaning satrlari yodimga tushadi. 5. Bu soyda, bu orolchalarda qanchadan-qancha sho'xliklari qolgan uning. 6. Saltanat yo'lining pastidagi hu anavi baland imoratda turadi. 7. Nafasi qisadigan odati bor u kishining. 8. Uyimizdan yaxshilar qadami sira uzilmas edi.

✎ 3-topshiriq. Gapning bosh bo'laklarini aniqlang va ularning turini toping.

1. Bu xabarni eshitgan rais shamoldan tez uchib borar edi. 2. Ertalab ishga ketayotganlar, avtobusdagilar, mashinadagilar unga ajablanib qarashadi. 3. Ilm o'rganmoq – e'tiqodni mustahkamlash uchundir, ammo boylik orttirmoq uchun emas. 4. Baxil o'z molini asrash uchun qattiq azob chekadi. Hasadchi inson esa yaramas fe'li tufayli tinch yashay olmaydi. Unisi o'ziga bergan azobdan qiynaladi, bunisi esa o'z qilg'idan dard chekadi. 5. Shoshilish, yengil-yelpi ishlarga

havas, jahldorlik – nodonlar ishi. 6. Do‘stlikka yaramaydigan shaxsning eng yaramasi – chaqimchi.
7. Ko‘ngil chopmagan ishni qilish –xatar.

☞ 4-topshiriq. Mavzuga oid testlar bilan tanishing.

1. So‘z birikmalari zanjiri gapning egasi atrofida birlashgan holatni toping.

A.Badanni junjiktiruvchi sovuq shamol izg‘ib qoldi.

B. Boboning tabiati ravshan bo‘lib ketdi.

C.Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to‘ldiradi.

D.Sayohatchilar daraning pillapoya kabi yotiqroq yerlaridan yuqoriga intildilar.

2. Qaysi gapda nomustaqil kesim shakli qo‘llangan?

A. Qalb salomat bo‘lsa, aql ham, fikr ham salomat bo‘ladi

B. Qani til bo‘lsa-yu , u bilan suhbatlasha qolsa!

C. Bugundan boshlab aravachilar siz bilan borishsa

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

3. Yig‘iq sodda gap berilgan qatorni belgilang.

A. Lekin Manzuraxon baxti bor qiz ekan.

B. Kasalxonada vrachman.

C. D.Uning gapidan hech narsani tushunmadim.

D. Sog‘ odamga Suqrotning ham keragi yo‘q.

4. Bog‘lama ishtirok etgan gapni aniqlang.

A. Undan kelgan xatlar salkam bir sandiq bo‘ldi

B. Bugun yig‘ilish bo‘ladi

C. Tursun aka jamoaga rais bo‘ldi

D. Undan kelgan xatlar salkam bir sandiq bo‘ldi. Tursun aka jamoaga rais bo‘ldi.

5. Qaysi kesim tarkibida bog‘lama mavjud?

A. U patirning ikki chetidan tutib turdi.

B. Miryoqub yaqin o‘tirib so‘zlay boshladi.

C. Usta shogirdiga talabchan bo‘ldi.

D. Bugun institutimizda katta anjuman bo‘ldi.

6. Eganing asosiy grammatik shaklini belgilang.

A.Ot turkumiga xos bo‘lishi

B.So‘zning bosh kelishikda bo‘lishi

C.Kesimdan oldin kelishi

D.Birlik va ko‘plikda bo‘lishi

7. So‘zning gapda gap bo‘lagi bo‘lib kelishi so‘z turkumlarining qanday belgisi?

A.Sintaktik belgisi

B.Morfologik belgisi

C.Leksik belgisi

D.Morfologik va sintaktik belgisi

8. Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot. Ushbu gapdagi egani toping.

A.Bolam

B.Yaxshilik

C.Yomonlikni

D.Ega yo‘q.

9. Barcha harakatimiz – tinchlik uchun. Gapdagi kesim ifodalanishi va tuzilishiga ko‘ra qanday kesim?

A.Sodda ot-kesim

B.Sodda fe'l-kesim

C.Murakkab ot-kesim

D.Murakkab fe'l-kesim

10. Qaysi qatorda bog‘lamali ot kesim qo‘llangan?

A. Yoz saxovat bilan dunyoni sharbatga to‘ldirdi.

B. Bu xona doimo ozoda bo‘ladi.

- C. Bu xabarni eshitgan rais shamolday tez uchib borar edi.
D. O‘qituvchilar bizdan mamnun bo‘lishdi.
11. Qaysi qatorda sostavli fe‘l kesimlar berilgan?
A. Munisxon bo‘lmasa boshqa bir odamni topardi.
B. Sharoitimiz ancha yaxshi bo‘lib qoldi.
C. Birdaniga tushgan sovuq beva-bechoralarni dovdiratib qo‘ydi.
D. Mashinadagilar unga ajablanib qarashadi.
12. Qaysi gapda kesim birikmali (murakkab) ifodalangan?
A. Tarbiya insonni inson qilib yetishtiradi.
B. Kelin, darhaqiqat yosh va sodda bo‘lgan ekan.
C. Insonni inson qilib etishtiruvchi narsa tarbiyadir.
D. Hammasi to‘g‘ri
13. Qaysi gapda ega birikmali ifodalangan?
A. Biz talabalarning bilimdonligi, sezgirliги va intiluvchanligidan mamnun bo‘ldik.
B. Mehnat qilib topganing – qand-u asal totganing.
C. Buyuklik ma‘naviy barkamollikdadir.
D. Qo‘rqan oldin musht ko‘tarar.
14. Kesimning tuzilishiga ko‘ra turlari qay o‘rinda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A. Ot kesim va fe‘l kesim
B. Sostavli kesim va soda kesim
C. **Sostavli ot kesim va sostavli fe‘l kesim**
D. Sodda, sostavli va murakkab kesim
15. Berilgan gaplarning qaysi birida otni kesim qilib shakllantiruvchi vosita qo‘llangan?
A. Zero, bugungi yoshlarimiz tashlagan odimlar XXI asr shohsupalariga qo‘yilgan ilk qadamlarimizdir.
B. Balki seni kimdir qaylardadir jim o‘ylayotgandir.
C. Tiriklik chog‘ingdayoq o‘zingga odamiylikdan haykal qo‘ydir.
D. Barcha javoblar to‘g‘ri
16. 1)o‘qib chiqishim kerak 2)ozod bo‘ldi 3)obod qildi 4)uxlab qolishgan ekan 5)o‘qimoqchi bo‘ldi 6)mehribonlik qilgan edi 7)aytib berib qo‘ya qol 8)unutib qo‘ymaslik kerak. Berilgan birliklar gapda kesim vazifasida qo‘llanganda kesimning qaysi turini yuzaga keltiradi?
A.2, 3, 6-murakkab ot kesim, 1, 4, 5, 7, 8-murakkab fe‘l kesim
B.barchasi murakkab fe‘l kesim
C.1, 2, 3, 5, 6- murakkab ot kesim, 4, 7, 8-murakkab fe‘l kesim
D.1, 2, 3, 6, 8- murakkab ot kesim, 4, 5, 7-murakkab fe‘l kesim
17. Qaysi qatorda tarkibli fe‘l kesimli gap berilgan?
A.Dorbozlik chinakam xalqchil san’atdir.
B.Anvar javobni o‘qib zavqlandi.
C.Suv bo‘lmagach, bog‘dorchilik ham bo‘lmadi.
D.Baqateraklar qaltirab turgan qorong‘i ko‘chadan yelib ketdim.
18. Qaysi gap shart mayli nomustaqil kesim hosil qilmagan?
A. Qani til bo‘lsa-yu, u bilan suhbatlasha qolsa!
B. Chiroqni ko‘tarsangiz, yorug‘lik bo‘larmidi.
C. Havo bulut bo‘lsa ham, yomg‘ir yog‘madi.
D. Mehnat qilsang, baxting ochiladi.

19. Murakkab ot-kesimli gaplar to‘g‘ri berilgan qatorni toping.
 1) Ayoqli kunlar asta-sekin o‘tib borayotir. 2) O‘sha kuni sovuq qattiq edi.
 3) Hammasini aytib berishing darkor. 4) Qo‘shni xona doimo ozoda bo‘ladi. 5) Alisher Navoiy – she‘riyat quyoshi.
 A.1, 2, 3, 4, 5 B.2, 3, 4 C.2, 3, 4, 5 D.2, 3, 5

FSMU texnologiyasi


Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o‘rnatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting
 S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating
 M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring
 U – fikringizni umumlashtiring

1-guruh

1-guruh

Savol	Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

 Uyga vazifa. Badiiy asardan 5 ta gap olib, gapning bosh bo‘laklarini aniqlang.

7-amaliy mashg‘ulot.

Mavzu: Ikkinchi darajali bo‘laklar

- Ikkinchi darajali bo‘laklar va ularning turlari
- Aniqlovchi va uning turlari
- To‘ldiruvchi va uning turlari
- Hol va uning turlari

O‘quv mashg‘uloti maqsadi: Gap va uning bo‘laklari, ikkinchi darajali bo‘laklar va ularning turlari, ikkinchi darajali bo‘laklarning gapdagi ishtiroki, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol va uning turlari, ikkinchi darajali bo‘laklarning shakliy va mazmuniy tuzilishi bo‘yicha gaplarni *tahlil qilish*

• *O‘quv faoliyati natijalari:* Ikkinchi darajali bo‘laklar va ularning turlari, aniqlovchi va uning turlari, to‘ldiruvchi va uning turlari, hol va uning turlari haqida ma‘lumotlarni takrorlash va mutahkamlash

1- topshiriq. Savollarga javob bering.

- Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari qanday xususiyatlarga ega?
- Ikkinchi darajali bo‘laklarning turlarini ayting.
- Aniqlovchining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
- Sifatlovchi aniqlovchi va qaratqich aniqlovchining farqlari nimada?
- Izohlovchi aniqlovchining boshqa turlaridan qaysi jihatdan farq qiladi?

- A.Quvvatsizligidan tez charchadi.
 B.Go‘lligi sababli har joyda kaltak yeydi.
 C.Hammani kuldirish uchun ataylab shunday antiqa kiyindi.
 D.Arzimagan narsa uchun janjal ko‘taradi.
7. O‘rin holi o‘zi ergashgan so‘zga qanday yo‘l bilan bog‘lanadi?
 A.bitishuv va boshqaruv yo‘li bilan
 B.boshqaruv yo‘li bilan
 C.bitishuv yo‘li bilan
 D.bitishuv, boshqaruv, moslashuv yo‘li bilan
8. Qaysi qatordagi gapda o‘rin ravishi bilan ifodalangan hol berilgan?
 A.Bunda qurtlar ipak to‘qiydi.
 B.Shu yerdan boshlanur daryo va quyosh.
 C.Sinfga o‘qituvchidan oldin kirishga odatlaning.
 D.Poezd bizni Toshkentda qoldirib, Moskvaga yo‘l oldi.
9. Qaysi qatordagi gapda faqat ravish hollari ishtirok etgan?
 A.U o‘ychan ko‘zlari bilan Botirga qarab sekin gapirdi.
 B.Hozirgacha g‘o‘za uch marta chopiq qilindi.
 C.Hamdami ikkovini ham bilmadi va yig‘laganicha narigi uyga kirib ketdi.
 D.Yig‘lab-yig‘lab marza olsang, o‘ynab-o‘ynab sug‘orasan.
10. Qaysi qatorda daraja-miqdor holi ishtirok etmagan?
 A.Shu gapni besh marta takrorladi.
 B.“Volga” asfalt yo‘ldan tez yurib ketdi.
 C.Paxta to‘g‘risida ko‘p yozdi.
 D.Gurunchni qopi bilan olishdi.
11. Maqsad hollari ishtirok etgan gaplarni belgilang.
 1. *Eshik oldi gul hovuz, Gul tergali kelganmiz.* 2. *Hammamiz ham umid bilan mehnat qildik, rohatini ham ko‘raylik.* 3. *O‘quvchilar dam olishga dala shiyponiga kelishdi.* 4. *Salima yaxshi tayyorlangani uchun maqtovga sazovor bo‘ldi.* 5. *Bir chimdim uxlash uchun ko‘zini yumdi.*
 A.1, 2, 3, 4, 5 B.1, 3, 5 C.1, 2, 3, 5 D.3, 5
12. Qaysi qatordagi gapda to‘ldiruvchi kengaygan birikma bilan ifodalangan?
 A.Vodiylarni, tog‘larni oshib, Dalalarda yolg‘iz adashib, kelib qoldi yurtingga Omon.
 B.Dilshod maktubni xolasiga berib, ko‘chaga chiqib ketdi.
 C.O‘qituvchining pedagogik mahorati u tarbiyalagan shogirdlarning bilimdonligi bilan o‘lchanadi.
 D.Taqir-tuquringni yig‘ishtir.
13. Gap bo‘laklaridan qaysilari belgili va belgisiz qo‘llanishi mumkin?
 A.ega, kesim, to‘ldiruvchi
 B.sifatlovchi-aniqllovchi, vositali to‘ldiruvchi, hol
 C.kesim, vositasiz to‘ldiruvchi, qaratqich va sifatlovchi-aniqllovchi
 D.vositasiz to‘ldiruvchi, qaratqich aniqllovchi
14. Qaysi qatordagi gapda to‘ldiruvchi fe‘l kesimga bog‘lanmagan?
 A.Otdan baland, itdan past.
 B.Berilganlarning barchasida.
 C.Yutuq kutganimizdan ziyodroq bo‘ldi.
 D.Kitob ikki qismdan iborat.

15. *Hamdam ikkovini ham bilmadi va yig'laganicha narigi uyga kirib ketdi.* Berilgan gapda nechta hol qo'llangan va ular qaysi so'z turkumlari bilan ifodalangan?
- A.3 ta: ot, ravish, fe'l
 B.2 ta: ot, fe'l
 C.3 ta: ot, son, fe'l
 D.1 ta: ravish
16. *Yaxshiga yaxshi nom fe'lidan yetar,
 Sha'niga barcha el rahmatlar aytar,
 Yomon bag'rini tosh aylasa, yaxshi –
 Yurak qo'ri bilan toshni eritar.*
 Berilgan matndagi to'ldiruvchilarni aniqlang.
- A.2 ta vositali, 2 ta vositasiz to'ldiruvchi
 B.4 ta vositali, 3 ta vositasiz to'ldiruvchi
 C.3 ta vositali, 3 ta vositasiz to'ldiruvchi
 D.4 ta vositali, 2 ta vositasiz to'ldiruvchi
17. Qaysi qatorda to'ldiruvchi otlashgan so'z bilan ifodalanmagan?
- A.Chaqmoqning yalt-yultidan bola qo'rqdi.
 B.Yaxshiga yondash, yomondan qoch.
 C.So'rashdan uyalma, bilmaslikdan uyal.
 D.Beshga uchni qo'shsak, sakkiz bo'ladi.
18. Qaysi qatodagi gapda aniqlovchi to'ldiruvchiga bog'lanib kelgan?
- A.Soyning tagidan ko'm-ko'k suv oqib turardi.
 B.Ilg'or ishchilarga mukofotlar topshirildi.
 C.Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi.
 D.Mehnat faxriylari bilan yangi bog'da uchrashdik.
19. Qaysi qatordagi gapda qaratqich aniqlovchi belgisiz qo'llangan?
- A.Biz boy otangizga Yormatning qizini olib bermoqchi edik.
 B.Kelganlarning birortasi ham uni tanimas edi.
 C.Qarilari kutadi mehmon, pazandasi yopadi shirmon.
 D.Daryo labida tik turib ko'klam quchog'ida tovlanayotgan Olmazor chiroyiga suqlanardim.
20. Qaysi qatordagi to'liqsiz gapda ikkinchi darajali bo'laklar tushib qolgan?
- A.– Seni qurol ushlayotgan qaysi nomard majbur qildi? – Vijdonim, xalqimning amri.
 B.– Siz she'r ham yozyapsizmi, Oydin? – Yozyapman.
 C.– Ishni men kimdan qabul qilib olayotibman?..
 – Byuro a'zosidan...
 D.– Kim muzeyga bormoqchi? –
21. Hol kesimga qanday bog'lanadi?
- A.Boshqaruv yo'li bilan
 B.Bitishuv yo'li bilan
 C.Berilganlarning barchasi to'g'ri.
 D.Bevosita yoki bilvosita bog'lanadi.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring
1-guruh

1-guruh

Savol	To'ldiruvchi va uning turlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

2-guruh

Savol	Hol va uning turlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

✍ Uyga vazifa. Badiiy asardan 6 ta gap olib, ulardagi ikkinchi darajali bo'laklarni tahlil qiling.

8-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Bir sostavli gaplar. Uyushiq va ajratilgan bo'lakli gaplar

Mavzu: Bir sostavli gaplar. Uyushiq va ajratilgan bo'lakli gaplar

1. Bir sostavli gaplar. Egali va egasiz gaplar, uning turlari
2. Gapning uyushiq bo'laklari
3. Gapning ajratilgan bo'laklari

O'quv mashg'uloti maqsadi: bir sostavli gaplarning turlari, egasiz gaplar va uning turlari, gapning uyushiq bo'laklari, gapning ajratilgan bo'laklari bo'yicha gaplarni tahlil qilish, takrorlash

O'quv mashg'uloti natijasi: Bir sostavli gaplar, egasiz gaplar va uning turlari, gapning uyushiq bo'laklari, gapning ajratilgan bo'laklari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

📌 1- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Bir sostavli gaplar qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?
2. Bir sostavli gapning qanday turlari bor?
3. Shaxsi noma'lum gap bilan shaxssiz gaplarning qanday farqlari bor?
4. Nominativ gaplarning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
5. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar qanday mazmun ifodalaydi?

📌 2- topshiriq. Keltirilgan misollardan shaxsi aniq va shaxsi noma'lum gaplarni ajratib ko'chiring. Shaxsi aniq gaplar uchun zarur bo'lgan ega vazifasidagi so'zni qavs ichida ko'rsating.

1. Kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda deydilar. 2. Otalikning farzi ayni – farzandga munosib ism qo'ymoq deydilar. 3. Yugurganniki emas, buyurganniki deb juda to'g'ri aytishgan ekan-da (A. Qahhor). 4. Rahmatilla Obidiyni kasalxonaga olib ketishdi (A. Qahhor). 5. Bemorlardan doim xabardor bo'lib turamiz. 6. Ilm deganni misqollab bobma-bob o'rganadilar. 7. Jo'jani kuzda sanaydilar. 8. Bu joylarni hozir ham Qoradaryo deydilar. 9. Ijizat bersangiz fikrimni bayon qilsam.

Shu gapdagi kesim qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanganini belgilab chiqing.

1. Jimjitlik. Giyohlar shitiraydi, shamol chodirni silkitadi (S.A).2. Vafo va sadoqatni timsoli boʻlgan Mohlar oyim Fargʻona xoni shoir Amir Umarxonning umr yoʻldoshi, benazir maslahatchisi, sheʼriyat osmonida chaqnagan yulduz Nodirabegim edi (S.A). 3. Qish. Butun borliq oppoq choyshab bilan bezangan (Oybek). 4. Melodiy 1494-yilning yozi. Saraton issigʻida Fargʻona vodiysining osmoniga chiqqan quyuq bulutlar kun boʻyi havoni dim qilib turibdi- yu, kechki payt birdan jala quyib berdi (M. Ismoilij). 5. Xazonrezgilik payti. Hirot bogʻlarida suv beradigan Hirmiyrid daryosi va injil anhorining qirgʻoqlariga zaʼfaron yaproqlar toʻkilgan (P. Qodirov). 6. Shu choldevor hovlimiz, shu tirikchilik koʻzimga har qanday boylarning sersavlat uylaridan yaxshi koʻrinadi (Oybek).

☞ *4-topshiriq. Mavzuga oid testlar bilan tanishing.*

1. Qaysi qatordagi gapda bir narsa-buyumning turli belgilarini bildirgan birdan ortiq sifatlovchi-aniqlovchilar uyushib kelgan?
A. Bogʻimizda oq, qizil, pushti gullar qiygʻos ochilib yotibdi.
B. Chaqaloq kichkina, oppoq va dumaloq qoʻllarini choʻzib, menga talpinar edi.
C. Toʻlqin, Ozoda va Shoiraning ukalari bogʻchada tarbiyalanadilar.
D. Siz aʼlochi va jamoatchisiz.
2. Pulemyot, miltiqlarning ovozigaga xotin-xalaj, bola chaqalarning yigʻisi, dod-voyi qoʻshilib ketdi.
Berilgan gapda qanday boʻlaklar uyushib kelgan?
A. hol, kesim, aniqlovchi
B. ega, toʻldiruvchi, aniqlovchi
C. toʻldiruvchi, aniqlovchi
D. ega, aniqlovchi
3. Ajratilgan izohlovchilar koʻpincha qaysi boʻlakka aloqador boʻladi?
A. kesimga B. egaga
C. toʻldiruvchiga D. aniqlovchiga
4. Qaysi qatordagi gapda faqat qaratqich aniqlovchi uyushib kelgan?
A. Saʼdulla va Joʻrabeklarning katta, yorugʻ xonasiga kirdik.
B. Aʼlo oʻqish – bizning va sizning asosiy va sharaflil vazifamiz.
C. Togʻ etaklaridan nafis gullarning, xushboʻy giyohlarning hidlari anqiydi.
D. Daraxtdagi barcha sayroqi qushlar: saʼva, bulbul, mayna va boshqalar unga joʻr boʻldi.
5. Qaysi hukm notoʻgʻri?
A. Ajratilgan izohlovchilar, asosan, izohlanmishdan oldin keladi.
B. Ajratilgan boʻlaklar bir boʻlak hoida yoki birikmali boʻlak hoida kelishi mumkin.
C. Ajratilgan aniqlovchi shaxs yoki narsaning belgisini, kimga yoki nimaga qarashlilikini taʼkidlab, ayirib koʻrsatish uchun qoʻllanadi.
D. Vositasiz toʻldiruvchi ham, vositali toʻldiruvchi ham ajratilgan boʻlak sifatida qoʻllanishi mumkin.
6. Qaysi qatordagi gapda vositasiz toʻldiruvchi uyushib kelgan?
A. Hulkar eshik oldida bir otasiga, bir Avazga, bir onasiga qarab qoʻyardi.
B. Men onam, otam va opam bilan xayrlashib, yoʻlga tushdim.
C. Jannatxon musiqani, ashulani juda sevar edi.
D. Shu masalada sizni Moskvaga, Leningradga safarga yubordik.
7. Qaysi qatorda aniqlovchi ajratilgan?
A. Sizga, oʻrta boʻyli qizga, atlas juda yarashibdi.

- B. Onasi ham bolasining, baxti qora jigargo‘shasining, ko‘zlarida shu zor-u mushtoqlik olovini ko‘rdi.
 C. Shu kuni kechqurun, daladan qaytishda, qori Sidiqjonga hamroh bo‘lib qoldi.
 D. Birozdan so‘ng Hasan aka, fizika o‘qituvchisi, kirib keldi.

8. *Pulemyot, multiqlarning ovozigga xotin-xalaj, bola chaqalarning yig‘isi, dod-voyi qo‘shilib ketdi.*

Berilgan gapda qanday bo‘laklar uyushib kelgan?

- A. hol, kesim, aniqlovchi
 B. ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi
 C. to‘ldiruvchi, aniqlovchi
 D. ega, aniqlovchi
9. Uyushiq bo‘laklar o‘zaro qanday birikadi?
 A. teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar yordamida
 B. teng bog‘lovchilar yoki tenglanish ohangi bilan
 C. o‘zaro tartib va ohang bilan
 D. teng bog‘lovchi va teng bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlar yordamida
10. Qaysi hukm noto‘g‘ri?
 A. Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklarning ma‘nosini izohlab aniqlab keladi.
 B. Umumlashtiruvchi so‘z ot, olmosh, fe‘l so‘z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin.
 C. Umumlashtiruvchi so‘z so‘z birikmalari, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi mumkin.
 D. Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklardan keyin kelsa, uyushuvchi bo‘laklardan tire bilan ajratiladi.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o‘rnatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting
 S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating
 M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring
 U – fikringizni umumlashtiring

1-guruh

1-guruh

Savol	Gaplarning uyushiq bo‘laklari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Gaplarning ajratilgan bo‘laklari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Uyga vazifa. Badiiy asardan parcha olib, undagi bir sostavli gaplarni tahlil qiling.

Qo'shma gap sintaksisi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar

1 – amaliy mashg'ulot

Mavzu: Bog'langan qo'shma gaplar

Mavzu: Bog'langan qo'shma gaplar

1. Bog'langan qo'shma gap haqida nazariy bilimlarni mustahkamlash.
2. Bog'langan qo'shma gap bo'yicha savol-javob.
3. Mashqlar ishlash.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Bog'langan qo'shma gap haqida nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O'quv faoliyati natijalari: Bog'langan qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap sohasidagi nazariy qarashlar to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlaydi;

3-ilova

👉 1-topshiriq. Savollarga javob bering.


1. Sodda va qo'shma gaplarni qiyoslang.
2. Bog'langan qo'shma gapning grammatik xususiyatlari.
3. Biriktiruv munosabatli bog'langan qo'shma gapning semantik va pozitsion xususiyatlari.
4. Biriktiruv bog'lovchilarining uyushiq bo'laklar va bog'langan qo'shma gap qismlari orasida qo'llanishiga misollar keltiring.
5. Zidlov munosabatli bog'langan qo'shma gaplarning semantik va pozitsion xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
6. Ayiruv munosabatli bog'langan qo'shma gaplar haqida ma'lumot bering.
7. Ayiruv bog'lovchilarining uyushiq bo'laklar va qo'shma gapda qo'llanish xususiyatlari.
8. Inkor munosabatli bog'langan qo'shma gaplar va uyushiq bo'lakli gaplarni qiyoslang.
9. Bog'langan qo'shma gaplarda yuklamalarning qo'llanishi.
10. Bog'langan qo'shma gaplarda umumiy bo'laklarning qo'llanishi.
11. Bog'langan qo'shma gaplarda ochiq va yopiq tenglanish.

4-ilova

✍️ 2-topshiriq. Qo'shma gaplarning turlarini aniqlang va sxematik tahlil qiling.

1. Hamma quvnoqlik bilan so‘zlashmoqda, faqat Arslonqul negadir xayolchan o‘tirardi.(O.) 2. Uning na Ko‘lobda uy-joyi bor, na bu erda oyoq bosadigan joyi. (C.A.) 3. Mening dam bezgagim xuruj qiladi, dam isitma suyagimgacha yondiradi. (O.) 4. Ichkarida ashula tugab, shovqinli kulgi ko‘tarildi.(As.M) 5. Nuri goh sevinib shirin xayollarga botadi, goh butun vujudini qo‘rquv bosadi. (O.) 6. Onaxonning tovushi tovlanib, ko‘ziga yosh keldi. (As.M.) 7. Birovlar panshaxa bilan paxta ag‘darsa, birovlar quriganini qopga tiqar edi. 8. Shu payt ko‘cha eshigi ochildi-yu, Zunnunxo‘ja halloslaganicha kirib keldi. (A.Q.) 9. Hali musiqa chalinadi, hali ashula aytiladi. 10. Qattiq shamoldan dam chimlar bamisoli qirg‘ovulday uchib tushadi, dam bir oz namiqqan erning tuprog‘i palaxsa-palaxsa bo‘lib ko‘tariladi. (A.Q.)


5-ilova



☞ 4- topshiriq. Bog‘langan qo‘shma gaplar bo‘yicha testlar.

1. Biriktiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gap qaysi qatorda berilgan?
 - A. Quyosh yerga nurini har qancha sochsa ham, u yerdan buning evaziga hech narsa talab qilmaydi.
 - B. Tantanali kechaning badiiy qismida kontsert berildi ham hujjatli fil‘m namoyish qilindi.
 - C. Suv keldi – nur keldi.
 - D. Bahaybat fil hartumini suvga solishi bilan, suvdagi to‘lin oy birdan qalqiy boshladi.
2. Bog‘langan qo‘shma gapni toping.
 - A. Mashrab shuni yaxshi biladiki o‘rtog‘i uni aldamaydi.
 - B. Yo yerning kuchi yo‘q, yo urug‘i yaxshi emas.
 - C. Kim ichkilikdan madad istasa, o‘sha go‘r atrofida bo‘ladi.
 - D. Bu uyda na Ashirdan, na Soatdan - hech kimdan darak yo‘q.
3. Bog‘langan qo‘shma gap berilgan qatorni toping.
 - A. G‘ir eshik unsiz ochildi-da, qop-qorong‘u zalga nur yopirilib kirdi
 - B. Keyin bir lahza ko‘zini yumdi-da, yuziga kaftini bosdi
 - C. Zuhra oynavand eshikni ochdi-da, ichkariga kirib ketdi
 - D. U azab bilan baqirdi-da, mashinani keskin burdi
 - E. Bir kelib qolibsana-da o‘tir, do‘stim.
4. Biriktiruv bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gap berilgan qatorni toping.
 - A. Lolalar uchun oftob yaxshidir, Bolalar uchun odob yaxshidir
 - B. Ko‘m-ko‘k toli yaylovlarda o‘tov oqarib, yer-u ko‘kni podalarning shovqin-suroni tutdi
 - C. O‘ziga berilgan aqlsiz tentak bo‘lsa, o‘zini bezagan xushro‘y satangdir
 - D. Chor atrofda esardi ellar, va bog‘larda qushlar chiyillar
5. Zidlov munosabati ifodalangan bog‘langan qo‘shma gapni toping.
 - A. Na hamdard kishisi bor, na ovuntiradigan mashg‘uloti.
 - B. Kuz tushdi, tog‘ cho‘qqilarini qor bosdi.

- C. Uydagilar xursand edi, ammo bu xursanchilik unga tatimadi.
D. Burgut yalqovgina, lekin viqor bilan qanotlarini yoyib uchib ketdi.
6. Bog`langan qo`shma gapni toping.
A. So`kinish odati kuchaygan sari beixtiyor yomon xatti-harakatlarga moyillik ham kuchaya bordi.
B. Xushmuomalalikka haq to`lanmasa ham, u ko`p naf keltiradi.
C. Hamma o`z xotirasidan noliydi-yu, hech kim o`z idrokidan nolimaydi.
D. Jahonda yaramasliklar ko`p, lekin yomon aqlga yetadigan yo`q.
E. S, D
7. Qismlari yuklama yordamida birikkan zidlov munosabatli bog`langan qo`shma gapni toping.
A. Kun sovuq, ammo osmon beg`ubor, artilgan shishaday musaffo.
B. Daraxt shoxlarini shirtillatib uzguday yoqqan yomg`irning tinganini ancha bo`ldi-yu, osmon pardasi ochilmadi.
C. Temirchining uyi tor bo`lsa ham, fe'li keng edi.
D. Qiz yalt etib unga qaradi-yu, yuragi hapqirib ketdi.
8. Ayiruv munosabatli bog`langan qo`shma gapni toping.
A.Navoiy goh otda, goh piyoda paydo bo`lar edi.
B.Hissiyot va aql iroda uchun zarurdir, men faqat ular orqali nima qilishim yoki qilmasligim lozimligini bilib olaman.
C.Yoki sukut saqla, yoki sukutdan tuzukroq biron narsa gapir.
D.Haqiqatga har qanday masofa pisand emas, uni hech bir chegara to`xtatolmaydi
9. Zidlov munosabatli bog`langan qo`shma gapni aniqlang.
A. U davra o`rtasida o`tirdi-da, so`zlay boshladi.
B. Ajabo, film namoyishi tugadi-yu, hech kim joyidan qimirlamadi.
C. Yo`l yurib charchagan Roziq ko`rpaga kirdi-yu, uyquga ketdi.
D. Ummatali Nafisani ko`pda ko`rmasa ham, haftada bir ko`rib turadi.
10. Bog`langan qo`shma gapni toping.
A. U tabiat go`zalligining takomili va inson latofatining ayni mujassami edi.
B. Uning behad chiroyli ko`zlari iffat va hayo bilan ma'sum bo`lardi.
C. Uyga yaqinlashganda boshidagi durrachasini tuzatdi, qo`lidagi tugunchani esa yerga qo`ydi.
D. Tabiiyki, har ikkisi birlashgan joyda jahon guliston bo`ladi.



2 - amaliy mashg'ulot

Mavzu: Havola bo'lakli qo'shma gaplar

Mavzu: Havola bo'lakli qo'shma gaplar

1. Ergash gaplarning tasnifiga doir.
2. Havola bo'laklarning ifodalanish usullari.
3. Havola bo'lakli qo'shma gaplarning turlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Ergashgan qo'shma gap haqida nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O'quv faoliyati natijalari: Ergashgan qo'shma gap to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlaydi;

2-topshiriq. Ergashgan qo'shma gaplarning turini aniqlang. Bosh va ergash gaplarni farqlang: bosh gapning tagiga to'g'ri chiziq, ergash gapning tagiga esa to'lqinli chiziq chizing. Biriktiruvchi vositani doira ichida ko'rsating. Havolani aniqlang va ergash gap tomonidan izohlanishini tushuntiring.

Namuna: *Kim vijdonan mehnat qilsa, u rohat ko'radi.*

1. Qaysi birlaringda jahlu g'azab qo'zisa, darhol u sukut saqlashga o'tsin. (Hadis). 2. Hozirdanoq ko'rinib turibdiki, dangasalik, ayyorlikni bilmaydigan yigitga o'xshaysiz. (A.Q.) 3. Bu uning laqabimi, rostakam ismimi – hech kim bilmasdi. (As.M.) 4. Qaysi bir xalqda kitobxonlik yuqori bo'lsa, o'sha xalqning kelajagi porloq bo'ladi. 5. Yordam shundan iboratki, seni boshliq bilan uchrashtirib qo'yaman. 6. Uning bu dunyoda hech ham armonlari qolmadi, deb o'ylayman. 7. Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, o'zga xalqlar ibrat ola bilsinlar. (O.) 8. Qaysi odam ishga yaxshi niyat bilan yondashsa, biz o'sha kishini hurmatlaymiz. 9. Kim ishdan bir nima chiqishiga ishonrsa, usta o'sha. (A.Q.) 10. Bu hovlida nimaiki bor bo'lsa, hammasi u uchun qadrli edi.

3-topshiriq. *Havola bo'lakli qo'shma gaplarga badiiy asardan 10ta misol to'plang va tahlil qiling.*

1. Havola bo'lakli qo'shma gap berilgan qatorni toping.
 - A. Anzirat shuni biladiki, rais xotin-qizlarga bir og'iz ham gapirmagan.
 - B. Kimki daraxtlarni asrab qololsa, o'sha haqiqiy o'rmonchi bo'la oladi.
 - C. Shunisi ajablanarliki, qovjiragan o'tloqlar yomg'irdan qorayib tilkalanib ketgan.
 - D. Barcha javoblar to'g'ri
2. Havola bo'laklar simmetrik qo'llangan ega ergash gapli qo'shma gapni toping
 - A. Kimki hayotga xumrayib boqsa, hayot ham unga xo'mrayib boqadi.
 - D. Qozonga nima tushsa, cho'michga ham o'sha chiqadi
 - C. Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi
 - D. B va C.
3. Havola bo'laklar asimmetrik qo'llangan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni toping
 - A. Xalq seni himoya qilmasa, sen xalqdan o'pkalama.
 - V. Kimki samimiy va pokdil bo'lsa, uni hamma hurmat qiladi.
 - S. Ishonamanki, u erda sizni yaxshi kutib olishadi.
 - D. Agar mening o'rnimga qolsa, sen unga farzanddek sodiq bo'l.

4. Kim birovga chuqur qazisa, unga o‘zi tushadi. Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A. kesim ergash gap
- B. to‘ldiruvchi ergash gap
- C. ega ergash gap
- D. aniqlovchi ergash gap

5. Kim sening kamchiliklaringni to‘g‘ri aytsa, u sening haqiqiy do‘stingdir. Ushbu gap turiga ko‘ra qanday gap?

- A. kesim ergash gap
- B. ega ergash gap
- C. to‘ldiruvchi ergash gap
- D. aniqlovchi ergash gap

6. Botir fahmladiki, qushning bolalari har yili shu ajdarga yem bo‘lar ekan. Ushbu gap ergash gapli qo‘shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap
- B. ega ergash gapli qo‘shma gap
- C. aniqlovchi tobe gapli qo‘shma gap
- D. hol ergash gapli qo‘shma gap

7. Boy bo‘lay deb, izzatingdan ayrilma. Ushbu gap qo‘shma gapning qaysi turiga mansub?

- A. hol ergash gapli qo‘shma gap
- B. ega ergash gapli qo‘shma gap
- C. kesim ergash gapli qo‘shma gap
- D. to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap

8. Buni esdan chiqarmang: shu ozod va obod vatan barchamizniki. Ushbu gap tobe gapning qaysi turiga mansub?

- A. aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap
- B. to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap
- C. ega ergash gapli qo‘shma gap
- D. hol ergash gapli qo‘shma gap

9. Kim devorning narigi tomonida bo‘lsa, u omon qoldi. Ushbu gap ergash gapning qaysi turiga mansub?

- A. aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap
- B. to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap
- C. ega ergash gapli qo‘shma gap
- D. hol ergash gapli qo‘shma gap

10. Nisbiy so‘zlar ishtirok etgan gaplarda ko‘rsatish olmoshi qaysi gap tarkibida bo‘ladi?

- A. hokim gap tarkibida
- B. tobe gap tarkibida
- C. hokim va tobe gap tarkibida
- D. hokim yoki tobe gap tarkibida

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o‘ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

1-guruh

1-guruh

Savol	To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap va uning turlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

2-guruh

Savol	Hol ergash gapli qo'shma gap va uning turlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

3 – amaliy mashg'ulot

Mavzu: Hol ergash gapli qo'shma gap

1. Hol ergash gapli qo'shma gaplarning tasnifiga doir.
2. Hol ergash gapli qo'shma gaplarda havola bo'lak haqida.
3. Havola bo'lakli va havola bo'laksiz hol ergash gapli qo'shma gaplarning turlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Hol ergash gapli qo'shma gaplar haqida nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O'quv faoliyati natijalari: Hol ergash gapli qo'shma gaplar to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlaydi.



1- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Hol ergash gapli qo'shma gaplar tasnifi haqida ma'lumot bering.
2. Havola bo'lakli va havola bo'laksiz hol ergash gapli qo'shma gaplar.
3. Ravish ergash gapli qo'shma gap va ravish holli sodda gaplarni qiyoslang, misollar keltiring.
4. O'lchov daraja ergash gapli qo'shma gaplarning grammatik xususiyatlari.
5. Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gapli qo'shma gaplar.
6. O'rin ergash gapli qo'shma gaplar va o'rin holi.
7. Payt ergash gapli qo'shma gap va payt holli sodda gaplar.



2- topshiriq. Ergashgan qo'shma gaplarning turini, ergash gap va bosh gapni biriktiruvchi vositani aniqlang. Sxematik tahlil qiling.

1. Odam qancha ko'p qiziqsa, shuncha ko'p o'qiydi. 2. Olimlarning kuzatishicha, er-xotin qancha kam gaplashsa, oila shuncha mustahkam bo'lar ekan (O'.H.). 3. Qaysi yurtda non arzon bo'lsa, o'sha erga ko'chib yuradigan odamda Vatan tuyg'usi bo'lmaydi (O'.H.). 4. Qayerda yaxshi imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa, hammamiz o'sha yerga borib ishlashga intildik. 5. Qayerda aytadigan gapingiz bo'lsa, shu yerda gapiravering (S.A.). 6. Ko'z qayerda bo'lsa, mehr ham shu erda (Maqol). 7. Men yig'lasam, u ho'ngraydi (O'.H.). 8. Onasi qancha qistasa-da u ovqatga o'tirmadi. (O'.H.) 9. Bir sayyoh qaysi yutga borsa, avval bozorini, keyin mozorini aylana ekan (O'.H.) 10. Qattiqroq yomg'ir yog'sa, balchiqqa aylanib ketadi-yov (O'.H.) 11. Qachon chaqirsangiz, darrov hozir bo'ladi. 12. Esini tanibdiki, odam bo'lsam, nimadir yaxshi ish qilsam, deydi (O'.H.) 13. Qanday etib borgan bo'lsangiz, shunday qayting. (A.M.).

3- topshiriq. Berilgan gaplarning turini aniqlang va tahlil qiling.

1. Ganga hali ham uzoqlarda yog‘ayotgan jala suvlariga to‘lib, loyqalanib oqayotgan bo‘lsa-da, yer asta-sekin quriy boshladi (J.Abd.). 2 Tabiat qancha o‘jar bo‘lmasin, ular qaysarlik bilan yana kulba tiklaydilar (C.Ahm.). 3. Saidiyning e‘tibori qancha ortsa, daromadi ham shuncha orta bordi. (A.Q.) 4. Chiqsam, soch qo‘ygan, ingichka mo‘ylovli bir yigit turibdi. (C.A.) 5. Bir kun kishilar bir piyola choy ustida sen bilan bizni eslab qo‘yishsa, bas. (J.Abd.) 6. Yo‘l sal o‘ng‘aysiz bo‘lsa, darhol Komilaga ko‘maklashishga tirishar edi. 7. Sening yuraging guli qayda ochilur bo‘lsa, bulbuli shunda sayrar. (H.H.) 8. Kim tirishib ishlasa, o‘sha kishi mehnatda ilg‘or bo‘ladi. 9. Ko‘z tegmasin, xushro‘y yigit ekansiz, deb O‘lmasning boshidan hokandozni uch marta aylantirdi. 10. Asar yozishga o‘tirdimi, tamom, boshqa narsani unutadi (C.A.).11. U qancha ko‘p yursa, shuncha tez charchab qolardi (C.A.). 12. Mashina kelsa, chamadonni tashlab qo‘yadi (C.A.). 13. Qachon bolalari kelsa, o‘shanda kampirning uyi to‘ladi (C.A.). 14. Xonangiz qanday tashlab ketgan bo‘lsangiz, shunday turibdi (C.A.). 15. Boshqa soha odami suhbatga aralashib qoldimi, albatta qancha pul olishini so‘raydi (C.A.).

4- topshiriq. Badiiy asardan shartlanganlik munosabatli qo‘shma gaplarga misollar keltiring va tahlil qiling.

5- topshiriq. Test savollari.

1. Berilgan qo‘shma gaplarning qaysilari havola bo‘lakli qo‘shma gap sanaladi?

1. Kimning himmati baland bo‘lsa, uning qadr-qimmatini ham baland bo‘ladi.

2. Shuni bilki, yalqovlik muhtojlik eshigidir.

3. Kimningki qo‘lidan yaxshilik kelmasa, u yomonlik qilishdan saqlansin.

4. Kishi dardiga kim hamdard emasdir, kishi nazdida ul mard emasdir.

A)1,3 B)2,4 C)1,2,3 D)1,2,3,4

1. Har kimki hayotga xo‘mravayib boqsa, hayot ham unga zarfa bilan qaraydi.

Ushbu qo‘shma gap turi haqida bildirilgan to‘g‘ri hukmni aniqlang.

1) to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap

2) ergash gapli qo‘shma gap

3) nisbiy so‘zlar yordamida hosil bo‘lgan qo‘shma gap

4) havola bo‘lakli qo‘shma gap

A)1,3 B)2,3 C)1,3,4 D)2,3,4

2. Berilgan qo'shma gaplarning qaysi birida ergash gap bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi bilan ifodalangan egani izohlab kelgan?

- A)Umidim uldurkim, so'zim martabasi avjdin quyi inmagay
- B)Kishi dardiga kim hamdard emasdir, Kishi nazdida ul mard emasdir.
- C)Kimki birovgacha choh qazisa, unga o'zi tushadi.
- D)Kimki yaxshi bo'lsa, doimo oshini yeydi.

3. Berilgan maqollarning qaysi biri "egasi ifodalangan gapQegasi umumlashgan gap"qolipida tuzilgan qo'shma gapdan iborat?

- A)Tuyog`iga ursang,shoxi zirqiraydi.
- B)Eshik ochiq bo'lsa ham ,so'rab kir.
- C)Hurmat qilsang,hurmat ko'rasan.
- D)Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi.

4. Berilgan maqollarning qaysi biri "egasi ifodalangan gapQegasi umumlashgan gap"qolipida tuzilmagan?

- A.Eshik ochiq bo'lsa ham , so'rab kir
- B)Boshingga qilich kelsa ham rost gapir.
- C)Dono bilan yo'l yursang,uzoq yo'ling yaqindir
- D)A va B

5. Qismlari egasi ifodalangan gapQegasi ifodalanmagan gap tarzida qurilgan ergashgan qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A)Qayerda ilm-u ma`rifat kuchli bo'lsa,o'sha yer baxt maskanidir.
- B)Ona yurtning omon bo'lsa,rang-u ro'ying somon bo'lmas.
- C)Agar shu topshiriqni bajarmasa,obro'yi bir pul bo'ladi.
- D)Shunday yaxshi odatlarimiz borki,ularga hurmat bilan qarash lozim.

6. Qismlari yig`iq gapdan iborat ergashgan qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- 1.Bilimli o'zar,bilimsiz to'zar.
 - 2.Odam borki,odamlarning naqshidir.
 - 3.Qor yog`di,go'yo don yog`di
 - 4.Yovlar yakson bo'lsin deb,yigitlar kurashdi.
- A)2,3 B)3,4 C)2,3,4 D)1,2,3,4

7. Shart ma'nosi ifodalangan qo'shma gap berilgan qatorni toping.

- A. Kimki buni tushunmabdi, u katta xatoga yo'l qo'yadi.
- B. Tog'asi qancha qizishsa, Oyqiz o'zini shuncha og'irlikka solardi.
- C. Har qancha uzr aytsam ham, inobatga olmadi.
- D. Bahor kelsa, kunlar isiydi.

8. Tog'day og'ir bilak berdim, yovlarni mushtlasin deb. Ergash gapning turini toping.

- A. ravish ergash gap
- B. maqsad ergash gap
- C. sabab ergash gap
- D. to'ldiruvchi ergash gap

10. Matnda tobe gap hokim gapdan qanday tinish belgisi bilan ajratilishi mumkin?

- A. faqat vergul yordamida
- B. faqat ohang yordamida
- C. nuqtali vergul, vergul, tire, ikki nuqta yordamida
- D. vergul, nuqta yordamida

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rnatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	Ravish ergash gap va uning turlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	O'rin ergash gap va uning turlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

5 - amaliy mashg'ulot Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplar

5 - amaliy mashg'ulot Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplar

1. Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplarning tasnifiga doir.
2. Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplarning mazmuniy xususiyatlari haqida.
3. Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplarning turlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplar haqida nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O'quv faoliyati natijalari: Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplar to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlaydi;

1- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplarning semantik-sintaktik xususiyatlari.
2. Sabab ergash gapli qo'shma gaplar.
3. Maqsad ergash gapli qo'shma gaplar.
4. Shart ergash gapli qo'shma gaplar.
5. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar.
6. Natija ergash gapli qo'shma gaplar.

4-ilova

2 - topshiriq. Shartlanganlik munosabatli ergashgan qo'shma gaplarni tahlil qiling.

1. Sohil bo'yidagi tepalikka yugurib chiqdim, chunki atrofni yaxshiroq ko'rmoqchi edim (J.C.). 2. Sening xatlaringga javob yozay deb, kechgacha o'tirdim. 3. Agar bir kishiga aql bilan shirinso'zlik yor bo'lsa, bunday odam har narsa haqida to'g'ri fikr yuritishni ixtiyor qiladi (A.N.). 4. O'yinga shunday berilib ketamizki, ketgim kelmay qoladi (Ch.A.). 5. Bugun norasmiy o'tirish bo'lsa ham, baribir, gapirmaganiga qo'ymadik (C.A.). 6. Davraga o'zi bosh bo'lsa, latifalar aytib hammani kuldiradi (C.A.). 7. Barabanchilar barabanga shu darajada urdiki, o'rmon larzaga keldi (Ch.A.). 8. U o'z xayollariga shunchalik berilib ketgan ediki, hatto qayerda yotganini ham unutdi (Ch.A.). 9. Bolaga shunday vahimani tuyuldiki, tomog'idan ovqat o'tmay qoldi (Ch.A.). 10. Ertalabki g'avoda aylanib yurgan edim, rais qo'lida gazeta bilan mashinadan tushdi (S.A.). 11. Xonadon egalarini mushkulingiz oson bo'lsin, deb duo qilib o'tib ketadi (S.A.). 12. Qumrining ko'ngli bir nimani sezdi, ko'cha boshiga yetmay mashinadan tushib qoldi (S.A.). 13. Ko'cha oshi kambag'allar ovqati deb, uni ta'qiqlab qo'ygan edilar. (S.A.). 14. Kiyimlariga tumor-u ko'zmunchoqlar taqib qo'yardi, toki uni yomon ko'zdan asrasin (S.A.). 15. Adresni unutib qo'yganmi, ishqilib shu o'rischagina xat ham kelmay qo'ydi (S.A.). 16. Akam bironvga tekinga bitta tugma qadab qo'ydimi, o'sha kuni joni chiqib ketadi (S.A.). Baxti qaro qizini deb shu ishga qo'l urdi (Ch.A.).

5-ilova

3 - topshiriq. Shartlanganlik munosabatli ergashgan qo'shma gaplarga badiiy asarlardan 10ta misol to'plab, tahlil qiling.

6-ilova

4 - topshiriq. Shartlanganlik munosabatli ergashgan qo'shma gaplar yuzasidan test topshiriqlari.

1. Quyidagi bog'lovchilarning qaysi biri ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda tobe gap tarkibida keladi?

A. agar B. shuning uchun C. natijada D. -ki, -kim

2. Quyidagi bog'lovchilarning qaysi biri ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda hokim gap tarkibida keladi?

A. chunki B. agar C. go'yo D. oqibatda

3. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda tobe gap boshida keluvchi bog'lovchilarni toping.

A. chunki, zotan

B. shuning uchun, shu tufayli

C. natijada, oqibatda

D. deb, -ki, (-kim)

4. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda hokim gap boshida keluvchi bog'lovchilarni toping.

- A. zero
- B. garchi
- C. agar
- D. oqibatda

5. Ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplarda hokim gap oxirida keladigan bog'lovchini aniqlang.

- A. zero
- B. deb
- C. -ki, -kim
- D. natijada

6. Qo'shma gap tarkibidagi tobe gap oxirida keladigan bog'lovchini toping.

- A. go'yo
- B. zero
- C. deb
- D. -ki, -kim

7. Qaysi qatorda sabab ma'nosi ifodalangan gap berilgan?

- A. Bolalar chiniqsin deb, turli musobaqalar o'tkazildi
- B. O'rtoqlarim kelishdi deb, ko'chaga chiqdim
- C. Avlodlarga qolsin deb, mustahkam va ko'rkam inshootlar bunyod etilmoqda.
- D. Ukam o'qiydi deb, kitobni kutubxonadan oldim.

8. deb bog'lovchisi qaysi hollarda sabab sa'nosini bildiradi?

- A. buyruq va shart maylidagi fe'ldan keyin kelsa
- B. kelasi zamon fe'lidan keyin kelsa
- C. buyruq va shart mayli, kelasi zamon fe'lidan keyin kelsa
- D. o'tgan zamon fe'llaridan keyin kelsa

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	Sabab ergash gapli qo'shma gap va uning turlari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Maqsad ergash gapli qo'shma gap va uning turlari
-------	--

(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

6 - amaliy mashg'ulot Murakkab qo'shma gaplar

6 - amaliy mashg'ulot

Murakkab qo'shma gaplar

1. Murakkab gaplarning tasnifiga doir.
2. Murakkab qo'shma gap qismlarining birikish usullari.
3. Murakkab qo'shma gaplarning turlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplar haqida nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O'quv faoliyati natijalari: Murakkab qo'shma gaplar to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlaydi;

☞ 1- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Murakkab qo'shma gaplarga xarakteristika bering.
2. Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar va ularning turlari.
3. Birgalikda ergashishli murakkab qo'shma gaplar.
4. Ketma-ket ergashishli murakkab qo'shma gaplar.
5. Bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplar.
6. Aralash tipdagi murakkab qo'shma gaplar.

☞ 2-topshiriq. Murakkab qo'shma gaplarning turlarini aniqlang, sxemasini chizing.

1. Rubobdan chiqayotgan ohanglar qanchalik go'zal bo'lmasin, Jannatxon ashula boshlagach, ular ham ikkinchi o'ringa tushib qoldi. (P.Q.) 2. Otaquzi kirganda, hali davom etayotgan kulgi, g'ala-g'ovur birdan tinib, xona suv quyganday jim-jit bo'lib qoldi. (O.Yo.) 3. Tog' yo'llari emasmi, mashina har silkinganda, u qalqib-qalqib ketadi. 4. Nazokat uning ovozi eshitmadi, chunki xayoli Po'latjonda, ko'zi uzoqlarda yongan chiroqlarda edi. (C.A.) 5. Qizimning yana bir yaxshi tomoni shundaki, qo'li ochiq, dili pok. 6. Yurak baquvvat bo'lsa, ish ham unumli bo'ladi, kishi charchamaydi. 7. Agar siringni asrasang, u sening asiringdir, agar u oshkora bo'lsa, sen siringning asiri bo'lib qolasan. (Ibn Sino). 8. Quyosh botgan, biroq atrofdagi bog'lar, sarvqomat teraklar, uzoqda oqarib turgan tog' cho'qqilari hamon mayin nur pardasi bilan o'ralgan, go'yo quyosh butun borliqni nafis bo'yoqlar bilan bo'yagan-u, bu bo'yoq hali qurimagan edi. (O.Yo.) 9. Qush uchganda, kuymas qanoti, Odam o'tsa, qurimas zoti. (H.O.) 10. Shunday odamlar borki, o'zi chiroyli-yu, lekin qalbi sovuq. 11. Aql shunday xazinaki, qancha ko'p ishlatsangiz, shuncha to'lishib boraveradi. 12. Donolik bilan nodonlik shu qadar yaqinki, odam donolikni qancha ko'p da'vo qilsa, shuncha nodon bo'ladi. (O'.H.) 13. Qaysi yurtda qonunlar hokimlar ustidan hukmron bo'lsa, hokimlar esa qonunga qul bo'lsa, o'sha erga xudoning ne'matlari yog'ilib turadi. (O'.H.) 14. Yuzi shu qadar tiniq, qosh-ko'zi, lablari shu qadar mutanosib, shu qadar jozibali ediki, rahmatli Chingiz Axmarov tirilib qolsa, o'zbek madonnasini shu ayolga qarab chizgan bo'lardi. (O'.H.) 15. Boshimga tashvish tushsa, bir narsadan qattiq siqilsam, onam tushimga kiradi.

☞ 3- topshiriq. Badiiy asardan murakkab qo'shma gaplarning turlariga misollar topib yozing, sxemasini chizing va tahlil qiling.

☞ 4 – topshiriq. Murakkab qo'shma gap bo'yicha test savollari.

1. Aralash murakkab qo'shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A)Kampirning katalakday hovlisi misoli tandır: quyosh lovullab qizdiradi-yu, atrof uylar bilan o‘ralgani uchun qilt etgan shabada yurmaydi.
- B)Feruza uning javdirashlariga ko‘pda e‘tibor bermaydi, biroq kampir shu qadar sezgirki,suhbatdoshi ne ko‘ydaligini darrov bilib oladi.
- C)Mayli, bizga saboq bo‘lmasin, lekin dunyo biz bilan tugamaydi,ortimizda farzandlarimiz bor.
- D)barcha javoblar to‘g‘ri

2. Ergashish va bog‘lanish yo‘li bilan tuzilgan aralash murakkab qo‘shma gap qaysi qatorda berilgan?

- A)Kampirning katalakday hovlisi misoli tandır:quyosh lovullab qizdiradi-yu, atrof uylar bilan o‘ralgani uchun qilt etgan shabada yurmaydi.
- B)Feruza uning javdirashlariga ko‘pda e‘tibor bermaydi,biroq kampir shu qadar sezgirki,suhbatdoshi ne ko‘ydaligini darrov bilib oladi.
- C)Mayli,bizga saboq bo‘lmasin,lekin dunyo biz bilan tugamaydi,ortimizda farzandlarimiz bor.
- D)barcha javoblar to‘g‘ri

3. Teng bog‘lanish va bog‘lovchisiz yo‘l bilan tuzilgan aralash murakkab qo‘shma gap berilgan qatorni aniqlang.

- A)Kampirning katalakday hovlisi misoli tandır:quyosh lovullab qizdiradi-yu, atrof uylar bilan o‘ralgani uchun qilt etgan shabada yurmaydi.
- B)Firuza uning javdirashlariga ko‘pda e‘tibor bermaydi,biroq kampir shu qadar sezgirki,suhbatdoshi ne ko‘ydaligini darrov bilib oladi.
- C)Shuni unutmangki,siz kelajagimizsiz va butun umidimiz sizlardan.
- D)barcha javoblar to‘g‘ri

4. Bir necha ergash gapli qo‘shma gapni toping.

- A. Maktab yoshlik gulshani, bolalar esa uning bebaho nihollari, o‘qituvchilar bu boning oqil mirishkor bobonlaridir.
- B. Miltiq o‘qi insonning turli joyiga tegishi mumkin, lekin tildan otilgan o‘qning nishoni bitta: u faqat inson qalbiga tegadi.
- C. Mansabi va shuhratini ko‘zlab, o‘z xalqining manfaatini o‘zgalarga sotadigan xoindan shu elning iti afzal, chunki u o‘z elatiga vafo qiladi va uni yovuzlardan asraydi.
- D. Kim o‘ylasa ona yerini, vatanim deb kim mehnat qilsa, shu baxtiyor xalq taqdirini o‘zi uchun taqdir deb bilsa, unda inson fazilati bor.

5. Bir necha ergash gapli qo‘shma gapni aniqlang.

- A. Hali oftob chiqmagan, ammo osmon bo‘zarib qolgan, yulduzlar mudroq ko‘zlarni yumgan edi.
- B. Teraklarning yaproqlari asta shivirlar, ariqlarda suvlar shildirar, soya-salqin boda qushlar chug‘urlashar edi.
- C. Men oldinda o‘tirsam, boshqalar doskani ko‘rishmaydi, Shodivoy orqaga o‘tsa, u hech nimani ko‘rolmay qoladi.
- D. Quyosh tabiatga jon kiritganidek, yer insonga rizqu ro‘z berganidek, ona ham o‘z farzandiga qalb qo‘rini, mehrini baxshida qiladi.

6. Aralash qo‘shma gapni aniqlang.

- A. Yurak talpinib, quvonchlar cho‘lab, har daqiqani sanayman.
- B. Yurak baquvvat bo‘lsa, ish unumli bo‘ladi va kishi charchamaydi.
- C. Eshaklarda suv sachraganda, bola xursand bo‘lib qaqirlaganda, ona behad shodlanardi.
- D. Yo‘lchining farishtaday singlisi bor, bir mahsido‘z cholning qo‘lida, qiz ham kosiblikda farang, tikkan mahsullari misoli bir gul.
- E. Ishdan charchab kelganingda, tashnaliging bosilsin deya, qimiz berdim kosa to‘ldirib.

7. Bir necha ergash gapli qo‘shma gapni aniqlang.

- A. Tashqari yorug bo'lsa-da, eshik yopilgani uchun, uy qoroni edi.
 B. Men oldinda o'tirsam, boshqalar doskani ko'rishmaydi, Shodivoy orqaga o'tsa, u hech nimani ko'rolmay qoladi.
 C. Teraklarning yaproqlari asta shivirlar, ariqlarda suvlar shildirar, soya-salqin bolarda qushlar chug'urlashar edi.
 D. Hali oftob chiqmagan, ammo osmon bo'zarib qolgan, yulduzlar mudroq ko'zlarni yumgan edi.

8. Allakim shunaqangi o'yinga tushib ketdiki, yer larzaga keldi, changi osmonga ko'tarildi. Ushbu gapda ergash gaplarning qaysi turi mavjud?
 A. Daraja-miqdor va natija ergash gaplar.
 B. Natija va natija ergash gaplar.
 C. O'xshatish va natija ergash gaplar.
 D. Aniqllovchi va natija ergash gaplar.

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rnatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting
 S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating
 M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring
 U – fikringizni umumlashtiring

1-guruh

Savol	Bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

6 - amaliy mashg'ulot O'zga gapli qurilmalar

va

Mavzu: O'zga gapli qurilmalar

- O'zga gapli qurilmalarning tasnifiga doir.
- O'zga gapli qo'shma gaplarning mazmuniy xususiyatlari haqida.
- O'zga gapli qo'shma gaplarning turlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zga gapli qo'shma gaplar haqida nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O'quv faoliyati natijalari: O'zga gapli qo'shma gaplar to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlaydi;

✎ 1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O'zga gapli qurilmalar va ularning hosil bo'lishi.
2. Ko'chirma gap va uning belgilari.
3. Muallif gapi va uning belgilari
4. O'zlashtirma gap va uning belgilari

✎ 2-topshiriq Matnda berilgan ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantiring, o'zlashtirish jarayonidagi sintaktik qurilishni xarakterlang.

1. - Bu qamchini ko'rsatsang hech kim sening yo'lingni to'smaydi, - debdi podsho cho'ponga (S.A.). 2. - E voh! - deb nola qilibdi podshoh, - demak mening xonadonimdan hech kim qolmabdi-da? (S.A.). 3. - Ey aziz do'stim, sendan qamchi ta'ma qilayotganim yo'q, - debdi ko'zi ochiq kishi, ammo hamrohlikning shartlaridan biri - yo'ldoshi xatarda bo'lsa, uni xabardor qilishdir. (S.A.). 4. Eng yaxshi tadbir shuki, dedi sichqon, - men bir uzun ip topaman. (S.A.). 5. Ajabo! Bir odamni saqlab qolmoq uchun meni o'ldirasanmi? - debdi ilon (S.A.). 6. "Kim mas'uddir - undan ajralmoqlikni, kim baxtlidir - qayg'urmoqlikni o'rgansin", - debdi donishmand shogirdiga (S.A.). 7. "Siz bilan biz bir oilaning farzandimiz", - dedi rais. 8. "Bolalarim, yoshlikni g'animat biling, faqat o'yin-kulgi, kayf-safo bilan yoshlik davringizni zoye etmang", - deydi Xurramiy.

✎ 3-topshiriq. Matnni o'qing. Ko'chirma gap va muallif gapining bosh bo'laklarini o'zlashtirma gapga aylantirilgandagi sintaktik holatini izohlang.

Roviylar derlarkim, bir podshoh "hayotni o'rganib kel", deb o'g'lini dunyo safariga yuboribdi. Oradan oylar o'tib, shahzoda saroyga qaytib, bir qo'lida tuproq, yana birida tosh bilan otasiga ro'para bo'libdi.

- Dunyo kezib topganing shu bo'ldimi? - deb ranjibdi podshoh. - Xo'sh, bularingdan qanday ma'no uqmog'im kerak?

- Podshoh qanchalar ulug', qanchalar qudratli bo'lmasin, u tuproqdan yaralgan va oqibat yana tuproqqa aylangusi. Shunday ekan, to asliga qaytguniga qadar Allohga maqbul ishlarni qilishi, ya'ni raiyatga mehr-muhabbatda bo'lmog'i shart ekan. Toshning ma'nosi esa: xazinadan yaxshilik yo'lida foydalanilmas ekan, undagi oltin javohirning qadri bilan bu toshning qiymati bir xildir, - debdi shahzoda otasiga va bir rivoyat aytibdi:

Ziqna boy dalaga chiqib, xurjun to'la oltinini ko'mib qo'yibdi-da, xazina ko'milgan erni har kuni ziyorat qilaveribdi. Qo'shnisi bir joyga uzoq tikilib turuvchi boyning bu qiligidan ajablanib, o'sha yerni kavlabdi-da, oltinlarni olib, o'rniga tosh solib qo'yibdi. Ziqna boy bir kuni oltinlarining yuzini silab, rohatlanish maqsadida erni kavlasaki, xazina yo'q! Alamdan dod solib turganida qo'shnisi yaqinlashib, ne hol yuz berganini so'rabdi.

- Oltinlarimni sarf qilmay shu erga ko'mib qo'ygan edim, kimdir o'g'irlab, o'rniga tosh tashlab ketibdi, - deb javob beribdi boy.

- Bekorga yig'layapsan, - debdi qo'shnisi. - Sen kuyinmagin-da, toshni joyiga ko'mib, har kuni ziyoratingni qilaver. Sarf qilmaganingdan keyin bu chuqurchaga tosh ko'milganmi yo oltinmi, sen uchun nima farqi bor?

O'g'lidan bu rivoyatni eshitgan podshoh achchiqlanibdi-da:

-Demak, seningcha, boylik to'plab, saqlash shart emas ekan-da? - debdi.

- Boylikka ega bo'lmaslik yomon, boylikka ega bo'la turib, undan oqillik bilan foydalana olmaslik undan-da yomonroq, - deb javob bergan ekan dono shahzoda.

6-ilova

Fan bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
3. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2002, -290 bet.
4. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2011, 260 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Sh.Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.56 B.
6. Sh.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
7. Sh.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
1. Sh.Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –“O'zbekiston” -2017.104 B.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014. -46 b.
4. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
12. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
13. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,“Universitet” nashriyoti.

14. Yunusov. O`zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
15. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o`zbek adabiy tili. «O`zbekiston», Toshkent. 1992-yil.
12. Masharipova Z. O`zbek xalq og`zaki ijodi. T., 2008.
13. Vilgelm fon Gumbol`dt. Inson tili tuzilishining har xilligi va uning inson naslining ma`naviy taraqqiyotiga ta`siri. T.,1969.

Elektron ta`lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
4. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
5. tdpu-INTRANET. Ped
6. Boduen de Kurtene I. A. Izbranno`e trudo` po obshemu yazo`koznaniyu.-M. 1963 g.
7. Ferdinand de Sossyur. Kurs obshey lingvistiki.-Moskva. 1916 g.
8. Baskakov N .A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazo`kov. 1969.
9. V.M, Solntsev Yazo`k kak sistemno-strukturnoe obrazovanie, - M., 1971.
10. Vilgelm fon Gumbol`dt. Inson tili tuzilishining har xilligi va uning inson naslining ma`naviy taraqqiyotiga ta`siri. T.1959.
11. V.V.Vinogradov. Russkaya grammatika. Moskva.1962.

Mustaqil ta'lim mazmuni

7-semestr			
Qo'shma gap va uning asosiy belgilari.	<p>1-topshiriq Qo'shma gap va uning asosiy belgilarini misollar yordasida ko'rsatib bering, uni sodda gapga qiyoslab tavsiflang.</p> <p>2-topshiriq. Qo'shma gapning qurilish materiali, qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar haqida ma'lumot bering.</p> <p>3-topshiriq. Quyidagi gaplarni tuzilishiga ko'ra tahlil qiling,grammatik asoslarining tarkibini ko'rsating: Er-xotin bir-birlariga shunchalik o'rganib ketishgan ediki, bir imo bilan Oybekning nima demoqchiligini Zarifaxonim bilib olardi Buvim xuddi shunaqa mahal ariq bo'yida piyola yuvaradi,barmog'idagi uzugi piyolaga tekkanda chiq-chiq etib ovoz chiqazardi</p>	1-hafta	4
Bog'langan qo'shma gap	<p>1-topshiriq Bog'langan qo'shma gap va uning turlari haqida ma'lumot bering va bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlab, turlarga ajrating, ularning qo'llanish xususiyatlari haqida gapiring.</p> <p>2-topshiriq. Quyidagi gapning turini, bog'lovchi vositalarni belgilang, bosh bo'laklarning tagiga chizing, ustiga nima bilan ifodalanganini yozib ko'rsating. Mehnatsiz hayot o'g'irlikdir, san'atsiz hayot esa vaxshiylikdir.</p>	2-hafta	4
Ergash gapli qo'shma gaplar va ularning turlari.	<p>1-topshiriq. Quyidagi ergash gapli qushma gaplarning turini aniqlang, ergash gap va bosh gaplarning tagiga tegishli chiziq chizing, sxemasini chizib ko'rsating, bog'lovchi vositalarni belgilang. Luqmoni Hakim o'z o'g'liga dedi: -ey o'g'lim, yalqovlik ko'chasiga kirma, ko'ngling tor bo'lmasin, chunki kimda yalqovlik va besabrlik bo'lsa, u hech qachon baxtga erisha olmaydi! («Jovidoni Hirad»). Er yuzida shunday yashashga urinki, topgan puling faqat to'g'rilik orqali kelgan bo'lsin! (Abdibek Sheroziy). Halol mehnat bilan topilgan va xayrli ishlarga sarflangan boylikdan ko'ra yaxshiroq boylik yo'q! (Otalar so'zi). G'aflat uyqusidin uyg'on, gar tilar bo'lsang murod, kim etar maqsadg'a, har kim bo'lsa bedorroq (Bobur). Biz shunday lirik she'rlar, lirik qo'shiqlar yarataylikki, ular mehnatkash ommaning ichiga kirib ketsin.</p> <p>2-topshiriq. Ergash gapli qo'shma gaplar va ko'chirma gapli</p>	3-hafta	4

	<p>qo'shma gap munosabati haqida ma'lumot bering.</p> <p>3-topshiriq. Ergash gaplarning sintaktik vazifasiga va ma'nosiga ko'ra turlari haqida gapiring.</p> <p>4-topshiriq. Bosh va ergash gapga semantik-sintaktik tavsif bering, ularning o'rni-tartibi haqida ma'lumot bering, buning sabablarini tushuntiring.</p>		
Bog'lovchisi z qo'shma gap va ularning turlari.	<p>1-topshiriq. Ergash gapli qo'shma gaplar va ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplarni qiyosiy talqin qiling.</p> <p>2-topshiriq. Bog'lovchisiz qo'shma gapning bog'langan qo'shma gapga sinonimligini, o'xshashligini ko'rsatuvchi belgi-xususiyatlarini misollar yordamida ko'rsating.</p> <p>3-topshiriq. Quyidagi gaplarni bog'lovchi vositalariga ko'ra turini aniqlang. Ota-ona uchun o'g'ildan ko'rgan rohat haqiqiy rohat, qolgani minnatliday tuyilaveradi.. Ota-onangiz o'tgandan keyin, o'zingizni sinamoq uchun ham ularni taniydiganlar bilan bir suhbatlashib ko'ring-tamoman yangilanasiz, yuragingiz suv ichganday bo'ladi.</p> <p>4-topshiriq. Bog'langan yoki ergashgan gapga aylantirib bo'lmaydigan bog'lovchisiz qo'shma gaplarga misollar toping, buning sabablari haqida ma'lumot bering.</p>	4- hafta	4
Murakkab qo'shma gap va ularning turlari.	<p>1-topshiriq. Murakkab qo'shma gaplarning yuzaga kelishi, ularning bog'lanish yo'li bilan tuzilgan, ergashish yo'li bilan tuzilgan, ham tenglanish (bog'lanish) va ergashish yo'li bilan tuzilgan turlari haqida misollar bilan ma'lumot bering.</p> <p>2-topshiriq. Teng bog'lanishli murakkab qo'shma gap komponentlari kesimining ifodalanish xususiyatlari haqida ma'lumot bering.</p> <p>3-topshiriq. Ergash gaplar bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelib birgalik ergashishni tashkil qilishi mumkinligini misollar yordamida asoslang.</p> <p>4-topshiriq. Ketma-ket ergashuv yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gapning grammatik xususiyatlarini misollar yordamida ko'rsating.</p> <p>5-topshiriq. Aralash bog'lanishli murakkab qo'shma gap va ularning ko'prok uchraydigan turlari haqida misollar yordamida gapiring, ularning sxemalarini chizib ko'rsating.</p>	5- hafta	4
O'zga gapli qurilmalar	<p>1-topshiriq. Ko'chirma gap qanday fikrni bildirishiga ko'ra farqlarini misollar yordamida ko'rsatib bering.</p> <p>2-topshiriq. Ko'chirma gap va muallif gap kesimlarining ma'no xususiyatlari, turlarini misollar yordamida ko'rsating.</p> <p>3-topshiriq. Ko'chirma gap va muallif gapining o'rni turlicha bo'lishini misollar yordamida dalillang.</p> <p>4-topshiriq. Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish sabablari va bunda yuz beradigan semantik-sintaktik o'zgarishlar haqida ma'lumot bering.</p> <p>5-topshiriq. Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishini misollar yordamida sxema vositasida ko'rsating.</p>	6- hafta	4
Super-sintaktik butunlik	<p>1-topshiriq. Supersintaktik butunlik qismlarini bog'lovchi vositalarni muayyan SSB misolida ko'rsating.</p> <p>2-topshiriq. Supersintaktik butunlikning eng katta sintaktik butunlik ekanligini nazariy jihatdan asoslang.</p> <p>3-topshiriq. Supersintaktik butunlik murakkab qo'shma gaplardan</p>	7- hafta	4

	nimasi bilan farq qiladi. Misollar yordamida qiyosiy tavsif bering. 4-topshiriq. SSB bir butunligini ta'minlab turuvchi omillar haqida gapiring.		
O'zbek adabiy tilida tinish belgilari	1-topshiriq. O'zbek adabiy tilida tinish belgilarini ishlatishda nimalarga asoslaniladi? 2-topshiriq Tinish belgilarining turlari va vazifalari va ularni ishlatish usullari haqida ma'lumot bering. 3-topshiriq. Nuqta, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, qo'shtirnoq, tire, qavs belgilarining ishlatilish o'rinlarini misollar bilan izohlang.	8-hafta	4
Uslubiyat va nutq uslublari.	1-topshiriq. Nutq uslublarning o'ziga xos xususiyatlari ko'proq nimalarda ko'rinadi? Javobingizni misollar yordamida asoslang. 2-topshiriq. Ayrim gap turlari va so'z birikmalari o'rtasidagi sinonimiya haqida gapiring. 3-topshiriq. Qo'shma gaplarning uslubiy xususiyatlari haqida misollar bilan ma'lumot bering. 4-topshiriq. Fonetik, leksik, morfemik-morfologik uslubiyatga misollar keltiring. 5-topshiriq. Badiiy uslubni bir she'r misolida fikr tavsiflang.	9-hafta	4

Tavsiya qilinadigan asosiy adabiyotlar

1. Hamroev M. va b. Ona tili. T., 2007.
2. A. G'ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T. 1987.
3. G'Abduraxmonov va boshqalar. O'zbek tili grammatikasi. T. 1999.
3. Sh. Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2006.
4. R. Sayfullaeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. A. Hojiev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, 2002.
2. U. Tursunov, J. Muxtorov, Sh. Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992 y.
3. A. Nurmanov, R. Rasulov. O'zbek tili jadvallarda. T., 1993.
4. A. Nurmonov. Gap haqida sintaktik nazariyalar. T., 1988.
4. Ne'matov H., Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. -Toshkent: Universitet, 1999. -556 b.

GLOSSARIY

1. Grammatika hozirgi grammatika darajasiga ko'tarilgunga qadar uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini boshidan kechirgan. Dastlab u yozuvni, yozuv «tili»ni tekshirish bilan shug'ullangan va "yozuv san'ati" ma'nosini bildirgan. Keyinchalik grammatika terminining ma'nosi kengayib va o'zgarib, tilshunoslik fanining muhim tarkibiy qismini anglatadigan hozirgi ma'nodagi atamaga aylandi va tilning grammatik qurilishini o'rganadigan fan darajasiga ko'tarildi. Grammatika hozir fanning nomi ma'nosinigina emas, til grammatik qurilishining o'zini ham anglatadi.

2. Grammatika ikki qismga bo'linadi: morfologiya va sintaksis. Morfologiya grammatikaning quyi darajadagi umumiyliklarni o'rganadigan qismi va shunday umumiylik darajasidagi hodisalarni bildiradi. So'zlarning leksik-grammatik kategoriyalari-so'z turkumlari, so'z shakllari, ularning hosil bo'lish yo'llari ana shunday hodisalardir.

3. Sintaksis grammatikaning ikkinchi qismi bo'lib, sintaksisda yuqori darajadagi umumiyliklar o'rganiladi. So'zlarning birikish yo'llari, sintaktik aloqa va munosabatlar, bular natijasida yuzaga keladigan hodisalar: so'z birikmasi, so'z tizmasi, gap, sodda gap, qo'shma gaplar, murakkab sintaktik birliklar kabilar shular jumlasidandir. Sintaksisning o'ziga xos xususiyati uning mustaqil til birliklarining birikishi, o'zaro munosabati, aloqasi va bu aloqa natijasida yuzaga keladigan hodisalar bilan shug'ullanishidir. Shu sababli sintaksis sintaktik aloqa va munosabatlarni o'rganishdan boshlanadi.

4. Sintaktik aloqa va sintaktik munosabat sintaktik bog'lanmalarning mazmuniy va shakliy bog'lanish xususiyatlaridir.

*Sintaktik aloqa qanday birliklar hosil qilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

a) predikativ aloqa ;b) nopredikativ aloqa.

Predikativ aloqa. Gap hosil qiluvchi aloqa predikativ aloqadir. U ega va kesim orasidagi aloqa orqali ifodalanadi. Predikativ aloqa natijasida ikki bosh bo'lakli gap hosil bo'ladi. Havo sovuq. Suvlar muzlagan. Qish eshik qoqib qoldi.

Nopredikativ aloqa. So'z birikmasi hosil qiluvchi aloqa nopredikativ aloqadir. Bu aloqa aniqlovchi-aniqlanmish, to'ldiruvchi - to'ldirilmish orasidagi hamda hol va hollanmish orasidagi aloqalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, so'z birikmasining turli tiplarida namoyon bo'ladi.

*Sintaktik aloqa komponentlarning o'zaro mazmuniy munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi :

1) teng aloqa;

2) tobe aloqa.

Teng aloqa. O'zaro teng huquqli, bir xil sintaktik vaziyat – mavqedagi, bir xil so'roqqa javob bo'lgan bo'laklar, qismlar aloqasi teng aloqa deyiladi. Sodda gapdagi uyushiq bo'laklar, bog'langan qo'shma gap qismlari va bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari, bir xil tipli ergash gaplar o'zaro teng aloqada bog'langan.

Tobe aloqa. Har xil, ya'ni biri hokim, ikkinchisi tobe sintaktik mavqedagi, biri ikkinchisini aniqlab, izohlab, to'ldirib keluvchi komponentlar o'rtasidagi aloqa tobe aloqa hisoblanadi.

5. O'zbek tilining qonun-qoidalarida asosida ma'lum bir so'z yoki so'zlar guruhini bog'lab, ularni nutqning mustaqil (sodda, qo'shma gaplar va mikro matn) va nomustaqil xususiyatga ega bo'lgan birligi sifatida shakllantiruvchi va ularni bog'lovchi vositalar sintaktik aloqa vositalari hisoblanadi.

1) so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar (kelishik, egalik, shaxs-son qo'shimchalari); 2) fe'l shakllarini yasovchi qo'shimchalar (-b, -ib, -gach, -guncha, -sa kabilar); 3) ko'makchilar (bilan, uchun, sari, sayin, kabi, haqida, to'g'risida, qaraganda kabilar); 4) yuklamalar. (-u, -yu, -da, -mi kabilar); 5) bog'lovchilar (va, ammo, yo, yoki, shuning uchun, chunki, go'yoki, ki kabilar); 6) olmoshlar (shu, u, ushbu, o'sha, ana shu, bunday, shunday, kim, nima, qaer kabilar); 7) payt, o'rin bildiruvchi so'zlar (paytda, zamonda, qaerda, o'sha erda kabilar); 8) modal so'zlar (zero, zotan, vaholanki, modomiki kabilar); 9) bog'lamalar (edi, ekan, emish, bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq, -dir, -man, -san kabilar); 8) tartib va intonatsiya (So'zlarning sintaktik aloqasi maxsus ko'rsatkichlar bilan ifodalanmaganda, ularning sintaktik aloqasida tartib bosh rolni o'ynaydi) kabilar ana shunday vositalardir.

6. Sintaksisning asosiy tekshirish ob'ektlari sintaktik qurilmalardir. Sintaktik qurilmalar mustaqil so'zlarning yoki gaplarning o'zaro erkin bog'lanishidan hosil bo'ladi. Lekin har qanday ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan til birliklari sintaktik qurilma hisoblanavermaydi. O'rinbosar (qo'shma so'z), ishlab chiqarish birlashmasi (turg'un birikma), og'a-ini (juft so'z), misi chiqdi (frazologik birlik) tipidagi bog'lanmalar lug'aviy birliklar, maktab tomon, dadam bilan, vatan uchun, aytib qo'ya qol kabi ifodalar so'z bilan ko'makchining yoki ko'makchi fe'lining qo'shilishidan hosil bo'lgan so'zning analitik shakllaridir. Yuqoridagilarning hammasi bir necha so'zlardan tashkil topgan bo'lsa-da, ular bo'laklarga bo'linmaydigan bog'lanmalar, so'z shakli holatidagi til birliklaridir. Sintaktik qurilmalar bevosita nutq jarayonida ma'lum grammatik qonun-qoidalar asosida hosil bo'ladigan, bo'laklarga bo'linuvchi bog'lanmalardir.

7. Sintaktik Qurilmalar to'rt xil ko'rinishga ega: a) so'z birikmasi; b) sodda gap; b) qo'shma gap; s) matn (mikromatn). Shunga ko'ra sintaksis ham o'z ichida to'rtga bo'linadi: 1) so'z birikmasi sintaksisi; 2) sodda gap sintaksisi; 3) qo'shma gap sintaksisi; 4) mikro matn sintaksisi.

8. So'z birikmasi sintaksisning gapning nominativ funktsiya bajaruvchi nopredikativ birligi hisoblanadi.

*Nutq jarayonida ikki yoki undan ortiq mustaqil til birliklaridan birining ikkinchisiga grammatik jihatdan tobelanib, uning ma'nosini aniqlab, izohlab, to'ldirib kelishi natijasida hosil bo'ladigan tushuncha ifodalovchi erkin birikma so'z birikmasi deyiladi.

* So'z birikmalari uch tomonlama, uch mezonga ko'ra tasnif qilinadi :

-tuzilishiga ko'ra;

-hokim komponentning ifodalanishiga ko'ra;

-tobe komponentning sintaktik vazifasiga ko'ra.

*So'z birikmasi tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi : a) sodda so'z birikmasi; b) murakkab so'z birikmasi .

Sodda so'z birikmasi. Tobe va hokim komponentlar ikki mustaqil so'zdan, shuningdek, bir so'z yoki bir so'z shakli hukmida qabul qilinadigan frazeologizmlar, turg'un birikmalar, tarkibli nomlar bilan ifodalangan so'z birikmalari sodda so'z birikmalari hisoblanadi .

Murakkab so'z birikmasi. Murakkab so'z birikmalari sodda so'z birikmasining kengayishidan, birikmalarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bunda kengayish, yoyiqlashish, asosan, tobe komponentga taalluqli bo'ladi. Chunki murakkab birikma hokim komponent ma'nosini yanada aniqlashtirish, konkretlashtirish, yorqinlashtirish ehtiyoji tufayli yuzaga keladi. Masalan: yosh yozuvchi – iste'dodli yosh yozuvchi – sirlaryolik iste'dodli yosh yozuvchi kabi.

9. Hokim komponentning ifodalanishiga ko'ra so'z birikmasi umumlashtirilib, asosan, ikki guruhga ajratiladi:

1) otli so'z birikmalari; 2) fe'lli so'z birikmalari.

Otli so'z birikmalari keng ma'noda bo'lib, komponenti ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, undov, taklidiy so'zlar bilan ifodalangan so'z birikmalarini o'z ichiga oladi.

Fe'lli so'z birikmalari. Bosh so'zi shaxsli fe'l formasi va ravishdosh, sifatdosh shakllari bilan ifodalangan so'z birikmalari fe'lli so'z birikmalari hisoblanadi.

10. So'z birikmalari tobe komponentning sintaktik mavqei, vazifasiga ko'ra uch turga ajratiladi: 1) aniqlovchili; 2) to'ldiruvchili; 3) holli.

Aniqlovchili so'z birikmalari. Tobe komponenti aniqlovchi (ular sifat, sifatdosh, ot, olmosh son, ravish, taqlidiy so'zlar, frazeologizmlar bilan ifodalangan bo'ladi) vazifasini bajaradigan birikmalar aniqlovchili so'z birikmalari deyiladi.

To'ldiruvchili so'z birikmalari. Tobe komponenti tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi yoki ko'makchilar bilan birga kelib to'ldiruvchi vazifasini bajaruvchi ob'ektni bildirgan birikmalar to'ldiruvchili birikmalar hisoblanadi.

Holli so'z birikmalari. Tobe komponenti jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi shaklida yoki ko'makchilar bilan kelib hol vazifasini bajaruvchi relyativ birikmalar holli so'z birikmalari deyiladi.

11. Gap sintaksisning asosiy birligidir. Chunki gap tilning asosiy funktsional belgisi kommunikativlikni, ya'ni fikr ifodalash va bayon qilish vazifasini yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Gap termini umumlashgan birlik, mohiyat sifatida til birligini ham, reallashgan birlik, hodisa sifatida nutq birligini ham ifoda etadi. Gap sathida til va nutq hodisalarini farqlash uchun "gap modeli, qolipi" (til birligi) va "jumla, gap" (nutq birligi) terminlaridan foydalanish o'rinli. Gap qolipi, gap modeli jumlaning umumlashtirilgan, tipiklashtirilgan grammatik shaklidir (O.M.Maskalskaya), gap, jumla esa uning muayyan vaziyat bilan bog'langan ko'rinishidir.

Til va nutq farqlanishiga binoan gapga ikki xil ta'rif berish mumkin.

*Til nuqtai nazaridan gap kesimlik kategoriyasi orqali shakllangan atov birligidir.

*Nutq nuqtai nazaridan esa grammatik jihatdan shakllangan, tugallangan intonatsiyaga ega bo'lgan bir so'z yoki so'zlar bog'lanmasidan iborat bo'lgan fikr ifodalovchi eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi.

Gap so'z va so'z birikmasidan farqli o'laroq tushuncha emas, balki fikr ifodalaydi. Bu xususiyat gapning ob'ektiv borliqqa xos voqea-hodisa, holatning in'ikosi ekanligida, uning voqelik bilan bevosita bog'lanishida o'z ifodasini topgan. Sintaksisda bu gapning predikativligi deyiladi. Shunga muvofiq gap predikativ birlik hisoblanadi.

12. Predikativlik har qanday gapga xos xususiyat bo'lib, gapning shakllar tizimidagi qismlarga ajratilmaydigan grammatik ma'nosidir. Predikativlik shaxs (son), zamon, mayl, tasdiq-inkor ma'nolari va bu ma'nolarni ifodalovchi shakllar tizimi orqali ifodalanadi. Binobarin, ana shunday shakllar tizimiga ega bo'lgan har qanday eng kichik sintaktik birlik gap hisoblanadi.

Gapni gap bo'lmagan boshqa lisoniy birikmalardan farqlovchi grammatik ma'no bo'lgan predikativlik har qanday gapga xos umumiy grammatik ma'no sifatida quyidagi tarkibiy-grammatik kategoriyalar sintezidan iborat:

- 1) grammatik shaxs kategoriyasi;
- 2) grammatik zamon kategoriyasi;
- 3) grammatik tasdiq-inkor kategoriyasi;
- 4) modallik kategoriyasi.

Grammatik shaxs predikativlikni yuzaga keltiruvchi muhim grammatik kategoriya, gapning ajralmas bir xususiyati, zarur elementidir.

Grammatik shaxs kategoriyasi fe'llarning morfologik shaxs kategoriyasi asosida vujudga kelsa ham, undan bir muncha keng tushunchadir. Chunki grammatik shaxs kategoriyasi fe'l ishtirok etmagan gaplarda ham ifodalanadi. Bunda grammatik shaxs shaxs otlari, kishilik, belgilash-jamlash olmoshlari orqali, bular ham bo'lmaganda sintaktik konstruksiyaning o'zi bilan ifodalangan bo'ladi. So'nggi holda grammatik shaxs boshqa shaxsli gaplarga qiyosan belgilanadi. Masalan: Toshkent –O'zbekistonning poytaxti gapining grammatik shaxsi Akram – o'qituvchi, U-ishonchli hamkor gaplariga qiyosan III– shaxsga aloqador bo'ladi. Grammatik shaxs kategoriyasida 1,2,3– shaxs, noaniq shaxs, umumlashgan shaxs hamda shaxssizlik ajratiladi. Bunda: a) fe'lning shaxs-son kategoriyasi; b) fe'lning nisbat kategoriyasi; v) shaxs olmoshlari; g) shaxs otlari qatnashadi.

Grammatik zamon. Gap orqali ifodalangan voqeaning ma'lum zamonga munosabati va bu munosabatni ifodalovchi shakllar tizimi gapning grammatik zamon kategoriyasi deyiladi.

Grammatik zamon kategoriyasi fe'lning zamon ko'rsatadigan maxsus shakllari, payt bildiruvchi so'zlar, payt ravishlari, bu vositalar bo'lmaganda sintaktik qurilmaning o'zi orqali ifodalanadi.

Grammatik zamon kategoriyasi fe'lning zamon kategoriyasidan keng tushunchadir. Fe'lning zamon kategoriyasi fe'lning turli zamon shakllarini qamrasa, gapning grammatik zamon kategoriyasi tarkibiga fe'lning turli shakllarini qo'llashga imkon beradigan gapning turli shakllari kiradi. Shunga muvofiq gapning zamon paradigmasi a'zolarining miqdori turlicha bo'ladi.1) Gapning zamon paradigmasi fe'l zamon paradigmasiga muvofiq keladi. Bu vaqtda gapning uyushtiruvchi bosh bo'lagi fe'l bo'ladi va u gapda o'zining barcha shakllari bilan kela oladi. Men (o'qidim), (o'qiganman), (o'qib edim), (o'qiyotgan edim), (o'qiyapman), (o'qimoqdaman), (o'qiyotirman), (o'qimoqchiman), (o'qiyman) kabi.2)Gap tuzilishidagi ayrim ishtirokchilar fe'lning faqat ayrim shakllari bilan kelishini taqozo qiladi. Bu vaqtda gap faqat bir zamon shaklida keladi: Hozirgina keldi. 3) Ot kesimli gaplarda kesim zamon shakliga ega bo'lmay, zamon ma'nosi gapning tuzilishi orqali ifodalanadi va hozirgi zamonga taalluqli bo'ladi. Men talabaman. Otam-o'qituvchi. 4)Atov gaplarda zamon gapning umumiy mazmuni orqali ifodalanib, hozirgi zamoni bildiradi. Bahor. Hamma yoq ko'm-ko'k.5) Ba'zan predmet, voqea, hodisa ish-harakat qaysi zamonda yuz berishi emas, balki shu harakatning o'zi muhim bo'ladi. Bunda umumzamon ma'nosi ifodalanadi. Umuman hozirgi zamonga to'g'ri keladi: Po'lat – qattiq metall. Qush ham hayvonot dunyosiga kiradi. Chopsa chopilmaydi, ko'msa ko'milmaydi.

Modallik. Predikativlikda modallik kategoriyasi asosiy o'rin to'tadi. Chunki predikativlik gap mundarijasining ob'ektiv borliqqa aloqadorlik, bog'lanish xususiyati bo'lsa, modallik ana shu

umumiy munosabatni konkretlashtiradi: gap mundarijasining ob'ektiv borliqqa aloqasi so'zlovchi shaxsning nutq mundarijasiga qarashi bilan aniqlashtiriladi, to'ldiriladi.

Shunga ko'ra modallik a)ob'ektiv va b)sub'ektiv modallikka bo'linadi

Ob'ektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy grammatik ma'nolardan biri, asosiy uzvi hisoblansa, sub'ektiv modallik ob'ektiv modallik ustiga qo'yilgan qo'shimcha modallikdir. U gapda bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun u gapning doimiy uzvi emas. Tilga xos modallik so'zga, iboraga, so'z birikmasiga ham xos bo'lishi mumkin (grammatik, leksik, fonetik vositalar orqali ifodalanadi). Demak, modallik gapning ob'ektiv holat bilan belgilanadigan, shuningdek, ob'ektiv holatdan kelib chiquvchi sub'ektiv munosabat ifodalash xususiyatidir.

Modallik turli vositalar: fe'ning mayl ko'rsatuvchi shakllari; modal so'zlar(Bu, shubhasiz, sening ishing. Ehtimol, kelib qolar); yuklamalar(Nahotki, podachi bormay qolsa. Sen-a?); gapning maxsus tipi (harakat nomi-kerak (zarur, lozim, shart, aniq, gumon kabi so'zlar orqali)); intonatsiya orqali ifodalanadi. Bormaydi! – ishonchli, qat'iy inkor intonatsiyasi. Bormaydi?! – qat'iy tasdiq intonatsiyasi. Albatta, boradi ma'nosida.

13. Intonatsiya gapni, nutqni fonetik jihatdan shakllantiradi, grammatik-fikriy tugallikni ko'rsatadi. Bunday tugullangan intonatsiya gapga xos bo'lib, u so'z birikmasida yo'q. Demak, bu tipdagi intonatsiya so'z birikmasi bilan gapni farqlaydigan belgilardan biridir. Predikatsiya, predikativlik ma'lum darajada shu intonatsiya bilan ifodalanadi. Bir so'zdan iborat Tong tipdagi gaplarda, shuningdek, Shahar-shahar; Qishloq-qishloq tipdagi gaplarda predikativlikning intonatsiya yordami bilan ifodalanishini yaqqol ko'rish mumkin.

14. Gaplarning tasnifi. Gaplar: a)mazmun-maqsadiga; b) tuzilishiga ko'ra tasnif qilinadi. Gaplar tuzilishiga ko'ra dastlab ikki asosiy turga bo'linadi: a)sodda gaplar; b) qo'shma gaplar.

Sodda gaplar grammatik asosi bitta bo'lgan, o'zidan boshqa gaplarga bo'linmaydigan gapdir.

Qo'shma gap ikki yoki undan ortiq grammatik asos(sodda gaplar)larning birikishidan hosil bo'lgan sintaktik qurilmadir. Qo'shma gaplarning grammatik asoslari sodda gaplarga teng kelishi ham, teng kelmasligi ham mumkin.

Sodda gaplarni tuzilishiga ko'ra tasnif qilishda quyidagilarga asoslaniladi:

*grammatik asosning tarkibi yoki bosh bo'laklarning miqdori;

*ikkinchi darajali bo'laklarning ishtiroki;

*sodda gaplarning turli semantik-sintaktik bo'laklar, hodisalar bilan murakkablashgani yoki murakkablashmaganligi;

*zarur bo'laklarning ifodalanishi yoki ifodalanmasligi;

*gap bo'laklariga ajralishi yoki ajralmasligi.

15. Bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra sodda gaplar ikkiga bo'linadi: 1. Ikki bosh bo'lakli gap. 2. Bir bosh bo'lakli gap.

Ikki bosh bo'lakli gap. Egasi ham, kesimi ham mavjud bo'lgan sodda gaplar ikki bosh bo'lakli gap sanaladi. Bunda bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar qatnashishi ham, qatnashmasligi ham mumkin. Masalan: Atrof ko'm-ko'k. Binafshalar ochilgan. Fazoda ko'klam qushlari charx uradi.

Bir bosh bo'lakli gap. Predikativ yadrosi, grammatik markazi bitta bo'lgan sodda gaplar bir bosh bo'lakli sodda gaplardir. Bunda bosh bo'lak yolg'iz o'zi yoki ikkinchi darajali bo'laklar bilan birgalikda predikativ yadroni tashkil etgan bo'lishi mumkin.

16. Ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gaplar yig'iq va yoyiq sodda gaplarga bo'linadi.

Yig'iq sodda gaplar faqat bosh bo'laklarning o'zidagina iborat bo'ladi. Yig'iq sodda gapning uch xil ko'rinish bor:

A) ega va kesimning o'zidan tashkil topgan gaplar. Bahor keldi. Otam - o'qituvchi.

B) kesimning o'zidagina tashkil topgan fe'l asosli sodda gaplar: Chekilmasin. Shovqin qilmang.

V) kesimning o'zidagina tashkil topgan ot asosli gaplar:

Tun. Kuz. Urush.

Yoyiq sodda gaplar. Bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etgan gaplar yoyiq sodda gaplar hisoblanadi. Buning asosan uch xil ko'rinish bor: A) ega - to'ldiruvchi

(hol)- kesim; B) to'ldiruvchi - (hol)- kesim; V) aniqlovchi - bosh bo'lak: Masalan: Ziyodulla yozishni o'rganyapti. Uy ishini tayyorladim. Qirq birinchi yilning bahori. Sokin tun.

17.Gaplar, ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning ishtirok etish-etmasligiga ko'ra, to'liq gap va to'liqsiz gaplarga bo'linadi.

To'liq gaplarda ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning barchasi ifodalangan bo'ladi. Viloyatimiz poytaxti - ona shahrimiz Guliston kundan-kunga chiroy ochib, tobora ko'rkamlashib boryapti.

To'liqsiz gaplarda ma'lum fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning ma'lum qismi tushirilgan yoki yashiringan bo'ladi, lekin fikr to'liq bo'ladi. Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib - Teatrga bilet oldingmi? - Oldim.

To'liqsiz gap biron bo'lagi etishmagan gap emas, u sodda gapning alohida bir turi. Ma'lum mazmuni ifodalashda qo'llanuvchi stilistik vositadir.

18.Sodda gaplar bo'laklarga ajralish-ajralmasligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- 1) bo'laklarga ajraladigan gaplar;
- 2) bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.

19. Gaplarning aksariyati o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'lanib bir butunlikni hosil qilgan bir necha lug'aviy birliklardan tashkil topgan sintaktik tuzilmalardir. Bunday qurilmalar hamma vaqt bir necha qismlardan iborat bo'ladi. Ammo gapdagi lug'aviy birliklar va gapning tashkil etuvchilari bir xil hodisa emas. Gapning tashkil etuvchilari uning sintaktik tuzilishini hosil qiluvchi struktur birliklardir.

Gapning sintaktik tuzilishi gapning semantikasini shakllantiruvchi struktura bo'lib, u shu sintaktik semantikaning ifodalanishida muayyan vazifaga ega bo'lgan struktur birliklar-sintaktik shakllarning maqsad- mazmunga muvofiq o'rinishi va bog'lanishidan vujudga keladi.

20. Gap muayyan shakl va mazmunga ega bo'lgan sintaktik butunlikdir. Gap sintaktik butunlik ekan, uning qismlarini sintaktik bo'laklar deyish mumkin. Gapning eng mukammal tipini mujassam etgan gap 8 sintaktik bo'lakdan iborat bo'ladi. Bularning 5 tasi odatdagi gap bo'laklari bo'lsa, 3 tasi odatdagi gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan bo'laklardir. Bular undalma, kirish va kiritmalardir.

*Gap bo'laklari gapning predikativlik ifodalovchi qismini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Gap bo'laklari ma'no-vazifasiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- 1) bosh bo'laklar;
- 2) ikkinchi darajali bo'laklar.

21. Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini, predikativ yadrosini tashkil etuvchi asosiy bo'laklardir. Bular ega va kesim munosabati yoki kesimning(kesim sostavining) o'zi orqali ifodalanadi. Shu sababli eng kichik gap bir bosh bo'lakli yoki ikki bosh bo'lakli bo'ladi. Bu bosh bo'laklarsiz gap tushunchasini tasavvur qilish qiyin.

22. Gapdagi bu ikki bosh bo'laklardan boshqa elementlar ikkinchi darajali bo'laklardir. Ikkinchi darajali bo'laklar doim bosh bo'laklar bilan sintaktik aloqaga kirishgan bo'ladi. Chunki ikkinchi darajali bo'laklarning vazifasi bosh bo'laklarni aniqlash, ulardan anglashilgan fikrni to'ldirib kelishdir. Ikkinchi darajali bo'laklar o'z funktsiyalariga qarab uchga bo'linadi: to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol.

23. Gap tarkibida gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan ifodalar ham bor. Bular gapga mazmun jihatdan bog'lansa ham, grammatik jihatdan bog'lanmaydi. Shuning uchun ular gap bo'lagi sifatida ajratilmaydi. Bunday ifodalar nutqda gap bo'laklaridan pauza bilan ajralib turadi. Bular tilshunoslikda kirish, undalma va kiritma qurilmalar deb yuritiladigan sintaktik hodisalardir.

24. Ega. Ikki bosh bo'lakli gapning fikr, hukm qarashli bo'lgan shaxs, narsa hodisani bildiruvchi mutlaq hokim bo'lagi ega deyiladi. Ega kim? nima? qayer? so'roqlaridan biriga javob bo'lib, bosh kelishik formasida keladi. Ega vaziyati kesimga qarab belgilanadi. Kesimning sub'ekt valentligini to'ldiruvchi va u bilan moslashuv munosabatida bo'luvchi bosh kelishikdagi sintaktik shakl egadir. Shuning uchun ham gap tarkibidagi har qanday bosh kelishikdagi sintaktik shakl ega sanalavermaydi. Faqat kesim bilan tobe munosabatda bo'lgan bosh kelishik shaklidagi grammatik shakliga ega vaziyatida kela oladi va ega hisoblanadi. Bunday talabga javob bermagan boshqa biron bosh kelishikdagi so'z yoki birikma ega hisoblanmaydi.

***Egalar tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:** sodda va murakkab. Murakkab egalar ikki yoki undan ortiq so'zlarning grammatik-semantik bog'lanishidan hosil bo'ladi. Murakkab eganing ham uch xil ko'rinishi bor: A) ajralmas holdagi erkin birikmali ega: Ishlamay egan og'rimay o'lar. Har daqiqa g'animat. B) bir butun holda qo'llanuvchi bog'lanmalar bilan: O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi - 50 yoshda. GDU - g'olib. V) frazeologizm holatidagi murakkab ega: Og'iz ochish boshlandi.

25. Kesim gapning shakllanishida asosiy rol o'ynovchi, biroq grammatik jihatdan egaga tobe bo'lgan bosh bo'lakdir. Kesim eganing umumiy belgisini, ega haqidagi xabarni bildiradi. Shuning uchun kesim predmet, narsa -hodisaning harakati, belgisini bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanadi.

Kesim fe'ldan tashqari sifat, ot, son, olmosh, ravish, modal so'z, harakat nomlari bilan ham ifodalanadi. Bularning barchasi umumlashtirilib ot-kesim doirasiga kiritiladi. Kesim gapning shakllanishi, uyushishida, fikrning yuzaga kelishida egaga nisbatan asosiy rol o'ynaydi. Negaki, gapning grammatik asosi bo'lgan predikativlik ko'proq kesim bilan ifodalanadi. Shuning uchun predikativlikni kesimlik ham deyishadi. Predikativlikning tarkibiy qismlari - sintaktik shaxs, sintaktik zamon, modallikning, tugallangan intonatsiyaning ifodalanishi ham asosan kesimga bog'liqdir. Shuning uchun ko'p hollarda ega tushirib qoldirilsa ham, fikr ifodalanaveradi. Biroq kesimsiz fikrning ifodalanishi, gapning yuzaga kelishi deyarli mumkin emas. Hatto shaklan ega sifatida talqin qilinadigan nominativ - atov gaplar ham moxoyatan kesim mazmuniga egadir. Zero, bular bosh kelishik formasidagi predmetning nomigina emas, uning mavjudligini tasdiqlovchi tugallangan intonatsiyaga ega predikatdir, kesimdir.

***Kesim tuzilish jihatdan sodda va sostavli(murakkab) turga bo'linadi.** 1.Sodda kesimlar bir so'z bilan ifodalanadi: Ko'zlar yumildi, qoshlar chimirildi. Hammaning e'tibori bizda. 2. Sostavli kesimlar ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi: Qishloq ustida kishiga huzur beruvchi tong shabadasi shivirlay boshladi.

26.Gapning bosh bo'laklari ega va kesim odatda moslashgan holatda bo'ladi. Moslashish har xil darajada bo'ladi: 1. Ega va kesim mantiqiy jihatdan ham, grammatik jihatdan ham moslashadi: Universitetimiz talabalari fan sirlarini egallash uchun astoydil o'qimoqdalar. 2. Ega va kesim faqat mantiqiy jihatdan moslashadi: Barcha to'plandi. 3. Ega va kesim forma jihatdan moslashadi.

27.Sifatlovchi.Gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir predmetning boshqasiga qarashlilikini bildirgan bo'lak aniqlovchi deyiladi. Aniqlovchilar ikki xil bo'ladi. 1. Sifatlovchi-aniqlovchi. 2. Qaratqich - aniqlovchi.

Sifatlovchi - aniqlovchi qanday? qaysi? qancha? nechanchi? necha? qaerda- gi? qachongi? kabi so'roqlarga javob bo'luvchi aniqlovchidir. Qaratqich aniqlovchi kimning? nimaning? qaerning so'roqlariga javob bo'luvchi aniqlovchidir.

Izohlovchi aniqlovchining bir turi bo'lib, u predmet yoki shaxsni boshqacha nom berish yo'li bilan aniqlaydi.

Izohlovchilar ko'pincha ot orqali ifodalanishi bilan aniqlovchining boshqa turlaridan farqlanadi.

Izohlovchi izohlagan bo'lak izohlanmish deyiladi.

28.To'ldiruvchi.Gapdagi biror bo'lakning ma'nosini to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan bo'lak to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi ko'pincha kesimga bog'lanadi: Halol mehnat insonni ulug'laydi. Yomonga yondashma, yaxshidan adashma. To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: 1. Vositasiz to'ldiruvchi. 2. Vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi kesimdan anglashilgan harakatni o'ziga qabul qilgan, o'z ustiga olgan predmetni bildirib, kimni? nimani? qaerni? so'roqlariga javob bo'ladi

Vositali to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilmagan, lekin uning bajarilishi uchun vosita bo'lgan yoki unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan predmetni bildirib, kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kimda? nimada? kim bilan? nima bilan? kim to'g'risida? nima to'g'risida? kabi so'roqlarga javob bo'ladigan ikkinchi darajali bo'lakdir.

29. Hol. Harakat-holatning bajarilish o'rni, payti, sababi, tarzi, maqsadi va shu kabilarni ko'rsatib, boshqa bo'lakka tobe bo'lgan ikkinchi darajali bo'lak h o l deyiladi. Hollar aksariyat fe'l-kesimga, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh yoki ravish bilan ifodalangan bo'laklarga bog'lanib, ularni biror jihatdan izohlab keladi. Ifodalagan ma'nosiga ko'ra hollar quyidagi turlarga

ajratiladi: ravish holi, miqdor-daraja holi, o'rin holi, payt holi, sabab holi, shart holi, to'siqsizlik holi.

30.O'zbek tilida gap bo'laklarining tartibi, asosan, erkin bo'lishiga qaramay, ko'p qo'llanadigan odatdagi tartib bor. Odatdagi tartibda ega avval, kesim gapning oxirida, payt holi egadan avval, to'ldiruvchi egadan keyin, ravish holi kesimdan avval, qaratqich qaralmishdan avval keladi.

O'zbek tilidagi tap bo'laklarining tartibi, asosan, erkin bo'lganligi uchun ularning o'rnini o'zgartirish ko'pincha grammatik holatga ta'sir etmaydi, ya'ni bo'laklarning o'rnini o'zgartirilsa ham, ularning sintaktik vazifasi avvalgicha qolaveradi.

Biroq ba'zan gap bo'laklarining tartibi grammatik holatga ta'sir etishi mumkin. Bu bilan ma'no ham o'zgaradi. Bu hodisa so'zning vazifasi – grammatik funktsiyasi morfologik shakllanishidan bilinmay, tartib bilan tayin etilgan vaqtlarda uchraydi.

*O'rnini bilan gap bo'laklarining odatdagi tartibi o'zgarishi ham mumkin. Bu tilshunoslikda inversiya deyiladi. Inversiya so'zlashuv va she'riy uslubda ko'proq kuzatiladi.

*Odatdagi tartib logik-grammatik, stilistik talab bilan o'zgaradi. Mazmun jihatdan birinchi o'rinda turgan bo'lak, o'z tipik o'rnidan qat'iy nazar, odatda kesimning oldida keladi va logik urg'u oladi, o'zbek tilida logik urg'u tartib bilan zich bog'langandir. Intonatsiya va tartib bo'laklarning mazmun jihatdan ahamiyatini ko'rsatishdagi asosiy vositalardir.

31. Murakkablashgan sodda gaplar. Har qanday sintaktik qurilma singari sodda gaplar ham o'z ichida tuzilishiga ko'ra 2 turga bo'linadi :

- 1)oddiy sodda gaplar;
- 2)murakkablashgan sodda gaplar.

Oddiy sodda gaplar bir bosh bo'lakli yoki ikki bosh bo'lakli, yig'iq yoki yoyiq, to'liq yoki to'liqsiz, yoki so'z-gaplarning o'zidan iborat bo'ladi.

***Murakkablashgan sodda gaplar** oddiy sodda gaplarning turli sintaktik shakllar bilan mazmunan va shaklan murakkablashuvi natijasidir.

Sodda gaplarni murakkablashtiruvchi sintaktik hodisalar, asosan, beshta:

- 1)gap bo'laklarining uyushishi;
- 2)gap bo'laklarining ajratilishi;
- 3)undalmalarning qatnashishi;
- 4)kirishlarning qatnashishi;
- 5)kiritmalarning qatnashishi.

Bu hodisalarning voqelanishi natijasida murakkablashgan sodda gaplarning muayyan ko'rinishlari: uyushiq bo'lakli sodda gaplar, ajratilgan bo'lakli sodda gaplar, undalmali sodda gaplar, kirishli sodda gaplar va kiritmali sodda gaplar yuzaga keladi .

***O'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi yordamida bog'langan, bir xil so'roqqa javob bo'lgan, gapda bir xil sintaktik vazifa bajaruvchi bo'laklar tizmasi gapning uyushiq bo'laklari deyiladi.** Gap bo'laklarining barchasi uyushib kela oladi.

Eganing uyushib kelishi: O'tmishda xalkimiz orasidan Beruniy va Navoiy, Ulug'bek va Boburlar etishib chiqqan.

Kesimning uyushib kelishi: U o'rnidan turdi, ammo gapirmadi. **To'ldiruvchining uyushib kelishi:** Men uning jasorati va mardligi, chidam va sadoqatiga qoyil qoldim.

Aniqlovchining uyushib kelishi: Ijodiy ish go'zal, juda ham og'ir va hayron qolarli darajada xursand qiluvchi mehnatdir.

Izohlovchining uyushib kelishi: O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, filologiya fanlari doktori, professor Izzat Sulton – o'zbek adabiyotshunoslarining otaxoni.

Holning uyushib kelishi: Adolat qurkib, kaltirab, jaxl ustida yonib, tez-tez qarardi .

Uyushiq bo'laklarning har biri son, egalik kesimlik affiksleri, ko'makchilar bilan kelishi mumkin. Bunda ularning har biri ta'kidlanadi: Menga ham, senga ham, ukangga ham etadi.

Son, egalik, kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar uyushiq bo'laklarning oxirgisida kelib, ularning hammasi uchun umumiy bo'ladi.

***O'zlari taalluqli bo'lgan gap bo'laklaridan ohang hamda fikran ajratilib, gapda ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan bo'laklar ajratilgan bo'laklar deyiladi.** Ajratilgan bo'laklar fikrni odatdagiga qaraganda kuchli, ifodali, ta'sirli, aniq va yorqin qilib berish uchun qo'llanadi. Buning

uchun ajratilgan bo'laklar o'zlari taalluqli bo'lgan bo'laklardan maxsus intonatsiya, pauzalar bilan ajratiladi.

O'zbek tilida bosh bo'laklar ham, ikkinchi darajali bo'laklar ham ajratiladi.

Bosh bo'laklarning ajratilishi izohlash zaruriyati bilan bog'liq. Ajratilgan bosh bo'laklar o'zidan oldin kelgan ega yoki kesimni izohlaydi.

Ajratilgan ega: Keyinchalik biz, aka-uka ikkimiz, texnikaga berildik.

Ajratilgan kesim: Mening tug'ilgan yilim – shu – bir ming to'qqiz yuz sakson birinchi yil.

Ikkinchi darajali bo'laklarning ajratilishi inversiya, izohlash, gap bo'laklarining kengayib kelishi bilan bog'liq.

Aniqllovchilarning ajratilishi: Hech erinmay kuch to'kibdi Ko'kan-*devkor*, O'ylamapti shuncha piyoz kimga darkor. Nargizning ovozigga boshqa gullarning, *qizlarning*, ovozlari kelib qo'shildi. Izohlovchilarning ajratilishi inveresiya hodisasi bilan bog'liq:

Kasb, hunar, amal, unvon kabilarni ifodalovchi izohlovchilar o'z izohlanmishidan keyin keltiriladi. Obid Sodiqov, *O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi*, atoqli olimdir.

To'ldiruvchilarning ajratilishi izohlash va uning yoyiq holda kelishi bilan bog'liq: Bektemirga, *sobiq sodda cho'ponga*, komandirning fikri g'oyat yoqdi. Pul topishning turli yo'llariga kirish bilan, *san'atkorni xor qiluvchi bunday yo'l bilan*, teatrning obro'sini aslo tiklab bo'lmaydi.

Hollarning ajratilishida ham izohlash va ularning yoyiq holda kelishi muhim rol o'ynaydi. Ertasi kechqurun, *soat ettilarda*, kutilmaganda G'ulomjon kirib keldi. Navoiy, *bir qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda*, boshni kamtar engil qimirlatish bilan xalqning tabrigiga samimiy javob berib bordi.

***Nutq qaratilgan shaxs, predmetni bildirgan sintaktik shakl undalma deyiladi.** Undalma, gap bo'laklari bilan bevosita grammatik aloqaga kirishmaydi, chunki u gap bo'laklariga ajratishning bosh mezoni bo'lgan tobelanish talabiga javob bermaydi. Biroq bu undalmaning gap bo'laklariga hech qanday aloqasi yo'q, degani emas.

Undalma gap bo'laklari bilan mazmuniy bog'lanishga egadir. Bu bog'lanish tilshunoslikda introduktiv aloqa deyiladi.

***So'zlovchining gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan sub'ektiv munosabati, qarashini, ba'zan emotsional tuyg'ularini ifodalovchi sintaktik shakllar kirish deyiladi.** Kirish vazifasida so'z turkumidan ajralib chiqib, faqat kirish vazifasida ishlatiladigan so'zlar (morfologiyada ular modal so'zlar deb yuritiladi. Masalan: shekilli, albatta, demak, xullas, modomiki, darvoqe kabilar), ma'lum so'z turkumidan ajralib chiqmagan kirish vazifasida ham, gap bo'lagi vazifasida ham qo'llanuvchi so'zlar (qisqasi, rost, ortidan, oxiri kabilar) keladi.

Kirishlar tuzilishiga ko'ra 3 xil: kirish so'zlar, kirish birikmalar, kirish gaplar. Masalan: Ibrohimov, Qurbon ota aytmoqchi (kirish gap), gullarni o'z ilmidan xabardor qildi. Menimcha (kirish so'z), bu gapda kirish so'z qatnashgan. Baxtga qarshi (kirish birikma), bugun dushanba-bozor ishlamaydigan kun.

***Kiritmalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beruvchi ifodalardir.** Bular gap tarkibiga nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik-semantik jihatdan (grammatik emas) munosabatga kirishadi. Kiritmalar ohang jihatdan mustaqillikka ega bo'ladi. Ular biror so'roqqa javob bo'lmaydi, sintaktik vazifa bajarmaydi, gap bo'lagi yoki qo'shma gapning biror komponenti hisoblanmaydi. Kiritmalar tuzilishiga ko'ra uch tipga bo'linadi: kiritma so'zlar, kiritma birikmalar, kiritma gaplar.

32. Bir bosh bo'lakli gapda fikr shaklan ega yoki kesimni eslatuvchi bitta bosh bo'lak bilan ifodalanadi. Biroq bu bunday gaplarda ega yoki kesimning «tushib qolganligi»ni yoki etishmasligini bildirmaydi (U to'liqsiz gap emas). Bir bosh bo'lakli gap ham ikki bosh bo'lakli gap singari odatdagi, normal hodisadir. Bir bosh bo'lakli gaplar ikki sostavli gapning kesimi yoki egasi tushib qolgan qismi emas. Ular fikrning bir bosh bo'lak orqali ifodalangan mustaqil bir ko'rinishidir. Bu bo'lak qanday ifodalanganidan qat'iy nazar kesimdan yoki kesim sostavidan iborat.

*Bir bosh bo'lakli gaplar mano- vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: a) shaxsi aniq gap; b) shaxsi noaniq gap; v) shaxsi umumlashgan gap; g) shaxssiz gap; d) atov gap.

***Shaxsi aniq gap.** Kesimi harakatni bajaruvchi shaxs-egani aniq ko'rsatib turadigan xususiyatga ega bo'lgan bir bosh bo'lakli gap shaxsi aniq gap deyiladi. Masalan: Borsam, yo'q ekansan. Yaxshi uxlingizmi? Kiring, o'tiring.

***Shaxsi noaniq gap.** Kesimi harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko'rsatib turmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxsi noaniq gap deyiladi. Masalan: Jo'jani kuzda sanaydilar. Uni institutga qabul qilishdi.

***Shaxsi umumlashgan gap.** Umumshaxsiga, hammaga qaratilgan ish-harakatni bildiruvchi bir bosh bo'lakli gap shaxsi umumlashgan gap deyiladi. Masalan: Bir yoqadan bosh chiqarib ishlaylik. Avlodlarga ozod va obod Vatan qoldiraylik. Etti o'lchab bir kes. Suyanmang, xavfli.

Bunday gaplarning kesimi shaxsni aniq ko'rsatib tursa ham, bu shaxs mazmunan umumlashgan bo'ladi, chunki undan anglashilgan ish-harakat ko'pchilikka, barcha shaxslarga qaratilgan bo'ladi. Masalan: Bir kun burun sochsang, bir hafta burun o'rsan. Dexqon bo'lsang, shudgor qil. Avval uyla, keyin so'yla. Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

***Shaxssiz gap.** Kesimdan anglashilgan ish - harakatning bajaruvchisi - egani topib bo'lmaydigan bir bosh bo'lakli gap shaxssiz gaplar deyiladi. Shaxssiz gapda umuman ega va ega tushunchasi bo'lmaydi, ega faraz ham qilinmaydi. Qiyoslaylik: – Sen sayohatga borasanmi? – Boraman – to'liqsiz gap- ega «men» tushirib qoldirilgan. Bu suvni ichib bo'lmaydi-shaxssiz gap- grammatik jihatdan ham, mazmunan ham shaxsni qo'shib bo'lmaydi.

***Atov gap.** Predmet, voqea-hodisaning mavjudligi to'g'risidagi hukmni bildiruvchi bir bosh bo'lakli gap atov gap deyiladi.

Atov gapda predikativlik maxsus yo'l bilan - gapga xos tugallangan intonatsiya bilan ifodalanadi. Shu sababli aslida lug'aviy yoki nominativ birliklar bo'lgan so'z va so'z birikmalari narsa-hodisalarning atamasigina bo'lib qolmay, balki shu narsa-hodisalarning nutq so'zlanib turgan momentda mavjudligini tasdiqlovchi, shu haqidagi hukmni bildiruvchi kommunikativ birlik - gapga aylanadi. Masalan: Qirq beshinch yil. May oyi. G'alaba bayrami ! Amudaryo! Amudaryo deganlari shu ekan-da !

Atov gaplar logik-grammatik xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'linadi: A) mavjudlikni tasdiqlash xarakteridagi atov gaplar: Bahor. Chor atrof ko'm-ko'k libosga burkandi.

B) ham mavjudlikni tasdiqlash, ham ko'rsatish xarakteridagi atov gaplar. Ana samolyot ! Uchishini kara. Mana bizning qishloq. Butun tuman uni biladi. Bu tipdagi atov gaplarda emotsionallik avvalgisiga qaraganda kuchli bo'ladi.

33. So'z-gaplar sodda gaplarning bo'laklarga ajralish-ajralmaligiga ko'ra bir turidir. Sodda gaplar bu jihatdan ikkiga bo'linadi: 1) bo'laklarga ajraladigan gaplar. 2) bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.

***Bo'laklarga ajraladigan gaplar** bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajraladi. Ikki bosh bo'lakli gaplar va bir bosh bo'lakli gaplarning barcha turlari bo'laklarga ajraladigan gap hisoblanadi.

***Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar bir so'zdan iborat bo'lib**, u yoki bu gap bo'lagiga ajralmaydigan o'ziga xos so'zlardan tashkil topgan predikativ birliklardir. Ularni ega ham, kesim ham yoki ikkinchi darajali bo'lak deb ham deb bo'lmaydi. Chunki ular mazkur gap bo'laklari belgilariga ega emas. Ular garchi bir so'zdan iborat bo'lsa-da, shu holicha fikr ifodalash xususiyatiga ega. Shu sababli ular **so'z – gap** deyiladi. Masalan: – Bugungi majlis bo'ladimi? – Yo'q. Assalomu alaykum, domla. – Alaykum assalom.

Ba'zan to'liqsiz gaplar ham bir so'zdan tashkil topadi. Shuning uchun so'z-gap va to'liqsiz gaplarni bir-biridan farqlash lozim. To'liqsiz gapni hosil qiluvchi so'z ma'lum gap bo'lagi vazifasini bajaradi. So'z-gap gap bo'lagi emas, mustaqil gapning bir tipi, semantik shakllangan gapdir.

1. Fikr ifodalash uchun gapning sodda shakli qanday zarur bo'lsa, qo'shma gap formasi ham shunday zarurdir. Chunki ularning har qaysisi nutqda o'z o'rnini, o'z vazifasiga ega. Shuning uchun hamma vaqt ham ularning birining o'rnida ikkinchisini ishlatib bo'lmaydi, ularning har biri o'z vaqti va o'z o'rnida darkordir.

Qo'shma gap tuzish uchun: birinchidan, kamida ikkita sodda gap, predikativ birlik bo'lishi, ikkinchidan, bu sodda gaplar mazmunan va mantiqan munosabatga kirishgan bo'lishi, uchinchidan, ular grammatik jihatdan to'g'ri shakllangan, yaxlit, birlashtiruvchi intonatsion butunlikka ega bo'lishi lozim. **Ikki va undan ortiq sodda gaplarning mazmun va grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topgan bir butun birlashtiruvchi intonatsiya bilan aytiluvchi sintaktik qurilma qo'shma gap deyiladi.**

2.O'zbek tilida bir qarashda qo'shma gapga o'xshab ketadigan, biroq aslida sodda gap hisoblangan quyidagi kabi sintaktik butunliklar mavjud:

1)bir egaga tobelanib keladigan uyushiq kesimli gaplar: Bunda uyushiq kesimlar ba'zan bir xil, ba'zan har xil shakllangan bo'lishi mumkin. Men ularning har biriga navbat bilan suv ichirardim, chivinlarni yelpig'ich bilan quvardim, boshqa ishlariga ham qo'limdan kelganicha yordam berardim.

2)ravishdosh oborotli sodda gaplar: Ikromjon cholga yaqinlashgach, unga ehtirom bilan qo'l uzatdi.

3)sifatdosh oborotli qo'shma gaplar: Xolmurod guzardan o'tar ekan, pravlenie darvozasi oldida Abdurasul bilan Melivoyini ko'rdi.

4)murakkab tarkibli shart yoki to'siqsiz holli sodda gaplar. Mabodo bir ishdan keyin shunda bir pas cho'zilib, bir chimdim uxlab olsang, kuchga to'lib, yayrab qolasan. Demak, bu kabi sintaktik butunliklar qo'shma gap hisoblanmaydi.

3. Biroq egasi mazmunan umumiy bo'lgan quyidagi sintaktik butunliklarni qo'shma gap hisoblash lozim:

a)qo'shma gapning ikkinchi qismida ega u, o'zi olmoshi orqali ifodalanadi.Munchoq emas vijdon, u-gavhar.

b)har ikki qismida bir xil ega takrorlangan sintaktik konstruksiyalar qo'shma gap sanaladi: Yo'lchi uchun bu qiz endi begona emas, u Yormatning qizi, u yaqin.

4. Qo'shma gap qismlari o'zaro turli vositalar: grammatik vositalar(bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar, kelishik qo'shimchalari ana shunday vositalardir),leksik-grammatik vositalar(fe'ning nokategorial – funksional shakllari),leksik vositalar(bog'lovchisiz qo'shma gaplar komponentlarining bog'lanishida leksik vositalarning xizmati kattadir. Ular intonatsiya bilan birga bog'lovchisiz qo'shma gaplarni hosil qiluvchi asosiy vositadir.Qo'shma gap qismlarining bog'lanishida faol qatnashadigan maxsus leksik vositalar asosan quyidagilardir: ya'ni, umuman, bir so'z bilan, boshqacha aytganda, shu bilan birga, to'g'rirog'i, shunga qaramay, aksincha, aks holda, birinchidan, ikkinchidan, avvalo, qolaversa, uningcha, baxtga qarshi, bundan tashqari, shekilli, natijada, buning natijasida, nihoyat, shundan keyin, shundan buyon, shunda, unda, shu, u, shunday kabilar shular jumlasidandir), gap bo'laklarining takrorlanishi (Masalan: Mening domlam yo'q, domlam ikki ko'zim), umumiy ikkinchi darajali bo'laklar(Masalan: Uning kichik qisiq ko'zlari yomon yondi, qalin lablari titrab ketdi), ohang va tartib (Ohang bog'lovchisiz qo'shma gaplarning turli tipini hosil qilishda muhim rol o'ynaydi: qo'shning tinch-sen tinch. Suv keldi - nur keldi-Nur keldi - suv keldi.)

5.Qo'shma gaplar uch nuqtai nazardan, uch xil mezon asosida tasnif qilinadi:

-tuzilishiga ko'ra.

-bog'lovchi vositalarning ishtirok etishi-etmasligiga ko'ra.

-komponentlarning mazmun - munosabatiga ko'ra.

Qo'shma gaplar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:a) ikki komponentli qo'shma gaplar;b) ko'p komponentli qo'shma gaplar; bog'lovchilarning ishtirok etishi-etmasligiga ko'ra ham ikkiga bo'linadi:a) bog'lovchili qo'shma gaplar;b) bog'lovchisiz qo'shma gaplar; komponentlarning mazmun-munosabatiga ko'ra esa uchga bo'linadi:1.Teng aloqali qo'shma gaplar.2.Tobe aloqali qo'shma gaplar.3.Aralash aloqali qo'shma gaplar. So'nggi tasnif qo'shma gaplarni turlarga ajratishda asosiy hisoblanadi. Chunki unda qo'shma gaplarning farqlovchi belgisiga asoslanilgan. Boshqa tasniflarda asosiy rolni tashqi-shakliy belgilar o'ynagan. Shuning uchun ular qo'shma gaplarning to'liq belgisini ko'rsata olmaydi. Biroq an'anaviy grammatikada qo'shma gaplar quyidagicha uch turga bo'lib o'rganiladi:

1.Bog'langan qo'shma gap

2.Ergash gapli qo'shma gap.

3.Bog'lovchisiz qo'shma gap.

Bog'langan qo'shma gap.Ikki yoki undan ortiq, biri ikkinchisiga tobe bo'lmagan, teng huquqli sodda gaplarning teng bog'lovchilar va shu vazifadagi yuklamalar yordamida birikuvidan yuzaga kelgan qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gaplar deyiladi. Bog'langan qo'shma gap komponentlari o'zaro va, ham, hamda, ammo, lekin, yo, yoki, dam ... dam,ba'zan ... ba'zan, goh .. goh kabi teng bog'lovchilar va shu vazifadagi -u (-yu), -da yuklamalari ba'zan bo'lsa,esa

yordamchilari orqali birikadi. Masalan: Shu onda chiroq sharaqlaganicha yerga tushib, chilparchin bo'ldi. Abayning rangi o'chdi-yu, ko'zlari oq shohi cho'qqilarga tikilganicha qoldi: Pushkin esiga tushdi. Kozimbek qilmishidan hijolat, Saida esa undan biron og'iz so'z kutar edi.

Bog'langan qo'shma gaplar o'z ichida to'rtga bo'linadi: a) biriktiruv bog'lovchili qo'shma gap; b) zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gap; v) ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gap; g) inkor bog'lovchili bog'langan qo'shma gap.

*Biriktiruv bog'lovchili qo'shma gaplarning qismlari ma'lum bir paytda yoki ketma-ket ruy bergan voqea-hodisa, harakatlarni bildirib keladi va va, ham, hamda, bo'lsa, esa yordamchilari, yuklamalar yordamida bog'lanadi. Masalan: Kampirning hayajonli tovushi chor devorlardan osha ketdi va bu xushhabar bir zumda hammaga eshitildi.

*qiyoslash mazmun munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar zidlash, qiyoslash, izohlash kabi ma'no ottenkalarini ruyobga chiqaradi.

-qo'shma gap qismlarining umumiy mazmuni yoki gaplar tarkibidagi ayrim bo'laklar biror tomondan bir-biriga zid quyiladi. qismlar ammo, lekin, biroq zidlovchi bog'lovchilari yoki shu vazifadagi -u, -yu yuklamalari orqali birikadi. Nay ham durustgina chalindi, lekin Rafiiq darrov sindirib tashladi. quyosh chikib turibdi-yu, havo sovuq.

Zidlash munosabati «va», «lekin» bog'lovchilarini birga «va lekin» tarzida ishlatish bilan ham ifodalanadi: Hamon chopib boradi va lekin ko'kragi qon.

-qiyoslash orqali voqea-hodisa predmet va ularning xususiyatlari o'rtasidagi farqlar ochiladi. qiyoslash munosabati asosan bo'lsa, esa shaklidagi yuklamalar, zidlovchi bog'lovchilar yordamida ifodalanadi. Bu xil qo'shma gap qismlarining strukturasi ma'lum parallelizm bo'ladi. Xonzoda sen shu ishni bajar, boydan qutulasan, men bo'lsam o'z maqsadimga etaman.

-Ayiruv munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar ketma-ket yoki bir-biri bilan almashinib turadigan, navbatma-navbat yuzaga keladigan birdan ortiq voqea-hodisa yoki harakatni ifodalaydi. Bunday qo'shma gap komponentlari goh..., goh..., ba'zan..., ba'zan; dam..., dam..., yo...,yo..., xoh..., xoh; bir..., bir... kabi ayiruv bog'lovchilari orqali bog'lanadi. Bu bog'lovchilar qo'shma gapdagi komponentlarni ayirib, ta'kidlab ko'rsatish uchun qo'llanadi. Bu bog'lovchilar deyarli har bir predikativ qismning boshida takrorlanib keladi. Goh osmonni tutib ashula yangrar, goh allakaerda garmon tovushi eshilib turar edi.

-Inkor bog'lovchi - yuklamasi vositasida birikkan predikativ qismlar ikki va undan ortiq bo'lib, inkor ma'nosini sanab ko'rsatadi. Na bir uyning mo'risidan tutun chiqadi, na biror daraxt ko'rinadi.

Na inkor bog'lovchi - yuklamasi ham takrorlanib ishlatiladi va inkor ma'nosidagi sodda gaplarni bog'laydi.

Inkor bog'lovchi - yuklamasi na yordamchi vazifasida kelganda bog'lovchidan ko'ra yuklamaga yaqin turadi. Bu yordamchi inkor ma'nosini kuchaytiradi (o'qimadi, yozmadi - na uqimadi, na yozmadi) yoki gapga inkor ottenkasini qo'shadi. Akamdan xat keldi - na akamdan xat keldi, na sendan xabar. Umuman na inkor bog'lovchi yuklamasi ishtirok etgan gaplarning mazmunidan hamma vaqt bo'lishsizlik ma'nosi anglashilib turadi: Na o'qimaydi, na yozmaydi - na o'qiydi, na yozadi. Uning bog'lovchi - yuklama deyilishi ham shundan.

Ergash gapli qo'shma gap. Biri hokim, biri tobe bo'lgan gaplarning o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchi vazifasidagi boshqa grammatik vositalar orqali bog'lanishi asosida yuzaga kelgan sintaktik konstruktsiya ergashgan qo'shma gap deyiladi.

-Hokim holatidagi gap bosh gap, tobe holatdagi gap esa ergash gap deb yuritiladi. Bosh gap hokim bo'lsa-da, ma'nosi noaniq, noma'lum bo'ladi, izohlashni, aniqlashni, to'ldirishni talab qiladi. Ergash gap bosh gapga bog'lanib, uning biror bo'lagini yoki butun bir gapni izohlaydi. Bu xususiyati bilan ergash gap sodda gap bo'laklariga uxshaydi.: Eshitdimki, qahramon nom olibsan. gapidagi ergash gap— bosh gapdagi harakat ob'ektini izohlaydi.

Ergash gaplarning hammasi mustaqil sodda gaplarga xos asosiy bir shartga —ma'lum mazmun munosabatini ifodalash, pauza bilan ajralish xususiyatlariga egadir.

O'zbek tilida ergash gapni bosh gapga biriktirishda ergashtiruvchi bog'lovchilar, fe'l formalari, yuklamalar, ko'makchilar, bog'lovchi so'zlar, nisbiy so'zlar, kelishik qo'shimchalari, -day (dek) affiksleri, intonatsiya va tartib kabi vositalar xizmat qiladi.

*Ergashgan qo'shma gaplar ergash gaplarning ma'nolariga qarab turlarga ajratiladi. Ergash gaplar bosh gapning yoki bosh gapdagi gap bo'laklaridan birining ma'nosini aniqlab, izohlab

keladi. Shu jihati bilan u gap bo'laklariga o'xshaydi. Shuning uchun ergash gaplarni turlarga ajratishda gap bo'laklari nomidan unumli foydalanilgan. Ergash gaplarning to'rt turi to'g'ridan-to'g'ri gap bo'laklari nomi bilan yuritilsa, qolganlarining nomlanishida ham gap bo'lagi (hol)ning ma'no turlari muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tilida ergash gaplarning quyidagi turlari aniqlangan:

ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, shart, to'siqsizlik, maqsad,, sabab, natija, o'rin, payt, ravish, o'lchov–daraja, chog'ishtirma-o'xshatish ergash gaplar.

Bog'lovchisiz qo'shma gap. Ikki yoki undan ortiq sodda gaplarning bog'lovchilarsiz fakat mazmun va birlashtiruvchi intonatsiya yordamida bog'lanishidan tashkil topgan sintaktik tuzilmalar bog'lovchisiz qo'shma gap deyiladi. Masalan: Odamning tanasida chorakam besh litr qon bor, shuning hammasi taxminan har minutda bir marta yurakdan o'tib turadi.

Ohang, intonatsiya bog'lovchisiz qo'shma gaplar tuzilishida asosiy, hal qiluvchi vosita hisoblanadi. Ohang bog'lovchisiz qo'shma gaplarda turlicha ma'no va ma'no nozikliklarining ifodalanishida ham asosiy omildir. Biroq bog'lovchisiz qo'shma gaplarning komponentlarini bog'lashda ohangdan tashqari ayrim so'zlar, umumiy ikkinchi darajali bo'laklar, ayrim gap bo'laklarining takrorlanishi, komponentlar kesimlarining bir xil zamon va shaklda bo'lishi, elliptik qurilmalar muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun bu xil qo'shma gaplarga nisbatan bog'lovchisiz atamasini qo'llash shartli bo'lib qoladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar komponentlarining munosabati jihatidan ikki xil bo'ladi:

- 1) bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap.
- 2)ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap.

Birinchi tur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro mazmunan teng munosabatda bo'ladi va tenglovchi intonatsiya (ohang) orqali bog'lanadi. Shu jihatdan bog'langan qo'shma gapga o'xshaydi. Ular o'rtasidagi farq bog'lovchisiz qo'shma gaplarda teng bog'lovchilarning qo'llanmasligidadir. qiyos uchun: Yalpi yig'ilish o'z ishini soat o'n ikki tugatdi, sho''balarniki soat beshda.* Yalpi yig'ilish o'z ishini soat o'n ikkida tugatdi, sho'balar esa soat beshda tugatdi.

Ikkinchi tur bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro tobe munosabatda bo'ladi va tobelovchi intonatsiya (ohang) orqali bog'lanadi. Shu jihatdan ular ergashgan (ergash gapli) qo'shma gapga o'xshaydi. qiyos uchun: qo'shning tinch – sen tinch.* qo'shning tinch bo'lsa, sen ham tinch bo'lasan.

Murakkab qo'shma gap. Uch va undan ortiq sodda gaplar yoki predikativ birikmalarning mazmun va grammatik jihatdan birikuvidan tuzilgan sintaktik tuzilmalar murakkab qo'shma gaplar deyiladi.

qo'shma gapning murakkab formasi uning sodda (ikki komponentli) formasidan:

- 1) komponentlar miqdorining ko'pligi (ikkitadan ortiq);
- 2) birdan ortiq bog'lanish usulining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Masalan: xunar va iste'dod mushkianbar kabidir, uni qanchalik berkitmang, u shunchalik atrofga yoyilib, hamma yoqni muattar qilib yuboradi.

Murakkab qo'shma gaplarni qancha gaplar tashkil etmasin, ular qanday mazmun munosabatlariga kirishmasin, bu qismlar orasida asosan uch xil mazmun munosabati ifodalanadi:

- voqea- hodisa, xususiyatlarni qiyoslash;
- voqea-hodisa, xususiyatlarini izohlash;
- voqea-hodisa, xususiyatlarni bir paytda, ketma-ket yuzaga kelishi.

*Murakkab qo'shma gap komponentlarining o'zaro grammatik munosabatiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

- A) Bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap;
- B) Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.
- V) Aralash aloqali murakkab qo'shma gap.

Bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

Uch va undan ortiq sodda gaplar o'zaro teng munosabatda bo'lsa va teng bog'lovchilar yoki shu vazifadagi boshqa vositalar bilan bog'langan bo'lsa, murakkab qo'shma gapning bog'lanish yo'li bilan tuzilgan turini tashqil qiladi. Bunday murakkab qo'shma gaplar ma'lum bir vaqtda yoki ketma-ket ro'y bergan voqea-hodisalarni(yoki ularning ro'y bermaganligini) ifodalaydi.

Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap. Birdan ortiq ergash gaplarning bir bosh gap bilan birikishidan tashkil topgan sintaktik tuzilmalar ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap deyiladi. Masalan: Shunday payt yuzaga keldiki, yolg'iz seningina bu ishni bajara olasan, sendan bo'lak hech kim uni hal eta olmaydi. Bunda ergash komponentlar bosh gapga ikki xil yo'l bilan birikadi: birgalik ergashish va ketma-ket ergashish yo'li bilan.

*Ergash gaplar bosh gapga alohida - alohida (mustaqil) bog'lansa, birgalik ergashish deyiladi. M.: O'tirish qanchalik sodda, dasturxon qanchalik faqirona bo'lsa, suhbatimiz shuncha samimiy va shirin bo'ladi.

*Birdan ortiq ergash gaplarning biri ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga tobelanib bosh gapga bog'lanishidan hosil bo'lgan gaplar ketma-ket ergashuv yo'li bilan tuzilgan murakkab gap deyiladi. M.: Sahro shunday olamki, ishchi qo'llar bo'lsa, hamma narsa bor, ular bo'lmasa, hech narsa yo'q.

Aralash aloqali murakkab qo'shma gap. Aralash aloqali murakkab qo'shma gap teng aloqali komponentlar va ularga tobe bo'lgan komponentlar birikuvidan tuziladi. M.: Kattalar qancha ishlasa, bolalar ham shuncha ishlar edi, biroq xo'jayin bolalarga kam haq to'lardi.

O'zga gap. So'zlovchi (muallif)ning biron bir shaxs fikri (gapi)ni o'z nutqi ichida keltirishi o'zganing gapi deyiladi.

O'zganing gapi turli shaklda ishlatiladi. Bo'larning asosiy ko'rinishi ikki xil: 1) Ko'chirma gap; 2) O'zlashtirma gap.

Ko'chirma gapda bayon qilingan fikrnigina bildirmay, balki hali ifoda etilmagan, fakat o'ylangan - taxmin qilingan fikrni ham bildirishi mumkin. Shuning uchun bu holda muallif gapining kesimi o'yladi, dedi ichida, dedi o'ziga-o'zi, kabi shaklda ifodalaniadi.

Bayon qilingan fikrni ifodalovchi ko'chirma gaplar fikrning tenglovchiga qaratilganini ko'rsatsa, bayon qilinmagan fikrni bildiruvchi ko'chirma gapda fikr so'zlovchining o'ziga qaratilgan bo'ladi. «Nahotki rost bo'lsa! - dedi ichida yigit. - Demak, kishining qo'li uzun bo'lsa, olmani o'sha uzadi, debdi-da do'stim».

Ko'chirma gapda ba'zan biror predmetning «gapi» ham ko'chirilib berilishi mumkin. Bu holat asosan poetik asarlar uchun xos: Paxta dedi kulib tovlanib: Sevgan kishi meni maqtasin.

Ko'chirma gapning o'rni uslubiy talablarga muvofiq turlicha (muallif gapidan keyin, undan oldin, uning o'rtasida, uning har ikki tomonida) bo'ladi. Masalan: Sayramov cholni... sekin quchoqlab : « Hali ko'nglingiz g'unchaday yosh, bilaman,» - dedi.

«Juda to'g'ri hak, gap, - dedi Boltaboev, - hamma yutuqlaringiz birlik orqasidan kelayotir»

O'zlashtirma gap. Ko'chirma gapning muallif tomonidan mazmuni saqlangan holda shaklan o'zgartirilib berilishi o'zlashtirma gap deyiladi. O'zlashtirma gap o'zga gapning yana bir ko'rinishidir. Bunda o'zgaralar fikrining asosiy mazmuni saqlangan holda, kesimning gramatik xususiyatlari o'zgartirilib beriladi. Komiljon kitob kishini ko'p narsaga o'rgatishini aytdi. Mazkur o'zlashtirma gapda tubandagi ko'chirma gap mavjud : «Kitob kishini ko'p narsaga o'rgatadi», - dedi Komiljon.

Ko'chirma gap ,o'z sostavida nechta gap borligidan qat'y nazar o'zlashtirma gapga aylantirilganda sodda gap holiga keltiriladi.

O'zlashtirma gapda muallif gapining bosh bo'laklari saqlangan holda (ba'zan ikkinchi darajali bo'laklar ham saqlanadi) ko'chirma gap birikmali to'lduruvchiga aylanadi. M.: «Har soatni g'animat bil », dedi Sakson ota.. Sakson ota har soatni g'animat bilish kerakligini aytdi.

Mazmun tugalligi, tuzilish, bog'lanish vositalari, ohang va uslub jihatdan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan nutq parchasi matn deyiladi.

Matn ikki turli bo'ladi : makromatn va mikromatn .

Makromatn matnshunoslikning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Yozilgan yoki bosilgan, aytilgan nutq, kitob, gazeta, jurnal va shu kabilarning rasm, jadval, bezaklardan boshqa qismi, rasmiy xujjatlarning sharh va izohlardan boshqa qismi, musiqa asarlariga asos bo'lgan so'zlar, she'rlar makromatnning ko'rinishlaridir .

Mikromatn tilshunoslikning o'rganish ob'ekti sifatida gapdan katta yuqori darajadagi sintaktik birlik, murakkab sintaktik butunlik, supersintaktik butunlik sifatida qaraladi.

Mikromatn yoki supersintaktik butunlik (SSB) semantik bir butundir. Bu ,birinchi galda, uning mavzusi – mazmuni)ning umumiylikida o'z ifodasini topgan. SSB mavzusi bir butun SSB mazmunining yadrosidir, markazidir. SSB tarkibidagi har bir keyingi gap kommunikativ planda oldingi gapga tayanadi, jumla mazmunini ma'lumdan yangiga rivojlantiradi. Natijada jumlar o'rtasida tema-rema zanjiri hosil bo'ladi . SSB tarkibidagi jumlar nafakat mavzu umumiylikigi va kommunikativ progressiya asosida,balki uning bir butunligini ta'minlaydigan turli xil tashqi signallar orqali ham bog'lanadi.Tashqi signallar sifatida olmoshlar, ayrim ravishlar, takror zamon shakllari SSB hosil qilish funksiyasini bajaradi.

Nazorat savollari va topshiriqlari.

1-mavzu bo'yicha

- 1.1.3.qo'shma gapning ta'rifini aytib bering.
- 1.1.4.Gaplarning tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linishini ayting.
- 1.2.2.qo'shma gap nutqning zarur talabi ekanligini izohlang.
- 1.2.3qo'shma gap tuzish uchun nimalar zarur?
- 1.3.1.qo'shma gap berilgan javobni toping.
 - A) Sidiqjon Butazor ko'chasidagi uylardan biriga ko'chgan Ro'zimatni tabriklagani bordi.
 - V) Tushimda Gavharning xushhol kulimsirab turgani esga tushar va sog'inch hissini bir kadar bo'lsa ham bosar edi.
 - S) Bormasak, kelmaydi.
 - D) Cho'llar chaman sohdilar tashlab anduhlarini, jaranglatib ochdilar oltin sandiqlarini.
 - E) Tarbiyachilarning shuncha harakat qilishiga qaramay, Kamolani «dalaga aylantirish» juda sekinlik bilan bordi.
- 1.4.1.Nutqda sodda gaplar bilan birga yana qanday gaplar qo'llanadi?
- 1.4.2.qo'shma gaplarsiz nutq (keng ma'noda) bo'lishi mumkinmi?
- 1.5.1.Ushbu qo'shma gapning, grammatik asoslari qaysi javobda ko'rsatilgan? Mayli, juda g'arib bo'lsa ham, hech kimga aytmagan qo'shig'ingni ayt.
 - A) hech kimga aytmagan qo'shig'ingni ayt.
 - V) juda g'arib bo'lsa ham mayli.
 - S) g'arib bo'lsa ham, ayt.
 - D) hech kimga aytmagan, g'arib bo'lsa ham.
 - E) A va V javoblar to'g'ri.
- 2.3.2.qo'shma gapni toping.
 - A) Adabiy asar buyumlar to'g'risida emas, kishi, inson taqdiridan bahs ochadi.
 - V) Yo'lchi uchun bu qiz endi begona emas.
 - S) O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir.
 - D) O'sha qizni ko'rdim-u, hayolimda ilk bor ko'nglimda ishq alangalandi.
 - E) Men balog'at yoshiga etgan bo'lsam-da, hali ilk sevgiga duch kelmagandim.
- 2.4.1.Sifatdosh oborotli sodda gap bilan qo'shma gapni qiyoslang.
- 2.5.1.Sodda gap bilan qo'shma gap qanday umumiy xususiyatlarga ega?
- 2.6.1.O'zlashtirma gap qo'shma gapmi, sodda gapmi?
- 2.6.2.Xolmurod yo'lda kelar ekan, kasalxonaga burilishda ikkita yangi mashinani ko'rdi gapini tuzilishiga ko'ra talqin qiling.
- 3.1.1.qo'shma gap qismlarini bog'lovchi grammatik vositalarni ko'rsating.
- 3.2.1.qo'shma gap qismlarini bog'lovchi leksik vositalarni sanang.
- 3.3.1.Gap bo'lagining takrorlanishi hodisasini tushuntiring.
- 3.2.2.Umumiy ikkinchi darajali bo'laklarning bo'lishi qo'shma gaplarda qanday vazifa o'taydi?
- 3.2.3.qo'shma gapni hosil qilishda yana qanday vositalar qatnashadi?
- 3.2.4.qo'shma gap turlarining hosil bo'lishida intonatsiyaning rolini tushuntiring.
- 3.2.5.qo'shma gapning qaysi turlarida grammatik vositalar faol rol o'ynaydi?
- 3.3.1.Ushbu gapda bog'lovchi vositalarning qaysi turlari ishtirok etgan? Haqiqat osmonda emas, haqiqat erda.

3.3.2.Uyg'onganida, suyaklari zirqirar, turishga ham madori yo'q edi, gapidagi bog'lovchi vositalar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- a) zamon munosabati;
- v) kesimlarning shakli;
- s) umumiy ikkinchi darajali bo'lak;
- d) edi.
- e) kelishik qo'shimchasi, to'liqsiz fe'l.

3.4.1.Bog'lovchi vositalarning qaysi biri eng universal vosita hisoblanadi?

3.4.2.Nima uchun ba'zan takrorlanishi kerak bo'lgan bo'lak ikkinchi gapda ifodalanmaydi?

3.4.3.Kesimi umumiy bo'lgan gap sodda gap bo'ladimi, qo'shma gap?

3.4.4.qaysi olmoshlar ko'proq bog'lovchi vosita vazifasini ham o'taydi?

3.5.1.Bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalarni grammatik vositalar deyilishi to'g'rimi?

2- mavzu bo'yicha

1.1.1qo'shma gaplar qaysi jihatlariga ko'ra turlarga ajratiladi?

1.1.2.qo'shma gaplar tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?

1.2.1.Bog'lovchili va bog'lovchisiz qo'shma gaplar nimasiga ko'ra shunday tasnif qilingan?

1.3.1.Komponentlarning sintaktik aloqasiga ko'ra tasnif berilgan qatorni toping.

- a) bosh va ergash gapli qo'shma gap
- v) tobe va ergash aloqali qo'shma gap
- s) teng, tobe va aralash aloqali qo'shma gap.
- d) teng qismli va tobe qismli gaplar
- e) predikativ va nopredikativ aloqali

1.3.2.qo'shma gaplarning tuzilishiga ko'ra tasnifi berilgan javob qaysi?

- a) yoyiq va yig'iq sodda gaplardan tuzilgan qo'shma gaplar
- v) predikativ birliklardan tashkil topgan qo'shma gaplar
- s) nopredikativ birliklardan tashkil topgan qo'shma gaplar.
- d) ikki komponentli va ko'p komponentli, sodda va murakkab qo'shma gaplar.
- e) to'liq va to'liqsiz gaplardan tashkil topgan qo'shma gaplar.

2.1.2.Ergash gapli qo'shma gapning umumiy xususiyatlarini ayting.

2.1.3.Bog'lovchisiz qo'shma gaplar qanday hosil bo'ladi?

2.1.4.Bog'langan qo'shma gaplar qanday gaplardan tashkil topadi?

2.2.5.Bog'langan qo'shma gap deb nimaga aytiladi?

2.2.6.Bog'langan qo'shma gap tiplari o'zaro qanday vositalar orqali bog'lanadi?

2.2.7.Bog'langan qo'shma gapda qanday voqea-hodisalar ifodalanadi?

2.3.1.Bog'langan qo'shma gap berilgan javobni toping.

- A) Shu payt to'satdan ko'cha eshigi ochildi-yu, Husanxuja halloslaganicha kirib keldi.
- V) Kim bo'lar edi: suv yoqalab yurgan suvchilardan birida.
- S) qushlar baland uchganda, havo ochiq bo'ladi.
- D) Muzlagan suv qisirlasa, u bir cho'chib tushardi.

2.3.2.Sen bundan qutulasan, men esa o'z maaqsadimga etaman. Bu qo'shma gapning qaysi turi?

2.4.4.Odamga andisha kerak, lekin undan ham oldin insof kerak qo'shma gapini izohlang.

2.5.1.Bog'langan qo'shma gap atamasi to'g'risida nima deysiz? U hodisa xususiyatini to'liq aks ettira olganmi?

3.1.3.Bog'langan qo'shma gap o'z ichida qanday tiplarga bo'linadi?

3.1.4.Bog'langan qo'shma gapning bog'lovchili turini ayting.

3.2.4.Biriktiruv bog'lovchili qo'shma gaplar qanday voqea-hodisalarni ifodalaydi?

3.2.5.Biriktiruv bog'lovchilarga qaysi bog'lovchi vositalar kiradi?

3.2.6.Biriktiruv bog'lovchili qo'shma gaplar o'z ichida necha guruhga bo'linadi?

3.3.1.Ham kulasiz, ham kuyasiz gapi to'g'risidagi qaysi hukm to'g'ri.

- A) biriktiruv bog'lovchili qo'shma gap.
- V) yuklamali bog'langan qo'shma gap
- S) shaxsi aniq sodda gap.
- D) egasiz bosh bo'lakli (kesimli) sodda gap
- E) egasi topiladigan gap

- 3.4.1. Biriktiruv bog'lovchili qo'shma gaplarning qismlari o'zaro qanday mazmun munosabatlarini ifodalaydi?
- 3.4.2. quyidagi qo'shma gapda qanday mazmun munosabati ifodalangan?
- 3.4.3. Hamon chopib boradi va lekin ko'kragi qon.
- 4.1.2. Zidlov bog'lovchili qo'shma gapning ta'rifini ayting.
- 4.2.1. Zidlov bog'lovchili qo'shma gap asosan qanday voqealarni ifodalaydi?
- 4.2.2. Zidlov bog'lovchili qo'shma gap qismlari o'zaro qanday vositalar orqali bog'lanadi?
- 4.3.1. Zidlov bog'lovchili qo'shma gap qismlari qanday mazmun munosabatlarini ifodalaydi?
- 4.4.1. Zidlov bog'lovchili qo'shma gapni toping.
- A) U erta yotdi, ammo yarim tungacha uxlay olmadi.
 V) Biroq bu holatlar fikrimizga monelik qila olmaydi
 S) Ammo lekin juda zo'r chizibsiz-da.
 D) Bu erda zidlov bog'lovchili qo'shma gap yo'q.
- 4.5.1. Siz pulga ega bo'lasiz, men esa mansabga gapida qanday mazmun munosabati ifodalanganini izohlang.
- 4.5.2. Izohlash munosabati ifodalangan zidlov bog'lovchili gap topib uni izohlang.
- 5.1.2. Ayiruv bog'lovchili qo'shma gapni ta'riflang.
- 5.2.5. Ayiruv bog'lovchili qo'shma gaplar qanday xarakterdagi voqea-hodisalarni ifodalaydi? Misillar keltiring.
- 5.2.6. Ayiruv bog'lovchili qo'shma gap qismlari o'zaro qanday vositalar orqali bog'lanadi?
- 5.2.7. Goh, dam, bir bog'lovchilari bilan bog'langan qo'shma gaplarda qanday voqealar ifodalanadi?
- 5.2.8. Yo, xoh bog'lovchilari orqali bog'langan qo'shma gaplarda qanday voqealar ifodalanadi?
- 5.3.1. Dam kuladi, dam yig'laydi. Ushbu gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?
- A) qo'shma gap. V) yoyiq sodda gap S) yig'iq sodda gap.
 D) ayiruv bog'lovchili qo'shma gap E) uyushiq bo'lakli sodda gap J) S,E javoblar to'g'ri.
- 5.4.1. Ayiruv bog'lovchili qo'shma gap qismlari qanday mazmun munosabatlarini ifodalaydi?
- 5.4.2. Dam kulgim keladi, dam jahlim chiqadi gapi to'g'risida o'z fikringizni ayting.
- 6.1.4. Na-inkor bog'lovchi yuklamasi qanday ma'nodagi qo'shma gaplarni hosil qiladi?
- 6.1.5. Na inkor bog'lovchi - yuklamasi qo'shma gaplarda qanday qo'llanadi?
- 6.1.6. Na inkor bog'lovchi - yuklamasi qo'shma gaplarning kesimida qanday o'ziga xos holat ko'zga tashlanadi?
- 6.2.1. Na inkor bog'lovchi - yuklamasining sodda va qo'shma gaplarda qo'llanishida qanday farqlar bor.
- 6.3.1. Osmondan, erdan so'zlari yordamida na inkor bog'lovchi - yuklamali qo'shma gap tuzing.
- 6.4.1. Inkor mazmuni na inkor bog'lovchi yuklamasidan tashqari yana qanday vositalar yordamida ifodalanadi?

3- mavzu bo'yicha

- 1.1.1. Ergash gapli qo'shma gap deb nimaga aytiladi?
- 1.1.2. qanday gap bosh gap deyiladi?
- 1.1.3. Ergash gapning ta'rifini ayting?
- 1.2.1. Bosh gap mazmunan qanday belgi-xususiyatga ega bo'ladi?
- 1.2.2. Bosh gapning grammatik belgi- xususiyatlarini ko'rsating.
- 1.2.3. Ergash gapning vazifasi nimalardan iborat?
- 1.2.4. Ergash gap qanday grammatik belgi-xususiyatlarga ega.
- 1.2.5. Ergash gapli qo'shma gapning qaysi komponenti mavhum, umumiy ma'noli bo'ladi.?
- 1.4.1. Bosh gap haqidagi qaysi hukm to'g'ri?
- A.) Aniq mazmunli bo'ladi.
 V.) Havola bo'lakli bo'ladi.
 S.) Ma'nosi izohlanayotgan bo'ladi.
 D.) Umumiy, mavhum mazmunli bo'ladi.
 E.) S, D javoblar to'g'ri.
- 1.5.1. Bosh gapning hokimlik mavqeini misollar asosida isbotlang.
- 2.1.1. Ergash gap bosh gapga necha turli vositalar orqali bog'lanadi?
- 2.2.1. Bog'lovchili ergashish usulini izohlang?

- 2.2.2. Bog'lovchisiz ergashish deganda nimani tushunasiz?
- 2.2.3. Nisbiy so'zlarning bog'lovchilik vazifasini tushuntiring.
- 2.2.4. Bog'lovchi so'zlar haqida ma'lumot bering.
- 2.2.5. Yuklamalarning bog'lovchilik vazifasini tushuntiring.
- 2.2.6. Ergash gapni bosh gapga bog'lashda qaysi kelishik qo'shimchalari faol qatnashadi?
- 2.2.7. Ergash gapni bosh gapga bog'lashda ohang qanday rol o'ynaydi?
- 2.2.8. Komponentlarning o'rinishi ularning bog'lanishiga ta'sirini izohlang.
- 2.3.1. Bechora qiz boshiga tushgan savdolarni biram qaqshab turib aytdiki, achinganimizdan ko'zimizga yosh oldik. Gapdagi bog'lovchi vositalarni aniqlang.
- 2.3.2. Uyushiq ergash gapli qo'shma gaplar komponentlarini bog'lovchi vositalar berilgan javob qaysi?
- A) fe'l formalari, kelishik qo'shimchalari;
- V) ergashtiruvchi bog'lovchilar, yuklamalar;
- S) nisbiy so'zlar, ohang;
- D) bog'lovchi so'zlar;
- E) aytilganlarning hammasi to'g'ri.
- 2.5.1 Bog'lovchi vositalarning qaysi turi ergash gapni bosh gapga bog'lashda eng faol hisoblanadi?
- 3.1.1 Bosh gapdagi biror bo'lakni izohlovchi ergash gaplar qaysilar?
- 3.2.1. Ega ergash gap haqida ma'lumot bering.
- 3.2.2. Kesim ergash gapning grammatik xususiyatlarini ayting.
- 3.2.3. Aniqlovchi ergash gapni izohlang.
- 3.2.4. To'ldiruvchi ergash gapning semantik-sintaktik xususiyatlarini ko'rsating.
- 3.2.5. Aniqlovchi ergash gapni o'lchov-daraja ergash gapga o'xshash va farqli tomonlarini tushuntiring.
- 3.3.1. Yurak tandir emaski, o't qo'yib qizdirsang. Mazkur gap haqidagi hukmning qaysi biri to'g'ri?
- A) kesim ergash gapli qo'shma gap;
- V) bog'lovchisiz qo'shma gap;
- S) murakkablashgan sodda gap;
- D) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap;
- E) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
- 3.3.2. Ushbu gapdagi ergash gap ergash gapning qaysi turiga kiradi?
- Uzumimiz bu yil shunday bo'lib berdiki, hosilni sig'dirolmay qoldik.
- A.) Aniqlovchi ergash gap.
- V.) O'lchov-daraja ergash gap.
- S.) To'ldiruvchi ergash gap.
- D.) Ravish ergash gap.
- E.) Natija ergash gap.
- 3.4.1. Ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi ergash gaplarni nomlashda nimaga asoslanilgan?
- 4.2.3. Sabab ergash gapning ta'rifini ayting.
- 4.2.4. Shart ergash gap deb nimaga aytiladi?
- 4.2.5. To'siqsiz, maqsad va natija ergash gapning ta'rifini ayting.
- 4.3.1. Sabab ergash gap bosh gapga qaysi vositalar orqali bog'lanadi?
- 4.3.2. Shart ergash gap yozilgan javobni toping.
- a) Mehnat qilsangiz, barakasi oshiradi.
- b) Kelmasangiz, olmaysiz.
- G) Er ko'karmay, mol to'yimas.
- D) borsam, yo'q ekansiz.
- 4.3.3. To'liqsiz ergash gaplar bosh gapga qaysi vositalar orqali bog'lanadi?
- 4.3.4. Maqsad ergash gaplarga 2 ta misol yozing.
- 4.3.5. Natija ergash gap qanday hosil bo'ladi?
- 4.5.1. Shartlanganlik munosabati sodda gapda ham ifodalanadimi?
- 4.5.2. Sabab munosabati qanday vositalar yordamida ifodalanadi?
- 5.1.1 O'rin ergash gapning semantik – sintaktik xususiyatlarini ko'rsating.
- 5.1.2 Payt ergash gap haqida ma'lumot bering.

- 5.1.3 Ravish ergash gap qanday semantik- sintaktik xususiyatlarga ega?
 5.2.1 O'lchov-daraja ergash gaplar qaysi jihatlari bilan xarakterlanadi?
 5.2.2 Chog'ishtirish va o'xshatish ergash gaplar haqida ma'lumot bering.
 5.3.1 Payt va o'rin ergash gaplar berilgan javoblarni toping?
 A.) Otni egarlab turgan edim, polvon otam kirib kelib koldi.
 V.) Sen kaerda bo'lsang, men ham shu erda bo'laman.
 S.) O'zim har joydaman, ko'nglim sendadir.
 D.) Bahor kelsa, gul bo'ladi bu tog'lar.
 E.) A, V, D javoblar to'g'ri.

4- mavzu bo'yicha :

- 1.1.2. Bog'lovchisiz qo'shma gap deb nimaga aytiladi ?
 1.2.1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar o'z ichida qanday turlarga bo'linadi?
 1.3.1. Bog'lovchisiz qo'shma gap berilgan javob qaysi?
 A) Shunday kunlar bo'lgan, Alisher mayda tavishlar uchun ham tangasiz qolgan.
 V) Hech kim, hech narsa unutilmaydi.
 S) Ayol borki, olam munavvar.
 D) Borsam, yo'q ekansiz.
 E) Inson ko'ngli shishadan nozik, toshdan qattiq.
 2.1.1. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap qanday voqealarni ifodalaydi?
 2.1.2. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan qo'shma gap komponentlari o'zaro qanday mazmun munosabatiga ega?
 2.1.3. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlari o'zaro qanday bog'lanadi?
 2.1.4. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap kesimlari qanday ifodalanadi?
 2.1.5. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar yana qanday xususiyatlar bilan xarakterlanadi?
 2.2.1. Bog'langan qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gapni toping.
 A.) O'ktamning niyati holis, yuragi toza.
 V.) Cho'llar bo'ston bo'ldi, qumloqlar gulzor.
 S.) qo'ng'iroq chalindi va dars boshlandi.
 D.) Bog'da mayin kuy yangrar, goho yoshlarning qahqaqasi eshitilib qolar edi.
 E.) A va V javoblar to'g'ri.
 2.4.1. Turg'unoy birinchi tovushni eshitishda seskandi, so'ngra esa vahimaga tushdi gapni to'g'risidagi hukmingizni ayting.
 3.1.3. Ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari qanday mazmun munosabatlarini ifodalaydi? Misollar keltiring.
 3.1.4. Ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari o'zaro qanday bog'lanadi?
 3.3.2. Ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gapni toping.
 A) to'g'ri bo'ling – behavotir bo'lasiz;
 V) arava notinch bo'ldi-sut chayqaladi, to'kiladi;
 S) yaxshi topib gapiradi, yomon-qopib;
 D.) chiroqlar yondi, hamma yoq yorishib ketdi;
 E.) A va V javoblar to'g'ri.
 3.4.1. Etlarimni nishtar bilan tilsinlar, xonu monimga o't qo'ysinlar, boshimdan tegirmon toshi yurgizsinlar, men sizdan ajralmayman. Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga sinonim?
 A) shart ergash gapli qo'shma gapga;
 V) aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapga;
 S) ravish ergash gapli qo'shma gapga;
 D) to'siqsiz ergash gapli qo'shma gapga;
 E) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapga.

3.3.1. Bog'lovchisiz qo'shma gapning ergash gapli qo'shma gapga sinonim bo'lish sabablarini tushuntiring.

3.5.1. Shul erur aybim, Muqimiy, mardumi farg'onaman. Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turi va tipiga kiradi? O'z fikrigizni ayting.

5- mavzu bo'yicha

1.1.1. Murakkab qo'shma gapni ta'riflang.

1.2.1. Murakkab qo'shma gap necha turga bo'linadi?

1.3.1. Murakkab qo'shma gap qanday bo'ladi?

1.4.1. qo'shma gaplarning sodda va murakkab deb turlarga ajratishda asosan nimalar e'tiborga olinadi?

1.4.2. qo'shma gapning murakkab formasi, sodda formasidan qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?

1.4.3. Murakkab qo'shma gaplar nima asosda turlarga ajratiladi?

1.5.1. «Tong otdi va quyosh chikishi bilanoq, odamlar dala tomon o'tlanishdi».

Ushbu gap murakkab qo'shma gapning qaysi turiga mansub?

A) Bog'lanish (tenglanish) yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

B) Aralash aloqali murakkab qo'shma gap.

V) Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

G) Bu gap sodda qo'shma gap.

2.1.1. Teng bog'lanishli murakkab qo'shma gapni ta'riflang?

2.2.1. Bunday murakkab qo'shma gaplarda komponentlar qanday aloqada bo'ladi?

2.3.1. Teng bog'lanishli murakkab qo'shma gap komponentlarining kesimi qanday bo'ladi?

3.1.1. Tobe aloqali murakkab qo'shma gap qanday bo'ladi?

3.2.1. Tobe aloqali murakkab qo'shma gaplarda ergash gaplar bosh gapga qanday yo'l bilan birikadi?

3.3.1. Bunday murakkab qo'shma gaplarda bosh gapning o'rni qayerda bo'ladi?

4.2.1. Aralash aloqali murakkab qo'shma gap komponentlari asosan qanday mazmun munosabatlarini ifodalaydi?

4.3.1. Aralash aloqali murakkab qo'shma gapni toping?

A) Yulduzning muomalasi shu qadar mayin ediki, har qanday odam u bilan gaplashib to'ymasdi.

B) Kattalar qancha ishlasa, bolalar ham shuncha ishlar edi, biroq xujayin bolalarga kam haq to'lar edi.

S) Otdaysiz, boy, bitta-yarimta shish bor, ammo bezarar, birov borsin, dori beraman, shishlaringiz, butun illatlaringiz bir pasta qaytadi.

D) Men o'zimni inson bilganda, gulga to'lib bahor kelganda, yuragimda havas uygondi.

E) Shunday hayot tug'ildiki, u sensiz yashay olmaydi.

4.4.1. quyidagi murakkab qo'shma gapni sxemada ifodalang.

Men olmani sizlarga shu istak bilan beraman; qaysi biringizni xotiningiz o'g'il tug'sa, otini Toxir qo'ying, qaysi biringizni xotinigiz qiz tug'sa, otini Zuxra qo'ying.

6- mavzu bo'yicha

1.1.1. Gaplar so'zlovchiga munosabatiga ko'ra necha turga bo'linadi?

1.1.2. O'zga gapning ta'rifini aytib berinig?

1.1.3. Nima uchun so'zlovchi o'zganing gaplaridan foydalanadi?

1.2.1. O'zga gapli sintaktik qurilmalar, muallif, muallif gapi, o'zganing gapi tushunchalarini izohlang?

1.2.2. O'zganing gapi shaklidagi muallif gapini tushuntiring?

1.2.3. O'zganing gapi 1-shaxsga tegishli bo'ladimi?

1.3.1. qaysi javobda o'zganing gapi berilgan?

A) Maqsadga erishish yo'lidagi mashaqqatlardan chekinmaslik kerak.

V) Onayu bola-gulu lola.

D) «Nahotki rost bo'lsa!» –dedi ichida yigit.

E) D. javob to'g'ri.

1.4.1. Nima uchun o'zganing gapi so'zlashuv uslubida ko'p qo'llaniladi?

2.1.1. Ko'chirma gap haqida tushuncha bering.

2.1.2. Ko'chirma gapning ta'rifini ayting.

- 2.1.3. Muallif gapning kesimlari haqida ma'lumot bering.
- 2.2.1. Ko'chirma gapning vazifalari nimalardan iborat?
- 2.2.2. Muallif gapi qanday vazifalarni bajaradi?
- 2.3.1. Ko'chirma gaplarga shakliga ko'ra tavsif bering.
- 2.3.2. Muallif gapni tuzilishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
- 2.4.1. «Sahroning bag'ri yomg'irga tashna bo'lgandek,-dedi Sultonmurod qo'lini harakatga solib,- Xurosonning eli adolat va haqiqat yoshiga tashnadir.» Ko'chirma gapli qo'shma gapdagi ko'chirma gap va o'zlashtirma gapni joylashishiga ko'ra to'g'ri tavsiflangan javobni toping?
 - A) Ko'chirma gap – ergash gapli qo'shma gap, muallif gapi-sodda yoyiq gap.
 - V) Ko'chirma gap –bog'lovchisiz qo'shma gap, muallif gapi- sodda yig'iq gap.
 - S) Ko'chirma gap – bog'langan qo'shma gap, muallif gapi –sodda gap.
 - D) Ko'chirma gap- qo'shma ergash gapli qo'shma gap, muallif gapi- shaxsi aniq gap.
- 2.5.1. Muallif gapining kesimi qanday so'zlar bilan ifodalaniladi?
- 2.5.2. Muallif gapining kesimi qanday paytlarda tushib qoladi?
- 2.5.3. Muallif gapining asosiy vazifasi nimadan iborat?
- 2.6.1. Ko'chirma gap o'zgalarning bayon kilgan fikrinigina ifodalaydimi?.
- 2.6.2. Ko'chirma gaplar faqat shaxslarning gapi bo'la olmasligini isbotlang?
- 2.7.1. Ko'chirma gapning o'rni haqida ma'lumot bering?
- 2.7.2. Muallif gapining o'rniga ko'ra tinish belgilari qanday qo'yiladi?
- 3.1.1. O'zlashtirma gapning asosiy xususiyatini aytib bering?
- 3.1.2. O'zlashtirma gap muallif gapimi yoki o'zganing gapimi?
- 3.2.1. Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganda nimalar o'zgaradi?
- 3.2.2. O'zlashtirma gapda muallif gapi ham bo'ladimi?
- 3.3.1. O'zlashtirma gap berilgan javobni toping.
 - A) Yaxshiki ibn Sinoni Xorazmshoh o'z saroyiga chaqirtirgan-deb o'yladi Aburayxon.
 - V) Uning yonidagi bir kosaga: «Ilmning ibtidosi achchik, so'nggi boldan ham totli»-deb yozilgandi.
 - S) O'ktam davlat rejasini bajarish, ishchilarni yaxshi ta'min etish haqida so'zladi.
 - D) Beruniy soflik haqida so'zladi.
 - E) S,D javoblar to'g'ri.
- 3.4.1. O'zlashtirma gapning grammatik xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?

7- mavzu bo'yicha:

- 1.1.3. Matn va uning turlari to'g'risida tushuncha bering .
- 1.2.1. Matnning gapdan katta sintaktik butunlik ekanligi nimalarda ko'rinadi ?
- 1.3.1. Mikro va makro matnga nimalar kiradi ?
- 1.4.1. SSB'larga turlicha karashlarga baho bering.
- 2.1.1. SSB haqida ma'lumot bering ,
- 2.2.1. SSBning mazmuniy va sintaktik birligi nimalarda ko'rinadi?
- 2.3.1. SSBga misollar keltiring .
- 2.4.1. Berilgan matnni turlarga ajrating (matnlar tarkatiladi)
- 3.1.1. Matn qismlari o'zaro qaysi vositalar orqali bog'lanadi .
- 3.2.1. Anaforik va kataforik vositalarga qiyosiy tasnif bering .
- 3.3.1. Berilgan matndagi anaforik va kataforik vositalarni aniqlang.

Fan bo'yicha chuqur o'rganishni talab qiladigan, shuningdek, o'z echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Til va tafakkur munosabati yangi bosqichda.
2. Ichki nutq va til.
3. Predikativ aloqa, predikativ birikma, predikativ birlik, predikativlik tushunchalarining munosabati.
4. Sintaktik munosabat va sintaktik aloqaning o'zaro munosabati.
5. So'z birikmasining tuzilishiga ko'ra turlari.
7. Fe'lli so'z birikmasi va fe'l predikatli gaplar.
8. Predikativlik va modallik munosabati.

9. Predikativlik va predikat, kesim munosabati.
10. To'liqsiz gaplarda predikativlikning ifodalanishi.
11. Bo'laklarga ajralmaydigan gaplarda predikativlik qanday bo'ladi?
12. Atov gaplar bosh bo'lagining sintaktik mavqei talqini.
13. To'liqsiz gap va so'z – gap munosabati.
14. Gapning semantik tuzilishi.
15. Gap bo'lagi hisoblanmaydigan sintaktik shakllarning gap bo'laklari bilan aloqasi.
16. Gap bo'lagining yangicha talqini.
17. Ega va sub'ekt munosabati.
18. Murakkab sodda gap, sodda gaplarning murakkablashuvi, murakkablashgan sodda gap atamalarining tahlili.
20. Uyushiq kesimlar, uyushgan va uyushiq sodda gaplarning o'zaro munosabati.
21. Ajratilgan bo'laklar va oborotlar.
22. Kirishlarning sintaktik vazifalari.

TEST SAVOLLARI

1. Qaysi javobda ravish holi ko'makchili shaklda qo'llangan?
 - A. *Mashina shiddat bilan qaltis tog' yo'lidan o'tib ketdi.*
 - B. *Yuragi do'stlarning, yaqinlarning, shogirdlarning sog'inchi bilan to'ldi.*
 - S. *Oraga Asqar polvon bilan Ali tajang ham suqildi.*
 - D. *Bobosi ko'chada allakim bilan gaplashdi.*
 - E. *Go'zal vodiydagi Gulsar bog'i ko'klam libosi bilan burkaldi.*
2. *Ota-onaning yomon nomi farzandlarga ham isnod keltiradi.* Ushbu gapning grammatik asosini aniqlang.
 - A. *Farzandlarga isnod keltiradi.* B. *Yomon nomi isnod keltiradi.*
 - S. *Nomi isnod keltiradi.* D. *Farzandlarga keltiradi.*
 - E. *Isnod keltiradi.*
3. Uyushiq ot kesim qo'llangan qatorni toping.
 - A. *Qiz qah-qah otib kuldi va tezda jo'nab ketdi.* B. *Odamlar bilan yashash, ishlash, do'stlashish naqadar yaxshi.* S. *U yer haydadi, chopiq chopdi, suv surdi, dalaga go'ng tashidi, shaharga paxta tashidi.* D. *Xona ichi issiq, jimjit, dim.* E. *Darvoza sekin taqirladi-da, ochildi.*
4. Qaysi javobda gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmagan birliklar nomi to'g'ri berilgan?
 - A. *Undalma, uyushiq bo'lak, ajratilgan bo'lak, kiritma gap.*
 - B. *Kirish so'z, kirish birikma, undalma, kiritma gap.*
 - S. *Kirish so'z, ajratilgan to'ldiruvchi, uyushiq aniqlovchi, undalma.*
 - D. *Ajratilgan izohlovchi, undalma, uyushiq ega, kirish so'z.*
 - E. *Hamma javob to'g'ri.*
5. Qaysi javobda bog'langan qo'shma gap berilgan?
 - A. *Katta ariqning nariga sohili ularniki, berigi sohili esa bizniki.*
 - B. *Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir.*
 - S. *Allaqanday poyonsiz, g'arib oqshom.*
 - D. *Baxt havoda esmaydi, u mehnatda keladi.*
 - E. *Keksalarning mehnati unum bermasa ham, maslahati unum beradi.*
6. Qaysi javobda shaxsi umumlashgan bir sotsavli (bir bosh bo'lakli) gap berilgan?
 - A. *Kechaning ilik havosidan nafas oldik.*
 - B. *Uzoqdan tog'lar qorayib ko'rina boshladi.*
 - S. *Aql'ni beaql'dan o'rgan.*
 - D. *Yolg'izlikdan zerikib, xafa bo'lib o'tirgan edim. Ot aravalar birin-ketin saroyga olib kirildi.*
7. Berilgan gap ergash gaplarning qaysi turiga mansub?

Shunisi ravshanki, ta'lim-tarbiya hayot bilan bog'lik bo'lishi lozim.

 - A. *To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.*
 - B. *Kesim ergash gapli qo'shma gap.*

S. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.

D. Ega ergash gapli qo'shma gap.

E. Natija ergash gapli qo'shma gap.

8. Qaysi javobda uyushiq vositali to'ldiruvchi berilganq

A. Datsavval Surxondaryoda, keyin Qarshi cho'lida ishladim.

B. Men oddiy ishchining, ozodlik uchun kurashchining o'g'liman.

C. Ortiq avval Avazga, so'ng Turdiga qaradi.

D. U neon chiroqlari bilan yoritilgan katta va salqin zalga kirdi.

E. Boy sevinch va hayajon bilan shoshilib o'rnidan turdi.

9. Qaysi javobda shart gapli qo'shma gap berilgan?

A. Muallim, siz nima desangiz, menga o'sha ma'qul.

B. Kimning bilimi kuchli bo'lsa, uning mulohazalari ham chuqur bo'ladi.

C. Siz bolani xurmat qilmasangiz, bola ham sizni sevmaydi.

D. Maqtashda tantilik qilsam, haqqim bor.

E. Quyosh yashiringan bo'lsa ham, kunduzning yorug'ligi tamom so'nmagan edi.

10. Qaysi javobda uyushiq sifatlovchi qatnashgan?

A. Qarshimizda semiz, serhosil erlar yastanib yotibdi.

B. Ular goh kulib, goh jiddiy suhbatlashishardi.

S. Ra'no bir necha vaqt boyagicha, harakatsiz o'tirdi.

D. Aql' bilan odob egizak.

E. Anvarning pichingiga iltifotsiz turdi.

11. Quyidagi tavsifga mos keladigan gap qaysi javobda berilgan?

Sodda gap, yoyiq gap, aralash tipdagi yoyiq gap, ikki bosh bo'lakli gap.

A. U o'z kasbi bilan hamisha faxrlanardi.

B. Qayiq o'qdek uchib borardi.

C. Tabiat qo'ynida erkin nafas olib o'sganman.

D. Unda-bunda qushlar sayraydi.

E. Yaxshilik yerda qolmaydi, yomonlik unutilmaydi.

12. Qaysi javobda ajratilgan o'rin holi qatnashgan?

A. Patslikdan, daryo tomondan, yoqimli shabada esmoqda.

B. Yakshanbada, dam olish kunida, ishni davom ettirmoqchimiz.

C. Ko'l bo'yida, biz dam olgan qirg'oqda, manzara juda go'zal.

D. Bu yerda odamlar, ayniqsa, xotin-qizlar bir-birini taniydilar.

E. A va S javoblar to'g'ri.

13. Qaysi javobda ajratib ko'rsatilgan so'z birikmalari bitishuv yo'li bilan tuzilgan?

A. Bir vaqtlar Ispaniyada g'alati gazeta nashr qilingan.

Bu gazetaning matni surp datsro'molga bosilgan...

B. Insonning hunari – uning boyligi.

C. Ibodatlarning eng maqbuli odamlarga yaxshilik qilishdir.

D. Inson hayvondan aqli bilan farq qiladi.

E. Oltin olma, duo ol.

14. Qaysi javobda murakkab (ko'p kismli) qo'shma gap berilgan?

A. Yer-suv, o'rmonlar, daryolar, o'tloqlar, ko'llar xalq boyligidir, tabiatga munosabat - xalq mulkiga munosabat. (As.M.)

B. Birov bahorni yaxshi ko'radi, birov kuz manzaralariga maftun, birov bog'larga talpinadi, birov - tog'larga, birovga tong aziz, birovga-shom. (As.M). C. Shahardan qaytib kelib, bir oz dam oldi, keyin o'tirib ishladi.

D. Uzun, qorong'u yo'lakka chiqqach, Unsin dam oldi (O).

E. Yo'lchi qotgan qorni g'arch-g'urch bosib, toza, muz havoni qamrab keza boshladi (O).

15. Qaysi javobda berilgan sodda gaplardan shart ergash gapli qo'shma gap hosil qilish mumkin?

A. O'z darajangga munosib o'rinni bilib o'tir. Bu o'rindan seni hech kim qo'zg'ata olmaydi. B. Bu dunyoda har bir narsa o'zgaradi. Fazilat qonunlari sira ham o'zgaraydi. C. Til va nutq - aloqa quroli. Uning xizmat doirasi keng, hajmi o'lchovsiz. D. Quyosh yashiringan. Kunduzning yorug'ligi tamom so'nmagani edi. E. Bir piyoladan choy ichildi. Datsurxonga fotiha o'qib tarqaldi.

16. Tinish belgilari to'g'ri qo'yilgan javobni aniqlang.

A. - *Sohibaxon, men shoirtabiat odamman, chindan ham hayot shaydosiman*, - dedi Nazir Nazarovich. B. - *Sohibaxon, men shoirtabiat odamman, chindan ham hayot shaydosiman*, - dedi Nazir Nazarovich. C. «*Sohibaxon, men shoirtabiat odamman, chindan ham, hayot shaydosiman*», - dedi Nazir Nazarovich. D. «*Sohibaxon, men, shoirtabiat odamman, chindan ham hayot shaydosiman*», - dedi Nazir Nazarovich.

E. «*Sohibaxon men shoirtabiat odamman, chindan ham hayot shaydosiman*» - dedi Nazir Nazarovich.

17. Darak gap berilgan qatorni toping.

A. *Dushman yuziga kulib boq.*

B. *Dunyoda inson uchun qidirsan topilmaydigan narsa nima?*

S. *Barakali mehnatdan so'ng rohatlanib dam olishi qanday zavqli!*

D. *Aqlli dushman nodon do'stidan yaxshi.*

E. *Do'stlaring sendan yuz o'girsan sababini o'zingdan ko'r.*

18. Shodlik, mamnunlik ma'nosini bildiruvchi his-hayajon gap berilgan qatorni aniqlang.

A. *Tamom umring zoe bo'ldi!*

B. *Yoshi ulug' kishilarni izzat va hurmat qil!*

S. *Hunarsiz kim yetar mol ila taxtga!*

D. *Har qanday hunardan bahramand bo'lish qanday yaxshi!*

E. *Zar qidiruvchi - ozor qidiruvchi!*

19. *Fahmi yo'qning g'ami ko'p bo'ladi.* Ushbu gapda qaratuvchi aniqlovchi qanday so'z bilan ifodalangan?

A. *ibora bilan* B. *otlashgan so'z bilan* S. *modal so'z bilan*

D. *so'z birikmasi bilan* E. *undov so'z bilan*

20. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap qaysi qatorda berilgan?

A. *Do'st shunday kishiki, u o'z do'stidan hech qachon hech narsani ayamaydi.* B. *G'ulomjon shuni fahmladiki, bu joy qizlarning yig'iladigan makoni ekan.* S. *Ma'lum bo'ldiki, Hurinisa qishloqda yashaydigan xolasinikiga ketib qolgan ekan.* D. *Shaftoli shunchalik ko'p hosil qiladiki, shoxlarini ko'tara olmay sinib ketadi.* E. *Siz qayerni xohlasangiz, o'sha yer menga ko'rkam ko'rinadi.*

21. *Uyning ishlari juda ko'p bo'lmasa ham, Zebi charchagan edi.* Ushbu gap ergash gapli qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?

A. *shart ergash gapli qo'shma gap.* B. *sabab ergash qo'shma gap.*

S. *to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap.* D. *payt ergash gapli qo'shma gap.*

E. *aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.*

22. Qaysi qatorda shart ergash gapli qo'shma gap berilgan?

A. *Maqsad aniq bulmasa, hech bir ishni ko'ngildagidek bajarib bo'lmaydi.*

B. *Bahor kelsa, olam gulga burkanadi.* S. *Insonga suv va havo nechog'lik zarur bo'lsa, mehr-oqibat ham shunchalik zarurdir.* D. *Biz tub yangilanishlar jarayonini qanchalik chuqur o'rgansak, qiladigan ishimiz shunchalik aniq bo'ladi.* E. *Kimki halol mehnat qilsa, u mehnatidan baraka topadi.*

23. O'zlashtirma gap berilgan qatorni toping.

A. *Shirin so'zlaringiz va daldangiz uchun rahmat.*

B. *Ishlayotganlar bir-birlariga qarab kulib olishdi.*

S. «*Suv vodiya chopqir otdek kirib boradi*», - dedi Bekbo'ta.

D. *Olimjon Ko'kbuloqdan suv chiqishiga ishonishini aytdi.*

E. *Qo'zlashtirma gap berilmagan.*

24. Boshqaruv usuli bilan birikkan so'z birikmasini aniqlang.

A. *suv ichdi, talabalar bilan gaplashdi.* B. *bahor fasli, xat yozdi.*

- S. qo'l qo'ydi, quloq soldi. D. ishdan keldi, rostdan gapirdi.
E. birdan to'xtadi, do'stning yutug'i.*
25. So'roq gap qanday hosil qiladinadi?
*A. so'roq yuklamalari bilan B. so'roq ohangi yordamida.
S. so'roq olmoshlari yordamida. D. A va B to'g'ri.
E. A, B, S to'g'ri.*
26. Qaysi gapning kesimi tarkibida bog'lama qo'llangan?
*A. Hunarni qadrlamagan och qoladi. B. Serjahlda aql bo'lmaydi.
S. Ehtimol uyda hech kim qolmagandir. D. Hayot eng yaxshi murabbiydir.
E. Javobga shoshilgan kishi xatoga yo'l qo'yadi.*
27. Hol ravish bilan ifodalangan qatorni toping.
*A. Ibn Iroq uning gapidan zavqlanib kuldi.
B. Ko'p yotadigan odamning umrida baraka bo'lmaydi.
S. Unsin Ra'noning gaplarini kula-kula tingladi.
D. Navoiy shiringina yasog'lik uyda tanho ishlar edi.
E. To'dadan ajralgan to'rga tushar.*
28. Yigit, yigitdan nimasi bilan ortiq? - Hushyorligi bilan. Ushbu to'liqsiz gapda qaysi gap bo'laqlari ifodalanmagan?
*A. ega B. kesim. S. ega, kesim. D. ega, kesim, to'ldiruvchi.
E. To'ldiruvchi va kesim.*
29. Qaysi qatorda ikki bosh bolakli gap berilgan?
*A. Mehnat hayot chirog'iga yog' quyadi.
B. Uning kitob o'qib charchamaganiga hayronman.
S. Tuz ichar yringdan yuz o'rma.
D. Ilmni mehatsiz egall bo'lmaydi.
E. Bir tomonga qayrilgan shamni to'g'riladi.*
30. Aqlning alomati kamtarlik, axmoqlikning alomati esa takabburlikdir. Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?
*A. bog'lovchisiz qo'shma gap. B. bog'langan qo'shma gap
S. ergashgan qo'shma gap. D. murakkab qo'shma gap.
E. O'zlashtirma gap.*
31. Aralash tipdagi murakkab qo'shma gapni aniqlang.
*A. Suv o'zgarsa, joy o'zgarsa, o'zgaradi odam ham.
B. Qish kelsa, atrof oppoq qorga burkangach, bolalarning qishki o'yinlari boshlanadi. S. Tog'asi qanchalik qizishsa, Oyqiz o'zini shunchalik bosishga harakat qilardi. D. Men sizga shuni aytmoqchimanki, agar xo'jaligimiz yiriklashsa, uning hisob-kitob ishlari osonlashadi va xalq hayoti farovonlashadi. E. Kishi o'z-o'zini bilsa, qadr-u qimmatini tanisa, u holda uning aqlli ekani ma'lum bo'ladi.*
32. Ritorik soroq gap berilgan qatorni toping.
*A. Ey hokim, sen falon yerda cho'ponlik qilgan kishi emasmisan?
B. Dunyoda sizni jondan aziz ko'rgan kishining yuziga oyoq qo'yishdek og'ir jinoyat bormi? S. Dunyoda sizni qaysi masalalar qiziqtiradi?
D. Nechanchi sinfda o'kiysan, o'g'lim? E. Nega uni hamma shunchalik hurmat qiladi?*
33. Laganbardorning maqtoviga uchgan kishining aql chirogi battarroq xiralashadi. Ushbu gap qanday gap bo'laklaridan tashkil topgan?
*A. aniqlovchi – aniqlovchi- ega –hol-kesim.
B. aniqlovchi – to'ldiruvchi – aniqlovchi – aniqlovchi – ega - kesim.
S. aniqlovchi – ega – to'ldiruvchi - kesim.
D. aniqlovchi - to'ldiruvchi - ega - aniqlovchi - kesim
E. Aniqlovchi - aniqlovchi - ega – hol - kesim.*
34. Ko'kada, bulutlar orasida, to'lin oy so'zadi. Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi ajratilgan?
A. to'ldiruvchi B. aniqlovchi. S. payt holi. D. o'rin holi. E. ega.
35. Chiqish kelishigida kelgan so'zning to'ldiruvchi vazifasida kelishi qaysi qatorda ifodalangan?

- A. Sulstonovning so'zini chin yurakdan quvvatladi.
 B. Badnafslilik kasali ham go'daklikdan boshlanadi.
 S. Qo'rqoqlik dadillikdan qaytaradi.
 D. Sovuqdan Yo'ldoshning oyoqlari zirqiray boshladi.
 E. Uydan xat oldim, sizga ham salom deyishibdi.
36. O'zlashtirma gap berilgan qatorni toping.
 A. «Odamning kimligini libosidan emas, tilidan biling!», - deyiladi Hikmatlarda. B. Bola: «Harakatdan barakat, undan qochar falokat», - deb yo'lga tushishdi. S. Suqrot hakimdan so'radilar: - Eng yaxshi boyluk nima?
 D. «Qodirov bu tadbirlarni yoqlayapti» - dedi Oyoqiz. E. Otalar o'z so'zlarida egri daraxtning soyasi ham egri ekanligini aytishgan.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to'plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
2. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2002, -290 bet.
3. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2011, 260 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Sh.Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.56 B.
6. Sh.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
7. Sh.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 B.
8. Sh.Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –“O'zbekiston” -2017.104 B.
9. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014. -46 b.
11. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
- 8.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
9. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,“Universitet” nashriyoti.
- 10.R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
- 11.U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil.
12. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.
- 13.

Elektron ta'lim resurslari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz

4. www. edu. uz
5. tdpu-INTRANET. Ped
6. Boduen de Kurtene I. A. Izbranno'e trudo' po obshemu yazo'koznaniyu.-M. 1963 g.
7. Ferdinand de Sossyur. Kurs obshey lingvistiki.-Moskva. 1916 g.
8. Baskakov N .A. Vvedenie v izuchenie tyurkskix yazo'kov. 1969.
9. V.M, Solntsev Yazo'k kak sistemno-strukturnoe obrazovanie, - M., 1971.
10. Vilgelm fon Gumbol'dt. Inson tili tuzilishining har xilligi va uning iison naslining ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri. 1959.
11. V.V. Vinogradov. Russkaya grammatika. Moskva. 1962.

Jumanazar Abdullayev
Gulbahor Dushayeva

Ona tili va adabiyot

Dizayner: G. Dushayeva.
Kompyuterda tayyorlovchi: Dushayeva G.
IB№....

Bosishga 12.XII 2018 ruxsat etilgan. Qog'oz bichimi
60X841G'16. Bosma tobog'i 12. Adadi 100 nusxa. Bahosi
kelishilgan narxda. Buyurtma №.....
Manzil: 700800. Guliston sh., 4-mavze, Guliston davlat universiteti.
© "Universitet" bosmaxonasida chop etildi.